

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI**

FALSAFA

O‘quv qo‘llanma

(Barcha bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari uchun)

Toshkent-2019

F.f.d.,prof. Sh.O.Madaeva va boshqalar, Falsafa. O'quv qo'llanma. - Toshkent, 2019.-515 bet.

Ushbu o'quv qo'llanmada falsafa fanining predmeti va ob'ektiga tegishli masalalar ilmiy-uslubiy tizimlashtirilgan holda yoritilgan. Shuningdek falsafiy dunyoqarash va falsafa tarixidagi davrlar, oqimlar, faylasuflar ijodi, qadimgi Sharq va G'arb dunyosidagi falsafiy fikrlarning rivojlanish tarixi, borliq hamda olamni falsafiy anglash va bilish muammolari, olam va odam, inson va jamiyat aloqadorlik munosabatlari, qonuniyatlari tahlil etiladi. O'quv qo'llanma oliy o'quv yurtlari talabalari uchun mo'ljallangan

В настоящем учебном пособии нашли отражение научно-методологические вопросы предмета и объекта философии. Наряду с этим, анализируются закономерности мировоззрения и этапы истории философии, её течения, творчество учёных, философов, история развития философских идей Древневосточного и Западного мира, проблемы понимания и познания бытия и мироздания, отношения мира и индивида, взаимосвязь человека и общества. Учебное пособие предназначено для студентов вузов.

This tutorial reflects the scientific and methodological issues of the subject and object of philosophy. Along with this, the laws of the worldview and the stages of the history of philosophy, its course, the work of scientists, philosophers, the history of the development of philosophical ideas of the Oriental and Western worlds, the problems of understanding and understanding of being and the world, the relationship of the world and the individual, the relationship of man and society are analyzed. The educational guidance is intended for students of higher educational institutions.

Mas'ul muharrir: Falsafa fanlari doktori, professor Sh.O.Madaeva

**Taqrizchilar: Falsafa fanlari doktori, professor I.S. Saifnazarov
Falsafa fanlari doktori, professor G.T. Mahmudova**

KIRISH

Mamlakatimizning ijtimoiy - siyosiy, madaniy va iqtisodiy hayotida amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlar respublikamiz olimlari, faylasuflari va o'qituvchiziyolilari oldiga Vatanimiz bunyodkorligi va taraqqiyoti yo'lida hal qiluvchi hissa qo'shishi lozim bo'lgan yosh kadrlarni tarbiyalash, dunyoqarashini zamonaviy ilm-fan bilan qurollantirish, yurt istiqboli uchun o'z sohasining malakali mutaxassisi bo'lib etishishini ta'minlab berishdek mas'uliyatli vazifalarni qo'ymoqda. Insoniyat tarixining ko'hna qadriyati, ilm-fan tizimining uslubiy asosi, inson ruhiy-ma'naviy, intellektual borlig'ining noyob sarchashmasi bo'lgan falsafa fani ushbu murakkab tarixiy jarayonda yosh avlodning hayotiy maqsad va kasbiy ko'nikmalarini shakllantirishda dastur ul-amal bo'lib xizmat qiladi.

O'zining uch ming yillik tarixi bilan falsafa fani olam va odam, jamiyat va inson, borliq va bilish muammo hamda munosabatlari qonuniyatlarini talabalarimiz bilim, ko'nikmalari orqali real hayotga yo'naltiradi. Katta hayot yo'lidagi murakkab vaziyatlarda falsafa fani bilim va ko'nikmalari masalaning echimini izlash, hodisalardan mazmun va ma'no qidirish, kelajak uchun kuch va ichki quvvat topishga yo'l ko'rsatadi. Qolaversa falsafa demokratik jamiyatning ma'naviy hayotini, mamlakatning siyosiy, iqtisodiy, axloqiy, huquqiy va boshqa sohaları taraqqiyotini belgilovchi muhim omil sifatida taraqqiyotning metodologik strategiyasi vazifasini bajaradi.

Sohaning rivoji uchun falsafiy dunyoqarash asoslarini puxta egallash, olam va inson mohiyatini falsafiy bilish, borliq va bilishning eng umumiy tamoyillarini o'zlashtirish talab etiladi. Falsafiy tafakkur va dunyoqarash buyuk ilmiy kashfiyotlar uchun keng yo'l ochar ekan, ilm-fan, san'at, siyosat tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk olim va daholarning barchasi falsafiy fikrlash malakasi va madaniyatiga ega bo'lganliklari uchun katta yutuqlarga erishganlar. Ularning barchasi o'zlarining ilmiy, axloqiy, siyosiy, huquqiy, badiiy-estetik g'oyalari bilan falsafiy tafakkur rivojiga ulkan hissa qo'shganlar. Ilm-fan, tafakkur tarixi va falsafa hamisha birbirini qo'llab-quvvatlagan. Fan – hozirgi zamonda alohida kasb, ishlab chiqarish, soha mutaxassisligini o'zida namoyon qilsa, falsafa fani bir vaqtning o'zida dunyoqarash, metodologiya va mafkuraviy immunitet sifatida soha egasining shuuriy olamining o'zagini tashkil etishi zarur.

Faylasuf olimlar muallifligi jamoasi tomonidan tayyorlangan ushbu o'quv qo'llanmani respublikamiz oliy o'quv yurtlariga falsafa fanidan o'quv qo'llanma sifatida taqdim etar ekanmiz kelajakda yurtimizning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy, ishlab chiqarish va boshqa jabhalariga soha egalari sifatida boradigan yoshlarimizni kelajak uchun asqotadigan falsafiy bilim ko'nikmalari bilan tarbiyalash, ularda kreativ fikrlash, keng dunyoqarash va ongu tafakkurning potensial imkoniyatlarini kashf etish xususiyatlarini shakllantirish asosiy maqsadimizdir. Zero, yurt istiqbolini belgilashga mas'ul bo'lgan ziyolilar, turli kasb egalarning jamiyatga mas'uliyati, hayotiy prinsiplari falsafiy qadriyatlar-insonparvarlik, yaratuvchanlik, adolat, haqiqat ustunlariga bog'liq bo'lsagina, yangi

tipdagi shaxsni shakllantirish va kamol toptirish masalasi hal etilishi mumkin. Kasbga sadoqat vatanparvarlik, gumanizm, yaratuvchanlik va demokratik tamoyillar bilan ongu shuurdagi tafakkur tarzida uyg'unlashsagina o'zining kutilgan natijasini bera oladi.

Ushbu qo'llanmani tayyorlashda ilmiy guruh masalaga ijodiy yondoshishga, falsafiy fan tarmog'i va har bir mavzuga mutaxassis tajribasidan kelib yachiqqan holda jiddiy yondoshishga harakat qildi. Jumladan, qo'llanmaning "Kirish" qismi va SHarq falsafasiga tegishli 2-mavzu f.f.d., prof. SH.O.Madaeva tomonidan yaratildi, G'arb falsafasiga tegishli 3-mavzu f.f.d., prof. SH.O.Madaeva va yosh tadqiqotchi olim X.I.Toshov tomonidan hammuallifdikda yozilgan. 1- va 4-, 8- mavzular f.f.d., prof. N.A SHermuxamedova tomonidan tayyorlangan. 6-mavzu f.f.d., prof. SH.O.Madaeva va f.f.n., dots Qodirqul Ro'zmatzoda hammuallifligida yaratilgan. Bilish nazariyasiga tegishli 5-mavzu f.f.n., dots. X.P.To'xtaev tomonidan yozilgan. 7-mavzu f.f.n., dots D.A.Po'latova muallifligida yozilgan. Global muammolarning falsafiy masalalari f.f.n., dotsentlar M.I.YOqubova va D.M.Bozorov ilmiy hamkorligida tayyorlangan. Mantiq sohasiga tegishli paragraflar mantiqshunos olimlar f.f.n, dotsentlar M.SH.SHaripov, D.E.Fayzixo'jaevalar tomonidan yozilgan. Falsafaning etikaga tegishli qismi f.f.n., dots. L.A.Muxamadjonovna muallifligida yaratildi. Estetika qismi esa f.f.d., prof. M.A.Nurmatova, f.f.n., dots. B.E.Xusanov hammuallifligida taqdim etildi.

1-mavzu. Falsafa fanining predmeti, mazmuni va jamiyatdagi roli

«Falsafa» atamasining kelib chiqishi. «Falsafa» tushunchasi yunoncha phileo – sevaman va sophia – donolik soʻzlaridan kelib chiqqan boʻlib, donolikka muhabbat manosini anglatadi. Falsafa soʻzini qadimgi yunon mutafakkiri Pifagor miloddan avvalgi VI asrda tayyor holda (afsonalar, rivoyatlar, ananalar orqali) avloddan avlodga oʻtuvchi bilimni inson oʻz aqliga tayanib, mushohada yuritish va tanqidiy fikrlash yoʻli orqali olishi mumkin boʻlgan bilimdan farqlash maqsadida ishlatgan.

Pifagor va qadimgi davrning boshqa faylasuflari donolikka davo ham qilmaganlar, zero, oʻsha davrda keng tarqalgan tasavvurga koʻra, haqiqiy donishmandlik ajdodlardan meros qolgan, asrdan asrga oʻtib kelayotgan afsonalar, din va rivoyatlarda mujassamlashgan. Donishmandlar deb, asrlar sinovidan, eng soʻnggi haqiqat manbai sifatidagi bilimlarga ega boʻlgan bashoratgoʻylar, koinlar va oqsoqollar etirof etilgan. Ularning soʻzlari birdan-bir toʻgʻri deb qabul qilingan. Faylasuf esa, ularning fikriga koʻra donishmandlik muxlisi boʻlishi, eʼtiqod sifatida qabul qilingan tayyor haqiqatlarga emas, balki oʻz aqliga tayanib, ijodiy yoʻl bilan, shuningdek boshqa faylasuflar tomonidan olingan bilimlar va tajribadan foydalangan holda maqsadga intilishi lozim boʻlgan.

Biroq, insonning dunyo va oʻziga bunday munosabati darhol yuzaga kelgani yoʻq. Insonning tabiatga qarshilik koʻrsatish, ishlab chiqarish vositalarini yaratish va koʻpaytirish qobiliyatlari rivojlangunga va oʻsgunga, buning natijasida etarli tajriba va bilimlar toʻplangunga, odamlar aqli koʻp sonli savollarga javob izlash uchun etarli darajada yuksalgunga qadar insoniyat uzoq va mashaqqatli yoʻlni bosib oʻtgan. SHu bois falsafaning mohiyatini, shuningdek uning paydo boʻlish sabablari va sharoitlarini tushunish uchun gapni inson dunyoqarashidan boshlash lozim. Nima uchun? Shuning uchunki, falsafa dunyoqarashning asosiy tarixiy shakllaridan biri hisoblanadi. Falsafa haqida gapirish – inson dunyoqarashi, uning oqilona fikrlash qobiliyati haqida, binobarin, uning mohiyati va Erda hayot paydo boʻlish tarixi haqida gapirish demakdir. Bu erda biz hali kam oʻrganilgan murakkab muammolarga duch kelamiz, zero insonning kelib chiqishi odamlar doim javobini topishga harakat qilgan buyuk jumboqlardan biri hisoblanadi. Ammo bilimning bu sohasida echilmagan muammolar bugungi kunda ham bisyor. Xususan, inson nima uchun, qaerdan, qaysi sabablarga koʻra paydo boʻlgan, degan savolga aniq, umumiy etirof etilgan javob hanuzgacha mavjud emas. Shuningdek, aql faqat insonga xosmi yoki uning inson borligʻida mavjudligi obektiv borliqning bir parchasi, ayrim hodisasimi?, degan savol ham hali oʻz javobini topganicha yoʻq.

Mutaxassislar fikricha, insonda ong paydo boʻlib, ijtimoiy mavjudot sifatida uzil-kesil shakllanganidan beri, uning asosiy xususiyatlarida jiddiy oʻzgarishlar yuz bergani yoʻq, yani u hozirgi odamlardan deyarli farq qilmaydi. Ong paydo boʻlishi esa, ilmiy tasavvurlarga muvofiq, inson tarixiy rivojlanishining odam miyasi oʻsib

borayotgan mehnat faolligi va verbal (nutq orqali) muloqot tasirida o'ta rivojlanib, murakkab mavhumliklarni tushunadigan darajaga etgan davri bilan bog'lanadi. SHunday qilib, inson tushunchalarga tarif berish, mulohazalar bildirish va mushohadalar yuritish yo'li bilan sodda, lekin tom manoda aqliy ish olib bora boshladi.

Dunyoqarashning mohiyati, tuzilishi va funksiyalari. Hayot tajribasi va empirik bilimlar asosida shakllanadigan dunyoqarash oddiy dunyoqarash deb ataladi va insonning dunyo haqidagi tasavvurlarining tizimsiz majmui sifatida amal qiladi. U har qanday dunyoqarashning negizi hisoblanadi va odamlarga kundalik hayoti, faoliyatida yo'l ko'rsatib, ularning xulq-atvori, aksariyat qilmishlarini belgilab, muhim regulyativ funksiyani bajaradi.

Keng manoda, dunyoqarash – insonning o'zini qurshagan borliqqa va o'z-o'ziga nisbatan yondashuvlar tizimi, shuningdek uning mazkur yondashuvlar bilan belgilangan hayotiy ideallari, e'tiqodlari, bilish va faoliyat tamoyillari, qadriyat va mo'ljallaridir.

Shu tariqa tariflanadigan dunyoqarash faqat insonga xos bo'lib, bu unda shakllangan ong va oqilona faoliyat mavjudligi bilan bog'liqdir. Bunda inson nafaqat tushunchalar yaratish va mulohaza yuritish, xulosalar chiqarish va qoidalarni tariflash qobiliyatini kasb etadi, balki tayyor bilimdan yangi bilim olish uchun foydalana boshlaydi.

Dunyoqarashning shakllanishiga ijtimoiy muhit tasir etadi. Aql paydo bo'lishi bilan inson o'zini fikrlovchi mavjudot sifatida anglay boshlaydi, unda o'z «meni» va o'zgalar haqida tasavvuri shakllanadi va rivojlanadi. Shu tariqa u o'zini va o'zini qurshagan borliqni anglaydi, o'zi va boshqa odamlarni, o'zi va tashqi muhitni farqlaydi, ilgari o'ziga malum bo'lmagan dunyoning yangi va yangi jihatlarini idrok etadi. Bunday qarashlar insonning o'zi va o'zini qurshagan borliq haqidagi tasavvurlari majmui sifatida shakllanadigan dunyoqarash negizini tashkil etadi. Bunda inson o'ziga maqul va nomaqul narsalarni farqlaydi, baholar beradi, ustuvorliklar tizimini yaratadi va muayyan maqsadlarga erishishda tegishli tarzda ish ko'radi.

Dunyoqarashning tuzilishi - dunyoni sezish, dunyoni idrok etish va dunyoni tushunish kabi eng muhim elementlardan iborat.

Dunyoni sezish – bu o'zini qurshagan dunyoni sezgilar yordamida hissiy idrok etish bo'lib, bunda tuyg'ular, kayfiyat dunyoni go'yoki ranglarga bo'yaydi, uning obrazini subektiv, sof individual sezgilar orqali aks ettiradi. Masalan, bemor odamga haddan tashqari yorug' bo'lib tuyulishi mumkin bo'lgan nur, sog'lom odam uchun normal bo'ladi; daltonik ranglar gammasini, ko'rish qobiliyati normal bo'lgan odamga qaraganda butunlay boshqacha idrok etadi. Bundan dunyoni sezishning har xil, xususan optimistik, pessimistik, fojeaviy tiplari kelib chiqadi.

Dunyoni idrok etish – bu atrof borliqni ideal obrazlarda tasavvur qilishida namoyon bo'ladi. Dunyoni idrok etish to'g'ri yoki noto'g'ri bo'lishi, yani borliqqa mos kelmasligi mumkin. Bu holda borliq noto'g'ri tasavvur qilinadi yoki illyuziyalar, suv parilari, alvastilar, kentavrlar haqidagi tasavvurlarga o'xshash fantaziyalar paydo bo'ladi.

Dunyoni tushunish – insonning va uni qurshagan dunyoning mohiyatini aniqlash, shuningdek tabiatda yuz beruvchi voqea va jarayonlarning o‘zaro aloqalarini tushunishga qaratilgan aqliy-bilish faoliyatidir.

Dunyoni sezish va qisman (elementar shakllarda) dunyoni idrok etish barcha tirik mavjudodlarga xos bo‘lsa xos bo‘lsa, dunyoni tushunish esa faqat insongaga xos xususiyatdir.

Dunyoqarashda bilish, qadriyatlarga munosabat va xulq-atvorni belgilash funksiyalari mujassamlashadi.

Dunyoqarashning bilish funksiyasi insonda qiziqish uyg‘otuvchi barcha savollarni, shuningdek muayyan javoblarni o‘z ichiga oladi. Bilish odamlar dunyoqarashini boyitadi va kengaytiradi, u jamiyatning rivojlanishiga qarab yanada teranroq va mazmunan boyroq bo‘lib boradi.

Dunyoqarashning qadriyatlarga munosabat funksiyasi – insonning hayotni va o‘zini oliy qadriyat deb hisoblagan holga shakllanadi. Zero, o‘z qadrini bilmagan inson o‘zgaralar qadrini bilmaydi va hayotda o‘z o‘rnini topa olmaydi.

Dunyoqarashning xulq atvorni belgilash funksiyasi – insonda o‘z-o‘zini tarbiyalash, manaviy madaniyatini takomillashtirish va faqat o‘zining manaviy dunyosiga munosib muhit tanlash malakalarini shakllantiradi..

Shu bois, muammolarga nisbatan muayyan tarzda yondashadigan har bir odamning dunyoqarashi, savollari va javoblari doim shaxsiy o‘ziga xoslik bilan ajralib turadi va hech bo‘lmasa shu sababga ko‘ra boshqa odamlar dunyoqarashiga hech qachon o‘xshamaydi.

Dunyoqarashning intellektual, emotsional va ruhiy asoslari uzviy bog‘liq bo‘lib, ular har bir inson uchun mutlaqo muayyan, individual xususiyatlar sifatida amal qiladi.

Intellektual, emotsional va ruhiy asoslar iroda bilan uyg‘unlikda e‘tiqodlar – odamlar faol qabul qiladigan, ularning ong darajasi va hayotdagi mo‘ljallariga mos keladigan qarashlarni yuzaga keltiradi.

Dunyoqarashga subektning yoshi, jismoniy va ruhiy holati, fel-atvori xususiyatlari, odatlari va e‘tiqodlari, shuningdek milliy madaniyat tipi, etnos xususiyatlari va ijtimoiy-madaniy omillar o‘z tasirini ko‘rsatadi. Dunyo haqidagi tasavvurda obektiv va subektiv tomonlarni ajratish ham o‘rinli bo‘ladi.

Dunyoqarashning shakllanishi jarayonida subektning e‘tiqodlari, qilmishlari va harakatlari majmui vujudga keladi. Dunyoqarashda inson va insoniyat o‘zligini namoyon etadi. Dunyoqarash inson xulq-atvori, uning barcha harakatlari va qilmishlari uchun fikrlash maydoni sifatida amal qiladi. Dunyoqarashning mental mezoni sifatida ongda ishonch va e‘tiqod maydonga chiqadi. Dunyoqarash umumiy va shaxsiy ahamiyatga molik mo‘ljal tarzida namoyon bo‘lishi mumkin.

Dunyoqarashda hayotga oid, mifologik, diniy, badiiy, siyosiy, ilmiy qarashlar o‘rin oladi.

Dunyoqarash amaliy va nazariy darajalarda amal qiladi. Dunyoqarashning amaliy darajasi stixiyali tarzda shakllanadi va unda dunyoning manzarasi hayot haqidagi tipik tasavvurlar to‘plami namoyon bo‘ladi. Bu to‘plam kundalik hayotda ayniqsa ko‘p uchraydigan vaziyatlardan, mazkur muhitga xos bo‘lgan ko‘nikmalar,

munosabatlar va odatlardan tarkib topadi. Bunday dunyoqarashga uning egasiga xos bo'lgan kasbiy mo'ljallar ayniqsa kuchli tasir ko'rsatadi. Xulq-atvor reaksiyalari tipining shakllanishida subektning kasb-kori (amaldor, savdo xodimi, ofitser, uy bekasi, shifokor va h.k.) hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Oddiy dunyoqarash egasi dunyoga munosabatning o'z muhitiga ayniqsa xos bo'lgan andozalarini umumlashtirib, ularni harakatlar va qarashlarning o'zgartirish oson bo'lmagan muayyan mezoniga aylantiradi. "Oddiy dunyoqarash" kategoriyasining sinonimlari sifatida "kundalik dunyoqarash", "amaliy dunyoqarash", "noilmiy dunyoqarash" tushunchalari amal qiladi.

Dunyoqarashning nazariy darajasi voqelikning bevosita inikosi emas, balki dunyo haqidagi ideallar va konseptual modellar majmuidir. Aynan ideallar dunyoqarashni – kelajakni shakllantiruvchi va belgilovchi ideal kuch sifatida tavsiflaydi. Nazariy darajaning izchil rivojlanishi insonda amalda mavjud bo'lgan dunyoqarashning boshqa qatlamlarini, xususan mifologik dunyoqarash qoldiqlari yoki kundalik dunyoqarash unsurlarini inkor qilmaydi. Nazariy dunyoqarash asrlar davomida individning ijtimoiylashuvi jarayonining mahsuli hisoblanadi. Bunda individ o'zining voqelikka bo'lgan munosabatida jamiyatdan olinadigan nematlarni bevosita o'zlashtirishdan tarixiy bunyodkorlik va insoniy qadriyatlar mazmunini tushunishga qadar bo'lgan yo'lni bosib o'tadi.

Shunday qilib, dunyoqarashning har bir darajasi inson hayot faoliyatida o'z vazifalarini hal qiladi. Ularning ahamiyati va o'ziga xosligi ham shundadir. Tanqid faqat u yoki bu (diniy, oddiy, pragmatik yoki ssientistik) dunyoqarash universallikni asossiz ravishda davo qilgan holda o'rinli bo'ladi.

Shubha dunyoqarashning muhim elementi bo'lib, u insonni dogmatizm, yani biryoqlama, notanqidiy fikrlash, u yoki bu qoidani shak-shubhasiz haqiqat deb qabul qilishdan asraydi. Dogmatizmning qarama-karshisi skeptitsizm bo'lib, bunda shubha mutlaqlashadi, fikrlashning asosiy omiliga aylanadi, bilish va borliqni idrok etishning bosh tamoyili sifatida amal qiladi.

Dunyoqarashning tarixiy shakllari. Tarixan dunyoqarashning dastlabki shakllari mif va din, falsafa va fan bo'lib, bu hol insoniyat tadrijiy rivojlanishining umumiy mantiqi bilan mushtarakdir.

Mifologik dunyoqarash -turli xalqlarning dunyoning kelib chiqishi, tabiat hodisalari, fantastik mavjudotlar, xudolar va qahramonlarning ishlari haqidagi tasavvurini ifodalovchi muayyan tarzda tizimga solingan dunyoqarashdir. («Mif» tushunchasi yunoncha mythos so'zidan kelib chiqqan bo'lib, afsona, rivoyat degan manoni anglatadi). Mifda bilimlar, diniy e'tiqodlar, manaviy madaniyatning turli elementlari, sanat, ijtimoiy hayot kurtaklari birlashgan bo'lib, shu tariqa ibtidoiy odamlar dunyoqarashi muayyan darajada tartibga kelgan, ularning dunyo haqidagi qarashlari esa qisman tizimga solingan. Mazkur tizimga solishning muhim shakllari epos, ertaklar, afsonalar, rivoyatlar bo'lib, miflar avvalo ular orqali ifodalanadi. Shu tariqa to'plangan bilimlar va tajriba keyingi avlodlarga o'tishi ham taminlanadi.

Mifologik dunyoqarashning o'ziga xos xususiyati shundaki, bu oddiy rivoyat emas, balki og'zaki «muqaddas» matnning arxaik ongda voqea-hodisalarga, insonga va u yashayotgan dunyoga tasir ko'rsatuvchi muayyan borliq sifatidagi

inikosidir. Mifologik dunyoqarashda hamma narsa bir, yaxlit, ajralmasdir; tabiat narsalari va hodisalari inson bilan ayni bir qonunlarga muvofiq yashaydi, inson bilan bir xil sezgilar, istaklar, mayllarga ega bo'ladi.

Mifologik dunyoqarashda olam makon va vaqtda bir vaqtning o'zida chekli va Cheksizdir. Masalan, makon bu erda umumiy Cheksiz makondan va ayni vaqtda katta makonga o'xshash ko'p sonli chekli kichik makonlardan iborat. Umumiy Cheksiz vaqt davriy bo'lib, o'zini katta vaqtga o'xshash kichik vaqtlar sifatidagi o'z sikllarida takrorlaydi. Umuman olganda, mifologik dunyoqarashda katta olam doirasida dunyolarning Cheksiz rang-barangligi yuzaga keladi va har bir dunyo o'z makoni va vaqtiga ega bo'ladi.

Mifologik dunyoqarashga ko'ra odamlar yashaydigan dunyo «barcha tomondan» boshqa dunyolar bilan qurshalgan. Bu dunyolarning o'z aholisi, o'z qonun-qoidalari, o'z maqsadlari bor. Bu dunyolarning hammasi odamlar dunyosi bilan u yoki bu darajada bog'langan. Boshqa dunyolarning ko'pgina kuchlari va mohiyatlari odamlar yashaydigan dunyoga kiradi va insonga faol tasir ko'rsatishi, xususan unga yordam yoki xalaqit berishi mumkin. (bugungi kunda ushbu qarashlarni isbotlash uchun koinotni o'rganmoqda). SHu sababli inson o'zi yashaydigan dunyoda o'z maqsadlariga erishish uchun boshqa dunyolar haqida mumkin qadar ko'proq bilishi va shu dunyolardan kelgan kuchlarga tasir ko'rsatish, ular bilan til topishni bilishi kerak. Bir vaqtning o'zida ham odamlar dunyosida, ham undan tashqarida – bir dunyodan boshqa dunyoga o'tish va har bir dunyoga chetdan nazar tashlash imkonini beruvchi umumiy dunyoda yashashi lozim. SHu sababli inson, dunyoning mifologik manzarasidagi har qanday obekt kabi, ikki tomonga ega bo'lgan asosdir. O'zining bir tomoni («tanasi») bilan inson o'zining kichik dunyosida, boshqa tomoni («joni») bilan u barcha dunyolar o'rtasida yashaydi. Mifologik dunyoqarashda barcha obektlar jonli bo'ladi, shu bois bu erda hatto toshlar bilan ham ehtiyot bo'lib muomala qilish talab etiladi, aks holda ularning g'azabiga duchor bo'lish mumkin. Barcha dunyolar va ularda mavjud mohiyatlar turli dunyolarda amalda bo'lgan har xil qonun-qoidalarga bo'ysunadi. Masalan, daryodan o'tish uchun avval undan ruxsat so'rash kerak, ovchi otgan tosh nishonga tegishi uchun avval tosh bilan kelishish yoki uni o'z xohish-irodasiga bo'ysundirish lozim, aks holda tosh hech qachon nishonga tegmaydi. Daryo, tosh, tog', bulut – bularning hammasi jonli mavjudotlar yoki ularning ko'rinishlari va ularning barchasiga jonli mavjudotlar sifatida yondashish: so'rash, tahdid qilish, jalb etish, xizmat qilish kerak. Insonga tasir o'tkazish uchun bu odam nimadan qo'rqishi va nimani yaxshi ko'rishini, u nimaga sajda qilishi va nimani yomon ko'rishini bilish lozim, shunda unga yaxshi ko'rgan narsasini taklif qilish yoki qo'rqadigan narsasi bilan qo'rqitish, bu odamga tasir o'tkazishga harakat qilish mumkin. Ayni shu harakatlar har qanday dunyoda yashaydigan barcha tirik jonzotlarga nisbatan ham o'rinlidir. Hatto odamlar va boshqa mohiyatlarni boshqaruvchi qonunlar ham tirik mavjudotlarning alohida turi bo'lib, ular bilan ham yo til topish, yo ular ustidan g'alaba qozonishga harakat qilish mumkin. Butun dunyo – rang-barang mavjudotlar o'z maqsadlariga erishishga harakat qiladigan katta jang va kurash maydonidir. Ularning barchasi dunyoning buyuk Qonuni (Qismat)ga bo'ysunadi, biroq bu

Qonunning o'zi ko'p sonli kichik qonun-taqdirlarga bo'linadi, yani har bir mavjudotning o'z qonuni - taqdiri bo'ladi. Qonun-taqdir har kimni muayyan yo'lga boshlaydi va har kim o'z Qismatiga bo'ysunadi. Bu hol toki mavjudot o'z taqdiridan yuksalgunga yoki uni enggunga qadar davom etadi.

Mifologiyada dunyoning mazmuni o'z Qismatini engishdan iborat bo'lib, bu erda ikki yo'l bor. Bir yo'l juda uzoq va ko'pchilik uchun mo'ljallangan bo'lib bu o'z taqdiriga to'la bo'ysunish va uning barcha talablarini bajarish orqali uni engish yo'lidir. Boshqa yo'l qisqa bo'lib, undan kamdan-kam odam borishi mumkin – bu o'z taqdirini engib, yangi, oliyroq taqdirga sazovor bo'ladigan va shu zahoti u bilan ham jangga kirishadigan qahramon yo'lidir.

Mifologiyada aql-idrok va tasavvur ayniydir, deb aytish mumkin. Tushunchalardan xoli aql-zakovat emotsiyalar hukmi ostiga tushib qoladi. SHu sababli dunyoning mifologik manzarasida biron-bir fikrni empirik darajada tekshirish mumkin emas, tabiat hodisalari esa tirik mavjudotning xatti-harakatlariga qiyosan idrok etiladi.

Mifda ota, oqsoqol hukmi va qaror topgan ananalar muhim rol o'ynaydi. Rivoyat va uning mazmuniga nisbatan bunday munosabat zamirida e'tiqod, borliqni bevosita, emotsional idrok etish yotadi. Mifologik dunyoqarash dunyoni yaxlit tushunish bo'lib, unda shubhaga o'rin yo'qdir. Masalan, Zoroastrizm mifologiyasida dunyo yaxshilik xudosi Axuramazda va yomonlik xudosi Axrimanning doimiy ziddiyatida rivojlanadi, Maya qabilalari miflarida Ketsalkoatl Xudosi dunyoning yaratuvchisi. Vikinglar mifologiyasida dunyoning paydo bo'lishi asosida olov va muzlikning to'qnashishi g'oyasi yotadi. To'qnashuv oqibatida Ivir xudosi paydo bo'lib, uning sochlaridan o'simlik dunyosi, tomiridagi qondan daryo va dengiz suvlari, qovirg'asidan ayol, mushaklaridan erkak paydo bo'lgan. (Bu hozirgi davrdagi olamnig yaralishiga oid katta portlash g'oyasi bilan ayniy). Vikinglar mifologiyasi ham ko'p xudolilikka asoslangan.

Qadimgi Misrning borliq suvli xaosdan bino bo'lgani haqida hikoya qiluvchi kosmogonik miflarida ham zoomorfizm izlariga duch kelish mumkin. Unda Xudo u yoki bu hayvon shakl-shamoyilida gavdalantirilgan. Donishmandlik Xudosi – Tot ibis obrazi (issiq mamlakatlarda yashaydigan, laylakka o'xshash uzun oyoq qush) bilan bog'langan, boshi va tumshug'i qushnikiga o'xshash odam qiyofasida tasvirlangan. Bu erda xudoning zoomorf alomatleri antropomorf belgilar bilan birikkan.

Osmon butun tanasi yulduzlar bilan qoplangan sigir sifatida tasavvur qilingan. Bazan u yoy kabi egilib, qo'llari va oyoqlarining barmoqlari bilan erni tutib turgan iloha - Nut obrazi bilan ayniylashtirishgan. Butun Misrda ezozlangan mashhur xudolar to'qqizligi – enneada mavjud bo'lgan. Quyosh xudosi – Ra xaosdan bino bo'lgan Nun bilan ayniylashtirilgan xudo Atum o'z urug'ini yutib, o'zini o'zi urug'lantirgan va so'ng tupurib, dastlabki xudolar – SHu (havo xudosi) va Tefnut (namlik ilohasi)dan iborat juftni yaratgan. Ulardan ikkinchi juftlik – Yer xudosi Geb va osmon ilohasi Nut tug'ilgan. Ulardan Isida va Neftida, Osiris va Set dunyoga kelgan.

Misr mifologiyasida Osiris – tabiatning unumdor kuchlari xudosi va marhumlar dunyosining podshosi. Plutarxning aytishicha, Osiris odamlarni yovvoyi turmush tarzidan chiqargan, ular odamxo‘rlik odatini unutishlariga ko‘maklashgan, ularga don ekish, uzumzor bog‘ barpo etish, non yopish, bo‘za va sharob pishirishni o‘rgatgan. Bundan tashqari u odamlarga qurilish ishi va tabobat mahoratidan ham saboq bergan.

Qadimgi Misr mifologiyasi monistik yoki plyuralistik xususiyatga ega. Chunki misrliklar oliy Mavjudot va Yaratuvchi sifatidagi Xudo bilan bir qatorda xudolar yoki ilohalarning tilga olinishida biron-bir ziddiyat ko‘rmaganlar. Oliy Mavjudot va Yaratuvchi sifatida Quyosh xudosi Ra amal qilgan, unga misrliklar ilk tarixiy davrdayoq sig‘inganlar. Bunda botayotgan Quyosh Atmu, chiqayotgan Quyosh – Xepera, choshgohdagi Quyosh esa – Ra deb atalgan. Bular Quyosh xudosi uch siymosi hisoblangan.

Ammo deyarli har bir qishloq yoki shahar aholisining ham o‘zi yoqtirgan xudolari mavjud bo‘lgan. Bazan odamlar ulardan yuz o‘giranlar va natijada ikkinchi darajali xudolar oliy xudolarga aylanishlari mumkin bo‘lgan. Goho bir xudo atributlari boshqa xudoning atributlari bilan qorishib ketgan. Mahalliy xudolar panteoni o‘ta o‘zgaruvchan bo‘lgan. Mahalliy, oilaviy, milliy xudolardan tashqari unga tabiiy stixiyalar – daryolar, tog‘lar, Yer va osmon xudolari kirgan. Tadqiqotchilar xudolarning mazkur rang-barangligini tushuntirishga harakat qilar ekanlar, qadimgi Misrda bir nechta yirik teologik markazlar mavjud bo‘lgani va ularning kohinlari aynan o‘z xudolarini madh etish va ularning ustunligi g‘oyasini ilgari surish bilan shug‘ullanganlar, deb taxmin qiladilar .

Shuni qayd etib o‘tish lozimki, Tot xudosi mashhur to‘qqizlik – enneadaga kirmaydi, zero u, donishmandlik, yozuv va hisob xudosi sifatida, tabiiy xususiyatlarni emas, balki ma’naviy fazilatlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Uni «xudolar mirzasi» va «Ustalar Ustasi» deb ataganlar.

Xudo Totga biz birinchi marta qadimgi Misr mifologiyasida narigi dunyodagi savol-javob jarayonida duch kelamiz. Bu jarayon tavsifiga «Marhumlar kitobi»ning 125-bobi bag‘ishlangan. Shu narsa diqqatga sazovorki, hamma ishning narigi dunyoda javobi borligiga bo‘lgan ishonch insonning tiriklik paytidagi faoliyati va qilmishlari uchun kuchli motiv sifatida amal qilgan. Qadimgi manbalarda misrliklar o‘lgandan keyin narigi dunyoda qattiq savol-javob bo‘lishini kutganlar. Bunda ularning mayiti mo‘miyolashtirilishi va daxmaga joylashtirilishi lozim bo‘lgan. Narigi dunyoda so‘roqqa tutishni Osiris amalga oshirgan. Bunda eng avvalo psixostasiya, yani marhumning yuragini tarozida o‘lchash amalga oshirilgan. Tarozining bir pallasiga yurak, ikkinchisiga esa – haqiqat (yoki adolat) toshi (tissoli – iloha Maat) qo‘yilgan. Agar tarozining ikki pallasini teng kelsa, marhum oqlangan. Donishmandlik xudosi – Tot tarozida o‘lchash natijasini qayd etgan. Marhumni oqlash «Marhumlar kitobi»ning 125-bobida bayon etilgan «Rad etuvchi istig‘for» vositasida amalga oshirilgan. Unda marhum sodir etmagan gunohlar ro‘yxati keltirilgan. Qadimgi Misrning o‘ziga xos axloq kodeksi sanalgan «Rad etuvchi istig‘for» marhum o‘z yuragi tarozida o‘lchanishi va hukm chiqarilishidan oldin talaffuz qilishi lozim bo‘lgan 42 qoidani o‘z ichiga oladi. Bu qoidalarning aksariyati

hozirgi zamon odami uchun ham ibratlidir. Yuragi yengil tosh bosgan marhumning boshi esa kundaga qo'yilgan va uni gippopotam tishlab tanasidan judo qilgan. Yomon ruhlari «ikki marta o'lganlar» deb atalgan. Demak, haqiqiy iblislar misrliklarga malum bo'lmagan. Ular xudo Set va uning yo'ldoshlari kabi yovuz kuchlarga, shuningdek hali erda daydib yurgan «ikki marta o'lganlar»ga qarshi kurashganlar .

Dafn etilmagan mayitning darbadar ruhi o'z yo'lida turli insu jinslarga duch kelishi mumkin bo'lgan. Ulardan qutulish uchun maxsus duolar va afsunlarni bilish talab etilgan. Dafn marosimining batafsil tavsifi keltirilgan «Marhumlar kitobi» tiriklarga ham foydali bo'lgan. Chunonchi, kitobning «Totga sig'inish» deb nomlangan o'n sakkizinchi bob odam o'lganidan keyin uning ruhi yana Yorug'lik ko'rishiga ko'maklashgan. Tirikligida ushbu bob ro'yxatini yonida olib yurgan odam hech qachon kasal bo'lmagan, yerda o't balosi va boshqa xavf-xatarlar uni chetlab o'tgan. Afsonga ko'ra, Tot kitobi ibodatxonaning ichki xonasidagi tilla qutida saqlangan. Bu qutidan faqat bitta kalit bo'lib, u germetik arkonning vallomati sanalgan Misteriyalar Ustasida turgan. Maxfiy kitobda nima yozilganini faqat u bilgan. Misteriyalar zavol topishi bilan Tot kitobi ham yo'qolgan, sodiq vallomatlar ularni muhrlangan muqaddas qutida o'zga yurtlarga olib ketgan. Ammo buyuk bilimlar faqat maxsus kishilarga berilishi lozimligi qadim zamonlardayoq belgilangan. Buni simbolik tilini maxsus tayyorgarlik va uquvsiz tushunish mumkin bo'lmagan Taro arkonlari ham tasdiqlaydi. Mazkur bilimlar bilan oshno etish xususida qadimgi shiorda shunday deyilgan: «Muxlisni yasash mumkin emas, bunga faqat mehnat bilan erishish mumkin».

Qadimgi misrliklarning xudolarga murojaat etish usuli ham diqqatga sazovordir. Bu usul keyinchalik teurgiya, yani xudolarga buyruq berish yoki hatto ularga tahdid qilish sifatida tavsiflangan. Bunday afsunlar vositasida xudolarga iltijo qilmaganlar, balki ularga amr etganlar, ulardan yordam talab qilganlar. Ba'zan xudolarni yordamga chaqirmaganlar, balki xavf-xatarga nari ketishni buyurganlar va shu tariqa o'zlarini xudo o'rniga qo'yganlar .

Qadimgi Hindiston mifologiyasining asosiy manbasi Rigvedalar Mandallarining 10 ta kitobi va mingdan ortiq gimnlardan iborat bo'lib, u dunyoning paydo bo'lishi haqidagi kosmogonik g'oyalarga asoslanadi (RVdan tashqari yana uchta vedalar: Samaveda, Yajurveda, Atxarvedalar bor). Unga ko'ra olam o'zida hayot urug'iga ega bo'lgan suvdan tashkil topgan. Dastlab olamda na osmon va yer, na kun va tun, yaxshilik va yomonlik, erkak va ayol bo'lmagan. Bunday holat qorong'ilik deb nomlangan va undan yakka narsalar paydo bo'lgan. Rigvedaning boshqa gimnlarida olamdan tashqaridagi olamda Indra xudosi paydo bo'lgan, u olamga Yorug'lik va qorong'ilik, yaxshilik va yomonlik, hayot va o'limni teng kuchli qilib olib kirgan. Boshqa mifda Indra suzayotgan tepalikni (tepalik Yer manosida) yondirgan va suv ustida suzishda davom etgan. Bu jarayonda Indra Vritru ajdahosining qarshiligini bostirgan va natijada suzayotgan tepalik - yerdan suv va olov birligidagi hayot paydo bo'lgan suv to'rtta daryolar, olov esa quyoshdir. Tepalik asta-sekinlik bilan kattalashib Yer shaklini egallagan. Keyin Indra osmonni ko'tarib uni ustun bilan suyagan, shu orqali dunyo daraxti paydo bo'ladi. U osmon

va erni bir-biridan ajratgan va murosaga keltirgan. Dunyoning paydo bo'lishi yangi g'oyalar bilan to'ldiriladi. Xususan, olam xudolar bilan to'ldirilgan va muayyan bosqichda o'z o'rnini tepalikdan paydo bo'lgan devlarga bo'shatib bergan. Asuralardan biri devlar tomonga o'tib u dunyo va bu dunyo oralig'ida vositachiga aylangan va h.k.

Qadimgi yunon mifologiyasiga ko'ra olam dastlab Cheksiz, qorong'i xaosdan iborat. Xaosdan Yer xudosi Geya paydo bo'lgan. U o'z bag'ridagi barcha narsalarning hayot manbai. Erdan juda uzoqda osmon va Cheksiz chuqurlikda abadiy zulmat hukmdori Tartar paydo bo'lgan. Xaosdan hayot va muhabbat manbai Eros paydo bo'lgan. Shu tartibda dunyoda hayot paydo bo'lgan. Cheksiz xaos abadiy zulmat- Erebn va tun-Nyuktuni yaratdi. Tun va zulmatdan abadiy Yorug'lik -Efir va yorug' - kun Gemera paydo bo'lgan. Yorug'lik olamda teng tarqalgan va shu tariqa, tun va kun doimiy almasha boshlagan. Bag'rikeng Yer Cheksiz osmon Uranni yaratgan va u Yer uzra tarqalgan. Uning yonida tog'lar va sarqash dengiz paydo bo'lgan. Barcha narsalarni osmon, tog'lar va dengizlarni ona Yer yaratgan. Biroq ularning otasi bo'lmagan. Osmon-Uran dunyoni egallagan va u Yer-Geyaga uylangan. Uran va Geyaning olti o'g'li va olti qizi bo'lgan. Ularning o'g'li titan Okean va xudo Fetida o'z suvlarini dengizga quyuvchi daryolarni va okeanidlarni yaratganlar. Titan Gepperiod va Teyya dunyoga Quyosh-Geliosni Oy-Selenni va qirmizi ufq Eosni keltirganlar. Astreya va Eosdan qorong'i osmon yulduzlari va shamollar paydo bo'lgan Titanlardan tashqari Geya uchta bir ko'zli sikloplarni va yuz qo'lli gekatonxeyralarni dunyoga keltirgan. Ularning kuchiga hech narsa teng kela olmagan. Uran o'z farzandlarini yomon ko'rib qolgan va ularni Yer qaridagi zulmatga qamab qo'ygan. Geya – Ona Yer farzandlarining iztiroblariga chiday olmagan, Shuning uchun o'g'illarini otasining qaroriga qarshi isyon ko'tarishga davat qilgan, biroq farzandlar otasiga qo'l ko'tarishga qo'rqgan. Biroq eng kichik farzandi Kron ayyorlik bilan o'z otasini taxtdan ag'dargan. Kronning harakatidan g'azablangan xudo-Tun qator xudolarni O'lim –Tanatani, Erida-nifoqni, Apaduyolg'onni, Ker-talon-tarojlikni, Gipnos- turli qo'rqinchli tushlarni, Nemesida- turli jinoyatlar uchun qasosni va shu kabi yomonliklarni o'zida namoyon qiluvchi xudolarni dunyoga keltirgan. Shu tariqada hozirgi kungacha dunyoda yaxshilik va yomonlikning abadiy kurashi xukmronligi davom etmoqda.

Mifologik dunyoqarashda – odamlar o'z dunyolarida yashaydigan va boshqa dunyolarni boshqaradigan ayrim oliy mavjudotlar sifatida qaraladi. Bu xudolar orasida biron-bir eng katta va eng qudratli xudo, masalan, antik mifologiyada Zevs mavjud bo'lishi mumkin, biroq hatto shu xudo ham faqat o'ziga teng xudolar orasida birinchidir. Uni istalgan paytda taxtdan «ag'darish»ga harakat qilish va oliy hokimiyatni boshqa xudo egallashi mumkin. Masalan, Zevs bir paytlar o'z otasi – xudo Kronosni taxtdan ag'dargan, Kronas esa o'z otasi Uranni taxtdan ag'dargan, Shuning uchun Zevsning o'zi ham kimdir uning hokimiyatini egallashga harakat qilmasligi uchun sergak bo'lishiga to'g'ri kelgan. Shu sababli, hatto eng katta xudo mavjud bo'lsa ham, dunyoning mifologik manzarasida yuqorida doim dunyoni boshqarishga ko'p sonli nomzodlar mavjud bo'ladi. Hatto eng katta xudolar ham Qismat hukmi ostida bo'lsalar-da, Qismatning o'zi ham nimalardadir shu xudolarga

bo'ysunadi. Dunyoning vujudga kelishini tariflar ekanlar qadimgi yunon mifologiyasi ham Cheksiz kaos g'oyasiga tayanadi.

Mifologiya (miflar majmui sifatida) qadimgi odamlar dunyoqarashi bilangina uzviy bog'liq emas. Kundalik ongda yashaydigan din, falsafa, siyosat, san'atda aniq-ravshan yoki pardalangan ko'rinishda mavjud bo'lgan miflar bugungi kunda ham (kim uchundir ko'proq, kim uchundir kamroq darajada) odamlar hayoti va ijodida faol rol o'ynab, har qanday inson dunyoqarashining tarkibiy qismi bo'lib qolmoqda. Jamiyatning axborotlashuvi jadal suratlarida o'sib borayotgan sharoitda mif televidenie, radio, vaqtli matbuot, hozirgi saylov texnologiyalari vositasida bazan ijtimoiy ong bilan manipulyasiya qilish, oldindan belgilangan jamoatchilik fikrini shakllantirish vositasi sifatida qo'llanilmoqda.

Diniy dunyoqarash (Din so'zi arabchadan tarjimada e'tiqod, ishonch, ishonmoq degan ma'nolarni anglatadi.) dunyoni mutlaq hokimiyatga ega bo'lgan oliy mavjudot, Xudo boshqaradi degan tasavvurga asoslanadi va shu bilan mifologik dunyoqarashdan farq qiladi. Xudo boqiy va shak-shubhasizdir, u hamma narsani – makon va vaqt, materiya, barcha tirik jonzoatlarni yaratgan. Xudo barcha yaxshi fazilatlarni o'zida mujassamlashtirgan va hamma narsaga qodir. U dunyoni yaxshi ishlar uchun yaratgan, biroq U dunyoga erkinlik ham bergan, yaxshilikka har kim zo'rlik ostida emas, balki o'z ixtiyoriga ko'ra kelishiga imkoniyat yaratgan.

Ammo erkinlik xatolarga, yomonlikka olib kelishi ham mumkin. Bunda yomonlikning yuz berish ehtimoli erkinlik uchun to'lanadigan haq sifatida qaraladi. Shu sababli Xudo erkinlikka erishish yo'lida yomonlikka ham izn beradi.

Xudo materiyani, son-sanoqsiz jonsiz moddalar va tirik mavjudotlarni yaratadi. Inson dunyoning markazida turadi – insondan tubanroq mavjudotlar - hayvonlar, o'simliklar bor, ayni vaqtda insondan yuksakroq mavjudotlar farishtalar ham bor. Biroq barcha mavjudotlar orasida Xudoning tabiatini eng to'liq aks ettiradigan jonzot insondir. Vaqti kelib odamzot dunyoda yaratilgan barcha mavjudotlardan yuksakroqqa ko'tarilishi mumkin. Dunyoda mavjud barcha qonunlar pirovard natijada Xudo xohish-irodasining ifodasidir. Yomonlik – bu mazkur xohish-irodani buzish va ayni vaqtda uni bajarishdir, chunki hech kim va hech narsa Xudoning xohish-irodasiga qarshi borishi mumkin emas. Dunyoda oliy qonun – muhabbat qonuni mavjud. Dunyoda hamma narsani muhabbat harakatga keltiradi, hatto nafrat zamirida ham muhabbatga tashnalik yotadi.

Diniy dunyoqarashda dunyoning maqsad va mazmuni – hammaning hammaga nisbatan umumiy muhabbatiga erishish, biroq bunga yo'l erkinlik hamda yomonlik imkoniyati orqali o'tadi. Xudo muhabbat va yaxshilikka majburlov yo'li bilan erishishni xohlamaydi, U Ilohiy muhabbatni hayotning birdan-bir to'g'ri qonuni sifatida o'zi anglab etishi uchun dunyoga erkinlik bergan. Dunyo buni anglab etgunga qadar maqsaddan ko'p sonli chetga chiqishlar yuz berishi mumkin. Inson hayotining mazmuni – Xudoning xohish-irodasini erkin qabul qilish, o'zidagi muhabbat bilan mushtarak bo'lmagan ko'r-ko'rona erkinlikni engish, erkinlik bilan Xudoning muhabbatini o'zida birlashtirishdan iborat.

Diniy dunyoqarash odamlarning diniy tajribasini umumlashtirish va sintez qilish natijasida yuzaga keladigan tabiatning umumiy xossalari va qonuniyatlari

haqidagi tasavvurlarning yaxlit tizimini tashkil etadi. Diniy dunyoqarash o'zicha borliq va mavjudlikni, yani yaratilgani tufayli borliqqa ega bo'lgan dunyoni farqlashdan kelib chiqadi. Bu farq mazkur yondashuvni tushunish uchun muhimdir.

Borliqning diniy konsepsiyasi ikki yoqlama, yani dual xususiyatga ega, chunki u Xudo bilan ayniy bo'lgan mutlaq, g'ayritabiiy borliqni borliqqa ega bo'lgan tabiiy narsalarning rang-barang dunyosiga qarshi qo'yadi. Mohiyat e'tibori bilan, bu manzara bir-biridan mutlaqo farq qiladigan ikki ontologiya: yaratilmagan borliq ontologiyasi va yaratilgan borliq ontologiyasini nazarda tutadi. Mutlaq borliqni oqilona yo'l bilan tushunish mumkin emas. Dunyoni o'ziga xos jarayon sifatida idrok etuvchi odam aqlning imkoniyatlari Dunyoning alohida diniy manzarasidan kelib chiqib, uni uch jahon dini: buddizm, xristianlik va islomga tatbiqan ko'rib chiqamiz.

Buddaviylik dini dunyoqarashiga ko'ra borliq Cheksiz aylanma oqim mahsulidir. Buddizm mutafakkirlari bu jarayon o'limdan o'limga, qiynoqdan qiynoqqa, sinovdan sinovga solinuvchi inson uchun Cheksiz darajada uqubatlidir deb hisoblaganlar.

Hayotning azob-uqubatlarga to'laligi haqidagi fikrdan qattiq tasirlangan Buddha o'zgarish konsepsiyasini tariflaydi. Hayot – vujudga kelish, shakllanish va yo'q bo'lishlar qatoridan iboratdir. Dunyo o'lishlar va tug'ilishlarning muttasil yangilanuvchi aylanma harakatidir. Hamma narsalar o'zgaradi. Ilohiy narsalar orasida ham, dunyoviy narsalar orasida ham o'zgarmas narsa mavjud emasligiga Buddha tarafdorlarining ishonchi komil. Buddha uchun olov shakllanish, boshsiz va adoqsiz shakllanishning Cheksiz oqimi ramzidir. Dunyo – yuz beruvchi va yo'qoluvchi o'tkinchi, karma bilan bog'langan voqealar oqimi. Faqat harakat mavjud; arboblar mavjud emas, qilmish mavjud; shakllanishdan boshqa hech narsa mavjud emas.

O'zgarmas substrat mavjud bo'lmagan holda dunyoning uzluksiz mavjudligini tushuntirish uchun Buddha sababiyat qonunini e'lon qiladi va uni uzluksizlikning asosiga aylantiradi. Mavjud hamma narsalar sabablar va shartlardan yuzaga keladi va barcha jihatlardan o'zgarmas hisoblanadi. Sababli narsalarning hammasi halok bo'lishi lozim. Dunyoga keluvchi va uyushuvchi narsalarning barchasida yo'q bo'lish tug'ma zarurati mujassamdir. Har qanday substansiya cheklangan bo'lib, uning mavjudligi o'zgarishlarning o'zgarmas ketma-ketligidan iboratdir. Bu o'zgarishlarning har biri oldingi shartlar bilan belgilanadi. O'tgan lahzalar oqimga tortiladi. Sababiy evolyusiyaga harakatlarning mexanik ketma-ketligi sifatida qaralishi mumkin emas. Bu o'tmish hozirni belgilovchi yagona holatdir. Buddizm sababiyatga – o'tmish hozirning taqdirini belgilashiga qattiq ishonadi. Hatto ruhsiz olamning oddiy mexanizmida ham u boqiy koinot qonunini ko'radi. Bu rejasiz ulkan labirintdir. Koinot tartibining g'ildiragi yaratuvchisiz, ma'lum asossiz harakatlanadi va sabablar va oqibatlarining bog'lanishi natijasida abadiy mavjud bo'ladi.

Buddizm oldiga muhim savol qo'yadi: bu uzluksiz harakatni qanday qilib chetlab o'tish mumkin? Buddizm bu dunyo va harakatni kim yaratgan, degan savolni muhim emas deb hisoblaydi va unga javob berishdan bo'yin tovlaydi. Uning

tarafdorlari narsalar o'zgarishini, dunyoda borliq yo'qligi, faqat shakllanish mavjudligini tan oladilar. Narsalar borlig'iga Buddaning befarqligi shu bilan izohlanadi. Inson narsalarga haddan tashqari kuchli bog'langani uchun ham azob chekadi. Inson narsalardan butunlay uzoqlashishi, azob-uqubatlarga giriftor qiluvchi o'tkinchilik va o'zgaruvchanlikka o'rin bo'lmagan holatni izlashi lozim. Inson to'la osoyishtalik va xotirjamlikka faqat nirvana holatida erishishi mumkin. Nirvana so'zi «nirva» - puflash, o'chirish (olovni) felidan kelib chiqqan bo'lib, sifat tariqasida kelganda «g'oyib bo'lgan», «o'lgan», «barham topgan» degan manoni, ot bo'lib kelganda «g'oyib bo'lish», «intiho», «mavjudlikning tugashi», «lazzat», «abadiy osoyishtalik» va nihoyat, qayta tug'ilishning muqarrarligidan qutulish degan ma'noni anglatadi. Nirvanaga erishish osmonga etishdan yuqoriroqdir, bu mislsiz osoyishtalik holatidir. Nirvana sababsizdir, biroq nirvanaga erishishning yo'li, sakkiz o'lchovli yo'li bor. Nirvanaga sof aqlli, hissiy lazzatlanishlardan ozod odam erishadi. Shunday qilib, buddizmga karmani, shakl-shamoyilning o'zgarish qonunini yengishning o'ziga xos axloqiy-kosmik vertikal shakllanadi. Insonning erkin ruhiy faolligi ijodiy asos hisoblanadi. Faol shaxs e'tiborga loyiq birdan-bir borliq sifatida talqin qilinadi.

Buddizmga, bir tomondan, xudolar ham karma oqimida harakatlanadi, boshqa tomondan esa – odamlarga xudo xaloskor sifatida kerak emas, degan xulosa chiqariladi. Buddizmga Xudo va dunyo dualizmi mavjud emas. O'zining rivojlanish jarayonida buddizm oliy manaviy asosni tan oladi. Nirvana Buddha bilan tenglashtiriladi. Buddha axloqiy ideal ramzidan uning shaxsiy tajassumiga, diniy emotsiyalar obektiga aylanadi. Nirvananing kosmik jihati bilan bir vaqtda Buddaning kosmik konsepsiyasi yuzaga keladi. Buddaga sig'inish e'tiqod qiluvchi hayotining oila-nikoh munosabatlaridan boshlab umumiy davlat bayramlarigacha bo'lgan barcha tomonlarini qamrab oladi.

O'zi taklif qilgan panoh topish yo'lining universalligi bilan buddizm diniy tasavvurlarning sezilarli darajada demokratiyalashuviga sabab bo'ldi. Buddizmga yaxshi fazilatlik shartlari tashqi narsalarga bog'liq emas. Insonning kimligi – boy yoki kambag'alligi ahamiyatsiz. Hamma barkamoldir. Faqat halol, to'g'ri hayotgina muhimdir. Buddizm vujudga kelgani zahoti barcha odamlar qaysi tabaqaga mansubligidan qat'iy nazar teng ekanligini elon qilib, tabaqaviy tuzum muxolifiga aylandi. Biroq shaxsning mutlaq erkinligi buddizmning eng muhim tamoyil hisoblangani bois, u insonning dunyo bilan barcha aloqalariga, shu jumladan ijtimoiy-siyosiy aloqalariga ham yomonlik deb qarab, amalda mavjudlik tizimlaridan xalos bo'lishni talab qilmaydi. Dunyoviy narsalardan butunlay uzoqlashish ideali Buddaning eng mutaassib izdoshlarini ijtimoiy tartiblarni takomillashtirishdan voz kechishga olib keladi.

Xristian ilohiyoti Xudoning notabiiy va shaxsiy xususiyati u iroda va qudrat kabi kategoriyalar yordamida qaralishini nazarda tutadi va transsendental Xudo haqidagi talimoti bilan teotsentrizm o'z ifodasini topadi. Bundan xristian kreasionizmining dunyo zarurat taqozosiga ko'ra emas, balki Xudoning erkin irodasiga ko'ra yaratilgan, degan muhim qoidasi kelib chiqadi. Yaralish Xudo tabiatining emas, balki irodasining amalidir. Shunga ko'ra u tabiatdan ajraladi va

uning sababiy omillaridan uzoqlashadi. Xudo dunyoni nima uchun yaratgan, deb soʻrash mantiqsizdir. Xudoning erkin irodasi Uning aqli, irodasi va yaxshi niyati bilan muvofiqlashadi. Shulardan kelib chiqib Xudo dunyoni yaratadi. Dunyo yaratilgunga qadar Xudodan boshqa hech narsa boʻlmagan. Binobarin, u dunyoni «yoʻqlik»dan yaratgan. Biroq «yoʻqlik» qandaydir ijobiy narsa emas; u sof yoʻqlikdir. Yaratilgan narsalarda nimaiki «mavjud» boʻlsa, hammasi Xudodandir. Yetishmagan, «yoʻq» boʻlgan barcha narsalar «yoʻqlik»dir. Dunyoda shakl, goʻzallik va birlikning sababi Yaratguvchidir. Shaklning beqarorligi, birlik va goʻzallikning notoʻliqligi Xudodan ayrilganlikdandir. Yaratilgan barcha moddiy va maʼnaviy narsalarga «oʻtkinchilik» muhri bosilgan.

Xudo dunyoni yaratgan ekan, nafaqat qurilishning umumiy tamoyillarini, balki har bir ayrim narsaning taqdirini oldindan biladi va belgilaydi. Yaratish uchun moʻljallangan narsaning ilohiy gʻoyasi uning toʻla individual tushunchasi boʻlib, unda narsaning oʻtmishi va kelajagi hozirda berilgandir. Ilohiy niyatda barcha gʻoyalar mutlaqo mushtarakdir. Yaratiluvchi narsalar uchun gʻoyalar ularni yaratish andozalari, ularning borligʻi asoslari va sabablari sifatida amal qiladi.

Yaratilgan olam tartibi uni yaratgan hikmatning tartibini aks ettiradi: narsalar tartibi gʻoyalar tartibining inʼikosidir. Tartib tufayli dunyo oʻz oʻrinlari boʻylab taqsimlangan va har xil nisbiy qimmatga ega boʻlgan mavjudotlarning tartibga solingan ierarxiyasiga aylanadi. Yaratilgan narsa Xudoga qancha yaqin boʻlsa, u shuncha koʻproq qimmat kasb etadi. «Zero qandaydir tarzda mavjud boʻlgan, biroq uni yaratgan Xudo uchun boʻlmagan narsalar qatorida jonli jonsizdan yuqoriroq. Tirik mavjudotlar orasida esa sezuvchilar sezmaydiganlardan ustun turadi, xuddi, masalan, hayvonlar oʻsimliklardan ustun turganidek. Sezuvchilar orasida esa aqllilar aqlsizlardan ustun turadi, xuddi odamlar tabiat tartibiga koʻra boshqa jonzotlardan ustun turganidek», deb yozadi Avgustin¹.

Shunday qilib, ilohiy tartib dunyosi xristianlikda Xudo yaratgan jonzotlarning yuksalib boruvchi zinapoyasidan iboratdir.

Yuqorida taʼkidlab oʻtilganidek, kreatsioonizm xristian ilohiyotchilarini dunyoda tartib, uygʻunlik va goʻzallikni koʻrishga davat etgan. Biroq insonga dunyoda koʻp narsalar aqlga nomuvofiq boʻlib koʻrinadi. Dunyoda tartibsizlik va yomonlikning mavjudligi uchun Xudoni qanday oqlash mumkin? Bu muammo sof nazariy xususiyat kasb etmagan. Taqvodor xristianlar dunyoviy va ilohiy dunyo oʻrtasida tubsiz jarlikni his etganlar. Shu bois Xudoni oqlash masalalariga xristianlik koʻp etibor beradi. U Xudoni oqlashning ikki yoʻlini taklif qiladi. Birinchi yoʻl – metafizik teoditseya. Garchi dunyoni barkamol Yaratuvchi yaratgan boʻlsa-da, u xususan insonni erkin qilib yaratgan; yomonlik jonzotning shu erkinligidan kelib chiqadi. Yomonlik va nuqson Xudodan emas, balki jonzotdandir. Ikkinchi yoʻl – estetik teoditseya dunyo va insonni, dunyoning barkamolligi va inson idrokining nomukammalligini qarama-qarshi qoʻyishga asoslanadi. Ilohiyotchi olimlar fikriga koʻra, inson dunyoda yaxlitlikni qamrab olishga qodir emasligi tufayli tartibsizlik va yomonlikni koʻradi. Rang-barang boʻyoqlarga boy suratning bir qismiga nazar tashlab, uning goʻzalligi va manosi haqida hukm chiqarish mumkin boʻlmaganidek, ayrim voqealar va tasodiflarga baho berib dunyoni tushunish mumkin emas. Hatto

yomonlik bo'lib tuyulgan narsa ham amalda umumiy tartibga, yani insonning foydasiga xizmat qiladi.

Estetik teoditseya tabiiy tartib g'oyasiga olib keladi. Eng o'ziga xos va g'ayrioddiy voqealar tizim nuqtai nazaridan tabiiy xususiyat kasb etadi. Xudo yaratgan narsalarning birortasi ham tabiatga zid emas, chunki uning uchun tabiat U yaratgan narsadir. Faqat mavjudligini hamma oddiy va tabiiy deb etirof etuvchi dunyo va insonning yaratilishini chin mo'jiza deb hisoblash mumkin.

Xristiancha diniy dunyoqarash tabiatda yuz beruvchi barcha narsalarning tabiiyligi ilohiy g'oyalarning azaliy muvofiqligi bilan izohlanadi. Yaratilgan tabiat o'z qonunlarini Xudodan oladi. Shu manoda tabiat qonunlarining buzilishi ilohiy hukmning buzilishini anglatadi.

Xudo dunyoni uzluksiz boshqaradi, degan qoida xristiancha diniy dunyoqarashning universal tamoyili hisoblanadi. Kosmologiyaga nisbatan tatbiq etilgan holda bu tamoyil dunyoning uyg'unligi va unda yuz berayotgan voqealarning anglab etilganligi g'oyasiga olib keladi.

Inson hayoti iloh bilan muvofiqlikdagina, insoniyat tarixi esa – ilohiy panoh belgisi ostidagina mano kasb etadi. Shu tariqa monoteizm (yakkaxudolik)ning ko'rinishi islom paydo bo'ldi.

Islom dini dunyoqarashi. Islom dini madaniy-tarixiy rivojlanishda keyinchalik avvalgi «dialektik» asoslarga qaytib, aristotelizmga ham, so'fizmgga ham erishdi.

Islom dinining o'ziga xosligi to'g'risida so'z yuritishdan oldin uni xristianlik bilan bog'lovchi jihatlarga to'xtalib o'tish o'rinli bo'ladi. Islom ko'p jihatdan xristian dinining monoteizm yoki yakkaxudolik g'oyasi arablar ongida qayta ishlanishi natijasida yuzaga kelgan. U yagona transsendent Xudo - Allohga e'tiqod qiladi. Alloh dunyo va insonni yaratdi, odamlarga vahiy yubordi, dunyoni tasarruf etadi va unga qiyomat sari yo'l ko'rsatadi. Qiyomatda tiriklar ham, tirilganlar ham o'z qilmishlari uchun javob beradi. Islom va xristianlik o'rtasidagi farq - bu mazkur din asoschilarining so'zlari va qilmishlaridagi farqlardir. Xristianlik asoschisi muvaffaqiyatga erishmagan va «bandaga xos o'lim» bilan halok bo'ldi. Bu o'lim uning asosiy qilmishi bo'ldi. Bu erda aniq, tashqi muvaffaqiyat qancha kam bo'lsa, din asoschisi qilmishi – o'lim ustidan g'alaba, insoniyat gunohlarini yuvish, o'ziga e'tiqod qiluvchilarga boqiy hayot hadya etishning miqyosi shuncha keng bo'lishi lozim. Din asoschisi shaxsining miqyosi ham o'z shogirdlari ongida kengayib boradi. Bunday qilmish sodir etgan odam emas. U – Xudo.

Muhammad payg'ambar obrazi va uning qilmishlari Iso Masih va uning qilmishlaridan ancha farq qiladi. Muhammad payg'ambar orqali Alloh taolo gapiradi. Biroq ayni vaqtda u oddiy hayot kechirgan «normal odam». Muhammad payg'ambar erishgan muvaffaqiyat uning aytganlari Alloh so'zlari ekanligi, Allohning o'zi unga yo'l ko'rsatganligining dalilidir. Muhammad payg'ambarning nutqi Iso Masih nutqidan farq qiladi. U faqat «vahiy»ni ifodalovchi, gavdalangan Xudo emas, balki «Xudoning vositasi», payg'ambardir.

Asoschilar shaxsi, hayotining har xilligi, ularning vazifasi har xil anglanishi ular yaratgan dinlardagi farqlarning asosiy elementlaridir. Din asoschilarining Xudo bilan munosabatlari va ularning vazifasi har xil anglanishi Xudo haqidagi

tasavvurdagi farqlarni ham belgilaydi. Xristianlikda ham, islomda ham Xudo bir va yagonadir. Biroq xristianlikning monoteizmi chorcho'pga mixlangan odam – Xudo ekanligiga ishonch bilan uyg'unlashadi va bu Muqaddas uchlik (troitsa) haqidagi talimotda o'z aksini topadi. Bu erda monoteizm, Xudo va uning banda bilan munosabatlarida inson aqli anglay olmaydigan, unga zid bo'lgan va faqat e'tiqod predmetini tashkil etishi mumkin bo'lgan jumboq namoyon bo'ladi. Islom monoteizmi – xristianlikdagi jumboqlardan xoli bo'lgan «sof» yakkaxudolik. Quroni karimda Allohning yagonaligi aniq qayd etilgan. Allohga teng jonzotlarning mavjudligini tan olish islomga qarshi eng katta jinoyatdir.

Xudo haqidagi har xil tasavvurlar insonga nisbatan har xil qarashlar bilan uzviy bog'liq. Xristianlikda insonni «Xudo o'ziga o'xshatib yaratgan», biroq Odam atoning dastlabki gunohi inson tabiatini «buzgan», natijada Xudo uni yuvish uchun qurbonlik keltirishga majbur bo'lgan. Islomda inson haqida boshqacha qarashlar amal qiladi. U insonni Xudo o'ziga o'xshatib yaratgan deb hisoblamaydi, biroq u odamni «buzuq» deb ham bilmaydi. Inson «buzuq» emas, balki zaifdir. Shu sababli u gunohlar uchun tavba qilishga emas, balki Xudoning yordami va yo'l boshchiligiga muhtojdir. Alloh Quroni karim orqali unga to'g'ri yo'l ko'rsatadi.

Inson haqidagi tasavvurlarning har xil tizimlari axloqiy qadriyatlarning ham har xilligini nazarda tutadi. Xristianlikda e'tiqod insonga qattiq mehr qo'yib, uning uchun chorcho'pda azob-uqubatlarga dosh bergan Xudoga muhabbat bilan uzviy bog'liq. Islom ham e'tiqodni nazarda tutadi, biroq bu boshqacha e'tiqod. «Islom» so'zining o'zi bo'ysunish, itoat etish degan manoni anglatadi. Biroq bu oddiy bo'ysunish, itoat etish emas, balki o'zini Alloh irodasiga topshirishdir. Bu erda e'tiqod chorcho'pga mixlangan Xudo jumbog'iga ishonish emas, balki Allohning payg'ambar orqali Quronda berilgan ko'rsatmalariga bo'ysunishdir. Bu ko'rsatmalar odamlar uchun aniq va tushunarlidir. Ular oz sonli va og'ir bo'lmagan (shu sababli qat'iy bajarilishi lozim bo'lgan) ibodat qoidalari va nikoh, ajrashish, meros, jinoyat uchun jazo masalalariga doir huquqiy meyorlarga tegishlidir. Diniy talablarning soddaligi islomning ilohiy belgilanganlik haqidagi fundamental g'oyasidan kelib chiqadi. Alloh o'z rejalariga muvofiq ish ko'radi va hamma narsani, hatto eng ahamiyatsiz voqealarni ham belgilaydi. Ilohiy qismatning muqarrarligi, insonning biron-bir amali o'z-o'zidan yuz bermasligi quyidagi misol bilan ko'rsatiladi. Inson qalam bilan yozayotgan ekan, bu aslo uning amali emas, zero amalda Alloh bir vaqtning o'zida to'rt amal: 1) qalam bilan yozish istagi; 2) qalam bilan yozish qobiliyati; 3) qo'l harakati; 4) qalam harakatini yaratadi. Bu amallar bir-biri bilan bog'liq emas va ularning har biri zamirida Allohning Cheksiz irodasi yotadi.

Islom dinining xususiyati dunyoning diniy modeli musulmonlarning ijtimoiy-siyosiy hayotidan mustahkam o'rin olishini nazarda tutadi. Bu tizim xristianlik tizimidan mustahkamroqdir. U yangi, nodiniy sivilizatsiyaga o'tish uchun zamin yaratmagani ayni shu holat bilan izohlanadi.

Umumiy holda diniy dunyoqarash odamlarning g'ayritabiiy narsalar (xudolar, «oliy aql», qandaydir absolyut va sh.k.)ga bo'lgan e'tiqodiga asoslanuvchi tegishli xulq-atvori va o'ziga xos harakatlaridir.

Agar mifologiyada ananaga, rivoyat qiluvchining, yani oqsoqolning obro'siga e'tiqod kuchli bo'lsa, dinda g'ayritabiiy narsalarga e'tiqod birinchi o'rinda turadi, oliy kuchlar nomidan rivoyat qiluvchi ruhoniylar obro'si esa ikkinchi darajali rol o'ynaydi.

Xullas, din murakkab manaviy tuzilma va ijtimoiy-tarixiy hodisa bo'lib, unda e'tiqod muqarrar tarzda birinchi o'ringa qo'yiladi va hamisha bilimdan ustun turadi.

Dinning asosiy funksiyalari. Mif bilan taqqoslaganda, din funksiyalari murakkabroqdir. Din funksiyalari orasida quyidagilarni farqlash mumkin:

- dunyoqarashni shakllantirish funksiyasi butun borliq qachon va nima uchun paydo bo'lgan va bunda g'ayritabiiy kuchning roli qanday namoyon bo'lgan, degan savollarga javob beradi;

- kommunikativ funksiyasi muloqot va shaxslararo aloqalarning muayyan tipini taminlaydi, jamiyatning jipslashuvi va yaxlitligiga ko'maklashadi;

- tartibga solish funksiyasi odamlar xulq-atvorini tartibga soluvchi tegishli meyorlar va qoidalarni belgilaydi;

- kompensatorlik funksiyasi etishmayotgan axborot, diqqat-etibor, g'amxo'rlik o'rnini to'ldiradi, hayot manosi, istiqbollari va shu kabilarning yo'qligini sezdirmaydi, yani insonning kundalik hayotda qondirilmagan ehtiyojlari o'rnini to'ldiradi.

Dinning asosiy ildizlari. Din qonuniy hodisa sifatida vujudga kelgan bo'lib, u insonning g'ayritabiiy narsalar va hodisalarga bo'lgan e'tiqodini to'yintiruvchi chuqur ildizlarga egadir.

Dinning psixologik ildizi avvalo inson tabiatida mavjud bo'lib, u inson intellektining rivojlanish darajasi va tanqidiy fikrlash qobiliyatidan qat'iy nazar, nafaqat tushunish, anglash, balki e'tiqod qilish istagi va hattoki ehtiyojining hamisha namoyon bo'lishidir.

Dinning gnoseologik ildizlari oqilona bilim nuqtai nazaridan dunyo o'z rang-barangligida insonga Cheksiz murakkab bo'lib tuyulishida namoyon bo'ladi. Forobiy fikricha "Din nazariy va amaliy qonunlar tuzilgan paytdagina odamlar e'tiqodi, talimi tarbiyasi yo'llari ishlab chiqilgandagina paydo bo'ladi va mustahkamlanadi. Ana shunday din tufayli omma baxt saodat uchun etarli bilim olishi mumkin".¹ Odamzot o'zini qurshagan borliqni faqat qisman anglab etadi. Ayni shu sababli olam inson uchun sirlar va mo'jizalarga to'ladir. Odamzot o'zi e'tiqod qiladigan ko'p narsalarni faqat aqlga tayanib isbotlashga ham, rad etishga ham qodir bo'lmaganidek, yuqorida zikr etilgan sirlar va mo'jizalarga javob topishga ham (balki hozircha) qodir emas. Psixologlar qayd etganidek, «o'ta mushkul vazifa aqlni o'tmaslashtiradi», inson echimsiz muammolar qarshisida o'zini ojiz his qiladi va aql dalillarini uydirma, g'ayritabiiy narsalar bilan osongina to'ldiradi.

Dinning ijtimoiy ildizlari jamiyatda doimo mavjud bo'lgan tengsizlik, qashshoqlik va adolatsizlikni, odamlar qancha urinmasin o'zgartira yoki engi olmaganligi bilan bog'liq. Adolatsizlik va foni duniyoning nomukammalligi tuyg'usi chorasizlik va umidsizlikni yuzaga keltiradi, so'nggi zikr etilgan tuyg'ular osongina u dunyoda hayotning mavjudligiga bo'lgan ishonchga aylanadi.

Vaholanki, har qanday din haqiqiy hayot u dunyodadir, deb o'rgatadi. Muammolar, qiyinchiliklarga duch kelgan va real hayotda o'ziga tayanch topa olmagan inson g'ayritabiyy kuchlarga umid bog'lab, narigi dunyoga murojaat etadi. Ularga e'tiqod qilib, odamzot taskin, tasalli topadi va oxir-oqibatda taqdirga tan beradi.

Dinning siyosiy ildizlari turli siyosiy kuchlarning dindan o'z mayda-chuyda manfaatlarida foydalanish imkoniyati va shu tariqa uni bevosita yoki bilvosita qo'llab-quvvatlashi orqali, uning jamiyatdagi roli va tasirini kuchaytirishida namoyon bo'ladi. Shu manoda din va siyosat o'rtasida ham uzviy va doimiy aloqa mavjud.

Dinning yashovchanligi shu darajada mustahkamki, hatto hozirgi zamon fanining muhim yutuqlari ham uning negiziga putur etkaza olgani yo'q, ilmiy bilimning o'sishi esa hatto olimlar orasida ham dindorlar va Xudoga ishonmaydiganlarning foiz nisbatini deyarli o'zgartirmaydi. Masalan, tabiatshunoslik insoniyatga dunyoni bilish borasida Cheksiz imkoniyatlar yaratayotgani keng etirof etilgan 1916 yilda Jeyms Lyuba o'z tadqiqotlarida AQSH olimlarining 40% Xudoga ishonishini asoslagan. 90-yillarning oxirida amerikalik tarixchilar E.Larson va I.Uitxem tomonidan o'tkazilgan yangi tadqiqotlarda XX asrda amalga oshirilgan buyuk kashfiyotlar va fan yutuqlari tasirida olimlar dunyoqarashi qay darajada o'zgarganini aniqlashga qaror qildilar. SHu bois ularning AQSH da tasodifiy tanlangan ijtimoiy fanlar namoyandalari va tabiatshunoslik vakillari orasida o'tkazgan so'rovi olimlarning 40% avvalgidek Xudoga va narigi dunyoda hayot mavjudligiga ishonishini ko'rsatdi. Bunda Xudoga ishonmaydiganlar va ateistlar (Xudoning borligini inkor etuvchilar) soni ham deyarli o'zgargan emas va bugungi kunda, avvalgidek, taxminan 45 va 15% ni tashkil etadi.

Davr, mamlakatlar va qit'alardan qat'iy nazar, diniy dunyoqarashning yashovchanligi haqidagi umumiy xulosa O'zbekistonda ham mavjud. XX asrda qariyb 80 yil dinni «fosh qilish» uchun mavjud barcha dalillardan foydalangan kurashchan ateizm sharoitida yashagan O'zbekistonliklar orasida mamlakat aholisining uchdan ikki qismi o'zini dindor deb hisoblagan.

Diniy e'tiqodlarning tarixiy shakllari. Insoniyat tarixiga ko'p sonli turli-tuman dinlar malum. Xususan, madaniyat va bilimlar darajasi juda past bo'lgan inson o'ziga qudratli, yot va sirli bo'lib tuyulgan tabiatning favqulodda kuchlariga qarshilik ko'rsata olmagan ibtidoiy jamoa davrida dinning ancha sodda shakllari: fetishizm, animizm, totemizm, magiya va boshqalar yuzaga kelgan.

Fetishizm u yoki bu predmetni mo'jizakor xislatlarga, odamlar hayotiga tasir ko'rsatish qobiliyatiga ega deb hisoblaydi. Bunday predmet ilohiylashtiriladi, sig'inish va topinish obektiga aylanadi.

Animizm (lot. anima – jon) – nafaqat odamlar, balki hayvonlar, predmetlar va borliq hodisalarini ham ruh, jon boshqarib turishiga ishonishdir. Animizm nuqtai nazaridan butun dunyo ruhli va jonli.

Totemizm negizini muayyan odamlar guruhining totem, yani sig'inish obekti sanalgan ajdod deb elon qilinadigan u yoki bu hayvon, o'simlik, predmet bilan umumiy kelib chiqishiga bo'lgan ishonch tashkil etadi, zero totem mazkur jamoa yoki urug'ning qudratli homiysi, himoyachisi hisoblanadi, uni oziq-ovqat va shu

kabilar bilan taminlaydi. (Hindistonda Xonumon maymuni, sigir, Avstriyada kenguru, turli qabilalarda u yoki bu ilohiy predmet)

Magiya (yunon. mageia – sehrgarlik) ham ibtidoiy din shakllaridan biri bo‘lib, tabiatning okkult kuchlarini va Koinot qonunlarini ularni buzmasdan, binobarin, tabiatga zo‘rluk qilmasdan teran bilishdir. E.Blavatskaya qayd etishicha, «magiya» so‘zi tabiat haqidagi oliy bilimni va uni o‘rganishni, uning yashirin kuchlarini, har bir elementning negizini belgilovchi sirli, okkult qonunlarni teran tushunishni anglatadi. Bu so‘z qadimgi Oliy koinot unvonidan kelib chiqqan bo‘lib, ularni Maxa, Maglar yoki Maginlar deb, zarosizm izdoshlarini esa – Magistrlar («Meh ah») o‘zagidan - «buyuk, biluvchi, dono») deb ataganlar. Magiya deganda qadimda «yorug‘likka sig‘inish» sifatida mashhur bo‘lgan ibodatxonadan tashqarida sig‘inishni yoki jaholat va riyoning ziddi sifatidagi ilohiy manaviy donishmandlikni tushunganlar. Magiya va afsungarlik oddiy odamning kundalik hayotdagi ongi va tafakkuridan yuksakroq darajadagi ong osti sohasiga bog‘liq bo‘lgan va ruhiyatning botiniy qismi bilan ish ko‘rgan. Magiyani insonning yashirin qobiliyatlaridan foydalanish haqidagi fan yoki talimot deb nomlash mumkin. U ko‘p jihatdan intuitsiyaga asoslanadi. Zero intuitsiya insonning ko‘rish yoki eshitish qobiliyatidan ko‘proq darajada informativ xususiyatga ega. Energiya oqimlarining qutbliligi tufayli magiyada ikki mo‘ljil – oq va qora magiya haqida gapirish odat tusini olgan. Qadimgi afsonalarga ko‘ra, inson gunoh qilganidan so‘ng dunyoviy jism kasb etganidek, maxfiy bilimlarni o‘z ichiga olgan ilohiy fanlar ham ularning transsendental mohiyatini ko‘zdan yashiruvchi qattiq qobiqqa o‘raldi. Shu tariqa alximiya kimyoga, astrologiya astronomiyaga aylandi.

Dinning ushbu qadimgi shakllari keyingi diniy e‘tiqodlar negizini tashkil etdi va politeizm (ko‘pxudolik)da ham, monoteizm (yakkaxudolik)da ham u yoki bu darajada o‘z aksini topdi. Ular hozirda ham qisman mustaqil holda mavjuddir.

Taxminan 10 ming yil muqaddam, inson chorvachilik va ziroatchilik bilan shug‘ullanib, o‘troq hayot kechirishga o‘tgach, neoletik inqilob yuz berdi. Jamiyat rivojlanishining ayni shu bosqichida politeizm yuzaga keldi, chunki mehnatning ijtimoiy taqsimoti, hukmronlikka bo‘ysunish ruhlar va sanamlarga bo‘lgan ishonchga emas, balki xudolarga bo‘lgan e‘tiqodga ko‘proq mos kela boshladi.

Keyingi davrlarda davlatchilikning vujudga kelishi va rivojlanishi, qadimgi buyuk madaniyatlarning paydo bo‘lishi, quldorlik munosabatlarining shakllanishi, monarxiyalar tashkil topishi va shundan kelib chiqadigan yakkaboshchilikning yuzaga kelishi natijasida diniy dunyoqarashda ham bir xudoga sig‘inish tendensiyasi paydo bo‘ldi. Odamlar ko‘p sonli xudolar orasida kuch-qudratda yagona bir xudoni farqlab, shu tariqa dunyoviy podsho hukm suruvchi real hayot haqidagi o‘z tasavvurlarini yagona va qudratli xudo yashaydigan narigi dunyo bilan go‘yoki muvofiq holatga keltirdilar. Shu tariqa monoteistik dinlar (yunon. mono – bir va theos – xudo): iudaizm (mil. av. VII asr), buddizm (mil. av. VI-V asrlar), xristianlik (I asr) va islom (VII asr) vujudga keldi. Xullas, har bir din ma‘lum falsafaga asoslanadi.

Haq dinning asosi to‘g‘ri (analitik) falsafadir, haq bo‘lmagan dinning asosi esa yolg‘on falsafadir, yoki yolg‘on muhokamalar ustiga qurilgan qarashlardir.

Falsafiy dunyoqarash. Taxminan 3000 ming yil muqaddam dunyoqarashning uchinchi shakli –falsafa paydo bo‘lishi uchun zarur shart-sharoit Evropa va Osiyoda deyarli bir vaqtda yuzaga keldi. Dunyoqarashning avvalgi shakllari – mif va dindand farqli o‘laroq, falsafa dunyoni e’tiqod va tuyg‘ularga tayanib emas, balki aql va bilimlarga tayangan holda tushuntiradi.

Falsafa Hindiston, Xitoy, Markaziy Osiyo va qadimgi Yunonistonda taxminan bir vaqtda avvalo dunyoni oqilona anglash usuli sifatida vujudga keldi. Bu vaqtga kelib mif va din o‘zlarining tayyor va uzil-kesil javoblari bilan insonning bilimga nisbatan tinimsiz kuchayib borayotgan qiziqishini qondira olmadi. Shuningdek ular sezilarli darajada o‘sgan va murakkablashgan tajriba va bilimlarni umumlashtirish, tizimga solish va avlodlarga qoldirish vazifasining ham uddasidan chiqolmay qoldi.

Taniqli nemis faylasufi Karl Yaspers fikricha, bu davrda (uni faylasuf «dunyoviy vaqt» deb ataydi) insoniyat o‘z rivojlanishida katta burilish yasagan. Osoyishtalik va barqarorlik ruhi bilan yo‘g‘rilgan mifologiya davri nihoyasiga etdi, oqilonalik va oqilona tekshirilgan tajribaning mifga qarshi kurashi natijasida u asta-sekin chekina boshladi. «Jahon tarixi o‘qini taxminan miloddan avvalgi 500, 800 va 200 yillar oralig‘ida yuz bergan manaviy jarayon bilan bog‘lash o‘rinli bo‘lsa kerak, - deb yozadi K.Yaspers. – Shu davrda tarixda eng katta burilish yasaldi. Hozirgi tipdagi inson va ilk faylasuflar paydo bo‘ldi. Inson ayrim individuum sifatida o‘z-o‘zida tayanch izlashga jurat etdi. Xitoy zohtlari, Sharq mutafakkirlari, Hindiston tarki dunyochilari, Yunoniston faylasuflari va Isroil avliyolari e’tiqodi o‘z talimotining mazmuni va ichki tuzilishiga ko‘ra bir-biridan qay darajada farq qilmasin, o‘z mohiyatiga ko‘ra yaqindir. Endi inson botiniy darajada o‘zini dunyoga qarshi qo‘yishi mumkin bo‘ldi. Inson o‘zida unga dunyodan va o‘z-o‘zidan yuksakroq ko‘tarilish imkonini beruvchi ichki salohiyatni kashf etdi»¹.

Yuz bergan o‘zgarishlarning yana bir sababi shundaki, mifologiya olish, rivojlantirish va tushuntirish uchun navbatdagi miflar emas, balki tabiiy qonuniyatlar va tabiiy-sababiy bog‘lanishlarga murojaat qilish talab etilgan ilmiy bilim kurtaklari bilan to‘qnashdi. Pirovardida odamlar dunyoqarashida nisbatan qisqa vaqt ichida tub o‘zgarishlar yuz berdi; unda bilim, tafakkur, tahliliy fikrlash tobora muhimroq rol o‘ynay boshladi, ular sirtdan olingan axborotni sezgilar va emotsiyalar darajasida idrok etishga asoslangan har xil e’tiqodlarni chetga chiqarib qo‘ydi. Faqat so‘zlariga ishonish kerak bo‘lgan ota, kohin, ruhoniy o‘rnini, savollar beruvchi va anglashga chorlovchi muallim faylasuf egalladi. U shubha urug‘ini sochib, qiziqish uyg‘otdi va: «Ishonma, balki o‘zing fikr qil!», deya davat etdi.

Faylasuf tafakkurni xurofot va bidatlardan tozalab, uni erkinlashtirdi va mifologik yoki diniy dunyoqarashga mutlaqo xos bo‘lmagan tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirdi. Ajdodlardan meros qolgan «donishmandlik» manbai sanaluvchilar, tayyor bilimlar va shak-shubhasiz haqiqatlarni e’tiqod sifatida qabul qilishga chorlovchilardan farqli o‘laroq, faylasuf savollarni tariflashni va avvalo sog‘lom fikr va o‘z aql-zakovatining kuchiga tayanib, ularga javob qidirishni o‘rgatadi.

Demak, falsafa dunyoqarash shakli sifatida olamni inson va dunyoning o‘zaro munosabatlari nuqtai nazaridan o‘rganadi. Dunyoqarash obekti – butun dunyo, biroq uning predmeti – tabiat dunyosi va inson dunyosining yoki, antik falsafa tabiri bilan aytganda, makrokosmos va mikrokosmosning o‘zaro munosabatidir. Bundan uning muammolari doirasi kelib chiqadi. Insonning dunyodagi o‘rni qanday? Umuman, dunyoning o‘zi nima? Inson hayotining mazmuni nimadan iborat? Vaqt, makon va harakat nima?

Ammo bu muammolar dunyoqarashning falsafiy shaklini ham qiziqtiradi. Bu holda falsafaning dindan farqi nimada?

Bu erda biz avvalo shuni qayd etishimiz mumkinki, falsafa dunyoni o‘zlashtirishning nazariy usullari qatoriga kiradi. Nazariy usul obektdan ongli ravishda «uzoqlashadi». Dunyoga nazariy munosabat subekti – dunyoni tushunchalar yordamida anglashga harakat qilayotgan inson. Falsafa dunyoni fikrda, so‘zda gavdalantiradi. Falsafaning har qanday shakli bunday imkoniyatga ega. Binobarin, dunyo haqidagi falsafiy tasavvur zamirida bilim yotadi. Ayni vaqtda, falsafa bu bilim inson dunyosiga tashlangan bir nazar ekanligini tushunadi. Shu sababli u dunyo haqidagi bilim bilan bir qatorda insonning dunyoga munosabatini ham shakllantiradi.

Borliq tushunchasi dunyo falsafiy manzarasining bosh tamoyili sifatida amal qiladi. Ayni shu tushuncha yordamida inson o‘zining dunyodagi o‘rnini anglab etishga harakat qiladi.

Borliqni falsafiy tushunishdan ko‘p sonli narsalar, jarayonlar, holatlar, strukturalar, tizimlarning barcha shakllarini o‘z ichiga olgan yaxlit bir butun dunyo haqidagi tasavvur kelib chiqadi. Borliq shakllarining rang-barangligi bu shakllarni birlashtiruvchi narsa bormi, butun Cheksiz rang-barang dunyoning birligi to‘g‘risida so‘z yuritish mumkinmi, degan savolni o‘rtaga tashlashni nazarda tutadi.

Bunday birlik haqidagi g‘oya barcha mavjud narsalarning umumiy negizi to‘g‘risidagi tasavvurning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Bu tasavvurni belgilash uchun falsafada substansiya kategoriyasi qabul qilingan. Bu kategoriya o‘zini namoyon etuvchi narsalar, hodisalar, voqealar va jarayonlarning ichki birligini qayd etadi. Shunday qilib, substansiya nafaqat umumiy izchil tamoyil, balki faollik funksiyasi sifatida ham tushuniladi.

Dunyoning birligini bitta substansiyadan kelib chiqib tushuntiruvchi falsafiy ta’limotlar monizmga kiradi. Biroq substansiya har xil tushunilishi: yo unda inson ongidan qati nazar mavjud bo‘lgan haqiqiy dunyo negizini ko‘rish, yo uni ongni yaratgan dunyo bilan tenglashtirish, ya’ni substansiyada materiya yoki ruhni ko‘rish mumkin. Bunga mos ravishda materialistik va idealistik monizmni farqlash lozim.

Monizmga ikki substansiyaning mushtarakligi g‘oyasidan kelib chiqadigan dunyoning dualistik talqini qarshi turadi. Birinchi substansiya moddiy borliq sohasini, ikkinchi substansiya – ruhiy sohani birlashtiradi.

Substansiyaning faolligi va o‘ziga xosligi haqidagi falsafiy g‘oyadan dunyoning atributliligi muammosi kelib chiqadi. Atribut tushunchasi obektning zarur, ajralmas, muhim xossasini qayd etadi. Ayrim falsafiy tizimlarda harakat materiyaning muhim atributi hisoblansa, ayrim tizimlarda – makon va vaqtning

ko‘lamliligi yoki tafakkur va hokazolar shu vazifani bajaradi. Barcha hollarda harakat muammosini echishga to‘g‘ri keladi. Bunda harakat deganda har qanday o‘zgarish tushuniladi. Elementar zarralarning bir-biriga o‘tishi, moddiy dunyoning kengayishi, organizm hujayralarida moddalar almashinuvi, tafakkur jarayoni – bularning barchasi harakatdir. Dunyo harakatsiz mavjud bo‘lishi mumkin emas. Boshqacha aytganda, harakat dunyo kabi mutlaq va abadiydir.

Harakat turlarining rang-barangligi makon va vaqt kabi umumiy shakllar orqali yaxlitlik kasb etadi. Makonda sistemalar, makrosistemalar va megasistemani tashkil etuvchi struktura elementlari va strukturalarning sinxron o‘zaro aloqasi qayd etiladi. Vaqtda sistemaning diaxron o‘zgarishi, rivojlanishi va buzilishi qayd etiladi.

Makon va vaqt – borliqning umumiy shakllari, uning muhim atributlari. Dunyoda makon va vaqt xossalariga ega bo‘lmagan moddiy tizimlar mavjud emas. Makon barcha moddiy tizimlardagi elementlarning ko‘lamliligi, strukturaliligi, mavjudligi va o‘zaro aloqasini tavsiflaydi. Vaqt – materiya borlig‘ining materiya mavjudligining davomiyiligi, moddiy tizimlar o‘zgarishi va rivojlanishida holatlar almashuvining ketma-ketligini ifodalovchi shakldir.

Makon va vaqtning umumiy xossalariga quyidagilar kiradi: obektivlik, harakatlanuvchi tizimlarga bog‘liqlik, uzluksizlik va uzluksizlik, cheksizlik (vaqtning cheksizligi) va cheklilik (makonning cheklanganligi).

Makon va vaqt umumiy xossalar bilan bir qatorda, ayrim o‘ziga xos xususiyatlarga ham ega. Masalan, makonga ko‘lamlilik, uch o‘lchovlilik xos. Bundan tashqari, moddiy tizimlar makoni simmetriya va asimmetriya, tashqi shakl va o‘lchamlar, joylashgan o‘rni, modda va maydonning taqsimlanishi, ularni boshqa tizimlardan ajratuvchi chegara bilan tavsiflanadi. Bu xossalarning barchasi obektlar strukturasi va tashqi aloqalari, ularning harakat tezligi, tashqi maydonlar bilan o‘zaro aloqasi xususiyatiga bog‘liq bo‘ladi. Har bir moddiy tizimning maydoni mutlaqo berk emas, u uzluksiz boshqa tizim maydoniga o‘tadi. Bundan amalda makonning ko‘p aloqaliligi, miqdor va sifat jihatlaridan tunganmasligi kelib chiqadi.

Vaqtning xossalariga davomlilik, sistemalar harakati, shuningdek makon bilan uzluksiz bog‘langanlik kiradi. Davomlilik birin-ketin yuzaga keluvchi vaqt lahzasi yoki oralig‘idan tashkil topadi. Ular jamuljam holda obektning mavjudlik davrini tashkil etadi. Vaqtning o‘ziga xos ko‘lamliligi sifatida amal qiluvchi davomlilik materiya va harakatning umumiy saqlanishi bilan belgilanadi. Har bir obektning mavjudlik vaqti chekli va uzluksizdir, chunki u mavjudlikning boshi va intihosiga ega. Biroq obektni tashkil etuvchi moddiy substansiya yo‘qdan bor bo‘lmaydi va yo‘q bo‘lib ketmaydi, balki faqat o‘z borlig‘ining shaklini o‘zgartiradi. Materiya va harakatning umumiy saqlanuvchanligi ularning mavjudlik vaqti uzluksiz bo‘lishini taminlaydi va bu uzluksizlik mutlaq xususiyat kasb etadi, uzluksizlik esa nisbiy bo‘ladi.

Makon va vaqt xususiyatlari namoyon bo‘lish shakllarining rang-barangligi dunyoning mutlaq rang-barangligi, uning sifat jihatidan cheksizligi faqat nisbiy holatlarning cheklanmagan miqdorida ro‘yobga chiqishi mumkin va o‘z navbatida, nisbiy holatlar va dunyo tizimlarining cheklanmagan miqdorigina dunyoning mutlaq cheksizligi va rang-barangligini ifodalashga qodir, degan xulosaga olib keladi.

Dunyoni falsafiy idrok etishning o'ziga xos xususiyati, dunyoni bilish, sezish, ko'rish va tushunishning butunlay yangi sohasi – falsafa vujudga kelishida namoyon bo'ladi. Darhaqiqat falsafa – bu nafaqat u yoki bu odam dunyoqarashining shakli, balki ijtimoiy ong shakli, odamlar borlig'i va bilishining umumiy tamoyillari, ularning dunyoga munosabati aks etuvchi, tabiat, jamiyat, tafakkurning eng umumiy qonunlari kashf etiluvchi va tariflanuvchi manaviy faoliyatdir. Ya'ni bu dunyoga va insonning undagi o'rniga nisbatan qarashlarning umumiy tizimidir. Bunday qarashlar zamirini savollar va insonning ularga javob topish istagi yotuvchi oqilona yo'l bilan olingan bilimlar majmuini tashkil etadi. Ammo bilish shunday bir tabiatga egaki, bir savolga javob ko'pincha boshqa bir talay savollarni yuzaga keltiradi va bazan muammoga nafaqat oydinlik kiritmaydi, balki uni yanada chigallashtirib, insonning qiziquvchanligini oshiradi va yangi tadqiqotlarga davat etadi. Xullas, bunda ijod, tinimsiz izlanish, yangilikka intilish muhim o'rin egallaydi.

Agar mifologiya va dinda javobga urg'u berilsa, bilishning butun mazmuni unda mujassamlashsa, falsafada savol, masala birinchi o'rinda turadi. U to'g'ri va yaxshi tariflangan bo'lsa, muammoning mohiyati aniq aks etadi. Savol, masala insonni ijodga rag'batlantiradi, toki unga qoniqarli javob olinib, haqiqatning tagiga etilganiga ishonch paydo bo'lmaganicha insonni izlanishga davat etadi. Bunda savolning o'zi, muammoning qo'yilishi javobdan kam ahamiyat kasb etmaydi, bazan undan ham muhimroq deb qaraladi.

Shuni ham qayd etib o'tish lozimki, falsafa, garchi muayyan natijalarga, mukammal ta'riflarga, uzil-kesil xulosalarga intilsa-da, lekin, shuning o'zi bilan kifoyalanmaydi. Falsafani avvalo inson madaniyati sohasida yuz berayotgan, turli qarama-qarshiliklar va o'zaro ta'sirlar bilan uzviy bog'liq va ayni vaqtda o'zga sohalarga o'tish va ularda gavdalanish qobiliyatiga ega bo'lgan ma'naviy jarayon sifatida tushunish lozim.

Bundan xulosa shuki, falsafiy mushohada yuritish savol berish, shubha qilish, javoblar izlash va kuni kecha yechilgan deb hisoblangan, shak-shubhasiz bo'lib tuyulgan masalalarga qaytish demakdir. Falsafa uchun «boqiy», uzil-kesil aniqlangan haqiqatlar, «noqulay», «ilmoqli» savollar yoki man etilgan mavzular mavjud emas. Falsafa savollar berish, narsalar va hodisalar mohiyatini anglashga urinish orqali bilish doirasini kengaytirishga harakat qiladi.

Xullas, falsafa haqiqat qanday bo'lsa, uni shunday ifodalab ko'rsatishdir, din esa –uning ramziy, timsoliy aks etishi. Falsafa asos va mohiyat bo'lsa, din timsol va shakl. Dialektik munozara usuli jamiyatning kam sonli ayonlari uchun kerak. Vahiy yo'lidagi ifoda – xalq ommasining idroki, tarbiya va talimi uchun kerak.

Falsafaning mazmuni va bosh vazifasi haqidagi qarashlar. Falsafani odatda davrning fikrlardagi in'ikosi, o'z davrining ma'naviy kvintessensiyasi deb ataydilar. Falsafaning mazkur tavsifidan uning olamshumul vazifasi – o'z davrining jarchisi sifatida amal qilish, ma'naviy-tarixiy o'zgarishlar bilan hamqadam va hamnafas bo'lish kelib chiqadi. Bu erda falsafaning hayot bilan chambarchas aloqasi ayniqsa bo'rtib namoyon bo'ladi. Voqelikni tushunish va tushuntirish falsafaga qo'yiladigan asosiy talabga aylanadi. Davrning haqqoniy manzarasini yaratish kelajakning

spekulyativ sxemalarini yaratishga barham beradi, borliqning mazmun va mohiyatini anglab etishga keng yo‘l ochadi.

Falsafa o‘z davri ma’naviy madaniyatining markazi vazifasini bajarish orqali koordinatalar abadiy tizimini yaratishga yordam beradi, davr saboqlarini aniqlash va tushuntirish yo‘li bilan inson tafakkuriga bo‘lgan ishonchni mustahkamlaydi.

Qadim zamonlarda Platon shunday degan edi: «Toki davlatlarda faylasuflar podsholik qilmas ekanlar yoki hozirgi shohlar va podsholar oqilona falsafiy mulohaza yuritishni o‘rganmas va davlat hokimiyati bilan falsafaning mushtarakligi qaror topmas ekan, davlat yovuzliklardan xalos bo‘la olmaydi».

Boesiy poetik intuitsiyasida falsafa o‘ng qo‘lida kitob, chap qo‘lida esa saltanat hassasi – skipetr tutgan Iloha obrazida gavdalanadi. Bu timsollarning mavjudligi tasodifiy bir hol emas. Falsafa bilim berish bilan bir qatorda, dunyoni oqilona boshqaradi va skipetr bu fikrni tasdiqlaydi.

Qadimgi yunon falsafasida bilim va xulq-atvor oliy ideali donishmandlik tushunchasi bilan bog‘lanadi. U inson aqliga abadiyat va cheksizlik sari yo‘l ochadi, o‘tkinchi narsalarga sabr-toqatlilikni o‘rgatadi. Aynan donishmandlik yordamida inson munosib va to‘laqonli hayotga erishishi mumkin. Donishmandlikka intilayotgan odam har doim narsalar va hodisalar tabiatiga mos ravishda ish ko‘rishi lozim.

Platon inson tanasi haqida gap borganda tabiblarni, o‘simliklar to‘g‘risida so‘z yuritilganda esa – ziroatchilarni donishmandlar deb ataydi. U o‘zining «ideal davlat» haqidagi nazariyasida jamiyatni uch tabaqaga: davlat arboblari – faylasuflar; soqchilar (harbiylar); dehqonlar va hunarmandlarga ajratadi, bunday davlatda donolik, jasorat, sabr-bardoshlilik va adolat kabi to‘rt tamoyil ustuvor bo‘lishi lozimligini takidlaydi.

Aristotel insonning qadr-qimmatini uning aqliy faoliyatida ko‘zga tashlanadi, deb hisoblaydi. O‘z davrining eng dono kishilaridan biri bo‘lgan Sitseron falsafaning mohiyatini quyidagicha tushuntiradi: «Falsafa (donishmandlik), qadimgi faylasuflar tabiri bilan aytganda, ilohiy va insoniy qilmishlarni ularning sabablari va mohiyatlari nuqtai nazaridan bilishdir» .

Sofistlar falsafani dunyoviy donishmandlik, mulohaza yuritish sanati sifatida tushungan bo‘lsalar, stoiklar donishmandlikning «amaliy maqsadlari»ga, yani o‘z hayotini oqilona tashkil etishga qaratganlar. Faylasufning so‘zlari insonni azob-uqubatlardan forig‘ etishiga Epikurning ishonchi komil bo‘lgan.

Qadimgi xitoy falsafasida donishmand-faylasuf «szi», ya’ni o‘g‘il, bola deb atalgan. «Tyan sze» - «Osmon o‘g‘li» degan ism ostida yangi podsho paydo bo‘lishi bilan donishmand-faylasufning unga mos keladigan, «szyun szi» - «podsho o‘g‘li» g‘oyalarini targ‘ib qiluvchi tipi ham paydo bo‘lgan. Qadimgi Xitoy falsafasining muhim mezoni – «ideal munosabatlar qonuni»ga odamlar o‘rtasida, oilada, jamiyatda, davlatda rioya qilish inson hayotining mazmuni hisoblangan; bunga jamiyatda qabul qilingan meyorlar, qoidalar, rasm-rusumlar va shu kabilarga izzat-ikrom bilan yondashish imkoniyat yaratgan. Boshqacha aytganda, inson o‘z shaxsiy hayotini doim jamiyat ravnaqi, kamoloti bilan o‘lchashi lozim, xususan, u keyinchalik oila va davlatni takomillashtirishga harakat qilish uchun o‘zini kamol

toptirishi darkor . qadimgi xitoy falsafasining buyuk namoyandasi Konfutsiy (miloddan avvalgi 551-479 yillar) shunday deb saboq beradi: «qilmishlarning asoslari va tamoyillarini o‘rgansang, yaxshilik va yomonlik haqidagi fikrlaring (axloqiy bilimlar) barkamollikning eng so‘nggi darajasiga yetadi. Niyatlar sof va xolis bo‘lsa, qalb rostgo‘y va samimiy bo‘ladi. qalb rostgo‘y va samimiy bo‘lsa, inson to‘g‘ri yo‘lga kiradi, kamol topadi. Inson to‘g‘ri yo‘lga kirs va kamol topsa, oilada tartib o‘rnatiladi. Oilada tartib hukm sursa, xalqlarni boshqarish osonlashadi. Xalqlarni boshqarish osonlashsa, butun dunyo tinch-totuv yashaydi»¹. qadimgi xitoy faylasuflaridan yana biri – Lao szi (miloddan avvalgi VI asr boshlarida yashagan): «Boshqalarni biluvchi – oqil, o‘zini biluvchi – donishmanddir», deb o‘rgatadi.

Donishmandlikning tarixan shakllangan gnoseologik, axloqiy va ekzistensial xususiyatlari hozirgi vaqtda ham saqlanib qolmoqda va etibordan soqit etilishi mumkin emas. Donishmandlik fenomeni haqida umumiy tasavvur hosil qilish yo‘lidagi izlanishlar quyidagi natijalarga olib keladi. Donishmandlik kundalik hayotdagi mulohazakorlikka qarama-qarshi qo‘yiladi. U mutlaqo go‘zal va mutlaqo adolatli dunyoning mohiyatini intellektual anglab etishga intilish sifatida, haqiqatni qaror toptirish yo‘lida beg‘araz xizmat qilish sifatida tushuniladi. Bu nainki to‘liq bilim, balki manaviy barkamollik, ruhning ichki yaxlitligi hamdir. Bu shunday bir e‘tiqodki, unga erishishda insonning butun mohiyati ishtirok etadi. Donishmandlik belgisi sifatida meyor hissi amal qiladi. Uni intuitiv aniqlash «hayot haqiqati»ni anglab etish sifatida namoyon bo‘ladi. Etuklik donishmandlikning zaruriy sharti hisoblanadi. qisqa va lo‘nda hikmatlarda o‘z ifodasini topuvchi donishmandlik har bir xalq hayotida mavjud bo‘ladi, maslahatlar va pand-nasihatlarning keng to‘plami vositasida uni g‘amxo‘rlik bilan qo‘llab-quvvatlaydi. qadimgi afsonalar, rivoyatlar va hikmatlar ko‘rinishida u avloddan-avlodga o‘tadi va ulardan har birining hayot yo‘lini engillashtiradi.

Yangi davrda fransuz olimi Rene Dekart (1596–1650) har qanday mamlakat aholisining grajdanlik va o‘qimishlilik darajasi bu erdagi falsafiy tafakkur darajasi bilan belgilanadi, degan fikrni ilgari surgan . Ingliz faylasufi David Yum (1711–1776) falsafaga bo‘lgan munosabat asosida millatga «tashxis» qo‘yish mumkinligini isbotlashga harakat qilgan. Mutafakkirning fikricha, falsafiy bilimga qiziqishning yo‘qligi millat tafakkurining cheklanganligi alomatidir.

Falsafani ko‘pincha «tafakkur maktabi» deb ataydilar. U bir qolipda fikrlash uslubi tugagan, oydek ravshan bo‘lgan narsa shubha va taajjub uyg‘otgan joyda boshlanadi. Inson hayot mazmuni bilan bog‘liq masalalar (Immanuil Kant tilida ular quyidagicha yangraydi: «Men nimani bilishim mumkin?», «Men nima qilishim kerak?», «Men nimaga umid qilishim mumkin?», «Inson nima?») ustida bosh qotira boshlagani zahoti u darhol falsafaga «asir» tushadi, borliqni falsafiy anglab etish sohasiga kirib qoladi. Ingliz faylasufi Tomas Gobbs (1588–1679): «Falsafa sening tafakkuring farzandi... va sening o‘zingda yashaydi» , deganida, bizningcha, to‘la haq bo‘lgan. Darhaqiqat, falsafiy mulohaza yuritish har bir insonga xos xususiyat. Zero hayotning mazmuni, erkinlik, adolat va umrboqiylik haqida mulohaza yuritishni biron-bir insonga taqiqlash mumkin emas.

Falsafa borliqni bilish, asoslar va birinchi tamoyillarni tadqiq etish bilan shug'ullanadigan alohida soha sifatida, his etish, mushohada yuritish va tasavvur qilish tarzida amal qiladigan oddiy ongdan farqli ravishda, tushunchalar vositasida bilishni nazarda tutadi. Tushunchalar bilan ish ko'rish sanati zaruriy aloqalar va sababiy bog'lanishlarni aniqlashni, hayot taassurotlarining xaotik tasodifiy oqimini tartibga solishni talab qiladi. Mulohaza kuchini tarbiyalash etiborni jamlash, uni predmetga qaratishni nazarda tutadi. Tafakkur intensional, yani u muayyan predmetga qarab mo'ljal oladi. Tafakkur predmetning tabiati haqidagi tasavvurga mos ravishda mulohaza yuritadi. Predmetni o'zida «idrok etgan» kishigina mazkur predmet o'zi haqida so'zlovchining tili bilan gapirishiga umid qilishi mumkin.

Falsafaning predmeti. Falsafa predmeti uning rivojlanish davri mobaynida uzluksiz o'zgarib turgan, asosiy masala esa o'zgarishsiz qolgan, degan fikr real asoslardan xoli emas. Falsafa muammolari uning predmeti bilan belgilanadi. Malumki, falsafa predmeti tarixiy rivojlanish jarayoni mobaynida sezilarli darajada o'zgargan. Falsafiy fanlarning har biri: ontologiya, gnoseologiya, etika, estetika, mantiq, siyosatshunoslik, falsafa tarixi ham o'z alohida predmetiga ega. Shu manoda «dunyo – inson» munosabatlari tizimidagi umumiylik falsafaning predmeti hisoblanadi, degan fikr mazkur talablarga javob beradi.

Endi «Falsafa nimani o'rganadi?», degan savolni berishimiz mumkin. Insonda bilishga qiziqish uyg'otadigan, mifologiya, din yoki fan javoblaridan qoniqmagan insonning o'ziga ma'lum bilimlar va tajribaga, muayyan e'tiqod, ishonch va intuitsiyaga tayangan holda oqilona asoslangan javoblar berishga harakat qiladigan, savollar tug'diradigan har qanday obektiv va subektiv borliq falsafaning predmeti hisoblanadi. Boshqacha aytganda, inson o'z qiziqishi obekti haqida muayyan tasavvur hosil qilish maqsadida savol berishga asos bo'lishi mumkin bo'lgan hamma narsa falsafaning predmetidir. Shu munosabat bilan u yoki bu odamning falsafiy qarashlari haqida va hatto uning falsafasi to'g'risida so'z yuritish mutlaqo o'rinli bo'ladi va bunga biz kundalik hayotda tez-tez duch kelamiz.

Biroq ayni holda bizni fan sifatidagi, ayrim insonning emas, balki butun jamiyatning rivojlanish mahsuliga aylangan ijtimoiy hodisa sifatidagi falsafa qiziqtiradi va ayni shu sababli yuqorida keltirilgan tarifda «inson» tushunchasi yig'ma manoda qo'llanilgan. Bu erda shuni takidlab o'tish lozimki, garchi falsafaning predmetiga biz umumiy nuqtai nazardan ancha keng tarif bergan bo'lsak-da, ayrim tarixiy davrlarda odatda u yoki bu sabablarga ko'ra muayyan masalalar doirasi falsafiy tadqiqotlarda birinchi o'ringa chiqadi.

Masalan, qadimgi Yunonistonda kosmotsentrizm ilk falsafiy talimotlarning o'ziga xos xususiyati bo'lib, bunda asosiy etibor «kosmos», «tabiat»ni anglab etishga qaratilgan. Keyinchalik, qadimgi yunon shahar-polislari ravnaq topgan davrda faylasuflar diqqat markazidan ijtimoiy muammolar, axloq, davlat qurilishi masalalari o'rin oldi. Evropada xristianlikning, Sharqda islom dinining vujudga kelishi va mustahkamlanishi natijasida o'rta asrlar falsafasi teotsentrik (yunon. theos – markazdan o'rin olgan xudo) xususiyat kasb etdi, yani Xudo va u yaratgan olam falsafiy qiziqishlarning asosiy predmetiga aylandi. Uyg'onish davrida falsafa sanat (estetika)ga va ko'p jihatdan insonga murojaat qilindi.. Yangi davr deb nomlanuvchi

XVII-XVIII asrlarda falsafa tobora kuchayib borayotgan fan bilan uzviy bog'landi, natijada falsafiy tadqiqotlarning diqqat markazidan bilish va ilmiy metodlar masalalari o'rin oldi.

XIX asrning ikkinchi yarmida yuz bergan «klassik falsafa» va ratsionallik inqirozi irratsionallik, intuitivlik, ongsizlik muammolarini namoyon etdi, XX asrning birinchi yarmida ular «noklassik falsafa» tahlilining asosiy predmetiga aylandi, bu esa, o'z navbatida, matnlar mantig'i, tili, ularni talqin qilish va sharhlashga alohida qiziqish uyg'onishiga olib keldi. XX asrning so'nggi o'n yilliklarida hozirgi madaniyatdagi inqiroz hodisalarini va yangi axborot texnologiyalarining, shuningdek ommaviy kommunikatsiya vositalarining jadal suratlarda rivojlanishi bilan belgilangan muammolarni kun tartibiga qo'ygan postnoklassik falsafa shakllandi. Bu falsafa vakillari «tarixiy rivojlanishning tugallanganligi», barcha manolar va g'oyalar «aytib bo'linganligi» haqida mushohada yuritib, inson o'ziga yog'ilyotgan axborotga ishlov berishga qodir emasligiga etiborni qaratar ekan, notizimlilik, Evropa ananaviy falsafiy bilimining negizlari, qadriyatlarini va chegaralarini o'zgartirish g'oyasini ilgari surdilar.

Nihoyat, XX-XXI asr chegarasida eng yangi falsafada birinchi o'ringa chiqqan va eng muhim mavzular qatoridan o'rin olgan yana bir mavzu globallashuv jarayonlarining mohiyatini va ularning rivojlanish yo'nalishini aniqlashga alohida etibor qaratildi. Bu jarayonlar hozirgi vaqtda jamiyat hayotining deyarli barcha jabhalarini qamrab oldi va davrimizning olamshumul muammolarini yuzaga keltirdiki, ularning nazariy va amaliy echimini topish bu muammolarni shu jumladan falsafiy darajada anglab etishni ham nazarda tutadi. Xalqaro miqyosda alohida etibor berish va kelishilgan harakatlarni taqozo etuvchi eng muhim muammolar qatoriga ekologiya, demografiya, xavfsizlik, xalqaro jinoyatchilik, energetika resurslari, qashshoqlikka chek qo'yish muammolarini kiritish mumkin.

Ko'rib turganimizdek, falsafaning predmetini qandaydir bitta, qat'iy cheklangan, muayyan masalalar doirasi bilan bog'lash mumkin emas. U vaqt omiliga va obektiv sabablar to'plamiga qarab, doim u yoki bu muammo yoki ularning muayyan majmui tarzida birinchi o'ringa chiqadi. Ammo bu boshqa mavzular, masalalar va muammolar o'z ahamiyatini yo'qotadi va falsafa chegarasidan chetga chiqadi, uning tahlil predmeti bo'lmay qoladi, degan manoni anglatmaydi. Bosh mavzularni ikkinchi, uchinchi yoki undan ham keyingi o'ringa surib qo'yadi, ular muayyan davrda va tegishli sharoitda falsafiy diqqat markazidan o'rin olish yoki falsafiy muammolarning ustuvorliklar yunalishi bo'ylab yuqoriga ko'tarilish uchun o'z vaqtini «kutib», go'yoki panada turadi, desak, to'g'riroq bo'ladi. Ayni shu sababli biz falsafa tarixida qiziqishlardagi ustuvorliklarning muttasil o'zgarishini, u yoki bu masala bosh masalaga aylanishi, falsafiy hamjamiyatning asosiy etibori malum vaqt mobaynida unga qaratilishini ko'ramiz.

Falsafaning asosiy masalalari. Falsafaning uzoq tarixiga umumiy nazar tashlasak, olam va insonning kelib chiqishi, rivojlanishi va mohiyatiga, shuningdek, hayotning manosi, inson bilishining tabiatiga tegishli «boqiy» falsafiy muammolar deyarli barcha falsafiy talimotlarda u yoki bu tarzda mavjudligini, turli falsafiy asarlarda, ular aynan kimga qarashlilik va qaysi davrga mansubligidan qat'iy nazar,

qisman yoki, aksincha, atroflicha muhokama qilinishining guvohi bo'lishimiz mumkin. Darhaqiqat, ong, tafakkur, ruh, ideallik va ularning materiya, tabiat, borliq bilan o'zaro nisbati masalalariga o'z munosabatini bildirmagan yoki, o'z mulohazalari va xulosalarida shubha qilmagan faylasufni topish mushkul. Bu hol o'z vaqtida olimlar tomonidan «falsafaning asosiy masalasi»ni tarflashiga turtki bergan bo'lib, unda ikki jihat alohida ajralib turadi.

Birinchi jihat moddiylik va ideallikning o'zaro nisbatiga tegishli. Savol shunday qo'yiladi: «Materiya birlamchimi yoki ruh (ong)mi?» yoki, «Tafakkur va borliqning nisbati masalasi butun, ayniqsa, eng yangi falsafaning buyuk asosiy masalasidir».

Ikkinchi jihat birinchi jihat bilan uzviy bog'liq bo'lib, quyidagicha tariflanadi: «Dunyoni bilish mumkinmi?» Boshqacha aytganda: «Biz haqiqiy dunyo haqidagi o'z tasavvurlarimiz va tushunchalarimizda borliqni to'g'ri aks ettirishga qodirmizmi?».Bu masalada materialistlar va idealistlarning qarashlari ziddiyatli xarakterga egadir.

U yoki bu faylasuflar savolning birinchi qismiga qanday javob berishiga qarab, -dunyo azaldan moddiy, ong esa bu materiyaning mahsulidir, deb hisoblovchilar materialistlar va dunyo zamirida materiyadan oldin paydo bo'lgan va uni yaratuvchi ideal narsalar va hodisalar yotadi, degan fikrni himoya qiluvchi idealistlarga ajratiladi.

Bunda idealizmning ikki turi – obektiv va subektiv idealizm farqlanadi. Obektiv idealistlar - qandaydir nomoddiy va inson ongiga bog'liq bo'lmagan (yani obektiv mavjud bo'lgan) narsalar va hodisalarni (Xudo,dunyoviy aql, g'oya, ruh va shu kabilar) butun borliqning asosi deb etirof etadilar. Falsafa tarixida Platon, Avliyo Avgustin, Foma Akvinskiy, G.Gegel, , N.Berdyayev kabi mutafakkirlar obektiv idealizm namoyandalari. Subektiv idealistlar - dunyo faqat individual (subektiv) ong mahsulidir deb hisoblaydilar. J.Berkli, D.Yum, I.G.Fixte subektiv idealizmning yorqin namoyandalari hisoblanadi.

Falsafa tarixida materialistik yo'nalishlar va oqimlar ham anchaginadir. Sodda materializm materiyani yaratish va yo'q qilish mumkin emasligi haqidagi talimotdir. Sodda materializm vakillari :qadimgi xitoy faylasuflari – Lao szi, Yan Chju;

- Qadimgi hind faylasuflari – lokayata yo'nalishi namoyandalari;
- Qadimgi davrning mashhur faylasuflari – Geraklit, Empedokl, Demokrit, Epikur va boshqalar.

- Qadimgi Markaziy Osiyo faylasuflari- Zardo'sht Sepitoma kabilardir.

Klassik mexanika vujudga kelgan va faol rivojlangan Yangi davrda mexanistik materializm (P.Golbax, P.Gassendi, J.Lametri) ayniqsa keng tarqaldi.

XVIII-XIX asrlarda falsafiy materializmning yo'nalishlari:

- antropologik materializm (L.Feyerbax);
- vulgar materializm (Fogt, Byuxner, Moleshott);
- dialektik materializm (K.Marks, F.Engels) shakllandi.

Biroq, yana shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, mazkur tasnifga muvofiq materialistlar yoki idealistlar deb nomlanuvchi u yoki bu faylasuflar bunday

farqlashga asossiz sxemalashtirish va soddalashtirish deb qarab, o'zini bu yo'nalishlarning birortasiga ham mansub deb hisoblamasligi mumkin. Bunday qarashlar shu bilan izohlanadiki, to'g'ridan-to'g'ri va uzil-kesil tarzda, bu muammoni tushunishga nisbatan boshqacha yondashuvlarni etiborga olmasdan tariflangan «falsafaning asosiy masalasi» muqarrar tarzda barcha faylasuflarni ikki katta qarama-qarshi lagerga – materialistlar va idealistlarga ajratadi va bu hodisaning ayrim ko'rinishi sifatida faqat moddiy va manaviy substansiyalarni teng huquqli asoslar deb hisoblovchi dualistlarnigina (masalan, R.Dekart) farqlaydi.

Ammo falsafiy tafakkur tarixida u yoki bu faylasuflar fikriga ko'ra eng muhim deb qaraladigan boshqa muammolar ham mavjud. Ayni shu sababli aksariyat faylasuflar substansiya (dunyoning birinchi asosi) haqida mulohaza yuritir ekan, mazkur masalaning qo'yilishini «falsafaning asosiy masalasi» bilan bog'lashga moyil emas. Masalan;

ilk antik faylasuflar uchun falsafaning asosiy muammosi: «Dunyo nimadan yaratilgan?», degan savol bilan bog'langan. O'sha davrda bu savol eng muhim, asosiy, birinchi darajali hisoblangan.

O'rta asrlar sxolastikasi nuqtai nazaridan «falsafaning asosiy masalasi» quyidagicha tariflanishi mumkin: «Xudoning borligini qanday qilib oqilona asoslash mumkin?» Hozirgi diniy falsafiy konsepsiyalar, xususan neotomizm uchun u hozir ham bosh masala bo'lib qolmoqda. Ibn Sino fikricha, falsafaning asosiy masalasi – mavjudotni barcha mavjud narsalarni kelib chiqishi, targ'iboti o'zaro munosabati, biridan-ikkinchisiga o'tishni har tomondama tekshirish uchun zaruriy imkoniyat, voqelik sabab tamoyillarini asos qilib olishdan iborat¹.

Yangi davrda I.Kant yondashuvi diqqatga sazovor bo'lib, u «Inson nima?» degan savolni mohiyat etibori bilan falsafaning asosiy masalasi deb hisoblaydi. Uning fikricha, inson ikki dunyo – tabiiy zarurat va manaviy erkinlikka mansub bo'lib, ularga muvofiq odamzot, bir tomondan, tabiat mahsuli hisoblanadi, boshqa tomondan esa, u «erkin harakat qiluvchi mavjudotning o'z-o'zidan yaratish» natijasidir².

Ekzistensializm falsafasida esa har bir individ o'zi uchun o'zi hal qilishi lozim bo'lgan «Hayot yashashga arziydimi?», degan muammo asosiy masala sifatida etirof etiladi, zero, mazkur yo'nalish namoyandalarining fikriga ko'ra, bu savolga javobsiz qolgan hamma narsa o'z manosini yo'qotadi. Fransuz ekzistensialist faylasufi A.Kamyu tabiri bilan aytganda: «Hayot yashashga arzishi yoki arzimasligi masalasini hal qilish, falsafaning asosiy masalasiga javob topish demakdir»¹. Masalan, pragmatizm asosiy etiborni haqiqat tushunchasiga va uni aniqlash muammosiga qaratadi. Bu yo'nalish vakillarining fikriga ko'ra, falsafa avvalo ayni shu muammo bilan shug'ullanishi va insonga amalda foyda keltirishi lozim.

Falsafaning strukturasi. Dunyoni bilish imkoniyati to'g'risidagi masala, «inson tafakkuri dunyoni haqqoniy bilishga qodirmi, u o'zining haqiqiy dunyo haqidagi tasavvurlarida voqelikni to'g'ri aks ettirishga qodirmi», degan savol falsafa asosiy masalasining gnoseologik tomonini o'zida ifodalaydi.

«Dunyo – inson» tizimidagi munosabatlarning rang-barangligi predmetli-amaliy, gnoseologik, akseologik, estetik, axloqiy va boshqa xil munosabatlar bilan belgilanadi. Quyidagilar falsafiy bilimning strukturasi hisoblanadi:

- ontologiya – mavjudlik, borliq haqidagi bilim;
- gnoseologiya (boshqa bir terminologiyaga ko‘ra – epistemologiya) – bilish nazariyasi;
- ijtimoiy falsafa – jamiyat haqidagi talimot;
- etika – axloq haqidagi talimot;
- estetika;
- mantiq;
- aksiologiya - qadriyatlar haqidagi talimot;
- falsafiy antropologiya – inson haqidagi talimot va boshqalar.

Falsafa ularning muhim xususiyatlari, birinchi sabablari va asoslarini aniqlashdan manfaatdor. U yoki bu munosabatni dunyoga yondashuv mezon sifatida tanlash (masalan, dunyoga uyg‘unlik, go‘zallik, mutanosiblik nuqtai nazaridan yondashish) u yoki bu falsafiy fanni (ayni holda estetikani) belgilaydi. Dunyoga uni bilish imkoniyatlari va qonuniyatlari nuqtai nazaridan yondashish bilish nazariyasi – gnoseologiyani vujudga keltiradi.

«Inson – dunyo» tizimiga hokimiyat munosabatlari nuqtai nazaridan yondashish siyosatshunoslikning predmetini tashkil etadi. Munosabatlar o‘zagini axloqiy meyorlar tashkil qilishi etika sohasida namoyon bo‘ladi.

Shunday qilib, falsafaning asosiy masalasi falsafaning strukturasi namoyon bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, falsafaning asosiy masalasi xususida mulohaza yuritish jarayonida biz borliq nima, tafakkur nima degan savollarga turli xil javoblar olamiz. Vaqt o‘tishi bilan bu javoblar o‘z dalillar tizimi, metodologik tamoyillarini shakllantiradi va falsafiy yo‘nalishlarga aylanadi. Masalan, borliqda eng avvalo faqat fan doirasida aniqlanishi va til tizimida belgilar yordamida ifodalanishi mumkin bo‘lgan aloqalar va qonuniyatlarni ko‘rish maxsus yo‘nalish – pozitivizm, aniqroq aytganda, uning oxirgi bosqichi – analitik falsafa nuqtai nazari bilan muvofiq keladi. Bu erda borliq nima degan masala u yoki bu bilimlarni to‘g‘ri ifodalash muammosiga, til tahliliga borib taqaladi. Analitik falsafa doirasida «lingvistik burilish» amalga oshirilgan va til falsafasi butun falsafaning asosi sifatida qabul qilingan.

Pozitivizm falsafani konkret fanlarga qarama-qarshi qo‘yadi va ilmiy bilimni dunyoni o‘zlashtirishning birdan-bir ijobiy shakli deb etirof etadi. Metafizika falsafaning sinonimi sifatida eng avvalo til mantiqiy meyorlari nuqtai nazaridan mazmundan xoli deb elon qilinadi. Neopozitivistlar fikriga ko‘ra, falsafaning hayot mazmuni, cheklilik va cheksizlik, borliqning birinchi asoslari, universumning atributivligi kabi azaliy muammolari soxta tushunchalar sanalgan atamalar yordamida shakllantiriladi, zero ularga berilgan tariflarni tekshirish mumkin emas.

Ayni shu darajada fan falsafasi ham amal qiladi va ilmiy bilish faoliyati muammolarini tadqiq etadi. Avvaliga unda ilmiy faoliyatni muayyan metodologik tamoyillar va normativ-mantiqiy ideallar bilan muvofiq holatga keltirish, aniqroq aytganda fanni fizika tili negizida unifikatsiya qilish vazifasi qo‘yilgan edi. U

fizikalizmga qarab mo'ljallardir. Keyinchalik bilishning ijtimoiy-madaniy omillariga qiziqish sezilarli darajada kuchaydi. Bilish jarayoniga normativ yondashuvning imkoniyatlari tor ekanligi namoyon bo'lganidan so'ng ilmiy bilish faoliyati meyorlarining relyativligi g'oyasi tug'ildi. Fan falsafasiga ijtimoiy-madaniy bilim (sotsiologiya, psixologiya, lingvistika, antropologiya va kulturologiya) natijalari va metodlari kirib kela boshladi.

Borliq nima?, degan savolga javob izlar ekan, falsafa borliqni eng avvalo inson mavjudligi dunyosi sifatida qayd etuvchi nuqtai nazarda to'xtaydi. Bu o'ziga xos tushunchalar apparatiga ega bo'lgan ekzistensial falsafa vujudga kelganini anglatadi. Ikkinchi jahon urushidan, insoniyat sivilizatsiyasida yuz bergan tub o'zgarishlardan so'ng borliq insoniyat ko'z o'ngida metafizik dahshat, qo'rquv, tashvish, zerikish va hatto behuzurlik tarzida namoyon bo'ladi. Ekzistensial falsafa ikki yo'nalishda – ham diniy, ham ateistik falsafa sifatida rivojlanadi. Diniy ekzistensial falsafa borliqni e'tiqod sifatida tushunadi, e'tiqodni va ayni paytda uning inson borlig'i ufqida paydo bo'lishini «haqiqiy mavjudlik»ka erishish usuli deb elon qiladi. Ateistik ekzistensializm esa butunlay boshqacha kayfiyat hukm suradi. Tariflarda ko'p sonli ziddiyatlar mavjudligi tufayli Xudoning borligi inkor etiladi. Mustaqil va anonim tarzda o'z-o'zida mavjud bo'lgan borliq ongga ega bo'lishi mumkin emas, u insonga nisbatan rahmsizdir, bu esa amalda Xudo yo'qligini anglatadi, degan xulosaga kelinadi.

Borliq hayot fenomeni sifatida, materiya va ruhning ajralishidan oldin yuz bergan yaxlit organik jarayon sifatida talqin qilinganda hayot falsafasi paydo bo'ladi. Bu erda birlamchi hayot voqeligi o'zini turli xil ko'rinishlarda namoyon etadi. Nitsshening volyuntarizmida u «hokimiyatga intilish» sifatida namoyon bo'ladi. Bergson tasavvurida hayot kosmik yuksalish bo'lib, uning mohiyati ong va o'ta yuksak ong bilan belgilanadi. Diltey va Zimmel hayotni madaniy-tarixiy xususiyatga ega bo'lgan kechinmalar oqimi sifatida tavsiflaydi. Biroq taklif qilingan talqinlarning barchasida hayot ijodiy shakllanish jarayoni sifatida namoyon bo'ladi.

Harakat, eng avvalo – oqilona unumli harakat sifatida tushunilgan borliq AQSHda keng tarqalgan pragmatizm sohasiga olib kiradi. Ushbu falsafiy konsepsiyaga ko'ra har qanday harakat kelajakka qaratilgandir. Amerikalik faylasuf CH.Pirs (1839–1914)ning: «Narsa g'oyasi uning hissiy oqibatlari g'oyasidir», degan tezisi pragmatizmning manifesti sifatida qaralishi mumkin. Haqiqat u yoki bu g'oyaning samaraliligi va ish qobiliyati, uning maqsadga erishish uchun foydaliligi demakdir.

Borliqqa intuitiv tarzda anglab etiladigan sir sifatida yondashuv, intuitivizm deb nomlanadi. Intuitsiya intellektga qarama-qarshi turadi va predmetning mohiyatiga biron-bir manfaatni ko'zlamasdan, xolisona nazar tashlashni, subekt va obekt o'rtasidagi masofani qisqartirishni nazarda tutadi. Intuitivizm bilim kechinma tarzida amal qiladi.

Borliq vaziyatlardan tarkib topsa va ularni talqin qilish usuli birinchi darajali ahamiyat kasb etsa, demak, bu erda gap germenevtika haqida boradi. Uning doirasida tushunuvchi talqin qilish borliqni gavdalantirishning asosiy modusi

hisoblanadi. Biror narsani tushunish uchun uni tushuntirish kerak, tushuntirish uchun esa – tushunish zarur.

Falsafiy muammolar mohiyatini tushunib yetish, ularning eng muhimlarini aniqlash va nihoyat, falsafiy bilimlar bilan oshno bo‘lish – ko‘rsatilgan bo‘limlarni sinchiklab o‘rganish, bunda ularga yaxlit bir butunning tarkibiy qismlari sifatida yondashish demakdir. Pirovardida biz falsafaning o‘ziga xos tili, o‘z yondashuvlari va metodlari, nihoyat, tabiat, jamiyat va tafakkurga oid eng muhim aloqalar, xossalar va qonunlarni o‘zida aks ettiruvchi umumiy tushunchalar – kategoriyalar tizimi vujudga kelganining guvohi bo‘lamiz. Bunda falsafadagi har bir bo‘lim yoki yo‘nalish ham o‘z tushunchalar apparatiga, yani bilimning faqat shu sohasiga xos bo‘lgan va uning asosiy mohiyatini yoritib beradigan kategoriyalar tizimiga egadir.

Falsafada ko‘rib chiqilgan mavzular bilan bir qatorda shunday bilim sohalari ham mavjudki, ular qolgan barcha bilim sohalariga kirib boradi, ular bilan uyg‘unlashadi va ularni to‘ldiradi. Masalan, tabiat, jamiyat, inson va uning tafakkurida yuz beruvchi harakat, rivojlanish va o‘zgarishlar haqidagi falsafiy talimot – dialektika ana shunday bilim sohalaridan biri hisoblanadi.

Ob‘ektiv sabablarga ko‘ra falsafiy bilimning ayrim sohalari sezilarli darajada rivojlandi va vaqt o‘tishi bilan mustaqil falsafiy fanlarga aylandi. Bunday bilim sohalari qatoriga, masalan, insonning bilishni amalga oshirish shakllari, qonunlari va usullarini o‘rganadigan fan - mantiqni; ma’naviyat va axloq haqidagi ta’limot – etikani; go‘zallik qonunlariga muvofiq ijodning mohiyati va shakllari haqidagi fan – estetikani kiritish mumkin.

Shu manoda falsafa tarixi fani alohida diqqatga sazovordir, zero u, mohiyat etibori bilan, nafaqat falsafiy, balki tarixiy fan hisoblanadi. Ayni vaqtda u falsafiy bilim tarkibiga ham kiradi, chunki falsafiy tafakkurning vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanishini, falsafiy g‘oyalar evolyusiyasi va xususiyatini turli faylasuflar, yo‘nalishlar, oqimlarning talimotlarida qanday tavsiflangani nuqtai nazaridan o‘rganadi. Falsafa tarixi fanida falsafiy talimotlarni tizimga solish va tasniflashga, matnlar, tarixiy sanalarni tahlil qilishga, daliliy material, biografik malumotlar yig‘ishga alohida etibor beriladi. Shu munosabat bilan dunyoqarashni kengaytirish va teranlashtirishga, o‘z falsafiy yondashuvlarini yaratishga qaratilgan falsafani o‘rganish, uning tarixi, asosiy namoyandalari va eng muhim falsafiy asarlari bilan albatta tanishishni nazarda tutadi.

Falsafaning yangi sohalari. Falsafiy bilimning tuzilishi o‘zgarmas, uzil-kesil shakllangan emas. Falsafaning rivojlanishi va u hal qilayotgan muammolar doirasi kengayishiga qarab falsafiy bilim tuzilishida ham o‘zgarishlar yuz beradi. Darhaqiqat, o‘zini oqlamagan g‘oyalar, yo‘nalishlar va konsepsiyalar bisyor, ularning aksariyati hozir juda og‘ir ahvolda, ayrimlari esa kuchli inqiroz holatini boshdan kechirmoqda. Ammo falsafa o‘zining birinchi manosida – «donolikni sevish» sifatida, haqiqatning tagiga etish usuli sifatida, jon holati sifatida va nihoyat, dunyoqarashning alohida shakli sifatida insoniyat turguncha mavjud bo‘ladi.

Buni falsafiy bilimning ayrim nisbatan yangi sohalari - tabiat falsafasi, huquq, fan, tarix, siyosat, sanat, din, texnika falsafasi, tanatologiya, gerontologiya va boshqalar ham tasdiqlaydi (bazan ular mustaqil falsafiy fanlar maqomiga

davogarlik qiladi). O'tgan asrning so'nggi o'n yilliklarida tadqiqotning yana bir yangi va o'ta muhim sohasi – globallashtirish va u yuzaga keltirayotgan global muammolar falsafasi paydo bo'ldi, uni o'rganish ham foydadan xoli bo'lmaydi.

Ilmiy nazariyalar yoki falsafiy g'oyalar inqirozga uchragan yoki o'zining asossizligini namoyish etgan taqdirda, ularning bilim tizimidagi o'rni va rolini qayta baholash amalga oshiriladi, bu esa bazan ularning nazariy va amaliy ahamiyati yo'qolishiga olib keladi. Masalan, flogiston nazariyasi, «falsafa toshi»ni izlash, empiriokrititsizm falsafasi va o'z ahamiyatini yo'qotib, tarix mulkiga aylangan boshqa ko'pgina g'oyalar bilan shunday bo'lgan. Bugungi kunda falsafa bilan ham shunga o'xshash hodisa yuz beryapti, degan fikr mavjud. Hatto falsafa o'lyapti deb hisoblaydiganlar ham yo'q emas.

Falsafani siyosiyashtirish va sxemalashtirishning oqibatlari. Falsafani o'ta siyosiyashtirish malum manoda zararlidir. Chunki sobiq sovet tuzumi davrida ayni falsafiy bilimni mutlaqlashtirish, uni siyosiy bilim doirasi bilan chegaralash oqibatida falsafa siyqalashdi, uning asl mazmuniga putur etkazildi. Shuningdek, falsafaning barcha vaqtlarda va har qanday sharoitda o'z ahamiyatini saqlab qolishi mumkin bo'lgan, qolgan barcha masalalarni istisno etadigan birdan-bir to'g'ri asosiy masalasi bormi? Bizningcha, mazkur uzil-kesil tarif kontekstida bunday masala mavjud emas. Birinchidan, ayni holda tarixiy davrni ham, falsafiy bilimning plyuralistik tabiatini ham hisobga olish talab etiladi. Ikkinchidan, qandaydir bitta muammoni faqat u yoki bu muayyan vazifani echish maqsadida murakkab masalalarni sxemalashtirish, ataylab soddalashtirish to'g'risida so'z yuritilayotganini tushungan holda, malum darajada shartlilik bilan mutlaqlashtirish mumkin. Masalan, falsafaning «borliq» va «substansiya» kabi ayniqsa keng tarqalgan asosiy kategoriyalari haqida so'z yuritilgan va muayyan faylasuflarning ularga bo'lgan munosabatini aniqlashga harakat qilar ekanmiz, «falsafaning asosiy masalasi»ni uzil-kesil echish tarafdorlari ilgari surgan mantiqqa muvofiq, barcha faylasuflarni malum darajada shartlilik bilan materialistlar, idealistlar va dualistlarga ajratishimiz mumkin. Umuman olganda, agar, falsafada ayniqsa ko'p muhokama qilinadigan muammolar doirasini aniqlashga harakat qilinayotgan yoki falsafa tarixini, u yoki bu falsafiy g'oyalar, yo'nalishlar, oqimlarning vorisiyligini yaxshiroq tushunish vazifasi qo'yilayotgan bo'lsa, bunday ajratish mutlaqo o'rinlidir.

Shuningdek, muammoga nisbatan yangicha yondashuvni yoki masalaning yangicha talqinini taklif qilishi mumkin bo'lgan boshqacha yondashuvlar paydo bo'lishi va mavjudligiga yo'lni berkitmaslik uchun har qanday sxemalashtirish cheklangan xususiyatga ega bo'lishini unutmaslik kerak.

Ayni bir masalaga boshqacha nuqtai nazardan, g'ayritabiiy yoki mutlaqo kutilmagan tomondan yondashish taklif qilingan, pirovardda esa avvalgi qarashlar nuqtai nazardan erishish mumkin bo'lmagan kashfiyotlar olingan hollarga tarixda misollar bisyor. Masalan, geotsentrik qarashlar o'rnini geliotsentrik qarashlar egallashi, nisbiylik nazariyasining paydo bo'lishi, Rim klubiga taqdim etilgan «O'sish chegaralari» maruzasi va hokozolar ko'pchilik uchun tabiiy, o'z-o'zidan ravshan bo'lib tuyulgan narsalarga nisbatan noan'anaviy, g'ayritabiiy yondashuv

mahsulidir. Mazkur misollar falsafada «qatiy», uzil-kesil ta'riflarga nisbatan ancha ehtiyotkorlik bilan yondashish lozim, zero bu bazan yanglishishlarning mustahkamlanishiga, oxir-oqibatda esa – turg'unlik va dogmatizmga olib keladi, degan fikrni faqat tasdiqlaydi.

Dunyoni bilish mumkinmi, degan savolga faylasuflar tomonidan berilgan javoblar orasida ham ikki qarama-qarshi yondashuv ajralib turadi. Bu yondashuvlardan biri gnoseologik optimizm deb ataladi. Unga muvofiq insonning bilish imkoniyatlari umuman olganda cheklanmagan va u o'zini qiziqtirayotgan tabiat va jamiyat qonunlarini kashf etish, narsalar mohiyatini aniqlash va dunyoning haqiqiy manzarasini yaratishga ertami, kechmi albatta muvaffaq bo'ladi, deb hisoblanadi. Bunda G.Gegelni, va u yaratgan talimotning ko'p sonli tarafdorlarini tilga olib o'tish o'rinli bo'ladi. Ikkinchi yondashuv agnostitsizm (yunon. a – inkor va gnosis – bilim) deb ataladi. Bu yondashuv namoyondalari dunyoni, narsalar va hodisalar mohiyatini to'la (yoki hatto qisman) bilish amalda mumkin emas, deb hisoblaydi. Bunday qarashlar ayniqsa D.Yumga xosdir. Odatda, agnostitsizm namoyandalari qatoriga I.Kant ham kiritiladi, ammo bu yondashuv ancha bahsli bo'lib, faylasuflar orasida munozaralarga sabab bo'lib keladi.

Falsafada shubhaning roli. Yuqorida keltirilgan ikkala gnoseologik yondashuvni taqqoslash va ularga baho berishda shubha muhim rol o'ynaydi. U nafaqat o'rinli, balki ijodiy yo'naltirilgan har qanday bilishning zaruriy elementi hisoblanadi. Shuningdek, falsafiy mulohazalar har qanday shak-shubhadan xoli bo'lsa, notanqidiy idrok etiladigan o'tmish va qadimda o'zlashtirilgan qonun-qoidalarga so'zsiz bo'ysunish meyorga aylanib qolsa, bu, dogmatizm, turg'unlik va tanazzulga eltadi.

Bunga qadimdayoq antik faylasuflar: elladalik Pirron, Arkesilay va shubhani fikrlashning asosiy tamoyili, inson bilimni esa – nisbiy deb elon qilgan falsafiy yo'nalish – skeptitsizmning boshqa asoschilari etiborni qaratgan. Skeptitsizm haqiqatga shak-shubhasiz egalik va narsalarni to'g'ri tushunishga davogar bo'lgan falsafiy talimotlar hukmronligiga munosabat sifatida vujudga keldi va shu manoda, ijobiy rol o'ynadi.

Falsafaning asosiy funksiyalari. Falsafa u yoki bu muammolarni hal qilar, qonunlar, muayyan tamoyillarni tariflar yoki gipotezalar, g'oyalar va nazariyalarni ilgari surar ekan, ayni vaqtda (bazan shu tariqa) har xil funksiyalarni bajaradi. Falsafaning muhim funksiyalaridan dunyoqarashni shakllantirish, bilish, metodologik, integrativ, madaniy, aksiologik, axloqiy va tarbiyaviy funksiyalarni qayd etish mumkin. Ularning barchasi bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Bu funksiyalarning roli va ahamiyati falsafaning amal qilish sohasi, u hal qilayotgan vazifalar darajasi va xususiyati bilan belgilanadi.

Dunyoqarashni shakllantirish funksiyasi insonning o'z-o'zini va o'zini qurshagan borliqni tushunishi, shuningdek turli voqealar, hodisalarni va o'z burchini qanday talqin qilishida namoyon bo'ladi. Inson dunyoqarashida e'tiqodlar va bilimlar, tuyg'ular va emotsiyalar, oqilonalik va irratsionallik, tajriba, intuitsiya va hokazolar chambarchas bog'lanadi. Ayni shu sababli falsafasiz dunyoning yaxlit manzarasini yaratish mumkin emas, chunki, «hamma narsaga aralashadigan»

falsafagina dunyoqarashning o‘zaro bog‘lanmagan turli «parchalari»ni birlashtirib, shu tariqa odamlarning butun borliqqa nisbatan umumiy, izchil va mantiqan to‘g‘ri munosabatini yaratish imkonini beradi. Bunda falsafa ayrim ikir-chikirlar, ahamiyatsiz tafsilotlarni mavhumlashtiradi va umumiy aloqalarga, turli narsalar va hodisalar xossalarning birligiga etiborni qaratadi va shu tariqa o‘zining bosh funksiyasi – dunyoqarashni shakllantirish funksiyasini bajaradi.

Falsafaning gnoseologik funksiyasi tajribada sinash, tavsiflash yoki shakshubhasiz inkor etish mumkin bo‘lmagan, yani fan ochib berish, tadqiq etish va tahlil qilishga qodir bo‘lmagan narsalar va hodisalarni oqilona yo‘l bilan tushuntirishga harakat qilishdir. Falsafa u yoki bu mohiyati aniqlanmagan yoki kam o‘rganilgan hodisalarni tushuntirishga nisbatan o‘z yondashuvlari, nazariyalari va gipotezalarini taklif qilar ekan, ularni bilishga bo‘lgan qondirilmagan qiziqish o‘rnini muayyan darajada to‘ldiradi, shu tariqa mifologik va diniy fantaziyalarga kamroq o‘rin qoldiradi. Falsafa gnoseologiyada hal qiladigan boshqa bir muhim vazifa «Haqiqat nima?», «Uning mezonlari qanday?», degan masalalar bilan bog‘liq, zero har qanday bilish jarayoni oxir-oqibatda, u yoki bu tarzda haqiqatning tagiga etishga qarab mo‘ljalladi, bu esa eng muhim masaladir.

Metodologik funksiyasi u yoki bu maqsadga erishishning muayyan usulini, shuningdek borliqni nazariy va amaliy o‘zlashtirishga qaratilgan usullar yoki amallar majmuini anglatadi. (bu tushuncha yunoncha methodos – yo‘l, tadqiqot, tekshirish so‘zidan kelib chiqqan). Boshqacha qilib aytganda, bu faylasuf yoki olim o‘zi o‘rganayotgan predmetning tadqiqot yo‘lidir. Odatda metodologiya muammolari falsafa doirasida o‘rganilgan, biroq ayrim fanlar vujudga kelishi bilan falsafiy (umumiy) metodlar bilan bir qatorda muayyan, ayrim ilmiy metodlar ham rivojlana boshladi. Falsafaning boshqa bir muhim metodologik funksiyasi falsafada ham, ayrim fanlarda ham muhim rol o‘ynaydigan har xil kategoriyalarni ishlab chiqishdan iborat. Kezi kelganda yana shuni ham takidlab o‘tish lozimki, falsafa o‘ta keng tushunchalar, yani kategoriyalar bilan ish ko‘rar, ularni tariflar ekan, metodologik funksiya bilan bir vaqtda dunyoqarashni shakllantirish funksiyasini ham bajaradi.

Falsafaning integrativ funksiyasi real borliqning yangi obektlari va hodisalari insonning nazariy tadqiqotlari sohasidan o‘rin olishi, shuningdek ilgari malum darajada anglab etilgan narsalar va hodisalarni yanada chuqurroq o‘rganish uchun birlashishga ehtiyojdir. Ilmiy bilimlarning integratsiyalashuvi va u yoki bu muammolarni echish uchun kuch-g‘ayratni birlashtirish jarayoni yakkalanish xavfining oldini olish imkonini beradi. Zero, ayrim fanlar paydo bo‘lib, ular nafaqat o‘z tadqiqot obekti va predmetini ajratdi, balki o‘zining faqat mazkur fanga xos bo‘lgan tili, kategoriyalar apparati va hokazolarni yaratdi. Ammo bu yo‘lda jiddiy xavf ham mavjud bo‘lib, u shundan iboratki, fanlarning ajralishi natijasida ular o‘rtasidagi aloqalar susayadi, ular murakkab kompleks vazifalarni echishda faol o‘zaro aloqa qilish qobiliyatini yo‘qotadi. Bu esa ilmiy bilimning o‘sishiga salbiy tasir qiladi.

Murakkab kompleks muammolarni tadqiq etuvchi hozirgi zamon fanida bazan ayrim fanlarning vakillari boshqa fanlarning vakillarini faqat ular turli tillarda, yani

har biri o'z fanining tilida gapirgani bois tushunmaydi. Bu jihatdan falsafa ular uchun amalda bog'lovchi bo'g'inga, birlashtiruvchi asosga aylanadi, chunki u o'z tahlilida fanlararo muloqotga va mazmuni ayni bir kontekstda turli fanlar tomonidan qabul qilinadigan va qo'llaniladigan fundamental tushunchalarni yaratishga qarab mo'ljall oladi.

Murakkab obektlarni kompleks tadqiq qilishda har bir muayyan fan o'z predmetidan kelib chiqadi. Bu predmet doirasi unga o'rganilayotgan obektning yaxlit ko'rish, uning aloqalarini aniqlash imkonini bermaydi. Bu vazifani hal qilishga ham faqat falsafa qodir bo'lib, u butun vaziyatni yaxlit ko'rish imkonini beradi va bu jihatdan nafaqat fanlar o'rtasida, balki inson faoliyatining ayrim jabhalari, masalan, o'tkazilayotgan tadqiqotlar bevosita yoki bilvosita bog'liq bo'lishi mumkin bo'lgan huquqiy, siyosiy, axloqiy faoliyat o'rtasida ham bog'lovchi bo'g'in hisoblanadi.

Falsafaning madaniy funksiyasi odamlar dunyoqarashini kengaytirish, ularda bilishga qiziqish uyg'otish, nazariy fikrlash madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish orqali namoyon bo'ladi. U dunyoni o'zlashtirish va bilishning universal shakli sifatida, insoniyatning eng yaxshi yutuqlarini o'zida mujassamlashtiradi va ularni butun insoniyat mulkiga aylantiradi. Turli mamlakatlar va xalqlarning falsafa tarixini o'rganish ularning o'tmishdagi va hozirgi madaniyatini yaxshiroq tushunish imkonini beradi, g'oyalar almashinuvi va madaniy ananalarning o'zaro ta'siriga ko'maklashadi, bu esa madaniy meros bilan uzviy bog'liq bo'lgan ko'pgina muammolarni echishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Falsafaning aksiologik funksiyasi (yunon. axia - qadriyat) hayotning manosi, o'lim va umrboqiylik masalalarini kun tartibiga qo'yish, u yoki bu harakat, voqea, hodisaga "yaxshi", "yomon", "muhim", "foydali", "foydasiz" kategoriyalari bilan baho berish orqali namoyon bo'ladi. U uzoq muddatli tendensiyalarni qisqa muddatli tendensiyalardan farqlash, yuzaki jarayonlarni fundamental jarayonlardan, muhim narsalar va hodisalarni ikkinchi darajali narsalar va hodisalardan ajratish orqali insonning qadriyatlarga munosabati bilan uzviy bog'liq bo'lgan tegishli ehtiyojlarini shakllantiradi. Shu tariqa insonning muayyan qadriyatlari, mo'ljallari va ustuvorliklari belgilanadi, yani tegishli qadriyatlar tizimi tarkib topadi. Bu tizim odamlarning muhim xususiyati hisoblanadi, ularning hayotga munosabatini aks ettiradi va jamiyatdagi xulq-atvorini ko'p jihatdan belgilaydi.

Falsafaning axloqiy funksiyasi odamlarning u yoki bu jamiyatda qaror topgan munosabatlar ta'sirida shakllanuvchi xulq-atvori. Bunda, masalan, axloqiy qadriyatlar, ularning tabiati, asoslari va jamiyatdagi amaliy roli falsafaning tadqiqot predmeti hisoblanadiki, bu jamiyatda yuzaga keladigan va tabiiy yo'l bilan, yani real hayot amaliyotida o'rnatiladigan meyorlar va qoidalarga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Bunday meyorlar ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi muhim dastak hisoblanadi va odamlarning o'zaro aloqalari, ularning munosabatlari, o'zaro til topish darajasida namoyon bo'ladi. Xulosa qilib aytish mumkinki, falsafa doimo axloqda, jamiyatning barcha azolari xulq-atvorida namoyon bo'ladi va shu tariqa yana bir muhim funksiya – axloqiy funksiyani bajaradi.

Falsafaning tarbiyaviy funksiyasi insonning o'z-o'zini tarbiyalash va o'zi mansub bo'lgan jamiyatning axloqiy normalariga rioya qilishda namoyon bo'ladi.

Bu masalaning xalqaro darajadagi keng va har tomonlama muhokamasi natijalarini hisobga olgan holda soʻz yuritish oʻrinli boʻladi. Bugungi kunda nafaqat ayrim xalqlar, balki butun jahon hamjamiyati oʻz-oʻzini anglab etishga yoʻnaltirilgan falsafaga muhtojdir. Buni 2002 yildan Yunesko qaroriga binoan, butun dunyoda har yili noyabr oyining uchinchi payshanbasida oʻtkaziladigan “Jahon falsafa kunlari” ham, hozirgi kunda dunyo uchun eng muhim masalalarga etiborini qaratadigan Jahon falsafa Kongresslari ham tasdiqlaydi. Darhaqiqat bunday kongress birinchi marta 1900 yilda Fransiyada oʻtkazilgan, 1948 yildan boshlab uni har besh yilda bir marta oʻtkazish ananaga aylangan. Xususan, 1998 yilda Boston shahrida (AQSH) boʻlib oʻtgan XX jahon falsafa kongressi “Paydeyya: insoniyatni tarbiyalashda falsafa” mavzusiga bagʻishlangan boʻlsa, Turkiyaning Anqara shahrida oʻtkazilgan XXI Jahon falsafa kongressida “Falsafa jahon muammolari bilan yuzma-yuz” mavzusi atroflicha muhokama qilindi. XXII jahon falsafa kongressi birinchi marta Osiyo mamlakati boʻlmish Koreya respublikasining Seul shahrida “Hozirgi davrda falsafani qayta anglash” degan umumiy mavzu ostida boʻlib oʻtdi. 2018 yil Xitoyning Pekin shahrida 24 Jahon falsafa kongressi n “Inson boʻlishni oʻrganaylik” mavzusida oʻtkaziladi. Kongresslarning mavzularidan koʻrinib turganidek, falsafa real hayot bilan uzviy bogʻliq va eng muhim muammolarni anglab etishga xizmat qilib keldi. Shunday muammolardan biri – insonni shaxs sifatida tarbiyalash va kamol toptirishda falsafaning roli va ahamiyati masalasidir. Buning uchun esa, albatta, qadimgi davr mutafakkirlarining asarlariga yana bir bor murojaat etish taqozo etiladi.

Qadimgi mutafakkirlar har tomonlama talim va tarbiyani, yani oʻz qobiliyatlari va imkoniyatlarini roʻyobga chiqarishga qodir boʻlgan jismoniy va manaviy jihatdan komil insonni voyaga etkazishni «paydeyya» (yunon. pais – bola) atamasi bilan ifodalaganlar. Oʻsha vaqtlarda paydeyya aristokratiyaning oʻziga xos belgisi hisoblangan; endilikda faylasuflar talim va tarbiya muammolarini yana birinchi oʻringa qoʻyib, ularni hal qilishda falsafaning rolini aniqlashga harakat qilar ekanlar, bu tushunchani yana esga oldilar. Xususan, Boston kongressidagi asosiy maruzalarning mualliflaridan biri fransuz faylasufi Per Obenk: «Insonning vahshiyona tabiatidan marifatli tabiatga oʻtish imkoniyati qay darajada mavjud?», degan savolni oʻrtaga tashlaydi. Uning fikricha, insonning yagona tabiati ikki manoli boʻlib, faqat marifat (paydeyya) odamzotni toʻla manoda insonga aylantiradi yoki, Platon tabiri bilan aytganda, paydeyya uning koʻzini ochadi.

Biroq, marifatning vazifasi koʻzga koʻrish qobiliyatini berishdan emas, balki unga toʻgʻri qarashni oʻrgatishdan iboratdir. Demak, Platon, Demokrit, Zardoʻsht va boshqa mashhur faylasuflar fikriga tayanib, marifat yordamida, talim va tarbiya jarayonini zoʻrlikka qarshi yoʻnaltirish va odamzot aql-idrokini kamol toptirish orqali insonning manaviy etuk tabiatini yaratish mumkin. «Paydeyya» tushunchasi bolani tarbiyalab komil insonga aylantiruvchi talim jarayoniga etiborni qaratadi. Qadimgi yunonlar «texne» va «paydeyya» kabi tushunchalarni farqlaganlar; birinchi atama bilimni, yani oʻrganish mumkin boʻlgan narsani anglatadi, ikkinchi atama bilim berish manbaini emas, balki toʻgʻri fikr manbaini anglatadi. Bunda paydeyya, Aristotel tabiri bilan aytganda, insonni oʻzini oʻzi kamol toptirishga ragʻbatlantirishi

lozim. Shu bois Protagor, Suqrot va Platon aytganidek, falsafadan saboq berishda ishontirish mahoratini emas, balki to'g'ri fikrlash mahoratini o'rgatishga etibor qaratish muhim.

Falsafaning jamiyatdagi ahamiyati va roli yoki amaliy falsafa. Odatda falsafa kundalik hayot va amaliyotdan ancha uzoq bo'lgan haddan tashqari umumiy masalalarni o'rganadi, degan fikr mavjud. Ammo bu fikrga qo'shilish mushkul, zero umumiy nazariyalar, agar ularga kengroq manoda va uzoqroq istiqbol nuqtai nazaridan yondashilsa, bazan bilimning tor sohalariga taalluqli bo'lgan ko'pgina muayyan g'oyalardan yaxshiroq samara beradi.

Albatta, falsafa doim kundalik hayotdan malum darajada uzoq bo'lgan va shunday bo'lib qolmoqda. Uning o'ziga xos xususiyati, betakrorligi ayni shu omilda namoyon bo'ladi. Biroq, boshqa tomondan, falsafa oddiy ijtimoiy borliq, kundalik ijtimoiy, siyosiy yoki iqtisodiy hayot amaliyoti deb nomlash mumkin bo'lgan narsalardan ham o'zini olib qochmaydi. Falsafiy refleksiya va u bilan mushtarak bo'lgan harakatlarning mazkur yo'nalishi XX asrda hatto butun bir yo'nalish – amaliy falsafa vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Bunda falsafa siyosiy, ijtimoiy va boshqa qarorlar qabul qilishga muqarrar tarzda va bevosita tasir ko'rsatadi, deb aytish mumkin emas, ammo bu holni butunlay istisno etish ham o'rinli bo'lmaydi. Biroq shu narsa aniqki, falsafa odamlar dunyoqarashini shakllantirish orqali ularning xulq-atvorini, yuqorida zikr etilgan qarorlarni ishlab chiqish jarayonida ularning yondashuvlarini ham ko'p jihatdan belgilaydi, faylasuflarning o'zlari esa bazan odamlar hayotini butunlay o'zgartiruvchi muhim, g'oyalar tashabbusi bilan chiqadilar.

Faylasuflar jamiyatdagi manaviyat va axloqning holati uchun ham sezilarli darajada javobgardirlar, zero ular nafaqat ijtimoiy meyorlar va tamoyillarni rivojlantiradilar, ulardan dars beradilar yoki kitoblar, maqolalar orqali ijtimoiy ongni ular bilan oshno etadilar, balki aksariyat hollarda keng jamoatchilik fikrini uyg'otadigan, ijtimoiy ahamiyatga molik bo'lgan, ijtimoiy-siyosiy muammolar, madaniyat va manaviyat masalalariga doir muhokama va munozaralar tashkil etadilar.

Falsafaning ijodiy xarakteri insonning o'z qobiliyatini dunyoni bilishga va uni o'zlashtirishga yo'naltirishida namoyon bo'ladi. Falsafa jamiyat hayotining deyarli barcha jabhalariga kuchli tasir ko'rsatgan holda, ayni vaqtda fan bilan doim yaqin aloqada ish ko'radi. U yoki bu fan qanday muayyan muammolarni hal qilishidan qat'iy nazar, ular bilan bog'liq jarayonlar va hodisalarga, yani butun vaziyatga, shu jumladan oxir-oqibatda olingan natijalarga nisbatan falsafiy yondashuv doimo zaruriy shart hisoblanadi. Muayyan fan predmetiga va uning oldida turgan muammolarga nisbatan bunday keng bilimning boshqa sohalarida erishilgan eng so'nggi yutuqlarni ham aks ettiradigan yaxlit yondashuvsiz fundamental kashfiyotlar qilish ham, umuman fanning rivojlanishiga erishish ham mumkin emas.

O'z vaqtida dunyoga nisbatan (odatdagi, «klassik» fizika doirasida uzoq yillar hukm surgan yondashuvlarga qaraganda) kengroq yondashuv, masalan, A.Eynshteyn (1879-1955)ga dunyoning manzarasini tushunishga nisbatan butunlay

yangicha yondashuvni taklif qilish va avvalgi fizikaning aksariyat qoidalari muayyan darajadagina haqiqiy bo‘lib qolgan sharoitda klassik (Nyuton) mexanikasini ham o‘z ichiga olgan «Nisbiylik umumiy nazariyasi»ni ta’riflash imkonini berdi. Ammo tabiiy bir savol tug‘iladi: bu erda falsafa chindan ham ijodiy rol o‘ynadimi? Agar ijodiy rol o‘ynagan bo‘lsa, bu nimada va qay tarzda namoyon bo‘ldi?

Umumiy dalillarga to‘xtalmay, shuni qayd etishni o‘rinli deb hisoblaymizki, Eynshteyn ongida o‘zidan oldingi va o‘zi yashayotgan davrdagi falsafa g‘oyalari to‘qnashdi. Ular mutafakkirning butun ijodiy faoliyatiga kuchli tasir ko‘rsatdi, zero u ratsionalistik falsafaning vakillari, ularning o‘tmishdoshlari va izdoshlari bilan talabalik yillaridayoq tanishgan edi. “Biz Eynshteyn ijodiga XX asr o‘rtalarining fizika konsepsiyalari va kelajakka prognozlar nuqtai nazaridan, retrospektiv nazar tashlar ekanmiz, uni insoniyat manaviy hayoti katta bir bosqichining yakuni deb hisoblash mumkin. – Bu bosqich faqat Nyuton mexanikasi bilan boshlangani yo‘q. Butun ratsionalistik fan va XVII asr falsafasi uning negizi hisoblanadi. Eynshteyn asarlari bilan tanishar ekansiz, Galiley, Dekart, Spinoza, Gobbs, Nyuton satrlarini beixtiyor eslaysiz – bazan g‘oyalarning ajabtovur o‘xshashligiga duch kelasiz. XVII asr ratsionalistik tafakkurining nomuayyan farazlari va izlanishlari qanday qilib ijodiy, izchil shakl-shamoyil kasb etayotganining guvohi bo‘lasiz. Bu erda tadrijiy aloqa mavjudligi shak-shubhasizdir”¹.

Falsafiy tasavvurlar va tabiiy-ilmiy qarashlarni farqlash oson ish emas. Biroq falsafiy tasavvurlar tabiiy-ilmiy qarashlarga tasir ko‘rsatgani, xuddi shuningdek al-Xorazmiy, al-Farg‘oniy, Ibn-Sino, Mirzo Ulug‘bek, I. Nyuton, A.Eynshteyn kabi buyuk olimlarning ilmiy g‘oyalari zamirida ularning keng va teran falsafiy bilimlari yotishi shak-shubhasizdir. Ayni shu sababli ushbu mutafakkirlarning yaxlit falsafiy talimoti haqida bo‘lmasa ham ularning jiddiy falsafiy qarashlari haqida to‘la asos bilan so‘z yuritish mumkin.

Fan ilmiy dunyoqarash shakli. Ilmiy dunyoqarash ijtimoiy taraqqiyotning muayyan bosqichida inson ehtiyojlariga javob sifatida shakllangan dunyoqarash shakli bo‘lib, u bilimga tayanadi. Fan bilimning mustaqil sohasi, ilmiy dunyoqarash shakli sifatida faqat XVII-XVIII asrlarda to‘la shakllandi. Muayyan darajada shartlilik bilan shuni aytish mumkinki, bu I.Nyuton klassik mexanikaning asosiy qonunlarini tariflab, shu tariqa tabiatshunoslikning bo‘limi – asoslari asrlar mobaynida shakllangan, bosh tamoyillari esa bundan yuz yilcha muqaddam, avvalo Galileo Galiley tomonidan tariflangan klassik mexanikaning shakllanishiga yakun yasaganidan keyin yuz berdi.

Fanning mohiyatini tushunishga nisbatan ikki asosiy yondashuv, uning keng va tor talqinlari shakllangan.

Keng (yig‘ma) manodagi fan – bu butun inson faoliyati sohasi bo‘lib, uning vazifasi borliq haqidagi obektiv bilimlarni o‘rganish va ilmiy nazariy tizimga solishdan iboratdir. Bu erda “fan”, “olim” tushunchalari muayyanlashtirilmaydi va umumiy, yig‘ma tushunchalar sifatida talqin qilinadi. “Fan” tushunchasi falsafaga tatbiqan ko‘pincha ayni shu kontekstda qo‘llaniladi, faylasuflar esa olimlar deb ataladiki, bu qisman o‘rinlidir.

Muayyan fanlar, masalan, fizika, kimyo, biologiya, tarix, matematikani ifodalash uchun «fan» tushunchasiga torroq, binobarin, izchilroq mano yuklanadi. Bu erda fanga aniq tarif berilgan, olim esa tor mutaxassis, muayyan bilim ifodachisi hisoblanadi. U shunchaki olim emas, balki doim va albatta yo fizik, yo ximik, yo tarixchi, yo boshqa fan vakilidir. Ayni holda fan muqarrar tarzda tabiat, jamiyat, tafakkurning u yoki bu obekti (hodisasi) haqidagi ilmiy bilimlarning qat'iy tartibga solingan, izchil tizimidan tashkil topadi.

Bunday fanlarning har biri faqat ularning o'zigagina xos bo'lgan maxsus qonunlar va metodlarga, mazkur fan uchun yagona bo'lgan til, kategoriyalar apparati va hokazolarga ega bo'ladiki, bu yuz bergan jarayonlarni to'g'ri tavsiflash va tushuntirish, hozirgi davrni to'g'ri tushunish va bilimlarning tegishli sohasida albatta yuz beradigan yoki muayyan sharoitda yuz berishi mumkin bo'lgan voqealar yoki jarayonlarni malum darajada aniq bashorat qilish imkonini beradi. U yoki bu fanning mazmuni ham, u erishgan natijalar ham barcha madaniyatlar va xalqlar uchun yagona bo'lib, ayrim olimning yondashuvi, nuqtai nazari yoki dunyoqarashiga mutlaqo bog'liq emas. Ular mazkur sohada olg'a siljish uchun o'zlashtirish lozim bo'lgan, vaqt va amaliyot sinovidan o'tgan bilimlar yig'indisi sifatida avloddan-avlodga o'tadi.

Falsafada esa qadimda donishmandlik muxlislarining son-sanoqsiz savollariga tajriba yo'li bilan olingan bazi bir oqilona javoblar mavjud bo'lgan. Bu javoblarni haqqoniy, yani amaliyot sinovidan o'tgan, kundalik hayotda o'z tasdig'ini topgan, aniq bilim deb nomlash mumkin. Bunday javoblar masala «yopilishi», kun tartibidan chiqarilishiga sabab bo'lgan, boshqacha aytganda, aniq tariflangan va boshqa javoblarni istisno etgan.

Bunga juda ko'p misollar keltirish mumkin. Masalan, har qanday uchburchak burchaklarining yig'indisi 180 gradusga tengligi yoki suyuqlikka solingan jismga siqib chiqarilgan suyuqlik og'irligiga teng kuch tasir ko'rsatishi aniqlangani zahoti bu masalalar o'zining «ochiq» xususiyatini yo'qotgan, yani ular o'zining boshqa variantlarni istisno etadigan aniq echimini topgan. Bu mazkur masalalar atrofida har qanday qo'shimcha mushohada yuritish foydasizligi tufayli o'zining har qanday ahamiyatini yo'qotganligini anglatgan. Echilgan masalalar va muammolar esa aniq, ishonchli bilim darajasiga o'tgan va shu davrdan etiboran o'zining falsafiy tusini yo'qotgan. XX asrda taniqli nemis faylasufi K.Yaspers bu muhim qoidani tariflar ekan, shak-shubhasiz asoslardan birini har kim etirof etgudek bo'lsa, u shu tariqa ilmiy bilishga aylanadi va bundan buyon falsafa hisoblanmaydi, balki bilimning muayyan sohalariga tegishli bo'ladi, deb qayd etdi.

Shunday qilib, azaldan yaxlit va bo'linmas dastlabki bilim sifatida amal qilgan falsafa zaminida o'sha zamonlardayoq amaliy xususiyat va tegishli yo'nalishga ega bo'lgan bilim sohaları faol shakllana boshladi. Shu tariqa asta-sekin tabiatshunoslik vujudga keldi, muayyan fanlar (matematika, geometriya, fizika, tibbiyot, astronomiya, tarix va boshqalar) shakllanib, o'z shakl-shamoyilini kasb etdi va mustaqil tus oldi. Ayni shu ma'noda falsafa barcha fanlarning asosi hisoblanadi. Bu fanlar falsafadan ajralib chiqqach, keyinchalik ilmiy bilimning tabaqalanishi jarayonida ba'zan parchalanib, o'z tadqiqot predmetini yanada

toraytiradi va mufassallashtiradi. Ular tahlilining teranligi va narsalar mohiyatini anglash darajasi ortsa, ayni vaqtda o'rganilayotgan masalalar doirasi torayadi.

Fan rivojlanishining asosiy bosqichlari. Fan taraqqiyoti ikki katta davr va beshta bosqichda rivojlandi. Birinchi davr dastlabki fan va ikkinchi davr haqiqiy fan deb nomlanadi. Dastlabki fan bir bosqichda, haqiqiy fan uch bosqichda namoyon bo'ladi.

Dastlabki fan davri va ilk fan bosqichi. Miloddan avvalgi I ming yillikdan XVI asrgacha bo'lgan davr ilk fan bosqichidir. Bu bosqichda asrlar mobaynida avlodan-avlodga o'tib kelgan, hayot tajribasi va mehnat faoliyati jarayonida olingan amaliy bilimlar bilan bir qatorda juda umumiy va mavhum mushohadalarga asoslangan nazariyalar xususiyatiga ega bo'lgan tabiat haqidagi dastlabki falsafiy tasavvurlar (naturfalsafa) vujudga kela boshlagan. Ilmiy bilim kurtaklari naturfalsafa doirasida uning elementlari sifatida shakllangan. Matematik, astronomik, tibbiy va boshqa masalalarni echishda foydalaniladigan malumotlar, usullar va metodlar jamlanishi bilan falsafada tegishli bo'limlar vujudga kelgan va keyinchalik asta-sekin shakllanayotgan ayrim fanlar: matematika, astronomiya, tibbiyot va hokazolarga ajralib chiqqan.

Jumladan, Aristotelning falsafiy asarlarida fizika, zoologiya, embriologiya, mineralogiya, geografiya kabi fanlarning kurtaklariga duch kelish mumkin. Miloddan avvalgi III-II asrlarda falsafiy bilim tarkibida statistik mexanika, gidrostatika, geometrik optika (xususan, ko'zgular haqidagi alohida fan – «katoptrika») farqlanadi va nisbatan mustaqil ahamiyat kasb etadi. Markaziy Osiyo mutafakkirlari al-Xorazmiy matematika, al-Farg'oniy astronomiya, al-Beruniy mineralogiya va geografiya, Ibn Sino tibbiyot, Mirzo Ulug'bek astronomiya, Alisher Navoiy adabiyot ilmi rivojiga munosib hissa qo'shdi va ular ijodi mahsullari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Biroq bu fanlarda ayrim tasodifiy kuzatishlar va amaliyot malumotlari umumlashtiriladi-yu, lekin eksperimental metodlar hali qo'llanilmaydi, aksariyat nazariy qoidalar esa asossiz va tekshirib bo'lmaydigan spekulyatsiyalar mahsuli hisoblanadi. Ammo ko'rib chiqilayotgan davrda vujudga kelgan ilmiy fanlar bu davr mobaynida falsafiy bilim qismlari sifatida talqin qilinishda davom etgan.

Shu narsa diqqatga sazovorki, hatto XVII asr oxirida Nyuton o'zining fizika asoslarini yaratgan «Natural falsafaning matematik asoslari» deb nomlangan asarini elon qilgan. Shunday qilib, falsafadan alohida faoliyat sohasi sifatidagi fan hali mavjud bo'lmagan: u asosan falsafa doirasida, ilmiy bilimlarning boshqa manbai – hayot amaliyoti va hunarmandchilik sanati bilan bir vaqtda va u bilan juda zaif aloqada rivojlangan.

Xullas, bu davrda Qadimgi Yhnonistonda "Platon akademiyasi"(2013 yilda Platon akademiyasiga 2400 yil to'lishi bilan XXIII Jahon Falsafa Kongressi Gretsiyaning Afina shahrida o'tkazildi), Markaziy Osiyoda "Mamun akademiyasi" tashkil etilgan, ilmiy bilim rivojida muayyan yutuqlarga erishilgan bo'lsada, madaniyatning alohida shakli sifatida fan paydo bo'lishidan oldingi «embrional» davri hisoblanadi.

Haqiqiy fan davri fan taraqqiyotining birinchi bosqichi bilan boshlanadi. XVI-XVII asrlar – 1 ilmiy inqilob davri bo‘lib, u klassik fan bosqichi deb nomlanadi va XIX asrgacha davom etadi. U Kopernik va Galiley tadqiqotlaridan boshlanib, Nyuton va Leybnitsning fizika va matematika sohasidagi fundamental asarlari bilan o‘z cho‘qqisiga ko‘tarilgan. Fanning buyuk ijodkorlari Galiley va Nyuton yashagan davr –kashfiyotlar, shuningdek sxolastika va diniy dunyoqarash dogmatizmiga qarshi kurash olib borilgan romantik davrdir.

Bu davrda hozirgi vaqt tabiatshunosligining asoslari yaratilgan. Hunarmandlar, tabiblar, alximiklar tomonidan qo‘lga kiritilgan ayrim dalillar tizimli tahlil qilinib, umumlashtirila boshlagan. Ilmiy bilim tuzishning tabiat qonunlarini matematik ta’riflash, nazariyalarni tajribada sinash, tajribada asoslanmagan diniy va naturfalsafiy dogmalarga tanqidiy qarash bilan bog‘liq bo‘lgan yangi meyorlari va ideallari vujudga kelgan. Fan o‘z metodologiyasini yaratgan va amaliy faoliyat ehtiyojlari bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarni yechishga tobora faolroq yo‘naltirilgan.

Biroq fan o‘zining yangi metodologiyasini yaratib, amaliyot ruhi bilan sug‘orilgani sari – falsafadan uzoqlasha boshlaydi. Bu davrda fan falsafiy, diniy, teologik aqidalardan qat’iy nazar rivojlanishi mumkin bo‘lgan ilmiy bilimlar tizimi sifatida tushunila boshlaydi. Natijada fan faoliyatning alohida, mustaqil sohasiga aylanadi. Professional olimlar paydo bo‘ladi, ularni tayyorlash amalga oshiriluvchi universitet ta’limi tizimi rivojlanadi. O‘z faoliyati, muloqot va axborot ayirboshlashning alohida shakllari va qoidalariga ega bo‘lgan ilmiy hamjamiyat vujud keladi.

XVII asrda dastlabki ilmiy akademiyalar: London qirollik jamiyati (1660), Parij Fanlar akademiyasi (1666) tashkil topadi. Keyinroq Berlinda (1700), Sankt-Peterburgda (1724), Stokgolmda (1739) va Evropaning boshqa poytaxt shaharlarida ilmiy akademiyalar tasis etiladi. Bu akademiyalarning eng yirigi - London qirollik jamiyati bo‘lib, u tashkil etilgan paytda 55 a’zodan iborat bo‘lgan. Parij Fanlar akademiyasi 21 kishidan iborat tarkibda ish boshlagan. Sankt-Peterburg akademiyasining a’zolar shtatida dastlab 11 kishi belgilangan. Evropa mamlakatlarida XVIII asr boshiga kelib olimlar soni bir necha ming kishiga yetgan bo‘lsa kerak, chunki ilmiy jurnallarning (bu davrda bir necha o‘n ilmiy jurnallar nashr etilgan) tirajlari ming nusxagacha borgan. 1825 yilda nemis kimyogari Yu. Libix ilmiy laboratoriya tashkil qiladi va u olinga ko‘p miqdorda daromad keltira boshlaydi.

3. XIX asr oxiri XX asrning 70 yillar fani noklassik fan bosqichi deb ataladi. Bu davrda fanlar vujudga keladi, ularda ulkan dalilik material to‘planadi va tizimga solinadi. Matematika, fizika, kimyo, geologiya, biologiya, psixologiya va boshqa fanlarda fundamental nazariyalar yaratiladi. Texnika fanlari vujudga keladi va moddiy ishlab chiqarishda yanada sezilarliroq rol o‘ynay boshlaydi. Fanning ijtimoiy roli ortadi, uning rivojlanishi o‘sha davr mutafakkirlari tomonidan ijtimoiy taraqqiyotning muhim omili sifatida etirof etiladi.

XVIII asrning o‘rtalarida jahonda fan bilan shug‘ullanuvchi kishilar 10 ming kishidan oshmagan bo‘lsa, XIX asr oxiriga kelib olimlar soni 100 ming kishiga yetadi. XVI asrda «olim odamlar»ning yarmidan ko‘prog‘i diniy ma’lumot olgan

kliriklar edi. XIX asrda fan ijtimoiy mehnatning mustaqil tarmogʻiga aylanadi va u bilan universitetlar va institutlarning maxsus fakultetlarini tamomlagan «dunyoviy» professional olimlar shugʻullanadi. 1850 yilda jahonda mingga yaqin ilmiy jurnallar nashr etiladi, 1950 yilga kelib esa ularning soni 10 mingdan oshadi. XIX asr oxiriga kelib ilmiy laboratoriyalar soni koʻpayadi. Fan tijoratchilar, tadbirkorlar etiborini oʻziga tobora koʻproq torta boshlaydi. Ular olimlarning ishlab chiqarish, sanoat ahamiyatiga molik boʻlgan ishlarini mablagʻ bilan taminlay boshlaydilar.

4. XX asrning 70 yillarida fan rivojlanishida yangi postnklassik bosqich boshlanadi, chunki mazkur asr boʻsagʻasida fanda inqilob yuz beradi va buning natijasida u oldingi davrning klassik fanidan sezilarli darajada farq qila boshlaydi. XIX-XX asrlar chegarasida amalga oshirilgan inqilobiy kashfiyotlar bir qancha fanlarning asoslarini larzaga soladi. Matematikada toʻplamlar nazariyasi va matematik tafakkurning mantiqiy asoslari tanqidiy tahlil qilinadi, bir qancha yangi fanlar vujudga keladi. Fizikada klassik fizikaning falsafiy asoslarini qayta koʻrishga majbur qilgan fundamental nazariyalar – nisbiylik nazariyasi va kvant mexanikasi yaratiladi. Biologiyada genetika rivojlanadi. Tibbiyot, psixologiya hamda inson haqidagi boshqa fanlarda yangi fundamental nazariyalar paydo boʻladi. Ilmiy bilimning shakl-shamoyilida, fan metodologiyasida, ilmiy faoliyatning shakl va mazmunida, uning meyorlari va ideallarida olamshumul oʻzgarishlar yuz beradi.

XX asrning ikkinchi yarmi fanni yangi inqilobiy oʻzgarishlarga olib keladi. Bu oʻzgarishlar adabiyotlarda koʻpincha fan-texnika inqilobi sifatida tavsiflanadi. Bu oʻzgarishlar shu bilan bogʻliqki, Ikkinchi jahon urushidan keyin iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda fan yutuqlari ilgari misli koʻrilmagan miqyosda amaliyotga – sanoat, qishloq xoʻjaligi, sogʻliqni saqlash, kundalik hayotga joriy etiladi. Fan energetikada (atom elektrostansiyalari), transportda (avtomobilsozlik, aviatsiya), elektronikada (televidenie, telefoniya, kompyuterlar) ayniqsa ulkan oʻzgarishlar yasaydi. Fanning rivojlanishi eng yangi harbiy texnikani yaratishning asosiy omiliga aylanadi va «ikki lager»ning urushdan keyingi qarama-qarshiligi sharoitida avj olgan qurollanish poygasi yirik davlatlarni ilmiy-texnikaviy tadqiqotlarga ulkan mablagʻlarni sarflashga majbur qiladi.

XX asrning soʻnggi oʻn yilliklarida fan texnika taraqqiyoti axborot (kompyuter) inqilobi bosqichiga qadam qoʻydi. Bu bosqichning oʻziga xos xususiyati shundaki, axborot jamiyat rivojlanishining muhim resurslaridan biriga aylandi. SHu tariqa fan bilan bogʻliq yuksak texnologiyalar, ular bilan mushtarak talim endilikda har qanday jamiyatning sivilizatsion rivojlanish darajasini belgilamoqda. Ilmiy kashfiyotlar va ularning amalga tatbiq etilishi oʻrtasidagi masofa mumkin qadar qisqaradi. Ilgari fan yutuqlaridan amalda foydalanish usullarini topish uchun 50-100 yil vaqt sarflangan boʻlsa, endilikda bunga 2-3 yilda yoki hatto bundan ham qisqaroq vaqt ichida muvaffaq boʻlinmoqda.

Davlat ham, xususiy firmalar ham fan rivojlanishining istiqbolli yoʻnalishlarini qoʻllab-quvvatlashga katta xarajatlar qilishi tabiiy bir hol boʻlib qoldi. Natijada XX asrning oxirida fan jadal suratlarda oʻsib, ijtimoiy mehnatning muhim tarmoqlaridan biriga aylandi. «Katta fan» davri boshlandi. Koʻp sonli ilmiy muassasalar ishiga son-sanoqsiz odamlar ommasini jalb qilindi. Olim kasbi kam

uchraydigan kasb bo'lmay qoldi. Hozirgi vaqtda ilmiy faoliyat o'zlarini qiziqtirgan muammolarni echishga buning butun xavf-xatarini o'z bo'yniga olib qo'lgan ayrim mutafakkirlarning mashg'uloti emas, balki buyurtmaga, rejali topshiriqqa binoan ishlaydigan, uni belgilangan muddatda bajarish va o'z ishi haqida hisobot berishga majbur bo'lgan yirik jamoalarning ishi. Hozirda ilmiy mehnat – industrial mehnatning bir turi. Fan bilan shug'ullanuvchi kishilar hozir «ilmiy xodimlar» deb atalishi bejiz emas.

Hozirgi zamon fani Katta fan deb ataladi. XX asr oxirida Yer yuzidagi olimlar soni 5 mln. kishidan oshgan bo'lsa, XXI asrning birinchi o'n yilligida 6 milliondan oshib ketdi. Fanda 15 ming yo'nalish va bir necha yuz ming ilmiy jurnallar mavjud. Yangi energiya manbalari va axborot texnologiyalari – hozirgi zamon fanining istiqbolli yo'nalishlari. Fanning internatsionalizatsiyalashuvi tendensiyalari kuchayib bormoqda, fanning o'zi fanlararo kompleks tahlil predmetiga aylanmoqda. Uni o'rganishga nafaqat fanshunoslik, fan falsafasi, balki sotsiologiya, psixologiya va tarix ham kirishmoqda.

Bu davrda fanning o'rni va ahamiyati tinimsiz o'sib bordi. Natijada uni ichki differentsiyalashning yangi shkalasiga ehtiyoj tug'ildi. Katta fanda ayrim olimlar evristik izlanish faoliyatiga – yangi g'oyalarni ilgari surishga, ayrim olimlar analitik va eksplikatsion faoliyatga – mavjud g'oyalarni asoslashga, bazim olimlar – ularni tekshirishga, yana bir toifa olimlar esa – olingan ilmiy bilimni amalga tatbiq etishga ko'proq moyil ekanligi ayon bo'lib qoldi.

Sotsiologlarning hisob-kitoblariga ko'ra, fan bilan aholining faqat 6-8% shug'ullanishga qodir. Bazan tadqiqotchilik faoliyati va oliy talimni qo'shib olib borish fanning asosiy va empirik jihatdan aniq belgisi hisoblanadi. Bu fan kasbiy faoliyatga aylanib borayotgan sharoitda juda o'rindir. Ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati zarur va barqaror ijtimoiy-madaniy anana sifatida etirof etiladi. Bu faoliyatsiz jamiyat normal mavjud bo'lishi va rivojlanishi mumkin emas. Fan har qanday marifatli davlat faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan birini tashkil etadi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, mustaqillikning dastlabki kunlaridayoq O'zbekistonda fanning barcha sohalari rivojlanishiga alohida etibor qaratildi. Xususan, O'zbekiston respublikasi Fanlar akademiyasi (O'zFA) mamlakatimizning bosh ilmiy tashkiloti bo'lib, uning tarkibida 36 ta ilmiy tadqiqot muassasalari, 4ta davlat muzeyi, 3 ta hududiy bo'lim: Xorazm Mamun akademiyasi, Qoraqolpog'iston va Samarqand bo'limi, 4 ta Andijon-Namangan, Buxoro, Farg'ona, Qashqadaryo va Surxondaryo ilmiy bo'limlari kiradi, bugungi kunda ularning moddiy texnika bazasi yangi texnologiyalar bilan taminlandi.

2007 yilning 2 oktyabrida O'zFA "Astronomiya" institutining olimlari B.Xafizov hamda A.Sergeevlar tomonidan Maydanak baland tog' observatoriyasida (Qashqadaryo vil.) kashf qilingan kichik sayyora 2010 yilda birinchi prezidentimiz Islom Karimovning taklifiga ko'ra fan, jumladan, astronomiya ilmida olimu fuzalolarga doimo boy bo'lib kelgan qadimiy shahar "Samarqand" nomi bilan ataldi va u AQSHning "Garvard kichik sayyoralar" forumida "210271" raqami bilan ro'yxatga olindi, hamda O'zbekistoniya, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Beruniy, al-Xorazmiy kabi kichik sayyoralar qatoridan o'rin oldi. 2013 yilda

Yaponiya olimlari tomonidan kashf qilingan navbatdagi kichik sayyoraga “Maydanak” deb nomlanishi o‘zbek ilmining jahonda etirof etilishining ifodasidir. Shuningdek O‘zbekistonda Quyosh energiyasidan foydalanish bo‘yicha katta ilmiy tadqiqot ishlarining olib borilishi bir tomondan kelgusidagi energiya tanqisligini oldini olishga yo‘naltirilgan say harakat bo‘lsa, ikkinchi tomondan o‘zbek olimlarining yuksak ilmiy salohiyatidan darak beradi.

Bu jarayonlar fan rivojlanishida va uning jamiyat bilan o‘zaro tasirida yangi bosqichni mega sivilizatsiyada texnofan rivojini boshlab berdi. Hozirgi kunda bozor talablariga javob beradigan texnofan (fan va texnologiyalarning simbiozi) paydo bo‘ldi. Texnofanning rivoji, yani olimlarning foyda keltiradigan kashfiyot va ixtirolari uchun tadbirkorlarning sarmoyalarini jalb etishga alohida etibor qaratildi.

Fan rivojlanishida dunyoning xolonom manzarasi shakllandi, olamni bilishda ezoterik va ilmiy bilimlar uyg‘unlashdi. 1991 yilda dunyoda Internet tarmog‘ining, 2001 yilda Aypetning paydo bo‘lishi bilim egallash, uni tarqatish va undan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirdi. Texnofan va ananaviy tadqiqotlar olib borishda milliy ilmiy dasturlar va ularning millat manfaatlari nuqtai nazardan qo‘llash masalasi dolzarb ahamiyatga ega bo‘ldi. Shu nuqtai nazardan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida talim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini taminlash, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish, bu faoliyatni amalga oshiradigan yangi avlod intellektual yoshlar elitesini tarbiyalash vazifalari belgilanligi O‘zbekiston taraqqiyotida davr ruhining ifodasini namoyon etadi.

Fan va falsafaning mutanosibliigi. Fan rivojlanishning yuksak darajasiga erishgan bo‘lsa-da, lekin amalda falsafa bilan uzviy bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Ular faol o‘zaro tasirga kirishib, bir-birining rivojlanishiga samarali tasir ko‘rsatmoqda. Bu hol shu bilan izohlanadiki, falsafa daliliy materialga, sinovdan o‘tgan ilmiy malumotlarga tayanib, o‘zining mavhum g‘oyalarini borliq bilan taqqoslash imkoniyatiga ega, fan esa, dalillarni qayd etish va tavsiflash bilan cheklanmay, yanada asosliroq xulosalar chiqarish imkoniyatini qo‘lga kiritadi. XXI asr boshiga kelib jahonda umumiy yetti yarim milliard aholining qariyb olti millioni olimlardir. Taxminan shuncha odam fanga xizmat ko‘rsatuvchi mehnat bilan band (laborantlar, texniklar, nashriyotlarning xodimlari va h.k.). Yerdan qadim zamonlardan boshlab to XXI asrning boshiga qadar yashagan olimlarning umumiy sonini olsak, ularning o‘ndan to‘qqiz qismi bizning zamondoshlarimiz ekanligi ayon bo‘ladi. Rivojlangan mamlakatlarda ilmiy xodimlar soni mehnatga qobiliyatli aholining qariyb 10% ni tashkil qiladi, fanni taminlashga milliy daromadning 5% dan ko‘prog‘i sarflanadi.

Hozirgi zamon fani jamiyat, texnika, iqtisodiyot, madaniyat, turmush va kundalik hayotni yo‘lga soluvchi qudratli kuchga aylandi. Ayni vaqtda odamlar bugun fanning qudratinigina emas, balki u bilan bog‘liq bo‘lgan xavflarni ham yaxshi anglaydilar. Hozirgi dunyo o‘z yutuqlari va o‘zining jo‘shqinligi uchun fan oldida masuliyatli. Shuni tan olish lozimki, hozirgi zamonda jamiyat ko‘p jihatdan fanning ulkan yutuqlari tufayli o‘zini o‘zi yo‘q qilish yoqasiga kelib qoldi. Olim M.Sheller “Tarixda inson hali hech qachon o‘zi uchun hozirgidek ulkan muammo

bo‘lgan emas” deb takidlaganida aynan fan taraqqiyotining bazi oqibatlarini nazarda tutgan bo‘lishi mumkin. Biroq, bu ilmiy taraqqiyotni to‘xtatish kerak, degani emas. Ammo ilmiy izlanishni insoniy, axloqiy munosabatga bo‘ysundirish va balki uning qaysidir yo‘nalishlarini cheklash zarurligi to‘g‘risidagi masala kun tartibiga qo‘yilmoqda. Ilmiy izlanishning insonparvarlashuvi, uning yo‘llari va oqibatlariga axloqiy munosabat – bu davrimizning muhim muammolaridir. Shubois, O‘zbekiston prezidenti SH.Mirziyoev takidlaganidek, “Zahmatkash insonlarning ilmiy va ijodiy izlanishlarini har tomonlama qo‘llab quvvatlash, ular uchun zarur shart sharoitlar yaratishni biz o‘zimizning birlamchi vazifamiz sifatida ko‘rishimiz darkor” , zero, “Inson manfaatlari hamma narsadan ustun degan g‘oya” megatsivilizatsiya davridagi fan taraqqiyotining asosiy omili bo‘lishi lozim.

Ayni shu hol falsafa bilan ham, undan muayyan fanlar ilgari falsafiy tusga ega bo‘lgan tadqiqot predmetlari bilan ajralib chiqqanida yuz berishini taxmin qilish o‘rinli bo‘ladi. Biroq, bunday hol yuz berayotgani yo‘q. Tarix fan falsafadan qancha ko‘proq ajralsa, unda shuncha ko‘proq masala va muammolar paydo bo‘lishini, yani falsafa nafaqat kamaymasligi, balki, aksincha, ko‘payishini ko‘rsatadi. Buning sababi nimada? Bu savolga javobni fan va falsafaning o‘ziga xos xususiyatlaridan, ularni alohida-alohida tavsiflovchi masalalar va ularning echimlari o‘rtasidagi tafovutdan qidirish, o‘rinli bo‘ladi.

Fan faqat o‘zi olgan haqqoniy bilimlarga va muayyan natijalarga tayanishi unda o‘z muammolari va «ochiq» masalalari mavjud emasligini anglatmaydi. Biroq aniq, shak-shubhasiz javoblarga ega bo‘lmagan falsafiy masalalardan farqli o‘laroq, ilmiy masalalar bilimdonlik qilishni emas, balki puxta o‘ylashni talab qiladi, zero ular pirovardida dastlabki taxminlarni rad etuvchi yoki ishonchli bilimlar doirasini kengaytirib tasdiqlovchi muayyan echimlar olish real yoki potensial imkoniyatiga egadir. Shu tariqa vujudga keladigan fanlar qaynayotgan suvdagi ko‘piklar kabi kattalashib, falsafiy mushohada yuritish jabhasini, anglab etilgan narsalar anglanmagan narsalar bilan yuzma-yuz keluvchi sohani ham kengaytiradi, chunki tabiatshunoslik doirasida javob berishning iloji bo‘lmagan yangi masalalarni yuzaga keltiradi.

Bugungi kunda eski falsafiy muammolardan yangi falsafiy jumboqlar sari o‘tilmoqda. “Xudo bormi?”, “Haqiqat nima?”, “Ruhning tabiati qanday?” qabilidagi falsafiy masalalarni aniq va uzil-kesil echish mumkin emas, balki ularni echishning umuman iloji yo‘qdir, shu bois bu savollar ham javobsiz qolmoqda.

Nima uchun “balki”? kabi savollar Shuning uchunki, qadimda donishmandlarni bugungi kun nuqtai nazaridan mutlaqo falsafiy bo‘lmagan va tom ma’noda falsafiy sanalgan masalalar qiziqtirgan. Misol uchun: “Yulduzlar kunduzi, quyosh esa – tunda qaerga yo‘qoladi?”, “Nima uchun ayrim jismlar suvda cho‘kadi, bazi jismlar esa suvda suzadi?”, “Chopqir Axilles sudralib borayotgan toshbaqaga qanday yetishi mumkin, basharti har safar ularning o‘rtasidagi masofani bosib o‘tish uchun u mazkur masofaning teng yarmidan o‘tishi lozim bo‘lsa?” va h.k. va sh.k. Biroq bu va shunga o‘xshash masalalar falsafadan tabiatshunoslik sohasiga o‘tgach, ko‘pincha yangi va yangi falsafiy muammolarni yuzaga keltiradi. Masalan: Yer va boshqa sayyoralarni, ayni bir yo‘nalishda aylantirgan kuch qaerda? Agar bizning

quyoshimiz o'rtacha kattalikdagi yulduz bo'lsa, unga o'xshagan milliardlab yulduzlarning hech bo'lmasa ayrimlari bizning yerimizdagiga o'xshash hayot mavjud bo'lgan yo'ldoshlarga ega bo'lishi mumkinmi? Inson hatto eng yaqin yulduzlarga yetishi uchun nafaqat inson hayoti, balki uning sivilizatsiyasi tarixidan ham ko'proq vaqt talab etilar ekan, buni qanday qilib isbotlash yoki rad etish mumkin? Nihoyat, biz kuzata oladigan olam kengayib borayotgan bo'lsa, bu harakat zahirida qanday sabablar va kuchlar yotadi? Bu va boshqa ko'pgina shunga o'xshash muammolar odamlarni falsafaga qayta va qayta murojaat etishga majbur qiladi, chunki fan hozircha bunday savollarga aniq javob berishga qodir emas. Aksildunyolar va aksilgravitatsiya, qora materiya va qora energiya, boshqa makon va vaqt o'lchovlaridagi dunyolar haqidagi har xil falsafiy g'oyalarning mavjudligi ayni shu hol bilan izohlanadi.

Shunga qaramay, fan va falsafaning roliga baho berishda ayrim qarama-qarshiliklar mavjud. Xususan, bazi bir ilmiy va falsafiy davralarda fanning roli va ahamiyatini mutlaqlashtiruvchi yondashuv mavjud bo'lib, u "ijobiy", "foydali" bilim sifatida fanni "mavhum" va "tajribaga asoslanmagan" falsafaga qarshi qo'yadi. Bunday qarashlar sientistik deb, nazariy tafakkur yo'nalishi esa – sientizm (lot. scientia va ingl. science – fan, bilim) deb ataladi. Sientizm fan texnika taraqqiyotining ijobiy jihatlarini mutlaqlashtiradi. Antisientizm falsafiy bilishni ilmiy bilishdan ajratadi, uni ilmiy bilish bilan muvofiq emas, deb elon qiladi, u oqilonalikni kamsitadi va mistika, intuitsiya, iroda va shu kabilarni mutlaqlashtiradi.

Falsafa va fanning umumiy jihatlarini shundaki, ular:

-avvalo aqlga tayanadi va oqilona bilimni yaratishga harakat qiladi;

-o'rganilayotgan obektlar va hodisalarning qonunlari va qonuniyatlarini aniqlashga qarab mo'ljal oladi;

-kategoriyalar apparatini (o'z tilini) yaratadi, o'zlari ilgari surgan qoidalarni asoslaydi, ularga dalil-isbot keltiradi va yaxlit tizimlarni yaratishga harakat qiladi.

Falsafa va fan o'rtasidagi farq shunda namoyon bo'ladi:

falsafa doim u yoki bu faylasuf nomi bilan bog'lanadi, bunda uning g'oyalari, asarlari bo'lishi va ularga boshqa faylasuflar qo'shilishi yoki qo'shilmasligiga bog'liq bo'lmasligi mumkin. Fan esa, mohiyat etibori bilan, jamoa mehnati mahsulidir;

-falsafada (muayyan fanlardan farqli o'laroq) yagona til va yagona tizim mavjud emas. Bu erda fikrlar rang-barangligi meyor sanaladi. Fanda esa monizm hukm suradi, chunki hech bo'lmasa fanning u yoki bu muayyan sohasidagi asosiy tamoyillar, qonunlar va kategoriyalar tizimi (til)ga nisbatan yondashuvlar birligi albatta mavjud bo'ladi;

-falsafa ilmiy bilimlar va dalillardan keng foydalanadi, biroq uning uzil-kesil xulosalari ishonchli deb hisoblanishi mumkin emas, zero ular asosan faylasuflarning subektiv fikrlari va mulohazalariga asoslanadi. Fan esa mohiyat etibori bilan isbotlangan va sinashta bilimlar olishga harakat qiladi, bunda olingan bilimlarni tekshirish yoki rad etish imkoniyatining mavjudligi bu bilimlar haqiqiyli va ilmiy jihatdan asosligining muqarrar sharti hisoblanadi;

-falsafiy bilimlarni tajribada sinash mumkin emas (aks holda ular ilmiy bilimlarga aylanadi);

-falsafa aniq prognoz bera olmaydi, yani u ishonchli bilimlarni kelajakka tatbiq etishga qodir emas, zero unda bunday bilimlar yo'q. Ayrim faylasuf falsafiy qarashlarning muayyan tizimi yordamida faqat bashorat qilishi mumkin, lekin u olim kabi prognoz qilish yoki modellashtirishga qodir emas.

Falsafaga milliylik xos, fan esa jamoa mehnati mahsuli sifatida dunyoviy ahamiyatga ega.

Hozirgi dunyoda falsafaning ahamiyati. Bugungi kunda, tezliklar va yuksak texnologiyalar asrida falsafa kerakmi, u eskirgani yo'qmi? Uzluksiz axborot oqimi va surunkali vaqt tanqisligi sharoitida muayyan bilim falsafani siqib chiqarmaydimi? Bunday savollar mutlaqo o'rinlidir, lekin ularga javobni hayotning o'zi beradi, u hozirgi zamon odami oldiga ko'p sonli, shu jumladan ilgari hech qachon mavjud bo'lmagan, butunlay yangi falsafiy muammolarni qo'yadi.

Jahon hamjamiyati III ming yillikning boshlanishini, biosfera holati va yerda hayotning davom etishi uchun o'z javobgarligini tobora teranroq anglagan holda qarshi oldi. Ayni shu sababli insonning barkamol rivojlanishi, odamlar, xalqlar o'rtasida, shuningdek jamiyat va tabiat o'rtasida insoniy, yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini o'rnatish masalalari azaliy falsafiy mavzular bilan bir qatorda falsafiy tadqiqotlarda birinchi o'ringa chiqmoqda. Shu munosabat bilan faylasuflar avvalo yer yuzida talimning holati va rivojlanish darajasidan qattiq tashvishda ekanliklarini bildirmoqdalar. Ko'pgina faylasuflar fikriga ko'ra, hozirgi muammolarning aksariyati zamirida aynan qoniqarsiz ta'lim va lozim darajadagi tarbiyaning yo'qligi yotadi. Bu muammolarni echishda falsafa ham o'z rolini o'ynashi lozim.

Falsafa dunyoni anglash usuli sifatida. Bugungi kunda nafaqat ayrim xalqlar, balki butun jahon hamjamiyati falsafaga, o'zining hayotdagi o'rni va vazifasini falsafiy anglab etishga ayniqsa muhtojdir.

Falsafa real hayot bilan uzviy bog'liq va doim inson borlig'ining eng muhim muammolarini anglab etishga qarab mo'ljal oladi. Ayni shu sababli hozirgi davrning muhim muammosi – globallashuv va uni falsafadagi butunlay yangi mavzu sifatida falsafiy anglab etish muhim ahamiyatga ega. Falsafa predmeti va muammolarini muhokama qilishda alohida diqqatga loyiq bo'lgan boshqa bir mavzu insonni shaxs sifatida tarbiyalash va kamol toptirishda falsafaning roli va ahamiyatidir.

Hozirgi zamon faylasuflari bunday muammolarni echish ustida ishni davom ettirar ekanlar, "Falsafa nima? U kimga va nima uchun kerak?", "Falsafaning vazifasi nimadan iborat?", "Falsafadan qanday, qaysi yoshdan va nima maqsadda tahsil berish lozim?" qabilidagi bir qarashda allaqachon o'z echimini topgan masalalarni yana kun tartibiga qo'ymoqdalar. Bu haqda ko'p va atroflicha so'z yuritilgan jahon kongresslari dunyoda falsafa predmetiga, shuningdek u ijtimoiy rivojlanishga izchil tasir ko'rsatishga qodir yoki qodir emasligiga, agar qodir bo'lsa, buni u qay tarzda amalga oshirishi mumkinligiga nisbatan yagona yondashuv avvalgidek mavjud emasligini tasdiqlaydi. Fikrlarning bunday rang-barangligi, yuqorida qayd etib o'tilganidek, falsafaning o'ziga xos xususiyati, yani u fikrlar

plyuralizmi, har xil fikrlash imkoniyati bor joydagina mavjud bo'lishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Falsafaning unga yaxlit talimotga aylanish va tilning birligiga, umumiy qonunlar va metodologiyaga tayanish imkonini bermaydigan bu kamchiligi ayni vaqtda, u fanlararo kompleks muammolarni echish talab etiladigan murakkab tizimlar bilan ish ko'rgan holda uning afzalligiga aylanadi.

Quyidagilar hozirgi vaqtda insoniyat uchun eng muhim fanlararo kompleks muammolar hisoblanadi: barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni taminlash; ekologiya muammolari; jamiyat hayoti barcha jabhalarining globallashuvi. Bu muammolarni falsafiy nuqtai nazardan anglab etish alohida ahamiyat kasb etadi. Ilmiy yondashuvlardan farqli o'laroq, muammoga nisbatan falsafiy yondashish dalillarni talqin qilishda ko'proq erkinlik berilishi, ilgari surilayotgan qoidalarni isbotlashga nisbatan engilroq talablar qo'yilishi, mushohadaga asoslangan tariflar berish, subektiv baholash huquqi va shu kabilar bilan tavsiflanadi. Bunday tadqiqotlar bir qarashda uncha katta ahamiyatga ega emasdek bo'lib tuyulishi ham mumkin. Lekin amalda bunday emas.

Birinchi, falsafiy tadqiqot oqilona bilishning fanda olingan natijalarni tekshirish (verifikatsiya qilish) yoki rad etish (falsifikatsiya qilish) imkoniyati yo'qligi tufayli lozim darajada samara bermagan yoki umuman ojiz bo'lib chiqqan sohasida amalga oshiriladi. Insoniyat oqilona bilishning bundan boshqa usullariga ega emas.

Ikkinchi, falsafiy refleksiya muammoni ko'rish ufqini kengaytiradi, uni tadqiq etishga nisbatan yangicha, o'ziga xos yondashuvlarni taklif qiladi, shu jumladan fanga bunday yondashuvlarni ilgari surishga ko'maklashadi. Zero, aniq tariflar va ishonchli dalillarga tayanadigan fan o'z fikrlari va xulosalarida bunday erkinliklarga yo'l qo'ya olmaydi. Vaholanki, falsafiy tafakkur mulohaza yuritish va baholashlarga nisbatan erkin yondashuvsiz o'zining betakrorligini yo'qotadi.

Hamonki plyuralizm falsafada meyor hisoblanar, har bir alohida miyada esa monizmga, yani qarashlarning tartibga solingan, yaxlit va nisbatan ziddiyatlardan xoli tizimiga kelish lozim ekan, falsafani qanday o'zlashtirish, undan qanday saboq berish mumkin?

Butun dunyoda aksariyat faylasuflarni birinchi navbatda ayni shu masala qiziqtiradi. Xususan Suqrot, Seneka va o'tmishning boshqa mutafakkirlari tajribasiga tayangan holda: Falsafa faktlarni eslab qolishni o'rgatmasligi, balki mulohaza yuritish va savollarga javob berish qobiliyatini rivojlantirishi lozim. Falsafadan saboqlar inson har bir masala yuzasidan mutafakkirlar fikriga murojaat etmasdan, o'zi mustaqil o'ylashni va o'z aqliga quloq solishni o'rganishini nazarda tutmog'i darkor. Ayni shu sababli falsafaning vazifasi insonga muloqot qilishni o'rgatish, u o'z shaxsiyatining ahamiyatini ko'rsatishga emas, balki haqiqatning tagiga etishga harakat qilishiga erishishdan iborat. Bu, o'z navbatida, barcha odamlar o'ziga atrofdagilar quloq solishiga loyiq ekanligini nazarda tutadi.

Bu juda topib aytilgan so'zlar falsafani fan sifatida o'rganish, uni bilimlar, tayyor qoidalar va tariflarning muayyan yig'indisi sifatida o'zlashtirish mumkin emas, degan fikrni yana bir karra tasdiqlaydi. Insonga talim berishda paydeyya

yo'lini tanlash – unga «nimani ko'rish lozimligi»ni emas, balki «qaerga va qanday qarash kerakligi»ni o'rgatish lozim. O'z-o'zidan ravshanki, mazkur vazifani ijodiy yondashuvsiz, o'quvchi va o'qituvchining qiziquvchanligi va intiluvchanligisiz hal qilib bo'lmaydi, falsafa esa o'zining sof ko'rinishida yo'qoladi, «havoga sovuriladi», pirovardda kimdir bayon etadigan, kimdir “o'tishi”, o'rganishi va qolaversa, imtihon topshirishi lozim bo'lgan “fan”gina qoladi. Boshqacha aytganda, falsafadan talim berish va uni o'zlashtirish zamirida ham, albatta ijodiy yotishi lozim.

Xulosalar. Dunyoqarash bu insonning dunyoga, undagi voqealarga munosabatlari, undagi o'rni va hayot mazmuni haqidagi eng umumiy qarashlari tizimi.

Insoniyat tarixida dastlab mifologik dunyoqarash shakllangan bo'lib, unda inson atrof muhit bilan birlashadi hamda na tabiat va na o'z urug'idan ajralmagan holda namoyon bo'ladi. Diniy dunyoqarashga olamni bu dunyo, u dunyo va g'ayri tabiiy dunyoga bo'lish xos. Dinning asosi g'ayritabiiy kuchlarga ishonch bilan yo'g'rilgan.

Falsafa mifologik va diniy dunyoqarashdan o'zining atrof muhitga tanqidiy munosabati asosidagi dunyoqarashli funksiyasini bajaradi, gnoseologik va ontologik kategoriyalarga murojaat qilib mantiqiy xulosalar chiqaradi.

Falsafa nazariy asoslangan dunyoqarash, umumiy kategoriyalar, insonning olamga fanning tabiat va jamiyat haqidagi yutuqlariga tayanilgan nazariy munosabati .

Falsafaning ahamiyati, uning insonni o'z-o'zini, olamni anglashga, ijodiy barkamollikka yo'naltira olishidadir.

Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar

- 1.Qanday muammolar falsafiy muammolar deb ataladi?
- 2.Mifologik dunyoqarashning o'ziga xos jihatlari ayting.
- 3.Dinning asosiy funksiyalari qaysilar?
- 4.Falsafiy dunyoqarashning mifologik va diniy dunyoqarashdan asosiy farqi nimada?
- 5.Falsafa nimani o'rgatadi?
- 6.Falsafa va fanning o'zaro nisbati qanday?
- 7.Dunyoqarashning asosiy tarixiy shakllarini tariflang.
- 8.Falsafa tarixini o'rganish qanday maqsadni ko'zlaydi?
- 9.Nima uchun falsafa tarixida fikrlar rang-barangligi meyor hisoblanadi?
- 10.Ayrim insonning yaxlit falsafiy dunyoqarashi falsafiy plyuralizm asosida qanday shakllanadi?
- 11.Falsafa tarixida «falsafaning asosiy masalasi»ga tarif berish qanday amalga oshirilgan?
- 12.Hozirgi dunyoda falsafa qanday vazifalarni hal qilmoqda?

2- mavzu: Falsafiy tafakkur taraqqiyoti bosqichlari:

Sharq falsafasi

Qadimgi Sharqda asotiriy tasavvurlar va falsafiy bilimlarning paydo bo'lishi. «Qadimgi Sharq» tushunchasi eramizdan avvalgi VI-IV ming yilliklarda Misrdan Xitoygacha bulgan ulkan hududdagi sivilizatsiyalarni o'z ichiga oladi. Sharq madaniyati dunyo xalqlari taraqqiyotida katta rol o'ynadi hamda Sharqning o'ziga xos madaniy taraqqiyoti ushbu hududni jahon sivilizatsiyasining beshigi deb atalishiga asos soldi. O'zbek xalqining milliy, falsafiy, ilmiy merosi Sharq sivilizatsiyasi ildizlari bilan chambarchas bog'liq ekanligi Sharq tafakkur tarixining ilk kurtagi bo'lgan asotiriy qarashlarni atroflicha o'rganishga asos yaratadi. «Qadimgi madaniyat makoni bo'lgan Markaziy Osiyoning qulay geografik joylashishi, tabiati, iqlimi mintaqada ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning avvalroq boshlanishini ta'minladi va Sharq bilan G'arb, Mesopatamiya, Eron, Misr keyincha Yunoniston va Rimni Xitoy va Hindiston bilan bog'lovchi, turli xalqlar madaniyatining chatishuvini ta'minlovchi halqa vazifasini o'tadi»¹, - deydi antik va qadimgi dunyo adabiyoti hamda falsafasi haqida monografiya yozgan olima F.Sulaymonova.

Asotiriy yoki mifologik tasavvurlar falsafaning tub ildizlari, ma'naviy manbalaridan biridir. Inson tafakkurining ilk tarixiy bosqichlarida Sharq mifologiyasi dastlabki dunyoqarash shaklining mahsuli sifatida vujudga keldi. Unda insonning uni o'rab turgan olamga munosabati ifoda etilib, atrof-muhitning sir-asrorlarini bilishga intilish, tabiat qonuniyatlarini anglashda badiiy, obrazli tasavvurlar tizimining naturalistik xarakteri namoyon bo'ladi. Misol uchun, insoniyat tamaddunining beshigi sanalmish Hindistonda ilk asotiriy tasavvurlar Vedalarda mavjud bo'lgan. Veda bilim, ta'limot degan ma'noni bildirib, to'rt qismdan – Rigveda, Yajurveda, Samoveda, Axtarvedadan iboratdir. Uning eng qadimgi qismi «Rigveda» eramizdan oldingi II ming yillikka taalluqli bo'lib o'zida asotiriy qarashlarni ifodalagan, tabiat va ilohiyot haqidagi madhiyalar ko'rinishidagi qadimgi hind adabiy yodgorligidir. U koinot madhi deb atalgan she'rlar to'plamidan iborat bo'lib, ushbu madhda bu dunyo nimadan paydo bo'lgan, u qanday va kim tomondan yaratilgan, degan savollarga javob izlangan.

Vedalardagi asotiriy qarashlar juda murakkab tuzilgan. Unga asosan butun dunyo oliy xudo Braxmadan iborat. Braxma dastlab haybatli odam Purushaning tanasini bo'lib-bo'lib koinot, yulduzlar, er, samoni yaratdi va o'zi bir vaqtda u bilan birlashdi. Butun borliq dunyoviy ruh – purusha (erkak boshlang'ich) material borliq – prakriti (ayol boshlang'ich)ning birikuvidan iboratdir.

Xitoy asotirlari ham o'z tarixi bilan eramizdan oldingi uzoq ming yillarga borib taqaladi. Shuningdek, Xitoy asotirlari o'z shakllanish davrida qadimgi Xitoy, daosizm va buddaviylik va kechki Xitoy xalq og'zaki ijodi mifologik tizimlarini birlashtira borgan. Asotiriy qarashlar aks etgan qadimgi asarlardan biri «Shan xay szin» («Tog'lar va daryolar kitobi») bo'lib u eramizdan avvalgi IV-II asrlarda yozilgan. Unda qadimgi Xitoy afsonalari voqealarini umumlashtiruvchi tasvirlar

¹ Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб. –Тошкент: Ўзбекистон, 1997. 9-бет.

mavjud. Unda dastlab dunyo vujudga kelguncha tuman va qorong'ulik bilan to'lgan tubsiz kaos mavjudligi, koinot kuchlari bo'lgan Yan va In vositasida tartibga keltirilganligi haqida tasavvurlar bor. Ba'zilarida esa dunyo g'ayri tabiiy umumiy inson bo'lgan Pan-Gudan paydo bo'lganligi aytiladi. Ayni shu afsonada Xitoy falsafasi uchun muhim bo'lgan, shaxsiyatga ega bo'lmagan dunyoviy qonun bo'lmish «dao» haqidagi g'oya shakllantirilgan. Pan-Gu haqidagi afsona, shuningdek inson va tabiat birligi, mirokosmos-inson va makrokosmos-dunyoning birligi, chambarchas bog'liqligiga ishora qiladi. Bu qarashlar inson bilan bog'liq barcha sohalar: san'at, adabiyot, meditsina, sport va boshqa sohalarda ham insonga tabiat orqali yo'l mavjudligini ta'kidlaydi. Xitoy mifologik merosi uning geografik hududi va iqlimi bilan bog'liqdir. Masalan, bu afsonalarda osmonni ulug'lovchi, zamirida ko'proq shamanlik bilan bog'liq bo'lgan asotirlar ham, shuningdek tabiiy-ilmiy fikr kurtaklari bilan bog'liq ma'lumotlarga ham duch kelamiz. Xususan, Shan davrida, eramizdan oldingi II ming yillik boshlarida xitoyliklar to'rtinchi tartib hududida hisob yuritishni bilganlar, Xan sulolasi davrida esa algebratik tenglamalarning echimi haqida ham ma'lumotlar mavjud bo'lgan.

Yaqin Sharqning ilk mifologik qarashlari Ikki daryo oralig'i yoki Mesopotamiyada vujudga kelgan Gilgamish haqidagi dostonda ifodalangan. Bu dostonning qadimiyligi eramizdan avvalgi IV ming yillikka borib taqaladi. Gilgemish ikki qismi xudo, bir qismi odamdan iborat afsonaviy qahramon bo'lib, u Mesopotamiyaning qadimiy hududlarida istiqomat qilgan SHumer va Akkad mamlakatlari qahramoni bo'lgan. Gilgamish haqidagi dostonning turli variantlari mavjud. Bu afsonaviy qarashlarda Gilgamish xudolar yoki tabiat kuchlari bilan kurashuvchi qahramon emas, do'sti Enkidaga sodiq inson, insoniy munosabatlarni qadrllovchi obraz sifatida tasvirlanadi. Bu afsona mifologik dunyoqarashda tabiat kuchlariga berilgan imtiyoz sekin-asta inson omiligi qaratilganidan dalolat berar edi.

Yaqin Sharq va Turon zaminni birlashtirib turuvchi mifologik qarashlar "Avesto"da o'z ifodasini topgan. Zardushtiylikning bu yozma manbai boy dunyoqarash mazmuniga ega bo'lib, uning bosh g'oyasini Axuramazda va Axrimon obrazlari orqali ifodalangan ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi qarama – qarshilik kurashi va bu kurashda ezgulikning g'alaba qozonishi tashkil etadi. Shuningdek, unda olamning boshlang'ich asoslari va tuzilishi, yaxlitligi to'g'risida muhim fikrlar mavjud. Zardushtiylik qadimgi Hindiston va Yaqin Sharq diniy mifologiyasi mitraizmning Markaziy Osiyo xususan qadimgi Turonzamin va Erondagi kechki ko'rinishi bo'lib, unda Quyosh xudosi va unga bog'liq bo'lgan olovning muqaddaslashtirilishi e'tiborlidir. Axuramazda timsolida gavdalangan dunyoviy Aql hamda suv, er, havo, olov biridan biriga o'tuvchi yoki birlashuvchi-unifakatsiyalanuvchi elementlardir. Bunday mifologik – falsafiy fikrlar keyinchalik Qadimgi Sharq va G'arb falsafasi, xususan, lokayata falsafiy ta'limoti, Platon va Aristotel ontologik konsepsiyalarida olamning ibtidosi masalasining qo'yilishi va hal etilishiga ko'rsatgan ta'siri yaxshi ma'lum.

Sharq mifologik merosi o'zining yuqori badiiy-falsafiy tuzilishi, gnoseologik va ontologik tizimiga ega. Mifologik-asotiriy qarashlar naturfalsafiy xarakterga ega bo'lgani uchun ham Sharq sivilizatsiyalari tabiiy-ilmiy bilimlar sohasida ulkan

natijalarga erishdi va jahon fani rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Bizgacha etib kelgan Papirus yozuvlari misrliklarning matematika va geometriya (turli shaklning xajmi va yuzasini o'lchash), astronomiya (aniq quyosh taqvimining tuzilishi keyinchalik Evropada taqvimga asos bo'lgan), tibbiyot (anatomiya tuzilishi, miya va qon tomirlari xaqidagi ta'limot, jarrohlik), kimyo (turli moddalarning xususiyatini o'rganish va bu bilimlardan mayitni mumiyolashda foydalanish) sohalaridagi keng tushunchalari xaqida dalolat beradi. Mesopotamiya qo'shni hududlarga matematika va astronomiya sohasidagi bilimlar bilan katta ta'sir ko'rsatdi. Mesopotamiyaliklar matematika va astronomiyaga oid kashfiyotlar qilib, oy fazalarini bo'lish tizimini yaratdi, quyosh tizimiga oid jarayonlar, yulduz va sayyorlar ro'yxati, ko'plab harakat holatlarini aniqlash bo'yicha yangiliklar kiritdi. Ikki daryo oralig'ida astrologik bilimlar ham rivojlandi.

Qadimgi dunyoning ma'lum tarixiy davrigacha falsafiy tafakkurni alohida o'ziga xos dunyoqarash sifatida shakllanishi kuzatilmagan. Eramizdan avvalgi VII-VI asrlar insoniyat tarixida muhim burilish davri bo'lib, qadimgi Hindiston, Misr, Xitoyda falsafiy tafakkurning kurtaklari vujudga kela boshlaydi. Mifologik davr nihoyasiga etdi, ratsional idrok davri shakllandi, xozirgacha mavjud bo'lgan asosiy tushuncha va tasniflar ishlab chiqildi. Buddaviylik din va falsafani birlashtiruvchi umumiy qarashlarni ilgari surdi. Xitoyda falsafa maktablari rivojlandi. Eronda zardo'shtiylik mifologik – falsafiy ta'limoti davlat dini darajasida qabul qilindi va qonunlashtirildi. Hindistonda Veda ta'limotining yangi falsafiy maktablar yaratish davri boshlandi, Upanishadalar paydo bo'ldi. Diniy-afsonaviy tasavvurlar bilan bir qatorda, boshqa bir ma'naviy zamin tajribaviy bilimlar va ilm-fan kurtaklari (riyoziyot, astronomiya, tabobat, Yer ishlari haqidagi bilimlar, metallurgiya, jug'rofiya) va bu bosqich doirasida shakllanayotgan tahliliy tafakkur edi. Bunday burulish davriga ijtimoiy va u bilan mutanosib rivojlangan gnoseologik omillar sabab bo'ldi.

Chunki bu davrga qadar qadimgi hind va xitoy fani xam ko'plab yutuqlarni qo'lga kiritgan edi. Hindistonda noldan foydalanib o'nlik sanoq tizimi yaratilishi bilan algebra rivojlana boshladi («son», «tub son», «sinus» kabi atamalar Hindistonda paydo bo'ldi). O'lim sababini aniqlash maqsadida murda tanasini anatomik tadqiq qilish tajribalari anatomiya va fizologiyani rivojlantirib, meditsinada katta yutuqlarga erishildi. Hindistonda tibbiyot taraqqiyoti xaqida manbalarda jarrohlikning 300 turi bo'lganligi va 120 ta jarrohlik asbobi mavjudligi eslatiladi. Barchaga ma'lumki, Xitoy ipak, chinni va qog'ozning vatani hisoblanib, mil. avv. II asrda kashf qilingan, shuningdek, Xitoyda porox, kompas (mil. av. III asr) Yer qimirlashini aniqlovchi asbob (seysmograf) ham ixtiro qilingan. Mil. av. 613 yilga tegishli Xitoy qo'lyozmalari topilib unda Galley kometasi xaqidagi eng qadimgi ma'lumotlar uchraydi. Mil. av. II asrda Xitoyda osmon yoritqichlarining xarakati tasvirlangan birinchi osmon globusi, 2500 yoritqichning o'rni ko'rsatilgan yulduzlar katologi yaratilgan. Yangi taqvim joriy qilinib (mil. av. 104 y.), unga ko'ra bir yil 365 24¹kunga teng bo'lgan. Mil. av. 28 yilda Xan imperiyasining astronomlari quyoshda dog'lar mavjudligini kuzatganlar. Xitoy matematiklari

tarixda birinchi bo‘lib xisobda manfiy sonni qo‘llaganlar. Tibbiyotda igna ukoli, nuqtali davolash kabi ajoyib usulni ishlab chiqqanlar.

Qadimgi Hindistonda falsafiy maktablar. Hindistonda falsafagacha bo‘lgan fikrlar uchta manbada mujassamlashgan: Vedalar, Maxobxorot, Bxagadvita. XX asrda yashab ijod etgan hind faylasufi Aurobindo Gxoshning ta’kidlashicha, “Maxobxorot”-yakka, individual ong emas, milliy ong ijodi, xalqning o‘zi to‘g‘risida yozgan poemasidir¹, - degan edi. Qadimgi hind falsafasi shakllanish davri to‘rtga bo‘linadi.

1. Vedalar davri (er.avv.1500 – 600 y.). Bu davr oriylarning joylashishi va ular madaniyatining yoyilishi, “o‘rmondagi universitetlar”ning paydo bo‘lishi davri.

2. Epik davr (er.avv. 600- 200y.) – ilk upanishaddan darshanlar yoki falsafiy sistemalgacha bo‘lgan davr. Bu davrda buddizm, jaynizm va boshqa ko‘plab diniy ta’limotlar paydo bo‘ladi.

3. Sutra davri (er.avv. 200 y.- eramizning ikkinchi asri boshlarigacha) –qisqa va umumlashgan falsafiy ta’limotlar davri.

4. Sxolastik davr (eramizning ikkinchi asridan boshlanadi). U mohiyatan avvalgi davrga o‘xshab ketadi.

Vedalar eramizgacha uchinchi ming yillikda yig‘ila boshlagan. Vedalar jami 4 ta: Rigvedalar– gimnlar to‘plami, Samavedalar – (“Saman” qo‘shiqalar to‘plami), YAjurveda – (yajus qurbon qilish formulasi, qurbon qilishning formulalari to‘plami, Atxarvaveda (Atxarvak afsonaviy koxin nomi) – magiya va qasamlar to‘plami. Har bir veda adabiyoti samxitlardan, ya’ni matnlardan tashkil topgan. Xususan Rigvedalar 1028 gimndan tashkil

Vedalar davrida dastlabki ilmiy tasavvurlar, xususan, geometrik o‘lchamlar, arifmetik hisoblar, xususan o‘nlik sanoq sistemasiga oid fikrlar mavjud bo‘lgan. Ilk upanishad davridayoq vujudga kelgan ilmiy bilim kurtaklari mifologik dunyoqarashdan keyingi hind falsafasining ikkinchi ma’naviy manbai bo‘lib xizmat qilgan.

Upanishad (atrofida o‘tirish) - ustoz oyog‘i oldida o‘tirib bilim olishni bildiradi. Bu upanishadga mansub asarlarda ko‘rsatmalar, o‘gitlar ko‘pligidan dalolat beradi. Ayni paytda, upanishadalarda shoh saroyidagi disputlar, suhbatlar o‘z aksini topgan. Upanishadlar soni 200 tadan ko‘proq. Ulardan ba’zilari she’r, boshqalari proza, uchinchi bir turlari aralash ko‘rinishda bitilgan. Upanishadlar ikki yarim ming yildan ko‘proq vaqt davomida yaratilgan (eramizgacha ikkinchi ming yillik oxiridan boshlab eramizning ikkinchi ming yillari o‘rtalarigacha). Upanishadlar mualliflari yashirilgan, lekin unda real shaxslar, xususan, braxmanlar va bilimli kshatriylar harakati sezilib turadi.

¹ Иқтибос қуйидаги манба бўйича: Нижников С.А. История философии. Курс лекций. –М.: Экзамен, 2004-С.29.

Бу ҳақда қаранг: Шарипов М, Антик фалсафа. Ўқув қуланма, 2017 йил.

Upanishadlarda ongning to‘rt holati ajratilib, tavsiflanadi: uyg‘oqlik, uyqu, chuqur uyqu (tushsiz) va sof ong-*turiya*. Upanishadlarda “hayot nafasi” tushunchasi (*pranlar*) muhim o‘rin tutadi. Asta-sekin jonning ko‘chib yurishi konsepsiyasi (*sansara*), o‘tmishdagi xulq-atvor, amallar uchun javob berish (*karma*) to‘g‘risida qarashlar shakllana boradi. Taqdirni aynan karmaning belgilashi aytib o‘tiladi. Insonning xulq-atvorini, axloq qonunini *dxarma* belgilaydi.

Hind falsafiy sistemalarini odatda veda g‘oyalari, an‘analariga bo‘lgan munosabatiga ko‘ra ikki guruhga: *astika* va *nastikaga* ajratiladi. Astikaga vedalar avtoritetini e‘tirof etadigan, ortodoksal, mumtoz sistemalar – vedanta, nyaya, vaysheshika, yoga, mimansa va sankxyalar mansub. Vedalar avtoritetini tan olmaydigan ta‘limotlar qatoriga lokayata, buddizm va jaynizm kiradi.

Qadimgi Misr va Bobil falsafiy fikr ildizlari.

Misr tarixi Qadimgi, O‘rta va Kichik hoqonlikka bo‘linadi. Qadimgi hoqonlik eramizgacha bo‘lgan 2900-2200 yillarni o‘z ichiga oladi. O‘rta hoqonlik IX-XVI dinastiyalaridan tashkil topib, 2200-1600 yillarni, yangi hoqonlik XVII-XX dinastiyalaridan tarkib topib, 1600-1100 yillarni qamrab oladi. Mustaqil Misr tarixi XXVI-dinastiya (665-525y) bilan tugaydi. Bu davrda Misr markazi Sais bo‘lgan. Shuning uchun ham XXVI - dinastiyadagi Misr Sais Misri deb ataladi.

Qadimgi Misr fani rivoji piramidalar misolida ko‘zga yaqqol tashlanadi. Ularning eng ulkani Xeops piramidasi bo‘lib, uning balandligi 146 metrdir. U 2,5 mln ohak va granit toshlaridan (blokларidan) qurilgan bo‘lib, har biri 2,5 tonnadan 54 tonnagacha og‘irlikka ega. Bu piramida 20 yil davomida 30 ming kishining mehnati bilan qurilgan. Piramidalar qurilishida misrliklarga 1000000 soni ma‘lum bo‘lgan.

Misrlik astronomlar osmonni kuzatishgan, u amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan. Masalan, Nil daryosining har yilda toshishi Misr osmonida eng yarqin yulduz-Siriusning paydo bo‘lishiga to‘g‘ri kelgan. Misrlik olimlar ekliptika–Quyoshning yulduzlar to‘plamidagi ko‘rinishidan kelib chiqib, uni 12 qismga bo‘lishgan va ular yig‘indisi Zodiakni, ya‘ni “xayvonlar doirasi”ni hosil qiladi, deb hisoblashgan. Ekliptikadagi har bir yulduzlar turkumiga qandaydir bir hayvon nomi berilgan. 1,5 ming yil davomida Misr olimlari 373 marta Quyosh, 832 marta Oy tutilishini kuzatishgan.

Qadimgi Misr kalendari 12 oydan tashkil topgan bo‘lib, ularning har birida 30 kun bo‘lgan. Yil boshida hech bir oyga kirmaydigan beshta muqaddas kun bo‘lgan. Keyinchalik Quyosh-Oy kalendari yaratildi. Oy kalendarini Quyosh kalendariga moslashtirish uchun har 25 yilda 13-oy qo‘shilgan. Sutka vaqti Suv va Quyosh soatlari bilan o‘lchangan.

Qadimgi Bobilda ham, Qadimgi Misrda ham ilm bilan shug‘ullanish kohinlarning ishi deb sanalgan.

Qadimgi Misr lirikasi ham yaxshi rivoj topgan. U o'zining dunyoqarash mazmunga egaligi bilan ajralib turadi. Masalan, "Arfist qo'shig'i"da olamning diniy-mifologik manzarasi shubha ostiga olinadi. Unda aytiladi: "Hech kim hali u yoqdan kelib, unda nimalar borligi to'g'risida, ularga nima kerakligi haqida hech nima demagan, qalblarimizni tinchlantirmagan"¹. Qo'shiqda "o'lganlardan hech biri qaytib kelmagan"² deyiladi. Tirik ekansan, qalbing xoxishiga qarab ish ko'r, deb aytiladi.

Lekin boshqa bir asarda—"O'lim maqtovi"da narigi dunyoning mavjudligi to'g'risida mulohaza bor: "Vaqt uyqu singari lip etib o'tib ketadi va Quyosh botar maydonda "xush kelibsiz" deb kutib olishadi"³. Bu maydonni misrliklar G'arbda deb hisoblashgan.

Geografik joylashuviga ko'ra Babil, ya'ni Mesopotamiya yoki Ikki daryo (Tigr va Evfrat) oralig'i ikki qismdan: shimoliy tog'oldi va janubiy past-tekislikdan tashkil topgan. Unda paleolit davridayoq aholi yashar edi. Eramizgacha bo'lgan to'rtinchi ming yillikda Mesopotamiyaning tekislik qismiga shumerlar, o'rta qismiga akkadlar kelib joylashadi. Eramizgacha uchinchi ming yillikda shumerlar janubda, akkadlar shimolda qator mustaqil shahar-davlatlar barpo etadilar. Eramizgacha bo'lgan uchinchi ming yillik o'rtalarida Shumer shaharlari Lugalzagissi, Akkad shaharlari Sargon I tomonidan birlashtiriladi. Bu ikki birlashma o'rtasidagi kurashda Akkad g'olib chikadi. U o'ziga Mesopotamiya tekislik qismini bo'ysundiradi. Biroq Shumer-Akkad davlati uzoq yashagani yo'q. Mesopotamiya tabiiy chegaralar, to'siqlar bilan himoyalangan, xalqlarning ko'chuv markazida joylashgan edi. Kelgindi gutlar Akkad davlatini yakson qiladi. Keyinchalik paydo bo'lgan Shumer davlatining Ura III dinastiyasi amoritlar va elamitlar tomonidan yo'q qilinadi, ularning o'zaro kurashida esa amoritlar g'olib chiqishadi. Ular markazi Babil bo'lgan davlatni barpo etdilar.

Qadimgi Babil hoqonligi (1894-1595) o'z yuqori cho'qqisiga Xammurapi (1792-1750) davrida erishdi. U ikkinchi ming yilning o'rtalarida xetlar va kassitlar tomonidan yakson qilindi. Kassit dinastiyasi (1518-1202) tarixi to'g'risida ma'lumotlar kam. Eramizgacha VII-asrda Mesopotamiyaning tog'oldi qismida assuriyaliklar dastlabki yirik Yaqin Sharq davlatini barpo etib, uning hududi Erondan Misrgacha bo'lgan joylarni qamrab olgan edi.

Babilning ikkinchi gullab-yashnashi Yangi Babil hoqonligiga to'g'ri keladi (612-538). U forsiylar tomonidan yakson qilingan. Qadimgi Babil—"bronza davri" madaniyatining tipik namunasi. U to'g'risidagi *manbalar* toshdagi va qotgan loydagi yozuvlar bo'lib, ular assuriya-babil (akkad) tilida bitilgan. Assuriya

¹ Лирика Древнего Египта. –М., 1965 –С. 84.

² Там же, с. 85.

³ Там же, с. 86.

xukmdori Ashshurbanipal kutubxonasida 30 mingdan ko‘proq loy jadvallar mavjud bo‘lgan. Matnlarda ish xujjatlari, qoidalar, tarixiy ma‘lumotlar, tibbiy retseptlar, lug‘atlar, matematik masalalar, xudolar sharafiga bag‘ishlangan bitiklar qayd etilgan. Ularda qadimgi ilmiy va dunyoqarash mazmuniga ega ma‘lumotlar ham o‘z aksini topgan.

Qadimgi Bobil hoqonligi davriga oid ko‘p matematik masalalar mavjud. Ular orasida ko‘paytirish jadvali, kvadrat va kub sonlar, hisoblash pozitsion sistemasi bor. Shumer va Akkad-Bobilda oltmishlik hisob sistemasi o‘ylab topilgan. Eramizgacha ikkinchi ming yillikda Bobil olimlariga kvadrat diagonalining tomonlarga munosabati, aylananing radiusga munosabati ma‘lum bo‘lgan. Ular kvadrat va kub tenglamalarga mos keluvchi masalalarni echishgan.

Qadimgi Bobil astronomlari Aleksandr Makedonskiy davriga (eramizgacha 4-asr) kelib, oy va quyosh tutilishi davriyligini aniqlashgan. Ikki minginchi yil boshida quyosh-oy kalendarini yaratishgan. Hammurapining qo‘shimcha oy to‘g‘risidagi buyrug‘i hozirgacha saqlangan. Bu 12 oydan iborat oy yilini (354,36sutka) quyosh yiliga (365,24sutka) yaqinlashtirish maqsadida qo‘llangan. Keyinchalik 8 quyosh yilining 90 oyga (oy yilidagi) yaqin bo‘lishi aniqlangan.

Ilmiy bilimlar bilan uzviy bog‘liq holda ratsional bilish, tafakkur ko‘nikmalari hosil bo‘la boradi, falsafiy dunyoqarash elementlari shakllana boshlaydi. Lekin Bobilda falsafa paydo bo‘lgan emas. Hatto, Yangi Bobil hoqonligi davrida ham olamning tuzilishi mif, afsonalar asosida tushuntirilgan. Ilmiy bilim kurtaklari hali fanni hosil qilish darajasigacha rivojlanmagan .

Markaziy Osiyoda “Avesto” ta‘limotidagi falsafiy fikrlar. Eramizdan oldingi VI asrdan boshlab Markaziy Osiyoda zardushtiylik diniy-falsafiy ta‘limoti vujudga kelib, eramizning III asrigacha hukmronlik qildi. Zardushtiylikning vatani sifatida Markaziy Osiyo (Baqtriya, Xorazm) va Eron (Midiya) ko‘rsatiladi. Zardushtiylikda eng qadimgi davrlardan boshlab (eramizdan oldingi III-II-nchi ming yilliklar) eramizdan oldingi 1-ming yillik o‘rtalarigacha bo‘lgan Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq xalqlarining diniy va ma‘lum ma‘noda falsafiy tasavvurlari aks etgan.

Zardushtiylikda xalqni ezgulik va adolat g‘oyalariga da‘vat etish, hayotbaxsh an‘analarni shakllantirish, dehqonchilik va shahar madaniyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etgan. «Avesto»dagi kosmologik ta‘limotga binoan, Koinot, yer, okean, osmon, nurli doira va jannatdan iborat. Yer dumaloq bo‘lib, atrofi okean bilan o‘ralgan va ob-havo, yil fasllari bilan bog‘liq bo‘lgan etti qismdan iboratki, bu bobilliklarning etti shamollar haqidagi qadimgi tasavvurlaridan iqtibos qilingan. Osmon to‘rt doiradan tashkil topgan: yulduzlar doirasi, oy doirasi, quyosh doirasi va jannat doirasi yoki nur makoni. Yulduzlar, Oy va Quyosh xudo *Axura Mazdaning* badani sifatida tasvirlanadi. Zardushtiylik ta‘limotiga ko‘ra tabiat va jamiyat jarayonlari ikki qarama-qarshi kuch — Yaxshilik (*Axura Mazda* yoki *Xurmuzd* va

Yovuzlik Axriman yoki Angra- Man'yu)ning kurashidan iborat bo'lib, pirovardida, 3000 yildan so'ng YAxshilik g'olib chiqib haqiqat adolat davri keladi. Shundan omon qolgan odamlar abadiy baxtiyorlikda yashaydilar¹.

Zardushtiylikning jamiyat tarixi haqidagi tasavvurlari Injil va Qur'ondagi afsonalar bilan o'xshab ketadi. Avesto bo'yicha birinchi odam Yimadir barcha odamlar undan kelib chiqqan. Bu davr oltin asr sifatida tasvirlanadi: insonlar abadiy hayotga ega edilar, xudo Axuramazda abadiy bahor yaratgan bo'lib, kishilar farovonlik va baxt-saodat yashar edilar. Ammo kunlardan bir kun ular gunohga botdilar: ular ta'qiqlangan mol go'shtini yeb qo'ydilar. Ziyonkor ruh *Anxra Man'yu* ularga sovuq va qor yuboradi. Yima odamlarni sovuqdan qotib qolishlaridan saqlash uchun uy qurib, unga barcha tirik jonzotlardan bir juftdan yashiradi. Bu afsona Shumer, Bobil, Injil va Qur'ondagi Butun dunyoni tufon bosganligi haqidagi afsonaga ochiqdan ochiq o'xshashdir. Tarixning birinchi davri bo'lgan – oltin davr shunday tugallanib, ikkinchi davr bo'lgan-yaxshilik bilan yomonlik o'rtasidagi kurash davri boshlanadi. Uchinchi davr, ya'ni insoniyat kelajagi Avestoda qadimgi davr kishilarining baxt-saodat haqidagi orzulari sifatida tasvirlanadiki, unda yaxshilik bilan yomonlik o'rtasidagi kurashda xudo Axuramazda g'alaba qiladi va o'shanda yaxshilik saltanati barqaror bo'ladi. O'liklarning tirilishi va mahshar kuni haqidagi tasavvurlar ham mavjud.

Zaratushtra xalqning zo'ravonlik va talon-tarrojdan azob chekayotganligini ham dardlik bilan qayd etib, qonun va tartibga rioya etishga chaqiradi. Aynan qishloq xo'jaligi sohasidagi islohotlar g'oyasi uchun Zaratushtraga jamiyat tepasida turganlar qarshi chiqdilar. U qonundan tashqari deb e'lon qilindi, jamiyatdan haydaldi, uning mol-mulki musodara qilindi.

Zardushtiylikda o'sha davrdagi jamiyatning huquqiy va axloqiy tizimi o'z aksini topgan. Zardushtiylikning qonunlar majmuasida halollik, mehnatsevarlik, adolatlilik, fikr, so'z va amalda xolislik yuqori axloqiy me'yor asosi sifatida oldinga suriladi. Zardushtiylikning asosiy e'tiqodi *uchlik qoidasida* o'z aksini topgan: *xayrli fikr (gumata), xayrli so'z (gukta) va xayrli ish (gvarishta)*. Zardushtiylik axloqining talabi insonning ruhiy va tana pokligidir. Zardushtiylik tinch va osoyishta, ittifoqlikda yashashni maslahat beradi, yaqinlarga nisbatan xayrixoh bo'lishni, bir-biriga yordam berishni, yomonlik bilan kurashishni, shafqatsizlik, shuhratparastlik, zo'ravonlik, o'zboshimchalik, hasad, tuhmatni mahkum etadi, g'azab va shahvotga berilmaslikni targ'ib etadi, berilgan va'daga vafo qilmaslikni, o'g'rilikni ta'qiqlaydi, tuzilgan shartnomaga rioya etishni, savdoda rostgo'y bo'lishni, qarzni o'z vaqtida to'lashni ta'kidlaydi. Muhim *axloqiy me'yorga* quyidagilar kirar edi: homiladorlik va ko'z yorish davrida ayol to'g'risida g'amxo'rlik qilish, erni ishlash, daraxtlar o'tkazish, suv va oziq-ovqat manbalarini toza saqlash, chorva boqish, muhtojlarga o'zidagi ortiqcha narsalar bilan yordam ko'rsatish, foydali hayvonlar haqida g'amho'rlik qilish. Zaratushtra ta'limoti Markaziy Osiyo va Erondan boshlab Qora dengiz va Misrgacha yoyilgan edi. Ushbu ta'limotga ko'ra, oliy xudo-Xoliq va unga qarshi turgan va unga bo'ysunmaydigan yovuz kuchlar mavjuddirlar. Xoliq dunyoni muayyan maqsadda yaratgan, ammo hozirgi holatda bu dunyoning

¹ Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб. –Тошкент:Ўзбекистон, 1997. 23-бет.

intihosi bo'lib, bu haqda dunyoning najotkori kelib, undan xabar beradi. Jannat va do'zax mavjud bo'lib, har bir ruh kishi vafotidan so'ng sudga tortiladi. Zamonlar oxirida o'lganlar tirilib, Qiyomat qoyim bo'ladiki, o'shanda barcha gunohkorlar yakson qilinadilar. So'ngra Yer yuzida Xudoning saltanati barqaror bo'ladi va taqvodor kishilar bu saltanatga kiradilar. Xristianlik, gnostik mazhablar va Shimoliy buddaviylikda Zaratushtra o'z ta'limoti bilan Axmoniylik imperiyasining barcha viloyatlarida qoldirgan chuqur ta'sirini o'tkazdi. Zardushtning narigi dunyo haqidagi ta'limoti avval yahudiylik, so'ngra xristian va islom diniga o'tdi va bu dinlar ta'limotiga binoan qayta-qayta ishlanadi.

Konfutsiy va Lao-Szi ta'limoti. Qadimgi Xitoy fan va madaniyati, falsafiy fikrlarning vujudga kelish qonuniyati Sharqning boshqa hududlaridan farq qiladi. Eramizdan avvalgi ikki minginchi yilning o'rtalariga kelib, Shan-in davlatida muayyan xo'jalik shakli yuzaga kelgan. Eramizdan avvalgi XII asrda esa, urushlar natijasida davlat Chjou qabilasining qo'liga o'tgan. Bu hokimiyat eramizdan avvalgi III asrgacha davom etgan. Bu vaqtda diniy mifologik dunyoqarash hukmronlik qilgan. U olam va tabiatning paydo bo'lishini o'ziga xos tarzda tushuntirgan va dunyoviy bilimlar rivojiga o'z ta'sirini o'tkazgan.

Bunday ruhdagi falsafiy g'oyalar ayniqsa qadimgi Xitoy donishmandi Konfutsiy ijodida yaqqol aks etgan. Konfutsiychilik axloqiy qoidalar va ijtimoiy boshqaruv masalalariga diqqat-e'tiborni qaratdi. Konfutsiychilik uchun eng mukammal namuna o'tmish edi. Konfutsiy (er.ol. 551-449 yy.) o'zi haqida shunday degan edi: «Eskini bayon qilaman va yangini yaratmayman». U va uning izdoshlari jamiyatning parchalanib ketishidan bezovta bo'lganliklari sababli asosiy e'tiborni insonni o'z atrofdagilarga va jamiyatga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalashga qaratdilar. Shaxs o'zi uchun emas, balki jamiyat uchun shaxsdir. Konfutsiychilik axloqi insonni uning ijtimoiy vazifasi bilan bog'liq ravishda tushunadi, ta'lim va tarbiyani esa, insonni ana shu vazifasini bajarishga olib keladigan narsa sifatida idrok qiladi. Konfutsiychilik Sharq xalqlari ongida shunday axloqiy me'yorlarni shakllantirdiki, bu - insonparvarlik, burchga sodiqlik, tavfiqlilik, aqlga muvofiqlik, haqiqatgo'ylikdir. Shuningdek, konfutsiychilik besh *aloqa qoidasini*, ya'ni jamiyatdagi munosabatlar tizimini ham ishlab chiqdi - bular davlat bilan fuqarolar o'rtasidagi, ota-onalar bilan bolalar, Yer va xotin, kattalar bilan kichiklar va do'stlar o'rtasidagi munosabatlardir. Xo'jayinga sodiqlik va vafodorlik eng muhim va ustun sanalar edi. Konfutsiychilikning asosiy axloqiy-siyosiy qoidalari quyidagilardan iborat edi: «xalqni shafqat bilan boshqarish va xalq ichiga xulq-atvor qoidalari yordamida tartibni joriy qilish», «osmon irodasidan qo'rqish» va «o'lganlar ruhini hurmat bilan yodga olish», «tug'ma bilimlarga ega bo'lganlar» (mukammal donishmandlar) va «o'qish-o'rganish natijasida bilimga ega bo'lganlar» mavjudligini tan olish, ya'ni o'qish-o'rganish tufayli bilimlarni kasb etish imkoniyati borligi va ta'lim-tarbiyaning buyuk rolini qayd etish, «Oltin o'rtamiyonalik yo'li», «ikki qarama-qarshi qirrani qo'lda ushlab, ammo xalq uchun o'rtachasidan foydalanish» qoidasini qo'llash, ya'ni qarama-qarshiliklarni yumshatish va murosasozlik nazariyasiga rioya etish.

Konfutsiy tomonidan birinchi marta «oltin qoida» deb nom olgan va keyinchalik ko'pchilik mutafakkirlar tomonidan qolipga solingan, - «o'zingga ravo ko'rmagan narsani, boshqa odamlarga ham ravo ko'rma» qoidasi shakllantirildi. Konfutsiychilikning yana bir muhim jihati «ismlarni tuzatish» talabi ediki, unga binoan agar jamiyatda «hukmdor hukmdor bo'lmasa, xizmatkor xizmatkorlik qilmasa, o'g'il o'g'illigini qilmasa», ya'ni shunday vaziyat vujudga kelsaki, u «besh aloqa» talab etgan ta'limot tashqarisiga chiqsa, voqeylikni tuzatish, jumladan, kuch ishlatib bo'lsa ham tartibni joriy etish zaruriyatini tan olish lozim. SHundagina jamiyatdagi tabaqalar o'rtasidagi munosabatlarni qat'iy ravishda tiklash mumkin bo'ladi.

Daosizmning diqqat markazida tabiat, koinot va inson turadi. Ammo bu ibtidolar mantiqiy - aqliy yo'l bilan emas, balki mavjudlik tabiatiga to'g'ridan-to'g'ri kirib borish yordamida bilib olinadi. Dunyo hech qanday sabablarsiz doimiy harakat va o'zgarishda bo'lib, rivojlanadi, yashaydi va sirtqi ta'sir natijasida emas, balki ichki sabab natijasida vujudga kelgan. Borliq haqidagi ta'limotda yo'l tushunchasi – dao - markaziy maqomdadir. Daosizm aqidasi ko'ra, tafakkurning maqsadi, insonni tabiat bilan «qo'shib ketishi» dadir, negaki, u uning tarkibiy qismidir.

Jamiyat hayotidagi tartibga qattiq amal qilish talab etiladi. Tartib, Konfutsiy nuqtai nazariga ko'ra, ilohiy mazmunga ega va uning mohiyatini "Li" tushunchasi belgilaydi. U, ya'ni tartib dunyoning mohiyatini aks ettiradi. Binobarin, jamiyatdagi barcha harakatlar unga binoan amalga oshishi lozim. Tartib-insoniyat jamoasining eng oliy hayotiy qadriyatlaridan biridir. Konfutsiyning ta'kidlashicha, shaxs faqat o'zi uchun emas balki jamiyat uchun ham yashashi kerak. Konfutsiy ta'limotida insonning hayotdagi ijtimoiy o'rni nihoyatda ulug', u o'ziga ravo ko'rmagan narsani boshqalarga ham ravo ko'rmasligi, o'ziga ravo ko'rgan narsani boshqalariga ham ravo ko'rishi lozim.

Konfutsiyning qarashlari keyinchilik jahon falsafasida axloqiy tamoyillar rivojida, adolat, birodarlik, erkinlik g'oyalari takomilida muhim o'rin tutgan. Bu ta'limot Xitoyda ikki ming yil davomida davlat dini darajasiga ko'tarilgan va xalq hayotida muhim ahamiyat kasb etgan.

Qadimgi Xitoyning ko'zga ko'ringan faylasuflaridan biri Lao-Szidir (VI-V asrlar). Uning ta'limotiga ko'ra, olam, jamiyat va inson hayoti Dao qonuniga bo'ysunmog'i lozim. Daosizm ta'limoti ana shu tariqa shakllangan. Dao qonuni-tabiatning yashash qonunidir, undagi rang-baranglik kurashi va uyg'unligi abadiylikning e'tirof etilishidir. Bu qonunga ko'ra, olamning asosini tashkil etuvchi "Si", ya'ni beshta unsur - olov, suv, havo, Yer va yog'och yoki metall olamdagi barcha jismlar asosini tashkil etadi hamda ularning yuzaga kelishini ta'minlaydi. Lao-Szining ta'kidlashicha, olamda hech bir narsa doimiy va o'zgarmas, xarakatsiz holda bo'lishi mumkin emas.

Daosizmga binoan, dunyodagi hamma narsa bir holatdan ikkinchi holatga o'tib turadi. Qarama-qarshi kuchlar o'rtasidagi kurash, ya'ni In va Yan orasidagi munosabat-bizni o'rab turgan olamni harakatga keltiruvchi kuchlar manbaidir. In va Yan o'rtasidagi kurash daoni anglatadi. Odamzod bu kurash jarayonida doimo

yaxshilik tomonidan turishi, o'zini qurshab turgan tabiat va atrofdagi olamga mehr ko'rsatishi lozim. Bo'lmasa, Dao qonuni buziladi va bunday joyda baxtsizlik, fojia yuz beradi. Lao-Szi bu o'rinda ekologik falokati nazarda tutgan. "Kishilar Dao qonunini buzmasliklari kerak, aks holda tabiat ulardan albatta o'ch oladi", degan edi Lao-Szi. Buni ekologik falokatlar avj olib borayotgan bugungi kun voqeligi ham tasdiqlaydi.

Islom dinining vujudga kelishi va falsafiy ta'limoti. Islom dini yuzaga kelishi jihatidan jahon dinlari ichida uchinchi o'rinda turadi. Islom dini Yaqin va O'rta Sharq, Shimoliy Afrika, Janubiy – Sharqiy Osiyo, Kavkaz xalqlari tarixida nihoyatda muhim o'rin tutadi va ayni vaqtda ularning ijtimoiy - siyosiy va madaniy hayotiga katta ta'sir o'tkazib kelmoqda. Islom dini milodiy VII asrning boshlarida Arabiston yarim orolida vujudga kelgan. Arabistonning qulay geografik hududi G'arb va Sharq davlatlarini bog'lovchi karvon yo'llari o'tgan va uchta qit'ani tutashtirib turishi sababli, savdo-sotiq va hunarmandchilik qadimdan rivojlangan. Iqtisodiy rivojlanish darajasi yarim orolning turli hududlarida turlicha bo'lgan. Uning bepoyon cho'llarida yashagan ko'chmanchi arablar chorvachilik bilan shug'ullangan. Yarim orolning shimoliy qismida Vizantiya va Mesopotamiya kabi qadimgi madaniy markazlarning ta'siri kuchli bo'lgan. Milodiy I asrda Arabistonning janubi – g'arbiy qismida shahar – davlatlar vujudga kelib, IV–VI asrlarda bu erda Makka, yasrib, Toif kabi yirik shaharlar vujudga keladi. Mintaqadagi iqtisodiy jonlanish natijasida ko'chmanchi chorvador qabilalarda urug'–qabilaviy munosabatlarning emirilishi va davlat uyushmalarining paydo bo'lish jarayoni kuchaydi. Islom dini tarqoq qabilalarni birlashtiruvchi mafkura sifatida tarix sahnasiga chiqdi.

"Islom" arabcha so'z bo'lib, tangriga o'zini topshirish, itoat, bo'ysunish, tinchlik kabi ma'nolarni anglatadi. Islom dini ta'limoti Qur'on va hadislarda bayon etilgan. Qur'on muqaddas manba hisoblanib, unda islomiy qonun qoidalar, iymone'tiqod talablari, huquqiy va axloqiy me'yorlar o'z ifodasini topgan. Sunna hadislar majmui bo'lib, Qur'ondan keyin keladigan muqaddas manbadir. Islom dinining ontologik asosi tavhid g'oyasiga, ya'ni yagona olloh tomondan butun borliqning yaratilishi haqidagi ta'limotga asoslanadi. Gnoseologik asosi esa, insonni ollohni anglash yo'lidagi jismoniy, ruhiy, ma'naviy holat jarayonlarini va oxir oqibatda ollohni bilish va unga birlashib ketish g'oyasini ilgari suradi. Islom dinining ontologik va gnoseologik masalalarini talqin qilishda, ularga teologik va aqidaviy yondoshuvlar, shuningdek siyosiy masalalarda islomga e'tiqod qiluvchilar bir necha oqim va yo'nalishlarga bo'linib ketganlar.

Ilk o'rta asr Sharq falsafasi va Uyg'onish davri. Falsafa tarixi sohasida Ilk o'rta asr Sharq falsafasi deganda IX-XI asrlar musulmon fani va madaniyati tarixida katta yutuqlar va muhim ilmiy kashfiyotlar davri tushuniladi. Bu davrni ba'zi tadqiqotchilar Sharq fani va madaniyatining Uyg'onish davri yoki "oltin davri" deb e'tirof etadilar. O'sha davrda arab xalifaligi tarkibiga kirgan Movarounnahr va Xuroson mintaqasi yuz bergan madaniy-ma'rifiy yuksalishni ta'minlovchi va harakatlantiruvchi asosiy kuchlardan biri edi. Bu xulosa, birinchi navbatda, bu ilmiy yuksalishda ishtirok etgan mutafakkirlarning asosiy qismi ushbu zamin farzandlari

bo'lgani bilan izohlanadi¹. Ushbu davrning tamal toshi islom dinining vujudga kelish omili, Abbosiylar xalifaligi davriga borib taqaladi. Mazkur davrda Bag'dod shahriga asos solinib, u xalifalikning siyosiy markazi bo'libgina qolmay, balki saltanatning iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy markaziga aylantirilgan edi. Abbosiy xalifalar Mansur (754-776), Xorun ar-Rashid (786-809) va Ma'mun (813-833) davrida ilm-ma'rifatga katta e'tibor berilgan. Yirik ilmiy markazga aylangan "Bayt ul-hikma"ga asos solinib, bu joyda o'z davrining mashhur olimu faylasuflari, tabib, munajjim, musiqachi, me'mor, muhandislari to'plangan. Bu davrda arablar, yahudiylar, nasroniylar, forslar, movarounnahrlik va xurosonliklar tomonidan yahudiy, yunon, suryoniy, fors, hind va boshqa tillardagi riyoziyot, falakiyot, mantiq, alkimyo, handasa, tarix, tibbiyot fanlariga oid madaniy, ilmiy-falsafiy asarlar arab tiliga tarjima qilingan. Qadimgi yunon faylasuflari Ptolemeyning "Almajistiy" (Almagest), Evklidning handasa (geometriya), Aflotun va Arastuning qator asarlari arab tiliga o'girildi. Ayniqsa, Arastuning mantiqqa oid asarlarining tarjima qilinishi Bag'dod ziyolilari dunyoqarashining butunlay o'zgarishiga olib kelgan edi.

Arab xalifaligi davrida O'rta Osiyoni Tohiriylar (821-873), Safforiylar (873-904), Somoniylar (875-999), G'aznaviylar (977-1186), Qoraxoniylar (999-1212) va Xorazmshohlar (1077-1231) kabi sulolalar boshqargan. Saljuqiylar (1033-1300) XII asrning boshlariga kelib, bugungi O'rta Osiyo hududini butunlay o'z nazorati ostiga oladilar². Ma'lumki, saljuqiylar sulolasi ilgarigi mavqei yo'qolgan xalifalikni boshqarayotgan Bag'dod xalifasining rasmiy hukmronligini saqlagan holda, amalda markazlashgan davlatning dunyoviy ishlarini boshqarar edilar. Saljuqiy Malikshoh davrida uzoq vaqt vazirlik qilgan fan homiysi Nizomul Mulk Abu Homid G'azzoliy va Mahmud az-Zamaxshariy kabi olimlarni ham qo'llab-quvvatlagan. U Bag'dodda rasadxona ishini rivojlantirib, mashhur falakshunos olimlarni to'playdi. Nizomul Mulk tashabbusi bilan Buxoro, Hirot, Nishopur, Samarqand, Bag'dod kabi shaharlarda "Nizomiya" nomidagi madrasalar ochilgan. Ushbu davr ilm-fan taraqqiyotining e'tiborli tomoni shundaki, ko'pgina olimlar o'z sohalarida yangiliklarga asos soladilar. Masalan, birinchi bo'lib, Umar Xayyom taqvimiga tuzatish kiritadi. Ayniqsa, bu davr arab va fors adabiyotining taraqqiyot davri bo'lgan. Umuman olganda, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy jabhalarda ko'plab o'zgarishlar falsafa, tabiiy-ilmiy bilimlar rivojida muhim ob'ektiv va sub'ektiv shart-sharoitlarni vujudga keltirgan. O'z navbatida Movarounnahr diyorida ham ilm-fan ravnaqi uchun qulay imkoniyatlar yaratilgan.

Sharq panteizmi va peripatetizmi. Sharq panteizmi "vahdatul vujud" – yagona vujud birligi ta'limotidan vujudga kelgandir. Ya'ni haqiqiy borliq – bu Mutlaq zot, ya'ni olloh o'zi yaratgan borliqda aks etadi, degan ma'noni bildiradi. "Parvardigorning yakkayu yagona vujudidan iborat, boshqa mavjudliklar shu

¹ Қаранг: Абдухалимов Б. А. "Байт ал-хикма" ва Ўрта Осиё олимларининг Бағдоддаги илмий фаолияти: (IX-XI асрларда аниқ ва табиий фанлар). –Т.ошкент: Тошкент ислом университети нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2004. –Б.209-236.

² Қаранг: Бартольд В.В. История Туркестана//Бартольд В.В.Сочинения. Т.II (с. 1.). –М.:Наука, 1963. –С.240-275.

vujudning ijodi, in'ikosidir. Mutlaq zotni al-Haq (Real borliq), al-Ahad (Birlik) deb ham ataydilar. U O'zi yaratgan olam ashyolarida (olami shahodat, olamul xalq) O'zini namoyon etib, zohirlanib turadi va shu orqali O'zi O'zini idrok etadi. Bu Cheksiz va mavhum Mutlaq zotning shahodat (moddiy) olamda tinimsiz jilolanishi «tajalliy» deb atalgan. Tajalliy – barcha harakat va faoliyat, tiriklik va hayot ijodkori Parvardigorning o'zi yaratgan olamda doimo hozir bo'lishidir” –deb tahlil qiladi tasavvufshunos olim Najmiddin Komilov¹. Bu ta'limotning asoschisi Ibn Arabiy bo'lib, tasavvuf falsafasining shakllanishiga asos bo'ldi. Keyinchalik Sharq panteizmi Forobiy ijodida o'zining eng mukammal ko'rinishiga ega bo'ldi. Falsafada odamni tabiiy taraqqiyotning oliy ko'rinishi, Parvardigor yaratgan eng mukammal va mo'‘tabar xilqat deb qarash mavjud. Forobiy va ibn Sino asarlarida bu tez-tez tilga olinadi.

Sharq peripatetizmi IX-XI asr YAqin va o'rta Sharq, Markaziy Osiyo falsafasining yirik oqimi bo'lgan. Asosiy vakillari sifatida – al-Kindiy (800–879), al-Farobiy (870–950), Ibn Sino (Avitsenna 980–1037), Ibn Tufayl (1110–1185), Ibn Rushd (Averroes, 1126–1198) kabi faylasuflarni olish mumkin. Bu oqimning boshqacha nomi Sharq mashoyunchilaridir. Mashoyunchilar sifatida antik davr Yunon falsafasining yirik vakili Aristotel va neoplatonizm oqimi ta'limotini Sharqdagi maktabi va bu ta'limotni yangi zaminda rivojlantiruvchilar hisoblangan. Sharq mashoyunchilari Aristotel mantig'ini diniy, huquqiy, siyosiy, axloqiy va adabiy sohaga tatbiq etishga xarakat qilganlar va shu orqali Sharqda mantiq ilmi rivojlangan. Shuningdek Sharqqa xos bo'lgan mantiq ilmi alohida yo'nalish sifatida shakllangan. Sharq mashoyunchilarining yani bir muhim faoliyatlari qadimgi yunon-rim falsafasi merosini arab tiliga tarjima qilganliklaridadir. Butun dunyo ilmiy merosining tarjimalari orqali Ilk o'rta asr Sharq olimlari Sharqda hind, yunon-rim musulmon dunyosi ilm-fanini birlashtirdilar, bu esa Ilk O'rta asr Sharqida ilm-fan taraqqiyotida uyg'onish davriga asos yaratdi.

Sharq mutafakkirlari: Abu Nasr Forobiy (873-950)-musulmon Sharqida Arastudan keyin “ikkinchi ustoz” unvoniga muyassar bo'lgan yirik mutafakkir va alloma. Uning qalamiga 160 dan ziyod asar mansub bo'lib, ular asosan qadimgi yunon olimlari asarlaridagi tabiiy-ilmiy va falsafiy muammolarni sharhlash hamda bu sohalarning dolzarb masalalarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Mutafakkir olamni ikki ko'rinishda: “vujudga vojib” (olloh) va “vujudi mumkin” (barcha moddiy va ruhiy narsalar) misolida talqin qiladi, barcha narsalar “vujudi vojib” tufayli yashash huquqiga ega bo'ladi. Ular o'zaro bir-biri bilan sababiy tarzda bog'lanadi. Sababsiz oqibat bo'lmaganidek, oqibatsiz sabab ham bo'lmaydi, deydi Forobiy. Olam sifat, miqdor, substansiya - javhar, aksidensiya-oraz (muhim bo'lmagan xossa), imkoniyat, zaruriyat va tasodifiyat, makon va zamon, harakat va rivojlanish kabi tushunchalarda ifodalanadi. Ular fazoviy jismlar, aqlli mahluq (inson), aqlsiz

¹ Комилов Н. Тасаввуф. –Тошкент: Тошкент давлат шарқшунослик институти нашрети, 2006. ...бет.

jonivorlar, o‘simliklar, minerallar va to‘rtga unsur-suv, olov, havo va tuproq kabi oltita ko‘rinishda namoyon bo‘ladi.

Bilish jarayoni aql va sezgilar orqali yuzaga keladi. Bilishda aql va mantiq ilmining maqomi beqiyosdir. Aql vositasida inson ilm-fanni yaratadi. Fan tufayli hodisalar mohiyati ochib beriladi. Har bir fan insonning muayyan ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

Mutafakkir o‘z asarlarida komil inson, fozil fuqaro, odil hukmdor, baxt-saodat, unga erishish yo‘llari, davlatning xususiyatlari, axloqiy va aqliy tarbiya, ijtimoiy istiqbol to‘g‘risida ilg‘or g‘oyalarni ilgari surgan. Forobiyning Sharq xalqlari falsafiy tafakkuri rivojiga bo‘lgan ta‘siri sezilarli bo‘lgan.

Forobiyning fikricha, borliq xudodir va faqat u gina mohiyatlarga vujud bag‘ishlaydi. Forobiy falsafa tarixida birinchi bo‘lib mavjudotlarni ikki qismga: aqliy vujudga va mohiyatga, mohiyatlarni esa to‘qqiz javhar va oraz (aksidensiya)ga bo‘ladi. Forobiy aytganidek, haq xudodir va haqiqatning boshqa ma‘nolari uning asarlarida xuddi shu ma‘noda qo‘llaniladi. Zero, barcha mavjudotlar ilmi ilohiyda mavjud bo‘lib, nimaiki ilohiy qazoda bor bo‘lgan bo‘lsa, qadar darajasiga tushib qolgan, deydi u¹. Xuddi shuningdek, haqni azaliy, deganda, alloma aynan mana shu ma‘noga asosiy e‘tiborni qaratadi. Bunga qo‘shimcha sifatida yana shuni aytish mumkinki, sababiyat ham uning asarlarida boshqacha ko‘rinish va talqinga ega bo‘lib, ko‘proq faollik ma‘nosini kasb etadi.

Forobiy fikricha, bilishning quroli: nutq, tasavvur va hisdan iborat. Narsalar to‘g‘risidagi bilim nutq quvvati orqali, tasavvur va his-tuyg‘u vositasida hosil bo‘ladi. Har vaqt bilim hosil qilishga iroda ko‘rsatilsa, uning idroki nutq quvvatining sha‘nidir. Nutq vositasida kelib chiqqan ilm o‘z e‘tibori bilan his-tuyg‘u uyg‘otuvchi ishlarni bayon etadi. Demak, ilm hissiy quvvat natijasida kelib chiqadi. Ilm mavzusining tasavvurga taalluqligi, tasavvur esa o‘z navbatida orzu tug‘dirishi va his-tuyg‘uga boshqacha tasavvurlarning kirib kelishi nutq quvvatining hosilalaridir. SHunga binoan tasavvuriy ma‘rifatning mavzusi eng yuqori zotlarning vujud bosqichlaridan tortib to mavjud bo‘lmagan yolg‘on narsalarni ham o‘z ichiga oladi. Ikkinchi tomondan avvaldan vujudga kelgan narsalar ikki xil: 1) his-tuyg‘u bilan bilinadigan narsalar; 2) isbot va dalil orqali bilinadigan narsalar².

Tasavvuriy ma‘rifat borliqdagi barcha mavjudotlarga taalluqli bo‘lganligidan tasavvur orqali hosil qilingan ilm ham xuddi dalil va isbot vositasida hosil qilingan mavjudotlar kabi bilib olinishi, ya‘ni his-tuyg‘u uyg‘otadigan bilimlarni ham tasavvuriy ma‘rifat jumlasidan deb hisoblash mumkin.

Vahiy agarchi hamma narsa to‘g‘risidagi mavhum ma‘rifat bo‘lib, moddadan ajratilgan bo‘lsa ham, ilohiy ilmlar jumlasidan hisoblanadi.

Vahiy – mavjud ashyolarning qandayligidan qat‘iy nazar ularning qaysilari foydali va qaysilari zararli ekanligini aniqlashdir. Vahiy ilohiy ilhomdir.

Faol aqlning ruh fazosiga qo‘ygan birinchi qadami tushdir. Ammo tasavvuriy quvvatning o‘z nihoyasiga etishi tushda ko‘rgan voqea va hodisalar bilan chegaralanmaydi. Faol aql uyqu vaqtida tasavvurga kirganidek, bedorlikda ham o‘z

¹ Қаранг: Ризо Доварий Ардакониий. Форобий – муассис фалсафайе исломи. –Б.123-124 (форс тилида).

² Қаранг: Ризо Доварий Ардакониий. Форобий – ислом фалсафаси муассиси. –Б.117.

holatini saqlaydi. Faol aql fayzining mahsuli “ko‘rish”dir, ya’ni nutq quvvati nimaniki dalil asosida “qabul qilsa”, tasavvuriy quvvat uni “ko‘radi”.

Tasavvuriy quvvat nutq quvvatining “o‘rinbosaridir”. Aql va tasavvur faol aql fayzi vositasida shahar raisiga sof va xolis, shu bilan birga ajoyib ma‘rifat majmuasini taqdim etadiki, u bu orqali osmoniy belgilarni ko‘radi va tushuna oladi. Natijada Fozil shahar raisi bu ko‘rganlarini erga tushirib, shahar hayotiga tadbqiq etishga kirishadi¹.

Nazariy aql shunday kuchki, unga qiyos ham, isyon ham va xato ham aralasha olmaydi. Bu aqliy ilmlarning asosiy tushunchasi, zaruriy xulosalar majmuasi va ma‘rifat sarchashmasidir. Insonning nazariy aqli tufayli barcha mavjudotlar haqidagi bilimlar mavzusi bo‘lgan nazariy ilm kelib chiqadiki, uning tayanchi sun‘iy ravishda emasligi ma‘lum bo‘ladi. Bu ilm ayon bo‘lishi bilan birga aqliy kuch haqiqiy amalga aylanadi.

Nazariy aql insonga va uning to‘la faoliyatiga xos bo‘lgan narsa bo‘lib, ruhning badandan ajralgandagi shunday holatidirki, ruh o‘zining yashashi, tayanishi va faoliyati uchun moddaga boshqa muhtoj bo‘lmay qoladi. Shuningdek, u his-tuyg‘u va tasavvurdan ham beniyoz bo‘lib, ularsiz ham “birinchi ibtido”ning zotini tushunishga erishadi. Ya’ni, fozil shaharning birinchi raisi qiyos, misol va o‘zining jismoniy kuchining aralashisiz ham, xudovandu taborak va taoloni xolis ravishda tasavvur va “mushohada” qila olishi mumkin.

Forobiyning fikricha, aql shariatning tayanchi va madadkori bo‘lib, mohiyatan u bilan birdir. Shariatni yaxshi tushunish uchun aql ishlatish zarur. Bir tomonlama aql ishlatishni to‘xtatib qo‘yish dinning rostgo‘ylikka undovchi mohiyatini tushunishga g‘ov bo‘lib, riyokor va nizo chiqaruvchi odamlar domiga tushib qolishi va qavmning o‘zinigina chegaralangan rasm-rusumlari va odatlari asoratiga mutelikni keltirib chiqaradi².

Forobiyning boshqaruvni sharti sifatida falsafaga murojaat qilishining asli mohiyati shundaki, falsafa aql va dalillar bilan ish ko‘radi. Aql va dalil bilan ish ko‘rish esa, ayrim millat va ummatgagina xos bo‘lgan narsa bo‘lmay, jahonshumul ahamiyatga egadir. Agar diniy e‘tiqodlar bilangina ish ko‘riladigan bo‘lsa, unda ma‘lum va mashhur narsalarga xitob qilish va ulardan qoniqish bilangina ish tutishga to‘g‘ri keladiki, unda muayyan asr, shaxs va makon aks etadi, xolos. Ammo aqliy dalillarga tayanilsa, yuqoridagi chegaralanishlarga xojat qolmaydi. Aql o‘z-o‘zicha shunday qoidalarga egadirki, hamma joyda va har qanday zamonda qo‘llansa bo‘laveradi³.

Abu Nasr Forobiyning axloq nazariyasiga qadimgi yunon mutafakkirlari sezilarli ta’sir o‘tkazganlar. Forobiy yunon mutafakkirlarining jamiyat va ijtimoiy axloq to‘g‘risidagi ta’limotlarini islomiy nuqtai nazardan qayta ishlagan.

Forobiy fikricha, inson olti bosqichda yaratilgan vujudlarning eng pastki bosqichida bo‘lsa ham, tug‘ma qobiliyati va quvvati bilan faol aql yordamida o‘zini baland martabali mumtoz vujudga aylantira oladi. U mavjudotlar silsilasi

¹ Қаранг: Форобий. Фазилат, бахт-саодат ва камолот ҳақида. –Т.: Ёзувчи. 2002. –Б.25-26.

² Қаранг: Форобий. “Фозил одамлар шаҳри аҳолисининг фикру-зехни”. Албир Нодир таҳрири остида. –Байрут. 1959. –Б.112-113. (араб тилида)

³ Қаранг: Форобий. Фазилат, бахт-саодат ва камолот ҳақида. –Т.: Ёзувчи. 2002. –Б.54.

bosqichlaridagi shunday yagona bir jinsdirki, uni o‘z kuchiga ko‘ra harakatdagi borliq deyish mumkin. Baxt-saodat bunday yuksak “ko‘tarilish”, ya’ni mumtozlik tarkibiga kirmaydi. Baxt-saodat tushunchasi “faol aqlga eng yaqin turgan narsadir”¹, va uning ma’no-mohiyati faol aql bilan qo‘shiluvda yashiringandir².

Baxt-saodat faol aqlning eng yaqin bosqichiga shiddat bilan etishishdir³. Baxt-saodat inson ruhining shunday kamolot vujudiga erishishidirki, bu joyda ruh uchun moddiy tayanchga ehtiyoj qolmaydi. Bunday martabada har qanday jismdan tashkil topgan ashyolar ham o‘z moddiy o‘zagidan ajralib, undan abadiy mahrum holda, doimiy qoladilar. Bunday martabali joy faol aql maskani bo‘lib, unga faqat irodali faoliyat orqaligina erishiladi. Baxt-saodat o‘z mohiyatiga ko‘ra, shunday xayrli va matlub narsadirki, inson undan boshqa yoqimliroq va ulug‘vorroq narsani qo‘lga kiritishi mumkin emas.

Ammo, har qanday holat va bosqichda ham inson ruhiyati avj nuqtasi va faoliyatining nihoyasi uning tug‘ma vujudidagi quvvatga bog‘liqdir. Forobiy fikricha, baxt-saodat xayrli ishning o‘zginasi bo‘lib, har bir inson erishishi mumkin bo‘lgan maqsadlarning eng ulug‘idir. U o‘zining “Kitob al-siyosat al-madaniya” asarida baxt-saodatni faqat nazariy tafakkurga ega bo‘lgan quvvat egasigina idrok eta oladigan aqliy kamolot turi, deb hisoblaydiki, zero, baxt tushunchasi, aqliy tafakkur orqaligina ma’lum bo‘lib, uning afzalligini hech bir lazizroq va jismoniy ehtiyojga xos narsa bilan solishtirib bo‘lmaydi. Boshqacha ta’bir bilan aytganda, Forobiyning nuqtai nazaricha, mohiyatan baxt-saodat aqliy idrokka aloqador bo‘lib, gapiruvchi quvvat jihatidan aqliy amalga bog‘liqdir va shu bois unga faqat aql yordamida erishish mumkin.

Fozil shahar ahli orasida uning yuqori vakolatli hokimi “baxt-saodatda eng etuk” bo‘lib, ayni vaqtda “moddaning zarra va energiyasidan judo bo‘lgan holda faol aqlga yaqindir”. (Forobiyning bunday ifodasi Qur’on oyatlari va islomiy madaniyatdagi taqvo va zuhdga chaqirish kabi tashviqotlarga muvofiq keladi).

Fazilat ruh lazzatining sababidir. “Sen bundan g‘aflatda eding va biz sening qarshingdagi pardani ko‘tardik va sening ko‘rar ko‘zing ushbu kunda katta ochildi”.

Forobiy bu erda dalil sifatida Qur’oning “Qof” surasining 23-oyatini keltirmoqda. U aytmochiki, tan hijobi insonni ruh lazzati va ilohiy nurni mushohada qilishdan mahrum etmoqda, ya’ni dunyoviy narsalarga aloqadorlik ruh qarshisida parda bo‘lib kelmoqda. Inson aqlining zaifligi va uning moddiy va nomoddiy narsalar bilan qorishiqiligi, uni borliqning avvali “eng etuk jamol” Tangri visolidan mahrum etmoqda.

Forobiy fikricha, inson o‘zining tabiiy holatida kamchilikka ham, kamolotga ham ega emas. Bu erda Forobiyning mazkur xulosasidan kelib chiqadigan o‘ta muhim narsa shundaki, u fazilatni “bir yaxshi amal” ma’nosida ta’riflamaydi. Uning fikricha, fazilat xayrli amalning inson ruhidagi “in’ikosi” va “natijasi” bo‘lgan ruhiy

¹ Қаранг: Форобий. Рисолат фи ал-ақл (“Ақл ҳақида рисола”), –Байрут, 1939. –Б.31. (араб тилида)

² Қаранг: Форобий. Фалсафату Аристотелис ва ажзои фалсафата ва маротиб ажзоиҳо (“Арасту фалсафаси ва фалсафанинг қисм ва босқичлари”). Мухсин Маҳди таҳрири остида “Матнлар силсиласи”. –Байрут, 1-жилд, 1961. –Б.128. (араб тилида).

³ Қаранг: Форобий. Китоб ал-сиёсат ал-маданийя (“Шаҳар сиёсати ҳақида китоб”). Фавзи Наҷжор таҳрири остида. –Байрут, 1969. –Б.36. (араб тилида)

vakillikdirki, yaxshi odatlar, xayrli ishlar va sharaflı xatti-harakatlarning takrorlanishi ta'sirida kelib chiqadi. Xuddi shuningdek, razolat va kamchiliklar ham ruhda o'z izini qoldiradigan yomon amallar va ko'ngilsiz ishlarning takrorlanishi oqibatida kelib chiqqanlar. Uning fikricha, barcha fazilatlarining maqsadi ruhiy xayrixohlikdir. Forobiyning dalili shundaki, modomiki, barcha ruhiy quvvatlar xayrda to'planar ekan, ular orasidagi ixtilof va qarama-qarshiliklarga o'rin qolmaydi. Ammo ular o'rtasidagi osoyishtalik qachonki buzilsa, ruhda sharr, yomonlik va buzg'unchilik alomatlarini axtarib topish kerak bo'ladi. Demak, Forobiy fikricha, baxt-saodat laziz va razolatli narsalardan o'zini tiyish evaziga inson uchun berilgan mukofot emas, balki, ulardan qutulishning natijasi va oqibatidir.

Shunday qilib, fazilat va baxt-saodat o'rtasidagi sabab va oqibat nisbati dalilidan Forobiy shunday natija chiqaradiki, baxt-saodat fazilatga tashqaridan yopishtirilgan yoki yuklangan amal bo'lmasdan, balki uning o'z jinsidan va zotning umumiyligidan chiqqan sifatiy holatdir.

Forobiy yashagan vaqtda zaruriyat yoki zo'rlik haqidagi nazariya ko'pchilik tomonidan qabul qilingan hisoblanar edi. Forobiy shu vaqtgacha qo'llanilmagan "ixtiyor" istilohini ilmiy adabiyotga olib kirish bilan, insonning iroda erkinligi uning taqdiriga ta'sir etishi mumkinligi masalasini o'rtaga tashlab, haqiqatda keng yoyilgan nazariyaga ochiqdan-ochiq qarshi chiqdi. U bunday fikrni yoyish bilan, kishilarni shunga da'vat etdiki, inson tabiiy, irsiy, sinfiy to'siqlarga qaramasdan o'z bilganicha, o'zini qaytadan shakllantirishi va siyosiy nuqtai nazardan ham madaniy jamiyatning "etuk" va "barkamol" a'zosi bo'lishi mumkin.

Forobiy inson mohiyatini tarbiyalashni uzoq muddat davom etadigan yaxshi amal, deb bildi. Uning fikricha, har qanday yaxshi axloq, agar zehnda takroran joylana bersa, uning natijasida inson ongining quvvati va fazilati orta boradi.

Madaniy jamiyatning sifati mohiyatan iroda va ixtiyorda bo'lganligidan jamiyat boshlig'ining vazifasi ushbu irodani xayr (yaxshilik) tomon yo'naltirishdir.

Forobiy fikricha, siyosat tabobat sifatidagi narsa bo'lib, jarrohlik yo'li bilan bo'lsa ham davolanishi zarur bo'lgan fuqarolarning dardiga malham qo'yishdir. Tabibning maqsadi bemorning dardini davolash bo'lganidek, fozil siyosatning ham oxirgi maqsadi jarohatlarga malham qo'yish, singan suyaklarni payvandlash singari aholining farovonligini ko'tarish orqali uning ruhini va salomatligini yaxshilashdir.

Forobiy axloqiy fazilatlarni ruh uchun badan salomatligidek narsa, deb tushungan. Demak, sihat-salomatlikni tiklash uchun inson tabibga ehtiyoj sezganidek, bemor insonning ruhi uchun ham tabib zarurdirki, uni holatini davolay olsin. Shundan kelib chiqadiki, qonuniy hukumat raisining bo'lishi jamiyat uchun isbot qilingan zaruriyatdir.

Forobiyning fozil shahar to'g'risidagi o'z nazariyasini taklif qilishdan maqsadi, barcha insonlarga baxt-saodat va kamolotga erishish yo'llarini ko'rsatib berishdan iborat edi.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048) deyarli barcha fan sohalarida ijod etgan buyuk qomusiy alloma va mashhur mutafakkirdir. U yaratgan 152 ta asrdan 28 tasi bizgacha etib kelgan. Beruniy Abu Nasr Iroq rahbarligida yoshligidan riyoziyot va

falakiyotni o'rganib, 16-17 yoshlaridayoq Quyoshning choshgohdagi balandligini armila bilan o'lchagan. Oradan 30 yil o'tgach, Beruniy yoshligida o'zi o'lchab olgan natijalarni tahlil qilar ekan, ular anchagina ishonchli bo'lganligini ta'kidlaydi. Yoshlik yillarida u quyosh tutilishini kuzatish bilan shug'ullanadi. 22 yoshida Beruniy Markaziy Osiyoda birinchi bor Yer globusini yaratdi. O'zidan oldingi ajdodlar qoldirib ketgan ko'plab kitoblarni o'rganadi va bizgacha etib kelgan, turli xalqlarning yil hisoblari haqidagi ilk yirik asari – “Osorul boqiya” (“Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”)ni yaratadi. Unda yunonlar, rimliklar, forslar, sug'diylar, xorzamiylar va boshqa ko'plab qabila va xalqlarning barcha davrlari, bayram hamda taqvimlari, shuningdek Sharqning turli mamlakatlarining madaniyat va adabiyot tarixi to'la bayon etilgan. Bu asarda Beruniy o'zini faqat elshunos olim emas, balki tilshunos, arab, yunon, fors, suryoniy va boshqa til hamda adabiyotlarning bilimdoni sifatida namoyon etdi¹.

Uning tabiatni o'rganishdagi xizmati kattadir. Alloma jismlarning o'zaro tortishuvi, Quyosh va Oyning tutilishi, zarra, inersiya va sun'iy tanlanish, rivojlanish anomaliyasi, Yer qa'rida ro'y beradigan geotektonik siljishlar, Yer qiyofasining tadrijiy tarzda o'zgarib turishi, Yer yuzida odamlarning turli-tuman qiyofasini ilmiy asoslovchi geografik determinizm ta'limotini ilgari surgan. Beruniy barcha unsurlar, shuningdek, og'irroq unsurlarning boshqa unsurlardan oldin markazga intilishi to'g'risida gapirib, “Hamma unsurlar markazga qarab intiladi, lekin vazminroqlari boshqa unsurlardan o'zib ketadi”², deb ta'kidlaydi. Beruniy “Hindiston” asarida unsurlarning Erga oddiy intilishi to'g'risida emas, balki barcha og'irliklarning Yer markaziga tortilishi haqida fikr yuritadi. Beruniyning Ibn Sinoga bildirgan e'tirozlarida muhitning og'irligini e'tirof etishi bu fazo jismlari bilan Yer o'rtasidagi tortilish kuchlari borligini tan oladigan fikrga yaqinlashganligini ko'rsatadi.

Beruniyning boshqa dunyolar mavjudligi to'g'risidagi tahmini uning falsafiy yutuqlaridan biri hisoblanadi. Beruniy boshqa dunyo haqida fikr yuritir ekan, boshqa moddiy dunyo ehtimol bizning dunyomiz singari tabiiy xususiyatga ega bo'lib, “harakat yo'nalishlari esa, bizning dunyomizdagi harakat yo'nalishlaridan farq qiladi”, deydi³.

Buyuk tabiatshunos Beruniy o'zining salaflari, xususan, Ahmad Farg'oniy va Muhammad Xorazmiy ishlab chiqqan bilishning ilmiy usulini rivojlantirib, yanada chuqurlashtirdi. Uning aytishicha, “Kuzatishning ko'pligi ko'rilgan narsalarni eslab qolish qobiliyatini yaratadi”. Beruniy o'zining o'gitida: “Biliming shundayki, u yalang'och bo'lsang ham o'zingda qoladi, uni hammomga kirganingdagi xo'llik ham yo'qota olmaydi”, -deydi. Beruniy inson xotirasini “Allohning tuhfasini”, deb hisoblaydi. U “tirishqoqlik va ko'p shug'ullanish bilan ham xotirani mustahkamlash mumkin”⁴, -deydi.

Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharqda tajribaga tayanuvchi fanlarning

1

² Шарипов А. Малоизвестные страницы переписки между Беруни и Ибн Синой.//Общественные науки в Узбекистане, –№ 5. 1965, –С.39.

³ Ўша жойда.

⁴ Ўша жойда.

asoschilaridan bo'lgan Beruniy tabiat hodisalarini bilishdagi nazariy-mantiqiy xulosa, qiyoslashning ahamiyatini benihoya katta ekanligini uqtirib o'tadi. Beruniy tarixiy hodisa va voqealar haqiqatini bilishga taalluqli hamma masalalarni har taraflama o'rganish zarurligini ko'rsatadi va bu bilan noto'g'ri yo'lga tushib qolishdan ehtiyot bo'lishga chaqiradi. U shunday yozadi:

“Xabar ko'z bilan ko'rgandek bo'lmaydi, degan kishining so'zi juda to'g'ridir. Chunki ko'rish ko'ringan narsaning o'zi bor paytida va o'z joyida turganida qarovchi ko'zining uni uchratishdan iboratdir. Xabarga yolg'on-yashiqlar qo'shilmaganda, u ko'rishga nisbatan ortiqroq o'rinda turgan bo'lar edi. Chunki ko'rish va qarash shu payt, shu on bilan cheklanadi. Xabar esa narsaning ko'ringan payti va vaqtdan ilgari o'tgan va keyin keladigan hollaridan darak beradi; ana Shuning uchun xabar mavjud narsalardan ham, kelajak narsalardan ham darak beraveradi. Yozish xabar turlarining biri bo'lib, uni boshqa turlardan ko'ra afzalroq hisoblash mumkin; qalamning mangu yodgorliklari bo'lmaganda, xalqlarning tarixini qanday bilar edik?!

So'ngra, odatda bo'lgan hol haqida berilgan xabar bir xil emas, balki rost va yolg'on bo'lishi mumkin”¹.

Kuzatish, ko'rish, tajribalar qilish, mantiqiy umumlashmalar chiqarish, ma'lumotlarni to'plash, xalq og'zaki ijodi, yozma yodgorliklarni o'rganish, barcha xabar, manbalarga tanqidiy qarash haqiqatni aniqlash uchun ularni bir-biri bilan taqqoslab ko'rish, til qurilishini, yozuvlarni o'rganish – bular hammasi o'rta asrning buyuk qomuschisi Abu Rayhon Beruniy ilmiy usulining asosini tashkil etadi.

Beruniyning falsafiy qarashlari tabiiy-ilmiy qarashlari ta'sirida shakllangan. U modda va zamon, qonuniyat, zarurati va tasodifiyat, harakat va rivojlanish, ziddiyat sabab va oqibat kabi falsafiy muammolarga katta e'tibor bergan. Beruniyning asarlarida bilish masalalari muhim o'rin tutadi. Beruniy fikricha bilishga bo'lgan qiziqishning ikkita sababi bor. Birinchidan, bu o'ziga xos lazzatdir. Ikkinchidan, bilishdan maqsad odamlar ehtiyojlarini qondirishdir. Bilish sezgilar etkazib bergan ma'lumotlardan boshlanadi. Ular bilishning yuqori bosqichi aqliy bilish uchun o'ziga xos ko'makchi va asos bo'lib xizmat qiladi. Bilimning chinligi kuzatuv va sinov-tajriba orqali belgilanadi. Ular tufayli ashyolarning muhim jihatlari o'rganiladi, ularning miqdoriy tomonlari aniqlanadi, bilish jarayonining samaradorligi oshib boradi. Beruniy fikriga ko'ra, inson qiyofasi tabiat ta'sirining natijasidir. Uning ichki qiyofasiga kelsak, uni inson Cheksiz sa'y-harakatlar oqibatida tubdan o'zgartirishi mumkin. Har bir kishi o'z xulq-atvorining sohibidir. Jamiyat tadrijiy o'zgarishlar orqali rivojlanib boradi. Adolat, fuqaro uchun g'amxo'rlik, zulmni bartaraf etish, jamiyatni aql va adolat tug'i ostida boshqarish mutafakkirning idealidir.

Abu Ali Ibn Sino (980-1037) buyuk alloma va mutafakkir. U Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida tug'ilib, Hamadon shahrida vafot etgan. Ibn Sinodan qolgan ma'naviy meros taxminan 280 nomdan ziyoddir. Ular tibbiyot, falsafa, mantiq, psixologiya, axloq, musiqa, farmakologiya va boshqa sohalarga bag'ishlangan. Olimning “Shifo kitobi”, “Tib qonunlari”, “Bilimlar kitobi”, “Tabiat

¹ Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар. 2-жилд, –Т.: Фан, 1965. –Б.25.

durdonasi” kabi asarlari mashhurdir. Ibn Sino asarlari Ovro‘poda XII asrdan boshlab lotin tiliga tarjima qilina boshlangan. Xususan, «Tib qonunlari» asarining o‘zi lotinchada 30 martadan ortiq nashr qilindi. «Kitob ush-shifo»ning ko‘p bo‘limlari, mantiq, musiqa, erning tuzilishi, geologik jarayonlar, metafizikaga oid qismlari ham lotinchada nashr etildi. So‘ngi ilmiy tadqiqotlar Ibn Sinoning Sharq adabiyotiga ham ta‘sir ko‘rsatganligini, chuqur falsafiy mazmuni ifodalovchi ruboiy va falsafiy qissalar janrining taraqqiyotiga turtki berganligini ko‘rsatadi.

Ibn Sino dunyoqarashi Forobiy asarlari ta‘sirida shakllandi, u ijtimoiy-falsafiy masalalarda Forobiy qarashlarini davom ettirdi, Sharq ilmini yangi tabiiy-ilmiy fikrlar bilan boyitib tizimlashtirdi va yangi bosqichga ko‘tardi. Uning fikricha, falsafaning vazifasiga mavjudotni — barcha mavjud narsalarni, ularning kelib chiqishi, tartibi, o‘zaro munosabati, biridan ikkinchisiga o‘tishini har tomonlama tekshirish uchun zaruriyat, imkoniyat, voqelik, sababiyatlarini asos qilib oldi. Borliqqa bo‘lgan qarashlarida Ibn Sino barcha mavjud narsalar ikkiga bo‘ladi: zaruriy vujud (vujudi vojib) va imkoniy vujud (vujudi mumkin). Zaruriy vujud hech narsaga bog‘liq bo‘lmagan bir butunlikni tashkil etuvchi Xoliqi olamdir. SHuningdek vujudi vojib kosmologik ongni ham tashkil etib olami kabirni o‘zida ifoda etadi. Qolgan hamma narsalar imkoniy tarzda mavjud bo‘lib, zaruriy vujud — ollohdan kelib chiqadi. Vujudi vojib va vujudi mumkin — sabab va oqibat munosabatidadir. Bu jarayon emanatsiya - tajalli tarzida, ya‘ni quyoshdan chiqayotgan nur shaklida amalga oshadi. Shu tartibda imkoniyat shaklidagi mavjud bo‘lgan aql, jon (nafs) va jism, ular bilan bog‘liq holda osmon sferalari kelib chiqadi. Bular hammasi substansiya - javhardir. Bundan tashqari borliqda aksidensiya-oraz ya‘ni narsalarning tashqi ko‘rinishini belgilovchi, narsalarning belgilari, rang, hajmi, hidi va boshqa hususiyatlari mavjud. Jism shakl va moddadan tashkil topadi. Xudo abadiy, uning oqibati bo‘lmish materiya ham abadiydir. Uning o‘zi boshqa konkret jismlarning asosidir. Narsalarning konkret ko‘rinishlari, shakllari o‘zgaradi, lekin ularning moddiy asosi yo‘qolmaydi.

Materiyaning eng sodda, bo‘laklarga bo‘linmaydigan shakli to‘rt unsur: havo, olov, suv, tuprokdan iborat. Ularning turlicha o‘zaro birikuv natijasida murakkab moddiy narsalar tashkil topadi. Murakkab narsalar o‘zgarib, turli shakllarga ega bo‘lishi mumkin, lekin ularning moddiy asosi bo‘lgan to‘rt unsur yo‘qolmaydi, abadiy saqlanadi. Ibn Sino falsafasida ma‘lum darajada inson vujudga kelishi haqidagi evolyusion ta‘limot mavjuddir. Uning fikricha, avval tog‘- Toshlar, so‘ng o‘simlik, hayvonot va tabiat rivojining eng mukammal namunasi sifatida inson vujudga kelgan. Inson boshqa barcha hayvonot olamidan so‘zi, tili va aqli, tafakkuri bilan bilan farq qiladi.

Inson bilimlari narsalarni bilish yordamida vujudga keladi. Bilish hissiy bilish va tushunchalar yordamida fikrlashdan tashkil topadi. «Sezish— bu shunday ta‘sirki, u tashqi narsalarning o‘zi bo‘lmay, balki bizning hislarimizda vujudga keladi. His moddiy obrazning oynasi bo‘lib, moddiy shakllarning bo‘yi, eni bilan birga ifodalanganligi sababli, ularni inson moddiy asossiz in‘ikos eta olmaydi va jismlarni bilolmaydi», - deb yozadi Ibn Sino. Inson tafakkuri turli fanlarni o‘rganish yordamida boyiydi, rivoj topadi. Bunda, xususan, u mantiq ilmiga katta e‘tibor

beradi. Aql har qanday bilishning va amaliy faoliyatning mezoni sifatida talqin etiladi. «(Aql) tarozisida o‘lchanmagan har qanday bilim,— deb yozadi ibn Sino,— chin bo‘lolmaydi, demak, u haqiqiy bilim emas». Ibn Sino ijodida fanning strukturasi tekshirish, ilmlarning tartibini aniqlash, ularni tasnif qilishga e‘tibor alohida o‘rin egallaydi. Bu masalada ham olim Forobiy boshlab bergan fan-ar tasnifi haqidagi masalani yanada taraqqiy ettirishga harakat qiladi. Ibn Sinoning falsafiy sistemasini ifodalovchi asarlarida («Kitob ush-shifo», «Kitob un-najot», «Donishnoma») falsafiy bilimlar: mantiq, fizika, matematika, metafizika tartibida beriladi. Bulardan mantiq — bilishning metodi, mavjudotni o‘rganish, u haqda fikr yuritishning ilmiy usuli sifatida talqin etiladi. Ibn Sino mantiq ilmini tadqiq etishga katta e‘tibor beradi, unga maxsus risolalar bag‘ishlaydi. Xususan, u mantiqiy usullar, ta‘riflash, hukm, xulosa chiqarish, isbotlash masalalarini o‘rganishga katta hissa qo‘shdi, mantiq fanini Forobiydan so‘ng bilishning to‘g‘ri metodi sifatida rivojlantirdi.

Ibn Sino ilmni nazariy va amaliy ilmga bo‘ladi. Nazariy ilmlar haqiqatni bilishga, amaliy ilmlar yaxshi ishlarni bajarishga qaratilgan.

Falsafaning nazariy qismi quyi darajadagi ilm, ya‘ni tabiatshunoslik, o‘rta darajadagi ilm — matematika va oliy darajadagi ilm — metafizikaga bo‘linadi.

Falsafaning amaliy qismi ham uchga bo‘linadi:

a) shaxs haqidagi ilm;

b) insonning o‘zaro munosabatlari haqidagi ilm;

v) davlatni, mamlakatni boshqarish haqidagi ilm. Nazariy-falsafiy ilmlarga kiruvchi har uch turdagi ilmlar asosiy va yordamchi bo‘laklarga ajraladi; tabiatshunoslik ilmlari astrologiya, meditsina, alkimyo kabi etti xil tarmoqni o‘z ichiga oladi. Matematika esa arifmetika, geometriya, astronomiya, musiqa nomi bilan 4 tarmoqqa bo‘linadi. Asarda 29 ilm tarmog‘i tilga olinadi. Ibn Sino o‘z dunyoqarashida panteistik prinsipga asoslanadi: Tangri va borliq bir-biriga zid, bir-birini inkor etuvchi narsalar emas, aksincha, ular bir butun holda mavjudotni tashkil etadi. Abadiylik Tangriga xos. Tangri va tabiat ma‘lum pog‘onalar yordamida bog‘lanadi. Uzun va yaxlit zanjirning bir tomonida yaratuvchi Tangri — zaruriy vujud, ikkinchi chekkasida tabiat yotadi. Ibn Sino haqiqiy axloqiy fazilatlar va ideal jamoaga shu mavjud dunyoda erishuv mumkin, jamiyatda insonlar o‘zaro yordam asosida yashashlari kerak deb ta‘kidlaydi. Jamiyat kishilarning o‘zaro kelishuvi asosida qabul qilinadigan adolatli qonunlar yordamida boshqarilishi lozimligini ta‘kidlaydi. Jamiyat a‘zolarining hammasi bu qonunga itoat etishlari, qonunni buzish va adolatsizlik jazolanishi, basharti podshoning o‘zi adolatsizlikka yo‘l qo‘ysa, xalqning unga qarshi qo‘zg‘oloni to‘g‘ri va jamiyat tomonidan qo‘llab-quvvatlanmog‘i lozim.

Ibn Sino Zakariya ar-Roziy va Beruniy kabi jahon falsafiy tafakkuri tarixida birinchilardan bo‘lib kuzatuv va tajriba metodiga alohida e‘tibor qaratdi. Mutafakkir o‘z asarlarida ilm va axloq-odob uyg‘unligi, inson kamoloti, baxt-saodat, ijtimoiy adolat, kishilarning o‘zaro hamkorligi, hukmdorning burchi to‘g‘risida qiziqarli g‘oyalarni ilgari surgan. Uning ta‘kidlashicha, barchani bir xil ijtimoiy mavqega erishtirib bo‘lmaydi. Aslida ular uchun muayyan sharoit yaratib bermoq lozim.

Barchaning boy va mansabdor bo'lishi yoki hammaning qashshoq bo'lishi jamiyatning tanazzuli va inqirozidir. Lekin inson o'zgarlarga mehr-oqibatli, g'amxo'r bo'lmog'i, kerak vaqtda saxovat va muruvvat qo'lini nochorlarga uzatishi zarurdir.

Ilk o'rta asrlarda tasavvuf. Tasavvuf Sharq ma'naviyati tarixida muhim o'rin egallab kelgan tadrijiy taraqqiyotga ega bir ta'limot bo'lib, islom olamida VIII asrning o'rtalarida paydo bo'lgan. Tasavvufning ilk shakli zohidlik harakati ko'rinishida namoyon bo'ladi. Tasavvuf falsafa, din, shariat hamda odob-axloq kabi tushunchalar jam bo'lgan ta'limotdir. Insonning ruhiy-axloqiy poklanishi va ilohiy muhabbatdan quvvat olib yuksalib borishi bu ta'limotning asosiy g'oyalari. Tasavvuf dunyoni bilishni, insonning dunyo va koinot, makon va zamon, lahza va abadiyat, hodisa va mohiyat haqidagi tasavvurlarini ilohiy bilimlar asnosida shakllanishini ta'minlaydi. Tasavvuf amaliy turmush tarziga asoslangani uchun, bir tomondan uning nazariy asoslari ishlab chiqilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan tariqatlar paydo bo'lib, tasavvufiy turmush tarzida nazariy bilimlarning amaliyot bilan uyg'unlashishi taqazo etilgan. Ilk o'rta asrlarda shaxsiy-ma'naviy hayot tarzida muhim o'rin tutgan tasavvufiy turmush tarzi asta-sekin ijtimoiy ma'noga ega bo'la boshladi. Zohidligi va ilmi bilan tanilgan ulug' shaxslar atrofida suhbat halqalari tashkil etilib, ularning suhbatlarida ishtirok etganlar berilgan tavsiyalarni shaxsiy hayotlarida tatbiq eta boshlaganlar. Tasavvufda Alloh taologa quruq, ko'r-ko'rona mute'likning hojati yo'q. Tasavvuf ta'limoti mutaxassisi, olim Najmiddin Komilov "xudo g'azabidan qo'rqibgina amri ma'rufni bajarish sadoqat belgisi emas, balki riyodir. Shuning uchun so'fiylar: Allohni jon-dildan sevish, Uning zoti va sifatlarini tanish va bilish, ko'ngilni nafsu hirs g'uboridan poklab, botiniy musaffo bir holatda Iloh vasliga etishish va bundan lazzatlanish g'oyasini keng targ'ib qildilar. Inson ruhi ilohiydir va, demak, asosiy maqsad – ilohiy olamga borib qo'shilmoqdir, dedilar. Shu tariqa, dunyodan ko'ngil uzgan, ammo zohidlarga o'xshamaydigan, «bir nazar bilan tuproqni kimyo etadigan» (Hofiz Sheroziy) zehnu zakovat, aqlu farosatda tengsiz, ammo o'zga mutafakkirlar, faylasuflardan ajralib turadigan, shariat ilmini suv qilib ichgan, toatu ibodatda mustahkam, lekin oddiy dindorlardan farqlanadigan ajoyib xislatli odamlar toifasi paydo bo'lgan ediki, ularni ruh kishilari deb atardilar"¹-deydi. «So'fiy» so'zining vujudga kelishida bir necha xil qarashlar mavjud bo'lib, ba'zi mutaxassislar bu so'z «saf» so'zidan kelib chiqqan deydi, chunki so'fiy Iloh yo'lga kirganlarning birinchi safida turuvchidir. Ba'zi olimlar uni «suffa» so'zidan hosil bo'lgan deb aytadilar: ashobi suffa hazrati Payg'ambar sallallohu alayhi vasallam hayotliklaridayoq tarki dunyo qilgan taqvodor kishilar bo'lib, so'fiylar shularga taqlid qiladilar, deb tushuntiradilar. Yana bir guruh olimlar so'fiy so'zi «safo» so'zidan kelib chiqqan, chunki bu toifaning qalbi sidqu safo oftobiday porlab turadi, deganlar. Yana ba'zilar so'fiy «sufuh» so'zidan yasalgan, sufuh – biror bir narsaning xulosasidir, bu jamoa xalqning xulosasi bo'lganligi sababli ularni so'fiy deganlar, deb yozadilar. Abu Rayhon Beruniy «suf», ya'ni faylasuf so'zining oxirgi qismidan yasalgan deb ko'rsatadi. Shuningdek, ko'pchilik so'fiy so'zi arabcha «so'f» so'zidan hosil

¹ Комилов Н. Тасаввуф.-Тошкент: ТДШИ нашрети, 2006. 6-б.

bo'lgan, degan fikrni bildiradilar. «So'f» so'zining lug'aviy ma'nosi jun va jundan to'qilgan matodir. So'fiylar ko'p hollarda jun chakmon yoki qo'y terisidan tikilgan po'stin kiyib yurishni odat qilganlari uchun ularni jun kiyimlilar deb yuritganlar. So'fiyning ozodligi deganda tasavvuf ahli solikning bashariy sifatlardan mutlaq qutulishi va ilohiy faqr sifati bo'lmish pok ruh o'rinishida istig'no olami – Tangri taolo olamining zarurlari bepoyonligini kullan idrok etishini anglaganlar. Tasavvufda ilk davri, ya'ni zohidlik davri so'fiylari - Ibrohim Adham, Hasan Basriy, Abuhoshim Kufiy va boshqalar taqvo va parhezkorlikni bosh maqsad deb bilganlar. Undan keyingi davrda esa, tafakkuriy-shuuriy rivojlanish asosiy maqsad hisoblangan. Aksariyat ilmiy manbalarda keyingi davr – oriflik davri, deb ataladi. Bu davr IX asr o'rtalaridan boshlanadi.

Tasavvuf Ibn Arabiyga nisbatan beriladigan vahdatul vujud ta'limotiga borib taqaladi. Ya'ni haqiqiy Borliq – bu Mutlaq zot – Parvardigorning yakkayu yagona vujudidan iborat, boshqa mavjudliklar shu Vujudning ijodi, in'ikosidir. Mutlaq zotni al-Haq (Real borliq), al-Ahad (Birlik) deb ham ataydilar. U O'zi yaratgan olam ashyolarida (olami shahodat, olamul xalq) O'zini namoyon etib, zohir-lanib turadi va shu orqali O'zi O'zini idrok etadi. Bu cheksiz va mavhum Mutlaq zotning shahodat (moddiy) olamda tinimsiz jilolanishi «tajalliy» deb atalgan. Tajalliy – barcha harakat va faoliyat, tiriklik va hayot ijodkori Parvardigorning o'zi yaratgan olamda doimo hozir bo'lishidir. Shunday qilib, tasavvuf, bir tomondan, din va shariat, ikkinchi tomondan, falsafa va hikmat ilmi bilan bog'liq holda rivojlanib kelgan o'ziga xos ta'limotdir.

Tasavvufda falsafa ilmidan farqli ravishda, insonni «olam mehvari» deb bilib, olamdagi barcha harakat, voqea-hodisa, o'zgarish-yangila-nishlarni insonda mushohada etish va inson orqali tushuntiradi. Tabiatdagi jamiki ichki ziddiyat va rivojlanish, o'sish-ulg'ayish ruhning mo'jizalari insonda bor, deb ta'riflaydi Jaloliddin rumiy «Masnavii ma'naviy» asarida. Shu kabi Olamni va Odamni yaratgan Parvardigor javhari, ismlari, qudrati va mohiyatini anglash ham inson ruhi xususiyatlarini o'rganish va anglash bilan amalga oshadi. Chunki Parvardigorni va Uning qudrati, mo'jizalari, g'ayb olamini faqat aql bilan bilib bo'lmaydi. Ammo, bu tasavvufda aql butunlay inkor etilgan, degan gap emas. Tasavvufda ham aqliy bilish, aql qudrati tan olinadi. Biroq aqliy bilimlar, dalil bilan isbotlanishi mumkin bo'lgan bilimlarga yaraydi, g'ayb ilmini idrok etishga esa aql ojiz, deydi so'fiylar. G'ayb ilmi, Xudovand olamidagi behad-behudud ilmlarni so'fiy alohida hissiy-vajdiy tafakkur bilan, qalbgga tushgan karomat nuri bilan anglab idrok etadi. Shu bois tasavvufda mukoshafa, kashfu karomat, hol-sukra tushunchalariga alohida e'tibor beriladi.

Ko'rinadiki, tariqat ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilgan. Tariqat asosida tasavvufning yaxshi, ideal jamiyat haqidagi qarashlari vujudga kelgan. Masalan, Jomiyning «Xiradnomai Iskandariy» va Navoiyning «Saddi Iskandariy» dostonlarida podshohsiz odamlar, ya'ni solih kishilar jamiyati haqida gap boradi. Tasavvuf bunday jamiyatga zo'rlik, inqilob yo'li bilan emas, har bir insonni axloqiy tarbiyalash oraqli etish mumkin, deb hisoblagan. Insonning mutlaq haqiqat, mutlaq adolat va poklikka erishish istaklari tasavvufda mujassam

bo'ldi. Bu ehtiyoj, orzu kuchli zavq va ishtiyoqni, o'zini unutish va bexudlikka olib borgan ishqni keltirib chiqaradi.

Tasavvufdagi o'zini-o'zi takomillashtirish g'oyasi, axloqiy yuksalish, ezgulik, xayr, himmat, mardlik haqidagi qarashlar butun musulmon olamiga keng tarqalib, katta ijtimoiy hodisaga aylangan edi. Darveshlar, so'fiylar, shayxlar, valiy sifat ruhoniylarni xalq juda hurmat qilgan, ularga e'tiqod qo'yish orqali Tangri taolo qudratini chuqurroq his qilgan, amaliy turmushda odamlar shu darveshlar kabi qanoatli, halol bo'lishga intilgan, nafsini tiygan. Shuning uchun ham tasavvufga ta'rif berganda, juda ko'p shayxlar uni shaytoniy nafsni jilovlash va rahmoniy xislatlar kasb etish ilmi deb ko'rsatganlar. Agar tasavvufning negizida chin insonparvarlik g'oyasi, xalqning adolat va haqiqat haqidagi orzulari yotmaganda, u bunchalar keng tarqalmas, bunchalik keng ommaviylashib, ijod ahli qalbidan o'rin olmasdi, bu qadar qaynoq va jozibali bir she'riyat yaratilishiga turtki bo'lmas edi.

Tasavvufning «falsafiylanish» davri XIII–XIV asrlarda bir qator mutafakkir adiblar, orif sufiylar etishib chiqdiki, biz ularni tasavvufni falsafa bilan bog'lovchilar deb aytamiz. CHunonchi, Ibn al Arabiy, Abu Homid Muhammad G'azzoliy, Fariddidin Attor, Aziziddin Nasafiy, Yahyo Suhravardiy, Ibn Saboin, Abdurazzoq Koshoniy, Abdulkarim Jiliy, Mahmud Shabistariy, Jaloliddin Rumiy, Abdurahmon Jomiy, Abdulqodir Bedil shunday mutafakkirlar sirasiga kiradi. Bularning ijodida olam va odam haqida o'ylar, qazovu qadar, erk va ixtiyor, suvrat va ma'no, aql va ruh, vaqt va zamon, inson tiynati xususida ko'plab yangi qarashlar bayon etilgan. Bu zotlar ilohiyshunoslikni butunlay yangi pog'onaga ko'tardilar. Ularning asarlarida insoniy ma'rifat, insoniy kechinmalar tasviri va tahlili bilan olib boriladi, komil inson xislatlari batafsil ishlab chiqildi.

Temuriylar sulolasi davri. O'zbek davlatchilik tarixida Temuriylar davri faqat o'zbek xalqi madaniyatigagina emas ilm-fan va falsafiy fikr tarixida ham butun Markaziy Osiyo uyg'onish davriga asos solgan taraqqiyot davri bo'ldi. Temur va temuriylar davrida uyg'onish davrining ikkinchi bosqichi boshlandi. Bu ilm-fan va madaniyatning gullab-yashnagan bosqichi bo'ldi. Amir Temur 1336 yil 9 aprelda Kesh, hozirgi (Shahrisabz) viloyatining Xo'ja Ilg'or qishlog'ida dunyoga kelgan. Uning otasi amir Muhammad Tarag'ay barlos ulusiga mansub beklardan, bahodir jangchi, ulamoyu fuzaloga ixlosmand, ilm ahliga homiy va ishtiyoqmand kishi bo'lgan.

Amir Temurning yoshligi haqida ma'lumotlar kam uchrasa-da, ayrim manbalarga qaraganda, u yoshligida xat-savod chiqarib, o'z davrining tibbiyot, riyoziyot, falakiyot, me'morchilik va tarix ilmlarini o'rgangan. Amir Temur bilan suhbatlashish sharafiga muyassar bo'lgan buyuk arab faylasufi Ibn Xaldun jahongir turk, arab, fors xalqlari tarixini, diniy, dunyoviy va falsafiy bilimlarning murakkab jihatlarigacha yaxshi o'zlashtirganini ta'kidlaydi.

Amir Temur siyosat maydoniga kirib kelgan paytda, Movarounnahr mo'g'ullar istibdodi ostida bo'lib, Chingizxon va Botuxon bosib o'tgan shahar va qishloqlar vayronaga aylangan, suv inshootlari buzib tashlangan yoki ishga yaroqsiz holga keltirilgan, Chingizxon Movarounnahrni o'zining ikkinchi o'g'li Chig'atoyxonga suyurg'ol sifatida in'om qilgan edi.

Amir Temurning hayoti va faoliyatida ikki davr yaqqol koʻzga tashlanadi. Birinchi davri (1360-1385) Movarounnahrni moʻgʻul xonligidan ozod qilib, yagona markazlashgan davlat tuzish, oʻzaro urushlarga barham berish. Ikkinchi davri (1386-1405) esa ikki yillik, uch yillik, besh yillik, deb ataluvchi boshqa mamlakatlarga yurishlari bilan xarakterlanadi.

1360-yillardan boshlab Amir Temur Movarounnahrda ichki nizo, urushlarda ishtirok eta boshladi va Moʻgʻuliston hukmdori Tugʻluq Temurxon, uning oʻgʻli Ilyosxoʻjaga qarshi kurashlardan soʻng, Amir Husayn ustidan gʻalaba qozongach, 1370 yilda Movarounnahr taxtining haqiqiy sohibi boʻldi va Samarqandni hokimiyat poytaxti etib belgiladi.

Amir Temur taxtga oʻtirgach, Chigʻatoy ulusining barcha erlariga oʻzini voris deb bildi va Sirdaryoning quyi havzasidagi yerlarni, Toshkent viloyatini, Fargʻona vodiysini, Xorazmni oʻz hukmronligi ostiga kiritdi. Natijada, Movarounnahr va Xurosonda yirik markazlashgan davlat vujudga keldi. Sohibqiron soʻnggi yillarda Eron, Iroq, Zakavkaze mamlakatlari, Hindiston, Oltin Oʻrda va Turkiya bilan boʻlgan janglarda gʻolib chiqib, saltanat hududini Sharqda Xitoy devoriga qadar, Gʻarbda — Oʻrta Yer dengiziga, janubda esa Hindiston chegaralariga qadar kengaytirdi.

Temur faoliyatida muayyan siyosiy yoʻl — mayda feodal hukmronligini tugatish, muhim xalqaro karvon yoʻllarida ustunlik qilib turgan Oltin Oʻrda, Eron va boshqa mamlakatlarning raqobatini yengib, Movarounnahrning siyosiy-iqtisodiy quvvatini taʼminlay oladigan markazlashgan davlat tashkil yetish edi. Amir Temur avvalambor mamlakatda davlat tizimini mustahkamlash, boshqarishdagi tartib-intizom, qonunchilikni kuchaytirish, savdo-sotiq, hunarmandchilikni kengaytirishga imkoniyat yaratish, soliqlarni tartibga solish, mamlakat himoyasini taʼminlash yoʻlida qoʻshinning qudratini oshirish kabilarga katta eʼtibor berdi.

Temur tarixchilar tasviricha, Oʻrta asrning atoqli davlat va harbiy arboblardan boʻlib, Yevropa olimlari oʻz asarlarida uning salbiy tomonlari bilan birga muhim fazilatlarini ham taʼkidlab oʻtganlar. Nemis olimi F. Shlosser oʻzining «Jahon tarixi» (III-tom) asarida: «Baxtiyor jangchi, jahongir, uzoq Sharqda qonunshunos boʻlish bilan birga oʻzida, Osiyoda kam uchraydigan taktik va strategik bilimlarni ifodaladi», deb yozsa, atoqli nemis olimi va tarixshunosi M. Veber: «Temur oʻz dushmanlariga nisbatan juda berahm edi, lekin sarkardalik, davlatni boshqarish va qonunchilik sohasida buyuk talantga ega edi», deb taʼriflaydi. Shuningdek, «Tuzuki Timur» — «Temur tuzuklari»da ham Temurning jamiyatga, ijtimoiy-siyosiy hayotga qarashi, birlashgan qudratli feodal davlatning siyosiy va axloqiy qoidalari haqida gap boradi.

«Temur tuzuklari»da davlat tizimi, davlatdagi turli lavozimlarning vazifasi, undagi turli toifalar va ularga munosabat, davlatni boshqarishga asos boʻlgan qoidalar, qoʻshinlarning tuzilishi, tartibi, uni boshqarish, taʼminlash, ragʻbatlantirish, qoʻshin turlarining tutgan oʻrni va oʻzaro munosabati kabi masalalar bayon etiladi. Davlat ishlarini har doim islom va shariat hukmlari asosida olib borilganligi bir necha bor taʼkidlanadi. Amir Temur «Temur Tuzuklari» eng noyob maʼnaviy merosdir. U oʻrta asr Sharqining barcha qonun qoidalari bitilgan maʼnaviy, ijtimoiy-

siyosiy, huquqiy asardir. Temur bu asarda o‘z merosxo‘rlariga bir butun saltanat bilan birga uni saqlab qolishning yo‘llarini ham yozib qoldirgan. Ushbu kitob mohiyatida qanday qilib adolatli, farovon davlat qurish yo‘llari, uning siyosiy, huquqiy, iqtisodiy asoslari bayon etilgan: «Adolat va insof bilan Tangrining yaratgan bandalarini o‘zimdanda rozi etdim. Gunohkorga ham, begunohga ham rahm-shafqat bilan, haqqoniyat yuzasidan hukm chiqardim. Xayr-ehson ishlarim bilan odamlarning ko‘nglidan joy oldim»¹ - deyiladi «Tuzuk» larda.

«Temur tuzuklari» dan ma‘lum bo‘ladiki Amir Temur markazlashgan davlatida qonun-qoidalar asosida o‘z-o‘zini boshqaruvchi tizim tashkil etishga harakat qilgan: «Saltanatim martabasini qonun-qoidalar asosida shunday saqladimki, saltanatim ishlariga aralashib, ziyon etkazishga hech bir kimsaning qurbi etmas edi»².

Amir Temur davlatda adolat tamoyillarining ustun bo‘lishida har ishdan ogohlik va ichki tartibga hushyor munosabatda bo‘lish katta rol o‘ynashini yaxshi tushungan, uning yozishicha: «Turli mamlakatlardagi sadrlar va qoziylarga shariatning asosiy talablari qanday bajarilayotganligi xususida menga xabar qilib turishni buyurdim. Shunga o‘xshash har el va har shaharda sipoh va raiyat orasida urf-odatlariga oid janjalli ishlar haqida menga ma‘lumot berib tursin deb adolat amirini tayinladim»³.

«Qiziq, bu tasodifmi yoki qonuniymi – bilmadim, «Temur tuzuklari» ham, O‘rta Osiyo zaminida yaratilgan ko‘pgina ajoyib asarlar singari avval o‘zga yurtlarda, xususan Yevropada shuhrat topdi», - deb yozadi Bo‘rivoy Ahmedov⁴. Bunga sabab tabiiyki, asarda davlat tuzumi va boshqarilishiga oid ma‘lumotlarning mukammalligida edi.

«Barcha ishlarda,— degan edi Amir Temur,— bu ishlar qaysi o‘lka xalqiga taalluqli bo‘lmasin, hokimlarning adolat tomonida qattiq turishlariga buyruq berilgan. qashshoqlikni tugatish maqsadida boshpanalar tashkil qildimki, kambag‘allar ulardan nafaqa olib turardilar». Bundan tashqari, Temurning soliqlar haqidagi qoidasi juda muhim ahamiyatga egadir. Temur yozadi: «Soliqdar yig‘ishda xalqni og‘ir ahvolga solishdan yoki o‘lkani qashshoqlikka tushirib qo‘yishdan ehtiyot bo‘lish zarur. Negaki, xalqni xonavayron qilish davlat xazinasining kambag‘allashishiga olib keladi, xazinaning bequvvatligi harbiy kuchlarning tarqoqlanishiga, bu esa, o‘z navbatida hokimiyatning kuchsizlanishiga sabab bo‘ladi...»

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Movarounnahrda mo‘g‘ullarning qariyb 140 yillik hukmronlik davrida biron-ta ham ko‘zga ko‘rinarli qurilish yoki suv inshootlari vujudga kelmagan. Amir Temurning tashabbusi bilan 1365 yilda Qarshi, 1370 yilda Samarqand, 1380 yilda esa Keshning atrofi qaytadan mudofaa devorlari bilan o‘ralgan. Shuningdek, xalq farovonligiyu, mamlakat obodonchiligi yo‘lida suv omborlari, to‘g‘onlar qurishga, ariqlar qazishga, yangi yerlarni o‘zlashtirishga alohida e‘tibor berilgan. Mamlakatning iqtisodiy ahvolini ko‘tarishda savdning

¹ Temur tuzuklari. - Toshkent: Faqur Gulom nashrëti, 1991. 54-6

² Temur tuzuklari. - T.: Faqur Gulom nashrëti, 1991. 63-6.

³ Ÿsha manba. 58-6.

⁴ Ÿsha manba. 6-6.

ahamiyati beqiyos ekanligini tushungan hukmdor bozorlar, rastalar va timlar, turli-tuman ustaxonalar barpo etib, xalq hunarmandchilik san'atini taraqqiy ettirgan. Sobiq sovetlar mafkurasi, proletar dunyoqarashi hukmronlik qilgan sharoitda Temur faoliyatiga nisbatan salbiy munosabatda bo'ldi, o'sha davr adabiyotlarida har doim qoralanib kelindi. Lekin mafkuraviy to'siq, taqiqlashlarga qaramay Temur haqida o'zbek olimlari ob'ektiv fikrlarni bildirdilar. 1968 yili akademik I.M. Mo'minovning «Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli» risolasining nashr etilishi muhim voqea bo'ldi. Risola Temur shaxsiga biryozlamali qarashlarga qarshi yozilgan ilmiy asar sifatidagi dastlabki urinish edi. O'zbekistonning mustaqillikka erishuvi, eski mafkura siquvidan qutulish, tariximizga to'g'ri munosabatda bo'lish imkonini yaratdi. So'nggi yillarda Amir Temur va uning davrini o'rganishga bag'ishlangan qator manbalar, kitoblar, jumladan, Bo'riboy Axmedovning Amir Temur haqidagi katta roman-xronikasi nashr etildi. O'zbekistan Prezidentining farmoni bilan 1996 yil — Amir Temur yili deb e'lon etilishi va bu sana jahon miqyosida nishonlanishi Amir Temur nomi oqlanib, o'zbek xalqiga butunlay qaytganiga yorqin dalildir.

Abdurahmon Jomiy Shohrux hukmdorligi davrida— 1414 yil 7 noyabrda Nishopur yaqinidagi Jom shahrida, ruhoniylar oilasida dunyoga keldi. Jomiyning otabobolari asli Dashtdan bo'lib Jomda turib qolishgan.

U asosiy umrini Hirotda o'tkazdi va shu erda mashhur shoir va mutafakkir bo'lib yetishdi. Hirotda Jomiy tasavvuf yo'lga kirishni, o'z bilim va faoliyatini shu yo'lga, qolaversa ijodga, ilm-fanga bag'ishlashni afzal ko'radi. Jomiyning "Nafahot ul-uns", "Lujjat ul-asror", "Ashiat ul-lamaot", "Riso-lai musiqiy", "Risoi muammo" kabi bir qancha asarlari Navoiyning maslahati va iltimosi bilan yozilgan. Jomiy o'z lirik she'rlarini yig'ib, devon tuzmoqchi bo'lganda, Navoiy maslahati bilan uchta devon tuzadi va devonlarning birinchisiga "Fotihat ush-shabob", ikkinchisiga "Vositat ul-ishq", uchinchisiga "Xotimat ul-hayot" deb nom qo'yadi. 1480 yildan 1485 yilning oxiriga qadar Jomiy o'zining buyuk "Haft avrang"i tarkibiga kirgan dostonlarini yaratish ustida ish olib bordi. Sharq adabiyotidagi xamsachilik an'analari asosida yozilgan bu dostonlardan "Silsilat uz-zahab", "Tuhfat ul-ahror", "Suhbat ul-abror" g'oyaviy jihatdan falsafiy-axloqiy yo'nalishda, janr e'tibori bilan pandnoma tipida bo'lib, o'z davrining eng dolzarb masalalariga bag'ishlangan edi.

"Yusuf va Zulayho", "Layli va Majnun", "Salamon va Absol", "Xiradnomai Iskandariy" dostonlarida esa shoir an'anaviy syujetlarning yangicha talqinlarini berdi. Jomiy bir necha marotaba haj qilgan, haj safari davomida Nishopur, Bastom, Domg'on, Qazvin, Hamadon, Karbalo, Bag'dod, Damashq, Halab, Tabriz kabi shaharlarni ko'rgan, bu shaharlarda yuksak izzat-hurmatga sazovor bo'lgan. Uning shaxsiy maktublaridan ma'lum bo'lishicha, u yaqin do'sti Xoja Ahror taklifi bilan Toshkentda ham bo'lgan va ulug' mazoratlarni ziyorat qilgan Abdurahmon Jomiy g'oyat sermahsul ijodkor bo'lib, undan bizga adabiyotning turli janrlariga, fan va san'atning rang-barang sohalariga oid boy meros qolgan. Jomiy asarlari o'z davridayoq Xuroson va Movarounnahr doirasidagina emas, boshqa mamlakatlarga ham keng tarqalgan edi. Uning asarlari o'z davrida va undan keyin ham ko'p qo'lyozma nusxalarda ko'chirilgan. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Fanlar

akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, Qo'lyozmalar instituti fondlarida Jomiy asarlarining XV — XVI asrlarda ko'chirilgan o'nlab qo'lyozmalarini uchratish mumkin.

Jomiy asarlarining bir qismi diniy va falsafiy mazmunga ega bo'lib, ularda shoir Islom dini va Sharq falsafasining bir qator masalalarini o'z qarashicha talqin qiladi, tasavvufning XV asrdagi eng yirik arbobi sifatida o'z fikr-mulohazalarini bayon etadi. Bunga uning "Naqshi fusus" ("Ma'nolar naqshi"), "Shavohidi nubuvva" ("Payg'ambarlikka dalillar"), "Sharhi qasidayi "Toiya" (Radifda "to" harfidan foydalanib yozilgan qasida sharhi)", "Naqdi nusuf" ("Matnni tanqid"), "Sharhi qasidayi "Xamriya" ("Xamriya" qasidasi sharhi)", "Naqshbavdiy ta'limoti haqida risola", "Vohid" atamasi haqida risola", "Zikr" shartlari haqida risola", "Haj qilish yo'llari haqida risola", "Ashiot ul-lamaot" kabi bir qancha asarlarini shu guruhga kiritish mumkin. Jomiy o'zining mutasavvuflik faoliyatida Bahovuddin Naqshband g'oyalarini shu sulukning ikkinchi bir yirik namoyandasi — Xoja Ahror Valiy bilan yaqin munosabatda bo'lgan holda yanada rivojlantirdi. Rasman u o'zini kundalik hayotda "Malomatiya" tariqatiga mansub deb hisoblasa-da, asarlarida ulug' Naqshbandga ixlosi Cheksiz edi. U o'zining "Lujjatul-asror" qasidasida so'fiy xulq-axloqi, inson tarbiyasi haqida gap borganda ta'magirlikni qoralab, qanoatli kishilarning oliyanobliklarini, ularning ma'naviy jihatdan podshoh va vazirlardan ham ustun ekanliklarini madh etadi. Shoir fikricha, inson halol va pok yashashi, buning uchun esa u bir kasbga ega bo'lishi, o'z mehnati hisobiga kun ko'rishi zarur. Jomiyning tasavvufga bo'lgan e'tiqodi sof va mukammal bo'lib, u Xudoni yorug' nur ko'rinishida tasavvur etar edi. She'riy asarlarida esa u Xudoni go'zal ma'shuqa qiyofasida tasvirlagan. SHu bilan birga uningcha, dunyodagi hamma narsalarni yaratgan. Xudo o'zi ham minglarcha ko'zguda, turli qiyofada va ko'rinishda namoyondir. Jomiyning "Risolayi aruz", "Risolayi muammoyi kabir", "Risolayi muammoyi sag'ir", "Risolayi muammoyi mutavvassit", "Risolayi muammoyi manzum", "SHarhi bayti Masnaviy", "SHarhi bayti Xusrav", "SHarhi rubbiyot", "Risolayi qofiya" kabi asarlari Sharq adabiyoti tarixini, uning vazn, qofiya va she'r turlari bilan bog'liq nazariy masalalarini o'rganishda hozirgi kunga qadar o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Jomiy ijodining eng katta qismini, hech shubhasiz, uning she'riyati tashkil etadi. 1490 yilning boshida u o'z she'rlaridan 3 ta devon tuzgan bo'lib, bu devonlar 1805 g'azal va boshqa she'r turlarini o'z ichiga olgandir. Bu devonlardagi deyarli barcha she'rlar shoirning lirik she'rlar sohasidagi yuksak iste'dodidan darak beradi. Abdurahmon Jomiy ijodining gulto'ji, shubhasiz, uning "Haft avrang" deb nomlangan dostonlar majmuasidir. Bu dostonlarida Jomiy fors-tojik adabiyotida yaratilgan Nizomiy Ganjaviy (1141—1209) va Amir Xusrav Dehlaviyning (1253—1325) "Xamsa"laridagi eng yaxshi g'oyaviy va adabiy an'analarni davom ettiradi

Ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-axloqiy masalalarda Jomiy xalqparvarlik va insonparvarlik, adolat va insof masalalariga, zulmni, zolimlarni qoralashga keng o'rin berdi. Buni u ayniqsa shohlar haqida gap borganda, qayta-qayta qalamga oldi. Uningcha, shoh odil bo'lsa, u bexavf-bexatar yashaydi. Abduraxmon Jomiy 1492 yili shamollash natijasida xastalanib, 78 yoshida vafot etdi.

Alisher Navoiy. XIV-XV asr Markaziy Osiyo Uygʻonish davrining buyuk namoyondasi Nizomiddin Mir Alisher Navoiy 1441 yil 9 fevralda Hirotida tugʻilgan. Hirot shahri XV asr birinchi yarmida Sohobqiron Amir Temur asos solgan ulugʻ saltanatning ikkinchi poytaxti, Temurning kenja oʻgʻli SHohrux Mirzoning qoʻl ostidagi obod manzillaridan biri edi. Alisher tugʻilgan xonadon Temuriylar saroyiga azaldan yaqin va yurtida muayyan nufuz sohibi edi.

Oʻzbek adabiy tili va maʼnaviy qiyofasi, ijtimoiy-falsafiy fikri, madaniyatining shakllanishida alohida oʻrin tutgan alloma Alisher Navoiy ijodiyoti oʻzbek demokratik tafakkur taraqqiyotida gumanistik ijod namunasi. Uning ijodi asosida insoniyat jamiyatining asosiy omili boʻlgan inson va uning baxt-saodati, maʼnaviy qiyofasi masalasi yotadi. Alisher Navoiy «Badoyiʼ ul-bidoya», «Navodir un-nihoya» devonlarini, «Hamsa» nomli besh dostonidan iborat asarini, soʻfiylar haqidagi «Nasoyim ul-muhabbat» tazkirasini, «Xazoyin ul-maoniy» devonini, «Mahbub ul-qulub», «Tarixi anbiyo va hukamo», «Siroj ul-muslimin», «Muhokamat ul-lugʻatayn» asrlarini, «Lison ut-tayr» falsafiy dostonini va yana boshqa bir qancha asarlarni yozib qoldirgan. Adib qaysi sohada ijod etishidan qatʼi nazar uning asarlari mohiyatida insonparvarlik, maʼrifatparvarlik, tolerantlik, doʻstlik va muhabbat masalalari yotadi. Oʻzbek ijtimoiy falsafiy tafakkur taraqqiyotida shakllangan xususiyatlar Alisher Navoiy gʻoyalari va fikr rang-barangligi bilan boyidi. Alisher Navoiy oʻz davrigacha boʻlgan tasavvuf falsafasidagi panteistik gʻoyalarni gumanistik mafkuraga xizmat qildiradi, bu sohada goʻzal namunaviy asarlar yaratib qoldirdi. U oʻzining bir gʻazalida:

Kimki bir koʻngli buzuvni xotirin yod aylagay,

Oncha borki kaʼba vayron boʻlsa obod aylagay¹, - deydi.

Demak, Navoiy nazdida inson qalbi musulmon olami uchun eng muqaddas goʻsha hisoblangan Kaʼbatullohdan ham muqaddasroqdir. Uning insoniyat jamiyati, ideal davlat, farovonlik haqidagi ideal gʻoyalari ham ana shu eʼtiqoddan kelib chiqadi. Alisher Navoiy falsafasida ideal davlat haqidagi siyosiy nazariya komil inson toʻgʻrisidagi axloqiy nazariya bilan uzviy bogʻliqlikda olib qaralgan. Bu taʼlimotga asosan ideal farovon davlat bu davlatda yashovchi kishilarning **komil maʼnaviyatisiz mumkin emas.** Demak, ilgʻor Gʻarb demokratik nazariyalarida, faqatgina XIX-XX asrlarda shakllangan bu kabi nazariya Navoiy davrida oʻzining konsepsiya shaklidagi koʻrinishiga ega edi. Alisher Navoiy yaratgan ideal jamiyat haqidagi taʼlimotni yana Shuning uchun ham konsepsiya deb olib qarash mumkinki, alloma bu jamiyatga borishning amaliy uslublarini ham oʻz asrlarida badiiy obrazlar, tasvirlar orqali koʻrsatib bera olgan. Navoiyning gumanistik xarakterdagi falsafiy taʼlimotining buyukligi shundaki, XIV-XV asr Markaziy Osiyoda roʻy bergan uygʻonish davrining maʼnaviy asosi, tamal toshi boʻlib xizmat qilgan.

Alisher Navoiy “Muhokamat ul lugʻatayn” asarini arab tilida yaratib turkiy va forsiy tillarini solishtirib, turkiy til imkoniyatlari ham forsiy tildan kam emasligini nazariy isbotlashga erishadi. Ushbu asardan soʻng u turkiy tilning imkoniyatlarini koʻrsatish uchun “Xamsa” (1483y.) ni yozdi. Bu beshta katta dostonidan iborat

¹Алишер Навоий. Хазойил ул-маоний. Бадоеъ ул-васат. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 5-том. - Тошкент: Фан, 1990. - 431-б.

bo'lgan beshlik atayin xamsa(beshlik) usulida yozilgan. Sababi "Xamsa" yozish allomalar orasida an'ana bo'lgan. Bu sohada ijod qilish juda murakkab, bo'lib bunda ular o'z mahoratini namoyon qilishi kerak bo'lgan. Beshlikka kiruvchi barcha dostonlar she'r usulida yozilishi kerak bo'lgan. Bunday holatda esa qofiya, vazn, ma'noni bera olish nuqtai nazaridan asar yozilayotgan tilning barcha xususiyatlari va imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanilgan. Alisher Navoiygacha bir necha allomalarning xamsalari bor edi. Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Jomiy kabi adiblar xamsalari juda mashhur bo'lib, ular fors tilida yaratilgan edi. Shuning uchun Navoiy birinchi dostonning boshidayoq aytadi, "Oson ermas, bu maydon ichra turmoq, Nizomiy panjasiga panja urmoq"¹, deb. Alisher Navoiy Turkiy tildan shu darajada unumli foydalanadiki, shu davrga qadar klassik adabiyot sohasida uning "Xamsa" sidan yaxshiroq e'tirof etilgan xamsa mavjud emas. Asar nafaqat shakl va badiiy mahorat yuzasidan mukammal bo'lib qolmay, unda Navoiygacha bo'lgan mutasavvuflik falsafasining gultoji o'z ifodasini topgan.

Adibning "Xamsa"si namunasi adabiyot insonlarni haqiqiy ma'noda tarbiyalashi mumkinligi ham isbotlangan. Asardagi dostonlar ketma ketligida ham hatto Navoiy bermoqchi bo'lgan g'oyaning konstruksiyasi yotadi: "Hayratul abror", "Farhod va SHirin", "Layli va Majnun", "Sab'ai sayyor", "Saddi Iskandariy". Bunda xamsaning rivoji insonning ahloqiy xususiyatlari qanday bo'lishi kerakligi, inson qanday bo'lishi kerak va u o'zini nimada topishi kerak, u o'zini insoniy sevgiga qanday tayyorlash kerak, undan ortig'i ilohiy sevgi qanday bo'ladi aslida, degan savollarga javob beradi. Asta sekin xamsa g'oyasi "Sab'ai sayyor"da insonning dunyo bilan kosmologik birlashuviga etib boradi. Bunda shoh Bahrom bir qancha kiyiklarni o'ldirgandan qo'ng o'zi dahshatli halokatga mahkum bo'lgani haqidagi falsafiy hukm bor. Va oxir oqibatda "Saddi Iskandariy" da insonning yashashdan maqsadi nima, degan butun "Xamsa" davomida pishib etilgan savolga javob berish bo'ldi. Navoiy bu qadar murakkab konstruksiyada turkiy tildan shunday mohirona va unumli foydalanadiki, bu asar Navoiy ijodidagi ulkan merosning bir qismi bo'lsa ham milliy til shakllanish tarixida o'zining alohida qadrligi o'rniga ega. Unda Navoiyning so'zdan foydalanish boyligi 29000 so'zni tashkil qilgan.

Alisher Navoiy ijodida o'z davrigacha bo'lgan barcha mifologik, falsafiy, adabiy meros namunalari, ularda mavjud bo'lgan obrazlar va dunyoning yaratilishi haqidagi ontologik fikrlar adabiy asarlar sifatida bizgacha etib kelgan, aslida o'zida mohiyatan falsafiy konstruksiya va mazmun kasb etgan ijod namunalarida aks etdi. Ularni aksariyat holatda adabiy talqin etilishi hamda adabiy asar sifatida qabul qilinishi shundaki, O'rta asr Sharq falsafasi Navoiy davri adiblari va Navoiy ijodida neoplatonizmning Sharqona ko'rinishi bo'lgan tasavvuf falsafasining deyarli adabiy usulda ifodalanishi, qadimgi Yunon faylasuflari ijodlaridan qabul qilingan g'oyalar transformatsiyasini ko'proq nazmiy usulda takomillashtirish etakchilik edi. Chunki Sharq falsafasi, xususan O'rta asr Sharq falsafasi XIV-XV asr Movaraunnahr adabiy muhiti misolida G'arbdan farqli o'laroq inson haqidagi bilimlarni nazariy usulda

¹ Алишер Навоий. Хамса....

tizimlashtirishdan ko‘ra insonni tarbiyalash uchun moslashtirilgan adabiy usulni o‘zida namoyon etgan edi.

Dunyoning yaratilishi haqidagi kosmologik ta‘limot va unda insonning paydo bo‘lishdan fono bosqichigacha o‘tgunigacha kamolot pog‘onalarini bosqichma-bosqich bosib o‘tishi zarurati va o‘z mohiyatiga g‘arq bo‘lishi haqidagi Sharq falsafasi “Xamsa”da adabiy janrda ifodalangan bo‘lib, uning to‘rtinchi dostoni “Sab‘ai sayyor” Navoiyning borliqning ontologik xususiyatlari haqidagi falsafiy qarashlarining yaqqol aks ettirgan asardir. Alisher Navoiy kosmologik konstruksiyaning falsafiy talqinini o‘zigacha bo‘lgan adabiy an‘analarda davom ettirdi. Turkiy tilda birinchi bo‘lib bu mavzuni Alisher Navoiy qalamga oladi va o‘z dostonini “Sab‘ai sayyor” deb atadi. “Sab‘ai sayyor” dostoni 38 bob, 5009 baytdan iborat bo‘lib, shundan 11 bobni muqaddima tashkil qiladi.

Alisher Navoiy, xolbuki barcha asarlarida o‘z kosmologik qarashlarining mag‘zini singdirib, Forobiy va Ibn Sino ta‘sirida shakllangan Sharq peripatetik panteizmining eng kreativ namunasi bersa-da, “Sab‘ai sayyor” dostoni bu sohada yaxlitlik, g‘oyaviy asosining kuchliligi bilan ajralib turadi. Uning dastlabki yaratgan devonidan biri — “Badoyi’ ul-bidoya” boshlanishida:

Subhonallohi huval-aliyul-mutaol,

Kim ayladi ishq bahrini molomol.

Insonni chu anda soldi g‘avvos misol,

Ham gavhari hol berdi, ham durri maqol,-

degan misralarida Navoiy ishq dengizini to‘ldirgan ul oliy xudo insonni g‘avvos kabi unga g‘arq etdi va insonga gavharsimon ruh va so‘z durrini berdi, deydi. Bu erda “ham durri maqol” birikmasini Sharqqa ilk yunon falsafasi orqali kirib kelgan ontologik ta‘limotning transformatsiyasi sifatida ham tushunish mumkin. Geraklit ontologiyasidagi butun dunyoni boshqaruvchi logos qonuni olloh, ollohda yashiringan so‘z va so‘zda yashiringan borliqdan iborat bo‘lib, logos bir vaqtning o‘zida so‘z, olloh va butun dunyoni boshqaruvchi qonuniyat sifatidagi so‘z bo‘lib keladi va bu Aflotun falsafasi orqali xristian teologiyasiga “dastlab so‘z mavjud edi, ollohda so‘z mavjud edi va so‘z olloh edi”, - degan aqida bilan kirgan. Alisher Navoiyda ham biz borliq dengizini ishq bilan to‘ldirgan ollohning insonni ishqqa g‘arq etgani va ishqning ruh va so‘z orqali ikkilanib insonda jo bo‘lishi va ollohning ruhining parchasi bo‘lgan xilqatga aylanishini ko‘rishimiz mumkin. “Sab‘ai sayyor”ning birinchi misrasi:

Ey siposing demakda el tili lol,

Elga til sendin o‘ldi tilga maqol¹, -der ekan,

Alisher Navoiy ilohiy hamdga inson tili ojiz, lekin inson tiliga so‘z jo etilishida sen so‘z namunasi bo‘lding, deydi. Ikkinchi qatordagi ma‘noda “sen insonni o‘zing yaratding, unga namuna bo‘lib yarata olish qudratini berding, so‘z ruhi va inson so‘zining moddiyot dunyosi bilan adekvatligini ta‘minlading”-, degan serqatlam ma‘no yotadi. Bu fikr “Sab‘ai sayyor”ning “So‘z ta‘rifida bir so‘z” deb boshlanuvchi beshinchi bobida Geraklitning Logos qonuni yanada yaqqolroq ifodalangan:

¹ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. –Тошкент: Фан, 1992. 10-том, 5-б.

So‘z kelib avvalu jahon so‘ngra,
Ne jahon, kavn ila makon so‘ngra¹.

Bu erda so‘z jahondan avval paydo bo‘lib, nafaqat jahon, dunyo(borliq, olam, koinot) va makon ham undan so‘ng vujudga keldi, degan fikr bor. Falsafa tarixida butun dunyoning yaratilish, ya‘ni ontologik tizimi Mitraizm, Zardushtiylik, Xristianlik va Islom a‘analarida bir-birini to‘ldiruvchi va konstruktiv jihatdan deyarli bir xil mazmunga ega bo‘lgan ta‘limotdan iborat, degan fikr mavjud.

Navoiy ijodida biz Forobiy yondoshuvidan ko‘ra panteizm, ya‘ni ilohiyot bilan mavjudot o‘rtasida bir-biriga singib ketish, birida ikkinchisining mavjud bo‘lishini ko‘rishimiz mumkin:

Sen senu sendin o‘zga xud nima yo‘q,
Gar ko‘runsa sen o‘lg‘ung, ul nima yo‘q.

Ya‘ni barcha narsa sen va sendin o‘zga hech narsa mavjud emas, ko‘ringan narsaning yo‘qligi sening yo‘qligingdir, yoki,

Bas seni avval ul qilib zohir,
Sanga ham avval o‘ldi ham oxir²,

ya‘ni, borliq seni o‘zida aks ettirdi, senga yaratilish va yo‘q bo‘lish sifatini berdi, deydi. Buning ma‘nosi, sen o‘zing yaratgan vujudi mumkin, ya‘ni borliqda avval va oxiringga egasan, va yana o‘zingni ana shu borliqda yarata olasan degan mazmunga ega.

Alisher Navoiyda inson aqli va ixtiyori haqidagi masala ham Forobiy qarashlaridan ancha farq qiladi. Biroq, Forobiy aqliy bilim bilan bir qatorda, faol aqlning inson qalbiga ta‘siri natijasi bo‘lgan intuitiv (hissiy) bilimga ham katta ahamiyat beradi. Uning borliq haqidagi ta‘limoti negizida aqlga alohida o‘rin ajratiladi, u emanatsiyaning uchinchi bosqichida joylashadi va samoviy ong hisoblanadi. Va faqat ugina unsurlarning mohiyatiga erishishga muvaffaq bo‘lishi mumkin, demak Forobiyning bilish nazariyasiga muvofiq, unsurlar mohiyati inson intuitsiyasida ong nazariyasi ta‘siri ostida ochiladi. Ayni paytda tashqi jismoniy sifatlar singari unsurlar xossasiga ham inson sezgisi bilan emas, balki uning tafakkuri bilan erishiladi.

Alisher Navoiyning falsafiy merosi serqirra bo‘lib, uning asarlariga munosib bo‘lgan e‘tiborni talab etar ekan, uning adabiy hamda lisoniy merosi tamal toshida zamonaviy O‘zbekiston hayotiga tegishli dolzarb fikrlar yotgani yurtimizda navoiyshunoslik sohasiga katta e‘tibor berishni talab qiladi. X asr mustabid tuzum navoiyshunosligi H.Sulaymonov, I.Sulton, V.Zohidov, A.Qayumov, A. Hayitmetov, S.G‘anieva kabi zabardast olimlar mehnati bilan shakllantirildi, davrning milliy ma‘naviy ildizlarga qarshi siyosatiga qaramay, adib ijodini tadqiq etish bo‘yicha

¹ Ўша асар, 27-б.

² Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. Йигирма томлик. –Тошкент: Фан, 1992. 10-том, 15-б.

mustahkam tamal toshi qo'yildi, lekin shunday bo'lsa ham Navoiy asarlarining progressiv xarakteri mustaqillik davri uchun inson omilining falsafiy negizlarini yorituvchi mohiyatni yanada teranroq mulohaza qilishga, Navoiyni yangidan kashf etishga bo'lgan zaruratni namoyon etadi.

XIX asr oxiri, XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda ilg'or falsafiy, ijtimoiy-siyosiy fikrlar. Turkistonning XIX asr oxiri, XX asr boshlaridagi hayoti murakkab ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy vaziyatiga to'g'ri keladi. XIX asr ikkinchi yarmidan boshlab Rossiya tomonidan Turkistonning istilo qilinishi natijasida o'lka hayotida ayanchli va keskin o'zgarishlar sodir bo'la boshladi. Chor Rossiyasining Markaziy Osiyoni bosib olishga bo'lgan ehtiyojiga, unga nisbatan jadal mustamlakachilik siyosatini yurgazishiga harbiy-siyosiy maqsadi va iqtisodiy ahvoli sabab bo'ldi. Rossiyaning o'sha davrdagi rivojlanayotgan yengil sanoati uchun paxta, pilla, qorako'l va boshqa xom ashyolar zarur edi. Rossiya tomonidan Markaziy Osiyo istilosiga g'oyaviy tayyorgarlik XVIII asr boshlarida Pyotr I tomonidan boshlangan bo'lsa, huddi shu davrdan boshlab Turkistonda ham istilo uchun tabiiy sharoit etila boshladi. XVIII-XIX asrlarda avj olgan mahalliy oqimlarning o'zaro urush va janjallari, Turkistonning uchta mustaqil xonlikka bo'linishi, ularning orasidagi o'zaro ziddiyatlar, urushlarning avj olishi diniy mutaassiblikning rivojlanishiga olib keldi. Bu holat jamiyatda din peshvolarini muayyan mavqega ega bo'lib, har qanday fan va madaniyat yangiliklariga musulmon axloqiy normalari, islom dini nomidan ko'r-ko'rona qarshilik ko'rsatib, diniy aqidaparastlikni avj oldirishga sabab bo'ldi. Natijada Turkiston xalqlarining iqtisodiy va madaniy hayoti tanazzulga yuz tutdi.

Turkiston hududidagi Chor istilosiga qarshi harakatlar milliy istibdodga, chorizm istilosiga qarshi xalq qo'zg'olonlarining turli xildagi ko'rinishi edi. Tarixiy ma'lumotlarda 1905 yilga qadar Turkistonda to'rt mingga yaqin milliy ozodlik harakatlari bo'lib o'tgani qayd etilgan¹. Ushbu harakatlar zamirida, aksariyat hollarda, mahalliy aholidan ko'chirib kelinayotgan xalqlarga er-suvni olib berishga qarshi isyon yotar edi: «General Kuropatkin xokimiyat o'z ehtiyojlari uchun qancha xohlasa, shuncha darajada Yer va suvni ishlatishi mumkinligiga ishonar edi. Shuning uchun ham mustamlakani mustahkamlash uchun etnik tozalashdan foydalanish va Rossiyadan yangi emmigratsiyani tashkil etish lozim bo'ldi»². To'rt mingga yaqin ozodlik harakatlari mahalliy kayfiyatdagi istibdodga nisbatan isyon, ozodlikka intilish aynan ana shu davrlardanoq istilochilar tomonidan qatag'on qilingan. Bir necha misollarni keltirish mumkin: 1) Dukchi Eshon qo'zg'olonida chor askarlaridan 22 nafari o'ldirilgan, 16 nafari yarador bo'lgan, buning evaziga Mingtepa, Tojik, Qashg'ar qishloqlari uch kun to'pga tutilgan, chor askarlari tomonidan O'qchi qishlog'idagi aksariyat erkaklar otib o'ldirilgan. Dukchi Eshon qo'zg'oloni bo'yicha ochilgan jinoiy ishda 400 dan ortiq odam jinoiy javobgarlikka tortilib, mol mulki musodara etilgan³; 2) 1881 yil 12 yanvarida Ko'ktepada 22,5 mingdan ziyod begunoh turkman, qozoq, o'zbek, qirg'iz general Skobelev guruhi

¹ Пясковский А.В. Революция 1905-1907 годов в Узбекистане. –Ташкент.: Госиздат. 1957.118-с.

² Марко Буттино. Революция наоборот.Средняя Азия между падением Царской империи и образованием СССР. - М: Звенья.2007.75-с.

³ Эгамназаров А. Сиз билган Дукчи Эшон. – Тошкент: Шарк, 1996. 136-б.

tomonidan vahshiyona chopib tashlanadilar¹; 3) 1864 yil o'ris zulmiga qarshi Ettisuvdagi dunganlar qo'zg'olon ko'tardilar, lekin ular qirib tashlandi, hammayoq qonga botirildi². Ushbu qo'zg'olonlar haqida rus mualliflarining o'zi shunday ta'kidlaydi: «Istilo davridagi xalq ozodlik harakatlari oldida turgan asosiy inqilobiy vazifa mustaqillikni boy bermaslik edi»³.

O'zbek xalqining millat bo'lib shakllanishi, mustaqil davlat g'oyasi, milliy o'zlikni anglash, xalq tafakkurini tubdan o'zgartirish masalalarini birinchi bo'lib jadidlar ko'tardilar.

Ushbu harakatning aynan milliy kontekstda namoyon bo'lishining o'zi inqilobiy hodisa edi, chunki, jadidchilik vujudga kelgan davrga qadar Markaziy Osiyo hududida mahalliy xalqlar identifikatsiyasi milliy emas, hududiy nuqtai nazardan amalga oshirilgan. Jadidchilikning vujudga kelishi Turkistonning XIX asr oxiri, XX asr boshlaridagi murakkab ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy vaziyatiga to'g'ri keladi.

Istilo siyosati oqibatida turkistonliklarni ezish va ijtimoiy hayotning oyoq osti qilinishi ularning milliy ongining kuchayishiga olib keldi. Istilo siyosatiga qarama-qarshi o'laroq millatparvarlik siyosati maydonga chiqdi. Natijada chor Rossiyasi davrida turkiy, islomiy madaniyatni qo'llab quvvatlashga qaratilgan milliy harakat kun sayin kuchayib borayotgan rus madaniyati ta'siriga qarshilik ko'rsatishni maqsad qilib qo'ygan Turkiston jadidchilik harakatiga aylandi;

XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi tabiiy ijtimoiy jarayon va hodisalar tufayli jadidchilik zaruriy oqim sifatida vujudga keldi. va bu yirik ijtimoiy siyosiy oqim o'z navbatida milliy o'zlikni anglashdek, tafakkur tarzini hosil qildi. Bu tafakkur tarzining ilmiy-nazariy, falsafiy ifodasi jadidchilik rahnamolari va vakillari ijodida aks etdi;

Turkistondagi jadidchilik harakati rus hukmdorligi yoki madaniyatini qabul qilish uchun emas, balki rus bosqinchilariga qarshi kurashda milliy ruhni yangilash, mamlakatni zamonaviylashtirish va G'arb mamlakatlaridagi kabi mustaqil davlat barpo etish, millatni saqlab qolish uchun yuzaga kelgan milliy demokratik harakat edi.

Bu harakatning vujudga kelishida tashqi siyosiy omillar ham katta ta'sir ko'rsatgan. To'g'rirog'i, jadidchilikning o'zi XIX asr oxiri, XX asr boshlarida butun Sharq dunyosida qo'zg'alayotgan demokratik oqimning bir qismi edi. Tarixdan ayonki, dunyo bu davrga kelib Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, AQSH, Italiya, Yaponiya, Ispaniya, Portugaliya va Rossiya kabi davlatlar tomonidan bo'lib olingach, kapitalistlarning jahon monopolistik ittifoqi vujudga kelgan va mustamlaka xalqlari ikki tomonlama zulm natijasida g'oyat og'ir, nochor ahvolda qolgan edilar. Oqibatda mustamlakadagi xalqlarning ziyolilari orasida asta-sekin qaram xalqlarni qashshoqlikdan qutqarish uchun milliy ozodlik harakatlari uyg'ona boshladi. Bir qancha Sharq mamlakatlarida Jamoliddin al-Afg'oniy (1839-1897), Muhammad Abdo (1848-1905) kabi jamoat arboblari rahbarligida G'arb

¹ Ўша манба, 11-б.

² Қаранг: Терентьев М..А. Россия и Англия. - Спб.: Б.И., 1876. - С 65.

³ Галузо П.Г. Туркестан-колония. – Ташкент: Коммунист ун-та, 1935. - С. 82.

mustamlakachilariga qarshi harakat avj olib, asta-sekin jadidchilik-taraqqiyparvarlik g'oyalarining tarqalishiga zamin yaratib berdi. «Jamoliddin al-Afg'oniy ta'limoti o'z mohiyatiga ko'ra juda qarama-qarshi bo'lsa-da, nafaqat Misrda, balki Sharq mamlakatlarining musulmonlari tomonidan ham qizg'in qabul qilindi va XIX asr oxirlarida musulmon ziyolilari dunyoqarashining shakllanishida katta ta'sir ko'rsatdi»¹. Jamoliddin al-Afg'oniy va Muhammad Abdo o'zlarining diniy islohotchilik, ma'rifatparvarlik va ijtimoiy-siyosiy faoliyatlarida musulmonlarni ilg'or siyosiy hayotga, mustamlakachilarga qarshi birlashishga chaqirdilar.

Jahon tajribasidan xulosa chiqarib, Sharq xalqlarining istibdodga qarshi shakllangan turkparastlik va islomparastlik ko'rinishidagi qarshilik oqimlaridan g'oyaviy quvvat olib, milliy yo'nalishda rivojlangan jadidchilikning kelib chiqishida ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy omillar mavjud. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Cho'lpon kabi jadidlar ilmiy merosida ma'rifatparvarlik ta'limoti etakchi o'rin tutadi. Turkistonda ma'rifatparvarlik g'oyasini rivojlantirishning o'ziga xos tomoni, u istilo siyosati oqibatida vujudga kelgan millatparvarlik harakati bilan chambatchas bog'liq. Huddi shu xususiyat bilan jadidchilik XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Sharq mamlakatlarida keng tarqalgan islomparastlik va turkparastlik harakatlaridan mohiyatan farq qiladi. Islomparastlik va turkparastlik harakatlari maqsad nuqtai nazaridan umumiy islom dunyosi yoki umumiy turk dunyosi birligi g'oyasini ilgari surgan, o'z tabiatida osiyosentrizm g'oyasini ifodalari edi.

Jadidchilik mafkurasi taraqqiyot yo'lini, ma'rifatparvarlik yo'lini aynan milliy identifikatsiya orqali, umuminsoniy taraqqiyotga millat nuqtai-nazaridan rivojlanish orqali erishishni tashviqot qilgani uchun ham yuqorida nomi qayd etilgan ta'limotlarga nisbatan taraqqiyparvar edi. Har bir vujudga kelgan ta'limot o'ziga o'xshash, o'zidan avvalgi kelgan ta'limotlarning eng yaxshi tomonlarini olib mukammallashishi nuqtai nazaridan ham jadidchilik taraqqiyparvarlikni namoyon etgan. Shuning uchun millatparvarlik va ma'rifatparvarlik ta'limotlari Turkiston ziyolilari ijodlari va faoliyatlarida bir-birining tarkibiy qismiga aylandi.

Jadidchilik ta'limotida ma'rifatparvarlik g'oyasi o'zbek xalqining XIX asr oxiri XX boshlaridagi barcha ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy hayoti murakkabliklari va muammolarini hal qilishga qaratilgan keng qamrovli ta'limot edi. Turkiston xalqlarini mustamlaka zulmidan xalos etish, milliy iqtisodiy tizimni barpo etish, mustaqil davlat tizimini doimiy ravishda saqlab tura oladigan tafakkur tarzini shakllantirish, milliy tafakkurdagi destruktiv o'zgarishlar tufayli vujudga kelgan jismoniy kasalliklarni bartaraf etish aynan kelajak avlodni jismonan va ma'nan sog'lom qilib tarbiyalash masalasiga bog'liq edi.

Xulosa qilib aytganda millatni saqlab qolishda milliy intelligensiya sifatida shakllangan jadidchilik tarixni, ma'naviy ahvolni jiddiy mushohada etgan holda, tutqunlik va qaramlik sabablarini jamiyatning o'zidan izlashga harakat qildi. Bu esa, jamiyatda haqiqiy immunitet sifatida shakllanuvchi milliy intelligensiya vujudga

¹ Хакимов И.М. Джамал ад-Дин Афгани, его антиколониальные взгляды и деятельность(1839-1897 гг.) Автореф. дисс... канд.филос.наук. – М: МГУ,1971. –С .8.

kelishidagi qonuniyat edi. Sababi, «siyosiy va ma'naviy inqiroz jamiyatning ruhiy dunyosini qaytadan jiddiy va bevosita mushohada etishni talab etadi»¹;

Jadidlar jamiyatga qaytadan hayot baxsh etuvchi kuchni, uni zulm va istibdoddan ozod qiluvchi chorani ma'rifatda ko'rdilar. Chunki istibdoddan xalos bo'lish uchun eng avvalo tafakkurda o'zgarish qilish, millatni qullik va murosasozlikka duchor etuvchi fikriy mutelikdan ozod bo'lish lozim edi. Bu esa faqat ma'rifat orqali amalga oshishi mumkinligini jadidlar tushunar edilar. Lekin bu ma'rifat tashqaridan kelgan madaniyat va taraqqiyotga havas emas, milliy ildizlari va salohiyatidan quvvat olib o'zligini anglash, milliy nafsoniyat, ozodligini himoya qilish xarakteridagi demokratik ma'rifatparvarlik edi;

Vatanni qullik va qaramlikdan ozod qilishda ma'rifatparvarlik milliy demokratik ta'limotda etakchi tamoyil edi. Shu sababli uning tashviqoti ijtimoiy-siyosiy hayotning ilm-fan, madaniyat, tarix, din, siyosat kabi barcha sohalarini qamrab oldi. Ushbu kompleks xarakterdagi chora tadbirlardan maqsad, milliy tafakkurdagi progressiv o'zgarishlar dinamikasini tezlashtirish, demokratik tafakkur hosil qilish, ularning amaliy hayotdagi transformatsiyasini ro'yobga chiqarish edi.

XX-XXI asr o'zbek falsafasi. Akademik Ibrohim Mo'minovning "Amir Temurning o'rta Osiyoda tutgan o'rni va roli" mavzuidagi ma'ruzasi va keyinchalik uning risola holidagi nashri mustaqillik yillarida o'zbek xalqining davlatchilik tarixidagi muhim bosqichlarni anglash va belgilashda hamda Amir Temur siyosini qayta tiklashda asosiy g'oyaviy manba bo'ldi. O'z tarixini davrma-davr olib borilgan qatag'onlar orqali amalga oshirgan totalitar tuzum sharoitida halq qiyofasini tanitishga u haqdagi haqiqatni ilmiy asoslarda isbotlay olishga urunish haqiqiy jasorat edi. Akademik Ibrohim Mo'minov ziyolilik e'tiqodi, mas'uliyati har qanday ta'qib va nazoratlarga to'la vaziyatda ham o'z missiyasini bajarishga qaratilganini ko'rish mumkin. O'z faoliyatini o'n yetti yoshidanoq o'qituvchilikdan boshlagan olim hayotining so'nggi yillariga qadar o'zbek ijtimoiy fanlarining tamal toshini yaratib ketdi. Sovet davrining buyurtma asosida yaratilgan tarixiy ta'limotlari maktabi - rus etnologiyasi maktabi ta'limotlariga g'oyaviy qarshi ta'limot - o'zbek xalqining milliy davlatchilik tarixi va uning nazariy asoslarini Ibrohim Mo'minovning ko'p tomligidagi o'zbek xalqi tarixi va falsafiy merosiga oid asarlar va barhayot g'oyalari ko'rish mumkin.

Akademik Ibrohim Mo'minov o'zbek xalqiga Forobiy, Beruniy, Mirza Bedil kabi adiblarning ilmiy meroslarini ham etkazib berdi. Uning o'zbek xalqi tarixi haqidagi to'rt tomlik kitobi, "Samarqand tarixi", "Buxoro tarixi", "Xorazm tarixi" ilmiy nashrlaridagi boshchilik ishlari, Italiya, Vengriya, CHexoslovakiya, Gretsiya, Pokiston va Afg'onistonda qilgan ilmiy ma'ruzalari O'zbekiston tarixi, falsafasi to'g'risidagi munosib tasavvurlarni shakllantirishga xizmat qildi.

Ustoz olimning ilmiy faoliyati bilan bir qatordagi jamoatchilik sohasidagi ishlari ham davr ziyolisining eng yorqin qirralarini o'zida aks ettirgan. Akademik Ibrohim Mo'minov O'zbekistonda sotsial institutlar tizimining shakllanishida ham

¹ Франк С.Л. Этика нигилизма // Вехи.Интеллигенция в России. Сборники статей 1909-1910. - М.: Молодая гвардия, 1991. 155-с.

o‘z an‘analarini kashf etgan edi. Uning boshchiligida O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Tarix va arxeologiya institutlari shakllantirilgan bo‘lsa, 1958- 1974 yillar davomida o‘z tashabbusi bilan Fanlar Akademiyasi qoshida Falsafa va huquq institutining tashkilotchisi bo‘ldi. Uning “O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar” va “Fan va turmush” jurnallariga asoschi va bosh redaktor bo‘lgani, O‘zbekistondagi ilmiy-ma‘rifiy hayotda ham o‘z milliatparvarlik va ilmparvarlik g‘oyalari bilan etakchi ideolog bo‘lganing dalilidir.

Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar

1. Sharqning eng qadimiy mamlakatlaridan biri Vaviloniyada dastlabki falsafiy fikrlarning paydo bo‘lishi haqida so‘zlang.
2. Qadimgi Misrdagi falsafiy g‘oyalar haqida so‘zlang.
3. Hindistondagi dastlabki falsafiy fikrlar, lokayata va charvaka falsafasidagi asosiy g‘oyalar nimalardan iborat?
4. Eramizdan oldingi IX-VII asralarda Xitoydagi falsafiy ta‘limotlar, daosizm, konfutsiychilik haqida fikr-mulohazalaringizni bayon eting.
Mintaqamizdagi dastlabki falsafiy fikrlarning miqlar, rivoyatlar, To‘maris va Shiroq haqidagi dostonlarda ifodalanishi haqida so‘zlang.
Zardushtiylik falsafasi, “Avesto” kitobida ilgari surilgan g‘oyalar nimalardan iborat? Ularning tarixiy ahamiyati haqida nimalar bilasiz?
7. O‘rta asr davrida O‘rta Osiyo mutafakkirlarining jahon falsafasi taraqqiyotiga qo‘shgan buyuk hissalar nimalardan iborat?
8. Al-Xorazmiy, Forobiy, Ibn Sino, Beruniyning ilmiy-falsafiy qarashlari haqida nimalar bilasiz?
9. Temuriylar davri madaniyatining namoyondalari Ulug‘bek, Navoiy, Bobur ilmiy-falsafiy qarashlari haqida so‘zlab bering.
10. Tasavvuf falsafasining xususiyatlari nimalardan iborat?

3-mavzu. Falsafiy tafakkur taraqqiyoti bosqichlari: G‘arb falsafasi

Qadimgi Yunon-Rim falsafiy maktabi. Qadimgi Yunon –Rim falsafiy maktabi falsafa tarixida antik falsafa nomi bilan ataladi.

Mil. av. VI va milodiy VI asrlar oralig‘idagi davrni o‘z ichiga qamrab oluvchi antik davr falsafasi qadimgi Yunon va Rim xalqlari donishmandligi mahsuli sanaladi. G‘arb falsafiy tafakkur taraqqiyotining keyingi bosqichlarida vujudga kelgan deyarli barcha maktablar, tasavvurlar kategoriya va muammolar uchun ilk g‘oyaviy ildiz vazifasini o‘tagan antik falsafa jahon sivilizatsiyasi rivojiga ulkan hissa qo‘shdi. Qadim zamonlardan to bugungi kunga qadar G‘arb falsafasi, fani va madaniyati o‘z tamaddunining beshigi, tafakkur tarzining manbai sifatida qayta-qayta murojaat qilib kelmoqda. Shuni alohida ta‘kidlab o‘tish lozimki, falsafa atamasining o‘zi ham ayni davr tafakkurining mahsuli hisoblanadi. Faylasuf haqiqatni sevguvchi, hamisha uni izlaguvchi insondir. Shu ma‘noda olamni yaxlitligicha anglash, borliqning bosh sababini aniqlash faylasufning asosiy vazifasi hisoblangan. San‘at va dindan farqli ravishda falsafa olamning yaxlitligi va uning

bosh ibtidosini fantaziya va afsonalardan xoli tarzda, ratsional dalillarga asoslangan holda tushuntirib berishi lozim bo'lgan. Bu esa insonning ruhiy erkinlikka olib keladi deb hisoblangan. SHu ma'noda falsafaga nafaqat shunchaki haqiqatni izlash yo'li, balki alohida hayot tarzi- inson ruhiy mavjudligining sharti deb ham qaralgan.

Antik falsafaning ibtidosi Miletlik Fales(Mil. av. 625-547 yillar) qarashlarining shakllanishi bilan bog'lanadi. Uning xronologik yakuni esa, Rim imperatori Yustinian "Afinadagi falsafiy maktablarni yopish to'g'risida" kredet chiqargan Milodiy 529 yil sanasi bilan belgilanadi. G'oyaviy mazmuni va xarakteri, ayniqsa falsafiy mushohada yuritish usuliga ko'ra qadimgi Sharq falsafiy ta'limotlaridan farq qiluvchi antik falsafada insoniyat tarixidagi olamni ratsional tushunishga bo'lgan ilk urinishlar kuzatildi. U yaratgan tafakkur uslubi keyinchalik vujudga kelgan ilg'or sivilizatsiyalar uchun asos bo'lib xizmat qildi. Antik falsafa taraqqiyotini shartli to'rt bosqichga ajratib o'rganiladi: 1) Yunon falsafasi shakllana boshlagan ilk davrlardan Mil. Avv. IV asrgacha bo'lgan muddatni o'z ichiga qamrab oluvchi "suqrotgacha bo'lgan davr"; 2) Mil. Avv. V asrdan mil.Avv.IV asrning o'rtalarigacha davom etgan "mumtoz davr" bu davrda Suqrot, Aflotun, Arastularning ijodi vujudga kelib, keng tarqaldi; 3) Mil. Avv. IV asr oxirlari va Mil. Avv. II asr oralig'ida rivoj topgan ta'limotlarga nisbatan Ellin falsafasi atamasi qo'llaniladi; 4) Mil. Avv. II asr oralig'ida taraqqiy topgan antik donishmandlik Rim davri deb ataladi. Antik falsafa bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega:

1. Antik falsafa asosida ob'ektivizm tamoyili yotadi. Aniqrog'i, sub'ekt ob'ektdan alohida ajratilib, undan yuqori qo'yilmaydi. 2. Antik falsafani moddiy-hissiy kosmologizm sifatida tavsiflash mumkin. Antik falsafaning ontologik g'oyalari O'rta asrlardagi singari mutloq shaxsga emas, hissiy kosmosga tayanadi. 3. Antik falsafa panteistik xususiyatga ega bo'lib, unda xudo va tabiat aynanlashtiriladi. Unga ko'ra, kosmos mutloq ilohiylik hisoblanadi. Tabiat xudolar tomonidan yaratilmagan, aksincha, ularning o'zi tabiatning bir qismi sanaladi. Odamlarga o'xshagan Yunon xudolari tabiiy stixiyalarni aks ettiradi. 4. Kosmos zarurat bilan shartlangan. Insonga nisbatan qo'llanilganda mazkur zarurat taqdir ko'rinishida namoyon bo'ladi. ammo, Yunon falsafasiga ko'ra insonlar birgina tabiat qonunlariga bo'ysunib emas, balki aqliy mushohadaga asoslanib ham yashashlari lozim. Yunonlar xudolar o'rnatgan qonunlarni ham tan olgan holda aqlga tayanib yashash g'oyasini ilgari surganlar. 5. Inson kashfiyotlarining eng muhimlaridan biri qonun hisoblanadi. Yunon falsafasida ta'kidlanishicha, qonun ustuvorligi o'rnatilgan shahar davlat-polis hisoblanadi. Yunon polislaridagi turli xalq yig'inlari va sudlarda notiqalar tomonidan qo'llanilgan dalillash hamda xulosa chiqarish usullari kishilarning aql kuchiga bo'lgan ishonchini yanada oshirdi. 6. Ijtimoiy hayotning fuqaroviy xarakteri va erkin, faol ideal fuqaro obrazi Yunon falsafasida axloqiy qarashlar - amaliy falsafaning shakllanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Muayyan insoniy xulq-atvor tipiga qarab mo'ljal olgan ushbu amaliy falsafada kishilarning turmush kechirish qoidalari, ezgu fazilatlar bilan bog'liq g'oyalar ilgari surildi. 7. Yunon falsafasida mantiqiy, axloqiy va estetik qarashlarning o'zaro ajralishi ro'y berdi. Ammo, shunga qaramay, Yunon mutafakkirlari o'z ta'limotlarida ularni asoslanmagan tarzda aynanlashtirishga moyil edilar. 8. Abstrakt

mushohada yuritish qadimgi Yunon falsafasining o'ziga xos xususiyati bo'lib, antik mutafakkirlar dunyoqarash masalalarini tabiat, inson va xudoni yaxlit tarzda idrok qilgan holda hal qilishga uringanlar.

Shu ma'noda ularning ta'limotlari Yunon falsafasiga dunyoqarash xarakterini baxsh etgan mifologiya bilan uzviy aloqadorlik kasb etgan. Mifologiya hamma narsa nimadan tug'ilganligi bilan qiziqsa, Yunon faylasuflari dunyoda ro'y berayotgan narsa-hodisalarning bosh sababi- ibtidosi nima ekanligini aniqlashga intilganlar. Suqrotgacha yashagan Yunon faylasuflarining deyarli barchasi barcha hodisa va jarayonlarning birinchi sababini topish, tabiatni tushuntirish hamda ayrimlari bilish muammolari bilan shug'ullanganlar.

Suqrotgacha bo'lgan falsafiy tizim va Suqrot maktablari.

Suqrotgacha bo'lgan davr Yunon mutafakkirlarining asarlari ayrim fragmentlar va keyingi davrlar faylasuflarining asarlarida keltirilgan iqtiboslar ko'rinishidagina bizgacha etib kelgan. Bunday iqtibos va parchalarni Diogen Laertskiyning "Mashhur faylasuylarning hayoti va hikmatli so'zlari" asari, shuningdek, Aflotun, Arastu, Plutarx, Sekst Empirik, Kliment Aleksandriyskiy kabilarning ishlarida uchratish mumkin.

Suqrotgacha bo'lgan falsafiy maktablarga Ioniya dengizi qirg'oqlarida joylashgan Milet shahri nomi bilan ataluvchi Milet maktabi, asosida Pifagor ta'limoti yotgan pifagorchilar maktabi, Levkipp-Demokritning atomlar to'g'risidagi nazariyasini o'zida ifoda etgan atomistlar maktabi va janubiy Italiyada joylashgan Eley shahri faylasuflari maktabi kiradi. Shuningdek Suqrotgacha yashagan, antik falsafaga katta hissa qo'shgan Yunon-Rim faylasuflari ham bu davrga mansubdirlar. Xususan, Fales, Anaksimend, Anaksimandr, Geraklit, Ksenofan, Pifagor, Parmenid, Empedokl, Anaksagor, Levkipp, Demokrit kabi faylasuflar, ba'zilar Suqrot bilan qisman zamondosh bo'lishiga qaramay, Suqrotgacha bo'lgan falsafiy tizim vakili sanaladi. Bu tizim ularning ijodi nuqtai nazaridan emas, balki usuli va ta'limotining xarakteri bilan farqlanishiga binoan ajratilib ko'rsatiladi.

Mil. Avv. 640-562 yillarda yashab ijod etgan Ioniyaning Milet shahrida tug'ilgan Fales Yunon falsafasining asoschilaridan biri bo'lgan. Astronomiya, geometriya, arifmetika singari ko'plab sohalardagi serqirra bilimlari Fales falsafiy dunyoqarashining shakllanishida muhim o'rin tutgan. Masalan, bu davrda yaxshigina taraqqiy etgan geometriya ilmiy abstrakt mushohada yuritish uchun nazariy asos vazifasini o'tagan. Bu esa, Falesning olam mohiyatini bilish haqidagi qarashlarining shakllanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan. Fales hamma narsaning asosida suv yotadi, hamma narsa suvdan paydo bo'lgan va unga qaytadi deb hisoblagan. Bunday qarash falsafadan oldingi mifologik kosmogoniyalarda ham mavjud edi. Ammo, Falesning bu boradagi qarashlari mifologik kosmogoniyadan butkul farq qiladi. U suvni muayyan shakl yoki mifologik kuch sifatida emas, amorf, doimiy harakatchan, materiyaga jamlangan ko'rinishda tushungan.

Milet maktabining yana bir vakili Anaksimandr bo'lib, mil. av. 510-540-yillarda yashagan, olamning asosi sifatida ko'rinmas modda apeyronni ko'rsatadi. Hamma narsani qamrab olgan substansiya apeyronda issiqlik va sovuqlikni qarma-

qarshiligi yuzaga keladi. Ularning kurashi esa, kosmosni vujudga keltiradi. Jumladan, issiqlik olov ko‘rinishida namoyon bo‘lsa, sovuqlik osmon va erga aylanadi. Anaksimandr birinchilardan bo‘lib, materiyaning saqlanishi qonunini va organik hayotning evolyusion taraqqiyoti haqidagi gipotézalarni ilgari suradi. Uning ta‘kidlashicha, odam barcha hayvonlar singari baliq evolyusiyasining mahsulidir. U “Tabiat haqida” nomli asar yozgan. Ammo, mazkur asar bizgacha etib kelmaagan. Anaksimandrning shogirdi Anaksimenes esa hamma narsa havodan kelib chiqqanligini ta‘kidlaydi. Mangu, harakatchan havo quyushib dastlab bulutlarni, keyin suvni va nihoyat er, toshlarni vujudga keltiradi. Keyin esa undan olov kelib chiqadi.

Suqrotgacha bo‘lgan antik falsafiy fikr taraqqiyoti mobaynida vujudga kelgan o‘ziga xos yo‘nalishlardan yana biri Eley maktabi hisoblanadi. Olamning doimiy o‘zgarib turishi g‘oyasini ilgari surib, stixiyali dialektikaga asos solgan naturfaylasuflardan farqli ravishda ayni maktab vakillari harakatni inkor qiluvchi metafizik ta‘limotga asos soldilar. Eley maktabining asoschisi Parmenid (Mil. Avv. 540 –470) olamni narsalar bilan to‘ldirilgan harakatsiz shar shaklida tasavvur qilgan. mutafakkir Parmenidning ta‘limotiga ko‘ra haqiqiy borliq mangu harakatsiz bo‘lib, uni faqat aqliy mushohada orqali bilish mumkin. Unga ko‘ra narsalar nimadandir kelib chiqqan degan fikr, ularning qismlarga ajralishi to‘g‘risidagi mulohazaga olib keladi. Mutafakkirning ta‘kidlashicha, bunday qarash haqiqat emas, balki haqiqatga o‘xshab tuyuladigan fikr xolos. Parmenid tomonidan qo‘yilgan borliqning mangu harakatsiz ekanligini isbotlash vazifasi uning shogirdi Eleylik Zenon tomonidan amalga oshirildi. Ayni vazifani amalga oshirish maqsadida Zenon o‘zining qator aporiya-paradokslarini ishlab chiqdi. Masalan, Axilles va toshbaqa haqidagi aporiyasida harakatni boshlash imkonsiz ekanligini isbotlashga urinadi. Uning barcha aporiyalari harakatning mumkinligi ziddiyatning paydo bo‘lishiga olib kelishi to‘g‘risidagi g‘oyani isbotlashga qaratilgan. Zenon aporiyalarida uzuluklilik va uzluksizlikning birligi g‘oyasi hamda harakatsiz tushunchalarda harakatni tasavvur qilishdek murakkab falsafiy muammoni tushuntirib berishga intilgan.

Suqrot (Mil. Avv. 470 – 399) o‘zigacha yashab ijod qilgan mutafakkirlardan farqli ravishda birinchi marta inson va uning hayoti bilan bog‘liq muammolar, xususan, qanday yashash va qanday fikrlash lozimligi masalasiga diqqat qaratdi. Quyosh va oyning tutilishi, meteoritning tushishi kabi hodisalarni o‘rganadigan tabiat falsafasi insonning qanday yashashi va fikrlashi lozimligi haqida bilim bermasligini ta‘kidlagan mutafakkir insonning o‘z-o‘zini anglashga intilishini haqiqiy bilim deb hisoblaydi. Uning o‘z-o‘zini angla degan hikmati ayni mulohazaning isboti bo‘la oladi. Suqrot moddiy olam va narsalar dunyosini bilish imkonsiz, shuning uchun nazariy emas, balki amaliy yashash san‘atini o‘rganish lozimligi g‘oyasini ilgari suradi. Suqrotning umri mobaynidagi faoliyati bahslarda kechgan. U monologda bir yoqlama xato fikrlar bayon qilinadi deb hisoblaydi. Suqrot haqiqatni bilishning *mayevtika* usulini kashf etdi. Unga ko‘ra predmet haqidagi qarama- qarshi fikrlarning o‘zaro to‘qnashuvi haqiqatga olib boradi. Bahs jarayonida yuzaga keladigan bir predmet haqidagi o‘zaro qarama-qarshi

mulohazalar yangi savollar qo'yish yo'li bilan bartaraf qilib boriladi. Suqrot axloq va ezgulikni bilim bilan aynanlashtiradi. Aniqrog'i, nima yaxshi va nima yomonligini bilgan inson ahmoqona ishlarni qilmasligini ta'kidlaydi. Suqrot insonni ijtimoiy kosmosni aks ettiruvchi mikrokosmos sifatida tasavvur qiladi. bu kosmos esa inson tomonidan anglangan bo'lmog'i lozim. Suqrotning axloq falsafasi ratsionalistik xususiyat kasb etadi. Unga ko'ra har qanday bema'ni hatti-harakat bilimsizlik mahsuli sanaladi.

Buyuk Yunon faylasufi Aflotun (Mil. Avv. 427–347) Suqrotning shogirdi va izdoshi bo'lgan. Aflotun o'zining falsafiy qarashlarini "Suqrot apalogiyasi", "Bazm", "Parmenid" singari dialoglari hamda, "Davlat", "Qonunlar" kabi traktatlarida bayon qilib bergan. G'oyalar haqidagi qarashlar mutafakkir ta'limotining asosini tashkil qiladi. U olamda mavjud narsalar o'z g'oyasiga ega deb hisoblagan. Aflotun g'oyalarni narsalarning hissiy yo'l bilan bilish imkonsiz bo'lgan obrazlari deb tushuntiradi. G'oyalar narsalarning mohiyatiga daxldor bo'lgan qat'iy o'zgarmas xususiyatlari va tuzilishini o'zida namoyon qiladi. Aflotunga ko'ra g'oyalar mangu va birlamchidir. Masalan, tirik daraxt qurib tamom bo'lishi, yoki uchburchakning rasmini o'chirib tashlash mumkin. Ammo, daraxt va uchburchakning g'oyalari mangu qoladi. G'oyalar materiyani tartiblashtirgan holda borliqni boshqaradi. Materiya noborliq bo'lib, u g'oyaning shaklini qabul qiladi. Aflotun o'zining gnoseologiyasida ruh va xotirlash haqidagi qarashlariga tayanadi. Materiya bilan birikkan abadiy jon o'zining g'oyalar olamidagi vazifalarini unutadi. Uning soyalar olamidagi bilish jarayoni xotirlashdan iborat xolos. Mutafakkir g'oyalar to'g'risidagi bilim haqiqiy bilim bo'lib, hissiy olam haqidagilari esa bilim emas, aksincha ehtimoliy fikrlar ekanligini ta'kidlaydi. Aflotun dialektikani bilishning asosiy usuli sifatida ko'rsatadi. U o'zining g'oyalar haqidagi qarashlaridan kelib chiqqan holda ideal davlat ta'limotini ishlab chiqadi. Aflotunning ideal davlatida faylasuflar davlat boshqaruvi, harbiylar uning himoyachisi, qolganlar esa kundalik moddiy ehtiyojlarni ta'minlash bilan shug'ullanadilar. Aflotun davlatida tartib va qonun ustuvor bo'ladi. Aflotunning so'nggi asari "Qonunlar" deb ataladi.

Aflotunning shogirdi, qomusiy olim va faylasuf Arastu (mil. av. 384–322) Aflotun ta'kidlagan g'oyalar narsalarning ulardan ajralmagan shakli ekanligi to'g'risidagi qarashni ilgari suradi. Arastu fikricha, g'oyalar narsalardan alohida mavjud emas. Arastu shakl materiyani voqe'likka- konkret narsaga aylantiradi deb ta'kidlaydi. Arastu to'rt turdagi sababni tan oladi: 1. Materiya sabab - narsalar undan tashkil topadi. Aniqrog'i u narsalarning xomashyosi - substrati sanaladi. 2. SHakl sabab- narsalarning g'oyasi-mohiyatini anglatadi. 3. Harakat sabab - harakatning manbaini anglatadi. 4. Maqsad sabab-"nega?", "nima uchun" singari savollarga javob bo'ladi. aniqrog'i, narsa hodisalarning nima uchun mavjudligini bildiradi. Falsafa tarixida Arastu falsafasi uch qismga bo'lib o'rganiladi. Ular: bilish haqida bilim berishni nazarda tutadigan nazariy falsafa ("Metafizika" asarida bayon qilingan), inson haqida bilim berishni nazarda tutadigan amaliy falsafa("Siyosat" va "Axloq" asarlarida bayon qilingan), ijod jarayoni haqida bilim berishni nazarda tutadigan ijod falsafasi("Poetika" va "Ritorika" asarlarida bayon

qilingan). SHuningdek, Arastuning “Fizika haqida”, “Osmon haqida”, “Hayvonlarning qismlari haqida”, “Ruh haqida” singari tabiiy-ilmiy masalalarni tushuntirishga qaratilgan asarlari ham mavjud. Ruhni hayotning boshlanishi deb hisoblagan mutafakkir uning uch darajasini ajratib ko‘rsatadi. Unga ko‘ra ruh o‘simlik ruhi, hayvon ruhi va aqlli ruh kabi darajalardan tashkil topadi. Arastuning ijtimoiy-siyosiy qarashlari uning “Siyosat” nomli asarida bayon qilib berilgan. Faylasufning ta’kidlashicha, siyosat bu aqlga muvofiq qurilgan davlatchilik hayoti haqidagi ta’limotdir. Arastu insonni boshqalar bilan birgalikda yashashga moyil siyosiy hayvon, ijtimoiy mavjudot sifatida ta’riflaydi. U davlat oila, qishloq singari dastlabki ijtimoiy birlashmalardan tabiiy yo‘l bilan kelib chiqqan deb hisoblaydi. Mutafakkir davlat boshqaruvining monarxiya, aristokratyayi, politiya shakllarini to‘g‘ri, tiraniya, oligarxiya, demokratiya kabi ko‘rinishlarini esa noto‘g‘ri deb hisoblagan. “Nikomax etikasi” asarida axloqiy qarashlarini tushuntirib bergan Arastu bu borada oltin o‘rtalik g‘oyasini ilgari suradi. Arastu formal mantiqning asoschisi sanaladi. Arastu falsafasidan keyin fan bilimga mantiqiy tushunchalar vositasida erishish yo‘li sifatida tushinila boshlandi. Arastu bilan Yunon falsafasining mumtoz davri o‘z nihoyasiga etdi.

Antik falsafada Geraklit, Demokrit falsafasi xususiyatlari. Efeslik Geraklit (taxminan mil. av. 544 – 483) olovni olam substansiyasi deb bilgan. mutafakkir butun olam va undagi alohida narsalar olovdan kelib chiqqanligi g‘oyasini ilgari suradi. Geraklit butun olam doimiy harakat va o‘zgarishda ekanligini ta’kidlaydi. Mutafakkirning mazkur qarashi uning oqib turgan daryoga ikki marta tushib bo‘lmaydi degan mashhur hikmatida ham yaqqol ko‘rinib turadi. Geraklit ta’limotidagi logos tushunchasi butun olamni tartibga soluvchi qonunni anglatadi. Geraklit falsafa tarixida sodda dialektika usuliga asos solgan bo‘lib, uning fikricha, logos borliq asosi va dialektik qonunidir. Bir narsa turlicha: dengiz suvi ham toza, ham ifloslangan: baliqlar uchun hayot manbai, ichimlik suvi. Odamlar uchun–zaxarli va halokatli. Muhim o‘zgarish–bu qarama-qarshisiga aylanish, qarama-qarshilarning mohiyati birining ikkinchisi orqali aniqlanishida. Masalan, sog‘liqning qadr-qimmatini kasalga chalinganda bilinadi. Geraklit fikricha qarama-qarshiliklar kurashi barcha narsaning otasi, barcha narsalar ustidan hukmron kurash zaruriyat tufayli paydo bo‘ladi.

Bilish masalalariga murojaat qilib, Geraklit hissiy va ratsional bilishni ajratadi. Hissiyot, uning fikricha, foydadan holi emas, ayniqsa ko‘rish va eshitish juda ahamiyatlidir. Lekin bilishning oliy maqsadi – logosni anglash va shu tariqa dunyoning oliy birligini anglash hamda oliy donishmandlikka erishishdir. “Donishmandlik belgisi menga emas, balki barcha bir narsa (birlikda) deb biladigan logosdadir”. Biroq logosni bilish oson emas, buning sabablari ko‘p, xususan tabiat yashirinishni yaxshi ko‘radi. Bundan tashqari, “ko‘pchilik odamlar hayvonlar singari keragidan ortiqcha to‘yib ketgan”. SHuningdek, ana shu ko‘pchilikning ustozlari: Gomer ham, Gesiod ham, boshqa xalq kuychilari ham logosni bilishga xalaqit berishadi. Ko‘pchilik odamlar nimaga to‘qnash kelishayotganlarini ham bilishmaydi. Ko‘p narsani bilish aqlli bo‘lishga o‘rgatmaydi. U olamning yaxlit manzarasini o‘rnatishga olib kelmaydi, unga faqat logosni (barcha bir narsa

ekanligini) bilish orqaligina erishish mumkin. Demak, Geraklit fikricha, logosni, donishmandlikni dunyoning birligini bilish hammaga ham nasib etavermaydi. Lekin odamlar tabiatan aqllidir. “Fikrlash barchaga xos”, “Barchaga o‘zini bilish va mulohaza yuritish qobiliyati berilgan”, “Logos barchada mavjud”¹.

Geraklit axloqiy qarashlarida odamlarni tabiatan bir-biriga teng deb hisoblashga moyil. Biroq ularning amalda teng emasligi aniq. Buni ular manfaatlarining teng emasligi oqibati deb biladi. Ko‘pchilik logos bo‘yicha emas, hoxishlari bo‘yicha yashaydilar. Bunday kishilar hayoti – “bolalar o‘yini”. Ular o‘z xoxishlari hukmronligi ostidadir. Odamlar eshaklar singari somonni oltindan afzal ko‘radilar. Vaxolanki, baxt tana ehtiyojini qondirishda emas, balki o‘y-fikr yuritishda, “haqiqatni aytish va tabiat qonunlariga quloq solgan holda, ularga mos ravishda xatti-harakat qilishdadir”².

Siyosiy qarashlarida Geraklit faqat nasli bo‘yichagina emas, balki ruhi bo‘yicha ham aristokratdir. Uningcha, eng munosib odamlar bir narsani – o‘luvchi narsalarni shon-shuhratga ega deb biladilar. Bunday odamlar logosga muvofiq tarzda hayot kechiradilar va ular ozchilikni tashkil qiladilar. Unday odamlar bebaho, ular “logos bo‘yicha emas, o‘z hohishlari bo‘yicha yashayotgan o‘n minglab odamlar o‘rnini bosadi”³. Geraklit bitilgan qonunlar tarafdori (u davrdagi aristokratiya mavjud urf-odatlariga tayanib ish tutgan). “xalq qonun uchun xuddi o‘z uyini himoya qilganidek kurashishi kerak”⁴. Uning ta’kidlashicha, insoniyatga tegishli qonunlar yakka – ilohiyotdan oziqlanadi.

Geraklitning jon to‘g‘risidagi ta’limotida mifologiya elementlari ayniqsa ko‘p. Geraklit aytadi: “O‘lim–biz uyg‘ongandan keyin ko‘radigan narsadir”, “inson o‘layotganda tunda o‘zi uchun olov yoqadi. Uning ko‘zi o‘chgan bo‘lsa-da, o‘zi tirikdir”⁵. Geraklit ta’kidlashicha, Quyosh–tirik jon, unga adolat xudosi Dikl va uning xizmatkori Erina qarab turadi. Ular quyoshning me’yordan chiqib ketmasligiga qarab turadilar.

Geraklit ta’limoti ioniyadagi falsafiy fikr rivojining dastlabki natijalari yakuni deb baholanishi mumkin. Uning muhim natijalari qatoriga borliqni Yagona va Ko‘plik birligida olib tushuntirishi, harakatning qonuniyligi va universalligi g‘oyasining asoslanishi, garchi sodda ko‘rinishda bo‘lsada dialektikani naturalizm, stixiyali materializm bog‘lashga bo‘lgan urinishlarni kiritish mumkin. Falsafiy fikrning Qadimgi Gretsiyadagi keyingi rivojida mazkur g‘oyalar va yondashuvlar mukammallashib bordi.

Demokrit (mil. av. 460 –370) birinchilardan bo‘lib borliqning atomlar - bo‘linmas zarrachalardan tashkil topganligi to‘g‘risidagi qarashni ilgari surdi. Demokrit hayoti to‘g‘risida bir qancha yarim afsonaviy rivoyatlar saqlangan. Taniqli zotdan bo‘lib, katta merosga ega bo‘lib qolgan Demokrit barcha boyligini ilmiy safarlarga sarflaydi. Bu davrda Abderda otadan qolgan merosni bemahsul

¹ Чанышев А.Н. Курс лекций по древней философии.,М.:Высшая школа,1981.-С.137

² Антология мировой философии.Т.1,Ч.1-С.280

³ Чанышев А.Н. Курс лекций по древней философии.,М.:Высшая школа,1981.-С.138

⁴ Антология мировой философии.Т.1,Ч.1-С.280

⁵ Чанышев А.Н. Курс лекций по древней философии.,М.:Высшая школа,1981.-С.138

ishlarga sarf qilish jinoyat hisoblanardi va shuning uchun ham Demokritning ishi bo'yicha jinoiy ish qo'zg'atiladi. Lekin Demokrit ilmiy safarlarda yiqqan bilimlariga suyanib yozgan asarlarini o'qib beradi va jazodan qutilib qoladi. Alloma Bobil, Fors davlati, Hindiston va Misrga sayohat qilgan, olimlar, magiya bilan shug'ullanuvchilarga shogird bo'lib tushgan. Demokrit V asr oxiri IV asr boshida vafot etgan. Demokrit Levkippning shogirdi bo'lgan. Bu davrda Abderda Sofist Protagor, naturalist va shifokor Gippokratlar yashagan.

Levkipp va Demokritning fizikaviy va falsafiy qarashlarining asosini jismlarning bo'linmas zarrachalarining mavjudligi to'g'risidagi farazlari tashkil etadi. Bunday son-sanoqsiz zarrachalarni, ya'ni atomlarni (atomos- bo'linmas, qismlarga kesilmaydigan) mutloq zich va havosiz bo'lgani uchun bo'linmaydigan zarrachalar deb hisoblashgan. Demokritning fikricha, doimiy harakatda bo'lgan atomlar bir-birlaridan faqatgina shakli, joylashishi, tartiboti, hajmiga ko'ra farq qiladi. mutafakkirning gnoseologik ta'limotida hissiy bilish bizga mavhum bilim berishi, aniq bilimlarga esa faqat aqliy mushohada orqali erishish mumkinligi g'oyasi markaziy o'rin tutadi. Mutafakkir narsalar rang, ta'm, hid, kabi sifatlarga ega emas, ular atomlarning sezgi a'zolarimizda qoldirgan taassurot mahsuli deb ta'kidlaydi.

Havo atomlar hosil qiladigan jismlarda bo'ladi va ular ana shu havoda harakatlanishadi. Atomlar bir biridan 1) shakli, ya'ni tashqi ko'rinishi; 2) o'lchamlari; 3) holati va 4) tartibi bilan farq qilinadi¹. Bo'shliqdagi harakati jarayonida atomlarning ba'zilar bir birining ustidan sakrab o'tib ketishadi, boshqa bir xillari tarqalishib, o'ralishib ketishadi (shakli mos kelganda) va murakkab jismlarni paydo qilishadi. Levkipp va Demokritlar fikricha borliqda atomlarning faqat sonigina emas, balki ko'rinishlari, shakllari ham cheksizdir. Lekin ular (shakllar) ko'rinmaydi, his etilmaydi. Simplitsiyning habar berishicha atom shakllari soni shuning uchun ham cheksizki, "ular soni boshqasining sonidan hech qancha ko'p emas".

Atomistik ta'limot eyleliklar qo'ygan masala: borliq paydo bo'lishi ham yo'q bo'lishi ham mumkin emasmi? degan savolning o'ziga xos echimi edi. Ayni paytda Levkipp va Demokritlar eyleliklarning ko'plik (to'plam)ni, harakatni fikralab bo'lmaydi degan xulosasini inkor etadilar.

Levkipp va Demokritlar atomlar harakati sababi to'g'risidagi masalani qo'yishmaydilar. Buning sababi shundaki, ular harakat atomga avval boshidanoq hos bo'lgan xususiyat deb hisoblashgan.

Atomistik ta'limot kundalik tajribadagi hodisaga tayanadi. Bu hodisa: qattiq jismning qisilishidan iborat. Teofrast bergan ma'lumot bo'yicha Levkipp va Demokritlar shunday fikr yuritishgan: agar atomlar oralig'ida havo bo'lmaganda jismning hajmi qisqarmagan bo'lar edi. Demak, jismning qattiqligi yoki yumshoqligiga uning zichligi va siyrarligi mos keladi, degan xulosaga kelganlar. Atomlar barcha yo'nalishlarda harakat qilishadi. Ana shuning uchun ham ular borliqda muayyan tartibni hosil qilishi ham, yoki tartibsiz xaotik harakatda

¹ Каранг: Антология мировой философии. Т.1. Ч.-С.324

bo'lishi ham mumkin. (masalan, quyosh nuri derazadan o'tganda mayda zarrachalar chang ichida harakatlanayotgandek bo'lib ko'rinadi.

Levkipp va Demokritning fikricha atomlarni har xil kattalikda bo'lishi, ko'zga ko'rinmaydigan eng mayda zarracha va katta hajmdagi zarracha ko'rinishida bo'lishi mumkin.

Aristotel fikricha, Demokrit cheksiz katta miqdordagi mohiyatni – bo'sh fazoni mavjud deb hisoblagan. Lekin bundan xuddi shunday kattalik, o'lchamdagi atom ham bo'ladi, degan xulosa chiqarmagan.

Demokrit atomni "g'oya" deb ham atagan, lekin uning jisimli shakl, jisimli "g'oya" deb hisoblagan. (Platonda "g'oya"- jisimsiz shakl).

Atom – jisimli g'oya bo'lsa, u qanday moddiy sifatlarga ega, degan savol paydo bo'ladi. Bunga Demokrit atomlar his etiladigan sifatlarga hid, rang, tovush, harorat kabilarga ega emas. Atomlar faqat fazodagi shakli, o'lchami, holati, tartibi bo'yicha farqlanadi, bu sifatlar his etilmaydi. Sekst Empirik Demokritning quyidagi so'zlarini keltiradi: "Shirin, achchiq, issiq, sovuq va boshqalar faqat fikrda mavjud, borliqda esa faqat atomlar va bo'shliq mavjud, xolos".

Shuni ham etiborga olish kerakki, Atomistik ta'limot vaqtining cheksizligi to'g'risidagi fikr bilan birga rivojlandi.

Moddiy boshlang'ich asos va vaqtning abadiyligidan atomistlar tabiatdagi barcha predmetlar va hodisalarning zaruriyligini keltirib chiqarishadi. Aesiy bergan ma'lumotga ko'ra, Demokrit (balki Levkipp) hech bir narsa "sababsiz paydo bo'lmaydi, biroq barcha narsalar qandaydir asos va zaruriyatga ko'ra vujudga keladi", deb ta'kidlaydi. Demokrit fikriga ko'ra zaruriyat fizikaviy ma'noga ega, u "materiyaning qarshiligi, harakati va zarbasi". U "girdob"ni barcha narsalarning sababi deb biladi. Dunyodagi hamma hodisalar zaruriyatga bo'yunadi. Olamda sababsiz paydo bo'ladigan hech narsa yo'q va demak, tasodif yo'q. Demokrit fikricha "Kishilar o'zining mulohaza yurita bilmasliklarini yashirish uchun tasodif o'ylab topishgan.

Simplitsiy Demokritning tasodif to'g'risidagi mulohazalarini quyidagi misolda tushuntiradi; kal bosh chol ekin maydoni bo'ylab yurib ketayotganda, uning boshiga toshbaqa tushib ketadi va kalla suyagini sindiradi. Sodir bo'lgan hol go'yoki tasodifdek. Lekin aslida unday emas, u zaruriydir, chunki burgut uning boshini tosh deb o'ylab toshbaqani tashlab yuboradi. (toshbaqa toshga urilganda kosachalari sinib, go'shti ajraladi, burgut uni eyish uchun shunday qiladi). Bu - zaruriyat.

Demokrit tasodifni maqsadga muvofiqlikka qarama qarshi qo'yib tushuntiradi. Uning fikricha, har bir narsa to'g'risida u nima sababdan paydo bo'ldi, uning sababi nima deb, savol qo'yish kerak. Bunda qanday maqsadga ko'ra paydo bo'ldi deb savol qo'yish o'rinli emas. Demak, Demokrit tasodifni sababsiz narsa deb emas, maqsadga muvofiqlikning inkori deb tushuntiradi.

Demokrit yozadi : "Bo'shliq va atomlar – materiyadir, yoki narsalar sababidir"¹.

¹ Ўша жойда-Б.322

Atomizmning yangiligi quyidagi ikki narsada: 1) borliqning cheksizligi va 2) cheksiz dunyoviy fazoda bir qatda yonma-yon yashayotgan dunyolarning ko'pligi haqidagi ta'limotidir. Levkipp va Demokritning dunyoning cheksizligi to'g'risidagi qarashlari bo'sh fazoning cheksizligi va atomlarning cheksiz miqdorda ekanligidan kelib chiqadi.

Dunyolar sonining cheksizligini ular quyidagicha tushuntirishadi: chegarasizlikdan ajralgan holda shakliga ko'ra turli xil jismlar "buyuk bo'shliqda" harakatlana borib birgalikda yagona girdobni (vixr) keltirib chiqaradi va jismlar unda bir-biriga urilib, parchalanib, aylanib, o'xshashlari o'zaro qo'shilib, kattalashib muqim aylanadigan jismlar shakliga kirishadi. SHu tariqa yupqa, nozik qismlar tepaga chiqishadi, og'irlari markazda bo'lgan sharsimon birikmalar hosil qilishadi. Shu tariqa Yer paydo bo'ladi. Uyirmali harakat davomida Yer yuqori qobig'idan ajralgan zarrachalar muayyan ko'rinishga ega jismlarni osmon yoritgichlarini keltirib chiqarishadi. Erga eng yaqin aylana Oy, eng uzoq turgan aylana – Quyosh. Bular faqat bir dunyoni paydo qilishadi, qolgan dunyolar ham shu tariqa yuzaga chiqishadi.

Atom to'g'risidagi ta'limotni Demokrit matematika sohasiga yoydi. U matematik jismlarni (shar, konus, piramida) xuddi atomlar bir-biridan bo'shliqda ajralib turgani kabi, bir-biriga yopishgan teksiliklardan tashkil topgan deb tushuntiradi. Masalan, konus uning asosiga nisbatan ko'p miqdordagi parallel aylanalardan tashkil topib, ularning radiusi konus yuqori nuqtasi tomon kichrayib boradi. Ular shunchalik ingichkaki, sezgi organlari bilan his etib bo'lmaydi.

Atomistik nazariyaga ko'ra jismlarning bo'linishi cheksiz davom etmaydi, uning chegarasi bor, bu atomdir. Bu fikri bilan Demokrit Zenon oporiyasidagi ziddiyatni bartaraf etadi.

Stereometriyada Demokrit asosiy atomlar element deb Demokrit piramidani hisoblaydi. Barcha jismlar piramidalarga ajralishi mumkin.

Levkipp va Demokrit irratsional munosabatlarni inkor qilishadi. Barcha matematik predmetlar jismlar, yuzalar, chiziqlar atomlardir, ya'ni bo'linmas butun elementlardir. Ana shuning uchun ham irratsional munosabatlarning bo'lishi mumkin emas.

Atomistlar hissiy va aqliy bilishni farq qiladilar. Atomlarni faqat hissiyot asosida bilib bo'lmaydi. Buning uchun hissiyot aql tomonidan chuqurlashtirilishi, to'ldirilishi zarur. Demak hissiyot va aql qarama qarshi emas, o'zaro aloqadadir.

Aristotel fikricha "Demokrit aqlni haqiqatni biladigan kuch deb hisoblamaydi; uni jon bilan almashtirib yuboradi"¹. Demokrit fikricha, bilishning ikki turi mavjud: xaqiqiy va qorong'i. Qorong'i, bu ko'rish, eshitish, ta'm, badan va hid sezgilari.

Demokritning mantiqiy fikrlari "Kanon"larda (Kanon – "mezon", "qoida" da ifoda etilgan. Unda bilishning uch mezoni farqlanadi: 1) hissiy bilishga oid, 2) tafakkur, 3) hohlangan va hohlanmaganlar (uning yordamida predmetga yaqinlashamiz yoki uzoqlashamiz). Jon va nafas mexanik muvozanatda bo'ladi, hayot ana shunga asoslanadi - ya'ni hayotning o'limga qarshiligi.

¹ Қаранг: ўша жойда-Б.332

Demokrit bir tomondan xudolar to'g'risidagi tasavvurlarga qarshi chiqadi, ikkinchi tomondan, ularning mavjudligini tan oladi. Uning fikricha, havo – barcha olovli atomlarning makoni. Havo faqat joylashadigan o'rin emas, u hayot uchun nafas olish va nafas chiqarish uchun zarur. Havo olovli dumaloq atomlarning uyirmali harakatidan hosil bo'ladigan obrazlar bilan to'lib toshgan. Ular xudolar bo'lib, mustaqil, uzoq yashaydigan, parchalanmaydigan xususiyatlarga ega. Ular odamga o'xshamaydi. Xudolarning ba'zilar yaxshilikni keltiradi, boshqalari yomonlikni. O'z ovozlari, ko'rinishlari bilan xudolar odamlarga ularning kelajagi to'g'risida ogohlantiradi.

Demokrit madaniyatga rivojlanish maqomini beradi. Madaniyat tabiat rivojlanishining davomidir. San'at–tabiatga taqlid qilish demakdir.

Demokrit etikasining aksiomasi va asosi: ozod grek jamiyatidan ajralgan individ emas, balki shahar–davlat fuqarosidir, degan fikrdan iborat. Yaxshi boshqariladigan davlat - bu yaxlit saqlanib turuvchi davlat, u buyuk tayanch. Shuning uchun ham davlat manfaatlari yakka kishilar manfaatlaridan yuqori turadi. Demokratik fikricha, polisidagi kambag'allik monarxiyadagi boylikdan afzal. Lekin demokratiya hamma vaqt ham yaxshi hayotni kafolatlamaydi. "Na sanatga, na donishmandlikka ularni o'rganmasdan turib, erishib bo'ladi". "Hayotning maqsadi - ruhning, jonning yaxshi o'rnatilishi".

Donishmandlik uch narsani keltiradi: yaxshi fikrlash, yaxshi gapirish, yaxshi amallar qilish. Xulq atvor- aql bilan bog'liq, u bilan belgilanadi. E'tiborga eng loyiq narsa – ehtirosga berilmaslik, vazminlikdir. Dono odam yovuzlikdan ham ezgulikni ajrata oladi, agar u ana shunga loyiq ilmga ega bo'lsa. Misol: chuqur havza ko'p munosabatda foydali, lekin unda cho'kib ketish xavfi bor, ya'ni u ziyon. Ayni paytda undan (zarardan) qutilish vositasi bor, bu - suzishga o'rganish.

Bilim – "ruhning yaxshi o'rnatilishiga" xalaqit beradigan narsalarni bartaraf etuvchi vosita.

Demokrit tasodifni inkor qiladi. Uning fikricha, inson sababini bilmagan hodisa va jarayonlarni tasodif deb o'ylaydi. O'zining ijtimoiy-siyosiy qarashlarida faylasuf quldorlik aristokratiyasiga qarshi chiqib, antik demokratiyani ulug'laydi.

Ellinizm davri. Ellin davri (miloddan avvalgi 4-asr oxiri — 1-asr) yunon madaniyati mintaqalarining kengayishi, uning Aleksandr Makedonskiy va uning vorislari davlati tarkibiga kirgan xalqlar madaniyati bilan o'zaro qo'shilishi bilan belgilanadi. Ellinizm Qadimgi Yunon madaniyatining so'nggi davri bo'lib bu davrda madaniyatning ba'zi sohalarida, jumladan, falsafada erishilgan yutuqlar darajasidan pasayish holatlari yuz beradi. Bu davrda yunon madaniyatining boshqa mamlakatlarga, jumladan, Markaziy Osiyoga ta'siri kuchayadi. hatto bu jarayon Yunonistonning Rimga qaram bo'lganidan keyin ham davom etadi. Rim Yunonistonni siyosiy jihatdan tobe etadi. Fan sohasida bu davrda etakchi o'rinni matematika egallaydi. Uning asoschilari Evklid va Arximed kabi olimlarning ijodi tufayli matematikadan mexanika, optika, qurilish sohalarida foydalaniladigan bo'lindi. Astronomiya, meditsina va geografiya sohalarida muhim yutuqlar qo'lga kiritildi.

Eramizdan oldingi IV asrdayoq mavjud bo'lgan va polis mafkurasining inqirozi tufayli vujudga kelgan kiniklar va skeptiklar oqimining ta'siri oshib boradi. Biroq ellinistik dunyoda eng mashhur bo'lgan voqea eramizdan oldingi IV va III asrlar bo'sag'asida paydo bo'lgan stoiklar ta'limoti edi. Eramizdan oldingi 302-yilda Afinada Qibrisning Kition shahridan bo'lgan Zenon (er.ol 336-264yy.) tomonidan asos solingan ravoqiylar maktabiga Sol shahridan bo'lgan Xrasipp (er.ol. III asr), Rodoslik Panetiy (er.ol. II asr) va boshqa faylasuflar mansub edilar. Stoiklar falsafasidagi asosiy g'oya insonning muammolariga alohida diqqat-e'tibor, to'xtovsiz harbiy va ijtimoiy nizolar, alohida shaxsning jamiyat bilan aloqalari sustlashgan sharoitda axloqiy-falsafiy tayanch topish edi. Agar ushbu sharoitlar tug'dirgan ta'sir natijasida adabiyot va san'atda fuqaroning ijtimoiy borlig'ining qo'nimsizligini aks ettirish, har narsaga qodir taqdir ramzida berilgan bo'lsa, stoiklar tomonidan bu holat barcha mavjudotlarni oqilona boshqaradigan oliy kuch (logos, tabiat, xudo) ga insonning qaramligi sifatida tasvirlandi. Inson endi polis fuqarosi emas, balki koinot fuqarosi edi. U baxt-saodatga erishish uchun oliy kuch tomonidan belgilab berilgan hodisalar qonuniyligini bilib olmog'i lozim edi. U tabiat bilan muvofiqlikda yashash uchun xayrli faoliyat bilan yashamog'i lozim edi. Stoiklarning axloqiy tushunchalari orasida tabiat va jamiyat qonunlariga muvofiq keladigan, aqliy faoliyat orqali kelib chiqqan «kerakli narsa»to'g'risidagi tasavvurni qayd etib o'tish lozim. Stoiklarning eklektizmi, asosiy qoidalarining ko'p ma'noliligi ellinistik dunyoning turli tabaqalari (shu jumladan hukmron tabaqalar doirasida ham), keyinchalik esa, Rim jamiyatida ham ularning mashhur bo'lib ketishlarini ta'minladi. Rim stoiklarining yirik vakillari Seneka, Epiktet va Mark Avreliy edilar. Ularning barchalari dunyoviy aql va dunyoviy ruh bilan bog'langan tabiat va jamiyatning yagonaligi haqidagi stoiklik qoidalaridan kelib chiqdilar. Har bir odamdagi aqllar-logoslar va ruhlar dunyoviy aql va dunyoviy ruhning emanatsiyasi (o'zidan nur chiqarishi) ekanligini ta'kidladilar. Ular fikricha, kishilar dono va fazilatli odamlar biladigan yagona hukmronlik qiluvchi koinot qonunlari zarurligini idrok etgan holda, ularga ko'ngilli ravishda bo'ysunishlari lozim. Ular yana shu to'g'rida mushohada yuritdilarki, har kim butun narsa qarshisida o'z burchini bajarib, taqdir tomonidan unga belgilab berilgan joyda biror-bir narsani o'zgartirishga intilmasdan, nolishsiz qolish majburiyatini olishi kerak. Seneka uchun «yaxshi» imperator qanday bo'lishi kerak degan savol katta ahamiyatga ega edi, negaki, imperatorning bo'lishi zaruriyat hisoblanar edi. Imperator me'yorsiz maqto'vni talab qilmasligi, fuqarolardan ularning mulkini tortib olmasligi, senat va «yaxshi» odamlar bilan hisoblashishi, o'z bilganicha ish tutmasligi, fuqarolarning umumiy foydasi uchun mehnat qilmog'i zarur ediki, buning evaziga ular unga sadoqat ko'rsatib, uni sharafhlari lozim edi. Sobiq qul bo'lgan Epiktet asosiy e'tiborni hukmdorning sifatiga emas, balki unga tobelarning hatti-harakatiga qaratdi. Ozodlikka yo'l moddiy ne'matlardan, xohish-istaklardan yuz o'girishda yotadi, negaki, inson nimani xohlasa, uni berishi va olib qo'yishi mumkin bo'lgan odamning quliga aylanadi. Tashqi tomondan mulk, badan, hayot-xojaga yoki tiranga bo'ysunadi va shuning uchun ularning bu tashqi huquqlaridan foydalanishlariga bahslashib o'tirish lozim emas. Ammo insonning haqiqiy mohiyati, uning aqli va

ruhi hech kimga bo'ysunmaydi, uning fikriy muhokamasini hech kim boshqara olmaydi va hech kim unga xayrli va ezgu ishlar qilishga xalaqit bera olmaydi, demak, baxtli va ozod bo'lishiga to'sqinlik qila olmaydi. Epiktet uchun erdagi barcha hukmdorlardan yuqori turgan oliy xudo Zevs haqidagi tasavvur katta o'rin tutadi. Uning o'g'li sifatida o'zini his qilgan inson, o'zining qandaydir tashqi farovonligi qondirilmaganligidan doimo azobda bo'lgan senator yoki hatto podshoning o'zidan ko'ra ozodroq bo'ladi. Rimning oxirgi stoik imperatori Mark Avreliy edi. Uning nuqtai nazariga ko'ra, dunyoda biror - bir narsani o'zgartirib yoki to'g'rilab bo'lmaydi. Uning ta'kidlashicha, barcha kishilar har doim laganbardor, yolg'onchi va o'z manfaatini ko'zlovchi bo'lganlar, hozir ham shunday va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladilar. Bu tartibsizlik orasida nima qoladi? Faqat o'z zakovatiga xizmat qilish, o'zini kamolotga etkazish va ezgulik. Ammo bunday o'zini qo'yarga joy topolmaydigan, hayotda hech qanday maqsadi bo'lmagan ezgulik insoniyatga xizmat qilish borasidagi o'z ma'nosini yo'qotar edi. Negaki, insoniyat o'zgaras va illatlardan holi bo'lmaganligi uchun, uni hech qachon ilhomlantirib bo'lmas edi.

Stoiklar uchun falsafa donolikka erishish, yashash san'atini o'rganish vositasi sanalgan. Unga ko'ra, tabiatga muvofiq yashash dononing ideali sanaladi. Stoiklar azoblardan xalos bo'lib, ruhiy sokinlik va muvozanatga erishishni baxt deb bilganlar.

Muxtasar qilib aytganda antik falsafa Mil. Avv. VII asr oxirlariga kelib qadimgi Yunonistonda shakllana boshladi. Falsafaning vazifasi insonga qiyin vaziyatlarda ham o'zligini yo'qotmaslik va qadr-qimmatini saqlay olishni o'rgatishdan iborat bo'ldi. Mil. Avv. II asrdan milodiy VI asrlargacha bo'lga vaqt oralig'ida Rimda rivoj topgan falsafiy ta'limotlar yig'indisi, keyinchalik mazkur an'anada vujudga kelgan ilmiy-falsafiy g'oya va tasavvurlar G'arb sivilizatsiyasi rivoji uchun asos bo'lib xizmat qildi.

Xristianlik va Avreliy Avgustin falsafiy ta'limotining vujudga kelishi. Etuk patristika davridagi lotin tilida ijod etgan yirik namoyandalardan biri bu, shubhasiz, Avreliy Avgustindir (354-430-yillar). Uning "Tavba" asari hamda Possidyumning unga bag'ishlangan biografik asarlari Avgustin haqidagi ma'lumotlarning asosiy manbai sanaladi. Avreliy Avgustin 354-yil 13-noyabrda Afrikaning Tagast shahridagi rimliklar oilasida tavallud topgan. U uncha badavlat bo'lmagan, biroq nufuzli va ma'rifatli oilada voyaga etadi. U boshlang'ich bilimlarni Tagast va qo'shni shahar Madavrda oladi. O'g'lining an'anaviy lotin mumtoz adabiyotidan tahsil olishi va notiqlik san'atini egallashini istagan otasi Avreliyni 370-yilning kuzida mahalliy oliy ta'lim markazi bo'lgan Karfagen shahriga yuboradi. Avgustin u erda 372-373-yillar Sitseronning "Gortenziy" dialogini katta qiziqish bilan mutolaa qiladi. Haqiqat izlab, muntazam falsafa bilan mashg'ul bo'lgan Avgustinning qalbida ushbu asar keskin burilish yasaydi: "Birdan ko'nglimda behuda umidlar bosh ko'tardi, men bu bezovtaligim bilan abadiy donishmandlikka erishishni istardim" (Avgustin. Tavba, III, 4, 7). Haqiqatga etishish maqsadida u dastlab, moniylik (215-277-yillar Moniy asos solgan) e'tiqodini qabul qiladi. Avgustin to'qqiz yil mobaynida moniylikning kuchli ta'siri

ostida bo‘ladi. (Tavba, II, 6 -7). 384-yilda Avgustin Mediolan shahriga ko‘chib o‘tadi. Bu erda u mashhur xristian ilohiyotchisi va namoyandasi mediolanlik Amvrosiy (340-397 yillar) bilan uchrashadi va bu uchrashuv uning hayotida katta ahamiyat kasb etadi. Aynan mediolanlik Amvrosiy bilan uchrashgan vaqtlarda Avgustin falsafa bilan mashg‘ul bo‘lib, falsafani skeptitsizm hamda moniychilikdan afzal degan fikrda edi. O‘z-o‘zini taftish etish va cho‘qintirilishga hozirlik ko‘rish maqsadida onasi va yaqin do‘stlari hamrohligida u Mediolan yaqinidagi joy - Kassiatsin deb atalgan Yer mulkiga ko‘chib o‘tadi. 386-yili, qariyb yarim yil mobaynidagi do‘stlari bilan yozishmalari natijasida Avgustin o‘zining ilk falsafiy asarlari: “Akademiklarga raddiya”, “Tartibot haqida”, “Farovon hayot haqida”, keyinchalik “Ruhning abadiyligi haqida” dialoglarini hamda “Monolog” nomli asarlarini nihoyasiga etkazadi.

387-yilning bahorida Mediolan shahriga qaytgach, u Amvrosiy tomonidan cho‘qintiriladi. 387-yili onasining o‘limidan so‘ng boshiga tushgan kulfatga qaramay, Rimga yo‘l olib, u erda “Erkin tanlov haqida” dialogini hamda “Moniyalar axloqi” deya nomlangan traktatini yozadi. Ehtimol, aynan shu vaqtlar uning ko‘nglida kelajakdagi hayotini cherkov xizmatiga bag‘ishlash istagi tug‘ilgan bo‘lsa ajab emas. 388-yilning kuzida u Tagast shahriga qaytadi va meros qolgan uyini sotib, pulini kambag‘allarga ulashadi. Do‘stlari bilan zohidona hayot kechirishi uchun esa boshpana sifatida kichkina bir uyni olib qoladi. Tagastda yashagan paytlarida “Ustoz haqida”, “Musiqqa haqida”, “Moniyalar axloqi” kitobining ikkinchi jildi, “Ruhning miqdori haqida” kabi asarlarini yozadi hamda dialog uslubida yozilgan “Erkin tanlov haqida” traktati ustida keng qamrovli ishlarini davom ettiradi.

Asta-sekinlik bilan Avgustin Tagast va uning atrofidagi shaharlarda shuhrat qozona boshlaydi. 390-yilning oxirida Gippon shahri aholisining iltimosiga bilan episkop Valeriy Avgustinni ziyorat qiladi va o‘z navbatida, Avgustin ham Gippon shahriga mehmon bo‘ladi. Avgustin 395-396-yilning qishida og‘ir xastalikdan vafot etgan Valeriyning o‘rniga Gippon shahri episkopligi lavozimini qabul qiladi. U umrining oxirigacha shu lavozimda faoliyat ko‘rsatadi. Avgustin episkoplikning birinchi yilida muhim asarlaridan biri “Xristian dini haqida” traktati ustida ish boshlaydi hamda moniylikka qarshi ruhdagi “Favstamoniylikka raddiya” asarini yakunlaydi. SHuningdek, shu yillarda “Din haqiqati to‘g‘risida”, “Rimliklarga kelgan ba’zi sharoitlarning tahlili”, “Sakson uchta turli savol”, “Erkin tanlov haqida” dialogi yozib tugatiladi. Bundan tashqari, Avgustinning birlamchi gunohkorlik nazariyasini aks ettiruvchi “Simpliyatsinga bir qancha savollar” traktati ham yakunlanadi. 397-401-yillar Avgustinda 12 jilddan iborat o‘zining eng mashhur asari - “Tavba”ni yozib tugatadi. Taxminan 399-yilda u muhim nazariy ahamiyatga ega bo‘lgan hamda katta tanaffuslar bilan yigirma yil davomida yozilgan “Troitsa” (“Uchlanganlik”) deya nomlangan traktati ustida ish boshlaydi. 401-414-yillarda Avgustin o‘zining eng yirik ijod namunalariidan biri - 12 jilddan iborat “Borliq kitobiga sharhlar” nomli asarini yozadi. Avgustin umrining so‘nggi yigirma yilini ikki fundamental masalaning echimiga bag‘ishlaydi: ulardan birinchisi 410-yilda Rimga hujum qilgan vestgot Alorixabilan urush natijasida to‘plangan ma’lumotlar

ta'sirida yozilgan "Ilohiy shahar haqida" mashhur asar ustida ish olib borish bo'lsa, ikkinchisi - "Ilohiyotchi Pelagiyning birlamchi gunohkorlik haqidagi muhokamalari" edi. Pelagiyning ta'kidlashicha, Odam Ato qilgan gunoh avlodlarga tarqalmaydi, gunoh – bu nasliy tavqi la'nat emas, balki har bir insonning erkin tanlovi oqibatida sodir etiladigan harakatdir. Shuningdek, insonga gunohdan xalos bo'lishda qandaydir g'ayritabiiy kuchlar emas, o'z ezgu tabiati ko'mak beradi. Oddiy inson o'z ezguligini zohidlik va taqvo yordamida topadi. 414-430-yillarda yozilgan ko'plab asarlari bilan Avgustin Pelagiyning fikriga qarshi o'laroq, o'zining gunohkorlikning tabiati, ilohiy marhamat inson irodasi hamda g'ayritabiiy kuchlar haqidagi qarashlarini bayon qiladi. Avgustin umrining so'nggi yillarida toliqish va tobora kuchayib borayotgan zaiflikni his qiladi. U keksalik tufayli episkoplikning og'ir vazifalari va ko'plab traktatlar yozish bilan birdek mashg'ul bo'lishga qiynalardi. 426-yilda u qolgan umrini ilmiy mashg'ulotlarga bag'ishlash maqsadida episkoplik lavozimidan voz kechadi. Nihoyat, shu yillari "Xristianlik ta'limoti haqida" va "Ilohiy shahar" traktatlarini yozib tugatadi. SHuningdek, o'limi oldidan o'zi o'ta muhim deya hisoblagan ayrim asarlariga tuzatish va qo'shimchalar kiritadi. SHu tarzda uning ko'p yillik izlanishlarini xulosalovchi ikki jilddan iborat "Tahrir etilganlar" deya nomlangan traktati dunyoga keladi.

430-yilning yozida Gibraltar bo'g'ozini kesib o'tgan vandallar armiyasi Gippon shahriga kirib keladi. 430-yilning avgust oyida Avreliy Avgustin Gippon shahrida vafot etadi.

Avgustin uchun bilish yo'li – bu e'tiqod orqali xudoga eltuvchi aql yo'lidir. Bilish hissiy sezgilardan boshlanganidek, xudoni bilish ham uning yaratgan narsalarini anglashdan boshlanadi. Bu xuddi haqiqatga zinalar orqali ko'tarilayotganga o'xshaydi (O Troitse, XV, 6, 10). Shu bilan birga, bilim sezgilar mujassam bo'lgan refleks va idrok oqibatida shakllanadi. O'z navbatida, aql o'z-o'zini muhokama etadi va uning mavjudlik qudrati bevosita unga ayondir. (O svobodnom proizvolenii, II, 6, 13 — 8, 24). Avgustinning ayni qarashlari Dekartning mashhur "Men fikrlayapman, demak, men mavjudman" tezisini esga soladi. Biroq bu Avgustinda boshqacharoq: "Men shubha yoki xato qilyapman, demak, men mavjudman" shaklida namoyon bo'ladi. (O svobodnom proizvolenii, II, 3, 7; Monologi, II, 1, 1; Ob istinnoy religii, 39, 73; O Troitse, X, 10, 14; O Grade Bojiem, XI, 26).

Aql haqiqiy borliqning asosiy xarakterli jihati – bu uning o'zgarmasligidir. Avgustinga ko'ra, xudo mutlaq yakkalik bo'lib, "Troitsa" – "Uchlanganlik" esa uning turli holda namoyon bo'lishidir. U substansional birlik bo'lib, bir vaqtning o'zida uch qiyofada aks etadi.

Avgustinning ta'kidlashicha, inson "dunyoviy va o'limga mahkum tanadan foydalanuvchi aqlli ruh" (O nravax manixeev, I, 27, 52), aniqroq qilib aytganda, "ruh va jismdan iborat aqlli mavjudot" (O Troitse, XV, 7, 11). "Aql, – deya ta'kidlaydi Avgustin, – inson shaxsiyatidagi ilohiy uchlanganlikni angelaydi, iroda uni yo'naltiradi, xotira esa uni qamrab oladi. Shu tarzda insondagi o'z-o'ziga aynanlik saqlanib qoladi (Tavba, I, 20, 31). Borliqni mavjud o'zgarmas haqiqatga aynan deguvchi qator tasavvurlarni (olam g'oyasi), shuningdek, olam tartiboti

haqidagi qarashlarni va ezgulik bo'lmagan narsa bu yovuzlikdir, degan tushunchalarni Avgustin neoplatoniklarning ta'limotidan o'zlashtirgan. U qoida sifatida shuni ta'kidlaydiki, "har bir inson yaxshi ham, yomon ham bo'lishi mumkin" (O svobodnom proizvolenii III, 13, 36; sr. "Nafaqat olam tartibotini buzuvchi, balki unga bevosita yondosh bo'lgan mavjud narsalarni ham yovuzlik deb atash mumkin" (O svobodnom proizvolenii, III, 9, 25; O Grade Bojiem, XI, 18 — 19). Biroq Avgustin ko'proq, "Axloqiy yovuzlik" tushunchasiga e'tibor qaratgan. O'zining ilk asarlari, ayniqsa, yirik dialogi - "Erkin tanlov haqida" (388-395 yillar) asarida Avgustin yovuz iroda olamdagi barcha yovuzliklar va baxtsizliklarning manbai degan nuqtai nazarni ilgari suradi. SHaxsning axloqiy erkin tanlov prinsipi shundan iboratki, shaxs ongli tarzda o'z xatti-harakatini ezgulikka bo'ysundirmog'i kerak; Oliy adolat har kimga haqli hukm qiladi.

Avgustin ilohiy tarixni siklik emas, balki ilohiy rag'bat g'olib chiqib, insoniyat mukammal axloqqa ega bo'lib, "gunoh qilmaydigan" holatga etmaguncha davom etuvchi pog'onama-pog'ona harakat, deya tasavvur etgan. Avgustin dunyoviy davlatni, o'z manfaatini ko'zlab umumiy kelishuv asosida tashkil topgan kishilar jamoasi, deya ta'riflaydi. Jamiyatni ko'zga ko'rinmas ilohiy shahar yoki cherkov boshqaradi. Dunyoviy yoxud shaytoniy shahar – bu aholisi kibr-u havo bilan yashovchi shahardir.

Ilk o'rta asrlar falsafiy tafakkur rivojida appologetika va patristika, sxolastika, nominalizm va realizm. Realizm va nominalizm o'rtasidagi bahs.

Sxolastika so'zi lotincha "sxolastika" (grekcha *σχολασία*) – "shkola" so'zidan olingan bo'lib, u zamonaviy falsafa tarixi fanida O'rta asr (XI-XIV asrlar) G'arbiy Evropa madaniyatida hukmronlik qilgan spekulyativ, falsafiy, dialektik va diniy tafakkur tarzining jamlanmasini anglatadi. Ushbu atama, asosan, ikki: salbiy va ijobiy ma'nolarda tushuniladi.

"Shkolyar falsafa" yoki "shkolyar ilohiyotchilik" sifatidagi sxolastikaning birinchi ma'nosi, o'tmishni "jonli", "jonsiz", "abadiy navqiron" yoxud "eskilik sarqiti" kabi jihatlariga ajratuvchi Renessans va ma'rifatparvarlik davri mualliflarining ko'plab asarlaridan kelib chiqqan. Oxir-oqibat "antik davr" va "O'rta asr varvarligi" o'zidagi foydasiz va keraksiz jihatlarni inkor etish orqali "sxolastika" ta'rifini jonli madaniyat tarzi va ta'sirchan so'zga aylantirdi.

Bu atamaning boshqa bir jihati (sxolastik) "shkola falsafasi" yoki "shkola ilohiyotchiligi" bevosita XIII asr O'rta asrlar maktabi va O'rta asrlar universitetlarining faoliyati bilan bog'liq. O'sha zamonlardagi asosiy o'quv predmeti "etti erkin san'at" (septem ark liberalis "trivium" (uch yo'l): grammatika, ritorika, dialektika hamda "kvadrivium" (to'rt yo'l): arifmetika, geometriya, astronomiya, musiqadan iborat bo'lgan. Ilk O'rta asrlarda "kvadrila" fanlari qoida sifatida uncha muvaffaqiyat qozonmagan hamda past saviyada qayta ishlangan. Pyotr Damianing XI asrda aytilgan "Falsafa – dinning cho'risidir" (p χ ilosopia ansilla txeologiae) degan fikridan kelib chiquvchi har qanday qarashni avtoritet dogmasiga bo'ysundirish g'oyasi butun boshli falsafiy, teologik O'rta asrlar ortodoksial madaniyatining asosini tashkil etadi. SHuningdek, sxolastlar uchun din

va tafakkurning o‘zaro munosabati va uning umumiy xarakterli jihatlari “oqilona” tarzda universal tizimga bo‘ysundirilgan edi.

Ushbu tizimga ko‘ra, yaratilgan mavjudotlar va xudo haqidagi har qanday bilim ikki xil munosabatga ega bo‘lib, ularning biri g‘ayritabiiy yoxud ilohiy vahiy vositasida erishiladigan bilim bo‘lsa, ikkinchisi aksincha, inson tafakkurining tabiiy tarzda beto‘xtov izlanishlari natijasida egallangan bilimdir. Yuqoridagi birinchi bilimning me‘yori o‘zida cherkov otalarining asarlari avtoriteti va ularning sharhlarini mujassam etsa, ikkinchi bilimning me‘yori esa, keyingi O‘rta asr va arab mutafakkirlarining antik falsafiy an‘anasining vakillari Platon, ayniqsa, Aristotel asarlariga bitgan sharhlari hisoblanadi.

Sxolastikani “muqaddas kitoblar va o‘gitlar” ko‘rinishidagi falsafiy hamda diniy matnlarni interpritatsiyalash (sharhlash) falsafasi deyish mumkin. Bu ma‘noda u, bir tomondan, haqiqatga tajriba orqali olingan faktlarni tahlil qilish asosida intiladigan yangi davr falsafasi, shuningdek, ikkinchi tomondan, haqiqatga ekstaz orqali erishadigan mistika bilan keskin kontrast (kuchli ziddiyat) hosil qiladi. Matnlarni haqli ravishda avtoritet deya hisoblagan sxolastlar ulardan nafaqat u yoki bu savollarga javob topganlar, ayni paytda, ushbu javobsiz savollarning o‘zi aqlni yanada charxlashga undagan. Avtoritetlarga murojaat etish bilan barcha savollarga echim topib bo‘lmasligini anglash sxolastika fanini asoslashga zarurat tug‘dirdi.

Sxolastika antik falsafadan borliq o‘z asosiga ko‘ra ratsional, shuning uchun ham borliq haqidagi ratsional bilimlar imkoniy va aqlga muvofiqdir, degan maslakni o‘zlashtirdi. Narsalar haqidagi bilim, avvalambor, ularning mohiyatini va xarakterli jihatlarni bildiradi. Bu xarakterli jihat har bir narsaning “turi” va “shakli”ni belgilaydi hamda ularni umumiy tushunchalar doirasiga kiritish imkonini beradi. Narsalarning mohiyatini bilishning to‘la imkoni mavjud, chunki mohiyat va tushunchaning strukturasi bir xil. Ular faqatgina joylashuv o‘rniga ko‘ra farq qiladi: mohiyat narsaning o‘zida, tushuncha esa inson aqlida jo bo‘lgan. Garchand Aristotel “ikkinchi mohiyat”, ya‘ni (tur va jins) bilan “birinchi mohiyat” aniq idrok etiladigan narsalar haqida aytsa-da, biroq Aristotelning metafizikasi to‘la ratsional bo‘lib, bilish mumkin bo‘lgan mohiyat, ya‘ni umumiy tushunchalar orqali qandaydir hissiy idrok etiladigan, mohiyati o‘zida mavjud bo‘lmagan, aql bilan anglab bo‘ladigan narsalar ko‘zda tutiladi.

Aristotelning mohiyat haqidagi ta‘limoti sxolastika doktrinasining o‘zagiga aylandi. Biroq u Aristotel metafizikasini qayta ishlash asosida yaratilib, undagi qator noaniq shakllar birinchi planga chiqadi. Bu O‘rta asr teologlarining oldiga yangi, echimtalab vazifalarni qo‘ygan bo‘lib, bunda O‘rta asr teologlari borliq va xudo tushunchalarini aynanlashtirarkan, Bibliya matnlaridagi mashhur jumla (“Xudo Musoga dedi: “Men barcha narsaning mohiyatiman!”)ga tayanib, xristianlik ta‘limotida ratsional vositalar orqali xudo, olam, inson haqida o‘z qarashlarini ifoda etgan. Xristian inson tafakkurida xudodan yuksak narsa yo‘q, zero muqaddas bitikda xudo hamma narsaning mohiyati deya ta‘kidlangan.

Bu o‘rinda shuni xulosa qilish mumkinki, birinchi mutlaq prinsip - bu borliq. SHuning uchun borliq O‘rta asr teologiyasining doktrinasida markaziy o‘rin tutadi.

Umuman olganda, O'rta asr teologiyasi va falsafasi tom ma'noda borliq haqidagi ta'limotdir.

Keyinchalik butun sxolastik falsafiy an'anaga asos bo'lgan universal tushunchalarning mavqeini belgilash muammosi Boesiy tomonidan "beshta tovush" yoki "narsalarning" (voses, res) formal mantiq xususiyatlarini ajratib ko'rsatish uchun mayda detal sifatida kiritilgandi. Tushunchalarning umumiy jihatlari (posprodekament), masalan, "hayvon" (ovqatlanishiga ko'ra) "insondir"; "turlanish farqi" (xususiyat) "aql", "xususiy belgisi" (lotincha) "ikki oyoqli", "shaxsiy belgisi" (lotincha) "qirra burun", "moviy ko'z".

Ushbu masalada bahslarning boshlanishiga, dastlab, Porfiriyning mashhur "Kirish" hamda Aristotelning "Kategoriya" asarlarida qo'yilgan, biroq javobsiz qolgan quyidagi savollar sabab bo'ldi:

1. Narsalarning turi va xili alohida mavjudmi yoki ular bizning ongimizda mavjudmi?

2. Agar ular mustaqil holda mavjud bo'lsa, moddiy holda mavjudmi yoki nomoddiy holdami?

3. Ular alohida borliqqa egami yoki faqat moddiy narsalardagina mavjudmi?

Keyinchalik Foma Akvinskiy tomonidan aytilgan fikrga muvofiq, unversallar uch shaklda mavjud bo'ladi: ante rem-"narsalargacha (ilohiy intellektda) mavjud", in rem-"narsalarda mavjud" va post rem-"narsalardan keyin (insonlarning ongida) mavjud". O'rta asr sxolastikasining turli namoyandalari ushbu masalani o'z qarashlariga muvofiq tahlil etdilar. Oqibatda, O'rta asr sxolastikasida realizm (lotincha, res "narsa"), nominalizm (lotincha nomen "nom"), konseptualizm (lotincha konseptus "tushuncha") degan uchta yo'nalish shakllandi.

Nominalizm yo'nalishining ta'kidlashicha, narsalarning jinsi va turi faqat ongdagina mavjuddir; realizm esa substansional holda, ya'ni mustaqil tarzda mavjud bo'lgan universal tushunchalarning mohiyatini tan oladi; konseptualizm nuqtai nazariga ko'ra, narsalarning jinsi va turiga oid tushunchalar faqat aqldagina mavjuddir, biroq reallikda ularning mavjudligiga nimadir muvofiq keladi, ammo ular o'z-o'zicha substansiya va aksidensiya (belgi, xususiyat) bo'la olmaydi. YUqorida sanab o'tilgan har bir oqim ikki xil ko'rinishga ega bo'lgan: realizmning "radikal" ko'rinishi (Platon qarashlaridan kelib chiqqan bo'lib), unga ko'ra, faqatgina universal tushunchalar real, substansional, mustaqil holda mavjud (Anselm Kenterberiy, Gilom, Petr Lombardskiy, Bonaventura va ko'plab boshqa sxoloslarni mazkur yo'nalish tarafdorlari sifatida ko'rsatish mumkin); zahirida Aristotel qarashlari yotuvchi realizmning "mo'tadil" ko'rinishi universal tushunchalarning ahamiyati real mavjud, lekin ular substansional, mustaqil holda mavjud emas. SHuning bilan birga, ushbu tushunchalar individual narsalarning shakli ham deb hisoblaydi Foma Akvinskiy - bu yo'nalishning asoschilaridan biri. Nominalizmning "radikal" ko'rinishi vakillari narsalarning jinsi va turiga oid tushunchalar hech qanday ahamiyatga ega emasligini ta'kidlaydi (Ioann Rasselin); "mo'tadil" nominalizm esa bu tushunchalarni alohida narsalarning nomi deya ta'kidlaydi (masalan, Uilyam Okkam). SHuningdek, O'rta asr konseptualizmi ham ikki xil ko'rinishga ega bo'lib, ularning biri realizm ta'sirida bo'lgan bo'lsa (Duns

Skot), ikkinchisi esa, nominalizm qarashlariga moyil edi (Per Abelyar). Mazkur bahslarning asoschisi Boesiy o‘zining ayrim asarlarida (“Porfiriya katta sharhlar”, “Mo‘‘tadil”) realist bo‘lib ko‘rinsa, ba’zi asarlarida (“Falsafaning yupanchi haqida”, “Radikal”) nominalist kabi taassurot uyg‘otadi.

Foma Akvinskiy ta’limoti. O‘rta asr xristian aristotelizmining eng mashhur namoyandasi, shubhasiz, «Doktor angelikus», (“Farishta doktor”) nomini olgan Foma Akvinskiydir (1225-1274). Foma Neapol yaqinidagi Akvina shahridagi Rokkasekka qasrida dunyoga keldi. U oliynasab graflar avlodidan edi bo‘lib, dastlab, Monte-Kaskinodagi Benidiktlar abbatligida ta’lim oladi va 1239-yilda Neapoldagi mashhur universitetlardan birining “Erkin san’at” fakultetiga o‘qishga qabul qilinadi hamda 1243-yilda ushbu universitetni tamomlaydi. U Neapolda 1244-yilda Dominikanlar ordeniga qabul qilinadi. 1245-yilning kuzida u Parijga ketadi va ma’lum muddat Buyuk Albert rahbarligida Parij universitetining ilohiyotshunoslik fakultetida tahsil oladi, to magistr darajasiga ega bo‘lmaguncha (1259-yil) Parijda qoladi. Keyinchalik Parijdan Italiyaga jo‘nab ketgan Foma turli universitetlarda ilohiyotdan dars beradi. 1272-yilda yana Parijdan ketgach 1273-yilda Neapol universitetlarida dars beradi. 1274-yilda u papa Grigoriy X ning taklifi bilan Lion savoriga yo‘l oladi va yo‘lda to‘satdan salomatligi yomonlashib, vafot etadi. Uning asosiy asarlari: “Sentensiya Petr Lambardskiyning to‘rt kitobiga sharhlar” (1254-1256), “Majusiylarga qarshi dalillar” (1262-1264), “Teologik jamlanma” (1-va 2-qismlar (1264-1265), 3-qism 1272-1273 yillar yozilgan, biroq asar yakunlanmagan), “Muqaddas uchlik haqida” va “Sidmitsiyalar haqida” asarlari (asarlari Boesiy asarlariga sharhlar bo‘lib, 1262-yilgacha yozilgan); “Dionisiyning “Ilohiy nomlar” asariga sharhlar” (1268-yilgacha), “Sabablar haqidagi kitobga sharhlar” (1270-yilgacha), “Haqiqat haqida savollar” (1256-1259), “Kuch-qudrat haqida” (1259-1268), “Ruh haqida” (1269-1270), “YOvuzlik haqida” (1270-1271) traktatlari; “Ma’no va mohiyat haqida” (1256), “Averroistlarga qarshi intellektning yagonaligi haqida” (1270), “Elementlarning qo‘shilishi haqida” (1270-1271), “Varchunovga qarshi olamning abadiyligi haqida” (1271) kabilardan iborat.

Foma qarashlariga muvofiq ilohiyot va falsafa mohiyatan Aristotel tushunchasidagi fan hisoblanib, asosida birlamchi prinsip yotuvchi bilimning ayrim tizimlarida, zaruriy xulosalar faqatgina sillogistik yo‘l bilan chiqariladi.

Teologiya va falsafa mohiyatan mustaqil fan bo‘lib, teologiya hamda tafakkur prinsiplari bir-biridan farq qiladi. Ilohiy vahiyning haqiqat qismi aqldan yuqori xarakterga ega deb hisoblanadi (masalan, muqaddas uchlik aqidasi, birlamchi gunoh tushunchasi). Uning qolgan jihatlari esa ratsionaldir (masalan, xudoning borligi hamda ruhning abadiyligi aqidalari). Birinchi haqiqat o‘zida “vahiy ilohiyoti”ni yoki “muqaddas doktrina” (lot. sakra doktrina) ni aks ettiradi, ikkinchisi esa spekulyativ falsafiy fanlarning yuqori qismi “tabiiy ilohiyot”ni namoyon qiladi. Foma fikriga ko‘ra, narsalar haqidagi ochiq va aqldan yuqori bilimlar tabiiy bilimlar bilan qarama-qarshi emas, chunki ularning har ikkisi ham haqiqatdir. Ilohiyot fanlarining maqsadi va vazifasi ilohiy kitoblardagi haqiqatni barchaga tushunarli, ayon, ishonarli bo‘lishi uchun batafsil talqin hamda tizimli bayon qilib berishdan iborat. Fomaning ta’kidlashicha, ilohiyot falsafaning xizmatidan foydalanishi mumkin.

Xristian dinining asosiy maqsadi insonni xalos etish ekan, bu nuqtai nazardan, “falsafa ilohiyotning cho‘risi bo‘lmog‘i kerak”, deya ta’kidlaydi Foma. SHuningdek, u inson tafakkuri va bilimi bevosita tarzda individual ruhni xalos etishga qodirdir, deya ta’kidlarkan, Foma O‘rta asrlardagi insonni tabiatan ojiz, gunohkor deya baholovchi salbiy jihatlarga qaramay, ratsional bilimning imkoniyatlarini past baholamaydi, aksincha, uni eng ijobiy tarzda qo‘llab, oqibatda uni oqlaydi.

Biroq bunda xudoning mavjudligini yaratilgan mavjudotlarga qarab qisman isbotlash mumkin. Foma Akvinskiy beshta shunday dalil keltiradi (lot. *quinque viae*, ya’ni “beshta yo‘l” yoki “beshta dalil” degan ma’noni anglatadi): 1) *ex motu* – “harakat-sabab”; 2) *ex ratione effisientis* – “keltirib chiqaruvchi sabab”; 3) *ex kontingente et nesessario* – “zaruriy sabab”; 4) *ex gradibus perfektionis* – “mukammalik darajasiga ko‘ra sabab”; 5) *ex gubernatione rerum* – “ilohiylikning narsalar ustidan hukmronlik sababi”.

Birinchi dalilda Foma, “harakatlanib” (bir-biri bilan qorishadigan), sifatiy va miqdoriy jihatdan o‘zgarib, paydo bo‘lib-yo‘qoladigan, shuningdek, “har qanday potentsiya va moddiylikdan xoli abadiy harakatsiz birlamchi turtkida” mavjud bo‘lishga intilib, turli potentsiyalarga o‘z-o‘zidan realizatsiya bo‘luvchi narsalarni keltiradi. Falsafa tarixchisi Kopulston ta’kidlaganidek: “Akvinalik birinchi dalilda “Harakatlanuvchi” narsalar mavjudligidan “harakatlanmaydigan” yuqori dvigatelning mavjudligiga qarab boradi”. U ikkinchi dalilda, azaldan hech qanday sababga ega bo‘lmagan birlamchi sababdan vujudga kelgan, mavjud tartibot yoki borliq ierarxiasini ko‘rsatadi. “...ikkinchi dalilda akvinalik tartibot yoki harakatlanuvchi sabablar ierarxiasini mavjudligidan, cheklangan deatamalanmagan sabablar mavjudligiga qarab boradi”. Uchinchi dalil, mavjud bo‘lmagan zaruriyatni mutlaq zaruriyatga aylantirish uchun, borliqqa ega yoki undan xalos bo‘ladigan mavjud narsalar keltiriladi. “...uchinchi dalilda akvinalik borliqqa aylanishi va yo‘q bo‘lishga qodir (imkoniy) narsalar” mavjudligidan, zaruriy mutlaq zaruriy mavjudga qarab boradi...” To‘rtinchi dalilda tugal narsalarning mukammal darajasining mavjudligidan barcha chegaralangan mukammallikning sababi bo‘lgan mohiyatning mavjudligi nazarda tutiladi; “...to‘rtinchi dalilda akvinalik eng so‘nggi narsalardagi takomillashuv darajalarning mavjudligidan, eng oxirgi komillikning sababi o‘laroq namoyon bo‘luvchi vujudning mavjudligiga qarab boradi...” beshinchi dalilda esa moddiy narsalarning maqsad sababidan olam tartiboti uchun javob beruvchi Aqlga intilish aytib o‘tiladi. “...beshinchi dalilda akvinalik moddiy dunyodagi maqsadga muvofiq sababiylikdan, olamdagi maqsadga muvofiqlik va tartibotga javobgar aqlga qarab boradi.” Mazkur mulohazalarning umumiy jihati shundaki, narsalar va ularning xususiyatlarini harakat sifatidagi mavjudligi borliqni narsa va unga xos xususiyat sifatida shartlovchi sababning borligini anglatadi. Narsalarni vujudga keltiruvchi sabablar zanjiri va narsalarning xususiyati zarurat yuzasidan chegaralangan bo‘lishi lozim, agarda bunday bo‘lmasa, hech kim va hech narsa voqe‘lik bo‘la olmasdi. Demak, Foma xulosa qilib ta’kidlaydiki, yaratilgan narsalarning mavjudligi shundan dalolat beradiki, olamda qandaydir mangu, cheksiz

birlamchi sabab bor: bu – ilohiy kitoblar tili bilan aytganda, qudratli va bilish imkonsiz bo‘lgan xudodir.

O‘rta asrlar Evropasida Uyg‘onish davri va falsafiy tafakkurning rivojlanish xususiyatlari.

Ba’zida “Uyg‘onish davri” atamasi keng ma’noda uzoq muddat davom etgan ma’naviy va ijodiy turg‘unlikning o‘rniga keluvchi tez, intensiv madaniy rivojlanish ma’nosida tushuniladi. VIII-IX asrlardagi Karolinglar Renessansi, Evropada shaharlar taraqqiyoti bilan bog‘liq ravishda ro‘y bergan XII asr Renessansi, shuningdek, gruzin, eron, arman, arab, hind, xitoy Renessansi haqida so‘z borganda atama ayni keng ma’nosida qo‘llaniladi deyish mumkin. Tor ma’noda esa XIV asrda SHimoliy Italiyada boshlanib, XVI asrda G‘arbiy Evropaning kattagina qismiga yoyilgan hamda Antik madaniyat ideallari va qadriyatlarining qayta “uyg‘onishi”, qayta qadr topishi bilan tavsiflanuvchi davr tushuniladi. “Uyg‘onish davri” atamasi xuddi “O‘rta asrlar” kategoriyasi singari nafaqat xronologik, balki ma’naviy mazmunga ham ega. Mazkur davrni “O‘rta asrlar”dan ham, “Yangi davr”dan ham ajratib turadigan aniq chegarani belgilash imkonini beruvchi uning o‘ziga xos jihati ko‘proq ma’naviy hayot sohasida namoyon bo‘ladi. Agar ushbu o‘ziga xoslik ko‘zdan qochirilsa, “Uyg‘onish davri”ni yo “O‘rta asrlar”, yo “Yangi davr”ning qismi sifatida olib qarash yoki bo‘lmasa, ularning o‘zaro almashinuv paytidagi nomustaqil davr o‘laroq baholashga to‘g‘ri keladi.

Har qanday hayot voqe‘ligiga mutlaqning majozii namoyon bo‘lish shakli o‘laroq qarash bu davrning eng asosiy ma’naviy xususiyati sanaladi. O‘rta asrlarda xudo ayro holda, yangi davrda olam xudodan alohida tasavvur qilindi. Uyg‘onish davrida esa xudo va olam munosabatlari Foma Akvinskiy tushuntirganidek, “oqibatdan sababga” yo‘naltirilgan tarzda emas, aksincha, obrazdan proobrazga, majozdan ma’noga, hodisadan mohiyatga tomon yo‘nalgan tarzda talqin etildi. Bruno va Kampanella hayotlariga o‘lim xatari tahdid qilgan kezlarda ham, hatto qiynoqlar ostida jon taslim qilganlarida ham o‘zlarining haqiqatga nisbatan shaxsiy qarashlari va borliqni ilmiy bilish borasidagi huquqlari uchun emas, insonning, olam va undagi narsalarning ilohiy qadr-qimmati uchun kurashganlar. Ular bu qarashni nafaqat inkvizitsiya, balki tabiatdan yaxlit, to‘laligicha iste‘mol qilish tarafdori bo‘lgan endigina etishib kelayotgan korchalon tadbirkorlar oldida ham qat’iy turib himoya qilganlar. Uyg‘onish davrida ro‘y bergan tabiatga munosabatning o‘zgarishi Nikolay Kuzanskiyning: “Olam – markazi hamma joyda, chegarasi esa hech qaerda bo‘lmagan sfera (soha) dir”, degan so‘zlarida yaqqol ifodasini topadi. Garchi mazkur ta’kid Neoplatonizmni yuzaga keltirgan bo‘lsa ham, uni uyg‘onish davriga yaqin deyish mumkin.

O‘rta asrlarda borliq Aristotel metafizikasi va Ptolamey kosmologiyasiga muvofiq ravishda cheklangan, o‘tib bo‘lmas “qo‘zg‘almas yulduzlardan iborat makon” ko‘rinishida tasavvur etilgan. O‘sha zamonlar insonning aqli ham, tasavvuri ham cheksizlik oldida ojiz qolgan. Ta’bir joiz bo‘lsa, cheksizlik O‘rta asrlar tafakkurini sarosimaga solgan deyish mumkin. Ehtimol shundan ham ular olamni o‘z aqliy imkoniyatlariga mos holda cheklangan shaklda tasavvur qilgan bo‘lsalar ajabmas. Garchi Yer olam markazida tursa ham, unga oy ostidagi nur

singan ko‘rinishda tushadigan (nur erga oy orqali tushishi nazarda tutilmoqda) borliqning qismi deb qaraganlar. O‘rta asrlar odamini orzu-umidga to‘la nigohini ko‘kka qadagan inson obrazida tasvirlash mumkin. Aniqrog‘i, ular – “O‘rta asr kishilari” – o‘z istak va intilishlari ro‘yobini osmon bilan bog‘lab, o‘lim esa uning badali deb bilganlar. Jism to‘siqlariga (materiyaning) erdan yulduzlar ruhi tomon qochish lozim bo‘lgan. Obrazli qilib aytganda, yangi davrga kelib olam hech qanday chek va chegaraga ega emas deb tushunildi. Aql va iroda garchi cheksizlikni tan olsa-da, hali-hanuz undan sarosimada edilar. Hamon aql cheksizlikni to‘la tasavvur qilishga ojiz edi. SHu sababdan yangi davrda insoniyat fanni qalqon qilib ko‘tardi. Markazning yo‘qligi boshlang‘ich nuqtaning, ma‘noning, hayot tayanchlarining yo‘qligini anglatardi.

Uyg‘onish davriga kelibgina insoniyat anglanmagan tarzda bo‘lsa-da, cheksizlik haqida o‘ylab ko‘ra boshladi. Uyg‘onish davri kishisi tabiatning har nuqtasida xudo namoyon, “har jabhada markaz mavjud”, shuning uchun ham butun olam tayanch, hayot va ma‘noga to‘la, deb hisoblardi. Uyg‘onish davri mutafakkirlari jonli mavjudotlarning cheksiz darajada turli-tuman shakllarini bilishgan, shuning uchun ham har qanday olam sayyoralari va yulduzlarda hayot kechirish uchun qulay shart-sharoit mavjud deb hisoblashgan. Ular kosmosni xalq bilan to‘la muhabbat va uyg‘unlik hukmron bo‘lgan go‘zal shahar sifatida tasavvur qilganlar. Tabiatga munosabat masalasida XIX asr romantiklari va Shellinggacha bo‘lgan davr yangi zamon falsafasining uyg‘onish davridan ko‘ra O‘rta asr tafakkuri bilan yaqinligi ko‘proq ko‘zga tashlanadi: tabiatga nisbatan yuqoridan turib past nazar bilan qaralgan, nari borsa, unga befarq munosabatda bo‘lingan. Insoniyatning ehtiyoji, ayniqsa, moddiy ehtiyojini qondirish uning eng asosiy vazifasi sanalgan. Tabiat oldidagi ulkan hayrat, uning ulkan e‘tirofi, haqiqiy bilimga chanqoqlik va tabiatga ham shu yo‘sinda munosabat bildirish, uyg‘onish davri dunyoqarashining o‘ziga xos xususiyatlari o‘laroq namoyon bo‘ladi. Tabiatni bilish hamda u orqali o‘zlikni va uning yaratuvchisi bo‘lmish xudoni bilishni anglatgan. Uyg‘onish davrida erkakka nisbatan ayol, ayniqsa, uning yaratish – “tug‘ish”i tabiatga yaqinroq deb hisoblangan. Qolaversa, yuqoridagi tabiatga oid mulohazalar ayolga ham taalluqli. O‘rta asrlarda esa ayolga yovuzlikning uyasi deb qaralgan edi. U vaqtlarda undan mumkin qadar qochish, uni iloji boricha jilovlab turish zarur, degan fikr keng targ‘ib qilingan. Bu esa zaminiy, mislsiz go‘zallik sohibasi bo‘lmish o‘sha zamon Madonnasi timsolini yuzaga keltirdi. Bulardan tashqari, Uyg‘onish davrining quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarini ham ajratib ko‘rsatish mumkin:

Yunonlar va rimliklardan so‘ng Evropa sahnasiga chiqqan German qabilalari qanchalik yuksak madaniy taraqqiyotga erishgan bo‘lmasinlar, antik sivilizatsiyadan keyingi butun boshli davr uyg‘onish davri mutafakkirlari tomonidan “Varvarlar davri” deb baholandi. Bu uyqudan uyg‘ongani uchun G‘arb ko‘p jihatdan Sharq oldida qarzdor sanaladi. Uyg‘onish davridan oldingi asrda Portugaliyadan G‘arbgacha, Indoneziyadan Sharqqacha bo‘lgan hududga yoyilgan arab-musulmon olami yuksak madaniy qadriyatlar va an‘analarning tashuvchisi bo‘ldi. Salb yurishlari davridayoq o‘sha zamonlarda musulmon dunyosining qalbi sanalgan Quddusi sharifda evropalik ritsarlar o‘zlarining ma‘rifatli raqiblaridan ko‘p narsani

o'rgangan edilar. Keyinchalik arab mamlakatlari bilan savdo aloqalarining yo'lga qo'yilishi, madaniy qadriyatlar, badiiy did va ilmiy-falsafiy g'oyalarning o'zaro almashinuviga xizmat qildi. Italyan gumanistlari O'rta asr an'analari va qadriyatlari, ta'lim darajasi, ayniqsa, iste'moldagi til – "xalqchil lotin tili"ga varvarlikning sarqiti sifatida qaraganlar. Hali salb yurishlari davrida "haqiqiy iymon" – xudoga to'g'ridan-to'g'ri, bevosita murojaat, Isoning hayoti va o'limi bilan belgilanuvchi muddat bilan cheklanardi. Evropalik ziyoratchilar esa bir qancha qotib qolgan iymon aqidalaridan chekinib, nisbatan jonliroq, nisbatan hayotiyroq shakllarini qabul qila boshladilar. Keyinchalik ruhning alanga misol intilishiga monand barcha rasmiy chegaralarni sidirib tashlaydigan yangi iymon shakllarini targ'ib etuvchi Avliyo Bernar, avliyo Fransisk Assizskiy singari avliyolar paydo bo'la boshladi. XIV-XV asrlarda evropaliklar xudoni anglash va diniy ma'noda o'zlikni bilish borasida shunday nozik nuqtaga etib kelgandilarki, bunchalik o'tkir hissiyotni na O'rta asrlarda, na yangi davrda uchratib bo'lmasdi. Hatto oddiy xalq ham e'tiqodning nozik jihatlarini qizg'in muhokama qilardi. Bir to'da Flagellantlar (Flagellantlar – "qamchilovchilar", XIII-XIV asrlar, ayniqsa, 1348-yil "qora vabo" avjiga chiqqan paytlarda Germaniya va Italiyada keng tarqalgan tanani azoblash orqali gunohlardan poklanishni targ'ib qiluvchi birodarlar) shaharma-shahar izg'ib yurardi. Taqvodorlikning tashqi – inson ichki dunyosi bilan bog'liq bo'lmagan, cherkov vositasida amalga oshiriladigan shakli o'z umrini o'tab bo'lgandi. Endi har bir kishi yaratuvchi va o'z qalbi o'rtasida ichki aloqa bog'lashga intiladigan vaqtlar kelgandi. Uyg'onish davrining etakchi mutafakkirlari o'zlarigacha xristianlik paytlarini bid'at va irim-sirimlar zamoni deb hisoblay boshladilar. Ayniqsa, e'tiqod va o'zlikni anglash borasida katta o'zgarishlar fursati etganini bot-bot ta'kidlardilar.

Buyuk geografik kashfiyotlar davri. Uyg'onish davriga kelib, madaniy hayotda ham, sivilizatsiya rivojida ham birdek katta burilish ro'y berdi. XIV-XVI asrlarda hayot sur'atlarining keskin oshishi, Evropa xalqlari turmush tarzining tubdan o'zgarishi, ularning tor, mahalliy hududlar chegarasidan chiqib, butunjahon miqyosida faoliyat ko'rsatishiga sabab bo'lgan ulkan kashfiyotlar qilindi. Bular orasida eng muhimlari sifatida kompas, porox hamda kitob chop etishning yo'lga qo'yilishini ko'rsatish mumkin.

1. Kompas. Kompasning kashf etilishi dengizchilarga katta tavakkal bilan ummon orqali o'zlariga noma'lum o'lkalarga ham suzib borish imkonini berdi. Buyuk geografik kashfiyotlar tufayli dunyo hududining O'rta asrlarda tasavvur qilingandan birmuncha kengligi ma'lum bo'ldi, harakatsiz yulduzlar sohasi – qotib qolgan borliq haqidagi xayollar barham topdi. Insoniyat tafakkuri "Er qobig'i"dan tashqariga chiqib, cheksizlik sari intilardi. Inson yangitdan o'zini "dunyo fuqarosi" o'laroq tasavvur qilib, "global dunyoqarash" sohibiga aylana boshladi.

2. Porox. Evropada poroxning kashf etilishi (u kompas cingari allaqachon Xitoyda kashf etilgan edi) bilan, uni turli vayronkor qurollar: to'p va zambaraklar, o'qotar qurollar yasashda qo'llanila boshladi. Hatto Venetsiyaning zambarak va yadrodan tashkil topgan qurol-aslahalari uning harbiy qudrati ramzi va Sharq bilan o'zaro savdo va madaniy aloqalarining tayanchi ekanligi to'g'risida afsona ham mavjud.

3. Kitob chop etishning yo'lgaga qo'yilishi. Evropada birinchi marta XV asrda kitob nashr etilgan. Biroq bunday kitoblar nisbatan birmuncha qimmat va kamyob bo'lgan. Tommazo Kampanellaning g'ururlanib: "XVII asrda o'tgan besh ming yildagidan ko'ra ko'proq kitob chop etildi", deb aytgan so'zlarida jon bor.

Davrning asosiy yutuqlari sirasiga yuksak mahorat bilan ishlangan haykaltaroshlik, me'morchilik va tasviriy san'at namunalari yaratilishi, Lyuterning diniy islohoti kabilar kiritiladi. Antik falsafaning yangitdan chuqur tadqiqi Uyg'onish davrining falsafiy fikr sohasidagi ulkan xizmatlaridan sanaladi.

Yangi va eng yangi davr falsafasining ustivor yo'nalishlari. XVI-XVII asr Evropa hayotida ulkan o'zgarishlar asri bo'ldi. Insonlarning hayot tarzi, qadriyatlar tizimi va dunyoqarashidagi tub o'zgarishlar falsafada yangicha uslub va muammolarni keltirib chiqardi. Bu davrda falsafiy tafakkur yo'nalishlarini belgilab bergan muhim hodisalardan biri bu - fan inqilobi edi. Ushbu inqilob N. Kopernik, I. Kepler, Tixo Brage, G. Galiley kabi olimlarning kashfiyotlari bilan boshlanib, I. Nyutonning kashfiyotlari bilan yakunlandi. Endilikda falsafa kechayotgan o'zgarishlarning mohiyati va ko'lamini qamrab olishi, hodisalar rivojini tushuntirib berishi, kishilarni yangicha olamga olib kirishi lozim edi. Bunda insonning tabiatga, jamiyatga, o'z-o'ziga hamda xudoga bo'lgan munosabati mutlaqo o'zgacha ma'no kasb etdi.

Dunyoqarashning yangilanishi tabiiyki turli ziddiyat va qarama-qarshiliklarga olib keldi. Eskicha an'analarning hukmronligidan xalos bo'lish ko'p harakat va vaqt talab qilardi. Biroq, bunga qaramay, yangicha falsafiy yo'nalishlarning vujudga kelishi ijtimoiy zaruratga aylandi. Yangi davr falsafasining yirik namoyondalaridan biri - Frensis Bekon (1561- 1626 yillar). Uning mashhur asarlari: "Yangi organon" (1620 y), "Falsafaga raddiyalar" (1608 y), "Yangi Atlantida" (1620 y). Bekon an'anaviy bilish usullarini samarasiz ekanligini tanqid qiladi va ularning sabablarini inson tafakkuridagi to'rtta idollarda deb ko'rsatadi, bular: "urug' idoli", "g'or idoli", "bozor idoli", "teatr idoli". Bekon inson tafakkurini turli nufuz va bid'atlar ta'siridan xalos qilishni ta'kidlaydi xamda bilishda tajribaga asoslangan induktiv usulni ilgari suradi. Bu davrda Bekon empirizmga muqobil tarzda fransuz faylasufi Rene Dekartning (1596 - 1650 yillar), ratsionalizmi yuzaga keldi. Uni haqli ravishda yangi davr Evropa falsafasining asoschilaridan biri sifatida ko'rsatishadi. Xuddi Bekon kabi Dekart falsafasining ham asosiy mohiyati, bu - bilimlarning xaqqoniyligi muammosi edi. Ammo Bekondan farqli tarzda Dekart, tajribaga emas, bilish jarayonining o'ziga urg'u berdi. U matematik dalillash va analez metodiga tayangan holda bilishning o'ziga xos to'rtta qoidasini ajratib ko'rsatadi: 1) to'la ishonch hosil qilmay turib, biror narsani haqiqat o'rnida qabul qilmaslik; 2) o'rganilayotgan muammoni talab qilingan darajada qismlarga bo'lib tahlil qilish; 3) fikrning bosqichma - bosqich tarzda oddiydan murakkabga qarab yo'nalganligi; 4) muammoni o'rganish jarayoni qat'iy va to'la hisob-kitob asosida olib borilishi hamda hech bir elementni nazardan chetda qoldirmaslik. Dekart barcha mavjud narsalarning, bir-biridan mustaqil holda moddiy va nomoddiy substansiyalardan tashkil topganligini takidlaydi. Moddiy substansiyaning atributi ko'lam, nomoddiy

substansiyaning atributi – aql. Bu substansiyalarni o‘z atributlari yordamida bilish mumkin. Dekartga ko‘ra moddiy tabiat mexanik xarakterga ega, uning mohiyati ko‘lam va harakat orqali namoyon bo‘ladi. Shu bois har qanday moddiy jism mexanik qonun asosida harakatlanadi va ruhiy ibtidoaga bo‘ysunmaydi. Dekartning ushbu mulohazalari o‘simlik va hayvonot olamiga taalluqli. Insondagi aql va jism o‘rtasidagi bog‘liqlikning murakkabligi shundaki, ularning har ikkisi ham alohida mustaqil substansiya: aql bo‘linmas va ko‘lamga ega emas, jism esa, bo‘linuvchan, ko‘lamga ega, murakkab.

Dekart falsafasining keyingi davr uchun ahamiyatli jihati, unda inson aqlining markaziy o‘ringa ko‘tarilishidir. Yangi davrdagi keyingi falsafiy qarashlar ratsionalizm va empirizmning o‘ziga xos sintezi vujudga kelgunga qadar, ushbu ikki maktabning o‘zaro qarshi kurashi sifatida namoyon bo‘ldi umuman olganda ratsionalizm ham, empirizm ham o‘z mohiyatiga ko‘ra, o‘rta asrlar Evropa madaniy hayotiga singib ketgan an‘analarga qarshi kurashish natijasi o‘laroq yuzaga keldi. Har ikkala maktab ham, insonning aql imkoniyatlarini baholash muammolariga echim izlashni, tom ma‘nodagi ilm ma‘rifatni yuzaga chiqarishni maqsad qildi. Faylasuflar nafaqat tabiatshunoslik fanlariga diqqat qaratdi, endilikda yangi davr Evropa kishisining ijtimoiy-siyosiy xuquqiy o‘rni haqida ham yangicha qarashlar shakillandi.

Dekartdan so‘ng ratsionalizm g‘oyalari Benedikt Spinoza va Gotfrid Leybnitslar tomonidan yanada rivojlantirildi. Benedikt (Barux) Spinoza (1632-1677 yillar) Niderlandiyalik faylasuf. Spinoza o‘z qarashlarini Dekart ratsionalizmning davomchisi sifatida ko‘rsatadi. Uning eng yirik asarlaridan biri “Etika” matematik dalilash metodi asosida yozilgan. “Etika”ning har bir qismi keltirilgan aksiomalarni ta‘riflash va teoremlarni isbotlash bilan boshlanadi. Spinoza falsafasining asosiy tushunchalaridan biri bu - yagona va cheksiz substansiya bo‘lib, u ayni paytda xudo va tabiat sifatida namoyon bo‘ladi. Dekartdan farqli ravishda Spinoza olamning ilk ibtidosini yagona mohiyatda deb biladi va falsafiy monizm prinsipini yoqlaydi. Substansiya ko‘plab, cheksiz atributlarga ega, inson ulardan faqat “ko‘lam” va “aql”nigina anglay oladi. Har bir atribut o‘zida substansiya mohiyatini aks ettiradi, biroq ular substansiyaga nisbatan chegaralangandir. O‘z navbatida har bir atribut ko‘plab “moduslarning” yig‘indisi sifatida namoyon bo‘ladi. Aynan moduslarning namoyon bo‘lish shakli tufayli biz atributlarning alohida birligini bila olamiz. Spinozaga ko‘ra moddiylik va nomoddiylik alohida substansiya bo‘lmay, aksincha, bir mohiyatning ikki xil shakldagi ko‘rinishidir. Shu bois insonning aqlni idrok etishi jismni, jismni idrok etishi esa aqlni bilishi deya baxolanadi.

Ratsionalizmning yana bir vakillaridan biri, Olmon faylasufi, matematik fizik olim Gotfrid Leybnits (1646 - 1716 yillar). U. Leybsig universitetida matematika va fizikadan tashqari tilshunoslik, tarix hamda xuquqshunoslik fanlarini ham chuqur o‘zlashtirgan. Leybnits ham huddi Spinoza kabi Dekart o‘rtaga tashlagan masalalar ustida bahs yuritadi. Uni Dekart ilgari surgan aql va jism o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik muammosi qanoatlantirmaydi Leybnits Dekart g‘oyalarni rivojlantirish bilan bir qatorda Spinoza va uning qarashlaridan farqli, o‘ziga xos

ratsionalizm tizimini yaratadi. U karteziyancha dualizmni ham, Spinozaning, xudoni borliqqa aynanlashtirgan panteizmini ham qabul qilmaydi. "Monadalar" Leybnits falsafasining markaziy tushunchalaridan biri xisoblanadi. Monadalar bo'linmas mohiyat bo'lib, butun borliq ularning yig'indisidan tashkil topgan. Monadalar alohida birlik bo'lib, o'zaro ta'sirga ega emas. Monadalar quyidan yuqoriga qarab, qat'iy ierarxik tarzda tartiblangan. Ierarxiyaning quyida joylashgan monadalar moddiy borliqni tashkil qiladi. Ierarxiyaning yuqori qismida esa nomoddiy borliqni tashkil qiluvchi monadalar joylashadi. Natijada Leybnitsning monadalar olami xudoni "oliy monada" sifatida aks etiradi. Uning "bizning olam tasavvurdagi olamlarning eng yaxshisidir" degan so'zlar bilan ifodalanuvchi falsafiy optemistik konsepsiyasi ham monadalarning tartiblanish g'oyasiga asoslanadi.

Yangi davr falsafasida Bekondan keyingi empirizm maktabining vakillari sifatida ingliz faylasuflari T. Gobs, J. Lokk, J. Berkli, D. YUm fransuz faylasuflaridan esa, E. Kondilyak, K. Gelvetsiy, P. Golbaxlar sanab o'tiladi. Biz bu o'rinda Lokk, Berkli va Yum qarashlariga to'xtalib o'tamiz.

Jon Lokk (1632-1704 yillar) ingliz faylasufi. Inson aql idrokining paydo bo'lishi, uning imkoniyatlari chegaralari haqidagi g'oyalar Lokk falsafasining asosini tashkil etdi. Bekon kabi Lokk ham, har qanday bilim tajribaga asoslanishi kerakligini takidlaydi. Lokk empirizmni "tug'ma g'oyalar" konsepsiyasini ilgari suruvchi ratsionalizmga qarshi qo'yadi. U bilish jarayonida "tug'ma g'oyalar" konsepsiyasining ahamiyatini butunlay inkor qiladi. "Er yuzida butun boshli xalqlar biz bilgan xudo haqidagi tushunchalardan xabardor emas, bolalar, aqli zaiflar esa, mantiq qoidalarini deyarli bilmaydi. Xo'sh, u holda tug'ma g'oyalarning mavjudligini qanday isbotlash mumkin. Insonda tug'ma g'oyalar emas, bilish imkoniyati mavjud, ammo bu konsepsiyaning paradoks jihati shundaki, inson o'zidagi mavjud bu g'oyalarni o'zi bilmaydi" deya takidlaydi Lokk. Ratsionalizmga qarshi o'laroq Lokk, inson aqlini toza qog'ozga o'xshatadi: undagi bilimlar faqat tajriba asosidagina to'planadi. Lokk qarashlariga ko'ra falsafaning asosiy metodi tajribaga tayanishi kerak.

Ingliz empirizmining yana bir vakillaridan biri Djordj Berkli empirizm g'oyalarini Lokk qarashlaridan farqli, o'ziga xos tarzda talqin qiladi. Berkli Lokk taklif qilgan birlamchi va ikkilamchi sifatlarni empirik yo'l bilan ajratib bo'lmasligini ta'kidlaydi. Bizning sezgilarimizdan tashqaridagi moddiy jismlarni bilish empirizmning imkoniyati doirasida emas, biz faqat kombinatsiyaga kirisha oladigan mavjud narsalarni, ya'ni sezgilarimizning kompleksinagina bila olamiz. Berklining ushbu qarashlari faqat seziladigan narsalargina mavjud degan xulosani keltirib chiqaradi. Unga ko'ra olam hissiz, ta'amsiz, hidsiz, rangsiz substansiyalardangina iborat, ularni hissiy sezgilarimiz yordamida bilamiz. Berklining bu qarashlari keyinchalik mexanik materializm g'oyalarining vujudga kelishiga imkon yaratdi.

Ingliz empirizmining yana bir yirik namoyondalaridan biri, - David Yum. Uning nomi mumtoz falsafada empirizmning mantiqiy imkoniyatlarini tugatilishi bilan bog'liq. Yum o'z etiborini Lokk taklif qilgan empirizmning chuqur tahlil

qilishga qaratadi. Keyinchalik Yumning izdoshlari uni tanqid qilarkanlar o'zlari, tajribada o'rnatilgan qat'iy chegaraga amal qilmadilar. Ular ilgari surgan empirizm metafizikaga, yoki Berkli nazarda tutgan materialistik spiritualizmga aylanib ketdi. Yumga ko'ra ayni shu jihat Lokk empirizmining asosiy kamchiligi edi. Yum Lokk empirizmining metafizikaga aylanib ketishiga sabab qilib, tajribada o'rganilishga imkoni bo'lmagan ikki tushunchani, ya'ni sababiylik va substansiya tushunchalarini keltiradi.

Sababiylikni empirizmning prinsiplariga asoslangan xolda, moddiy va ruhiy olam hodisalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni keltirib chiqaruvchi tushuncha sifatida tadqiqot doirasidan olib tashlash lozim. Sababiylikka bog'liq tajriba - muayyan vaqtdagi biror hodisalarning ketma ketliginigina o'rganadi, u aynan bir hodisa ikkinchisini yaratishini to'la isbotlab bera olmaydi. Shu bois sababiylik ob'ektiv emas, sof sub'ektiv holat bo'lib, tafakkur yuritishning odatlanib qolgan shaklidir. Aynan shu odatlanish shakli narsa va hodisalar o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlik zarurati haqidagi yolg'on illyuziyalarni keltirib chiqaradi, tajribada esa, bu bog'liqlikni isbotlab bo'lmaydi. Yumning inson aqlining imkoniyatlariga nisbatan skeptitsizmi asosan metafizik qarashlarga qaratilgan edi. U Nyuton fizikasini yoqlarkan, faqat tajriba natijasida egallangan bilimlarga qadr qiymatga ega ekanligini takidlaydi.

XVIII asrda Evropada yuzaga kelgan ijtimoiy-falsafiy qarashlar ma'rifatparvarlik falsafasi sifatida keng tarqaldi. Fransiyada ma'rifatparvarlik keng ijtimoiy, madaniy, siyosiy harakat sifatida XVIII asrning o'rtalarida vujudga keldi, xamda mutlaq manarxiya oqibatida yuzaga kelgan inqirozlar bois 1774-1789 yillarda burjua inqilobi va 1793-1794 yildagi yakonbinchilarning diktaturasi oqibatida o'zining eng yuqori cho'qqisiga ko'tarildi. Bu davr faylasuflarining g'oyalaridagi xilma-xillikka qaramay, ularni insoniyat taraqqiyoti markaziga ilm ma'rifatni qo'yish, ratsionalizm kabi tendensiyalar birlashtirib turardi. Fransuz faylasuflaridan biri Gelvetsiy aytadi: "insoniyatning barcha musibatlarining asosiy sababchisi bu johillikdir". (sm 23, 278).

Inson ofat va musibatlardan faqat ilm-marifat yordami bilangina xalos bo'la oladi. insonning mayog'i bo'lgan aqlda ham "yashirin, uzluksiz inqiloblar" yuz beradi hamda johillik barham topa boshlaydi. Marifatparvarlik dunyoqarashining asosiy xususiyatlari biri bu ratsionalizm bo'lib, unga ko'ra tabiyat va tafakkur qonuniyatlari o'zaro aynanlashtiriladi. Ushbu tamoyil qisman Dekart ratsionalizmiga asoslangan, hamda u keyinchalik Gegel panlogizmida ham o'z aksini topadi. Ammo Dekart, Gegel va marifatparvarlarning ratsionalizmining umumiy jihati shundaki, unga ko'ra mexanikaning sodda, mantiqiy qonuniyatlari borliqning umumiy, yaxlit qonuniyatlariga muvofiq keladi. Oldingi asrlardanoq etakchi fanga aylanib ulgurgan mexanika astranomiya, matematika bilan qo'shilgan holda o'sha davrdagi ilg'or faylasuflarning asosiy mashg'ulotiga aylandi. Mexanika, matematika va mantiq uchligi XVIII asr ratsionalizmining asosi sifatida etirof etildi.

Gobbsga ko'ra jamiyat mexanika qonuniyatlarining ijtimoiy hayotdagi mahsuli sifatida baholanadi. Golbax esa tabiat qonunlarini insoniyat tafakkurining

muallimi va mezoni deya talqin qiladi. Johillik, omilik nafaqat illat sifatida, balki tabiat, jamiyat taraqqiyotiga g'ov, to'siq deya qoralanadi. Biroq deistlar ham materialistlar ham bu borada turlicha yondashuvga ega. Ularning biri uchun olam tartiboti yaratuvchining irodasi bilan bo'lsa, ikkinchi tomon uchun esa, borliqdagi tartibot tabiat qonunlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Ushbu konsepsiya: birinchidan inson oliy tafakkur in'om etgan aqlga ko'ra borliqni anglaydi degan qarashni o'zida aks etiradi. Spinoza bu konsepsiyani moddiy substansiya sifatida talqin qilgandi. XVIII asr ma'rifatparvarlarining xulosalariga muvofiq esa, olam oqilona strukturaga ko'ra yaralgan bo'lib, tabiat va tafakkur qonunlari aynandir. Tabiat va jamiyatdagi kauzal, tasodifiy hodisalar ham mantiqiy asosga ega. Demak olamni nafaqat aql yordamida mutlaq bilish, balki uni intuitiv his qilish ham tan olinadi.

XVII asr ratsionalistlaridan farqli o'laroq fransuz marifatparvarlarining qarashlarida tafakkurdan tabiatga qarab emas, aksincha tabiatdan tafakkurga qarab rivojlanish kuzatiladi. Bu borada Didro va Gelvetsiyning qarashlari sensualizmni inkor qilmaydi. Inson tabiat tomonidan unga berilgan sezgi organlari yordamida borliqni anglaydi. SHu bois u tabiatdan o'rnak olmog'i kerak. Bu harakat esa tom ma'nodagi donishmandlik sanaladi. tabiatning o'zi aqlli emas, biroq u aqlli mavjudotlarni yaratadi. "Falsafiy qarashlarga qo'shimchalar" asarida Didro diniy e'tiqod va tabiat oqilonaligi bir-biriga muvofiq kelmaydi, chunki tabiat jonli emas, biroq u oqilona tartibotga ega: insonning baxtli bo'lishga intilishi tabiat qonunlariga muvofiq keladi deya ta'kidlaydi.

Yuqoridagi fikrlardan shuni kuzatish mumkinki, tabiat qonunlarini xuquqiy darajasigacha ko'tarish tendensiyasi kuzatiladi. Boshqacha qilib aytganda, ma'rifatparvarlar tabiiy, adolatli, ratsional qonunlarni yaratish g'oyasini ilgari surishadi. Bu g'oyalar o'zida naturalistik orientatsiyaga tayangan, gnoseologik optimizmni ifoda etadi. Xatto Volter hamda Russoning ilm-m'arifatni sof nazariy aql mahsuli ekanini ta'kidlovchi deistik qarashlari ham, ma'rifatparvarlik g'oyalarining yaxlitligiga putur etkazmaydi.

Tanqidiy ruhdagi ma'rifatparvarlik g'oyalari garchand XVIII asr o'rtalarida Fransiyadagi inqilobiy hayotga muvofiq kelmasada, ma'rifatparvarlar ratsionallikka asoslangan o'z qarashlarini kun kelib, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida yuzaga chiqishiga ishonganlar. Mohiyatan olib qaraganda ma'rifatparvarlik falsafasi asosan siyosiy g'oyalarni o'zida aks ettirib, o'z davrining ijtimoiy hodisalariga tanqidiy nuqtai nazardan baho berarkan, ushbu inqirozlardan faqat ilm ma'rifat yo'li bilangina xalos bo'lish mumkinligini ta'kidlashadi. Avvalambor ushbu qarashlar tasavvurda qotib qolgan spekulativ, dogmatik metafizikaga ham qaratilgan edi. Xususan Didro, Volter, Gelvetsiyning antispekulyativ sensualizmi o'zidan oldingi davrdagi ratsionalistik qarashlardan birmuncha farq qiladi. Ayniqsa bu borada Lokk, shuningdek Nyuton mexanikasining ta'siri ancha sezilarli. O'sha davrda ijtimoiy hayot xamda tafakkurda yuz bergan inqiloblar falsafiy dunyoqarashni mutloq boshqa o'zanga burib yubordi. Xususan bu davrda diniy mutaassiblikka qarshi o'laroq, falsafada materialistik yondashuvlar etakchi o'ringa ko'tarildi. Ayniqsa Didro, Golbax kabi faylasuflarning qarashlari o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Masalan Golbax: “materiya va harakatning yaxlitligi olamning paydo bo‘lishidan ko‘ra, kishilik jamiyatining shakllanishiga katta hissa qo‘shgan..”- , deb yozadi. Bir so‘z bilan aytganda marifatparvarlar kishilik jamiyati va ilm-fan taraqqiyotini yoqlaydilar, biroq bu taraqqiyot ayrim biologik elementlarni hisobga olmaganda sof mexanik ahamiyat kasb etadi. Ular Nyuton mexanikasini olamning hamma hududiga mutlaq, birdek ta’sir o‘tkazadigan tabiiy va ijtimoiy borliqning fundamental asosi haqidagi yakuni xulosa sifatida talqin qiladilar. Masalan, ma’rifatparvar faylasuflardan biri Lametri: “ijtimoiy munosabatlar bu axloqiy munosabatlardir, axloq esa, Nyuton mexanikasining uzviy davomi. U organizmlar munosabatidan ko‘ra, ijtimoiy munosabatlarga ko‘proq muvofiq keladi”, deya uqtiradi.

XVIII asrning oxiri XIX asrning boshlari Germaniyada dastlab adabiyot san’at, keyinchalik esa ijtimoiy siyosiy o‘zgarishlar bilan bir qatorda falsafiy qarashlar keng taraqqiy etdi. Ijtimoiy boshboshdoqlikka barham berish istagi hamda o‘zgarishlarga moyillik Germaniya jamiyatida o‘ziga xos yangicha madaniyatni taraqqiy etirishga imkon beruvchi barqaror ma’naviy muhitni yaratdi. an’analar, diniy qadriyatlarga sodiqlik ruhiga qaramay , xurfiylik, ma’rifatparvarlik kabi g‘oyalar olmon jamiyatining ijtimoiy hayotiga kirib bordi. Madaniy g‘oyaviy o‘zgarishlar Gete, Shiller, Lessing, Kant kabi shoir va faylasuflarning ijodida aks etdi. Bu ma’noda olmon mumtoz falsafasining asoschilaridan biri Immanuil Kantning (1724 1804 yillar), g‘oyalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Kant falsafasi ma’rifatparvarlik g‘oyalarining tanqidi va yakuni sifatida baholanadi. Kantning falsafa tarixidagi o‘rni XIX - XX asrlardagi falsafiy qarashlar aynan uning g‘oyalari asosida rivojlanganligi bilan ham ahamiyatli sanaladi. Kantning ijodi shartli ravishda ikki bosqichga: tanqidgacha va tanqidiy davrlarga bo‘lib o‘rganiladi. Tanqidiy davrgacha bo‘lgan bosqichda Kant ijodi tabiiy ilmiy va naturfalsafiy xarakterga ega. Aynan shu bosqichda uning “Osmonning umumiy, tabiiy tarixi va nazariyasi” nomli traktati yoziladi. Ushbu traktatda bayon qilingan nazariyalar keyinchalik Kant va Laplas nazariyasi sifatida shuxrat qozonadi. Kant ijodining ikkinchi bosqichini tanqidiy deya nomlanishi, uning, falsafaning vazifasiga nisbatan yangicha yondashuvni ilgari surishi bilan izohlanadi. Faylasuf har qanday dogmatik qarashni tanqidiy baxolashi lozimligini ta’kidlaydi. Kant o‘zidan oldin qarama- qarshi pozitsiyada bo‘lgan ratsionalizm va empirizm g‘oyalarini o‘ziga xos tarzda sintez qildi. U har ikkala yo‘nalishning o‘zi ijobiy deb bilgan tomonlarini birlashtirib, keraksiz jihatlarini rad etdi. U empiriklarning aql tajribaga tayanishi kerak degan mulohazalarini yoqlaydi, lekin ularning inson aqli dastavval oq qog‘ozga o‘xshatilishini inkor qiladi. Kant ratsionalistlarning “tug‘ma g‘oyalar” haqidagi qarashlarini ham tanqid qiladi. U tug‘ma g‘oyalar o‘rniga, aprior bilimlar tushunchasini qo‘llaydi. Aprior bilimlar o‘ziga xos tafakkur va mushohada shakli bo‘lib, ular ob’ektga emas, sub’ektga tegishli. Ular hissiy idrok va aqliy bilish strukturasi mos xarakterga ega. Aprior bilimlar hech qachon “narsa o‘zida”da mavjud emas. SHu sabab ham ular “tug‘ma g‘oyalar” bo‘la olmaydi.

Kantning qarashlari o'zidan keyingi Evropa, ayniqsa Olmon falsafasiga katta ta'sir ko'rsatdi. Kantning izdoshlari u ko'targan muammolarni yanada aniqroq bayon qilishga uning kamchiliklarini izohlashga xarakat qildilar bunga misol tariqasida I. Fixtning (1762 - 1814 yillar) qarashlarini keltirib o'tamiz. Uning 1792 yilda e'lon qilingan "Har qanday vahiyning tanqidi" ocherki Kantning "Sof aqlning tanqidi" nomli asaridan ta'sirlanib yozildi. Fixtning mazkur ocherkini Kantning o'zi e'tirof etadi.

Kantning aprior bilimlar shakliga ega bo'lgan transsendental sub'ekt g'oyasi falsafaning borliq haqidagi nazariyalarini ong ontologiyasi sifatida baxolashga imkon yaratdi Fixte Kant falsafasining aynan shu tomoniga etibor qaratdi. U Kant metafizikasida uchraydigan dualistik elementlarni tanqid qiladi va "narsa o'zida" g'oyasini qabul qilmaydi. Fixte Kant metofizikasini dialektik yo'l bilan tahlil qilishga urunadi. Keyinchalik bu urunish Shelling va Gegel tomonidan tanqidga uchraydi.

Fridrix Shelling (1775 - 1854 yillar) olmon idealistik maktabi vakillaridan biri. Leybsik universitetida tabiiy fanlar va falsafadan ta'lim oladi. 1800 yilda e'lon qilingan "transsendental idealizmning tizimi" nomli asari unga katta shuxrat keltiradi. Shelling tabiat va ruh aynanligi prinsipiga tayanadi. Unga ko'ra tabiat ham, ruh ham mutloqlik, yoki xudoning turlicha namoyon bo'lish shaklidir. Shelling falsafasi Kantning transsendentlik haqidagi qarashlari bilan sug'orilgan, Bruno va Spinoza panteizmining qayta ishlangan shakli edi. Tabiat va ruhning aynanligi azaldan mavjud bo'lib, u bizning sezgilarimizga ko'ra farqlidir. Bizga namoyon bo'layotgan reallik va ideallik bir xil mohiyatga ega. Shelling falsafasidagi tabiat va san'at, naturfalsafa va falsafaning g'oyat yaqinligi zamondoshlari, ayniqsa F.Gegel tomonidan adabiyot va fan funksiyalarini chalkashtirilishi sifatida tanqid qilindi.

Georg Vilgelm Fridrix Gegel (1770 - 1831 yillar) Tyubingen universitetining ilohiyotshunoslik fakultetida ta'lim olgan. U Shelling bayon etishga urungan mutloq ruhning san'atda namoyon bo'lishi g'oyasiga tayangan real va ideallikning aynanlik prinsipini tanqid qilib, san'at modelining o'rniga fan modelini qo'llaydi hamda mutloq ruhning namoyon bo'lishini mantiqiy jarayon sifatida ko'rsatadi. Haqiqat mavjud bo'lgan haqiqiy shakl faqat fandagina namoyon bo'ladi. Ushbu qarashlar Gegelga inson ongining barcha sohalarini qamrab oladigan ulkan falsafiy tizim yaratishga imkon berdi. Klassik e'tiqod shakllarini falsafaning ta'riflash predmetiga ajratarkan Gegel, uning mantiqiy harakatini mutloq ruhga muvofiqligini ko'rsatadi. Narsalar o'z asosiga ko'ra fikrdir, ya'ni barcha mavjid narsalar aqlga muvofiqdir, barcha aqlga muvofiq narsalar mavjuddir, yoki boshqaa qilib aytganda g'oya bu haqiqatdir, barcha haqiqatlar esa, g'oyadir. Mutloq ruh namoyon bo'lishining har bir bosqichi o'ziga xos mazmunga ega, san'at ham, din ham uni to'la aks ettira olmaydi, faqat sof aqldagina u to'la namoyon bo'ladi.

Insoniyat tarixini katta ko'lamda tizimli talqin etilishi Evropa madaniy hayotiga beqiyos ta'sir ko'rsatdi. Shuning bilan bir qatorda, o'zida ratsionalizm prinsiplari, sub'ekt va ob'ektning o'zaro qarama-qarshi konsepsiyalarini

mujassamlashtirgan Gegel ta'limoti Evropa mumtoz falsafasining yakunlovchi bosqichi ham edi. Gegel qarashlarining tanqidi Evropada o'ziga xos noklassik falsafiy yo'nalishlarni yuzaga chiqardi.

Gegel g'oyalari katta mavqeyga ega bo'lgan davrlardayoq unga tarafdor bo'lmagan, qarashlarini keskin tanqid qilgan faylasuflar paydo bo'ldi. Bular olmon faylasufi Artur Shopengauer va Daniyalik faylasuf Seren Kerkigor edi. Ularning ilgari surgan g'oyalari mumtoz falsafaning prinsiplaridan tubdan farq qilib, unda inson borlig'ining mohiyati, uning olamdagi o'rnini, o'lim va hayot, inson hayotining ma'nosi kabi muammolar o'rtaga tashlandi va Evropada keyinchalik bu yo'nalish postklassik falsafa nomi bilan keng tarqaldi.

Shopengauer (1788-1860 yillar) olmon faylasufi. Shopengauer Evropada keng yoyilgan zamonaviy falsafaning asoschilaridan biri sanaladi. 1818 yilda uning mashhur asari "Olam iroda va tasavvur sifatida" nomli asari yoziladi. Shopengauerning nuqtai nazaricha olam insonga iroda va tasavvur sifatida namoyon bo'ladi. Iroda bu - Kant nazarda tutgan "narsa o'zida bo'lib", u borliqning azaliy ibtidosidir. O'z tabiatiga ko'ra qandaydir kosmik, biologik kuch tasavvur sifatida olam insonning ongida aks etadi, oqibatda zamon, makon, sub'ekt ob'ekt alohida narsalarning turfa xiligi hamda ular o'rtasidagi sababiy bog'lanishlar vujudga keladi. Bularning bari inson aqli, idroki o'z aprior shakliga ko'ra shunday yaratilgan. Bu olamda inson mutloq irodaning ixtiyoridadir, u borliq qonunlarini anglashi, unga moslashib yashashi uchun insonga intellekt bergan. Insoning hayoti, mavjudligi qanchalik bema'no bo'lmasin, mutloq iroda uni yashashga majbur qiladi. Shopengauer yangi davr falsafasiga birinchilardan bo'lib pessimizm ruhini olib kiradi, biroq, XIX asrning birinchi yarmida avj olgan iqtisodiy, madaniy, ta'lim sohalaridagi taraqqiyot bois uning g'oyalariga etarlicha etibor berilmaydi.

Seren Kerkigor (1813 - 1855 yillar) Daniyalik faylasuf, huddi Shopengauer kabi uning qarashlari ham o'z davrida etirof etilmagan. U o'zining "YOki yoki" asarida inson shaxsiyati bosib o'tishi lozim bo'lgan uch bosqich: estetik, axloqiy va diniy bosqichlarni ko'rsatadi. Estetik bosqichda inson hissiy va jismoniy lazzat va farog'at uchun yashaydi. Bu ma'noda u hayvonga, yana ham aniqroq qilib qaytganda aldov va yolg'onlar bilan ovunadigan bolaga o'xshaydi. Kerkegorning fikricha aksariyat kishilar hayotlari davomida bu bosqichdan chiqib ketolmaydilar. Axloqiy bosqichda inson o'zining nafaqat jismdan, balki ruhdan ham iborat ekanligini anglaydi. Bu bosqichda u umidsizlik va azob chekadi, zotan umidsizlik, inson mohiyatini anglashda zaruratdir. Inson kamoloti uchun axloqiy bosqichning o'zi etarli emas, u e'tiqod bosqichida umidsizlikni keltirib chiqargan zarurat bilan kurashadi va o'zi uchun imkoniyat topadi. Kerkegorga ko'ra faqat chin ma'nodagi e'tiqodgina insonni umidsizlik va azob uqubatdan qutqaradi.

Shopengauer qarashlari ta'sirida shakllangan yana bir yirik faylasuflardan biri Fridrix Nitsshe (1844 - 1900 yillar) uning asosiy asarlari: "Fojianing musiqa ruhidan yaralishi", "Quvnoq fan", "Axloq gnoseologiyasi", "Zardusht shunday degandi".

U o'zining "Fojianing musiqa ruhidan yaralishi" asarida qadimgi Yunon madaniyatini tahlil qilarkan, unda ikki ma'bud, Apollon va Dionis kulti o'zaro qarama-qarshilikda bo'lganligini aytadi. U ratsional, tizimli tartiblangan bilim ramzi sifatida Apollonni, irratsional, mistik bilimlar ramzi sifatida Dionisni ko'rsatadi. Nitsshining fikricha fojaviylik Dionis ruhidan yaraladi. Fojaviylik, irratsionallik har qanday san'atning o'zagi hisoblanadi. Nitshe Evropa madaniyati inqirozini ratsionallikni hayoti instinktlar, irotsionallik, mistika ustidan qozongan g'alabasi natijasida deb biladi. Nitshe falsafasida ko'tarilgan yana bir muammolardan biri, inson mohiyati muammosidir. U xristianlik dinining g'oyalari, shuningdek sotsializm va demokratiyani ham keskin tanqid qiladi. Nitsshening fikricha aynan shu g'oyalar hech narsaga qodir bo'lmagan, shaxsiz olomonning manfaatlariga xizmat qiladi. Insoniyat hali ham hayvonlik xolatidan yuqoriga ko'tarilmagan, undan faqat ayrim faylasuflar, avliyolar va ijodkorlar xalos bo'lganlar. Buning uchun insoniyat ming yillardan buyon o'rnatilgan qadriyatlar tizimini o'zgartirishi, ularni qayta baholashi lozim deya ta'kidlaydi Nitshe.

XIX asrning oxiri, XX asrning boshlarida tabiatshunoslik fanlarining nazariy taraqqiyoti natijasida, Spinoza va Feyerbaxning spekulativ materializmi hamda Gegel, Fixte, Shellingning idealizmi jamiyat rivoji va fan sohalaridagi o'zgarishlarni to'la tushuntirib bera olmadi.

XVI XVII asr Evropa hayotida ulkan o'zgarishlar asri bo'ldi. Insonlarning hayot tarzi, qadriyatlar tizimi va dunyoqarashidagi tub o'zgarishlar falsafada yangicha uslub va muammolarni keltirib chiqardi. Bu davrda falsafiy tafakkur yo'nalishlarini belgilab bergan muhim xodisalardan biri bu - fan inqilobi edi. Ushbu inqilob N. Kopernik, I. Kepler, Tixo Brage, G. Galiley kabi olimlarning kashfiyotlari bilan boshlanib, I. Nyutonning kashfiyotlari bilan yakunlandi. Endilikda falsafa kechayotgan o'zgarishlarning mohiyati va ko'lamini qamrab olishi, xodisalar rivojini tushuntirib berishi, kishilarni yangicha olamga olib kirishi lozim edi. Bunda insoning tabiatga, jamiyatga, o'z o'ziga hamda xudoga bo'lgan munosabati mutlaqo o'zgacha ma'no kasb etdi.

XX-XXI asr G'arb falsafasining oqimlari. XX-XXI asr G'arb faylasuflari ijodida fan falsafasining rivoji.

XX asrning yangicha ilmiy tarixiy yondashuvlari asosida materializmning "ilmiy materializm", "antropologik materializm" kabi doktrinalari va spekulativ idealizmning: "neorealizm", "neotomizm" kabi yo'nalishlari saqlanib qoldi. Ayniqsa falsafa sohasida ushbu yo'nalishlarning o'zaro birlashish jarayoni kuzatilmasada, ularning o'zaro diologi, sintezi tendensiyasi yuz berdi. XX asrda falsafa ssientizm va antissientizm kabi o'zaro qarama qarshi yo'nalishlarning faoliyatida aks etdi. Ssientizm XIX asrda vujudga kelgan pozitivizmning mantiqiy davomi bo'lib, uning g'oyalari tabiiy fanlarning taraqqiyotiga qaratilgan. Unga ko'ra ilmiylikning namunasi, zamonaviy fizika bilan belgilanadi. Biroq, zamonaviy fizika doirasida yuzaga kelgan "Nisbiylik" va "kvantlar" nazariyalari fizik ob'ektlarning ziddiyatli tabiatga ega ekanligini izohlovchi, yangicha ratsionalizmni vujudga kelishiga imkon berdi. Bu ma'noda ssientizm va antissientizmning ilmiylik xaqidagi xulosalari nisbiy ahamiyatga ega, shuningdek, ratsionalizm va

empirizm, ratsionalizm va irratsionalizm kabi yoʻnalishlarni oʻzaro qattiq chegaralash oʻzini oqlamadi. Irratsionalizm gumanitar fanlarning oʻziga xosligiga urgʻu beradi xamda, jamiyat, inson, uning madaniyati tuganmas obʻekt ekanligini taʻkidlaydi.

XX asr falsafasi oʻzining koʻp predmetli ekanligi bilan xam ajralib turadi. Undagi maktab va yoʻnalishlarning turfa xilligi zamonaviy fan va madaniyatning koʻp qatlamligini koʻrsatadi. XX asr falsafiy yoʻnalishlarining tasnifiy muammosi batafsil, chuqur tahlil etilmagan, biroq shunga qaramay, tatqiqotchilar quyidagi uchta guruhiy tasnifni keltirishadi: 1) tahliliy pozitivistik yoʻnalish; (mantiqiy pozitivizm, postpozitivizm), 2) ekzistensial fenomenologik yoʻnalish; 3) diniy falsafiy yoʻnalish; (neotomizm, neoprotellantizm, islom va budaviylik falsafasi).

Yuqoridagi tasnifdan ayrim yoʻnalishlarga qisqacha toʻxtalib oʻtamiz:

Tahliliy pozitivizm - tahliliy pozitivizmning asosiy maqsadi, fanning tili va tamoyillarini ishlab chiqishga qaratilgan. U ilmiy nazariyalarning mantiqiy strukturasi va fanning ahamiyatini tadqiq qiladi. Neopozitivistlar ilmiy mulohazalarning ahamiyatini koʻrsatish, aniqlash maqsadida verifikatsiya prinsipini taklif qilishdi, keyinchalik mantiqiy pozitivistlar ushbu prinsipni “tasdiqlash” yoki “sinab koʻrish” tamoyili sifatida qabul qilishdi. Unga koʻra biror bir mulohaza yoki faraz, tajribada sinab koʻrilgandagina haqiqat sanaladi. Lekin mantiqiy pozitivistlar tajribani oʻziga xos tor doirada talqin qilganlar. Bu maʼnoda mantiq va matematika olimlar oʻrtasidagi oʻzaro konvensiya, yaʼni, kelishuv va hamjihatlikka asoslanadi. Keyinchalik ushbu gʻoyaga tayangan yangicha pozitivizm vakillari, bilimlarni unifikatsiya qilish tamoyilini ilgari surdilar va bu tamoyil bugungi kunda xam oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan.

Ekzistensializm - pessimistik falsafa sifatida vujudga keldi. Ushbu yoʻnalish zamonaviy sivilizatsiya sharoitida, keskin qarama-qarshiliklar ichida inson mavjudligi muammosiga eʼtibor qaratadi. Ekzistensializm yoʻnalishi vakillari: Karl Yaspers, Martin Xaydegger, Jan Pol Sartr, Alber Kamyu, Gabriel Marsel va boshqalar. Ekzistensializm XX asr drammatizmining falsafiy ifodasi, borliq va yoʻqlik, oʻlim va hayot oʻrtasidagi insonning qarashlari sifatida maydonga keldi. Uning markaziy muammolaridan biri bu insoning jamiyatdan begonalashuvi. Begonalashuv - koʻp yoqlama tushuncha boʻlib, u individning oʻzi ustidan hukmronlik qilayotgan bosimga qarshi faoliyat, davlat, turli mehnat tashkilotlari, ijtimoiy insitutlar, oʻzi kabi boshqa individlarga nisbatan isyon sifatida namoyon boʻladi. Ekzistensializm individning tashqi dunyodan begonalashuv holatini: qoʻrquv, befarqlilik, apatiya, yolgʻizlik kabi kechilmalarni chuqur tahlil qiladi. Xaydeggerga koʻra, qoʻrquv, bezovtalik, xavotir inson va olamning subʻektiv borligʻini tashkil etadi. Bu subʻektiv borliq birlamchi boʻlib, inson xatti-harakatini belgilaydi. Xaydegger “olamdagi borliq”, “boshqalar borligʻi” kabi tushunchalar tizimini keltiradi. inson qachonki, jamiyat tomonidan oʻrnatilgan ustanovkalaridan voz kechgandagina yaʼni, oʻzini mangu emasligini anglagandagina borliq, mavjudlik tushunchasini xis qiladi. Yaspersga koʻra bu jarayon insonning oʻz individualligini izlashi bilan bogʻliq. Inson individualligi nafaqat fan, balki

falsafaning ham ob'ekti bo'la olmaydi. Chunki, inson xatti-harakati mohiyatan "oliy iroda" xudo tomonidan xarakatlantiriladi. Inson ushbu individuallikni chegaradosh vaziyat, ya'ni o'lim bilan yuzma-yuz kelgandagina xis etadi. Fransuz yozuvchisi Alber Kamyu esa, hayot yashashga arziydimi yo'qmi degan savol qo'yadi. Keyinchalik u inson hayoti bema'ni degan xulosaga keladi. Kamyu, Sartr, Marsel chegaradosh vaziyatlarni butun insoniyatga xos deb baholashadi. Bu ma'noda ekzistensializm vakilari global olamdagi keskinliklarni, individ va jamiyat orasidagi tarangliklarni yumshatish yo'li bilangina insonga yordam berish mumkin degan xulosani ilgari suradilar.

Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar

- 1.Falsafaning fan sifatida mill.avv. VI asrda Yunonistonda shakllanishi va unda dunyoning asosi nimalardan iborat?
- 2.Demokrit, Aflotun, Arastu falsafiy qarashlari haqida bayon eting.
- 3.O'rta asrlardagi nominalizm va realizm oqimlarining ta'limotlari haqida so'zlang.
- 4.Uyg'onish davridagi fan taraqqiyoti haqida nimalar deya olasiz?
- 5.XVII asr G'arbiy Yevropa falsafasi haqida bayon eting.
- 6.XVIII asr frantsuz faylasuflarining qarashlari haqida so'zlang.
- 7.Nemis klassik falsafasining yirik namoyondalari kimlar? Ularning falsafiy g'oyalari nimalardan iborat?
- 8.XX asr falsafasi, uning oqimlari, xususiyatlari haqida so'zlab bering.

4-mavzu. Borliq – falsafa kategoriyasi

Borliq tushunchasining tahlili. Borliq falsafiy bilimlarning alohida sohasi bo'lib, unda borliq va yo'qlik, mavjudlik va nomavjudlik muammolariga doir masalalarning keng doirasi o'rganiladi, shuningdek mavjudlik sifatiga ega bo'lgan barcha narsalarning mohiyati aniqlanadi. Umum qabul qilingan falsafa tilida u Ontologiya deb ham ishlatiladi. «Ontologiya» atamasi (yunoncha ontos – borliq, logos – so'z, talimot), borliq haqidagi talimot degan manoni anglatadi, ilmiy kategoriyasi sifatida falsafada XVII asrdan beri qo'llanilmoqda. Ontologiya har qanday falsafiy dunyoqarashning negizi hisoblanadi va shu tariqa o'z tarkibiga kirmaydigan boshqa falsafiy muammolar talqinini ko'p jihatdan belgilaydi.

Borliq masalasi insonning dunyoni oqilona anglash yo'lidagi ilk urinishlaridayoq duch kelgan barcha masalalarning negizi hisoblanadi. Muayyan narsalar mavjudligi yoki mavjud emasligi masalasi inson falsafiy mulohaza yurita boshlagani zahotiyoq uning diqqat markazidan o'rin oldi. Mifologiyaning bosh vazifasi – «borliqni kim yaratgani» haqida gapirib berishni, falsafa «borliqning nimaligi, u qaerdan paydo bo'lgani va qaerga yo'qolishi»ni oqilona tushuntirish bilan shug'ullanadi. Bunday tushuntirishga urinish jarayonida faylasuflar barcha zamonlarda quyidagi savollarga javob topish zaruriyati bilan to'qnash kelganlar:

- falsafiy kategoriya sifatidagi «borliq» nima?

- bu atama nimaga nisbatan tatbiq etilishi mumkin?
- unga qanday falsafiy mano yuklanadi?

Bu savollarga keng javob berish falsafa tarixiga ham, mazkur tushunchaning etimologiyasiga ham murojaat etishni nazarda tutadi. «Borliq» falsafiy kategoriyasi dunyoning ayniqsa keng tarqalgan tillarida ayni bir mano – «bo‘lish», «mavjud bo‘lish», «hozirlik», «hozir bo‘lish», «mavjudlik» manolarini anglatadi. Jahonning aksariyat tillarida yuqorida sanab o‘tilgan va mano jihatidan unga yaqin fellar negizini tashkil etadigan «bo‘lmoq» feli, o‘zining bevosita manosidan tashqari, yordamchi fel sifatida ham faol ishlatiladi. Fikr qaratilgan narsa mavjudligi (yoki mavjud emasligi)ning ayni shu dalili har qanday tilning ilk jumlaridayoq tom manoda universal fel (yoki uning modifikatsiyalari) bilan aks ettiriladi: o‘zbek tilida - «bo‘lmoq», «bor», ingliz tilida – is, nemis tilida – ist va h.k.

Shunday qilib, «borliq» va «yo‘qlik» kategoriyalarining o‘ziga xosligi, betakrorligi va universal ahamiyati shundan iboratki, ularning falsafiy manosi tavsiflanadigan turli tillarda ular «bo‘lmoq» felidan (yoki uning inkoridan) hosil bo‘lgan tushunchalar hisoblanadi va narsaning o‘zini emas, balki uning mavjudligi yoki yo‘qligini ko‘rsatadi. Masalan, stol bor, yomg‘ir yo‘q, oqlik bor, aks yo‘q, miya bor, g‘oyalari yo‘q va h.k.

Borliq va yo‘qlik dialektikasi. Falsafa tarixida birinchi bo‘lib Parmenid «Borliq bor, yo‘qlik esa – yo‘q», degan fikrni ilgari surgan. Binobarin, yaxshi, yomon, to‘g‘ri, noto‘g‘ri, quvnoq, sho‘r, oq, qora, katta, kichkina kabi va shunga o‘xshash sifatlar borliqqa nisbatan qo‘llanilishi mumkin emas. Borliqni biron-bir koordinatalar tizimiga joylashtirib bo‘lmaydi, uni faqat vaqtda fikrlash mumkin. Muxtasar qilib aytganda, borliqni har qanday voqelik ega bo‘ladigan umumiy, universal va betakror mavjudlik qobiliyati, deb tavsiflash mumkin. Bu fikr esa amalda mavjud narsagina borliqqa ega bo‘lishi mumkin, degan xulosa chiqarish imkonini beradi.

«Yo‘qlik» har qanday tilda amalda mavjud bo‘lmagan narsa bilan tenglashtiriladi va boshqacha tushunilishi mumkin ham emas. Boshqacha aytganda, yo‘qlik borliqni inkor etadi va narsa, jism, hodisa, ong... (yani amalda mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan narsalar) o‘zligini yo‘qotgan holda «yo‘qlik» atamasi ayni shu manoda ishlatiladi va ular haqida ular «yo‘qlikka chekindi», mavjud emas, deyiladi. Lekin sof falsafiy manoda bu fikrni to‘g‘ri deb bo‘lmaydi. Borliq va yo‘qlik o‘rtasida dialektik o‘zaro aloqa mavjud.

Birinchidan, dunyo haqidagi hozirgi tasavvurlarga ko‘ra, biz yashayotgan Olam bo‘shliqdan bino bo‘lgan. Bo‘shliq materiyaning alohida holati. Bo‘shliq fizik borliqning eng boy tipi, o‘ziga xos potensial borliq sifatida namoyon bo‘ladi, zero unda mumkin bo‘lgan barcha zarralar va holatlar mavjud, biroq ayni vaqtda unda aktual tarzda hech narsa yo‘q¹.

¹ Каранг: Малокова О.В. Материя, пространство и время с точки зрения физики XX века / Онтология, гносеология, логика и аналитическая философия. – СПб.: 1997. – С.93.

Yana shuni ham etiborga olish lozimki, fiziklar (D.A.Landau, va boshqalar) nuqtai nazaridan biz yashayotgan Olam ham dunyoda yagona emas, chunki u rivojlanishning turli sikllarini boshidan kechirayotgan turli Olamlarning Cheksiz sonidan tashkil topadi. Shu manoda borliq va yoʻqlikning oʻzaro aloqasi ham nisbiy xususiyat kasb etadi. (bu fikr qadimgi mifologiyada olamning xilma xilligi gʻoyasi bilan uygʻun).

Ikkinchidan, amalda mavjud boʻlgan narsaning obektiv borligʻi yoʻqlikka chekinadi, lekin, shunga qaramay u haqda gapirilayotgan, yani u muayyan narsa sifatida fikrlanayotgan boʻlsa, bu narsa ongda mavjud boʻladi va oʻzining «ikkinchi» borligʻini saqlaydi, ayni holda u dastlabki obektning nusxasi, ideal obrazi boʻlib qoladi.

Shunday qilib, *oʻtgan zamondagi borliq yoʻqlikdir*, deb aytish mumkin. *Borliq doim hozirgi zamonda mavjud boʻladi, u faqat hozirgi zamonda oʻzini namoyon etadi*, basharti u dolzarb va amalda namoyon boʻlish imkoniyatiga ega boʻlsa, agar u potensial, yani axborot manbalarida mavjud yoki uning paydo boʻlishi obektiv rivojlanish mantigʻi bilan belgilangan boʻlsa. Amalda yoʻq boʻlgan narsa haqida ideal obraz sifatida fikrlash mumkin. Boshqacha aytganda, unga ideal obraz tarzidagi ideal borliq shakl-shamoyilini berish mumkin. Oʻtmishga tatbiqan biz borliq haqida faqat shu manoda soʻz yuritishimiz mumkin.

Ayni shu manoda *biz gʻoyalar, narsalar, voqealar, tarixiy shaxslar yoki oʻzimizga yaqin odamlar toʻgʻrisida soʻz yuritimiz, bunda ular yoʻqlikka aylanmagani, balki yangicha mavjudlik, xotira tarzidagi oʻzgacha borliq kasb etganini nazarda tutamiz.*

SHunday qilib, *borliq falsafiy kategoriya sifatida dunyoni butun rang-barangligi va turli-tuman namoyon boʻlish shakllari bilan yaxlit aks ettirish imkonini beradi.* Bunda narsalar, predmetlar, hodisalar oʻz xususiyatlari, xossalari bilan jamuljam holda aks etadi. Dunyoni va uning tarkibiy qismi boʻlmish insonni bilish yoʻlidagi bu muhim qadam bilan dunyoning tabiati va mohiyati, uning rang-barangligi, turli darajalari, koʻrsatkichlari, ramz-alomatlari, shakllari va hokazolar haqidagi mulohazalarning asosiy koordinatalar tizimsi belgilanadi. Buning uchun mohiyat, hodisa, substansiya, materiya, ong, makon, vaqt, qonun kabi yangi falsafiy kategoriyalar muomalaga kiritiladi.

Inson oʻzi va umuman dunyo haqida oʻylar ekan, odatda muayyan narsalar va ayrim tabiiy hodisalar bilan ish koʻradi. Ayni vaqtda u oʻzini qurshagan dunyoni sinchiklab oʻrganish va uning butun rang-barangligini tushunib etish uchun muayyan tayanch nuqtasi boʻlib xizmat qiladigan qandaydir asosning shak-shubhasiz mavjudligini qayd etadi. Falsafa tarixidan biz bunday asos sifatida, masalan, Suqrotdan oldingi qadimgi yunon faylasuflarida tabiat elementlari, oʻrta asrlar falsafasida Xudo, Dekartda: «Men fikrlayapman, demak, mavjudman», degan ongli inson amal qilganini koʻramiz.

Ammo inson bilishning bu birinchi bosqichida to‘xtab qolmagan va o‘zini qurshagan borliqning ko‘p sonli turli-tuman holatlari orasida qolgan barcha narsalardan sezilarli darajada farq qiladigan narsalarni, borliqning ayni shu shakli voqelikning boshqa shakllari va holatlaridan nima bilan farq qilishini aniqlashga harakat qilgan. Bugungi kunda insoniyat borliqning ko‘p sonli turli-tuman shakllaridan ularning ayniqsa aniq bo‘lgan bir nechtasini farqlash imkonini beradigan tajriba va bilim to‘pladi.

Sof borliq g‘oyasi. «Sof borliq» - bu o‘z holicha, barcha konkret belgilaridan xoli ko‘rinishda olingan mavjudlik. *Birinchildan bo‘lib Parmenid (miloddan avvalgi VI asr) borliq tushunchasidan yo‘qlikning mavjud emasligi kelib chiqishini isbotlashga uringan. Amalda biz yo‘qlik haqida hatto fikrlay ham olmaymiz, chunki agar biz u haqda o‘ylasak, u bizning fikrimizda mavjud bo‘ladi, yani borliq sifatida fikrlanadi. Binobarin, yo‘qlikni tasavvur qilish ham mumkin emas, bu esa uning mavjud emasligini anglatadi. Ammo yo‘qlik bo‘lmasa, hech narsa paydo bo‘lishi ham, yo‘q bo‘lishi ham mumkin emas.* Chunki paydo bo‘lish yo‘qlikdan bor bo‘lish, yo‘q bo‘lish esa – yo‘qlikka aylanishdir. Bundan xulosa shuki, borliq «harakatsiz», unda biron-bir o‘zgarish bo‘lishi mumkin emas: har qanday o‘zgarish nimaningdir paydo bo‘lishi va yo‘q bo‘lishi bilan bog‘liq. Bundan tashqari, borliq yagona, bir jinsli va bo‘linmas: uni qismlarga faqat yo‘qlik ajratishga qodir, lekin u mavjud emas. Borliqning chegarasi bo‘lishi mumkin emas, uning boshi ham, oxiri ham yo‘q, zero, hamonki yo‘qlik mavjud emas ekan, borliqni cheklashga qodir bo‘lgan narsa ham mavjud emas.

Gegel «sof borliq» kategoriyasidan foydalanishning boshqacha usulini topgan. Uning ontologik konsepsiyasida bu kategoriya Mutlaq g‘oya rivojlanish mantig‘ining tayanch nuqtasi hisoblanadi. «Sof borliq» va «sof yo‘qlik»ning ayniyligini qayd etgan holda, Gegel bu qarama-qarshiliklar sintezidan iborat bo‘lgan «shakllanish» tushunchasini kiritadi (zero shakllanish nimaningdir borligini anglatadi, chunki «shakllanmoqda», vujudga kelmoqda, lekin hali borliqqa ega emas, chunki «shakllanmagan», vujudga kelmagan). Shundan so‘ng Gegel shakllangan nimadir «shakllanish»ning natijasi bo‘lishini qayd etadi. Bu natija, Gegel fikriga ko‘ra, «mavjud borliq», yani «sof borliq»dan farqli o‘laroq, aniq sifatga ega bo‘lgan borliqdir.

Albatta, Gegelning shakllanish g‘oyasi muayyan narsaning shunday bir holatiki, unda shakllanayotgan narsa bir vaqtning o‘zida ham mavjud bo‘ladi, ham mavjud bo‘lmaydi, degan fikriga qo‘shilish mumkin emas. Ammo har qanday shakllanish – bu qandaydir predmetning «sof yo‘qlik»dan emas, balki ilgari mavjud bo‘lgan boshqa predmetlardan vujudga kelishidir. Har qanday «mavjud borliq» «sof borliq»dan va «yo‘qlik»dan emas, balki boshqa bir «mavjud borliq»dan vujudga keladi. Gegel fikriga zid o‘laroq, «sof borliq»ning «sof yo‘qlik»ka o‘tishi tushunchalar o‘yinidan boshqa narsa bo‘lmay, bundan amalda sifat jihatidan aniq biron-bir borliq vujudga kelmaydi (buni XIX asrdayoq L.Feyerbax va tushunchalar Gegelcha mantig‘ining boshqa tanqidchilari qayd etgan). Ontologiyani «sof borliq» va «sof yo‘qlik» kategoriyalari yordamida tuzishga intilish XX asrning ayrim

faylasuflari ijodida ham kuzatiladi (M.Xaydegger, E.Fink va b.). Ammo, fikrning mazmunini nima fikrlanayotganini ko'rsatmasdan yoritish mumkin bo'lmaganidek, borliq kategoriyasining mazmunini borliqqa nima ega ekanligini ko'rsatmasdan yoritish mumkin emas. Fikr hamisha nima haqdadir fikr bo'lganidek, borliq har doim nimaningdir borlig'idir. «Sof borliq» ham xuddi «sof yo'qlik» kabi mazmunsizdir (bunda Gegel haq). «Sof borliq» tushunchasi quruq mavhumlikdan boshqa narsa emas.

Falsafa tarixida borliq muammosi. Borliq muammosini falsafiy anglab etishga ilk urinishlar miloddan avvalgi birinchi ming yillikda vujudga kelgan qadimgi Markaziy Osiyo, hind va qadimgi xitoy falsafalaridayoq kuzatiladi. Xususan, Markaziy Osiyoning eng qadimiy kitobi "Avesto"da, borliq harakatdagi dunyo, butun jonli va jonsiz narsalarning uyg'unligidagi mavjudlik deb ifodalanadi.

Vedalar (qadimgi hind tafakkurining ilk yodgorliklari) va (ularga diniy-falsafiy sharhlar) –Upanishadalarda yaxlit manaviy substansiya, o'lmas jon haqidagi g'oyalar, shuningdek dunyo haqidagi tasavvurlar o'z aksini topgan. So'nggi zikr etilgan tasavvurlarga muvofiq butun borliqning negizini tabiiy asoslar – olov, havo, suv, yorug'lik, makon, vaqt tashkil etadi. Qadimgi Hindiston mutafakkirlari borliq sirining tagiga etishga harakat qilar ekanlar, quyosh tunda qaerga ketadi, yulduzlar kunduzi qayoqqa yo'qoladi kabi savollarga javob topishga uringanlar va bu tasavvurlarni eng qadimgi kitob – Rigvedalarda aks ettirganlar.

Qadimgi Xitoy falsafasi avvalo ijtimoiy muammolarga qarab mo'ljal olgan, unda inson borlig'iga, shuningdek ijtimoiy borliqqa ko'proq etibor berilgan. Ayni vqtda, tabiatning birinchi asoslari ham etibordan chetda qolmagan. Bu qiziqish, xususan, narsalar va hodisalarning butun rang-barangligini belgilovchi besh stixiya (suv, er, daraxt, temir, olov) haqidagi talimotda o'z aksini topgan. Keyinroq "O'zgarishlar kitobi"da borliqning butun rang-barangligini tashkil etuvchi bunday birinchi asoslarning sakkiztasi qayd etiladi.

Xudolarning kelib chiqishi, ularning hayoti, ishlari, o'zaro kurashi haqida hikoya qiladigan va shu tariqa qadimgi odamlarning dunyoning vujudga kelishi va evolyusiyasi haqidagi tasavvurlarini aks ettirgan kosmogonik miflar Suqrotga qadar avvalo tabiat falsafasi sifatida yuzaga kelgan va rivojlangan yunon falsafasining birinchi manbai bo'lib xizmat qildi. Ilk yunon faylasuflari o'z asarlarini odatda "Tabiat haqida" deb nomlaganlari, ularning o'zlari esa naturalistlar, "fiziklar" deb atalishi bu fikrni tasdiqlaydi.

Qadimgi yunon falsafasi vujudga kelgan paytdan boshlab ular butun borliqning birinchi sababini mavjud voqelikning o'zidan izlaganlar, uni dam suv (Fales) yoki havo (Anaksimend) deb, dam hamma narsani boshqaradigan boqiy va Cheksiz asos – «apeyron»(Anaksimandr taxminan mil. av. 611-545 yillar) deb tavsiflaganlar. Anaksimandr hatto jonli mavjudotlarning tabiiy kelib chiqishi g'oyasini ilgari surgan. Uning fikricha, mazkur mavjudotlar dengiz suvida vujudga kelgan va suv o'tlaridan paydo bo'lgan. So'ngra baliqsimon mavjudotlar quruqlikka

chiqqan va ulardan odamlar rivojlangan. Shunga o'xshash fikrlarni *Ksenofan (mil. av. 580-490 yillar)* ham ilgari suradi. U hamma narsa Yer va suvdan vujudga keladi va rivojlanadi, hatto «biz ham Yer va suvdan paydo bo'lganmiz», deb hisoblaydi.

O'sha davrning bosh falsafiy masalasi – «hamma narsa nima?» degan savolga javob berar ekan, Pifagor (mil. av. 580-500 yillar) «hamma narsa sonidir», degan xulosaga keladi. U Erning sharsimonligi haqidagi g'oyani birinchi bo'lib ilgari suradi.

Parmenid (mil. av. 540-480-yillar) faylasuflar orasida birinchi bo'lib borliqni kategoriya sifatida tavsiflagan va uni maxsus falsafiy tahlil predmetiga aylantirgan. U haqiqiy borliq mohiyatining o'zgarishsizligi haqidagi g'oyani ilgari suradi. Parmenid fikricha, borliq paydo bo'lmagan va u yo'q ham bo'lmaydi, chunki undan boshqa hech narsa yo'q va bo'lishi mumkin ham emas. Borliq yagona (uzluksiz), harakatsiz va barkamoldir. U o'z chegaralariga ega bo'lib, «ulkan mutlaqo yumaloq SHarga» o'xshaydi.

Eleatlar maktabi vakili bo'lgan (*samoslik*) *Melis* «Tabiat yoki borliq haqida» deb nomlangan asarida borliq chegarasiz deb qayd etadi. Uning fikricha, agar borliqning chegarasi bo'lsa, bu borliq yo'qlik bilan chegaradoshdir. Biroq, hamonki yo'qlik mavjud emas ekan, borliq ham chegarali bo'lishi mumkin emas.

Shunday qilib, qadimgi yunon falsafasining Suqrotga qadar bo'lgan davrida ontologiya sezilarli darajada rivojlangan: o'sha davr atoqli faylasuflarining deyarli barchasi borliq muammosini bevosita yoki bilvosita o'rganib, uni, boqiy va barkamol kosmos, «yagona tabiat», yani moddiy-hissiy dunyo bilan tenglashtiradi. Masalan, Empedokl (mil. av. 484-421 yillar) «borliq» atamasini bevosita ishlatmagan bo'lsa ham, «barcha narsalarning to'rt negizi» (olov, havo, suv va er) haqida so'z yuritir ekan, dunyo (kosmos) tuxumsimon ko'rinishga ega deb hisoblagan, hayot nam va issiq suv o'tlaridan kelib chiqqani haqida mulohaza yuritgan. Demokrit va Levkipp atomlarni muayyan modda sifatida tavsiflab, ularni «bo'shliq» - yo'qlikka zid o'laroq, «to'la» yoki «qattiq» borliq bilan tenglashtirgan.

SHu davrda borliqni tushunishga nisbatan dialektik yondashuv ilk bor namoyon bo'ladi. Geraklit (mil. av. 544-483 yillar) butun dunyo muttasil harakat va o'zgarish jarayonini boshdan kechiradi deb hisoblagan va shu munosabat bilan «ayni bir narsa mavjud va nomavjuddir» deb qayd etgan..

Aristotel (miloddan avvalgi 322-384 yillar). «Borliq nima?» degan savol qo'ygan, tafakkur va borliqning bir xilligi g'oyasini ilgari surgan. Aristotelning fikricha, «borliq kategorial so'zlash shakllari orqali ifodalanuvchi barcha narsalarga o'z-o'zidan bog'lanadi. Zero, bunday so'zlash usullari qancha bo'lsa, borliq ham shuncha manoda ifodalanadi. Ayrim iboralar narsaning mohiyatini, ayrimlari - sifatini, ayrimlari - miqdorini, ayrimlari – nisbatini, ayrimlari – harakati yoki

o‘zgarishini, ayrimlari – «qaerda»ligini, ayrimlari – «qachon»ligini anglatgani sababli, borliq ularning har biriga mos manolarga ega bo‘ladi»¹.

Aristotel ontologiyasi asosida uchta talimot yotadi:

a) borliqning kategorial tahlili (kategoriyalar haqidagi talimot)

b) borliqning kauzal tahlili (borliqning sabablari haqidagi talimot)

v) borliqning imkoniyat va voqelik munosabati orqali tahlili. (imkoniy borliqdan voqelikka o‘tish jarayonining tahlili). Demak, Aristotel ontologiyasini tushunish uchun ana shu uch talimot yoki tahlil mazmuniga tayanish kerak .

Borliq tushunchasini Platon (mil. av. 427-347 yillar) sezilarli darajada kengaytirdi. U nafaqat moddiy, balki ideal narsalar ham borliqqa ega ekanligini falsafa tarixida birinchi bo‘lib ko‘rsatib berdi. Platon «haqiqiy borliq» bo‘lishi «obektiv mavjud g‘oyalar dunyosi»ni «hissiy borliq»ga qarama-qarshi qo‘ydi. Bunda u inson ongida mustaqil mavjud bo‘lgan tushunchalar borlig‘ini ham ko‘rsatib o‘tdi va shu tariqa ilk bor «borliq» tushunchasiga amalda mavjud bo‘lgan barcha narsalarni kiritdi.

Borliq muammosiga oid Demokrit va Platon yondashuvi.. Birinchi Demokrit yondashuvi borliqni turli tarzda namoyon bo‘lishi va ongda aks etishi (diskret situativ-empirik) ko‘rinishida tushunishni nazarda tutadi hamda naturalizm sifatida namoyon bo‘ladi. Bu holda borliq muayyan empirik harakatlarga bog‘liq bo‘ladi va insonning har bir kuni nimadan tashkil topsa, Shuning o‘zidagina tashkil topadi. Ikkinchi Platon yondashuvi borliqning mohiyati xususida alohida mushohada yuritishga yo‘naltiradi, bunda borliq g‘oyaga, erishib bo‘lmaydigan orzuga, amalga oshmaydigan, noreal jarayonga aylanadi. Borliqning mazkur sxolastik talqini shiorlar, dasturlar, chorlovlar va deklaratsiyalarda hozirgacha mavjud. Real hayot jarayonida bu ikki qarama-qarshi yondashuv yakka, xususiy va umumiyning o‘zaro aloqadorligi bilan barham topadi. Zero, o‘zining yakkaligida o‘z umumiyligini ifoda etmaydigan, o‘zining mavjudlik holati bilan o‘zgarish va yo‘q bo‘lishni nazarda tutmaydigan bironta ham narsa va hodisa yo‘q. Voqealar borliqning mohiyatini namoyon etadi, haqiqiy hayot faoliyatining parchasi tarzida yangi sifat kasb etadi. Ushbu jarayondagi shakllanish, o‘zgarish, rivojlanish hayot jarayonining tarkibiy qismlaridir. Keyinchalik falsafa tarixida borliqning ko‘p sonli har xil talqinlari shakllandi, lekin ularning barchasi borliq haqidagi hissiy va oqilona tasavvurlar atrofiga u yoki bu tarzda tiziladi. Bunda fikrlar va yondashuvlar rang-barangligi namoyon bo‘ladi.

O‘rta asrlar G‘arb va Sharq falsafasida “haqiqiy borliq” – “Xudoning borlig‘i” va “haqiqiy bo‘lmagan”, yani Xudo yaratgan borliq farqlanadi. Demak O‘rta asrlarda borliqning oliy asosi Xudodir, degan g‘oya ilgari surildi. Barcha barkamolliklar yig‘indisi sifatida Xudo mavjudlik xususiyatiga ham egadir, chunki mavjud bo‘lmagan mavjudot nomukammaldir. Binobarin, hamma narsaning

¹ Аристотел //Всемирная энциклопедия.-Т.: Современный литератор, 2001. – С.24.

mavjudligi Xudoda mujassamdir. Xudo borligi to'g'risidagi ontologik dalilning shiorlaridan biri ana shundan iboratdir. Unga ko'ra, butun dunyoni bir joyga bo'ysunish, quyi va oliyning subordinatsiyasiga asoslangan ierarxik tuzilmalar qamrab olgan. Bunda inson ruhi va ilohiy asosning o'zaro tasiri masalasi bosh muammoga aylanadi.

Foma Akvinskiy ontologiyasida borliq ham ehtimol tutilgan, ham amalda mavjud deb qaraladi. Borliq - ayrim narsalarning mavjudligi, yani substansiyadir. Foma Akvinskiy *imkoniyat* va *voqelik* kabi kategoriyalar bilan bir qatorda *materiya* va *shakl* kategoriyalarini ilmiy muomalaga kiritadi. Bunda *materiya* imkoniyat sifatida, *shakl* esa – voqelik sifatida qaraladi.

Foma Akvinskiy Aristotelning shakl va *materiya* haqidagi asosiy g'oyalaridan foydalanib, din haqidagi talimotni ularga to'la bo'ysundiradi. *Materiya* shaklsiz mavjud bo'lmaydi, shakl esa oliy shaklga yoki «shakllarning shakli» - Xudoga bog'liqdir. Xudo esa sof manaviy mavjudot. Shaklning *materiya* bilan birikuvi moddiy dunyo uchungina zarur. Boz ustiga *materiya* (Aristoteldagi kabi) passivdir. Unga shakl faol tus beradi. Foma Akvinskiy «ilohiy borliq», hamonki u o'z-o'zidan ravshan narsa emas ekan, tafakkurimiz anglashga qodir bo'lgan narsalar orqali isbotlanishi lozim. U Xudo borligining hozirgi zamon katolik cherkovi ham foydalanuvchi o'z dalil-isbotini taklif qiladi. Demak, o'rta asrlarning borliq muammosi teotsentrik xususiyatga ega.

Sharqning buyuk mutafakkiri Forobiy “Fuqarolik siyosati” va “Fozil shahar odamlari” asarida borliq va uning ibtidosi masalasi haqida fikr yuritadi. Forobiy borliq muammosini hal qilishda “vujudi vojib” va “vujudi mumkin”ning o'zaro nisbatiga murojaat qiladi. Uning fikricha “vujudi vojib” barcha mavjud yoki paydo bo'lishi mumkin bo'lgan narsalarning birinchi sababi. Birinchi sabab sifatida u o'zga turtkiga muhtoj emas. U mutloq borliq va donishmandlik ifodasi. “Vujudi mumkin” esa doimo o'zgarishda, ziddiyatli munosabatlarda bo'lib, unda barcha narsalar oddiydan murakkabga, tartibsizlikdan tartiblilikka qarab harakat qiladi. “vujudi vojib“ yaratgan eng buyuk voqelikdan biri inson aqlidir. U “Fuqarolik siyosati” asarida borliqni olti darajaga bo'ladi:

1. Birinchi holatdagi sabab.
2. Ikkinchi holatdagi sabab.
3. Uchinchi holatdagi aqli faol.
4. To'rtinchi holatdagi instinkt.
5. Beshinchi holatdagi shakl.
6. Oltinchi holatdagi *materiya*. Forobiy bu darajalarning har biriga tarifi beradi. Keyin u “uchinchi aql” - aqli faolni tariflaydi. Unga ko'ra, aynan “aqli faol”ga ko'ra, insonning tabiiy, manaviy va ruhiy hayoti shakllanadi.

Forobiy dunyoning rang-barangligini tushuntirish uchun Aristotelning shakl va materiya haqidagi talimotidan foydalangan. Forobiy borliqning birinchi sababi va harakat manbai sifatida Xudo mavjud deb hisoblagan bo'lsa-da, uning falsafasi bilish va borliqning murakkab masalalarini echishga intilish bilan tavsiflanadi. Ayni shu sababli faylasuf borliqning holatlarini, uning shakllarini: oddiy elementlar – havo, olov, er, suvni; shuningdek minerallar, o'simliklar, hayvonlar, inson va osmon jismlarini sinchiklab o'rganadi. Shu tariqa u tashqi dunyoning obektiv mavjudligiga urg'u beradi. Forobiyning falsafiy qarashlari Sharq falsafasining rivojlanishiga kuchli tasir ko'rsatdi.

Ibn Sino fikricha ham borliqning asosi “vujudi vojib” yani Ollohdir. Vujudi vojib bu birinchi mohiyat. Uning mavjudligi sababini boshqa narsalardan qidirish noo'rin. Chunki birinchi sabab uning natijasi bo'lgan xilma xil jarayonlarning mohiyatiga bog'liq bo'la olmaydi¹. Zero vujudi vojibning mavjudligi uning o'ziga bog'liq. U yagona, abadiy mohiyat. Unda kamchilik va qusurlar bo'lishi mumkin emas. Vujudi vojib doimiy faol, unda toliqish sustlik bo'lishi mumkin emas. Vujudi vojib vujudi mumkinning yaratuvchisi. Vujudi mumkinning ichki mohiyati harakat bilan bog'liq. Ibn Sinoning borliq haqidagi qarashlari keyingi mutafakkirlar ijodiga ijobiy tasir ko'rsatdi.

Tasavvuf talimotida borliq muammosi. Tasavvufda oriflar va oshiqalar o'zlarining poetik asarlarida va mifologik g'oyalarida borliq haqidagi bilimlarini bayon etganlar.

Tasavvuf talimotida ontologiya birinchidan, ramz, majozlar, qiyoslarda o'z ifodasini topadi. Ikkinchidan, ushbu ontologiya inson tafakkuriga emas, tuyg'ularga yo'nalgan, musiqa jo'rliqi, tasviriy sanat asarlarida namoyon bo'lgan, “Aruz” vaznida bitilgan maqomlarda kuylangan. Uchinchidan, poeziya qalb faolligining mahsuli hisoblanadi va u asosan, tuyg'ularga tasir etadi. Buni anglashning mantiqiy tafakkurdan yuqori shakli, deyish mumkin. Shu manoda poeziyani tushunish uchun ongning mantiqiy (nazariy) tafakkurdan yuqoriroq shakli – intellektual intuitsiya taqazo etiladi. Chiziqli (mantiqiy) tafakkurning yolg'iz o'zida esa, na intellektual va na estetik (hissiy) intuitsiya ishtirok etmaydi. Shu manoda A.Navoiy aytganidek, majozlar haqiqatga ancha yaqinroq. To'rtinchidan, ramzlar, majozlar hammaga ham aytilishi mumkin bo'lmagan bazi g'oyalarni (sirlarni) muayyan odamlargagina etkazish vazifasini bajargan .

Tasavvuf talimoti vakillaridan biri Nasafiy ontologiyasi sof Vahdat nimaligini tushunishdan boshlanadi. Uning fikricha borliqning mohiyati bo'lgan sof (musaffo) Vahdat (birlik), jism va ruhning manbaidir, u kitob va kalomning ham boshi, malakut (farishtalar) va mulk (moddiyot) olamlarining asosi, butun borliq va odamning manbaidir. Uni sufizmda jabarut, deb ataydilar (Jabarut – arab tilida «Buyuklik», ulug'lik degan manolarni bildiradi). Mulk va malakutda bir jami narsalar Jabarutda (tezis hoida) mavjud, deb ko'rsatiladi (bu Aristotelning

¹ Ибн Сино Трактат о разделении // Классификации существующих вещей//Материалы по истории прогрессивной философии .-М.: 2003. –С. 56

«imkoniyat» kategoriyasida yoki potensiyada o'z ifodasini topgan). Xullas Sharqda ontologiya masalasi Xudo borlig'i bilan bog'liq holda o'rganiladi.

Yangi davrda borliqning mohiyati Xudoning ishlariga emas, balki tabiat qonunlariga bog'lanadi. Tabiat borliqning butun yashirin manosini qamrab oladi, shu sababli u bilan muloqot qilish, uning tabiiylik darajasini sinab ko'rish muhimdir. Tabiatni o'rganuvchi fanlar birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Jamiyatda tashabbuskorlik, faollik va omilkorlikning rivojlanishi individualizmga asoslangan antropotsentristik dunyoqarashni shakllantiradi.

XVII-XVIII asrlarning faylasuflari Golbax, Gelvetsiy, Lametri borliq tushunchasini fizik borliq bilan bog'laydi. Bu faylasuflarning naturalistik qarashlari mexikaning faol rivojlanishi bilan belgilangan va ularning tabiat haqidagi tabiiy-ilmiiy tasavvurlarini aks ettirgan. Bundan borliqni «naturallashtirish» g'oyasi kelib chiqqan.

Spinoza (1632-1677) dunyo haqidagi *monistik talimotni* yaratdi. Uning monizmi panteizm ko'rinishida namoyon bo'ladi: Benedik Spinoza o'z ontologiyasida Xudo va tabiatni ayniylashtiradi, bunda Xudo yaratuvchi tabiat va yaratilgan tabiat sifatida amal qiladi. Ayni vaqtda B.Spinoza birgina moddiy substansiya mavjud bo'lib, uning asosiy atributlari ko'lamlilik va fikrlashdir, degan g'oyani ilgari suradi. Shunday qilib, butun tabiat u Xudo bo'lgani uchunгина emas, balki unga fikrlash xos bo'lgani uchun ham jonli hisoblanadi. Spinoza butun tabiatni jonlantirib, shu tariqa gilozoist-faylasuf sifatida ham namoyon bo'ladi.

Jyulen Ofre de Lametri (1709-1751) moddiy dunyo «o'z holicha mavjud» ekanligiga, uning boshi ham, oxiri ham yo'qligiga ishongan. Lametri talimoti Epikurning atomistik g'oyalari, Spinozaning monistik talimoti va J.Lokk sensualizmi tasirida vujudga kelgan. Lametri jonni aql faoliyati funksiyasi va ko'rinishi deb hisoblagan va Dekartning umrboqiy nomoddiy jon haqidagi g'oyasi asossiz ekanligini isbotlashga harakat qilgan.

Deni Didro borliq muammolarini o'rganish sohasiga dialektikani tatbiq etadi. Uning fikricha, butun materiya his qiladi (bu gilozoizm nuqtai nazari). Ammo u «inert hissiylik» va «faol hissiylik»ni farq qiladi. «Faol hissiylik» muayyan tarzda uyushgan materiyadagina namoyon bo'ladi.

Nemis klassik falsafasi «substansiya» (dunyoni tushunish zamirida yotuvchi, nisbatan barqaror va mustaqil holda mavjud mohiyat), «mutlaq «Men»ning erkin, sof faoliyati» (Fixte), «obektiv rivojlanuvchi g'oya» (Gegel) kabi falsafiy kategoriyalarni qayd etib, borliq muammolari talqiniga yanada teranroq mazmun baxsh etdi.

Jumladan Gegelning «Ruh fenomenologiyasi» asari falsafiy tizimga o'ziga xos debochadir. Bu asarda Gegel inson ongi turli darajalari rivojlanishining izchil qatorini tahlil qiladi.

Gegel tizimining birinchi va muhim qismi – «Mantiq» «Ruh fenomenologiyasi»ning yakuni va xulosasidir. Bu subekt va obektga qadar mavjud boʻlgan «sof fikr» sohasidir. Mantiqda uning oʻzi va mantiq shakllaridan tashqari hech qanday empirik mazmun mavjud emas. Mantiq tarix va tabiatdan oldin paydo boʻlgan. Mantiq ularni yaratgan.

Mantiq uch qismga: borliq, mohiyat va tushuncha haqidagi talimotga boʻlinadi. Borliq va mohiyat tushuncha oʻzini toʻliq namoyon etgunga qadar «koʻtariladigan» pillapoyalar sifatida qaraladi. «Mantiq»da mutlaq gʻoyaning rivojlanishi mavhum mantiqiy kategoriyalar koʻrinishida yuz beradi. Uning tayanch nuqtasi – borliq haqidagi sof mavhum fikr. Dastlab mazmunsiz boʻlgan bu «sof borliq» tushunchasi «nimadir» orqali oʻz mazmunini kasb etishga harakat qiladi. Bu «nimadir», oʻz navbatida, «muayyan borliq»dir. Geigel fikriga koʻra, mutlaq gʻoyaning vujudga kelish jarayoni ayni shu tariqa boshlanadi. «Muayyan borliq» keyingi bosqichda «qandaydir muayyan borliq» sifatida amal qiladi yoki sifat kasb etadi. Sifat kategoriyasi miqdor kategoriyasi bilan birga rivojlanadi. Sifatli miqdor yoki miqdoriy sifat esa oʻlchov hisoblanadi. Borliq haqidagi talimotda Geigel dialektika qonunlaridan biri: miqdordan sifatga va sifatdan miqdorga oʻtish, rivojlanish jarayonlari sakrash tarzida yuz berishini asoslashga harakat qiladi.

Hodisa sifatida tushuniladigan borliqdan Geigel yanada teranroq, ichki qonuniyatlarga – mohiyatga oʻtadi. Bu qismda Geigel qarama-qarshiliklarning bir-biriga oʻtishi, ularning birligi, ayniyat va kurash toʻgʻrisidagi qonunni tahlil qiladi. Geigel fikriga koʻra, ziddiyat – bu qarama-qarshiliklarning oʻzaro nisbatidir. Ular bir-birisiz mavjud boʻlmaydi, lekin turli yoʻldan rivojlanadi va bu ular oʻrtasidagi munosabatlarning keskinlashuviga sabab boʻladi. Ziddiyatni echish yoki unga chek qoʻyish talab etiladi. Geigel ziddiyatni asos va oqibatning, shakl va mazmunning, hodisa va mohiyatning, imkoniyat va voqelikning, tasodif va zaruriyatning oʻzaro nisbatida koʻradi. Ziddiyat haqidagi talimotni rivojlantirar ekan, Geigel ichdan zarur boʻlgan, har qanday oʻzgarish va rivojlanishning manbai sanalgan «oʻz-oʻzidan harakat» haqida xulosa chiqaradi.

XX asrda borliqqa munosabat. *XX asr borliqni tushunishni tarixiylik, insonning mavjudligi, qadriyatlar va til bilan bogʻlab, uning talqinini kengaytirdi.* Neopozitivizm falsafiy yoʻnalishi esa, avvalgi ontologiya falsafaning emas, balki ayrim fanlarning predmeti deb hisoblab, falsafadagi borliq muammosini soxta muammo sifatida talqin qildi.

Borliq mohiyatini tushunib etishda eng yangi qarashning oʻzagini insonning ijtimoiy ijodi tashkil etadi. Bunda borliq hayot faoliyati jarayoni sifatida tushuniladi. Fan-texnika taraqqiyotining suratlari tobora jadallashib borayotgan hozirgi sharoitda mazkur dunyoqarash koʻpincha texnokratik dunyoqarash deb ataladi.

Noklassik borliq. Noklassik falsafa dunyoning aqlga muvofiqligi, shuningdek inson ongining mustaqilligiga shubha bildirdi. Pozitivistlar umuman ontologiyani yaratishdan bosh tortdilar. Irratsionalizm, marksizm va

ekzistensializm da ontologik konsepsiyalar hayot, jamiyat va inson tushunchalari rivojlantirildi, ular borliqning noyob usullari sifatida tavsiflandi. Quyida noklassik falsafada borliqqa munosabatni tahlil qilamiz.

Borliqning irratsionalistik konsepsiyasi. Falsafiy irratsionalizm asoschisi A.Shopengauer olamning aqlga muvofiqligi haqidagi tezisga shubha ko'zi bilan qaraydi. Uning fikricha, borliqning o'zi emas, balki bizning u haqdagi tasavvurimiz aqlga muvofiqdir, zero tasavvur – bu inson aqlining mahsulidir. Ammo tasavvur – bu hodisa, mohiyat darajasida esa dunyoni aqliy idrok etish mumkin emas. Shopengauer o'zining «Dunyo intilish va tasavvur sifatida» deb nomlangan asarida dunyoning borlig'ini ikki tarkibiy qismga – «yashashga intilish sifatidagi dunyo» va «inson tasavvuri sifatidagi dunyo»ga ajratadi. Uning fikricha, yashashga intilish haqiqiy borliqdir. Yashashga intilish ko'r-ko'rona va nooqilonadir, zero uning asosiy niyati – o'z-o'zini asrashdir. O'z-o'zini asrash instinkti – butun tiriklikning tabiiy xossasidir. Ammo Shopengauer romantiklarga ergashib, yashashga intilish dunyoning barcha narsalariga va umuman dunyoning o'ziga xosdir, deb hisoblaydi. Dunyo haqidagi bunday mifopoetik tasavvur hayotda yana tariflar va tushunchalar tilida ifodalab bo'lmaydigan o'ziga xos tabiiy stixiyani ko'rish imkoniyatini beradi.

Fridrix Nitsche (1844-1900) borliqning ikki asosi: dionisiycha hayotiy asos va apolloncha bir yoqlama-intellektual asosni ajratgan va haqiqiy madaniyat bu asoslarni muvozanatga solishga harakat qilishi lozim, deb hisoblagan. Evropa madaniyati mazkur idealni ro'yobga chiqara olmadi va inson borliq deganda stixiyali shakllanishni emas, balki tartibga solinganlikni tushunib, o'z mavjudligining asosiy negizlaridan uzoqlasha boshladi. Vaholanki, hayot abadiy harakat va shakllanishdan iboratdir.

Hayotning mazmun va mohiyati hokimiyatga intilishda namoyon bo'ladi. Bunday intilish butun tiriklikka xosdir. Unga intellektning hukmronligi, o'z yaqiniga muhabbatni targ'ib qiluvchi axloq va tenglikni elon qiluvchi sotsializm monelik qiladi. Bularning barchasi qullar axloqini tashkil etadi. To'ralar axloqi esa hayotning qimmatini, odamlar o'rtasidagi tengsizlik hamda kuchning hukmronligiga asoslanishi lozim. Nitsche «Xudo o'ldi» degan tezisni ilgari suradi. Ushbu tezis yangicha axloqni shakllantirish zarurligini anglatadi. Nitsche falsafasi XX asr falsafasining turli yo'nalishlari: hayot falsafasi, pragmatizm va ekzistensializmga ulkan tasir ko'rsatdi.

Borliqning tarixiy konsepsiyasi. XIX asrda ijtimoiy borliq haqidagi talimot shakllandi. Unga ko'ra, ijtimoiy borliq individning borlig'iga nisbatan ham, ijtimoiy ongga nisbatan ham birlamchidir. Shunday qilib, bu davrda jamiyatga fizik borliqqa o'xshash borliq sifatida qaralgan. Ayni shu sababli jamiyat ham tabiat qonunlariga o'xshash aniq va shubhasiz qonunlarga bo'ysunishiga bu davr mutafakkirlarining ishonchi komil bo'lgan. Ijtimoiy borliq - bu moddiy borliq. U individlarning ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyati bilan belgilanadi. Ijtimoiy borliq qonunlari uning tarixiy rivojlanish jarayonida namoyon bo'ladi. Jamiyat tarixi bu davrda ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlar: ibtidoiy jamoa, quldorlik, kapitalizm va kommunistik tuzumning tadrijiy va

qonuniy ketma-ketligi sifatida talqin qilgan. Unga ko'ra, har bir tuzum ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlarini o'z ichiga olgan tegishli ishlab chiqarish usuli bilan belgilanadi.

Ishlab chiqarish kuchlari (bazis) – bu o'zini o'zi rivojlantirish va o'z-o'zidan murakkablashishga qodir bo'lgan o'ziga xos borliq. Evolyusionizm talimotlarida materiya, Spinozaning «yaratuvchi tabiati» kabi, mustaqil rivojlanish qobiliyatiga ega, moddiy ishlab chiqarish esa moddiy borliqning eng murakkab darajasi hisoblanadi. Bu erda materiya, moddiy borliq, shu jumladan moddiy ishlab chiqarish ijtimoiy organizmga o'xshatiladi va unga hayot alomatlari tatbiq etiladi.

Ishlab chiqarish munosabatlari (bazisning ustqurmasi) formal borliq sohasiga kiradi. Ammo shakl tadrijiy rivojlanishga qodir emas, u faqat o'zgarish jarayonida boshqa shakl bilan almashtirilishi mumkin. SHu sababli ishlab chiqarish munosabatlarining almashuvi «inqilobiy sakrashlar» tarzida kechadi. Bu sakrashlar ishlab chiqarish kuchlari bilan muvofiq kelishi ham (bu hol formatsion o'sish davrida kuzatiladi), ularning rivojlanishiga to'sqinlik qilishi ham mumkin. So'nggi zikr etilgan holat ishlab chiqarish munosabatlarining yangi ishlab chiqarish kuchlariga muvofiq keluvchi yanada barkamolroq shakliga inqilobiy yo'l bilan o'tilishiga olib keladi. Bunda yangi ishlab chiqarish kuchlari eskilaridan mustaqil o'sib etiladi. Masalan, feodal tuzumda kapitalistik ishlab chiqarish kuchlari mustaqil o'sib etilgan va eski ishlab chiqarish munosabatlari bilan to'qnashib, burjua inqilobi jarayonida yangi – kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlariga ega bo'lgan. Ular ishlab chiqarishning kapitalistik usuli va ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan mulkdorlikning kapitalistik shakliga muvofiq keluvchi yangi qonunlar, yangi huquq, axloq va yangicha dunyoqarashni o'z ichiga oladi. Borliqning ushbu konsepsiyasi tarixiy voqelikda o'zini oqlamadi.

Borliqning ekzistensial-germenevtik konsepsiyasi. Ekzistensialistlar mushohada yuritish orqali anglab etish mumkin bo'lgan mohiyat (essensiya)ni amalda mavjudlik (ekzistensiya)ga qarshi qo'yadilar. Ular borliqning mazmuni to'g'risidagi masalaga qaytish lozimligini etirof etadilar. Lo'nda qilib aytganda, borliqning oqilona tavsifi uning asl mazmunini yoritib berishga qodir emas. Bunday mazmun hayot tajribasida, yani «shu erda-borliq» yoki mavjudlik orqali namoyon bo'ladi. Germenevtika borliq sxemasi yoki formulasini aniqlashga emas, balki uning mazmunini bilishga qaratilgan. Falsafiy muammo sifatidagi borliqning mazmuni insonni o'z mavjudligining pirovardligi va tasodifiyligini anglash natijasida yuz bergan shokdan xalos etishi lozim. Bir so'z bilan aytganda, bu erda aristotelcha analitikaga xaydeggercha germenevtika qarshi qo'yiladi.

Borliq germenevtikasi oqilona-sxematik yoki metafizik bilimga ishonchsizlik ko'zi bilan qarashga asoslanadi. Falsafa tarixida germenevtikaning ayrim tarafdorlari: a) mistik; b) estetik; v) intuitiv; g) irratsional narsalar va hodisalarga qarab mo'ljal oladilar. Dunyoni anglab etish mazkur usulining aks sadolari Pifagor (osmon musiqasiga quloq solish), Platon (g'oyalar xususida mushohada yuritish), Tertullian (absurd orqali haqiqatning tagiga etish), Paskal (aql haqiqatlariga yurak

haqiqatini qarshi qo'yish), romantiklar, Kerkegor, SHopengauer va Nitsche metodida mavjud.

Borliq va mavjudlik konsepsiyasi M.Xaydegger loyihasining tayanch nuqtasi hisoblanadi. (1889-1976. Bu loyihani ishlab chiqish bilan u asosan «Borliq va vaqt», «Fenomenologiyaning asosiy muammolari» asarlarida shug'ullanadi). M.Xaydegger fikricha borliq, mavjudlikning borlig'i, lekin borliq mavjudlikdan kelib chiqadigan yo'qlik emas, yani u mavjudlik hisoblanmaydi. Bu erda Xaydegger I.Kantning borliq predikat emas, degan fikriga qaytadi. Ammo bu holda borliq nima? Keng tarqalgan tasavvurga ko'ra, mavjud narsalarning barchasi ayni bir borliq usuli – mavjudlik bilan tavsiflanadi. Shunga muvofiq tabiat va ruh (g'oya va narsa, res cogitans va res extensia) farqlanadi. Ammo bu farqlash borliqning usullari o'rtasidagi farqni ifodalashga qodir emas. U faqat mavjud narsaning mohiyatini belgilovchi unsurlar o'rtasidagi farqni aks ettiradi.

M.Xaydegger fikriga ko'ra, borliq usullarini ajratishning haqiqiy yo'li borliqning mohiyati (essentia) va usulining bir-biriga mansubligini mohiyat va usulning borliq g'oyasiga mansubligi nuqtai nazaridan tahlil qilishga asoslanadi. Nemis mutafakkiri borliqning olti usuli: ekzistensiya, birgalikda mavjudlik, qo'l ostidalik, hozirlik, hayot va barqarorlikni farqlaydi. Bu usullarning barchasi bir-biridan shu darajada farq qiladiki, «borliq» tushunchasining yagonaligini shubha ostida qoldiradi. Bu erda mavjudlik to'g'risidagi masala Xaydegger qarshisida eng muhim masalalardan biri sifatida ko'ndalang bo'ladi.

Mavjudlik tushunchasining tahlili uning «hozirlik», «dunyo» va «qo'l ostidalik» tushunchalari vositasida ifodalanuvchi fenomenlar bilan ontologik o'zaro aloqasini qayd etishdan boshlanadi. Bunda mavjudlikni borliq turlaridan biri sifatida tushunish mumkin emasligi, mavjudlik muammosini, «uning shartlari va chegarasini» atroflicha o'rganish zarurligi takidlanadi. Faylasuflar hatto mavjudlik to'g'risidagi masalani qo'yish usulida ham aniq bir to'xtamga kelganlari yo'q. Bu xususda Xaydegger «ongga nisbatan transsendent» bo'lgan narsa mavjudmi, tashqi dunyoning mavjudligini isbotlash mumkinmi, mavjudlikni anglab etish mumkinmi qabilidagi masalalarni va nihoyat, mavjudlikning mazmuni to'g'risidagi masalani aralashtirish odat tusini olganini takidlaydi.

Yuqorida zikr etilgan har xil, lekin o'zaro bog'langan masalalar xaydeggercha talqinida mavjudlik muammosi uch qismga ajratiladi: a) borliq hamda «tashqi dunyo»ni isbot qilish mumkinligi muammosi sifatidagi mavjudlik; b) ontologik muammo sifatidagi mavjudlik; v) mavjudlik va tavajjuh.

Birinchi muammoni tahlil qilar ekan, Xaydegger tashqi dunyoning mavjudligi yoki uni isbotlash to'g'risidagi masala bir vaqtning o'zida manosiz va ikki manoli ekanligini qayd etadi. Masalaning manosizligi shu bilan izohlanadiki, mazkur masala dunyoda borliq sifatida mavjudlik bilan qo'yilgan. Masalaning ikki manoliligi, Xaydegger fikriga ko'ra, bir-biridan farq qiladigan ikki narsa: nimadadir borliq sifatidagi dunyo va ichki mavjudlik sifatidagi «dunyo»ning aralashuvi tufayli

kelib chiqadi. Tashqi dunyoning mavjudligi to'g'risidagi masala bu erda dunyo fenomeniga oydinlik kiritmasdan qo'yiladi. Buning oqibatida amalda isbotlanayotgan narsa yoki hodisaning isbotlash usuli va isbotlashning elon qilinayotgan maqsadi bilan aralashuvi yuz beradi.

Shunday qilib, Kant falsafadagi janjal deb nomlagan masala – tashqi dunyo mavjudligining dalil-isbotlari yo'qligi Xaydeggerga muammoni noto'g'ri qo'yish bo'lib tuyuladi. U bunday isbotlashni amalga oshirishni ko'zlagan shaxslarning shu erda hozirligining o'ziniyoq mavjudlikning isboti deb hisoblaydi. Xaydegger fikriga ko'ra, hatto dunyoning mavjudligiga ishonish lozimligini takidlovchilar ham, adashadilar, zero ular bunday dalil-isbotlar idealda mavjud bo'lishi lozimligini tasdiqlaydilar.

Borliqning ezoterik talqini. *Ikki xil borliqning mavjudligi ezoterizmning asosiy g'oyasi hisoblanadi. Ezoterik qarashlarga ko'ra, bu borliqlarning biri mutlaqo ideal xususiyat kasb etadi (bu ezoterika atamalarida nozik darajalarda mavjudlikni anglatadi), ikkinchisi esa insonning kamolotga eltuvchi yo'lni bosib o'tish va o'zini ham, kosmosni ham o'zgartirishga bo'lgan intilishini aks ettiradi. Bundan ezoterizmning ikki aniq yo'nalishi kelib chiqadi. Ularning biri teran ong va ulkan istedodga ega bo'lgan komil inson g'oyasiga, ikkinchisi – «Xudoning Erdagi saltanati» xoliyazmik formulasi bilan moddiylashtirilgan g'oyaga o'xshab ketadigan hayotni o'zgartirish g'oyasiga ishora qiladi.*

Ezoterik mulohazaga misol: «Yangi davr» g'oyasining targ'ibotchisi Sherli Makleyn shunday deydi: «Men kosmik aqldan, manaviy ziyodan olgan fikrlarning eng muhimi bu Xudo – bizning o'zimiz, degan fikrdir. Borliqning biz anglab etgandan muhimroq qandaydir darajasi bor»¹. Bazan bu borliqdan uzoqlashishga, bazan – mantiqqa zid bo'lgan noizchil xatti-harakatlarga, bazan – hamma narsani o'zgartirish mo'ljali bilan bog'liq bo'lgan haddan tashqari soxta faollikka olib keladi.

Oqilona ilmiy bilim, odatda, noemotsional va shaxssiz obektiv bo'lsa, ezoterik ananada emotsional kechinmalarning mexanizmlaridan foydalanmasdan, xususan oq afsungarlik bilan bog'liq holda fikrlar, so'zlar va xatti-harakatlarda ezgulik va ziyoga qarab, qora afsungarlik bilan bog'liq holda esa – yomonlik va riyoga qarab mo'ljal olmasdan yashirish bilimni o'zlashtirish mumkin emas.

Ezoterik fanlar ikki asosiy maqsadni: avvalambor, odatdagi tajriba chegarasidan tashqarida yotuvchi dalillarni bilishga qaratilgan marifiy maqsadni va tashqi dunyo jarayonlarini boshqarish bilan bog'liq bo'lgan boshqaruvga doir yoki kiber-maqsadni ko'zlaydi. Nazariyalar, talimotlar va ilmiy konsepsiyalarning o'zgarish intensivligiga teng bo'lgan davriylikka ezoterizmga duch kelish mumkin emas. U ichdan harakatchan; uning faolligi nyuanlar va shaxsiy xususiyat kasb etuvchi yondashuvlarning rang-barangligida namoyon bo'ladi. Ammo u o'z

¹ Новая эра приглашает // Свет. 1977. №1. – 3-6.

tabiatiga ko‘ra ancha turg‘un, chunki poydevor sifatida qo‘yilgan qadimgi germetik talimotga, qadimgi ajdodlarimizning xufyona donishmandligiga tayanadi.

Borliq shakllari. Borliqning umumiy manzarasini yaratish zaminidan notirik tabiat o‘rin oladigan o‘ziga xos piramida hosil bo‘ladi. *Borliqning shakllari notirik tabiat, tirik tabiat, ijtimoiy borliq, inson borlig‘i va virtual borliq, energik borliq kabilardir.* Borliqning bu umumiy shakllari o‘ziga xos xususiyatga, o‘zining betakror mohiyatiga egadir. Borliqning turli shakllarini jonsiz tabiatdan boshlab mufassalroq ko‘rib chiqamiz, zero u hozirgi zamon fani nuqtai nazaridan jonli va ijtimoiy tabiatning negizi hisoblanadi.

Tabiat borlig‘i birlamchi (yani inson va uning faoliyatidan qati nazar mavjud bo‘lgan narsalar va jarayonlar borlig‘i) va ikkilamchi (yoki odamlar tomonidan yaratilgan narsalar va jarayonlar borlig‘i) tabiat borlig‘iga bo‘linadi. Birlamchi tabiat notirik tabiat narsalari va jarayonlarining borlig‘i – butun tabiiy va suniy dunyo, shuningdek tabiatning barcha holatlari va hodisalari (*yulduzlar, sayyoralar, er, suv, havo, binolar, mashinalar, aks sado, kamalak, ko‘zgudagi aks va sh.k.*)dir. Birlamchi tabiat borlig‘i ikki darajani o‘z ichiga oladi. Birlamchi daraja jonli ruhsiz jismlardan, yani ko‘payish qobiliyatiga ega bo‘lgan, atrof muhit bilan moddalar va energiya almashinuvini amalga oshiradigan, lekin ongga ega bo‘lmagan barcha narsalar, yani sayyoramiz hayvonot va o‘simliklar dunyosini o‘z ichiga olgan butun biosferadan iborat. Ikkilamchi daraja – bu inson ongingning borlig‘i bo‘lib, bu odamzod yaratgan yoki o‘zgartirgan tabiatdir. Tabiat makon va vaqtda Cheksiz hamda abadiydir. Ikkilamchi yoki inson tomonidan yaratilgan tabiat birinchi tabiatga bog‘liq. Bir tomondan, ikkilamchi tabiatda birlamchi tabiat materiali, boshqacha aytganda obektiv birlamchi borliq mujassamlashgan, boshqa tomondan esa – unda insonning mehnati, irodasi va bilimlari, uning qalbi o‘z ifodasini topgan. Ikkilamchi tabiat – bu mehnat qurollari va sharoitlari, aloqa vositalari, inson ruhining ehtiyojlari, marifatli borliq, moddiy va manaviy madaniyatni belgilovchi barcha narsalar va jarayonlardir.

Inson borlig‘i uning tabiatning bir qismi sifatida jismoniy mavjudligini va alohida inson borlig‘ini farqlash o‘rinli bo‘ladi. Inson tabiatning bir qismi hisoblanadi va shu manoda uning qonunlariga bo‘ysunadi. Tananing mavjudligi inson o‘limga mahkum ekanligini belgilaydi. Inson borliq va yo‘qlik dialektikasi bilan bog‘lanadi, barcha tabiat jismlari kabi vujudga kelish, shakllanish va halok bo‘lish holatlaridan o‘tadi. Barcha tabiat jismlari kabi, inson tanasiga ham modda va energiyaning saqlanish qonunlari o‘z tasirini ko‘rsatadi, yani uning tarkibiy qismlari tabiatning boshqa holatlariga o‘tadi. Inson tanasi mavjud bo‘lishi uchun uni muttasil quvvatlash (ovqatlanish, sovuqdan va boshqa xavf-xatarlardan saqlash) talab etiladi. Fikrlash uchun inson tanasining tirikligini taminlash zarur. Bundan hayotni saqlash, insonning o‘z-o‘zini saqlashi va insoniyatning yashovchanligini taminlash zaruriyati kelib chiqadi, bu oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak, turar joy, sof atrof muhitga ega bo‘lish ehtiyojida o‘z ifodasini topadi;

Manaviy borliq subektiv individuallashtgan va obektiv (noindividual) manaviy borliq sifatida mavjud. Individuallashtgan manaviy borliq - bu insonning ichki dunyosi, u onglilik va ongsizlikni qamrab oladi. Bunday yondashuvga ko'ra, ruh – individual ong bilan ayniy tushuncha, tor manoda esa u tafakkurdir. Ong – inson bosh miyasining dunyo borlig'ini izchil aks ettirish, uni obrazlar va tushunchalarga aylantirish qobiliyati. U taassurotlar, sezgilar, kechinmalar, fikrlar, shuningdek g'oyalar, e'tiqodlar, qadriyatlar, mo'ljallar, andozalarning ko'rinmas jarayoni sifatida mavjud. Ong tez oqadigan va bir xil bo'lmagan orqaga qaytmaydigan xususiyatga ega. Shaklan bu jarayon tartibsiz, lekin shu bilan bir vaqtda unda muayyan tartib, barqarorlik, struktura, muayyan darajada intizom va iroda mavjud.

Inson ongi ayni vaqtda uning o'z-o'zini anglashi, yani o'z tanasi, fikrlari va tuyg'ularini, o'zining boshqa odamlarga bo'lgan munosabatini va o'zining jamiyatdagi o'rnini anglab etishi, yani o'zini o'zi bilishdir. O'zlikni anglash – bu ongimizning o'ziga xos asosidir.

Individual ong o'zining o'limga mahkumligi bilan tavsiflanadi, lekin uning ayrim qismlari noindividual manaviy shakl-shamoyil kasb etadi, shuningdek boshqa kishilar mulkiga aylanadi. Xatti-harakatlarda inson ongining fragmentlari moddiylashadi, ularga qarab odamlarning niyatlari, mo'ljallari, maqsadlari, g'oyalari haqida xulosa chiqariladi. Noindividual manaviy borliqning o'ziga xos xususiyati shundaki, uning elementlari saqlanadi, takomillashadi va ijtimoiy makon va vaqtda erkin harakatlanadi;

Ijtimoiy borliq ayrim insonning jamiyatdagi borlig'i va jamiyatning borlig'iga bo'linadi. Har bir inson boshqa odamlar bilan muttasil aloqa qiladi, turli ijtimoiy guruhlar: oila, ishlab chiqarish jamoasi, millatning azosi hisoblanadi. U boshqa individlar bilan yaqin aloqa qilib yashaydi. Odamlarning barcha faoliyati mazkur sotsiumga xos bo'lgan ijtimoiy munosabatlar, chunonchi: siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, axloqiy va boshqa munosabatlar doirasida amalga oshiriladi.

Virtual borliq (lotincha Virtualis – mumkin bo'lgan) narsalar va hodisalarning vaqt va makonda moddiy mavjudligiga qarama-qarshi o'laroq, obektiv narsalar yoki subektiv obrazlar mavjudligining nomoddiy turi. Uning zamirida Birinchi marta XX asr 60-yillarining o'rtalarida paydo bo'lgan kompyuterlar yordamida dunyolar modelini yaratish mumkin, degan g'oya yotadi.–

«Virtual borliq» atamasi 1970 yillarning oxirida Massachuset texnologiya institutida Jeron Lener tomonidan o'ylab topilgan. U 1984 yilda dunyoda birinchi virtual borliq firmasini tashkil etdi. Bu atama kompyuterda yaratiladigan muhitda insonning mavjudligi g'oyasini ifoda etadi, amerikalik kinematografchilar tomonidan muomalaga kiritilgan.

Virtual borliq - inson real borliqda harakat qilayotgani illyuziyasini kompyuterda yaratish imkonini beruvchi interfaol texnologiya. Bunda obektiv borliqni tabiiy sezgi organlari yordamida idrok etish o'rnini maxsus interfeys, kompyuter grafikasi va ovoz vositasida suniy yaratilgan kompyuter axboroti

egallaydi. Virtual borliq amalda yo‘q narsa, uni qo‘l bilan tutish, uning tami va hidini his qilish mumkin emas. Shunga qaramay, u mavjud va inson bu xayoliy olamga kirib, uni nafaqat kuzatadi va boshdan kechiradi, balki unga tasir ko‘rsatish imkoniyatiga ham ega bo‘ladi, ushbu olamda mustaqil harakat qiladi, uni o‘zgartira oladi. *Virtual olam – inson borlig‘ining o‘ziga xos shakli va odamlar manaviy aloqasining alohida madaniy ifodasidir.*

Ammo virtual borliq real fizik borliqdek lazzat baxsh eta olmaydi, chunki bu borliq tasirida vujudga keluvchi his-tuyg‘ular ko‘p jihatdan uning o‘zi bilan emas, balki uni biz qanday idrok etishimiz bilan belgilanadi. Biz virtual dengizda cho‘milishimiz mumkin, ammo bunda paydo bo‘luvchi his-tuyg‘ularimiz bu dengizni biz qanday idrok etishimizga bog‘liq bo‘ladi. Virtual tarvuz haqiqiy tarvuzdan shirin emas, virtual kolbasa haqiqiy kolbasa o‘rnini bosa olmaydi va h.k.

Virtual borliqni odamlar yaratadi. Shu bois, virtual borliqda mavjud barcha narsalarning manbai inson ongidir. Binobarin, virtual borliq ong, ong osti sohasi va fantaziya chig‘irig‘idan o‘tuvchi fizik borliqdan shakllanadi. Virtual borliq obektiv tarzda, yani inson miyasida emas, balki kompyuterda mavjud bo‘ladi. Ayni vaqtda, u inson ongining mahsulidir. Inson tomonidan yaratilganidan keyin u inson ongidan qat’iy nazar yashashda davom etadi, bu ongga har xil tasir ko‘rsatadi, mazkur ongning mazmuniga – bilimlar, emotsiyalar, kayfiyat hamda ongning boshqa unsurlariga qarab, har xil idrok etiladi.

Bugungi kunda virtual borliq inson madaniy faoliyatining turli sohalarida qo‘llanilmoqda. Virtual borliqdan eng avvalo u vujudga kelgan sohada, fanda – fizikada suyuqlik va gazlar dinamikasini modellashtirishda, kimyoda kimyoviy reaksiyalar modelini tuzishda, geologiya va geografiya fanlarida foydalanilmoqda. Muhandislik sohasida, ayniqsa, xavfli sharoitlarda: ochiq kosmosda, dengiz va okeanlarning chuqur joylarida, yadro muhandisligida robotlarni masofadan turib boshqarishda virtual borliq keng qo‘llanilmoqda. Muhandislik dizaynini avtomatlashtirish jarayonida virtual borliq texnologiyasi ayniqsa qo‘l kelmoqda. Kompyuter dizayni va uning ajralmas hamrohi – kompyuter ishlab chiqarishi raketalar va samolyotlar, avtomobillar katta binolar konstruksiyalarini sinovdan o‘tkazishda yagona jarayonga birlashtirildi. Virtual borliq texnologiyasidan harbiylar ham keng foydalanmoqdalar. Masalan, AQSH armiyasida harbiy xizmatchilarda merganlik ko‘nikmalarini shakllantirishda imitatorlardan, jang sharoitida tez va to‘g‘ri qarorlar qabul qilish ko‘nikmasini shakllantirish uchun esa harbiy doktorlardan foydalaniladi. Juda qimmatga tushadigan va atrof muhitga katta zarar etkazadigan harbiy mashqlar imitatsiya qilinmoqda. Tank qismlarida tankdan o‘q uzishni hamda tank jangida askarlar va ofitserlarning shaxsiy ishtirokini imitatsiya qiluvchi harbiy o‘yinlardan foydalanilmoqda. Loyihalashtirilgan, lekin hali yasalmagan qurol-aslaha turlari sinovdan o‘tkazilmoqda. Harbiylar olingan malumotlarni tahlil qilish va ularga baho berish uchun ham kompyuter imitatsiyasidan foydalanmoqdalar.

Talim sohasida mashq trenajyorlarini yaratishda virtual borliq texnologiyasidan foydalanilmoqda. Virtual kutubxonalar va muzeylar tashkil etish jarayoni boshlandi. Masalan, virtual kutubxonalarda foydalanuvchi kompyuter yordamida kitob javonlarining vizual tasviri bo‘ylab harakatlanishi, kerakli adabiyotlarni topishi va olib ko‘zdan kechirishi, zarur holda esa ulardan nusxa ko‘chirishi mumkin.

Virtual muzey konsepsiyasi bir qadar boshqacha. Virtual muzey foydalanuvchilarga kolleksiyadagi istalgan eksponatni uning tabiiy, uch o‘lchovli ko‘rinishida ko‘rish imkonini beradi. Ammo bu tasviriy echish qobiliyati ancha yuqori bo‘lgan displeylarni taqozo etadi.

Shunday qilib, virtual borliq nazariy izlanishlardan ommaviy axborot vositalari va telekommunikatsiyalar ajralmas qismi bo‘lgan hozirgi zamon madaniyatining tarkibiy qismiga aylandi.

Energiya borliq shakli. Fanning fundamental qonunlaridan biri – energiyaning saqlanish va o‘zgarish qonunidir. *Energiya moddiy jismlarning o‘z holatini o‘zgartirish orqali muayyan vazifani bajarish qobiliyati bo‘lib, u yo‘q qilib bo‘lmaydigan, rang-barang o‘zgarishlarga qodir substansiya sifatida, materiya atributi sifatida talqin qilinadi.*

Qadimda suv, shamol va hayvonlarning muskul kuchi ham energiya sifatida tan olingan. Qadimgi misrliklar elkanni yaratib, shamol kuchi va energiyasidan foydalanganlar, uni namoyish etganlar. Evolyusiya qonunlari hamma narsa va jarayonlar nafaqat muskul kuchi bilan yoki fizik energiya tasirida, balki inson miyasi – tafakkur energiyasi yordamida ham amalga oshirilishini talab qiladi.

YUnon tiliga mansub «energiya» tushunchasi Aristotel tomonidan ko‘p qo‘llanilgan. Dunyoning tabiiy ilmiy manzarasi doirasida energiya haqidagi tasavvurlar mexanikada shakllangan va bu atama fanda birinchi marta 1807 yilda qo‘llanilgan. U bilan bir vaqtda «kuch» atamasidan ham foydalanilgan. G.Leybnits energiya hodisasini «jonli kuch» deb tavsiflagan. G.Gelmgols ilmiy muomalaga kiritgan potensial energiya haqidagi tasavvurni «kuchlanish kuchi» deb nomlagan.

XIX-XX asrlar chegarasida fizikaning rivojlanishi harakatning yangi turlari kashf etilishiga olib keldi, lekin ularda aynan nima harakatlanishi nomalum bo‘lib qoldi. Ayrim olimlar bu holatdan foydalanib, materiyasiz harakat mumkin emasligini isbotlashga urindilar. Elektron tabiat hali yaxshi o‘rganilmagani tufayli, elektron muayyan «nomoddiy kuch», moddiy tashuvchisiz sof harakat, deb elon qilindi. Energiyani barcha hodisalarning birinchi negizi deb biluvchi falsafiy yo‘nalish – energetizm deb nomlanadi. *Energetizmning asosiy tezisi «materiya» tushunchasini malum energiyalar kompleksi bilan almashtirishdan iborat.* Materiya moddaga tenglashtirilgan. Energiya deganda, aksariyat hollarda moddiy harakat tushunilgan.

Materiya va harakatni nafaqat miqdor, balki sifat jihatidan ham yo‘q qilib bo‘lmasligini tan olish muhimdir. Harakatni sifat jihatidan yo‘q qilish mumkinligini faraz etgan holda, uning faqat miqdor jihatidan saqlanishini tan olish Olamning issiqlikdan o‘lishi konsepsiyasiga olib kelgan edi. Bu g‘oya klassik elektrodinamika asoschilari V.Tompson va R.Klauzius tomonidan ilgari surilgan. Ushbu nazariya zamirida termodinamikaning ikkinchi asosi yoki entropiyaning o‘lishi qonunini butun Olamga nisbatan tatbiq etishga urinish yotadi. **Entropiya – xaoslashuv o‘lchovi.** Sadi Karno 1829 yilda tariflagan termodinamikaning ikkinchi qonuni berk tizim yuz berish ehtimoli oz bo‘lgan holatdan o‘zining eng ko‘p ehtimol tutilgan holatiga intilishini ko‘rsatadi. Buni tushunishga kundalik hayotdan olingan quyidagi misol yordam berishi mumkin. Agar suvi qaynab turgan choynakni olovdan olsak, uning qizishi davom etmaydi, (yuz berish ehtimoli oz bo‘lgan holat), balki soviydi (eng ko‘p ehtimol tutilgan holat). Ammo qonun berk tizimlarga, yani o‘zini qurshagan muhit bilan energiya almashmaydigan tizimlarga mo‘ljallangan, bu esa ulkan kuchga ega abstraksiyadir, chunki dunyoda aksariyat tizimlar berk emas. Termodinamikaning ikkinchi asosi berk tizim sifatida talqin qilingan Olamga nisbatan tatbiq etilganida, hisob-kitoblar barcha energetik jarayonlar bir yo‘nalishda yuz berishi lozimligini ko‘rsatdi. Energiyaning o‘zgarish jarayonlarini tavsiflovchi fizik kattalik sifatidagi entropiya o‘shib bordi. Boshqacha aytganda, aql bovar qilmas xaos yuzaga keladi. Energiyaning barcha turlari issiqlik energiyasiga aylanadi va so‘ngra makon bo‘ylab tarqalib ketadi. Olam soviy boshladi. Mutlaq issiqlik muvozanatining yuzaga kelishi Olamning issiqlikdan o‘lishini anglatadi.

Bu qoidalarning mohiyati harakat shakllarining sifat rang-barangligi yo‘q bo‘lishiga yo‘l qo‘yib bo‘lmasligini, yani energiyaning rang-barang turlari issiqlik energiyasiga aylanishi mumkin emasligini ko‘rsatishdan iborat edi. Aslida Olamning issiqlikdan o‘lishi konsepsiyasi tabiiy ilmiy nuqtai nazardan ham asossiz edi. Termodinamikaning ikkinchi asosini butun Olamga nisbatan tatbiq etish imkoniyati uning tuzilishini erkin faraz qilishni, xususan, uni berk deb tasavvur qilishni nazarda tutadi. Lekin Olam berk tizim emas, u zarralar va elementlarning Cheksiz miqdoridan tashkil topgan, shu bois mutlaq termodinamik muvozanat holati unga mos kelmaydi.

Energiya turlarining hozirgi tipologiyasi yo moddiy tashuvchilar – mexanik, issiqlik, kimyoviy tashuvchilarni hisobga olgan holda, yo ularning o‘zaro tasirlari turi – elektromagnit yoki gravitatsion o‘zaro tasirga ko‘ra tuziladi. Mexanik energiya kinetik (harakatlanuvchi jismlar tezligiga bog‘liq) va potensial (jismlar holatiga bog‘liq) energiyaga bo‘linadi. *Termodinamikada erkin va bog‘liq energiya farqlanadi. Bazan tashqi va ichki energiya to‘g‘risida so‘z yuritiladi. Tashqi energiya deganda mexanik energiya, ichki energiya deganda esa to‘liq energiyaning butun qoldig‘i tushuniladi.*

Fandaruhiy energiya tushunchasi qo‘llanilib, ruhiy energiya inson tanasining barcha hujayra va azolariga singib, u erda muayyan tartib, garmoniya yoki disgarmoniya o‘rnatadi, degan talimotga asoslanadi. Bunda inson toliqish his etib, hattoki depressiya holatiga ham tushadi. Insonning ruhlanishi, hattoki, go‘zalligi

ham ruhiy energiya bilan bog‘lanadi. German Gesse «Sharqqa sayohat» asarida agar odam ahamiyatsiz ishlar bilan uzoq vaqt shug‘ullansa, bu uni qo‘zg‘atishi va unga kuch berishini qayd etgan. Binobarin, ahamiyatsiz ishlar bilan shug‘ullanganda hayot energiyasi tiklanadi. Fanda bazilar buni relaksiyalash qonuni deb nomlaganlar. Ammo ruhiy energiya sohasi hozirgacha fanda yaxshi o‘rganilmagan. Ruhiy energiya dunyo va hayotning barcha holatlaridan tasirlanadi yoki tebranadi.

Ezoterika ananasida ruhiy energiyaning boshqa muhim xossasiga, xususan, u makonda qatlam hosil qilishi, insonni qurshagan hamma narsalarga o‘tirib, cho‘kindi hosil qilishiga etibor qaratiladi. Inson nafaqat kosmik energiyani to‘plovchi, balki uning kuchli tarqatuvchisi hamdir. Shu bois ruhiy energiya tashuvchisi – inson qanday bo‘lsa, uning narsalari ham shunday bo‘ladi. Ruhiy energiya qatlamlarining saqlanish yoshi muammoli hisoblanadi. Uni asrlar ham, masofa ham yo‘q qila olmaydi, u ming yilliklar osha yashaydi. Rivoyatlarga qaraganda, atlantlar, misrliklar, xaldeylar ruhiy energiyaning mazkur xossasidan foydalanishgan. Ular muayyan sifatli narsalarga ruhiy energiyani qavat-qavat qilib to‘plaganlar, bu energiya boshqalarga kerakli darajada tasir ko‘rsatishi lozim bo‘lgan. Bunday narsalar terafimalar yoki dam solingan narsalar deb atalgan, ularda energiya qatlamlari to‘planishi jarayonida muayyan duo o‘qilgan.

Bugungi kunda fikr va tasavvur energiyasini hech kim inkor etmasa kerak. Aksincha, zamondoshimiz bu hodisani o‘z hayot tajribasidan olingan misol bilan tasdiqlashga harakat qiladi. Shunga qaramay, «nozik daraja»dagi rang-barang energiya hodisalarining amal qilish mexanizmlarini tushuntirishga urinishlar, asosan, ezoterikaga oid adabiyotlarda uchraydi.

Ruh va materiya, hayot va o‘lim, yaxshilik va yomonlik kabi mutlaqo qarama-qarshi sohalar (oliy ziddiyatlar)ga duch kelinganida, ularni neytrallashtirish, yani uchinchi bog‘lovchi narsani yaratish imkoniyati nazarda tutiladi. SHu tariqa «energiya» tushunchasi qadimgi germetizm talimotida ruh – materiya ziddiyatida o‘rtadagi bog‘lovchi sifatida namoyon bo‘ladi. *Shu asosda butun oraliqdagi narsalar astral, birinchi va uchinchi esa mental va fizik deb ataladi. Shunday qilib, germetizm talimotiga ko‘ra, energiyani o‘rganish astral holatini o‘rganish va bilish demakdir.*

Manaviy rivojlanish ichki manaviyat, inson manaviyatini bilish, anglash va namoyon etishni anglatadi. Ruhiy energiyani sinovchi sabr-toqatli va ezgu niyatli bo‘lishi kerak. U shikoyat qilishi va tushkunlikka tushishi mumkin emas.

Ezoterika namoyandalari ruhiy energiya o‘ta nozik bo‘lgani uchun u bilan o‘ta nozik darajada muomala qilish lozimligini takidlaydi. Oliy energiya bilan muomala qilish ancha jiddiy muammodir. Ruhiy energiya kuchi olov qudrati bilan barobar ekanligini unutmash kerak. Birinchidan, bunday qudratli energiyani asrash lozim. Ikkinchidan, o‘z tafakkurini nafaqat harakatga keltirish, balki harakatdan tiyish uchun ham boshqara olish zarur. Uchinchidan, oqilona sarflangan ruhiy energiya o‘rni darhol to‘ldirilishini etiborga olish lozim.

Substansiya (*lot. substantia – mohiyat, birinchi asos*), narsalarning yagona asosga egaligi, ularning kelib chiqishi bilan belgilangan umumiy va uzviy xossalari esa – **atributlar** (*lot. attributum –xos bo‘lgan, qo‘shib olingan*) degan g‘oyaga asoslanadi. SHunday qilib, biron-bir obektning borlig‘i deganda substansial borliq, yani obektning substansiyadan vujudga kelishi bilan belgilangan borliq tushunilsa, bu obektni mavjud deb hisoblash orqali biz unda muayyan atributlarning mavjudligini taxmin qilamiz (holbuki «sof borliq»dan bunday borliqning tabiati haqida biron-bir taxmin kelib chiqmaydi).

Masalaga bunday yondashilganda borliq nima, degan savol substansiya nima, uning atributlari qanday, degan savolga aylanadi. Falsafa tarixida bu masala echimining turli variantlarini aks ettiruvchi ontologik konsepsiyalar taklif qilingan.

Materialistik ontologiya borliqning asosi moddiy narsalar degan talimot bo‘lib, uni antik faylasuflar yaratgan. Fales butun borliqning birinchi asosi deb suvni, Anaksimend – havoni, Geraklit – olovni etirof etgan. Qadimgi talimotlar orasida Anaksimandr ontologiyasi alohida o‘rin egallaydi. Uning fikricha birinchi asos Cheksiz va sifat jihatidan nomuayyan bo‘lishi kerak, chunki unda narsalarning barcha konkret sifatlari (issiq va sovuq, namlik va quruqlik, achchiq va shirin va h.k.) aralash bo‘lishi lozim. Atomlar, efir, modda – bularning barchasi materiyani barcha narsalarning substansiyasi sifatida tushunishning turli variantlaridir.

Idealistik ontologiya substansial borliqni «narsalar dunyosi» zamirida yotuvchi «g‘oyalar dunyosi» sifatida tasavvur qilingan bu g‘oya Platon falsafasida rivojlantirilgan.

Din ontologiyasida Xudoning substansial borlig‘i tasdiqlanadi. *Ekzistensializm ontologiyasida substansiya g‘oyasi insonga bevosita berilgan borliq - ekzistensiya kategoriyasi bilan bog‘liq. Bunda umid, qo‘rquv, g‘amxo‘rlik, vijdon va shu kabilar borliqning atributlari («ekzistensiallari») hisoblanadi.*

Dualistik xususiyatga ega bo‘lgan ontologik konsepsiyalarda ikki xil borliq va tegishli ravishda ikki substansiya farqlanadi (Dekart). Leybnits ontologiyasi ko‘p sonli substansial shakllar (monadalar)ning mavjudligini nazarda tutadi.

Empirik yo‘nalish vakillari substansiya g‘oyasini tajribadan keltirib chiqarish mumkin emas, deb hisoblaydi. Berkli bizning sezgilarimiz ruhimizdan tashqarida «idrok etilmagan narsalar» mavjudligidan dalolat berishi mumkin emas, deb, moddiy substansiyani rad etgan. Yum Berklining ayni shu fikrini manaviy substansiyaga nisbatan ham tatbiq etgan. Uning fikricha, substansiyaning umumiy (moddiy substansiya ham, manaviy substansiya ham) g‘oyasi xayolot mahsulidan boshqa narsa emas. Biz ayrim narsalarni idrok etamiz, lekin hech qachon ularning o‘rtasidagi sababiy aloqani idrok etmaymiz. Substansiya shunday bir nomki, uning ostida biz o‘zaro bog‘lanmagan ro‘yolarni birlashtiramiz. D.Yum substansiyani umuman borliq tushunchasiga tatbiq etadi. Yum, “Bizning sezgilarimizdan tashqarida biron-bir narsa mavjud yoki mavjud emasligini so‘rash befoydadir. Biz tashqi dunyo mavjud, yani bizga bog‘liq bo‘lmagan va uzluksiz borliqqa ega

ekanligiga ishonishimiz mumkin, lekin u mavjud ekanligini isbotlay olmaymiz. Mavjud bo'lgan narsa mavjud bo'lmasligi ham mumkin... Butun mavjudlikning mavjud emasligi uning mavjudligi kabi aniq va ravshan g'oyadir»¹, deb yozadi. Ammo Berkli va Yum mohiyat etibori bilan shunday bir ontologik konsepsiyani rivojlantirganki, unda substansiya rolini uning «surrogati» - subektda tug'ilgan sezgilar oqimi o'ynaydi.

Substansiya deganda barcha narsalarning muayyan umumiy birlamchi asosi tushuniladi. Turli narsalar va hodisalar vujudga kelishi va yo'q bo'lishi mumkin bo'lsa, substansiyani yaratish ham, yo'q qilish ham mumkin emas, u faqat o'z borlig'ining shaklini o'zgartiradi, bir holatdan boshqa holatga o'tadi. Substansiya – o'z-o'zining sababi va barcha o'zgarishlar asosi, borliqning eng fundamental va barqaror qatlami.

Modomiki, substansiya hamma narsani o'z ichiga oluvchi va o'zi uchun boshqa hech qanday asos yoki shartni nazarda tutmaydigan birinchi sabab ekan, u o'ziga bog'liq bo'lmagan holda mavjud har qanday narsaning mavjud bo'lish imkoniyatini istisno etadi. U xoh Xudo, xoh g'oya, o'zlik, ruh yoki ekzistensiya bo'lsin – substansiya yagonadir! «Substansiya» tushunchasi ko'plikda qo'llanilishi mumkin emas. Uning ko'pligi g'oyasi mazkur tushunchaning tarifiga ziddir, chunki mazkur maqomga davogar ikki yoki bir necha narsa mavjud bo'lgan taqdirda, ularning birontasi ham substansiya hisoblanmaydi. Substansiyalilik paradoksi ana shundan iborat.

Substansiyaning o'z-o'zidan amalga oshishi hodisalarning umumiy, uzviy xossalari – atributlarda va narsalarning muayyan, alohida xossalari – moduslarda sodir bo'ladi.

Substansiya g'oyasidan turli falsafiy talimotlar dunyoning birligi va uning kelib chiqishi haqidagi masalaga o'zlari qanday javob berishiga qarab har xil foydalanadilar.

Substansiyaga oid turli yondashuvlar shakllangan. *Dunyodagi narsalar va hodisalar rang-barangligi bir substansiyadan iborat degan talimot «monizm» (yunon. monos – bitta, yagona) deb ataladi.* Substansiya tabiatini tushunishga nisbatan ancha keng tarqalgan ikki yondashuv – materialistik va idealistik monizmni qayd etish lozim.

Materialistik monizm deb tavsiflanadigan birinchi yondashuv *dunyo yagona va uzviy, u azaldan moddiy va dunyoning birligi zamirida ayni shu moddiylik yotadi,* deb hisoblaydi. Bu konsepsiyalarda ruh, ong va ideallikdan emas, balki moddiylikdan keltirib chiqariladi. Bunday yondashuvlarning o'ta rivojlangan ko'rinishlariga biz Fales, Geraklit, Spinoza, va uning izdoshlari asarlarida duch kelamiz. SHuningdek Zardo'shtiylik dinining muqaddas kitobi bo'lmish

¹ Юм Д. Сочинения. В 2 т.Т.1. -М.: 1965. –С.167-168

“Avesto”ning “Yushtlar” qismidagi ko‘pxudolik aqidalariga zid o‘laroq “Gohlar” qismida yakkaxudolik g‘oyalari targ‘ib qilingan.

Idealistik monizm *materiyani har qanday borliqning boqiy mavjudligi, yo‘q bo‘lmasligi va birinchi asosiga ega bo‘lgan qandaydir ideal narsaning mahsuli* deb hisoblaydi. Bunda obektiv-idealistik monizmni (masalan, Platonda – bu o‘lmas g‘oyalar, zardo‘shiylikda olov, o‘rta asr falsafasida – Xudo, Gegelda – yaratilmaydigan va o‘z-o‘zidan rivojlanadigan «mutlaq g‘oya») va subektiv-idealistik monizmni (masalan, borliqning barcha jismoniy va ruhiy holatlarini «neytral» asosdan – dunyoning qandaydir mavhum konstruksiyalari, «elementlari»dan keltirib chiqargan Max) farqlash mumkin.

Dualizm. *Birinchi asos sifatida ikkita substansiya olingan falsafiy yondashuv dualizm* (lot. dualis – ikki yoqlama) deb ataladi. Nemis faylasufi X.Volf XVIII asr boshida «dualizm» atamasini falsafiy muomalaga kiritgan. X.Volf dunyoda barqaror tartibning shakllanishida tafakkur, g‘oyalar va aql-idrokning alohida o‘rnini aniqlash hamda takidlashga harakat qilgan. Uning zamondoshlari – marifatli absolyutizm g‘oyalarning tarafdorlariga tasiri juda katta bo‘lgan. X.Volfning falsafaga oid qo‘llanmalari barcha o‘quv yurtlarida o‘qitilgan va eskirgan (sxolastik) jihatlarni siqib chiqargan. Ular universitet talimining asosiy manbalari sifatida amal qila boshlagan. Rene Dekart falsafa tarixidan dualizmning yorqin vakili sifatida o‘rin oldi. R.Dekartning radikal mexanitsizmi uni materiyaning butunlay ruhsizligi haqidagi yondashuvga olib keldi. R.Dekart nazarida, moddiy jismoniy substansiya o‘z atributi sifatida uzunlik, kenglik va chuqurlik ko‘lamigagina ega. U mutlaq bo‘shliqni istisno etadi, harakatlanish, yani jismoniy zarralarni bo‘lish, joydan-joyga ko‘chirish va o‘zgartirish qobiliyatiga ega.

Manaviy hayot faylasuf nazarida moddiy hayotdan alohida, o‘zining bilish va fikrlash faoliyati, intellektual intuitsiya va deduksiya kabi o‘ziga xos ko‘rinishlarida namoyon bo‘ladi. U ruhiy substansiyaning butunlay jisimsizligini etirof etdi. Garchi R.Dekart yangi falsafa va fan asoschilaridan biri bo‘lsa-da, uning g‘oyalari o‘rta asr falsafasidan meros qolgan «substansiya» atamasining alohida narsani tushunish uchun qo‘llanilishiga, shuningdek, u ikki muhim - universal va Cheksiz substansiya – fikrlash va ko‘lamni alohida erkin maqomga ega, deb elon qilganiga duch kelish mumkin. R.Dekartning «cogio ergo sum» – «men fikrlayapman, demak, mavjudman», degan iborasi falsafiy tafakkurni barcha narsalarning negizi sifatida tan olganligidan dalolat beradi. R.Dekart fikrlovchi substansiyaning uzviyligini va har bir «Men», yani aqlli jonzotga bevosita, ko‘lamli substansiya esa – bilvosita ochiqligini isbotladi. Ajralmas substansiya (aql) metafizikaning o‘rganish predmetini, ajraluvchi substansiya (ko‘lam) esa fizika predmetini tashkil etadi.

Biroq, ikki substansiya – manaviy va moddiy substansiyalarni farqlash, bu mantiqiy nuqtai nazardan noto‘g‘ri va ratsional manoda juda ko‘p qiyinchiliklarga sabab bo‘lishi mumkin. Fikrlash va ko‘lamga ikki substansiya tarzida, yani bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan mustaqil asoslar sifatida yondashilganida, «ruh» va «tana» o‘z harakatlarida qanday uyg‘unlashishi, umuman, «tana» qanday qilib fikrlash

qobiliyatini kasb etishi mumkinligini tushunish qiyin. Mohiyat-etiboriga ko‘ra, substansiya butun mavjudot asosi, hamma narsani o‘z ichiga oluvchi va o‘zini namoyon qilish uchun hech narsaga muhtoj bo‘lmagan yagona birinchi asos sifatida namoyon bo‘lgan.

Fransuz faylasufi J.Lametri o‘zining «Ruhning tabiiy tarixi» deb nomlangan asarida dualizmni inkor qiladi. U o‘zida tajriba o‘tkazgan – bezgak kasalligiga chalingach, uning kechishini kuzatgan, pirovardida, insonning ruhiy holati uning jismoniy vujudiga bog‘liq, degan xulosaga kelgan. J.Lametri monistik-materializmni himoya qilib, Cheksiz takomillashuvchi yagona moddiy substansiya mavjud, degan g‘oyani ilgari surgan. Substansiyaga xos sezish va fikrlash qobiliyati vujudli jismlarda mavjud bo‘ladi. Sezish va fikrlash qobiliyatining o‘zi tashqi jismlarning miyaga tasiri bilan bog‘liq. Shu sababli aynan tashqi dunyo insonning «miya ekrani»da aks etadi, tana ehtiyojlari esa, J.Lametrining fikriga ko‘ra, «aql mezon» sifatida amal qiladi.

Ikki asos, muhabbat va nafrat, yaxshilik va yomonlik, erkinlik va zaruriyatning teng huquqliligi g‘oyasi ilgari surilgan har qanday falsafiy nazariya dualistik nazariya sifatida amal qilgan.

Plyuralizm(lot. – ko‘plik, ko‘p xillik, ko‘p sonlik) *dunyoning negizida ikkita emas, balki undan ko‘proq mohiyat borligini tan oluvchi talimot.* (Bu atamani falsafaga X.Volf 1712 yilda taklif qilgan).

Leybnitsning «monadologiyasi», yani monadalar haqidagi talimoti plyuralizmning klassik ko‘rinishi hisoblanadi. Ushbu talimotga ko‘ra, dunyo son-sanoqsiz ruhiy substansiyalardan tashkil topadi. Ammo, plyuralistik yondashuvning bundan oldinroq ilgari surilgan ko‘rinishlari ham mavjud. Masalan, Empedokl yaratgan dunyoning to‘rt asosi haqidagi talimot plyuralistik ontologiyaning turlaridan biri sifatida amal qiladi. Bazan plyuralizmga mustaqil talimot sifatida emas, balki dualizmning o‘zgargan ko‘rinishi sifatida qaraladi. Lekin plyuralistlar o‘z nazariyasining asosiy vazifasini dualistik munozaralarda echimini topmagan ruh va tabiat o‘rtasidagi qarama-qarshilik masalasidan farq qiladi, deb biladilar.

Substansiyani barcha o‘zgarishlarning sababchisi va (causa sui) o‘z-o‘zining sababchisi sifatida tushunish I.Kant tomonidan qabul qilinib, yuksak baholangan. U substansiyani «hodisalarning vaqtdagi barcha munosabatlarini aniqlashga yordam beruvchi o‘zgarmas asos»¹, deb tariflagan. Uningcha, substansiya har qanday tajriba va har qanday idrok etishning asosiy shartidir. U barqaror holatda bo‘ladi, har qanday mavjudlik va vaqtdagi o‘zgarish uning modusi, yani o‘zgarmas narsaning mavjudlik usuli sifatida qaralishi mumkin.

Hozirgi zamon falsafasida substansiya kategoriyasining ontologik mazmuni o‘zaro tasir sifatida tushuniladi. Chunki aynan o‘zaro tasir dunyo yaralishining haqiqiy va pirovard sababchisi – narsalarning causa finalisi hisoblanadi. Narsalarni

¹ Кант И. Критика чистого разума. –М.: 1996. –С.47

substansiyalilik nuqtai nazaridan o'rganish ularning mavjudligini ichki sabablar va o'zaro tasirlar nuqtai nazaridan yoritish, demakdir. Shu manoda substansiyani ichki birlik nuqtai nazaridan, uning Cheksiz va rang-barang o'zgarishlaridan qat'iy nazar qaraladigan obektiv borliq sifatida, harakatning barcha shakllari, mazkur harakat jarayonida yuzaga keluvchi va yo'q bo'luvchi tafovut va qarama-qarshiliklar nuqtai nazaridan yondashiladigan materiya deb tariflash mumkin.

Shunday qilib, substansiyaning xususiyatlari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- o'z-o'zini belgilash (o'z-o'zining sababchisi hisoblanadi, uni yaratib va yo'q qilib bo'lmaydi);

- universallik (hech narsaga bog'liq bo'lmagan, barqaror, o'zgarmas va mutlaq birinchi negizni ifodalaydi);

- kauzallik (barcha hodisalarning umumiy sababiy bog'liqligini o'z ichiga oladi);

- yagonalik (birinchi negizning yagonaligini nazarda tutadi);


- yaxlitlik (mohiyat va mavjudlikning birligini ko'rsatadi).

Falsafada «Substansiya» kategoriyasiga «**substrat**» (lot. – to'shama, negiz) tushunchasi yaqin turadi, deb qaraladi. Substrat borliqning eng quyi va asosiy qatlami sifatida tushuniladi. Qadimgi atomistik talimotlarda atomlar ana shunday asos hisoblangan. Har qanday substrat muayyan vujudga kelish jarayonining o'ziga xos xususiyatini ifodalaydi. Hozirgi talqinda, malum fizik jarayonlarning substrati sifatida elementar zarralar va fundamental (kuchli, kuchsiz, elektromagnit va gravitatsion) o'zaro tasirlar amal qiladi. Turli moddalarning hosil bo'lish va o'zgarish jarayonlarida o'zining barqaror holatini saqlab qoluvchi atomlar kimyoviy jarayonlarning substrati sifatida namoyon bo'ladi. Elementar «hayot birliklari» sifatida amal qiluvchi nuklein kislotalar (DNK va RNK) va oqsil moddalarning molekulalari biologik jarayonlar substrati bo'lib xizmat qiladi. Barcha ijtimoiy o'zgarishlar zamirida maqsadga muvofiq faoliyati mavjud bo'lgan inson ijtimoiy hayot substrati hisoblanadi.

Materiya tushunchasining vujudga kelishi va uning funksiyalari. “Materiya” atamasi lotincha *materia* so'zidan kelib chiqqan bo'lib, modda degan manoni anglatadi. Shunga qaramay, falsafa tarixida “materiya” tushunchasining mazmuni bir necha marta o'zgargan, tabiatshunoslikning va falsafaning rivojlanishiga muvofiq rivojlangan.

Hamma narsalarning asosi bo'lgan birinchi modda haqidagi tasavvur materiya bilan bog'langan. Materiya yuzaga keluvchi hamma narsalarning substrati sifatida namoyon bo'lgan.


Materiya haqidagi tasavvur shakllanishining quyidagi bosqichlari farqlanadi.



Birinchi bosqich antik falsafa davrini qamrab oladi. *Falsafa tarixida materiya haqidagi dastlabki tasavvurlar «stixiyali materializm» deb ataladi. Ushbu materializm o‘z rivojlanishining birinchi bosqichida tabiat hodisalarining Cheksiz rang-barangligiga asoslangan birlikni tabiiy hol deb hisoblaydi va uning sabablarini muayyan moddiy, o‘ziga xos narsadan izlaydi. Antik qarashlarga ko‘ra materiya – jismlar va narsalarning o‘zagini belgilovchi birlamchi materialdir. Masalan, qadimgi yunon faylasufi Fales suv o‘simliklar, hayvonlar va odamlarga zarurligini qayd etib, suvni barcha narsalarning asosi deb elon qilgan. Geraklit Quyosh, yulduzlar va boshqa jismlarni yaratuvchi olov hamma narsaning asosi deb hisoblagan.*


Qadimgi yunon faylasuflari orasida Anaksimandr o‘zining materiya haqidagi fikr-mulohazalari bilan alohida ajralib turadi. Uning uchun materiya yoki birinchi modda sezish mumkin bo‘lgan konkret jism emas, balki ayrim nomuayyan o‘zgaruvchi mohiyatga ega bo‘lgan apeyrondir. Atomistlarda materiya tabaqalashgan substrakt ko‘rinishini kasb etadi.

Materiyaning birinchi ilmiy konsepsiyasini miloddan avvalgi V asrda qadimgi atomistlar (Demokrit va boshqalar) taklif qilgan.



Demokrit barcha narsalar oddiy ajralmas zarralar – atomlardan iborat, degan g‘oyani ilgari surgan. Uning tasavvurida bu zarralar bir-biri bilan to‘qnashib, bir-biriga yopishib va bir-biri bilan birikib, biz ko‘radigan narsalarni hosil qilgan. Narsalarning xossalari pirovard natijada ularni tashkil etuvchi atomlar shakli, kattaligi, o‘zaro joylashuvi va harakatiga bog‘liq. Bu barcha narsalarni tavsiflash va tushuntirishga asos qilib yagona umumiy sxemani – bilish obektining har qanday obektni atomlar birikmasi sifatida aks ettiruvchi modelini olish imkonini beradi. Shunday qilib, antik faylasuflar nuqtai nazaridan, materiya – bu barcha narsalar asosi. Odatda bular qadimgi donishmandlarning farazlari bo‘lgan va ularning materializmi o‘ta sodda xususiyat kasb etgan, chunki nazariy xulosalar borliqni kuzatish natijasi, tabiatni eksperimental o‘rganish mavjud emasligi mahsuli bo‘lgan.

Demokrit, Epikur, Lukretsiy Karning atomistik nazariyasida barcha narsalarning substrati sifatidagi materiya atomlar yig‘indisi ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Ular shakli, katta-kichikligi, og‘irligiga ko‘ra har xil, lekin bo‘linmas va yo‘q bo‘lmasdir. Obektlarning rang-barangligi atomlar konfiguratsiyasining turliligi bilan izohlanadi.



Materiya falsafiy kategoriyasini ilk bor Platon ishlatgan. U *hyle* atamasini muomalaga kiritgan va u bilan kattaligi va shakl-shamoyili har xil jismlar paydo bo‘lishiga asos bo‘lib xizmat qiladigan sifatlardan mahrum substrat (material)ni ifodalagan. Platon talqinida materiya shaklsiz va nomuayyan bo‘lib, har qanday geometrik shakl ko‘rinishini kasb etishi mumkin bo‘lgan makon bilan tenglashtiriladi. Keyinchalik materiya haqidagi tasavvurlar asosan uning muayyan xossalari (massa, energiya, ko‘lam) bilan bog‘langan va muayyan turlari (modda, atomlar, korpuskulalar va sh.k.) bilan tenglashtirilgan.

Platonning «Timey» dialogi mazmunidan kelib chiquvchi materiya haqidagi talimot qadimgi yunon falsafasida alohida o‘rin tutadi. Birinchidan, Platon «materiya» tushunchasini ifodalash uchun maxsus atama qo‘llamagan, bu borada tushunish ancha mushkul bo‘lgan «tur» ekani haqidagi ishoradan boshqa aniqroq tushuntirishlar ham bermagan. Ikkinchidan, u har qanday tug‘ilishning «doya»si va «enaga»si bo‘lish materiyaning doimiy vazifasidir, deb hisoblagan. Qaysidir manoda bu asos, lekin shaklsiz asosdir. Hamma narsalarni o‘z ichiga olishi lozim bo‘lgan asos o‘zi har qanday shakldan mahrum bo‘lishi lozim bo‘lganidek, uning vazifasi abadiy yashaydigan barcha mavjud narsalarning shakl-shamoyilini o‘zida aniq va to‘liq mujassamlashtirishdan iborat bo‘lganligi uchun tabiatan har qanday shakldan mahrum bo‘lmog‘i kerak.

Platonning materiya –haqidagi mashhur talimoti o‘zining borliqqa asoslangan mustahkam negizini yo‘qotgan. Uningcha, materiya –tushunchasi aql (demiurg) – birlamchi, sof materiya (etilish joyi va «doya») - ikkilamchi sof materiya (moddiy narsalar) uchligida oraliq o‘rin egallaydi¹. Platon doimo mavjud bo‘lgan va hech qachon shakllanmaydigan narsalarni va doimo shakllanuvchi va hech qachon mavjud bo‘lmaydigan narsalarni farqlashga chaqiradi. Uning fikricha, narsalarning ular ichida tug‘iluvchi va o‘lganidan keyin unga qaytuvchi mohiyatini «u» yoki «bu» so‘z bilan ifodalash, shu tariqa ularga barqarorlik hamda muayyanlik baxsh etish mumkin².

Platon fikriga ko‘ra, borliqning moddiy narsalar dunyosi sifatida shakllanish mexanizmi shundan iboratki, g‘oyaning juda aniq tariflangan birinchi andozasi moddiy borliqdan o‘rin oladi va materiyaga g‘oyalar etiladigan joy, ularning «doya»si va vazifasi bo‘lish majburiyatini yuklaydi. Dunyodagi barcha jarayonlarning maqsadga muvofiqligi haqidagi tasavvur g‘oya va narsalarning o‘zaro bog‘lovchi aloqasi bilan asoslanadi. G‘oya narsalarning Cheksiz hissiy ko‘rinishlarining asosiy manosini belgilovchi asos sifatida va har qanday yakka narsa uchun qonun sifatida tushuniladi.

Platonning muhim, lekin ayni paytda ikkinchi darajali rol o‘ynovchi materiya haqidagi talimoti Aristotelning shu mavzudagi fikr-mulohazalariga bevosita turtki bo‘lgan. Aristotelida «hyule» tushunchasi «morfe» yoki «eydos» («morphe» yoki «eydos») tushunchasi bilan uzviy bog‘liq. Garchi Aristotelning ontologik konsepsiyasida materiya va shaklning dualizmi aniq-ravshan sezilib tursa-da, u hech qachon «hyule»ni mustaqil borliq sifatida tavsiflamagan. Uning fikricha, amalda materiya faqat shakl bilan birikkan ko‘rinishda mavjud bo‘ladi. Materiya «hyule» va «morfe» (shakl) bilan uyg‘unlikda har qanday yuzaga kelish va o‘zgarishning zarur universal negizi hisoblanadi.

Aristotelning materiya haqidagi tasavvuri o‘rta asr falsafasiga ancha o‘zgartirgan ko‘rinishda o‘tdi. O‘rta asr teologlari Aristotelning ilmiy merosidan foydalanib, uning «morfe» (shakl) haqidagi g‘oyasini o‘zlashtirdilar. Ushbu g‘oya boshqa qarashlardan ustun qo‘yildi, u manaviy asos sifatida qarala boshlandi. Mazkur talqin materiyasiz sof shakllar, chunonchi: xudolar, ruhlar, farishtalar, odamlarning o‘lmas ruhlari mavjudligini elon qilish imkonini berdi. Materiya doimiy, u dunyo yaralgunga qadar ham mavjud bo‘lgan, degan g‘oyani ilgari suruvchi «dahriylar» haqida malumotlar «cherkov rahnamolari» o‘rtasidagi munozaralar orqali bizgacha etib kelgan bo‘lsa-da, dunyoning moddiyligini o‘rganish bilan bog‘liq muammolar bu davrda ham to‘la-to‘kis barham topmadi. Materiyaning tabiati haqidagi masalada ular bir to‘xtamga kelmagan bo‘lsalar-da, uni echish fanning rivojlanishida muhim rol o‘ynashiga, zero bilish qaysi yo‘ldan rivojlanishi lozimligini belgilashiga ularning ishonchi komil bo‘lgan. Ular avval barcha narsalarning asosi sanalgan materiyaning nimaligini aniqlash va shundan

¹ Платон // Всемирная энциклопедия. -М.: Современный литератор, 2001.-С. 204

² Платон // Всемирная энциклопедия. -М.: Современный литератор, 2001. – С. 204

keyingina bunga asoslangan holda ayrim narsalarning kelib chiqishi va xossalarini tushuntirish lozim, deb hisoblaganlar. Jumladan, bu xususda Aristotel shunday deb yozgan: «Avvalo birinchi asos va sababni bilish kerak, zero ular orqali va ularga muvofiq qolgan barcha narsalar anglab etiladi...»¹.

Uygʻonish davri faylasuflari izchil materialistlar boʻlmalar-da, oʻrta asrlarning quruq muhokamaga asoslangan, spekulativ tafakkurini yakdillik bilan inkor etdilar. Mustaqil faol asos sifatidagi shakl gʻoyasi chetga surib qoʻyildi, materiya nafaqat potensial, balki amalda ham mavjud boʻlgan narsa sifatida tushunila boshlandi. Shunisi ajablanarliki, alximiya sohasidagi eksperimentlar amaliyoti tasirida shakl-materiya mahsuli, degan yondashuv yuzaga keldi. Uygʻonish davrining Bernardino Telezio, Fransiska Patritsiya, Jordano Bruno kabi faylasuflari ijodida «materiya» tushunchasi yangicha mazmun kasb etdi. Materiyaning yaralishi gʻoyasi inkor etildi, materiya boqiy deb elon qilindi, harakat tabiiy kuchlar tasiri natijasi sifatida tushunila boshlandi.

Materiya haqidagi tasavvurlar rivojlanishining ikkinchi bosqichi Yangi davr (XVI-XVII asrlar) falsafasida materiya tushunchasi fizikada qabul qilingan muayyan oʻzgarmas xossalar yigʻindisi sifatidagi «modda» tushunchasi bilan ayniylashtirilgan. Masalan, ingliz materialistlari F.Bekon va T.Gobbs bunday xossalar qatoriga koʻlamlilik, shakl, ogʻirlik va hokazolarni kiritgan. Bazan materiya tushunchasi bitta muayyan «birlamchi» xossa, masalan koʻlamlilik yoki massa bilan ayniylashtirilgan (*R.Dekart, I.Nyuton*).

Yangi davrning mexanistik materializmida materiya tarifi zahirida «material» tushunchasi emas, balki barcha moddiy narsalar uchun umumiy boʻlgan asosiy va oʻzgarmas xossalar tushunchasi yotadi. Bu davr faylasuflari antik davrda amal qilgan metodologik qoidani yangi bosqichga koʻtardilar. Ular materiyaga birinchi modda sifatida emas, balki birinchi belgi sifatida yondashdilar. Qadimgi faylasuflardan farqli oʻlaroq, ular suv, olov yoki havoni butun borliqning birinchi asosi va birinchi sababi deb elon qilganlari yoʻq. Barcha fanlar tajriba asosida rivojlangan ushbu davrda hamma narsa zahirida ayrim mexanik xossalar: koʻlamga egalik, oʻzidan hech narsani oʻtkazmaslik, ogʻirlik, shakldorlik yotadi, degan qarash shakllandi.

Materiyani tavsiflashga nisbatan mazkur yondashuv XIX asr oxirigacha dunyoning ilmiy manzarasiga zid boʻlmagan. Buning negizida materializmning shakli metafizik yoki mexanistik degan nom olgan, chunki u fizikaning nazariy malumotlariga asoslanibgina qolmasdan, balki ilmiy izlanishlarning dunyoqarashga doir metodologik asosi sifatida amal qilgan.

Xullas, materiyaning antik va mexanistik talqiniga xos boʻlgan bir qancha umumiy jihatlarni qayd etish mumkin. Birinchidan – materiya birinchi modda yoki birinchi belgini topish yoʻli bilan aniqlanadi.

¹ Аристотель В 4-х т.Т.1. -М.: 1975. -С.68.

Ikkinchidan – materiyani aniqlash zamirida obektivlik mezoni, yani bizdan tashqarida va bizga bog‘liq bo‘lmagan holdagi mavjudlik qobiliyati yotadi.

Uchinchidan – materiya o‘zgarimas bo‘lib, o‘z navbatida, o‘zgaruvchi sifatidagi ayrim narsalarga qarshilik ko‘rsatadi. To‘rtinchidan – «materiya» tushunchasini tariflashda yakkalik va xususiylik haqidagi metodologik qoidaga amal qilinadi.

Materiyaning uchinchi konsepsiyasi XVIII-XIX asrlarda vujudga kelgan bo‘lib, bu davrda «materiya» tushunchasi tabiiy fanlarning rivojlanish jarayonida olimlar bilimning muayyan sohalarida aniqlagan belgilar bilan boyib bordi. Masalan, mexanikada makrojismlarning alohida xossasi – massa aniqlandi. U materiyaning eng muhim belgisiga aylandi, materiya massa bilan bir xil, deb hisoblana boshlandi. Kimyoda analiz metodi kimyoviy elementning aniqlanishiga olib keldi va materiyaga ana shu belgi – vaznlilikka ega bo‘lgan elementlar majmui sifatida qarala boshlandi. Mazkur yondashuvlarning kamchiligi shunda ediki, barcha moddiy narsalar alohida modda deb tushunildi, moddaning o‘zi sof mexanik ko‘rinishda tasavvur qilinib, unga o‘lcham, massa, og‘irlikka ega, deb qaraldi. SHu bilan birga, materiyaning maxsus ilmiy va falsafiy talqinlari ayniydir, deb tushunila boshlandi. Materiyaning falsafiy talqiniga sof induktiv yo‘l, oddiy umumlashtirish yo‘li bilan ayrim fanlarning g‘oya va qoidalari kiritildi.

Bu yondashuv noto‘g‘ri edi. Lekin, 1924 yilda B.Rassel, elektromagnit maydonlar va gravitatsiya maydonlari mavjudligini unutib, o‘zidan boshqa narsalarni o‘tkazmaslikni materiyaning asosiy xossasi sifatida tavsifladi. 1964 yilda amerikalik tomist Layten «materiya» tushunchasining massa va energiyaga bog‘langan talqinini taklif qildi.

Materiyani uning xossalaridan biriga bog‘lash uni tariflashning ancha keng tarqalgan, lekin imkoniyatlari cheklangan usulidir. Ilmiy bilishda mazkur usul elementarizm vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. Bunda hodisani tushunish uchun murakkabni oddiyga, butunni esa elementga bog‘lash lozim.

Ammo yakkalik yoki xususiylik – muayyan modda yoki xossaga asoslanib materiya haqida yaxlit tasavvur hosil qilish mumkin emas. Ushbu asosda materiyaga tarif berib bo‘lmasligi haqida Volter shunday deb yozgan edi: «Biz materiyani o‘lchaymiz, uni tarkibiy qismlarga ajratamiz, lekin bu qo‘pol harakatlar doirasidan chetga bir qadam tashlashga urinsak ham o‘zimizning ojizligimiz va jarlikni sezamiz»¹. Materialist faylasuflar materiyaga uni hech narsaga bog‘lamasdan tarif berishga harakat qildilar. Ayni vaqtda XVII-XVIII asrlardayoq materiya haqida ancha keng tasavvur shakllandi. Bu yo‘nalishda F.Bekon, G.Golbax va D.Didro, ayniqsa, jiddiy muvaffaqiyat qozondi. «Bizning sezgi organlarimizga tasir ko‘rsatuvchi hamma narsalar bizga nisbatan materiyadir», deb yozadi G.Golbax². Uning fikricha, materiyani biron-bir yagona birinchi asosga o‘xshatib bo‘lmaydi,

¹ Волтер // Всемирная энциклопедия. -М.: Современный литератор, 2001 –С. 110

² Гольбах // Всемирная энциклопедия. -М.: Современный литератор, 2001.-С.110

dunyo bundan rang-barangroqdir, shu bois materiya tarifi ham mumkin qadar keng bo'lishi kerak.

XIX-XX asrlar chegarasida amalga oshirilgan buyuk kashfiyotlar metafizik dunyoqarashga qaqshatqich zarba berdi. XIX asrning ikkinchi yarmida Faradey va Maksvell tadqiqotlari natijasida materiyaning moddaga qaraganda yangiroq shakli – elektromagnit maydonining o'zgarish qonunlari aniqlandi. Tadqiqotlar elektromagnit maydon qonunlari klassik mexanika qonunlariga bog'lanmasligini ko'rsatdi.

Radioaktivlikning kashf qilinishi atomning noo'tkazuvchanligi haqidagi talimotni rad etdi, elektronning kashf etilishi, uning bo'linmasligi haqidagi tezisni kun tartibidan chiqardi, rentgen nurining kashf etilishi bilan modda maydonga aylanishi mumkin emasligi isbotlandi. Jismlar harakatining tezligiga qarab massaning o'zgaruvchanligi kashf etildi, jismlarning makon va vaqtga oid xossalari ularning harakat tezligiga bog'liqligi tushunib etildi.

Bu ixtirolar tabiatshunoslikda yangi inqilobni boshlab berdi. Bularning barchasi fizik jismlarning xossalari haqidagi odatdagi tasavvurlarga shu darajada zid ediki, ayrim tabiatshunoslar sarosimaga tushib qoldilar. Shu bois, fizikada materiyaning mexanistik talqini, dunyoning mexanistik manzarasi inqirozga yuz tutdi. Materiya atomga tenglashtirilgan sharoitda va keyinchalik uning parchalanish qobiliyati aniqlanishi munosabati bilan ayrim fiziklar, shu jumladan, E.Max va A.Puankare («fizik idealistlar») «materiyaning yo'q bo'lishi (annigilyasiyasi)» to'g'risidagi xulosaga keldilar. Bu xulosaning metodologik jihatdan asossizligi shunda ediki, unda falsafiy kategoriya sifatidagi materiya uning fizik tuzilishi haqidagi talimot bilan tenglashtirildi.

Ular, atomlarning radioaktiv parchalanishini materiyaning «g'oyib bo'lishi», uning energiyaga aylanishi sifatida tushuntirishga harakat qildilar. Amalda materiya g'oyib bo'lmaydi, u haqdagi tasavvurlar eskira boshlagan edi. Yangi ilmiy kashfiyotlar qarshisida materiya uning ayrim turlariga xos bo'lgan sifatlarni yuklashga urinishlarning yangilishligi ayon bo'ldi.

Fanning rivojlanishida muhim rol o'ynagan materiyaning uchinchi konsepsiyasi efir g'oyasiga tayangan. Efir deganda butun dunyoni to'ldiruvchi uzluksiz muhit tushuniladi.

Atomlar va efir haqidagi talimotlarning birikuvi natijasida shakllangan atom-efir konsepsiyasida materiya atomlar ko'rinishida ham, efir ko'rinishida ham mavjud, yani ikkita har xil substansiyadan iborat, degan fikr ilgari suriladi. Bu tasavvurlardan kelib chiquvchi obektning modeli bilishning ikki yoqlama strategiyasini belgilaydi. Bu strategiyaga binoan ayrim (masalan, kimyo yoki molekulyar fizikadagi) hodisalarga izohni moddaning atom tuzilishidan, ayrim (masalan, optika yoki elektrodinamikadagi) hodisalarga izohni esa – efir muhitining holatidan qidirish lozim.

XIX asrdagi tabiatshunoslik bu strategiya yordamida erishgan yutuqlar materiya haqidagi atom-efir tasavvurlarning to'g'ri ekanligiga zamondoshlarni ishontirdi. Aynan ularning yordamida fan nihoyat mustahkam zamin kasb etgandek va tabiatning barcha sirlari tagiga etish yo'lida ishonch bilan harakatlanayotgandek bo'lib tuyuldi. Ammo XIX-XX asrlar chegarasida tabiatshunoslikda chinakam inqilob yasagan kashfiyotlar qilindi. Bo'linmas va buzilmas deb hisoblangan atomlar parchalanishi mumkinligi, efir xossalari o'ta ziddiyatli bo'lib, uning mavjudligiga shubha bilan qarashga majbur etishi aniqlandi. Materiyaning atom-efir konsepsiyasi asossiz ekanligiga ishonch hosil qilgan olimlar materiya tushunchasining o'zi eskirgani haqida o'ylay boshladilar va materializmdan yuz o'girdilar.

Ammo bu davrda materiya tushunchasi emas, balki uning olimlar tafakkurida qadim zamonlardan boshlab to XX asrgacha hukm surgan substrat sifatidagina talqiniga puchga chiqqan edi. Tabiatshunoslikda yuz bergan o'zgarishlarning falsafiy mazmuni shundan iborat ediki, ular materiyaning tushunishga nisbatan o'zgacha yondashuv zarurligini ko'rsatdi

Materiya haqidagi tasavvurlar rivojlanishining to'rtinchi konsepsiyasi XX asr falsafasiga xos. *Bu erda materiyaning tushunishda tabiiy ilmiy jihat emas, balki falsafiy jihat birinchi o'ringa qo'yildi.* Bu materiyaga narsalar va hodisalar butun rang-barangligining ichki yagonaligi zamirida yotuvchi mohiyat – substansiya sifatida yondashuvdir. Materiyaga obektiv borliq sifatida qarala boshlandi. XIX va XX asrlar chegarasida falsafa va tabiatshunoslikda yuzaga kelgan vaziyatni tahlil qilgan faylasuflar (ularni faqat sobiq marksizm vakillaridan iborat, deb tushunmaslik lozim), xususan, «materiya» tushunchasidan voz kechish yo'lidan emas, balki unga tabiatshunoslikdagi ixtirolarni umumlashtirish orqali chiqarilgan yangi va yangi xulosalarni kiritish yo'lidan borishni taklif qildilar. Materiyaning tuzilishi haqidagi har qanday fizik yondashuvlar xususiy jihatini hisobga oladi, bunda butun borliq emas, balki uning ayrim jihatlarinigina tahlil qilish nazarda tutiladi.

Materiyaning falsafiy talqini butun predmetli borliqni qamrab oladi va umumiylik belgisiga ega. U butun obektiv borliqni to'liq ifodalaydi. Umumiylik belgisiga suyanuvchi materiyaning falsafiy talqini amalda eskirishi mumkin emas, chunki u insonning tashqi dunyoni aks ettirishga qaratilgan qobiliyatini ifodalaydi. Materiyaning xossalari, tuzilishi va turlari haqidagi fizik yondashuvlar muqarrar ravishda eskiradi va o'zgaradi. Bundan materiya emas, balki materiya haqidagi bilimlarimizning kechagi chegarasi yo'q bo'ladi, degan xulosa kelib chiqadi.

Materiyaga oid turli konsepsiyalar shakllangan. *Materiyaning substansional konsepsiyasi uni yaratib ham, yo'q qilib ham bo'lmasligini, uning mavjudligi va o'zgarishining tashqi sabablari mavjud emasligini ko'rsatadi.* Ushbu tarif barcha narsalar materiyaning substansiyasi deb bilishga asoslanadi.

Materiyaning substrat konsepsiyasida ilk materializm namoyandalari materiyaning substrat sifatida tushunishga asos solganlar: ular materiyaning barcha

mavjud narsalarni yaratishga asos bo'luvchi substrat (lot. substratum – asos, zamin), material, modda sifatida talqin qilganlar. Bu substrat boqiy, uni yaratib va vayron qilib bo'lmaydi, deb taxmin qilingan. Ammo ularning hissiy idrok etiladigan ayrim moddalar (suv, Yer va boshqalar)ga umumiy substrat sifatida qarashga urinishlari juda sodda va ishonarsiz bo'lgan.

Materiyaning genetik-kontrast konsepsiyasi, uni faqat ongga qarshi qo'yish yo'li bilan tariflashga asoslanadi. Ushbu tarif Russoning bu sohadagi mushohadalari yoki G.V.Plexanovning: «Ruh»ga zid o'laroq, sezgi organlarimizga tasir ko'rsatish orqali bizda muayyan his-tuyg'ular uyg'otuvchi narsa «materiya» deb ataladi», degan tezisi asosida *mavjud bo'lishi mumkin.*

Materiyaning atributiv konsepsiyasi uni biron-bir substrat bilan emas, balki atributlar majmui: makon, vaqt, harakat, sifat, miqdor bilan tenglashtiradi. Yuqorida materiyaning substrat konsepsiyalarida bilish obektining modeli muhim rol o'ynashi ko'rsatib o'tildi. Bu jihatdan materiyaning falsafiy konsepsiyalari ilmiy nazariyalar bilan o'xshash. Zero bu nazariyalarni ishlab chiqish doim ular o'rganuvchi narsalar va jarayonlarning nazariy modellarini yaratish bilan bog'liq. Ammo fanda model obektlarning muayyan turkumini bilish vositasi bo'lib xizmat qilsa, ontologiyada har qanday obektlarni bilish vositasi bo'lishga qodir bo'lgan «umuman bilish obekti»ning modeli tuziladi.

Materiyaning dialektik konsepsiyasi XIX-XX asrlar chegarasida shakllandi. *Materiyani dialektik tushunish uni bilishga nisbatan falsafiy va ilmiy yondashuvlarning birikuvi natijasida vujudga keldi.* Zero, bir qator yirik olimlar (Gelmgolts, Darvin, Mendeleev, Plank, Eynshteyn, Bor va boshqalar)ning asarlarida materiyaning dialektik talqinini rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan g'oyalar ilgari surildi.

Materiyaga substrat sifatida yondashishga asoslangan konsepsiyalarning barchasi bir umumiy kamchilikka ega: u mazkur konsepsiyalarning tarixiy cheklanganligini belgilaydi va ilmiy bilishning rivojlanishi natijalari bilan ularning nomuvofiqligini muqarrar qilib qo'yadi.

Gap shundaki, ularda materiya uning bir (yoki bir nechta) turi – suv, atomlar va hokazolar bilan bog'lanadi, materiyaning bu turi dunyoda mavjud bo'lgan barcha narsalarning birlamchi, universal, mutlaq asosi deb elon qilinadi. Fan mazkur materiya turining mavjudligi bilan belgilangan hodisalarni o'rganish bilan mashg'ul ekan, ko'rsatilgan kamchilik sezilmaydi va uning rivojlanishiga jiddiy moneliklar tug'dirmaydi. Ammo materiyaning yangi turlari, shakllari va holatlarining kashf etilishi darhol bu turga narsalarning birdan-bir, umumiy va universal asosi sifatida qaraydigan substrat konsepsiyasining torligini namoyon etadi. Shunda uni yangi, kengroq konsepsiya bilan almashtirish zaruriyati tug'iladi. Materiyaning har qanday substrat konsepsiyasi o'z qo'llanish chegarasiga ega va fanning rivojlanish jarayonida u ertami-kechmi aniqlanadi.

Fan taraqqiyoti materiyaning substrat konsepsiyasi asossiz ekanligini namoyish etib, falsafaga dialektikadan saboq berdi. Bu saboq ilmiy bilishning rivojlanish mantig'iga mos keluvchi ontologik konsepsiyani yaratish uchun izchil dialektik fikrlash zarurligini yana bir karra tasdiqladi. Substrat konsepsiyalari dialektik xususiyatga ega emas. Ular narsalarda qanday o'zgarish yuz bermasin, ularning substrati o'zgarishsiz qolishini nazarda tutadi.

Materiyani dialektik tushunish uning bitmas-tuganmasligi, yani materiya turlari, shakllari, holatlarining Cheksiz rang-barangligi mavjud ekanligi haqidagi g'oyaga olib keladi.

XIX-XX asrlar chegarasida atomlarning parchalanishini o'rganish materiyaning ilgari malum bo'lmagan turi – elementar zarralar kashf etilishiga olib keldi. SHunday qilib, atomlar parchalanganda materiya yo'q bo'lmasligi, balki faqat bir shakldan boshqa shaklga o'tishi aniqlandi.

Hozirgi zamon fizikasida ham moddiy obektlarning yangi turlari aniqlanmoqda. Fiziklar mikrodunyoni o'rganish jarayonida fizik bo'shliq, virtual zarralar, kvarklar kabi g'ayrioddiy obektlarga duch kelmoqdalar. Megadunyo (ulkan kosmik miqyosdagi dunyo) sari harakatlanib, ular bu erda protoyulduzlar, kvazarlar, «qora» va «oq» tuynuklarni kashf etmoqdalar.

Fikrlashning dialektik metodi fanning rivojlanish tajribasiga tayanadi va shu bilan bir vaqtda bu tajriba uni yanada rivojlantirishga tatbiq etadi.

Shunday qilib, materiyaning dialektik talqini uni materiyaning biron-bir turi bilan bog'lashdan xoli. U materiya, uning shakllari va holatlarining Cheksiz darajada rang-barangligini nazarda tutadi va ularning barchasi o'zgaruvchan va o'tkinchi ekanligini qayd etadi.

Materiya kategoriyasining funksiyalari qo'yidagilar:

- onga, manaviy kuchlarga bog'liq bo'lmagan obektiv borliqning mavjudligi haqidagi fikrni ifodalaydi;
- barcha narsalarda mavjud bo'lgan umumiy xossalarni tavsiflaydi;
- barcha narsalarni bilishga eltuvchi yo'lni, ularni bilishda amal qilish lozim bo'lgan umumiy dastur yoki strategiyani umumiy ko'rinishda belgilaydi.

Bu funksiyalarni materiya kategoriyasi falsafaning keyingi rivojlanishi jarayonida saqlab qoldi.

Materiyaning tashkil topish darajalari. Materiyaning jonsiz, jonli va ijtimoiy kabi tarkibiy darajalari farqlanadi. Ular borliqning asosiy shakllari bilan mos keladi. Bunda turli darajalar bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Ayni vaqtda ularning tarkibida muayyan ierarxiya va soddaroq shakllardan (jonsiz materiyadan) murakkabroq shakllar (jonli va ijtimoiy materiya) sari yuksalish kuzatiladiki,

bugungi kunda ularning mavjudligi faqat sayyoramizga nisbatan o'zining ilmiy tasdig'ini topgan. Jonsiz tabiatning tuzilishi va rang-barangligi haqidagi tasavvurlar esa, mikro-, makro- va megadunyolarni qamrab olib, tinimsiz kengayib va teranlashib bormoqda.

Jonsiz materiya tizimi quyidagi darajalar bilan tavsiflanadi:

a) *mikrodunyo* (mikroelementlar darajasi). Unga maydonlar va elementar zarralarning o'zaro tasiri xos. Bu juda kichkina obektlar dunyosi. Mazkur zarralarning mavjudlik vaqti sekundning milliardlab ulushlari bilan o'lchanadi, harakat tezligi esa Yorug'lik tezligiga yaqinlashadi;

b) *makrodunyo* katta obektlar dunyosi. Bu diapazon bilan atomlar, molekular, makrojismlar, sayyoralar va yulduzlar, sayyoralar tizimlari qamrab olinadi. Tabiatning mazkur sohasini o'rganishning asosiy obektlari – yulduzlararo bo'shliq, galaktika, metagalaktikalar.

v) *megadunyo* jonli materiya tizimi hozircha faqat Erda malum. Aksariyat materialist-tadqiqotchilar fikriga ko'ra, uning vujudga kelishi materiyaning tabiiy va qonuniy o'z-o'zidan rivojlanishi mahsulidir. Jonli materiya darajasiga o'z-o'zidan uyushish, rivojlanish, inikosning murakkab shakllarini kasb etish, o'zini o'zi boshqarish va ko'payish qobiliyatiga ega bo'lgan barcha tirik mavjudotlar kiradi. Jonli materiyada hujayrasiz daraja (DNK, RNK kislotalari va oqsillar)ni, hujayrali va ko'p hujayrali organizmlar – o'simliklar, hayvonlarni farqlash mumkin. Yuksak darajada uyushgan strukturalar, bir-biri bilan nasl orqali bog'langan populyasiyalar alohida darajalarni tashkil etadi. Biologik turlar, populyasiyalar va atrof muhitning o'zaro tasiri biogeotsenozni yaratadi, biogeotsenozlarning o'zaro tasiri natijasida esa hayotning global tizimi – biosfera vujudga keladi. Biosfera tizimida litosfera, gidrosfera va atmosfera o'zaro tasirga kirishadi, atmosfera orqali Yer bilan kosmos o'rtasida almashinuv sodir bo'ladi. Jonli materiya tizimining ko'rsatilgan barcha elementlari o'rtasida muvozanatni saqlash sayyoramizda hayotni saqlashning zaruriy shartidir.

Biosfera rivojlanishining muayyan bosqichida moddiy tizimning alohida turi – ijtimoiy uyushgan materiya yoki jamiyat vujudga keldi. Bu hayot rivojlanishining oliy shakli, fikrlovchi va borliqni ongli ravishda o'zgartiruvchi shaxslar va turli darajadagi birlashmalarning majmuidir. O'z navbatida jamiyat bir-biri bilan kesishuvchi turli tizimlar, chunonchi: inson, ijtimoiy tuzilmalar (oila, turli guruhlar, birlashmalar, partiyalar, millatlar, davlatlar)ni, inson tomonidan yaratilgan, mehnat quroli va texnikani o'z ichiga oluvchi moddiy madaniyatni qamrab oladi.

Materiya tarkibiy darajalarining aniq chegarasini aniqlash mushkul. Uni fan doimo qayd etavermaydi. Bizning bilimlarimiz tobora chuqurlashib, darajalarning yangi va yangi sifat chegaralarini aniqlaydi. *Materiyaning tarkibiy darajalari to'g'risida so'z yuritilganida, subelementar, mikroelementar, yadroviy, atom, molekulyar, makroskopik va kosmik darajalar ham tilga olinadi. Materiyaning mikroskopik darajasida fizika taxminan 10-15 sm uzunlikda taxminan 10-22 ga teng*

vaqt ichida yuz beruvchi jarayonlarni o'rganish bilan shug'ullanadi. Megadunyoda esa, kosmologiya taxminan 1010 ga teng vaqt (Koinot yoshi) ichida yuz beruvchi jarayonlarni o'rganadi. Materiyaning tarkibiy darajalari g'oyasi metodologiya mutaxassislari tomonidan sababiyat va dunyoni bilish mumkinligi g'oyasi bilan bir qatorda juda yuksak baholanadi.

Ayni vaqtda shuni qayd etish zarurki, materiyaning tarkibiy darajalari tasnifi zahirida chiziqli ierarxiya tamoyili yotadi. Bu erda «qism butundan kichkina» tamoyili amal qiladi. Lekin bu dunyolarning biri soddaroq, ikkinchisi murakkabroq, degan manoni anglatmaydi. Dunyolar qism va butun sifatida taqqoslanmaydi, ular universumning o'ziga xos teran o'zgarishlarini ifodalaydi. Shu bois bu tasnifni mutlaqlashtirish kerak emas.

Materiyaning tarkibiy darajalari ierarxiyasida inson markaziy o'rinni egallaydi. Qadimdayoq Protagor «Inson hamma narsalarning o'lchovidir», degan edi. Dunyoni o'zlashtirishda inson qadriyatlarini shkalasini andoza sifatida qabul qiluvchi falsafiy talimot – «Antropologizm» zahirida ana shu tezis yotadi. Materiya tuzilishining inson tomonidan kuzatiluvchi darajalari odamlar yashovchi muhitning tabiiy shart-sharoitlarini, yani bizning dunyoviy qonuniyatlarimizni hisobga olgan holda o'zlashtiriladi. Lekin bu bizdan ancha olisdagi darajalarda materiyaning mavjud shakllari va holatlaridan butunlay farq qiluvchi, mutlaqo boshqacha xossalari bilan tavsiflanuvchi «g'ayritabiiy» shakl hamda holatlari mavjud bo'lishi mumkin, degan taxmini istisno etmaydi. Shu munosabat bilan olimlar geotsentrik va nogeotsentrik moddiy tizimlarni farqlay boshladi.

Olamning chekliligi va Cheksiz ligi. Falsafada olamning chekliligi va Cheksiz ligi bilan bog'liq masalalar muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda har bir konkret narsaning chekli ekanligi, umumiy olamning Cheksiz va chegarasizligi etirof etiladi. Cheksiz likni ifodalash uchun ichki (intensiv) va tashqi (ekstensiv) shakllar mavjudligi ko'plab falsafiy adabiyotlarda qayd etilgan.

Intensiv Cheksiz lik materiyaning ichdan nihoyasizligi haqidagi tasavvurdir. Intensiv Cheksiz likning mavjudligi tabiatda ichki tuzilishga ega bo'lmagan, mutlaqo elementar obektlar yo'qligini ko'rsatadi. Intensiv Cheksiz lik mikrozararlarni o'rganish jarayonida materiyaning kichikroq qismlarga Cheksiz bo'linishi sifatida qaralishi mumkin emas. Zarralarning bir-biriga aylanuvchanligi ular ancha murakkab tabiatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Ekstensiv Cheksiz lik ichdan emas, balki sirtidan Cheksiz likdir. U mazkur obekt doirasidan tashqarida, «katta» dunyoda kuzatiladi va obektdan tashqaridagi Cheksiz likni ifodalaydi. Bu erda obekt xossalari va sifatlarining atrofdagi narsalar bilan o'zaro tasirlar tizimiga bog'liqligi muammosi muhimroqdir. Amalda Cheksiz lik mavjud bo'lib, u bilish qaratilgan yo'nalishdan kelib chiqadi va intensiv yoki ekstensiv deb tushuniladi. *Ekstensiv va intensiv Cheksiz lik – haqiqiy Cheksiz likning o'ziga xos proeksiyalaridir.* Ularni geometrik shaklning koordinatalari o'qidagi proeksiyalariga o'xshatish mumkin.

Dunyoning chekliligi yoki Cheksiz ligi g'oyasini isbotlash va inkor etishga Kant antinomiylaridayoq harakat qilingan edi. *Kant antinomiylariga, agar dunyo vaqtda o'z ibtidosiga ega bo'lsa, demak, dunyo yaralgunga qadar hech narsasiz sof vaqt mavjud bo'lgan, lekin bu «hech narsa»dan dunyo yaralishi mumkin emas. Agar dunyo makon va vaqtda ibtido ega emas, deb taxmin qilinsa, bundan hozirgi vaqtgacha Cheksiz lik o'tgan, yani har qanday voqeadan oldin Cheksiz vaqt o'tgan, bugun esa u tugadi va olam nimagadir ayni shu vaqtda vujudga keldi, degan xulosa kelib chiqadiki, bu ham ehtimoldan uzoq bo'lgan holdir.*

Olamning relyativistik konsepsiyasi bo'lishi ehtimol tutilgan butun moddiy dunyoni qamrab olgani sababli, uning «ibtidosi» g'oyasida Cheksiz lik g'oyasi butunlay inkor etilib, fanda to'ntarish yasashiga olib keladigandek bo'lib tuyuldi. Relyativist kosmologlarning kengayib borayotgan olam – Metagalaktikaning yagonaligi va u hamma narsani qamrab olishi haqidagi talimoti o'tmishda ko'p karra takrorlangan olamda Erning yagonaligi, Quyosh sistemasi yoki Galaktikaning yagonaligi haqidagi g'oyalarni eslatadi. Amalda olamning kosmologik modellari, garchi butun dunyoni tushuntirish uchun tuzilgan bo'lsa-da, uning ayrim qisminigina tushuntiradi. Faqat, mazkur sohaga taalluqli, butun dunyodagi makon va vaqtga nisbatan tatbiq etilmaydi, deb talqin qilingan makon va vaqtning chekliligi hamda Cheksiz ligi haqidagi kosmologik tasavvurlar Cheksiz lik g'oyasini inkor etmaydi.

Kosmologiya rivojlanishining hozirgi bosqichi relyativistik kosmologiyaning ustuvorligi bilan tavsiflanadi. Relyativistik kosmologiya butun dunyoni mukammal tavsiflashga davo qilmaydi, lekin cheklilik va Cheksiz likni biz yashayotgan olamga tatbiqan, uning fizikaviy-makon tuzilishi tomonidan o'rganadi. Relyativistik kosmologiya asoschilari A.Eynshteyn va A.Fridman hisoblanadi.

A.Eynshteyn 1917 yilda olamning birinchi relyativistik modelini tuzdi. U bunda quyidagi taxminlardan kelib chiqdi.

1. Modda va nurlanish olamda bir tekis tarqalgan. Bundan olam maydoni bir xil va izotrop tuzilishga ega. Garchi og'ir obektlar yaqinida makon-vaqt geometriyasi o'zgarsa-da, bu o'zgarish olamning o'zgarimas egrilikka ega bo'lgan bir xil izotrop maydonidan chetga ahamiyatsiz og'ishdir, xolos.

2. Olam turg'un, vaqtda o'zgarimasdir. Shu bois maydon geometriyasi evolyusiyaga ega bo'lishi mumkin emas. A.Eynshteyn dunyosi, odatda, «silindrsimon dunyo» deb ataladi, chunki uni Cheksiz ko'lamlil to'rt o'lchovli silindr ko'rinishida tasavvur qilish mumkin. Silindrning yasovchisi bo'ylab vaqt o'qi o'tadi, u o'tmishga ham, kelajakka ham Cheksiz qaratilgan. Silindr kesimi maydonni beradi. Mazkur modelda bu o'zgarimas musbat egrilikka ega uch o'lchovli doirasimon maydon bor. U chekli hajmga ega. Buning ortida hech narsa mavjud bo'lmagan dunyoning qandaydir chekkasi bor, deb tushunmaslik kerak. Ayni holda maydon «o'z-o'zida tutashadi» va bu unda hech qachon to'siqqa uchramasdan Cheksiz aylanish imkonini beradi.

Biroq A.Eynshteynning «silindrsimon dunyo»si o'tmishda qolgan. Uning olamning turg'un modelini yaratishga urinishlari hozir olamning abadiyatda o'zgarmas holda mavjudligi haqidagi ananaviy tasavvurlarga hurmat sifatida qaraladi. Olamning turg'un modelini A.Eynshteyn maxsus taxmin asosida yaratganini ham etiborga olish kerak.

Mazkur muammoning yangi echimini A.Fridman taklif qilgan va uni belgiyalik kosmolog M.Lemetr rivojlantirgan. A.Fridman dunyoning turg'unligi haqidagi taxmindan voz kechadi, lekin uning bir xilligi va izotropligi haqidagi postulatni saqlab qoldi. Bu muammoning uch xil echimini taklif qilish imkonini berdi:

1. Agar olamda modda va nurlanishning zichligi ayrim kritik kattalikka teng bo'lsa, maydon evklid maydoni bo'ladi, yani egriligi nolga teng bo'ladi va dunyo Cheksiz bo'ladi.

2. Agar zichlik kritik kattalikdan kichkina bo'lsa, olam maydoni Lobachevskiy geometriyasi bilan tavsiflanadi, u manfiy egrilik va Cheksiz hajmga ega, ochiq va bel ko'rinishida bo'ladi.

3. Agar olamda moddaning zichligi kritik darajadan katta bo'lsa, maydon musbat egrilikka ega, lekin hajmi cheklangan bo'ladi. Dunyo berk va chekli bo'lib, Riman geometriyasi bilan tavsiflanadi.

Potensial va aktual Cheksiz lik. Cheksiz lik tushunchasi potensial va aktual Cheksiz likni o'z ichiga oladi. *Potensial Cheksiz lik miqdor va sifat o'zgarishlarining nihoyasiz jarayonini qayd etadi. Potensial Cheksiz lik to'xtatish, bekor qilish yoki mavjud emas deb elon qilish mumkin bo'lmagan shakllanish, o'zgarish va rivojlanish jarayoniga ishora qiladi.*

Aktual Cheksiz lik muayyan sharoitda to'liq mavjud bo'lgan Cheksiz likning mavhumlashtirilgan ko'rinishidir. Bu o'xshash obektlarning Cheksiz to'plamidan, masalan, Yer yuzidagi odamlarning sochlaridan yoki sayyoramizda o'suvchi gullardan tashkil topgan o'ziga xos obekt sifatida oddiy tushunishga asoslanadi. Aktual Cheksiz lik intiholi narsalarning Cheksiz miqdoridan tashkil topgan obektlarning son-sanoqsiz to'plamlari aktual tarzda mavjudligi to'g'risida so'z yuritish imkonini beradi. Aktual Cheksiz lik muayyan mavjud borliq sifatida olinadi, ammo u doim eng ko'p etiroz va qarshilikka sabab bo'ladi. Ko'plab faylasuflar bu masalani chetlab o'tishga harakat qilganlar. Bunda Aristotel qarashlari ancha muhim rol o'ynagan. U ikki ming yil davomida amal qilgan «aktual emas, balki potensial Cheksiz likkina mavjuddir», degan qoidani ilgari surdi. Sog'lom fikr nuqtai nazaridan Aristotelning bu g'oyasini asoslovchi dalillar bisyor. Potensial Cheksiz lik, obrazli qilib aytganda, har qanday songa birni qo'shish imkonini beradi va ancha sodda mavhumlik hisoblanadi. Uni qabul qilish va unga ko'nikish mumkin. Aktual Cheksiz lik esa mutlaqo paradoksal xususiyatga ega, chunki u Cheksiz likni «shu erda» va «hozir» yakunlangan, deb hisoblaydi, masalan: agar biron-bir ichkilikboz kishi hozirgacha ko'p ichkilik ichgani va yana ikki shisha shmpan vinosi icha

olishini aytsa, bu potensial Cheksizlik hisoblanadi. Agar u Cheksiz miqdorda shampan vinosi ichganini aytsa, uning bu fikriga absurd gap sifatida qarash kerak bo'ladi. Ayni vaqtda, bu aktual Cheksizlikni o'zining barcha elementlariga ega bo'lgan real obekt ko'rinishida mavjud Cheksizlik sifatida ifodalashga urinish hisoblanadi. Muttasil rivojlanuvchi olam shakllangan aktual Cheksizlik sifatida tavsiflanishi mumkin emas. Ammo aktual Cheksizlik g'oyasining o'zi ijod manbai va evristik izlanishlar uchun zamin sifatida ancha samarali xulosa bo'ladi.

Kengayuvchi olam konsepsiyasi. Kosmologiya muammosining taklif qilingan echimlariga nisbatan munosabat bir xil emas. Ayrim olimlar Cheksiz kengayuvchi Olam gipotezasini qabul qilganlar va «Katta portlash» konsepsiyasiga ko'ra, taxminan 17-20 milliard yil oldin olam juda kichkina hajmda o'ta zich singulyar holatda bo'lgan, deb hisoblaydilar. Yuz bergan «katta portlash» olamning kengayish jarayonini boshlab bergan. Bu kengayish jarayonida moddaning zichligi o'zgargan, maydonning egriligi to'g'rilanib borgan. Ayrim olimlar fikriga ko'ra, kengayish o'rnini yana torayish egallaydi va butun jarayon takrorlanadi. Shu asosda harakatlanuvchi Olam gipotezasi ilgari surilgan bo'lib, unga ko'ra taxminan har 100 milliard yilda yangi sikl «katta portlash»dan boshlanadi. Aqlga sig'maydigan gipotezalarning birida «dastlabki portlash» natijasida gravitatsion maydonda singulyar holatdan faqat bizning metagalaktikamiz emas, balki ko'plab metagalaktikalar vujudga kelgani, ularning har biri barcha fizik ko'rsatkichlarning turli ifodalariga, chunonchi, alohida topologiyali (o'lehovlar miqdori har xil bo'lgan mahalliy ochiq yoki mahalliy yopiq) makoni va o'z kosmologik vaqtiga ega bo'lishi mumkinligi taxmin qilinadi.

Hozirgi «ko'p sonli dunyolar» konsepsiyalarida olamning ajabtovur manzarasi chiziladi. Bu fundamental falsafani moddiy dunyoning makon va vaqtdagi Cheksizligini metrik Cheksizlik manosida emas, balki materiyaning makon va vaqt strukturalarining benihoya rang-barangligi sifatida tushunish lozim, degan asosiy qoidasi bilan hamohangdir.

Olam kengayishda davom etadimi yoki torayish jarayoni boshlanadimi, degan savol javobsiz qolmoqda. Ammo «qizil siljish» hodisasi hozirgi vaqtda nurlanish manbai uzoqlashib borayotganini, yani galaktikalar taxminan o'zigacha bo'lgan masofaga proporsional tezlikda har yoqqa «tarqalayotgani»ni tasdiqlovchi umumiy etirof etilgan fakt hisoblanadi. *1912 yilda V.M.Slayfer galaktikadan tashqaridagi tumanliklar nurlanishlarining spektr chiziqlari spektrning qizil uchi tomonga siljiyotgani - «qizil siljish»ni aniqladi.* 1929 yilda Edvin Xabbl tumanlik kuzatuvchidan qancha uzoqda bo'lsa, «qizil siljish» kattaligi ham, uning tumanlikdan uzoqlashish tezligi ham shuncha katta bo'ladi, degan qonunni va katta masofalarda galaktikalarning tezligi ulkan ifodalarga etishini aniqladi.

SHunga qaramay, olamning kengayishi bilan bir qatorda, uning torayishini yoki makonda cheklangan, lekin vaqtda Cheksiz olam navbatma-navbat dam kengayuvchi, dam torayuvchi harakatlanuvchi olam modelini ham taxmin qilish uchun nazariy imkoniyat mavjud.

Inikos nazariyasi. Inikos nima? *Tabiat obektlari va hodisalarining umumiy xossasi sifatidagi inikos – avvalo, o‘zaro tasirdir. U bir jism boshqa jismga tasir ko‘rsatishini, boshqa jism esa birinchi jism tasiriga javob berishi yoki undan tasirlanishini nazarda tutadi ($A \leftrightarrow V$; $V \leftrightarrow A$). Bunday o‘zaro tasir tarzida namoyon bo‘ladigan inikosda, bir jism o‘ziga xos xususiyatlarining boshqa jismda aks ettirish jarayoni tushuniladi.* Binobarin, inikos tashqi tasirga mos o‘zgarishlar majmuini ifodalaydi. Bunda o‘zaro tasir natijasida aks etuvchi tizimlarning strukturalaridan go‘yoki «nusxa» ko‘chirib olinadi va aks ettiruvchi tizimlarning alohida strukturalarida o‘zgartirilgan ko‘rinishda, «izlar», «muhrlar» shaklida aks ettiriladi. Inikosni o‘zaro tasirga kirishuvchi narsa va hodisalarning o‘z tarkibi hamda xossalari ayni shu o‘zaro tasirning izlarini qoldirish qobiliyati sifatida tushunish mumkin.

Inikosning shakllari. Inikos jarayonining namoyon bo‘lish xususiyati materiyaning tuzilish darajasiga bog‘liq. SHu munosabat bilan inikosning turli, chunonchi:

- jonsiz tabiatdagi;
- jonli tabiatdagi;
- jamiyatdagi darajalari farqlanadi.

Materiyaning rivojlanish jarayonida uning tuzilishining murakkablashuvi yuz beradi. Shu bois materiyaning harakat shakllari qancha bo‘lsa, inikos shakllari ham shuncha bo‘ladi: mexanik, fizik, kimyoviy, biologik (psixik), ijtimoiy va hokazo. inikos shakllarining evolyusiyasi jonsiz tabiat narsalarining xossasi sifatida amal qiluvchi inikos yuqoriroq darajadagi inikosning elementar negizini tashkil etishini nazarda tutadi. Bu darajada inikos muhit haroratining o‘zgarishiga qarab oddiy mexanik deformatsiya, qisqarish yoki kengayish ko‘rinishida, Yorug‘lik inikosi, elektromagnit to‘lqinlarning o‘zgarishi inikosi, ovoz to‘lqinlari inikosi (aks sado), kimyoviy o‘zgarishlar (masalan, lakmus qog‘oz rangining o‘zgarishi) inikosi sifatida amal qilishi mumkin.

Jonsiz tabiatdagi inikosga tanlash xususiyati va kumulyativlik, yani oldingi tasirlarning izlarini saqlash xosdir. Inikosning tanlash xususiyati o‘zaro tasirga kirishuvchi obektlarning o‘ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. Masalan, kimyoviy element boshqa har qanday element bilan emas, balki tanlash va ajratish asosida kimyoviy reaksiyalarga kirishadi hamda birikadi. Tabiatdagi ayrim predmetlar ekranlashtirish xossalari ega bo‘ladi va elektromagnit to‘lqinlarni aks ettiradi, ayrim predmetlar esa bunday xossalarga ega bo‘lmaydi. Kumulyativlik – oldingi tasirlarning izlarini saqlash tizimning eskirishi haqida hukm chiqarish imkonini beradi. Aks ettiruvchi tizim oldingi tasirlarni «yodda saqlaydi» va o‘zining keyingi faoliyatida ularni hisobga oladi.

Jonlining jonsizdan farqi haqida gapirganimizda, biz XIX asrning ikkinchi yarmida yuzaga kelgan, ammo hozirgi zamon fani inkor etmagan, balki

mufassallashtirgan hayotning universal tarifini eslaymiz: «Hayot – bu oqsilli jismlarning mavjudlik usulidir». Oqsillar, aminokislotalar, nuklein kislotalar tiriklikning eng muhim unsurlari hisoblanadi. Ko‘payish, o‘shish va moddalar almashinuvi tirik organizmlarning o‘ziga xos xususiyatidir. O‘z-o‘zidan ko‘payish qobiliyati kimyoviy reaksiyalarning jonsiz tabiatda uchramaydigan turi bilan taminlanadi va matritsali sintez deb ataladi. V.A.Engelgardt jonli sistemalarning yana bir muhim xossasi – «xaosdan tartib o‘rnatish» qobiliyatini, yani hayot jarayonlarining entropiyaga zid xususiyatini qayd etadi. Tirik organizmlar molekulalarning xaotik issiqlik harakatini tartibga solishga qodir.

Jonli tabiatda inikos oddiy bir hujayralilar va o‘simliklarning tasirlanuvchanligi, asab hujayralarining tasirchanligi ko‘rinishida, shuningdek, hayvonlar darajasida ularning xulq-atvorini tartibga solishni taminlovchi psixik inikos ko‘rinishida mavjud bo‘ladi. Biologik inikos shunday bir xossaki, usiz hayvonlar o‘z mavjudlik sharoitiga moslasha olmaydi. Malumki, ayrim o‘simliklarning barglari doimo Yorug‘lik manbai tomonga – nurlar ularga 90 gradusga intiluvchi burchak ostida tushadigan tarzda qarab o‘sadi. Kungaboqar boshchasi quyosh tomonga o‘girilib o‘sadi. Shunga o‘xshash hodisalarni ildiz sistemasining o‘shishida ham kuzatish mumkin. Oziqlanish va suv taminoti shart-sharoitlari optimal bo‘lgan joyda ildiz yaxshi o‘sadi.

Mimikriya hodisasi jonli tabiatdagi inikosning o‘ziga xos shakli hisoblanadi. Jonli sistemalar inikosining mazkur shakli mavjudlikning muayyan shart-sharoitlariga yaxshiroq moslashish imkonini beradi. Turli hayvonlar ularni ko‘zga ko‘rinmas qilib qo‘yadigan yoki ularning dushmanlarini hurkitadigan shakl, tus yoki holatga kirganida mimikriya hodisasi yuz beradi.

Biologik inikosda ikki jarayon kuzatiladi. Birinchi – inikosda aks etayotgan narsani inikosning barcha (tubanroq) shakllariga xos bo‘lishi mumkin bo‘lgan tuzilishi o‘z ifodasini topadi. Masalan, issiqlik tasirida har qanday jism, shu jumladan, organizm qiziydi. *Ikkinchi - aks etayotgan narsaning o‘ziga xos xususiyatlari inikosning jonli tizimlargagina xos bo‘lgan alohida jarayonlari bilan bog‘lanadi.* Keltirilgan jarayonga tatbiqan aytish mumkinki, organizmning nafaqat qizishi, balki uning suvsizlanishi ham yuz beradi. O‘simlik suvni bug‘lantiradi, inson terlaydi, uning butun ichki sistemalari normal faoliyati o‘zgaradi. I.Pavlov fikriga ko‘ra, har qanday inikos ikki asosiy komponentdan tashkil topadi: birinchi – tashqi komponent predmetlar o‘rtasidagi reaksiyalar shaklida namoyon bo‘ladi; ikkinchi – ichki komponent o‘zaro tasirlar natijasida yuzaga keluvchi ichki holatlar, izlar shaklida mavjud bo‘ladi¹.

Biologik inikos tasirlanuvchanlik va tasirchanlik bilan tavsiflanadi. Sezgi psixik inikosning asosiy shakli hisoblanadi. Organizm asab sistemasiga ega bo‘lgan holdagina psixik inikos to‘g‘risida so‘z yuritish mumkin. Sezgi organizmning xulq-

¹ Павлов И.П. Двадцатилетний опыт объективного изучения высшей деятельности (поведения) животных. -М.: Наука, 1973. –С.607

atvoriga tasir ko'rsatuvchi subektiv, ichki holat sifatida amal qiladi, lekin organizm uchun muhim omillarni obektiv aks ettiradi.

Inikosning psixik shakliga sezgi bilan bir qatorda instinktlar, shartli reflekslar, idrok etish, emotsiyalar, fikrlash kiradi. Instinkt mazkur turning hamma ko'rinishlarida bir xil bo'lgan murakkab tug'ma xususiyat sifatida amal qiladi. Lekin instinkt juda tor doiradagina maqsadga muvofiqdir. Asalarilar shaklan va mustahkamlik jihatidan mukammal bo'lgan mumkataklar yasaydi. Lekin katak tubi qirqib olib tashlansa, asalari bunga etibor bermaydi va katakka asal quyishda davom etadi. Tirik organizm darajasidagi inikosning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, jonli sistemalarda aktual inikoslar tarzida yuz beruvchi o'zgarishlar individlar tajribasida va turlarning xossalariida saqlanib qoladi hamda yig'ilib boradi.

Subekt o'zini qancha faol tutsa, u shuncha ko'p predmetni aks ettiradi. Masalan, qoyatosh to'lqinlar tasirida emiriladi, korall – organizm o'sib boradi. U suvdan oziq moddalarni o'zlashtiradi. Bunda organizm tasirga shunchaki javob bermaydi, u atrof-muhitni o'zgartiradi.

Materiya tuzilishining ijtimoiy darajasida inikos quyidagilarni o'z ichiga oladi: a) o'z faoliyatini tartibga soluvchi individni ongli aks ettirish; b) fan, sanat hamda ijtimoiy ongning jamiyat hayotini aks ettiruvchi boshqa shakllari; v) inikosning inson suniy sistemalar yaratuvchi texnika, bog'lanish va boshqaruvdagi shakli alohida o'rin egallaydi.

Materiyaning umumiy xossasi sifatida tariflaganda, inikosning quyidagi xususiyatlari namoyon bo'ladi:

– inikosning moddiy-energetik o'zaro tasir jarayonlari bilan uzviyligi;

– har qanday aks ettirish jarayoni zamirida sabab-oqibat bog'lanishi yotadi. Inikos sabab-oqibat munosabatlarining shunday shakli sifatida tushunilishi mumkinki, bunda sababning tarkibi, xususiyati, xossalari oqibatga o'tadi. Oqibat originalning nusxasi, o'xshashi sifatida amal qiladi;

– aks ettirish – yo'naltirilgan jarayon. U aks etuvchidan aks ettiruvchi sari harakatlanadi, demak, bu jarayon simmetrik emas, yani bunda sabab (aks ettiriluvchi)ning harakati – birlamchi, oqibat (aks ettiruvchi)ning harakati – ikkilamchi. hatto oddiy aks ettirish jarayoni va uning natijalari ham aks ettiriluvchi obektning mavjudligi va xususiyatiga nisbatan ikkilamchidir;

– avvalo, o'zaro tasir sifatida tushuniluvchi inikos jarayonining obektivligi alohida diqqatga sazovordir;

– obraz va originalning o'zaro mosligi darajasi har xil bo'lishi mumkin. Inikos natijasi nafaqat tashqi tasirlar (aks ettiriluvchi), balki hodisaning ichki tabiati (aks ettiruvchi) bilan ham belgilanadi.

P.Anoxin nazariyasi. Borliqni oldinroq aks ettirish g'oyasi P.Anoxin tomonidan ishlab chiqilgan. U materiyaning makon va vaqt doirasidagi harakatining asosiy shakllari noorganik tabiatda tirik organizmlar paydo bo'lishidan ancha oldin mavjud bo'lganiga etibor qaratdi. «Jonli materiya» dunyoning tayyor makon-vaqt strukturasi «singib ketgan» va muqarrar tarzda uning xossalarini o'zida mujassamlashtirgan. Mavjud shart-sharoitga moslashish zarurati tug'ilgan. Moslashish jarayonida tashqi vaqt ko'rsatkichlari, aniqrog'i, ketma-ketliklar katta rol o'ynagan.

Bu ketma-ketliklarni P.Anoxin ikki guruhga ajratdi:

1. Ketma-ketliklarning takrorlanuvchi, tiklanuvchi, ritmlilik va sikllilik (kun – tun; bahor – yoz – kuz – qish) bilan tavsiflanuvchi muhim, doimiy va barqaror qatorlari.

2. Mazkur organizmning hayotida keyinchalik takrorlanmaydigan ahamiyatsiz va tasodifiy ketma-ketliklar qatori (masalan, dovul, zilzila va h.k.), ahamiyatsiz va tasodifiy ketma-ketliklarga mavjud bo'lganida, hayot rivojlana olmas, tirik organizm barqaror va mustahkam strukturaga ega bo'lmas edi. Chunki bunday struktura tashqi dunyoning organizmga ritmli va siklli tasirlari inikosining natijasi sifatidagina paydo bo'lishi mumkin. Tabiiy ritmlarga bo'ysunuvchi o'zaro tasirlar organizmga minglab va millionlab yillar davomida tasir ko'rsatadi. Ular organizmlarning tuzilishida qayd etiladi. Natijada organizm oldinroq aks ettirish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Masalan, kuz keldi, barglar to'kiladi, fiziologik jarayonlar sekinlashadi, daraxtlar qishni qarshi olishga tayyorlanib suvsizlanadi, lekin hali sovuq tushgani yo'q. Bu oldinroq aks ettirishga misol. Vaqtda organizmning (subektning) o'zgarishi unga tashqi holatlar (obekt) tasir ko'rsatishidan oldinroq yuz bergan. *Oldinroq aks ettirish – noorganik dunyo va atrof-muhitning takrorlanuvchi tasirlariga tirik organizmning reaksiyasi.* Bu ketma-ketlik va takroriylik muhim xossalar hisoblanuvchi noorganik dunyoning makon-vaqt strukturasi jonli materiya moslashuvining asosiy shaklidir.

Oldinroq aks ettirish jonli sistemalar dunyoda chidamli, moslashuvchan, o'zgarishlarga to'la bo'lishiga imkoniyat yaratadi. Insonda oldinroq aks ettirish qobiliyati ilmiy bashorat va prognostika shaklini kasb etadi.

Inikos yo protsessual tomondan, yo natija nuqtai nazaridan qaralishi mumkin. Tashqi real aks ettiriluvchi obekt yo'q bo'lganidan keyin inikosning o'zi, aks ettirish jarayonining natijasi sifatida, yo'q bo'lmaydi, balki aks ettiruvchi obektda iz ko'rinishida saqlanib qoladi. Shunday qilib, tashqi tasir aks ettiruvchining tarkibidan o'rin oladi. S.L.Rubinshteyn materiya aks ettirish qobiliyatining ayni shu xususiyatini nazarda tutib, har bir hodisa malum manoda «Olam ko'zgusi va aks sadosidir», degan. Axborotning atributiv konsepsiyasi shu asosda tuziladi.

Bioenergoinformatsion almashinuv axborotni qabul qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etishning murakkab mexanizmini nazarda tutadi. Informatsiya yoki axborot tushunchasining o'zi ancha sermanodir. Informatsion jarayonlar aksariyat hollarda aks ettirish, inikos jarayonlari bilan bog'liq holda yoki ularga muvofiq tushuntiriladi. Inikos yo protsessual tomondan, yo natija nuqtai nazaridan qaralishi mumkin. Darhaqiqat, sirtqi (aks ettirilayotgan) real predmet g'oyib bo'lganidan so'ng inikosning o'zi aks ettirish jarayonining mahsuli sifatida yo'q bo'lmaydi, balki aks ettirayotgan predmetda iz sifatida mavjud bo'lishda davom etadi. SHunday qilib, sirtidan ko'rsatilgan tasir aks ettiruvchining tarkibidan o'rin oladi va unda saqlanib qoladi. SHunga muvofiq axborotning *atributiv konsepsiyasi* tuziladi.

«Axborotning predmet sohasi to'g'risidagi masalaga bag'ishlangan falsafiy munozaralarda kamida uch nuqtai nazar vujudga kelgan. *Birinchi*dan, axborot muloqot sohasi va umumiy ilmiy refleksiya vositasi sifatida talqin qilinadi. *Ikkinchi*dan, u o'z-o'zidan tashkil topuvchi tizimlarning o'zaro tasirlarni tartibga solish bilan bog'liq bo'lgan xossasi sifatida tushuniladi. *Uchinchi*dan, axborot materiya va energiya taqsimlanishining turli jinslilik mezoni, dunyoning azaliy turli jinsliliğini qayd etuvchi barcha moddiy tizimlar xossasi sifatida namoyon bo'ladi. Axborotning yuqorida zikr etilgan uch xil talqini hozirgi zamon nazariyasidan axborot kommunikativ, funksional va atributiv konsepsiyalari degan nomlar bilan o'rin olgan.

Atributiv konsepsiya axborotning jonli va jonsiz tabiatdagi har qanday obektlar va jarayonlarda rang-baranglikning inikosi sifatidagi keng talqiniga tayanadi. Unda axborot umuman olganda materiya va energiyaning dunyoda yuz beruvchi barcha jarayonlarga yo'ldosh bo'lgan makon va vaqtda taqsimlanishining turli jinsliliğini mezoni sifatida tavsiflanadi..

Universal kosmik gologramma. XX asrning 70-80-yillarida amerikalik olimlar fizik David Bom va neyropsixolog Karl Pribram universal kosmik gologramma konsepsiyasini ishlab chiqdi. *Ushbu konsepsiya kvant-mexanik o'zaro tasirlar natijasida Koinot energoinformatsion o'zaro tasirlarning vaqtda va makonda Cheksiz bo'lgan yagona, ko'p darajali sabab va oqibatlar tarmog'ini tashkil etishini, bu tarmoqda hamma narsalar turli xil darajadagi faollik bilan o'zaro tasirga kirishishini tan oladi.*

Mazkur nazariyadan energoinformatsion maydonning har bir nuqtasi makon va vaqtning boshqa barcha nuqtalari haqida malumotlarni o'z ichiga oladi va, o'z navbatida, makon-vaqt kontinumining qolgan barcha qismlarida informatsion «vakolatxona»ga ega bo'ladi, degan xulosa kelib chiqadi. Ushbu kontekstda Spinozaning: «Inson tanasi Cheksiz ko'lamlilikning ayrim ko'rinishidir», «inson aqli Cheksiz tafakkur shakllaridan biridir», degan fikrlari yangicha mazmun kasb etadi. SHu narsa diqqatga sazovorki, zamondoshimiz professor B.Iskakov jonni «mikroleptonli gologrammalar yig'indisi» deb nomlashni taklif qiladi.

Malumki, «golografiya» tushunchasi har doim obekt haqida Yorug‘lik to‘lqinlari interferensiyasiga (lot. – ko‘chirish) asoslangan to‘liq hajmdor-obrazli axborot olish metodini anglatgan. *Ushbu metod yorug‘likka tasirchan emulsiyaga eslab qolinayotgan obektdan qaytgan tarqalgan lazer nuri va bevosita lazerdan keluvchi tayanch nurning birvarakay tasirini qayd etishni nazarda tutadi. Ko‘rsatilgan o‘zaro tasir natijasida vujudga keladigan manzara eslab qolinayotgan obekt haqida to‘liq obrazli axborotni o‘z ichiga oladi.*

Torsion maydonlar. Ilgari surilgan gipotezalarga ko‘ra, beshinchi fundamental fizik daraja manbasi **torsion maydonlar** (aylanish maydonlari) bo‘lishi mumkin. Ular ekstrasensor o‘zaro tasirlarda qayd etiladi va ularda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. *Torsion maydonlar o‘ng va chap aylanishga ega bo‘lib, bu «o‘ng» va «so‘l» dunyolar mavjudligini taxmin qilish imkonini beradi.* Tabiiy muhitlar orqali o‘tishda torsion nurlanishlarning zaiflashuvi mavjud bo‘lmaydi. Olimlar taxminiga ko‘ra, torsion maydon kvantlari sifatida past energetik reliktni neytrinolar amal qiladi, torsion nurlanishlarning o‘ta o‘tuvchanligi esa tabiiy xususiyat sifatida qaraladi.

Torsion to‘lqinlarning gruppaviy tezligi kamida 10^9 s (Yorug‘lik tezligi)ga teng deb baholanadi. Ammo bunday misli ko‘rilmagan Yorug‘lik tezliklari fizika uchun yangi va favqulodda bir hol emas. Torsion maydonlar o‘z-o‘zidan hosil bo‘lishi mumkin deb hisoblanadi. Ular fizik vakuumning tasirlanishi natijasi sifatida vujudga kelishi mumkin. Har qanday shakl, hatto uning massasi juda oz bo‘lsa ham, vakuumni tasirlantirishi va uni qurshagan muhitda torsion maydon sifatida namoyon bo‘luvchi qutblashishni vujudga keltirishi mumkin. Bundan tashqari, vakuumning elektrostatik yoki elektromagnit maydoni mavjud bo‘lgan qismida doim ushbu maydon yaratadigan torsion komponentlar mavjud bo‘ladi. Birlamchi torsion maydonlar birdan-bir tavsifi axborotni tashiydigan va o‘zaro tasirga kirishish chog‘ida energiya almashmaydigan uyurmalar mavjudligi hisoblanuvchi materiya shakli sifatida qaraladi. Ikkilik signallarni torsion aloqa kanali orqali birinchi uzatish 1986 yilda amalga oshirilgan¹.

Tadqiqotchilar torsion maydonlarning effektlarini o‘rganar ekanlar, shuni qayd etadilarki, «vakuum fluktuatsiyasi magnit maydonining muayyan analogiga olib keladi. Bunda ushbu maydon torsion tuzilmalar tarzida shakllanadi. Torsion maydonlarning o‘zi vakuumning axborot tashuvchi birlamchi bioenergetik qo‘zg‘alishlari sifatida qaraladi. Ular vakkumdan materiyani tug‘ilishini, uning rivojlanishi va o‘zaro tasirlarini boshqaradi»². G.Shilov torsion maydonlar informatsion maydondagi moddiy obektning o‘rni va ahamiyatini aks ettiruvchi barqaror maydon tuzilmalari – fikr shakllaridan iborat, degan xulosaga keladi³. Barcha moddiy obektlar o‘z atrofida torsion maydonlarni yaratasa, ong ular bilan

¹ қаранг: Акимов А.Е., Шилов Г.И. Сознание, физика торсионных полей и торсионные технологии // Сознание и физическая реальность. – М., 1996. №1-2. – 70-б.

² Панов В.Ф., Тестов Б.В., Ключев А.В. Влияние торсионного поля на лабораторных мышей // Сознание и физическая реальность. – М., 1998. №4. – 48-49-б.

³ қаранг: Шилов Г.И. Теория физического вакуума. – М., 1993. – 192-б.

o‘zaro tasirga kirishish xususiyatini aniqlaydi. Torsion maydon tashqi torsion maydon tasiri yo‘qolganidan keyin saqlanib qoladigan qutblashuvni induksiylaydi. Bu holda ko‘z tegishi, issitish va sovutish kabi parailmiy fenomenlarni, shuningdek «suv xotirasi» hodisasini tushuntirish uchun imkoniyat yaratiladi. V.Yarsev insonning o‘z tanasi hujayralarini energiya va axborot bilan yagona bioenergetik organizmga birlashtirish xossasini kashf etdi. Bunda hujayralar birikuvining faollik darajasi va yo‘nalishi inson ongi va uning elementlari (aql, sezgilar, iroda) bilan belgilanadi. Umuman olganda inson organizmi o‘zining umumiy torsion maydonini yaratadi. Axborotni saqlash va uzatishda organizmdagi suv strukturasi ulkan ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, torsion maydonlar o‘z-o‘zidan hosil bo‘lishi mumkin.

Torsion maydonlar nazariyasi – hozirgi zamon fanining eng so‘nggi yutuqlaridan biri va shu bilan bir vaqtda ezoterikaning ko‘pgina hodisalarini tushuntirish uchun sababiy asos. Torsion maydon tushunchasi sinergetika tamoyillarini, xususan attraktorlar harakatiga doir qoidalarni chuqurlashtiradi. Elektromagnit nurlanish ham doim torsion elementga ega bo‘ladi. Katta tezlikda aylanayotgan jism gravitatsiya kuchini kamaytiradi. Fikr shakli torsion maydonlar yordamida uzatilganida telekinez fizikasini abstrakt holda tasavvur qilish mumkin.

Torsion maydon individual xotira substrati hisoblanadi, degan faraz ham mavjud. Professor A.Stepanov chiqargan xulosaga ko‘ra, sirdan keluvchi axborot miyaning turli zonalarida kodlanadi va ikki parallel oqimga ajraladi. Bir oqimdan kiruv parametrlarining ichki holat matritsalarini bilan ayniyligini solishtirish uchun foydalaniladi. U organizmning adaptatsion-kompensator faoliyati uchun javob beradi. Ikkinchi oqim yangi holatni qayd etadi va kelgan axborotning torsion maydonlarini induksiylaydi¹. Bunday xulosalar Stanislav Grof ilgari surgan xolotrop konsepsiyasiga ham mos keladi. Ongni xolotrop (yunon. holes – yaxlit) tushunish ong maydoni miyaning individual faoliyati bilan bilvosita belgilanishini va Koinot evolyusiyasining rang-barang tajribasini o‘z ichiga olishini qayd etadi.

Geotsentrik va nogeotsentrik moddiy tizimlar. Geotsentrik dunyo haqidagi tasavvur Yer miqyosidagi obektlarga daxldor nazariyalarning umumlashtirilishi natijasida yuzaga kelgan. Unda, aynan Yer dunyosi andoza va negiz sifatida qabul qilinadi. *Geotsentrizm talimotiga ko‘ra, moddiy tizimlarning atributlari barcha darajalarda biz Yer sharoitida duch keluvchi atributlar bilan bir xil bo‘ladi. Geotsentrizm makon, vaqt, sifat, sababiyat va boshqa atributlar ontologik manoda yagonadir,* degan tasavvurga asoslanadi.

Atributlarning universal mazmuni, inson tanasi mavjudlik shart-sharoitlarida namoyon bo‘luvchi atributlarning universal mazmuniga mos kelishi geotsentrik dunyodir . Bu Nyuton vaqti (zamani), Evklid makoni dunyosidir.

¹ қаранг: Степанов А.М. Гомеостатическая модель сознания. Вербальная оболочка // Сознание и физическая реальность. – М., 1998. №4. – 60-6.

Atributlarning universal mazmuni, inson tanasining mavjudlik shart-sharoitlarida namoyon bo'luvchi atributlarning universal mazmunidan farq qiluvchi moddiy obekt nogeotsentrik dunyo deb ataladi. «Nogeotsentrik dunyo» tushunchasi nonyuton vaqti (zamoni), noevklid makoni, umuman, borliqning nogeotsentrik turini nazarda tutadi. Mikro dunyo va megadunyoni nogeotsentrik dunyolar tomon mavjud bo'lgan «darcha»lar deb faraz qilish uchun asoslar mavjud. Ularning qonuniyatlari bizga o'zaro tasirlarning o'zga turini uzoq darajada bo'lsa ham tasavvur qilish imkonini beradi. Ayni vaqtda, makrodunyo aloqalari va o'zaro tasirlari borliqning geotsentrik turini aks ettiradi. Shunga qaramay, universal mazmunning «geotsentrik andoza»dan og'ish xususiyati to'g'risidagi masalani faqat amaliyotda echish mumkin. Bu erda falsafadan ko'ra aniq fanlarga asoslanish lozim.

Hozirgi zamon metodologlari pirovard maqsadga asoslanadigan va azaldan maqsadga muvofiq xususiyatga ega bo'lgan tizimlar bilan stixiyali xususiyatlarni namoyish etuvchi mutlaqo ochiq tizimlarni farqlashni taklif qiladi. Mazkur tasnif yangi narsa paydo bo'lishi mumkin bo'lgan maqsadni belgilash mexanizmiga yangicha nazar bilan qarash imkonini beradi.

Noorganik, organik va ijtimoiy tizimlar moddiy tizimlarning eng ko'p uchraydigan turlari hisoblanadi. Moddiy tizimning noorganik turini tasniflashda uning elementar zarralar va maydonlar, atom yadrolari, atomlar, molekulalar, makroskopik jismlar, geologik tuzilmalar kabi elementlari qayd etiladi. *Moddiy tizim organik turining tuzilishi bir necha darajadan iborat: hujayrasiz daraja - DNK, RNK, nuklein kislotalar, oqsillarni; hujayrali daraja – mustaqil mavjud bo'lgan bir hujayrali organizmlarni; ko'p hujayrali daraja – to'qimalar, organlar, funksional sistemalar (asab sistemasi, qon eltuvchi sistema), yani organizmlar (o'simliklar va hayvonlar)ni o'z ichiga oladi.* Organizmlardan yuqori tuzilmalar ham farqlanadi: bu umumiy genofond bilan bog'langan bir turga mansub jonzotlarning populyasiyalari – biologik birliklar (o'rmondagi bo'rilar to'dasi, ko'ldagi baliqlar galasi, chumoli uyasi yoki butazor va boshqalar)dir. Populyasiyaning yaxlitlik darajasi uning tarkibiga kiruvchi ayrim organizmlarning xususiyatlari va ko'payishini tartibga soladi. Masalan, chigirtkalar biomassasi muayyan chegaradan oshib ketsa, ularning ko'payishini sekinlashtiruvchi mexanizmlar ishga tushadi. Jonli materiya tuzilishining organizmlardan yuqori darajasiga populyasiyalardan tashqari biotsenozlar kiradi. Biotsenozlarning yaxlit tizimida populyasiyalar shunday bog'langanki, ulardan birining hayot faoliyati mahsulotlari boshqasining yashash shart-sharoitlariga aylanadi. Masalan, o'rmon muayyan biotsenoz hisoblanadi: unda yashovchi o'simliklar, shuningdek hayvonlar, zamburug'lar, lishayniklar va mikroorganizmlarning populyasiyalari o'zaro tasirga kirishib, yaxlit tizimni vujudga keltiradi.

Biosfera doirasida moddiy tizimning alohida turi - kishilik jamiyati rivojlangan. Bu ijtimoiy tizim ham alohida kichik tizimlar individ, oila, guruh, jamoa, davlat, millat va boshqalarni o'z ichiga oladi. Materiya tuzilishining alohida turi sifatidagi jamiyat odamlar faoliyati tufayligina mavjud bo'ladi. SHu sababli

jamiyatga o'z ehtiyojlarini qondirish va rivojlanish imkonini beruvchi ijtimoiy ishlab chiqarish bilan bog'liq inson faoliyati substansional negiz hisoblanadi.

Dunyoning birligi va rang-barangligi. Dunyo Cheksiz yaxlitlik sifatida o'zgarimas va ayni vaqtda o'zining ayrim qismlari va ko'rinishlarida o'zgaruvchan bo'lib, o'zini muttasil shakllanish va o'zgarish jarayonlarida namoyon etadi. U nafaqat shakllanish va o'z tuzilmasini murakkablashtirish yo'lida, balki aksincha – buzilish va tanazzul yo'lida ham harakatlanadi va rivojlanadiki, bu uning sifat va miqdor ko'rsatkichlari muttasil o'zgarishida aks etadi.

SHunday qilib, dunyo, bir tomondan, o'z rang-barangligida bir jinsli emas, boshqa tomondan esa, o'zining barcha tarkibiy qismlarining uzviy birligini tashkil etib, muayyan universal yaxlitlik hisoblanadi.

Ruh (Xudo, o'lmas g'oyalar, ong va sh.k.) moddiy va ko'lamli tabiatdan tashqaridagi asos deb hisoblaydigan faylasuflar dunyoning birligi muammosiga boqiy, yaratilmagan va turli atributlarga ega bo'lgan materiyani butun borliqning asosi sifatida etirof etadigan faylasuflarga qaraganda butunlay boshqacha yondashadilar.

Birinchi holda *idealistlar* to'g'risida so'z yuritiladi. Ularning qarshisida butun dunyo ikki ko'rinishda namoyon bo'ladi: birinchisi – *ideal* (chin) dunyo, ikkinchisi – *moddiy, ashyoviy* (o'tkinchi) dunyo. Bu erda dunyoning birligini tasdiqlovchi nuqtai nazarlar ham, mazkur birlikni rad etuvchi nuqtai nazarlar ham bo'lishi mumkin.

Bunday qarashlarga zid o'laroq, materiyani birdan-bir substansiya sifatida etirof etuvchi *materialistik monizm* tarafdorlari dunyoning birligini uning o'zidan kelib chiqib tushuntirishga harakat qiladilar. Bunda ular dunyoga o'z borlig'ini saqlash uchun hech kim va hech narsaga muhtoj bo'lmagan, borliqning butun rang-barangligini o'zidan yaratuvchi deb qaraydilar. Ayni holda echishga to'g'ri keladigan eng og'ir vazifa bugungi kunda (balki umuman) o'rganilgan mikro dunyo va anglab etilgan Koinotning muttasil surilib borayotgan chegaralari ortiga nazar tashlash imkoniyatiga ega bo'lmagan holda dunyoning Cheksiz ligi (yoki chekliligi)ga shak-shubhasiz dalillar keltirishdan iboratdir.

Mazkur yondashuvning hech narsaga ishonmaydigan tarafdorlari bu va boshqa shunga o'xshash savollarga o'z javoblarida faqat oqilona asoslash va unga muvofiq bo'lgan tajribani dalil sifatida tan oladilar va bunda umuminsoniy amaliyotga va fanga tayanadilar.

Dunyoning moddiy jihatdan yagonaligini tabiatshunoslikning quyidagi muhim malumotlari tasdiqlaydi:

- a) energiyaning saqlanish va o'zgarish qonuni;
- b) Mendeleevning davriy qonuni;

v) Darvinning evolyusiya haqidagi talimoti;

g) hujayra haqidagi talimot;

d) fizika (kvant mexanikasi, relyativistik fizika va sh.k.), biologiya (genetika qonunlari, fotosintez hodisalari, inson fiziologiyasi haqidagi malumotlar va sh.k.), kosmos haqidagi fan sohasida erishilgan hozirgi ilmiy yutuqlar.

Inson organizmini, tabiat va jamiyatning o'zaro aloqalarini, ularning rivojlanishini o'rganishga nisbatan yaxlit yondashuv ham dunyoning moddiy jihatdan yagonaligini namoyon etadi.

Dunyo birligi haqidagi fan dalillari, xususan, sayyoralar dastlabki «tumanlik»dan tabiiy kelib chiqqanini tushuntiruvchi Kant – Laplas nazariyasi Quyosh sistemasi kosmik jismlarining birligi to'g'risida so'z yuritishga asos bo'ldi; energiyaning saqlanish va o'zgarish qonuni tabiatda amal qiluvchi barcha kuchlar universal harakat namoyon bo'lishining turli shakllari ekanligini namoyish etdi; jonli organizmlar hujayrali tuzilishga ega ekanligi haqidagi nazariya butun tiriklikni strukturaviy birlashtirish imkonini beradi; D.I.Mendeleevning davriy qonuni barcha kimyoviy elementlarni birlashtirdi, CH.Darvinning hayvon va o'simlik turlarining kelib chiqishi haqidagi nazariyasi esa nafaqat butun tiriklikning birligini tushuntirib berdi, balki ideal ong tabiatini jonli modda bilan uzviy bog'liq deb tushunish uchun imkoniyat yaratdi. Mazkur nazariya ayrim narsalarni o'rganishdan jarayonlar va holatlarni o'rganishga, tabiatni qismlarga ajratishdan uni yagona tizimga birlashtirishga o'tish bilan tavsiflanadiki, bu keyinchalik inson va uning ongi genezisini yaxshiroq tushunish, ularning dunyodagi haqiqiy o'rnini belgilash, pirovard natijada inson va tabiatning birligini ko'rsatish imkonini berdi.

XX asrda nisbiylik nazariyasi va kvant mexanikasining yaratilishi dunyo yagona va hamma narsa bir-biri bilan o'zaro bog'liq ekanligi haqidagi tasavvurlarni sezilarli darajada kengaytirdi va mustahkamladi. XX asrning ikkinchi yarmida qudratli teleskoplar va tezlatsichlar paydo bo'lishi bilan hozirgi zamon fani makro-va mikro-dunyolarni o'rganishda yanada ko'proq olg'a siljidi. U koinot kengliklariga kirib, dunyoning fundamental asoslari haqidagi tasavvurlarimizni boyitdi. Hozirgi zamon fani maydon va moddaning, korpuskulyar va to'liqlik moddiy obektlarning birligini isbotlab berdi, materiya, harakat, makon va vaqtning uzviy birligini asosladi.

Dunyoning birligi g'oyasi tabiiy-ilmiy dalillardan tashqari tarixiy asoslashni ham taqozo etadi. Bunday asoslashni falsafasiz amalga oshirish mumkin emas, chunki u butun dunyoga yaxlit tizim sifatida yondashib, rang-baranglikda birlikni va birlikda rang-baranglikni ko'radi. Dunyoning rang-barangligi va birligi muammosining qo'yilishi va uning ilmiy asoslangan echimi borliqni bilish va izchil o'zgartirish uchun juda muhimdir. Mazkur muammoni falsafiy anglab etish ham juda alohida ahamiyat kasb etadi. Zero hozirgi davr sharoitida dunyoviy o'zaro aloqalarning universalligini nafaqat nazariy darajada tushunib etish, balki tabiatning birligi umumiy tamoyilini amaliy faoliyatda ham hisobga olish talab etiladi.

Harakat borliqning yashash sharti. Bizni qurshagan dunyoning muhim xususiyati – Koinotda va uning barcha tarkibiy qismlarida yuz beradigan tinimsiz o‘zgarishlardir. Hozirgi zamon falsafasida «harakat» tushunchasi «keng» manoda umuman har qanday o‘zgarish haqidagi tasavvur sifatida talqin qilinadi. Kengayib borayotgan Metagalaktika ham, o‘zaro tasirga kirishayotgan elementar zarralar ham, ko‘payayotgan, moddalar almashinuvini amalga oshirayotgan tirik hujayralar ham, ijtimoiy jarayonlar va hodizalar, shu jumladan fikrlash faoliyati jarayonlari ham harakatda bo‘ladi. Agar biz biron-bir tabiiy obekt yoki hodisani ularning tabiiy holatida anglab etmoqchi bo‘lsak, «harakat» tushunchasini chetlab o‘tishimiz mumkin emas. Bir qarashda, oddiy ong nuqtai nazaridan bu noto‘g‘ri, zero, aytaylik, Alp tog‘lari yoki Misr ehromlarini kuzatar ekanmiz, biz ular abadiy *harakatsizlik* holatida ekanligining guvohi bo‘lamiz. Ammo *bu harakatsizlik nisbiydir*. Umuman olganda, butun Koinot ulkan aylanma harakat holatida bo‘lib, bu erda bizning sayyoramiz Quyosh atrofida, u bilan birga – bizning galaktikamiz markazi atrofida, u bilan birga esa – galaktik sistema markazi atrofida aylanadigan kichik bir zarradir. Harakatsizlik holatidagi narsalar strukturasi ham tinimsiz o‘zgarish jarayonini boshdan kechiradi, chunki uzluksiz harakatda bo‘lgan elementar zarralardan tashkil topadi. Temperatura o‘zgarishlari, kimyoviy tarkib o‘zgarishlari va shu kabilar bunday harakatning tashqi ko‘rinishlari hisoblanadi. SHuningdek, atomlar va molekulalar ham Koinotda yuz bergan evolyusiya jarayonlari mahsulidir. Ular bizning Metagalaktikamiz mavjudligiga zamin hozirlagan Katta portlashdan keyingina vujudga kelgan. Buning ustiga hozirgi zamon geografiyasi qitalar bir-biriga nisbatan siljishini isbotladi. Ular ajralgan muz bo‘laklari kabi Erning qaynoq magmasi bo‘ylab yiliga bir necha santimetr tezlikda harakatlanadi.

Shunday qilib, *harakat abadiy va yo‘q bo‘lmas, materiyadan ajralmas va mutlaqdir. Harakatsizlik esa nisbiy bo‘lib, o‘tkinchi xususiyatga ega*. Harakat Shuning uchun ham mutlaqki, u umumiy ahamiyat kasb etadi va (harakatsizlikdan farqli o‘laroq) biron-bir tashqi omilga bog‘liq bo‘lmaydi. Oqilona nuqtai nazardan u boqiydir, chunki dunyoda uning boshi ham, oxiri ham ko‘rinmaydi va zamirida kamida ikki kuch – tortish va itarish yotuvchi har qanday borliqning o‘z-o‘zidan harakati sifatida amalga oshadi.

Harakat tiplari. Fanda obektiv borliq narsalari va hodisalari harakatining ikki asosiy tipi farqlanadi. *Orqaga qaytmaslik va muayyan yo‘nalishga egalik ham xos bo‘lgan mazkur harakat tipi rivojlanish deb ataladi*. Bunda narsa yoki hodisa strukturasi murakkablashuvi, ular tashkil topish darajasining yuksalishi yuz berishi mumkin bo‘lib, bu odatda taraqqiyot (progress) sifatida tavsiflanadi. Agar *harakat teskari yo‘nalishda – barkamolroq va rivojlanganroq shakllardan uncha rivojlanmagan shakllarga, murakkabdan oddiyga qarab yuz berayotgan bo‘lsa, bu holda regress to‘g‘risida so‘z yuritish odat tusini olgan*. Ammo progress va regressning ko‘rsatilgan xususiyatlarini mutlaqlashtirish yaramasligini etiborga olish lozim. Xususan, boshqaruv apparati tuzilmasining murakkablashuvi va byurokratiyaning o‘sishi doim ham progressni anglatavermaydi, nisbatan soddaroq va ayni vaqtda samaraliroq va ishonchliroq mashinalar, asboblari va mexanizmlar

yaratilishining regressga hech qanday aloqasi bo'lmaydi va ko'proq buning aksidan dalolat beradi.

Jonsiz tabiatda *rivojlanish*ga yulduzlarda sodir berayotgan evolyusiya jarayonlari; jonli tabiatda – turli organizmlarning o'sishi; jamiyatda – fan, texnika, sanoat ishlab chiqarishining o'sishi, ijtimoiy munosabatlarning o'zgarishi va shu kabilar misol bo'lib xizmat qilishi mumkin. «*Rivojlanish*» tushunchasi nafaqat moddiy, balki ideal dunyoga, xususan, inson tafakkuriga nisbatan, masalan, umuman ongning yoki ayrim fikr, g'oya, nazariyaning rivojlanishi to'g'risida so'z yuritilgan holda, qo'llanilishi mumkin. Fikrning rivojlanishi uning «pishib etilishi»ni, yani murakkablashuvi, takomillashuvi, yanada aniqroq mano kasb etishi va shu kabilarni anglatadi. Biroq, shuni takidlash lozimki, narsalar va hodisalarning obektiv dunyosidan farqli o'laroq, subektiv konstruksiyalar (tafakkur, g'oyalar, nazariyalar) harakati va rivojlanishiga nisbatan ko'lam ko'rsatkichlari tatbiq etilishi mumkin emas. Ayni vaqtda ideal narsalar va hodisalar darajasida rivojlanish jarayonlari, xuddi moddiy narsalar dunyosidagi kabi, *vaqtda* kechadi.

O'z-o'zidan harakat yo butun tabiatga, yo uning yuksak darajada uyushgan tarkibiy qismi – tirik organizm va jamiyatga xos xususiyatdir. Qotib qolgan materiyaga mansub ayrim narsa yoki obektga nisbatan o'z-o'zidan harakat, o'z-o'zidan rivojlanish holati xos deb aytish o'rinli emas. Chunki, ushbu obektni muayyan element sifatida o'z ichiga olgan tabiat o'z-o'zidan rivojlanuvchi yaxlit tizim hisoblanadi.

Harakatlanish shu joyda bo'lishni va ayni vaqtda, unda bo'lmaslikni anglatadi; bu makon va vaqtning uzluksizligidir, aynan u harakatni yuzaga keltiradi. Harakatning uzluksizligi uning umumiylikni namoyon etadi, uzluksizlik uning alohida jihatini ko'rsatadi. Harakatdagi umumiylik uning mohiyatini aks ettiradi, binobarin, harakatni tushunish va tariflash, uning mohiyatini anglab etish uchun harakatning uzluksizligini tushunmoq darkor.

Vaqtinchalik barqarorlik va muvozanat holati sifatida tushuniluvchi nisbiy harakatsizlik materiyaning har qanday muayyan holatiga xos. U materiyaning sifatini namoyon etadi. Nisbiy tinchlik tufayli narsalarning chegaralari mavjud bo'ladi, dunyo sifat va miqdor o'zgarishlarining rang-barangligi sifatida namoyon bo'ladi. Materiya harakati Shuning uchun ham mutlaqki, u sirdan hech narsaga bog'liq emas. SHu manoda «Dunyoda abadiy harakatdagi materiyadan boshqa hech narsa yo'q» tarzidagi fikrlar o'rinli va asoslidir.

«Materiya harakatining shakli» tushunchasi tabiat rivojlanishining muayyan bosqichiga xos bo'lgan alohida qonuniyatlarni qayd etishga xizmat qiladi. *Harakat shakli sifat jihatidan o'xshash moddiy obektlar o'zgarishlarining o'ziga xos tiplarini va ularning o'zaro tasiri xususiyatlarini aks ettiradi.* Bazan materiya harakatining muayyan shakli o'zaro tasirga kirishayotgan elementlar o'rtasidagi bog'lanishlarning o'ziga xos tizimi sifatida yoki muayyan qonunlarga bo'ysunish belgisiga ko'ra birlashtirilgan o'zgarishlar guruhi sifatida tariflanadi.

Materiya harakatining shakllari bilan insoniyat o'z tarixi bo'sag'asidayoq tanishgan, xususan qadimda ishqalanish kuchi yordamida o't yoqish mexanik harakatni issiqlikka aylantirgan. Bug' mashinasining ixtiro qilinishi teskari jarayondan – issiqlik energiyasi mexanik harakatga aylanishidan dalolat bergan.

Uzoq vaqt hukm surgan dunyoni idrok etishning mexanistik konsepsiyasi doirasida materiya harakatining barcha shakllari bir-biridan miqdor jihatidagina farq etishi taxmin qilingan.

Materiyaning harakat shakllarini tasniflash tamoyillari:

- materiya harakatining har bir shakli muayyan moddiy tashuvchi bilan bog'liq bo'lishi lozim;

- materiyaning harakat shakllari sifat jihatidan turlicha va o'zaro bog'lanmaydi;

- tegishli shart-sharoitlarda ular bir-biriga aylanadi;

- materiyaning harakat shakllari murakkablik darajasiga ko'ra farq qiladi, oliy shakl quyi shakllar sintezi sifatida tushuniladi. Bunda oliy shakllarning quyi shakllardan uzoqlashishiga ham, oliy shakllarning quyi shakllarga mexanik bog'lanishiga ham yo'l qo'ymaslik muhimdir;

- moddiy tizimlarning har bir turida bosh, oliy va ikkinchi darajali, quyi shakllar farqlanishi lozim;

- materiya harakat shakllarining tasnifi fanlar tasnifining negizi hisoblanadi.

Harakat shakllarining tasnifi. Harakat shakllarini tasniflashda qaysi tamoyillarga rioya qilinishiga qarab bunday shakllarning har xil miqdori farqlanadi. XIX asrning saksoninchi yillarida materiya tashkil topishining turli darajalariga asoslanib, materiya harakatining besh asosiy shakli: *mexanik, fizik, kimyoviy, biologik va ijtimoiy* harakatni qayd etgan.

- *mexanik harakat – turli jismlarning makonda bir joydan boshqa joyga ko'chishi: mayda zarralar harakati, katta jismlar, shu jumladan kosmik obektlar harakati, materiya harakatining mexanik shakli boshqa har qanday shaklga kiruvchi eng sodda shakl sifatida namoyon bo'ladi;*

- *fizik harakat – elektromagnetizm, gravitatsiya, issiqlik, yorug'lik, ovoz, moddalar agregat holatining o'zgarishini, fizika o'rganuvchi issiqlik, yorug'lik, elektr kuchini qamrab oladi;*

- *kimyoviy harakat – noorganik va organik tabiatdagi turli kimyoviy reaksiyalarni, kimyoviy sintez jarayonlarini o'z ichiga oladi;*

- *biologik harakat – jonli organizmlarda yuz beruvchi rang-barang biologik jarayonlar; - organik hayotni qamrab oladi. Ular tabiat sohasidagi asosiy shakllar*

hisoblanadi. Ulardan yuqorida yanada oliyroq soha – ijtimoiy-tarixiy jarayon mavjud;

- ijtimoiy harakat – ijtimoiy o'zgarishlarni, shuningdek fikrlash jarayonlarini qamrab oladi.

Harakatning har bir shakli nisbatan mustaqil bo'lsa-da, ularning barchasi bir-biri bilan bog'liq. Harakatning murakkabroq shakli o'zidan oldingi soddaroq shakllar negizida vujudga keladi, ularning sintezi hisoblanadi, lekin ularning oddiy yig'indisidan iborat bo'lmaydi. Masalan, harakatning biologik shakli harakatning soddaroq fizik-kimyoviy shakllari negizida vujudga keladi, ularni o'zining sharti sifatida o'z ichiga oladi va harakatning oldingi shakllari bilan taqqoslaganda uning butunlay yangi shakli hisoblanadi. Xuddi shuningdek harakatning ijtimoiy shakli – kishilik jamiyatining vujudga kelishi va rivojlanishi ham harakatning biologik va o'zidan oldingi boshqa barcha shakllarini o'zining sharti sifatida o'z ichiga oladi, lekin ularning yig'indisi emas, balki harakatning butunlay yangi shakli hisoblanadi.

Harakat shakllari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni to'g'ri tushunish murakkab obektlar va jarayonlarni ilmiy bilish uchun ulkan ahamiyat kasb etadi. Ko'rsatilgan munosabatlar materiya harakati turli shakllarining o'zaro tasiri bilan tavsiflanadi. Materiya harakati asosiy shakllarining keltirilgan tasnifi fan tabiat rivojlanishining teran aloqalarini endigina aniqlay boshlagan XIX asrning saksoninchi yillarida yaratilgan edi. O'sha davrda hali ko'p narsa nomalum, ko'p narsalarni aniqlash lozim edi.

Fan rivojlanishining hozirgi bosqichida harakat shakllarining yuqorida keltirilgan tasnifi to'ldirish va aniqlik kiritishni talab qiladi. Kimyo, fizika, biologiyaning rivojlanishi, kompleks fanlarning paydo bo'lishi materiya harakati shakllari rang-barangligining yagona talqini to'g'risida so'z yuritish imkonini bermaydi. Shu sababli yangi tasniflar paydo bo'ladi. Masalan, informatsion-kibernetik harakat, astronomik harakat, galaktika doirasidagi harakat, galaktikalar o'rtasidagi harakat tilga olinadi. Materiya harakati muammolarini yoritishda falsafaning asosiy vazifalari shulardan iborat.

Harakatning shakllari bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, bunda har bir keyingi harakat o'zidan oldingi harakatdan kelib chiqadi, unga asoslanadi, biroq, shunga qaramay, quyi shakl bilan bog'lanmaydi. Harakatning murakkab shakllarini soddaroq shakllarga bunday bog'lashga urinishlar falsafa tarixida «mexanitsizm», «reduksionizm» (lot. *reductio* – ortga surish) degan nom olgan, harakat ijtimoiy shakllarini biologik shakllar darajasigacha soddalashtirish biologizatorlik konsepsiyalarida mavjud.

Dunyo, uning kelib chiqishi va rivojlanishi haqidagi hozirgi tasavvurlar nuqtai nazaridan ko'rsatilgan shakllar harakatning mavjud va taxmin qilingan usullarining butun rang-barangligini aks ettirmaydi. Xususan, elementar zarralarning o'zgarish jarayonlari, XIX asrda nomalum bo'lgan mikro- va makrodunyo darajasidagi boshqa o'zgarishlar materiya harakati mexanik, fizik va kimyoviy

shakllarining o‘zaro nisbatiga doir masalani yangidan qo‘ymoqda. Bu erda mexanik shakl endi barcha fizik jarayonlar negizi sifatida qaralmaydi. Endilikda biologik harakat ham boshqacha tushunilmoqda: uning elementar zarralari, ilgari taxmin qilinganidek, oqshilli molekulalar emas, balki XX asrda kashf etilgan DNK va RNK hisoblanadi. Ayrim olimlar Yer po‘sti hamda Yer ostida yuz berayotgan jarayonlar haqidagi hozirgi tasavvurlarga asoslanib harakatning geologik shaklini farqlamoqdalar.

Materiya harakatining geologik shakli mavjudligi haqidagi taxminni qabul qilsak, materiyaning mazkur shakli mexanik, fizik va kimyoviy o‘zaro tasirlarni o‘z ichiga olgan dastlabki sintez sifatida amal qiladi. Bu qadimgi “xaos” kategoriyasida o‘z aksini topadi. Mazkur kategoriya nafaqat tartibga solinmaganlik va tartibsizlik dalili sifatida, balki stixiyali shakllanish tamoyili sifatida ham talqin qilinadi. Bu holda organik dunyo vujudga kelishidan oldingi tabiat mexanik, fizik va kimyoviy jarayonlarning olg‘a qarab rivojlanishidan emas, balki ularning umumiy, differensialanmagan o‘zaro tasiridan tashkil topadi. Ayni paytda bunda geologik va geografik omillar Erda hayot vujudga kelishi uchun tarixiy shart-sharoit yaratgan, deb takidlash lozim.

Zilzilalar Erning qattiq qobig‘ida katta siljish, sinish yoki o‘pirilishlar yuzaga kelishi va tasir energiyasining tez tarqalishi natijasida ro‘y berishi haqidagi tadqiqotlar materiya harakatining geologik shakli mavjudligining dalili hisoblanadi. SHved olimlarining fikricha, Yer qobig‘i muttasil harakatdagi plitalar bloklaridan tashkil topadi. Ular bir-birining ustiga chiqib, sunami va zilzilaga o‘xshash tabiiy anomaliyalarni vujudga keltiradi. Masalan, Shveysariya ikki plita – Afrika va Evropa plitalari tutashgan erda joylashgan. Afrika plitasi yiliga 6-11 mm\tezlikda siljib, Shveysariyaning hududiy yo‘qotishlari «sababchisi» bo‘lmoqda. Qadimgi Ural ham har yili 3-5 sm\ tezlikda G‘arbiy Evropaga yaqinlashmoqda.

Qadimgi olimlar Yer qobig‘ining harakatini ustki suvlar va Yer ostidagi issiqlik faoliyati bilan tushuntirganlar. Dunyoviy moddaning harakati kosmik sabablar tasirida ham yuz bergan, jumladan, olis o‘tmishda Yer vujudga kelganidan keyin uning yuzasi ulkan asteroidlar urilishidan larzaga kelgan, suvning 1,5 kmg‘gacha balandlikka ko‘tarilishi esa relefni buzgan, degan fikrlar ham bor.

Bazan «materiya harakatining geologik shakli» tushunchasi boshqa sayyoralarga nisbatan tatbiq etilgan. Bunday taxmin harakatning universalligini namoyish etgan, ammo bu aynan Yer sayyorasini ko‘rsatuvchi va unda zarur komponentlar: suv, kislorod, mo‘tadil harorat rejimi mavjudligini nazarda tutuvchi «geo» atamasiga zid bo‘lgan. Ushbu komponentlar majmui boshqa sayyoralarda uchramasligi mazkur fikrning isboti sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Materiya harakatining asosiy, xususiy va kompleks shakllari ham mavjud. *Materiya harakatining xususiy shakllari asosiy shakllar tarkibiga kiradi.* Masalan, fizik materiya bo‘shliq, maydonlar, elementar zarralar, yadrolar, atomlar,

molekulalar, makrojismlar, yulduzlar, galaktikalar, metagalaktikani o'z ichiga oladi.

Materiya harakatining kompleks shakllariga astronomik (metagalaktika – galaktika – yulduzlar – sayyoralar), geologik (planetar jism sharoitidagi materiya harakatining fizik va kimyoviy shakllaridan iborat), geografik (litosfera, gidrosfera va atmosfera doirasidagi materiya harakatining fizik, kimyoviy, biologik va ijtimoiy shakllarini o'z ichiga oladi) shakllar kiradi.

Materiya harakati kompleks shakllarining muhim xususiyatlaridan biri shundan iboratki, ularda pirovard natijada materiyaning quyi shakli – fizik materiya etakchilik qiladi; geologik jarayonlar fizik kuchlar, chunonchi, gravitatsiya, bosim, issiqlik bilan tavsiflanadi. Geografik qonunlar fizik va kimyoviy shartlar hamda Yer yuqori qatlamlarining o'zaro nisbatlari bilan belgilanadi.

Hozirgi zamon metodologiyasi nuqtai nazaridan materiya harakat shakllarining oddiy chiziqli joylashuvi to'g'ri emas. U har bir bo'g'inda hech bo'lmasa ikkiga – rivojlanishning asosiy va ikkinchi darajali tarmoqlariga bo'linishi zarur. Birinchi – asosiy tarmoq rivojlanish jarayonini kelajakda mazkur sifat bosqichi doirasidan tashqariga olib chiquvchi shakllar vujudga kelishidan dalolat beradi. Ikkinchi tarmoq mavjud harakat shaklining rivojlanish imkoniyatlarini ko'rsatadi. Masalan, kimyoviy birikmalar organik va noorganik birikmalarga ajrala boshlaydi. Mazkur divergensiyada (ikkiga bo'linishda) birinchi – organik shakl imkoniyatli shakl sifatida rivojlanish jarayonini materiya harakatining yangi shakli – biologik shaklga olib keladi, imkoniyatsiz tarmoq hisoblangan ikkinchi shakl biz yashayotgan zamin, uning qobig' va yuzasini tavsiflaydi. Materiya harakatining biologik shakli darajasida o'simliklarning quyidan oliyga rivojlanishi imkoniyatsiz tarmoq sifatida qaralishi mumkin, chunki bu rivojlanish jarayoni o'z tabiati chegaralaridan chetga chiqishigacha olib kelmaydi. Hayvonlarning rivojlanishi sifat jihatidan yangi obekt – inson paydo bo'lgungacha davom etadi. Bu materiya harakatining sifat jihatidan boshqa shakli vujudga kelganidan dalolat beradi. Materiya harakatining har bir shaklida makro va mikrodarajalarni farqlash, shuningdek, umumiy hamda xususiy qonuniyatlarni bilib olish maqsadga muvofiqdir.

Makon va vaqt borliqning fundamental shakllari. Makon va vaqt o'z rang-barangligida Cheksiz borliqning shakllari sifatida amal qiladi.

Makon va vaqt mohiyati haqida odamlar o'z rivojlanishining dastlabki bosqichlaridayoq fikr yuritganlar va o'tmishning aksariyat mutafakkirlari ularning tabiatini aniqlashga harakat qilganlar. Bu avvalo inson amaliyoti va bilishining rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan. Zero ular kengayib va takomillashib, mazkur kategoriyalarni yanada aniqroq va teranroq tushunishni talab qilgan. Xususan, antik davridayoq falsafadan ko'lamlil shakllar va ularni o'lchash usullari haqidagi fan sifatida ajralib chiqqan geometriya ilk aniq fanlardan biriga aylandi. Vaqtga astronomik kuzatishlar hamda koinotning boqiyiligi va inson hayotining tezoqarligi

haqidagi mulohazalar nuqtai nazaridan ham alohida etibor qaratilgan. Keyinchalik «makon» va «vaqt» kategoriyalariga qiziqish hech qachon susaymagan. Ular bilan bogʻliq koʻp sonli masalalar yuzaga kelgan. Ularning eng muhimlaridan biri quyidagicha yangraydi: makon va vaqt mustaqil mohiyatlarmi yoki ular faqat nimagadir bogʻliq holda keladimi? Matematikadan farqli oʻlaroq fizika amalda mavjud boʻlgan makon-vaqt strukturalarini (matematika yaratgan vositalar yordamida) bilishga harakat qiladi. Unda bu strukturalarni tushunishga nisbatan qarama-qarshi falsafiy nuqtai nazarlardan kelib chiqqan ikki xil yondashuv rivojlanadi.

Substansional yoʻnalishda makon va vaqt materiya va ongga bogʻliq boʻlmagan mustaqil mohiyatlar sifatida qaralgan. Substansional konsepsiya asoschilari Demokrit (makon muammosi boʻyicha) va Platon (vaqtga nisbatan yondashuvlarda) makon va vaqtni materiyaga ham, bir-biriga ham bogʻliq boʻlmagan mustaqil mohiyatlar sifatida talqin qilganlar. Demokrit atomlar harakatlanuvchi boʻshliq amalda mavjudligi haqidagi yondashuvni ilgari surgan. Uning fikricha, boʻshliqsiz atomlar harakatlanish imkoniyatidan mahrumdir. Demokrit va Epikur makonni atomlardan iborat joy deb tasavvur qilgan va uni boʻshliq bilan tenglashtirgan. Makon mutlaq, bir jinsli va harakatsiz, vaqt esa bir tekis oqadi deb hisoblangan. Demokrit, Epikur va Lukretsiy Kar talimotiga koʻra, makon obektiv, bir xil va Cheksiz . U atomlar joylashadigan joy. Vaqt (zamon)ni abadiyat bilan tenglashtirish mumkin – u oʻtmishdan kelajak sari bir maromda kechuvchi sof davomlilikdan iborat. Vaqt - voqealar yuz beruvchi joy.

Qadimgi yunon faylasuflari materiya, harakat, makon va vaqtni mustaqil substansiyalarga ajratuvchi bu gʻoyalar keyinchalik Nyuton klassik mexanikasida rivojlantirildi.

XVIII-XIX asrlarda substansional konsepsiya – mutlaq makon va vaqt konsepsiyasi falsafa va tabiatshunoslikda etakchilik qildi. Bu oʻz mohiyatiga koʻra metafizik konsepsiya edi, chunki u harakatlanuvchi materiya, makon va vaqtning aloqadorligini etiborga olmas edi. Mazkur konsepsiyaga koʻra, materiyadan tashqarida sof makon yoki moddiy jarayonlar bilan mutlaqo bogʻliq boʻlmagan vaqt mavjud boʻlishi mumkin edi. SHunga qaramay, makon va vaqt haqidagi bu tasavvurlar muayyan empirik asosdan xoli emas edi. Odatdagi tajriba va past tezliklar sohasida, makrodunyoda (makrodunyo esa inson yashaydigan asosiy muhitdir) makon, vaqt va harakatlanayotgan narsa oʻrtasida bevosita bogʻlanish kuzatilmaydi. Obekt muayyan joydan uzoqlashishi mumkin, lekin buning natijasida makon oʻzgarmaydi va yoʻqolmaydi. Vaqt ham shunday tushuniladi, u obektlarga bogʻliq emas. Shuning uchun ham bunday yondashuvlar saqlanib qolgan, ayniqsa, tabiatshunoslik mikrodunyoni oʻrganishga hali yaqinlashmagan sharoitda keng tarqalgan.

Ammo F.Gegel bunday yondashuvlarni qatʼiy inkor etgan. U makon mustaqil boʻlishi mumkin emasligini qayd etgan, vaqt haqida esa shunday degan: «...hamma narsa vaqtda yuzaga kelmaydi va yuz bermaydi, balki vaqtning oʻzi shu shakllanish,

yuzaga kelish va yuz berishdir»¹. Bu etirozlarida F.Gegel haq edi. Umuman, Gegel o‘zining obektiv idealizmida makon va vaqtga etibor qaratmagan, chunki u vaqtdan tashqari, boqiy, «sof mantiqiy» xususiyatga ega bo‘lgan bilimlarning mutlaq tizimini yaratishga harakat qilgan.

Relyasion (lot. relativus – nisbiy) yo‘nalish makon va vaqtni mustaqil mohiyatlar sifatida emas, balki real dunyo obektlari va jarayonlari o‘rtasidagi alohida munosabatlar sifatida tushunish bilan bog‘lanadi. Makonning Demokrit taklif qilgan yondashuvga zid, relyasion konsepsiya Aristotel tomonidan tariflangan. Aristotel bo‘shliqning mavjudligini inkor etadi. Uningcha, makon bir xil emas va cheklidir, u moddiy jismlar egallovchi tabiiy o‘rinlar tizimidir. «Vaqt nima?», degan savolga javob berar ekan, Aristotel shunday mulohaza yuritadi: harakatda ham, vaqtda ham doim muayyan «oldin» va undan farq qiluvchi «keyin» mavjud. Aynan harakat tufayli biz har xil, o‘zaro mos kelmaydigan «hozir»ni farqlaymiz. Vaqt shu «hozir»ning ketma-ketligi, ularning almashuvi, sanog‘i, hisobi, «oldingi va keyingiga bog‘langan harakatlar soni»dir. Aristotelida makon harakatsiz yulduzlar sohasi bilan cheklangan, ularning ortida – makon va vaqtdan tashqarida yotuvchi va hamma narsani harakatga keltiruvchi boqiy, harakatsiz, ilohiy osmon joylashgan. Aristotelning makon va vaqtga talqiniga nisbatan yondashuviga o‘xshash tasavvurlar yangi davrda G.Leybnits va R.Dekart tomonidan rivojlantirildi. Uningcha, borliqning mustaqil asoslari sifatidagi bo‘shliq ham, sof davomlilik ham mavjud emas.

Makon narsalarning ko‘lamini, o‘zaro joylashish tartibini, uzlukli yoki uzluksizligini ifodalasa, vaqt hodisalarning ketma-ketligi, jarayonlarning davomiyligini ifodalaydi. Obektlarning ko‘lamliligi va jarayonlarning davomiyligi birlamchi xossalar emas, ular tortilish va itarilish kuchlari, ichki va tashqi o‘zaro tasirlar, harakat va o‘zgarish bilan belgilanadi. Mazkur nuqtai nazardan ko‘rsatilgan munosabatlar doirasidan tashqarida makon va vaqt mavjud bo‘lmaydi. Bu yo‘nalishning atoqli namoyandasi G.Leybnitsdir (1646-1716).

O‘rta asrlar falsafasida makon va vaqtga obektiv idealizm nuqtai nazaridan yondashuv bo‘lib unga ko‘ra faqat Xudo makon va vaqtdan tashqarida deb fikrlanadi. Mazkur nuqtai nazarning shakllanishiga Avliyo Avgustin (354-430) salmoqli hissa qo‘shgan. Idealistik qarashlar makon va vaqtning obektivligini rad etish va ular ongning turli shakllariga qaramligini tan olish bilan bog‘liq. Masalan, subektiv idealizm vakillari (Berkli, Yum, Max va boshqalar) makon va vaqtga individual ong shakllari sifatida yondashadi. Xususan, D.YUm uchun ular faqat idrokda mavjuddir. I.Kant ham makon va vaqtga subektiv deb qaraydi, ammo ularni aprior, yani insonga tajribaga qadar berilgan hissiy mushohada shakllari sifatida tushunadi. I.Kant makon va vaqtni inson hissiyoti shakli – kuzatish shakli sifatida talqin qiladi. Unga ko‘ra, aynan dunyoni bilishga harakat qilayotgan subekt o‘ziga berilgan dunyoning muayyan makon va vaqtdagi shakl-shamoyilini yaratadi...

¹ Гегель Г. Наука логика-М.: 1970.-С.79.

Subektiv-idealistik yondoshuv uchun makon va vaqt – tasavvurlarning joylashuv usuli, binobarin, ular o‘z kelib chiqishining psixologik manbaiga ega. Berklidan Maxga qadar makon va vaqt - sezgilarning tartibga solingan qatorlari shakllaridir, degan yondashuv amal qildi. Ingliz faylasufi Pirson fikriga ko‘ra, makon va vaqt amalda mavjud emas, ular narsalarni idrok etishning subektiv usuli, xolos. Makon – narsalarni idrok etish tartibi yoki kategoriyasi bo‘lsa, vaqt voqealarni idrok etish kategoriyasidir. A.A.Bogdanov makon va vaqtni tashkil etuvchi va uyg‘unlashtiruvchi inson tafakkuri mahsuli deb hisoblaydi.

Makon va vaqt tabiati haqidagi metafizik yondashuvlarni rad etuvchi tabiiy ilmiy dalillar XIX asr oxirida fizikada elektromagnit nazariyasi yuzaga kelishi bilan shakllana boshladi. Uning rivojlanishi faylasuflarni bo‘shliq haqidagi tasavvurlardan voz kechishga majbur qildi. Dastlab u “efir” to‘g‘risidagi g‘oya bilan almashtirildi. Efir hamma joyda to‘liq, lekin mutlaq va hech narsaga bog‘liq bo‘lmagan makonning shakli vazifasini bajargan. Keyinchalik bu tasavvurlardan ham voz kechildi.

Makon va vaqtni mutlaqo mustaqil atributlar sifatida qayd etuvchi metafizik substansional konsepsiya XIX-XX asrlarda fanning rivojlanish jarayonida o‘z ahamiyatini butunlay yo‘qotdi. Lobachevskiy makon va vaqtning evklid geometriyasi tavsiflamagan xossalari mavjud, degan taxmini ilgari surdi. Bu taxmin absolyut makon konsepsiyasini inkor etadi, chunki makon faqat geometrik tavsiflanishi lozim edi. Asosiy g‘oyalari A.Eynshteyn tomonidan 1905 yilda tariflangan xususiy nisbiylik nazariyasida makon va vaqtning geometrik xossalari ularda gravitatsion massalarning taqsimlanishiga bog‘liq ekanligi aniqlandi. Uning fikricha og‘ir obektlar yaqinida makon va vaqtning geometrik xossalari evklid geometriyasi tamoyillaridan uzoqlasha boshlaydi, vaqtning o‘tish surati esa susayadi. A.Eynshteyn (1916 yilda) o‘zining umumiy nisbiylik nazariyasi bilan nafaqat makon va vaqtning substansional konsepsiyasiga, balki makon va vaqt mohiyatining subektivistik aprioristik talqinlariga ham qaqshatqich zarba berdi. U makon va vaqt xossalari moddiy tizimlar harakati va o‘zaro tasiriga bog‘liq ekanligini ko‘rsatib berdi. A.Eynshteyn o‘z nazariyasining mohiyatini tushuntirar ekan, shunday deb qayd etdi: «Ilgari qandaydir mo‘jiza yuz berib, barcha moddiy narsalar birdan yo‘q bo‘lib qolsa, makon va vaqt qoladi, deb hisoblashgan. Nisbiylik nazariyasiga ko‘ra esa, bu holda narsalar bilan birga makon va vaqt ham yo‘q bo‘lib ketgan bo‘ladi»¹.

Hozirgi zamon tabiatshunosligi va falsafiy xulosalar nuqtai nazaridan obektiv borliq makon, vaqt, harakat hamda modda va maydon turlari o‘zaro tasirining uzviy aloqasidan iborat. Hozirgi olimlar yagona va obektiv makon va vaqt kontinuumi to‘g‘risida so‘z yuritishni maqul ko‘radilar. Makon va vaqt moddiy jismlar mavjudligining o‘zaro bog‘langan shakllari sifatida tushuniladi. *Makon – materiya borlig‘ining ko‘lamlilik, tarkibiylik kabi xossalari va uning o‘zaro tasirlarini*

¹.Эйнштейн А. Физика в жизни моего поколения . -М.: 1963.-С. 53

ifodalovchi shakli. Vaqt – materiya borlig‘ining barcha obektlar mavjudligining davomiyligini va keyingi holat o‘zgarishlarini tavsiflovchi shakli.

Makonning uch o‘lchovliligi. Makon va vaqtning Cheksiz ligi hamda tuganmasligi, makonning uch o‘lchovliligi, vaqtning bir yo‘nalishliligi, orqaga qaytmasligi makon va vaqtning asosiy xossalari sifatida qaralishi lozim. Makon va vaqtning umumiyligi, ular universumning barcha strukturalarini qamrab olgan holda, mavjudligini anglatadi. Shu munosabat bilan makon va vaqtning nafaqat makro-, mikro- va megadunyoda, balki jonli va ijtimoiy materiyada ham namoyon bo‘lish shakllarini qayd etib o‘tish lozim. Biologik vaqt, psixologik vaqt, ijtimoiy makon va vaqt maxsus tahlil qilinadi. Makon va vaqtning obektivligi ular o‘zini idrok etish mumkinligi yoki mumkin emasligidan qat’iy nazar, olamning barcha strukturalarini qamrab olgan holda mavjudligini anglatadi. L.Feyerbax makon va vaqtni borliqning asosiy shartlari - Wesenbedingung deb hisoblaganida ayni shuni nazarda tutgan edi. Ammo bu makon va vaqt moddiy jismlar vujudga kelishiga sabab bo‘lganini anglatmaydi, balki materiya makon va vaqtdan tashqarida mavjud bo‘lishi mumkin emasligini takidlaydi. Makonning uch o‘lchovliligi hanuzgacha ilmiy-nazariy jihatdan aniq isbotlanmagan. *Makon va vaqtning Cheksiz ligi hamda tuganmasligi, makonning uch o‘lchovliligi, vaqtning bir yo‘nalishliligi, orqaga qaytmasligi makon va vaqtning asosiy xossalari sifatida qaralishi lozim.* Biz makroskopik tajribada ko‘radigan obektlar uch o‘lchovli ko‘lamlilikka – uch o‘lchovdagi o‘lchamlilikka ega. Makonning har qanday nuqtasi uch soni yordamida beriladi. Ammo makonning uch o‘lchovliligi faylasuflar uchun amalda jumboq bo‘lib qolamoqda. Ular uchun bu asoslashga urinishlar natija bermayotgan empirik postulat sifatida qabul qilinadi. Makonning uch o‘lchovliligini tariflab bergan Aristotel pifagorchilarning g‘oyalari yordamida uni asoslashga harakat qilgan. U uch o‘lchov eng mukammal va tugallangan bo‘lib, aynan 3 soni shunday xususiyatga ega ekanligini qayd etgan.

Biz yashaydigan makon uch o‘lchovlidir. Bu boshqa makon mavjud bo‘lishi mumkin emas, degan manoni anglatmaydi, lekin boshqa makonda atomlar ham, molekulalar ham, Quyosh sistemasi ham bo‘lmasligi mumkin. Agar makon uch o‘lchovli bo‘lmaganida, amaldagi barcha fizik qonuniyatlar buzilgan bo‘lar edi; narsalar biron-bir sababsiz paydo bo‘lishi va yo‘q bo‘lishi mumkin edi (ularning sabablari boshqa o‘lchovlarda bo‘lar edi); atomlar mavjud bo‘lishi mumkin emas edi, chunki elektronlar darhol yadrolar ustiga tushar edi. Butun dunyo boshqacha bo‘lishi lozim bo‘lar edi. Demak, bizning dunyomizda har qanday voqea to‘rt son: makonning voqea yuz bergan joyini qayd etuvchi uch koordinati va uning vaqt ko‘rsatkichi bilan belgilanadi. *Shunday qilib, moddiy dunyo obektlarining «3 + 1» ko‘rinishidagi makon va vaqt tuzilishiga mansubligi ularning universal xossasi hisoblanadi.*

Makonning ko‘p o‘lchovliligi. Nisbiylik nazariyasini rivojlantiruvchi va kuchli, kuchsiz, elektromagnit va gravitatsion o‘zaro tasirlarga nisbatan yaxlit yondashuvchi hozirgi tabiiy-ilmiy konsepsiyalar makonning uch o‘lchovliligi va

vaqtning bir o'lvovliligi (u o'tmishdan kelajakka qarab oqishi)ni moddiy jismlar borlig'ining ehtimol tutilgan hollaridan biri sifatida talqin qiladi va bizning Metagalaktikamiz bilan bir qatorda o'zga dunyolar ham mavjudligini faraz qilib, makon va vaqtning ko'p o'lvovliligi g'oyasini ilgari suradi. *Boshqa olamlarda makon va vaqt butunlay o'zgacha tuzilish, ko'lamlilik va shakllarga ega bo'lishi mumkinligi taxmin qilinadi.*

Makon va vaqt ko'rsatkichlari nafaqat mikro-, makro- va megadunyo darajasida, balki jonli tabiat, ijtimoiy borliq darajasida ham o'ziga xos xususiyatlarga egadir.

Erda hayot paydo bo'lishi bilan go'yo jonsiz tabiat makon va vaqti doirasida joylashgan alohida, biologik makon va vaqt o'lvovi yuzaga keladi. SHu munosabat bilan jonli va jonsiz tabiatdagi simmetriklik muammosi hayotni o'rganish bilan shug'ullanuvchi olimlar etiborini o'ziga tortdi. Jonli organizmlar simmetriyasi va asimmetriyasi hodisalarini L.Paster, I.Kant, V.I.Vernadskiy va boshqalar o'rgandi. Ular jonsiz tabiatga xos bo'lmagan asimmetriya molekulyar darajada atomlar guruhlarida «so'l» va «chap» qanotlar ko'rinishida namoyon bo'lishi, organizmlar darajasida esa ularning tuzilishi va dinamikasida aks etishini aniqladilar.

Makon va vaqtning metrik xossalari. *Metrik xossalarga makon va vaqtning ko'lamlilik hamda davomlilik kabi miqdor ko'rsatkichlari kiradi. Ko'lamlilik joy va o'rinning mavjudligini nazarda tutadi. Joy – makon chegarasi va u qamrab oluvchi muayyan hajmning birligi. O'rin – bir joyning boshqa joylarga nisbatan koordinatsiyasi. Joy va o'rin makon tuzilishini belgilaydi. SHunday qilib, biz makon tuzilishi haqida so'z yuritganda uning joy va o'rnini tavsiflashimiz shart. Davomlilik va lahza vaqtning asosiy metrik ko'rsatkichlari hisoblanadi. Lahza – davomlilikning boshqa parchalab bo'lmaydigan atomi, davomlilik kvanti. Davomlilikning o'zi bunda muayyan chegaraga solingan lahzalar majmui sifatida tushuniladi. Muayyan obekt mavjudligining dastlabki va pirovard lahzalari ana shunday chegara sifatida amal qiladi. Davomlilik – obekt mavjudligining davomiyligi va saqlanishidir. Davomlilik voqea-hodisalarning ayni bir vaqtda yuz berishi – sinxroniya yoki ketma-ketlik – diaxroniya munosabatlari bilan tavsiflanishi mumkin.*

Makon va vaqtning topologik xossalari. *Topologik xossalarga sifat ko'rsatkichlari, makon va vaqtning uzluksizligi, bog'liqligi, vaqt tartibi, yo'nalishi va o'lvovliligi kiradi. Makonning topologik xossalari – makonning bir xilligi, izotropiligi (jarayonlar ayni bir sharoitda bir xil kechishi) hamdir. Vaqtning topologik xossalari - bir yo'nalishlilik, muayyan o'lvovlilik, orqaga qaytmaslik. Bu ko'rsatkichlarning hammasi hanuzgacha faylasuflar shug'ullanadigan qator muammolarni tashkil etadi va falsafiy jihatdan ilmiy-nazariy asoslashga muhtojdir.*

Vaqt tartibi va yo'nalishi. Vaqt shakllanishi yoki o'tishining obektiv xususiyati to'g'risidagi masala qadimdan hozirgi kungacha qizg'in bahsga sabab bo'layotgan muammodir. Odatda, vaqt tartibi va yo'nalishi to'g'risida so'z yuritilganida, uning o'tmishdan hozirgi vaqt orqali kelajakka o'tishi nazarda tutiladi.

Vaqt bir yoʻnalishli, nosimmetrik va orqaga qaytmaydigan jarayon sifatida namoyon boʻladi.

Borliq hodisalarini vaqtda tartibga solish uchun «vaqt» tushunchasining ikki majmuidan foydalanilgan: «Oʻtmish – hozirgi vaqt – kelajak» tushunchasining sifati va mazmunini ifodalashda vaqtning psixologik tavsifi koʻproq mos keladi. Vaqtning miqdoriy tahlil uchun : «oldin – ayni bir vaqtda – keyin» tushunchalari qoʻllaniladi.

Borliq hodisalarini vaqtda tartibga solish uchun «vaqt» tushunchasining ikki majmuidan foydalanilgan: A majmui – «oʻtmish – hozirgi vaqt – kelajak» va V majmui – «oldin – ayni bir vaqtda – keyin». Vaqtning miqdor koʻrsatkichlari qayd etilgan hollarda vaqt tushunchalarining ikkinchi majmuidan foydalanilgan. Masalan: 4 minut oldin, 5 minut keyin va h.k. miqdor tahlilini ifodalaydi. Ammo tilimizning tuzilishiga koʻra 4 soat «oʻtmish», 5 minut «kelajak» qabilida gap tuzish imkoni yoʻq. Vaqtni tushunishning bu ikki xil jihati 1908 yilda J.Mak-Taggart tomonidan aniq tavsiflangan. U «vaqt» tushunchasining ikki majmui haqidagi tasavvurni ilmiy muomalaga kiritdi.

Makon va vaqtning dinamik va statik konsepsiyalari. *Dinamik konsepsiya vaqt jarayonlarining, shu jumladan vaqt oqimining obektiv borligʻini, yani oʻtmish, hozir va kelajak voqealari oʻrtasida real fizik farqlar mavjudligini tan oladi.*

Ayni vaqtda, mazkur konsepsiya nuqtai nazaridan, haqiqiy borliqqa hozirgi vaqt voqealarigina ega boʻladi. Oʻtmish xotiralarda mavjud, kelajak voqealari amalda roʻy beradimi, yoʻqmi - nomalum. Faqat hozirgi vaqtda ehtimol tutilgan voqealar oʻtmishdagi sabablar asosida real borliqqa aylanishi mumkin. Soʻngra ular ham oʻz davrida muayyan iz qoldirib, oʻtmishga aylanadi.

Vaqt tartibi va yoʻnalishini tushunib etishning ikkinchi statik konsepsiyasi - obektiv vaqt jarayonlari mavjudligini inkor etmagan holda, vaqtning oʻtmish, hozir va kelajakka boʻlinishini rad etadi. Unda «oldin - keyin» vaqt nisbati obektiv deb etirof etiladi. Ushbu konsepsiya tarafdorlari B.Rassel va T.Gold fikriga koʻra, kuzatish etibordan soqit etilsa, dunyoda har qanday holat yuz berishi mumkin. Gʻarb falsafiy adabiyotlarida bu konsepsiya «Sovib qolgan olam konsepsiyasi» deb ataladi.

Ammo statik konsepsiyadagi vaqtning harakati va oqimi subekt – kuzatuvchiga bogʻliqligi haqidagi asosiy tezisiga qoʻshilish qiyin. Koʻpgina jarayonlar kuzatuvchidan qatʼiy nazar mavjud boʻladi va yuz beradi. Eng katta muammo – hozirgi vaqtni qanday tushunish mumkinligida. *Inson uchun eng qimmatli narsa vaqtdir.* Xohish va harakat boʻlsa, hamma narsani topish yoki qoʻlga kiritish mumkin, lekin oʻtgan vaqtni orqaga qaytarib boʻlmaydi.

Ijtimoiy vaqt. Hozir «Ijtimoiy vaqt mavjudmi» degan masala bahsli emas. Muammo uning mazmunida qanday ustuvorliklar va konstantalar mavjudligida. *Ijtimoiy vaqt individ vaqti va avlod vaqtiga boʻlinadi. U kishilik jamiyatining oʻzgaruvchan informatsion sigʻimiga bogʻliq.* Falsafiy adabiyotlarda vaqt jarayonlariga makon xossalari kirishi, yani *ijtimoiy vaqt uzunligi – hayot sikllari*

bosqichlarining ketma-ketligi sifatida, kengligi – faoliyat turlarining miqdoriy rang-barangligi sifatida, chuqurligi – individning o‘zi ishtirok etayotgan faoliyat turlaridagi faollik darajasi sifatida ko‘rsatilishi bilan bog‘liq fikrlarga ham duch kelish mumkin. Makon va vaqt bog‘lanishi hamma joyda har xil bo‘lgan «mahalliy vaqt» tushunchasida yorqin namoyon bo‘ladi.

Bularning hammasi makon, vaqt va materiya jarayonlari o‘zaro bog‘liq ekanligini yana bir karra tasdiqlaydi. Nazariy jihatdan esa, makon va vaqt munosabatlarning relyasion va dinamik konsepsiyalari rivojlanishining ahamiyatini yanada oshiradi, bu borada tadqiqotlar olib borish zaruratini namoyon qiladi.

Ijtimoiy vaqt ham o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, u, biologik va planetar-kosmik vaqtdan farqli o‘laroq, notekis oqadi. *Ijtimoiy vaqtning yana bir jihati bu subektiv, ichki vaqtdir. Subektiv vaqt borliq vaqti emas, balki ong vaqti hisoblanadi. Ammo o‘z tabiati va mohiyatiga ko‘ra bu ijtimoiy fenomendir¹. Subektiv vaqtni psixologlar bilan bir qatorda sanatsunoslar va estetika mutaxassisleri ham keng o‘rgananlar².*

Ijtimoiy hayot tabiiy hayotning davomi hisoblanadi. Odamlar tug‘iladilar, yashaydilar, o‘ladilar, nasl qoldirish yo‘li bilan o‘z nasabini muttasil quvvatlaydilar. Ijtimoiy darajada «individ – avlod – nasab» uchligigina emas, balki bir strukturaviy darajadan boshqa strukturaviy darajaga o‘tish obektiv tamoyili ham saqlanib qoladi. Ammo muammoning mazmuni amalda boshqacha ko‘rinish kasb etadi. Inson vaqti uning hayot faoliyati vaqtidir. Hayvon o‘z mohiyatini tabiatdan oladi, u o‘zini o‘zi yaratmaydi va shu manoda u tarixiylikdan xolidir. Hayvon o‘z tarixini o‘zi yaratmaydi – tarix uni yaratadi. Inson esa o‘z tarixini o‘zi yaratadi. Insonning mohiyati uning o‘z ijtimoiy munosabatlari majmui bilan belgilanadi.

Hozirgi paytda «individ – ijtimoiy avlod – jamiyat tarixi» uchligi ijtimoiy vaqtni o‘rganish va uning mazmunini aniqlashning obektiv asosi sifatida qaraladi. *Ijtimoiy vaqtda muayyan odamlar, ijtimoiy jamoalar, ayrim hamjamiyatlar, millatlar, davlatlar va pirovard natijada butun insoniyat borlig‘ining vaqt ko‘rsatkichlarini farqlab, ijtimoiy vaqt strukturasi murakkabligi to‘g‘risida ham so‘z yuritish mumkin. Ulardan har birining yashash vaqti va surati har xil bo‘lib, o‘z xususiyatiga ega. Aslini olganda, turli mamlakatlar va xalqlar jamuljam holda butun insoniyatni ifoda etsa-da, amalda turli tarixiy davrlarda: kimdir o‘tmishda, kimdir*

¹ каранг: Блонский П.П. Память и мышление. – М., 1994; Восприятие пространства и времени. – Л., 1999; Проблема восприятия пространства и времени. – СП(б), 1998; Фресс П. Приспособление человека к времени // Вопросы психологии. 1996. №1.

² каранг: Бахмутский В.Я. Категория времени во французской классической трагедии 17 века. – М., 1990; Бахтин М.М. Время и пространство в романе // Вопросы литературы. 1994. №3; Виплер Б.Р. Проблема времени в изобразительном искусстве. – М., 1999; Ленартович Ст. Организация времени и пространства в произведении киноискусства. – М., 1999; Лисса З. Проблема времени в музыкальном произведении. – М., 1995; Тураева З.Я. Категория времени. Время грамматическое и время художественное. – М., 1999.

hozirgi davrda, kimdir esa kelajakda yashaydi. Bunga, xususan, amerikalik taniqli futurolog E. Toffler etiborni qaratadi. Uning fikricha, «Er aholisining 70% oʻtmishda (turli oʻtmishda), 25% - hozirgi davrda, 3% - kelajakda yashaydi, qolganlar esa marginallar boʻlib, ular har qanday vaqtdan tashqaridadir»¹.

Davr ruhi tushunchasi ijtimoiy vaqt umumiy kategoriyasi bilan bevosita va tabiiy bogʻlanishi lozim. U ichdan, yani oʻz mazmuni tomonidan va sirdan – davr ruhi zamondoshlar hayotida, ularning turmush tarzi va fikrlash uslubini shakllantirishda bajaruvchi funksiyalar nuqtai nazaridan oʻrganilishi darkor.

Har bir davrning oʻz ruhi bor, chunki davr – bu ayni holda inson avlodi vaqtidir. Bu erda zamondoshlar ijtimoiy-tarixiy avlodining manaviy dunyosi haqida gapirish oʻrinli boʻladi. Avlodning manaviy dunyosi koʻp sonli, bazan oʻz xususiyatiga koʻra bir-biriga zid boʻlgan omillar majmui tasirida shakllanadi. Ammo bu omillar orasida moddiy hayot ziddiyatlari birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Ushbu ziddiyatlar ijtimoiy vazifalarni ilgari surish, jamiyatda ijtimoiy manfaatlarning rivojlanishi, bazan ularning qutblashuvini belgilovchi obektiv asos sifatida amal qiladi. Moddiy hayot ziddiyatlari murakkab voqealar va jarayonlarda, xronologik zamondoshlar ularda oʻynaydigan oʻta rang-barang va hatto qarama-qarshi rollarda oʻzini namoyon etadi.

Odamlar mazkur avlodining faoliyati qancha mazmunli va izchil boʻlsa, unda keng xalq ommasi ishtirok etsa, davr ruhi shuncha kuchli boʻladi, u tarixda shuncha chuqur iz qoldiradi, shuncha koʻp qahramonlarni yaratadi, kelajak avlodlarga shuncha goʻzal va jozibali boʻlib tuyuladi. Zamondoshlar faoliyatining mazmuni, mohiyati va maqsadlari, ular oʻz maqsadlariga erishish uchun tanlovchi va foydalanuvchi shakllar, usullar va vositalar, yuz berayotgan ijtimoiy voqealar jarayoni va natijasiga koʻmaklashuvchi va ularga bevosita yoki bilvosita tasir koʻrsatuvchi tarixiy sharoitlar majmui odamlar avlodi yashayotgan davrga alohida, betakror ruh va tus baxsh etadi. Bu faoliyat, bu voqealarni ularning ishtirokchilari oʻz boshlaridan kechiradilar; ularni kelajak avlodlar anglab etadilar, baholaydilar va qayta baholaydilar. Bazan yuz bergan voqeaning asl mazmuni va mohiyati oradan ancha vaqt oʻtganidan soʻng ayon boʻladi.

Davr ruhi – avlodning amaliy aqli turli tarixiy zamonlarda ijtimoiy munosabatlarning umumiy rivojlanish darajasiga va jamiyatning etuklik darajasiga qarab turlicha mazmun kasb etadi, asosan ongning u yoki bu shakllarida mujassamlashadi. Malumki, oʻrta asrlarda mafkuraviy hayot deyarli toʻliq din bilan belgilangan, oʻta radikal gʻoyalar ham, oʻta konservativ gʻoyalar ham bu davrda dunyoviy va haqiqiy hayotga butunlay begona boʻlgan shakl-shamoyil kasb etgan. Boshqa zamonda esa bu rol oʻzga turlar va janrlarga oʻtgan: masalan, XX asrning 30–40-yillari Oʻzbekistonda badiiy adabiyot ijtimoiy gʻoyalar jarchisiga, umummilliy minbarga aylangan. Ijtimoiy tafakkur tarixini oʻrganish turli xalqlarda turli tarixiy bosqichlarda oʻz davrining etakchi gʻoyalari bunyodkori va tashuvchisi

¹ Каранг: Вестник Российского университета дружбы народов. Серия «Философия». 2006. №1(11). –С. 46.

rolini odatda ongning o'zida nazariy mazmuni o'ta emotsional, yorqin shakl bilan birlashtirgan shakllari va darajalari o'ynaganini ko'rsatadi. Mafkura odamlar ongi va qalbini egallagan taqdiridagina chinakam moddiy kuchga aylanishi mumkin.

Ayni shu sababli davr ruhi ehtiroslardan xoli, sovuqqon ong bo'lishi mumkin emas. Mazkur ong qadriyat sifatida maydonga chiqadi, insonga hayotda yo'l ko'rsatadi, shu tufayli ham u boshqaruvchi xususiyat kasb etadi. U hozirgi zamoni maqbul va kutilgan kelajak nuqtai nazaridan anglab etishdir. Bunga zamondoshlar avlodining o'z ajdodlariga, ananalarga bo'lgan munosabati, yani o'tmishga munosabat ham kiradi. Shunday qilib, avlod ruhi nafaqat yuzaki, balki ichki vaqt mezonlariga ham ega bo'ladi: u muayyan darajadagi ijtimoiy-tarixiy rivojlanish mahsuli bo'lish bilan bir vaqtda ijtimoiy voqelikning o'zi guvohi bo'layotgan jarayonlari va voqealariga o'z munosabatini bildiradi. Davr ruhining ichki mezonlari zamondoshlar avlodi faoliyatining subektiv yo'nalishi va mo'ljallariga, bu orqali esa – jamiyatda kutilayotgan o'zgarishlarning xususiyatiga, yuzaga kelgan tarixiy vaziyatda odamlar tanlashga harakat qilayotgan yo'lga ishora qiladi.

Individual ong zamirida ham, ijtimoiy ong zamirida ham ijtimoiy vaqtni anglab etish yotadi. Avlod ongi bu munosabatda alohida o'rin egallaydi. Gnoseologik subekt sifatida ijtimoiy-tarixiy avlod individ va jamiyat o'rtasidagi oraliq bo'g'indir. Ammo bu hol ong muammosini o'rganishda doim ham etiborga olinavermaydi. Zamondoshlar avlodi kishilik tarixining gorizontol kesimi, yani vaqtning muayyan, xronologik jihatdan ixcham qismida olingan jamiyatdir. Shu tufayli ham avlod tarixiy harakatni, o'z borlig'i vaqtini anglab etishi ijtimoiy ong mexanizmini harakatga keltiruvchi birlamchi, boshlang'ich omil hisoblanadi.

Avlod ongi, binobarin, umuman ong zamirida yotuvchi vaqtni anglash tashqi dunyoning obektiv jarayonlari haqidagi nazariy bilim sifatidagina emas, balki eng avvalo ommaning faol yondoshuvi va subektiv manfaatlari, uning xohish-irodasi ifodasi sifatida maydonga chiqadi. Uni vaqt muammosini nazariy, yani ilmiy va falsafiy, konseptual anglab etish bilan bog'lash mumkin emas, chunki mazkur muammo rivojlangan va etuk madaniyat kun tartibiga ancha kech qo'yilgan va hatto hozirgi zamon ijtimoiy ongining tarkibiy tuzilmasida ham uning eng yuksak darajalariga tegishlidir. Til lingvistikadan oldin, tafakkur esa mantiqdan ilgari paydo bo'lganidek, o'z davrini (ajdodlar va avlodlarga o'zining va o'z zamondoshlarining munosabatini, avlodlar almashuvi dalilining o'zini) anglab etishga intilish har qanday fandan oldinroq paydo bo'lgan, yani ilk nazariy va nonazariy darajalarda vujudga kelgan. U yoki bu davrda, odamlarning u yoki bu avlodida vaqt haqidagi tasavvurning rivojlanish darajasi xususida faylasuflarning risolalarigina emas, balki o'sha davrga mansub bo'lgan madaniyat boyliklari ham darak beradi. Bu haqda eng avvalo odamlar faoliyatining xususiyati va ularning turmush tarzi dalolat beradi. Vaqtga muayyan munosabat zamondoshlarning dunyoqarashida, ularning manaviy dunyosida, xalq ijodi (eposi)ning mazmunida, oddiy, ommaviy ong sohasida va hokazolarda namoyon bo'ladi. Har qanday nazariyalar va konsepsiyalardan farqli o'laroq, bu soha amaldagi tarixiy rivojlanish jarayoniga, yuz berayotgan voqealarga mazkur avlodning bevosita munosabatini aks ettiradi. O'z-o'zidan ravshanki, bu

erda mazkur mavzuda umumiy fikr-mulohazalargina bildirilishi mumkin; ushbu nuqtai nazardan mazmunli va konkret tahlil esa kengroq va murakkabroq mustaqil ilmiy tadqiqot vazifasini tashkil etgan bo'lar edi.

Davr ruhi real ijtimoiy vaqt (avlod vaqti) mahsuli va ayni paytda zamondoshlarning unga bo'lgan subektiv munosabati sifatida avlodning o'z o'zligini anglash jarayonini belgilaydi. Bu davr ruhining ijtimoiy va gnoseologik funksiyasi hisoblanadi. Ijtimoiy borliq sohasida ziddiyatlar qancha keskin va kuchli, ijtimoiy ong strukturasi qancha murakkab bo'lsa, davr ruhi shuncha kuchli va etuk darajada bo'ladi. Hamonki ijtimoiy ong ijtimoiy borliqning inikosi hisoblanar, ijtimoiy inikos esa o'z tabiati va mohiyatiga ko'ra voqelikni ildamroq aks ettirar ekan, ijtimoiy munosabatlar rivojlanishi bilan inson ongining ildam xususiyati kuchayib boradi, ayni shu zaminda inson miyasida barcha g'oyalar va tasavvurlar tug'iladi, degan umumiy xulosaga kelish mumkin. Odamlarning muayyan, konkret avlodi tarixiy harakatning real, bevosita tashuvchisi bo'lgani bois, mavjud ijtimoiy borliq haqida zamondoshlarning tasavvuri obektiv ijtimoiy vaqtga bo'lgan munosabat shakli (yani ijtimoiy mo'ljal) sifatida inson o'zligi faol ishlashini taminlovchi ichki manbani, ijtimoiy ongning barcha shakllari va darajalari mahkamlanadigan o'ziga xos «sinch»ni tashkil etadi.

Mazkur vaqtga zamondoshlarning munosabati qancha chuqur bo'lsa, jamiyatning intellektual va manaviy hayoti shuncha faol va boy bo'ladi. Vaqtni his qilmaslik avlodning manaviy o'limi, uning tarixiy jarayondan tushib qolishi bilan barobardir. Ammo vaqtni his qilish yoki his qilmaslik individlarning antropologik xossasi, ularning peshonasiga yozilgan yoki yozilmagan qobiliyat emas. Agar bu xossa bo'lsa, uni ijtimoiy xossa deb nomlash o'rinli bo'ladi, yani uning o'zi ijtimoiy vaqt, yuz berayotgan tarixiy jarayon darajasi va xususiyatining ko'rsatkichidir. Avlod ijtimoiy vaqtining ichki mezonlari uning tashqi mezonlari bilan belgilanadi: obektiv, moddiy, ijtimoiy munosabatlarning rivojlanish omillari va qizg'inlik darajasiga qarab tarixiy jarayonga bo'lgan subektiv munosabatning mazmuni va xususiyati dam kuchayadi va chuqurlashadi, dam susayadi yoki o'z shakl-shamoyilini o'zgartiradi. O'z-o'zidan ravshanki, turg'unlik davrlarida va jamiyat hayotida tub burilish yasagan yirik voqealarga boy davrlarda zamondoshlarning ijtimoiy vaqtga bo'lgan subektiv munosabati bir xil bo'lmaydi. Ayni shu sababli bo'ronlar va bo'hronlarni boshdan kechirgan avlod davrining ruhi va yarim mudroq holatda yashayotgan avlod davrining ruhi ham har xil bo'ladi.

Shunday qilib, vaqtni his qilish unga daxldor bo'lish demakdir. Ammo bu avlodning o'z o'zligini anglashi hamdir, zero zamondoshlar yagona maqsadga erishishga qaratilgan umumiy ishlarda ongli ravishda ishtirok etgan taqdirdagina o'zlarini yakdil va birdam his qilishlari mumkin. Shundagina «o'z-o'zidagi» avlod «o'zi uchun» avlodga aylanadi.

Tarix vaqti – bu inson vaqti, yani ijtimoiy vaqtning eng oliy darajasidir, chunki tarix o'z-o'zini yaratuvchi, o'z-o'zidan rivojlanuvchi jarayondir. Individ o'limga mahkum, avlodlar keladi va ketadi, lekin birorta ham hayot izziz yo'q bo'lib

ketmaydi, yani tarixdan chetda qolmaydi. Tarixiy vaqt o'limga mahkum bo'lgan odamlarning real hayot faoliyati bilan uzviydir. Ayni paytda u har bir individga nisbatan uning substansiyasi sifatida amal qiladi. Bu individ va avlod o'z asri bilan uzviy ekanligini, insonning mohiyati ijtimoiy munosabatlar majmui bilan belgilanishini anglatadi.

«Tarixni odamlar yaratadi» degan tezis va «tarix odamlarni yaratadi» degan antitezis sintez yo'li bilan echiladi: odamlar o'z tarixi vositasida o'zlarini o'zlari yaratadilar. Barcha odamlar, barcha avlodlar faoliyatining umumiy mahsuli bo'lgan «tarix daryosi» o'ziga olg'a yo'l ochish bilangina kifoyalanmaydi. O'z yo'lida u kengayib, suvga to'lib boradi. Uning oqimi ham jadallashadi, qirg'oqlari kengayadi, tubi yanada chuqurlashadi. Tarixni vaqt nuqtai nazaridan o'rganish uning «uzunlik», «kenglik» va «chuqurlik» mezonlariga muvofiq o'rganish demakdir. Tarixiy vaqtning «uzunligi» deganda asosan uning topologik xossalari: o'lchamlari, asosiy bosqichlarining ketma-ketligi, bu ketma-ketlikning muqarrarligi tushuniladi.

Tarixning «kengligi» - bu tarix chegarasining kengayishi demakdir. Bunda kengayish tushunchasini ikki xil manoda: tarixiy jarayon yangi va yangi hududlarni qamrab olishi sifatida (kengayishning yuzaki, ekologo-geografik jihati) va «tarix doirasi»ning, yani kishilar umumiy tarixiy faoliyati maydonining kengayishi sifatida tushunish o'rinli bo'ladi (kishilar umumiy tarixiy faoliyati faol tarix ijodkorligiga uning yangi va yangi ishtirokchilarini keng jalb qilishni ham nazarda tutadi).

Insoniyat tarixi vaqti – bu uning obektiv vaqtigina emas. U ong fenomeni hamdir. Jamiyat, tarix nafaqat obekt, balki subekt sifatida ham maydonga chiqadi. Bunda u gnoseologik subektning eng oliy tipi va darajasi hisoblanadi. Ijtimoiy ongning yaxlit strukturasi vaqtning anglab etish o'zini uning alohida, ichki darajasi sifatida, jamiyatni tarixiy anglash sifatida namoyon etadi.

Darhaqiqat, tarixiy jarayon insoniyat vaqtda boshdan kechiruvchi o'zgarishlarning umumiy xususiyati va manosi demakdir. Ushbu o'zgarishlarning mazmuni tarixiy vaqtning ichki ziddiyatlari va jumboqlarini belgilaydi. Bu erda shunday jumboqlardan ikkitasini ko'rsatib o'tamiz.

1. Insoniyat yildan-yilga ulg'ayib va ayni paytda yosharib boradi. Uning ulg'ayishi yoshiga yosh qo'shilishi bilan, yosharishi esa – ijtimoiy hayot uzluksiz yangilanishi bilan izohlanadi. Insoniyat bolaligi – biz uchun qadim zamon, yangi davr esa, aksincha, o'zimiz yashayotgan zamondir. Ko'rib turganimizdek, bu jumboq tarixiy davrlar tasnifida o'z ifodasini topadi.

2. O'tmishni o'zgartirish mumkin emas, deb hisoblanadi. Bu fikr tabiat uchun mutlaqo o'rinlidir. Ammo jamiyatda, tarixda o'tmish o'zgarishi mumkin. Har bir yirik tarixiy voqea nafaqat istiqbolli kuchga, balki retrospektiv kuchga ham ega bo'ladi. Hozirda yashayotgan avlod o'z izdoshlarini tayyorlash, ularga talim va tarbiya berish bilan bir vaqtda o'z ishlari, g'oyalarining salafchilarini ham tanlaydi. Lo'nda qilib aytganda, u o'tmish ummonidan bugungi maqsad, bugungi manfaatlarga muvofiq o'ziga zarur va qadrli bo'lgan mo'ljallarni tanlab oladi.

Masalan, O‘zbekiston mustaqilligining o‘tmishi – bu Muqanna qo‘zg‘oloni, Jaloliddin Manguberdi kurashi, Parij Kommunasining o‘tmishi – bu Spartak qo‘zg‘oloni va Buyuk fransuz inqilobi, gitlerchilar natsizmining o‘tmishi esa – bu «ko‘ppak-ritsarlar» va Barbarossa. Shunday qilib, o‘tmishning mazmuni o‘zgaradi, yani u xotirada, kelajak avlodlar munosabatida o‘zgaradi.

Tarix haqida biz uning oqibatlari, yani hozirgi zamonga qarab hukm chiqaramiz. Tarixning intihosi insoniyat halokati bilan barobardir. Ammo tarixning mazmuni uning obektiv qonuniyati tan olinishi bilangina belgilanmaydi. Amalda jamiyatgina emas, balki tabiat ham muayyan qonunlarga muvofiq rivojlanadi. Ammo o‘simliklar dunyosining rivojlanish jarayoni ham, hayvonot dunyosining rivojlanish jarayoni ham «mazmun»ga ega emas, u faqat insoniyatning rivojlanish jarayonida, yani kishilik tarixidagina mavjud.

Inson hayoti mazmunga ega bo‘lgani, yani qadriyat hisoblangani tufayli ham insoniyat tarixi mazmunga egadir. Shu manoda insoniyat tarixi mazmunining mezoni va ayni paytda uning taraqqiyotini belgilovchi mezon sifatida insonparvarlik maydonga chiqadi¹. Tarixiy jarayon yo‘li, uning yo‘nalishi sirdan belgilanmagan, lekin u insoniyat tomonidan ham maqsad sifatida qo‘yilmagan va anglab etilmagan. Tarixning mazmuni individlarning muayyan maqsadga erishishga qaratilgan faoliyatidan kelib chiqadi, lekin uning o‘zigagina bog‘liq bo‘lmaydi va u bilan to‘la muvofiq kelmaydi. Tarixning mazmuni deganda inson avlodlarining hayoti va almashuvi jarayonlarining obektiv mazmuni tushuniladi. Unda inson borlig‘ining murakkabligi, ziddiyatlarga to‘laligi va o‘ziga xosligi bo‘rtib namoyon bo‘ladi. Har kim va hammaning erkin rivojlanishini qaror toptirish uchun kurash bilan bog‘liq bo‘lgan har qanday jarayon teran tarixiy mazmun kasb etadi. O‘z shaxsiyatini namoyon etish uchun kurashni inson ham tabiiy, ham o‘z faoliyati natijasida vujudga kelgan stixiyali kuchlarga qarshi olib boradi.

Insoniyatning ijtimoiy-tarixiy rivojlanishi zamirida orqaga qaytarib bo‘lmaydigan jarayon – ijtimoiy ishlab chiqarish yotadi. Bu mexanizmning ishi tarix motorigina emas, balki uning soati hamdir. Tarixiy va astronomik soatlar ayni bir vaqtni ko‘rsatmaydi. Tarixiy vaqtga nisbatan xronologik shkala tashqi chegara hisoblanadi. U voqealarning davomlilik va ketma-ketligini yagona obektiv miqyosda ifodalash imkoniyatini beradi. Tarixiy jarayon suratining o‘ssishi yoki pasayishini faqat shu asosda aniqlash va kuzatish mumkin. Ammo xronologiya ijtimoiy rivojlanish yo‘lining mazmuni va xususiyatiga tegishli emas. O‘tmish voqealari, hodisalari va obidalarining eng aniq sanasi ham ularning umumiy tarixiy jarayondagi sabablari, asoslari va mazmuni haqidagi savollarga javob bermaydi, chunki buning uchun jarayon chegarasinigina emas, balki uning manzarasini, yani harakatning o‘ziga mos mantiqini ham bilish talab etiladi.

Tarixiy jarayon va uning mazmuni tabiat va tabiiy vaqtga nisbatan malum darajada mustaqildir. Bu mustaqillik nisbiydir, chunki jamiyatning o‘zini ham bir

¹ Жураев Н. Тарих фалсафасининг назарий асослари.-Т.: Маънавият, 2006. –Б 67.

paytlar tabiat yaratgan. Ammo ijtimoiy hayot rivojlanishi va murakkablashib borishi bilan ijtimoiy ishlab chiqarish qonunlari biologik tanlanish qonunlariga nisbatan ustunlik qila boshlagan. Ijtimoiy sikllar, yani ijtimoiy hayotning moddiy va manaviy ishlab chiqarish qonunlarini ifodalovchi ijtimoiy vaqt sikllari kunlarning birida harakatga keltirilgach, keyinchalik bu harakatni immanent sabablar tasirida, o'z zaminida amalga oshiradi. Bu jamiyat tabiatdan xalos bo'lishini anglatmaydi, aksincha, insonning muhim kuchlari rivojlanishi bilan odamlar tabiatni o'zlariga bo'ysundirib, shu tariqa u bilan yanada chuqurroq aloqaga kirishadilar, ammo bu aloqa biologik organizm va muhit o'rtasida mavjud bo'lgan birlamchi, tabiiy rishtalardan butunlay farq qiladi, zero bu erda gap ijtimoiy organizmning o'zini qurshagan tabiiy muhitga moslashuvi haqida emas, balki uning yanada kengroq va teranroq strukturalarini o'zgartirishi haqida boradi.

Tabiat inson ishlariga befarq. Tarixiy xronologiya astronomik vaqt maromidan o'z mezoni sifatidagina foydalanadi. Ammo tarixda vaqtni xronologiyaning o'zigagina bog'lash o'rinli bo'lmaydi. Ijtimoiy jarayonlarning rivojlanishida yuz bergan sifat o'zgarishlarini ifodalash ham uning muhim tomonlaridan biri hisoblanadi. Ijtimoiy munosabatlarning yangi tipi, yangi ijtimoiy strukturalarning vujudga kelishi, ularning shakllanishi kabi hodisalar asta-sekin yuz berishi va asrlarni (qadimgi jamiyatda esa – ming yilliklarni) qamrab olishi tufayli, ularning sanasini aniq belgilash mumkin emas va biron-bir tarixchi o'z oldiga bunday vazifani qo'ymaydi¹. Insoniyat tarixi boshlangan vaqtni aniqlashning o'zi fan uchun uning imkoniyatlari doirasidan tashqaridagi vazifa hisoblanadi.

Tarixning boshlanishi bir lahzali voqea emas, balki o'ta murakkab, ziddiyatlarga to'la va ancha davomli jarayondir. Ibtidoiy odamlar o'rtasidagi biologik aloqalar o'rnini ijtimoiy aloqalar darhol va o'z-o'zidan egallagani yo'q, balki ular bilan uzoq vaqt mobaynida yonma-yon mavjud bo'lib, asta-sekin, bosqichma-bosqich ulardan ustunroq mavqeni egallagan va ularni siqib chiqarib, dastlabki tobe va tasodifiy munosabatlardan hukmron va zaruriy munosabatlarga aylangan. Insoniyat hayotini avlodlar bilan o'lchash tarixiy vaqtni oldinma-ketin keluvchi avlodlar zanjiri sifatida tasavvur qilish imkoniyatini beradi. Bunda har bir avlod mazkur zanjirning bir bo'g'ini hisoblanadi.

Insoniyat yoshi boshqacha mezonlarga ega. Bosib o'tilgan yo'lni odamlar o'z ishlari, yutuqlari va mag'lubiyatlari bilan o'lchaydilar. Hayvonlar va o'simliklardan farqli o'laroq, inson o'z hayot yo'lini, o'tmishdan kelajakka eltuvchi yo'lni o'zi tanlaydi, o'z tarixini, yani o'z vaqtini o'z qo'li bilan yaratadi. O'tmishda qolgan avlodlar – bugungi kunga olib kelgan yo'ldagi bosqichlargina emas, balki uning hammualliflari hamdir. Homo sapiens inson filogenezi tarixida oxirgi va yakuniy tur hisoblanadi, shu tufayli ham ijtimoiy tarix tabiiy intihoga ega bo'lmaydi, u hamisha kelajak sari ochiqdir. Insoniyat vaqtda yangi tur sari emas, balki o'zining yangi yutuqlari sari harakatlanadi. Bu yutuqlar qancha ulkan bo'lsa, tarix shuncha yangi,

¹ Абдуллажонова Д. Тарихий хотиранинг моҳияти ва унинг намоён бўлиш хусусиятлари.. Фалс.фанлари номз диссер Автореф.. –Т.: ЎЗМУ, 2006 – Б. 23.

tarixiy vaqt shuncha yosh bo‘ladi. Ayrim mamlakatga nisbatan ham, ayrim xalqqa nisbatan ham u o‘zining har bir tub burilishi, o‘z yo‘lining har bir yangi bosqichi bilan birga go‘yoki yosharib boradi: tarixiy rivojlanish jarayonining butunlay o‘zgacha imkoniyatlar va istiqbollar ochuvchi yangi bosqichi boshlanadi.

Biologik turdan farqli o‘laroq, odamzot, yani insoniyat tarixi vaqt o‘tishi bilan o‘zining har tomonlama, keng rivojlanish qobiliyatini yo‘qotmaydi, balki uni kasb etadi va ko‘p karra kuchaytiradi. Tarixiy rivojlanish jarayonida jamiyatning imkoniyatlari doirasi qisqarmaydi, balki kengayib boradi. Bu insoniyat ulg‘aygani sari qarimasligini yana bir karra tasdiqlaydi. Ijtimoiy munosabatlar rivojlangani sari yanada etukroq, mukammalroq tus oladi, chunki tarixiy jarayonga yangi va yangi omillar qo‘shiladi, tabiatning ko‘r-ko‘rona determinizmiga nisbatan insonning mustaqilligi oshadi.

Ijtimoiy makon. Makon va vaqt munosabatlarining yanada murakkabroq manzarasi ijtimoiy tuzilmalarda kuzatiladi. Ijtimoiy makon bu insonning dunyoga munosabati bilan belgilangan, inson faoliyati va amaliyotining o‘ziga xos xususiyatlariga tarixiy bog‘liqligidir. U alohida insoniy mano kasb etadi va biosfera, sayyora va koinot darajasidan bir vaqtda o‘rin oladi, shu bilan birga inson yaratgan infratuzilma, o‘zlashtirilgan hududlar, foydalanilayotgan suv va fazo okeanlari, jamuljam holda inson yashaydigan makonga aylangan koinot kengliklari ko‘rinishida ulardan ajralib turadi. Bunda ko‘lamli strukturalar o‘z holicha, xaotik tarzda vujudga kelmaydi, balki jamiyat evolyusiyasi obektiv jarayonlarining mahsuli hisoblanadi va muayyan xalqlarning turmushi va madaniyatini, ularning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajasini, malum vaqt ruhini o‘zida aks ettiradi. Bularning barchasi pirovardida «ikkilamchi tabiat»ni tashkil etadigan tegishli arxitektura, o‘zgartirilgan landshaft va shu kabilarda o‘z aksini topadi.

Xulosalar. Borliq haqidagi falsafiy qarashlarni umumlashtirib va bu kategoriyalarni bilish insonning umumiy dunyoqarashining rivojiga ijobiy tasir ko‘rsatadi degan xulosaga kelish mumkin.

Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar

1. Borliq tushunchasi va uning asosiy turlari nimalardan iborat?
2. Substantsiya tushunchasining ma‘nosi qanday?
3. Materiya tushunchasi va uning ilmiy-falsafiy ahamiyati nimalardan iborat?
4. Harakat fazo va vaqt tushunchalarining mohiyatini izohlab bering.
5. Sharq mutafakkirlari falsafiy ta‘limotlarida olam-falakning doimo harakatda ekanligi haqida so‘zlab bering.
6. Tabiat tushunchasi ma‘nosini aytib bering. Inson tabiatning oliy mahsuli ekanligini qanday tushunasiz?
7. Inson va tabiatning o‘zaro aloqadorligi nimalardan iborat?

5-mavzu. Bilish nazariyasi, yo‘nalishlari va asosiy muammolari

Insonning o‘zini qurshagan dunyoga bo‘lgan munosabatlaridan biri - bilishdir. Inson o‘z hayoti davomida faqat tashqi dunyoni, yani tabiat va jamiyatnigina bilib qolmasdan, balki o‘zini, o‘zining ruhiy-manaviy dunyosini ham bilib boradi.

Insonning dunyoni bilishini falsafa ham, boshqa hamma aniq fanlar ham o‘rganadi. Bunda aniq fanlar dunyoning turli tomonlarini, ularning qonuniyatlarini va xususiyatlarini o‘rgansa, falsafa esa inson bilishining eng umumiy tomonlarini, qonuniyatlarini va xususiyatlarini o‘rganadi va ochib beradi. Aristotel ko‘rsatishicha, alohida fanlar borliqning ayrim tomonlarini o‘rgansa, falsafiy bilish borliqning eng umumiy tomonlarini o‘z ichiga oladi. Falsafa keng ko‘lamdagi kategoriyalar, tushunchalar vositasi bilan butun g‘oyalarni sintezlashtiradi.

Bilish nazariyasi, borliq va bilish rivojlanishining umumiy qonunlari haqidagi talimot. Bilishning falsafiy nazariyasiga ko‘ra, bilish moddiy va manaviy borliqning inson miyasidagi muayyan maqsadga qaratilgan faol aks etishidir. Inson bilishining manbai esa ayni shu moddiy va manaviy borliq, ularni tashkil qilgan predmetlar, hodisalar va jarayonlardir. Bu predmetlar, hodisalar va jarayonlar insonga tasir qilib, uning miyasida aks etadi. Ular moddiy va manaviy borliqning inson miyasidagi subektiv obrazlari, ramzlari va belgilaridir. Bu jihatdan inson bilishi, avvalo, moddiy va manaviy borliqning xususiyatlariga va shu bilan birga, ularni faol inikos ettiruvchi inson miya mexanizmining rivojlangan darajasiga bog‘liqdir.

Bilish insonning tabiat, jamiyat va o‘zi to‘g‘risida bilimlar hosil qilishga qaratilgan aqliy, manaviy faoliyat turidir. Inson o‘zini qurshab turgan atrof-muhit to‘g‘risida bilim va tasavvurga ega bo‘lmay turib, faoliyatning biron-bir turi bilan muvaffaqiyatli shug‘ullana olmaydi. Bilishning mahsuli, natijasi ilm bo‘lib, har qanday kasb-korni egallash faqat ilm orqali ro‘y beradi. SHuningdek, bilish insongagina xos bo‘lgan manaviy ehtiyoj, hayotiy zaruriyatdir.

Gnoseologiya (epistemologiya)ning mazmuni va mohiyati. Bilish nazariyasini falsafada Gnoseologiya sohasi o‘rganadi. «Gnoseologiya» grekcha so‘z bo‘lib «gnosis» – bilish, «logos» – nazariya, yani bilish nazariyasi, bilish to‘g‘risidagi talimot manolarini anglatadi. «Gnoseologiya» atamasi falsafaga nisbatan yaqinda (1854 yilda) shotland faylasufi Dj.Ferer tomonidan kiritilgan bo‘lsa-da, biroq u Qadimgi YUnon faylasuflari Suqrot, Aflotun, Demokrit, Arastu, epikurchilar, stoiklar shuningdek Markaziy Osiyo mutafakkirlari o‘z davrlarida bilishning mohiyatini tahlil qilganlar.

«Olam va odam» tizimida dunyoni anglash, subekt va obekt o‘rtasidagi munosabatlar dialektikasi gnoseologiya shug‘ullanadigan masalalar ko‘lamini belgilaydi. Bu masalalar insonning bilish faoliyatidan iborat bo‘lib, eng umumiy mazmunini tashkil qiladi. Gnoseologiya «ong», «tafakkur», «bilish», «haqiqat», «subekt» va «obekt», «moddiylik va manaviylik», «inson» va «kompyuter», «hissiylik» va «ratsionallik», «nazariya» va «amaliyot» kabi tushuncha va kategoriyalarning mazmun - mohiyati bilan bog‘liq ko‘plab masalalarni o‘z ichiga oladi. Bu tushunchalarning har biri moddiy, ruhiy-manaviy hodisalarni aks ettirishga asoslanadigan o‘ziga xos dunyoqarash muammolari bilan ham bog‘liq bo‘lib,

ularning barchasi «haqiqat» tushunchasiga u yoki bu tarzda aloqadordir. Gnoseologiya kundalik yoki maxsus, ilmiy yoki badiiy faoliyatligidan qat'iy nazar, insonning bilish faoliyatidagi umumiylikni o'rganadi.

Bazi bir falsafiy adabiyotlarda gnoseologiya bilan epistemologiyani aynanlashtirish holatlari uchramoqda. Biroq shuni etirof etish lozimki, gnoseologiyaga tatbiqan bilish nazariyasi va epistemologiya nomlarining qo'llanilishini o'rinli deb bo'lmaydi. Zotan, «episteme» so'zi «pistis» - e'tiqod so'zi bilan uzviy bog'liq. Ammo, biz biladigan (gnosio) va biz ishonadigan (pistio), mavjudligiga etiroz bildirmaydigan narsalar – falsafiy va ilmiy bilimlarning hozirgi darajasida mazmunan har xil tushunchalardir. Gnoseologiya umuman bilish haqidagi ilm bo'lsa, epistemologiya esa asosan ilmiy bilish to'g'risidagi fandır. Epistemologiya esa, bizning muayyan narsalar haqidagi bilimlarimiz va (yoki) e'tiqodlarimizning ishonchlilik darajasini o'rganadi.

Umuman olganda, epistemologiya gnoseologiyaning tarkibiy qismi yoki uning amaliy ifodasidir. Hozirgi zamon falsafasida gnoseologiya bilish jarayonining falsafiy mohiyati umumiy muammolarga etiborni qaratsa, epistemologiya esa ilmiy, haqiqiy bilimning mazmunini, shuningdek diniy e'tiqodlarning gnoseologik mohiyatini o'rganish bilan shug'ullanadi. Bunda esa bilish (ong)ning mohiyati to'g'risida bahs yurituvchi falsafiy talimot manosiidagi «gnoseologiya» atamasidan foydalaniladi. Gnoseologiyada esa nafaqat ilmiy bilish, balki umuman insonga xos bilish bilan bog'liq barcha masalalar tahlil qilinadi. Demak gnoseologiya falsafaning eng muhim omilidir.

Gnoseologiya yoki bilish nazariyasi falsafiy bilimlar sifatida insonning dunyoni bilish imkoniyatini, o'zlikni anglash jarayonini, bilishning bilmaslikdan bilim sari yuksalishini, bilimlar tabiati va ularning mazkur bilimlarda aks etuvchi narsalar bilan o'zaro nisbati masalalari o'rganiladi. Demak, gnoseologiya ong, bilish, bilimni o'rganish bilan shug'ullanadi.

Ijtimoiy jarayonda inson ongning o'z-o'ziga, boshqalarga va umuman jamiyatga tasiri natijalarini fiziologik jihatdan his qiladi va uning mavjudligini sezadi, Biroq bunda ongning o'zi ko'rinmaydi. Moddiy dunyo hodisalaridan farqli o'laroq, ongni kuzatish mumkin emas. U go'yo vaqt va makon chegaralaridan tashqarida turadi.

Ko'rinmas ongni idrok etish, uning moddiy narsa va hodisalar dunyosi bilan o'zaro aloqalarini aniqlash, uni o'z muhokama va tadqiqot predmetiga aylantirish masalasi gnoseologiyaning asosiy vazifasini tashkil etadi.

Bilish jarayoni rivojlanish qonuniyatlarining shakllari, haqiqatning tagiga etish imkoniyatlari nuqtai nazaridan o'rganiladi. Natijada, falsafada inson bilishining tabiati va mohiyati haqida turli xil talimotlar, turli xil qarashlar kelib chiqqan.

Bir guruh faylasuflar insondan, uning ongidan tashqari dunyo mavjud emas, dunyo faqat bizning ongimizda, bizning sezgi va idroklarimiz yig'indisidan iborat xolos, binobarin biz o'z sezgi va idroklarimiznigina bilaolamiz, degan fikrlarni bildirishganlari malum.

Boshqa bir guruh faylasuflar esa insonning dunyoni va o'zini bilishga shubha bilan qaraydilar, inson dunyoni to'liq bilolmaydi, deyishib, inson bilishini cheklaydilar yoki dunyoni bilishni butunlay inkor qiladilar. Skeptitsizm (skeptitsizm — yunoncha: spektoman — shubhalanaman) - talimoti vakillari inson bilishining nisbiyligi, uning turli sharoitlar va vaziyatlar bilan bog'liq ekanligini aytishib, hamma etirof qiluvchi, isbot talab qilinmaydigan inson bilimlarining bo'lishi mumkinligiga shubhalanadilar. Masalan, Skeptitsizmning asoschilaridan biri Pirron (eramizdan oldingi taxminan 365-275 yillar) xissiy idrokni ishonchli deb hisoblagan (masalan, agar biron narsa subektga achchiq yoki shirin tuyulsa, shu haqidagi fikr haqiqat bo'ladi), yanglishuv esa, uningcha subekt bevosita hodisadan mohiyatni, obekt asosini bilishga o'tmoqchi bo'lganda paydo bo'ladi. Uning fikricha, obekt haqidagi har qanday davoga uning mazmuniga zid bo'lgan davoni qarama-qarshi qo'yish mumkin. Demak skeptik uzil-kesil hukmlardan tiyilib turmog'i lozim.

Dunyoni bilishni qisman yoki butunlay inkor qiluvchi falsafiy talimot bo'lgan agnostitsizm vakillari inson dunyoni bilishga qodir emas, degan g'oyani ilgari surishadi. Masalan, ingliz faylasufi D.Yum talimotiga ko'ra, bilish obekti, bilimlarimizning manbai obektiv borliq emas, balki subektiv sezgi va idroklarimizdir, biz o'z sezgi va idroklarimiz chegarasidan tashqarida nima borligini bila olmaymiz.

Ilm va fan yutuqlariga asoslangan faylasuflar insonning dunyoni va o'zini bilishni doimo etirof etib kelganlar. G'arb falsafiy tafakkuri va unga xos bilish tamoyillari rivojida antik davr muhim o'rin tutadi. Bunda Milet, Ioniya, Eley maktablari vakillari, ayniqsa, Geraklit, Zenon, Protagor, Demokrit, Epikur kabi allomalarning fikr mulohazalari ahamiyatga molikdir. Geraklitning hamma narsa o'tmishdan kelajak tomon oqib, abadiy o'zgarib turadi, bilish ana shu tamoyilni o'zlashtirib olish lozim, degan xulosasi hozirgacha ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Suqrot insonni, uning bilish xususiyatlari, ahloqi va aqlini falsafiy izlanishlar markaziga qo'ygan, eng avvalo o'zining xayoti, turmush tarzi va fikrlashini o'z g'oyalariga monand qilishga uringan edi. Chunki, Kadimgi Yunonliklarga manaviy komillik bilan jismoniy barkamollik, dunyoqarash bilan amaliy turmush, so'z bilan ish uyg'unligi aynanligiga intilish xislati xos edi. Uning fikricha, birinchidan, dunyo bilan inson o'rtasidagi aloqadorlik ikki tomonlamadir. Ulardan birini ustun qo'ygan zaxoti yo mutloq pragmatizm yoki mutloq relyativizm vujudga keladi. U aql-idrokni ulug'langanligi bilan insonni borliqdan ajratmaydi, iloxiy kuch uni o'z tasir doirasida ushlab turadi. Ikkinchidan, inson passiv obektiv emas, unga izlanish, yon atrofni o'zgartirish xos. Biroq, bu say-harakat «o'zgartirish uchun» bo'lmasligi kerak, chunki barcha o'zgarish negizida inson manaviyatining takomillashuvi yotadi. Uchinchidan, tashqi dunyoni o'zgarishi kishiga tom manoda baxt keltirmaydi, chunki o'zgarigan tashqi dunyoni qabul qila olishga, u bilan uyg'un yashashga loyiq ichki dunyo, ruhiy manaviy olamni o'zgartirish zarur keyin xayotni, tashqi dunyoni o'zgartirish maqsadga muvofiqdir.

Suqrot nazarida inson qiziquvchanlik orqali ko'p narsani bilishi mumkin. Uning «Agar qiziquvchan bo'lsang, ko'p narsani biladigan bo'lasan», deya

takidlashi bejiz emas. Bilish insonga ilohiy ruh tomonidan berilgan. Inson ilohiy ruxga intilib, ko‘p narsani biladi yoki bilishi mumkin, agar unga intilmasa nopok, yomon yo‘llarga kirib ketadi. Demak, inson ilohiy kuchning, ruhning borligini yodda tutgan holda bilimga intilishi zarur, zero bilim ezgu amallar asosidir.

Platonning bilish nazariyasi uning g‘oyalari talimoti va ruh, jon xaqidagi qarashlaridan kelib chiqadi. Faylasuf fikriga ko‘ra, hamma ham xaqiqatni to‘la to‘kis bilish qobiliyatiga ega emas. Ayniqsa falsafani bilish ayrim kishilargagina xosdir. Uni xaqiqiy bilimga ega bo‘lmagan ham to‘la idrok eta olmaydi. Xaqiqiy bilimga ega xudo uchun bilimning xo‘jati yuq, bilimi yuq g‘ofil uchun esa falsafa kerak emas, chunki u o‘zining g‘ofilligi bois bilimning nima uchun kerakligi bilmaydi. Faylasuf esa oqil (xudo) bilan g‘ofil (banda) o‘rtasida turadi.

Platon inson bilimga ega bo‘lganligi uchun barcha narsalar meyoridadir, degan tezis ilgari suriladi. Platon inson bilimini, bilish faoliyatini mavjudlik va taraqqiyot belgilaridan, mezonlaridan biri sifatida talqin etadi.

Aristotel Platonning bilish nazariyasidan farqli tarzda, Demokrit singari olamni, tabiatni bilish sezgilar orqali amalga oshadi, bilishning predmeti va manbai kishi ongidan tashqaridagi mavjud olam, degan fikrni ilgari surgan. Uning takidlashicha, olamni bilish sezgidan boshlanadi. Sezgi tirik organizmga taalluqli bo‘lib, u tashqi olamning tasiri tufayli yuzaga keladi. Sezgilar ko‘rish, eshitish, tam bilish va xid sezgilariga bo‘linadi. Sezgi azolari orqali yakka-yakka jism va xodisalarning sifat hamda xususiyatlari to‘g‘ri aks ettiriladi. Bundan ko‘rinadiki, Aristotel olamni bilishda empirik, sensualistik fikrda bo‘lgan ayni paytda ratsionalizmga ham katta ahamiyat bergan. Aristotel bilish jarayonida empirik va ratsional bilimlarning birligini takidlaydi-yu, ammo bu masalada izchil bo‘la olmagan. U tafakkurni sezgilardan obektiv reallikdan ajratib qo‘yib, uning manbaini mutloq aql, mutloq shakl tashkil etgan degan xulosaga kelgan.

Ajdodlarimizning qadimgi kitobi «Avesto» diniy-falsafiy merosimizning eng yorqin namunasi. Malumotlarga ko‘ra, kitob bir necha avlodlar tomonidan yaratilgan bo‘lib, shu asnodda unda gnoseologik tushuncha va tamoyillar tizimi takomillashib borgan. «Avesto» zardo‘shiylikning asosiy kitobi bo‘lganidan bu dinga xos bilimlar tizimini o‘zida ifodalagan. Shu bilan birga, kitobda inson qobiliyatlariga, ularning manaviyat va amaliy faoliyat uchun ahamiyatiga katta o‘rin berilgan. Kitobda aytilishicha, insonning olamni anglash jarayonidagi bilimi haqiqatning g‘alabasi uchun kurashda befarq turmasligida, yashash tarzi, manaviy qiyofasi, ijtimoiy faoliyati, «ezgu fikr», «ezgu so‘z» va «ezgu amal»ida o‘z ifodasini topadi. Ana shunday fazilatlariga ega bo‘lgan kishigina zulmat va jaholat ustidan g‘alaba qilishi, yaxshilik urug‘ini sochishi, yaxshi nom qoldirishi, boshqalarning taqsini va minnatdorchiligiga sazovor bo‘ladigan bilimlarga erishishi mumkin.

Markaziy Osiyo mutafakkirlari Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug‘bek, Navoiylar ham insonning dunyoni va o‘zini bilish masalasi haqida to‘xtalib, inson tabiat va jamiyatni hamda o‘zini bilishga qodir, inson bilishi sezgi va idroklardan boshlanib, tafakkurga tomon rivojlanib boradi, inson aqli — faol, u bilishning asosiy

qurolidir, deyishadi. Ular inson bilishi malum narsalardan nomalum narsalar tomon rivojlanib boradi, deb ko'rsatishgan.

«Sharq Arastusi» yuksak unvoniga sazovor bo'lgan o'z davrining buyuk mutafakkirlaridan biri, Forobiy fikricha, inson bilimlarni tashqi dunyodagi hodisalarni bilish jarayonida o'zlashtiradi. Bu jarayon sezish, idrok etish, xotira, tasavvur qilish va eng muhimi – mantiqiy mulohaza yuritish, tafakkur kabi usullarni qamrab oladi. Bu vositalar yordamida inson fanni o'rganadi. Forobiy «Fan va sanatning o'ziga xos xususiyatlari» asarida tabiatni bilishning uzluksizligini, bilish – bu bilishdan bilimga, sababni bilishdan oqibatni bilishga, hodisani bilishdan mohiyatni bilishga eltuvchi yo'l ekanligini qayd etadi.

Abu Rayhon Beruniy, tabiat va uning obektiv qonunlari mavjudligiga shubha qilmagan. U tabiat muttasil o'zgarish va rivojlanishda bo'ladi, materiya narsalar shaklini o'zi yaratadi va o'zgartiradi, jon (tafakkur, manaviy hodisalar) tananing muhim xossasidir, deb takidlagan. Malumki, tajriba, eksperiment borliqni bilish usullaridan biri hisoblanadi. Beruniy shunday deb yozadi: «Mendagi ishtibohni faqat tajriba va takroriy sinov bartaraf etishi mumkin, ...so'zlovchilarning yakdilligiga qaramay, buning haqiqiyliigi tajribada o'z tasdig'ini topmagan». Tajribada olingan bilimni mutafakkir ayrim meyorlarga muvofiq ishonchli bilim deb talqin qiladi. Ularning orasida obektlarning kuzatuvchanligi, tajribalarning qayta o'tkaziluvchanligi va kuzatishlarning tekshiriluvchanligini qayd etish mumkin.

Beruniy “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, “Masud qonunlari”, “Xindiston” kabi asarlarida ijtimoiy bilimlarning mazmun-mohiyatiga katta etibor bergan. Olim fikricha, odamlar o'rtasidagi munosabatlar, kishilarning yashash tarzi, moddiy extiyoj, qiziqish, manfaat, talab va maqsadlari ijtimoiy bilimlarni vujudga keltirgan va takomillashtirgan. Masalan, kishilar o'rtasidagi hamfikrlilik odamlarning birlashish ehtiyojlari mavjudligi, himoya qilish qurollari kamligi va dushmanlardan o'zini ximoya qilish zaruratini xis qilishi tufayli vujudga kelgan. Beruniyning tabiiy-ilmiy qarashlari «Geodeziya», «Mineralogiya» asarlarida o'z ifodasini topib, unda dunyoning o'ziga xos tabiiy-ilmiy manzarasi va tabiat hodisalarini bilish masalalariga katta etibor qaratilgan.

Bilish masalalari Ibn Sinoning «Qushlar tili», «Donishnoma», «Tib qonunlari» kabi (100 ga yaqin) asarlarida ham o'z ifodasini topgan. Uning nazarida, o'z ibtidosini Allohdan olgan borliq va tabiat insonni o'rab turuvchi abadiy makondir. Shu jixatdan uni bilishdagi ahamiyati, qadri beqiyos, inson esa hamma ilmlarni tabiatdan oladi, undan o'ziga davo izlaydi va topadi.

Ibn Sino moddiy dunyo predmetlarini sezgilar manbai deb hisoblab, ularning obektiv tabiatini tashqi moddiy dunyo inikosi sifatida yoritadi. Bundan tashqari, u sezgini materiyaning xossalariidan biri deb etirof etadi. Alloma sezgini materiyaning oliy shakllari bilan bog'laydi. Ibn Sino mavjud narsalarni tasniflar ekan, sezgi hayvonlar deb ataluvchi jismlarga xosligini qayd etadi.

Ibn Sino bilishda xissiy bilish, sezgilar va sezgi azolarining ahamiyatini takidlagan. Uningcha, tashqi va ichki sezgilar mavjud, tashqi sezgilar odamni olam bilan bog'laydi va besh xilga bo'linadi: ko'rish, eshitish, tam-maza

bilish, xid va teri sezgisi. Ichki sezgilar qabul etish, xotirada saqlash va tasavvur etish uchun xizmat qilib, tashqi sezgilar asosida shakllanadi. Ibn Sino sezgi va xissiy qabullashdan tashqari, aql, tafakkur va tajribaning bilishdagi ahamiyatiga o'z diqqatini qaratgan. Mantiqiy bilish, uning mohiyati va xususiyatlari to'g'risida qimmatli fikrlarni bayon qilgan.

Tasavvuf falsafasi vakillari esa o'z qarashlarida insonning hissiy bilishi tashqi bilishni, akliy bilish esa ichki bilishni tashkil qilishini aytishib, ularning o'zaro bog'likligini ham uqtirganlar. Shu bilan birga, ular inson dunyoni va o'zini bilishi uchun manaviy kamolotga erishmog'i lozim, lekin bu kamolotga erishish quruq intilish bilan emas, balki o'qish, o'rganish, bilimlarni va hunarlarni egallash, jamiyatda boshqa kishilar bilan o'zaro muloqotda va munosabatda bo'lish orqali yuzaga keladi, deyishadi.

Tasavvuf ilmining eng ulug' namoyandalaridan biri Ahmad Yassaviy tafakkurning o'sha zamonga mos keladigan tushunchalarini namoyon bo'lishi va amal qilish shartlarini tariflab bergan So'fiylik asoslarini targ'ib qiladigan «Devoni xikmat» majmuasida manaviy tafakkurning asosiy shakllari poklik, xayyo, bardosh va sabr-qanoat, xushxulqlik, beozorlik, xokisorlik kabi xislatlar ekanligini ko'rsatgan.

Tasavvufning boshqa oqimlari kabi Naqshbandiylikda ham olamni bilish, avvalo, Allohni bilish, uning kuch-qudratini anglashdir. Bu borada insonga ong, tafakkur ato etilgan. Har bir kishi ular vositasida dunyoni anglaydi, uning sirlaridan voqif bo'ladi, olamdagi botiniy va zoxiriy narsalar mazmun-moxiyatini bilib oladi. Naqshbandiya tariqatida Alloh visoliga etish uchun dunyodan voz kechish yoki tarki dunyo qilish emas, balki "Dil ba yoru, dast ba - kor" («Qo'ling ishda, ko'ngil allohd») bo'lmog'i, poklik, hayo, kamtarinlik komil insonning asosiy fazilatlarini bo'lishi lozimligi uqtiriladi.

Umuman olganda, Naqshbandiya talimotidagi kamtarinlik, saxiylik, bag'rikenglik, mehr-shavkat, xayri-exson, o'zaro yordam, do'stlik va birodarlik, tenglik va totuvlik, sofdillik, mehnatsevarlik, poklik, odillik va bilimdonlik kabi olg'a surilgan g'oyalar o'z mazmuni va mohiyati bilan umuminsoniy xarakterga ega bo'lib, o'zining nazariy va amaliy ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Yangi davrda Evropa faylasuflari ham insonning dunyoni va o'zini bilishi haqida qimmatli fikrlarni bildirishadi. Masalan, ingliz faylasufi F.Bekon, inson bilishi sezgilardan boshlanadi, bilishning manbai tajribadir, sezgilar orqali olingan dalillarni inson tafakkur yordamida qayta ishlab chiqadi, deydi. U inson bilish jarayoni fan va amaliyot bilan bog'liq ekanligini, ularga xizmat qilishi lozimligini aytadi. Bilishning birdan-bir to'g'ri yo'li Bekonning fikricha, tajriba va tahlildir. Yani xususiy dalillardan umumiy nazariyalar tomon yo'nalish, mavjud barcha narsa va xodisalarga ilmiy uslubda yondashish g'oyasini ilgari suradi.

Fransuz olimi Rene Dekartning bilish falsafasida bilimning xaqiqiylikiga shubxa uyg'otmaydigan, xaqiqatga erishishning aniq usullari masalasi ustivor edi. Bunday yondashish Dekartning barcha asarlarida, jumladan, «Uslub xaqida fikrlar» deb nomlangan falsafiy asarida o'z ifodasini topgan. Hamma narsaga shubha bilan qarash, shubha qilish Dekartning bilishdagi asosiy tamoyili edi.

Falsafa tarixida Dekart ratsionalizmning asoschisi xisoblanadi. Ratsionalizm (bilish nazariyasi yoʻnalishi) matematik bilimning mantiqiy xarakterini bir yoqlama tushunish natijasida vujudga keladi. Matematik bilimning umumiy va zaruriy xarakteri Dekartga aqlning oʻz tabiatidan kelib chiqqandek tuyulishi sababli, u bilish jarayonida deduksiyaning favqulotda rol oʻynashini koʻrsatadi. Bu deduksiya intuitiv tarzda payqaladigan, toʻla ishonchli aksiomalarga tayanadi.

Nemis faylasufi I.Kant esa insondan va uning ongidan tashqarida obektiv borliqning mavjudligini etirof qilgan holda, undagi predmet va hodisalarni «narsalar biz uchun» va «narsalar oʻzida»ga boʻladi. Uning fikricha, «narsalar biz uchun» — bu insonni qurshab turgan predmetlar va hodisalar, shu jumladan, tabiat ham. «Narsalar oʻzida» esa: erkinlik, oʻlmaslik, xudo va shu kabilardir. Ularni inson hech qachon toʻliq bila olmaydi. Kant oʻz bilish nazariyasida eʼtiqodga oʻrin qoldirish, uni mustahkamlash uchun aqlni tanqid qiladi va cheklaydi. U inson aqlini nazariy va amaliy aqllarga boʻladi, amaliy aql uningcha, cheklangan. Uning qarashicha, inson tajriba va amaliyot bilan har qanday bilishga ham ega boʻlavermaydi. Inson bilishida insonning tajribasigacha unda aprior (lot. arriori - soʻzidan olingan boʻlib, tajribadan oldin degani) bilimlar boʻladi. Bu aprior bilimlar tugʻma bilimlardir. Inson aqli bu bilimlarga tajribagacha ega boʻlgan boʻladi. Kantning fikricha, falsafiy bilimlar ayni shunday aprior bilimlardan iboratdir.

Nemis mumtoz falsafasining soʻnggi vakili L.Feyerbax inson dunyoni bilishga qodir, inson dunyoni bilish uchun qancha sezgi azosi kerak boʻlsa, shuncha sezgi azosi insonda mavjud deb uqtiradi. Uningcha, sezgilar bilish jarayonining boshlangʻich bosqichi boʻlib, sezgi azolari insonni tashqi dunyo bilan bogʻlaydi. Feyerbax fikricha, sezgi azolari insonni tabiat bilan tanishtiradi, lekin tabiatni tushuntirmaydi. Inson bilishining yuqori bosqichi tafakkurdir. Tafakkurning asosiy vazifasi esa sezgi azolari orqali yigʻilgan malumotlarni toʻplash, solishtirish, tahlil qilish, izoxlash, umumlashtirish, shular asosida ularning ichki mazmunini ochish va ulardan xulosalar chiqarishdir. Tafakkur tashqi dunyoni bevosita, chuqurroq aks ettiradi.

Fransuz marifatchilari Didro, Golbax, Gelvetsiy, Volter va Lammetriylar esa insonning dunyoni bilishi masalasida fikr yuritishib, sezgilar tafakkurning asosi ekanligini, ular inson bilishining quyi boshlangʻich bosqichi, tafakkur esa eng yuqori, murakkab bosqichi ekanligini tan olaganlar.

Malumki, turli ijtimoiy-iqtisodiy davrlardagi kishilarning bilish darajasi fan taraqqiyoti, texnika rivojining darajasi va koʻlami, jamiyat ishlab chiqarish usuli qoʻygan vazifalari bilan belgilanadi. Inson dunyoni va oʻzini bilishi bilan cheklanmaydi, balki bu bilish natijasida hosil qilgan bilimlari orqali u tabiat va jamiyatni, dastavval, oʻzini - oʻz ongini, oʻz manaviy dunyosini oʻzlashtiradi va oʻzgartiradi.

Bilishda obekt va subektning oʻzaro aloqasi. Bilish jarayoni juda murakkab boʻlib, u subektiv va obektiv tomonlarning birligidan, subektning obektga tomon borishidan iborat.

Bilishning falsafiy nazariyasiga koʻra, bilish moddiy va manaviy borliqning inson miyasidagi muayyan maqsadga qaratilgan faol aks etishidir. Inson bilishining

manbai moddiy va manaviy borliq, ularni tashkil qilgan narsa va hodisalardir. Bilish moddiy va manaviy borliqning inson miyasidagi subektiv obrazlari, ramzlari va belgilaridir. Inson o'z miyasida faqat tabiiy va ijtimoiy borliqni, ularning qonuniyatlarini aks ettirib qolmasdan, balki o'zining manaviy-ruhiy va insoniy borlig'ini ham inikos ettiradi. Buning manosi shuki, inson borliqni oynada aks ettirgandek inikos ettirmaydi. Insonning dunyoqarashi, bilim darajasi, hayotiy tajribasi va hokazolar bilish jarayonida o'z tasirini ko'rsatadi. Bilish obektiv dunyoning subektiv obrazidir, degan fikrda katta mano bor.

Inson bilishi o'z moxiyatiga ko'ra ijtimoiy bo'lib, u inson ijtimoiy faoliyatining bir shakli sifatida tabiat, jamiyat va inson tafakkuri taraqqiyotining qonunlarini inson tomonidan o'zlashtirishning real jarayoni tarzida subekt va obektning o'zaro munosabatida vujudga keladi.

Inson bilishining obekti va subekti deganda nimani tushunamiz?

Bilishning subekti umuman olganda insondir. Ammo abstrakt inson yo'q, bo'lmaydi. Shu sababli bilishning subektini borliqdagi predmet va hodisalar bilan bevosita yoki bivosita muayyan tabiiy va ijtimoiy munosabatlarda bo'luvchi, kishi yoki kishilar guruhi tashkil qiladi.

Bilishning obekti subektning bilish doirasiga kirgan, uning bilishi qaratilgan borlikdagi aniq narsa va hodisalardir.

Inson bilishining tabiatini obekt-subekt o'rtasidagi munosabatini to'g'ri tushunish asosida bilib olish mumkin. Bunda inson faolligi muhim rol o'ynaydi.

Inson borliqni faqat bilib olish uchungina o'rganmaydi, balki u borliq va uning qonunlarini bilib olishi bilan tabiatga, jamiyatga va o'ziga faol tasir ko'rsatib, tabiatni, jamiyatni va o'zini o'zgartirib boradi. Bu erda inson bilishining amaliyot bilan chambarchas bog'liqligini namoyon bo'ladi.

Inson bilishini unda borliq qanday aks etishiga qarab oddiy-kundalik va ilmiy bilishlariga ajratish mumkin. Insoniyat tarixining dastlabki davrlaridayoq tabiat va olam haqidagi eng oddiy malumotlar beruvchi kundalik amaliy bilimlarning manbai, asosi kundalik turmush tajribalari bo'lib, unga oddiy malumotlar yig'indisi sifatidagi tarqoqlik va notizimlilik xosdir. Oddiy kundalik bilish kundalik oddiy kuzatish, hayotiy tajriba asosida borliqdagi narsa va hodisalarni insonning o'z sezgi va tafakkurlari orqali bilishidir. Masalan, hammaga ayonki kechadan so'ng kunduz va yana kecha kelishini va u Cheksiz davom etishini hamma biladi, yoki yil fasllarini almashinib turishi, biridan keyin ikkinchisi kelishini ham hamma biladi. Ammo hamma ham nega shunday bo'ladi? Sababi nimada ekanligi bilan qiziqmaydi?

Kundalik bilim haqiqatni qayd etsada, uni nomuntazam va isbotsiz amalga oshiradi. Bunday bilimning xususiyati shundaki, odatda, u inson tomonidan ongsiz, kundalik tajribaga asoslangan holda qo'llaniladi.

Kundalik noilmiy bilim tarqoq, notizimli bilim bo'lib, u qonunlar bilan izohlanmaydi va formallashtirilmaydi. Voqea va hodisalarni ilmiylik mezonlari nuqtai nazaridan asosli tushuntirmaydi. Kundalik noilmiy bilimning qat'iy tizimi va klassifikatsiyasi bo'lmaydi.

Bugungi kunda, noilmiy bilimning quyidagi shakllari ham etirof etiladi: Parailmiy bilim (mavjud standartlarga mos kelmaslik), yolg'on ilm (turli aqidalardan ongli ravishda foydalanish), kvaziilmiy bilim (zo'raonlik va majbur qilish metodlariga asoslanib o'ziga hamkor izlaydi), antiilmiy bilim (haqiqat haqidagi tasavvurlarni ongli buzish va utopizm), psevdoilmiy bilim (ananaviy nazariyalarni targ'ib qiluvchi intellektual faollikda namoyon bo'ladi) va boshqalar.

Demakki, noilmiy bilim tarqoq, notizimli bilim sifatida tushunilib, u qonunlar bilan izohlanmaydi va formallashtirilmaydi, mavjud dunyoning ilmiy manzarasiga qarama-qarshi turadi. Noilmiy bilim kimningdir uydirmasi yoki yolg'on emasligini anglash zarur. Chunki u (ratsionallikdan farq qiluvchi) o'zining normalari, etalonlari, bilish vositalari va manbalariga ega bo'lgan aniq intellektual asoslarda shakllanadi.

Eng umumiy manoda ilmiy bilish obektiv olamdagi narsa va hodisalar haqida obektiv haqiqiy bilimni egallash jarayonidir. Ilmiy bilish narsa va hodisalarni izohlash, tushuntirish va bashorat qilish kabi vazifalarni bajaradi.

Ilmiy bilish esa ana shu hodisalarining mohiyati, sababi, qonun va qonuniyatlarini ochib berishga yo'naltirganligi bilan ajralib turadi. Demakki, ilmiy bilish borliqdagi predmet va hodisalarning qonuniyatlarini, ularning mohiyatini bilishdir. Ilmiy bilish, odatda ilmiy tadqiqotlar va ilmiy izlanishlar olib borish asosida amalga oshadi.

Inson bilishi bilmaslikdan bilishga, aniq bo'lmagan bilishlardan, to'liq bo'lmagan, qisman bilishlardan to'liqroq bilishlarga, oddiy bilishdan murakkab ilmiy bilishlarga tomon borishidan iboratdir.

Hissiy, mantiqiy, empirik, nazariy, intuitiv bilish darajalari, ularning o'ziga xosligi va aloqadorligi. Inson bilishida bilishning qanday paydo bo'lishi jihatidan hissiy, mantiqiy, empirik, nazariy, intuitiv, g'oyibona bilish kabi ko'rinishlari ham mavjud.

Hissiy bilish - insonning his qilishi, sezgi azolari orqali predmet va hodisalarni, ularning tashqi tomonlarini bevosita idrok qilish tushuniladi.

Hissiy bilish inson bilishining dastlabki bosqichi bo'lib, uning natijasida inson miyasida predmet va hodisalarning belgilari, signallari, hissiy obrazlari hosil bo'ladi.

Hissiy bilish bosqichi: his qilish, sezgi, idrok va tasavvur kabi shakllarda sodir bo'ladi.

His qilish - inson bilishining shunday shakli, unda kishi o'z-o'ziga, atrofdagi narsa-hodisalarga, kishi yoki kishilarga bo'lgan munosabatida o'zining muayyan holatga kirishi, muayyan holda bo'lishidir.

Sezgi - hissiy bilishning dastlabki shakllaridan bo'lib, u insonning borliqni, undagi narsa va hodisani bilishning o'ziga xos ko'rinishidir.

Sezgi va sezgilar insonning sezgi azolariga borliqdagi predmet va hodisalarning bevosita yoki bilvosita tasiri natijasida yuzaga keladigan hissiy obrazlardir. Sezgilarni hosil qiluvchi bunday sezgi azolari insonda tashqi va ichki holatlarda joylashgan bo'lib, ular: ko'rish, tam bilish, teri sezgisi va eshitish sezgi azolaridir, qolganlari ichki sezgi azolari hisoblanadi. Bu sezgi azolari insonning

borliqni bilishida o'ziga xos bir vosita bo'lib, ular orqali predmet va hodisalar haqidagi dastlabki malumotlar inson miyasiga qabul qilinadi. Inson bu sezgi azolari orqali borliqdagi predmet va hodisalarning tashqi belgi va xususiyatlarini bilib oladi.

Biroq his qilish va sezgilar insonning borliqni bilishi uchun hali etarli emas. Buning uchun inson o'zining hissiy bilishida his qilish va sezgilar shakllarida hosil qilgan malumotlarini to'plab, umumlashtirib, ularni bir butun holda inikos ettirishi ham lozim bo'ladi. Hissiy bilishning bunday yangi shakli idrokdir.

Idrok - borliqdagi predmet va hodisalarni yaxlit hissiy obrazidir. U o'zida his qilish va sezgilar shakllaridagi obrazlarni jamlab ifodalovchi xususiyatga ega. Biroq insonning hissiy bilishi idroklar shakllarida yuzaga kelgan hissiy malumotlar inson miyasida qayta ishlanib, hissiy bilishning yangi, yuksak shaklini hosil qiladi. Bu tasavvurdir.

Tasavvur - ilgari idrok etilgan, ammo ayni vaqtda bevosita idrok etilmayotgan predmet va hodisalarning inson miyasidagi qayta ishlanib, tiklangan hissiy obrazidir.

Hissiy bilishning tasavvur shaklida predmet va hodisalarning ikkinchi darajali, muhim bo'lmagan xususiyatlari tashlab yuborilib, faqat ayrim muhim xususiyatlarigina inikos etgan bo'ladi. Shu tufayli tasavvur predmet va hodisalarni umumlashtirgan, mavhumlashtirgan darajada aniq hissiy shaklida inikos ettiradi.

Aqliy yoki mantiqiy bilish hissiy bilish bergan malumotlarga suyangan holda insonning predmet va hodisalarni ularning eng muhim tomonlari, mohiyatlarini tafakkur orqali umumlashtirib, mavhumlashtirib va konkretlashtirib, ularni fikrda ifodalanishidir. Faqatgina aqliy bilishgina bizga narsa va hodisalarning mohiyatini bilib olish imkoniyatini beradi.

Aqliy bilishda inson tafakkuri borliqdagi predmet va hodisalarning izchil bog'lanishlari va aloqadorliklarini, ularning harakat, o'zgarish va rivojlanish qonunlarini malum fikr shakllari — tushuncha, hukm va xulosa chiqarish kabilarda ifodalaydi.

Tushuncha - predmet va hodisalar, ularning muhim va zaruriy belgi va xususiyatlarining umumlashtirilgan, mavhumlashtirilgan va ayni choqda aniqlashtirilgan fikri obrazidir. U bilish jarayonida malum guruhdagi narsalarni bazan malum, umumiy, muhim belgilariga ko'ra umumlashgan xolda ajratib aks ettiradi. Umuman olganda, tushuncha abstrakt tafakkur shakli sifatida bazi narsalarni umumlashtirish va shu narsalar uchun umumiy bo'lgan belgilar yig'indisini fikran ajratish natijasidir. Tushuncha muhim jihatlar va xossalarni aniqlaydi va ularni o'zida mujassamlashtiradi: tushuncha mohiyatning fikrda ifodalangan obrazidir. Shuning uchun ham oz sonli tushunchalar son-sanoqsiz narsalar – xossalalar va munosabatlarni qamrab oladi.

Hukm — mantiqiy bilishning shunday fikriy shakli, unda borliqdagi muayyan predmet va hodisalar, ular o'rtasidagi bog'lanish va aloqadorliklar haqida tasdiq yoki inkor fikr ifodalanadi. Hukm – fikrning shunday shakli, uning yordamida tushunchalarning haqiqatga mosligi tasdiqlanadi yoki inkor etiladi.

Xulosa chiqarish - mantiqiy bilishning shunday shakli, unda bir yoki bir necha hukmlar asosida yangi hukm — yangi fikr hosil bo‘ladi. Xulosalash inson mantiqiy bilish bosqichining yuqori shaklidir.

Shunday qilib, insonning bilish jarayoni hissiy bilish shakllari: his etish, sezgi, idrok va tasavvurlardan boshlanib, aqliy bilish shakllari: tushuncha, hukm va xulosa chiqarish shakllarida tafakkurda qayta ishlanib, bilishning «quyi» bosqichidan, «yuqori» bosqichi tomon ko‘tarilib boradi.

Xissiy va akliy bilish, bilish jarayonining bir-biridan ajralmas ikki boskichi bo‘lib, ularning birini rolini oshirib yuborish va absolyutlashtirish mumkin emas. Xissiy bilish bergan dalillarsiz akliy bilishning bo‘lishi mumkin bo‘lmaganidek, akliy bilishsiz narsa va hodisalarning mohiyatini bilib bulmaydi.

Shuningdek bilish empirik va nazariy ilmiy bilish darajalariga ham bo‘linadi. Ilmiy bilishning empirik darajasi kuzatish, eksperiment, o‘lchash, guruhlariga ajratish, sinflarga bo‘lish, ilmiy tasnifga doir amallarni o‘z ichiga oladi.

Ilmiy bilishning nazariy darajasida gipotezalarni ilgari surish, ilmiy nazariyani yaratish, qonunlarni tariflash, bir gipoteza va nazariyani boshqalari bilan taqqoslash, shuningdek, umumlashtirish, tushuntirish va avvaldan aytish amallari bajariladi.

Malumki, empirik bilish biluvchi inson – subektning hissiy qobiliyatlari bilan chambarchas bog‘langan bo‘ladi. Biroq tajribaning vosita va shakllari xissiy qabullashga nisbatan muayyan avtonomlikda bo‘ladi. Masalan, bosimni aniqlovchi asbobning ko‘rsatishi qayd qilinsa, bu bilish amali hali ilmiy dalil bo‘la olmaydi. Ilmiy dalil kuzatishlar natijalarini biror fikr ko‘rinishida – yani «strelka shkala bo‘limlarining 760 mm simob ustunini ko‘rsatayapti», - degandan boshlanadi. Agar nazariy bilish to‘g‘risida gapiradigan bo‘lsak, bu bilishda bizning hissiy qobiliyatlarimiz qatnashadi. Buning uchun elementar geometriyadagi teoremlarni isbotlashni ko‘rsatishimiz mumkin, bu erdagi fikrlar geometrik shakllarni uchburchaklar, kvadratlar, aylanalarda va shunga o‘xshash qabullashimizga asoslanadi.

Avvalo, bu bilish darajalari o‘zlarining predmetlari bo‘yicha farqlanadi. Izlanuvchi ilmiy bilishning bu ikki darajasida ham ayni bir obekt bilan ish ko‘radi, biroq obekt har bir darajada turlicha namoyon bo‘ladi. Empirik bosqichda subekt hodisalarni kuzatish bilan band bo‘ladi, hodisalarning munosabatlari – bog‘lanishlarini qayd qiladi. Nazariy darajada esa kuzatilayotgan hodisalarni yuzaga keltirgan sabablari to‘g‘risidagi gipotezalar aytiladi. Odatda sabablarni aniqlash o‘rganilayotgan obektning mohiyatini ochish bilan bog‘liqdir. Nazariyaning vazifasi, jumladan sababni aniqlagan holda hodisaning tabiatini tushuntirishdir.

Empirik va nazariy ilmiy bilish darajalari bilish vositalari bo‘yicha farq qiladi. Empirik darajada subekt o‘zi o‘rganayotgan obekt bilan bevosita o‘zaro tasirda bo‘ladi, uni kuzatadi yoki parametrlarini o‘lchaydi. Bunda bilish vositasi sifatida obekt to‘g‘risida malumot olib beradigan tegishli asboblarda bilan qurollangan holda ko‘rish yoki eshitish qobiliyatidan foydalanish mumkin. Nazariy darajada subekt bilish obekti to‘g‘risida bilvosita fikrlashi mumkin, yani bunda u tajribada olingan natijalar asosida ish ko‘radi.

Ilmiy bilish darajalari shuningdek, tushuncha vositalari va tili bilan ham farq qiladi. Empirik atamalar belgilarini sistemalashtirish (tavsiflash) asosida shakllanadi. Hosil qilingan tushunchalar (atamalar) empirik tavsiflash sistemasini tashkil qiluvchi fikr – davolar tarzida tartiblanadi. Bunday empirik fikrlarni bevosita tekshirish imkoni bo‘ladi. Masalan, «dinamometrning strelkasi 100 bo‘linish shkalasini ko‘rsatib turipti», - degan fikr haqiqiy bo‘ladi, agar o‘sha asbob rostdan ham shkalaning shu bo‘limini ko‘rsatayotgan bo‘lsa. Nazariy fikrlarga kelsak, ularning mavqei empirik fikrlardan anchagina farq qiladi. Nazariyaning tushunchalari – atamalar nazariy bilish darajalariga xos vositalari bilan o‘rganiladigan obektlarning yuksak abstraksiyalar, ideallashtirishlardir. «Moddiy nuqta», «absolyut qattiq jism», «ideal gaz» singari ideallashtirilgan tushunchalar yaxshi tanish. Bunday ideallashtirishlarni o‘z ichiga olgan nazariy fikrlarning ham haqiqiyliigi sinab ko‘riladi. Biroq bunday sinov – tekshirishlarda tajribaga bevosita «chiqish» bo‘lmaydi, bunday ularni nazariya ichida ham, empirik fikrlarni amallarni talab qiladi.

Odatda empirik fikrlar ham nazariy yuklamaga ega bo‘lib, nazariyasiz inson aslida nimani kuzatayotganini va nima uchun eksperiment o‘tkazayotganini, yani u nimani izlayotganini, nimani o‘rganayotganini bilmagan bo‘lardi. Masalan, kuzatishlar asosida «jism to‘g‘ri chiziqli tekis harakat qilayapti» deb aytilagan fikr bunday harakatni tasnif qilish mumkin bo‘lgan ideal sxemaga tayanishni talab qiladi, bu o‘z navbatida, klassik mexanikadagi to‘g‘ri chiziqli tekis harakat nazariyasini foydalanishni taqozo qiladi. Tajriba dalillarining nazariyaga bog‘liqligi bazan go‘yo kuzatishlar va eksperimentlarning natijalari turli nazariyalar uchun birday bo‘lmaydi. Biroq bunday davo bilan kelishib bo‘lmaydi, chunki kuzatishlar va o‘lchash amallarida ayni bir vosita, asbob, sonli shkalalar va shunga o‘xshashlardan foydalaniladi. Bundan tashqari, fan tarixi shuni ko‘rsatadiki, empirik bilish natijalari uzoq vaqtgacha o‘zining avtonomligini saqlashi va malum vaqt o‘tgandan keyingina nazariy bilishga o‘z tasirini o‘tkazishi mumkin. Masalan, fransuz fizigi A.Bekkerelning (1896 yilda) kashf etgan uran tuzining tabiiy nur aktivligi fizikaning taraqqiyoti uchun ulkan ahamiyatga ega bo‘ldi. Faqat yillar o‘tgandan so‘nggina «radioaktivlik», yani nur aktivligi nomini oldi. Bu avval M.Kyuri nazariyasi so‘ngra E.Rezerford nazariyasida tushuntirib berildi. Biologiyadagi buyuk voqealar, angliyalik olim Robert Guk tomonidan (1668 yilda) hujayraning mavjudligi aniqlangandan boshlandi. Yillar o‘tgach, M.Shleyden va T.Shvan (1838 – 1839 yillar) tomonidan hujayra nazariyasi deb atalgan konsepsiya ilgari surilib, shakllantirildi.

Intuitiv bilish o‘z tabiatiga ko‘ra, hech qanday hissiy idroksiz va mantiqiy muhokamasiz biror bir yangi fikrning birdaniga, kutilmaganda tug‘ilishidir. Ammo intuitiv bilish kishining oldingi tajriba, ko‘nikma, malaka va erishgan bilimlariga asoslangan holda yuzaga kelishini, busiz intuitiv bilishning bo‘lishi mumkin emasligini ham esdan chiqarish kerak emas.

Inson bilishini turlarga bo‘lishda intuitiv bilishdan farqli ravishda qadimdan g‘oyibona bilish haqida ham turli fikrlar mavjud. G‘oyibona bilish inson bilishining shunday turiki, bunda kishi uzoq masofadan turib sodir bo‘lgan yoki sodir

bo'ladigan hodisa va voqeani bilishi, his qilishi bu hodisa va voqeaning qanday sodir bo'lishi unga ayon bo'ladi.

Lekin shuni aytish kerakki, g'oyibona bilishning hozircha mexanizmi fanga malum emas. Shu sababli ko'pincha g'oyibona bilishni kishilar ilohiyilashtirib, bunday bilish faqat aziz-avliyolarga, alohida g'ayri tabiiy xususiyatlarga ega kishilarga xos, deb qarab kelishmoqda.

Inson bilishini yana uning ijtimoiy hodisalari bilan bog'liqligiga ko'ra, uni mifologik bilish, diniy bilish, falsafiy bilish, badiiy-estetik bilishlarga ajratish ham mumkin. Ulardan falsafiy bilish fanning falsafiy masalalarining muhim bir bo'limini tashkil qiladi. U bilishning umumiy tabiati va mohiyatini, bilishning subektiv va obektiv munosabatini, bilishda amaliyotning roli kabi masalalarini, bilish jarayonining dialektik xarakteri, bilishda haqiqat muammosi kabi masalalarini o'z ichiga oladi.

Ong – tafakkur va borliqning birligi. Inson ongi murakkab va serqirra hodisadir. U to'g'ridagi tasavvurlar juda xilma-xil bo'lib, ular kishilar bilimi va hayotiy tajribalarining turli-tumanligi bilan bog'liq. Ong, uning mohiyati, mazmuni, namoyon bo'lish jihatlarini tushunishni aksariyat hollarda kishilarning moddiy ananalariga, ularning diniy qarashlari ham belgilaydi. Ongning tabiati ko'plab manolarni o'z ichiga oladi, chunki u eng umumiylikka, bilvositalikka va predmetli o'ziga xoslikka egadir.

Hozirgi vaqtda fanda ongni tatqiq qilish fanlararo xarakterga ega. Ongning falsafiy tushunchasi psixologiya, lingvistika, semiotika, mantiq, antropologiya, biologiya, kulturologiya va ularga tutash bo'lgan fanlarda olingan yangi natijalarni umumlashtiradi. Ong haqidagi bugungi mulohazalar falsafiy va ilmiy argumentlarning shunday bog'lanishlari bilan xarakterlanadiki, bular chegarasida bu jihatlarini amalda ajratib bo'lmaydi.

Ong tushunchasining shakllanish tarixi bizga uning asosiy sifatlari haqida mulohaza yuritishimizga imkon beradi. Birinchidan, bu ongning instrumental (kognitiv va kommunikativ) jihozlanganiga tegishli bo'lib, ongning turli – tuman til (nutq), tushuncha (mantiqiy) va obrazli – sezgi vositalari odamlarning kundalik hayotlarini, ularning bilish va kommunikativ faoliyatlarini taminlaydi. Ongning instrumental vositalari insonning nafaqat bilim olishi va muomala qilish, balki ularni saqlash, qayta tiklash va baholashga, tanlashni amalga oshirib, qaror qabul qilishga imkon beradi. Ongning instrumental vositalari odamlarning ijodiy faoliyatida, uning barcha ko'rinishlarida namoyon bo'lgani holda nihoyatda sezilarli rol o'ynaydi. Inson ongli hulqining instrumental xarakteri, inson yashash tarzining qolgan barcha tirik mavjudotlarning yashash tarzidan farq qilishini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, ongning sistemaviy sifatlari: bu sifatlarga ongning bir butun tarzida bog'langanligi va uning alohida strukturalari o'zaro tasirining muvofiqlanganligidir. Bog'langanlik va muvofiqlanganlik sifatlari tufayli ong turli turdagi jarayonlardan iborat eng murakkab sistema sifatida ishlaydi: ular fikrlash, xissiy (sezgi, qabullash, tasavvur) va shuningdek, taasurotlar va intuitsiyadir. Onglash jarayonining kechishi, unga tegishli bo'lgan strukturalarning resurslari bilan taminlanadi. Ongning har bir strukturasi boshqa strukturalar bilan o'zaro

tasirlashib, etakchi rol o'ynashi mumkin. Masalan, emotsional ong yoki hotirlash deb gapiriladigan bo'lsa, bu degani ongning boshqa strukturalari uning ishida qatnashmayapti degani emas.

Uchinchidan, ongning intensional qobiliyati, bu ongning nimagadir, kimgadir yo'naltirilganligida, yoki nimadir yoki kimdir to'g'risida bo'lganligida ifodalanadi. Ongning yo'nalغانlik xossasa insonning dunyo bilan munosabatlarida, insonning tarixiy, ijtimoiy, kulturologik individual – shaxsiy turli – tuman aspektlarining munosabatlarida namoyon bo'ladi. Ongning yo'nalغانlik konkret hossalardan odamlarning ongning faoliyatlarining predmeti kim (nima) ekanligi to'g'risida fikrlash mumkin. Ong yo'nalغانligining «ichiga» yo'nalغانlik va «tashqari»ga yo'nalغانlikni farqlash lozim. Ong inson borlig'ining tashqi dunyosiga, shuningdek, uning ichki dunyosiga yo'nalغان bo'lishi mumkin.

Insonning ichki dunyosiga yo'nalganda uning yo'nalغانligi o'z – o'zini anglashi, nazorat qilishi, o'z – o'zini tahlil qilish, baxolash va o'z – o'zini tartibga keltirish va shunga o'xshashlarda namoyon bo'ladi.

To'rtinchidan, ongning epistetik sifati inson ichki dunyosining holatini ifodalaydi. Ongning epistemik sifatida odatda shubhalanish, ishonch holati, erk, ishontirish singari holatlar nazarda tutiladi. Ongning bu holatlarining tabiati turli belgilarning mujassamlanishidan iborat bo'ladi. Masalan, ongning har bir holati o'zida bilim va boshqa informatsiyalari elementlari emotsiyalarning baholi – qadriyatli sifatlari, erk xossasi, ongsizlik psixika elementlarini mujassamlashtirishi, shuningdek, boshqa psixik va jism – tana omillarining tasirida bo'lishi mumkin. Masalan, biz biror narsada aybdorligimizni onglasak, qo'rquv xissini sezamiz, hayajonlanamiz, o'zimizning ishonchimizni ifodalaymiz yoki qoniqish lazzatlanish xissini sezamiz, bunday holatlarning umumiy belgilari ularning onglanganligining, ishonchlilikning, qanoatlanganlikning, yoqimlilikning, qadriyatlilikning va shunga o'xshash onglanganlik darajasi bilan belgilanadi.

Ong tushunchasini xarakterlashda ko'pincha uning «aql» va «idrok» degani sinonimlaridan foydalaniladi.

«Aql» so'zi qadimgi yunon so'zi «logos»dan kelib chiqadi. Bu so'zda «yig'moq», «tahlamoq», «tartibga solmoq» so'zlarining va «gapirmoq», «nomlamoq» so'zlarining manolari chambarchas bog'langan.

«Obektiv aql» - bu tushuncha olamning aqlli tuzilgani prinsipini ifodalaydi. Aql obektiv prinsip sifatida olamni bir butunga birlashtiradi, uni inson bilish uchun kira oladigan qiladi. «Subektiv aql» tushunchasi esa insonning aqliy afzalliklarini bildirib, uning bilishga, onglashga va harakatga qobiliyatlilikini bildiradi. Obektiv aql tushunchasi bugungi kunda bir muncha eskirdi, chunki olam o'zining ratsional tuzilishining soddaligi, ravshanligi va o'zlashtiriluchanligi bilan insonni quvontirayotgani yo'q. Aksincha, dunyo to'g'risidagi bugungi tasavvur uni murakkab va boshqarib bo'lmaydigan tashkillanish tarzida namoyon qilmoqda. Dunyo odamga hotirjamlikdan ko'ra ko'proq qayg'urish, notinchlik olib kelmoqda. Odamlar ilgariidek olamning qandaydir biror atom katastrofasi yoki tabiiy kataklizm tufayli umuman yo'q bo'lib ketishini kutgandek qiynalib yashamoqdalar.

Ong haqidagi tasavvurlarning shakllanishida aql (razum) tushunchasi qatorida idrok (rassudok) tushunchasi muhim rol o'ynaydi. Inson idrok qobiliyatlarining xarakterini tushuntirishda, Dj.Lokk idrokni xissiy tajriba malumotlarini kombinatsiyalovchi qobiliyat sifatida tariflagan edi. Sensualizm tarafdorlari aql insonning alohida qobiliyati sifatidagi rolini inkor qilar edilar. Ratsionalizmga qarama – qarshi o'laroq, idrok tushunchasining sezgilarga bog'liq bo'lgan qobiliyat deyish bilan chegaralanar edilar. Biroq, I.Kant aql va idrokning farqini yana qaytadan asoslashga harakat qildi. Unga ko'ra, idrok mantiqning shakllari va qoidalariga muvofiq fikrlaydi. Aql mulohazalar uchun asoslar beradi va idrokka munosabatida tanqidiy vazifani bajaradi. Kantga ko'ra, idrok va aql insonning turli qobiliyatlaridir: idrok – predmetlar haqidagi mulohaza qilish qobiliyati, aql esa – mulohaza xukmlarini tahlil qilish qobiliyatidir. Aqlning vazifalarini ko'rsatar ekan, I.Kant uni nazariy va amaliy aqlarga bo'ldi.

Umuman olganda, ong faqat insongagina xos bo'lgan, miyaning til va nutq yordamida voqelik aksini umumlashtiradigan, maqsadga muvofiq, konstruktiv va ijodiy namoyon bo'ladigan oliy funksiyadir.

Bugungi kunda, avvaldagidan ham ko'ra, shu narsa oydin bo'lib qolimoqdaki, jamiyatning hayotiy faoliyati, yashashga qobilligi ko'p jihatdan uning fuqarolarining sog'ligi va energiyasiga bog'liqdir. Birinchi tomondan, jamiyat o'z fuqarolarining ehtiyojlari har tomonlama rivojlanishi va ularning qondirilishidan manfaatdor. Ikkinchi tomondan, u ehtiyojlarni iqtisod, texnika va siyosat imkoniyatlari bilan bog'lab olib borishga intiladi. Tananing o'sishi, shakllanishi, keksayishi va o'lishi vegetativ sistema sifatida, aql xukmiga bog'liq bo'lmagan holda ro'y berishi ravshan. Biroq, qadim – qadim zamonlardan oq tanani pavarish qilish insonning biror bir ijtimoiy vazifani bajarish maqsadida amalga oshirib kelinadi. Qul va hkmdorning, ritsar va koxinning, olim va ishchining tanasi bir – biridan ancha farq qiladi, bu farq unchalik tashqi emas, balki ichkidir, yani psixik reaksiyalar, kechinmalar, o'z – o'zini nazorat qilish va o'z – o'zini boshqarish jihatidan bo'lgan farqdir. Jismoniy o'yinlar va raqslar, bo'yalish va tatuirovka, manera va imolarga o'rganish, affektlar ustidan nazorat – bularning barchasi tanani, uning ehtiyojlari va intilishlarini boshqarish usullaridir. Inson sivilizatsiyalari hammavaqt tana sifatlarining shakllanishi uchun ko'p kuch sarflaganliklarini yoddan chiqarmaslik kerak. Shuning uchun hozirgi zamon madaniyati va bugungi kunda inson tanasiga etibor uning ruhiga bo'ladigan etibordan kam bo'lmasligi ravshan.

Hususan, ruhning ongsizlik chuqurliklariga qiziqish Z.Freyd va K.Yungning ishlaridan boshlab shakllandi, so'ng, falsafa, kulturologiya va boshqa sohalarda rivojlantirildi.

Freydning asosiy g'oyasi ongsizlikning energetik tabiatiga yoki energetik potensialiga qaratiladi, buni ratsional foydalanish tahlil va nazoratni talab qiladi. Ongsizlikning xossalarini ifodalab beradigan tushunchalar sistemasini yaratish zarur. Ongsizlik insonning eng qudratli psixik energetikasi va informatikasi manbalariga kiradi, ularni biz xulq, muloqot, bilish, baholash, qaror qabul qilish va shunga o'xshash motivatsiyalari deb nomlaymiz. Odamning ekstremal hayotiy vaziyatlardagi hulqi kuzatilsa, uning motivatsiya kompleksida erkin energiya

miqdorining ortishida informatsiya etishmasligi (noaniqligi ro'y bersa) ehtirosi kuchayib, qanotsizlanish tuyg'usi kuchayib ketishini ko'rish mumkin. Vaziyat informatsiya nuqtai – nazaridan ravshanlasha borgan sari energiyaning manfiy qiymatlari pasayadi, taranglanish, zo'riqish kamayib boradi va batamom yo'qoladi. Ongsizlik energetikasida erkin va bog'lanish energiyasini farq qilish kerak. Erkin energiya ongsizlik holatining faqat «lazzatli - nolazzatli» prinsipiga bo'ysungan eng harakatchan dinamikasini ifodalaydi, bu holatlarda biror narsaga ishonch yoki shubha bo'lmaydi. Agar ongsizlikning erkin energiyasi bevosita razryadkaga intilsa, u holda bog'lanish energiyasining razryadkaga harakati tormazlangan va sekinlashgan bo'ladi. Ongsizlik bog'lanish energiyasining holati inson psixikasining ancha katta tashkillanganligi yoki tartiblashganligicha bog'liq (shartlangan) bo'ladi.

Freydga talimotiga ko'ra, boshlang'ich energiya, ruh va tananing resurslarini taminlanishi – bu hammadan avval energetik jarayon, rohatlanish – istemol qilish va qoniqishga o'xshashdir. Ongsizlik tasavvuridagi syujetlar, fantaziyalarda motivini topgan intilishlar va hoxishlar tarzida assotsiyalanadi. Psixanalitiklar (tahlilchilar) psixik reallik tarzidagi fantaziyaning turli darajalarini ko'rsatib o'tadilar. Bular quyidagilar bo'lishi mumkin: ratsional (aqliy) aktlar («o'ngdagi tushlar») – insonning uyg'oq vaqtidagi hikoyalar, bayonlar, dialoglar, illyuziyalar); onglanmaydigan tuyg'ular, avvaldan sezishlar, orzular; tushlardagi sublimatsiyalangan obrazlar; gallyusinatsiyalar, dovdirash, vahimaga tushish va shunga o'xshash anomal simptomlar elementlari bo'lgan ehtiros aktlari.

Tasavvurda (taasurotda) istak (hoxish) predmeti bo'lgan narsa ongning ratsional (aqliy), ehtiros yoki erk sferasidan siqib chiqarilishi va ongsizlik tublarida shakllanib, yo oddiy tushlarda yoki «o'ngidagi tush»da namoyon bo'lishi mumkin. Freyd tushlarni tahlil qilishni ongsizlik tabiatini bilib etishning «shohona yo'li» deb atagan edi. Tush ko'rishlardagi «siljish», «quyuqlashish» va «simvallashtirish» mexanizmlari psixika ongsizlanish tashkillanishining har qanday ko'rinish shakllari uchun xarakterlidir.

Siljish va quyuqlashish mexanizmlarining ishlashi fazodagi va vaqtdagi tutashlik va o'xshashlikka ega bo'lgan psixik assotsiatsiyalarning asosida yuzaga keladi. Siljish o'zi tufayli biror narsaga bo'lgan nuqtai – nazarni keskin o'zgartirib yuborishi, diqqatni (aksentni) asosiy aksentlardan ikkinchi darajali aksentlarga o'tkazish, qadriyatlariga qayta baho berishga olib kelishi mumkin. Tushdagi kognitiv obrazlar ularning tushuncha – o'xshash shakllarining sezgi (ko'rish, eshitish va sh.o'.) shakllariga siljishi hisobiga va aksincha siljishi hisobiga quriladi. Siljish quyuqlashishga yordam beradi, quyuqlashish mexanizmlarining tasiri bir necha assotsiativ – obraz zanjirlarining kesishlarida namoyon bo'ladi. Tushdagi obrazlarning quyuqlashishi ongsizlikning energetik va iformatsion oqimlarining yig'ilishini aks ettiradi. Unda, masalan, real hayot yo'lining biror uzun va murakkab bo'lagi to'g'risida bayon qilib berishning «quyqasi» yig'ilgan bo'ladi. Siljish va quyuqlashish mexanizmlari faqat tushdagina tasir ko'rsatib qolmaydi. Freyd, masalan, quyuqlashish – bu o'tkir aqllilikning asosiy usullaridan biridir, uning tasiri so'zlarni talaffuz etish, yozishdagi xatolarda, so'zlarni eslay olmaslikda va shunga o'xshashlarda namoyon bo'ladi.

Simvallashtirish deb - ongsizlik intilishlar, hoxishlarni reprezentatsiya qilishning obrazli ifodalanishiga aytiladi. Tush ko'rish obrazi, yoki simptomining maqsadi harakat va mulohazalarning ochiq manosi yoki mazmunini yashiruvchi. Shuning uchun mumkin bo'ladiki, simvol uni faqat ifodalabgina qolmaydi, balki o'rnini ham oladi. Psixoanalizning nazariyotchisi va amaliyotchisi fransuz olimi Jak Lakan (1901-1981)ning uqtirib o'tishcha, simvallashtirish ongsizlikning faqat shunday hodisalarini ifodalaydiki, ularni til va nutq vositalarida tartiblashtirish mumkin bo'lsin. Shuning uchun ongsizlikning amallari bo'lmish siljish va quyuqlashish simvallashtirishning xususiy hollari – bo'lishi mumkin: siljish metonimiya amaliga, yani predmetni uning qandaydir xossasi bilan almashtirish, quyuqlashish esa metaforaga, yani bir predmetni boshqasiga o'xshatish amaliga to'g'ri keladi. Ongsizlik tabiatini bilib olish uchun Lakan «ko'zgu modeli» dan foydalanadi. Hususan, hayotning dastlabki paytlarida bolaning o'zini bilib olish akti tana – xissiy, ongsizlik aktidir. «Kuzgu» unga o'zini boshqa odamga qaragandek qarashga imkonini beradi, u o'zining «ko'zgu»dagi aksini so'zlar bilan identifikatsiya qilish elementlarini amalga oshira boshlagan paytda bilish akti ro'y beradi. Ana shu vaqtdan boshlab o'zining ongsizligiga o'tish boshlanadi. Bolaning ongsizligi «ko'zgu»da aks etadi, uning yordamida u o'zini biladi (kashf etadi), va shu bilan o'z – o'zini onglaydi.

Ongsizlik tushunchasi insonlararo munosabatlar dunyosini qarashda ham qo'llaniladi. Ongsizlikda sezilishlik, jism – tanalilik, aklliylikning, taacsurot, intuitsiya, ixtiros, erk hotiraning yashirin, «berkitilgan» sifatlari mujassamlashgan bo'ladi. Ongsizlik manolarining mumkin bo'lgan sharxlanishi (interpretatsiyasi) va echilishlari insonga ana shu inson til yordamida uni o'zining boshqalar bilan muloqot munosabatlari sohasiga kiritishning uddasidan chiqqan paytda ro'y beradi. Odamlarning bunday muloqot modeli bir kishining ikkinchi kishiga munosabatini ongsizlik funksiyasida aniqlashni ko'zda tutadi.

Muloqot jarayonlarida suhbatdoshning nutqi ongsizlikning ko'zgu qiymatlari sohasida xarakterlanishi mumkin, uni bilib olish uchun unga quloq solish kerak. Bunday muloqotda har bir tomon boshqa tomonning ko'zgusi bo'lib xizmat qiladi, unga har ikki tomon o'z ongsizligiga qaragandek qaraydi va uni onglashga harakat qiladi. Bizning ongimiz uchun ongsizlik sferasidir. Bizning ongimiz o'zganing ongiga «qarab oladi» va u bizga xuddi bizning ongsizligimiz tarzida ochiladi. Psixoanaliz nuqtai – nazaridan «ongsizlik - onglilik» ko'zga munosabatlar metaforik modeli turli avlodlarga, turli tarixiy davrlarga, turli madaniyatlarga tegishli turli tillarda gapirayotgan odamlar muloqotini tahlil qilishda ayniqsa mahsuldir.

Tafakkur uslubining asosiy jihatlari. Malumki, odamlar qadimdan «uslub» tushunchasini sanat, adabiyot, arxitektura asarlari xususiyatini izohlash uchun ishlatganlar. XX asrda bu tushuncha yangicha manoda qo'llanilmoqda. Ko'p hollarda, avval malum bo'lmagan, «tafakkur uslubi» yoki «ilmiy tafakkur uslubi» kabi lingvistik atamalarga duch kelinmoqda. Bu tushunchalar nimani ifoda etadi va ularning paydo bo'lishiga sabab nima?

Tafakkur uslubi bilish taraqqiyotining muayyan tarixiy bosqichidagi ilmiy tafakkurning asosiy, belgilovchi tavsifini o'zida ifoda etadi. Ko'p xollarda «tafakkur

uslubi», «oʻrganish uslubi», «yondoshish metodi» tushunchalari sinonimlar sifatida qoʻllaniladi. Shu sababli metafizik, eklektik, sofistlik, dialektik va boshqa tafakkur uslublari haqida gapirish mumkin.

«Tafakkur uslubi» tushunchasini ilmiy nuqtai nazardan aniqlash muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Biroq, bu vazifani hal qilish bir qator qiyinchiliklar bilan bogʻliq, negaki «tafakkur uslubi» juda keng manodagi tushunchadir. Shuning uchun dastavval, umumiy shaklda, uning asosiy koʻrinishlarini belgilash mumkin.

Avvalo shuni takidlash kerakki, tafakkur uslubi hissiy va aqliy bilimga asoslangan, voqelikni vositali inikos etishdir. Malumki, inson tafakkurida uni oʻrab turgan voqelikdagi narsa va hodisalarni aks ettirish ularning mantiqiy obrazini oʻzida ifodalagan tushunchalar yordamida amalga oshiriladi. Tushunchalar umumiy xarakterga egaligi bilan tavsiflanadiki, ular tufayli narsa va hodisalarning muhim tomonlarini aniqlab olish mumkin boʻladi.

Muayyan tushunchalar sistemasi yordamida erishilgan bilimlarni mantiqan anglab olish ham tafakkur uslubining xarakterli belgilaridandir. Bunday anglab olishga qayta-qayta mulohaza qilish yoʻli bilan erishiladi. Natijada inson ongida turli narsalar, hodisalar hamda ularning tomonlari va xossalari oʻrtasidagi oʻzaro bogʻlanish aks etadi.

Inson uchun uni oʻrab turgan olam va uning rivojlanish qonuniyatlari toʻgʻrisidagi yangi bilimlarni aks ettirish, anglab olish, turli hayotiy vaziyatlarda muvofiq keladigan xulq va amaliy yoʻnalishni tarkib toptirish uchun zarurdir. Ular tushunchalar sistemasi yordami bilan mulohaza qilish natijasidagi aqliy yakunlar, xulosalar tufayli vujudga keladi.

Tafakkur uslubining turli xillariga xos xususiyatlarni aniqlash uchun, oddiy (kundalik), ilmiy (professional) va falsafiy tafakkur uslublarini bir-biridan farqlash maqsadga muvofiqdir.

Oddiy tafakkur uslubi deganda, inson oʻz ongida narsalar olamini, soʻz, jumlar orqali aks ettirib, ularni anglab olishda mavjud empirik faktlarga asoslanib, xatti-harakat yoʻnalishini belgilashi tushuniladi. Yaʼni, oddiy tafakkur uslubiga har qanday bilish jarayoniga xos boʻlgan xususiyatlar muvofiq keladi. Biroq, bunga asoslangan holda tafakkur uslubini mantiqiy tafakkur shakllari bilan aralashtirib yubormaslik kerak. Masalaning mohiyati shundaki, agar tushuncha, mulohaza va xulosalar subekt aqliy faoliyatning mantiqiy shakllarini tashkil etsa, tafakkur uslubi esa mazkur mantiqiy shakllar yordamida namoyon boʻlib, uning ichki mazmunini ifodalaydi.

Bu belgilar – ilmiy (professional) tafakkur uslubining ajralmas elementlari boʻlsada, uni xarakterlash uchun etarli emas. Chunki, ilmiy (professional) tafakkur darajasida olam va uning rivojlanish qonuniyatlarini aks ettirish, anglash hamda maqsadga muvofiq yoʻnalishini belgilab olish muayyan ilmiy prinsiplar, gʻoya, nazariya va u bilan bogʻliq boʻlgan tayyor holdagi mavjud tushunchalar apparati bilan amalga oshiriladi. Bunday sharoitda tafakkur funksiyasi yangi erishilgan bilimlar bilan oldindan mavjud boʻlganlarini taqqoslashga qaratilgan boʻladi. Bu taxlit taqqoslash jarayonida, bir tomondan, oldindan mavjud boʻlgan bilimlar

chuqurlashadi, kengayadi va aniqlashadi, ikkinchi tomondan, yangi bilimlar to'planadi va takomillashadi.

Yangi erishilgan bilimlarni anglab olishda mavjud nazariyalar sistemasi hamda tamoyillar bilan bir qatorda, turli faoliyat sohasida oldindan to'plangan bilish tajribasi ham muhim ahamiyatga ega. Kasbiy tajriba, mavjud nazariya sistemasi bilan birgalikda yangi erishilgan bilimlarning amaliy qimmatini baholashning muhim etaloni sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, texnik tafakkur ilgari to'plangan texnik tajribalarni hisobga olib ishlab chiqilgan, olimlarning faoliyati natijasida moddiylashgan mashinalar, mexanizmlar sistemasini aks ettiradi va anglab oladi. Ana shu ilmiy asos va texnik (professional) tajriba zaminida turli mexanizmlarni amaliy jihatdan qo'llanishda yaroqli yoki yaroqsizligi bilib olinadi.

Mavjud ilmiy prinsiplar, nazariyalar hamda o'tmishda to'plangan professional tajriba yordamida yangi erishilgan bilimlarni aks ettirish va anglab olish – barcha ilmiy tafakkur uslubiga xos asosiy belgidir. Chunonchi, tibbiy tafakkurda bemor kasalligining belgilarini aks ettirish va anglab olish, davolanishning optimal yo'llarini belgilash, mavjud meditsina bilimlari sistemasi va vrachlik tajribasi yordamida zamonaviy meditsina texnikasini qo'llash orqali amalga oshiriladi.

Fanning har bir sohasida muqarrar tarzda nazariyalar, prinsiplar sistemasi mavjud, ular orqali odamlarni o'rab turgan voqelikdagi narsa va hodisalar hamda ularning rivojlanish qonuniyatlari to'g'risida erishilgan yangi bilimlar aks ettiriladi. O'zining turli-tumanligi, xususiyatlarining boyligi bilan xarakterlanadigan professional tafakkur ana shunga asoslanadi.

Umuman olganda, ilmiy (professional) tafakkur, oddiy tafakkur kabi amaliy xarakterga muvofiq keladigan pozitsiyani ishlab chiqishda o'rganiladigan obektlar haqidagi bilimlarni vositali aks ettirish va anglab olishni ifoda etadi. Lekin, oddiydan farqli ravishda, ilmiy (professional) tafakkur tayyor bilimlarning muayyan yig'indisini taqozo qiladi. Uning asosida inson bilish faoliyati va amaliy harakati uchun muvofiq keladigan pozitsiyani ishlab chiqish jarayoni hamda uning natijalarini baholash sodir bo'ladi. Tabiat va jamiyat haqidagi aniq fanlar mazmunini u yoki bu tarixiy bosqichga mos keladigan fundamental ilmiy prinsiplar, g'oya, nazariyalar, tayyor bilimlar tashkil etadi.

Ilmiy bilish va ilmiy tafakkur falsafiy uslubning ajralmas elementini tashkil qiladi. Falsafiy tafakkur uslubi ilmiy (professional) uslubdan shu bilan farq qiladiki, moddiy olam va uning rivojlanish qonuniyatlarini aks ettirish hamda anglab olish, muayyan dunyoqarash va metodologik prinsiplar asosida amalga oshiriladi.

Binobarin, ilmiy tafakkur asosida yotgan xususiy-ilmiy g'oya, nazariyalar qat'iy belgilangan soha va chegaraga ega bo'lsa, falsafiy qoidalar bunday chegaraga ega emas. Moddiy olam taraqqiyotining eng umumiy qonuniyatlarini aks ettiradigan falsafiy prinsiplar, qonun va kategoriyalar umumiylik xarakteriga ega. Shuning uchun ham ular olamni bilish va qayta o'zgartirishning umumiy metodi sifatida namoyon bo'ladi.

Falsafiy tafakkur uslubi, ilmiy tafakkur uslubi kabi, turli xil shakllarda namoyon bo'lish bilan xarakterlanadi. Bundan falsafiy tafakkur shakllarining ko'p qirraligi nimaga bog'liq degan savol, muqarrar, kelib chiqadi. Bu savolga javob

berishda shu narsani hisobga olish kerakki, u yoki bu tafakkur uslubining mazmuni falsafaning asosiy masalasini, tafakkurning borliqqa, ruhning tabiatga bo'lgan munosabatini hal qilish bilan belgilanadigan dunyoqarashlik va metodologik xususiyati bilan belgilanadi. Agar dunyoqarashlik va metodologik jihatlar mazmuni belgilasa, ularning konkret namoyon bo'lishi esa falsafiy tafakkur uslubining shaklini tashkil etadi.

Falsafiy tafakkur uslubi biluvchi subektning dunyoqarashlik va metodologik prinsiplar xarakteri bilan uzviy bog'langandir. Shuning uchun dunyoqarash va metodning o'zgarishi, tafakkur uslubining o'zgarishiga olib keladi. Binobarin, tafakkur uslubi shakllanish jarayonida metod va dunyoqarashga aks tasir etadi, ilmiy bilish sohasida u yoki bu vazifani hal qilish bilan bizning oldimizga yangi vazifalarni qo'yib, yangicha hal qilishga undaydi. Muayyan masala hal qilinishi bilan u yangi tafakkur jarayoniga tasir etadi. Shu o'rinda tafakkur uslubining ijodiylik, faollik xususiyati namoyon bo'ladi.

Tafakkur uslubi voqelikdagi narsa va hodisalarni, ularning rivojlanish qonuniyatlarini muayyan kishilarning o'ziga xos xususiyatlari, ehtiyojlari, manfaatlari ijtimoiy munosabatlariga muvofiq keladigan empirik bilimlar, ilmiy g'oyalar, nazariyalar, dunyoqarash va metodologik prinsiplarga muvofiq tarzda inikos etilishi va anglab olinish usulidir. Bu tarifda umuman barcha tafakkur uslubi shakllariga xos bo'lgan eng umumiy belgilar o'z aksini topgan.

Tafakkur uslubining turli-tuman ko'rinishlari: birinchidan, atrofni o'rab turgan narsa va hodisalar hamda ularning rivojlanish qonuniyatlarining inson ongida to'la va chuqur inikos etilish darajasiga bog'liq. Bu esa, o'z navbatida tarixiy rivojlanishning turli bosqichlarida tafakkur anglab olishi lozim bo'lgan tushunchalar, tamoyillar, qonunlar sistemasiga bog'liq. Ikkinchidan, u jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, milliy anana va urf-odatlar, shaxsning individual ijodi, shuningdek, manaviy va boshqa ijtimoiy munosabatlarning majmui bilan taqozo etiladi.

Tafakkur uslubi insoniyatning ish uslubiga bevosita tasir qiladi. Muayyan ilmiy nazariya, metodologiya va dunyoqarash prinsiplariga suyangan tafakkurning aniq va ravshanligi amaliy faoliyatda bo'layotgan voqealarni muayyan nuqtai nazardan tahlil qilishga, ularning kelajakdagi rivojlanish tendensiyalari haqida xolisona xulosa chiqarishga, amaliyotda to'g'ri foydalanishga imkon tug'diradi.

Bunday tafakkur uslubi hozirgi istiqlol davrida ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy taraqqiyotning ilmiy asoslangan strategiya va taktikasini ishlab chiqishda katta ahamiyat kasb etmoqda.

Bilishda haqiqat va amaliyot uyg'unligi. Insonning borliqni bilishidan asosiy maqsadlaridan biri - bu haqiqatni bilishdir. Bu asosan inson bilimlari bilan obektiv borliqdagi narsa va hodisalar o'rtasidagi munosabat masalasini o'z ichiga oladi.

Haqiqat - bu borliqdagi narsa va hodisalarning o'zi emas, balki ular haqidagi inson bilimlarining o'sha narsa va hodisalarga mos kelishidir.

Haqiqat, bu – bizning dunyo to‘g‘risidagi bilimlarimiz va tasavvurlarimizning dunyoning o‘ziga, obektiv realikka muvofiq kelishidir. Haqiqatni nohaqiqatdan, yanglishuvdan, yolg‘ondan farqlashtirish, ajratish uchun bizning bilimimiz obektiv voqelikka, uning yashash va rivojlanish qonunlariga qanchalik mos kelishini aniqlab olmoq kerak.

Haqiqat konkret yoki mavhum, mushohadaviy va fikriy xulosalar, tushuncha va tasavvurlarning obektga mosligidir.

Hozirgi zamon falsafiy va ilmiy adabiyotida obektiv haqiqat tushunchasi tez-tez uchrab turadi. Obektiv haqiqat – bu bilimlarimizning shunday mazmuniki, u bir kishiga ham, butun insoniyatga ham bog‘liq emas. Haqiqatning obektivligini u mavjud olamning inikosi bo‘lishi belgilaydi.

Haqiqatning obektivligi vaqt va zamondagi o‘tish manosida ketma-ketlik, izchillik va vorislikning asosi hisoblanadi.

Haqiqat bu jarayondir. Obektiv haqiqatning jarayon bo‘lish xususiyati ikki xil tarzda namoyon bo‘ladi: birinchidan, bu obektni to‘liqroq inikos ettirishga tomon qaratilgan o‘zgarishlar jarayonidir, ikkinchidan esa, konsepsiyalar, talimotlar strukturasi xatolik va yanglishishlarga barham berish jarayoni hamdir.

Bu jihatdan qaraganda haqiqat o‘zi ifodalangan bilimlarning mazmuniga ko‘ra subektga bog‘liq bo‘lmasda (bu manoda u obektiv haqiqat deb ataladi), lekin u o‘z ifodalanish shakli jihatdan subektga bog‘liq bo‘ladi. Ko‘p hollarda haqiqat mazmuniga ko‘ra obektiv, shakliga ko‘ra nisbiydir.

Bilish nazariyasida nisbiy va absolyut haqiqat shakllari muhim o‘rin tutadi. Absolyut va nisbiy haqiqatlar masalasi insoniyat rivojining malum bosqichida kishilarning bilish jihatidan murakkab tashkil topgan obektlar bilan aloqador bo‘lgan, har qanday nazariyalar ushbu obektlarni tugal anglash davosini qilishga qodir bo‘lmagan davrlardagi dunyoqarash muammosi sifatida yuzaga chiqqan.

Absolyut (mutlaq) haqiqat deganda o‘z obektiga aynan mos bo‘lgan va bilishning keyingi taraqqiyoti davomida inkor etilmaydigan bilim, xulosa va hukmlar tushuniladi.

Absolyut haqiqat -o‘rganilayotgan obektlarning umumiy va alohida tomonlarini aniq-ravshan hamda voqelikning muayyan jihat va xususiyatlarini tugal bilishi, nisbiy haqiqatning keyingi bilish jarayonida ham saqlanib qoladigan mazmunini tashkil etishi, olam, undagi eng murakkab sistemalar to‘g‘risida hech qachon inkor qilinmaydigan to‘liq bilimdir. Masalan, 1913 yilda XX asrning eng yirik fizigi Nils Bor o‘zining mashhur to‘ldiruvchanlik prinsipini tariflab berdi. Bu prinsipga ko‘ra, haqiqatligi muayyan hodisalar guruhi uchun aniqlangan va tasdiqlangan bilim va nazariyalar yanada kengroq predmet sohasini qamrab olgan yangi, yanada chuqurroq bilim va nazariyalar paydo bo‘lishi bilan mutlaqo noto‘g‘ri deb ulotirib tashlanmaydi, balki nisbiy haqiqat sifatida bu yangi nazariyalarning chegaraviy shakli yoki xususiy holati sifatida saqlanib qoladi. Klassik mexanika bilan nisbiylik nazariyasi, moddalar ximik tuzilishining klassik va hozirgi zamon nazariyasi va ko‘p boshqa nazariyalar o‘zaro ana shunday munosabatda bo‘ladi.

Nisbiy haqiqat - borliqdagi predmet va hodisalar to'g'risidagi taxminan to'g'ri, lekin to'liq bo'lmagan, bilish jarayonimizda tuzatilib, to'ldirilib borishi lozim bo'lgan bilimlarimizdir.

Har qanday mutlaq haqiqat nisbiy haqiqatlarning Cheksiz jamlanib borishidan vujudga keladi, har bir nisbiy haqiqatda esa mutlaq haqiqatning zarrasi, donasi mavjud bo'ladi. Ilm - fan taraqqiyotida har bir yangi bosqich nisbiy haqiqatlar sifatida mutlaq haqiqatning mazmuniga yangi - yangi zarralar qo'shib boradi. Borliq bepoyon va Cheksiz bo'lgani kabi, insonning uni bilishi ham Cheksiz davom etadi.

Haqiqat mavxum emas, balki aniq (konkret) bilimlardir. Har bir bilimning haqiqatligi malum joyga, vaqt va vaziyatga, kishi bilishining imkoniyatiga va darajasiga bog'liq. Hamma zamonlar, makonlar, hamma davr va har qanday sharoitda ham to'g'ri bo'ladigan, o'zgarmaydigan haqiqatlar yo'q va bo'lishi ham mumkin emas.

Haqiqatni xatodan farq qiladigan mezon bormi? Bu savolga turli falsafiy oqimlar turlicha javob berib kelganlar.

Masalan, XX asrda neopozitivizm oqimi vakillaridan bazilari, haqiqatning mezoni, deb kogerensiya prinsipini (yani bilimning o'z-o'ziga mos kelishi) oladilar. Neopozitivizmning boshqa bir guruhi vakillari esa bilimlarning haqiqatlik mezoni sifatida verifikatsiya prinsipini yani, bilimlarni hissiy tajriba, kuzatish, eksperiment yo'llari bilan tekshirishni oladilar. Biroq bizga malumki, fanlarda paydo bo'lgan bazi g'oyalar va qarashlarning haqiqatligini bunday hissiy tajribalar asosida tekshirib bo'lmaydi.

Empiriokratitsizm (maxizm) tarafdorlari, xususan Bagdanov haqiqat mezoni sifatida bilimlarni, ko'pchilik tomondan olinganligini tushunadilar, ular ko'pchilik ham barovar adashishi va xato qilishi mumkinligini esdan chiqarib qo'yadilar.

Pragmatizm oqimi vakillari esa, har qanday bilimning haqiqatlik mezoni uning insonga keltiradigan foydasi bo'lishi kerak, deyishadi. Haqiqatda esa, foydali bo'lish, foyda keltirish hali inson bilimlarining haqiqatligi mezoni bo'lmaydi.

Ekzistensializm falsafasi vakillarining bazilari bo'lsa, inson bilimlarining haqiqatligi mezoni har bir kishining o'z ehtiyoji, maqsad va manfaatlariga bog'likdir, deyishadi. Lekin, hech qachon turli kishilarning ehtiyoji, intilishlari bir-biriga to'la mos kelmasligini ular nazarda chetda qoldirishadi.

Bilimlarning haqiqatligi mezoni amaliy faoliyatdir. Amaliyot insonning dunyoga o'ziga xos munosabati usuli bo'lib, u tashqi olamdagi obektiv mavjud narsa va hodisalarga faol tasir etish, ularni o'zlashtirish, o'zgartirish va qayta qurish yo'li bilan insonning uni o'rab turgan tabiiy va ijtimoiy muhitga kirib borish jarayonidir. Amaliyot bilish jarayonida hosil bo'lgan har bir bilimning haqiqatligini tasdiqlash bilan birga, bu bilimning cheklanganligini, xatoligini ham aniqlab beradi. Lekin amaliyotni ham haqiqat mezoni sifatida mutlaqlashtirish mumkin emas. Chunki inson bilimlarining haqiqatligi yoki xatoligi amaliyotda tasdiqlanishi to'liq bo'lmaydi, amaliyotda sinab ko'rish imkoniyati bo'lmagan bilimlar ham mavjud. Uning ustiga amaliyotning o'zi ham o'zgarib rivojlanib boradi.

SHunga qaramasdan, amaliyot haqiqat mezonni sifatida insonning to'g'ri bilimlarini xato bilimlaridan farq qilishda katta ahamiyatga ega. Bu mezon, birinchidan, inson bilimlari borliqning to'g'ri yoki noto'g'ri inikosi ekanligini tasdiqlasa, ikkinchidan, u borliqni noto'g'ri aks ettiruvchi qarashlarning xatoligini ham ochib beradi.

Falsafa amaliyotga kategoriyalar, yani amaliyotning barcha shakllariga xos bo'lgan umumiy jihatlari nuqtai nazaridan yondoshadi.

Inson amaliyot orqali obektiv mavjud bo'lgan narsa va hodisalarga faol tasir etib, ularni o'zlashtirish, o'zgartirish yo'li bilan o'zini o'rab turgan tabiiy – ijtimoiy muhitga kirib boradi. Inson amaliy faoliyati borliqni o'zgartirishga qaratilgan jarayon bo'lib, u obektiv va subektiv tomonlar yig'indisidan iborat. Albatta, amaliy faoliyatning subektivligi insonning qobiliyati, maqsadga muvofiq hatti harakati, obektiv tomoni esa boshlang'ich material, faoliyat vositalari va olingan mahsulotni anglatadi.

Umuman olganda amaliyot insonning dunyoga, o'ziga xos munosabat usulidir.

Falsafada metod va metodologiya, metodika tushunchalari. Metod (yunoncha - usul) keng manoda yo'l ijodiy faoliyatning har qanday shakli kabi manolarni anglatadi. Metodologiya esa metod to'g'risidagi talimot bo'lib, u nazariy bilimlar va amaliy faoliyat tamoyillarini, usullarini o'rgatadi. U malum tizim to'g'risidagi talimotdir.

Har bir fan turli sohalar dunyoning u yoki bu tomonini o'rganar ekan, uning o'ziga xos tekshirish obekti mavjud. Mana shunga muvofiq har bir soha o'zining obektini o'rganish uchun turli metodlar ishlab chiqadi va uning yordamida o'sha o'rganishni yaxshilaydi va takomillashtiradi. Jumladan, tilshunoslikni o'rganish metodi bilan, biologiya metodi yoki matematikani o'rganish metodi bir- biridan farqlanadi.

Metod u yoki bu shaklda malum qoida, tartib, usul, harakat va bilim mezonlarining yig'indisi hamdir. U tamoyillar va talablar tizimi bo'lib, subektni aniq vazifani bajarishga, faoliyatning shu sohada malum natijalarga erishish sari yo'naltiradi. U haqiqatni izlashda vaqt, kuchni tejaydi, maqsadga eng yaqin va oson yo'l bilan etishishga yordam beradi

Har qanday metod malum nazariya asosida yaratiladi va tadqiqotning zaruriy sharti sifatida namoyon bo'ladi. Nazariya reallikni aks ettirar ekan, undan kelib chiquvchi tamoyillar, qoidalar va x.k. orqali metodga aylana boradi va natijada yana nazariyaga qaytadi, subekt bilish jarayonida undan foydalanadi. Ilmiy bilishda nafaqat ilmiy natija, uning predmetining mohiyatini anglash balki unga eltuvchi yo'l, yani metod ham haqiqiy bo'lmog'i darkor. Predmet va metodni ayri holda tushunish mumkin emas. Metod har qanday tadqiqot boshlanishida to'la holda namoyon bo'lmasada, malum darajada predmetning sifat o'zgarishi bilan har safar yangidan shakllanadi. Predmetning xususiyatlari o'zgarishi bilan metod ham o'zgarib boradi. Demak, metodning haqiqiyliqi tadqiqot (obekt) predmetining mazmuni bilan bog'liq.

Metod metodikada konkretlashadi. Metodika daliliy materiallarni yig'ish va saralash vositasi, aniq faoliyat turidir.

Ilmiy tadqiqot jarayoni tarixan ishlab chiqilgan metodlar asosida amalga oshiriladi. Hech kim hech qachon haqiqatni yo'qdan bor qila olgan emas. Albatta, olim izlanishlar, xatolar qurshovida harakat qiladi. Bazi hollarda bir narsani izlash jarayonida boshqa narsa yaratiladi.

Fanda, ko'p hollarda tanlangan metod tadqiqotning taqdirini hal qiladi. Aynan bir daliliy materialni turli metodlar asosida o'rganish ziddiyatli xulosalarga olib kelishi mumkin. Ilmiy bilishdagi metodni to'g'ri xarakterlar ekan, Bekon uni yo'lovchining yo'lini yorituvchi chiroq bilan qiyoslaydi. Ilmiy bilish jarayonida turli metodlardan foydalaniladi. Umumiy darajasiga ko'ra, ular keng va tor ko'lamda qo'llaniladi. Har qanday fan o'z predmetini o'rganishda u yoki bu obektning mohiyatidan kelib chiquvchi turli xususiy metodlardan foydalanadi. M: ijtimoiy jarayonlarni o'rganish metodi olamning ijtimoiy shakli, uning qonuniyatlari, mohiyatining xususiyatlari bilan belgilanadi. (O'qituvchi misol tariqasida tushuntirishi kerak.)

Metod o'z-o'zidan tadqiqotning muvaffaqiyatli bo'lishini taminlay olmaydi, chunki nafaqat yaxshi metod, balki uni qo'llash mahorati ham muhimdir. Ilmiy bilish jarayonida turli metodlardan foydalaniladi. Umumiy darajasiga ko'ra, ular keng yoki tor ko'lamda qo'llaniladi. Har qanday fan o'z predmetini o'rganishda y yoki bu obektning mohiyatidan kelib chiquvchi turli xususiy metodlardan foydalanadi. Masalan, ijtimoiy jarayonlarni o'rganish metodi olamning ijtimoiy shakli, uning qonuniyatlari, mohiyatining xususiyatlari bilan belgilanadi.

Metodlar umumiylik darajasi va amal qilish doirasiga ko'ra bir necha guruhga bo'linadi. Ular: falsafa, fan: umumilmiy, xususiy ilmiy, fanlararo tadqiqot, ijtimoiy-gumanitar fanlar metodlaridir.

Turli konkret vazifalarni hal qilishning zaruriy shartlaridan biri universal xususiyatiga ega bo'lgan umumiy falsafiy metodlarga murojaat qilishdir. Bu metodlar haqiqatni anglashda umumiy yo'lni ko'rsatadi. Mazkur metodlarga falsafaning qonun va kategoriyalari, kuzatish va tajriba, taqqoslash, analiz, sintez, induksiya va deduksiya va xokazo taalluqli.

Agar maxsus metodlar obektning qonuniyatlarini o'rganishning xususiy usullari sifatida namoyon bo'lsa, falsafiy metodlar shu obektlarda namoyon bo'ladigan, alohida xususiyatlardagi harakat, taraqqiyotning eng umumiy qonuniyatlarini o'rganadi.

Eng qadimgi va keng tarqalgan falsafiy metodlardan biri dialektika bo'lsa, ikkinchisi metafizikadir. Bularndan tashqari sofistika, eklektika, analitik, intiutiv, fenomenologik, sinergetik, germenevtik kabi metodlar ham mavjud. (O'qituvchi yuqoridagi metodlar to'g'risida tushuncha berishi kerak.)

Fan metodlari – malum fan tarmog'iga kiruvchi yoki fanlar tutashgan joyda vujudga kelgan muayyan fan sohasida qo'llaniladigan usullar tizimidir. Har bir fundamental fan, mohiyat-etibori bilan, o'z predmetiga va o'ziga xos tadqiqot usullariga ega bo'lgan sohalar majmuidir.

Umumilmiy tadqiqot metodlari - falsafa bilan maxsus fanlarning fundamental nazariy-metodologik qoidalari o'rtasida o'ziga xos «oralik metodologiya» bo'lib xizmat qiladi.

Xususiy ilmiy metodlar – materiya harakatining asosiy shakliga mos bo'lgan muayyan fanda qo'llaniladigan bilish usullari, tamoyillari, tadqiqot usullari va tartib-tamoillari majmuidir. Mexanika, fizika, kimyo, biologiya va ijtimoiy-gumanitar fanlarning metodlari shular jumlasidandir.

Fanlararo tadqiqot metodlari – asosan fan sohalari tutashgan joyda amal qiladigan (metodologiyaning turli darajasi elementlarini birlashtirish natijasida yuzaga kelgan) bir qancha sintetik va integrativ usullar majmui. Mazkur metodlar kompleks ilmiy dasturlarni amalga oshirishda keng qo'llaniladi.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar metodlariga – etnometodologik, ideografik, dialog, tushunish va oqilona tushuntirish, hujjatlarni tahlil qilish, so'rovlar o'tkazish, proektiv, testlash, biografik va avtobiografik, sotsiometriya, o'yin metodlari kiradi. (Bu metodlar mazkur fanlarning predmeti bilan bog'liq maxsus vositalar, metod va amallardan foydalaniladi.)

Hozirgi zamon metodologiyasi. Metodologiyaning hozirgi rivojlanish bosqichining o'ziga xos xususiyati ilmiy muomalaga mutlaqo yangi tushunchalarni kiritish bilan bog'liq ekanligini ko'rish mumkin. Mazkur tushunchalarning aksariyati muayyan (xususiy) fanlar sohasi bilan bog'liqdir. Bunday tushunchalar qatoriga hozirda ancha mashhur bo'lgan bifurkatsiya, fluktuatsiya, dissipatsiya, attraktor, kumatoid (yunoncha—to'lqin), «case studies», «abduksiya», evrestika kabi innovatsion tushunchalarni kiritish mumkin.

Kumatoid - suzayotgan obektning anglatadi va obektlarning tizimli xususiyatini aks ettiradi. U vujudga kelishi, hosil bo'lishi, shuningdek yo'qolishi, parchalanishi mumkin.

«Case studies» atamasi pretsedentning, yani kuzatish ostida bo'lgan va tushuntirishning mavjud qonunlari doirasiga sig'maydigan individuallashtirilgan obektning mavjudligini aks ettiradi.

Abduksiya fikr yuritish orqali empirik faktlardan ularni tushuntiruvchi gipotezaga yuksalishni nazarda tutadi.

Shunday qilib, Metodologiya alohida metodlarning oddiy yig'indisi, ularning «mexanik birligi» ham emas. Metodologiya – turli darajadagi usul va tamoyillarning faoliyat sohalari, yo'nalishlari, evristik imkoniyatlar, mazmunlar, tuzilmalar va hokazolarning murakkab, yaxlit hamda muvofiqlashtirilgan tizimi.

Ilmiy bilishda turli darajalarda, faoliyat sohaslarida va yo'nalishlarda turli-tuman metodlarning murakkab, dinamik va muvofiqlashtirilgan tizimi faoliyat ko'rsatadi. Mazkur metodlar har doim tadqiqotning muayyan shartlari va predmetidan kelib chiqib amalga oshiriladi.

Xulosa. Insonning bilish qobiliyati, bilish imkoniyatlari, umuman olganda, cheklanmagan. Uning bilish imkoniyatlari fanlarning va amaliyotning rivojlanishi bilan yanada ortib boradi. Insonning bilishi faqat konkret avlod hayoti uchungina cheklangan, xolos. Lekin bu bilish butun insoniyat hayoti uchun Cheksiz dir, inson Cheksiz dunyoni Cheksiz bila boradi. Dunyoda inson bilib olgan va hali bilib

ulgurmagan narsalar va hodisalarning tomonlari, xususiyatlari bor, xolos. Lekin bu — inson ularni bilishi mumkin emas, degan manoni bildirmaydi, balki malum davr, malum vaqtda inson — hozir bilmagan bu tomonlar va xususiyatlarni bilib olishi mumkin.

Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar

1. Usul nima? Uning shakllari haqida so'zlab bering.
2. Shaklan noaniq tafakkurlash usulining mohiyatini ochib bering.
3. Dialektika usulining mazmun-mohiyati haqida Forobiyning fikrlarini so'zlab bering.
4. Dialektika usulining muqobillari sofistika, metafizika, eklektika haqidagi fikr-mulohazalaringizni bayon eting.
5. Bilish nima? Bilimning asosiy bosqichlari nimalardan iborat?
6. Hissiy va aqliy bilishning xususiyatlari, shakllari haqida so'zlab bering.
7. Haqiqat nima? Nisbiy hamda mutlaq haqiqatlarning o'zaro munosabatlari qanday?
8. Haqiqatning mezonlari haqida nimalar deya olasiz?
9. Amaliyotning bilish jarayonidagi ahamiyati nimalardan iborat?
10. Ilmiy bilishning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
11. Ilmiy bilishning empirik darajasini tavsiflab bering.
12. Bilishning empirik darajasida qaysi usullardan foydalaniladi?
13. Ilmiy bilish nazariy darajasining xususiyatlari haqida so'zlang.
14. Nazariy bilishning shakllariga nimalar kiradi?
15. Olam haqida ilmiy manzara yaratishda falsafiy g'oyalarning ahamiyati nimalardan iborat?

6-mavzu. Falsafaning metod, qonun va kategoriyalari

Falsafada metod va metodologiya, metodika tushunchalari. Metod (yunon metodos – tadqiqot yoki bilish yo‘li, nazariya, ta’limot) voqe’likni amaliy yoki nazariy o‘zlashtirish usuli. Metod aslida inson amaliy faoliyatining negizida yuzaga kelgan. Bilish predmetini o‘rganish yo‘lida tafakkurning anglash usullarini amaliy va mushohadaviy yo‘llarini chambarchas aloqasi hosil qilgan tajriba ilm-fanda o‘ziga xos metodlarni yaratadi. Falsafa fani boshqa fanlar uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Falsafa fani metodlari barcha fanlar uchun umumiy qo‘llash mumkin bo‘lgan metodlardir, shuningdek alohida fan doirasida qo‘llash mumkin bo‘lgan xususiy metodlar ham mavjud. Falsafaning predmeti tabiat, jamiyat va inson tafakkurining eng umumiy rivojlanish qonunlarini o‘rganishdan iborat ekan, falsafa fani bir vaqtning o‘zida tabiat, jamiyat va inson tafakkurining alohida jihatlarini o‘z ob’ekti doirasida o‘rganuvchi fanlarga metodologik yo‘nalish beradi. Alohida fanlar doirasida o‘rganilayotgan ob’ekt va

predmet haqida to'g'ri bilim shakllanishi uchun, fanlar doirasida kashf etilayotgan qonuniyatlar to'g'ri anglanilishi uchun falsafiy bilimlar umumiy metodologik tamoyillarni shakllantirib beradi.

Metodlar eksperimental fanlarning paydo bo'lishi bilan izchil rivojlantirildi va o'rganila boshlanadi. Hozirgi zamon fanlarining metodlari ilmning o'zi kabi turli-tumandir. Shunga muvofiq metodlar turlicha klassifikatsiya qilinadi. Ilmiy nazariyalarni yaratish va ularni tekshirish metodi, ilmiy xulosalarni bayon etish metodi; falsafiy, umumnazariy va maxsus ilmiy metodlar; bulardan tashqari voqe'likni sifat va miqdor bo'yicha o'rganish metodlari farqlanadi. Fanlar o'rtasidagi o'zaro aloqaning chuqurlashishi, muayyan fanlarning natijalari, modellari va metodlarni boshqa fanlarda qo'llanilishiga olib kelmoqda.

Inson amaliy harakatining usullari anglanuvchi uslubiy omilga aylangach, bu usullar oxir-oqibatda metodlar haqidagi ta'limot - metodologiyaning paydo bo'lishiga olib keldi. Metodologik bilim, birinchidan, muayyan faoliyat turlarining mazmuni va izchilligini o'z ichiga olgan odat va normalar shaklida, ikkinchidan, amalda bajarilgan faoliyatning ta'siri sifatida yuzaga chiqadi. Hozirgi zamon adabiyotlarida metodologiya deyilganda, avvalo, ilmiy bilish metodologiyasi, ya'ni ilmiy bilish faoliyatining shakllari va metodlari tushuniladi. Fan metodologiyasi ilmiy tadqiqot komponentlari – uning ob'ekti, analiz mavzui, tadqiqot vazifalari, ularni hal etish uchun zarur bo'lgan vositalarni ifodalaydi, shuningdek masalani hal etish jarayonida tadqiqotchi faoliyatining izchilligi haqida tasavvur hosil qiladi. Masalani qo'yish, tadqiqot mavzuini va ilmiy nazariyani shakllantirish, shuningdek olingan natijani uning haqiqiyliigi, ya'ni o'rganilayotgan ob'ektga muvofiqliigi jihatidan tekshirish metodologiyani qo'llanilishini eng muhim tomoni hisoblanadi. Metodologiyaning asoschisi ingliz filosofi F.Bekondir. U birinchi marta fanni metodlari sistemasi bilan qurollantirish g'oyasini ilgari surdi. R.Dekart bilish muammosi sifatida ta'riflab, birinchi marta tafakkurning o'ziga xosligi, uni reallikning shunchaki va bevosita in'ikosidan iborat qilib qo'yish mumkin emasligi haqidagi masalani ilgari surdi. Nemis filosofi I.Kantga qadar metodologiya muammosi bilish nazariyasi bilan birga edi. Kant birinchi marta bilimning ob'ektiv mazmuni bilan shakli o'rtasidagi farqni ajratib, metodologik bilimning alohida mavqeini asoslab berdi. Metodologiya muammosini o'rganishda nemis klassik idealizmi erishgan muhim natija shu bo'ldiki, u bilishning va umuman, ma'naviy faoliyatning umumiy metodi – dialektikaning rolini ko'rsatib beradi.

Agar ilgari metodologiya tushunchasi avvalo ilmiy bilish faoliyatidan falsafiy asoslar haqidagi tasavvurlarni o'z ichiga olgan bo'lsa, endilikda ilmning ko'p tarmoqli, rivojlangan maxsus sohasini anglatadi. Umuman bilish nazariyasidan metodologiya bilish vositalariga jiddiy e'tibor berishi bilan farq qiladi. Fan

sotsiologiyasi va fanshunoslikning boshqa sohalaridan farqli o'laroq metodologiya, bilishning ichki tartib - qoidalari, logikasi va strukturasi o'rganadi.

Metodika – bilish ob'ektini o'rganishga yondoshuvda, nazariy va metodologik manbalarni qo'llashdagi amaliy taktik jarayon. Metodikani aksariyat holatlarda amaliy faoliyatda ishlatiladigan qaror, metod va metodologiyaning tashkil etish usuli, texnik tashkil etish ko'nikmasi sifatida olib qaraladi. Zamonaviy ilm-fanda har bir ilmiy sohaga tegishli metodlar va metodologik tizimlarning xilma-xilligi kundan-kunga rivojlanib, rang-barang tus olgani sababli, biror-bir ilmiy muammoni o'rganishda qanday metodlar jamlanmasi qo'llanilishi kerak, degan savolga metodika texnikasi yordam beradi. Metodika hozirgi kunda pedagogik sohada dars o'tish texnikasi, tashkil qilish usuli sifatida tushuniladigan tushuncha bo'lsa ham, mantiqiy jihatdan o'rganilayotgan mavzuni yoki muammoni o'rganishning to'g'ri yo'lini tashkil qilish sifatidagi falsafiy mazmunga bog'langan. Muammoni o'rganishga metodik jihatdan to'g'ri yondoshuv to'g'ri bilim hosil bo'lishiga yordam beradi. Metodika metod va metodologiya kabi o'z mohiyatida nazariyaga juda ko'p bog'lanmagan, o'zida ko'proq tadqiqotni tashkil etishning texnik tomoni bo'lib ko'rinsa ham, aslida metodika o'rganish jarayonida nazariya va metodni qo'llashda ko'proq bilim va tajribani talab qiladi. Misol uchun ma'lum bir kasallikni davolashning juda ko'p usullari bo'lsa, shifokordan shu kasallikni tez, samarali va kam harajat usulda davolash metodikasida katta tajriba, bilim va qo'llaniladigan usulga ishonch talab etiladi. Metodika shu bilan birga ma'lum darajada nazariy, metodologik bilimni amaliyot bilan bog'laydi. Chunki yangi nazariya, konsepsiya, metod va metodologik tizim amaliy jihatdan metodikada qo'llaniladi.

Metodlarning tasnifi. Metodlar bilish vositasi ekan, u barcha fan sohalarida predmetni bilishda asosiy qurol hisoblanadi. SHuningdek bilishning qonuniyati, darajasi, tamoyillari, sohalariga qarab metodlar umumiy, xususiy hamda fanlararo tadqiqotlar metodlariga bo'linadi. Umumiy xarakterga ega bo'lgan metodlar: taqqoslash, analiz va sintez, umumlashtirish, abstraktlikdan konkretlikka qarab borish, induksiya va deduksiya hamda har bir fanga xos, lekin turlicha tarzda qo'llanadigan metodlardir. Hozirgi zamon fani taraqqiyotining muhim xususiyati shundan iboratki, u ko'pincha voqe'likning biror tomonini shunchaki aks ettirib qolmasdan, balki muayyan maqsadga muvofiq ravishda bu voqe'likni gavdalantiradi ham. Bu hol bilish metodlarini, ayniqsa formal metodlarni ishlab chiqish va tatbiq etishni taqazo etadi. SHuning uchun formal metodlarning logik tuzilishini maxsus o'rganishga ham katta e'tibor berilmoqda.

Falsafa metodlari. Falsafaning asosiy metodologik quroli *nazariy tafakkur*dir. Tabiiy fanlarda bo'lgani kabi falsafada tajriba, eksperiment yoki boshqa bir aniq fan metodlari mavjud emas. Lekin falsafa boshqa barcha fan tizimlarida ro'y berayotgan

o‘zgarishlar, taraqqiyot xususiyati, kashfiyotlar, vujudga kelayotgan qonuniyatlarni umumiy tahlil, analiz va sintezi asosida o‘zining xulosalarini beradi. SHuning uchun falsafada oddiy kuzatuv va mushohada usulidan sinergetik metodgacha oddiy tizimlardan murakkab tizimlargacha bo‘lgan borliq sifatidagi mavjudlikning makon, zamon, harakatdagi jarayoni qonuniyati o‘rganiladi.

Dialektika. Falsafaning asosiy ilmiy metodlaridan biri dialektik metoddir. Dastlab dialektika so‘zi ma’nosi suhbat yoki dialog yuritish san’ati, usuli sifatida qo‘llanilib, yunon tilida «suhbatlashuv san’ati», «bahslashuv san’ati» degan ma’noni bildirgan. Turli nuqtai-nazarlarni izohlash, o‘z fikri to‘g‘riligini isbotlash mahorati *Suqrot* va *Aflotunda* yaqqol namoyon bo‘lgan. Ularning ta’kidlashicha, haqiqatning qandaydir yangi narsa, ya’ni bahsning boshlanishida bo‘lmagan, lekin muhokama jarayonida paydo bo‘lgan narsa sifatida tug‘ilishiga muloqot yordam beradi. Shu tariqa tafakkurning ijodiy asosi shakllanadi.

Dialektika elementlari Qadimgi Hindiston va Xitoy falsafasida ham mavjud bo‘lgan. Masalan, daosizm falsafasiga ko‘ra, dunyoda hech narsa doimiy emas. Falsafa tarixida Qadimgi yunon dialektikasini alohida aytib o‘tmoq zarur. Geraklitning fikricha, hamma narsa mavjud va ayni vaqtda mavjud emas: hamma narsa o‘tkinchi, doimo paydo bo‘lish va yo‘q bo‘lish jarayonida bo‘ladi. Masalan, uning fragmentlaridan birida bunday deyiladi: «Bizdagi ayni bir narsa – jonli va jonsiz, uyg‘oq va uxloq, yosh va qari. Axir, bu o‘zgargan o‘shadir va aksincha, o‘sha o‘zgargan budir»¹. Dialektik qarashlar Arastuda uning modda bilan shakl o‘rtasidagi nisbatni ularning bir-biriga o‘tish imkoniyati va sharoiti sifatida qilgan tahlilida mavjuddir. Har bir narsa boshqa narsaga: marmar haykalga, daraxt stolga aylanishi mumkin va hakoza.

Hozirgi zamon falsafasida dialektika falsafiy bilimning muhim elementi sifatida mavjuddir. Falsafada dialektika g‘oyalarini ishlab chiqishda *ekzistensial dialektika* va *messianlik dialektikasi* kabi bir qator yo‘nalishlarni ko‘rsatish mumkin. Eksistensial dialektika inson «Men»ining rivojlanish qonuniyatini tushunishga urinadi. Messianlik dialektikasi o‘z ta’limotiga praktika tushunchasini asos qilib oladi va butun dunyoga sotsiologiya kategoriyalari nuqtai-nazaridan qaraydi. XX asr dialektik falsafasining ma’lum yo‘nalishlaridan biri mashhur Frankfurt maktabining namoyondalaridan biri T.Adorning negativ dialektikasidir. Bu maktabning asosiy g‘oyasiga ko‘ra, rivojlanish buzishdir, hammani va hamma narsani inkor etishdir. T.Adorning «*negativ dialektikasi*»ga ko‘ra, qarama-qarshiliklar kurashi, miqdorning sifatga o‘tishi, turli tizimlarning o‘sishi va murakkablashuviga emas, balki aksincha, uning parchalanishiga, o‘lishiga yo‘nalgan. Adorno ijtimoiy tizimlarning rivojlanishiga diqqatni jalb qiladi va

¹ Каранг: Материалисты Древней Греции. М., 1955, 49-б.

rivojlanishning asosi regressiv ijtimoiy o'zgarishlardir (refleksiyaning o'lishi, uning stereotip reaksiyalar, fikrlash shablonlari bilan almashinishi va hakozolardir), deb biladi. Jamiyatda bu ommaviy madaniyatning rivojlanishi va yoyilishi, insoniy munosabatlarning standartlashuvi, o'ziga xosliklarning yo'qotilishi orqali ifodalanadi. «Negativ dialektika»da inkor har qanday tushunchalar tizimidan voz kechish, qandaydir pozitiv model bo'lmagan utopiyaning konkret imkoniyatlarini deb har qanday dialektiklikni inkor etish sifatida ko'rinadi.

Dialektika sohasida fransuz faylasufi G.Bashlyarning *neoratsionalizmi* vujudga keldi. U bilish jarayonida ratsionalizm bilan empirizmning doimiy (dialektik) o'zaro ta'sirini ko'rdi. Bashlyar *noklassik fan* tushunchasini kiritdi. Unga xos narsa, qandaydir uzil-kesil haqiqatlardan voz kechish, ochiqlik (eksperimental raddiyaga tayyorlik), yangi empirik ma'lumotlarni tushunarli umumlashtirishga sintezlashtiruvchi layoqat, bilimning turli shakllari, tuzilmalari va sohalari o'rtasidagi yangi aloqalarni topishdir. Aloqalarni, jumladan qarama-qarshiliklar birligini anglash, bu dialektikaga xos anglashdir. *Dialektika – bu dunyoni shunday tushunishki, va uni ongli ravishda o'rganishning shunday usuliki, bunda turli hodisalar, ularning turli-tuman aloqalari, qarama-qarshi kuchlarning o'zaro ta'siri, o'zgarish va rivojlanish jarayoni bilan birlikda qarab chiqiladi.*

Metafizika. Falsafaning yana bir muhim klassik metodi metafizikadir. Dastlab «metafizika» atamasining ma'nosi inson aqli orqali egallanishi mumkin bo'lgan barcha bilimlardan yuqori turuvchi murakkab bilim ma'nosini bergan. Eramizdan avvalgi birinchi asrda *Rodoslik Andronnik* Aristotel qo'lyozmalarini sistemalashtirib, uning fizika to'g'risidagi traktatlari guruhidan keyin uning bir kator boshqa mavzudagi asarlarini tizimlashtiradi. Bularni Arastuning o'zi «*ilk falsafa*» deb atagan edi. Bu borliq va bilishning dastlabki oliy prinsiplarini aqliy bilish to'g'risidagi asarlar edi. Mana shularni Andronnik «*metafizika*» deb ataydi (yunon tilidagi aynan ma'nosi: fizikadan keyin keladigan narsa). SHu an'anaga binoan keyingi zamonlarda ijod qilgan tadqiqotchilar ham «*metafizika*» deganda *borliq va bilishning oliy asoslari to'g'risidagi falsafiy tadqiqotlarni* tushunganlar. Metafizikani ana shunday tushunishni YAngi zamon falsafasiga qadar uchratamiz.

XVIII asr oxiri, ya'ni ma'rifatparvarlik davrida metafizika dunyo haqidagi tasavvurlarning sistemalashgan ko'rinishi sifatida emas, bilishning alohida shakli sifatida tushunila boshlandi. Mutafakkirlar olam tabiatini tasvirlar ekanlar, barcha savollarga tugal javob berishga, dunyoni to'la-to'kis izohlangan deb ko'rsatishga intilganlar. Boshqacha qilib aytganda, modomiki dunyo haqida muayyan qarash to'g'ri ekan, bu faqat bugungi dunyoni emas, balki tubdan o'zgarmasligi kerak bo'lgan kelgusidagi dunyoni ham tasvirlab beradi deb o'ylashgan. Agar bilish metodi *ob'ektni* qandaydir *qotib qolgan, rivojlanmaydigan narsa* sifatida tadqiq

etsagina bunday fikr yuritish mumkin bo‘ladi. SHu tariqa metafizika bilish metodi sifatida shakllandi.

Metafizika metodini birinchi bo‘lib I.Kant tanqid qildi. Inson bilimi, Kantning fikricha, faqat unga sezgi va idrokda berilgan tajribanigina izohlay oladi. Metafizika tushunchasini yangicha izohlash ham Kantdan boshlanadi. U o‘z falsafasini *tanqidiy metafizika* deb ataydi va bilishning chegaralari to‘g‘risidagi barcha oldingi falsafiy bilimlarni tanqidiy nuqtai-nazardan qarab chiqadi. Kant ta‘limotida butun falsafa «tanqidiy falsafaga» (ya‘ni, uning falsafasiga) va «notanqidiy», dogmatik falsafaga (metafizikaga) bo‘linadi. Gegel ta‘limotidan boshlab falsafiy bilish metodini ikki qarama-qarshi metodga – metafizik va dialektik metodlarga ajratish boshlanadi.

Metafizik, dogmatik tafakkur, bu – insonni qurshab turgan dunyoning va inson tafakkurining biron bir tomoni, qirradi, xossasini absolyutlashtirishdir. Bunday fikrlash hodisalarning o‘zaro aloqalari va ta‘sirini kam hisobga oladi, unga predmetlarning ayrim elementlari va xossalarini farqlantirish va qayd etishni absolyutlashtirish xosdir. Metafizik tafakkur aloqalar, o‘zaro ta‘sirilar va o‘tishlarni nazardan qochirib, o‘zini dunyoning barcha turli-tuman tomonlari, boyligi va birligini ochib berish imkonidan mahrum etadi. Agar dialektika aloqalar haqidagi ta‘limot sifatida namoyon bo‘lsa, metafizika ularni inkor etishga intiladi.

Sinergetika. Falsafaning zamonaviy metodlaridan biri sinergetik metoddir. Sinergetika o‘z-o‘zidan tashkil topish mexanizmlari va qonuniyatlarini taraqqiyot jarayonining universal komponenti sifatida o‘rganadi. Bu universallik o‘z-o‘zidan tashkil topish nazariyasi uchun shu qadar muhimki, sinergetika tadqiqotchilaridan biri G.Xaken bu fanning asosiy masalasini u bilan bog‘laydi. «Nima uchun, - deb yozadi u,- o‘z tabiatiga ko‘ra turli komponentlardan – elektronlar, atomlar, molekulalar, fotonlar, xujayralar, hayvonlar yoki xatto odamlardan iborat bo‘lgan tizimlar o‘z-o‘zidan tashkil topganda, ayni bir tamoyilga bo‘ysunib, suyuqlikdagi tuzilmalar, elektr tebranishlari, hayvonlar populyasiyalari yoki ijtimoiy guruhlarni tashkil etishi kerak?».¹

O‘z-o‘zidan tashkil topish hodisalarining bu qadar keng ko‘lami sinergetikada postulat qilib olinmaydi. U mutaxassislarning turli tuman bilim sohalarida tabiiy va ijtimoiy jarayonlarning umumiy determinantlarini kashf etishi natijasidir. SHu tufayli sinergetika alohida fan g‘oyalarining yig‘indisi sifatida emas, balki fizik, ximik, biolog va matematik o‘z materialini ko‘radigan umumiy qarashlar tizimi sifatida va, aksincha, bulardan har biri, o‘z fani metodini qo‘llab, sinergetikaning rivojlanishiga biron bir tarzda hissa qo‘shadi. «Men yangi fanni «sinergetika» deb atadim, bunga sabab, - deb yozadi G. Xaken,-unda tizimlarning ko‘pgina elementlarining birgalikdagi harakati tadqiq etilishigina emas, balki o‘z-o‘zidan

¹ Г.Хакен. Синергетика, М., 1980. 31 бет.

tashkil topishni boshqaruvchi umumiy prinsiplarni topish uchun ko'pgina turli-tuman fanlarning kooperatsiyalashuvi zarurligidir».²

Sinergetika bu turli tabiatli tuzilmalarning o'z-o'zidan tashkil topish, barqarorlik, parchalanish va qayta paydo bo'lish jarayonlarini tadqiq etuvchi nazariyadir.

Sinergetika dialektikaning quyidagi g'oyasini tasdiqlaydi – har bir ob'ekt olamdagi hodisalarning umumiy bog'langanligi oqibatida uni qurshab turgan xilma-xil jarayonlar bilan uzviy bog'langan bo'lib, ayni vaqtda turli qism sistemalardan tarkib topadi. Ob'ektning xar bir tarkibiy qismi boshqa tarkibiy qismlar va tashqi dunyo bilan o'zaro bog'lanishda mavjud bo'ladi. SHu sababli xar bir tarkibiy qism o'ziga xos individual aloqalar tizimiga ega bo'ladi, demak u o'ziga xos harakatga va ichki harakatga ega bo'ladi va oqibatda ob'ektning ichki o'z-o'zidan differentsiatsiyalanuvi tendensiyasi paydo bo'ladi. Ayni vaqtda bir butun ob'ekt uning bir butunligi saqlanishi mobaynida o'z qismlariga ta'sir o'tkazadi, shu sababli ob'ektning ichki o'z-o'zidan integratsiyalanuvi tendensiyasi paydo bo'ladi.

Sinergetika taraqqiyot konsepsiyasini chuqurroq ifoda etishga imkon beradi. I.Prigojin ta'kidlashicha: «ham klassik, ham kvant mexanikada agar qaysidir bir vaqtda sistemaning holati etarli aniqlikda ma'lum bo'lgan bo'lsa, unda kelajakni juda bo'lmaganda prinsipda oldindan aytish mumkin edi. Buning ustiga bunday turdagi nazariy sxema ko'rsatdiki, qaysidir bir ma'noda «hozir» o'zida o'tmish va kelajakni saqlaydi. Ko'rib turganimizdek, haqiqatda unday emas. Kelajak o'tmishning tarkibiy qismiga kirmaydi. Hatto fizikada huddi sotsiologiyadagidek atigi xilma-xil mumkin bo'lgan «ssenariylar»nigina oldindan aytish mumkin»¹.

Sinergetika taraqqiyotning qator fundamental o'ziga xosliklarini ochib berishga imkon beradi. Taraqqiyot jarayonida tizimning umumiy muhitida tebranishlar hosil bo'lishi, ya'ni tizim muhitini yangi tashqi ta'sir vujudga keltirayotgan yangi tarkibi sifat jihatdan sakrash nuqtasiga yaqin bosqichda hal qiluvchi hisoblanadi. Bu jarayon fluktatsion jarayon deb ataladi. Bu bifurkatsiya nuqtasini, ya'ni taraqqiyotning bundan keyingi yo'nalishining aniq bir variantining ko'pdan ko'p mumkin bo'lgan variantlardagi «tanlovi» ni hosil qiladi. Taraqqiyot jarayoni kogerentlik, turbulentlik, dinamik tartibsizlik, dissipativ va avtoto'lqinli strukturalar dinamikasi, kengmasshtabli spontan fluktuatsiyalar kabi bungacha taraqqiyot konsepsiyasi qamrab ololmagan ko'pgina boshqa fenomenlarni o'z ichiga oladi². Rivojlanish va taraqqiyot jarayonida bifurkatsiya nuqtalari orasida deterministik qonunlar, bifurkatsiya nuqtalarida esa ehtimoliy qonunlar ustunlik

² Ўша жойда, 15-бет.

¹ Пригожин И. От существующего к возникающему: Время и сложность в физических науках. М. 1985. 16-17-б.

² Пригожин И., Стенгерс И. Время, хаос, квант. М.,1994; Haken H. Information and self-organization: a makroscopic approach to complex systems. Berlin, 2000

qiladi. Bu murakkab jarayon yangilanish elementlari orqali yangi o'zaro bog'liqlikda bo'lgan mikro va makro darajadagi tizimlarni hosil qiladi.

Xulosa qilib aytganda sinergetika dunyoga yangicha qarash usuli va bir vaqtning o'zida falsafa fani metodi bo'lib, fanlardagi yangiliklarni umumlashtirish, o'z-o'zini tashkil qilish, chiziqsiz tafakkur asosida evolyusion jarayonni tashkil qiluvchi fanlararo ilmiy tadqiqot usuli sifatida asrimizning 70-yillarida paydo bo'ldi. Sinergetika yangi ta'limot sifatida o'z-o'zini boshqarishning umumiy qonunlari va tamoyillarini o'rganishni asosida noorganik va organik tabiatda o'zaro aloqadorlikda o'z-o'zini shakllantirish orqali tashkil topish mavjudligini isbot qilib berdi. Materiyaga tashqi ta'sir natijasida o'zgaruvchi inert ob'ekt deb emas, balki o'z-o'zini tashkil qila oladigan ob'ekt deb qaraladigan bo'ldi. Bu ma'lumotlar statik va jonli materiya tushunchalarini ajratib turgan oraliqni ancha kamaytirdi. Agar o'z-o'zini tashkil etuvchi tizimlarning xossalari va vujudga kelishi sharoitlari bilan, biologik evolyusiyaning eng muhim jihatlarini bir-biriga taqqoslab ko'rilsa, ikki holda ham o'zgarishlar ayni bir xil qonunlarga bo'ysunadi va o'xshash tendensiyaning namoyon qiladi, degan xulosaga kelish mumkin.

Fan metodlari: umumilmiy, xususiy ilmiy va fanlararo tadqiqot metodlari.

Fan metodining asosiy mazmunini yoki avval amaliyotda sinalgan ilmiy nazariyalar tashkil etadi: har qanday nazariya boshqa nazariyani yaratuvchi yoxud amaliyot mazmunini yoki izchilligini belgilovchi metod vazifasini bajaradi. Ilmiy bilishda falsafiy metodlarning roli katta. Falsafaning aksariyat metodlari fan taraqqiyoti va differentsiatsiyasida umumilmiy metod vazifasini bajargan. Xususan, falsafaning universal metodi bo'lgan tarixiylik va mantiqiylik tamoyilining birligi metodi biologiya, ximiya, antropologiya, tarix va boshqa fanlarda evolyusion ta'limotning asosi bo'lib xizmat qilgan. Ijtimoiy bilishda tarixni mushohada qilish va tizimlashtirish, qiyoslash va modellashtirish barcha ijtimoiy fanlar uchun metod vazifasini bajaradi. SHuningdek alohida fan doirasida tadqiqot jarayonida qo'llaniladigan o'ziga xos metodlar mavjud bo'lib, ular xususiy metodlar deb ataladi. Misol uchun, fizika, ximiya, astronomiya yoki mantiq fani doirasida muayyan holatni o'rganish jarayonida ishlatiladigan tamoyil, tadqiqot usullari boshqa fan doirasida qo'llanilishining iloji bo'lmaydi.

Fanlararo tadqiqot metodlari esa bir nechta fan doirasida ditsiplinalararo tadqiqotlarga tatbiq etilishi mumkin bo'lgan metodlardir. Misol uchun ijtimoiy sotsiologiya, ijtimoiy falsafa, sotsial psixologiya predmetlari orasida o'rganilayotgan muammolar echishga yordam beradi. Bunga ma'lumotlarni sintetik va integrativ usulda ishlash, tizimli yondoshuv asosida xulosa chiqarish metodi ham misol bo'la oladi.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar metodlarining o'ziga xos xususiyati. Hozirgi zamon metodologiyasi. Ijtimoiy gumanitar fanlar sohalar nuqtai nazaridan bir nechta yo'nalishga bo'linsada, mazmunan va mantiqan falsafaning klassik davridan shakllanib kelgan metodlarni o'z sohalarida qo'llaydilar. Bu holat ijtimoiy-gumanitar fanlar falsafadan differentsiallashtirish tufayli o'z tarixiy ildizlarida tarixiylik va mantiqiylikning birligi, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, qiyoslash va modellashtirish tamoyillari va metodlariga binoan nazariy korpusining mavjudligi bilan xarakterlanadi. SHuningdek zamonaviy metodologiyada postmodernistik falsafaning germenevtik, sinergetik va integratsion metodlaridan unumli foydalanish, ularni umumiy metodologik yo'nalish sifatida qabul qilish ijtimoiy –gumanitar fanlarga xosdir.

Xususan **germenevtika** falsafa, tarix, psixologiya, sotsiologiya fanlarida keng qo'llaniladi. Germenevtika hozirgi zamonda etakchi falsafiy oqimlardan biri, tarixiy-falsafiy fan doirasida matnlarni nazariy asoslovchi va metodologik jihatdan tushuntiruvchi sohadir. Nemis faylasufi, psixologi, madaniyat tarixchisi Vilgelm Diltey (1833-1911) ijodida germenevtika fan sifatida takomillashdi va konseptual yo'nalishiga ega bo'ldi. Uning «Germenevtikaning vujudga kelishi», «Dunyoga bo'lgan qarash, insonni Uyg'onish va Reformatsiya davridan boshlab tadqiq etish» asarlarida inson ruhiyatini o'rganish bilan bog'liq yangi tafakkur tarzi shakllanishi masalalari tahlil etiladi. Aynan shu metod tufayli psixologiya fani falsafadan ajralib chiqdi. Diltey nazarida falsafa va tarixiy fanlarni bog'lovchi vosita «talqin to'g'risidagi ta'limot», yoki germenevtika bo'lib, u o'tgan qaytarilmas va qorong'u madaniy dunyolarni qaytadan yaratishga vositadir»¹. Dilteyning germenevtikaga bergan ushbu ta'rifida tarixiy jarayon insonni emas, balki inson tarixiy jarayonning nimadan iborat bo'lganini ochib beradi, degan muhim fikr bor². U ushbu fikrni metod sifatida «Dunyoga bo'lgan qarash, insonni Uyg'onish va Reformatsiya davridan boshlab tadqiq etish» asarida qo'lladi. Mazkur asarda inson ruhiyati, mental borlig'ining din, madaniyat, mafkura va qadriyatlar mushtarak ta'siri doirasida shakllanishi va bu dinamik jarayonning konuniyatlari yoritib berilgan.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarda **sinergetik** metod ham muhim o'rin tutadi. O'z-o'zini boshqarish, nochiziqli hodisalarni o'rganish, o'z-o'zidan tashkil bo'lish nazariyasi, tafakkur uslubi, metodi sifatida sinergetika shakllanish va tashkil bo'lish jarayonini, inqilobiy o'zgarishlarning ong-tafakkurga ta'sir etish holatlarini, ijtimoiy jarayonlar shakllanishidagi ichki va tashqi xususiyatlar mushtarakligini yaxlit ilmiy konsepsiya sifatida ochib berishga vosita bo'ladi. Sinergetikada nochiziqli tafakkur

¹ Человек: Мыслители прошлого и настоящего о его жизни, смерти и бессмертии. XIX век/ Редкол.: И.Т. Фролов (отв. ред.) и др. - М.: Республика, 1995. - С. 511.

² Каранг: Ўша манба. С. 512

tarzining e'tirof etilishi ijtimoiy ong shakllaridagi o'zgarishlar va qonuniyatlarning imkoniyatlarini keng tadqiq etishga yo'l ochadi.

Integratsion metod hozirgi zamon ijtimoiy gumanitar fanlarida keng qo'llanilayotgan metod hisoblanib, ushbu metod fanlar aro tadqiq etiladigan mavzularni o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur metodning shakllanish davri o'tgan asrning 80-yillaridagi G'arb sotsial antropologiyasiga to'g'ri keladi. Zamonaviy ilmiy-texnik taraqqiyot davrida fanlarning va ilmiy bilimlarning integratsiyalashuvi bir fanning ikkinchisiga, yoki bir nazariyaning ikkinchisiga qo'shib ketishini emas, balki ularning sintezini va organik birligini ifodalaydi. Tushunchalar aloqasining yangi tizimida integratsiyalashgan fanlar transformatsiyalashadi»¹. Dastlab bu kabi metod o'tgan asrning o'rtalarida aniq fanlar doirasiga kirib kelgan va bu sohada katta kashfiyotlarga sabab bo'lgan edi. O'tgan asrning oxirgi o'n yilligida G'arb ijtimoiy fanlarida bu metodning ommaviylashib ketishi etakchi yo'nalish hisoblangan sotsial antropologiyaning o'z tarkibida takomillashib ketishiga hattoki uning doirasida aniq fanlar tajribalari ham qo'llanishiga olib keldi. Sotsial antropologiya fani uchta asosiy yo'nalish: antropologiya, lingvistik antropologiya, etnologiya yoki sotsial-madaniy antropologiyaga bo'linsa¹, uning tarkibidagi mental sog'liq va madaniy taraqqiyot darajasini o'rganuvchi fan etnologiya o'z ichidan turli yo'nalishlarga differensiallashdi: «Jumladan, G'arbiy Evropa etnologiyasida iqtisodiy (xo'jalik) etnologiya, ijtimoiy etnologiya, huquqiy etnologiya, siyosiy etnologiya, diniy etnologiya yo'nalishlari shakllandi va istiqbolli rivojlanib bormoqda»².

Ijtimoiy falsafa, sotsialantropologiya, tarix fanida bugungi kunda keng qo'llanilayotgan metod «**oral history**»-«**og'zaki tarix**» metodidir. Bu xalq og'zidan eshitilgan, sistemalashtirilgan, lekin tarixiy xujjatlarda o'z ifodasini ba'zi siyosiy vaziyatlar sabab topa olmagan materiallardan foydalanish uslubi. Xususan, XIX asr oxiri, XX asr boshlarida O'zbekistonda sodir bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy jarayonlarda, «ocharchilik», «qatog'on», «paxta ishi» kabi siyosiy o'yinlarda tarixiy haqiqatning ob'ektiv dinamikasini aniqlashda mazkur metod - «og'zaki tarix»ga murojaat qilingan. Mazkur metod haqidagi g'oya birinchi bo'lib Italiyada 1979 yili «Og'zaki tarix uslubining spetsifik xususiyatlari» maqolasida paydo bo'ldi³. Ushbu metodning G'arbiy Evropa zamonaviy ijtimoiy-gumanitar fanlariga kirib kelishi XX

¹ Хашимова И.С., Рузавин Г.И.,Иванова К.И. , Методология и методы научного познания в условиях научно-технической революции. - Тошкент: Фан, 1986. – С.79.

¹ William A.Naviland. Cultural antropologi. - Vermont: Universiti of Vermont.1999. 514 p.

² Садохин А.П. Этнология.Учебник. – М.: Гардарика, 2000.- С.19. Қаранг бу иктибос куйидаги манбадан олинди: .Аширов А.А. Замонавий ўзбек этнологияси: ютуқлар, муаммолар ва ривожланиш истиқболлари. // Марказий Осиёда анъанавий ва замонавий этномаданий жараёнлар. «Карим Шониёзов ўқишлари» туркумидан халқаро илмий анжуман материаллари. – Тошкент: 2005. 1-қисм.

³ Sulla specificita della storia orale // Prima Maggio. Milano, Italy, 13. 1979, s54-60.

asrning 90-yillariga to'g'ri keladi¹. «Og'zaki tarix» metodi asosida bo'lib o'tgan voqea hodisalarni o'z ko'zi bilan ko'rib, boshidan o'tkazgan respondentlar bilan suhbatlar olib borish, bu kabi suhbatdoshlarning bir nechtasining hikoyalaridagi faktlarni tarixiy manbalar bilan solishtirish, tarixdagi oq dog'lar yoki buzib ko'rsatilgan voqea-hodisalarni informatorlarning ma'lumotlaridan aniqlashtirishdan iborat.

Og'zaki tarix uslubi etnografiya, tarix, sotsiologiya, mantiq, psixologiya kabi fan yo'nalishlarining ilg'or metodlarini o'z tizimida birlashtirib, o'zbek xalqi tarixida qaytadan jiddiy o'rganilishi lozim bo'lgan masalalarga gumanitar fanlarning integratsion yondashuvini taqozo qilib qo'ydi.

Falsafa tarixida rivojlanish haqidagi qarashlar evolyusiyasi. SHakllanish, o'zgarish va rivojlanish tushunchalari.

Asrlar mobaynida insoniyat ongida o'zgarish, rivojlanish, taraqqiyot yoki turg'unlik kabi jarayonlar tushuncha sifatida shakllanib kelgandir. Dastlab bu g'oya bir hodisaning vujudga kelishi va boshqasiga aylanishi, shakllanishi haqidagi tasavvur ko'rinishida uyg'ongan. Insonlar ongida tarixiy jarayonda hosil bo'lgan madaniy taraqqiyot, sivilizatsion o'zgarishlar, jamiyat rivojlanish xususiyatlari, urush va tinchlik omillarining insonlar turmush tarziga ta'siridan olingan tasavvur va tajribalar bu tushunchalar haqidagi bilimlarni boyitdi. Masalan, qadimgi yunonlar dunyoda hamma narsa takrorlanadi va aylanib-aylanib ma'lum muddat o'tgach «o'zining dastlabki doirasiga» qaytib keladi, deb hisoblashgan. Dunyo mangu va yaratilmagan, u muayyan siklda takrorlanuvchan xilqatdir. Geraklit: «Dunyo yagonadir va u na biror odam, na biror xudo tomonidan yaratilmagan, u bo'lgan, bor, bo'ladi va u mangu alanganib va so'nib turuvchi olovdan iboratdir»- deb xitob qilgan edi. Antik falsafaning aksariyat vakillari borliqning doimiy ravishda harakat, o'zgarish va rivojlanishda bo'lish g'oyasini talqin qiluvchi ta'limotlar yaratdilar.

Sharq falsafasida ham zardushtiylikning abadiylik va cheksizlikni targ'ib qiluvchi dualistik ta'limoti borliqning atributi bo'lmish abadiy va to'xtovsiz harakat g'oyasini targ'ib qiladi. Hindiston va Yaqin Sharq, Markaziy Osiyoning qadimgi an'analarini davom ettirgan ilk o'rta asr Sharq falsafasi Islom teologiyasiga borliqning makon, zamon va harakatda abadiyligi va cheksizligi g'oyasini olib kirdi. Bu fikrlar rivojlanishini o'tmishdan kelajakka qarab yo'nalgan jarayon sifatida tushunishga turtki bergan muhim g'oyalardir.

Rivojlanish jarayonining zamirida harakat va o'zgarish yotadi. Harakat – bu ham bir o'zgarishdir. Agar harakatni umuman o'zgarish, ya'ni har qanday o'zgarish ma'nosida tushunsak, rivojlanish alohida shakldagi o'zgarishdir. Rivojlanish

¹ On the peculiarities of oral history // History Workshop Journal. Oxford, England. #12, Spring, 1981, 96-107.

jarayonida ob'ektni tashkil etuvchi barcha elementlar o'zgarishga uchraydi. Lekin, bu elementlar bir-biriga asoslangan va bir-biriga aloqador holda, kompleks va yahlit holda o'zgaradi.

Rivojlanayotgan sistema kompleks va yaxlit o'zgarishi natijasida bir miqdoriy va sifatiy holatdan boshqa o'zgargan miqdoriy va sifatiy holatga o'tadi. SHu tariqa o'zgarish sistemaning yaxlit o'zgarib ketishiga (boshqa sistemaga aylanishiga) sababchi bo'ladi, ya'ni rivojlanish – bu holatlarning aylanib turishidir. Agar biz bu jarayonni vaqtning o'tishi nuqtai nazaridan izohlasak, quyidagi fikrga kelamiz: hozirgi zamon o'tgan zamonning aylangan holati va kelgusi zamonning aylanadigan holati, kelajak esa hali aylanishga ulgurmagani hozirgi zamondir. Bundan, siklik aylangan holat rivojlanishning natijasidir, degan xulosa kelib chiqadi. Sistemaning aylanishi o'zining yo'nalishiga egadir. Sistema paydo bo'lishda, yangilanishda, gullab-yashnashda, ravnaq topishda, qarish-chirishda va halokat holatida bo'lishi mumkin. Bularning hammasi aylanish oqibatida sodir bo'ladi. Aylanishlar sistema tashkiliy holatini murakkablashtirishi, yoki aksincha soddalashtirishi mumkin. Shunga qarab sistema ravnaq sari, yoki inqiroz sari yo'naladi. Bu esa, rivojlanish – yo'nalishga ega bo'lgan o'zgarishdir, degan xulosani beradi.

Dunyoda absolyut izolyasiyalangan, alohida ajratilgan, absolyut yopiq sistemaning o'zi bo'lishi mumkin emasligidan rivojlanayotgan sistema, u bilan yonma-yon yashayotgan boshqa qo'shni sistemalar bilan o'zaro aloqadorlikka kirishadi, buning oqibatida u ichki va tashqi o'zgarishlarga uchraydi. Bu o'zgarishlar mazkur sistemaning erkinlik darajasining (ichki va tashqi aloqalarning) kuchayishiga (progressiv rivojlanishda) yoki susayishiga (regressiv rivojlanishda) olib boradi. Bunday ichki va tashqi aloqadorliklar oqibatida rivojlanayotgan sistema har tomonlama o'zgarishga uchraydi. Bunday xilma-xil o'zgarishlar esa orqaga qaytmaslik xususiyatiga egadir. Bundan, rivojlanish – orqaga qaytmas jarayonlar, degan xulosa kelib chiqadi. Rivojlanish jarayonida sistemadagi o'zgarishlarning bunday xususiyatlardan kelib chiqib rivojlanishga quyidagicha ta'rif berish mumkin: ***Rivojlanish*** sistemaning shunday yaxlit, kompleks, yo'nalishga ega bo'lgan, orqaga qaytmaydigan fazo-vaqt strukturasi o'zgarishiki, uning natijasida sistema bir miqdoriy va sifatiy holatdan boshqa miqdoriy va sifatiy holatga o'tadi.

Rivojlanish jarayonida sistemaning yangi holati uning avvalgi holatini inkor etish natijasida paydo bo'ladi. Rivojlanayotgan sistemaning hozirgi holati uning o'tmishdagi holatini inkor etish evaziga vujudga keladi. Sistemaning avvalgi va keyingi holatlarini taqqoslash natijasida biluvchi sub'ekt rivojlanishning sur'atini va yo'nalishini aniqlashi mumkin. Agar rivojlanuvchi sistema nisbatan kam tashkillashgan holatdan yuqoriroq darajada tashkillashgan holatga o'tgan bo'lsa, bunday sistemadagi rivojlanish progressiv yo'nalishga ega bo'ladi, agar sistema nisbatan yuqori darajada tashkillashgan holatdan pastroq darajadagi tashkillashgan

holatga o'tsa, rivojlanish regressiv yo'nalishda borayotgan bo'ladi. Agar rivojlanish natijasida sistemaning tashkillashgan holati o'zgarishsiz qolsa, bunday rivojlanish bir tekisdagi rivojlanish deyiladi. Bunday holatlarda sistemaning murakkablik va tashkillashish darajasi ilgorigidek qolgani bilan, uning elementlari o'rtasidagi va uning boshqa sistemalar orasidagi o'rni o'zgaradi, bunday o'zgarishlar u bilan yonma-yon yashayotgan yoki unga nisbatan kengroq bo'lgan boshqa sistemalarda progressiv yoki regressiv rivojlanishlar sodir bo'lishga zamin yaratadi. Olamdagi narsa va hodisalarning harakati, o'zgarishi, bir solatdan ikkinchi holatga o'tib turishi, rivojlanishi, ular o'rtasidagi aloqadorlik va o'zaro tasir kabi masalalar qadimdan mutafakkirlar, olimlar, faylasuflar o'rtasida turli aqs, munozara, tortishuvlarga sabab bo'lgan. Chunki ular to'g'risida aniq bilimga ega bo'lmasdan turib, olam va uning taraqqiyoti, rivojlanish manbai, harakatlantiruvchi kuchlari to'g'risida hamda, eng asosiysi, kelajak haqida ilmiy tasavvurga ega bo'lish qiyin.

Atrofimizdagi jamiki narsa-hodisalar, yani eng mayda zarrachalardan tortib to'er, Quyosh, Koinotgacha barchasi, shu jumladan, kishilik jamiyati ham, doimo harakat, o'zgarish va rivojlanishdadir. Ular o'rtasida abadiy o'zaro bogliqlik, o'zaro tasir va aloqadorlik mavjud. Olamda o'z-o'zidan, tasodifiy ravishda hech qanday harakat ham, o'zgarish ham yuz bermaydi.

Qonun tushunchasi. Qonunlarning turlari.

Qonun tushunchasi dunyoning mavjudligi ana shunday botiniy va zohiriy o'zgarishlarning abadiy takrorlanib turishidan iboratdir. Bu takrorlanishlar esa o'z mohiyati va xususiyatlarini saqlab qolganliklaridan qonun va qonuniyat tusini olgan.

Masalan, biz Nyuton tomonidan kashf etilgan butun olam tortishish qonunini o'rganganimizda ana shunday holni idrok etamiz. Bu qonunning asosiy mohiyati butun olamdagi narsalarning bir-biri bilan aloqadorligi tamoyilining doimiy takrorlanishi, har soniya va har daqiqada bu holatning sodir bo'lib turishini isbotlaydi.

Xo'sh qonun o'zi nima? U kishi va umuman, jamiyat hayotida qanday ahamiyatga ega? Qonunni bilmasdan, o'rganmasdan turib yashash mumkinmi? Qonun tushunchasi kundalik hayotimizda nisbatan tez-tez ishlatib turiladigan tushunchadir. Xususan, fizika yoki ximiya qonunlari deymiz, tabiat qonuni yoki bo'lmasa, iqtisodiy qonunlar, yuridik qonunlar va h.k. YUqoridagilarni birlashtirib turadigan, barchasi uchun ham umumiy bulgan xossa, xususiyatlar bormi? Eng avvalo, shuni aytish kerakki, olamdagi barcha narsa — tabiat, jamiyat va inson taraqqiyoti ma'lum qonunlar asosida amalga oshadi. Fanlarning (ijtimoiy, gumanitar, tabiiy va h. k.) asosiy vazifasi har bir soha bo'yicha tadqiqot o'tkazib, qonunlarni kashf qilish yoki ularning amal qilish xususiyatlarini o'rganish, ochib berishdan iborat.

Qancha ko‘p qonun kashf qilinsa, taraqqiyot shuncha tez buladi. Taraqqiyot qonunlarini bilmasdan turib, rivojlanishga erishish qiyin. Hozir mustaqil O‘zbekiston barcha rivojlangan mamlakat singari ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqqisodiyotiga asoslangan demokratik davlat, fuqarolik jamiyati barpo qilish yo‘lidan bormoqsa. Bunda umumbashariy qonunlar va mamlakatimizning o‘ziga xos xususiyatlari e‘tiborga olingan.

Inson qonunlarni bilishi, ularga amal qilishi doirasida erkindir. Erkinlik nima? Erkinlik anglab olingan zaruriyatdir. Har qanday qonunga xos belgilardan biri zaruriyligi yani ob‘ektiv tarzda amalga oshish, o‘z-o‘zidan namoyon bo‘lishdir. Erkinlik esa ana shu zaruriylikni anglab olish mazmuniga amal qilishdan iborat faoliyatni anglatadi.

Yuristlarda shunday ibora bor: «Qonunni bilmaslik javobgarlikdan xolos qilmaydi». Ana shu tufayli siz yuridik qonunlarni kancha yaxshi bilsangiz, o‘zingizning faoliyatingni!» shunga moslab olib borasiz. Demak, shuncha erkin bo‘lasiz. SHu holda siz nima qonuniy, nima esa qonuniy emasligini yaxshi bilasiz, qonunga xilof qadamlar qo‘ymaysiz.

YUqoridagi fikrlarni xulosa qilib, qonunga qo‘yidagicha tarif berish mumkin: **Qonun** *olamdagi narsa va hodisalarning muhim, zaruriy, umumiy va takrorlanib turuvchi bog‘lanishlari, aloqalari va munosabatlarining namoyon bo‘lishidir.* Endi qonunning belgilariga to‘xtalamiz:

1) Qonun turli-tuman aloqadorliklar, bog‘lanishlardan faqat muhimlarini, yani bunday bog‘lanishlarni ifodalaydiki, bu «olamning mavjudligi, o‘zgarishlari va undagi narsa hamda hodisalarning mohiyatidan kelib chiqqan bo‘ladi;

2) Qonun zaruriy bog‘lanishlarni ifodalashi, ya‘ni tasodifiy bog‘lanishlar, goh paydo bo‘lib, goh yo‘qolib ketadigan bog‘lanishlarga asoslanmaydi;

3) qonun narsa va hodisalarning umumiy bog‘lanishlarini ifodalaydi.

Qonun nisbatan barqaror, takrorlanib turuvchi rivojlanishlarni (munosabatlarni) ifodalaydi, yani bir safar berib, ikkinchi safar yuz bermaydigan bog‘lanishlarni butunlay qamrab olmaydi.

Tabiat qonunlariniig yana bir eng muhim xususiyati — bu ob‘ektiv xarakterga ega, yani u insonga ham, insoniyatga ham bog‘liq emas. Biror kishi, hatto millatning irodasi bilan ham, tabiat qonuniga tub o‘zgartirish kiritish yoki uni butunlay yo‘q qilish mumkin emas. Chunki bu qonunlarning asosini tashkil qilgan bog‘lanishlar, munosabatlar ob‘ektiv xususiyatga ega.

Olamdagi har bir narsa va hodisa bir-birini taqozo qiladigan va shu bilan birga, bir-birini istisno qiladigan qarama-qarshi tomonlar birligidan iborat. Demak, voqe‘lik va o‘zgarish jarayonida ayniyat va ziddiyatning bo‘lishi ham odatiy hol. Masalan, issiq va sovuq, oq va qora, kecha va kunduz, elektrning musbat va manfiy zaryadlari, yaxshilik va yomonlik, adolat va jaholat va h. k. Qarama-qarshi tomonlar bir-birini

inkor etadi va shu bilan birga biri ikkinchisini taqozo etadi, biri ikkinchisiz mavjud bo‘la olmaydi. Faraz qilaylik, magnitning manfiy zaryadi bo‘lmasa, u holda ushbu narsa magnit bo‘lolmaydi.

Borliq narsa, voqea-hodisalarning turli-tumanligidan iborat. Lekin narsalar qanchalik hilma-xil, turli-tuman bo‘lmasin, ular o‘rtasida yaqinlik, aynanlik mavjuddir. Masalan, stol va stul sifat jihatidan turli narsalardir. Lekin baribir ular o‘rtasida o‘xshash tomonlar, belgilar bor. aytaylik ularning yo rangi yoki bir turli materialdan yasalganligi yoki bo‘lmasa, vazni o‘xshash bo‘lishi mumkin va h.k.

Ayniyat tushunchasi narsa va hodisalar o‘rtasidagi o‘xshash tomonlarni ifodalaydi. Shu bilan birga narsa-hodisalar bir biridan farq qiladigan tomonlar, xususiyatlar, belgilarga ham egadir. Aynan bir xil bo‘lgan narsaning o‘zi yo‘q. Hatto daraxtning bir shoxida yonma-yon turgan 2 barg ham bir-biridan farq qiluvchi bazi jihatlarga ega. Hech bo‘lmaganda, ular bir biridan makondagi o‘rni bilan farq qiladi.

Hayotdan misol keltiradigan bo‘lsak, bir-biriga tashqi tomondan tamomila o‘xshash bo‘lgan Hasan va Husanlarda ham huddi kun farq qiluvchi xususiyatlar bor. Masalan, ularda fel-atvor, qiziqish turi, dunyoqarashlar har xil bo‘lishi, ularning ichki dunyolari farq qilishi mumkin. Demak, tarif narsa — hodisalarning farq qiluvchi tomonlarini ifodalovchi tushunchadir.

Xo‘sh, qonuniyatli aloqalarning muhim belgilari va asosiy xususiyatlari qanday? *Qonun*, bu – *muhim* xarakterga ega bo‘lgan aloqadir. Qonun va mohiyat tushunchalari bir xil toifadagi tushunchalardir. Qonuniyatli aloqalarning muhimlik va zarurlik xossalari ularning yana bir xususiyatini – *umumiyligini* keltirib chiqaradi. Umumiylik qonunning tegishli sharoit bo‘lgan hamma erda amal qilishini bildiradi. Qonunlar kamroq umumiy bo‘lib, faqat moddiy jarayonlarning cheklangan sohalaridagina amal qilishi, ayrim konkret fanlar tomonidagina o‘rganilishi (masalan, energiyaning saqlanishi va aylanishi qonuni) mumkin; shuningdek qonunlar falsafa tomonidan o‘rganiladigan umumiy, universal bo‘lishi mumkin (dialektika qonunlari).

Qonunlar o‘zining *ifodalash shakllari* bo‘yicha bir-biridan farq qiladi. Bir xil qonunlar hodisalar o‘rtasidagi qat’iy miqdoriy bog‘liqlikni aks ettiradi va fanda matematik formulalar bilan qayd etiladi (masalan, butun jahon tortilish qonuni). Boshqa xil qonunlarni esa qat’iy matematik formulalar bilan ifodalab bo‘lmaydi (masalan, tabiiy tanlanish qonuni). Qonunlarni sinflarga bo‘lish g‘oyat muhim ahamiyatga ega: dinamik qonunlar (qattiq determinatsiya), *statistik* (ehtimoliy) qonunlar, *simmetrik* qonunlar, *boshqaruv* qonunlari. Qonunlarning turli sinflari mavjudligi dunyoda sifat jihatdan turli tuman muhim aloqalar mavjudligini aks ettiradi, bu esa ilmiy bilim tuzilmasida, uning tuzilish mantiqida o‘z ifodasini topadi.

Falsafaning asosiy qonunlari va tamoyillari. Qarama-qarshilik va ziddiyat qonuni. Miqdor va sifat o'zgarishlari dialektikasi. Inkorni-inkor qonuni va vorisiylik.

Falsafa o'z mohiyati bilan narsa va hodisalarning harakati, o'zgarishi va rivojlanishiga ular o'rtasidagi bog'lanish va aloqadorlik munosabatlarini o'rganadi. SHuningdek jamiyat va inson tafakkurining mavjudlik qonuniyatlari ham borliqning ajralmas qismi sifatida umumiy aloqador qonuniyatlarda o'rganiladi. Albatta, olamdagi har qanday bog'lanish ham rivojlanishga sabab bo'lavermaydi. Chunki bu bog'lanishlarning ko'lami, mohiyati, ta'sir kuchi va doirasi turlicha. Bog'lanishlarning ana shu xususiyatlariga qarab, zaruriy va tasodifiy, ichki va tashqi, bevosita va bilvosita, muhim va muhim bo'lmagan va hokazo bog'lanishlarga ajratish mumkin.

SHuningdek, olamda boshqa voqea yoki hodisalardan alohida, ular bilan bog'liq, o'zaro aloqadorlikda va ta'sirda bo'lmagan birorta ham voqea yoki hodisa mavjud emas. Demak, o'zaro bog'lanish va ta'sir natijasida narsa-hodisalarda o'zgarish sodir bo'ladi. Lekin, barcha o'zgarishni har doim ham birdaniga, yaqqol sezish mumkin emas. Chunki olamning namoyon bo'lish turli darajada bo'lganligi sababli, o'zgarishlar ham turlichadir.

Tashqi faktorlar (inson faoliyati, yorug'lik, issiqlik, namlik, atmosfera bosimi) natijasida ro'y beradi o'zgarishlarni ko'z ko'radi, quloq eshitadi. Xullas, ular oson anglab olinadi, ochiq-oydin namoyon bo'ladi. ulardagi o'zaro bog'liqlikni ham oson ko'rish, ilg'ash mumkin. Ana shunday oson ko'rish va ilg'ash mumkin bo'lgan, ochiq-oydin ro'y beradigan voqea, hodisa, natijaga nisbatan «zohiriylik» tushunchasi, mohiyatini ilg'ash qiyin bo'lgan va murakkab ichki sabablar natijasida kechadigan jarayonlar o'zgarishlarga nisbatan «botiniylik» tushunchasi qo'llaniladi. Falsafada rivojlanish, o'zgarish, taraqqiyot jarayonlari dialektik nuqtai nazardan qarama-qarshiliklar birligi va ana shu birlik asosida ro'yo beradigan o'zgarishlar asosida o'rganiladi.

Qarama-qarshilik deb esa, narsa, voqea-hodisalarning bir birini taqozo etuvchi va shu bilan birga bir-birini inkor etuvchi tomonlari, kuchlarining o'zaro munosabatiga aytiladi.

Qarama-Qarshiliklar o'rtasidagi munosabatni **ziddiyat degan** tushuncha ifodalaydi. Ko'p hollarda ayniyat va tafovutning zidligi va ularning bir maxrajga kelish, me'yoriy o'zgarishi tufayli rivojlanish, taraqqiyot, yangilanish jarayonlari amalga oshadi. Taraqqiyot shu manoda ayniyat, tafovut va ziddiyatning paydo bo'lishi, rivojlanishini va hal qilinishidan iborat bo'lgan abadiy va azaliy murakkab jarayondir.

Insoniyat paydo bo'libdiki, uning hayotida ayniyat va tafovut ham, ziddiyat va

qarama-qarshiliklar ham mavjud bo‘lib kelmoqda. Odamzod ziddiyatlar kamroq bo‘lgan, kishilarning hilma-xil intilish va maqsadlari, bir-biridan farq qiladigan g‘oyalari uyg‘unlashgan, barqarorlik ustuvor bo‘lgan jamiyatni qurish uchun bosh qotirib kelmoqda.

Anu shunday intilishlar fanda «Konfliktologiya» (konflik — ziddiyat, logos-talimot) deb ataladigan falsafiy ta’limotning paydo bo‘lishiga olib kelgan. Bu soha bilan shug‘ullanadigan olim va mutaxassislar konfliktologlar deb ataladi. Ular konfliktlarni keltirib chiqarish emas, balki ularning

oldini olish va jamiyat uchun foydali tarzda hal qilish yo‘llari va usullari ustida bosh qotirishadi.

Har bir ziddiyatning aniqlanishi, hal qilinishi o‘zgarishga, yangilanishga, bir sifatdan ikkinchi sifatga, eskidan yangiga o‘tishga sabab bo‘ladi. Olam turli-tuman bo‘lganligi uchun ziddiyatlar ham xilma-xildir. Masalan, ichki va tashqi ziddiyatlar, asosiy va asosiy bo‘lmagan ziddiyatlar mavjud. Ular O‘rtasida farq bo‘lgani bilan birga, mutloq chegara ham yo‘q. Chunki amalda, hayotda ular bir-biriga o‘tishi, birgalashib ketishi va taraqqiyotda turli xil o‘rin tutishlari mumkin.

Olamning mavjudligi — miqdor va sifat voqe‘ligi tarzida namoyon bo‘ladi. Buning mohiyati shundan iboratki, narsa va hodisalardagi sezilarli bo‘lmagan miqdoriy o‘zgarishlar asta-sekin to‘plana borib, taraqqiyotning ma’lum bir bosqichida me’yorni buzadi va sakrash yo‘li bilan tub sifat o‘zgarishlariga olib keladi. Harakat jarayonida predmetlarda ma’lum o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Biron – bir lahzagacha miqdor o‘zgarishlar ko‘payadi, ichki va tashqi ta’sirlar natijasida ob’ektda yuz beradigan jarayonlarning miqyosi kengayadi. Keyinchalik «to‘planib» qolgan miqdor o‘zgarishlar bilan ob’ektning sifati o‘rtasidagi tafovut hosil bo‘ladi. Tafovutni o‘tkirlashib borishi yangi sifatning vujudga kelishi bilan yakunlanadi. Polimerdan biopolimerning hosil bo‘lishi, har qanday yangi ob’ektlarni vujudga kelishi sifat o‘zgarishidan dalolat beradi. Yangi sifatning vujudga kelishi oldin sodir bo‘lgan miqdor o‘zgarishlar turg‘unlikni saqlab turgan me’yorni buzilishi orqali yuz beradi. O‘z navbatida yangi sifat o‘zgargan miqdor bilan birlikni hosil qilarkan, ob’ektni o‘zida yangi me’yor paydo bo‘ladi.

Tabiiyki, yangi sifat yangi miqdoriy o‘lchamni keltirib chiqaradi. Bu xislatni asosida yotgan narsa – ob’ektdagi elementlarning harakati va mustaqilligining miqyosini oshishi, muhit bilan massa, energiya va struktura vositasi orqali almashunuv jarayonining tezlanishi yoki kengayishi, predmetning mukamallashishiga qaratilgan faollik qobiliyatini yuksalishidadir. Bu yangi sifat va miqdor olib kelgan jarayonlar mazmunan rivojlanishdan darak beradi. Miqdor o‘zgarishlarining sifat o‘zgarishiga o‘tishi, hamda, yangi sifat o‘z navbatida yangi miqdoriy xislatlarni keltirib chiqarishi rivojlanishi qanday yuz berishini ko‘rsatadi.

Miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishiga o'tishi, borliqda bunday o'tishni doimiy va umumiy usul tarzda namoyon bo'lishi bu jarayonga qonuniyat tusini beradi. Bu xildagi qonuniyatning amal qilishi ikki yo'nalishda sodir bo'ladi: 1) Ma'lum tizim doirasida miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishiga o'tishi oldin mavjud bo'lmagan yangi predmetni yuzaga keltiradi. Ilmiy bilish sohasida oldin ma'lum bo'lmagan faktlarni tahlil qilish mavjud konsepsiyaning cheklanganligini ko'rsatishi va yangi mazmunga ega bo'lgan nazariyani ishlab chiqishga olib kelishi mumkin. 2) Miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishiga o'tishi biron – bir oldindan mavjud bo'lgan tizimning yo'qolishi emas, balki uning yangilanish shaklida namoyon bo'lishi mumkin. Moddiy olamdagi xilma-xil narsa va hodisalar bir-biridan o'z sifati bilan ajralib turadi. **Sifat** — narsalarning ichki va tashqi muayyanligi bo'lib, uning qator xossa, belgi, xususiyatlari birligini ifodalaydi. Sifat narsa qanday bo'lsa, uni shundayligicha ko'rsatib beradi, jismning barcha tashqi xossalarni bog'liqlikda namoyon qiladi.

Demak, sifat narsaning umumiylikini, yaxlitligini, uning iisbiy barqarorligini, bir-biriga o'xshashligi yoki o'xshamasligini ifodalaydi. U keng manoda narsalarning turli-tuman xossalari yig'indisidir. Lekin sifat va xossa aynan bip xil ma'nodagi tushunchalar emas. Sifatning o'zgarishi, muqarrar suratda, xossaning o'zgarishiga olib keladi. Biroq xossaning o'zgarishi har doim sifatning o'zgarishiga ta'sir qilavermaydi, ayrim xossalar narsalarning sifatiga ta'sir etmasdan yo'q bo'lib ketishi mumkin. Sifat predmetning doimiyligini, nisbiy barqarorligini ifoda egadi.

Narsalar sifat muayyanligidan gashqari, bir-biridan miqdoriy tomonlari bilan ham farq qiladi. **Miqdor** predmetning hajmi, o'lchovi, og'irligi, harakat tezligi va shu kabilar bilan tavsiflanadi. Tabiat hodisalari kabi ijtimoiy hodisalar ham miqdoriy tomonga ega. CHunonchi, suv o'z solishtirma og'irligiga, qaynash va muzlash darajasiga ega. Bir ijtimoiy tuzum boshqasidan xususiyati jihatidangina emas, balki ishlab chiqaruvchi kuchlar taraqqiyoti, mehnat unumdorligi, madaniyati va hokazolar bilan ham farq qiladi. Har qanday hodisa miqdor va sifat birligiga ega. Tabiatda faqat miqdorga va sifatga ega bo'lgan, ya'ni sifati bo'lib miqdori, miqdori bo'lib aksincha, sifati bo'lmagan narsaning o'zi yo'q.

Taraqqiyot jarayonida miqsor o'zgarishlari tub sifat o'zgarishlariga o'tishi bilan birga sifat o'zgarishlari miqdor o'zgarishlariga ham o'tadi. Miqdor o'zgarishlari bitan sifat o'zgarishlari o'zaro chambarchas bog'langan bo'lishiga qaramay, ylar ayrim o'ziga xos xususiyatlarga ham ega. CHunonchi:

- birinchidan, miqdor o'zgarishlari doimo yuz berib turadi Hatto hodisalar sifatining nisbiy barqarorligi davrida ham miqdoriy o'zgarishlar asta-sekin yuz beradi. Sifat o'zgarishlariga o'tish faqat malum bir davrda boshlanadi;

- ikkinchidan, miqdor o'zgarishlari ma'lum vaqtgacha narsalarga muhim ta'sir ko'rsatmaydi. Suv normal atmosfera bosimida 100° gacha suyuklik holatini

yo‘qotmaydi, keyin esa bug‘ga aylanadi, sifatini o‘zgartiradi. Demak, sifat o‘zgarishlari hodisalarni tubdan o‘zgartirib, uning boshqa hodisaga aylanishini taqozo qiladi;

- uchinchidan, miqsor o‘zgarishlari asta-sekin amalga oshadi

- ko‘p hollarda sezilmasdan o‘tadi. Sifat o‘zgarishlari esa ancha keyin, ayrim holatda to‘satdan sodir bo‘ladi;

- to‘rtinchidan, sifat o‘zgarishlari miqdor o‘zgarishlariga qaraganda tub o‘zgarish bo‘lib hisoblanadi.

Sakrash nima? Sakrash tabiat va jamiyatda sodir bo‘ladigan sifat o‘zgarishlarini anglatadigan falsafiy tushuncha bo‘lib, taraqqiyotning uzluksiz ko‘rinishiga qaraganda ancha tez o‘tadigan jarayondir.

Sakrash miqdor o‘zgarishlaridan sifat o‘zgarishlariga o‘tishda uzluksizlikning uzilishini bildiradi. Sakrash narsa va hodisalarning uzluksiz rivojlanish davomida tayyorlanib, shu uzluksiz rivojlanish momenti tugab, uzilish sodir bo‘lishi bilan zaruriy ravishda yuz beradi. Sakrash birdaniga, to‘satdan bo‘ladigan holatgina emas, balki yangi sifat elementlari ko‘payishi orqali yuz beradigan tadrijiy jarayon hamdir.

Sakrashning turlari o‘z harakteriga ko‘ra tabiat va jamiyatda xilma-xil bo‘lib, ular bir-birlaridan farq qiladilar. Jamiyat taraqqiyotidagi sakrashlarning o‘ziga xos tomoni shuki, bu sakrashlar eski ijtimoiy tuzumni yo‘q qilish va yangi ijtimoiy tuzumni o‘rnatadigan ijtimoiy jarayonlar, tadrijiy rivojlanish orqali amalga oshadi. Bunday sakrashlarni ikki guruhga bo‘lish mumkin: birinchisi — portlash yo‘li bilan po‘ladigan sakrashlar, ikkinchisi sekin-asta, tadrijiy yo‘l bilan bo‘ladigan sakrashlar. Birinchi tur sakrashlarning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, bunda narsa va hodisalarning yangi sifatga o‘tishi nihoyatda tezlik bilan yuz beradi va kutilmagan natijalarni, tasodifiy jarayonlarni boshlab yuborishi, hatto salbiy holatlarni kelgirib chiqarishi ham mumkin.

Sakrashning ikkinchi turida esa, eski sifat elementlarining asta-sekin yo‘qolib borishi va yangi sifat elementlarining asta-sekin to‘planishi natijasida yangi sifat paydo bo‘ladi.

Shunday qilib sakrash quyidagi jihatlarga ega:

- birinchidan, sakrash taraqqiyot natijasida amalga oshadigan obektiv va qonuniy jarayondir;

- ikkinchidan, sakrash tadrijiylikning uzilib, miqsor Uzgarishlaridan tub sifat o‘zgarishlariga o‘tishidir;

- uchinchidan, sakrash eskini tugatish va yangi sifatga mos keladigan holatlarning vujudga kelishi tufayli sodir bo‘ladigan ziddiyatlarni hal qilishdir;

- to‘rtinchidan, sakrash olamning rivojlanib, ilgarilab borishidir.

Hodisalarning sifat xususiyatlariga va ularning rivojlanish sharoitiga bog‘liq

ravishda eski sifatdan yangi sifatga

o'tish turli shakllarda sodir bo'ladi. Har bir narsa, hodisa o'zining aniq inkor qilinish usuliga, o'z navbatida aniq sakrash shakliga egadir.

Demak, har qanday o'zgarish, har qanday rivojlanish miqdor va sifat o'zgarishlarining o'zaro bir-biriga o'tishi orqali sodir bo'ladigan jarayonlardan iborat. Borliqning ham sohasida doimo eski, umri tugayotgan narsa va hodisalarning barham topishi, yangi narsa va hodisalarning vujudga kelish jarayoni sodir bo'lib turadi. Bunday eskining yangi bilan almashinishi inkor deb ataladi.

O'zgarish va rivojlanish jarayonida **o'z-o'zini inkor etish tamoyili** nihoyatda muhim. Bunda **vorislik** — eskining inkori va yangilikning shakllanishi sifatida namoyon bo'ladi. Ana shu jarayonlarning doimiy takrorlanishi **inkorni ipkor qonunini** mohiyatini bildiradi.

Mazkur qonunga muvofiq obektiv voqeliqdagi narsa va hodisalarning rivojlanishi jarayonida eskining yangi tomonidan inkor qilinishi ro'y beradi. Biroq, aksariyat hollarda, eskilik butunligicha inkor qilinmaydi, undagi ijobiy tomonlar saqlanib qoladi.

Inkor tushunchasi kundalik ongda «yo'q», so'zi bilan qo'shilib keladi, inkor qilmoq — «yo'q» demakdir, biror narsani rad etmoqdir. Lekin dialektikada inkor kundalik ongda ishlatiladigan tushunchadan farq qiladi. Dialektikada inkor qilish to'g'ridan- to'g'ri «yo'q» degani emas, yani narsani mavjud emas, deb elon qilmoq yoki uni har qanday usul bilan yo'qotib tashlamoq emas.

Inkorni dialektik tushunish yangining eski bilan oddiy almashuvi bo'lmasdan, balki eskining bag'rida vujudga kelib, undan foydalanib, qaror topishini tan olishdir. Dialektik inkorning muhim ikki jihati mavjud: birinchisi, eskining o'rniga yangining kelishi tabiiy-tarixiy jarayon bo'lganligi uchun taraqqiyotning muhim sharti hisoblansa; ikkinchisi, birinchi eski bilan vorisiy bog'liq ekanligini ham ifodalaydi.

Inkorni inkor qonunini tushunish uchun uni nega shunday atalishini izohlamoq lozim. Falsafaning bu ta'limotini ikki marta takrorlanuvchi inkorda ifodalanishi olamdagi narsa va hodisalarning doimiy ravishda o'zgarib, bir holatdan ikkinchi holatga o'tib borishi va oqibatda, rivojlanish yo'lida ekanligidan kelib chiqadi.

Bu qonunga ko'ra, har bir mavjud bo'lgan narsa va hodisalargacha bo'lgan sifat va miqdor inkor etilishining mahsuli, shu bilan birga, ana shu narsa va hodisalarning o'zi ham sharoitining o'zgarishi, vaqtining o'tishi bilan inkor etilishga mahkumdur. Demak, har bir narsa va hodisaning o'zgarishi va rivojlanishi hamisha ikki va undan ko'proq inkor etishlar bilan amalga oshadi. Insoniyat tarixi — avlodlar almashinuvi tarixidir, deyilganida ham ana shunday hol nazarda tutiladi.

Inkorni inkorning yana bir muhim belgisi shuki, taraqqiyotdagi davriylikning muayyan halqasida, yani navbatdagi inkor bosqichida uning oldingi bosqichidagi

bazi belgilar miqdorlanadi. Masalan, don o‘simliqdan yana donlarga aylanadi, keyinroq yana o‘simlikka va hokazo.

Inkorni inkorning amal qilishi tufayli taraqqiyot to‘g‘ri chiziq shaklida emas, doira shaklida bo‘ladi, uning oxirgi nuqtasi boshlang‘ich nuqtaga yaqinlashadi. Lekin bu yaqinlashuv uning oxirgi nuqta bilan tutashishi bo‘lmasdan, balki yuqori bosqichda sodir bo‘lishi sababli taraqqiyot spiral shaklga ega buladi. Bu spiralning har bir yangi o‘rami oldingi o‘ramiga nisbatan yuqoriroq bosqichda yuzaga keladi.

Dialektik inkor yangi bilan eski o‘rgasidagi bog‘lanishni Butkul rad qiladi, deb tushunmaslik kerak. Yangi qanchalik ilg‘or bo‘lmasin, u yo‘q joydan paydo bo‘lmaydi, balki eskining qobig‘ida asta-sekin shakllanadi. SHuning uchun ham ko‘p hollarda eskidan yangiga o‘tilayotganda eski butunlay tashlab yuborilmaydi, SHuning ijobiy tomonlari saqlanib qoladi va rivojlanish davom ettiriladi. Demak, yangi bilan eski o‘rtasida vorislik mavjuddir. Inkorni inkor qonuni taraqqiyotda vorislik va o‘zgaruvchanlikning birligini tavsiflaydi. Dialektik inkorning muhim xususiyati ana shundan iborat.

Inkorni inkor qonuni mustaqillik va bozor iqtisodiyoti jarayonida ro‘y berayotgan hodisalar mohiyatini ilmiy anglashda katta ahamiyat kasb etadi. Yangi jamiyatni barpo etishga qaratilgan o‘zgarishlar hamma narsani butunlay yo‘q qilishni bildirmaydi. Aksincha, bu — xalqimiz taraqqiyoti jarayonida erishilgan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, manaviy yutuqlarni saqlab qolib, ularni yanada boyitib, rivojlantirishdan iboratdir. Mazkur jarayonning asosiy tamoyili yangisini qurmasdan, eskini buzmaslik lozimligi to‘g‘risidagi xulosada yaqqol o‘z asosini topgan.

Kategoriya tushunchasi va ularning turlari. Fan va falsafa kategoriyalarining tasnifi. Har qanday fan ob‘ekti va predmetiga yondoshuvda o‘rganilishi kerak bo‘lgan muammoning tushuntirishda ma’lum tushuncha, me’yor, jihatlar, o‘ziga xos qonunlar va tamoyillari bo‘ladi. Masalan, fizika fani fizik qonunlar, massa, og‘irlik, tezlik, kuch kabi tushunchalar bilan ishlaydi. Aksariyat qonun va tushunchalar bu fan tarixida chuqur iz qoldirgan mashhur olimlarning nomi bilan bog‘langan. Masalan, fizikada Isaak Nyuton, Albert Eynshteyn, Nikola Tesla va boshqa olimlar fizika sohasida muhim kashfiyotlar qilganlar. Matematikani esa Pifagor, al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg‘oniy kashfiyotlarisiz, qonunlarisiz tasavvur qilish qiyin. Huddi shunday falsafaning fanlik maqomini belgilaydigan asosiy tamoyillar, qonunlar va kategoriyalar tizimi ham bor. Ularni o‘rganishdan avval, qonun va kategoriya tushunchalarining mazmunini aniqlab olish zarur. Agar **qonun** falsafiy kategoriya sifatida narsa va hodisalar rivojlanishi jarayonidagi eng muhim, zaruriy, nisbatan barqaror, doimiy takrorlanib turuvchi, ichki o‘zaro bog‘lanishlar, aloqalar, munosabatlarning mantiqiy ifodasi ekanligi bo‘lsa, **kategoriyalar** «izohlash», «tushuntirish», «ko‘rsatish», degan ma’nomlarni

anglatadi. Falsafa tarixida ularni birinchi bo‘lib, Arastu ta’riflab bergan. U o‘zining «Kategoriyalar» degan asarida ularni ob’ektiv voqe’likning umumlashgan in’kosi sifatida qarab, turkumlashtirishga harakat qilgan. Xususan, uningcha quyidagi kategoriyalar mavjud: «mohiyat» (substansiya), «miqdor», «sifat», «munosabat», «o‘rin», «vaqt», «holat», «mavqe», «harakat», «azob-uqubat». Bu turkumlashtirish, o‘z vaqtida ilmiy bilishda juda katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Keyinchalik Arastu «Metafizika» asarida «mohiyat», «holat» va «munosabat» kategoriyalarini ham izohlagan.

Umuman, kategoriyalarni falsafa tarixida ilmiy mavzu sifatida o‘rganishni aynan Arastu boshlab berganligi e’tirof qilinadi. Ma’lumki, uningcha Yunonistonda ko‘proq siyosat va notiqlik san’ati sistemalashgan, ya’ni fan sifatida tizimga tushirilgan edi. Chunki o‘sha davrda qo‘shinni, mamlakatni va odamlarni boshqarish uchun siyosat va nutq madaniyati sirlarini bilish katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Ammo o‘sha davrlarda hali falsafa qonunlari, kategoriyalari va asosiy tayanch tushunchalari muayyan tizimga tushirilmagan, izchil bayon qilingan bilimlar sistemasi sifatida shakllantirilmagan edi. Arastu falsafaning qonun va kategoriyalarini birinchi marta sistemalashtirgan, ta’riflagan va falsafani fan darajasiga ko‘targan. O‘sha davrdan boshlab falsafa o‘z qonunlari, tamoyillari, kategorial tushunchalariga ega bo‘lgan fanga aylangan. Sharqda bu masalaga Forobiy, Beruniy va ibn Sinolar ham katta ahamiyat berganlar. XVIII asrlarga kelib, falsafiy kategoriyalar tahlilida yangi davr vujudga keldi. XVIII-XIX asrga kelib, xususan, I. Kant qarashlarida kategoriyalar «sifat» (reallik, inkor, chegaralash), «miqdor» (birlik, ko‘plik, yaxlitlik), «munosabat» (substansiya va mohiyat, sabab va harakat, o‘zaro ta’sir), «modallik» (imkoniyat va imkoniyatsizlik, voqe’lik va novoqe’lik, zaruriyat va tasodif) tarzida izohlangan. Kantdan farqli ularok, Gegel mantiqiy kategoriyalarni: «borliq» (sifat, miqdor, me’yor), «mohiyat» (asos, hodisa, mavjudlik), «tushuncha» (ob’ektiv, sub’ektiv, absolyut G‘oya) tarzida izohlagan.

Falsafa fanining kategoriyalari haqidagi turli qarashlarni umumlashtirib aytganda, ularning mantiqiy tushunchalar sifatidagi quyidagi tavsiflari bor: 1) ob’ektiv voqe’likning in’kosi; 2) narsa va hodisalarning o‘zaro bog‘lanish va aloqadorligini mantiqiy umumlashtiruvchi bilish usuli; 3) narsa va hodisalarning rivojlanishi bilan o‘zgarib turuvchi mantiqiy tushuncha; 4) borliqning mavjudligidan kelib chiqadigan tarixiy — mantiqiy bilish darajalaridan biri. Ko‘pchilik mutaxassislar kategoriyalar olam, undagi narsa va voqealar, ularning asosiy va takrorlanib turuvchi aloqadorligini ifodalaydigan keng mazmundagi tushunchalardir, degan fikrga qo‘shiladilar. Bu ma’nodan borliq, voqe’lik, harakat, makon, zamon, miqdor, sifat va boshqalar falsafaning ana shunday kategoriyalaridir.

Falsafada o‘z xususiyatlariga ko‘ra, «juft kategoriyalar» deb ataladigan; umumiy bog‘lanish va aloqadorlik munosabatlarini ifodalovchi tushunchalar ham

bor. *Mohiyat va hodisa, mazmun va shakl, miqdor va sifat, sabab va oqibat, zarurat va tasodif, imkoniyat va voqe'lik* shular jumlasidandir. Ular narsa va hodisalarning muayyan yo'nalishdagi eng muhim, zaruriy, nisbatan barqaror, davriy takrorlanib turuvchi bog'lanish va aloqadorlik munosabatlarini ifodalaydi. Falsafa kategoriyalari mazmunidagi ichki birlik, bog'lanish, aloqadorlik va munosabatlarning yaxlitligi bilish jarayonining o'zluksizligini ta'minlaydigan umumiy qonuniyat tarzida vujudga kelgan.

Aloxidalik, xususiylik, umumiylik. Ular narsa va hodisalarning rivojlanish jarayonidagi makon-zamon munosabatlarini konkret tarzda namoyon qiladi. Umumiylik – olamdagi alohida, individual tarzda namoyon bo'layotgan narsa – hodisalarning turfa, xilma-xil umumlashtiruvchi xossa hamda xususiyatlarning mushtaraklashgan holda namoyon bo'lishidir. Aloxidalik va umumiylik o'rtasidagi bog'lanish, aloqadorlik va munosabat «xususiylik» kategoriyasi orqali ifodalanadi. Birinchidan, bu kategoriyalarning mazmuni olamning birligi, ularning mantiqiy ifodasi konkretlik bo'lib xisoblanadi. Ikkinchidan, «aloxidalik», «xususiylik», «umumiylik» narsa va hodisalarning makon-zamon konkretligini ifodalaydigan, nisbatan mustaqil mantiqiy tushunchalar tarzidagina namoyon bo'lishi mumkin. Zero, ularning nisbatan mustaqilligi, ichki birligining namoyon bo'lish shaklidir.

Falsafiy adabiyotlarda, bilishning umumiy tendensiyasini aloxidalikdan xususiylikka va shu bosqich orqali umumiylikka o'tish tarzida yoki aksincha, izohlash keng tarqalgan. Vaholanki, falsafiy bilishning asosiy xususiyati va maqsadi har qanday aloxidalikning individual xususiyatlarini umumiylikdan farqlashdan iboratdir. Masalan, bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish jamiyat taraqqiyotining umumiy qonuniyati bo'lsa ham, bu jarayon turli ijtimoiy-tarixiy makon va zamonda har bir davlat uchun o'ziga xos bo'lgan modelni taqozo qiladi. Aloxidalikning umumiylikdan farqini aniqlash asosida, maxsus usul va vositalarini qullash bozor strategiyasi va taktikasining milliy xususiyatlarini belgilashga yordam beradi.

Aloxidalik yoki, ba'zi falsafiy adabiyotlarda ko'rsatilganidek, yakkalikni muayyan xossa hamda xususiyatga ega bo'lgan narsa va hodisalarning makon va zamondagi chegaralangan konkret holati, boshqacha qilib aytganda, har qanday hodisa va narsaning ichki sifat muayyanligi, individualligi deyish mumkin.

Antik falsafada aloxidalik kategoriyasining mazmuni muayyan turg'unlikka ega bo'lgan birlik sifatida qaralgan (Aflotun, Arastu). Xegel, aloxidalikni voqealarning zaruriy shakli, makon va zamondagi tafovutlarning namoyon bo'lish momenti sifatida qaraydi.

Falsafada milliylik va umuminsoniylik masalasida aloxidalikning umumiylikdan farqini mutloqlashtirish natijasida muayyan qarashlar vujudga kelishi mumkin (Bu xaqda «Osiyotsentrizm» va «Evropatsentrizm» ta'limotlari to'g'risida eslash kifoya).

Vaholanki, umuminsoniyat sivilizatsiyasining tadrijiy rivojlanishida muayyan ichki birlik mavjud bo‘lib, madaniyat tarixida har bir xalq, millat o‘z o‘rni va ahamiyatini namoyon qiladi. SHuning uchun umuminsoniyat sivilizatsiyasi targ‘ibidagi milliy madaniyatni mutloqlashtirish, muayyan siyosiy manfaatlarga asoslangan bo‘lib, buyuk davlatchilik, shovinistik **qarash**lardan boshqa narsa emas. Bu XX asrning 30-yillarida fashizm mafko‘rasini shakllantirgan asosiy sababalardan biri edi.

Aloxidalikni, umumiy qonuniyatlar targ‘ibidagi, elementlarning individual rivojlanish jarayoni sifatida olib **qarash** kerak. CHunki har qanday umumiylik, dastlab vokelikning aloxidaligi tarzida vujudga keladi. SHunga ko‘ra, har qanday sistema o‘z targ‘ibidagi nisbatan yangi, aloxida hodisalarning individual rivojlanishsiz sodir bo‘la olmaydi. SHunday qilib, aloxidalik voqe‘lik rivojlanishining xilma-xil shakllarini vujudga keltiradi.

Narsa va hodisalarda aloxidaliklarning konkret xususiyatlari o‘rtasidagi bog‘lanishlar, bir tomondan, umumiylikni namoyon qilish bilan bir qatorda, ularning muayyanligi va mazmunini ham belgilaydi. Ikkinchi tomondan esa, umumiylikning konkretligi aloxidaliklar sistemasi tarzida namoyon bo‘ladi. Bu sistemaga strukturali yondashish bilishning nisbatan tulakonli bo‘lishini ta‘minlaydi. Masalan, muayyan jamiyatdagi kishilarning ijtimoiy munosabatlari o‘ziga xos bo‘lgan yo‘nalishlarini vujudga keltirgan. YA‘ni, iqtisodiy, huquqiy, siyosiy, diniy ekologik va boshqa shu kabi ijtimoiy munosabatlar umumiy madaniyat targ‘ibida «iqtisodiy madaniyat», «huquqiy madaniyat», «siyosiy madaniyat», «ekologik madaniyat» va boshqa nisbatan mustaqil yo‘nalishlarga asos bo‘lgan. Bu madaniyat yo‘nalishlari nisbatan mustaqil bo‘lsa ham, bir-birini taqozo qiladi. Ularning ichki birligi va rivojlanish tendensiyasi umuminsoniyat sivilizatsiyasi manfaatlaridan kelib chiqkan bo‘lib, umumiy taraqqiyot darajasiga mos keladi.

Falsafaning bu kategoriyasi bilan «butun», «qism» «struktura», «sistema», «element», kategoriyalari o‘rtasida uzviy bog‘liqlik va muayyan farqlar mavjud. YA‘ni «aloxidalik», «xususiylik», «umumiylik» narsa va hodisalar rivojlanish jarayonidagi bog‘lanish, aloqadorlik munosabatlarining yaxlitligini nisbatan mustaqil ifodalash bo‘lsa, «butun», «qism», «struktura», «sistema», «element», kategoriyalari esa, ularning makon va zamondagi bog‘lanish munosabatlarini jarayon tarzida ifodalashdir. SHu nuqtai nazardan, butunni – umumiylik, qismni yoki elementni – aloxidalik tarzida olib qarash holatlari uchraydi. SHuningdek, muayyan o‘xshashlik bo‘lishiga qaramasdan, sistemani umumiylik tarzida kabul qilish mumkin emas. Bunda sistema turli darajadagi umumiyliklarning majmui ham bo‘lishi mumkin. Umuman, narsa va hodisalarni targ‘ibiy jixatdan «butun», «qism», «element»larga ajratish bilishga xos nisbiy hodisa bo‘lib, uning samaradorligini ta‘minlaydigan zaruriy shartdir. Shunga ko‘ra,

yuqorida aytilgan har ikkala kategoriyalar tizimi bilishning bosqichi sifatida emas, balki usuli sifatida olib qaralishi kerak.

Sistema, struktura, element falsafaning muxim kategoriyalaridan bo‘lib xisoblanadi. Sistema – grekcha so‘z bo‘lib, mantiqiy ma‘nosi butunlik, yaxlitlik, elementlardan tashkil topgan birikma, degan ma‘nolarni anglatadi.

Sistema kategoriyasining mazmuni, uni tashkil qilgan elementlarning strukturaviy munosabatlariga mos keladi. SHu nuqtai nazardan, bilish jarayonidagi sistemalashtirish, nazariy faoliyat sifatida, ularning tashkil qilingan targ‘ibiy elementlarini tarixiy-mantiqiy izchil tartibga keltirish bilan izohlanadi. Xususan, bu elementlarning funksional faoliyatini, ahamiyatiga ko‘ra turkumlashtirish, muhim metodologik ahamiyatga ega, chunki insonning borliqni bilish faoliyati sistema strukturasidagi elementlarning mavjudlik holati va rivojlanishi ob‘ektiv qonuniyatlarini o‘rganish asosida, ularni maqsadga muvofiq tashkil qilishga qaratilgan. YA’ni, insonning ob‘ektiv reallikni nazariy bilishga asoslangan: tashkillashtirish, boshqarish, nazorat qilish faoliyatlari samaradorligi va maqsadga muvofiqligi turli kategoriyalardan unumli foydalanishi bilan harakterlanadi.

Sistema — narsa va hodisalarning bog‘lanishlari, aloqadorligi va munosabatining tartibli tadrijiy rivojlanishini ifodalaydi. Struktura esa, narsa hodisalar bog‘lanishi, aloqadorligi va munosabatlari tizimining makon va zamondagi birligini ta‘minlaydigan sistemaning mavjudlik holatidir. Umuman, struktura (lotin tilida to‘zilish, tartib degan ma‘noni anglatib), sistemani tashkil qilgan elementlarning nisbatan turg‘un bog‘lanish, aloqadorligi va munosabatidir. Hozirgi mavjud falsafiy qarashlarda strukturani sistemaning aspekti sifatida qarash ustuvordir. Sistemani tashkil qilgan elementlarning strukturaviy to‘zilishi uning mavjudlik holatini hamda rivojlanish istiqbollari belgilab turadi. Masalan, tabiatdagi atomlarning targ‘ibiy to‘zilishlari xususiyatlariga qarab, moddiy olamning xilma-xil ko‘rinishlari, DNK yoki RNK larning o‘zaro ichki munosabatlari, xromosomalar xilma-xilligi, tirik organizmlar turli-tumanligi aniqlangan. Ular umumlashgan holda, moddiy olamning ob‘ektiv realligi tarzida mavjud bo‘lsa ham, moddiylikning konkret strukturasiga ega bo‘lgan sistemalaridir. Borliqni tashkil qilgan elementlarning munosabatlariga, makon va zamon xususiyatlariga qarab, ularni «ichki struktura» va «tashqi struktura» ga ajratish mumkin.

Element sistemani tashkil qilgan strukturaning o‘zaro bog‘lanish, aloqadorlik, munosabat jihatlarini ta‘minlaydigan nisbatan mustaqil tarkibiy qismidir. Jamiyatda element ijtimoiy munosabatlarning konkret ko‘rinishlari tarzida namoyon bo‘ladi. Masalan, jamiyatni yaxlit sistema deb oladigan bo‘lsak, undagi element alohida individlar, ijtimoiy qatlamlar, tabaqalarning ongli munosabatlari tarzida ko‘zga tashlanadi. YA’ni, jamiyatning axloqiy, huquqiy, siyosiy, iqtisodiy va boshqa

munosabatlari strukturaviy to'zilishni tashkil qilgan. O'z navbatida, sistemani to'laligicha bilish, uning strukturaviy to'zilishidagi har bir elementning funksional faoliyatini alohida tahlil qilishni taqozo etadi.

SHuni alohida ta'kidlash kerak-ki, insonlarning narsa hamda hodisalarga muayyan manfaatlari va extiyojlariga ko'ra yondashishiga qarab, har bir elementni nisbatan mustaqil sistema sifatida olib qarash mumkin. Masalan, ma'naviyat jamiyat strukturasi, uni tashkil qiluvchi muxim elementlarning biri hisoblanadi, lekin ma'naviyatni, maxsus ijtimoiy hodisa sifatida alohida olib tahlil qiladigan bo'lsak, uning ichki elementlardan iborat mustaqil sistemaligini ko'ramiz. SHunga ko'ra, sistema, struktura va element nisbiy tushunchalar bo'lib, kategoriyalar sifatida, unga bo'lgan munosabat doirasida konkretlashadi.

SHuning uchun «sistema», «struktura», «element» kabi falsafiy kategoriyalar narsa va hodisalarni bilishga sistemali yondashish, strukturaviy tahlil usullarining umummetodologik asosi bo'lib xisoblanadi.

Elementlarni sistemani tashkil qilishdagi strukturaviy ahamiyatiga ko'ra: muhim va muhim bo'lmagan, asosiy va asosiy bo'lmagan elementlarga ajratib o'rganish alohida ahamiyatga ega. CHunki har qanday konkret element, muayyan sistemada makon-zamon xususiyatlariga ko'ra, o'z ahamiyatiga ega bo'ladi. Birok, ularning ahamiyatini, yuqorida ko'rsatilganidek, turkumlashtirish mutloqo nisbiy hamda shartli harakterga ega bo'lib, muayyan manfaatlar va extiyojlar asosida yondashishdan kelib chiqadi. SHunga ko'ra, konkret makon va zamonda sistemani tashkil qilishdagi elementlarning ahamiyati strukturaviy funksiyasida muqobilliklar vujudga kelib turishi bilan izohlanadi. YA'ni, sistemadagi uning harakterini belgilab to'rgan muxim element, ma'lum vaqtga kelib muhim bo'lmagan elementga aylanishi yoki aksincha bo'lishi mumkin.

Umuman, falsafaning sistema, struktura, element kategoriyalari narsa va hodisalarning mazmunini, shaklini ochib berishda metodologik asos bo'ladi.

Falsafa fanidagi an'anaviy tarzda yozilgan darsliklar, ukuv qulanmalaridan farqli ularok, bu kategoriyalarni kiyosiy tahlil qilishimizdan maqsad, boshqa juft kategoriyalarning mazmunini ochib berish imkoniyatini yaratishdir. CHunki, «mohiyat va hodisa», «mazmun va shakl», «sabab» va oqibat», «zaruriyat va tasodif», «imkoniyat va vokelik» kategoriyalarining mazmuni, yuqorida ko'rsatilgan «aloxidalik», «xususiylik» «umumiylik», «butun», «qism», «struktura», «element», kategoriyalari mazmuni bilan uzviy bog'liqdir. SHuning uchun biz falsafa kategoriyalarini bir-birini taqozo qiluvchi, nisbatan mustaqil bilish usullarining yaxlit sistemasi tarzida olib qarashni lozim topdik. **«Mohiyat va hodisa»** kategoriyasini olib ko'raylik. Mohiyat-o'zida alohidalik, maxsuslik, umumiylikning mazmunini, sababini, zaruriyatini, imkoniyatini, butun, qism, sistema, struktura, element tarzida namoyon qiladi. Hodisa esa, ularning

bogʻlanishi, aloqadorlik va munosabatlarining namoyon boʻlishidir. Mohiyatni alohidalik, maxsuslik, umumiylik, butun, qismga mos kelishiga qarab, turkumlashtirib oʻrganish maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, subʼekt nazarida ahamiyatiga va funksiyasiga koʻra, asosiy va asosiy boʻlmagan, nisbatan barqaror yoki oʻzgaruvchan mohiyatlarga ajratib, ularning rivojlanishi jarayonida oʻrni almashtirib turishlarini eʼtiborga olish zarur.

Narsa va hodisalarning mohiyatini bilish ularning inson ehtiyojlarini qondirish vazifasi va maqsadlarini konkretlashtirishdan iborat. Masalan, jamiyat ustqurmasining siyosiy elementi boʻlgan davlatning maqsadi va vazifasi, ularni amalga oshirish usul hamda vositalari mamlakat hududida yashayotgan kishilarning muayyan hayot sharoitlarini taʼminlashdan iborat boʻlib, uning mohiyatini tashkil qiladi. SHunga koʻra, har qanday mohiyatni odamlarning manfaatlari va ehtiyojlariga, sivilizatsiya kelajagiga bogʻlab tahlil qilgandagina, u ahamiyatga ega boʻladi.

Narsa va hodisalarni bilish hamda oʻzgartirishga inson muayyan ehtiyojlar asosida yondoshadi. Bu yondoshish subʼektiv harakterga ega boʻlib, uning konkret ehtiyojlari va manfaatlari nuqtai nazaridan baholanadi. Masalan, chanqagan kishi uchun suv uning chanqogʻini kondirish, fizik uchun-agregat holati, elektr tokini oʻtkazishi yoki optik xususiyatlari, ximik uchun, uning N₂O kimyoviy birikma sifati, tegirmonchi uchun-tegirmon parragini aylantirish xususiyatlari asosiy mohiyat xisoblanadi.

Narsa va hodisalar doimiy rivojlanib turishi jarayonida, ularning mohiyati ham, shunga mos tarzda hodisa ham oʻzgarib turadi. Mohiyatdagi har qanday joʻzʼiy oʻzgarish ham, uning muqarrar oʻzgargan hodisasida ifodalanadi. Masalan, suvning elektr tokini oʻtkazish xususiyati, uning temperaturasiga bogʻliqligi aniqlangan. Agar biz suvning temperaturasini maʼlum darajada kotarsak, uning elektr tokini oʻtkazish xususiyatini ulchaydigan asboblar bu oʻzgarishlarni kayd qilmasligi mumkin. Lekin, bundan suvning mohiyatini ifodalaydigan elektr tokini oʻtkazuvchanlik xususiyati yuqolgan, degan xulosa kelib chiqmaydi.

Narsa va hodisalarning mohiyat va hodisa tarzida bogʻlanishlari makon va zamondagi muayyan konkretligi bilan ajralib turadi. Mohiyat va hodisa oʻz xususiyatlariga koʻra sistema, struktura va elementlarda oʻziga xos tarzda namoyon boʻladi. SHuning uchun har qanday hodisani va mohiyatni tahlil qilishda aniq tamoyillarga asoslanish lozim.

Mazmun va shakl. Falsafada mazmun va shakl kategoriyasi narsa, hodisalarning mavjudligi va rivojlanish jarayonini bilish usuli sifatida muhim ahamiyatga ega. Mazmun - narsa va hodisalarning rivojlanish jarayonidagi sistemani tashkil qilgan elementlarning strukturaviy bogʻlanishi boʻlib, uni boshqa sistemalardan farqini belgilaydigan aloqadorliklar va munosabatlarini ifodalaydi.

Shakl esa – sistemani tashkil qilgan elementlarning strukturaviy bog‘lanishlari, aloqadorliklari, munosabatlarining ifodalanishidir. Hozirgacha falsafiy adabiyotlarda mazmun va shakl o‘rtasidagi bog‘lanishlarni bir-biridan ajratib tahlil qilish an’anaviy harakterga ega. YA’ni, mazmunning o‘zgarishi shaklning o‘zgarishiga olib keladi, degan xulosa ustuvor bo‘lgan. Sistemaning elementlari strukturaviy bog‘lanishlarsiz, aloqadorliklarsiz mavjud bo‘lish mumkin bo‘lmaganligidek mazmun va shakl ham bir-birisiz mavjud bo‘la olmaydi. Biz faqat nisbatan mustaqil bo‘lgan mazmun va shaklni bilish xususiyatiga qarab, shunday mantiqiy xulosaga kelishimiz mumkin. Boshqacha qilib aytganda, mazmun va shakldagi har qanday jo‘z’iy o‘zgarish ham bir-biridagi o‘zgarishlarni taqozo qiladi, faqatgina biz ularni bilib olgan yoki bilmagan bo‘lishimiz mumkin. Masalan, suvning agregat holati, shakli o‘zgarishi bilan uning mazmuni ham o‘zgaradi. YA’ni, suv bug‘ holatida chanqoqni qondirmaydi, o‘simliklarni sug‘orish uchun yaramaydi. Bundan tashqari, elementlarning strukturaviy bog‘lanishlari sistemaning harakterini belgilashidan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak, strukturaviy bog‘lanishlar shakl sifatida sistemaning mazmunini ham belgilab turadi. Shunga ko‘ra, shaklni mazmunga nisbatan «ikkilamchi» deyish noo‘rindir. Bunga ijtimoiy hayotdan misol keltiradigan bo‘lsak, demokratiya boshqarishning shakli sifatida jamiyatning mazmunini belgilab turadi.

Falsafada mazmun va shakl kategoriyasini boshqa kategoriyalar tizimidan ajratib olib, nisbatan mustaqil tahlil qilganda, unga insonlarning muayyan manfaatlar va ehtiyojlar asosida yondashishlarini alohida e‘tiborga olish kerak. Bu umuman mazmun va shaklning ob’ektiv harakteriga putur etkaza olmasa ham, ularni baholashdagi sub’ektiv, muqobil qarashlarda o‘z ifodasini topadi.

Miqdor va sifat. Borliqda mavjud bo‘lgan moddiy va ma’naviy predmetlar, tizimlar va hodisalar muvozanat saqlab turadilar yoki o‘zaro ta’sir jarayonida holatlarini o‘zgartiradilar. O‘zgarishlar turlicha bo‘ladi: joy almashish, ko‘payish, strukturaviy siljish, kengayish, yuksalish, yangilanish va hokazolar. Bunday o‘zgarishlarni kuzatish asosida kishilar narsalarning miqdori va sifati o‘rtasida bog‘lanish borligini anglaganlar.

Narsa va hodisalarni bilish ularning belgi va xususiyatlarini aniqlashdan boshlanadi. Daraxt bargining zangori bo‘lish xususiyati bir qator bioximik va fiziologik jarayonlarning o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga keladi. O‘z navbatida predmetlarning ichki va tashqi xususiyatlari xossalar orqali namoyon bo‘ladi. Har bir predmetning alohida, yakka ob’ekt holatida mavjud bo‘lishi belgilaydigan xususiyatlar majmui, tizimidir.

Xossa barqaror va o‘zgaruvchan, umumiy va juz’iy, uyushmagan va strukturaviy bo‘lishi mumkin. Har bir kishiga xos bo‘lgan temperament, hissiyoti, mehnat qilish qobiliyati barqaror, umumiy xossadir. Lekin, jismoniy tuzilish, biron

– bir kasbga nisbatan layoqatga ega bo‘lish esa insonda mavjud bo‘lgan o‘zgaruvchan xossalarni qatoriga kiradi.

Tajriba shuni ko‘rsatadiki, xossalarning o‘zgarishi har doim sifatini o‘zgarishiga olib kelmaydi. Xossa ob‘ektning yakka, ayrim belgisini yoki xususiyatini bildiradi. Temirning torayuvchanligi xossasi o‘zgarishi mumkin, lekin bu metall sifatining o‘zgarishiga olib kelmaydi. Xossalarni bilan birga ob‘ektda xossalarni o‘rtasida o‘zaro ta‘sir, struktura, muhit bilan munosabat va boshqa xislatlar mavjuddir. Unda sifat nimani bildiradi? Sifat shunchaki xossalarni yig‘indisi emas.

Masalaning murakkab tomoni shundaki, sifat xossalarning yig‘indisi bo‘lmasa ham, lekin u o‘zini xossalarning yig‘indisi bo‘lmasa ham, lekin u o‘zini xossalarni orqali namoyon qiladi. Bu erda faqat xossa yoki xossalarni yig‘indisi bilan sifatni aynan emasligini ko‘zda tutish kerak. **S i f a t – bu ob‘ektning barcha elementlari va xossalari va xossalarni o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sir, undagi ichki bog‘lanishlardan, boshqa ob‘ekt, tashqi muhit bilan bo‘lgan barqaror aloqalardan hosil bo‘lgan bir butunligini, tizimli yaxlitlikni, muayyanlikni bildiradi.** Sifat ob‘ektning bir butunligini, barqaror muayyanligini, mohiyatli tomonini bildirsa, xossa uning o‘zgaruvchan, bir holatdan ikkinchi holatga o‘tib turadigan xislatini namoyon qiladi.

O‘zining sifati bilan bir ob‘ekt boshqa ob‘ektdan tubdan farq qiladi. SHu bilan birga, ob‘ektning sifat muayyanligi doirasida ayrim xossalarni yo‘qolib, yangi xossalarni vujudga kelishi mumkin. Eski va yangi xossalarning almashinuvi ob‘ektning bir butunligi xislatini o‘zgartirgan taqdirdagina uning sifati ham o‘zgara boshlaydi.

Sifat jihatdan bir – biridan farq qiluvchi qismlarning bironta ob‘ektda birlashishi ko‘p sifatli xislatni yuzaga keltiradi. Turli mavjudotda fizikaviy, kimyoviy va biologik sifatlarning, insonda bulardan tashqari ijtimoiy va shaxsiyatli sifatlarning murakkab uyushmasi mavjuddir.

Sifat muayyanligi bilan birga ob‘ektlarga miqdor muayyanligi ham xosdir. Bu xususiyat ma‘lum o‘lchamni bildiradigan son, hajm, darajasida namoyon bo‘ladi. Miqdorni o‘zi paydo bo‘ladi. YA’ni poydo qiladigan asos aynan bir xil sifat, xossa yoki qismga ega bo‘lgan predmetlarning ma‘lum turkum va tizim doirasida birlashishidir. Bir – biriga o‘xshash bo‘lgan, ya’ni paytda o‘zaro bog‘langan narsa va hodisalar turkumi miqdorli munosabatni hosil qilib, bu munosabat o‘lcham (oz – ko‘p, katta – kichik, keng – tor, tez – sekin va hokazolar) orqali belgilanadi. **Miqdor - bu mazmunan farq qilmaydigan, o‘xshash sifatga ega bo‘lgan ob‘ektlarning turkumlanishidan chiqqan o‘lchamdir.** Mazmun jihatidan farq qiladigan, sifat va xossasi tafovutda bo‘lgan ob‘ektlar miqdorni, miqdoriy munosabatni hosil

qilmaydilar. Masalan, alohida – alohida olingan elektron, atom va molekula turkumini tashkil qilmaydi, sifat jihatidan turli moddalarga mansub bo‘lganlari uchun ularni sanab bo‘lmaydi. Predmetda mavjud bo‘lgan miqdordagi elementlarning o‘zaro aloqadorligi va ta’siri o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lgan sifatni hosil qilishi. Kislorod atomining sifati undagi o‘zaro aloqada bo‘lgan elementar zarra uning miqdoriy muayyaligi bilan belgilanadi. U yoki bu ijtimoiy tuzumning sifati ijtimoiy – iqtisodiy munosabatlarning ko‘p xilligi, iqtisodiyotni potensial imkoniyati, shaxs, ijtimoiy uyushma va guruhlar, hamda jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni sur’ati, darajasi bilan xarakterlanadi. Demak, ma’lum miqdor muayyan sifatni keltirib chiqaradi. Sifat bilan miqdorning bir – biriga nisbatan qanchalik mustaqil bo‘lishi va ayni paytda uzviy bog‘lanish chegarasi «me’yor» kategoriyasi orqali ifodalanadi. YA’ni, «me’yor» faqat miqdor bilan sifatning birligini belgilamasdan, balki ular o‘rtasidagi chegarani ham bildiradi. **Me’yor – bu ob’ektdagi qismlarning o‘zaro aloqadorligi xususiyatidan kelib chiqadigan sifat va miqdor birligining chegaranganligini, shu birlikning muayyanligini saqlaydigan miqdoriy o‘zgarishlar intervalini ifodalaydigan kategoriyadir.**

Sabab va oqibat. Narsa va hodisalarning ichki birligi, yaxlitligi va tarixiy-tadrijiy rivojlanish tamoyiliga ko‘ra, ularning mazmuni va shakli o‘zgarib turadi. O‘z navbatida, har qanday sistemaning elementlari o‘rtasidagi strukturaviy bog‘lanish konkret mazmunga ega bo‘lib, unga mos mazmunlarda o‘z ifodasini topadi. Boshqacha qilib aytganda, mazmun va shakl o‘rtasidagi aloqadorlik, bog‘lanish, munosabatning xarakteri muayyan sababga asoslanadi. YA’ni, narsa va hodisalarning sistema shaklida namoyon bo‘lishi, muayyan sabab oqibatidir. Demak, narsa va hodisalarning tadrijiy rivojlanishi sabab-oqibat munosabatlari tarzida namoyon bo‘ladi. SHunga ko‘ra, sabab – biror narsa va hodisa rivojlanish jarayonining oqibatidir.

Narsa va hodisalarning rivojlanishi jarayonidagi sabab va oqibat munosabatlarini bilishda, ularning makon va zamondagi tarixiy va mantiqiy izchilligi muximdir. Boshqacha qilib aytganda, bir tomondan, har qanday sabab avvalgi hodisalar yoki ularning rivojlanish oqibati tarzida namoyon bo‘ladi. Ikkinchi tomondan esa, bu oqibat keyingi rivojlanishning sababi bo‘lib hisoblanadi. Sababning mohiyati avvalgi hodisalarning oqibati sifatida vujudga kelayotgan hodisalar uchun sababligidadir. SHunga ko‘ra, sababni bir vaqtning o‘zida oqibat tarzida qarash mumkin. Aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, har qanday oqibat sabab tarzida namoyon bo‘ladi. SHu bilan birga, sababni narsa va hodisalarning rivojlanish jarayonidagi makon va zamondagi davriy takrorlanishdan farqlash kerak. Chunki, sabab mavjudlikning genetik bog‘lanishlarini, aloqadorliklarini ifodalashi bilan birgalikda, ularning istiqbollari ham belgilab beradi. Sabab falsafiy

kategoriya sifatida quyidagi xususiyatlarga ega: 1) uning ob'ektiv harakteri narsa va hodisalarning ichki, targ'ibiy elementlari munosabatlariga xos bo'lib, mohiyatning real mavjudlik holatini ifodalaydi; 2) sababning konkretligi narsa-hodisalarning xususiyatlaridan kelib chiqadi, hamda uning individualligini ta'minlaydi; 3) sabab umumiy harakterga ega bo'lib, xech qanday narsa va hodisaning rivojlanishi sababsiz sodir bo'lmaydi; 4) sabab zaruriy bo'lib, muqarrar ravishda, muayyan oqibatlarni keltirib chiqaradi; 5) sababning uzluksizligi, bir tomondan, turli sabablarning izchil bog'lanishlarini, munosabatlarini, ikkinchi tomondan, har bir sababning oqibat tarzida oldingi sabab bilan bog'liqligini harakterlaydi.

Zaruriyat va tasodif. Ob'ektiv olamni bilishda zaruriyat va tasodif kategoriyasi muhim falsafiy-metodologik ahamiyatga ega. Zaruriyat – narsa va hodisalarning vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanishini ta'minlaydigan shart-sharoitlar, munosabatlar majmuasidir. Tasodif esa – zaruriyatning namoyon bo'lish shaklidir.

Zaruriyat va tasodif kategoriyasi olamni falsafiy bilishning mushtarakligini va samaradorligini ta'minlaydi. Shu nuqtai nazardan, zaruriyatni turkumlashtirganda, uning makon va zamondagi strukturaviy to'zilishini tashkil qilgan elementlarini sistemali-strukturali tahlil qilish lozim. SHuningdek, zaruriyatni sabab-oqibat munosabatlari tarzida tushunish lozim. Zaruriyat narsa va hodisalarning muqarrar rivojlanish qonuniyatdan kelib chiqadi hamda ob'ektiv sabablar tizimiga asoslanadi. Zaruriyatlar tabiiy-tarixiy rivojlanishning ob'ektiv qonuniyatlaridan kelib chiqib, doimiy o'zgarib turadi. Zaruriyatlarning tasodiflar tarzida namoyon bo'lishi, o'z navbatida, boshqa hodisalar uchun zaruriyat maqomiga ega bo'ladi. Bundan ko'rinib turibdiki, zaruriyat va tasodif o'rtasidagi bog'lanishlar sabab-oqibat munosabatlari xarakteriga mos keladi. Zaruriyat va tasodifning aloqadorligi, bog'lanishi shundaki, ular bir-birisiz mavjud bo'la olmaydi, ya'ni zaruriyatning muqarrarligi tasodifga ham xosdir.

Imkoniyat va vokalik – falsafaning muhim kategoriyalaridir. Imkoniyat narsa va hodisalarning makon va zamondagi rivojlanish tendensiyasini ta'minlaydigan, muayyan qonuniyatlarga asoslanadi. Voqe'lik esa, shu qonuniyatlarga asoslangan rivojlanishning namoyon bo'lishidir. Imkoniyat va vokalik kategoriyasini ham, bilishning umumiy mantiqiy tamoyillariga ko'ra, boshqa kategoriyalar bilan bog'liqlikda tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Imkoniyat narsa va hodisalar rivojlanish jarayonining ichki birligini ifodalaydi va ularning rivojlanish shart-sharoitlarini, sabablarini, zaruriy qonuniyatlarini, mohiyatini o'zida mujassamlashtirgan. Imkoniyatning voqe'likka aylanishi qonuniy hodisadir. Uning real, formal, mavhum imkoniyat deb ataladigan shakllari bor.

Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar

1. Qonun nima?
2. Tabiat va jamiyat qoiunlarining qanday xususiyatlari bor?
3. Olamdagi ayniyat va ziddiyat holatlariga misollar keltira olasizmi?
4. Miqdor va sifat nima? Meyor-chi?
5. Inkor nima? Inkorni inkor-chi?

7- mavzu. Tarixiy jarayonda jamiyatning madaniy va manaviy qadriyatlari.

1. Jamiyat rivojlanuvchi tizim sifatida

Jamiyat – bu insonlar o‘rtasidagi munosabatlarning yaxlit o‘z-o‘zini tashkil etuvchi tizimi. Jamiyatning asosini insonning muayyan maqsadga muvofiq ravishda atrof muhitni qayta qurishga yo‘naltirilgan faoliyati tashkil etadi. Jamiyat doimo rivojlanuvchi tizim bo‘lib, ijtimoiy hayotini harakatga solib turuvchi bosh omil insonning ehtiyojaridir. Muayyan sharoitda inson ehtiyojarini qondirishning optimal usullari va vositalari "manfaatlar" deyiladi va ular tarixiy taraqqiyot davomida doimo o‘zgarib boradi. Manfaat – individ va ijtimoiy guruhlar faoliyatining asosiy sababidir. SHaxs manfaatlarini asosida uning maqsadi shakllanadi. Maqsad inson faoliyati natijasining ideal shakli, faoliyat predmetining subektiv timsolidir. Inson ehtiyojlari va manfaatlarini o‘z ichiga olgan sari jamiyat ham rivojlanib boradi (Ilova 7.1).

Faoliyat – insonning o‘zini o‘rab turgan olamga faol munosabati shakli bo‘lib, uning mazmunini maqsadga yo‘naltirilgan o‘zgartirish va qayta qurish bilan bog‘liq xatti-harakatlar tashkil etadi. Inson faoliyati xilma-xil bo‘lib, ularni takror ishlab chiqarishga asoslangan, yani reproduktiv va ijodiy faoliyat, yani produktiv faoliyatga ajratish mumkin. SHu bilan birga, faoliyat subektning iroda va istaklaridan mustaqil obektiv-real jarayonlar hamda subektning iroda va istaklariga bog‘liq subektiv maqsadlar, vazifa, baho va boshqa shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin (Ilova 7.2). Bundan tashqari, faoliyat muayyan ijtimoiy obektlar doirasida insonlar o‘rtasida amalga oshadigan munosabatlar tizimi sifatida ham mavjud bo‘ladi. Bunda inson faoliyati jamiyatdagi turli sohalar doirasiga qarab ajratiladi (Ilova 7.3).

Ijtimoiy falsafa – jamiyatni rivojlanuvchi yaxlit tizim sifatida o‘rganuvchi falsafaning alohida sohasi, bo‘lib, jamiyat, inson, ijtimoiy taraqqiyot va ijtimoiy bilishning eng umumiy qonunlari to‘g‘risida bahs yuritadigan fandır. Ijtimoiy falsafa va sotsiologiya fanlari bir-biridan farqlanadi. Xususan, ijtimoiy falsafa jamiyat rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini, tamoyillarini o‘rgansa, sotsiologiyaning diqqat markazida asosan muayyan jamiyat, undagi ijtimoiy munosabatlarga oid muammolar turadi. Ijtimoiy falsafa sotsiologiya uchun umumnazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun jamiyatning mohiyatini, taraqqiyotining ichki qonuniyatlarini bilmay turib, muayyan jamiyat va undagi ijtimoiy munosabatlarni to‘g‘ri tushunish mumkin emas.

Sharq va G‘arb falsafasi tarixida jamiyatning vujudga kelishi, rivojlanish omillari va qonunlari, tabiat va jamiyatning o‘zaro aloqadorligiga oid ko‘plab qarashlar mavjud. Markaziy Osiyodan etishib chiqqan buyuk alloma olimlar Abu Nasr

Forobiy(873-950), Abu Ali Ibn Sino(980-1037), Abu Rayhon Beruniy (973-1048) asarlarida jamiyat muammosi chuqur falsafiy tahlil qilingan. Abu Nasr Forobiy Platon va Aristotel asarlariga tayanib, jamiyatning kelib chiqishi asosida tabiiy ehtiyojlarni qondirish yotadi degan g'oyani ilgari surgan. Tabiiy ehtiyoj kishilarni birlashishga, jamoaga uyushuviga olib kelgan. Kishilar o'rtasidagi o'zaro yordam jamiyatni keltirib chiqargan. Insoniyat jamiyati turli xalqlardan tashkil topgan bo'lib, ular o'zaro bir-birlaridan tillari, urf-odatlari, malakalari, xususiyatlari bilan farqlanadilar.

Qadimgi yunon faylasufi Aflotun ilk bor ideal davlat nazariyasini yaratgan. Forobiy Aflotun talimotini rivojlantirib, davlatlarni fozil va johillarga ajratgan. Fozil shahar (davlat) yuksak axloqli va marifatli kishi tomonidan boshqariladi, bunday davlat shahar aholisining o'zaro hamkorlikka, bir-biriga yordam berishga asoslanadi.

Abu Ali Ibn Sino «Ishorat va tanbihot» asarida inson o'z shaxsiy ehtiyojlari jihatidan boshqalardan ajralgan holda yashay olmaydi, chunki u insoniyatning boshqa vakillari bilan o'zaro hamkor bo'libgina, ularni (yani ehtiyoj larini) qondirishi mumkin deb hisoblagan. U insonlarning jamiyatda tutgan o'rniga ko'ra 3 guruhga ajratadi. Bular: 1) davlat idoralarida xizmat qiluvchi va jamiyatni boshqarish ishi bilan shug'ullanuvchilar; 2) xom-ashyo va zaruriy mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilar; 3) davlatni qo'riqlash, uni turli tashqi hujumlardan saqlashni taminlaydigan harbiylar.

Shunday qilib, Ibn Sino ham jamiyatning shakllanishiga kishilarning birdamlikda yashashga bo'lgan tabiiy ehtiyojini asos qilib olgan. Abu Rayhon Beruniy esa jamiyatni idora qilish va boshqarishning mohiyatini – aziyat chekkanlarning huquqlarini himoya qilish, birovlarning tinchligi yo'lida o'z tinchligini yo'qotishidan iborat, deb bilgan.

Tabiiy huquq va ijtimoiy shartnoma konsepsiyasining asoslari ingliz faylasufi Tomas Gobbs (1588-1679) tomonidan ishlab chiqilgan. «Leviafan» asarida T.Gobbsning davlat to'g'risidagi qarashlari bayon qilingan. Uning fikricha, kishilik jamiyatining ikki xil holati mavjud: tabiiy va fuqarolik. Tabiiylik – bu insoniyatning dastlabki holati. Bunda kishilar shaxsiy manfaat, o'z-o'zini saqlash yo'lida tabiatda bo'lgani kabi bir-birini yo'q qilishga harakat qiladi: kuchli inson engadi, kuchsiz – engiladi, boshqacha aytganda, kishi kishiga bo'ri bo'lib, barcha-barchaga qarshi urushadi, yashash uchun kurashadi. Bunday vahshiylikning oldini olish uchun insonlar o'z ixtiyorlari bilan tinchlik va havfsizlikni taminlash maqsadida davlat tuzadilar. Davlat shaxsiy manfaatlarni umumiy manfaatga bo'ysundiradi va tartibsizlikka yo'l qo'ymaydi. Demak, davlat jamiyat azolarini bir maqsadga yo'naltiruvchi, ular o'rtasida tinchlikni saqlab turuvchi, umumiy manfaatni taminlovchi vosita hisoblanadi.¹

Fransuz marifatparvar faylasufi Jan-Jak Russo (1712-1778) bir vaqtlar insonlar tenglikda yashagan ideal jamiyat bo'lganini, unda hamma narsa barchaniki bo'lganini, bunday jamiyat ortda qolganini afsuslanib yozadi. Kishilar o'rtasidagi tengsizlik sababini xususiy mulkda deb biladi. Ibtidoiy odam alohida bir joyni o'rab olib, uni «bu meniki» degan tushunchasining shakllanishi, Russo fikricha, xususiy mulkning vujudga kelishiga asosiy sabab bo'lgan. «Ijtimoiy shartnoma» asarida J.J.Russo erkinlik va yuridik huquqlar tengligi, xalq va davlat o'z vazifalari va burchlarini ko'rsatgan holda

¹ Pulatova D.A., Ro'zmatova G.M. G'arb falsafasi tarixi. –T.:TDSHI.,2013. –B.169-170.

bitim tuzishi to'g'risida fikr yuritgan.¹ Faylasuflar tomonidan tabiat va jamiyatning o'zaro aloqadorligi, tabiiy muhit va uning jamiyat rivojlanishiga tasirini isbotlab berilgan. Jamiyat hayotida tabiatning roli haqida Lao-szi, Konfusi, Demokrit, Gippokrat, Platon, Aristotel, Forobiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Xaldun, Jan Boden, Sharl Monteskyo (1689-1755) kabi faylasuflar alohida etibor qaratganlar. Masalan, qadimgi yunon faylasufi Lao-szi olamda tabiiy *dao* qonuning hukmronlik qilishini, insonning uni o'zgartirishga qaratilgan har qanday harakati tabiat, jamiyat va inson uchun halokatli ekanligini takidlagan.

Abu Rayhon Beruniy birinchilardan bo'lib sivilizasiyalarning paydo bo'lishida tabiiy-geografik muhitning tutgan o'rni masalasini ko'targan. Geografik determinizm nazariy asoslarining vujudga kelishiga fransuz faylasufi Sharl Monteskyo fikricha, iqlim, Yer reliefi va tuproqning holati xalq ruhiyati va jamiyat rivojlanishining xususiyatlariga bevosita tasir ko'rsatadi.

Bugungi kunda falsafada tabiat va jamiyatga avvalgi yondoshuvlardan farqli tizimli yondoshuv shakllangan. Unga ko'ra, tabiiy muhit jamiyat rivojlanishini zaruriy sharti, belgilovchi omillardan biridir. «Tabiat» tushunchasini *keng va tor* manolarda talqin etish mumkin. Birinchi holda bu tushuncha bizni o'rab turgan jamiki borliqni, butun dunyoni uning barcha voqea va hodisalari bilan: eng mayda elementar zarrachalardan tortib kosmik tizim va hayvonot olami hamda ijtimoiy hayotni o'ziga qamrab oladi. Bunday qarashda inson ham, jamiyat ham tabiatning bir bo'lagi hisoblanadi.

«Tabiat» tushunchasini tor manoda talqin etilganda, u inson va jamiyatni o'rab turgan tabiiy sharoit, geografik muhitni anglatadi. Ularga: 1) iqlim; 2) joyning reliefi; 3) suv resurslari, 4) erning hosildorlik darajasi; 4) o'simlik va hayvonlar dunyosi; 5) foydali qazilmalar va boshqa xom ashyo manbalarining mavjudligi va boshqalar kiradi. (Ilova 7.4.)

Darhaqiqat jamiyatning o'ziga xosligi, unda qaror topgan ijtimoiy munosabatlar xususiyatlari, avvalo, u mavjud bo'lgan tabiiy muhitga bog'liq, lekin faqat u bilangina belgilanmaydi. Shu bilan birga, bugungi kunga kelib, tabiat-jamiyat-inson o'zaro aloqador bo'lgan yaxlit tizim sifatida qaralib, jamiyatning keyingi rivojiga sof tabiiy muhit emas, balki aynan shu tizimning holati kuchli tasir qilishiga etibor qaratilmoqda.

Malumki, biosfera Erning hayot mavjud qatlami, degan manoni anglatib, insoniyat evolyusiyasi malum bir vaqtgacha biosfera doirasida amalga oshgan. Lekin, inson tafakkuri rivojlanib borishi va insonning tabiatga tasiri natijasida uni bevosita o'rab turgan olam sifat jihatdan o'zgarib borgan. Bunday holat mutaxassislar tomonidan noosfera, deb ataladi. «Noosfera» tushunchasi yunon tilidan olingan - *noos* «aql» degan manoni anglatadi. Shunday qilib, etimologik jihatdan *noosfera* – aql doirasiga oid tushunchadir. Bu tushuncha fransuz faylasufi eduard Lerua (1870-1954) va Per Teyyar de Sharden (1881-1955)lar tomonidan XX asrning 20 - yillarida ilmiy muloqotga kiritilgan. Rus faylasufi V.I.Vernadskiy (1863-1945) tadqiqotlarida u yanada rivojlantirildi. Noosfera konsepsiyasi taraqqiyotining muhim ilmiy-falsafiy natijasi sifatida tabiat va jamiyatning *koevolyusiya*, yani o'zaro bog'liqlikda rivojlanish nazariyasi shakllangan. Texnik taraqqiyot natijasida ekologik inqirozning vujudga

¹ O'sha joyda. –B.216.

kelganligi tabiat va jamiyatning o‘zaro uzviy aloqadorligining yorqin timsolidir. Bunday inqiroz jamiyat hayoti va insoniyat kelajagi uchun jiddiy tahdid hisoblanib, uni bartaraf etish global, umumbashariy muammolar qatoriga kiradi.

2. Jamiyatning asosiy sohalari va ularning o‘zaro aloqadorligi

Ijtimoiy hayotining belgilovchi sohalari: *iqtisodiy, sotsial, siyosiy va manaviy* sohalar kiradi. Real hayotda ular o‘zaro aloqadorlikda mavjud bo‘ladi (Ilova 7.3.)

Iqtisodiy soha jamiyat rivojlanishining tabiiy va zaruriy sharti bo‘lgan moddiy nematlar – tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va istemolini taminlovchi tizimidan tashkil topadi. Vaholanki moddiy ehtiyojlarni qondirish va manfaatdorlik jamiyat iqtisodiy hayotining bosh maqsadi hisoblanadi. (Ilova 7.5.).

Kishilarning mehnat faolligi – jamiyat barqaror rivojlanishining muhim omilidir. Mulkchilik shakllarining rivojlanib borishi bilan insonning mehnatga munosabati ham o‘zgarib boradi. Inson ekspluatatsiyasiga asoslangan jamiyatda inson o‘z mehnati natijasidan begonalashadi, yani undan manaviy va iqtisodiy jihatdan manfaatdor bo‘lmaydi. erkin va mustaqil jamiyatda iqtisodiyot va manaviyatning uzviy bog‘liqligi to‘la ro‘yobga chiqadi. Faqat ozod va erkin jamiyatdagina inson mehnati moddiy, ham manaviy jihatdan qadrlanadi. Xususan, O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng, ijtimoiy yo‘naltirilgan, sog‘lom raqobat muhitiga asoslangan bozor munosabatlariga o‘tila boshlandi, davlat – iqtisodiy islohotlarning tashabbuskoriga aylandi. Inson o‘z mehnati natijalaridan manfaatdor bo‘lishi, uni o‘z kasbiga ijodiy munosabatni shakllanishiga, halol mehnatning qadriyatga aylanishiga sharoit yaratildi. Bu esa mehnat faoliyati samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Jamiyat – odamlar o‘rtasida amal qiladigan ijtimoiy munosabatlar va ijtimoiy etibor qaratilib, u turli ijtimoiy guruhlar, turli darajada uyushgan elatlar (ijtimoiy qatlam, stratalar, etnoslar, ijtimoiy demografik guruhlar, alohida jamoalar va boshqalar)

Inson sotsiumga turli guruh va birlashmalar orqali azo bo‘ladi, aynan shu doiralarda uning ijtimoiylashuvi amalga oshadi. *Ijtimoiylashuv* deganda, shaxs tomonidan muayyan jamoda o‘rnatilgan meyorlar, qadriyatlarni qabul qilishi, namunali xulq ko‘rsatmalarini bajarishi tushuniladi. Agar butun jamiyatni shartli ravishda mikrosotsium (oilalar, mahalla, sotsial guruhlar: masalan o‘quv guruhlari, mehnat yoki ijodiy jamoalari, jamoat yoki siyosiy tashkilotlar va h.k.) va makrosotsium (butun jamiyat)ga ajratilsa, shaxsning jamiyatda ijtimoiylashuvi mikrosotsial darajada amalga oshadi. Ya‘ni har bir shaxs jamiyatda sodir bo‘layotgan jarayonlarda o‘z mikrosotsiumining azosi sifatida ishtirok etadi.

Jamiyat strukturasi demografik, etnik, ijtimoiy-sinfy, joylashishiga ko‘ra hududiy, kasbiy-marifiy, konfessional tuzilishi kabi turlariga qarab tasniflanishi mumkin. Masalan, har bir shaxs yoshi, shahar yoki qishloqda yashashi, kasbi, yani mehnat faoliyatining xarakteri, qaysi etnos, konfessiya vakili ekanligiga qarab jamiyat

ijtimoiy strukturasi muayyan guruhga kiradi. Jamiyatning *demografik strukturasi* aholining tarkibini jinsi, yoshi, mehnatga yaroqliligi, aholining zichligi va umumiy soni, o'sish darajasi, migratsiyaning xarakteri, sog'lig'ining holati aks etadi.

Jamiyatning *ijtimoiy-sinfy strukturasi* sinflar, qatlamlar, tabaqalar, stratalardan iboratdir. Sinflar deganda odamlarning katta guruhlari tushuniladi. Ular xususiy mulkka egalik munosabatlari, ijtimoiy ishlab chiqarish tizimidagi tutgan o'rni, ishlab chiqarish vositalariga munosabati, mehnat taqsimoti tizimidagi roli, foyda olish usuli bilan farqlanadi. SHu bilan birga, jamiyatning sotsial strukturasi sinflarga xos xususiyatlarga ega bo'lmagan guruhlar, masalan ziyolilar, xizmatchilar va boshqalar ham kiradi.

Jamiyatning sotsial strukturasi stratifikatsiyaviy yondashuv asosida tushunishga asos solgan faylasuf Pitiriim Sorokin ¹ ijtimoiy-iqtisodiy holati, madaniy va talim darajasining umumiyliigi xos bo'lgan insonlar guruhini stratalar, ijtimoiy strukturaning ichida bir stratadan boshqasiga o'tishni esa ijtimoiy mobillik deb ataydi.

Ijtimoiy munosabatlar subektiga shaxs, oila, ijtimoiy guruhlar, etnos, millat kiradi (Ilova 7.6).

Oilaning asosini jamiyat tomonidan qonunlashtirilgan nikoh, qon-qarindoshlik aloqalari, turmushning umumiyliigi, o'zaro axloqiy burch va masuliyat tashkil etadi. Oila reproduktiv, tarbiyaviy, xo'jalik-turmushni tashkil etish, rekreativ, psixologik himoya funksiyalarini bajaradi (Ilova 7.7).

SHunday qilib, jamiyatning ijtimoiy hayoti undagi mavjud kishilar, turli ijtimoiy birliklar, va ular orasidagi turli-tuman aloqa va munosabatlarni qamrab oladi. Ijtimoiy birliklar kishilar ijtimoiy hayotining mavjudlik shakli hisoblanadi. Ularning shakllanishiga xilma-xil iqtisodiy va manaviy omillar tasir ko'rsatadi. Ijtimoiy birliklar kishilarning obektiv tarzda yuz beradigan ijtimoiy-alloqa va munosabatlar asosida shakllanadi va u tarixiy xarakterga ega.

Urug' – etnik tarkibning dastlabki ko'rinishi hisoblanadi. Urug' – insoniyat tarixining qadimiy davrlariga xos bo'lib, kishilarning birgalikda yashash, mehnat qilish ehtiyojidan kelib chiqqan. Qabilaning kelib chiqishi ham ijtimoiy ehtiyojlar tufayli sodir bo'ladi. Qabila umumiy asosga ega bo'lgan; keyinchalik o'zaro bir-biridan farqlanadigan urug'lardan iborat kishilarning tarixiy-etnik birligi hisoblanadi. Urug', qabila tipidagi ijtimoiy birliklar jamiyat taraqqiyotining quyi bosqichlarida yuzaga kelgan. Ularning uyushishi natijasida elatlar shakllanadi. elatlarning ixtiyoriy yoki zo'rlik yo'li bilan birlashuvi natijasida xalqlar uyushmalari hosil bo'lgan. Elat hudud, til madaniy jihatdan umumiylikka ega bo'lgan, iqtisodiy aloqalari shakllana boshlagan tarixiy–etnik birlik hisoblanadi.

Millat – elatlar birlashuvi natijasida hosil bo'lgan tarixiy-etnik birlik. Millat – tarixan tarkib topgan (genetik aloqador), milliy birlikni anglash ruhiyati, urf-odatlar, ananalar va qadriyatlar, til, madaniyat, mentalitetining yagonaligi asosida muayyan hududda yashovchi, iqtisodiy aloqalar bilan bog'langan kishilarning ijtimoiy barqaror birligidir. (Ilova 7.8).

¹ Сорокин П.А. Социальная и культурная динамика. М.:Астрель, 2006.

Takidlash zarurki, jamiyat azolari intellektual salohiyatining oshishi bilan birga yuksak manaviyatining ham shakllanishi jamiyatda ijtimoiy barqarorlik, totuvlik va farovonlik qaror topishining muhim omili hisoblanadi.

Jamiyatning *siyosiy sohasiga* hokimiyat masalasi atrofida mujassam bo'lgan tashkilot va muassasalar, xususan, davlat, ijtimoiy tashkilotlar va partiyalar; munosabatlar, siyosiy ong va siyosiy madaniyat kiradi. (Ilova 7.10). Uning asosini jamiyatning siyosiy tizimi tashkil etadi. Siyosiy tizim iqtisodiy, mafkuraviy, huquqiy, manaviy va boshqa tizimlar bilan o'zaro aloqadorlikda rivojlanadi. Siyosiy tizim siyosiy institutlar, ijtimoiy tuzilmalar, meyorlar va qadriyatlarning majmuasidan iborat bo'lib, siyosiy hukumat orqali amalga oshiriladi. Siyosiy tizim sotsiumning maqsadga erishish resurslarini safarbar ettiruvchi va qarorlarni ishlab chiquvchi mexanizmdir.

Jamiyat siyosiy tizimining asosi, yadrosi *davlatdir*. Davlat – mamlakat miqyosida jamiyatni uyushtirish masalalarini hal qilish, uning tashqi munosabatlarini belgilash vakolatlari bo'lgan hukmron tuzilma hisoblanadi.¹ Davlatning asosiy vazifasi siyosiy hokimiyat va siyosiy boshqarishni taminlashdir. Davlatning asosiy belgilariga: oshkora hokimiyat, aholining hududga qarab bo'linishi va hukmronlik vakolatlari amal qiladigan hududning o'zi (mamlakat), huquqiy hujjatlarni chop etish va ularning bajarilishini talab qilishga bo'lgan mutlaq huquq; soliqlar va yig'img'lar undirish, suverenitet – malum hududlarda to'liq mustaqillik kiradi. (Ilova 7.10).

Davlatning funksiyalari ikkiga bo'linadi: ichki va tashqi. Ichki funksiyalariga xo'jalik va manaviy hayotning barqaror rivojlanishi uchun sharoit yaratish, ichki tahdidlarni bartaraf etish va boshq. kiradi. Tashqi funksiyalariga tashqi tahdidlardan o'z mustaqilligini himoya qilish; davlatlar bilan hamkorlik qilish, iqtisodiy, madaniy va h.k. aloqalarini o'rnatish kiradi (Ilova 7.10).

Ayni vaqtda aynan bir davlat turli tarixiy davrlarda turlicha siyosiy tizimga ega bo'lishi mumkin. Insoniyat tarixida asosan 2 tipdagi siyosiy tizim va davlatlar shakllangan. Bular: demokratik siyosiy tizim va demokratik davlat hamda totalitar (yoki avtoritar) siyosiy tizim va totalitar davlat.

Demokratiya yunoncha so'z bo'lib, "xalq hokimiyati" manosi ifodalaydi. Demokratik davlat deganda, barcha fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklariga kafolat beradigan, hokimiyat tizimining bo'linishi asosiga qurilgan, barchaning qonun oldidagi tengligini taminlaydigan, jamiyatdagi barcha kuchlarni birlashtirib, mamlakat taraqqiyotiga safarbar qiladigan davlat nazarda tutiladi. Demokratiya insoniyat sivilizasiyasi mahsuli, davlatchilik taraqqiyoti, ijtimoiy muammolarni hal etishning eng oqilona yo'li, oqilona siyosiy tizim sifatida etirof etilgan. Demokratik davlatda xalq irodasi jamiyatni boshqarishning bosh omili hisoblanadi; aholining huquq, erkinliklari hamda manfaatlari, himoyasi, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida qonun ustivorligi taminlanadi.

Totalitar siyosiy tizimda davlat ijtimoiy hayotning barcha sohalarini yakkahokimlik asosida boshqaradi va nazorat qiladi; aholi, kishilarning har qanday

¹ Qarang: Falsafa. Ensiklopedik lug'at. –T.:O'zbekiston milliy endiklopediyasi.Davlat ilmiy nashriyoti. 2010. –B.88.

erkinligini, xususiy tashabbusni bo'g'adi, tazyiq ostiga oladi. Bunday davlat yakkapartiyaviylik tizimiga asoslanadi va unda mafkura yakkahokimligi hukm suradi; kishilarning kundalik hayotiga o'z yakkahokimlik g'oyasini singdirishning xilma-xil (masalan, zo'ravonlik-terror) usullaridan keng foydalaniladi; fuqarolardan davlat siyosatiga so'zsiz va to'la (total) itoat qilishni talab etiladi.

Boshqaruv shakllari, tuzilishi va undagi siyosiy rejimga ko'ra davlatlar turlicha bo'ladi. Davlatning boshqaruv shakllariga ko'ra monarxiya va respublika ko'rinishlari mavjud:

– Monarxiya hokimiyatning bir kishi (podsho, imperator, monarx) tomonidan boshqarilishiga asoslanadi. Respublika hokimiyat saylash orqali shakllantiriladi.

– Tuzilishiga ko'ra davlatlarning unitar, federativ va konfederativ turlari mavjud.

Mustaqil O'zbekiston demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatini barpo etishni o'z taraqqiyot yo'lining maqsadi qilib qo'ygan. Jamiyatimiz siyosiy hayotini takomillashtirish xususiyatlari Respublikamiz ijtimoiy taraqqiyotning "o'zbek modeli"da o'z ifodasini topgan bo'lib, u iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi; davlatning – bosh islohotchi ekanligi; qonunning ustivorligi; ijtimoiy himoyani kuchaytirish va bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tish tamoyillariga asoslanadi .

Hozirgi vaqtda ko'p zamonaviy davlatlar, shuningdek O'zbekiston ham *hokiyamiyatni bo'lish* prinsipi asosiga qurilgan. Hokimiyatning uch tarmog'i – qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati bir-birlaridan mustaqil ravishda o'z vazifalarini bajaradilar. Siyosiy partiya, jamoat tashkilotlari va ijtimoiy harakatlar demokratik jamiyat siyosiy hayotining tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Demokratik taraqqiyot sharoitida *fuqarolik jamiyati*, yani sotsiumning davlat tomonidan to'g'ridan-to'g'ri va bevosita boshqarilmaydigan qismi: kasaba va ijodiy uyushmalar, nosiyosiy jamoat tashkilotlari (yoshlar, ayollar, faxriylar tashkilotlari, ekologik va xayriya tashkilotlari va boshqalar), turli qiziqishlar bo'yicha tuzilgan jamiyatlar va klublar, xalq harakati va hokazolar, shu bilan birga, o'z-o'zini boshqarishning milliy modeli – mahalla jamiyat hayotida muhim rol o'ynaydi. Demokratiya sharoitida huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati rivojlanib borgan sari "Kuchli davlatdan – kuchli jamiyatga o'tish tamoyili" amal qilib boradi.

Jamiyatning *manaviy sohasi* – bu manaviy ishlab chiqarish jarayoni va natijalarining birligidir. Jamiyatning manaviy hayoti uzviy bir-biriga bog'liq jarayonlar tizimidan iborat. Bu tizimning asosiy elementlarini manaviy ehtiyoj, manaviy faoliyat, manaviy o'zlashtirish va manaviy munosabatlardan tashkil topadi. Jamiyatning manaviy hayoti manaviy ehtiyojlarni qondirishga yo'naltirilgan. Manaviy ehtiyoj deganda, manaviy qadriyatlarni yaratish va o'zlashtirish ehtiyoji nazarda tutiladi.

Manaviyat insonning shaxsiy manfaatlari va sodda ehtiyojlari doirasidan chiqa olishlik, individual maqsad va hayotiy intilishlarini milliy, umuminsoniy qadriyatlar bilan o'zaro uyg'unlikda anglash qobiliyatidir. Manaviyatning har qanday ko'rinishlarida asosiy o'rinni axloq egallaydi.

Manaviyatga individual va ijtimoiy ong (jamiyat azolarining ongi) kiradi. Ijtimoiy ong muayyan ijtimoiy ong shakllari va ijtimoiy ong darajalaridan tashkil topadi. Ijtimoiy ong iqtisodiy, axloqiy, diniy, estetik, siyosiy, huquqiy, falsafiy, tarixiy, ekologik shakllarga bo‘linadi. SHu bilan birga, ular kundalik, yani ijtimoiy psixologiya va nazariy, yani ideologiya darajasida namoyon bo‘ladi. Ommaviy ong jamiyat azolarining kundalik hayotida ro‘y berayotgan voqea va hodisalar tasirida ijtimoiy psixologiyasidagi o‘zgarishlarni va ularning xususiyatlarini aks ettiradi. (Ilova 7.12).

O‘z manosi va hajmiga ko‘ra manaviyat rasionallik tushunchasiga nisbatan kengroqdir. Chunki, manaviyat bilim olish bilan cheklanmasdan, bilim olishning manosi va maqsadlarini, uning qadriyaviy ahamiyatini anglab etishni ham aks ettiradi. Shu bilan birga, manaviyat dunyoviy va diniy bo‘lishi mumkin. Haqiqiy manaviylikda dunyoviylik, ilmiylik va diniylik bir-birlariga qarama-qarshi qo‘yilmaydi, aksincha jamiyat manaviy hayotining uch xil tomoni sifatida qaraladi. Bashariyat tarixidan malumki, ularning uyg‘un holda rivojlanishi sivilizatsiyaning gullab-yashnagan davrlariga to‘g‘ri keladi. Fan va texnika rivojlanib borishi bilan manaviyatga, xususan, ilmiy-texnik taraqqiyot natijalarining manaviyatga (aniqrog‘i manaviyatsizlik) tasiri, ommaviy madaniyatning kuchayishining salbiy jihatlarga etibor kuchayib boradi.

Zamonaviy jamiyatning to‘laqonli rivojlanishi nafaqat yuqori texnika va texnologiyalar asosiga qurilgan iqtisodiyotga, balki yuksak darajada qaror topgan manaviyatga ham bog‘liq. Manaviyatning o‘zagini esa haqiqiy, mo‘tadil, siyosiy lashmagan din, halol mehnat va ezgu amallarni etirof etuvchi iymon- e‘tiqod tashkil etadi. Xususan, IX-XI asrlarda Markaziy Osiyo, Yaqin va O‘rta Sharqda diniy va dunyoviy ilmlarning nisbatan uyg‘un holda rivojlanishi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-marifiy hayotning taraqqiyotiga olib kelgan. Shuningdek, Sohibqiron Amir Temur hukmronlik davriga kelib, tasavvufning Markaziy Osiyoda keng tarqalgan naqshbandiya tariqatini: "Diling Allohda, qo‘ling mehnatda bo‘lsin!" degan bosh g‘oyasi, ilm-fan, madaniyat va barcha bunyodkorlik ishlarining tag zaminini tashkil etgan. O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar" to‘g‘risidagi qonunning qabul qilinishi, Toshkent Islom universitetini, keyinroq Islom Akademiyasining tashkil etilishi, Toshkentda "Islom sivilizatsiyasi markazi"ning ochilishi, mamlakatimizda islom dini, manaviyati va marifati rivojlanishiga salmoqli hissa qo‘shgan olimu ulamolar o‘tgan qadamjolarini qayta tiklanishi va tamirlanishi kabi davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan nihoyatda muhim sayi harakatlar jamiyatimiz manaviy hayotiga qaratilayotgan jiddiy etiborning timsolidir.

Shunday qilib, faqat fan-texnikani rivojlantirishga urg‘u berilishi texnokratizmga, quruq foyda va moddiy boyliklarning ketidan quvish xudbinlik va molparstlikka, manaviy qashshoqlikka olib kelgani kabi dinni biryoqlama tushunish mutaassiblikning rivojlanishiga sabab bo‘ladi. Dinsiz odam esa o‘zini qonundan tashqarida his etadi. Insoniyat tarixidan turli davrlarda jamiyatning bunday biryoqlama rivojlanishining salbiy oqibatlarini aks ettiruvchi misollarni ko‘plab keltirish mumkin.

Manaviylikning eng asosiy tomonlaridan yana biri milliy o'zini-o'zi anglashdir. Milliy o'zini-o'zi anglash ijtimoiy ongning alohida ko'rinishi bo'lib, unda milliy hayot o'z aksini topadi. Millatlarning hayotida yuz berayotgan o'zgarishlar ularning nafaqat hozirgi va kelajakdagi, balki o'tmishdagi manaviyatlarining ham qanday bo'lganligi to'g'risida o'ylashga majbur qiladi.

Milliy o'zini-o'zi anglash hodisasi ongning yuqori darajasi bo'lib, u insonning faqat o'zini-o'zi tushunib, anglab etishi bo'lmasdan, uning o'z o'ziga, imkoniyatlariga, holatlariga bo'lgan munosabatini ham bildiradi. Bular to'liq manoda milliy o'zini-o'zi anglashga ham tegishlidir. Demak, milliy o'zini-o'zi anglash – bu o'zini-o'zi baholashi hamdir.

Hozirgi davrdagi milliy jarayonlarning rivojlanishini hisobga olib, ko'p tadqiqotchilar milliy o'zini-o'zi anglash bu millatning zaruriy, muhim belgilari deb hisoblamogdalar.

Shunday qilib, jamiyat taraqqiyotida nafaqat tabiiy-geografik muhit, balki aholi, uning intellektual salohiyati, moddiy va manaviy qadriyatlarni ishlab chiqarish ham muhim ahamiyatga ega.

3. Madaniyat va sivilizatsiya. Sivilizatsiya rivojining asosiy bosqichlari va dinamikasi

Madaniyat insonni boshqa barcha tabiiy-biologik dunyodan ajratib turuvchi murakkab va serqirra hodisa bo'lib, ijtimoiy hayotning barcha sohalariga daxldordir. *Madaniyat* atamasi (arab tilida – shaharga xos, qayta ishlov berilgan)ning hozirgi zamon fanida 600 dan ko'proq tariflari mavjud. Eng umumiy ko'rinishda madaniyat – inson faoliyati jarayoni, uning natijasida yaratilgan moddiy va manaviy qadriyatlar, ularni yaratish usullari va texnologiyalari, shu faoliyat tasirida inson tafakkurida, manaviy dunyosida yuz beradigan rivojlanishni aks ettiradi.

Madaniyat – murakkab tizim sifatida ijtimoiy hayotda quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

Yaratuvchilik vazifasi. Bu madaniyatning bosh vazifasi bo'lib, inson faoliyati davomida moddiy va manaviy qadriyatlar yaratiladi.

Marifaiy (gnoseologik) vazifa. Uning mohiyati shundan iboratki, madaniy qadriyatlar dunyoni bilish orqali yaratiladi. Madaniyatning tarkibiy qismi bo'lgan fan, aynan shu vazifani bajaradi. Bunda bilishning obekti tabiat, jamiyat va insonning o'zi hamdir.

Informasion (axborot etkazuvchi) vazifa. Uning vazifasi doirasiga ijtimoiy tajribani to'plash (jamg'arish), uni bir avloddan avlodga etkazish, yani tarixiy vorislikni taminlash kiradi. Axborot etkazish gorizonttal (makoniy) xususiyatga ega bo'lishi mumkin, yani bunda axborot bir vaqtning o'zida bir xalq yoki jamoadan boshqasiga etkaziladi. Shuningdek u vertikal (davriy) xususiyatga ega bo'lishi mumkin, yani bunda axborot bir avloddan boshqasiga manaviy meros shaklida etkaziladi va vorisiylikda namoyon bo'ladi.

Kommunikativ (aloqa o'rnatish) vazifasi. Bunda axborot nutq (til), ramziy shakl va belgilar (sanat), ilmiy bilimlar (fan) vositasida amalga oshiriladi. Jamiyatning taraqqiyot darajasi qancha yuqori bo'lsa, bevosita aloqa shunchalik

ko'p darajada bilvosita, yani texnik vositalar yordamida (telefon, telegraf, internet va hokazolar bilan) amalga oshiriladi.

Meyoriy (boshqaruvchilik) vazifasi. U o'z ifodasini ijtimoiy boshqaruvchilik (avvalo, huquqiy va axloqiy meyorlar) tizimini shakllantirishda topadi. Bunda norasmiy boshqaruv vositalari bo'lgan urf-odatlar, marosimlar, ananalar ham muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Sotsializatsiya (ijtimoiylashuv) va adaptatsiya vazifasi. Bu insonning maksimal darajada jamiyatning manaviy qadriyatlarini qabul qilishi va muayyan ijtimoiy muhitga moslashishida o'z ifodasini topadi.

Qadriyatlilik (baholash) vazifasi. Zamonaviy falsafiy adabiyotlarda madaniyat moddiy va manaviy qadriyatlarni, yani shaxs va jamiyat uchun foydali ahamiyatga ega bo'lgan narsa va hodisalar, aloqalarni yaratish (generatsiya), mustahkamlash (assimilyatsiya), uzatish (translyatsiya), ko'paytirish (multiplikatsiya)ning ko'pbosqichli mexanizmi sifatida qarash ham mavjud.¹ Bunda madaniyat yangilikni yaratish bilan bog'liq jarayon sifatida inson ijodiy (kreativ) faoliyatining mahsuli sifatida namoyon bo'ladi.

Inson o'z faoliyati davomida qadriyatlarni tanlaydi, ularga baho beradi. Baholash –subektning o'z hayoti va faoliyati uchun hodisalarning ijtimoiy ahamiyatini aniqlashidir. U sezgi, idrok, tasavvur va tafakkur darajasida, emotsiyalar va tuyg'ular, mulohazalar, mayllar, istaklar, intilishlar va, albatta, faoliyat ko'rinishida ro'yobga chiqadi. Baholash insonga hodisalar dunyosida mo'ljal olish imkonini beradi, uning faoliyatini yo'lga soladi.

Inson narsa va hodisalarga ularning foydali ahamiyati nuqtai nazaridan ajratib oladi. Bunday holatda nimalardir barham topadi, qandaydir narsalar paydo bo'ladi, qayta shakllanadi. Bu obektiv jarayon bo'lib, shaxs va jamiyatning ehtiyojlaridan kelib chiqadi.

Har bir avlod madaniy rivojlanishni bo'sh joydan emas, balki o'zidan oldingi avlodlar yaratgan qadriyatlarni o'zlashtirishdan boshlaydi. Bu o'zlashtirish madaniyat rivojini yuqoriroq bosqichga ko'tarish yo'lidagi tayanch vazifasini o'taydi. Mana shu ikki jarayon - eskilik bilan yangilik o'rtasidagi obektiv zaruriy bog'lanish vorislikning mohiyatini tashkil etadi. Lekin o'tmish madaniy merosini millat manaviy dunyosining tarkibiy qismiga aylantirish uchun uni ijodiy o'zlashtirish, unga yangi mazmun va mano berish zarur. SHu o'rinda chinakam o'zbek falsafasining metodologik asoslarini yaratishga salmoqli hissa qo'shgan faylasuf, akademik Xaydar Po'latov aytganidek, ilm-fan, madaniyatni rivojlantirish uchun, avvalo «inkorni emas, ko'proq idrok qilishni» o'rganishimiz kerak.² Busiz madaniyat rivojlanishini taminlab bo'lmaydi. SHu manoda oqilona yangilanish – madaniyat rivojlanishining zaruriy sharti hisoblanadi.

Shunday qilib, madaniyat ijtimoiy fenomen sifatida muayyan qonuniyatlar asosida rivojlanadi. Vorisiylik va doimiy yangilanish – madaniyat rivojlanishining eng muhim qonuniyatlaridir.

¹ Философия. Учебник. Под ред.С.А.Лебедева. – М.:ЭКМО. 2011. – С.411-412.

² Qarang: Pulatov X. Inkorni emas, ko'proq idrokni o'rgansak-chi...//Sizni yaxshi ko'rar edim,odamlar. –T.:Fan.1994. –B.68.

Madaniyatni nisbiy ravishda manaviy va moddiy madaniyatga bo‘lish mumkin. Moddiylik va manaviylik bir-biriga muqobil bo‘lmasdan, ular bir-biriga o‘zaro taʼsir qiluvchi va o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi ijtimoiy rivojlanish omillaridir. Moddiy madaniyat tushunchasi sivilizatsiya tushunchasi bilan uzviy bog‘liq.

«Sivilizatsiya» (lot. *civilis* – fuqarolarga, davlatga xos), tamaddaun – 1) keng manoda – ongli mavjudotlar mavjudligining har qanday shakli; 2) madaniyat so‘zining sinonimi; 3) madaniyatning zamon va makondan chegaralangan tarixiy tipi (Misr sivilizatsiyasi va boshq.); 4) yovvoyilik va vahshiylikdan keyingi ijtimoiy taraqqiyot bosqichi¹ sifatida shuningdek, geografik jihatdan farqlanuvchi birliklar (Sharq va G‘arb sivilizatsiyasi) ni; diniy mansubligiga ko‘ra (islom sivilizatsiyasi va boshqalarga) bo‘linishi sifatida tushunilishi mumkin.

Sivilizatsiya tushunchasi XVIII asrda shakllangan bo‘lib, ko‘p yillar davomida aksariyat hollarda madaniyat bilan bir xil manoli tushunchalar sifatida talqin etib kelingan. Ilk bor ularning o‘rtasida yaqinlik va tafovut mavjudligiga buyuk nemis faylasufi I. Kant etibor qaratgan. XX asr boshlariga kelib, nemis faylasufi Osvald Shpengler «Evropa Quyoshining so‘nishi» asarida madaniyat va sivilizatsiya tushunchalarini bir-biriga qarama-qarshi qo‘ydi. U sivilizatsiya deganda texnik-mexanik jarayonlar majmuini nazarda tutdi. O. Shpengler fikricha, sivilizatsiya madaniyatning eng yuqori bosqichi bo‘lib, undan keyin esa madaniyat asta-sekin inqirozga yuz o‘giradi.

SHu davrdan boshlab, madaniyat va sivilizatsiya faylasuflarning diqqat markazida turgan asosiy masalalar qatoriga qo‘shildi. Zamonaviy falsafada madaniyat va sivilizatsiyaning o‘zaro aloqadorlikda rivojlanishi zarurligiga alohida etibor qaratilmoqda. Bunda sivilizatsiya jamiyat hayotining moddiy tanasi deb qaralsa, madaniyat – uning joni, ruhi sifatida talqin etilmoqda.² YAni bunda – sivilizatsiya moddiy madaniyatni, madaniyat tushunchasi esa – manaviy qadriyatlarni anglatmoqda. Ushbu manoda sivilizatsiya tushunchasi inson tomonidan yaratilgan moddiy boyliklar, xususan ishlab chiqarish, transport vositalari, texnika va texnologiyalar, insonlarning turmush tarzi va hokazolarni qamrab oladi. Fan taraqqiyoti, uning amaliyotga tatbiq etilishi, talim-tarbiya tizimi va uni amalga oshirish usullaridagi innovasion o‘zgarishlar ham sivilizatsiya yutuqlari hisoblanadi. Hozirgi davrda sivilizatsiyalashganlik ko‘proq qulaylik tushunchasi bilan ayniylashtirilmoqda. Uning mohiyatini sanoat istemol vositalarini yaratish tashkil etmoqda, ayni vaqda u jamiyat rivojlanishining mezoni hisoblanmoqda.

Xalqlar, davlatlar, mintaqalar rivojlanishidagi o‘ziga xos farqlar sivilizatsiyalararo tafovutlarni tashkil etadi. Shu bilan birga, *sivilizatsiya* ko‘proq turli mamalakatlarining moddiy taraqqiyotdagi umumiylikni, *madaniyat* esa manaviy taraqqiyot sohasidagi o‘ziga xoslikni aks ettiradi.

Madaniyatning rivojlanishida fan, texnika va texnologiyadagi sifatiy o‘zgarishlar muhim ahamiyatga ega. Insoniyat tarixida *yozuvning paydo bo‘lishi, kitob nashr*

¹ Qarang: Falsafa. Ensiklopedik lug‘at. –T.: O‘zbekiston milliy endiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. 2010. –B.298.

² Философия. Учебник. Под ред. С.А. Лебедева. – С.433.

etishning ixtiro qilinishi eng buyuk texnologik kashfiyotlardan bo‘lib, madaniy qadriyatlarni saqlash, ularni ayriboshlash, bir avloddan boshqasiga etkazib berish imkoniyatini yaratgan bo‘lsa, *hozirgi zamon ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlari* (radio, kino, televidenie, axborot kompyuter texnologiyalari, internet va hokazolar) tufayli ulardan foydalanish jarayoni rivojlanib, ommaviy tus oldi. Lekin ilmiy-texnika taraqqiyoti imkoniyatiga mos keladigan umumiy madaniy saviyaning keskin o‘shishi hali yuz bermadi. Chunki madaniy saviya shaxsning manaviy madaniyatini shakllanishi bilan bog‘liq murakkab jarayon bo‘lib, u marifat, talim, tarbiyaga borib taqaladi. Madaniyatning keyingi rivojlanishi esa sivilizatsiya yutuqlaridan gumanistik, yani shaxs va jamiyatning ravnaqi yo‘lida, avvalo tinchlik va barqarorlikni taminlash maqsadlarida foydalanishga bog‘liq.

Jamiyat rivoji – tabiiy-tarixiy jarayondir. Tarix falsafasida jamiyatning chiziqli va chiziqsiz, formasion va sivilizasion rivojlanish konsepsiyalari mavjud. Masalan, chiziqli rivojlanish g‘oyasiga ko‘ra, jamiyat malum vaqtga qadar quyidan yuqoriga, oddiydan murakkabga ilgarilanma, progressiv rivojlanib boradi. *Progress* (lot. progressus – ilgarilanma harakat) – obektning tashkillik darajasining oshib borishi bilan bog‘liq orqaga qaytmaydigan sifatiy o‘zgarishdir. Bunda muayyan sivilizatsiyaning paydo bo‘lishi, rivojlanib takomil bosqichiga etishi va malum vaqtdan keyin esa so‘nib, intihosiga etishi – regress tarzida tushuniladi. *Regress* (lot. regressus – orqaga yo‘naltirilgan harakat) –obektning tashkillik darajasining pasayib borishi bilan bog‘liq orqaga qaytmaydigan sifatiy o‘zgarishidir.

Jamiyatning formasion konsepsiyasi inqilobiy rivojlanish g‘oyasiga asoslangan. Lekin tarixda jamiyatning inqilobiy rivojlanish usuli ham nazariy, ham amaliy jihatdan o‘zini oqlamagan. Mashhur tarixchi va faylasuf olimlar Arnold Toynbi, Nikolay Berdyayev, Vladimir Solovevlar ijtimoiy inqilobni jamiyat rivojining tormozi, tadrijiy rivojlanishga nisbatan ancha past, hech qanday ijobiy samara bermaydigan, ko‘plab yo‘qotishlarga olib keluvchi, sivilizatsiyani tanazzulga yuz tutayotganligining ko‘rsatkichi sifatida tavsiflaganlar.

Bugungi kunda falsafada jamiyat rivojini sinergetik metodologiya asosida, o‘zini-o‘zi tashkil etuvchi, tadrijiy rivojlanuvchi murakkab tizim sifatida tahlil etish ustivorlik qilmoqda. Bunday yondashuvga ko‘ra, tashqi muhit yoki boshqa tasirlar natijasida tizimning alohida elementlarida yuz beradigan "nosozliklar"ning oldini olish uchun uni doimo yangilash, modernizatsiyalash yuqori samara beradi. *Modernizasiya* (fran. moderisatio, moderne – yangi, zamonaviy) – jamiyatni zamonaviy talablarga muvofiq takomillashtirish maqsadida xilma-xil o‘zgartirishlarni amalga oshirishdan iborat ijtimoiy-tarixiy jarayonni ifodolovchi tushunchadir.

XX asr o‘rtalariga kelib, G‘arbda insoniyat tarixi rivojlanishini sivilizasion yondashuv asosida tushuntirish shakllandi. Unga ko‘ra, har bir jamiyat o‘z tarixiy rivoji dovomida uchta: agrar, industrial va postindustrial bosqichlarni bosib o‘tadi. So‘nggi postindustrial bosqich ayrim mutaxassis olimlar tomonidan axborotlashgan sivilizatsiya deb ham yuritiladi. Jamiyatning eng takomil bosqichini bunday atalishi bejiz emas. Chunki, XXI asrga kelib, ilm-fan, texnika va texnologiyalar tezkor rivojlanib, buning natijasida ilmiy axborot har besh yilda ikki baravar ko‘payib,

yangilana boshladi. Inson mazkur axborotlarni o'zlashtirmasdan turib o'z hayot faoliyatini samarali tashkil eta olmasligi tufayli jamiyatda sifatli talim va tarbiyaga ehtiyoj oshib, manaviy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan yuqori malakali mutaxassislar sivilizatsiya ravnaqining belgilovchi omiliga aylandi.

Shunday qilib, uchinchi ming yillikka kelib, insoniyat yangi, shu bilan birga, turfa manoli reallik bilan yuzma-yuz kela boshladi. Bu avvalo, fan, texnika, yangi texnologiyalarning jadal rivoji va jamiyatning bir qator sohalari taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lsa, boshqa jihati – hal etilishi murakkab umumbashariy muammolarga oiddir. Bu muammolarning zaminini madaniyatning o'z axloqiy asoslaridan ajralib qolishi, moddiy boyliklarga ortiqcha ruju qo'yilishi, hayotning manosini tor utilitar-pragmatik tarzda tushunish kabi shaxs manaviyatiga tegishli sabablar tashkil etadi. Shuning uchun ham yangi strategiyalarni tanlash muammosi bilan to'qnash kelgan insoniyat ularning echimini topish maqsadida Sharq falsafasiga murojaat eta boshladi. Negaki, manaviy qadriyatlarning ustuvorligi, shaxs kamolotiga oid masalalar aynan Sharq falsafasi, xususan, Markaziy Osiyolik mutafakkirlar tomonidan mukammal bayon etilgan.

Shunday qilib, jamiyat va tarix falsafasini o'rganish natijasida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Jamiyat – bu insonlar o'rtasidagi munosabatlarning yaxlit o'z-o'zini tashkil etuvchi tizimi. Jamiyatning asosini insonning muayyan maqsadga muvofiq ravishda atrof muhitni qayta qurishga yo'naltirilgan faoliyati tashkil etadi.

2. Jamiyat doimo rivojlanuvchi tizim bo'lib, ijtimoiy hayotini harakatga solib turuvchi bosh omil insonning ehtiyojlaridir.

3. Jamiyatning barcha: iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va manaviy sohalari o'zaro uzviy aloqadorlikda mavjud. Bu aloqadorlik madaniyat va sivilizatsiya tushunchalarning o'zaro bog'liqligida o'z ifodasini topadi.

4. Jamiyat rivojini o'zini-o'zi tashkil etuvchi, tadrijiy rivojlanuvchi murakkab tizim sifatida tahlil etib, tashqi muhit yoki boshqa tasirlar natijasida uning alohida elementlarida yuz beradigan "nosozliklar"ning oldini olish maqsadida uni doimo yangilash, modernizatsiyalash zarur.

5. Bashariyat tarixi betakror madaniyat va sivilizatsiyalartarixidir. Lekin, ular uchun umumiy bo'lgan jihat – sivilizatsiya tanazzulning har doim manaviy tanazzuldan boshlanishidir. Demak, manaviyat doimo jamiyatning diqqat markazida turuvchi asosiy masalalardan bo'lishi kerak.

6. XXI asrga kelib, ilm-fan, texnika va texnologiyalar tezkor rivojlanishi, inson mazkur axborotlarni o'zlashtirmasdan turib o'z hayot faoliyatini samarali tashkil eta olmasligi tufayli jamiyatda sifatli talim va tarbiyaga ehtiyoj oshib boradi, manaviy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan yuqori malakali mutaxassislar sivilizatsiya ravnaqining belgilovchi omiliga aylanadi.

Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar

1. Jamiyatning paydo bo'lishi haqida qanday konsepsiyalarni bilasiz?
2. Jamiyatning falsafiy tarifini bering.
3. Jamiyatning iqtisodiy sohasi qanday elementlardan tashkil topgan?
4. Jamiyatning siyosiy tizimini qanday tushunasiz?
5. Davlat qanday funksiyalarni bajaradi?
6. Bizning davlatimiz va hokimiyat strukturalarining asosiy vazifalariga nimalar kiradi?
7. Ijtimoiy hayotning qanday sohalari mavjud?
8. Ijtimoiy struktura nima?
9. Etnik umumimiyat nima?
10. Ijtimoiy stratifikatsiya va mobillik konsepsiyasining mohiyatini qanday tushunasiz?
11. Oilaning ijtimoiy funksiyalari nimalarda namoyon bo'ladi?
12. Madaniyat va sivilizatsiya o'zaro aloqador tushunchalarmi?
13. Millat nima, uning mohiyatini qanday tushunasiz?
14. Biz insonparvarlik, ijtimoiy adolat g'oyalari yoki buzg'unchilik, terrorizm, millatlararo adovat g'oyalariga befarq bo'lishi mumkinmi?
15. Siz, G'arb – doimo kashf etgan, Sharq esa – qabul qilgan, degan g'oyaga qanday qaraysiz? O'z nuqtai nazarinigizni asoslab bering.

8-mavzu. Falsafiy antropologiya (Inson falsafasi)

Inson borlig'ining o'ziga xos xususiyati. Inson borlig'i tabiiy rivojlanishning butunlay yangi, yuqoriroq bosqichi ham tegishli va uning tabiiy-jismoniy, biologik asosi hisoblanadi. Falsafa tarixida inson individualligining ichki, yashirin holatini aks ettiruvchi «jon» va «ong» tushunchalarining tahliliga alohida etibor qaratilgan.

Jumladan atoqli sofistlardan biri Protagor (mil. av. 490-420 yillar) mil. av. V asrdayoq «inson barcha narsalar mezonidir: u mavjud narsalarning mavjudligini, yo'q narsalarning esa yo'qligini belgilaydi», deb qayd etgan edi. Suqrot (mil. av. 469-399 yillar) ham haqiqat izlab insonga murojaat etadi. Inson o'z joni faoliyatini boshqara oladi, shu bois dunyoni tushunish yo'li o'z-o'zini bilish orqali o'tadi, deb hisoblaydi. Suqrotning mashhur shogirdi Platon birinchi bo'lib jon haqidagi yaxlit talimotni yaratdi. U odamlar jonining qandayligiga qarab ularni har xil tiplarga ajratdi.

Keyingi davrlarda Seneka, R.Dekart, A.Navoiy, A.Jomiy, I.Kant, I.G.Fixte, J.P.Sartr, M.Xaydegger va boshqa mutafakkirlar insonning manaviy negizini birinchi o'ringa qo'yib, uning ongi, manaviy dunyosi va bilish qobiliyatlarini o'rganish ishiga salmoqli hissa qo'shdilar. Biroq XXI asrda deyarli ikki yarim yillik tarixiy taraqqiyot jarayonida ham inson muammosi o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Inson borlig'ida ongning tabiati. Ong inson borlig'ining eng muhim xossasi. Ong muammosini echishga nisbatan yangicha yondashuvlar hozirgi zamon

falsafasining irratsionalistik oqimlariga (lot. Irra Ongning tabiati.) mansub. Ong muammosi o'ta murakkab muammolardan biri bo'lib, falsafada doim qizg'in bahs va munozaralarga sabab bo'lib kelgan. Bu bahs va munozaralar hozir ham tugagani yo'q.

Ongning tabiati shunday: u hissiy idrok etiladigan obektiv borliqni tushunish va aks ettirish uchun biz yuqorida foydalangan aksariyat ko'rsatkichlar va tavsiflarga mos kelmaydi. Ongni o'lchash, biron-bir tarzda miqdoriy ifodalash, sezish yoki kuzatish mumkin emas, zero uning massasi ham, energiyasi ham yo'q, shuningdek u moddiy obektlar kabi muayyan shakl-shamoyilga ham ega emas.

Ong shak-shubhasiz mavjud, ammo u mavhum bo'lib, balki bilvosita – odamlar tili va muayyan faoliyati orqali namoyon bo'ladi. Binobarin, inson borlig'ining bu elementlarini tahlil qilmasdan ongning mohiyatini aniqlash mumkin emas. Mazkur tahlil ongning biologik jihatini ham o'z ichiga oladi, zero uning mavjudligi inson bosh miyasi faoliyati bilan uzviy bog'liq. SHu sababli ongning tabiati nafaqat falsafada, balki fiziologiya, psixologiya, sotsiologiya, kibernetika, informatika va boshqa ijtimoiy va tabiiy fanlarda ham o'rganiladi.

Ayni vaqtda mazkur muammo o'ta murakkabligi tufayli uning falsafiy talqini ayrim fanlar uchun muhim metodologik rol o'ynaydi. Ularning natijalari esa, o'z navbatida, ongning tabiati xususidagi falsafiy mulohazalar uchun asos bo'ladi. Ongning tabiati masalasining qo'yilishi va unga berilgan tegishli javob, odatda, barcha keyingi falsafiy, chunonchi: ontologik, gnoseologik, ijtimoiy va boshqa mavzulardagi mulohazalarning yo'nalishini belgilaydi.

Atrof muhitda, o'z ichki dunyosida yuz berayotgan o'zgarishlarga odamlar qadim zamonlardayoq etibor berganlar. Bu jon va ruh haqidagi mulohazalar paydo bo'lishiga olib kelgan. Shu tariqa bashariyat tarixida animizm - odamlar, hayvonlar hayoti, narsalar va hodisalarga jon va ruhlar tasir ko'rsatishiga bo'lgan e'tiqod paydo bo'ldi, shu asnoda shakllangan dunyo haqidagi tasavvurlar keyinchalik u yoki bu tarzda turli dinlar negizini tashkil etdi. Jon haqidagi ilk falsafiy tasavvurlar odatda muayyan birinchi asoslar (havo, olov, atomlar harakati va sh.k.) bilan bog'langan va shaxssiz bo'lgan, yani inson tabiatining betakrorligi, uning individualligi bilan tenglashtirilmagan. Suqrot dan oldingi falsafa to'laligicha shunday xususiyatga ega bo'lib, bu erda ideallik tushunchasini deyarli uchratmaymiz. Masalan, olovni oqil va olijanob, suvni – tuban asos deb hisoblagan Geraklit jon (psixeya) olov yoki suvdan iborat bo'ladi, degan g'oyani ilgari suradi. Olov ko'proq bo'lgan «quruq» jonni - eng oqil va maqbul deb hisoblaydi. Jon namlangach, o'z kuchini yo'qotadi, ho'langach esa – halok bo'ladi. Shu sababli jon olovi kuchliroq yonishi uchun faol manaviy va aqliy hayot kechirishga harakat qilish lozim. O'z navbatida ayrim kishilarning jonlari butun dunyoning birinchi sababi hisoblanadigan va uni boshqaradigan dunyoviy aql olovi – «logos» bilan bog'liq.

Suqrot va Platon moddiy va ideal hodisalarni farqlagan. Shuningdek, Platon Evropa falsafiy ananasida ideal asosni qayd etibgina qolmasdan, balki undan moddiy asosni ham keltirib chiqargan birinchi faylasuf hisoblanadi. Ayrim inson ongi esa, Platon fikriga ko'ra, uning joni bilan bevosita bog'lanadi. Bu o'lmas jon u

yoki bu tanaga, tana tug'ilgunga qadar o'z «zindoni»ga tushgandek kirib joylashadi va u o'lganidan keyin esa boqiy g'oyalar dunyosida mushohada yuritadi va shu tariqa ularni o'rganib yashaydi. Platon ruhiy hodisalarni tuyg'ular dunyosi (sezish va idrok etish) va intellektga ajratadi. Intellektda u aql va idrokni farqlaydi. Bunda sof g'oyalar bilan ish ko'ruvchi aql fikrlashning formal usullari bilan bog'liq (masalan, matematikada) idrokka qaraganda yuksakroq hodisadir. Shuni alohida takidlash lozimki, keyinchalik falsafada ideal narsalar va hodisalarni tushunishga nisbatan ko'p sonli har xil yondashuvlar paydo bo'ldi, ammo ularning barchasi ideallikni moddiylik va ko'lamlilikka qarshi qo'yadi.

Aristotelning «Jon haqida» risolasini qadimgi yunon faylasuflarining ong haqidagi falsafiy mulohazalarining muayyan yakuni deb hisoblash mumkin. Bu erda jon tananing mohiyati, uning uyushtiruvchi tamoyili sanalsa-da, lekin aql ichki faolligining inikosiga emas, balki kosmos hayotining umumiy qonunlariga bo'ysunadi.

O'rta asrlar Evropa falsafasi «din cho'risi»ga aylanib, ong haqidagi masalaga butunlay o'zgacha nuqtai nazar bilan yondashdi – uni abadiy mavjud bo'lgan dunyoni, shu jumladan inson va uning jonini yo'qlikdan yaratgan Xudoning yagona dunyoviy asos sifatidagi talqini bilan bog'ladi. Bu talimotga binoan inson aqli ilohiy aqlning bir zarrasi sifatida muayyan darajada o'zini o'zi bilish, o'zini o'zi tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lsa-da, ongning bu faoliyati Tangrini bilish va u bilan muloqot qilishga qaratilgandir. Ongning mazkur obektiv-idealistik talqini bilan bir qatorda o'rta asrlarda ongni «fikrlovchi materiya»dan keltirib chiqargan materialistik ananada ham uzilish yuz bergani yo'q. Bunday qarashlarga Sharq falsafasi (Ibn Sino, Ibn Rushd) o'z tasirini ko'rsatgan evropalik ayrim faylasuflar Duns Skot, brabanlik Sigerning asarlarida duch kelish mumkin.

Seneka qalb, ruh etukligini, hurligini birinchi o'ringa qo'yadi. “SHunday narsani izoxlash kerakki, - deb yozadi u shogirdi Lutsiliyga, - hech nima unga hukmronlik qilolmasin, hech nima unga g'ov bo'laolmasin. Bu nima deysanmi? U mag'rur, oliyjanob, yuksak ruhdur. Uni kishi vujudidan joy topgan xudodan boshqa narsa deyish mumkinmi?.. Vujud biqirligidan kechib ko'kka intil va shoir aytganidek, o'z ruhingni Xudoga monandligini namoyon et. Ruhning hurligi uchun tilla ham kerak emas, kumush ham, chunki haqiqiy xudo timsolini yasab bo'lmaydi. Esla xudolar bizga xayrixoh bo'lganlarida ular loydan edilar... Komil ruhni qarzga ham, sotib ham olib bo'lmaydi”¹.

Seneka nazarida ezgulik, poklik, adolat va etuklik izlagan kishi eng avvalo o'z ruhini ilohiy talablarga monand qilishi darkor. Ilohiylik – bir timsol, simvol, unga etish kishi ixtiyoridadir. Kishi qaerda yashamasin, nimalarni izlamasin, kimlarga hamroh bo'lmasin o'zining ruhini poklamaguncha, uni yuksaklikka yo'naltirmaguncha hayotdan zavq, orom, buyuklik topolmaydi. “Yashash joyingni emas, ruhingni o'zgartir, - deb yozadi Seneka, - qancha ko'p kezsang, shuncha ruhing iztirobga botadi. Kema uchun bab-baravar ortilgan yuk emas, balki notekis ortilgan yuk halokat keltiradi”². Ruh bezovta, xasta ekan kishini hech qanday

¹ Ўша ерда. –Б. 66.

² Ўша ерда. –Б. 79.

olamgardlik, tomosha, hazz-huzur qutqara olmaydi. Qaerda va kim bilan emas, qanday qalb, ruh bilan yashashing muhim. “ruhim hur bo‘lsin desang, biror makonga butun dildan bog‘lanma. Men biror burchak uchun tug‘ilmaganman, butun mening vatanim, degan e‘tiqod bilan yasha”¹. Bir qarashda faylasuf kosmopolitizm tarafdori bo‘lib ko‘rinadi, biroq barcha rimliklar kabi u ham o‘z vatanining fidoiysi edi. Bu o‘rinda Seneka vatansiz yashashni emas, balki ruhiy osudalikni targ‘ib etadi.

Faylasuf kishidagi barcha illatlar uning qalbi, ruhidagi nopok tuyg‘ular tufaylidir deb biladi. Bazi kishilar boshqalarni pok, sofdil, ezgu amalli, xushaxloq ko‘rishni istaydi, hatto ulardan ilohiy sifatlarni talab etadi, O‘zida yo‘q xislatlarni boshqalardan talab etish zo‘ravonlik bo‘lmasa-da, axloqsizlikdir. O‘zi dardmand kishi o‘zganing dardiga darmon bo‘lolmaydi; qalbi nopok kishining o‘zgalardan poklik talab etishi nokaslikdan boshqa narsa emas. Boshqani to‘g‘rilashdan oldin o‘zingni to‘g‘irla. “O‘z aybingni bilish, ruhni sog‘lom tutish tomon tashlangan birinchi qadamdir”². Kim o‘z qalbini sog‘lom ko‘rishni istamasa, o‘zidagi illatlardan xolos bo‘lmoqchi emas; kim nuqsonlarini eshitishdan qochsa, o‘z nuqsonlarini ezgulik deb biladi; kim poklanishni ixtiyor etmasa, unga hech kim dars berolmaydi. Ruhning poklanishi, sog‘lom bo‘lishi uchun nima qilish kerak? Seneka, eng avvalo “etuk donishmandlik ilmi” falsafa bilan shug‘ullanish lozim, deb javob beradi.

“Qadimdan bizgacha etib kelgan bir odat bor, - deb yozadi Seneka, - maktublar “Agar sen sog‘-salomat bo‘lsang, men ham sog‘-salomatdirman” deb boshlangan. Biz ham, “Agar sen falsafa bilan shug‘ullansang juda ham yaxshi”, deyishimiz zarur. Chunki haqiqiy sog‘-salomatlik falsafada, usiz ruh hamda tana, ularda qancha kuch va quvvat bo‘lmasin, xastadir. Shuning uchun: eng avvalo haqiqiy sog‘-salomatlik haqida qayg‘ur, keyin esa qolganlar haqida”³. Kishi bilaklarini toblash uchun qo‘llarini, elkalarini mashq qilib turadi. Ammo tana mashqlari chegaralangan, bel va bilak qanchalik baquvvat bo‘lmasin, ular ho‘kizni yiqolmaydi; umuman odamning hayvonga monand kuch yig‘ishi oriflik emas.

Odamni ongli mavjudotga aylantirgan uning aqlidir. Aql donishmandlikka intilib odam ruhini buyuk qiladi. Donishmandlik orqaligina kishi baxtiyor sezadi o‘zini; o‘zini baxtiyor sezmagani baxtiyor ham, ozod ham emas. “Mubarro yashashni istasang falsafaning quli bo‘l”⁴.

O‘z illatlarini bilgan va ularni enggan o‘limdan qo‘rqmaydi; o‘lim ruhimizni qiynaydigan azoblardan biri emas, u oxirgi azobdir. Faylasuf stoiklar ananasini davom ettirib yozadi: “Bazmu ziyofatlardan oshqozon buziladi, ichkilikbozliklardan tomirlar qotadi va titraydi, shahvatdan qo‘l, oyoq, bo‘g‘imlar zaiflashadi. Men qashshoqlashsam, demak, ko‘pchilikka qo‘shilaman, badarg‘a qilinsam, borgan joyimni makon bilaman, zanjirband qilsalar — tashvish nega? Axir men hozir ham zanjirband emasmanmi? Tabiat meni o‘z tanamga bandi etib qo‘ymaganmi? Men o‘lamanmi? Demak, men endi xasta bo‘lmayman, zanjirband qilinmayman, o‘lim

¹ Ўша ерда. –Б. 83.

² Эпикур. Этика. –М., 1977. –С. 47.

³ Сенека Л.А. Нравственные письма к Луцилию. – Кемеровское книж. изд-во., 1986. –С. 87.

⁴ Ўша ерда. –Б. 39.

xavfidan xoliman”¹. Shunday qilib xulosa qilamiz. Umuman o‘limni tabiiy holdek kutib olishga davat stoiklar falsafasidagi bosh g‘oyalardan biri hisoblanadi. Unga ko‘ra, kishi tug‘ilganidan o‘lim tomon boradi, go‘daklik, o‘smirlik, yoshlik, qarilik yagona haqiqat — o‘limga eltadi. Umrini xushbaxt o‘tkazmoqchi bo‘lgan kishi esa hayot quvonchlariga ham, o‘lim qo‘rquvlariga ham befarq yashaydi, o‘lim mubarro ruhni bezovta qilolmaydi. Donishmand o‘z qismatidan qochmaydi, hayotini oxiri kelganida tark etadi. Hayotdan qochish boshqa, uni tark etish boshqa; birinchisi — ruhning zaifligi, ikkinchi buyuk borliq hukmidir. “Yashash emas, munosib yashash muhim; erta o‘lasanmi yoki keyin — ahamiyati yo‘q, yaxshilik bilan yashadingmi yoki yomonlik bilan mana — nima zarur”². Ikki ming yil oldin bitilgan ushbu nasoyihlar — nasihatlar moziy qaridan emas, manaviy-axloqiy etuklik izlayotan zamondoshimiz qalbidan chiqayotgan davatlardek eshitilmaydimi?..

Gilozoizm talimoti. *Qadimda jon - pnevma, psyu-xe, fantom, mana, kvintessensiya deb nomlangan. Jon (lot. anima) hayvon, inson va hatto o‘simlik tanasida yashaydigan va uni uyqu paytida yoki o‘limdan so‘ng tark etadigan alohida kuch sifatida namoyon bo‘lgan.* Bundan uning etimologik talqini, yani jonni nafas, nafas olish va nafas chiqarish sifatida tushunish kelib chiqqan. Jon uch tarkibiy qismdan iborat mohiyatga aylangan: hayotbaxsh nafas o‘simlik joni deb, psyuxe – ruhiy jon, nus esa – aqlli jon deb atala boshlagan. Jonni tushuntirish o‘ta og‘ir muammoga aylangan (ayniqsa materialistik fikrlovchi faylasuflar uchun). Bu alohida turdagi teran materiyaga, ko‘z bilan ko‘rib bo‘lmaydigan ichki mohiyatga shubha tug‘ilmasligi uchun ular butun tabiatni jonli deb elon qilganlar. Demak *gilozoizm butun tabiatning jonli ekanilgi tan olishdir.*

Platonning «Davlat» asarida jon tarkibiy qismlarining boshqacha ierarxiyasi keltiriladi: oqilona jon, emotsional-qahrli jon, buzuq jon. Ular tegishli ravishda bosh, ko‘krak va qorin bo‘shlig‘ida joylashgan. Aristotelning «Jon haqida» deb nomlangan risolasida jon va tana bir-biridan ajralmas mohiyatlar sifatida tavsiflanadi, jon haqidagi talimot esa hayot va uning shakllari haqidagi umumiy talim sifatida tushuniladi. O‘simliklar joni, hayvonlar joni va aqlli mavjudot – inson jonini farqlar ekan, Aristotel rivojlanish g‘oyasini ruhiyatga tatbiqan bilvosita tariflaydi. Uning fikricha, jonning yuqorida zikr etilgan uch tarkibiy qismi insonda yaxlit bir butunga birlashadi va turli funksiyalar: ovqatlanish, his qilish va mulohaza yuritishda namoyon bo‘ladi. Jon unsurlarining barchasi tana unsurlari bilan uzviy bog‘lanadi, ammo ular eng avvalo kosmik harakatlarga bog‘liq bo‘ladi. Antik davrda jon alohida hayotbaxsh kuch, ichki manaviy asos sifatida tushunilgan bo‘lsa-da, uning faqat o‘z faolligi sifatida tushuntirilgan.

O‘rta asrlar falsafasida jon – dunyoviy va ilohiy faoliyat o‘rtasida bog‘lovchi bo‘g‘in, degan umumiy tasavvur shakllanadi. Foma Akvinskiy (1226–1274) jon insonni «aktuallashtiradi», uning asl mohiyatini belgilaydi, degan fikrni ilgari suradi. *Jon imkoniyatlarini Foma potensiyalar deb ataydi.* Ular besh xil bo‘ladi: o‘shish, hissiy idrok etish, o‘z xohish-irodasini ifodalash, makonda harakatlanish, aql yordamida dunyoni tushunish. Ayrim potensiyalar tana bilan bog‘liq bo‘lsa, bazilari,

¹ Сенека Л.А. Нравственные письма к Луцилию. – Кемеровское книж. изд-во., 1986. –С. 98.

² Ўша ерда. –Б. 100.

masalan, o'z xohish-irodasini ifodalash va aql yordamida dunyoni tushunish ko'proq oliy asosga bo'ysunadi. Ammo tana zarur, chunki u jonning barcha potensiyalarini birlashtirishni taminlaydi.

CHerkov otalari uchun jon faqat e'tiqodlar tizimiga mos keladigan yoki mos kelmaydigan bir mohiyatni o'zida ifodalaydi. Jonning normal faoliyatini taminlash ruhoniyning vazifasi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan jon shaxsiy hayot omili sifatida emas, balki yo'lga solish lozim bo'lgan jamoa-umumiy mohiyat sifatida talqin qilinadi. Jonning moddiyligi g'oyasi cherkov mulozimlari tomonidan taqiqlanadi. Aql va jon Xudo atributlari sifatida sharhlanadi. Faqat jonning panoh topishi haqida qayg'urish lozimligi takidlanadi, zero jon o'lmas, inson tanasi esa o'tkinchidir.

Yangi davr Evropa falsafasida jon tushunchasi shaxsning teran, ichki dunyosi bilan ayniylashtirilgan. Xususiy tashabbus va tadbirkorlikning rivojlanishi insonning manaviy intilishlari qadriyat sifatida anglab etilishiga turtki bergan. Shunga qaramay jonning jismoniy kelib chiqishi haqidagi konsepsiya unutilmaydi. Fransuz faylasufi Jyulen Lametri (1709–1751) hatto jon qaysi organdan o'rin olishini ham ko'rsatadi. «Biz tubanlashuvimiz uchun barcha kishilarning joni yashaydigan miyamizda zarracha o'zgarish yuz berishining o'zi kifoyadir». «...Bizning jonimiz ehtiyojlarimizga bevosita bog'liq bo'ladi, ularni misli ko'rilmagan tezlikda qondiradi va bu ehtiyojlarga hech narsa qarshi bora olmasligi haqida ogohlantiradi»¹.

Jonda butun dunyo o'zining to'liq tajassumini topadi. U serqirradir. Fransuz faylasufi va matematiki Blez Paskal (1623–1662) jon ruhiy parvozlarining Cheksiz darajada rang-barangligi, uning nozikligi, betakrorligi va beqarorligidan taajjublanib, inson jonining mohiyatini formula bilan ifodalash mumkin emas, u haqda faqat hayotni o'rganish va inson xulq-atvorini kuzatish orqali hukm chiqarish mumkin, degan xulosaga keladi. Jonning mazkur xususiyatlari teran manaviy asoslarni ichki darajadan sirtga chiqaradi. Jon individuallikning asosi sifatida amal qiladi.

Shunday qilib, falsafa tarixida mavjud jon haqidagi tasavvurlar o'z-o'zicha to'g'ri, biroq to'liq emas. Mazkur noyob fenomenni tushuntirish uchun energetik, dinamik va temporal mezonlar zarur. Adabiyot va sheriyatda, kundalik muomalada jonning bezovtaligi, uning mayllari va harakatlari haqida ko'p gapiriladi. Jon azaldan muayyan faol kuch, harakat manbai, energiya toki va harakatlantiruvchi asos sifatida tushuniladi. Tana dam jonni ifodalash maydoni sifatida, dam jon «go'ri» sifatida qaraladi. Psixoanalitik K.Yung jon ham, uning ishi ham ko'pchilik uchun ko'rinmas ekanligiga etiborni qaratar ekan, jon uchun muhim omillar ondan tashqarida bo'lsa kerak, deb taxmin qiladi. «Faqat tunda ochiladigan gullar» haqida gapirar ekan, Yung, «jon, barcha manaviy asoslar yaratiladigan va shakllanadigan vaqt oralig'ini belgilaydi»² deb takidlaydi.

Falsafiy oqimlar, maktablar va yo'nalishlarning deyarli barchasi jonni anglab etish, oqilona tahlil qilish mumkin bo'lmagan, teran hodisa sifatida tavsiflaydi. Ayni

¹ Каранг: Ламетри. Сочинения. – М., 1983. – 237–238-б.

² Каранг: Юнг К. Архетип и символ. – М., 1991. – 210-б.

paytda jonga ishora qiluvchi, jonning bokiraligi, uning ichki kuchlari haqida bahs etuvchi mavzular doirasi behad keng.

Ekzistensializm asoschisi daniyalik faylasuf S.Kerkegor (1813–1855) o‘z izlanishlari natijasida jonni tanlash mumkin va bu har kimning o‘z xohish-istagiga bog‘liq, degan muhim xulosaga keladi. Individual ruhiy olam, intim ichki dunyoning mavjudligi inson hayotini mushkullashtiradi va ong fenomenini anglab etish muammosini yanada og‘irlashtiradi. Ammo o‘z o‘zligini saqlab qolish huquqi Erda yashaydigan har bir insonning uzviy huquqi hisoblanadi.

Ong haqidagi tasavvurlarning rivojlanishi. Yangi davrda ong haqidagi tasavvurlar ancha kengaydi. R.Dekart (1596-1650) ongni tafakkur bilan tenglashtirib, uni umumiyroq tUSDagi «ruhiyat» tushunchasidan ajratdi va ongni mustaqil, erkin fikrlovchi substansiya deb hisoblab, yonma-yon joylashgan boshqa – ko‘lamli, fikrlamaydigan, moddiy substansiyaga qarshi qo‘ydi. Dualizm deb nomlangan mazkur falsafiy yondashuv keyinchalik ongning tabiatini tushunishga nisbatan ikki qarama-qarshi yondashuv yuzaga kelishiga zamin hozirladi. Shulardan biri ruhiyni jismoniyga (Gobs); manaviyni – moddiyga bog‘lash bilan tavsiflanadi. Ikkinchi yondashuv subektiv (Berkli, Yum, Fixte, Max va boshqalar) va obektiv (Platon, Foma Akvinskiy, Gegel) idealizm bilan bog‘liq bo‘lib, moddiy va jismoniy narsalar va hodisalarni ikkilamchi, ideal, manaviy, ruhiy narsalar va hodisalar mahsuli deb tushunishi bilan ajralib turadi.

Ikkala yondashuv ham nemis klassik falsafasida faol rivojlantirildi. Masalan, Gegel individual ongga butun rivojlanish negizi sanalgan mutlaq g‘oyaning pirovard shakllaridan biri sifatida yondashdi. Bu erda ong tarixan belgilangan faol asos sifatida tushuniladi. Mazkur asosda uning tuzilishi darajalari, xususan, hissiy, mantiqiy, individual va ijtimoiy darajalar farqlanadi.

Byuxner, Foxt, Moleshott kabi faylasuflar ongga «vulgar materializm» nuqtai nazaridan yondashadi. Bu yondashuvga ko‘ra ong sof moddiy jarayon sifatida talqin qilinar, uning mazmuni esa inson eydigan oziq-ovqat mahsulotlarining kimyoviy tarkibi bilan bog‘lanar edi. Ular jigardan safro ajralganidek, aqldan fikr ajraladi, deb hisoblagan.

Tabiatshunoslikning rivojlanishi, ayniqsa neyrofiziologiya, biologiya, eksperimental psixologiya sohasida qo‘lga kiritilgan yutuqlar so‘nggi yillarda bizning ong tabiati haqidagi tasavvurlarimizni sezilarli darajada kengaytirdi. SHunga qaramay, suniy intellekt yaratish borasidagi ishlar, «fikrlovchi mashinalar»ning paydo bo‘lishi va «axborot portlashi» va kompyuter inqilobining boshqa natijalari, xususan shaxmat o‘yinida hatto jahon chemionlarini ham yutishga qodir superkompyuterlarning yaratilishi inson ongining mohiyati va imkoniyatlari haqidagi masala yangidan qo‘yilishiga sabab bo‘ldi. Shunday qilib, avvalgi savollarga javob olish barobarida yangi muammolar ham paydo bo‘ldi. Biroq ular ong muammosini echishga nisbatan har xil, bazan bir-birini istisno etuvchi nuqtai nazarlar va falsafiy yondashuvlar sonini aslo kamaytirgani yo‘q.

Ongsizlik. Ong insonning ichki dunyosi sifatida o‘z strukturasi ega. Uni o‘rganishdan oldin quyidagi holatga etiborni qaratish lozim. Bazan «ong» tushunchasi «inson ruhiyati» tushunchasi bilan ayniylashtiriladi. Bu noto‘g‘ri.

Ruhiyat – ongga qaraganda murakkabroq tuzilma bo‘lib, u aks ettirishning ikki sohasi – ong va ongsizlikni o‘z ichiga oladi.

Olimlar insonda onglilik va ongsizlikning o‘zaro nisbati to‘g‘risida so‘z yuritar ekanlar, bazan ularni okeandagi muztoqqa o‘xshatadilar. Bu muztog‘ning suv ustidagi ko‘zga ko‘rinadigan qismi ongga qiyoslanadi, suv ostidagi ko‘rinmaydigan qismi esa ongsizlikka o‘xshatiladiki, uning miqyosi, shakli, tuzilishi va mazmuni haqida biz bilvosita belgilarga ko‘ra faqat taxmin qilishimiz mumkin. *Ongsizlik sohasi – bu aqldan tashqaridagi ruhiy hodisalar, holatlar va harakatlar majmui*, deb hisoblash odat tusini olgan. Bu sohaga, eng avvalo, *instinktlar* – inson xulq-atvorining uzoq tadrijiy rivojlanish jarayonida hosil bo‘ladigan va har bir mavjudotning hayot funksiyalarini, umuman uning mavjudligini taminlashga qaratilgan tug‘ma harakatlari majmui kiritiladi. Ongsizlikni (ong osti) tushunish yanada ko‘proq qiyinchilik tug‘diradi. Uning mavjudligi avstriyalik mashhur psixiatr Z.Freyd (1856-1939) tomonidan XX asr boshida aniqlagan.

Har xil tushlar, gallyusinatsiyalar, xayoldan ketmaydigan g‘oyalar, intuitsiya va shu kabilar ongsizlikning namoyon bo‘lish shakllariga misol bo‘lishi mumkin. Ular odamlar ruhiyati va xulq-atvoriga kuchli tasir ko‘rsatadi, lekin ayni vaqtda bu jarayonlarni boshqarish nuqtai nazaridan ularga bo‘ysunmaydi. Shu sababli *ongsizlik ongning muayyan lahzada ong bilan boshqarishga qodir bo‘lmagan parchasi, deyish mumkin*¹.

Ongsizlik strukturasi ong sohasida vujudga kelishi va vaqt o‘tishi bilan ongsizlik sohasiga kirishi mumkin bo‘lgan intuitsiya va avtomatizmlarni ham kiradi. *Intuitsiya* – bu olish yo‘llari va shartlarini anglamasdan, bevosita hissiy kuzatish yoki mushohada yuritish yo‘li bilan olinadigan bilim. *Avtomatizmlar* – bu avval ong nazorati ostida paydo bo‘lib, uzoq mashq qilish va ko‘p karra takrorlash natijasida ongsiz harakatlar xususiyatini kasb etuvchi insonning murakkab harakatlari. Tush, gipnoz holati, somnambulizm hodisalari, hushsizlik holatlari ham ongsiz harakatlar hisoblanadi.

Ruhiy faoliyatga ongsiz harakatlarning qo‘shilishi natijasida ongga tushuvchi yuk kamayadi, bu esa, o‘z navbatida, insonning ijodiy imkoniyatlari maydonini kengaytiradi. Hozirgi zamon fani *ong osti sohasi* tushunchasi bilan ham ish ko‘radi. Bu ongsizlik sohasining alohida qatlami yoki darajasidir. Unga faoliyat amallarining ong darajasidan avtomatizm darajasiga o‘tishi bilan bog‘liq ruhiy hodisalar kiritiladi.

Ongsizlik va ong inson yagona ruhiy borlig‘ining nisbatan mustaqil bo‘lgan ikki tomoni hisoblanadi; ularning o‘rtasida tez-tez ziddiyatlar, bazan konfliktlar yuzaga keladi, lekin ular bir-biri bilan bog‘langan, bir-biri bilan o‘zaro aloqa qiladi va uyg‘un birlikka erishishga qodir. Ongsizlik sohasida inson hayot faoliyatini, ayniqsa subektning ijodiy faoliyatini oqilonalashtirish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Bu hol irratsionalistik falsafiy talimotlarning shakllanishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Ularda ongsizlikning turli shakllari: instinktlar, intuitsiya va shu kabilar inson xulq-atvorining salmoqli yoki hatto hal qiluvchi kuchi hisoblanadi.

¹ Каранг: Шрейдер Ю.А. Загадочная притягательность философии (субъективне заметки) // Вопросы философии. 1996. №7. – С.168.

Irratsionalizmning taniqli namoyandalari orasida *Artur SHopengauer* (Germaniya), *Syoren Kerkegor* (Daniya), *Fridrix Nitsshe* (Germaniya), *Eduard Gartman* (Germaniya), *Anri Bergson* (Fransiya), *Zigmund Freyd* (Avstriya), *Martin Xaydegger* (Germaniya) kabilar ongs izlik muammosini tahlil qilganlar. Xususan, Zigmund Freyd yaratgan inson xulq-atvori modelining zamirida inson ruhiyatida jinsiy mayllarning hukmronligi haqidagi tasavvur yotadi. Mazkur mayllar ong bilan to‘qnashadi va natijada uni o‘ziga bo‘ysundiradi. Ammo falsafiy maktablarning aksariyati o‘zgacha nuqtai nazarni ilgari suradi. Ular inson ruhiyatida etakchi asos ong bo‘lib, u ongsizlik sohasini «oziqlantirish» va uni ko‘p jihatdan shakllantirish orqali umuman olganda uni boshqarishga, shuningdek inson xulq-atvorining umumiy strategiyasini belgilashga qodir, deb hisoblaydi.

inson miyasining obektiv borliqni ideal obrazlarda aks ettirish va bu obrazlardan fikrlash jarayonida foydalanish qobiliyati. Uni bevosita kuzatish mumkin emas. Ong faqat inson miyasi ishining natijasi, uning xossasi sifatida, shuningdek ong namoyon bo‘lishining fikrlar, g‘oyalar, e‘tiqodlar, qadriyatlar, mo‘ljallar va shu kabilar tarzida ifodalangan turli shakllari orqali tadqiq etilishi mumkin.

Individual ong borlig‘ini odatdagi makon va vaqt koordinatalarida tavsiflash mumkin emas. U nafaqat doim «shu erda va hozir» mavjud bo‘ladi, balki go‘yoki makondan tashqarida yotadi, chunki biron-bir hajm yoki miqdoriy o‘lchanadigan chiziqli ko‘rsatkichlar bilan ifodalanishi mumkin emas. Vaqtda u (dalil sifatida, hodisa sifatida), har qanday narsaning borlig‘i kabi, faqat hozirgi zamonda mavjud bo‘ladi, zero u o‘tmishda yo‘q bo‘lgan, kelajakda esa hali mavjud emas. Biroq, moddiy narsalar borlig‘idan farqli o‘laroq, ong bir qancha o‘ziga xos xususiyatlar, chunonchi: vaqt shkalasi bo‘ylab o‘tmishga ham, kelajakka ham bir lahzada ko‘chish, ilgari mavjud bo‘lgan narsalar, yuz bergan voqealarni xayolda aks ettirish, paydo bo‘lishi, yuz berishi mumkin bo‘lgan narsalar va voqealarni tasavvurda gavdalantirish qobiliyatiga egadir. Ammo o‘tmish yoki kelajakning ideal obrazlari hisoblangan ongni uning haqiqiy borlig‘ida o‘z ekranida tasvirlarni almashtiruvchi aylanuvchan kaleydoskop bilangina taqqoslash mumkin.

Shaxs – insonning uni qurshagan boshqa odamlar tomonidan qanday idrok etilishi, tavsiflanishi va baholanishini aks ettiruvchi ijtimoiy hodisa. Shaxs faqat jamiyatda, o‘ziga o‘xshash odamlar bilan muloqot qilish, o‘tgan avlodlar to‘plagan tajriba va bilimlarni, o‘ziga qadar yaratilgan qadriyatlar va xulq-atvor qoidalarini o‘zlashtirish orqali shakllanishi mumkin. Shuning uchun ham shaxs bo‘lish – ijtimoiy «qiyofa»ga ega bo‘lish demakdir. Bularning barchasi ijtimoiy borliqning turli holatlari va jarayonlarini tavsiflaydi. Ularni to‘la yoritish ijtimoiy falsafa muammolarining butun majmuini tahlil qilishni taqozo etadi.

Ijtimoiy ong borlig‘i borliqning boshqa barcha shakllaridan butunlay farq qiladi. Yaxlit holda olingan ijtimoiy «organizm» hayvonlar podasidan butunlay farq qiladi. Jamiyatning bu o‘ziga xos, betakror xususiyati falsafada «ijtimoiy ong», «jamo aqli», «obektivlashgan manaviyat» va hokazolar deb ataladi. U har xil shakllarda namoyon bo‘ladi. Bu fikrni isbotlash uchun muloqot, kommunikatsiya, odamlarni tarbiyalash va ularning ijtimoiylashuvi vositasi sanalgan tilni ko‘rib

chiqamiz. Tilning ayrim kishilar ongi, g'oyalari, fikrlari bilan uzviy bog'liqligi aniq, ammo hozirgi zamon fani nuqtai nazaridan til ijtimoiy tabiatga ega ekanligi ham shubhasiz. Xuddi shuningdek til - inson nutqi odamlar jamiyatida paydo bo'lgani va faqat shu erda mavjud bo'lishi mumkin. Uning tashqi og'zaki, ovoz ko'rinishi, mazmuni, teranligi, kengligi, boyligi ko'plab avlodlarning ko'p asrlig o'zaro aloqasi va o'zaro kamol topishi mahsulidir. Bunda ayrim inson u yoki bu tilni faqat muloqot jarayonida o'zlashtiradi. Ayni holda umuman til haqida so'z yuritilmoqdaki, u tabiiy ham, suniy ham bo'lishi mumkin.

Individual manaviy borliqdan farqli o'laroq, ijtimoiy manaviy borliq haqida uning fan, sanat, din, axloq va umuman madaniyat tarzidagi ko'rinishlariga qarab hukm chiqarishimiz mumkin. Xususan, u yoki bu ilmiy g'oyalarning paydo bo'lishi doim muayyan olimlar bilan bog'liq, ammo fan ijtimoiy hodisa sifatida muayyan shaxslar bilan bog'lanmaydi, zero u ayrim olimlar ilgari surgan nazariy qoidalar majmuidan yuqoriroq darajada turadi. Bosma, audiovizual va boshqa axborot manbalari, tegishli asbob-uskunalar va shu kabilsiz fanni tasavvur qilish mumkin emas. U yaxlit hodisa sifatida mustaqil borliqqa ega. Bugungi kunda, kompyuter texnologiyalari inqilobi davrida fan jamiyatning bevosita ishlab chiqarish kuchiga aylandi.

Sanat sohasi haqida ham shunday deyish mumkin. Qo'shiqlar, raqslar va musiqa o'z muayyan ijrochilariga ega bo'lgani holda, o'zining odatlar, rasm-rusumlar va ideallar ko'rinishidagi nisbatan mustaqil hayoti bilan yashaydi va shu tariqa ijtimoiy makon va vaqtda harakatlanib saqlanishi, takomillashishi va ko'payishi mumkin.

Ijtimoiy ongning yana bir o'ziga xos xususiyati shundaki, u, individual ongdan farqli o'laroq, o'z «tanasi»ni «tark eta» olmaydi, xuddi shuningdek u o'z «tanasi»dan, yani jamiyatdan tashqarida mavjud bo'lishi ham mumkin emas. SHu sababli ijtimoiy ong asrlar mobaynida abadiy mavjud bo'lgan, yo'q qilib bo'lmaydigan narsa sifatida qaralgan, uning borlig'i esa butun insoniyat borlig'i yo'q bo'lishi bilan barham topishi mumkin, deb hisoblangan.

Ammo XX asrning o'rtalarida odamlar o'z-o'zini qirg'in qilish vositasi – yadro qurolini yaratdilar va shu paytdan etiboran insoniyat o'zining «umrboqiyli»ni yo'qotdi va endilikda u, yashab qolishga harakat qiluvchi ayrim jonli organizm kabi, ijtimoiy hayotni o'z-o'zini qirg'in qilishdan asrab, o'z ijtimoiy borlig'ini saqlash haqida qayg'urishi lozim..

Ong falsafiy muammo sifatida. Ratsionalizmdan farqli o'laroq irratsionalizm (irrationalis – nooqilona, ongsiz) borliqni oqilona anglash imkoniyatini cheklaydi, bazan esa butunlay inkor etadi. Xususan, neofreydizmning atoqli namoyandalaridan biri K.G.Yung (1875-1961) ongni ilmiy vositalar bilan bilish mumkin emas, deb hisoblagan va unga tarif berishga urinishlardan butunlay voz kechib, uni rasmlar va metaforalar yordamida tavsiflash bilangina kifoyalanishni taklif qilgan. Ongni tushunish irratsionalizm ekzistensializm va neopozitivizm kabi falsafiy oqimlarga ham xosdir.

Irratsionalizmga zid o'laroq, ongni tushunishga nisbatan falsafiy yondashuv onging paydo bo'lishini materiyaning o'zi bilan tushuntirishga intilish, ayni vaqtda

uning tabiat va vaqtdan tashqarida hamda nomoddiy kelib chiqishini inkor etish bilan tavsiflanadi. Bunday qarashlarni asoslash uchun ilmiy va amaliy yutuqlardan doim keng foydalanilgan. Mazkur yo‘nalish turli davrlarda sezuvchi, fikrlovchi materiyaning farqi va o‘ziga xos xususiyatlari nimada?, degan mushkul savollarga javob izlagan.

Mazkur muammoni to‘la va uzil-kesil tushunganlikni davo qilmasdan, shuni qayd etish mumkinki, hozirgi zamon fani *o‘zini bevosita yoki bilvosita namoyon etuvchi ong inson miyasining ish jarayoni hisoblanadi, uning funksiyasi sifatida amal qiladi va undan ayri holda namoyon bo‘lmaydi*, deb etirof etadi.

Hozirgi zamon fani inson miyasida yuz milliarddan ortiq asab hujayralari uzluksiz ishlashini, ularning har biri o‘z navbatida boshqa o‘n ming hujayra bilan axborot va signallar almashishini aniqlagan. Inson miyasi, garchi uning massasi tana massasining atigi ikki-uch foizini tashkil etsa-da, organizm ovqatdan oladigan butun energiyaning yigirma foiziga yaqinrog‘ini istemol qiladi.

Mazkur o‘ta murakkab biologik «kompyuter» ishini tadqiq etish mumkin bo‘lib, bu bilan maxsus fanlar shug‘ullanadi, ammo falsafa bunday tadqiqotlarni etiborga olib, o‘z oldiga birinchi navbatda ongning tabiati qanday, degan savolga uning vujudga kelishi va genezisini o‘rganish yo‘li bilan javob berish vazifasini qo‘yadi. Bunda falsafa inson miyasining funksiyasi sanalgan ongni o‘rganish bilangina cheklanmaydi, balki masalani kengroq qo‘yadi: ongning boshqa shakllari, xususan o‘zga moddiy tuzilmalardan paydo bo‘lgan ong shakllari mavjud bo‘lishi mumkinmi?, degan savolga javob izlaydi. Shuningdek, falsafa ongning materiyadan oldin paydo bo‘lgan yoki u bilan mutlaqo bog‘liq bo‘lmagan mohiyat hisoblanishini nazarda tutadigan talimotlarni ham istisno etmaydi.

Shunga qaramay bugungi kun nuqtai nazaridan inson aqli tushunishga qodir bo‘lgan borliqqa tayanadigan falsafiy g‘oyalar ishonchliroq xususiyat kasb etadi. SHu manoda ong haqida hozircha faqat inson miyasi faoliyati munosabati bilan aniq so‘z yuritish mumkin.

YAngi tabiiy-ilmiy malumotlar olinishi ongning tabiatini tushunishga nisbatan materialistik yondashuvlar mavqeini kuchaytirmoqda. Ammo, kezi kelganda shuni takidlab o‘tish lozimki, bu o‘ta murakkab masala xususida falsafaning materialistik yo‘nalishi vakillari o‘rtasida ham yagona fikr mavjud emas. Masalan, XX asrning 50-yillari oxirida AQSH va Avstraliyada ilmiy materializm vujudga keldi. U «vulgar materializm» ananasini davom ettirib, mohiyat etibori bilan manaviy hodisalarni miyaning fizik holatlari bilan tenglashtirdi (R.Rorti, G.Feygl, D.Armstron va boshqalar). 70-yillarda AQSH va Kanadada yana bir falsafiy yo‘nalish – «emerjentistik materializm» shakllandi (ingl. emerge – yuzaga chiqish, paydo bo‘lish, yuzaga kelish). Uning vakillari – M.Bunge, J.Margolis va boshqalar individul ruhiyat va ongning evolyusion kelib chiqishi g‘oyasini himoya qilib, ruhiy hodisalarni jismoniy hodisalarga bog‘lashga qarshi chiqdilar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ongning ilmiy konsepsiyasi hozircha eng mukammal va hozirgi zamon tabiatshunosligi talablariga ko‘proq darajada javob beradigan falsafiy konsepsiya bo‘lib qolmoqda. Ayni shu sababli unga quyida mufassalroq to‘xtalamiz.

Ongning paydo bo'lishini faqat notirik materiyadan tabiiy yo'l bilan vujudga kelgan tirik materiyaning tadrijiy rivojlanishi mahsuli sifatida tushuntirishga harakat qilinishi va ong tabiatining talqiniga «inikos» tushunchasini kiritilishi ongning falsafiy konsepsiyasidir. Ong materiyaning umumiy xossasi, inikosning oliy tipi deb tavsiflanadi va ongning genezisiga tabiiy-tarixiy nuqtai nazardan yondashilib, uning paydo bo'lishi mehnat va til bilan bog'lanadi.

Til va ong. *Ong nafaqat insonning mehnat faoliyati, balki odamlar o'zaro aloqasi va muloqotining universal vositasi – til bilan ham uzviy bog'liqdir. Aniq, tushunarli nutqning paydo bo'lishi, nafaqat ijtimoiy munosabatlar, balki insonning o'zi, uning ongi rivojlanishining butunlay yangi va qudratli vositasiga aylandi, chunki biologik omil (irsiyat)dan tashqari odamlarda til yordamida yanada qudratliroq omil – tajriba va muhim axborot berishning ijtimoiy usuli paydo bo'ldi. Bu turli avlodlar va tarixiy davrlarning bilimlari, ananalari, madaniyatlarining vorisligini taminladi, so'nggi zikr etilgan hol esa, o'z navbatida, tilning yanada rivojlanishi va takomillashuviga turtki berdi va zamin hozirladi.*

SHunday qilib, mehnat, ong va til bir-biri bilan shu darajada uzviy bog'landiki, ulardan har birining kelib chiqishi va tarixiy rivojlanishini bir-biridan alohida tasavvur qilish mumkin emas. Bunda til insonning fikrlash faoliyati amalga oshuvchi muhim shakl hisoblanadi, mehnat esa, o'z navbatida, tilni rivojlantiradi va boyitadi.

Xullas, individning ongi ijtimoiy belgilangandir, yani u faqat jamiyatda shakllanadi va undan tashqarida paydo bo'lishi mumkin emas. U nafaqat kelib chiqishiga ko'ra, balki borliq usuli jihatidan ham ijtimoiy hodisa hisoblanadi, chunki odamlarning xulq-atvori, harakatlarida namoyon bo'ladi, ularning faoliyat yo'nalishini belgilaydi.

Ongning strukturasi va funksiyalari. Ong strukturasi birinchi elementi – *bilim*. Bu ongning bosh tarkibiy elementi, uning o'zagi, mavjudlik vositasi. Bilim – bu insonning voqelik haqidagi tushunchasi. Inson ongida bilim anglab etilgan hissiy va mavxum mantiqiy obrazlar sifatida aks etadi. Bilimlar yordamida inson o'zini qurshagan dunyoni va bilishning predmetini to'laligicha qamrab olishi va anglab etishi mumkin.

Ong strukturasi ikkinchi muhim elementi *emotsiyalardir*. Inson o'zini qurshagan dunyoni sovuqqonlik va befarqlik bilan emas, balki qoniqish, nafrat yoki hamdardlik hissi bilan anglab etadi. U o'z ongida aks etgan hamma narsani his qiladi. Emotsiyalar borliqning real hodisalarini individ anglab etishini yo rag'batlantiradi, yo bunga to'sqinlik qiladi. Ko'zni quvontiradigan narsalar xotiraga osonroq o'rnashadi. Ammo bazan dunyoning «ko'zni quvontiradigan» manzarasi o'ziga mahliyo qilishi, illyuziyalar tug'ilishiga sabab bo'lishi ham mumkin. Ongning uchinchi tarkibiy elementi *iroda* hisoblanadi. Iroda inson o'z faoliyatini ongli ravishda, izchillik bilan boshqarishini o'zida ifodalaydi. Bu insonning o'z faoliyatida yuzaga keladigan, subektiv va obektiv qiyinchiliklar va to'siqlardan ongli ravishda oshib o'tishni talab etadigan vazifalarni hal qilishga o'z ruhiy va jismoniy kuchlarini safarbar etish va yo'naltirish qobiliyatidir. Inson mehnat qurollarini yaratishi – bu irodani shakllantirishning birinchi va eng muhim

maktabidir. Iroda va maqsad bir-birini to'ldiradi. Irodasiz maqsadga erishish mumkin emas; maqsadga muvofiq faoliyatsiz iroda ham bo'lmaydi. Iroda – bu ongli intilish va harakatga mayl uyg'otishdir. Ammo insonga ongsiz mayllar ham xos. Bazan inson qaergadir intiladi, lekin qaerga va nima uchun intilayotganini uning o'zi ham bilmaydi. Bunday ong osti harakati insonga hayvonlardan o'tgan.

Ong strukturasi yana bir elementi – bu *tafakkur*dir. Tafakkur – individ bilish faoliyatining voqelikni umumiy va bilvosita aks ettirish bilan tavsiflanuvchi jarayoni. Ong strukturasi *etibor* va *xotira* ham kiradi. *Etibor* – bu inson ruhiy faoliyatining muayyan obektlarga qarab mo'ljallanishda namoyon bo'luvchi shakli.

Xotira – bu individ miyasida uning o'tmishdagi tajribasini mustahkamlash, saqlash va gavdalantirishdan iborat bo'lgan ruhiy jarayon. Xotiraning asosiy elementlari eslab qolish, saqlash, gavdalantirish va unutish hisoblanadi. Eslab qolishning fiziologik asosini bosh miya po'stlog'ida vaqtinchalik nerv aloqalarining hosil bo'lishi va qayd etilishi tashkil qiladi. Nerv aloqalarining keyinchalik jonlanishi eslab qolingani materialni gavdalantirish imkoniyatini beradi, bu aloqalarning susayishi esa xotiradagi materialning unutilishiga olib keladi.

Insonning subektiv borlig'ida muhim kichik struktura – o'zlikni anglash ham bor. Bu insonning o'zini shaxs sifatida anglab etish, o'zining mustaqil qarorlar qabul qilish va shu asosda odamlar va tabiat bilan ongli munosabatlarga kirishish, qabul qilingan qarorlar va harakatlar uchun javobgar bo'lish qobiliyatini tushunish jarayonidir. Boshqacha qilib aytganda, o'zlikni anglash – bu o'z-o'ziga, o'zining manaviy qiyofasiga, o'z bilimlari, fikrlari, qiziqishlari, ideallari, xulq-atvor mo'ljallari, harakatlari va shu kabilarga yaxlit baho berishdir. O'zlikni anglash yordamida inson o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini ro'yobga chiqaradi, o'z-o'ziga his qilishga qodir bo'lgan fikrlovchi mavjudot sifatida baho berishni amalga oshiradi. Bu holda subekt o'z-o'zini va o'zining ongini bilish obektiga aylantiradi. SHu tariqa inson o'z-o'ziga baho beradigan, shusiz hayotda o'z o'rnini belgilash va topishga qodir bo'lmagan mavjudot sifatida namoyon bo'ladi.

O'zlikni anglash – insonning o'zini o'zi tinimsiz kamol toptirishining muhim shartidir. O'zlikni anglash strukturasi *o'z-o'zini his qilish, o'z-o'zini bilish, o'z-o'ziga baho berish, o'z-o'zini boshqarish* kabi elementlarni ham ajratish mumkin. Umuman olganda o'zlikni anglash refleksiya bilan uzviy bog'liq. Falsafiy adabiyotlarda refleksiya tafakkurning unga o'z faoliyat shakllarini (tafakkur kategoriyalarini) tahlil qilish va anglab etishga ko'maklashuvchi tamoyil sifatida tavsiflanadi. Ayni shu sababli refleksiyaga inson manaviy dunyosining ichki tuzilishi va xususiyatlarini namoyon etuvchi o'zlikni anglash faoliyati sifatida yondashish, bizningcha, o'rinli bo'ladi.

Ong tarkibiy elementlari bir-biri bilan o'zaro aloqaga kirishadi va ongga inson hayoti uchun o'ta muhim bo'lgan bir qancha funksiyalarni taminlaydi.

Ongning birinchi funksiyasi bilish yoki aks ettirish, yani insonni qurshagan voqelik haqida va uning o'zi haqida bilimlar olishdir. Bilish faoliyati sifatida anglash jarayoni hissiy, obrazli bilishdan boshlanadi va mavxum fikrlash sari yuksaladi. Hissiy (empirik) bilish bosqichida rang-barang ashyoviy material to'planadi va keyinchalik u mavxum fikrlash yo'li bilan umumlashtiriladi. *Ongning*

bilish funksiyasi jamg'arish funksiyasini belgilaydi. Bu funksiyaning mohiyati shu bilan belgilanadiki, bevosita, shaxsiy tajribadan olingan bilimlarga emas, balki zamondoshlar yoki o'tmishdoshlardan olingan bilimlar ham inson xotirasida jamlanadi. Bu bilimlar zaruriyatga qarab aktuallashtiriladi, tiklanadi va ongning boshqa funksiyalarini amalga oshirish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Inson xotirasi qancha boy bo'lsa, u optimal qaror qabul qilishi shuncha oson bo'ladi.

Ongning aksiologik funksiyasi (baholash funksiyasi)da inson tashqi dunyo haqida malumotlar olish bilan bir vaqtda ularni o'z ehtiyojlari va manfaatlari nuqtai nazaridan baholaydi. Ong, bir tomondan, obektiv aks ettirish shakli, inson mayllari va manfaatlariga bog'liq bo'lmagan voqelikni bilish shakli hisoblanadi. Bilimlar olish, obektiv haqiqatning tagiga etish, bilish faoliyati sifatidagi anglash jarayonining natijasi va maqsadiga aylanadi. Boshqa tomondan, ong voqelikka subektiv munosabat ko'rinishlarini, uni baholash, o'z bilimini va o'zini anglab etishni ham o'z ichiga oladi. *Ongning baholash funksiyasi bevosita maqsadni shakllantirish funksiyasiga* o'tadi. Maqsadga intiluvchanlik – bu ongning muhim xususiyati hisoblanuvchi sof insoniy qobiliyat. Maqsad – bu insonning o'z predmetini topgan ideallashtirilgan ehtiyoji; bu faoliyat predmetining shunday bir subektiv obraziki, uning ideal shaklida inson faoliyatining mo'ljallangan natijasi namoyon bo'ladi. Maqsadlar insoniyatning jami tajribasi negizida shakllantiriladi va ijtimoiy, axloqiy, estetik va boshqa xil ideallar ko'rinishidagi oliy shakllar sari yuksaladi. Aniq bir maqsadga qaratilgan faoliyat inson dunyodan qanoatlanmayotgani hamda uning bu dunyoni o'zgartirish, uni insonga, jamiyatga zarur bo'lgan shaklga solish ehtiyoji bilan izohlanadi. *Ongning ijod funksiyasida insonning oliy imkoniyatlari namoyon bo'ladi.* Maqsadga intiluvchanlik, yani inson o'z harakatlarini «nima uchun» va «nimaga erishish yo'lida» amalga oshirishini anglab etish har qanday ongli qilmishning zaruriy shartidir. Maqsadni ro'yobga chiqarish muayyan vositalarni, yani maqsadga erishish uchun yaratiladigan va shunga xizmat qiladigan vositalarni ishga solishni nazarda tutadi. Inson tabiatda mavjud bo'lmagan narsalarni bunyod etadi. U *Ongning kommunikativ funksiya (aloqa funksiyasi)da odamlar umumiy mehnatda ishtirok etadilar va bir-birlari bilan o'zaro aloqalarga kirishishga doimi muhtoj bo'ladilar.* Fikrlarning bu aloqasi nutq orqali (ovozlik aloqa) va texnika vositalari yordamida (matnlar, kodlangan axborot) amalga oshiriladi. SHuni etiborga olish lozimki, yozma matnlarda (kitoblar, jurnallar, gazetalar va sh.k.)da bilim emas, balki axborotgina saqlanadi. Axborot bilimga aylanishi uchun u subektivlashtirilishi lozim. Ayni shu sababli bosma so'zni tarqatish bayon etilgan axborot bilimga aylanishining kafolati emas, balki sharti hisoblanadi. Axborot bilimga, yani subektiv boylikka aylanishi uchun qo'shimcha kuch-g'ayrat sarflash talab etiladi.

SHaxs ongining mantiqiy siklini tartibga solish (boshqaruv) funksiyasi yakunlaydi. Ong omillarga baho berish asosida va qo'yilgan maqsadga muvofiq inson harakatlarini, keyinchalik esa – jamoalarning harakatlarini ham boshqaradi, tartibga soladi. Ongning tartibga solish funksiyasi insonning o'zini qurshagan muhit bilan o'zaro aloqasiga bog'liq bo'ladi va ikki shaklda: davat etuvchi tartibga solish va ijroni tartibga solish shakllarida amal qiladi. Ongning bosh funksiyalari ana

shulardan iborat. Ularning uyg'un rivojlanishigina oxir-oqibatda intellektual va manaviy jihatdan komil insonni tarbiyalash imkoniyatini beradi.

XXI asr boshiga kelib olimlar intellektning ayrim funksiyalarini informatsion mashinalar zimmasiga yuklash uchun ancha ko'p zahmat chekdilar. Bugungi kunda kompyuterlar murakkab ishlarni bajarmoqdalar: bir tildan boshqa tilga tarjima qilmoqdalar, samolyotlarni, poezdlarni boshqarmoqdalar, shaxmat o'ynamoqdalar, hatto inson miyasiga xos bo'lgan bazi bir mantiqiy amallarni bajarmoqdalar. Tabiiy bir savol tug'iladi: inson aqlining o'rnini bosishga qodir bo'lgan mashinani yaratish mumkin emasmi?

Texnika imkoniyatlari nuqtai nazaridan, informatsion mashinalarni takomillashtirish chegarasini belgilash o'rinli bo'lmaydi. SHunga qaramay, mashinalar bajaruvchi amallar bilan inson miyasida bajariladigan amallarning o'xshashligi mashinalarni fikrlash qobiliyatiga ega deb hisoblash uchun asos bermaydi. Mohiyat etibori bilan mashina inson tafakkurining faqat bir jihatini – formal-mantiqiy fikrlashnigina amalga oshiradi, vaholanki, insonning fikrlash jarayoni amalda iroda, emotsiyalar, intuitsiya, orzu, fantaziya va hokazolardir. Inson ichki dunyosining boyligi uning ijtimoiy aloqalari boyligi va serqirraligining mahsuli hisoblanadi. Ayni shu sababli, inson ongi, uning strukturasi va barcha funksiyalarini to'liq modellashtirish uchun miya strukturasi o'zining gavdalantirish kifoya qilmaydi. Buning uchun inson rivojlanishining butun tarixiy yo'lini gavdalantirish, uni barcha ehtiyojlar bilan, shu jumladan siyosiy, axloqiy va estetik ehtiyojlar bilan taminlash talab etiladi. Bularning barchasi bilishning murakkab vazifalarini echishda zamonaviy kibernetik qurilmalarning imkoniyatlari cheklanganligidan dalolat beradi. Ular aslida intellektual faoliyatning axborotni qayta ishlash qoidalari bilan bog'liq bo'lgan tomonlarini mexanizatsiyalashtirish va avtomatizatsiyalashtirish vositalaridan boshqa narsa emas.

Antrop tamoyil. *Antrop tamoyilda inson amalda mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday dunyoda emas, balki uning xususiyatlarini belgilovchi fizik konstantalarning o'ta aniq majmui bilan tavsiflanuvchi dunyodagina paydo bo'lishi mumkin bo'lgan, degan mano kelib chiqadi.* Bu bizning Koinot aynan unda insonning mavjudligi uchun zarur bo'lgan tarzda tuzilganini anglatadi. Agar u o'zgacha bo'lganida, unda biz mavjud bo'lmamiz. Boshqa Koinotlar (agar ular mavjud bo'lsa) bizga mos kelmaydi: ularda bizga o'xshagan aqlli jonotlar mavjud bo'lishi mumkin emas. Shunday qilib, ontologik jihatdan o'zgacha dunyolar insonning «uyi», uning yashash joyi bo'lishi mumkin emas.

XX asrning so'nggi o'n yilliklarida astronomiyaning rivojlanishi Erdan tashqarida sivilizatsiyalar mavjudligiga bo'lgan shubhani yanada kuchaytirdi.

Birinchi, astronomik malumotlarga aniqlik kiritilishi aqlli hayot mavjud bo'lishi mumkin deb taxmin qilish mumkin bo'lgan kosmik obektlar soni surunkali qisqarishiga olib keladi.

Ikkinchi, yuqorida ko'rib chiqilgan, rivojlangan sivilizatsiyalargina amalga oshirishga qodir bo'lgan kosmosni o'zlashtirish imkoniyatlari bilan Erdan tashqaridagi sivilizatsiyalar faoliyatining amalga kuzatiluvchi biron-bir ko'rinishlari

umuman mavjud emasligi o'rtasida ziddiyat vujudga keladi¹. Bu ziddiyat «*astrosotsiologik jumboq*» deb ataladi. Erdan tashqaridagi sivilizatsiyalar (SETI)ning radiosignallarini va ularning kosmosdagi faoliyati natijasida qolgan biron-bir izlarni qidirish hozircha hech qanday samara bergani yo'q. «Kosmos sukuti» ayniqsa g'alati, zero texnika taraqqiyotining hozirgi darajasi o'zga sivilizatsiyaning radiosignalini payqash uchun etarlidir.

Yuqorida bayon etilgan fikr-mulohazalardan bizning davrimizda insonning Koinotdagi alohida o'rni haqidagi qadimgi tasavvurlarga o'ziga xos qaytish yuz bermoqda, degan xulosaga kelish mumkin.

O'z-o'zidan ravshanki, bu erda gap dunyo va insonga doir qadimgi sodda qarashlarga qaytish haqida ketayotgani yo'q. Bu qadimgi g'oyalarni tiklash ularni tubdan qayta ishlash va bilimlarning butunlay yangi darajasida talqin qilish bilan bog'liq. Eski muammo butunlay yangicha tarzda qo'yiladi va uni echishga nisbatan hozirgi yondashuv qadimgi davr bilan taqqoslaganda o'ta chuqur asoslarga tayanadi.

Inson falsafiy muammo sifatida. Falsafa tarixida insonga murojaat etmagan, inson moddiy va manaviy borlig'ining turli tomonlarini bevosita yoki bilvosita tahlil qilmagan faylasuf yoki falsafiy yo'nalishni topish deyarli mumkin emas. Aksariyat falsafiy va diniy tizimlar katta olam yoki makrokosmga zid o'laroq, insonga mikrokosm yoki kichik Koinot sifatida qarab, uni butun olamni tushunish kaliti deb hisoblaganlar. Faylasuflar inson sirining tagiga etish borliq jumbog'ining tagiga etish bilan barobar ekanligini qayta-qayta anglab etganlar. Zero Forobiy aytganidek -"Odamlar o'zlarining xos xususiyatlariga va tabiiy ehtiyojlariga ko'ra jamiyat tuzadilar. Ularning harakat va fellarini dastavval bora-bora odatlarga aylanadigan tabiiy qobiliyatlar belgilaydi"¹. O'z-o'zingni angla va shu orqali dunyoni anglaysan. Dunyoni insonning teran qatlamlariga kirmasdan sirtidan bilishga bo'lgan barcha urinishlar narsalar haqida faqat yuzaki tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Insondan sirtga qarab harakat qiladigan bo'lsak, narsalar mohiyatini hech anglay olmaymiz, zero bu mohiyat insonning o'zida mujassamlashgan.

Bu fikr qadimgi mutafakkirlargayoq yaxshi malum bo'lgan. Unga turli ko'rinishlarda Sharqda ham, yunon-rim falsafiy ananasida ham duch kelish mumkin. Xususan, antik davrda Delfidagi Apollon ibodatxonasiga kiraverishda ustunga o'yib yozilgan, rivoyatlarga qaraganda Suqrot takrorlashni yaxshi ko'rgan «O'z-o'zingni angla», degan ibora ayniqsa mashhur bo'lgan. Uchinchi ming yillikda ham bu fikr o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. U nafaqat narsalar dunyosini, balki inson borlig'ining mohiyatini, inson va ijtimoiy munosabatlarning asl tabiatini tushunishga harakat qilayotgan har bir odam uchun o'z-o'zini anglashga chorlovchi fikr bo'lib qolmoqda. Buni faqat shu bilan izohlash mumkinki, ayni holda har bir yangi avlod o'z davri hamda tabiiy-ilmiy va falsafiy tasavvurlarning tegishli darajasi nuqtai nazaridan echishga harakat qiladigan o'ta murakkab, «boqiy» falsafiy masalalardan biri to'g'risida so'z yuritiladi. Xususan, qadimgi xitoy faylasufi Lao Szi fikriga ko'ra, «boshqalarni biluvchi – oqil, o'zini biluvchi – donishmanddir». Protagorning: «Inson barcha narsalar mezonidir», degan fikri ham juda mashhur.

¹ Гиндилес Л.М. Астросоциологический парадокс в проблеме SETI// *Астрономия и современная картина мира*.-М.:1996. –С.76.

¹ Ал-Фаробий *Философия политики*. – М.: 1989. – С.529.

«Tangri saltanati bizning ichimizdadir», deb o‘rgatgan Iso Masih. Buddaviylarning: «O‘zligingga nazar tashla, sen Buddasan», degan chorlovi ham yuqoridagi fikr bilan hamohangdir. Islomda «Kimki o‘zini bilsa, u Allohni ham bilgaydir», deyiladi.

Demak, inson o‘zini dunyodan oldinroq va ko‘proq biladi, ayni shu sababli u dunyoni o‘zidan keyin va o‘zi orqali anglab etadi. Falsafa dunyoni inson orqali ichdan bilishdir, fan esa insondan tashqaridagi dunyoni yuzaki bilish demakdir. Insonda mutlaq borliq, insondan tashqarida esa – nisbiy borliq namoyon bo‘ladi.

Inson barcha yaxshi fazilatlarni o‘zida mujassamlashtirgan o‘ziga xos, betakror va barkamol mavjudot – Cheksiz mikrokosm sifatida ham, inson tabiatining norasoligi va buzuqligi tufayli halokatga mahkum bo‘lgan tabiat xatosi sifatida ham, Xudo yaratgan banda sifatida ham, boshqa odamlar faoliyatining mahsuli sifatida ham talqin qilinadi. Xususan, Sharq mutafakkiri A.Beruniy jahon fanida birinchi marta inson va tabiat, odam va olam o‘rtasidagi munosabatlarni dunyoviy fan nuqtai nazaridan o‘rganadi. U “odamlar tuzilishining rang, surat, tabiat va axloqda turlicha bo‘lishi faqatgina nasablarining turlichaligidan emas, balki tuproq, suv, havo va erning, odam yashaydigan joylarning turlichaligi hamdir. Tillarning turlicha bo‘lishiga sabab odamlarning guruhlariga ajralib ketishi, bir-biridan uzoq turishi, ularning har birida turli hoxishlarni ifodalash uchun zarur bo‘lgan so‘zlarga ehtiyoj tug‘ilishidir. Uzoq zamonlar o‘tishi bilan bu iboralar ko‘payib, yodda saqlangan va takrorlanish natijasida tarkib topib, tartibga tushgan”¹, deb hisoblaydi. Demak, Beruniy fikricha, insonning fel-atvori va manaviy qarashlari, surati va siyrati bevosita tabiiy muhit tasirida shakllanadi. Zero, aynan shu tabiiy muhit, geografik sharoit xalqlar, millatlar shakllanishining muhim asosi bo‘la oladi. “Inson o‘z tabiatiga ko‘ra murakkab tanaga egadir. Insonning tanasi bir-biriga qarama-qarshi qismlardan iborat bo‘lib, bu qismlar tobelik kuchi asosida birlashgan”². Beruniy fikricha, hamma odamlarda o‘zaro bir-biriga o‘xshash va ayni paytda farq qilib turadigan jihatlar mavjud. Ibn Sino, “Inson boshqa barcha hayvonot olamidani so‘zi, tili va aqli, tafakkur qilishi bilan farq qiladi. Inson aqli turli fanlarni o‘rganish yordamida boyiydi”³, deb hisoblaydi. Forobiy fikricha, inson o‘z tabiatiga ko‘ra hayotini tartibga keltirish, mustahkamlash va takomillashtirish uchun boshqa insonlarga muhtoj bo‘ladi. YAKka holda hech kim buning uddasidan chiqa olmaydi. “Inson shunday maxluqotki, u faqat jamiyatda o‘z ehtiyojlarini qondirishi va oliy manaviy darajaga ko‘tarilishi mumkin”⁴. Inson o‘z hayotining memori, ijodkori bo‘lmog‘i, o‘zida fozila xislatlar, istedodlarni tarbiyalashi lozim. Bunga esa u jamiyatda yashab faoliyat ko‘rsatgandagina erishadi. Inson ijtimoiy mavjudod. Yolg‘izlik uzlat uni qashshoqlashtiradi, insoniy qiyofasini va baxtga olib boradigan istedodini yo‘qotadi. Ibn Xaldun insonga ijtimoiy voqelik sifatida qaraydi. Undan ijtimoiy mohiyat izlaydi. Inson jonzot sifatida ezgulik va yovuzlik olamidir. Shunga ko‘ra, u umrining har daqiqasida yovuzlikdan ko‘ra ezgulikka, yomonlikdan ko‘ra yaxshilikka, nafratdan ko‘ra muhabbatga intilib yashashga mahkum etilgan aql sohibi, bebaho nematdir.

¹ Беруний А. Танланган асарлар. 1 жилд. –Т.: Фан, 1968.-Б.16-17.

² Каранг: Ирисов А. Абу Райхон Беруний хикматлари. -Т.: Ёш гвардия, 1973. –Б.40-43

³ Ибн Сина. Данишнамэ. -Душанбе.: 1957.-С..59

⁴ Форобий. Фозил одамлар шахри. -Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. –Б.69

Inson barcha ijtimoiy munosabatlar majmuidir, degan fikr insonga mexanistik nuqtai nazardan yondashgan Marifat davri mutafakkirlari, xususan «Inson-mashina» deb nomlangan asar muallifi fransuz J.Lametri (1709-1751) ilgari surgan g'oyalar bilan to'qnashadi.

Boshqa bir mashhur fransuz faylasufi – R.Dekart (1596-1650) asarlarida inson mohiyati masalasiga nisbatan butunlay o'zgacha yondashuvga duch kelamiz. U «inson fikrlovchi narsadir», deb hisoblaydi.

«Inson, u uzoq vaqt o'ylaganidek, dunyoning statik markazi emas, balki evolyusiyaning o'ziga va cho'qqisi bo'lib, bu ancha go'zalroqdir»¹, deb qayd etadi atoqli fransuz faylasufi va teolog P.T. de Sharden (1881-1955). Unga zid o'laroq, A.Shopengauer (1788-1860) inson nuqsonli mavjudot ekanligini takidlaydi, uni «tabiat xalturasi» deb ataydi.

Fransuz yozuvchisi va faylasufi J.P.Sartr (1905-1980) bu fikrni butunlay rad etadi. Uning fikricha, inson kelajakka qarab intiladi va shu tariqa o'zini o'zi yaratadi. U «Inson – odamzot kelajagidir», deb takidlaydi.

Fikrlarning bunday rang-barangligi sababini, avvalo, insonning o'z tabiatidan izlash lozim. Inson tabiatining siri, hech shubhasiz, «boqiy muammolar»dan biri bo'lib, falsafa o'z predmetining mohiyati va xususiyatiga ko'ra unga qayta-qayta murojaat etgan va shunday bo'lib qoladi. Bu erda mazkur sohadagi barcha fikr-mulohazalarga mo'ljal beruvchi insonning kelib chiqishi haqidagi masala ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Inson qaerdan va qanday paydo bo'lgani haqidagi ko'psonli g'oyalar orasidan eng muhimlarini ajratib olsak, ularning barchasini malum darajada shartlilik bilan ikki asosiy konsepsiya – *insonning tabiiy va g'ayritabiiy kelib chiqishi haqidagi konsepsiyalar* doirasida birlashtirish mumkin.

Insonning kelib chiqishi haqidagi birinchi yondashuv insonning paydo bo'lishiga olib kelgan tabiatning qonuniy rivojlanishi g'oyasidan kelib chiqadi. Bunda inson jonsiz, keyinchalik esa – jonli moddaning tabiiy evolyusiyasi mahsuli sifatida qaraladi. Mazkur konsepsiya 1859 yilda inson kelib chiqishining tabiiy-ilmiy talqiniga asos bo'lgan CH.Darvinning «Hayvon va o'simlik turlarining kelib chiqishi haqida» deb nomlangan mashhur asarini elon qilgan evolyusion nazariyasiga tayanadi va hozirgi vaqtda molekulyar biologiya va gen injeneriyasi sohasida erishilgan eng so'nggi yutuqlar tasirida o'z shakl-shamoyilini sezilarli darajada o'zgartirib, aksariyat olimlar uchun ularning ilmiy faoliyatida o'ziga xos dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda.

Yana shuni ham takidlab o'tish lozimki, insonda nafaqat o'ta rivojlangan tirik jonzorlar, balki o'ta sodda mavjudotlar bilan ham kuchli genetik o'xshashlik mavjud. Xususan, shimpanze bilan bunday o'xshashlik 98% ni, kalamush bilan – 80% ni va hatto banan bilan – 50% ni tashkil etadi. Biroq, shuni takidlash lozimki, «tabiiy» yondashuv tarafdorlari inson kelib chiqishining dunyoviy konsepsiyasiga ham (masalan, darvinchilar bilan bog'liq holda bo'lganidek), kosmik konsepsiyasiga ham tayanishlari mumkin.

Ikkinchi yondashuv insonga, Xudo yoki kosmik Aql mehnatining mahsuli sifatida qarab, uni g'ayritabiiy asosdan keltirib chiqaradi. Garchi bu konsepsiya

¹ Тейяр де Шарден П. Феномен человека. -М.: 1987.-С.40

isbotlanganlik jihatidan birinchi talimotga hozirgi zamon tabiatshunosligi nuqtai nazaridan yon bersa-da, lekin falsafiy nuqtai nazardan u insonning tabiiy-ilmiy kelib chiqishi konsepsiyasi kabi mavjudlik huquqiga egadir, zero birinchi yondashuv ham, ikkinchi yondashuv ham oqilona asoslangan va uzil-kesil dalil-isbotlar keltirmaydi.

Insonga fan nuqtai nazaridan yondashuv. Tabiat haqida bilimlar to'planishi va ularning rivojlanishiga qarab, odamzotning o'z-o'ziga bo'lgan qiziqishi ham kuchayib bordi, inson borlig'ining bu sohadagi tadqiqotlar uchun yanada kengroq imkoniyatlar yaratuvchi yangi va yangi o'ziga xos xususiyatlari aniqlandi. Odatda, jamiyat hayotida tarixan qisqa vaqt ichida jiddiy va teran o'zgarishlar yuz bergan, insoniy munosabatlar negizini tashkil etuvchi eskicha tasavvurlar va qarashlar tasirida butunlay o'zgargan davrlarda insonga bo'lgan falsafiy qiziqish ayniqsa kuchaygan. Bunday davrlarda falsafada insonning mohiyati, uning burchi, vazifasi va yuz berayotgan voqealar uchun javobgarligi haqidagi azaliy masalalarga bo'lgan qiziqish yana kuchaygan. SHunday qilib, falsafaning ontologiya, gnoseologiya, etika, estetika kabi bo'limlari bilan bir qatorda, inson haqidagi bilimlar sohasi asta-sekin shakllanib bordi. Bu erda inson nafaqat turli tomonlardan tahlil qilindi, balki uning ijtimoiy, tabiiy va kosmik jarayonlar bilan o'zaro aloqalari ham o'rganildi.

Insonni bilish borasidagi ko'p asrlik say-harakatlarni bir erga jamlab, ularning orasidan uzil-kesil echilgan deb hisoblash mumkin bo'lganlarini ajratib olsak, shakshubhasiz yutuqlar soni uncha ko'p bo'lmaydi. Ular orasida avvalo shu dalilni qayd etish lozimki, insonning paydo bo'lishi Erda hayotning rivojlanishi bilan uzviy bog'liq bo'lib, u o'z ibtidosi va muayyan tarixiga egadir. Xususan, 1982 yil Vatikandagi Rim Papasi fanlar akademiyasi tashkil etgan kongress ishtirokchilari – dunyoga mashhur antropologlar, bioximiklar va genetiklar hozirgi zamon tabiatshunosligiga tayanib, inson va hayvonot dunyosi o'rtasida yaqin aloqa mavjud, degan umumiy xulosaga keldilar.

Inson va uni qurshagan dunyo tadrijiy rivojlanishini isbotlangan deb hisoblash mumkin. Bu nafaqat arxeologiya va Yer geologik tarixi bilan tasdiqlanadi, balki Erdagi hayotga doir hozirgi tasavvurlardan va umumiy etirof etilgan «kengayib boruvchi Olam» nazariyasi tushuntiradigan dunyodagi evolyusion jarayonlardan ham kelib chiqadi.

Biroq fan, ayniqsa genetika bazan bizning avvalgi tasavvurlarimizni butunlay o'zgartiradigan yangi kashfiyotlar qilishda davom etmoqda. Xususan, jonli mavjudotlarning biologik nusxalarini yaratish imkoniyatini beruvchi klonlash ketidan genetiklar, shov-shuvga sabab bo'lgan eng so'nggi xabarlariga ko'ra, qadimgi faylasuflarning ilgari faqat odatdagi tajribaga tayangan o'lmaydigan odam yo'qligi haqidagi taxminiy (induktiv) xulosani jiddiy shubha ostida qoldirishga qodir natijaga yaqinlashdilar. Jumladan, italyan olimlari sut emizuvchilarning qarish jarayonini P66SHC sifatida malum bo'lgan alohida gen boshqarishini aniqladilar. Ular mazkur genni «nazorat osti»ga olish va shu tariqa sinalayotgan hayvonlar umrini populyasiya bo'yicha umrning o'rtacha uzunlik ko'rsatkichiga nisbatan 35% ga uzaytirishga muvaffaq bo'ldilar.

Shunga qaramay, bugungi kunda jismoniy umrboqiylik ilmiy nuqtai nazardan biologiyaning fundamental qonunlariga zid hisoblanadi. Bu qonunlarga muvofiq hujayralarning bo‘linish yo‘li bilan ko‘payish qobiliyatining susayib borishi inson hayotini cheklaydi. Xususan, insonning etuk organizmi taxminan 50 000 milliard hujayradan iborat ekanligi aniqlangan. «Odamda uning umri mobaynida bir hujayra avlodida ketma-ket bo‘linishlar soni elliktagacha bo‘ladi. Bo‘linish jarayonlari maromini hisobga olganda, shuni taxmin qilish mumkinki, inson umrining uzunligi (bazi bir istisno hollardan tashqari) 110 yoshdan oshishi mumkin emas»¹.

Biroq fan bir joyda to‘xtab turgani yo‘q va shu bois matbuotda vaqti-vaqti bilan paydo bo‘layotgan genetik olimlarning hujayra qarishini to‘xtatadigan moddani topish, shuningdek organizmda mazkur moddaning ajralishini boshqaradigan genni aniqlash borasidagi urinishlari haqidagi xabarlar o‘ziga jiddiy etibor berishni talab qiladi.

Falsafa «boqiy» masalalarni o‘rganar va butun borliqning dastlabki asoslari va muhim qadriyatlarini aniqlashga harakat qilar ekan, u uzil-kesil echimlar va shak-shubhasiz javoblar olishga davogarlik qilmaydi. Sinovdan o‘tkazilgan dalillar va isbotlangan asoslarning yo‘qligi uni xijolatga solmaydi, zero falsafa intuitsiya, g‘oyibona tasir, ilhom, mantiqiy kuchga asoslangan farazlar, taxminlar, to‘ldirishlar bilan kifoyalanadiki, bu unga mavjud bilimlar va shakllangan tasavvurlar doirasidan chetga chiqib, aniq isbotlangan ilmiy echimga ega bo‘lmagan narsa yoki hodisani o‘zgacha tarzda, erkin tushuntirish imkonini beradi. Shu tariqa falsafa insonni bilish chegaralarini kengaytirib, uni nafaqat yuqoriroq darajaga ko‘taradi, balki yangi muammolarni qo‘yish imkonini beruvchi yangicha yondashuvlar, o‘zgacha nuqtai nazarlar va eng muhimi – eski muammolarning yangicha talqinlari bilan boyitadi.

Shu manoda S.Sheroziyning «Inson nimadan boshlanadi?», degan savolga hech ikkilanmasdan: «Inson marhumga motam tutishdan boshlanadi», deb javob beradi¹ va «Dunyoga keldimu, bozorga bordim, kafanni oldimu, mozorga bordim»² deb takidlaydi.

Shunday qilib, haqiqiy falsafada muayyan masalalar, ayniqsa inson bilan bog‘liq murakkab masalalar xususida bir xil fikrlash hollari kuzatilmaydi. Bundan farqli o‘laroq, fanda bir fikrlilik u yoki bu muammoning uzil-kesil echimi topilganidan dalolat beradi. Masalan, «abadiy dvigatel»ni yaratish masalasi xususida olimlar orasida to‘la bir fikrlilik hukm suradi: hozirgi zamon tabiatshunosligi qonunlariga muvofiq bunday dvigatelni yaratish mumkin emas. Ammo fandan farqli o‘laroq, falsafaning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, u har qanday hodisani o‘rganish va tushunishda tayaniladigan qadriyatlar va mo‘ljallar tizimidan tashkil topadi. Ayni shu sababli bu erda u yoki bu faylasufning dunyoni qanday tushunishi, uning hayotga munosabati, ayniqsa, muhim rol o‘ynaydi. U qaysi aksiomalarni ilgari surishi, qaysi ustuvorliklarni qayd etishi, nimani muhim deb hisoblashi, nimaga ishonishi yoki ishonmasligidan faylasufning boshqa narsalarga bo‘lgan tegishli munosabati, uning umumiy va xususiy masalalarga doir falsafiy pozitsiyasi kelib chiqadi.

¹ Годфруа Ж. Что такое психология. – М.: 1996. Т. 2. – С.10.

¹ Каранг: Саъдий Шерозий. Рубойилар. –Т.: Шарк, 1995. –Б.26

² Саъдий Шерозий. Рубойилар. –Т.: Шарк, 1995. –Б. 26

Insonning ko‘p o‘lchovliligi. Insonni o‘rganishga nisbatan «*introvertiv*» va «*ekstrovertiv*» yondashuvlar ayniqsa ajralib turadi.

Introvertiv yondashuv insonning ong, jon, ruhiyat, instinktlar, nuqsonlar, fazilatlar kabi muhim xususiyatlarini tahlil etib, uni «ichdan» tushunish, anglab etishni nazarda tutadi. Bunda insonning jismoniy va manaviy mohiyati haqidagi falsafiy mulohazalar aksariyat hollarda tabiiy fanlarning empirik malumotlariga, avvalambor biologiya va psixologiya yutuqlariga tayanadi, lekin bazan mistika, ezoterika, okkultizm bilan belgilanadi. Bunday yondashuvlar ayniqsa nemis antropologlari M.Sheler (1874-1928) va A.Gelen (1904-1976), avstriyalik faylasuf K.Lorens (1903-1989) ijodiga xosdir.

Ekstravertiv yondashuv insonga nazar tashlash, uning mohiyatini tahlil qilish go‘yoki «sirdan» amalga oshiriladiki, buning natijasida diqqat markazidan uning ijtimoiy va tabiiy mohiyati o‘rin oladi; tegishli mo‘ljallarga muvofiq insonning Xudo, kosmos, universum va shu kabilar bilan aloqasi tahlil qilinadi. Bu erda falsafa ko‘pincha tarix, sotsiologiya, ekologiya, teologiya bilan ittifoq tuzadiki, bu hol diniy falsafa vakillari N.A.Berdyaev, S.N.Bulgakov, S.L.Frank, N.O.Losskiy kabi vakillariga ko‘proq xosdir.

Shunday qilib, insonni falsafiy tushunish uchun yagona asos mavjud emas, xuddi shuningdek bunday asos yaqin kelajakda paydo bo‘lishiga umid qilish uchun ham asoslar yo‘q. Hozircha faqat shuni qayd etish mumkinki, diqqat markazidan yuqorida sanab o‘tilganlardan qaysi biri, chunonchi: kosmos, tabiat, Xudo, jamiyat yoki bevosita inson o‘rin olganiga qarab, falsafa tarixida insonni tushunish bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda asos bo‘ladigan turli falsafiy nuqtai nazarlar farqlanadi. Ularning orasida kosmotsentrizm, teotsentrizm, sotsiotsentrizm va antropotsentrizm ayniqsa keng tarqalgan bo‘lib, turli davrlarda ularning har biri har xil ko‘rinishda namoyon bo‘lgan, lekin inson muammolarini o‘rganuvchi falsafiy konsepsiyalarda doim u yoki bu tarzda mavjud bo‘lgan.

Sharq va g‘arb falsafasida inson muammosi. *Qadimgi Sharq, xususan Xitoy falsafiy tizimlari asosan sotsiotsentrik konsepsiyalardan iborat bo‘lib, ularda inson, odatda, jamiyat, sotsium bilan uzviy bog‘liq deb qaraladi.* «Ideal munosabatlar qonuni»ga odamlar o‘rtasida, oila, jamiyat, davlatda rioya qilish inson hayotining muhim manosi hisoblanadi; bunga jamiyatda qabul qilingan meyorlar, qoidalar, rasm-rusumlar va shu kabilarga izzat-ikrom bilan yondashish imkoniyat yaratadi. Boshqacha aytganda, inson o‘z shaxsiy hayotini doim jamiyat ravnaqi, kamoloti bilan o‘lchashi lozim, xususan, u keyinchalik oila va davlatni takomillashtirishga harakat qilish uchun o‘zini kamol toptirishi lozim. SHu manoda mashhur qadimgi xitoy faylasufi Konfutsiy (mil. av. 551-479 yillar)ning fikrlari diqqatga sazovor bo‘lib, u shunday deb saboq beradi: «qilmishlarning asoslari va tamoyillarini o‘rgansang, yaxshilik va yomonlik haqidagi fikrlaring (axloqiy bilimlar) barkamollikning eng so‘nggi darajasiga etadi. Niyatlar sof va xolis bo‘lsa, qalb rostgo‘y va samimiy bo‘ladi. qalb rostgo‘y va samimiy bo‘lsa, inson to‘g‘ri yo‘lga kiradi, kamol topadi. Inson to‘g‘ri yo‘lga kirs va kamol topsa, oilada tartib

oʻrnatiladi. Oilada tartib hukm sursa, xalqlarni boshqarish osonlashadi. Xalqlarni boshqarish osonlashsa, butun dunyo tinch-totuv yashaydi»¹.

Qadimgi hind falsafasiga dunyoning ichki dunyosini birinchi oʻringa qoʻyish, yani antropotsentrizm xosdir. Masalan, buddizmda nirvanaga erishish inson barcha niyatlarining pirovard maqsadi deb elon qilinadi. Nirvana jonning shunday bir holatiki, bunda har qanday mayllar yoʻqoladi va ichki uygʻunlik yuzaga keladi, mutlaqo erkinlik va tashqi dunyoga qaram emaslik tuygʻusi paydo boʻladi.

Qadimgi hindlarning boshqa bir diniy-falsafiy talimoti – jaynizm nuqtai nazaridan inson oʻzining manaviy mohiyati bilan moddiy mohiyatni nazorat qilish va boshqarishga erishish uchun uzoq va ogʻir yoʻl – jonning erkinlashuvi yoʻlini bosib oʻtishi lozim.

Markaziy Osiyo mutafakkirlari qarashlarida insonni nazariy aql boshqaradi. Jumladan al-Forobiy fikricha “Inson shaxsini shakllantiradigan, uni boshqa maxluqotlardan ajratib turadigan va unda insoniy xislatlarni rivojlantiradigan narsa uning faol aqlidir Bu kuch avval- boshda faqat qobiliyatdir bu quvvat oʻylash, mulohaza yuritishga qobil, ammo hayotga tadbiq etish, yani joriy qilishga qobil emas”¹. Aqlni hayotga tadbiq etish uchun, unga tashqi kuch tasir etishi kerak, bu esa faol aqlidir. Faol aql - mustaqil quvvat boʻlib, oʻz mohiyati, Birinchi va ikkinchi va boshqa sabablar mohiyati haqida fikrlay oladi. Aynan shu faol aql odam imkoniyatlarining tashqi voqealarga tasir etishi va uni rivojlantirishga turtki beradi. Forobiy tabiri bilan “moddiy aqldan amaliy aqlning yuqoriroq pillapoyasiga koʻtariladi va uning faol aqlga munosabati quyosh bilan koʻzni solishtirlandek boʻladi”². Agar quyosh boʻlmasa, inson narsalarni koʻra olmaydi. Faol aql quyoshi inson ruhi da paydo boʻlganidan keyin, aqliy quvvat faol aqlga qaraydi. Inson tabiat gultoji, yani aqlli mavjudod. Yusuf Xos Xojib fikricha inson dunyoda abadiy emas, bu dunyoga kelgan har qanday odam vaqti etgach ketadi. Inson umrining qimmati necha yil yashagani bilan emas, qanday ezgu ishlarni amalga oshirganligi, hayotda qoldirgan izi bilan belgilanadi. U kishi olamdan oʻtgandan soʻng, bu dunyoda undan ikki xil, biri yomon, ikkinchisi yaxshi degan nom qoladi Inson iloji boricha oʻzidan yaxshi nom qoldirishi, yaxshi olqish olishi lozim deb takidlagan

Umuman olganda, barcha zamonlarda insonda umumiy asosni izlash bilan band boʻlgan Sharq tafakkuriga hozir ham insonni va uning tashqi dunyo bilan aloqasini tushunishga nisbatan Gʻarb falsafasidagidan oʻzgacha yondashuv xosdir. XX asr boshida hind mutafakkiri S.Vivekananda shunday deb yozgan edi: «Inson tabiatni oʻziga boʻysundirish uchun tugʻiladi va bu oʻrinlidir, ammo Gʻarb «tabiat» deganda faqat moddiy, tashqi dunyoni tushunadi. Bu tashqi tabiat oʻzining barcha togʻlari, okeanlari, daryolari, oʻzining Cheksiz kuchlari, Cheksiz rang-barangligi bilan juda ulugʻvor, lekin undan ham ulugʻvorroq dunyo borki, bu insonning ichki dunyosidir. U quyosh, yulduzlar, Yer va butun moddiy Koinotdan yuksakroq, bizning shaxsiy jajji hayotlarimizning tor chegarasiga sigʻmaydigan dunyodir. Gʻarb odami tashqi dunyoda «oʻziniki» boʻlganidek, bu ichki dunyoda Sharq odami ham xuddi shunday «oʻziniki»dir. SHu bois... Gʻarb manaviy dunyo nima ekanligini,

¹ Будда. Конфуций. Жизнь и учение. – М.: 1995. – С.139.

¹ Ал-Форобий. Фозил шаҳар аҳолиси. -Т.: Шарқ, 1999.- Б. 69

² Ал-Форобий Фозил шаҳар аҳолиси.-Т.: Шарқ, 1999 –Б.73.

xudo nima ekanligini, inson joni nima ekanligini bilmoqchi, dunyoning siri va mazmuni nimada ekanligini anglab etmoqchi bo'lsa, u Sharq oyoqlari ostiga cho'kib quloq solishi kerak. Hamonki dunyo hozir malum manaviy uyg'onishga muhtoj ekan, bunda u kuchni Sharqdan oladi»¹.

Ibn Xaldun fikricha, inson tabiatida ezgulik va yovuzlik mavjud. Agar odamlar o'z holiga qo'yilsa va insoniylik ruhida tarbiyalanmasa, unda Xudo nematini qo'lga kiritish kamdan –kam kishiga muyassar bo'ladi. Xayr va shayorralig'ida qolib, har ikkisidan birini tanlash lozim bo'lganida, unda sharni tanlaydi, zero inson tabiatida sharrga moyillik ko'proq. Adolatsizlik va boshqalarga hujum qilish insonlarga xos xislat. Shuning uchun jamiyatda kishilarning bir-birlariga jabr qilmasliklari uchun maxrifatga erishmoq zarur. Keltirilgan so'zlar nafaqat teran manoga ega, balki hozirgi dunyoning globallashuvi va yagona insoniyatning shakllanishi nuqtai nazaridan alohida ahamiyat kasb etadi.

G'arb falsafasida inson. Kosmotsentrizm nuqtai nazaridan inson avvalo kosmosning bir qismi sifatida, «kichkina dunyo» sifatida (Demokrit), bazan jonli organizm sifatida tasavvur qilinadigan makrokosm bilan uzviy bog'liq bo'lgan mikrokosm sifatida idrok etiladi. Antik faylasuflar Koinotni va unda mavjud tartibni tushunish orqali insonning o'zini ham anglab etish mumkin deb hisoblaganlar (Platon, Aristotel). Bunda tafakkur, bilim, aql-zakovat va donishmandlik muhim rol o'ynagani bois, ular doim kosmotsentristlar tomonidan yuksak baholangan, inson va uning qobiliyatlariga baho berishda birinchi o'ringa qo'yilgan.

Bunday qarashlar Evropa falsafiy ananasida V asrgacha, ularning o'rnini teotsentrizm konsepsiyasi egallagunga qadar kuzatiladi. Bu konsepsiyaga muvofiq hamma narsani Xudo belgilaydi.

Teotsentrizm nuqtai nazaridan insonning mohiyatini anglab etish, masalan, qadimgi yunon faylasuflari yoki keyingi falsafiy konsepsiyalardagi kabi oqilona fikrlash yo'li bilan emas, balki Muqaddas Kitobda tariflangan vahiydar yordamida amalga oshiriladi. Bu vahiydarlarni faqat Injil aqidalariga e'tiqod qilish orqali tushunib etish mumkin. Teotsentrizm nuqtai nazaridan e'tiqod nuridan charog'on bo'lgan aql dunyodagi ilohiy tartibning tarkibiy qismi sanalgan va «Xudoning timsoli» sifatida amal qiladigan insonning o'zini emas, balki uning bazi bir jihatlarinigina aniqlashga yordam beradi. Ayni shu sababli xristianlik, Xudoni oliy mohiyat deb etirof etadigan va insonga U yaratgan banda sifatida qaraydigan boshqa teotsentrik falsafiy tizimlar kabi, insonni Xudoning o'zi singari tagiga etish mumkin bo'lmagan sir, jumboq deb elon qiladi.

Uyg'onish davrida inson o'zlikni anglash tuyg'usi va ijtimoiy nuqtai nazari o'sishi natijasida o'z manfaatlarini ifoda eta boshladi. Inson shaxs sifatida kamol topdi, o'zini o'z shaxsiy hayoti va taqdirining bunyodkori sifatida tobora kuchliroq angalay boshladi. Inson mustaqillikka va tabiatni o'ziga bo'ysundirishga harakat qildi, o'z ijodiy imkoniyatlari Cheksiz ekanligiga ishona boshladi. Mazkur qarashlar italyan faylasufi Piko della Mirandolaning «Inson qadr-qimmatini haqida so'z» deb nomlangan mashhur asarida o'z aksini topdi. Tasviriy sanat, memorchilik, axloq, estetika, adabiyot va pedagogikani yaxshi tushunadigan har tomonlama komil

¹ Вивекананда Свами. Философия йога. – Магнитогорск, 1992. – С.488-489.

inson o'sha davrning idealiga aylandi. Uyg'onish davri bu idealga to'la mos keladigan Leonardo da Vinchi, Alberti Bottichelli, Rafael kabi atoqli shaxslarni dunyoga berdi.

O'sha davr falsafasida insonga bo'lgan qiziqishning kuchayishi bilan bir qatorda tabiatga bo'lgan qiziqish ham tiklandi. N.Kuzanskiy, J.Brunoning panteistik konsepsiyalari xristianlar Xudosini siqib chiqara boshladi. Yunonlarning kosmotsentrizmi tabiiysentrizm sifatida qayta anglab etildi. Bunda antik faylasuflarning markazida Yer joylashgan pirovard kosmos haqidagi tasavvurlari Cheksiz va markazsiz kosmosga o'rin bo'shatdi.

Bunday kosmos umumiyroq va kengroq tushuncha – «tabiat» bilan tenglashtiriladi. SHundan beri u turli falsafiy tizimlarda faol o'rganiladi. Xususan, Marifat davri falsafasida fundamental tushunchaga aylanadi, SHelling ijodida markaziy o'rin egallaydi, shuningdek ekologiyaga qarab mo'ljal oluvchi ayrim hozirgi falsafiy konsepsiyalarda dunyo va insonni tushunishda tayanch nuqtasi hisoblanadi. Mazkur yondashuvga ko'ra inson tabiatning ajralmas qismi sifatida qaraladi. Bunday qarashlarning izchil tarafdorlari, masalan, XX asrning ikkinchi yarmida rivojlangan ijtimoiy ekologiya namoyandalari etiborni haddan tashqari keng qaratadigan tabiatdan uning muayyan qismiga – inson o'z hayot faoliyatini amalga oshiradigan biosferaga qaratish lozimligini qayd etadilar va bunda antroposentristik qarashlardan voz kechib, ularni biosferotsentrizm bilan almashtirishni talab qiladilar. *Biosferotsentrizmda falsafiy tadqiqotlar markaziga inson o'rniga tabiatni qo'yish taklif qilinadi va shu tariqa tabiat inson ehtiyojlari nuqtai nazaridan qaralmaydi, inson mohiyati va uning ehtiyojlari esa tabiiy qonunlarni va biosferaning tadrijiy rivojlanish tendensiyalarini bilish nuqtai nazaridan tadqiq etiladi.*

Yangi davrda insonga qiziqish asosan, ijtimoiy munosabatlardagi ishtiroki bilan bog'lanadi. Yangi davrda insonga biluvchi subekt sifatida yondashildi. Masalan, Dekart insonning mohiyati, o'ziga xos xususiyatini uning tafakkuri, fikrlash qobiliyatida ko'rdi. XVIII asr fransuz materialist faylasuflari (Didro, Golbax, Gelvetsiy, Lametri) tabiatshunoslik va mexanika sohasida erishilgan hayratomuz yutuqlar tasirida insonning jonini ong bilan, tanasini esa – avtomat, mashina bilan tenglashtirib, uni mexanistik talqin qildilar.

Buyuk nemis faylasufi I.Kant (1724-1804) insonni tushunish yo'lida muhim qadam tashladi. U inson betakror mavjudot va u haqda alohida falsafiy mulohaza yuritish mumkin, deb hisoblar edi. Ayni vaqtda, u «inson uchun maktab bo'lib xizmat qiladigan madaniyat sohasidagi barcha muvaffaqiyatlarning maqsadi o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni amalga tatbiq etishdan iboratdir. Ammo bu bilimlar tatbiq etilishi mumkin bo'lgan dunyodagi eng muhim predmet insondir, zero u o'zi uchun pirovard maqsaddir»¹, deb qayd etadi.

Dunyoning butun rang-barangligi orasida I.Kant tabiatning turli, lekin bir-biri bilan uzviy bog'langan uch darajasi: notirik tabiat, tirik tabiat va inson tabiatini farqladi. Uning fikricha, bu darajalarning har birida tabiat o'z qonunlariga, chunonchi: notirik tabiat – mexanika qonunlariga, tirik tabiat – maqsadga

¹ Кант И. Соч. Т. 6. – М., 1966. – С.351.

muvofiglikka bo'ysunadi, inson tabiati esa erkinligi bilan tavsiflanadi. Ayni vaqtda u inson tabiatini qolgan ikki tabiatga bog'lash va ular orqali bilish mumkin emasligini takidlaydi. Inson tabiatini faqat uning erkinlikdan kelib chiqadigan o'z qonunlariga muvofiq anglab etish mumkin. SHunday qilib, I.Kant inson tabiatning undagi boshqa jonli va jonsiz obektlar kabi o'ziga to'q obekti hisoblanishi haqidagi fikrni ilgari surish orqali insonni o'rganish uchun yangi imkoniyatlar yaratdi va shu tariqa falsafiy bilimning mustaqil bo'limi sifatida falsafiy antropologiyaning yaratilishiga yo'l ochdi.

I.Kantdan keyin nemis klassik falsafasida inson asosan madaniyat dunyosini yaratuvchi manaviy faoliyat subekti sifatida, umumiy ideal asos – ruh, aql manbai sifatida tushunildi. L.Feyerbax (1804-1872) bu yondashuvga qarshi chiqdi. O'sha davrda obektiv idealizm falsafasida hukm surgan tushunchalar («g'oya», «ruh»)ga zid o'laroq, u «inson» kategoriyasini ilgari surdi. Feyerbax insonga tarixiy manaviy rivojlanish mahsuli sifatida emas, balki avvalo biologik, hissiy-jismoniy mavjudot sifatida yondashib, undagi tabiiy-biologik asosga murojaat etdi. Unda inson Xudo yaratgan banda emas, balki tabiatning bir qismi bo'lib, fransuz faylasuflari qayd etganidek mexanizm emas, balki organizmdir.

Ayni shu sababli Feyerbax falsafasi «antropologik materializm» degan nom oldi. Uning insonga nisbatan yondashuvi shu bilan tavsiflanadiki, insondagi tabiiylik va ijtimoiylik materialistik monizm nuqtai nazaridan tushuntiriladi. Bu inson bir vaqtning o'zida notirik va tirik tabiatning tadrijiy rivojlanishi mahsuli sanalgan biologik mavjudot sifatida ham, mohiyati ijtimoiy munosabatlar bilan belgilanadigan ijtimoiy mavjudot sifatida ham qaralishini anglatadi.

XIX asrdan boshlab Evropa falsafiy tafakkuri F.SHelling, A.SHopengauer, M.SHTirner, S.Kerkegor, F.Nitsshe, N.Berdyayev, A.Bergson kabi faylasuflarning say-harakatlari bilan inson mavjudligini individual va tarixiy muayyanlashtirish sari yuz burdi. Hayot, sezgilar, xohish-iroda, irratsionallik tushunchalari maxsus falsafiy tahlil predmetiga aylandi va keyinchalik ekzistensializm, intuitivizm va personalizm falsafasida rivojlantirildi.

Xususan, ekzistensializm nuqtai nazaridan obektiv dunyo – bu avvalo «inson borlig'i» bo'lib, insondan tashqarida dunyo haqida biron-bir gap aytish mumkin emas. Inson borlig'i to'g'risida so'z yuritish o'rinli bo'ladi, chunki inson borliq xususida savollar beradi, uning mazmunini tashkil etgan holda uni boshdan kechiradi, anglab etadi.

Inson muammosiga qisqacha tarixiy-falsafiy nazar tashlash XX asr boshiga kelib falsafada bilimning yangi mustaqil sohasi – inson haqidagi talimot, yani falsafiy antropologiya vujudga kelishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilganini ko'rsatadi.

Falsafiy antropologiyaning vujudga kelishi va rivojlanishi. YUnoncha sophia – donishmandlik, anthropos – inson va logos – talimot so'zlaridan kelib chiqqan «falsafiy antropologiya» atamasi etimologik jihatdan inson haqidagi falsafiy talimotni anglatadi. Falsafiy antropologiya insonning alohida borliq manbai sifatida kelib chiqishi, tadrijiy rivojlanishi va mavjudligining o'ziga xos xususiyatlariga doir falsafiy qarashlarni aks ettiradi.

SHu manoda falsafiy antropologiyaning ilk ildizlariga XVIII asr fransuz mutafakkirlarining asarlarida duch kelish mumkin. Ammo Kant, shuningdek, insonning mohiyati muammosini falsafaning «birdan-bir, universal va oliy» predmeti darajasiga ko'taruvchi antropologik tamoyillarni falsafaga kiritgan va asoslab bergan Feyerbax say-harakatlari bilan falsafiy antropologiya mustaqil falsafiy fan sifatida shakllana boshladi.

Falsafiy antropologiya XX asrning 20-yillarida asosan M.SHeler, A.Gelen, X.Plesner asarlari tasirida uzil-kesil vujudga keldi. Xususan, M.SHelerning «Insonning kosmosdagi o'rni» asarida inson haqida fundamental fan yaratish lozimligi qayd etiladi va uni falsafiy bilish dasturi taklif qilinadi.

M.SHeler falsafiy antropologiya insonning yaxlit konsepsiyasini yaratib, uni muayyan ilmiy, falsafiy va diniy jihatdan anglab etishda birlashtiruvchi rol o'ynashi lozim, deb hisoblaydi. U «Falsafiy antropologiyaning vazifasi insonning barcha o'ziga xos monopoliyalari, ishlari va amallari: til, vijdon, asboblari, qurol... davlat, rahbarlik, mif, din, fan... inson borlig'ining asosiy strukturasi qanday kelib chiqishini aniq ko'rsatib berishdan iboratdir»¹, deb qayd etadi.

Jamiyat inqirozi, ijtimoiy qarama-qarshiliklar va boshqa ziddiyatlarni M.SHeler inson, uning shaxsiyati inqirozining alomatlari deb hisoblaydi. U inson shu paytgacha (XX asrgacha) hali hech qachon bu darajada «muammoli» bo'lmaganligini takidlaydi. Buning asosiy sababini SHeler insonni o'rganish antropologik tafakkurning bir-biri bilan uncha bog'liq bo'lmagan turli yo'nalishlari – teologik, falsafiy, tabiiy-ilmiy antropologiya doirasida amalga oshirilishida ko'radi. Masalan, teologik antropologiya insonni faqat iudeycha-xristiancha ananalar nuqtai nazaridan o'rganadi. Falsafiy antropologiya asosiy etiborni insonning o'zligini o'rganishga qaratadi, tabiiy-ilmiy antropologiya (tabiatshunoslikning barcha tarmoqlari va genetik psixologiya) esa faqat Yer rivojlanishining eng so'nggi mahsuli sifatidagi, hayvonot dunyosidagi o'zidan oldingi shakllardan energiya va qobiliyatlar birikmasining murakkablik darajasi bilangina farq qiluvchi mavjudot sifatidagi inson haqida tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

M.SHeler fikriga ko'ra, falsafiy antropologiyaning vazifasi inson borlig'i strukturasi insonning barcha ishlari va amallari, shu jumladan til, fan, mif, sanat, din, jamiyat, davlat, tarix, g'oyalar, vijdon va insonni tavsiflovchi boshqa omillar qanday kelib chiqishini ko'rsatib berishdan iborat. SHu nuqtai nazardan inson falsafasi barcha fanlar fani maqomini kasb etadi.

M.SHeler fikricha falsafiy antropologiyaning predmeti – *bu inson mohiyati va uning strukturasi haqidagi fandir.*

M.SHeler G'arbiy Evropa jamiyatini axloqiy, falsafiy va diniy qadriyatlar odamlar uchun ikkinchi darajali ahamiyat kasb etayotgani uchun tanqid qiladi va ularga bu qadriyatlarni birinchi o'ringa qo'yishni tavsiya etadi. Jamiyatni chulg'ab olgan inqirozdan chiqish yo'lini M.SHeler aynan shunda ko'radi.

SHunday qilib, inson ongli mavjudot sifatida M.SHeler falsafasida markaziy o'rinni egallaydi, inson borlig'ining asosiy tamoyillari sifatida qudratli, biroq

¹ Шелер М. Избранное произведения. – М.: 1994. –С. 187.

kelajakni oldindan ko'rolmaydigan yashashga intilish, hamma narsani anglab eta oladigan, ammo hayotni belgilashga ojiz bo'lgan ong amal qiladi.

SHeler talimoti hayot falsafasi va ekzistensializmning rivojlanishiga ancha kuchli tasir ko'rsatdi. Uning negizida keyinchalik alohida falsafiy-antropologik talimotlar – biologik, psixologik, madaniy, diniy va boshqa nazariyalar vujudga keldi.

Falsafiy antropologiya fanining mohiyati. Inson haqidagi bilimlarni birlashtirish lozimligi xususida SHelerdan oldinroq ham so'z yuritilgan edi. XIX asr o'rtalariga kelib inson o'ta murakkab struktura ekanligi, uni faqat falsafa yoki boshqa biron-bir muayyan fan metodlari bilan to'la anglab etish mumkin emasligi, yani inson jamuljam holda aniq bilim predmeti bo'la olmasligi aniq-ravshan bo'lib qoldi. SHuningdek, ayrim tabiiy fanlar, har biri o'z sohasida, vaqt o'tishi bilan umumiyroq xulosalarga kelishni talab etuvchi salmoqli material to'pladi. Bunday umumlashtirishga ehtiyoj Darvinning evolyusion nazariyasi paydo bo'lishi bilan ayniqsa bo'rtib ko'rina boshladi. Bu nazariya insonga oid tabiiy-ilmiy tadqiqotlarga kuchli turtki berdi, shuningdek materialistik falsafiy konsepsiyalar rivojlanishi uchun qo'shimcha asos bo'lib xizmat qildi.

Mazkur yondashuv tarafdorlari inson ko'p o'lchovli va muttasil o'zgaruvchi mavjudot ekanligidan kelib chiqadi. Garchi uning muhim xususiyatlari ming yillar mobaynida o'zgarishsiz qolayotgan bo'lsa-da, ular insonning mohiyatini to'la namoyon etmaydi. Bu yondashuv tarafdorlari inson o'z oldiga yangi va yangi jumboqlar qo'yayotgan, tashqi dunyoni, o'zining undagi o'rnini aniqlashga harakat qilayotgan, atrof muhitni o'rganish orqali uni o'z ixtiyoriga ko'ra o'zgartiradigan faol asos sifatida amal qiladigan mikrokosm hisoblanishiga ham etiborni qaratmoqdalar. Boshqacha aytganda, inson bunyodkor va ayni vaqtda madaniyat mahsuli, o'zini qolgan jonli dunyodan farqlash imkonini beruvchi manaviyat manbaidir.

Falsafiy antropologiya tarafdorlari insonning mazkur talqinidan kelib chiqib, bu fan izchil ilmiy qarashlarni ilgari surishga davogar bo'la olmasligini va ayrim fanlar: psixologiya, sotsiologiya, biologiya va boshqa ijtimoiy fanlarning turli yondashuvlari va xulosalarini sintezlovchi inson haqidagi bilimlar tizimini yaratishga qaratilishi lozimligini qayd etmoqdalar. Ularning fikricha, bu fan o'z predmeti sifatida inson borlig'ini belgilaydi, uning mohiyatini va o'ziga xos xususiyatlarini tahlil etib, shu tariqa insonning o'zini ham, uni qurshagan dunyoni ham falsafa nuqtai nazaridan anglab etishga harakat qiladi. «Antropologiya yoki aniqroq aytganda – antropologik ong nafaqat ontologiya va kosmologiyaga, balki gnoseologiya va bilish falsafasiga, har qanday falsafa va har qanday bilishga zamin yaratadi»¹.

XX asrning 60-70-yillarida falsafiy antropologiya shunday bir g'oyaviy harakatga aylandiki, uning doirasida olimlar insonning hozirgi holatini nazariy jihatdan anglab etish va talqin qilish, uning tabiatiga nisbatan yangicha yondashuvni ilgari surishga harakat qildilar. Bu davrda yuz bergan fan-texnika taraqqiyoti va insonning o'z ilmiy va amaliy faoliyati natijalari uchun javobgarlik tuyg'usining

¹ Бердяев Н.А. Смысл творчества. – Москва, Наука. 1989. – С.293.

kuchayishi falsafiy antropologiyaning rivojlanishiga qo‘shimcha turtki berdi. SHunday qilib, u endi inson haqidagi bilimlarning umumiyroq majmui – umumiy antropologiyaning tarkibiy qismiga aylandi. Bu fan turli-tuman talimotlar, konsepsiyalar va yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladiki, ularning orasida falsafiy yo‘nalishdan tashqari biologik, teologik (diniy), sotsiologik, psixologik, madaniy (etnografik), strukturalistik, pedagogik va boshqa yo‘nalishlarni qayd etish mumkin.

Ularning har biri, falsafiy yo‘nalishdan farqli o‘laroq, insonning muayyan bir tomonini yoritadi. Masalan, biologik antropologiya anatomiya, fiziologiya, irq haqidagi talimot va shu kabilarga tayanib, insonning qolgan barcha tirik mavjudotlardan farqini uning jismoniy tuzilishi nuqtai nazaridan aniqlaydi. Teologik antropologiya inson haqidagi tegishli tasavvurlarni uni Xudo yaratgani nuqtai nazaridan shakllantiradi. Falsafiy antropologiya esa butunlay boshqa vazifani hal qiladi – u vaziyatga yaxlit yondashadi va fanlararo xususiyatga ega bo‘lgan xulosalar chiqaradi.

Falsafiy bilimning tarkibiy qismi sifatida falsafiy antropologiya ijtimoiy falsafa, axloq, sotsiologiya va psixologiya bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ular bilan birgalikda inson haqidagi fanlar majmuini tashkil etadi.

Falsafiy antropologiyaning predmeti va vazifalari. *Falsafiy antropologiya izlanishlarining bosh mo‘ljali va o‘zagini inson va faqat inson tashkil etadi. SHu manoda falsafiy antropologiyani antropotsentristik falsafiy talimot deb nomlash mumkin, chunki unda inson atrofida borliqning boshqa barcha muammolari aylanuvchi o‘ziga xos «markaziy o‘q» hisoblanadi.*

Falsafiy antropologiyaning antropotsentrizmi falsafaning tadqiqot markazida inson turishi bilangina emas, balki uning barcha maktablari uchun inson dunyoning markazi hisoblanishi bilan ham belgilanadi. Mazkur yondashuv zamirida antik falsafaning Protagor tariflab bergan «Inson hamma narsalar mezonidir», degan tamoyili yotadi. Falsafiy antropologiyaning antropotsentrizmi Evropa madaniyati asoslaridan biri sanalgan xristianlik mafkurasidan ham kelib chiqadi. Aynan xristianlik dunyoviy hayot markaziga insonni qo‘yadi, uni Xudo o‘ziga o‘xshatib yaratgan, degan g‘oyani ilgari suradi.

SHu nuqtai nazardan xristiancha madaniyat vakilining mentaliteti asosida shakllangan falsafiy antropologiyani Sharq falsafiy maktablari bilan taqqoslash o‘rinli bo‘ladi. SHu narsa diqqatga sazovorki, Sharq falsafasida inson hech qachon dunyoning markazi hisoblanmaydi, zero u tabiatning tarkibiy qismi, uning uzviy elementi, Koinotning ko‘p sonli darajalaridan biri sifatida qaraladi. Sharq falsafasida antropotsentrizm yo‘q, umuman olganda falsafiy antropologiya ham mavjud emas. Bu falsafada inson dunyoning tabiiy bir bo‘lagi, tabiatning ajralmas elementi hisoblanadi. Tabiatning o‘zi esa mukammal bo‘lib, inson unga qarshi turmasligi, balki uning izmiga bo‘ysunishi lozim.

SHunday qilib, ko‘pgina faylasuflar tomonidan qo‘yilgan «Inson nima?», degan savol Evropa falsafiy antropologiyasi uchun uning falsafiy muammolari majmuini belgilovchi bosh masala hisoblanadi (va u falsafiy tafakkurning boshqa yo‘nalishlaridan ayni shu jihatdan farq qiladi). Falsafiy antropologiya insonning borlig‘i nuqtai nazaridan inson haqidagi talimotdir. Inson va uning borlig‘i

to'g'risidagi mulohazalar muammolarning keng doirasini qamrab oladi. Bularning barchasi antropologizm, yani insonning mohiyati muammolarini izchil o'rganuvchi tadqiqotlarning alohida yo'nalishi – tor manodagi falsafiy antropologiya to'g'risida so'z yuritish imkonini beradi. Keng manoda esa falsafiy antropologiya shu jumladan inson, uning tabiat va jamiyatdagi borlig'i haqidagi talimotni ham o'z ichiga oluvchi falsafiy qarashlar tizimi sifatida maydonga chiqadi.

Insonning bioijtimoiy mohiyati. Falsafiy antropologiya ehadigan muhim muammolar orasida inson biologik va ijtimoiy mohiyatining o'zaro nisbati to'g'risidagi masala alohida o'rin egallaydi. Inson jonli tabiatning bir qismi, shuningdek biologik evolyusiya mahsuli ekanligi hozirgi zamon tabiatshunosligi fanida nafaqat olimlar va mutaxassislar, balki marifatli odamlarning keng doirasi uchun ham aniq-ravshan va deyarli shak-shubhasiz dalilga aylandi. Har bir inson o'z biologik xususiyatlari: genetik kodi, vazni, bo'yi, mijozi, terisi va sochining rangi, yashash muddati va shu kabilarga ko'ra betakroridir. Biroq ayni vaqtda inson ijtimoiy mavjudot ekanligi, uning o'ziga xosligi va betakrorligi odamzotning ijtimoiy tabiati, u kamol topgan, talim-tarbiya olgan, madaniy va axloqiy qadriyatlar va mo'ljallarni o'zlashtirgan ijtimoiy muhit bilan belgilanishi ham shak-shubhasizdir. Inson nafaqat bioijtimoiy mavjudot balki u fizik, kimyoviy, psixoneyrofizik mavjudot hamdir. U tabiiy olamda bo'lgani kabi 70 foiz suvdan tarkib topgan suvdan paydo bo'lgan va kimyoviy elementlarning yig'indisidir.

Ayni shu sababli inson individi nafaqat ijtimoiy, balki biologik mavjudot sifatida ham o'ziga xos xususiyat kasb etadi. Boshqacha aytganda, insonning kamol topishi jamiyatda va faqat jamiyatda yuz beradi.

Insonning mohiyatini tushunishga harakat qilish jarayonida u nafaqat tashqi, balki ichki, pinhona xususiyatlarga ham ega ekanligini, ular jamuljam holda insonning individ, individuallik, shaxs kabi tushunchalarda aks etadigan muayyan obrazini shakllantirishini ham hisobga olish lozim. Boshqacha aytganda, insonning mohiyatini uning ichki va tashqi borlig'i birligida, uning dunyoga faol munosabatida izlash kerak.

SHunday qilib, *individ muayyan insonning umumiy obrazi sifatida amal qilsa, individuallik uni muayyan o'ziga xos xususiyatlar sohibi sifatida tavsiflasa, «shaxs» tushunchasiga yanada torroq mano yuklanadi, chunki ayni holda inson uning barcha ijtimoiy sifatlari bilan jamuljam holda olinadiki, bu faqat ijtimoiy munosabatlarning u yoki bu tizimini nazarda tutgan holda shaxs to'g'risida so'z yuritish imkonini beradi.* YAni keng talqinga yo'l qo'yadigan «individ» va «individuallik» tushunchalari nafaqat insonga nisbatan, balki individual xususiyatlarga ega bo'lgan ayrim tirik mavjudot, hayvonga nisbatan ham tatbiq etilishi mumkin. «SHaxs» tushunchasi esa doim ijtimoiy mavjudot sifatidagi inson bilangina bog'liq bo'lib, faqat shu manoda, ayrim insonni uning jamiyatdagi o'rni, «ijtimoiy qiyofasi» nuqtai nazaridan tavsiflaydi.

Kezi kelganda yana shuni ham takidlab o'tish lozimki, har qanday shaxs zamirida oqilona faoliyat yotuvchi ongli-ixtiyoriy faollik tavsiflanadi. SHuningdek inson yangi moddiy va manaviy boyliklar yaratib, o'z ijodiy imkoniyatlarini izchil ro'yobga chiqarish orqali shaxs sifatida namoyon bo'ladi.

Hozirgi zamon fanida shaxsning shakllanishiga tasir ko'rsatuvchi uch muhim omil: irsiyat, madaniy muhit va yashash sharoiti farqlanadi. Bu omillar o'zaro tasirga kirishishi natijasida inson shaxs sifatida o'ziga xos xususiyatlar majmui: tegishli ehtiyojlar, qiziqishlar, mijoz, qobiliyatlar, maqsadlar, mo'ljallar, manaviyat va shu kabilarga ega bo'ladi. Insonning mazkur betakror individual xususiyatlari asosan u yashayotgan muhitdagi ijtimoiy va madaniy shart-sharoitlar tasirida shakllanadiki, bu shaxsning shakllanishi va kamol topishida jamiyat juda muhim rol o'ynashini qayd etish imkonini beradi. Ayni vaqtda shaxs umumiy etirof etilgan meyorlarga muvofiq yoki ularga zid shakllanishi va kamol topishi mumkin. Bu manoda ijobiy shaxslar to'g'risida ham, salbiy shaxslar to'g'risida ham so'z yuritish mumkin.

Hozirgi vaqtda aksariyat olimlar va faylasuflar inson evolyusiyasidagi ijobiy jarayonlarni va ijtimoiy o'zgarishlar imkoniyatlarini ijtimoiy munosabatlarning insonparvarlashuvi, odamlar ongidan umuminsoniy meyorlar mustahkam o'rin olishi bilan bog'lamoqdalar. Bunda inson o'zining butun umri mobaynida, bir tomondan, o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishishga harakat qilib, boshqa tomondan esa – o'zini qurshagan ijtimoiy va tabiiy muhit tasirini his etib, yaxlit bir butun hodisa sifatida, uzluksiz tadrijiy rivojlanishini etiborga olish lozim. Boshqacha aytganda, o'zining kamol topish jarayonida u doim ham subekt, ham obekt hisoblanadiki, bu shaxsning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi va hayot mazmunini izlashi bilan bog'liq bo'lgan yana bir muhim falsafiy muammo yuzaga kelishini belgilaydi.

Insonni tushunishda dualizm va monizm. *Qadim zamonlarda vujudga kelgan insonga nisbatan dualistik yondashuv shundan iboratki, odamzot, bir tomondan, moddiy organizmdan, boshqa tomondan esa – mustaqil mohiyat sanaladigan va bu organizmni boshqaradigan nomoddiy jondan tashkil topgan mavjudot sifatida qaraladi.* Bu yondashuv, masalan, boqiy g'oyalar dunyosida yashaydigan o'lmas jon inson tug'ilayotgan paytda uning tanasiga xuddi zindonga tushgandek kirib o'rnashadi, uning o'limidan keyin esa vujudni tark etib, yana g'oyalar dunyosiga qayta, deb hisoblagan Platon falsafasida ayniqsa bo'rtib namoyon bo'ladi. Jonlarning o'lmasligi g'oyasi Sharq falsafiy ananasiga ham xosdir.

Hozirgi olimlarning aksariyati qo'llab-quvvatlaydigan inson talqinining monistik konsepsiyasi inson ruhiyati, uning tuyg'ulari, fikrlari, emotsiyalari va kayfiyati inson organizmining tarkibiy qismi sanalgan bosh miya nerv hujayralari hayot faoliyatining mahsulidan o'zga narsa emas, degan tushunchadan kelib chiqadi. Bu yondashuv tarafdorlarining fikriga ko'ra, ruhiy hodisalar qandaydir nomoddiy asosga ega, deb hisoblash uchun etarli dalillar mavjud emas, shu sababli ruhiyat tabiatini tushuntirishda inson organizmida yuz beradigan moddiy jarayonlar chegarasidan chetga chiqishning hojati yo'q.

SHunday qilib, tavsiflangan muammo inson o'z tabiatiga ko'ra faqat biologik mavjudotmi yoki faqat ijtimoiy mavjudotmi, degan masala bilan bog'lanmaydi. U, hech shubhasiz, ham biologik, ham ijtimoiy mavjudotdir.

Ammo bu ikki asosning o‘zaro nisbati qanday, ularning biri ikkinchisidan ustunroqmi va inson mohiyatini nima belgilaydi – bu endi qizg‘in bahs-munozaralar predmetidir. Mazkur masalalar hanuzgacha o‘zining uzil-kesil echimini topgani yo‘q, hozirda mavjud turli biologik, psixologik va falsafiy maktablar bu savollarga har xil javoblar beradi.

YUqorida zikr etilgan muammoning echimiga nisbatan mavjud yondashuvlar orasida insonning bioijtimoiy tabiatini tushunishga nisbatan qarama-qarshi nuqtai nazarlar ifodasi sanalgan biologizatorlik va sotsiologizatorlik konsepsiyalari alohida o‘rin egallaydi. Bunda ularning har biri boshqasini butunlay rad etmaydi, ammo insonning muayyan bir (biologik yoki ijtimoiy) tabiatini ustunroq qo‘yadi yoki hatto mutlaqlashtiradi.

Biologizatorlik konsepsiyalari. *Biologizatorlik konsepsiyalarining tarafdorlari insonni uning tabiiy, biologik asosidan kelib chiqib tushuntirishga harakat qiladi.* XVIII asr oxirida jamiyat hayotiga ayrim odamlarning o‘z mavjudligi uchun kurash maydoni sifatida qarashni taklif qilgan T.Maltus nazariyasini bunday tushuntirishga bo‘lgan birinchi jiddiy urinish deb hisoblash mumkin. Maltus fikricha, bu kurashda kuchlilar g‘olib chiqadi, kuchsizlar esa halok bo‘lishga mahkumdur. Mazkur kurashga tabiiy omillar turtki beradi. Xususan, aholi soni geometrik progressiya bo‘yicha ko‘payib boradi, tirikchilik vositalari taklifi esa faqat arifmetik progressiya bo‘yicha o‘sadi, bu esa muqarrar tarzda ocharchilik, epidemiyalar, urushlar va boshqa ijtimoiy tangliklarga olib keladi. Mazkur omillarga Maltus kuchlilarning yashab qolishini taminlovchi ijtimoiy munosabatlarning «tabiiy», muqarrar va hatto zarur tartibga solish vositalari sifatida qaraydi. Demografik muammolarning echilmagani, shuningdek ular XX asrda yanada keskinroq tus olishi shunga sabab bo‘ldiki, Maltus g‘oyalari neomaltuzchilar deb nomlangan o‘z davomchilarini topdi va topishda davom etmoqda.

Biologizatorlik yondashuvlari XIX va XX asrlar chegarasida Darvinning tabiiy tanlanish haqidagi talimotini mutlaqlashtirib, nafaqat insonning kelib chiqishi, balki uning mohiyatini, pirovard natijada esa – butun ijtimoiy munosabatlar tabiatini tushuntirishga harakat qilgan sotsial-darvinistlarga ham xosdir. Hozirgi vaqtda bu yo‘nalishni odamlarga ham, hayvonlarga ham teng darajada xos bo‘lgan irsiyatga urg‘u beruvchi sotsiobiologiya davom ettirmoqda. Sotsiobiologlar fikriga ko‘ra, inson xulq-atvori ham, hayvon xulq-atvori ham irsiy omillar bilan belgilanadi va hech kim o‘z irsiyati tasirini – u xoh yaxshi bo‘lsin, xoh yomon – engishga qodir emas.

Inson tabiati xususida shunga o‘xshash qarashlarga ayrim odamlarning boshqa odamlardan ustunligini faqat ularning «oliy» yoki «past» irqqa mansublik belgisiga ko‘ra elon qiluvchi irqchilik konsepsiyalarida ham duch kelish mumkin. Bu, xususan, «irqiy tozalik» uchun kurash olib borgan va «irqiy tanlanish»ni amalga oshirish g‘oyasini faol ilgari surgan fashistik mafkurada ayniqsa bo‘rtib namoyon bo‘ladi. Mazkur g‘oyalar zamirida asosan XIX asr oxiri – XX asr boshlarida keng tarqalgan «inson irsiyatining oliy sifati»ga qanday vositalar bilan va qay tarzda erishish mumkinligi haqidagi talimot – evgenika yotadi.

XX asr boshlarida bu talimot shu darajada keng tarqaldiki, ayrim mamlakatlarda davlat siyosati bilan uzviy bog'landi. Xususan, 1920-1930-yillarda Daniya, SHvetsiya va Norvegiyada jamiyatda tabiiy tanlanishni ijtimoiy mustahkamlovchi irqiy qonunlar qabul qilindi.

Sotsiologizatorlik konsepsiyalari. *Sotsiologizatorlik yondashuvi inson tabiatini ijtimoiy munosabatlarda ko'rishga harakat qiladilar.* Bunda ular bazan nafaqat insonning ijtimoiy asosini uning biologik asosiga qarama-qarshi qo'yadilar, balki so'nggi zikr etilgan asosni hayvoniy va hattoki tuban, shu bois jiddiy etiborga loyiq emas, deb hisoblaydilar. Asosiy etibor ijtimoiy munosabatlar tahliliga va individ, shaxsning shakllanishida jamiyat qanday rol o'ynashini aniqlashga qaratiladi. Pirovardida ijtimoiy asos individual asosga qaraganda ustunroq ahamiyat kasb etadi, uni o'ziga bo'ysundiradi va qamrab oladi. Mazkur yondashuv total ijtimoiy tizimlarga va ularni asoslashga harakat qiluvchi falsafiy talimotlarga, xususan, Platon falsafasi ayniqsa xosdir. Umuman olganda, bu individualizm va kollektivizm muammosidir.

Lev Nikolaevich Gumilyov (1912-1992) insonni tushunishga yangicha yondashgan va tarixiy-madaniy jarayonda individlarning uch turi: *passionariylar, subpassionariylar va muvofiq odamlarni farqlagan.* Passionarlik (lotincha «passio»—«ehtiros») deganda energiyaning «tur meyoridan og'uvchi, ammo patologik xususiyatga ega bo'lmagan» turi tushuniladi. Passionarlik har safar materiyani o'zini qayta tashkil etishga majburlovchi to'liq manbai, atrof-muhitni o'zgartirish qobiliyati hamda bunga bo'lgan intilish yoki fizika tili bilan aytganda, muhitning agregat holatini buzishga bo'lgan intilish tarzida namoyon bo'luvchi biofizik omildir. Passionar turtki mutatsiyaga olib keladi. Gumilyovning fikriga ko'ra, mutantlarning tug'ilishi passionariylar—o'ta g'ayratli shaxslarning tug'ilishidir. Passionarlik turtkisi shu qadar kuchli bo'lishi mumkinki, mazkur belgi egalari o'z qilmishlarining oqibatlari haqida o'ylashga o'zlarini majbur qila olmasliklari mumkin. Shuning uchun ham passionarlikni ong belgisi deb emas, balki asab sistemasining konstitutsiyasida namoyon bo'luvchi muhim belgisi deb tushunish lozim, u, ong faoliyati bilan bog'liq faollikdan farqli o'laroq, emotsiyalar sohasida yashaydi. Passionariylarni ideal xususiyatlardan ancha uzoq xususiyatlar: takabburlik, mag'rurlik, manmanlik, ochko'zlik va b. tavsiflari ham mumkin. «Passionarlik —muayyan maqsadga (ko'pincha xayoliy maqsadga) erishishga yo'naltirilgan faoliyatga (ongli yoki ko'pincha ongsiz) ichki intilish. Mazkur maqsadni passionariy hatto o'z hayotidan hamda zamondoshlari va qabiladoshlarining baxtidan afzal deb biladi»¹. Passionarlik darajasi har xil bo'lishi mumkin, ammo bu hodisa tarixda aniq va qayd etiladigan tarzda namoyon bo'lishi uchun passionariylar soni ko'p bo'lishi kerak, yani passionarlik nafaqat individual belgiga, balki populyasion belgiga ham tayanadi. Passionariylar orasida ruh passionariylari va tana passionariylari ham farqlanishi mumkin. *Salbiy impulsarga ega bo'lgan, hech narsaga qaramay, hatto o'z zarariga ish tutishga intiladigan odamlar passionariylar* deb ataladi. *Ijobiy, hayotbaxsh impulsarga ega odamlar esa subpassionariylar* deb ataladi. L. Gumilyovning fikriga ko'ra, passionariylar

¹ Гумилев Л.Н. Конец и вновь начало.—Москва, Наука, 1994. —С. 71.

tubanlashgan hollarda ularning o'rnini subpassionariylar egallaydi. Ularni «sodda», «qoloq» odamlar deb hisoblaydilar, ularning keng maydonga chiqishi etnosning intihoga yuz tutganini anglatadi, chunki ularda instinktiv impulslardan boshqa hech narsa qolmaydi. «Passionarlik» hodisasi dunyoning yagona axborot-energetik manzarasida tarixda chuqur iz qoldirgan «buyuk odamlar va xalqlar»ning faoliyati mexanizmlarini tushunish imkonini beradi. Uni tushunib etishga («inson xulq-atvorining shakllanishiga jug'rofiy muhitning tasiri» masalalari bilan) ulkan hissa qo'shdi. Passionarlik muammosi L. Gumilyov konsepsiyasining nazariy negizini tashkil etadi. Muallifning fikricha, passionarlik–biologik belgi, osoyishtalik inersiyasini buzuvchi dastlabki turtki; bu passionariylarning malum sonidan iborat avlod. Ular o'z hayoti bilan odatdagi vaziyatni buzadilar, chunki o'zlarini qiziqtirgan maqsadsiz kundalik tashvishlar bilan yashay olmaydilar. Muvofiq odamlar jamiyatning umumiy qonuniyatlari va siyosiy tizimiga moslashuvchanlikda namoyon bo'ladi va ijtimoiy jarayonlar aynan muvofiq odamlarning faoliyatibilan belgilanadi,

Gumilyov tariflagan juda qiziqarli qonunga binoan, «etnik jamoa tomonidan amalga oshiriladigan ish passionar kuchlanish darajasiga to'g'ri proporsional» bo'lib, bunda «etnosning passionar kuchlanishi deganda etnik tizimda mavjud passionarlik miqdorining etnosni tashkil etuvchi shaxslar soniga bo'linishi tushuniladi»¹. Madaniyat va turmush darajasining barqaror o'sish davrlari esa passionar kuchlanish umumiy tarzda pasaygan davrlar bilan bog'liq.

Umuman olganda, passionarlik hodisasining manbai koinot omillariga, jumladan, quyosh faolligining davriy jarayonlari bilan bog'lanadi. L. Gumilyov aniqlagan passionarlik hodisasi inson to'g'risidagi V.I.Vernadskiy tariflab bergan «boshqa kuchlar bilan bir qatorda, real jug'rofiy kuch», degan qarashni qabul qilish imkonini beradi. Bu kuch doimo bunyodkor kuch emas, bazan u halokatli oqibatlariga olib keladi. L. Gumilyovning: «Biosfera odamlarni to'ydira oladi, ammo ularning butun Yer yuzini biotsenzlar konversiyasi siklidan chiqarilgan ashqoldashqollar bilan to'ldirishga bo'lgan intilishini qondira olmaydi», degan so'zlari buning real isbotidir².

Hayotning mazmuni va insonning vazifasi. Inson hayotning tezoqarligini yodda tutishi, uning shomini kuzatishi, odamzot hayotining bebaholigi haqida o'ylashi, o'lim haq ekanligini unutmasligi lozimligi haqidagi fikrlarga biz falsafa fani shakllanish jarayonining ilk bosqichidayoq, G'arb falsafiy ananasida ham, Sharq falsafasida ham duch kelishimiz mumkin. SHundan beri o'tgan vaqt mobaynida bu borada deyarli hech qanday o'zgarish yuz bergani yo'q, zero, avvalgidek, odamzotning hayot yo'li tug'ilish va o'lish sanalari bilan chegaralanadi. SHuningdek, birinchi sana doim muayyan, aniq bo'lsa, ikkinchi sana inson umrining oxirgi soniyalarigacha mavhum bo'lib qoladi.

Ayni shu sababli hayotning mazmuni muammosi har bir inson qarshisida ertami-kechmi ko'ndalang bo'ladi va u o'ziga aniq va uzil-kesil javob topish mumkin bo'lmagan savollarni beradi. «Bu dunyoda nima uchun yashayapman?»,

¹ Гумилев Л.Н. Этногенез и биосфера Земли.–Москва, Наука,1989. -С. 257-256.

² Ўша ерда. – Б. 418.

deb soʻraydi oʻzidan inson va agar bu savolga oʻzi javob bermasa, oʻz hayotiga muayyan mazmun baxsh etmasa, bu ishni uning oʻrniga hech kim va hech qachon bajarmasligini vaqt oʻtishi bilan anglay boshlaydi. Abadiyat qarshisida, oʻlim qarshisida har kim oxir-oqibatda oʻzi bilan oʻzi tanho qoladi. Albatta, jamiyatda inson oʻzini bu darajada yolgʻiz his etmaydi, biroq, ekzistensialistlar fikriga koʻra, bu hol toki inson boshqalarning ham oʻz hayoti borligi va ular ham oʻz hayotining mazmuni va oʻzining vazifasi haqidagi oʻta shaxsiy muammolarni mustaqil echish zaruriyati qarshisida turganini anglab etgunga qadar davom etadi.

Bundan ekzistensializm falsafasida yolgʻizlik muammosi kelib chiqadi. Aslida, mazkur muammo falsafiy antropologiyada ham inson borligʻi tahlilidagi bosh muammolardan biri hisoblanadi.

Hayotni tark etish bosqichlari. Biologik mavjudot sifatida har bir inson oʻlimga mahkumdir. Buni qadimgi mutafakkirlar ham yaxshi tushungan. Xususan, oʻz muxoliflaridan birining: «Oʻttiz tiran seni oʻlimga hukm etdi», degan gapiga Suqrot: «Ularni esa oʻlimga tabiat hukm etgan», deb javob bergan. Ammo odamzot ijtimoiy mavjudot sifatida ham oʻlimga mahkumdir.

Hozirgi zamon fanida oʻlish jarayonining toʻrt bosqichi farqlanadi. Bu bosqichlarga organizmda yuz beradigan va uning qarishini tavsiflaydigan orqaga qaytarib boʻlmaydigan biologik oʻzgarishlar sabab boʻladi.

Xususan, 25 yoshdan boshlab va ayniqsa 45 yoshdan keyin insonda har kuni u tugʻilgan paytga qadar «jamlangan» va boshqa hech qachon yangilanmaydigan oʻn minglab nerv hujayralari (neyronlar) halok boʻladi. Ammo bosh miya qobigʻida bunday hujayralar soni 40 milliardga etadi va shu sababli «qariyotgan normal miya uchun bu jiddiy oqibatlarga sabab boʻlmaydi, chunki unda yana oʻn milliardlab neyronlar normal faoliyat koʻrsatishda davom etadi»¹.

Amalda insonning hayotni tark etishi u odamlardan oʻzini olib qochib, jamiyatdan uzoqlashishi bilan tavsiflanadigan **ijtimoiy oʻlim** yuz berganida boshlanadi. Surunkali giyohvand moddalarini istemol qilish, kashandalik, ichkilikbozlik, oʻz hayotidan doimiy norozilik, yoʻl qoʻyilgan xato va jinoatlar oqibatida jamiyatdan ajralish holatlari ijtimoiy oʻlimni bildiradi. Soʻngra **ruhiy oʻlim** yuz beradi, bunda inson hayot tugagani va oʻlimning muqarrar ekanligini va oʻz hayoti davomida hech narsaga erisha olmaganini anglaydi. **Miya oʻlishi** bilan bosh miya faoliyati butunlay toʻxtaydi, organizmning turli funksiyalarini boshqarish barham topadi. Bu jarayon **fiziologik oʻlim** bilan yakunlanadi. Bunda insonning uni tirik organizm sifatida tavsiflovchi barcha funksiyalari uzil-kesil toʻxtaydi.

SHuning ijtimoiy hayotda suitsid - odamlarning oʻzini qasddan oʻldirishi va parasuitsid - oʻzini oʻldirishga harakat qilish holatlari ham uchraydi. Umr qisqa, hayot nihoyatda murakkab, lekin har qanday vaziyatda inson yashab qolish uchun kuch va irodaga ega boʻlishi uning aql imkoniyatlaridan unumli foydalanishining oqibatidir. Bu dunyoda hes bir sabab oʻz oʻzini oʻldirish uchun asos boʻla olmaydi.

Xulosalar. Muayyan inson oʻz hayoti soʻnishining yuqorida sanab oʻtilgan bosqichlarini anglamasligi ham mumkin (aksariyat hollarda shunday boʻladi), ammo u oʻz hayot yoʻlidan ilgarilar ekan, bu dunyoda nima uchun yashayapman, degan

¹ Годфруа Ж. Что такое психология. -Т. 2. - М.: 1996. - С.11.

savolga o'z harakatlari, qilmishlari bilan javob beradi. Agar inson ularni hali to'la anglab etmagan bo'lsa, mazkur vazifani echish o'z hayot yo'lini endigina tanlayotgan odam uchun ham, umrining shomida ortga nazar tashlab, o'z hayotini sarhisob qilayotgan odam uchun ham teng darajada mushkul ish bo'lib qoladi.

Inson o'z tabiatiga ko'ra o'limga mahkum, ammo, buni tushungan holda, u o'zi bilan bog'liq hamma narsa o'zining tug'ilish va o'lish sanalari bilan chegaralangan qisqa vaqt oralig'ida jamlanganini tan olishni istamaydi. U o'z taqdirini ijtimoiy muhim maqsadlar, manaviy uyg'onish bilan bog'lashga harakat qilishi ayni shu hol bilan izohlanadi.

YAna bir yo'lni din taklif qiladi. Bu erda u yoki bu e'tiqodlarga qarab, hayotning mazmuni va shaxsiy umrboqiylikka erishish haqidagi savolga shaklan har xil, lekin mazmunan juda o'xshash javoblar beriladi. Ularda asosan u dunyo chin dunyo ekanligi, bu dunyoda bajarilgan ishlarga haqiqiy baho u dunyoda berilishi va shu kabilar to'g'risida so'z yuritiladi.

YAna bir imkoniyat – bu dunyoda o'z hayotini odamlarga, ezigulik, haqiqat va adolatga xizmat qilishga bag'ishlashdan iborat. SHu tariqa inson o'z ishlari, g'oyalari va qilmishlari bilan kelgusi avlodlar xotirasida qolish imkoniyatini qo'lga kiritadi.

Inson bu yo'llarning qaysi birini tanlashi faqat uning o'ziga bog'liq. U o'z hayotida bu erda ko'rsatilganidan butunlay boshqa yo'lni tanlashi ham mumkin. Lekin ertami-kechmi har bir inson hayotda o'zi tanlagan yo'lning to'g'ri yoki noto'g'riligi haqida mulohaza yuritishi muqarrardir.

Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar

1. Ong, uning mohiyati va jihatlari haqida so'zlab bering.
2. Inson va uning ongi, ma'naviyati va dunyoqarashini falsafiy tahlil qilishning ahamiyati nimadan iborat?
3. Ongning kelib chiqishi va rivojlanishi haqidagi qarashlar to'g'risida so'zlab bering.
4. Tafakkur va tilning birligi haqida nimalar deya olasiz.
5. Sizning fikringizcha, kibernetik qurilmalarda ong bo'lishi mumkinmi?
6. Yuksak ongning inson bunyodkorlik faoliyatiga ta'siri haqida nimalar deya olasiz?
7. Sharq va G'arb falsafasida inson masalasi tahlilidagi o'ziga xosliklar nimalardan iborat ?

9-mavzu. Globallashuv va global muammolarning falsafiy jihatlari

Globallashuv – yangi falsafiy mavzu. Ming yilligimizning oxiriga kelib, insoniyat tarixida dunyodagi hayotni umuman boshqa yo'nalishga burib yuborgan globallashuvni guvohi bo'ldik. “Globalizatsiya”- “gloub (inglizchadan “globe”, yani

Yer shari), “global” (“global”, yani butun dunyoga tegishli) va “globallashuv” (“globalize”, yani butun dunyoga tarqalishi) soʻzlaridan kelib chiqqan. Globallashuv atamasi dastlab XX asrning 80-yillari boshlarida iqtisodiy sohada sodir boʻlgan oʻzgarishlarni yuzaga keltirgan omil sifatida amerikalik olim T.Levittning 1983 yilda “Garvard biznes revyu” jurnalida elon qilgan maqolasida qoʻllanilgan edi. T.Levitt yirik transmilliy korporatsiyalar ishlab chiqaradigan turli-tuman mahsulot bozorlarining birlashuv jarayonlarini “globallashuv” deb atagan¹.

Globallashuvning ilmiy muammo sifatida oʻrganish jarayoni esa Roland Robertson tomonidan 1985 yili uning jahonni yagona bir butun qilish maqsadiga qaratilgan obektiv jarayonlarning majmuasi sifatida aniqlangan davridan boshlangan.² Bu tushunchaga ana shu paytdan boshlab to hozirgacha turlicha qarashlar davom etib kelmoqda. Globallashuv jarayoni axborot inqilobi, ayniqsa, internetning rivojlanishi hamda moliyaviy bozorlarning integratsiyalashuvi bilan uzviy bogʻliq. Bugungi kunda globallashuv atamasi shunchalik mashhur boʻlib ketganki, uni XXI asr mahsuli desak mubolagʻa boʻlmaydi. SHu oʻrinda, izohlash uchun xilma-xil yondashuvlar, nazariyalar, paradigmalari ishlab chiqilgan boʻlib, ularning hammasini sharhlab quyidagi xulosaga kelish mumkin: globallashuv halqlar, mamlakatlar transformatsiyasi, insoniyatning bir butunlikka integratsiyasini keltirib chiqaradi. SHu manoda, muayyan jamiyat oʻzidan etuk deb hisoblagan boshqa jamiyatning mafkura, qarashlar, ilmiy-texnikaviy, madaniy yutuqlarni oʻzlashtirishi globallashuv tasiri ostida boʻladi. SHu borada, kimdir buni jahonning yangi tarkibi shakllanishida xalqlarning yaqinlashuviga, iqtisodiy farovonlikka ijobiy tasir etadi, deb (K.Omae, P.Draker, T.Piters, S.Reysmit, S.Xantington va b.) hisoblasa, boshqalar (Z.Bauman, N.V.Zagladin, F.Fukuyama, G.P.Martin, X.SHuman, M.G.Delyagin, V.I.Dobrenkov va b.) globallashuv milliylikning yoʻqolishi, bir mamlakatning boshqa yirik ilmiy salohiyatga ega boʻlgan davlatlarga qaramligini oshiradi deb qaraydilar.

SHu asnoda nafaqat oddiy oʻquvchi, balki oʻz mustaqil mushohada-mulohazasiga ega boʻlgan odamlarda ham globallashuv jarayoni tasirida jahonning yangi tarkibi yoki boʻlmasa millatlarning totuvligini taminlovchi madaniyati, manaviyati qanday boʻlishi toʻgʻrisida gumon-shubhalar, ikkilanishlar paydo boʻlishi tabiiy.

Bir necha yillik tadqiqotlari natijasida A.CHumakov “Globallashuv ijtimoiy hayotning barcha sohalarning, manaviy qadriyatlar, dunyoqarash yoʻnalishlarini universallashtirishga olib kelishi bilan birga, ananaviylik, oʻziga xoslik va madaniy xilma-xillikni saqlashni istisno qilmaydi”³, - degan xulosaga keladi. Bunday davrda shaxs murakkab ijtimoiy muhit sharoitida faoliyat koʻrsatishga majburdir.

Bundan tashqari, globallashuv masalasiga oid zamonaviy bahslar ushbu muammoni yanada chigallashtirib yubormoqda hamda yangi muqobil gʻoya, nazariyalarning paydo boʻlishiga turtki bermoqda. Jumladan, “Fransuz olimi Jak Le Dyumgi quyidagi yondashuvlarni ishlab chiqadi:

¹ Умаров Б. Глобализация и национальный суверенитет. – Тошкент: Маънавият, 2006. – 8-б.

² Гринин Л.Е.. Глобализация и национальный суверенитет. История и современность. -М.: №1, 2005. -С. 811.

³ Чумаков А.Н. Глобализация. Контуры целостного мира. М., Проспект.2005.С.259

1. Liberal yondashuv. Globallashuv faqatgina obektiv jarayon emas, foydali fenomen sifatida iqtisodiy, ijtimoiy samaradorlikka olib keladi;

2. Madaniy yondashuv. Milliy madaniyatlar inqirozi tarixiy jamiyatlar to‘qnashuvi, “chatishgan madaniyat” ning paydo bo‘lishi”¹.

YUqoridagi yondashuvlardan farqli o‘laroq Golland tadqiqotchisi YA.N.Piters globallashuvni izohlashda quyidagi paradigmalar tipologiyasini taklif etadi.

1. “Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi. Turli madaniyatga mansub jamiyat mamlakatlarining konfrontatsiyasi;

2. “Makdonaldlashuv”. Transmilliy kompaniyalar amalga oshirayotgan modernizatsiya ostida (vesternizatsiya, evropeizatsiya, amerikanizatsiya) madaniyatlari gegemonlashuvi.

3. “Gibridlashuv”. Halqaro munosabatlar ostida umumiy, aralash madaniyatning paydo bo‘lishi”².

SHunday qilib, globallashuv ko‘p qirrali jarayon bo‘lganligi uchun uni sharhlashda ancha muammolarga duch kelamiz. Buni bartaraf etish maqsadida jahonda globallashuv tasiri ostida bo‘layotgan jarayonlarni to‘liq va mukammal tahlil etib ko‘rishga to‘g‘ri keladi.

Globallashuv hodisasi va globalistika. Bugun globallashuv jarayonining turli mamlakatlarda o‘tkazayotgan tasiri ham turlicha. Bu hol dunyo mamlakatlarining iqtisodiy, siyosiy, manaviy va boshqa sohalardagi salohiyatiga bog‘liq. Dunyoda yuz berayotgan shiddatli jarayonlarning har bir mamlakatga o‘tkazayotgan salbiy tasirini kamaytirish va ijobiy tasirini kuchaytirish uchun shu hodisaning mohiyatini chuqurroq anglash, uning xususiyatlarini o‘rganish lozim.

Globallashuv – turli mamlakatlar iqtisodi, madaniyati, manaviyati, odamlari o‘rtasidagi o‘zaro tasir va bog‘liqlikning kuchayishidir. Albatta, globallashuv tushunchasiga berilgan tariflar juda ko‘p. Masalan, fransuz tadqiqotchisi B.Bandi globallashuv jarayonining uch belgisini quyidagicha keltiradi:

1) globallashuv bu – doimiy davom etuvchi tarixiy jarayon;

2) globallashuv bu – jahonning gomogenlashuvi va universallashuvi jarayoni;

3) globallashuv bu – milliy chegaralarning “yuvilib ketish” jarayoni³.

XX asr o‘rtalarida globallashuvning institutsionallashuvi, yani tashkillashuvi kuchaygandan so‘ng, bu jarayonning o‘zi ham shiddatli tus oldi. Bugungi globallashuv jarayonida asosiy etibor iqtisodiyot sohasiga qaratiladi. Ammo, bu jarayonning manaviyatga, madaniyatga tasiri ijtimoiy fanlarda etarlicha tadqiq etilmagan.

CHetdan o‘tkaziladigan mafkuraviy tasirga qarshi himoya choralari ko‘rishdan avval qanday tasirlarni maqullash lozimu, qandaylarini rad etish kerakligini aniqlab olish zarur. Hozirgi kunda birorta ham xalq yo‘qki, u boshqa xalqlar madaniyati va manaviyatidan to‘lik to‘silgan bo‘lsa. qolaversa tarix boshqa

¹ Богомолов Б.А. Глобализация: некоторые подходы к осмыслению феномена. Вестн. Моск. Ун-та Сер. 12. Политические науки. 2004. №3.

² Peters, B. G., and D. J. Savoie. 1996. Governance in a Changing Environment. Montreal & Kingston : McGill-Queen's University Press.

³ Миллий истиқлол ғояси. Дарслик. Тузув.: И.Эргашев ва бошқ. -Т.: Академия, 2005. –Б.80.

xalqlar manaviyatidan bahramand bo'lgan xalqlar manaviyati yuksaklikka erishganidan guvohlik beradi. Ajdodlarimiz tarixi jahon xalqlari manaviyatiga hurmat bilan qarash, kerakli joylarini o'rganib, ijodiy rivojlantirish orqaligina manaviyat cho'qqisiga erishish mumkinligidan guvohlik beradi. Bizga tasir o'tkazayotgan yoki tasir o'tkazmoqchi bo'layotgan g'oyalarni qay birini qabul qilish va qay birini rad etish lozimligini aniqlash uchun jiddiy tahlil lozim. Ana shunday tahlilni o'tkazish uchun bazan hafsalasizlik, baza XX asr insoniyat taraqqiyotida ko'plab yirik o'zgarishlar, tarkibiy siljishlar, buhronlar (krizislarga) asri sifatida o'rin oldi. Insoniyat o'z taraqqiyot yo'lida hamkorlikda va hamjihatlikda hal etishi lozim bo'lgan muammolar ko'lami, sohalari tobora orta bormoqda. YAngi ming yillikda bu o'zgarishlar yanada chuqurlashuvi va xalqaro ahamiyatga ega bo'lib borishi tabiiydir.

Globallashuv o'z mohiyati jihatidan koinotimizdagi har bir inson, har bir davlat, qolaversa jahon hamjamiyatini befarq qoldirmaydigan va uni faqatgina xamkorlikdagina hal etilishi lozim bo'lgan muammolarni o'z tarkibiga oladi. Global jarayon asosiy ziddiyati shakllanayotgan umuminsoniy turmush tarzi bilan milliy turmush tarzlari o'rtasidagi farq va tafovudlarni umumiy maxrajga olib kelishi masalalari bilan bog'likdir. Ammo umumbashariy turmush tarzlarining ijobiy, asosli, barcha millatlar va elatlar qabul qilgan jihat va hislatlarini umumlashtirish asosida quriladi. SHu nuqtai nazardan olganda, har bir xalqning turmush tarzi uziga hos ijobiy hislat va xususiyatlarini saqlab qolgan holda, umuminsoniy mazmunga ega bo'lib, barcha xalqlarning asosiy talablariga javob berishi kerak. L.E.Grininning fikricha, "Globallashuv mintaqalar va umuman jahonning integratsiyasi va yaqinlashuvining natijasidir". U globallashuvga jarayon sifatida qaraydi va unga quyidagi tarifni beradi. "Globallashuv bu jarayon, uning natijasida dunyo o'zining barcha subektlariga yanada aloqador va yana ham bog'liq bo'ladi".

2006 yilda "Globallashuv" tushunchasi va uning turli sohalarga o'tkazayotgan tasirini aniqlashga bag'ishlangan jahonning etakchi olimlari hamkorligida "Globalistika mejdunarodnyy mejdissiplinarnyy ensiklopedicheskiy slovar" tayyorlanib elon qilindi. Unda globallashuv tushunchasiga olimlar turlicha tarif berganlar va uning tasir doirasini aniqlashga harakat qilingan. Lekin ko'rinib turibdiki, globallashuvning milliy manaviyatga o'tkazayotgan salbiy tasiri etibordan chetda qoldirilmoqda. Globallashuvning boshlanish davri bo'yicha G'arb olimlari ham turli fikrlarni ilgari surib kelmoqdalar. Jumladan, R. Kobden va J. Brayt kabi olimlar globallashuv to'lqinlarini mamlakatlar o'rtasida erkin savdoning amalga oshuvi va uning natijasida iqtisodiyotdagi o'sish bilan bog'laydilar hamda uning boshlanish davrini XIX va XX asr bilan chegaralaydilar. Ularning fikricha, Britaniya o'zining dengiz, industriya va moliyaviy qudrati bilan globallashuv to'lqinining birinchi bosqichi kafolati bo'lgan. Ular globallashuvning ikkinchi bosqichi yoki tiklanishini 1970 yillarning oxirlarida informatika va telekommunikatsiyada sodir bo'lgan inqiloblar asosida boshlanganligini takidlaydilar¹. Aslida globallashuv XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab turli daraja va ko'rinishlarda mavjud bo'lgan. Dastlab, u stixiyali ravishda kechgan

¹ Отамуротов С. Глобализация в культуре (социальный философский анализ) -Т.: Янги аср авлоди, 2008. Б.11.

bo'lsa, malum vaqtdan keyin iqtisodiyotni taraqqiy ettiruvchi omilga aylangan. Uning bu imkoniyatidan hamma manfaatdor bo'lgan va bu jarayonning avj olishi XXI asrga kirib kelish davriga to'g'ri kelmoqda.

Hozirgi kunda "globalistika" termini zamonaviy fan tilining ajralmas qismidir, ammo uning manosi haqida hanuz turlicha fikrlar bildirilmoqda. Bazilar bu yangi fan, u hali shakllanish jarayonida deb aytsalar, boshqalar ilmiy bilish integratsiyasi natijasi deb bilib, o'ziga xos fanlararo tadqiqotlar sohasi, deb tan olmoqda.¹ Globallashuv jarayoni kuchayib borayotgan hozirgi dunyoda davlatning raqobat shartlariga tez moslashuvi uning muvaffaqiyatli va barqaror rivojlanishining asosiy ustunligi – talim tizimining holati bilan aniqlanadigan, shaxsni manaviy rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligi bilan bog'liq.

Global jarayonlarning shakllanish tarixi. Global miqyosdagi muammolar ilmiy munozaralar predmeti sifatida XX asrning 60-70 yillarda jahon hamjamiyatida jiddiy qiziqish uyg'otgan. Dastlab 1930 yillarda E.Lerua, Teyyar de SHarden va V.I.Vernadskiyalar insoniyat hamjamiyatining global mohiyatini va uning Erdagi yashash tarixi uchun masuldir deganlar. Keyin bu masala malum vaqtga unutildi va bir necha yildan keyingina 1970-80 yillarda yana esga olindi. Bugungi kunda globallashuv jaryonining jadallashuvi o'zaro aloqadorlik va o'zaro tasir dialektikasi qonunlari asosida ilm-fan, madaniyat taraqqiyotiga, tasir o'tkazmoqdaki, bu o'z navbatida yoshlardagi ijtimoiy masullik jarayoni zamonaviy ilm-fan yutuqlari, texnika-texnologiya, xalqaro axborot almashinuvining jadal rivoji bilan o'zaro aloqadorlikda yuzaga keladi.

Globallashuvning asosiy ko'rinishlari, tendensiyalari va oqibatlari tevaragidagi munozaralar so'ngi yillarda nafaqat jonlandi, balki qizg'in tus olmoqda. Bugun nafaqat bir davlatda, balki butun dunyoda bir-biriga qarshi kurash olib borayotgan "globalistlar" va "anti globalistlar"ga ajraldi. Ayrim olimlar globalizatsiyani farovon turmush, tanlash huquqi va yanada ko'prok erkinlik, yani ko'chib yurish, to'liq axborot olish, ko'proq xaq to'lanadigan joyda ishlash, eng yaxshi universitetlarda talim olish erkinligi bilan bog'lasalar, boshqalar uchun esa globallashuv insoniyatga tahdid soluvchi, global isish, atrof muhitning ifloslanishi, nazoratsiz migratsiya omillarining vujudga kelishi, ishsizlarning ko'payishi, ananaviy qadriyatlarga putur etishi kabi muammolarni tug'diruvchi jarayon sifatida baholamoqdalar. Bizning nazarimizda, globallashuv, eng avvalo, taraqqiyot suratlarining tezlashuvi orqali butun insoniyat yalpi Yer shari taqdirini birlashtirayotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, manaviy-axloqiy, madaniy-ruhiy hodisa sifatida o'zini namoyon etayotgan bir paytda, uning yaxlit mohiyatining ijtimoiy-falsafiy jihatdan tadqiq etishni taqozo etmoqda. Ayni shu nuqtai-nazardan qaraganda, globallashuv odamlar orasida malum bir universal va umumhajmli aloqani o'rnatishni nazarda tutadi. Globallashuv jarayonining yani bir o'ziga xos jihati shundan iboratki, hozirgi sharoitda u mafkuraviy tasir o'tkazishning nihoyatda o'tkir quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilayotganligini har qanday odam ham sezishi qiyin albatta. Ana shunday

¹ Каранг: Чумаков А.Н.Философия глобальнкх проблем. - М.: Знание, 1994. С.77-80.

sharoitda milliy manaviy qadriyatlarimizni tiklash yoshlar tarbiyasida katta ahamiyatga ega.

Global muammolarning turli darajalari. Davlatning bugungi va istiqbolidagi barqaror iqtisodiy o'sishini taminlovchi omillar aynan talim sohasi rivojlanishiga bevosita bog'liq. SHu sababli mustaqillikning ilk yillaridanoq iqtisodiyotni tubdan isloh qilish jarayonida talim sohasida jahonda munosib o'rinni egallashga qaratilgan yangi uzluksiz talim tizimini yaratish va rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Bu borada alohida ahamiyat kasb etadigan siyosiy globallashuv davlatlarning siyosiy tuzilishini, xalqlar va mintaqalar o'rtasidagi siyosiy aloqalarning kengayishini, o'zaro bog'liqligini ifodalaydi va oxir-oqibat, ularning unifikatsiyalashuviga olib keladi. Bunda o'ziga xos siyosiy munosabatlar ko'lamiga ko'ra global va barcha davlatlarning ichki tuzilishi bir tarmoqqa ulanib ketishi kuzatiladi. Bu jarayonda milliy davlatchilik suverenitetiga xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan bir qancha holatlar mavjud. Ular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: Birinchidan, jahon siyosiy sahnasida transmilliy korporatsiyalar, nodavlat hamda xalqaro tashkilotlar, xalqaro kapital kabi yangi qudratli siyosiy subektlar shakllanmoqda. Ular siyosatning ananaviy subekti — milliy davlatchilik suverenitetining ikkinchi darajaga tushib qolishiga sabab bo'lmoqda. Ikkinchidan, globallashuv xalqaro huquq asoslariga sezilarli ravishda tasir etyapti. Bu esa davlatlarning o'z hududida huquqiy suverenitetidan qisman ayrilishiga olib kelmoqda. Natijada milliy davlatlarning nafaqat tashqi, balki ichki siyosiy masalalarini mustaqil echish imkoniyatlari chegaralanmoqda. Malum bir davlatning ichki siyosatini tashkil etadigan muammo (ichki ixtilof, siyosiy kurash, saylov jarayonlari va boshqalar) bugungi kunga kelib, global ahamiyat kasb etib boshqa davlatlarning manfaatlariga ham daxldor bo'lib qolmoqda. Uchinchidan, kishilar ongida davlatchilik suvereniteti asosini tashkil etuvchi hududiy omil globallashuv samarasi o'laroq, o'zining ananaviy ahamiyatini yo'qotmoqda va tabiiy ravishda davlat hokimiyati mavqeiga ham putur etmoqda. Boshqacha aytganda, milliy chegaralar tobora shaffoflashib, "yuvilib" ketmoqda. To'rtinchidan, butun dunyo bo'ylab bir qator g'arb davlatlari rahnamoligida "demokratiyalashuv" jarayoni jadallashmoqda va buning natijasida ayrim davlatlarning o'ziga xos demokratik taraqqiyotiga chetdan kuchli tasir o'tkazilyapti. YAni, bu jarayondan o'z manfaatlari yo'lida foydalanishga urinayotgan globalizm g'oyasi asoschilari boshqa mamlakatlarning siyosiy boshqaruv tizimini o'z qo'llariga olishga urinmoqdalar. Misol uchun, MDHga azo bir qator davlatlarda 2005 yilda yuz bergan "inqiloblar", siyosiy globallashuv mahsuli bo'lib, ushbu jarayon asoratlarining qanchalar xavfli ekanligidan darak beradi. Ushbu voqealar shundan dalolat beradiki, yuksak taraqqiy etgan mamlakatlar boshqa davlatlarning suvereniteti va ichki ishlariga aralashmaslik prinsipini pardalangan shaklda buzmoqda. Bunda siyosiy globallashuv jarayonining yana bir mahsuli – nodavlat tashkilotlarning resurslari va nufuzidan tashkiliy niqob sifatida foydalanish dunyo bo'ylab keng tarqalmoqda. Ayni shu manoda A.V.Buzgalin "Globallashuv siyosatga tasiri kuchli bo'lib, havfsizlik va iqtisod sohasida davlatlarning bir-biriga tobeligini kuchaytirib, har birining jahon sahnasidagi ustuvor jihatlarining chuqur o'zgarishiga olib keladi. Tashqi siyosiy

vositalar arsenaliga boshqacha nuqtai nazardan qarashga majbur qilib, jahon siyosati kun tartibining tadrijiylashish jarayonining tezlashib ketishiga olib keladi”¹, - deb yozadi.

Globalashuv zamonaviy jamiyatga ko‘plab ijobiy jihatlar olib kirish bilan birga, insoniyat taraqqiyotidagi shunday pallani o‘zida aks ettirayotirki, endilikda dunyo xalqlari vujudga kelayotgan muammolarga qarshi yolg‘iz kurasha olmaydi, ularni birgalikda hal qilishi mumkin xolos. Bugungi kunda globalashuv o‘z tasirini o‘tkazmagan soha qolmadi. Dastlab u mamlakatlar iqtisodiy hayotidan boshlangan bo‘lsa, so‘ngra siyosat, axloq, milliy manaviy hayot, insonlarning kundalik turmush kechirishigacha bo‘lgan barcha jarayonlarni o‘z ichiga qamrab oladi. Globalashuv jarayoni insoniyat taraqqiyotining malum bosqichida yuzaga kelgan obektiv jarayon bo‘lib, u biror-bir shaxs yoki davlatning xoxish-irodasi bilan paydo bo‘lgani yo‘q. Lekin mana shu obektiv jarayonni insoniyatning umumfoydasi o‘z davlatining iqtisodiy, siyosiy qudratini yanada yuksaltirishga, bu yo‘lda boshqa davlatlarning manfaatlari-yu kelajak taqdiri bilan hisoblashmaslik globalashuv jarayonini ko‘proq salbiy jarayonga aylantirib, insoniyatning unga bo‘lgan umid va ishonchini yo‘qqa chiqarmoqda. Boshqacha aytganda, bunday obektiv hodisadan ayrim davlatlar katta manfaat ko‘rayotganini, dunyo davlatlarining aksariyati esa hali beri bu jarayonlarning mevalaridan bahramand bo‘la olmasligini hayotning o‘zi ko‘rsatmoqda. Fikrimizning isboti sifatida quyidagi malumotni ko‘rsatib o‘tamiz. Fransuz tadqiqotchisi T.Fabrning malumotlariga ko‘ra, XX asrning oxirida 20 % eng boy davlatlarning ulushiga jahon miqyosida ishlab chiqarilayotgan yalpi ichki mahsulotning 86, eksportning 82, invetsiyalarning 68 % to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 20 % eng qashshoq mamlakatlarda har uch ko‘rsatkich bir foizdan to‘g‘ri kelgan. BMTning malumotlariga qaraganda, sayyoramizdagi eng boy uch kishining sarmoyasi qariyb 600 million kishi istiqomat qilayotgan 48 eng qashshoq mamlakatlar yalpi mahsulotidan ham ko‘proq ekani dunyo jamoatchiligining tashvishlantirmasligi mumkin emas. Bunday ayanchli vaziyatni o‘nglash, turli mamlakatlarning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy hamda madaniy aloqalarning adolat tamoyillari asosida qaror topishi ko‘p jihatdan “katta ettilik” yani eng rivojlangan mamlakatlar yuritilayotgan siyosatigi bog‘liq. Qolaversa, ayrim rivojlangan davlatlarning kichik davlatlarga madaniy ekspansiyasi oqibatida chet eldan kirib kelayotgan ommaviy madaniyat tasiri bazi mamlakatlarda asriy madaniyat asoslari yo‘q bo‘lib ketayotganini ayrim tadqiqotchilar “madaniy CHernobl” deb baholayotganlari ham bejiz emas. Bu esa har doim ham o‘zini globalashuv jarayoning teng huquqli hamkor deb emas, balki o‘z qudrati, iqtisodiy imkoniyatlarini yanada oshirish uchun xom ashyo manbai sifatida qaralayotganligini ham ko‘rsatib qo‘ymoqda.

Internet – inson tafakkuri, aqli va bilimi qudratining mahsuli bo‘lib, bugungi kunda butun dunyoni qamrab olgan global kompyuter tarmog‘idir. Internet tarmog‘ining tezkorligi, arzon keng qamrovli aloqa, hamkorlik ishlardagi qulaylik, hammaning ishlashi uchun imkon beruvchi dastur hamda malumotlarning noyob bazasi ekanligi o‘ziga tortmoqda. Global tarmoq afzalliklarini inkor etmagan holda,

¹ Каранг: Бузгалин А.В. Альтерглобализм: к теории феномена// Наука. Общество. Человек. - М., 2004.

uning yoshlar manaviyatiga tasiri, xavf-xatarlarini ham etiborga olmoq darkor. Jahonning bir necha mamlakatida uyushgan terrorchi guruhlar va tashkilotlarning saytlari mavjud bo'lib, ular orqali yoshlarning ongiga, turmush tarziga to'g'ri kelmaydigan yot g'oyalar targ'ib qilinmoqda. SHuningdek, pornografik mazmunga ega bo'lgan sahifalar yosh avlodning tarbiyasiga, xulq-odobiga zarar etkazmoqda. Bugungi kunda yoshlar internetga asosan yangiliklarni izlash, yangi do'stlar orttirish va muloqot qilish, musiqa ko'chirib olish, o'zlariga kerakli malumotni olish uchun kiradilar. YOshlar internetdan umummilliy manfaatga xizmat qiladigan va uning taraqqiyotiga yordam beradigan axborotlarni tanlab tahlil qilib foydalansalar, ularning manaviyat va tafakkuri o'sib, axborot istemoli madaniyatga ega yoshlar salbiy va noxolis tasirga tushib qolmaydilar.

Globalashuv natijasida migratsiya jarayonlarining faollashayotganligi ham sezilmoqda. Bu jarayon keltirib chiqarayotgan ayrim salbiy oqibatlar jumladan, transmilliy jinoyatlar (xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm, xalqaro narkobiznes, odam savdosi va boshqalar) ning ko'payishi kuzatilmoqda. Xalqaro globalashuv insoniyat, mamlakat hayotining borgan sari yangi-yangi sohalarni egallab, uning natijasida hozirgi davrga qadar bo'lgan xalqaro tartibot, madaniyatlar, qadriyatlar yangi mano va mazmun bilan to'lib bormoqda. Ayniqsa, inson qadriga ham o'z tasirini kuchli o'tkazmoqda. Noqonuniy migratsiya oqibati sifatida mavjud bo'layotgan "odam savdosi"dek holat dunyo jamoatchiligini tashvishga solmoqda.

Jahon amaliyoti ko'rsatib turganidek, xalqaro globalashuv o'tish davrida turgan davlatlardagi demokratiyalashuv jarayonlariga birdek ijobiy tasir ko'rsatmayapti. Aksincha, globalashuv ayrim jamiyatlarda demokratiyalashuv jarayonlarini murakkablashtirmoqda. Bundan tashqari, har bir jamiyat amaliyotidagi demokratiyalashuv jarayonlariga tasir qiluvchi tashqi omillar soni ham tobora ortayapti. Demokratiyalashuv jarayonlarining milliy mamlakat doirasidagi barqarorligi ichki omillar bilan bir qatorda tashqi omillarga ham bog'liq bo'lib, ko'pgina mamlakatlarda kuzatilganidek, jamiyat azolarining masullik hissi pasaymoqda. CHunki globalashuv tufayli ro'y beruvchi o'ta kuchli integratsiya jarayonlari: iqtisodiy hamda axborot almashish sohalardagi chuqur integratsiyalashuv malum darajada va obektiv ravishda milliy davlatlar rolini chegaralab qo'yadi. Buni integratsiyalashuv natijasida vujudga keluvchi xalqaro tashkilotlarning bazi hollarda milliy davlatlar taraqqiyotining yo'nalishlariga tasir o'tkazishga harakat qilayotganliklaridan ko'rish mumkin. Qadriyatlar tizimiga globalashuvning tasir etish muammosiga nazar soladigan bo'lsak, bunga asosiy sabab, jadal o'zgarib borayotgan fan va texnologiya, sanat, axloq, turmush tarzi ekanligini sezamiz. Bunday o'zgarishlar kishilarning qulaylikka, moda va zamonaviylikka intilishida, uning oqibatida esa kundalik turmush tarzining transformatsiyasida yaqqol ko'zga tashlanadi. Ko'plab tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, globalashuv jarayonlari tufayli kelib chiqayotgan muammolar ko'pchiligi rivojlangan mamlakatlardagi manfaatli intilishlar bilan bog'liq.

2017-2021 yillardagi O'zbekistonni yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida global muammolarning tavsifi. Globalashuv sharoitida tashqi aloqalar, xalqaro iqtisodiy munosabatlar rivojlanib, har bir

shaxsning manaviyati va intellektual salohiyatiga yangicha talablar qo‘ymoqda. O‘z navbatida, O‘zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to‘laqonli azosi va uning ajralmas qismi hisoblanadi. Shuning uchun ham bugungi kunda mamlakatimizda yuksak manaviyatli, yuqori bilimli va xalqaro talablarga mos keladigan mutaxassislarni tayyorlashga alohida etibor berilmoqda. Mamlakatimizda bunday mutaxassislariga bo‘lgan talab kelajakda ham oshib boradi. SHu bois yuksak manaviyatli shaxsni tarbiyalash, ularni xalqaro mezonlar asosida tayyorlash ustuvor vazifalardan biriga aylanib bormoqda. Globallashuv bu butun jahon iqtisodiy siyosiy, madaniy integratsiya va unifikatsiya (bir-birga yaqinlashuv) jarayonidir. Asosiy xususiyatlari xalqaro mehnat taqsimoti, kapital, ishchi kuchi va ishlab chiqarish resurslarining erkin harakati, qonunchilik, iqtisodiy va texnologik jarayonlarni standartlashtirish, shuningdek, turli mamlakatlarning madaniyatining qo‘shilish va yaqinlashuvidir. Bu obektiv jarayon bo‘lib jamiyatning barcha sohalarini qamrab oluvchi tizimli xususiyatga ega.

Hozirgi davrning asosiy global muammolarining tasnifi. Global muammolarni hal qilishda xususiy va umumiy manfaatlar uyg‘unligi. Global muammolarning o‘ziga xos xususiyatlari: jami insoniyat manfaati va taqdiriga tasir ko‘rsatish; iqtisodiy va ijtimoiy sohada inqirozlarga sabab bo‘luvchi, chuqurlashgan taqdirda esa jahon sivilizatsiyasining mavjudligiga xavf soluvchi; echimini topishga umumsayyoraviy miqyosdagi hamkorlikni va birgalikda harakat qilishni talab qiluvchi muammolardir.

Global muammolarning eng muhimlari quyidagilar:

- rivojlanayotgan mamlakatlarni qoloqlikdan chiqarish;
- tinchlik va qurolsizlanish;
- ekologik muammolar;
- energetik muammolar;
- xom ashyo muammosi;
- gumanitar muammolar;
- oziq -ovqat va b.qlar alohida ajralib turadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarni qoloqlikdan chiqarish muammosi hozirgi kunda jahonda mavjud barcha mamlakatlarning 30 foiziga yaqini qoloq hisoblanadi. SHularning 75 foizi Afrikada, 1 tasi Evropada, 4tasi Janubiy Amerikada va 11 tasi Osiyoda joylashgan. Iqtisodiy qoloqlik mazkur mamlakatlarda siyosiy barqarorlik hamda ijtimoiy tengsizlik, irqiy va diniy ziddiyatlarni keltirib chiqarmoqda.

“Dunyoning rivojlangan Etiligi hamda G‘arbiy Evropaning rivojlangan 24 mamlakatida dunyo aholisining 23 foizi yashaydi. Ammo shu aholi jahon ishlab chiqarilayotgan energiyaning 75 foizini, yoqilg‘ini 79 foizini, o‘rmon mahsulotlarining 95 foizini istemol qiladi. Eng qizig‘i bu ashyolarning asosiy qismi uchinchi dunyo davlatlaridan olinadi”¹.

Tinchlik va qurolsizlanish muammosi, insoniyatning shu paytgacha orttirgan harbiy salohiyati erdagi barcha tiriklikni bir necha marta yo‘q qilish imkonini

¹ Исаджанов.А.А. Жаҳон иқтисодиётининг глобаллашуви. Ўқув қўлланма. –Т.: ЖДИУ, 2008., 9б.

beradi. SHu sababli bunday holatlarda javobgarlik va masuliyat hukumat rahbarlariga tegishlidir.

Ekologik muammolar. Ekologik tizimning degradatsiyalanishi to'g'risidagi jarayonlarni qamrab olgan bo'lib, ularni shartli ravishda quyidagi qismlarga ajratish mumkin: ilmiy asoslanmagan, betartib tarzda tabiatdan foydalanish oqibatida atrof - muhitning degradatsiyalanishi; atrof- muhitning inson faoliyati chiqindilari asosida ifloslanishi; atrof- muhitning ushbu chiqindilar bilan zaharlanishi.

Energetik muammolar. 1973 yilda yuz bergan energetika inqirozining oqibatlari hozirgacha sezilmoqda. Jahon va milliy tabiiy zaxiralarning kamayib borishi, atrof -muhitning ifloslanishi, neft -gaz qazib chiqarishning globallashuvi, sanoati rivojlangan davlatlar uglevodorod xom ashyo bilan taminlanganligining pasayishi, neft va gaz narxlarining o'sib borishi oqibatida to'lash qobiliyatiga ega yirik istemolchilarning paydo bo'lishi energetik muammolarning kelib chiqishiga olib kelmoqda¹.

Energetika muammosi xom ashyo va uni saqlash, to'g'ri taqsimlash, oqilona foydalanish, resurslarni saqlash zaruratini ko'rsatadi. CHunki buning ortidan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy muammolar yuzaga kelib, ularni bartaraf etish yo'li atrof -muhit bilan birgalikda hal etish lozimligi bilan belgilanadi.

Gumanitar muammolar jiddiy masalaga aylanmoqda. Hozirgi paytda bir milliard aholi o'ta qashshoq va ochlikda, 4,8 milliard aholi tibbiy xizmatdan mahrumligi, bir yarim milliard aholi yashash sharoitiga ega emasligi juda achinarli hol.

Oziq- ovqat muammosi insonning bir kunlik normasi 2400- 2500 kkal.dan past bo'lmasligi lozim, to'yib ovqat emaslik holati 1800 kkal.dan tushgan paytda sezila boshlaydi. Ocharchilik esa 1000 kkal.dan kam bo'lganda kuzatiladi. Bu jarayonlarni bartaraf etishning yagona yo'li sivilizatsiyani qayta tiklash va atrof-muhitni ifloslantiruvchi insonlar ongini, e'tiqodini, ruhiy tarbiyasini yangilash zaruriyati asnosida mavjudlikning tabiiyligini saqlab qolishdan iborat. Umid qilish mumkinki, insoniyat bu imkoniyatni topa oladi.

Global muammolarni hal qilishda xalqaro kuchlar birlashuvi; umumiy va xususiy manfaatlari. Globallashuv jarayoni kundalik hayotimiz umuminsoniy ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni tobora ko'proq o'z ichiga qamrab olmoqda: birinchidan, muayyan hodisa va jarayonlarning barcha mintaqalar, davlatlar va butun Yer yuzasini qamrab olganini, ikkinchidan esa insoniyat taqdiriga daxldor ekanligini anglatadi. XX asrning 60 yillariga kelib, global muammolar miqyos va ahamiyatiga ko'ra keng doirada namoyon bo'la boshladi. Bu muammolarni o'rganish bo'yicha italiyalik Aurelio Pechchei tomonidan tashkil etilgan xalqaro nohukumat tashkiloti Rim klubining rolini alohida qayd etish joiz. SHu klub azolarining say harakatlari natijasida muammoni bartaraf etishning turli yo'llari yoritildi: dastlabki ishlardan biri umumjahon rivojlanishini matematik modelga qo'yish edi. Ushbu model rivojlanishining asosiy parametrlari bo'lgan aholi, kapital qo'yilma, qayta tiklanmaydigan resurslar sarflanishi, atrof -muhitning ifloslanishi,

¹ Сергеев П.А. Проблемы мировой энергетической безопасности // Мировая экономика и международные экономические отношения.2007.№ 12. с.24.

istemol mollari ishlab chiqarishni etiborga olgan edi. “Dunyo- 1,2” deb nom olgan modellarning asoschisi kibernetika va matematika fanlari professori Djei Forrester edi. Bu modelga asosan, kelajakda insoniyat oldida global muammolar yuzaga kelishi bashorat qilindi. Keyinchalik “Dunyo -3” modeli yuzaga keldi. Uning asoschisi dinamika tizimi sohasidagi mutaxassis Denis Medouz bo‘lib, “O‘shish chegarasi” nomli maruzasida 75 yildan so‘ng sayyoraning xom ashyo manbalari tugaydi, istemol mollarning etishmasligi global inqirozga olib keladi deyilgan edi. SHu narsani alohida takidlash jozki, ushbu matematik modellar tanqid ostiga olindi. Ularning asosiy kamchiligi, hozirgi kundagi jarayonlarning murakkabligi bois, ularni bitta modelga joylashtirish ishonchli natija bermaydi, hamda har qanday jarayon ham matematik miqdorlarda o‘z aksini topmaydi.

Global muammolarni hal qilishda falsafaning roli. “Globallashuv fenomeni haqida gapirganda, bu atama bugungi kunda ilmiy-falsafiy, hayotiy tushuncha sifatida juda keng manoni anglatadi. Bu jarayon mutloqo yangicha mano-mazmundagi xo‘jalik, ijtimoiy-siyosiy, tabiiy-biologik global muhitning shakllanishi bilan birga, mavjud milliy va mintaqaviy muammolarning jahon miqyosidagi holatini ifoda etmoqda. Globallashuv hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotganining asosiy omili va sababini tan olish kerak. Bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti, yaqin va uzoq qo‘shnilar, balki jahon miqyosida boshqa mintaq va hududlar bilan chambarchas bog‘lanib boryaptiki, biron mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmasligini tushinish, qiyin emas”¹. Darhaqiqat global muammolarning bu qadar chigallashib borishining asosiy sabablaridan biri, insoniyat hayotiga o‘z tasirini ko‘rsatayotgan ilmiy- texnik taraqqiyotni olish mumkin. Uning ijobiy natijalari bilan birgalikda, ilmiy, texnikaviy, texnologik imkoniyatlar insonlar uchun kimyoviy, baktireologik, yadroviy qurollarni yaratish imkonini ham berdi. SHu jihatdan, butun dunyoni va insoniyatning bugungi kuni va kelajagiga xavf soluvchi, echimini topishda barcha davlatlar va xalqlarning hamjihatlikdagi harakatini talab qiluvchi jarayonlarni global muammolar deb atash mumkin. Global muammolar, o‘z navbatida, aholi iqtisodiy - ijtimoiy taraqqiyoti va atrof- muhit o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar natijasidir.

Hozirgi kunda insoniyat unikal jarayonning guvohi bo‘lmoqda. Insonlararo munosabatlarda ustuvor bo‘lgan “o‘zgaga tasir o‘tkazish”, inson ongini boshqarish, manipulyasiya jarayoni eng murakkab soha – davlatlararo siyosatga, yani mafkura sohasiga ko‘chirilmoqda. Endi davlatlar qurol-yarog‘, kuch, mol-davlat bilan emas, balki mafkuraviy tahdid, axborot xuruji, soxta axborot (dezinformatsiya), inson ongini manipulyasiya qilish vositasida boshqa davlatlar tomonidan mahv etilmoqda. Endigi g‘alaba birovning xududini bosib olishda, birovning iqtisodi uning iqtisodiga tobe bo‘lishida emas, yanada shafqatsizroq ko‘rinishda – nishonga olingan xalqlarning asrlar davomida shakllangan, qadriyatga aylangan milliy mafkuraviy tuyg‘usi bilan global madaniyatni almashtirilishida namoyon bo‘lmoqda.

Global jarayonlarni bashorat qilishning ahamiyati. Hozirgi davrni aksariyat faylasuf olimlar global inqirozlar davri deb atamoqdalar. SHu nuqtai-

¹ Каримов.И.А. Юксак маънавият энгилмас куч.Т.Маънавият,2008,111б.

nazardan qaraganda falsafa va fan sohasi vakillari uchun insoniyat kelajagini bashorat qilish har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun ham olimlar o'rtasida "prognostika", "futurologiya", "innovatsion loyihalashtirish", "globalistika" va boshqa shu kabi sohalarga tegishli bo'lgan muammolar tahliliga alohida etibor qaratilmoqda. SHu nuqtai-nazardan qaraganda, bugungi tizimli global inqirozni oldindan bashorat qila olmagan, uning sabablari va ildizlarini yoritmayotgan ananaviy fanning inqirozi yuz bermoqda. Shuning uchun ham murakkab global o'zgarishlarni atroflicha tahlil qilish va insoniyat kelajagini bashorat qilishda yangi ilmiy paradigmalarga bo'lgan ehtiyoj tobora oshib bormoqda. Darhaqiqat, ananaviy fan doirasidan turib global inqirozni bartaraf etish va barqaror taraqqiyot modeliga o'tish mumkin emas. Bulardan kelib chiqib, aytish mumkinki, bugungi kunda insoniyat ham global, ham milliy masshtablarda sifat jihatdan butkul yangi taraqqiyot yo'liga kirish uchun chiziqli tafakkurdan ancha yuqori bo'lgan va eng to'g'ri paradigmal yondoshuvini izlab topish va unga amal qilishga zarurat sezmoqda. Bu boradagi muammolarni hal etishda ilmiy bashorat imkoniyatlariga katta ilinj va qiziqish bilan qaralmoqda. SHu o'rinda takidlash kerakki, globallashuv tufayli yuzaga kelgan muammolarni tushuntirish bir qiymatli ahamiyatga ega bo'lmaydi. Faqatgina ayni bir xulosani global o'zgarishlarga doir turli qonunlar va shartlardan keltirib chiqarilishi mumkin. CHunki agar empirik gipotezadan bir muncha bashoratlar yani avvaldan aytish kelib chiqsa, ularning hammasi bir – biriga muvofiq va ularning hammasini konyunksiya vositasida bitta murakkab davoga birlashtirish mumkin. Hozirgi kunlarda nohush prognozlar va pessimistik bashoratlar har qancha ko'p bo'lmasin, baribir, odamlarning orzu – umidlari kelajakning yaxshi bo'lishiga qaratilganligi bilan xarakterlanmoqda.

Faqat alohida insongagina emas, balki butun insoniyatga havf solayotgan global muammolarning to'la bo'lmagan ro'yhatidan ro'y bergan vaziyatdan chiqib, kelajakni avaldan bashorat qilishga doir asosiy ilmiy-falsafiy qarashlarni rivojlantirib bo'lmaydi. To'g'ri istiqbolni avvaldan bilish qobiliyati eng qadimgi davrlardan boshlab rivojlanib kelgan. Bunga eng qadimgi halq, millat va elatlardagi turli karomatchi avliyolar va bashoratchilarning bo'lganligini keltirishimiz mumkin. Bugungi kunda ham istiqbolni bilishga bo'lgan intilish so'ngani yo'q, aksincha, bilimning kelajak taraqqiyotni asosli bashorat qilib beruvchi ko'p sonli mutaxassislarni birlashtiruvchi turli fan sohalari yuzaga keldi. Bu bashoratlar hozirgi zamonda mavjud ilmiy talablar, qonun va qonuniyatlarga asoslanishi bilan utopiyalardan farq qiladi, ularning mohiyati shundaki, hozirgi zamon texnologiyalarining kelgusi taraqqiyotining va hayotiy turmush tarzining qanday natijalarga olib kelishini oldindan bashorat qilish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham keyingi yillarda futurolog olimlar jamiyatning ichki muammolariga: ijtimoiy, psixologik, madaniy va boshqa masalalarga alohida etibor qaratmoqdalar. Bu jarayonda ular ijtimoiy, madaniy, axloqiy va boshqa silkinishlar va o'zgarishlarni nazarda tutmagan ilmiy bashoratlardan farqli ravishda kelajakka ishonch bilan bog'langan, yaxshiroq kelajakni kutishga asoslangan va hatto hozirgi zamonning oson bo'lmagan muammolarini noananaviy yo'llar bilan echish masalalarini hal etishni ustuvor vazifa sifatida belgilamoqdalar. Bunday

munosabatlar tizimida esa texnokratik va axloqiy – siyosiy, yoki ijtimoiy bashoratlar alohida o‘rinni egallamoqda. SHu bilan birga, klassik ilmiy bashoratlarda birinchi planda axloqiy ideal turgan bo‘lsa va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik shu idealni eng samarali amalga oshirish tarzida modellashtirilgan bo‘lsa, istiqbolning bugungi innovatsion asosga ega bo‘lgan loyihalar butun insoniy munosabatlarni oqilona tashkil qilishga qaratilganligi bilan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bashoratning turlari va metodlari. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasida bashorat (arab - xushxabar)- ilmiy bilishning bir shakli, hali to‘la malum bo‘lmagan imkoniyat tariqasidagi hodisalar, turli jarayonlar to‘g‘risida oldindan fikr aytish¹ deya tarif beriladi. Bashoratning dastlabki shakli sifatida sezgi, ishora, kundalik tajribaga asoslangan intuitiv bashorat hisoblanadi. Masalan, ko‘p asrlik hayotiy tajriba asosida odamlar u yoki bu hodisalarni kundalik hayotda qonuniy takrorlanishini anglab etadilar, hamda ularni bir-biriga taqqoslashni o‘rganadilar. Jumladan qaldirg‘ochlar Yer bag‘irlab uchsa, ob- havo tez orada yomonlashishini kutish malum. Oddiy odamlarning kuzatuvchanligi, ijodiy zehni kelajakni prognoz qilishning o‘ziga xos shakli – xalq alomatlarida o‘z ifodasini topadi. Odamlar ob-havodagi o‘zgarishlarni va ularning hosilga tasirini asrlar osha kuzatib keladilar, hayvonlar, qushlar, qurt-qumursqalarning malum xulq atvoriga, kunchiqar va kunbotar mahallarda quyoshning tusiga, bulutlarning shakliga qarab ob- havoni bashorat qilishga odatlangan. Diniy bashorat “vahiy kelishi”, oldindan aytish shaklida nomoyon bo‘ladi. Islomda hamma narsa oldindan belgilanganligi haqidagi aqida bashoratning muxim jihatlaridan biridir. Muxammad alayhissalom talimotiga ko‘ra, dunyoda hech narsa Olloh irodasidan tashqarida mavjud bo‘lmagan va mavjud bo‘lishi mumkin emas. “Har bir jon Ollohning izmi bilan va aniq belgilab qo‘yilgan muddatda o‘ladi” (Quroni karim. 3-145).

Ilmiy bashorat haqidagi mumtoz nazariya kelajak haqida aniq bilimga ega bo‘lish imtiyoziga davogarlik qiladi. Shuning uchun ham unga qatilylik va bir xil aniqlovchi parametrga ega chiziqli rivojlanish xos. Unga ko‘ra hozirgi kun kelajakni qanday belgilasa, o‘tmish ham hozirgi kunni shunday belgilaydi. YAni, dunyoning barcha holatlarini – o‘tmishdan to‘lis kelajakkacha – hisoblab chiqish va bashorat qilish mumkin.

Ilmiy bashorat nomumtoz nazariyaga ko‘ra kelajakni tahlil qilishda grafik modeli rivojlanishning bosh yo‘nalishini o‘z ichiga qamrab olgan sinusoid obraziga suyanadi. Uni chiziqli jarayonga taqqoslaganda kelajakni tahlil qilishda aniqlovchining nisbatan moslashuvchan sxemasi yuzaga keladi va yangi omil – tasodifning roli alohida etiborga olinadi. Kelajakdagi o‘zgarishlarning tasodiflarga asoslanishi izchil tushuniladi. Kelajakni aniqlashdagi taxminiy o‘zgarishlar ehtimollik va katta sonlar qonuniga binoan amalga oshiriladi. Unga ko‘ra kelajakda o‘zgarish qancha katta bo‘lsa, uning ehtimolligi shuncha kam bo‘ladi, zero, har safar real hodisa bosh yo‘nalish – «o‘rtacha kattalik qonuni»ga yaqinlashadi. SHuningdek, kelajakni individual tasavvur qilish muhim metodologik qiymatga ega bo‘ladi.

¹ Ўзбекистон Миллий энциклопедияси.

Ilmiy bashorat postmumtoz nazariyaga ko‘ra avvalboshdan va zamonning istalgan davrida kelajak nomalumligicha qolaveradi. Bunda kelajakdagi o‘zgarishlar va taraqqiyot bosqichlari bir necha yo‘nalishning biridan borishi mumkin bo‘lib, bu ko‘pincha biron-bir ahamiyatsiz bo‘lib ko‘ringan omil bilan belgilanadi. YAni tizim o‘zini qayta qurib, yangi tashkillashtirish darajasi vujudga kelishi uchun oz miqdorda energiya bilan tasir ko‘rsatishining o‘zi kifoya bo‘ladi. Arzimagan va kuchsiz bo‘lib ko‘ringan kichik bir o‘zgarish nafaqat kelajak haqidagi tasavvurlarni balki uning manzarasini ham tubdan o‘zgartirib yuborishi mumkin. Ayniqsa muvozanatdan uzoq sharoitlarda bifurkatsiya mexanizmlari faoliyat ko‘rsatib, ular ikkilanish nuqtalarining mavjudligini hamda rivojlanish davomiyligining xilma-xilligini namoyon etadi. Shuning uchun ham ularning faoliyati natijalarini oldindan bashorat qilish qiyin hisoblanadi. Bu haqida fikr yuritib I.Prigojin “Bifurkatsiya jarayonlari tizimning murakkablashuvidan dalolat beradi” degan bo‘lsa, N.Moiseev esa, «ijtimoiy tizimning har bir holati bifurkatsiya holatidir»³ deb takidlaydi.

Kelajakni bashorat qilishning o‘ziga xos xususiyatlari. Kelajakni bashorat qilishga falsafa tarixida ham, ijtimoiy tafakkurda ham turli ko‘rinishlarda alohida etibor qaratilgan. Tarixning o‘tish davrlarida, keskin ijtimoiy konfliktlar yuz bergan davrlarda bashoratning ahamiyati ayniqsa oshgan. Bu insoniyat hayotining barcha jabhalarida olamshumul o‘zgarishlar yuz berayotgan hozirgi davrga ham xos. YUzaga kelgan sharoitda ijtimoiy bashorat masalalari o‘ta muhim nazariy va metodologik ahamiyat kasb etmoqda, ularni ishlab chiqish esa falsafiy tafakkurning dolzarb vazifalaridan biriga aylanmoqda. Darhaqiqat, kelajak bilan shug‘ullanmagan falsafaning kelajagi yo‘q. Ushbu mavzuning maqsadi bashoratga umumiy tavsif berish, uning asosiy turlarini ko‘rib chiqishdan; ijtimoiy prognoz nimaligini, uning metodlari va tiplarini aniqlashdan; davrimizning olamshumul muammolar bilan belgilangan asosiy futurologik konsepsiyalarini tahlil qilishdan iborat.

Bashorat o‘z gnoseologik tabiatiga ko‘ra gipotezani ilgari surishga yaqin turadi. Ammo gipoteza – o‘tmishni ham, hozirgi zamoni ham, kelajakni ham bilishga tatbiq etiladigan mantiqiy shakl, bashorat esa kelajakka yoki hali malum bo‘lmagan hozirgi davrga qarab mo‘ljal oladi.

Hozirgi davrda ijtimoiy voqelikni tahlil qilinishida futurologik usullardan foydalanish yangi yondashuvlarga asos bo‘ldi. Tabiiy-ilmiy fanlarda dinamik kaos tushunchasini shakllanishi, shuni ko‘rsatdiki tizimni boshlang‘ich nuqtasida har qanday noaniqlik vaqt o‘tishi bilan ko‘paya boshlaydi va muayyan vaqt o‘tishi bilan biz bashorat etish qobiliyatidan mahrum bo‘lamiz. Ushbu hol iqtisod, psixologiya, sotsiologiyani o‘rganuvchi ko‘pchilik obektlarga xosdir. SHu nuqtai-nazardan qaraganda, har qanday yangi yondashuv narsa, voqea va hodisalarni tahlilida, ularning oldingi usullari bilan ochilmagan tomonlari, o‘rganilaolinmagan tomonlari ochib beriladi. Fan va falsafa tarixida bunday misollarni ko‘p kuzatish mumkin. Masalan, Aristotelning talimotiga ko‘ra, fizikaning asosiy vazifasi jismlarning harakatini o‘zgarishini emas, balki jismlarning harakatini tahlil qilishdan iborat edi. Aristoteldan boshlab Galileygacha fizikaning asosiy vazifasi jismlarning harakatini o‘rganish edi. Bu g‘oya fizikani rivojlanishiga to‘siq bo‘ldi. Aristotelning fikriga

³ Моисеев Н.Н. Человек и ноосфера. – М., 1990. – 78-б.

ko'ra, fizika jismlarning tinch holatini o'rganmoq lozim edi. Galiley esa jismlarning tinch holati harakatning alohida xususiy ko'rinishi deb isbotlab berdi. Nyuton esa, ushbu yangi g'oyani o'zining birinchi qonunida bayon etdi. SHunday qilib, harakatning o'zgarishini tahlil qilish g'oyasi klassik fanning shakllanishining asosini tashkil etdi.

Hozirgi kunda jahon falsafasi va fani o'z etiborini quyidagi muammolarning echimini topishga qaratmoqda: krizis vaziyatlarining holatiga baho berish, mezonlarini hamda krizis vaziyatining yaqinlashayotganini bashorat qilish va murakkab sistemalarda krizisdan chiqish ssenariylari (usullari)ni ishlab chiqish. Masalan, fanning mazkur muammolari tahlili, tadqiqotchi olimlarning taxminicha, eksperimental tadqiqotlar bilan yaqin aloqada rivojlanadi. Bunda nochiziqli dinamika sohasining umumiy qoidalari va matematik natijalaridan turli krizis hodisalarini tavsiflashda foydalaniladi. SHunday qilib, nochiziqli sistemalar nazariyasining umumiy nazariy qoidalari murakkab ochiq sistemalardagi real jarayonlarni o'rganishda o'zining real ifodasini topadi.

Korrupsiya shakllanishining tarixi. Korrupsiyaning tarixiy o'zaklari juda juda qadimga borib taqalib, bu hol qabilada malum mavqega ega bo'lish uchun qabila sardorlariga sovg'alar berish odatidan kelib chiqqan deb taxmin qilinadi. O'sha davrlarda bu normal holat sifatida qabul qilingan. Biroq davlat apparatining murakkablashuvi va markaziydashuvi korrupsiyaning davlat rivojlanishiga katta to'siq ekanligini ko'rsatdi. Korrupsiyaga qarshi kurashgan birinchi davlat sifatida qadimgi SHumer davlati tan olinadi. Qadimgi davlatlarni ayniqsa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxo'rliqi qattiq tashvishga solganligi bizgacha saqlanib qolgan manbalardan malum. CHunki bu holat davlatning obro'siga juda qattiq putur etkazardi. Dunyoning etakchi dinlarida ham birinchi navbatda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxo'rliqi qattiq qoralanadi. Jumaladan, Injilda "Sovg'alarni qabul qilma, chunki sovg'a ko'rni ko'radigan qiladi va haqiqatni o'zgartiradi" deyilgan bo'lsa, Quroni Karimda "Boshqalarning mulkini nohaq yo'l bilan olmangiz va boshqalarga tegishli bo'lgan narsalarni olish uchun o'z mulkingizdan hokimlaringizga pora qilib uzatmangizlar" deyilgan.

XVIII asrning ikkinchi yarmiga kelib jamiyat davlat boshqaruv apparatining ish sifatiga toboro ko'proq tasir ko'rsata boshladi. Bu o'sha davrda qabul qilingan bir qator qonun hujjatlarida o'z aksini topgan. Jumladan, 1787 yilda qabul qilingan AQSH Konstitutsiyasida pora olish AQSH prezidentini impechmentga tortish mumkin bo'lgan ikki jinoyatning biri sifatida ko'rsatib o'tilgan. Siyosiy partiyalarning vujudga kelishi va ularning mamlakat hayotidagi o'rnining oshib borishi XIX-XX asrlarda rivojlangan davlatlarda korrupsiyaning dunyoning boshqa mamlakatlariga nisbatan ancha kamayishiga olib keldi. Ushbu illatni tadqiq qilgan bir qator yirik mutaxassislar quyidagi faktorlarni korrupsiyani yuzaga keltiruvchi omillar sifatida ko'rsatadi.

Ikki xil manoni anglatuvchi qonunlar — ushbu vaziyat huquqni qo'llovchi mansabdor shaxs tomonidan qonunlarni turlicha qo'llash imkonini yaratadi. SHuningdek, ayrim mutaxassislar jinoyat, mamuriy qonunchilikdagi "vilka" sanksiyalarni ham korrupsiyaga qulay sharoit yaratishi mumkinligi haqida fikr

yuritishgan. YAni, sanksiyaning aniq miqdori yo'qligi sudyada uni o'z hohishiga qarab qo'llashga sharoit yaratib beradi.

Aholi huquqiy savodxonligining pastligi — aholi tomonidan qonunlarni bilmaslik yoki tushunmaslik mansabdor shaxsga o'zining shaxsiy manfaati yo'lida qonunlardan foydanishga qulay sharoit yaratadi.

Mamlakatdagi siyosiy vaziyatning notinchligi — mamlakatdagi notinchlik birinchi navbatda aholi ongida hayotda yuksak turmush darajasiga erishishning asosiy usuli qonunga xilof faoliyat bilan bog'liq, degan mutlaqo axloqqa zid nuqtai nazar shakllanishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida korrupsiyaga qulay sharoit yaratadi.

Ijro hokimiyatining birligi tamoyilining buzilishi — aynan bitta faoliyatning turli instansiyalar tomonidan tartibga solinishi:

aholining davlatni nazorat qilishdagi sust ishtiroki;

davlat sektoridagi xizmat qilayotgan xizmatchilar daromadlarining xususiy sektorda topish mumkin bo'lgan daromatlardan kamligi;

iqtisodiyotning davlat tomonidan tartibga solinishi;

inflyasiyaning yuqori darajasi;

mamlakat yuqori boshqaruv organlarining aholidan uzilib qolganligi;

mamlakatdagi diniy va axloq qoidalari.

Jahon mamlakatlarida korrupsiyaga qarshi kurashning quyidagi usullari mavjud.

Ichki nazorat — bu usul boshqaruv apparatining o'zida nazoratni kuchaytiruvchi tuzilmalar (har xil ichki inspeksiyalar va boshqa nazorat organlari tuzish orqali) yaratishni taqazo etadi. Bu tuzilmaning asosiy vazifasi xodimlarning ichki etiket qoidalariga rioya qilishini nazorat qilishdir. Hozirgi kunda bizning yurtimizda ham bir qator huquqni muhofaza qilish organlarida aynan shu vazifani bajaruvchi ichki tuzilmalar yaratilgan.

Tashqi nazorat — bu usulda ijro apparatidan mustaqil tuzilmalarning mustaqilligini oshirish nazarda tutilib, aynan ushbu tuzilmalar orqali korrupsiyaga qarshi samarali kurash olib boriladi. YAni, sud hokimiyatining maksimal darajada mustaqilligiga erishish ommaviy axborot vositalariga ko'proq erkinlik berish va h.k.

Saylov tizimi orqali kurashish — demokratik davlatlarda saylangan vakillarni korrupsiya uchun jazolashning asosiy usullaridan biri keyingi saylovlarda unga ovoz bermaslik hisoblanadi. Korrupsiyaga saylovlar orqali tasir o'tkazish eng samarali usul hisoblanadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashda yuqori natijalarga erishgan SHvetsiya, Singapur, Gonkong, Portugaliya kabi davlatlarning tajribasini o'rganish shuni ko'rsatadiki, korrupsiyani yuzaga keltiruvchi omillarni bartaraf etish korrupsiyaga qarshi kurashda muhim o'rin egallaydi.

Bunda Konstitutsiyaviy nazorat organlari, huquq-tartibot organlarining ahamiyati ortadi. YAni, korrupsiyaga olib kelishi mumkin bo'lgan normalarni konstitutsiyaviy nazorat organi tomonidan konstitutsiyaga zid deb topish, aholining huquqiy savodxonligini oshirish kabi metodlardan unumli foydalanish ushbu davlatlarni korrupsiya darajasi juda past bo'lgan davlatlar qatoriga olib chiqqan. Biz

quyida Singapur davlatida korrupsiyaga qarshi kurashda qoʻllanilgan usullar haqida batafsil toʻxtalib oʻtamiz.

Singapur davlati 1965 yil mustaqillikka erishgach korrupsiya darajasi eng yuqori boʻlgan davlatlar qatorida turar edi. Lekin bu illatga qarshi oʻtkazilgan bir qator tadbirlar bu davlatda korrupsiyaning minimal darajaga tushishiga olib keldi. Birinchi navbatda bu erda byurokratik jarayonlar engillashtirilib sud tizimining mustaqilligi oshirildi (sudyalarning daromadlari va imtiyozlarini oshirish evaziga). SHu bilan birga korrupsiya jinoyatlari uchun sanksiyalar ogʻirlashtirilib, fuqarolarga korrupsiyaga qarshi jinoyatlarni tergov qilishda hamkorlik qilishda bosh tortganligi uchun juda katta moliyaviy sanksiyalar belgilandi. Bir qator davlat idoralarida ommaviy "tozalashlar" oʻtkazilib bu jarayonlar telekanallar orqali butun mamlakatga namoyish qilindi. YUqorida sanab oʻtilgan omillarning hammasi Singapurni qisqa muddatlarda korrupsiya darajasi eng past mamlakatlar roʻyxatida ilgʻor davlatlar qatoriga olib chiqdi. SHuningdek, davlat xizmatchisining ahloq standartlariga rioya etishini qattiq nazorat ostiga olish ham Singapur davlatida korrupsiyaga qarshi kurashda muhim dastaklardan biri boʻlib xizmat qiladi.

BMT Kodeksida korrupsiyaga munosabat. Xorijiy mamlakatlardagi kriminologiyaga doir adabiyotlarda "korrupsiya", "huquqiy hujjatlarning antikorrupsiyaviy ekspertizasi", "antikorrupsiyaviy monitoring", "antikorrupsiyaviy standart" tushunchalarining mazmuni etarlicha ochib berilgan. Keyingi paytlarda bunday atamalar MDH davlatlari qonunchiligiga ham faol ravishda kiritilmoqda. Bunday jarayonlar ortida davlat va jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashga boʻlgan irodasi yotadi. Ilgarilari bu davlatlarda korrupsiyaga uncha muhim ahamiyatga ega boʻlmagan jinoiy voqelik sifatida qaralgan boʻlsa, hozir u jamiyat tomonidan qattiq tanqid qilinib, davlat siyosati darajasida qoralanmoqda. CHunki korrupsiya jamiyat va mamlakat iqtisodiyoti rivojiga salbiy tasir etadigan illatdir. Korrupsiyaning boshqa jinoyatchilik turlari, ayniqsa, uyushgan va iqtisodiy jinoyatchilik bilan aloqalari uzviylik kasb etib borishi butun ijtimoiy munosabatlar uchun yanada xatarlidir. Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni koʻrsatadiki, yirik korrupsiyalashgan guruhlar sekin-asta davlat hokimiyati idoralariga kirib borib, hokimiyat tizimini ham oʻziga ishlashga majbur etishi mumkin.

Xalqaro miqyosda ham korrupsiya xavfsizlikka tahdid sifatida baholanadi. SHu sababdan XX asrning 90-yillari boshidan xalqaro va mintaqa doirasida korrupsiyaga qarshi qaratilgan shartnomalar qabul qilina boshlandi. Bularga misol qilib quyidagi xalqaro hujjatlarni koʻrsatish mumkin:

– Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan 1997 yil 21 noyabrda qabul qilingan Xalqaro tijorat bitimlarida xorijiy davlatlar mansabdor shaxslarini sotib olishga qarshi kurash toʻgʻrisidagi konvensiya;

– Evropa Kengashi Vazirlar Qoʻmitasi tomonidan 1999 yil 27 yanvarda qabul qilingan Korrupsiya uchun jinoiy javobgarlik;

– Fuqarolik-huquqiy javobgarlik toʻgʻrisidagi konvensiyalar;

– Afrika Ittifoqining korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurash toʻgʻrisidagi 2003 yil 12 iyuldagi konvensiyasi;

– Birlashgan Millatlar Tashkilotining Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka hamda korrupsiyaga qarshi kurash konvensiyasi (Nyu-York, 2003 yil 31 oktyabr).

BMT korrupsiyaga qarshi kurashish davlatning majburiyati va uni samarali bajarish uchun keng qamrovli choralar qo'llanilishi lozim, deb hisoblaydi. MDH doirasida esa, unga azo davlatlar Parlamentlararo assambleyasi tomonidan Korrupsiyaga qarshi siyosatning qonunchilik asoslari to'g'risidagi model qonun qabul qilingan (2003 yil 15 noyabrdagi 22-15-qaror).

O'zbekiston Respublikasi Birlashgan Millatlar tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga 2008 yil 7 iyuldagi O'RB-158-sonli Qonuni bilan qo'shilgan bo'lib, ushbu Qonunga muvofiq O'zbekiston Respublikasining Bosh prokuraturasi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati va Adliya vazirligi korrupsiyaning oldini olish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish va ularni amalga oshirishda boshqa Ishtirokchi-davlatlarga yordam ko'rsatishi mumkin bo'lgan organlar sifatida belgilab qo'yilgan. Ushbu Konvensiyada nazarda tutilgan va korrupsiya sifatida etirof etilishi mumkin bo'lgan qilmishlar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining bir qator moddalari bilan jinoiy qilmish sifatida taqib qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi [konvensiyasiga](#) (Nyu-York, 2003 yil 31 oktyabr) quyidagi bildirishlar, bayonotlar va shartlar bilan qo'shilgan:

1) Konvensiya 6-moddasining 3-bandi bo'yicha: «O'zbekiston Respublikasi shuni bildiradiki, O'zbekiston Respublikasining Bosh prokuraturasi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati va Adliya vazirligi korrupsiyaning oldini olish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish va ularni amalga oshirishda boshqa Ishtirokchi-davlatlarga yordam ko'rsatishi mumkin bo'lgan organlar sifatida belgilangan»;

2) Konvensiya 42-moddasining 1 va 3-bandlari bo'yicha: «O'zbekiston Respublikasi shuni bayon qiladiki, 15—19, 21, 22-moddalarda, 23-moddaning 1-bandida, 24, 25, 27-moddalarda nazarda tutilgan qilmishlar milliy qonunchilikka muvofiq jinoiy jazolanadigan qilmishlardir va ularga nisbatan O'zbekiston Respublikasining yurisdiksiyasi tatbiq etiladi»¹;

3) Konvensiya 44-moddasining 6-bandi bo'yicha: «O'zbekiston Respublikasi Konvensiya 44-moddasi 6-bandining «a» kichik bandiga muvofiq shuni bildiradiki, u ushbu Konvensiyadan korrupsiya jinoyatlari sodir etgan shaxslarni tutib topshirish masalalarida ushbu Konvensiyaning boshqa Ishtirokchi-davlatlari bilan o'zarolik asosida hamkorlik qilish uchun huquqiy asos sifatida foydalanadi»;

4) Konvensiyaning 46-moddasi bo'yicha:

a) 13-band. «O'zbekiston Respublikasi shuni bildiradiki, O'zbekiston Respublikasining Bosh prokuraturasi o'zaro huquqiy yordam ko'rsatish to'g'risidagi iltimoslarni olish va bajarish yoki bunday iltimoslarni bajarish uchun O'zbekiston Respublikasining boshqa vakolatli organlariga yuborishga javobgar bo'lgan markaziy organdir»;

¹ Qarang: Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси [205 — 214](#), [236](#), [238](#), [243-моддалари](#).

b) 14-band. «O‘zbekiston Respublikasi shuni bildiradiki, o‘zaro huquqiy yordam to‘g‘risidagi iltimoslarni yuborishda o‘zbek, rus va ingliz tillari maqbul tillar sifatida belgilangan»;

5) Konvensiyaning 66-moddasi bo‘yicha: «O‘zbekiston Respublikasi Konvensiya 66-moddasining 3-bandiga muvofiq shuni bayon qiladiki, u o‘zini Konvensiya 66-moddasi 2-bandining qoidalariga bog‘liq deb hisoblamaydi»¹.

O‘zbekistonda korrupsiyaga oid qonunlar va qarorlar tasnifi, korrupsiyaga qarshi kurashning ahamiyati. 2017 yil 4 yanvardan O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonuni kuchga kirgani korrupsiyaga barham berish uchun barcha asoslarni yaratib berdi. Mazkur qonun ijrosi to‘liq va samarali taminlanishi uchun 2017 yil 2 fevralda davlatimiz rahbarining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarori qabul qilindi.

Jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabat qaror toptirish o‘ta dolzarb masala bo‘lib, garchi uni bajarish doirasida masul idoralar belgilangan bo‘lsa-da, uning to‘laqonli ro‘yobga chiqishi uchun har bir fuqaro o‘zida masuliyat his etsa, qo‘yilgan maqsad va muddaolar echimi paydo bo‘ladi. Har birimiz qaerda, qanday muammoga duch kelsak, uning hal etilishida masul shaxslarning masuliyatsizligi yoki tamagirligiga guvoh bo‘lganda sharoitga bo‘ysunish, indamay ketaverish yoxud chidash o‘rniga bong urishimiz kerak. Masuliyatsizlikka, adolatsizlikka nisbatan murosasizlikni o‘zimizdan boshlashimiz darkor. SHunda mudrayotgan mansabdor uyg‘onadi, zimmasida qanday masuliyat borligini his etadi. "Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida"gi qonunda bizning bu boradagi huquqlarimiz kafolatlangan. Qonunga ko‘ra, jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiyaga oid huquqbuzarlik faktlariga doir murojaatlari to‘liq, xolisona va o‘z vaqtida ko‘rib chiqiladi. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risida axborot bergan shaxslarning himoya qilinishi taminlanadi. Davlatimiz rahbarining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarori asosida "2017-2018 yillarga mo‘ljallangan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davlat dasturi" tasdiqlandi. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasi tuzildi. Mazkur komissiya korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarining va boshqa dasturlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etadi. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtiradi va hamkorligini taminlaydi. Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga doir chora-tadbirlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etadi. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olishga, ularni aniqlashga, ularga chek qo‘yishga, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir chora-tadbirlar samaradorligi oshirilishini taminlaydi.

¹ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2008 й., 28-сон, 260-модда

Komissiya korrupsiyaning holati va tendensiyalari to'g'risidagi axborotni yig'adi va tahlil etadi. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishi yuzasidan monitoringni amalga oshiradi. Ushbu sohadagi mavjud tashkiliy-amaliy va huquqiy mexanizmlarning samaradorligini baholash, korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish va ushbu sohadagi ishlarni yaxshilash yuzasidan takliflar tayyorlaydi. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha hududiy idoralararo komissiyalar faoliyatini muvofiqlashtirish ishlarini amalga oshiradi. Bu vazifalar tegishli idoralar va masul shaxslar tomonidan izchil taminlanadi. Zero, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasining o'z vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha qarorlari barcha davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotlar tomonidan ijro etilishi majburiydir.

Texnika va texnologiya tushunchalarining mohiyati. Texnika va texnologiya masalasi barcha davrlarda insoniyatning diqqat markazida bo'lib kelgan. Chunki inson ijodiy faoliyatining amaliy natijasi bo'lgan bu omillar bevosita jamiyat ravnaqi va uning istiqbollari belgilab kelgan. Jamiyat o'zining industrial bosqichiga etgunga qadar texnika va texnologiya hunarmandchilik ko'rinishida yakka tartibdagi faoliyati sifatid anamoyon bo'lgan.

XX-XXI asrda ishlab chiqarishning ilg'or texnika va texnologiya asoslanishi, ularni nazorat qiluvchi maxsus injener-muhandislar faoliyatini shakllantirib, ular nafaqat texnik tuzilmalarning normal ishlash jarayonini taminlash, balki uning yangi loyihalarini tuzish, ixtirolar qilish texnik va texnologik qurilmalarni yaratmoqdalar. Bunda muxandis tafakkurining o'ziga xos jihatlari: ilmiy-ratsionallikka asoslanish, ijodiy faollik va hamma uchun tushunarli yangilikni shakllantirish, standartlashtirish kabilarda namoyon bo'lmoqda. Bu nazariy bilimlar amaliyotda sinab, tajribadan o'tib, ishlab chiqarishga joriy etilib, iqtisodiyotni rentabellashtiradi va natijada inson hayotida ko'plab qulayliklarni joriy etadi. Har qanday texnik qurilmani yaratish jarayonida muhandis ongida uch unsur birligi amalga oshadi: miyada yaratiladigan texnikaning obrazi va uning maqsadi belgilanadi; texnikaning loyihasi aniq hisob-kitob asosida ishlab chiqiladi; gavalangan obraz hamda loyiha birlashib yaxlit texnik qurilma yoki texnologiya yaratiladi. Bu esa bugungi ishlab chiqarish jarayoni, ishlab chiqarish vositalari, ularning doimiy takomillashib borishi davomida, inson tafakkuri va faoliyatining ixtisoslashib borishini ham taqozo etadi.

Texnologik taraqqiyotning istiqbollari. Fan va texnologik taraqqiyot hozirda insoniyat oldiga juda muhim muammolarni maydonga tashladi. Bular jumlasiga atrof-muhitning ifloslanishi, tabiiy resurslarning kamayib ketishi, yadro urushlarining xavfi, geosiyosiy manfaatlarni to'qnashuvi, gegemonlik siyosati va boshqa shu kabi masalalarni keltirishimiz mumkin. Aynan shunday muammolarni bartaraf qilish yoki oldini olishda ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot davomida shakllanib, takomillashib kelgan gumanizm g'oyalari samarali foydalanish, yani ularni amaliy hayotga tez va aniq suratda tadbiiq etish hozirda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Professor Nik Bostrom takidlaganidek “Texnologik progressning tezlashuvi tufayli insoniyat hozir o‘z rivojida keskin burilish nuqtasiga katta tezlik bilan yaqinlashib qolgani ehtimoli katta. Insoniyatga ancha tanish bo‘lib qolgan yadroviy xavf-xatar yoniga endilikda kerak.”¹ Texnikani o‘ylamasdan rivojlantirish jahon miqyosida murakkab ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni tug‘dirmoqda. Masalan, aslida inson og‘irini engil qilishga qaratilgan texnika ishsizlikni yuzaga keltirmoqda, ish bilan taminlash ham yanada murakkablashib bormoqda. Xususiy transportlarning ko‘payishi, bir tomondan insonlarga qulayliklarni tug‘dirgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan esa asosan shaharlarni ekologik holatiga salbiy tasir ko‘rsatibgina qolmasdan insonlarni salomatligiga ham ayniqsa ularning asab faoliyatining buzilishiga tasir etmoqda. Shuning uchun ham bu sohada ilmiy-tadqiqotlar olib borayotgan olim va faylasuflarning fikricha “XXI asr bo‘lag‘asida insoniyat oldida texnikaga oid juda katta muammolarni hal qilish masalasi turib”di.

Hozirda texnokratik sivilizatsiyani tanqid qiluvchilar falsafaning kuchiga katta umid bog‘lamoqdalar. Ularning fikricha falsafa o‘zining insoniyligi, o‘zining manaviy axloqiy qoidalari va dunyoga bo‘lgan ezgu munosabati bilan texnikaning Cheksiz ligi hamda hukmronligiga, uning kelajagiga to‘g‘ri qarash orqali insonlarni ishontirish mumkin, deb hisoblashmoqda. Texnokratik sivilizatsiyada inson nafaqat dunyoni, insoniyatni rejalashtiradi, balki insonning o‘zi rejalashtirish obektiga aylanib qoladi. Agar insoniyat mavjud muammolarga befarq qaraydigan bo‘lsa dunyo sivilizatsiyasi halokatga uchrashi muqarrar shu manoda insonparvarlashuvning mohiyati, uning taraqqiyot tendensiyasi ilmiy-falsafiy jihatdan talqin qilinmasa yuqorida aytilgan fojialarning oldini olish juda qiyin bo‘ladi. Buning uchun fan, texnika va texnologik taraqqiyotni samarasiz jihatlarini falsafiy-tanqidiy talqin qilish, insonning keyingi amaliy faoliyatiga to‘g‘ri baho berish, uning kelajagi va istiqboldagi o‘zgarishlarga ehtiyotkorona maqsadli yondoshish talab qilinadi.

Nanotexnologiyalar va biologik identifikatsiya texnologiyalarining ijtimoiy jarayonlarga tasiri. Nanotexnologiya tushunchasi uchun tugal va aniq ifoda yo‘q, ammo mavjud mikrotexnologiya asosida bu o‘lchamlarni nanometrda texnologiya deb yuritish mumkin. Shuning uchun mikrodan nanoga o‘tish bu moddani boshqarishdan atomni boshqarishga o‘tish demakdir. Sohaning rivoji deganda esa asosan uchta yo‘nalish tushuniladi:

- o‘lchami atom va molekulalar o‘lchamlari bilan solishtirarli elektron sxemalarni tayyorlash;
- nanomashinalarni loyihalash va ishlab chiqish;
- alohida atom va molekulalarni boshqarish va ulardan alohida mikroobektlarni yig‘ish.

Bu yo‘nalishdagi izlanishlar ancha vaqtdan buyon olib borilmoqda. 1981 yilda tunnelli mikroskop yaratilib, alohida atomlarni ko‘rish mumkin bo‘ldi. SHundan buyon texnologiya sezilarli takomillashtirildi. Bugun bu yutuqlarni kundalik hayotda ishlatamiz: lazerli disklarni ishlab chiqarish, jumladan, DVD disklardan nanotexnologik usulsiz foydalanish mumkin emas.

¹Каххарова Ш. Глобалмаънавият – глобаллашувнингоявийасоси.-Т.:Тафаккур, 2009,- 14 бет

Ko'pgina mutaxassislar mikrotexnologiya tarixi Richard Feynmanning 1959 yili Amerika fiziklar jamiyatida o'qigan mashhur maruzasidan so'ng boshlangan degan fikrda. U mikrotexnologiya potentsialini boy bo'yoqlarda tasavvur etadi. Maruzalarida kompyuterlar, axborotni saqlash qurilmalari, elektron qismlar va robotlar mitti holatda tasvirlangan edi. Feynmanning mikroelektronika borasidagi bashoratlari tez (aniqrog'i, 1960-70 yillarga kelib) amalga oshdi. 1980 yilda esa etakchi universitetlar va davlat laboratoriyalarida nisbatan arzon usullarda mitti mexanik detallar yaratila boshlandi. Buning uchun mikroelektromexanik sistemalar (MEMS) texnologiyasi ishlab chiqildi.

Amalda MEMSning ilk tijorat mahsuloti paydo bo'lishi uchun 30 yil kerak bo'ldi. Keng tarqalgan dastlabki MEMS texnologiyalari tezlanish sensorlari xorijda har bir avtomobilga o'rnatilib, to'qnashuvni payqash va havo yostiqchasini ishga tushirish uchun ishlatilardi. Hozir yiliga 50 millionta bu kabi sensorlar ishlab chiqariladi. SHuningdek, «Sandiya» firmasi ham samarali mikroskopik sensorlar yarata boshladi. 1990 yili yaratilgan avtonom robot MARV 1 kub dyuym hajmda bo'lgan, 2000 yilga kelib esa uning o'lchamlarini 4 marta kichiklashtirishga imkon tug'ildi. Bu kabi robotlar kompyuter orqali boshqariladi, bajaradigan vazifalari esa turli-tuman. Ishlab chiqaruvchilarning fikricha, ularning asosiy vazifalari bomba va minalarni, xavfli biologik, kimyoviy va radioaktiv moddalarni qidirib topish hamda zararsizlantirishdan iborat. SHu bilan birga, robotlardan inson faoliyatini nazorat qilish, razvedkada va boshqa maqsadlarda foydalanish mumkin.

Jahon miqyosida olib qaralganda, bugun nanotexnologiyalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, tibbiyot, ekologiya, energetika, mashinasozlik, samolyotsozlik va kosmonavtika, tabiiy boyliklarni izlab topish hamda qazib olish kabi ustuvor sohalarida ko'proq qo'llashga bo'lgan intilishlar yuqori. Bu tarmoqlarning rivojlanishi elektronika va mikroelektronika sohalarida qo'llaniladigan yangi nanomateriallar (ko'p qatlamli tizimlar, nanonaychalar) olish bilan belgilanadi. CHindan ham, mazkur yuz yillikda aqliy salohiyatni har qachongidan ko'ra faolroq namoyon etishga to'g'ri keladi. Nanotexnologiyalarga oid ishlanmalarni yanada takomillashtirish, ularni amaliyotda kengroq qo'llashga bo'lgan say-harakatlarning ortib borayotgani zamirida ana shu ezgu maqsad mujassamdir.

Internet va ijtimoiy tarmoqlardagi virtual muloqotning ijobiy va salbiy jihatlari. "Virtual" (lotincha virtualis - imkoniyat) real ko'rinishga ega emas, lekin malum shartlar ko'yishi mumkin deganidir. Virtual suzi IV asrda qadimgi Vizantiya falsafasida qo'llanilgan. Xozirgi kunga kelib, virtual so'zi reallik ko'rinishiga etib keldi. Kompyuter xuddi magnit metallni tortgani kabi, kishilarni undanda kuchli o'ziga tortmoqda. Kompyuter o'yinlari oqibatida yoshlarning miya faoliyatida o'zgarishlar kuzatilgan. YAni, katta yoshli kishining miya faoliyati yosh bolaniki kabi uzgarib qolishi, bolaning miya faoliyati esa aksincha ancha katta yoshdagilarnikiga o'xshab o'zgarishi kuzatilgan. Virtual olamda bolalar ruxiy holati hamda kompyuter qarshisida kattalar kabi o'zini tutishi namoyon bo'lgan. Ming afsuski, bolalar o'zlarining beg'ubor va takrorlanmas bolalik degan bebaxo dunyosini virtual

olamga almashtirib kemoqdalar. Ko'plab olimlar kompyuter o'yinlari zararli ekani va xatto xalokatga olib kelishini takidlashgan. MISOL: 2005 yilning oktyabr oyida Xitoylik kiz bir necha kun tinimsiz kompyuterdagi "World of Warcraft" o'yinini uynashi natijasida vafot etgan. Xuddi ichkilikbozlik, giyoxvandlik illatlari kabi kompyuter va virtual o'yinlar xam uz nog'orasiga uynatish xususiyatiga ega. Katta yoshdagi kishilar real xayotda ham uzlarini bolalardek tutib, masuliyatsiz bo'lib qoladi. Bir bolaning aytishicha, otasi shu qadar internetdagi o'yinlar ummoniga shung'ib ketganki, natijada oilaviy ziddiyatlar kelib chiqqan. Germaniyaning CHarite universiteti ilmiy xodimlarining 20 kishidan iborat gurux ichida o'tkazgan tajribasida shu narsa namoyon bo'ldiki, ishtirokchilarga mashxur o'yinlardan olingan suratlar namoyish qilinganda, ularda xuddi ichkilik, giyoxvandlikka ruju quyganlar kabi patologik o'zgarishlar ro'y bergan.

"Notingem trend" universiteti ilmiy xodimlari-ning 7000 kishilik kuzatuv tajriba guruxida olib borgan tatqiqodlari natijasida guruxdagilarning 12 foizida kompyuter o'yinlariga tobelik aniqlangan. O'yinga tobe bo'lganlar xar doim ruxshunos maslaxatiga muxtoj bo'lib qoladi. Uzlarini shaxsiy xayotlari o'zgarib borayotganini, qilayotgan ishlaridan qoniqish sezmayotganini, oddiy insoniylikni yo'qotib quyayotganini, kayfiyati tushkun bo'lishi, faollik yo'qolishi, jizzakiligidan shikoyat qiladi. Olimlar kompyuterga tobelikni 4 bosqichga bo'lishadi: birinchi moslashish, undan keyin tezda kirishish, insonning shaxsiy omillariga tasiri, so'ngi bosqichda insonlar kompyuter o'yinlarini xayotining ajralmas bir bo'lagi sifatida ko'radilar. MISOL: YOshlar qiziqib o'ynaydigan GTA (GTA) o'yiniga nazar solsak, birinchi qiladigan ishi shuki, zo'ravonlik bilan shahar ichidagi avtoullov haydovchining yo'lini to'sib, avtoullovni olib qo'yadi. Keyingi ish politsiyadan qochish bilan bir qatorda yo'lida uchragan kishilarni vahshiylarcha urish, tepish, hattoki o'ldirishgacha boradi. SHu yo'sinda oxiri yo'q bosqichlardan o'tib, olg'a yuraveradi.

Kompyuter o'yinlari-birmuncha ziddiyatli hodisa. Uyda, o'qish va xatto ish joyida ham berilib kompyuter o'ynaydiganlar ko'pchilikni tashkil etadi. Kompyuter o'yinlarini soatlab o'ynash, ularga mukkasidan ketish aslo yaramaydi. CHunki virtual olam ajoyibotlarini xaqiqiy hayotning quvonch va tashvishlaridan ustun bilish alal-okibat shaxsning insoniylik qiyofasi yo'kotilishiga olib keladi. G'arb davlatlarida yoshlar o'rtasida kompyuter o'yinlarining zararini kamaytirish maqsadida bir qancha ishlar amalga oshirila boshlandi. Fransiyada kompyuter o'yinlarida to'kiladigan qonning qizil rangda emas, yashil rangda bo'lishi joriy etilgani, Belgiyada kompyuter klublarida pornografik o'yinlarni targ'ib qilish qamok, jazosi bilan jazolanishi ana shu isloxotlarning bir ko'rinishidir.

"Virtual Image Productions" kompaniyasining direktori: "Kompyuter o'yinlari oddiy o'yinchoq, bo'lmay qoldi. Ular jaholatni o'rgatish vositasiga aylanib ketdi va biz bolalarimizni tepkini bosib rohatlanishga o'rgatyapmiz. Ammo biz real hyotda buning oqibati qanday bo'lishini o'rgatmayapmiz". Xo'sh, nega ular g'imirlab qolishdi, nega boshida o'zlari bu o'yinlarni targ'ib qilishdi-yu, endi paytavalariga qurt tushib qoldi? CHunki ular asl xaqiqatni anglab etishdi. Bola ongi buzilsa, kelajak ham buzilishini biroz kech anglashdi. Virtual olam insonni

manipulyasiya (fikriy qaramlik orqali o'ziga bo'ysundirish) qilmokda. Hozir bolalar yoki o'smirlarning internet-kafeni "ikkinchi uyi"ga aylantirib olayotgani sir emas. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, onlayn o'yinlarini o'ynovchilar ham, asosan, o'smirlar. O'smirlik shaxsning fiziologik va ijtimoiy rivojlanishidagi o'ziga xos davr xisoblanadi. Agar shu davrda o'g'il yoki qiz agressiv ruhdagi onlayn o'yinlariga berilsa, bu noxush oqibatlarga olib kelishi turgan gap.

Suniy intellekt tushunchasi va uning tahlili. Rus faylasufi M.I.Belyaev reallikni soxtalashtiruvchi tafakkurni "jonli (tirik) tafakkur"ga qarama-qarshi qo'yadi. "Jonli tafakkur" nimaligini eslab olish uchun U beg'ubor yosh bolalik chog'larimizdagi eslashni tavsiya etadi. "Bolalikda hammaning tafakkuri odatda jonli bo'ladi,- deydi U,- Unga – bu yaxshi, bu yomon deyish kerak bo'lmagan. Bu kichik inson haqiqatni oldindan bila olgan. O'zini yomon his etsa – yig'lagan, yaxshi his etsa, kulgan. Bugun esa biz ildizi qadimgi davrga borib taqaladigan "jonli aql" bilan keyin shakllangan "sovuqqon aql" orasidamiz. "So'zimiz bilan ishimiz" orasidagi munosabat ham shunday."¹

Real borliqni soxtalashtirish esa, o'z navbatida kishilar orasida, ijtimoiy, iqtisodiy munosabatlarda, ichki va tashqi siyosatda va h.k. tartibsizlik (xaos) va antagonistik ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Zamonaviy fan-texnika yutuqlarining eng "samarali" ommaviy axborot vositalari yashin tezligida ijtimoiy hayotga olib kirayotgan, "ommaviy madaniyat" industriyasi tovarlari xajmi behad ortib borayotgan hozirgi sharoitda esa bu ahvolni mislsiz og'irlashtiradi. Bu erda gap ommaviy axborot vositalari orqali tarqalayotgan barcha informatsiyaning keraksizligiga emas, aslo. Gap shundaki, ruhshunos olimlarning tushuntirishlaricha, kishi aqli kundalik hayot tajribalari mobaynida o'ziga etib kelgan (tiqilib ketgan) barcha infomatsiyani tahlil etishga sira ulgurmaydi. Shuning uchun u bu informatsiyaning katta qismini o'z ong osti sohasiga tushirib qo'yadi. Ammo bu informatsiya (ayniqsa, dahshat va agressiya chaqiruvchi va kishi diydasini qotiruvchi filmlar) ong ostida keyinroq qanday algoritm bilan ishlashini hech kim tasavvur eta olmaydi.

Informatsion tiqindan qattiq charchagan aql tobora ong osti sohasining yopirilib kirgan braun bo'ronini, yani **xaos**ni boshqara olmay qoladi. Natijada uning o'zi xaos tomonidan boshqarila boshlaydi. U o'zi "istagan" vaqtda kishi ongiga o'z "qaror"ini bildiradi. Bu holat, ruhshunoslik tilida aytilsa, aqlning **zombilashuvi yoki** insonning **biorobotga** aylanishini bildiradi. Barcha kutilmagan jinoyatlar shu xolatdan kelib chiqadi. Xaos xolati esa tizimda sinergetik tadqiqotlardan kelib chiquvchi xulosaga ko'ra "kapalak effekti"ni sodir etadi. YAni xaos xolatidagi tizimga tashqaridan juda kichik birgina tasir (turki) bo'lsa hamki, butun tizim o'z barqarorligini yo'qotib, vayron bo'ladi.

Hozirgi davr fan-texnikasi taraqqiyotining oliy g'oyalaridan biri bo'lgan "suniy intellekt" (SI) yaratish muammosi ham ko'pdan buyon juda ko'pchilikni diqqatini o'ziga tortayotgan va ratsionallashuv jarayonining

¹ Беляев М.И. Концепция русского национально государства. Москва: 2006 <http://www.milogiya2007.ru>

insoniyatga, jamiyatga tasiri masalasini yanada keskinroq qilishi mumkin bo'lgan muammolardan biridir. Gap shundaki, taqdir kinoyali hazil qilib biorobot qiyofasidagi suiy intellektni yaratib bo'ldi. Zero, "non va tomosha" bilan qanoatlanuvchi va shungagina intiluvchi biorobotga aylangan kishilar farosatining programma bilan ishlaydigan suiy intellektdan farqi yo'q. CHin manodagi aqlli inson esa o'z hayotining manosi bilan qiziquvchi, uni topishga intiluvchi kishidir.

SHunga qaramay fan SI yaratish bo'yicha tinimsiz izlanishlar olib bormoqda. SHu manoda SIni yaratish mumkin va kerakligini yoki buning aksi bo'lgan fikrlarlarni oldinga suruvchilar orasida juda ko'p tortishuvlar ketmoqda. Biz bu borada avvalo matematika, umumiy nisbiylik nazariyasi va kvantlar nazariyasi kabi sohalarida faol ish olib borgan hozirgi davrning eng taniqli olimlaridan biri, Oksford universiteti matematika kafedrasining rahbari, shuningdek, ko'pgina chet el universitetlari va akademiyalarining faxriy professori va o'zi kabi mashhur olim Kembrij universiteti professori Stiven Xokingning do'sti va hamfikri Rodjer Penrouzning qarashlariga to'xtalamiz. Uning "Teni uma: V poiskax poteryannyoy nauki o soznanii" nomli kitobi hamda 1995 y. o'qigan Tenner maruzalari asosida yozilgan "Новый ум короля. О компьютерax, мышлении и законах физики"¹ nomli kitoblari ayni shu muammoga bag'ishlangan va Angliyaning Nensi Kartrayt, Abnerom SHimon shuningdek, mashhur nazariyotchi-fizik Stivenom Xoking tomonidan yozilgan boblarni ham o'z ichiga olgani bilan ham diqqatga sazovor.

SIni yaratish, yani tafakkur jarayonini modellashtirish muammosini yoritish uchun Penrouz juda keng doiradagi hodisalarni va ilmiy bilimlarni qamrab olgan: matematikaviy tafakkurni algoritmlash, Tyuring modellovchi mashinalari, murakkablik nazariyasi, Gyodel teoremasi, materiyani teleportatsiyasi masalasi, kvantlar fizikasining paradokslari, entropiya hodisalari, Olamning (Kosmosning, Koinotning) vujudga kelishi (shakllanishi) masalasi, qora tuynuklar, inson miyasining tuzilishi va boshqa ko'p masalalar. Shuning uchun bu kitoblar juda keng gumanitar va tabiiy fanlar mutaxassislarining ham, keng kitobxon ommasining ham katta qiziqishini uyg'otdi. Mazkur muammo bo'yicha Penrouz "men ong hodisasini hozirgi davr nazariy fizikasi doirasida tafsirlab bo'lmaydi deb hisoblayman" degan xulosani chiqarib, SI yaratish mumkin emasligi va kerak emasligi haqidagi fikrni oldinga suradi. SI yaratib bo'lmasligi, uning tushuntirishicha, "intellektuallik"ni modellashtirish uchun muhim bo'lgan "tushunish" jarayoni bo'lishini taqozo etadi. Vaholanki, tushunish jarayonini modellashtirish, yani hisoblash mumkin emas. CHunki, tushunish ong, onglash kabi fan bilmaydigan mistik jarayon bilan bog'liqdir.

Boshqa olim Gordon Mur esa 1965 y. o'z kuzatishlarida kompyuter mikroxejalari yangilanishi grafikidagi o'sishini o'rganib, ulardagi xotira xajmi har 18-24 oyda ikki baravar (eksponensial) o'sishi qonunini kashf etdi. Stivens Xokingning² fikriga ko'ra, bu o'sish kompyuter tuzilmasidagi murakkablashuv

¹ Пенроуз Р. "Новый ум короля. О компьютерах, мышлении и законах физики". // Қаранг.: <http://polbu.ru/penrosemindshadows/4.08.2003> 19:11 В.В.Ванчугов

² Махнач М. М. Языковые информационные взаимоотношения в биологических системах высших ступеней иерархии. 2000 . <http://www.smolensk.ru/user/sgma/MMORPH/N-6-html/MAKHNACH/makhnach.html>

inson miyasi bilan tenglashmagunichi davom etadi. SHunga ko'ra kompter intellekti ish tezligi inson tafakkuridan ilgariga o'tib olmaganicha inson uning faoliyatini nazorat qila oladi. SHu marradan o'tilganidan keyin, yani noosfera (fikir sohasi) katta quvvatga ega bo'lgan va energiya, transport, mudofaa hamda planetadagi hayotning boshqa muhim tizimlarini o'zining bevosita nazorati ostiga oladigan va, ravshanki, o'z o'zini rivojlantirib va takomillashtirib boradigan mexanizmlar bilan to'lganidan keyin "insoniyat" biosistemi vaziyatida keskin o'zgarish sodir bo'lishi mumkin. "Kompyuterlar jamiyati" har qanday rivojlanuvchi tizim kabi o'zini takror ishlab chiqarishga intiladi, bu esa energiya ishlab chiqishda va istemolida u bilan insoniyat jamiyati orasida raqobat vujudga kelishiga olib keladi. Insoniyatning undan keyingi yo'li qanday bo'lishini tasavvur etish qiyin. CHunki, intellekti insonnikidan yuqori bo'lgan "kompyuter jamiyati" instalgan hajmdagi inson nazorat qila olmaydigan informatsiya zonalarini yarata oladi.

SHunday qilib, S.Xokingning xulosasidan yaqin asrlar ichida yuqori intellektga ega bo'ladigan mashinalar yaratilishi va buning oqibatida insoniyatga yana bir havf - informatsiya oqimini nazorat qila olmaslik xavfi kelib chiqishi ko'rinadi.

Bizningcha ham, SI yaratish mumkin bo'lgan holda ham uning fan va texnika yaratgan barcha boshqa narsalar kabi katta foydalari ham, katta zararlari bo'lishi tabiiy. Uni yaratishga qarshi eng muhim etirozlardan yana biri shundaki, inson butun etiborini o'zligini bilishga, o'zligini rivojlantirishga qaratish o'rniga nuqul o'z faoliyat va vazifalarini engillashtiradigan texnologiyani yaratish yo'lidan bordi. Bu esa uning inqirozini muqarrar qiladi. Zero, u faqat tuban nafsini qondirishga intilarkan va o'z tabiiy qobiliyatlari (sezgi organlari, jismoniy kuchi, tafakkuri) o'rnini bosishga xizmat qiladigan texnologiyalarni rivojlantirarkan, buning evaziga o'zidagi bor tabiiy jismoniy va aqliy qobiliyatlarni ham yo'qotadi. CHunki ishlatilmaydigan azo ishdan chiqadi.

Endi hozirgi davr rivojlangan ilmiy tafakkurining oliy marralari va yutuqlaridan biri bo'lgan informatikaning insoniyat hayotidagi o'rnini va roli masalasiga ham etibor berib o'taylik. Bilamizki, hozirgi davrda G'arb texnogen sivilizatsiyalarini vujudga keltirgan, planetani "tirik qolmoq yo o'lmoq" imkoniyatidan birini tanlash darajasiga olib kelib qo'ygan ratsionallashuv jarayoni hamon o'z taraqqiyotida davom etmoqda. Bu jarayon endilikda "ommaviy aql" kabi noosferaviy jarayonlarni, yani informatsion jamiyat elementlarini shakllantira boshladi. Ayni shu jarayonlar ham ko'pchilik mutafakkir va olimlarni chuqur o'yantirib qo'ydi va xatto madaniyat mazmunida ilmiy bilimlar taraqqiyotining chegarasi muammosini qo'yish vaqti kelmadimikin, degan xulosalarga kelmoqdalar.

Zero, ularning fikrlaricha, hozirgi davrda inson mislsiz kuchayib borayotgan "informatsiya to'foni" ichida qolmoqda. Bu to'fon ichidan eng asosiy, eng muhim informatsiyani ajratib olish muammosi tobora keskin yuzaga chiqmoqda. Bu ayniqsa insonning dunyoga, borliqqa munosabati kabi poydevoriy manaviy muammoni echishini behad murakkablashtirmoqda. SHu munosabat bilan faylasuf olimlar endilikda informatika yutuqlarini kibernetika, sinergetika, genetika

va sotsiodinamika bilan qo'shgan holda falsafiy yondoshuvni ishlab chiqish, Shuning asosida dunyoga yangicha qarashni shakllantirish zarurati vujudga kelgani haqidagi fikrni ham oldinga sura boshladilar.¹

CHindan ham informatsiyalashuv texnikasi taraqqiyoti munosabati bilan hozirgi davr insoniyati informatsiya xaosi ichiga ham kirib bormoqda. Bu jarayon, o'z navbatida, kishi tafakkurida real borliqning soxtalashtirilgan obrazlari bilan qo'shilib ketib, kishilar orasida, ijtimoiy, iqtisodiy munosabatlarda, ichki va tashqi siyosatda va h.k. global ziddiyat va tartibsizliklarni (xaos) keltirib chiqarmoqda. Bu jarayon hozirgi davr fani tilida tafakkur entropiyasi² deb atalishi joiz. SHunga ko'ra rus faylasufi M.I.Belyaev hozirgi kunda "Tafakkur Entropiyasi o'z chegaraviy nuqtasiga etib keldi... YAxlit (Umumolamiy, noosferaviy) Aql noyob o'ziga xosligiga ega bo'lgan Cheksiz ko'p kichkina (atomar) ayni paytda o'z ong osti sohasi tomonidan zombiga aylantirilgan xudbinona "aqlchalar"ga ajralib ketishi egoaqlarning broun harakatidan iborat xaosini yaratarkan Yer Aqlining "issiqlik o'limini" muqarrar hodisaga aylantirmoqda. -"³ degan xulosaga keladi. Vaholanki, aqlning o'limi ekologik o'limdan behad ortiq. SHunga qaramay, manaviyatda aqlning o'zni masalasini tushkun emas, balki ko'tarinki, umidvorlik ruhida yakunlashni istar edik. Buning uchun muayyan asoslar, yo'q emas. Bu asoslar, bizningcha, avvalo hozirgi davr olimlari va faylasuflaridan katta qismi fan texnika taraqqiyoti yutuqlarigagina tayanish insoniyatni boshi ber ko'chaga olib kirib qo'yganini, Shuning uchun insoniyat tafakkurini ham "ekologiyalashtirish", reallikni ayrim-ayrim emas, balki yaxlik bilish zarurligini, tabiiy fanlar taraqqiyoti reallikni tushunishda cheklanishga olib kelganini, gumanitarlashuv va axloqiylik tamoyillari taraqqiyotiga etiborni kuchaytirish zarurligi kabi g'oyalarni tobora keskinroq oldinga surayotganlarida ko'rinadi.

Texnogen sivilizatsiyada til va kommunikatsiya dialektikasi. Inson ehtiyojini qondirishda lison (til), manaviyat, tafakkur, qanchalik kerak bo'lsa, texnika ham shu qadar zaruriy ehtiyojga aylanib bormoqda. Biroq texnikaning yuksak imkoniyatlari turli mamlakat va xalqlar ijtimoiy-madaniy hayotida turlicha namoyon bo'lmoqda. YAni u bazi mamlakatlarda turli sohalarni rivojlanishiga ijobiy tasir ko'rsatayotgan bo'lsa boshqa bir o'rinda u turli ijtimoiy-siyosiy maqsadlarni vositasiga aylanib bormoqda. SHu manoda texnogen sivilizatsiya muammosi Sharq va G'arb faylasuf olimlari tomonidan murakkab fenomen sifatida talqin qilinmoqda. Bunda olimlar texnogen sivilizatsiyaning asosiy tushunchalari hisoblangan texnomuhit, texnika va texnologiyaga asosiy etiborni qaratmoqdalar.

Ijtimoiy xayot axborotsiz, muloqotsiz va kommunikatsiyalarsiz mavjud bo'la olmaydi. Axborot ijtimoiy va texnik taraqqiyotning xarakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi, bilishning tugun punkti hisoblanadi, haqiqat bilan aniq va ko'pqirrali aloqalarni belgilab beradi. Bilish subektidan mustaqil ravishda mavjud bo'lib, axborot bilish jarayonida namoyon bo'ladi. Olamning axborotlashgan surati

¹ Павлов Ю.М. Круглый стол кафедры ЮНЕСКО «Философия мира»// Вестник Московского университета. Серия 7. Философия. №4. 2006. С. 106-109.

² Энтропия тушунчаси фанда тартибсизланиши даражаси маъносини билдиради.

³ Беляев М.И. Концепция русского национально государственного. Москва:2006 <http://www.milogiya2007.ru>

kelajakka qaratilgan, moddani keyingi rivojini o'zga sayyora sivilizatsiyalari bilan muloqot orqali rivojlantirish istiqbollari qaratilgandir. XX asrda ilm-fan va texnikani yutuqlari (masalan, raketa-kosmik texnika, radioaloqalarda, EHM) bunday aloqalarni amalga oshirish uchun zamin bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda ommaviy kommunikatsiya va informatsiya vositalarining insonning shaxsiy hayotiga aralashishi, bunda matbuot, radio, televideniadan foydalanib inson ongiga ko'rsatiladigan tasir hokimiyatning insonlarning hayoti ustidan har tomonlama nazorati odamlar hayotining eng yaxshi ideallarini amalga oshishi haqidagi orzu-umidlarini shubhaga solib qo'ydi. SHu narsa Aniqlandiki, uchinchi ming yillik boshlarida jahon hamjamiyatining asosiy resurslari sanoat industrial va qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining imkoniyatlari bilan emas, balki informatsion-kommunikatsiya texnologiyalar potensialida bo'lib qoldi. Informatsion texnologiyalar tomonidan taminlanadigan portlashning havfi sayyora axolisining ortib ketishi yoki ifloslanishidan kam emas. Bugungi kunda informatsion resurslar ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotda etakchi rol o'ynay boshladi. Informatsiya va bilim iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy manolarda umum insoniy kapitalga aylandi. Informatsion texnologiyalar – hisoblash mashinalari va raqamli informatsiyani telekommunikatsiya tarmoqlari bo'ylab uzatish usullarining sintezidir. Har qanday informatsion texnologiyalar asosida matn, tovush va vidual tasvirni Raqamli shaklda namoyon qilish imkoniyati yotadi.

Hozirgi informatsiya asri jamiyat hayotining turli sohalarida bevosita o'z tasirini namoyon qilmoqda. Informatsion texnologiyalarning iqtisodga tasiri ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sferalarini mukammallashtirishda aks etmoqda. Informatsion texnologiyalar marifda, bilimlar yaratishda, ilmiy tatqiqotlar imkoniyatlarini kengaytirishda, modellashtirishda, tajriba malumotlarini tahlil qilishda va yangi bilim hosil qilishda foydali tarzda xizmat qilmoqda. Tez ishlovchi kompyuterlar va suniy intellekt alohida ahamiyat kasb etmoqda. Global kommunikatsiyalar tarmog'i eng muhim omil bo'lmoqda. Uqlar Erning suniy yo'ldoshlari, telefon kabellarining kontinentlararo va kontinentlar ichida tarmoqlangani, yangi elektron aloqalarining paydo bo'lishi yagona Xalqaro informatsiya tarmog'i sistemasini shakllantirdi. Har qanday informatsiyani Yer sharining istalgan no'qtasiga Yorug'lik tezligida uzatish mumkin bo'lgan vaqt keldi.

Informatsion-kommunikatsion texnologiyalarning intensiv taraqqiy qilishi, globallasuvi va nomarkazlashuvi – bularning hammasi kelajakdagi yuqori texnologiyali jamiyatning belgilaridir. 2000 yilning yanvar oyiga olganda Jahonda internet tarmog'idan foydalanuvchilar soni 300 mingdan ortiq edi, hozirgi kunda esa o'nlab, yuzlab millionlarga etdi. Internet (va shunga o'xshash tarmoqlar) ning informatsiyaning sayyoraviy manbalariga aylanib borishi bilan odamlar orasida Interaktiv muloqotining umumiy muhitini yaratish imkoni tug'iladi. Biz doimiy o'zgarib turuvchi dunyoda yashay boshladik. Informatsion-kommunikatsiya texnologiyalarni tashuvchisi bo'lgan sohiblar hozirgi zamon hayotining qaynoq markazidagina bo'lib qolmasdan, ayni shu bilan barcha o'zlarining hayot tarzlarini ham, o'z hulq-atvori va tafakkur tarzini ham o'zgartirmoqdalar. Odamlar o'z tafakkuri va hulq atvorini qay darajada o'zgartirsalar, ularning kasbiy tajribalari ham

shu darajada boyib, samarali mahsuldir xossalarga ega bo‘lib bormoqda. Hozirgi zamon kommunikatsiyalar fazosida etarlicha tezkor moslashish va harakat qilish zarurgina bo‘lib qolmay, ayni shu jamiyatning informatsion-kommunikatsiya texnologiyalarining global taraqqiyotini bilgan holda, o‘zining hulq-atvorini namoyish qilish muhitini his qilishi va shu muhitda qanday harakat qildishini bilishi ham kerak bo‘ladi. Informatsion paradigma nihoyatda yuksak darajada konkretlikda va ishonch bilan kelajakka eshiklarini ochib bermoqda. Informatsion paradigmaning eng muhim jihatlarini ko‘rsatib o‘tish maqsadga muvofiq bo‘lur edi. Avvallari informatsiya industrial jamiyatning texnologik va texnik amaliyotiga tasir qilish mumkin bo‘lgan xomashyo deb qaralgan bo‘lsa, bugungi kunda informatsiyaga tasir qilish uchun informatsion texnologiyalar yaratilgan (bu narsada jamiyat hayotining turli-tuman maqsadlari hisobga olinadi).

Informatsiya insonning har qanday faoliyatining integral omili bo‘lgani sababli buning individual va kollektiv hayotimizning barcha jarayonlari bevosita yangi informatsion texnologiyalar bilan shakllanadi. Informatsion tarmoqlar barcha turli-tuman ijtimoiy o‘zaro tasirlari va jamiyat taraqqiyotidagi noaniqliklarga to‘l bo‘lgan va tobora ortib borayotgan murakkabliklarga yaxshi moslashadi. Informatsion tarmoqlar nihoyatda sezgir, harakatchan va yangiliklar kiritish uchun ochiqdir. Informatsion jarayonlar faqat qaytar jarayonlarga emas; ijtimoiy tashkilotlar va institutlarni modifikatsiya qilish va ularning komponentlarini qayta guruppalash yo‘li bilan fundamental o‘zgartirib yuborish mumkin. Yangi informatsion – texnologiya paradigmasi konfiguratsiyasi shundayki, u o‘z konfiguratsiyasini qayta tuzishi, rekonfiguratsiyalanishi mumkin – bu hozirgi kunda doimiy o‘zgarib turuvchi va tashkiliy jihatdan qotib qolmagan jamiyatda xarakterli jihatidir.

Jamiyat taraqqiyoti informatsion paradigmasining istiqboli konkret texnologiyalarning yuksak integrallashgan sistemaga konvergentsiyasi ananalari bilan bog‘langan bo‘lib, bu sistemada eski, izolyasiyalangan texnologik traektoriyalar deyarli bir – biridan farqlanmay, ajralmay qoladi. Masalan, mikroelektronika, telekommunikatsiya, optik elektronika va kompyuterlar endi informatsion sistemada mujassamlashgan. Biznesda, masalan, hozircha chiplarni ishlab chiqaruvchilar va programmistlar orasida farq bor va hozircha bu farq bir muncha muddat saqlanib qoladi.

Bizga malumki, texnogen sivilizatsiya asosini tashkil qiluvchi texnomuhit deganda texnika va texnologik jarayonlarning yig‘indisi tushuniladi. Bugungi kunda jamiyat postindustrial jamiyat yoki axborotlashgan jamiyat deb atalishidan qat’iy nazar, insoniyatning bugungi kuni va ayniqsa kelajagini texnika va texnologiyalarni tasavvur qilib bo‘lmaydi. Darhaqiqat, shu kungacha bazi olimlar hozirgi davr jamiyatida ananaviy tarzda sodir bo‘luvchi ijtimoiy inqiloblar tasirida ulkan o‘zgarishlar ro‘y beradi, degan fikrga o‘rganib qolganlar.

Bizning nazarimizda masalaga bunday yondoshuv doimo to‘g‘ri bo‘lmaydi. Chunki aynan sanoat va uni rivojlantiruvchi ilmiy-texnikaviy taraqqiyot jamiyat hayotida yangicha tafakkur, munosabat, voqelik, hodisa va o‘zgarishlarni hosil qilmoqda. To‘ri ilmiy-texnikaviy taraqqiyot insoniyatga farovon turmush tarzini

yaratib berish bilan bir qatorda bir qancha muammolarni hal etishni ko'ndalang qilib qo'yimoqda. Chunki biomuhit hozirgi davrga o'hshab shiddat bilan emirilib, ekotizimlar yo'qolib boraveradigan bo'lsa, demak bu kelajak avlod tomonidan insonning ongsiz ravishda yo'l qo'ygan xatti-harakatlari bilan bog'liqligi natijasida yuz bergan deb sanaladi va ularning ajdodlari oxir-oqibatda tabiatni qanday ayanchli ahvolga solib qo'yganligi to'g'risida ayanchli fikr-mulohaza yuritishlariga asos bo'ladi. Bunday muammolarni oldini olish uchun dunyo xamjamiyatini ezgu maqsadlarda birlashtiruvchi iqtisodiy, siyosiy, madaniy, kommunikatsion aloqalarning tezkorligini oshiruvchi yondashuvlar kerak bo'ladi. Bu yondashuvlar yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etishga katta yordam beradi. Zero bunday munosabat orqali turli mamlakatlar va mintaqalarning o'zaro bog'liqligi ortadi.

To'g'ri, global texnogen sivilizatsiya sivilizatsiya bir sektorda inqirozli holatni yuzaga keltirsa, boshqa sektorda barqarorlikka tahdidni tug'dirishi ham mumkin. Ayni paytda o'zaro globalashgan texnogen munosabatlar shaxs va jamiyat ehtiyojini birmuncha samarali qondirish uchun qabul qilingan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy hayotdagi o'ziga xos munosabatlar, bilim va qadriyatlarni tezkorlik bilan butun sayyoramiz uzra keng yoyilishga imkon yaratadi. Biroq, bularning barchasi yoppasiga bir xillastirish deganini anglatmaydi.

Birinchi, texnogen sivilizatsiya yutuqlarini insonlar o'z iqtisodiy va madaniy imkoniyatlari doirasida o'zlashtira oladilar va bunda har bir jamiyat yoki ijtimoiy guruhda umuminsoniy tajriba ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchi, texnogen sivilizatsiya rivojiga turli jamoalarning ayniqsa madaniyat, milliy va diniy tafakkurda kuchli namoyon bo'luvchi shaxsiy identiklikni saqlab qolishga bo'lgan instinktiv intilish aks tasir ko'rsatadi. Natijada zamonaviy global texnogen sivilizatsiya yaxlit-tizimli tus olibgina qolmay, balki ichki plyuralistik tasnifga ham ega bo'ladi. Chunki bunday sivilizatsiyada iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy shakllarning gomogenlashuvi kuchayib, ayrim turdagi madaniy ehtiyoj va rang-baranglik o'zaro uyg'unlashadi.

Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar

1. Sizningcha, jamiyat taraqqiyotini oldindan ko'ra bilishning mohiyati nimadan iborat ?

2. Hozirgi davr tarixiy jarayonining o'ziga xos xususiyatlari va ularning namoyon bo'lish shakllari haqida o'z fikr-mulohazalaringizni qisqacha bayon eting.

3. Hozirgi zamon umumbashariy muammolari, ularni hal etish yo'llari va istiqbollari qanday ?

4. Inson va insoniyat, ular taqdirining mushtarakligi haqida nimalar deya olasiz ?

10-mavzu. Mantiq ilmining predmeti, asosiy qonunlari. Tushuncha tafakkur shakli sifatida

Kelib chiqishiga ko‘ra arabcha bo‘lgan “mantiq” (grekcha logos) atamasi «fikr», «so‘z», «aql», «qonuniyat», “talimot” kabi manolarga ega. Biz ko‘rib chiqayotgan munosabatda u tafakkur shakllari va qonunlari to‘g‘risidagi talimotni ifodalaydi hamda falsafaning gnoseologiya, metodologiya bo‘limlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan qismini tashkil etadi.

«Mantiq» so‘zi ilk bor Demokritning «Mantiq haqida yoki Kanon»¹ asarida ishlatgan. Lekin bu terminning doimiy qo‘llanishi ellin faylasuflari, platonchilar, peripatetiklar va, ayniqsa, stoiklar ijodi bilan bog‘liq. Stoiklar grammatikani (sintaksisni) va falsafiy mushohada tilini mantiqning tarkibiga kiritdilar hamda ritorika va dialektikani mantiq bilan uzviy bog‘liq ilm turlari sifatida ajratdilar. Xususan, «Ritorika deb – yaxshi muhokama qilishni, dialektika deb esa, savol-javoblar orqali vujudga keladigan tortishuvlar qoidalari haqidagi fanni tushundilar»².

Mantiq ilmining o‘rganish obektini tafakkur tashkil etadi. «Tafakkur» ham arabcha so‘z bo‘lib, o‘zbek tilida «aqliy mushohada», «fikrlash» so‘zlarining sinonimi sifatida qo‘llaniladi. Tafakkur bilishning samarali vositasidir. Tafakkurning mantiq tadqiqot obekti va predmeti sifatidagi o‘ziga xosligi uning bir qancha muhim xususiyatlarida yaxshi namoyon bo‘ladi:

1 Tafakkurda voqelik abstraktlashgan va umumlashgan holda inikos qilinadi. Hissiy bilishdan farqli o‘laroq, tafakkur bizga predmetning nomuhim, ikkinchi darajali (bu odatda bilish oldida turgan vazifa bilan belgilanadi) belgilaridan abstraktlashgan (fikran chetlashgan, mavhumlashgan) holda, uni umumiy, muhim, turg‘un xususiyatlari, munosabatlari orqali bilishimiz, tavsiflashimizga imkon beradi. Masalan, turli kishilarga xos individual belgilarni (xulq-atvori, qiziqishi va shu kabilarni) etibordan chetda qoldirib, ularning inson sifatida mavjud bo‘lishi uchun zarur, muhim, umumiy belgilarini, xususan, onga egaligi, ijtimoiy munosabatlarga kirishishi, maqsadga muvofiq holda faoliyat yuritishi kabi xislatlarini fikran ajratib olib, «inson» tushunchasini hosil qilamiz. Umumiy belgilarni aniqlash predmetlar o‘rtasidagi munosabatlarni, bog‘lanish usullarini o‘rnatishni taqozo etadi. Turli xil predmetlar fikrlash jarayonida o‘xshash va muhim belgilariga ko‘ra muayyan mantiqiy sinflarga birlashtiriladi va shu tariqa ularni xarakterlaydigan qonuniyatlarni bilish, mohiyatini tushunish imkoniyati tug‘iladi. Masalan, yuqorida keltirilgan «inson» tushunchasida barcha kishilar bitta mantiqiy sinfga birlashtirilib, ular o‘rtasidagi muhim bog‘lanishlar (masalan, ijtimoiy munosabatlar) bilib olinadi.

2. Tafakkur borliqni nafaqat bevosita, balki bilvosita aks ettira oladi ham. Unda yangi bilimlar tajribaga har safar bevosita murojaat etmasdan, mavjud bilimlarga tayangan holda hosil qilinishi mumkin. Fikrlash bunda predmet va hodisalar o‘rtasidagi aloqadorlikka asoslanadi. Masalan, bolaning xulq-atvoriga qarab uning qanday muhitda tarbiya olganligi haqida fikr yuritish mumkin.

¹ Sext, Emp. Adv. Math. VII. 16.

² Луканин Р. К. Органон Аристотеля. –М.: Наука, 1984. –С. 5.

Tafakkurning mazkur xususiyati ayniqsa xulosaviy fikr hosil qilishda aniq namoyon bo'ladi.

3. Tafakkur insonning ijodiy faoliyatidan iborat. Unda bilish jarayoni borliqda real analogiga ega bo'lmagan narsalar – yuqori darajada ideallashgan obektlar (masalan, absolyut qattiq jism, ideal gaz), ularning modellarini yaratish, turli xil formal sxemalar, sistemalarni qurish bilan kechadi. Ular orqali predmetning tajribada namoyon bo'lmaydigan, lekin uing tabiatini belgilaydigan xususiyatlarining mavjudligi taxmin qilinadi, ularositasida predmetning tajribada kuzatiladigan holatidan farq qiladigan ideallashgan bekti yaratiladi va mushohada qilinadiladi,

shu tariqa uning muhim xosssalarini, ichki zaruriy aloqalarini, qonuniy bog'lanishlarini o'rganish, predmet mohiyatini aniqlash, hodisalarni oldindan ko'rish, bashoratlar qilish imkoniyati vujudga keladi.

4. Tafakkur til bilan uzviy aloqada mavjud. Fikr ideal hodisadir. U faqat tilda – moddiy hodisada (tovush to'lqinlari, grafik chiziqlar, alfavitlarga asoslangan til ifodalari, turli simvollarda) reallashadi, boshqa kishilar bevosita qabul qila oladigan, his etadigan shaklga kiradi va shu tariqa odamlarning o'zaro fikr almashish vositasiga aylanadi. Boshqacha aytganda, til fikrning bevosita voqe bo'lish shaklidir.

Predmetning asl tabiati, mohiyatini tushuntirish uchun aqlning faol ishtiroki, yuqori darajada abstraktlashgan tafakkurning kuchi talab etiladi. Bu nazariy bilish bosqichiga o'tish, bilish predmetinig tabiatini belgilovchi muhim xususiyatlari, ular asosida yaratiladigan ideallashgan obrazlari, modellari to'g'risida mulohazalar hosil qilish, ularni isbotlash orqali sodir bo'ladi. Nazariy tafakkurda predmetlar turli mantiqiy sinflarga birlashtiriladi, ular turli hil holatlarida olib o'rganiladi, natijalari izchil va asosli tarzda bayon qilinadi.

SHunday tqilib, predmet mohiyatini aniqlash unga xos qonuniyatlarni o'rnatish, ularni muayyan mantiqiy shakllar, nazariy konstruktlarda bayon qilishni talab etadi. Buning chun esa mantiq qonunlarini o'rganish, to'g'ri fikrlash qoidalarini yaratish zarur. Bu mantiqning maqsadi, asosiy vazifasini tashkil etadi. Mazkur holat aqliy mushohada qoidalarini yaratishga bo'lgan qiziqishning ortishiga, mantiq ilmining shakllanishiga turtki bergan. Bu o'rinda Aristote "Organon"i, Forobiyning mantiqqa oid asarlari, Ibn Sinoning "Donishnoma"si, Bekonning "YAngi Organon"i, Dekartning "Aqlni boshqarish uchun qoidalar", Lokkning "Inson aqli to'g'risida tajriba", Leybnitsning "Inson aqli to'g'risida yangi tajribalar" kitoblarining mantiq muammolarini o'rganish yo'lida yaratilganligini adohida aytib o'tish kerak.

Mantiq fanining asosiy masalalarini ishlab chiqqan, tayanch tushunchalari va prinsiplarini yaratgan, ularni yaxlit fan, talimot shakliga keltirgan va haqli ravishda shu fan asoschisi deb ataladigan mutafakkir qadimgi grek faylasufi Aristoteldir. U mantiqni sillogistik xulosa chiqarishni tahlil etuvchi sanat hisoblab, uni analitika deb atagan va "Analitikalar" asarida asosiy tushuncha, usul va qoidalarini bayon qilgan.

Aristotelning sillogistik talimoti ilk o'rta asrlarda YAqin va O'rta Sharq mutafakkirlari tomonidan chuqur o'rganilgan.

Mantiq ilmi ayniqsa, IX-XI asrlarda Markaziy Osiyoda mashhur mutafakkirlar Al-Forobiy, Ibn Sino, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Nasriddin Tusi, Davoniy, Jurjoniy va boshqalarning asarlarida rivojlantirilgan. Ular Aristotelning mantiqiy talimotini tiklabgina qolmay, undagi asosiy tamoyillarga tayanib, o'zlari mustaqil talimot yaratishga harakat qilganlar.

Markaziy Osiyo allomalari mantiqqa oid tadqiqotlarini tushuncha va Mulohazaning tabiatini aniqlashdan boshlaydilar. Chunki bilimlar, qaysi sohaga taalluqli bo'lishidan qat'iy nazar, tushuncha va Mulohaza shaklida ifodalangan bo'lib, mantiqiy xulosa chiqarish bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi.

Abu Nasr Forobiy o'z ijodida mantiq muammolarini tadqiq qilishga katta ahamiyat bergan. U Aristotelning mantiqqa oid barcha asarlariga keng sharhlab beribgina qolmay, balki unda qo'yilgan muammolarni chuqur o'rgandi, ularni yangi fikrlar bilan boyitdi va barcha bo'limlarini sinchiklab tavsiflab berdi. U xulosa chiqarish nazariyasini tadqiq qilishga, xususan, sillogizmga yangi bilimlar olishning eng ishonchli vositasi va isbotlash shakli sifatida alohida etibor berdi.

Forobiy "Mantiqqa kirish" risolasida, "mantiq ilmi xatoga yo'l qo'yish ehtimoli mavjud bo'lgan holda tafakkurning to'g'ri kechishini ko'zlab, aqlni to'g'irlab turadi"¹, deb yozadi. Uning fikricha, "mantiq aqlni to'g'ri tafakkurga eltadigan narsalarni o'zida mujassamlashtirgan sanatdir"². Aqliy mushohada bilishning asosiy quroli, to'g'ri tafakkur, yani fikrni to'g'ri qurish esa haqiqatga erishishning zaruriy sharti bo'lganligi uchun mantiq bilimlar tizimida alohida o'rin tutadi. Forobiyning takidlashicha, barcha ilmlar aqliy mushohada yo'li bilan hosil qilinishi sababli, fanlarning orasida birinchisi til haqidagi fan bo'ladi; u narsalarga, yani substansiya va aksidensiyalarga (predmet va uning xossalari, munosabatlariga – M.SH.) nom beradi. Ikkinchi fan grammatika bo'lib, u predmetlarga berilgan nomlarni qanday qilib tartibga solish, nutq va gaplarni tuzishni o'rgatadi. "Uchinchi fan – bu mantiq; uning qanday qilib darak gaplarni mantiqiy figuralarga mos ravishda joylashtirganda ulardan to'g'ri xulosalar chiqarishni o'rgatishi natijasida biz bilib olinmagan narsalarni bilamiz va nimaning chin, nimaning xato ekanligi to'g'risida fikr bildiramiz"³. Bu fanlar, Forobiy fikricha, poetika bilan birgalikda, shu tartibda arifmetikadan avval paydo bo'ladi va undan keyin aynan ana shu tartibda arifmetikaga ergashadi.

Olimning takidlashicha, «mantiq sanati intellektning ommalashuviga olib keluvchi va insonni haqiqat tomon yo'naltiruvchi bilimlar, qonunlarni o'rganadi. Bu qonunlar insonlarni bilish jarayonidagi turli xato va adashishlardan saqlaydi. Inson bu qonunlar yordamida bilimlarini tekshirib, ularning chin yoki xatoligini aniqlash orqali xulosaga ega bo'ladi»⁴.

U to'g'ri tafakkurning asosiy tamoyillari: aniqlik, fikrlarning o'zaro zid bo'lmasligi, izchilligi, har qanday xulosaning asoslangan bo'lishi va boshqa muhim

¹ Аль-Фараби. Вводный трактат в логику // Естественные- научные трактаты. – Алма-Ата, «Наука» Казахской ССР, 1987. – с.435.

² Шу жойда, С. 435

³ Аль-Фараби. О происхождении наук // Естественные- научные трактаты. – с.435.

⁴ Қаранг: Ал-Фараби. О том, что должно предшествовать изучению философии //Философские трактаты. – Алма-Ата: Наука, 1970. –С. 8-9.

mantiqiy masalalarni ham har tomonlama ishlab chiqdi. Aytish mumkinki, al-Forobiyning mantiqiy talimoti YAqin va O'rta Sharqda, shu jumladan, Markaziy Osiyoda mantiq fanining rivojlanishini belgilab berdi.

Abu Ali ibn Sino al-Forobiyning falsafa va mantiqshunoslikda boshlab bergan ishini rivojlantirdi. U «mantiqni barcha fanlarning muqaddimasi, ularni egallashning zarur sharti hamda falsafaning ajralmas qismi sifatida talqin etdi»¹.

Ibn Sino o'zidan juda katta, o'rta asrda mavjud bo'lgan ilmlarning hamma qirralarini o'z ichiga qamrab olgan ilmiy meros qoldirgan. Hozirgi kunda uning risolalari jahondagi ko'plab kutubxonalarda saqlanmoqda¹.

Ibn Sino Aristotelning ayrim kamchiliklarini o'z asarlarida tuzatishga uringan. Bu o'rinda Ibn Sinoning quyidagi fikrlari diqqatga sazovordir: «Biz uni (Aristotelni) oldingi peripatetiklar ichida eng buyuk olim deb hisob-laymiz, chunki u o'z do'stlari va o'qituvchilari bilmagan narsalarni kashf qildi, fanlarni tasnifladi, juda yaxshi tizimga soldi, ko'p muammolarni to'g'ri hal etib, uni o'z xalqiga xabar qildi. Aql-zakovatga murojaat etib, Aristotelning xatolarini tuzatish lozim edi. Ammo uning izdoshlari bu ishni qilmadilar, ular Aristotelning kuchli tasiridan chiqolmay, uning talimotidagi to'g'ri tomonlarini tushunishga va uning notfo'g'ri qarashlarini ko'r-ko'rona qo'llab-quvvatlashga o'z umrlarini sarf etdilar. Biz esa, ular xohlagan, ammo bajara olmagan ishlarni bajardik, uning talimotining ayrim tomonlarini to'ldirdik»².

Abu Abdulloh al-Xorazmiy (X asr) ham o'zining «Mafotix al-ulum» (Ilmlar kaliti) asaridagi fanlar tasnifida mantiq ilmiga alohida o'rin berdi. U mantiq masalalarini ko'rib chiqishni so'z va iboralarning o'zaro munosabatini tahlil etishdan boshlaydi. O'zining qomusiy asarida mantiqqa katta etibor beradi.

Aristotel mantiqning ehtimoliy bilimlarni tadqiq etuvchi qismini dialektika (gaplashish, fikr almashish) deb atagan. Buni birinchi muallimning YAqin va O'rta Sharqdagi, jumladan, Markaziy Osiyodagi izdoshlari, xususan nomlari yuqorida zikr etilgan mutafakkirlar ham etirof etishgan.

17-asr fransuz faylasufi R.Dekart deduktiv metodni jiddiy tadqiq etishi bilan mantiqni rivojlantirishga ulkan hissa qo'shdi. Uning ishlab chiqqan aqliy bilish qoidalari hozirgacha o'zining ilmiy qimmatini yo'qotgan emas. Ular quyidagilardan iborat:

1. Bilishda hech qanday shubhaga o'rin qoldirmaydigan aniqlik va yaqqollikka erishish.

2. Tadqiq etilayotgan predmetni tushuntirish uchun uni qancha qismga bo'lish talab etilsa, shuncha qismlarga bo'lish.

3. Aqliy mushohada jarayonida oddiy narsalarni o'rganishdan boshlab, asta-sekin uning murakkab tomonlarini bilishga o'tish.

¹ Хайруллаев М. М., Хақбердиев М. Мантик. -Т.: Ўқитувчи, 1993. -54-б.

¹ Ибн ал-Асир. Комил и ат-Тарих. -С 170. В фонде института востоковедения АН РУз. Инв. №6280; Семенов А. А. Абу Али ибн Сино. Сталинабад, 1945. -С. 57; Мирзаев С. Ибн Синонинг Шарқшунослик институтидаги мавжуд асарлари (библиография произведений Ибн Сины в ИВ АН РУз). -Т., 1955; Вахобова Б. Рукописи произведений Ибн Сины в собрании ИВ АН РУз. -Т., 1982.

² Абу Али ибн Сино туғилган кунининг 1000 йиллигига. Мақолалар тўплами. -Т.: Фан, 1980. -18-б.

4. Bilish jarayonida predmetning muhim jihatlarini nazardan chetta qoldirmaslik, uni fikrda iloji boricha to'raligicha qamrab olish.

Tafakkur shakli va tafakkur qonuni tushunchalari

Aqliy mushohada, tafakkurni mantiqda tadqiq etish (uni boshqa fanlar, masalan psixologiya, kibernetika, falsafa kabilar ham o'rganadi) uchun, avvalambor, tafakkurning mazmuni va shaklini farqlash zarur. Tafakkur(*Fikr*) mazmuni deganda u aks ettirayotgan predmetning muhim belgilari (xossalari va munosabatlari) to'g'risidagi axborotlar tushuniladi. *Fikrning mantiqiy shakli* yoki *tafakkur shakli* deganda esa, fikr mazmunini hosil qiluvchi elementlar (axborotlar)ning bog'lanish usuli tushuniladi.

Tafakkur uch xil shaklda: tushuncha, mulohaza (hukm) va xulosa chiqarish shaklida mavjud. Ularni misollar yordamida ko'rib chiqamiz.

Malumki, ayrim predmetlar, ularning sinfi (to'plami) kishilar tafakkurida turli xil mazmunga ega bo'lgan tushunchalarda aks etali. Masalan, «davlat» tushunchasida o'zining maydoniga, aholisiga, boshqaruv vositalariga ega bo'lgan siyosiy tashkilot aks ettiriladi. «Milliy g'oya» tushunchasida esa millatning, xalqning kelajak bilan bog'liq orzu-umidlari, maqsadlari, tub manfaatlarini ifoda etiladi. Mazmun jihatidan turli xil bo'lgan bu tushunchalar mantiqiy shakliga ko'ra bir xildir: har ikkalasida predmet uning muhim belgilari orqali fikr qilingan. Xususan, «o'z maydoniga egaligi», «aholisiga egaligi», «hokimiyat tarzida mavjudligi», «siyosiy tashkilotdan iboratligi» davlatning muhim xususiyatlari hisoblanadi. Xuddi shuningdek, «millatning orzu-umidlari, maqsadlari, tub manfaatlarini aks ettirishi» milliy g'oyaning muhim belgilaridir. Agar tushuncha aks ettirayotgan predmetni A bilan, unda fikr qilinayotgan muhim belgilarini, yani fikrlash elementlarini a, v, s,..., n bilan belgilasak, tushunchaning mantiqiy strukturasi A (a, v, s,..., n) shaklida simvolik tarzda ifodalash mumkin.

Mulohazalarda predmet bilan uning xossasi, predmetlar o'rtasidagi munosabatlar, predmetning mavjud bo'lish yoki bo'lmaslik fakti haqidagi fikrlar tasdiq yoki inkor shaklda ifoda etiladi. Masalan, «YUksak manaviyat-engilmas kuch» degan mulohazada predmet (yuksak manaviyat) bilan uning xossasi (engilmas kuch) o'rtasidagi munosabat qayd etilgan. «Axloq huquq bilan uzviy aloqada» degan mulohazada ikkita predmet (axloq va huquq) o'rtasidagi munosabat qayd etilgan. Mazmun jihatidan turli xil bo'lgan bu mulohazalar mantiqiy tuzilishiga ko'ra bir xildir: ularda predmet haqidagi tushuncha (S) bilan predmet belgisi haqidagi tushuncha (P) o'rtasidagi munosabat qayd etilgan, yani R ning S ga xosligi tasdiqlangan. Umumiy holda mulohazaning mantiqiy strukturasi (shaklini) S—R formulasi yordamida ifoda etish mumkin.

Xulosa chiqarishda ham yuqoridagiga o'xshash hollarni kuzatish mumkin. Masalan,

“Gul – o‘simlik”.

“Binafsha – gul”.

Demak, “Binafsha – o‘simlik”.

yoki

“Har bir kimyoviy element o‘z atom og‘irligiga ega”.

“Mis – kimyoviy element”.

Demak, “Mis o‘z atom og‘irligiga ega” kabilar.

Bu xulosa chiqarish hollari mazmuni bo‘yicha turlicha bo‘lishiga qaramasdan, bir xil mantiqiy strukturaga ega. Har ikkalasida xulosani tashkil etuvchi tushunchalar xulosa chiqarish uchun asos bo‘lib xizmat qilayotgan Mulohazalarda uchinchi bir tushuncha (birinchi misolda – «daraxt», ikkinchi misolda – «kimyoviy element» tushunchasi) orqali bog‘langan.

Yuqoridagi keltirilgan misollardan tafakkur shakli fikrning konkret mazmunidan nisbatan mustaqil holda mavjud bo‘lishi va, demak, o‘ziga xos qonuniyatlarga egaligi malum bo‘ldi. Shuning uchun ham mantiqda uni alohida o‘rganish predmeti sifatida olib qarash mumkin.

Tushuncha, mulohaza(hukm) va xulosa chiqarish tafakkurning universal mantiqiy shakllari, uning asosiy strukturaviy elementlari hisoblanadi. Muhokama yuritish ana shular va ularning o‘zaro aloqalarga kirishishi natijasida vujudga keladigan bilimlarning boshqa mantiqiy shakllari, strukturalari (masalan, muammo, gipoteza, g‘oya, nazariya va shu kabilar)da amalga oshadi.

Muhokama yuritishda ishonchli natijalarga erishishning zaruriy shartlari qatoriga fikrning chin bo‘lishi va formal jihatdan to‘g‘ri qurilishi kiradi. CHin fikr o‘zi ifoda qilayotgan predmetga muvofiq keluvchi fikr hisoblanadi (masalan, «temir – metall»). Xato fikr predmetga mos kelmaydigan fikrdir (masalan, «temir – metall emas»). Fikrning chin yoki xato bo‘lishi uning mazmuniga tegishli xususiyatlaridir.

Fikrning chin bo‘lishi mantiqiy fikr yuritishning zaruriy sharti bo‘lsa-da, o‘z holicha etarli emas. Fikr muhokama yuritish jarayonida formal jihatdan to‘g‘ri qurilgan ham bo‘lishi kerak. Bu xususiyat fikrning shakliga taalluqli bo‘lib, tafakkurda hosil bo‘ladigan turli xil mantiqiy strukturalarda sodir bo‘ladigan har xil mantiqiy amallarda o‘z aksini topadi.

Fikrni to‘g‘ri qurishga tafakkur qonunlari talablariga rioya qilgandagina erishish mumkin. **Tafakkur qonuni** muhokama yuritish jarayonida qatnashayotgan fikrlar (fikrlash elementlari) o‘rtasidagi mavjud zaruriy aloqalardan iborat. Mantiqda fikrni shakli jihatidan to‘g‘ri qurishning, yani to‘g‘ri tafakkurning to‘rtta qonuni, xususan, ayniyat qonuni, nozidlik qonuni, uchinchisi istisno qonuni va etarli asos qonuni Tafakkur qonunlari mazmunidan kelib chiqadigan, muhokamani to‘g‘ri qurish uchun zarur bo‘lgan talablar *fikrning aniq, izchil, etarli darajada asoslangan bo‘lishidan* iborat. Bu talablar

mos prinsiplar(qoidalar) tarzida, yani to‘g‘ri tafakkur prinsiplari sifatida amal qiladi

Ayniyat qonuni aqliy mushohada yuritish jarayonida fikrning aniqligini ifodalaydi. Uning mazmuni quyidagicha: *malum bir predmet haqida aytilgan aniq bir fikr ayni bir muhokama doirasida ayni bir vaqtda o‘z-o‘ziga tengdir*. Uni "A-A dir" formulasi ifodalaydi. Muhokamaning aniqligi (bir manoligi)prinsi fmkr yuritish jarayonida qo‘llanilayotgan terminlar, tushunchalar, mulohazalarning aniq manoga ega bo‘lishini, uning bir muhokama doirasida asossiz ravishda o‘zgartirilmasligini anglatadi.

Muhokamaning izchilliginozidlik qonuni (*muayyan mulohaza va uning inkori birga chin bo'lishi mumkin emas*) va uchinchi istisno qonuni (bir predmet to'g'risida bir vaqtda va bir munosabatda bildirilgan (o'zaro zid fikrlardan birialbatta chin, ikkinchisi albatta xato, uchinchi holning bo'lishi istisno) qonunida ifoda etilgan. Ular biror fikrni aytib turib, uni istisno qiladigan fikrni qabul qilmaslikni bildiradi. Muhokamaning izchilligi yana mulohazalar zanjirida har bir fikrning o'z o'rnida qo'llanilishi, keyingi va oldingisi bilan bog'lanib turishini talab etadi. Tafakkurning noizchil bo'lishi, shuningdek, muhokama jarayoni bosqichlari tartibining buzilishi, mulohazalarning o'zaro bog'lanmasligi, ularni uzilib qolishida namoyon bo'ladi.

Asoslilik talabi etarli asos qonunida aks etgan (*predmet haqida aytilgan fikr ishonchli bo'lishi uchun etarli asosga ega bo'lishi kerak*). Asoslilik prinsip to'g'ri fikr yuritishning zaruriy xususiyati sifatida ilgari surilayotgan fikrni isbotlash yoki, hech bo'lmaganda, uni asoslashga urinishni, o'ylamasdan har bir narsaga ishonch bildirmaslik, shuningdek asosiz mulohazalarni bayon qilmaslikni taqozo etadi. Mazkur qoidalarning buzilishi muhokamaning noto'g'ri qurilishiga sabab bo'ladi. Bunda, xususan, chin fikrlardan xato xulosa chiqishi (masalan, «Qonun – rioya qilish zarur bo'lgan huquqiy hujjat», «Buyruq – qonun emas», demak, «Buyruq – rioya qilish zarur bo'lgan huquqiy hujjat emas») yoki xato qurilgan muhokamadan chin xulosa chiqishi (masalan, «Barcha moddiy jismlar – kimyoviy elementlar», «Temir – moddiy jism», demak, «Temir – kimyoviy element») mumkin.

Mantiq qonunlarini M.Koen va E.Nagellarning talqin qilishlari qilishlari ham etiborga loyiqdir. Ular fikriga ko'ra, mantiqni ko'p hollarda “tafakkur qonunlari”ni o'rganuvchi fan deb tarflashgan. Xususan, uchta prinsip – ayniyat prinsipi, nozidlik prinsipi va uchinchi mustasno prinsipi — asosli muhokama yuritishning zaruriy, bazan esa etarli sharti deb hisoblab kelingan¹.

Mazkur qoidalarning buzilishi muhokamaning noto'g'ri qurilishiga sabab bo'ladi. Bunda, xususan, chin fikrlardan xato xulosa chiqishi (masalan, «Qonun – rioya qilish zarur bo'lgan huquqiy hujjat», «Buyruq – qonun emas», demak, «Buyruq – rioya qilish zarur bo'lgan huquqiy hujjat emas») yoki xato qurilgan muhokamadan chin xulosa chiqishi (masalan, «Barcha moddiy jismlar – kimyoviy elementlar», «Temir – moddiy jism», demak, «Temir – kimyoviy element») mumkin.

Tafakkurning yuqorida tavsiflab o'tilgan va boshqa shakllari va qonunlarini o'rganish, uning asosida chin fikr hosil qilish prinsiplarini ishlab chiqish mantiqning muhim tadqiqot masalalari vazifalarini tashkil etadi. Ana shundan kelib chiqib, uning predmetini quyidagicha tarflasak bo'ladi: *mantiq - tafakkur shakllari va qonunlarini o'rganuvchi falsafiy talimot*.

Mantiq fanining yo'nalishlari.

¹ Каправ: Morris R. Cohen, Ernest Nagel An Introduction to Logic and Scientific Method. New York/ 2007 p.81

Tafakkur ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, uni turli xil tomonidan, xususan, mazmuni va shakli (strukturasi) bo‘yicha, tayyor holda yoki kelib chiqishi va taraqqiyotida olib o‘rganish mumkin. Bularning barchasi mantiq ilmining vazifasini tashkil etadi, uning turlicha metodlardan foydalanishiga, har xil yo‘nalishlarga ajralishiga sabab bo‘ladi. Masalan, tafakkurni o‘rganishda qanday metodlarni qo‘llashiga qarab formal mantiq va uning rivojining hozirgi bosqichi bo‘lgan simvolik mantiq(strukturaviy metod), matematik mantiq(matematik metodlar), dialektik mantiq(dialektik metod) va boshqalarni ajratish mumkin.

Mantiq tarixida esa dastlab shakllangan talimot ananaviy mantiq deb ataladi. Uni Aristotel xulosaviy bilim olish to‘g‘risidagi talimot sifatida asoslagan va “Analitikalar”da sillogizm nazariyasi tarzida bayon qilgan. SHuning uchun ham mutafakkir yaratgan mantiqni mutaxassislar uning sillogistikasida deb bilishadi.

Ananaviy mantiq mohiyatiga ko‘ra formal mantiqdir. Formal mantiq fikrning konkret mazmuni, tafakkurning rivojlanishi jarayonini o‘rganishni o‘zidan soqit qiladi. U fikrlashning mantiqiy strukturasi, shaklini, uni xarakterlaydigan qonunlarni o‘rnatadi. Bu formal mantiq masalalarini o‘rganishda simvollar keng foydalanish, xususan, mantiqning formallashtirilgan tilini yaratib, uni samarali qo‘llashga imkon berdi. Mantiqiy shakllarni simvollar yordamida ifoda etish ularning aniqligi va adekvatligini orttirdi, qo‘llanish sohasini kengaytirdi, matematik metodlardan foydalanishni osonlashtirdi va buning natijasi o‘laroq, o‘zagini mulohazalar hisobi va predikatlar hisobi tarzida qurilgan klassik mantiq hosil qiluvchi simvolik mantiq shakllandi. Uni bazan matematik mantiq deb ham atashadi. Xususan, N.I. Kondakov klassik mantiqning o‘ziga xosligini ikki qiymatli bo‘lishi(fikrni chin yoki xato deb baholashdan kelib chiqishi) hamda simvolikdan keng foydalanishga asoslanganligida deb bilgani holda uni matematik mantiqning bir yo‘nalishi deb hisoblaydi¹.

zamonaviy(simvolik) mantiq formal mantiq rivojining yuqori bosqichi bo‘lib, o‘z ichiga klassik va noklassik hamda relevant mantiq kabilarni oladi. Noklassik mantiqning turli yo‘nalishlarida (ular birgalikda noklassik mantiq deb nomlanadi) mulohazalarning chirligi turli darajadagi ehtimollikdan iborat bo‘lishi, yani ko‘p qiymatli (ko‘p manoli) bo‘ladi. SHunga muvofiq ravishda ko‘p manoli noklassik mantiq turlari shakllangan.

Ko‘p qiymatli(manoli) mantiq hozirgi zamon mantiqining bir tarmog‘i bo‘lib, muhokamani «chin», «xato», «qisman chin», «qisman xato», kabi tushunchalar orqali ifodalaydi. Agar formal va klassik mantiqlardada mulohazalar ikki qiymatli (chin yoki xato) bo‘lsa, ko‘p manoli mantiqda mulohazalar uchta va undan ortiq qiymatlidir. Shuning uchun bu mantiq «ko‘p manoli mantiq» deb yuritiladi. Bu mantiqda eng oddiy sistema uch manolidir. Masalan, Siz “BMTning Nizomini bilasizmi? -degan savolga “ha”, “yo‘q”, “qisman bilaman ” kabi javoblarni olish mumkin.

Qiymatli mantiqning bir qanchasi matematika va mantiq kesishuvi joyida vujudga kelgan bo‘lib, ularning bazilari asosida Kantor to‘plam nazariyasi duch kelgan paradokslar sababini topishga urinish yotadi. Malumki, nemis olimi Kantor

¹Қаранг:Кондаков Н.И. Логический словарь-справочник-М.:Наука,1975-С.249

ishlab chikqan to‘plam nazariyasi bir necha hal qilib bo‘lmaydigan paradokslar bilan to‘qnashib, ularning sababi aniqlanmagandan so‘ng, undan qutilishga urinish yo‘lida logitsizm, konstruktivizm, intuitionsizm kabi oqimlar paydo bo‘ladi. Ularda paradoks bilan bog‘liq ziddiyatlarni zamonaviy formal mantiq asosida hal qilishga urinish kuzatiladi.

Induktiv mantiq–noklassik mantiq yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, unda induksiya, shu jumladan matematik induksiya, faktlar etishmovchiligi sharoitida, chinlik ehtimoli qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, muammoni hal etish yo‘lida muayyan mulohazalar hosil qilishga imkon beradi, degan xulosaga kelinadi.ga muayyan matematik induksiya. Induktiv mantiq prinsiplari XX asr olimlari L. E. Brauer va A. Geytinglar tomonidan ishlab chiqilgan.

Klassik mantiqqa asoslangan matematikada $\square XA(x)$ ifoda quyidagicha o‘qiladi: «Hamma X A xossasiga ega». Klassik mantikqa ko‘ra, agar bu ifodalar arifmetika aksiomalariga mos kelsa, to‘g‘ri (chin) deb qabul qilinadi. Matematika uchta musbat sonlarning bir butuni h dan tuzilgan, uni $A(h)$ ning tashkil topish usuli qiziqtirmaydi. Intuitiv mantiqda bu sonning tuzilish usuli malum bo‘lgandagina Ax (X) ifodasi chin (to‘g‘ri) hisoblanadi. A ning to‘g‘riligidan (chinligidan) V ning to‘g‘riligini bevosita keltirib chiqarish metodi ishlab chiqilgandagina, implikatsiya ($a \square v$) chin (to‘g‘ri) hisoblanadi.

Konstruktiv mantiq –matematik mantiqning asosiy oqimlaridan biri. U konstruktiv matematikaga asoslanish hamda intuitiv mantiq qoidalarini tanqidiy o‘rganish negizida paydo bo‘lgan. Mantiqdagi bu oqim ham Kantor to‘plam nazariyasidagi paradoksni hal qilishga urinish asosida paydo bo‘ldi. Konstruktiv mantiq real dunyoda mavjud bo‘lmagan, lekin fikrda qurish mumkin bo‘lgan obektlarni, ularning o‘zaro mantiqiy bog‘lanishlarini tadqiq etadi.

Logitsizm – bu oqim ham Kantor to‘plam nazariyasidagi paradokslarni hal qilishga intilish asosida vujudga kelgan. Logitsizm noklassik mantiqning o‘ziga xos tarmog‘i bo‘lib, unda mantiq ilmi va matematikaning o‘zaro yaqinligiga alohida etibor beriladi. Xususan, bazi o‘rinlarda mantiqni matematikadan ustun qo‘yishga intilish, boshqa o‘rinlarda ularni tenglashtirish bitta fan deb hisoblash hollari mavjud. Uning tarafdorlari matematikani mantiq doirasiga to‘laligicha kiritish mumkin, buning uchun xech qanday qo‘shimcha tushunchalar talab qilinmaydi, deb takidlaydilar. Bu fikr matematik haqiqatni aniqlashda juda katta ahamiyatga ega edi. Matematika rivoji uchun boshqa fanlarga nisbatan mantiq juda katta ahamiyat kasb etadi. Undagi teoremlar, aksiomalar kuchli mantiqiy asosga ega. VA, umuman, matematika qadimdan mantiqan izchil fan deb hisoblangan. Biroq, hozirda matematikani mantiq ilmi bilangina bog‘lash orqali fan sifatidagi maqomini o‘rnatish va tushuntirish mumkin emasligini ko‘pchilik matematik va mantiqshunoslaryaxshi bilishadi.

Intuitionsistik mantiq ham matematikaning rivoji bilan uzviy bog‘liq ravishda shakllangan. Asoschisi gollandiyalik matematik va mantiqshunos L.Brauer bo‘lib, u va uning tarafdorlari fikriga ko‘raintuitsiya matematika va mantiqning asosida yotadi. Ularning takidlashicha, to‘plam nazariyasi bilan bog‘liq paradokslarning vujudga kelishi nafaqat Cheksizlik abstraksiyasini qabul qilish

bilan, balki klassik mantiqning qonunlari hamda muhokama yuritish usullarining yangi bilish vazifalarini hal etishdagi zaifligi bilan ham bog‘liq.

Ana shunday yo‘nalishlardan biri *formal mantiq* bo‘lib, u to‘g‘ri *tafakkur shakllari va qonunlarini o‘rganadi*. Unda fikrning konkret mazmunidan chetlashilgan holda etibor fikr strukturasi (shakliga) qaratiladi (“formal” so‘zi mazkur yo‘nalishda fikrning shakli, yani formasining tadqiq etilishini bildiradi). Shuningdek, formal mantiqda fikrning rivojlanishi maxsus o‘rganilmaydi. Unda bildirilgan fikr predmetning muayyan sharoitdagi qat’iy holatini aks ettiradi deb hisoblanadi. Demak, formal mantiq fikrning strukturasi (shakli, tuzilishi) jihatidan to‘g‘ri qurilishi bilan bog‘liq qonun-qoidalarni tadqiq etadi.

FORMAL MANTIQNING PREDMETI

Formal mantiq tafakkurning strukturasi fikrning konkret mazmuni va taraqqiyotidan chetlashgan holda, nisbatan mustaqil ravishda Bunda u yuqorida qayd etib o‘tilgan tafakkur mazmuni va shakli (strukturasi) ning o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgani holda, bir-biridan nisbiy mustaqil holda mavjud bo‘lishi va Shuning uchun ham tafakkur shaklini (strukturasi) alohida tadqiqot obekti sifatida olib o‘rganish mumkinligi faktiga tayanadi Uning diqqat markazida muhokamani to‘g‘ri qurish bilan bog‘liq qoidalar va mantiqiy amallarni muhokama etish yotadi.

Formal mantiqqa to‘g‘ri tafakkur shakllari va qonunlarini o‘rganuvchi falsafiy talimot, deb tarif bersak bo‘ladi.

Morris Koen va Ernest Nagellar fikricha, “Mantiqni turli xil asoslarning adekvatligi va isbotlash kuchi masalasini tadqiq etadi deb aytish mumkin. Lekin ananaga ko‘ra, u isbotlash nimadan tashkil topishini (yani, strukturasi-M.SH.) o‘rganadi, yani etarli va rad etib bo‘lmaydigan asoslar bilan ish ko‘radi”¹. Mazkur qarashning, Aristotel tomonidan yaratilgan mantiq o‘zagini sillogistik nazariya va u bilan bog‘liq isbotlash to‘g‘risidagi talimot tashkil etadi, degan fikr bilan hamohangligini payqab olish qiyin emas. To‘g‘ri, xulosa chiqarish va isbotlash formal mantiqning asosiy muammosi hisoblanadi, chunki u o‘z ichiga tushuncha, mulohazalarni oladi. Ayni paytda, ular maxsus tadqiq qilinmasa, mohiyati ochilmaydi, ko‘p tomonlari nomalumligicha qoladi. Buningsiz zamonaviy mantiq, xususan, predikatlar hisobini tasavvur qilib bo‘lmaydi.

SHuni ham alohida takidlash joizki, formal mantiq hozirgi paytda o‘zining maxsus formallashgan tiliga, to‘g‘ri muhokama yuritish uchun zarur bo‘lgan samarali mantiqiy metodlari va usullariga, konseptual vositalariga ega.

Formal mantiqning boshqa fanlar bilan aloqasi

Formal mantiq tafakkurni o‘rganuvchi boshqa fanlar, ayniqsa, falsafa, psixologiya bilan bog‘langan. Xususan, “psixologiyaga oid bilimlarsiz mantiqiy nazariyalarni xato va anglanmaydigan mulohazalardan soqit qilib bo‘lmaydi”².

Mantiqning falsafa umumnazariy masalalari bilan aloqadorligi shunda ko‘rinadiki, “mantiqiy munosabatlar o‘z holicha borliqda mavjud predmet va hodisalar determinatsiyasini (o‘zaro taqozalanganligini-M.SH.) aniqlash uchun

¹ Ўша асар-Б.32.

² Ўша асар.-Б.52.

etarli emas, lekin u predmetlarning mumkin bo'lgan turli birikmalari determinatsiyalarining har birida qatnashadi"¹.

Mantiqning bosh maqsadi — asosli xulosa chiqarish turlarini asossiz xulosa chiqarishlardan farqlashdan iborat. Biroq mantiqning vazifasi bu bilangina cheklanmaydi. Lokk davridan buyon mutafakkirlar bilimning umumiy tabiati va inson ongi haqiqatni anglashi mumkin bo'lgan usullar haqida spekuliyativ diskussiyalar olib borishadi. Biz bunday bahs munozaralarni muhim emas deb hisoblaymiz. Metafizika, ratsional psixologiya yoki epistemologiya va psixologiya tadqiq etadigan masalalar muayyan darajada mavhumdir va noaniqdir. Shuning uchun ham shubha ostida qoladi. Lekin metafizika yani falsafa muhokama yuritishning umumiy asoslarini, qonuniyatlarini tadqiq etishi bilan mantiqqa yaqin turadi, uning qoidalarining zaruriy metodologik asosini tashkil etadi.

Boshqa har qanday fan singari mantiq haqiqatga erishishga qarab yo'naltirilgan. To'g'ri xulosalash malakasi johil kishida ham bo'lishi mumkin. To'g'ri xulosalash haqiqatga erishishning zaruriy qismi hisoblanadi. Bu jarayonda mantiqning ishtiroki tabiiyki fan doirasini muayyan darajada kengaytiradi.

Formal mantiqning matematika, grammatik bilan bog'liqligi yaxshi malum. Buni matematik mantiq noklassik mantiqning turli yo'nalishlari mavjudligi tasdiqlaydi. SHuningdek, uni formal mantiqning Qadimgi davrda grammatika, matematika bilan uzviy bog'liq holda shakllangani, ularning ko'p umumiy xususiyatlarga egaligi ham ko'rsatadi. Matematika predmetlarni "hisoblash" va "chizish", grammatika ularni o'z "nomi" bilan atash va gaplarni to'g'ri qurish, mantiq gap (til ifodasi) orqali bildirilgan mulohazalarni aniqlashtiradi va to'g'ri xulosa chiqarishga o'rgatadi. Predmet haqida fikr bildirish uchun inson uning qaysi sinfga mansubligi, bu sinfni qanday va qancha predmetlar hosil qilishi (arifmetikaning vazifasi), ularga qanday nom berilishi (grammatika vazifasi) va ular to'g'risidagi mulohazalar, xulosalar qanday qurilishi (mantiq vazifasi) to'g'risida malumotlarga ega bo'lishi kerak.

MANTIQNI O'RGANISHNING AHAMIYATI

antiqni o'rganish mantiqiy tafakkur madaniyatini shakllantirish va o'stirishning samarali vositasidir. Mantiq to'g'ri muhokama yuritish usullarini nafaqat ishlab chiqadi, balki ularni sistemaga ham soladi, muhokamada yo'l qo'yiladigan tipik xatolarni aniqlaydi va tartibga soladi. U fikrlarni aniq ifodalash vositalarini taqdim etadi. Busiz talimdan tortib ilmiy tadqiqot ishlarigacha bo'lgan fikrlash faoliyati kam samara beradi.

Uning talim sohasidagi vazifalari ham jiddiydir. O'quv jarayonining samaradorligi malum bir darajada ishlatiladigan tushunchalarning, terminlarning aniq bo'lishiga, muammolarning mantiqan to'g'ri qo'yilishi va hal qilinishiga, mavjud gipotezalar strukturasi to'g'ri tahlil qila olishga, argumentlash qoidalaridan to'g'ri foydalanishga bog'liq.

Hozirgi vaqtda dunyo miqyosida geosiyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy axborot-kommunikatsiya sohalarida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'layotgan, g'oyaviy kurash keskin tus olayotgan, globallashuv jarayonining mafkuraviy tasir o'tkazish

¹ Ўша асар –Б.53

quroliga aylanayotgan, axborot xavfsizligi masalasining dolzarbligi ortayotgan sharoitda sog'lom tafakkur, to'g'ri fikrlash muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, yoshlarda ularning ongiga singdirilmoqchi bo'lgan turli ko'rinishdagi buzg'unchi g'oyalarning mazmun-mohiyati, maqsadini o'z vaqtida anglash qobiliyatini mustahkamlash, mafkuraviy immunitetini kuchaytirish, fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya bilan kurashish, jaholatni marifat bilan engish malakalarini rivojlantirishda mantiqiy fikrlash shakllari, qonun-qoidalarini bilish, ulardan oqilona foydalanish yaxshi samara beradi. Buning ahamiyatini birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov qiyoslash asosida sodda va lo'nda qilib quyidagicha tushuntirgan edi: davlat chegaralarining daxlsizligini saqlash uchun harbiy kuch-qudrat, qurolli kuchlar qanchalik zarur bo'lsa, yosh avlod manaviy dunyosining daxlsizligini saqlash uchun yuksak aql-idrok va mantiqiy tafakkur kuchidan qurol sifatida foydalaniladigan manaviy tarbiya shunchalik zarur¹.

Tushuncha tafakkur shakli sifatida

1.Tushuncha – predmet va hodisalarni ularning umumiy, muhim belgilari orqali yaaks ettiruvchi tafakkur shaklidir.

Belgilar deb predmetlarni bir-biridan farq qiluvchi hamda ularning birbiriga o'xshashligini ifoda qiluvchi tomonlarga, xususiyatlarga aytiladi. Belgilar muhim yoki nomuhim bo'ladi. Predmet belgisining muhim yoki nomuhim bo'lishi bilish vazifasiga va u bilan bog'liq ravishda bizning predmetga qaysi jihatidan yondashishimizga qarab ham belgilanadi. Xususan, bir munosabatda muhim bo'lmagan belgilar boshqa munosabatda muhim bo'lishi mumkin. Masalan, kishining individual layoqati uning qanday kasbni tanlashi uchun muhim bo'lsa, inson sifatida mavjud bo'lishi uchun u darajada muhim emas. Bunday muhim belgilar predmetning malum bir munosabatdagi muhim belgilari deyilib, obektiv muhim belgilaridan (predmetning mavjud bo'lishi bilan zaruriy aloqada bo'lgan belgilardan) farq qiladi.

Demak, tushunchada predmet o'zining muhim belgilari orqali fikr qilinib, bu belgilar predmetning umumiy va individual belgilari bo'lishi mumkin. Masalan, «G'afur G'ulom» tushunchasida predmetning umumiy belgilari (inson, shoir) bilan bir qatorda, individual muhim belgilari (xususan, «Sen etim emassan» sherining muallifi) ham fikr qilinadi.

Tushunchaning hissiy bilish shakllaridan tubdan farq qilishiga alohida etibor berish zarur. Sezgi, idrok va tasavvur predmetning yaqqol obrazlaridir. Biz faqat birorta konkret predmetni, masalan, o'zimiz yozib o'tirgan qalamni idrok qilishimiz yoki u to'g'risida tasavvurga ega bo'lishimiz mumkin. «Umuman qalam»ni idrok qilib bo'lmaydi. Chunki tushuncha predmetning yaqqol obrazi emas, balki abstrakt obrazidir. Qalam tushunchasi o'zida konkret qalamlarning barchasini qamrab olgani holda, ularning har biriga xos bo'lgan individual belgilarni tashlab yuborib, umumiy, muhim belgilarini ifoda qiladi. Ayni paytda bu belgilar qalamni boshqa predmetlardan, masalan, kitobdan farq

qildirib turadigan maxsus belgilar bo'lib ham xizmat qiladi.

¹ Каранг:Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. – Тошкент:Маънавият,2008 – Б.115-116

Tushuncha predmetning nomuhim belgilaridan chetlashar ekan, demak, uni toʻlaligicha aks ettira olmaydi. Bu manoda u hissiy bilish shakllariga nisbatan borliqdan uzoqroqda turadi. Lekin, tushuncha predmetning muhim belgilarini inikos qilishi, mohiyatini aks ettirishi bilan hissiy bilish shakllariga nisbatan borliqni chuqurroq, toʻlaroq ifoda etadi.

Tushuncha, hissiy bilish shakllaridan farqli oʻlaroq, inson miyasida toʻgʻridantoʻgʻri aks etmaydi. U malum bir mantiqiy usullardan foydalanilgan holda hosil qilinadi. Bu usullar taqqoslash, analiz, sintez, abstraksiyalash, umumlashtirishlardan iborat.

Taqqoslash yordamida predmetlar oʻzaro solishtirilib, ularning oʻxshash, umumiy tomonlari va bir-biridan farq qiluvchi individual belgilari aniqlanadi.

Taqqoslash tahlilni taqozo qiladi. Chunki, predmetlarni yaxlit holda solishtirib boʻlmaydi. Ular u yoki bu xossasiga koʻra taqqoslanishi kerak.

Buning uchun u xossalar ajratilishi lozim. *Analiz* yordamida predmet fikran uni tashkil qiluvchi qismlar, tomonlarga ajratilib, har qaysisi alohida oʻrganiladi.

Sintez tahlilga teskari usul boʻlib, u tahlil davomida ajratilgan qismlar, tomonlarni fikran birlashtirib, predmetni fikran bir butun holiga keltirishdan iborat. Sintez boʻlmasa, predmet haqida yaxlit fikr hosil qilib boʻlmaydi. Analiz va sintez uzviy bogʻliqdir.

Tushuncha hosil qilish uchun predmetning yuqoridagi usullar bilan aniqlangan umumiy va individual belgilarining muhimlari ajratilishi, nomuhimlari chetlashtirilishi lozim. Bu esa *abstraksiyalash* yordamida amalga oshiriladi.

*Umumlashtirish*da predmetlar ularning ayrim umumiy, muhim xususiyatlariga koʻra sinflarga birlashtiriladi va shu tariqa bitta tushunchada bir jinsli predmetlarning barchasini fikr qilish imkoniyati yaratiladi.

Tushunchaning shakllanishi soʻz bilan uzviy bogʻliq. Ular oʻrtasidagi aloqadorlik tafakkur va til oʻrtasidagi bogʻlanishning konkret tarzda namoyon boʻlishidir.

Tushunchalar soʻz va soʻz birikmalari yordamida ifoda qilinadi. Masalan, «talaba», «falsafa yoʻnalishi», «Oʻzbekiston milliy universiteti» va shu kabilar soʻzlardan iborat. Lekin bundan tushuncha va soʻz aynan bir xildir, degan xulosa kelib chiqmasligi kerak. Bitta tushuncha har xil tillarda, bazan bir tilda ham turli xil soʻzlar bilan ifoda qilinadi. Tilimizdagi omonim va sinonim hodisalari soʻz va tushunchaning nisbiy mustaqil holda mavjudligidan dalolat beradi.

SHuni ham aytish lozimki, soʻzning koʻp manoga ega boʻlishi bazan fikr yuritish jarayonida tushunchalarni aralashtirib yuborishga olib keladi. Shuning uchun ham fan va texnikada koʻproq terminlardan foydalaniladi. **Termin** qatʼiy bitta tushunchani ifoda qiluvchi soʻz boʻlib, muayyan ilmiy bilish sohasida bir xil manoda ishlatiladi.

Tushunchaning mazmuni va hajmi

Tushuncha oʻzining mazmuni va hajmiga ega. *Tushunchaning mazmunini* unda fikr qilinayotgan predmetning muhim belgilari toʻgʻrisidagi axborot tashkil etadi. Masalan, «fan» tushunchasining mazmunini fanning muhim belgilari, yani

uning amaliyot bilan aloqada ekanligi, predmetlarning birorta sohasiga oid tushunchalar, qonunlar, prinsiplar shaklidagi obektiv mazmunga egabilimlar tizimidan iborat bo'lishi, dunyoqarashning shakllanishida ishtirok qilishi va shu kabilar tashkil qiladi.

Tushunchaning hajmi esa, unda fikr qilinayotgan predmetlar yig'indisini aks ettiradi. Masalan, yuqorida misol qilib keltirilgan «fan» tushunchasining hajmi mavjud barcha fanlarni: matematika, fizika, mantiq va hokazolarni o'zida qamrab oladi.

Mantiqda bazan tushuncha alohida mantiqiy shakl deb emas, hukmning tarkibiy elementi sifatida olib qaraladi. Xususan Koen va Nagellar ana shunday yo'l tutishadi. Hukm (mulohaza) tarkibidagi tushunchalar terminlar deb atalgani uchun ana shu so'zdan foydalanishadi. *Termini ikki xil jihatidan olib qarash mumkin: yo (faqat bitta azosi bo'lgan) obektlar sinfi, yo berilgan obektlarga xos belgilar to'plami deb aytiladi. Birinchi jihatida u denotatsiya yoki hajm, ikkinchi jihatida konnotatsiya yoki mazmun deb ataladi. Masalan, "faylasuf" terminining hajmini Fales, Sokrat, Platon va boshqalar tashkil etsa, mazmunini "donishmandlikni sevuvchi", "aqlli" kabi belgilar hosil qiladi¹.*

Tushunchaning mazmuni va hajmi uzviy bog'liq bo'lib, u tushunchaning mazmuni va hajmi o'rtasidagi teskari nisbat qonuni yordamida ifodalanadi. Bu qonunga muvofiq tushunchaning hajmi kengaytirilsa, mazmuni torayadi va aksincha, hajmi toraytirilsa, mazmuni kengayadi. Masalan, «fan» tushunchasining mazmuniga «mantiq»qa oid bo'lish belgisini qo'shish bilan hajm jihatidan undan torroq bo'lgan «mantiq fani» tushunchasiga o'tiladi.

«Fan» tushunchasining hajmini kengaytirish bilan mazmun jihatidan unga nisbatan torroq bo'lgan «ijtimoiy ong shakli» tushunchasi hosil qilinadi. Bunda faqat fanga xos bo'lib, boshqa ijtimoiy ong shakllarida, masalan, huquqiy ongda bo'lmagan spetsifik belgilar tushuncha mazmunidan chiqarib tashlanadi.

Bu qonun tushunchalar bilan olib boriladigan qator mantiqiy amallar asosida yotadi.

Terminga qanoatlanarli mazmun berish (yoki tariflash)- murakkab vazifa, u inson zakovatining keyingi yutug'i hisoblanadi¹⁷.

Tushunchaning turlari

Mantiqda tushunchalar mazmuni va hajmi bo'yicha bir qancha turlarga bo'linadilar. Xususan, hajmiga ko'ra yakka va umumiy tushunchalar farq qilinadi.

Yakka tushunchaning hajmida bitta predmet fikr qilinadi. Masalan, «Mars planetasi yakka tushunchadir. Umumiy tushuncha predmetlar guruhini aks ettiradi. «Planeta» tushunchasi umumiy tushuncha hisoblanadi. Umumiy tushunchalar aks ettiruvchi predmetlarning miqdori chegaralangan va chegaralanmagan bo'lishi mumkin. Masalan, «kimyoviy element» tushunchasida fikr qilinayotgan predmetlar soni chegaralangan. «Yulduz» tushunchasi hajmini tashkil qiluvchi predmetlar soni esa Cheksiz .

¹ Morris R. Cohen, Ernest Nagel. An Introduction to Logic and Scientific Method. New Delhi/ 2007. P.31

Fikr yuritish jarayonida umumiy tushunchalar ayiruvchi va to'plovchi tushunchalar tarzida bo'lishi mumkin. Ayiruvchi tushuncha shunday umumiy tushunchaki, u aks ettiruvchi belgilar berilgan sinfning har bir predmetiga xosdir. To'plovchi tushuncha ham umumiy tushuncha bo'lib, u aks ettirgan belgilar shu umumiylikni tashkil etuvchi har bir predmetga taaluqli bo'lmaydi. Masalan, «konferensiya» – to'plovchi, «konferensiya ishtirokchisi» – ayiruvchi.

Mazmuni bo'yicha tushunchalar, avvalambor, abstrakt va konkret tushunchalarga bo'linadi. Konkret tushunchalarda predmet o'zining belgilari bilan birgalikda fikr qilinadi. Abstrakt tushunchalarda esa predmetning belgilari undan fikran ajratib olinib, alohida aks ettiriladi. Masalan, «Inson», «Tabiat» tushunchalari – konkret tushunchalar, «Qahramonlik» (insonga xos xususiyatni aks ettiradi), «Sistemalilik» (borliqdagi predmetlarga xos xususiyatni ifoda qiladi) tushunchalari abstrakt tushunchalardir.

Mazmuni bo'yicha yana nisbatsiz va nisbatdosh tushunchalarni ham ajratish mumkin. Nisbatsiz tushunchalar nisbatan mustaqil, alohida mavjud bo'lgan predmetlarni aks ettiradi. «Davlat», «Badiiy asar» ana shunday tushunchalardir. Nisbatdosh tushunchalar esa zaruriy ravishda bir-birining mavjud bo'lishini taqozo qiladigan predmetlarni aks ettiradi. Masalan, «O'qituvchi» va «O'quvchi», «Ijobiy qahramon» va «Salbiy qahramon», «Sabab» va «Oqibat» tushunchalari nisbatdosh tushunchalar qatoriga kiradi.

Bazi hollarda ijobiy va salbiy tushunchalar ham farq qilinadi. Ijobiy tushunchalarning mazmunida predmet unga xos belgilar orqali fikr qilinsa, salbiy tushunchalarning mazmunida predmet unga xos bo'lmagan belgilar orqali fikr qilinadi. Masalan, «savodli kishi», «vijdonli kishi» – ijobiy tushunchalar, «savodsiz kishi», «vijdonsiz kishi» esa salbiy tushunchalardir.

Biz yuqorida tushunchalarning bir qancha turlari bilan tanishib chiqdik. U yoki bu tushunchaning ana shu turlardan qaysilariga mansub ekanligini aniqlash unga mantiqiy tavsif berish demakdir. Masalan, «talaba» – umumiy, ayiruvchi, chegaralangan, aniq, nisbatsiz, ijobiy tushuncha; «A. Navoiy nomli O'zbekiston davlat kutubxonasi» – yakka, to'plovchi, chegaralangan, konkret, nisbatsiz, ijobiy tushunchadir.

Tushunchalar o'rtasidagi munosabatlar

Obektiv dunyodagi barcha predmet va hodisalar o'zaro aloqada bo'lganligi uchun ularni aks ettiruvchi tushunchalar ham o'zaro malum bir aloqalarda, munosabatlarda mavjud. Bu munosabatlar turli xil bo'lib, ularni aniqlash uchun, avvalambor, taqqoslanadigan va taqqoslanmaydigan tushunchalarni farq qilish lozim.

Taqqoslanadigan tushunchalar umumiy belgilarga ega bo'lgan, mazmuni va hajmi jihatidan bir-biriga yaqin turgan tushunchalardir. Masalan, «paxtakor» va «dehqon» tushunchalari ana shunday taqqoslanadigan tushunchalar hisoblanadi.

Taqqoslanmaydigan tushunchalar esa bir-biri bilan uzoq aloqada bo'lgan, ko'p hollarda moddiy yoki ideal bo'lishdan boshqa umumiy belgiga ega bo'lmagan predmetlarni aks ettiruvchi tushunchalardir. «Ijtimoiy progress» va «Zuhro

yulduzi», «ideal gaz» va «goʻzallik» tushunchalari taqqoslanmaydigan tushunchalar deb hisoblanadi. Mantiqda faqat taqqoslanadigan tushunchalar oʻrtasidagi mantiqiy munosabatlar oʻrganiladi. Taqqoslanadigan tushunchalar esa hajm jihatidan sigʻishadigan va sigʻishmaydigan boʻladi.

Sigʻishadigan tushunchalarning hajmi bir-biriga butunlay, toʻlaligicha yoki qisman mos keladi. Ular oʻrtasida uch xil munosabat mavjud: moslik, qisman moslik va boʻysunish. Moslik munosabatidagi tushunchalar bitta predmetni (predmetlar sinfini) aks ettiruvchi tushunchalar boʻlib, ular bir-biridan faqat azmuni bilangina farq qiladi. Masalan,

«Inson», «Ongli mavjudot» tushunchalari xuddi shu munosabatda mavjuddir. Buni quyidagi tuzilma yordamida koʻrsatish mumkin:


A – Inson

V – Ongli mavjudot


Qisman moslik munosabatidagi tushunchalarning hajmi qisman umumiylikka

A – Sportchi.

V – Talaba.



ega. Masalan:



Doiralarning shtrixlangan qismi bir vaqtning oʻzida ham sportchi, ham talaba boʻlganlarni bildiradi.


Boʻysunish munosabatida tushunchalardan birining hajmi ikkinchisining hajmiga toʻliq kirib, uni tashkil qiluvchi qism hisoblanadi.

Masalan:

A – Fan.

V – Mantiq.

Bu munosabatdagi boʻysundiruvchi (A), ikkinchisi (V) jins-tur munosabatida boʻladi. Jins




tushunchalardan biri boʻysunuvchi boʻlib, ular tushuncha predmetlarning

birorta sinfini, tur tushuncha esa shu sinfga mansub predmetlarning bir guruhini yoki bittasini aks ettiradi. Mantiqda u yoki bu tushunchaning jins yoki tur ekanligi nisbiy xarakterga ega. Har bir tushuncha oʻzidan umumiyroq tushunchaga nisbatan tur, kamroq umumlashgan tushunchaga nisbatan jinsdir. Masalan, milliy gʻoya, gʻoya, fikr tushunchalari oʻrtasida quyidagi nisbat mavjud: «gʻoya» tushunchasi «fikr» tushunchasiga nisbatan tur, «milliy gʻoya» tushunchasiga nisbatan jins boʻladi.

Sigʻishmaydigan tushunchalar hajmi jihatidan umumiylikka ega boʻlmagan tushunchalar hisoblanib, bir sinfga kiruvchi har xil predmetlarni yoki predmetlar guruhini aks ettiradi. Ularning umumiyliigi faqat ana shunda. Bu tushunchalar oʻrtasida ham uch xil munosabat bor: birga boʻysunish, qarama-qarshilik, zidlik.

Birga boʻysunish munosabati quyidagi tushunchalar oʻrtasida mavjuddir:




A

- A – Fan.
- V – Mantiq.
- S – Fizika.

Bunda «mantiq» va «fizika» tushunchalari hajmlari jihatidan birgalikda «fan» tushunchasining hajmiga bo‘ysunadi.


Qarama-qarshilik munosabatidagi tushunchalarning hajmlari bir-birini istisno qiladi. Ular predmetning (predmetlar guruhining) qarama-qarshi belgilarini aks ettiradi, yani biri predmetning malum bir belgisini ifoda qilsa, ikkinchisi uni inkor qiluvchi boshqa belgini aks ettiradi. Qarama-qarshilik munosabatidagi tushunchalar o‘zlari bo‘ysunadigan tushunchaning hajmini to‘liq egallay olmaydi. Masalan, «baland bo‘yli odam» va «past bo‘yli odam» tushunchalari «odam» tushunchasining hajmini to‘liq qoplay olmaydi.

- A – Odam.
- V – Baland bo‘yli odam.
- S – Past bo‘yli odam.



Zidlik munosabatidagi tushunchalardan biri predmetning birorta xususiyatini ifoda qilsa, ikkinchisi uni inkor qiladi va mazmun jihatidan noaniq bo‘lib qoladi. Zidlik munosabatidagi tushunchalar, qarama-qarshilik munosabatidagi tushunchalardan farqli o‘laroq, bo‘ysundiruvchi tushunchaning hajmini to‘liq qoplaydi. Masalan:

- A – Odam.
- V – e‘tiqodli odam.
- S – e‘tiqodsiz odam.



Tushunchalar o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlashtirishga, o‘rnatish ularning mazmuni va hajmini ularni bog‘lab, bir fikr shaklidan boshqa fikr shakliga o‘tishga yordam beradi. Masalan, «talaba» va «alochi» tushunchalari o‘rtasidagi munosabatni aniqlash asosida «Bazi talabalar alochilardir» degan mulohaza shaklidagi fikrni hosil qilish mumkin.

Tushunchalarni chegaralash va umumlashtirish


Tushunchalarni chegaralash va umumlashtirish tushunchalar ustida olib boriladigan amallar hisoblanadi. Ular tushunchaning mazmuni va hajmi o‘rtasidagi teskari nisbat qonuniga muvofiq holda amalga oshiriladi.

Tushunchani chegaralash hajmi keng tushunchadan hajmi tor tushunchaga (jins tushunchadan tur tushunchaga) fikran o‘tishdan iborat. Masalan, «mexanik harakat» tushunchasidan «aylanma harakat» tushunchasiga o‘tsak, uning hajmini chegaralagan bo‘lamiz. Chegaralashda berilgan tushuncha – «mexanik harakat» jins tushuncha, deb qabul qilinib, uning mazmuniga tur tushuncha hosil qiluvchi belgilar qo‘shiladi. Natijada unga nisbatan tur hisoblangan yangi tushuncha – «aylanma harakat» tushunchasi hosil bo‘ladi.

CHegarlash amalini davom ettirib, «Erning o‘z o‘qi atrofida aylanishi» tushunchasiga o‘tish mumkin. Demak, chegaralash davomida hosil bo‘lgan har bir yangi tushuncha avvalgisiga nisbatan tur tushuncha bo‘ladi. CHegarlash amali yakka tushuncha hosil bo‘lguncha davom ettirilishi mumkin. CHunki yakka tushunchaga nisbatan tur bo‘lgan tushuncha yo‘q.

Tushunchani chegaralash amalining tuzilmasi quyidagicha:


- A – Harakat.
- V – Mexanik harakat.
- S – Aylanma harakat.
- D – Erning o‘z o‘qi atrofida aylanishi.



Tushunchani umumlashtirish hajmi tor tushunchadan hajmi keng tushunchaga (tur tushunchadan jins tushunchaga) fikran o‘tishdan iborat. Bunda berilgan tushuncha tur tushuncha deb qabul qilinib, uning mazmunidan tur hosil qiluvchi belgilar chiqarib tashlanadi. Natijada mazmun jihatidan unga nisbatan torroq, lekin hajmiga ko‘ra kengroq bo‘lgan jins tushuncha hosil bo‘ladi. Masalan, «aylanma harakat» tushunchasi mazmunidan faqat ungagina xos bo‘lgan tur belgilarni chiqarib tashlasak, «mexanik harakat» tushunchasini hosil qilamiz. Umumlashtirish amalining chegarasi eng umumiy tushuncha, yani kategoriyadir. CHunki kategoriyalar uchun jins bo‘lgan tushuncha yo‘q.

Tushunchani umumlashtirish amalining tuzilmasi quyidagicha:

- A – Erning o‘z o‘qi atrofida aylanishi.
- V – Aylanma harakat.
- S – Mexanik harakat.
- D – Harakat.



Tushunchani chegaralash va umumlashtirish amallari kundalik hayotimiz va ilmiy bilishda keng qo‘llaniladi. Xususan, barcha kategoriyalar, ular yordamida ifodalanadigan nazariy qonunlar, g‘oyalar, nazariyalar mavjud empirik tushunchalarni, empirik qonunlarni umumlashtirish natijasida hosil bo‘ladi.

Umumlashtirish muhokama yuritish jarayonida induktiv xulosa chiqarish usulida yaqqol ifodalangan bo‘ladi. Tushunchalarni umumlashtirishsiz fanning fundamental tushunchalarini yaratib bo‘lmaydi; mavjud bilimlarni tizimga solish qiyin va umuman, fan taraqqiy eta olmaydi.

Tushunchalarni chegaralash amali esa, yaratilgan umumiy bilimlarni (nazariy tushuncha, g‘oya, nazariya va shu kabilarni) talqin etishda ishlatiladi. Masalan, Nyuton mexanikasidagi «Inersiya» tushunchasi Galiley nazariyasidagi «Erkin tushish» tushunchasi yordamida tushuntirilishi mumkin.

TUSHUNCHALARNI TARIFLASH VA BO‘LISH **Tariflashning maqsadi, tuzilishi, turlari**

Kundalik muloqat tili bazi jihatlariga ko'ra noaniq(masalan, xushovoz xonanda, yaxshi odam so'zlari, ular ifoda etuvchi tushunchalari mazmuni noaniqligi shundaki, ular Qanday xususiyatlariga ko'ra? Nima uchun?, degan savollarni tug'diradi.). Bazi mikroorganizmlarning hayvon yoki o'simlik ekani, bazi kitoblarning qiziqarli yoki qiziqarli emasligini aniqlashning murakkabligi barchamizga malum.

So'zlarning noaniqligiga qo'shimcha yana ko'p manoligi ham qat'iy tarzda to'g'ri fikrlash yo'lida xavf tug'diradi. Mushohada yuritishda, ayniqsa ilmiy bilishda bunday noaniqliklarni bartaraf etish yoki kamaytirishning mantiqiy vositalaridan biri tushunchani tariflashdir.

Tariflash (yoki definitya) tushunchaning mazmunini ochib beradigan mantiqiy amaldir. Tarif aniqlanuvchi va aniqlovchi qismlardan tashkil topadi. Aniqlanuvchi qismni mazmuni ochib berilishi lozim bo'lgan tushuncha, aniqlovchi qismni esa, aniqlanuvchi tushunchaning mazmunini ochib beruvchi tushunchalar tashkil etadi. Masalan, «mantiq to'g'ri tafakkur shakllari va qonunlarini o'rganuvchi falsafiy fandir» degan tarifda «Mantiq» aniqlanuvchi qismni, qolganlari esa aniqlovchi qismni hosil qiladi. Tariflash bilishda quyidagi asosiy vazifalarni hal qilishda yordam beradi: 1) tushunchada aks etuvchi predmetning muhim belgilarini ko'rsatadi; 2) tushunchani ifoda qiluvchi so'zning (terminning) manosi ochib beradi; 3) termin hosil qilishga imkon beradi. Yuqoridagi vazifalardan qaysi birining hal qilinishiga qarab nominal va real tariflar farq qilinadi.

Nominal tariflar yordamida predmetni tasvirlovchi murakkab ifodalar yangi termin bilan almashtiriladi hamda uning manosi aniqlanadi. Masalan, «Mantiq grekcha «logos» so'zidan olingan bo'lib, tushuncha, fikr, so'z, qonuniyat kabi manolarga ega», desak, mantiq tushunchasiga nominal tarif bergan bo'lamiz. «Til belgilarini o'rganuvchi fan semiotikadir», degan tarif ham nominal tarifga misoldir.

Real tarifda predmetning muhim belgisi aniqlanadi. Masalan, «Atom – moddaning yadro va elektronlardan tashkil topgan zarrachasi», real tarifdir.

Real tarif aniq va noaniq ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Aniq real tarif predmetlarning muhim belgilarini to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatib beradi. Noaniq real tarifda esa tushunchaning mazmuni yordamchi vositalar orqali ochib beriladi. Masalan, o'qigan parchamizda notanish terminlar uchrab qolganda, uning manosi lug'atdan foydalanmasdan, boshqa so'zlarning manosi qarab aniqlashimiz mumkin.

Aniq real tarifning ikkita asosiy turi mavjud: 1) yaqin jinsi va tur belgisini ko'rsatish orqali tariflash; 2) genetik tarif.

Yaqin jinsi va tur belgisini ko'rsatish orqali tariflash real tarifning eng ko'p ishlatiladigan turi bo'lib, u ikkita bosqichdan tashkil topadi. Birinchi bosqichda aniqlanuvchi tushunchaning yaqin jinsi topiladi. SHu tariqa uning mazmuni qisman ochib beriladi. Ikkinchi bosqichda aniqlanuvchi tushunchaning shu jinsga kiruvchi boshqa tur tushunchalardan farqi aniqlanadi, yani uning tur belgisi ko'rsatiladi. SHu tariqa mazkur tushuncha mazmunining qolgan qismi ochib beriladi. Masalan, bizning oldimizda «metafora» tushunchasining mazmunini aniqlash vazifasi turibdi, deylik. Bunda, avval aniqlanuvchi tushunchaning yaqin jinsi topiladi: u «so'z»

tushunchasidir. «Metafora soʻzdir» deyish bilan «soʻz» tushunchasi mazmunida fikr qilinadigan muhim belgilarning metaforaga ham tegishli ekanligini koʻrsatamiz, yani «metafora» tushunchasi mazmunini tashkil etuvchi umumiy belgilarni aniqlaymiz. Koʻchirma manoda ishlatilishi esa, metafora sifatida ishlatilayotgan soʻzning tur belgisi, yani individual belgisi hisoblanadi. Bu tur belgini yaqin jinsga qoʻshib «Metafora koʻchirma manoda ishlatiladigan soʻzdir», degan toʻla tarif hosil qilamiz. SHu tariqa eng qisqa yoʻl bilan, yani yaqin jinsi va tur belgisini koʻrsatish bilan tushunchaning mazmunini aniqlaymiz.

Real tarif chin yoki xato boʻlishi mumkin asl hukmdan iborat⁴.

Genetik tarifda aniqlanuvchi tushunchaning mazmuni u ifodalagan predmetning kelib chiqishini koʻrsatish orqali ochib beriladi. Masalan, «Oksid metallarning kislorod bilan reaksiyaga kirishishi natijasida hosil boʻlgan kimyoviy birikmadir», degan tarif genetik tarifga misoldir. Bu tarifning mantiqiy tarkibi yaqin jinsi va tur belgisini koʻrsatish orqali tariflash bilan bir xildir.

Tariflash malum qoidalarga rioya qilishni talab etadi. Ular quyidagilardan iborat:

a) tarif teng hajmli boʻlishi kerak, yani aniqlanuvchi tushuncha hajmi bilan aniqlovchi tushunchalar hajmlari yigʻindisi teng boʻlishi kerak. Bu qoida buzilsa, tarif yo haddan tashqari keng, yo haddan tashqari tor boʻlib qoladi. Masalan, «Mantiq tafakkurni oʻrganuvchi fandir» – haddan tashqari keng, «Mantiq isbotlash tarkibini oʻrganuvchi fandir» – haddan tashqari tor tarifdir;

b) tarif aniq boʻlishi kerak. Buning uchun obrazli iboralar, mazmuni noaniq soʻzlar ishlatilmasligi lozim. Masalan, «Xayol – uchqur ot», «Davlat dunyoviy ruhning siyosiy jihatdan namoyon boʻlishidir» (Gegel) degan tariflarda bu qoida talablari buzilgan. Ularda chuqur mano boʻlsa-da, tushunchaning mazmuni aniq ochib berilgan emas;

v) tarif aylana shaklida boʻlib qolmasligi kerak. Tarif berishda aniqlovchi tushunchaning mazmunini aniqlash uchun aniqlanuvchi tushunchaning oʻziga murojaat etilsa, tarifda aylana hosil boʻladi. Masalan, «Mantiq toʻgʻri fikrlash haqidagi fandir», deyilganda tarifda aylana vujudga keladi. CHunki «Toʻgʻri fikrlash nima?» degan savolga, «U mantiq qonun-qoidalariga rioya qilingan holda fikrlashdir», deb javob berishga toʻgʻri keladi, yani «mantiq» tushunchasiga murojaat qilinadi.

Tariflash qoidalari turlicha nomlanishi, har xil iboralar bilan nomlanishi mumkin, lekin mohiyatan bir xildir. Fikrimiz tasdigʻi sifatida Koen va Nagelning tarifni hosil qiluvchi qoidalar deb nomlangan qoidalariga murojaat qilsak boʻladi.

Tarifni hosil qiluvchi qoidalar:

1. Tarif aniqlanuvchining mohiyatini ifoda etishi kerak. Aniqlovchi ifoda aniqlanuvchiga ekvivalent boʻlishi zarur, yani u aniqlanuvchi ifoda etadigan barcha narsaga nisbatan qoʻllaniladigan boʻlishi kerak

2. Tarifda aylana boʻlmasligi kerak; u koʻrinarli yoki koʻrinmas ravishda aniqlanuvchi predmetni oʻzidanazarda tutmasligi kerak.

⁴ Morris R. Cohen, Ernest Nagel. An Introduction to Logic and Scientific Method. New Delhi/ 2007. P.230

3. Tasdiqlovchi terminlarda berish mumkin bo'lgan holda, inkor shaklda berilmasligi kerak.

4. tarif noaniq shaklda yoki metafora orqali ifodalanmasligi kerak⁵.

Tavtologiya ham shu qoidaning buzilishi natijasida sodir bo'ladi. Bunda aniqlanuvchi tushunchadan uning mazmunini ochish uchun foydalanilgan bo'ladi.

Masalan, «Tamagir tamagirlik qiluvchi kishidir», desak, tavtologiyaga yo'l qo'ygan bo'lamiz.

g) Tarif iloji boricha inkor shaklida bo'lmasligi kerak. Aks holda predmetga xos bo'lgan belgi o'rniga unda yo'q bo'lgan belgi ko'rsatiladi. Masalan, «Ong moddiy emas», degan tarif «ong» tushunchasining mazmunini yaxshi ochib bera olmaydi.

Tariflashga o'xshash mantiqiy usullar

Bilish jarayonida **tariflashga o'xshash usullar** ham ishlatiladi. Ulardan tushunchani tariflashning yuqorida biz ko'rib chiqqan turlarini qo'llash mumkin bo'lmay qolganda yoki unga zaruriyat bo'lmaganda foydalaniladi:

a) tariflashga o'xshash usullardan biri tushunchani unga qarama-qarshi bo'lgan tushuncha orqali tariflashdir. Bu usul bilan odatda kategoriyalar mazmuni ochib beriladi. Masalan, «Ong materiyaning miyamizdagi inikosidir»;

v) tasvirlashda tushunchaning mazmuni u aks ettiruvchi predmetning bazi tashqi belgilarini ko'rsatish orqali aniqlanadi. Badiiy asarlarda tabiat manzaralarini, personajlarning portretlarini chizish, sodir bo'lgan birorta voqeaning bayon etilishi tasvirlashga misol bo'ladi;

s) tavsiflash yordamida predmetning bazi bir munosabatdagi muhim tur belgilari ko'rsatiladi. Bunga misol qilib birorta shaxsga berilgan tavsifnomani ko'rsatish mumkin.

Tafovutlash, ostensiv tariflash kabi usullar ham mavjuddir.

Tariflash bilishda katta ahamiyatga egadir. U qisqa holda predmet haqida yaxlit fikr, tasavvur hosil qilishga imkon beradi. Lekin predmet haqida fikr yuritganda u bilan cheklanib qolish mumkin emas. U, albatta, bilish jarayonida boshqa bilimlar yordamida konkretlashtirilishi, chuqurlashtirilishi zarur. Ana shundagina tushuncha ifoda etuvchi predmet haqidagi tasavvur aniq, to'laroq bo'ladi.

Tushunchalarni bo'lish.Bo'lish va klassifikatsiya (tasnif)

Ananaviy yondashuvga ko'ra tarif berilgan turni jins va tur belgisiga ajratishdan tashkil topadi. Lekin jinsning o'zi ham har xil turlarga ajratilishi mumkin. Masalan, tekis figura jins sifatida nafaqat uchburchak turlariga, balki to'rtburchak, konussimon kesim va shu kabilar turlariga ham ajratilishi mumkin. Jinsning turlarini ko'rsatish mantiqiy bo'lish yoki qisqacha bo'lish deb ataladi¹.

Tushunchaning hajmini unda aks etgan predmetlarni ayrim guruhlariga (ayrim predmetlarga) ajratish yo'li bilan aniqlashga **tushunchani bo'lish** deyiladi. Bo'lish

⁵ Morris R. Cohen, Ernest Nagel. An Introduction to Logic and Scientific Method. New Delhi/ 2007. P.238

¹ Morris R. Cohen, Ernest Nagel. An Introduction to Logic and Scientific Method. New Delhi/ 2007. P.241

amalini bo‘linuvchi tushuncha (hajmi aniqlanishi lozim bo‘lgan tushuncha), bo‘lish asosi (predmetning tushunchada fikr qilinadigan birorta umumiy belgisi) va bo‘lish azolari (bo‘lish natijasida hosil qilinadigan tur tushunchalar) tashkil etadi. Masalan, «inson»larni (bo‘linuvchi tushuncha) jinsiga ko‘ra, (bo‘lish asosi) erkak va ayollar (bo‘lish azolari)ga ajratish yo‘li bilan uning hajmi aniqlanadi. Bo‘linuvchi tushuncha – jins tushuncha, bo‘lish azolari – tur tushunchalar bo‘lib, ular o‘zaro birga bo‘ysunish munosabatidadirlar.

Tushunchalarni bo‘lish amalini predmetlarni qismlarga ajratishdan farq qilish lozim. Masalan, avtomobilni kuzov, shassi, dvigatel va shu kabilarga ajratsak, uni qismlarga bo‘lgan bo‘lamiz. Predmetning qismi predmetning umumiy belgilariga ega bo‘lmasligi mumkin. Shuning uchun ham «Kuzov avtomashinadir», degan mulohaza hosil qilsak, u xato bo‘ladi. Agar «Avtomobil» tushunchasini «Engil avtomobil», «YUk tashuvchi avtomobil» tushunchalariga ajratsak, uni bo‘lgan bo‘lamiz.

Bo‘lishning ikkita turi mavjud: asos bo‘lgan belgining o‘zgarishiga qarab bo‘lish va dixotomik bo‘lish. Birinchi turida predmetning birorta umumiy belgisi bo‘lish uchun asos qilib olinib, uning o‘zgarishiga muvofiq holda predmetlarning ayrim guruhlari aniqlanadi. Masalan, burchakning o‘zgarishiga qarab «uchburchak» tushunchasi uchta tur tushunchaga: «to‘g‘ri burchakli uchburchak», «o‘tmas burchakli uchburchak», «o‘tkir burchakli uchburchak»larga ajratiladi. Bo‘lish asosi qilib bo‘linuvchi tushunchaning mazmunida fikr qilinadigan har qanday umumiy belgini olish mumkin. Masalan, «uchburchak» tushunchasini tomonlariga qarab «teng tomonli uchburchak», «teng yonli uchburchak», «turli tomonli uchburchak» tushunchalariga ajratish mumkin.

Tushunchaning qaysi belgisini bo‘lish asosi qilib olish bo‘lishda hal qilinishi lozim bo‘lgan vazifaga bog‘liq. Lekin qanday vazifani hal qilishdan qati nazar, bo‘lish o‘zining obektiv asosiga ega bo‘lishi lozim, yani bo‘lish asosi bo‘lgan belgi predmetning umumiy belgisi bo‘lishi shart.

Dixotomik bo‘lish bo‘linuvchi tushunchani o‘zaro zid bo‘lgan ikkita tur tushunchaga ajratishdan iborat. Masalan, barcha kishilarni «dindorlar» va «dindor emaslar»ga ajratsak, dixotomik tarzda bo‘lgan bo‘lamiz. Dixotomik bo‘lish bir qator qulayliklarga ega. Xususan, bunda biz bo‘linuvchi tushunchaning barcha turlarini ko‘rsatib o‘tirmasdan, o‘zimizga kerakligini ajratamiz, qolganlarini unga zid bo‘lgan tushunchaga birlashtiramiz. SHu bilan birga dixotomik bo‘lish malum bir kamchiliklarga ham ega. Masalan, inkor tushunchaning hajmi noaniq bo‘ladi. Undan tashqari, dixotomik bo‘lishdan faqat bir marta foydalangandagina kutilgan maqsadga erishish mumkin. Agar, bo‘lish azolaridan biri, ayniqsa, inkor tushunchani o‘z navbatida bo‘linuvchi tushuncha deb qabul qilib, bo‘lish amalini davom ettirsak, xato natijalar kelib chiqishi mumkin.

Bo‘lish amali to‘g‘ri borishi uchun malum bir qoidalarga rioya qilish kerak. Ular **bo‘lish qoidalari** deb ataladi.

A. Bo‘lish teng hajmli bo‘lishi, yani bo‘lish azolari hajmlarining yig‘indisi bo‘linuvchi tushuncha hajmiga teng bo‘lishi kerak. Bu qoida buzilsa, bo‘lish to‘liqsiz yoki ortiqcha bo‘lib qoladi. Birinchi xil xatoda bazi bo‘lish azolari

ko'rsatilmay qoladi. Masalan, «fel zamonlari» tushunchasini «o'tgan zamon feli» va «hozirgi zamon feli» tushunchalariga ajratsak, ana shunday xato ro'y beradi. CHunki «kelasi zamon feli» tushunchasi qolib ketgan. Ikkinchi xil xatoda esa ortiqcha bo'lish azosi ko'rsatilgan bo'ladi. Masalan, «bilish» tushunchasini «hissiy bilish», «tafakkur», «nazariy bilish»ga ajratib bo'lmaydi. CHunki «nazariy bilish» bu erda ortiqchadir.

B. Bo'lish bir asos bo'yicha amalga oshirilishi lozim. Boshqacha aytganda, asos qilib olingan belgi bo'lish davomida boshqa belgi bilan almashtirilmasligi zarur. Masalan, «Qonun» tushunchasini «Tabiat qonuni», «Jamiyat qonuni», «Bilish qonuni», «Statistik qonun», «Dinamik qonun» tushunchalariga bo'lsak, xato qilgan bo'lamiz. CHunki bu erda bo'lish asosi bir emas, ikkita. Birinchi uchta bo'lish azosi qonunning amal qilish sohasi bo'yicha, qolgan ikkitasi qonun ifoda qiluvchi hodisalar xarakteri bo'yicha ajratilgan. Bu bilan bo'lishdagi izchillik yo'qolgan.

V. Bo'lish azolari hajmi bo'yicha bir-birini istisno qilishi kerak. Buning uchun ular birga bo'ysunish munosabatidagi tushunchalar bo'lishi kerak. Agar «Bino» tushunchasini «Bir qavatli bino», «Ko'p qavatli bino», «Osmono'par bino» tushunchalariga bo'lsak, xatoga yo'l qo'ygan bo'lamiz. CHunki «Ko'p qavatli bino» tushunchasi bilan «Osmono'par bino» tushunchasi bir-birini hajmi bo'yicha istisno qilmaydi. G. Bo'lish uzluksiz holda amalga oshirilishi, unda «sakrash» bo'lmasligi kerak. Buning uchun jins tushunchaga eng yaqin bo'lgan bir tartibdagi tur tushunchalar olinmog'i lozim. Masalan, «Gap» tushunchasini «Sodda gap», «Ergashgan qo'shma gap», «Bog'langan qo'shma gap» tushunchalariga ajratsak, bo'lishdagi izchillik yo'qoladi. Bunda oxirgi ikkita bo'lish azosi «qo'shma gap» tushunchasining turlaridir. Demak, «sakrash» hodisasi ro'y bergan.

Tasniflash

Har bir tasnifda biz berilgan sinfning barcha azolariga xos muayyan belgini tanlaymiz va shu manoda har qanday tasnif tabiiy bo'ladi. Xuddi shuningdek, har qanday tasnifni suniy deb hisoblaymiz shu manodakim, asos qilib olayotgan belgini o'zimiz tanlaymiz. SHu sababga ko'ra, turli fanlarni tasniflash borasida bahslar tugamaydi. Fanlarni turlicha tasniflash mumkin va, harbir holda, u malum bir maqsaddan kelib chiqib amalga oshirilgan bo'ladi. Biroq, tasniflar o'zining mantiqiy va ilmiy foydaliligi bo'yicha birbiridan shu manoda ham farq qiladiki, asos qilib olinayotgan turli belglar bilimlarni tashkil etuvchi prinsilar sifatida samaradorligi bo'yicha o'zaro tafovut qiladilar. Masalan, barcha tirik mavjudotlarni erda, suvda va havoda yashaydiganlarga bo'lsak, bu mavjudotlar to'g'risidagi bilimlarni sistemaga solish uchun fundamental ahamiyat kasb etmaydi. Boshqa holatni olsak, masalan, delfinlar va kitlarning sut bezlariga ega bo'lishi va avlodlarini sut bilan oziqlantirishi, baliqlarning chiqarib, urchishi belgilarini asos qilib olgan g'olda amalga oshirilgan tasnif shu mavjudotlar hayotiy faoliyatini o'rganish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Demak, fanning vazifasi avval faktlarni to'plash, keyin ularni tasniflashdan iborat deb aytish real vaziyatning adekvat manzarasini ifoda etmaydi. Malum bir manoda tasnif qanday faktlarni ajratish masalasini echish uchun zarur,

lekin bu hali hammasi emas. Eng asosiy vazifa obektlarning tabiatini o'rganish uchun muhim bo'lgan belgisini topishdan iborat¹.

Tasniflash (turkumlash, klassifikatsiya) tushunchalarni bo'lishning alohida turidir. Tasniflash predmetlarni malum bir turlarga (kichik sinflarga yoki ayrim predmetlarga) ajratishdan iborat bo'lib, bunda har bir tur boshqalariga nisbatan o'zining aniq va qat'iy o'rniga ega. Tasniflash natijalari har xil jadvallar, tuzilmalar, grafiklar, kodekslar va shu kabilarda o'z aksini topadi.

Mantiqda suniy va tabiiy tasniflar farq qilinadi. Suniy tasnif predmetlarning birorta umumiy belgisiga ko'ra amalga oshiriladi. Unga misol qilib kutubxonadagi kitoblar katalogini ko'rsatish mumkin. Tabiiy tasnifni amalga oshirish uchun bo'lish asosi qilib predmetlarning birorta muhim belgisini olish kerak. Ana Shuning uchun ham u predmetlarning ayrim muhim xossalari haqida fikr yuritish, qonuniy bog'lanishlarini aniqlash imkonini beradi. Bunga Mendeleevning kimyoviy elementlar davriy jadvali, Darvinning jonli tabiat predmetlari tasnifi misol bo'la oladi.

Tasniflashda tushunchani bo'lish qoidalariga amal qilish zarur.

Tasniflar nisbiy turg'un xarakterga ega. Ular bilishda va kundalik turmushda uzoq yillar davomida ishlatiladi.

Albatta, bilimlarimizning taraqqiy etishi, yangi bilimlarning vujudga kelishi ko'p hollarda tasniflarga tuzatishlar kiritishni, bazan esa butunlay yangisi bilan almastirilishini taqozo etadi. SHunga qaramasdan, tasniflash mavjud bilimlarimizni tizimga solish vositasi sifatida bilishda o'zining muhim ahamiyatiga ega bo'lib qoladi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Tafakkurning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Tafakkur shakli nima?
3. Tafakkur qonuni nima?
4. Formal mantiq nimani o'rganadi?
5. Formal mantiq tafakkurni o'rganuvchi boshqa fanlar bilan qanday munosabatda?
6. Formal mantiqni o'rganish qanday ahamiyatga ega?
7. Til nima?
8. Til va tafakkur o'zaro qanday aloqada?
9. Suniy til nima uchun kerak va u qanday yaratiladi?
10. Fikrni formallashtirishning mohiyati nimada? Uning tafakkur shakllarini o'rganish uchun qanday ahamiyati bor?
11. Tilning semantik kategoriyalari nimalar?
12. Tafakkur qonunlari nimalarni aks ettiradi?
13. Tafakkur qonunlarining obektivligi va universalligi nimada?
14. Ayniyat qonunidan kelib chiqadigan asosiy talab nimadan iborat?

¹ Morris R. Cohen, Ernest Nagel. An Introduction to Logic and Scientific Method. New Delhi/ 2007. P.223-224

15. Nozidlik qonunining mohiyati nimada? Uning obektiv ziddiyatlarga bo‘lgan munosabati qanday?

16. Uchinchi – istisno qonuni fikr yurituvchi subekt oldiga qanday talabni qo‘yadi? Bu qonun qanday hukmlarga nisbatan amal qiladi?

17. Etarli asos qonuni o‘zida to‘g‘ri muhokama yuritish uchun zarur bo‘lgan qanday talabni ifoda etadi? U xulosa chiqarish, argumentlashda qanday ahamiyatga ega?

1. Tushuncha nima?

2. Tushuncha qanday mantiqiy usullar yordamida hosil qilinadi?

3. Tushuncha va so‘z o‘rtasida qanday aloqa mavjud?

4. Tushunchaning mazmuni va hajmi deganda nimani tushunasiz, ular o‘rtasida qanday munosabat mavjud?

5. Tushunchaning qanday turlari mavjud?

6. Tushunchalar o‘rtasida qanday munosabatlar bor?

1. Tushunchani chegaralash nima?

18. Tushunchani umumlashtirish nima? Tushunchalarni tariflash qanday mantiqiy amal?

19. Tariflashning qanday turlari mavjud?

20. Tarif to‘g‘ri bo‘lishi uchun qanday qoidalarga amal qilinishi kerak?

21. Tushunchalarni bo‘lish qanday mantiqiy amal?

22. Tushunchalarni bo‘lishning qanday turlari mavjud?

23. Tushuncha to‘g‘ri bo‘linishi uchun qanday qoidalarga amal qilinishi kerak?

24. Tasniflash nima va u qanday amalga oshiriladi?

11-mavzu. Mulohaza. Xulosa chiqarish

Reja:

1. Oddiy mulohazaning kompleks taxlili: tarkibi, ifodalanishi, chinlik qiymati, turlari.

Klassik formal mantiqda mulohaza tafakkur shakllaridan biri sifatida tushunchadan keyin o‘rganiladi. Mantiqdan yozilgan xorij adabiyotlarining bazilarida esa tafakkur shakllarini o‘rganish mulohazadan boshlanadi. Mulohaza bilan bog‘liq masalalar doirasida tushunchalarga oid malumotlar beriladi. Xulosa chiqarish alohida o‘rganiladi¹. Tafakkurlash jarayonini bunday tartibda o‘rganish insonning bolaligidan boshlab mulohaza ko‘rinishida fikr yuritishi, uning tushunchalar olami keyin shakllanishi bilan asoslanadi. SHuningdek, faqat mulohazalargina “chin”, “yolg‘on” qiymatlariga ega bo‘ladi. Tushunchalarga esa bunday qiymatni berib bo‘lmaydi. Masalan, “yo‘lbars yirtqich xayvon” mulohazasini “chin” deb, baholaymiz. “Yo‘lbars” tushunchasini esa “chin” yoki “yolg‘on” deb ayta olmaymiz, chunki unda biror fikr tasdiqlanmagan ham, inkor qilinmagan ham.

¹ Morris R. Cohen Ernest Nagel an introduction to logic and scientific method New Dehli. 2007.
Restall G. Logic. An introduction. Published in the Taylor & Francis e-Library, 2006.

SHunday qilib, yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan xolda **mulohazani chin yoki yolgʻon boʻlishi mumkin boʻlgan fikr yuritish shakli deb, tariflash mumkin.**

Mulohazaning asosiy vazifasi predmet bilan uning xususiyati, predmetlar oʻrtasidagi munosabatlarni koʻrsatishdir. Ana Shuning uchun ham u doimo tasdiq yoki inkor shakldagi fikrdan iborat boʻladi. Fikr yuritish jarayonida biz predmet va hodisalarning tashqi xususiyatlari bilan birga ularning ichki, zaruriy bogʻlanishlarini hamda munosabatlarini bilib boramiz. Bilimlarimiz turlicha boʻlgani uchun ularni ifodalaydigan mulohazalar ham har xil boʻladi. Bazi mulohazalarda aniq, tekshirilgan bilimlar ifodalansa, boshqalarida belgining predmetga xosligi taxmin qilinadi, yani noaniq bilimlar ifodalanadi.

Mulohazalar voqelikka mos kelish darajasiga koʻra chin, xato va noaniq (ehtimol, taxminiy) boʻladi.

CHinligi isbotlangan fikrni chin deb tasdiqlovchi mulohaza chin boʻladi. YOlgʻonligi isbotlangan fikrni yolgʻon deb tasdiqlovchi mulohaza chin boʻladi.

CHinligi isbotlangan fikrni yolgʻon deb tasdiqlovchi mulohaza yolgʻon boʻladi. YOlgʻonligi isbotlangan fikrni chin deb tasdiqlovchi mulohaza yolgʻon boʻladi.

Ayni vaqtda chinligini ham, xatoligini ham aniqlab boʻlmaydigan mulohazalar – noaniq boʻladi.

Mulohazalar tilda gaplar orqali ifodalanadi. Mulohaza mantiqiy kategoriya boʻlsa, gap grammatik kategoriyadir. Mulohazalar, asosan, darak gap orqali ifodalanadi. Faqat darak gaplardagina fikr tasdiq yoki inkor shaklda boʻladi va ular chin yoki yolgʻon qiymatlari boʻyicha aniqlanadi.

Masalan, “Til insonlar oʻrtasidagi muloqot vositasidir”, “Hiyonatkorlarning hech biri vijdonli emas” kabi gaplar mulohazani ifoda qiladi. Demak, **mulohaza – predmetga malum bir belgining (xossaning, munosabatning) xos yoki xos emasligini ifodalovchi tafakkur shaklidir.**

Mulohaza tarkibida mantiqiy ega va mantiqiy kesimni ajratib koʻrsatish mumkin. Mantiqiy ega –fikr qilinayotgan predmet va hodisani bildiradi va fanda **subekt** degan termin bilan ifodalanadi (simvolik belgisi - S). Mantiqiy **kesim** predmet xususiyatini, munosabatini bildiradi va fanda **predikat** degan termin bilan ifodalanadi (simvolik belgisi - P). Predikatda ifodalangan bilimlar hisobiga subekt haqidagi tasavvur boyitiladi. Mulohazaning subekt va predikati uning terminlari deb ataladi. Mulohazaning uchinchi zaruriy elementi **mantiqiy bogʻlamadir**. U subekt va predikatni bir-biri bilan bogʻlaydi, natijada mulohaza hosil boʻladi. **Mulohazaning simvolik ifodalanishi:**

$S - P$ (tasdiq mulohaza), $S - P \text{ emas}$ (inkor mulohaza)

Mulohazalar tuzilishiga koʻra oddiy va murakkab boʻladi.

Oddiy mulohaza tarkibidan yana bir mulohazani ajratib boʻlmaydigan mulohazadir yoki bir subekt va bir predikatdan tashkil topgan mulohazadir.

Tarkibidan ikki yoki undan ortiq mulohazani ajratish mumkin boʻlgan mulohaza murakkab mulohaza deyiladi. Masalan, “*Mantiq ilmini oʻrganish toʻgʻri fikrlash madaniyatini shakllantiradi*”, degan fikr oddiy mulohazani

ifodalaydi. *“Mantiq ilmi tafakkur shakllari va qonunlarini o‘rganadi”* - bu murakkab mulohazadir.

Oddiy mulohazalar ikki tamoyilga, yani miqdori va sifatiga ko‘ra tasniflanadi. 1- tamoyil. Miqdoriga ko‘ra oddiy mulohazalar yakka, umumiy va juziy bo‘ladi.

Yakka mulohazalarda birorta belgining bir predmetga xosligi yoki xos emasligi haqida fikr bildiriladi. Malum manoda yakka mulohazalarni umumiy mulohazalar bilan tenglashtirish mumkin. Chunki har ikki mulohazada ham to‘plamdagi predmetlarning har biriga nimadir taalluqli yoki taalluqli emas, deb ko‘rsatiladi. Yakka mulohazalarda esa bu to‘plam birgina predmetdan iborat bo‘ladi. Masalan: *“O‘zbekiston Respublikasi mustaqil davlatdir”*, *“Ahmedov tarixchi emas”*.

Umumiy mulohazalarda birorta belgining yakka predmetlar sinfining hammasiga yoki undagi har bir predmetga taalluqli yoki taalluqli emasligi haqida fikr bayon qilinadi. Masalan, *“Har bir inson baxtli bo‘lishni xohlaydi”* va *“Hech bir aqlli odam vaqtini behuda sarflamaydi”*.

Umumiy mulohazalar biron-bir konkret xolatning mavjudligini shartlamaydi, juziy mulohazalar esa shartlaydi, chunki ularda predmetlar sinfining bir qismi haqida fikr bildiriladi. Masalan, *“Bazi yoshlar tadbirkordir”*. “Ko‘pchilik”, “ozchilik”, “bir qismi” kabi so‘zlar ham miqdoriy ko‘rsatkich sifatida juziy mulohazalarda qo‘llaniladi.

Oddiy mulohazalarni tasniflashning **ikkinchi tamoyili bu ularning sifatidir, yani tasdiq yoki inkor mazmunga ega bo‘lishidir**. Mulohazaning sifatini mantiqiy bog‘lama belgilaydi. *“Hamma ilonlar zaxarlidir”* mulohazasining predikatida subekt haqidagi fikr tasdiqlanadi. Bunday mulohaza tasdiqlovchi deyiladi. *“Hech bir riyo amal maqbul emas”* mulohazasida subekt haqida nimadir inkor qilinadi. Bu inkor mulohaza deyiladi. Agar biz qat’iy mulohazalarni individlar sinfi o‘rtasidagi munosabat sifatida olib qarasaq, unda tasdiqlovchi mulohazada sinfning, sinf bir qismining boshqa sinfga kirishi tasdiqlanadi. Inkor mulohazada esa bir sinf yoki sinf qismining boshqasidan ajratib olinishi tasdiqlanadi. *“Bazi fuqarolar masuliyatsiz”* mulohazasida tasdiq yoki inkorni ajratish qiyin. Bunday xolatlarda nima nazarda tutilayotganligi aniqlanib, so‘ng mulohazaning sifati belgilanadi.

Mulohazalarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini aniqlashda va ularni mantiqiy taxlil qilishda oddiy mulohazalarning miqdor va sifati bo‘yicha birlashgan klassifikatsiyasi (asosiy turlari)dan foydalaniladi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Umumiy tasdiq mulohazalar. Ular bir vaqtning o‘zida ham umumiy, ham tasdiq bo‘lgan fikrni ifodalaydi. Masalan, *“Hamma talabalar mantiq ilmini o‘rganadilar.”* Bu mulohaza lotin alifbosidagi **A** harfi bilan belgilanadi va *“Hamma S – P dir”* formulasi orqali ifodalanadi..

2. Umumiy inkor mulohazalar bir vaqtning o‘zida ham umumiy, ham inkor bo‘lgan fikrni ifodalaydi. Masalan, *“Hech bir ishbilirmon rejasiz ish yuritmaydi.”* Bu mulohaza *“Hech bir S – P emas”* formulasi orqali ifodalanadi va lotincha **e** harfi bilan belgilanadi.

3. **Juziy tasdiq mulohazalar** bir vaqtning o'zida ham juziy, ham tasdiq fikrni ifodalaydi. Masalan, "*Bazi talabalar masuliyatli.*" U lotincha **I** harfi bilan belgilanadi va "*Bazi S-Pdir*" formulasi orqali ifodalanadi.

4. **Juziy inkor mulohaza** bir vaqtning o'zida ham juziy, ham inkor bo'lgan fikrni ifodalaydi. Masalan, "*Bazi talabalar tartibli emas.*" Uning formulasi "*Bazi S-P emas*" bo'lib, lotincha **O** harfi bilan belgilanadi.

Ajratib ko'rsatuvchi va istisno qiluvchi mulohazalar.

SHunday mulohazalar borki ularda nimadir ajratib ko'rsatiladi yoki istisno qilinadi. "*Guruhimiz talabalaridan faqat 4 kishi musobaqada qatnashadi.*" Bu ajratib ko'rsatuvchi mulohazadir. "*Davrada yaqinlarimdan boshqa boshqa hamma bor edi*" Bu istisno qiluvchi mulohazadir. Ajratib ko'rsatuvchi va istisno qiluvchi mulohazalarni qat'iy mulohaza shaklida ifodalash mumkin. "Birinchi kurs talabalaridan boshqa hamma talabalar majlisda qatnashdi" mulohazasi "majlisda talabalardan birinchi kursda o'qiyotganlar qatnashmadi" deb aytilishi mumkin. SHunday qilib, yuqoridagi istisno qiluvchi mulohazani "Majlisda qatnashgan talabalarining hech biri birinchi kurs talabasi emas" deb o'zgartirib, uni qat'iy mulohaza ko'rinishida ifodalash mumkin.

Predikatning mazmuniga ko'ra oddiy mulohaza turlari. Ular quyidagilardan iborat: atributiv mulohazalar, mavjudlik (ekzistensial) mulohazalari va munosabat (relyativ) mulohazalari. **Atributiv (sifat va xususiyat) mulohazalarda** biror xususiyatning predmetga xosligi yoki xos emasligi aniq, qat'iy ko'rsatiladi. Shuning uchun atributiv mulohazalarni birorta predmetning sinfga kirishi (mansubligi) yoki kirmasligi (mansub emasligi) haqidagi mulohaza deb tariflash bo'ladi. Masalan, "*Hamma daraxtlar o'simliklardir*" va "*Hech bir o'simlik hayvon emas*".

Ikkita, uchta va hokazo predmetlar o'rtasida muayyan munosabatlarning bo'lishi yoki bo'lmasligini ifodalagan mulohazalarga **munosabat** (relyativ) **mulohazalari** deyiladi. Masalan: "*Butun bo'lakdan katta*". "*Ikki - uchdan kichik son*". Birinchi mulohazada "kattalik" munosabati butun va bo'lak o'rtasida bo'lishi tasdiqlansa, ikkinchi mulohazada "uch" soni bilan "ikki" sonining munosabati haqidagi fikr tasdiqlangan.

Atributiv va munosabat mulohazalari bilan bir qatorda yana **mavjudlik** (ekzistensial) **mulohazalari** (*Kutubxonada mantiq darsligi bor*), **ayniyat mulohazalari** ("*Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarining muallifi*" ko'rinishda bo'lgan) va **modal mulohazalar** (*Ehtimol, yomg'ir yog'adi*)ni ko'rsatish mumkin.

Mulohazalar o'rtasidagi munosabatlar. Mulohazalar ham tushunchalar kabi taqqoslanuvchi (umumiy subekt va predikatga ega bo'lgan) va taqqoslanmaydigan turlarga bo'linadi. Taqqoslanadigan mulohazalar sig'ishadigan yoki sig'ishmaydigan bo'ladi. Mantiqda ikki mulohaza (*r* va *q*) dan birining chinligidan ikkinchisining yolg'onligi zaruriy kelib chiqadigan bo'lsa, ular o'zaro **sig'ishmaydigan mulohazalar** deyiladi. Sig'ishmaydigan mulohazalar qarama-qarshilik (kontrar) va zidlik (kontradiktorlik) munosabatida bo'ladi. Sig'ishmaydigan mulohazalar bir vaqtda chin bo'la olmaydi. **Sig'ishadigan mulohazalar** aynan bir fikrni to'liq yoki qisman ifodalaydi. Sig'ishadigan mulohazalar o'zaro ekvivalentlik, mantiqiy bo'ysunish va qisman mos kelish

(subkontrar) munosabatida bo‘ladi. Bu munosabatlarni quyidagi misollarda taxlil qilamiz:

Masalan, 1-misol. A_1 . “*Hamma o‘simliklar shifobaxshdir.*”

Bu umumiy tasdiq mulohaza bo‘lib, uni umumiy inkor, juziy tasdiq va juziy inkor mulohaza ko‘rinishlarida quyidagicha ifodalaymiz:

E_1 . *Hech bir o‘simlik shifobaxsh emas.*

I_1 . *Bazi o‘simliklar shifobaxshdir.*

O_1 . *Bazi o‘simliklar shifobaxsh emas.*

Tajribamiz va bilimimizga asoslanib, yuqoridagi mulohazalardan faqat I va O mulohazalarni chin deb baholashimiz mumkin.

2- misol:

A_2 . *Har bir jamiyat o‘z axloqiy normalariga ega.*

E_2 . *Hech bir jamiyat o‘z axloqiy normalariga ega emas.*

I_2 . *Bazi jamiyatlar o‘z axloqiy normalariga ega.*

O_2 . *Bazi jamiyatlar o‘z axloqiy normalariga ega emas.*

Mantiq ilmida mulohazalarning chinligini aniqlash uchun ular o‘rtasidagi munosabatlarga asoslaniladi:

1. Qarama-qarshilik munosabati mazmuniga ko‘ra turlicha bo‘lgan umumiy mulohazalar o‘rtasida mavjud bo‘lib, bu munosabatga ko‘ra ularning har ikkisi bir vaqtda chin bo‘la olmaydi. Bu mulohazalar (A_1 va E_1) bir vaqtda xato bo‘lishi mumkin; agar ulardan birining chinligi aniq bo‘lsa (A_2), unda boshqasi xato bo‘ladi (E_2).

2. Zidlik (kontradiktor) munosabati mazmuni va hajmiga ko‘ra turlicha bo‘lgan mulohazalar (1- misolda: A_1 va O_1 , E_1 va I_1 ; 2-misolda: A_2 va O_2 , E_2 va I_2) o‘rtasida mavjud bo‘ladi. Bu mulohazalarning har ikkisi bir vaqtda chin ham, xato ham bo‘lmaydi. Ulardan biri hamma vaqt chin, boshqasi esa xato bo‘ladi. 1-misolda A_1 – yolg‘on, O_1 – chin va E_1 – yolg‘on, I_1 – chin mulohazalardir;

2-misolda A_2 – chin, O_2 – yolg‘on va E_2 – yolg‘on, I_2 – chin mulohazalardir.

3. Bo‘ysunish munosabati sig‘ishadigan mulohazalardan mazmuni bir xil, hajmi turli xil bo‘lgan mulohazalar o‘rtasida bo‘ladi. Bunda umumiy mulohazalar bo‘ysundiruvchi, juziy mulohazalar bo‘ysunuvchi bo‘ladi. Bo‘ysunish munosabatida umumiy mulohazalar chin bo‘lsa, ularga bo‘ysunuvchi juziy mulohazalar ham chin bo‘ladi. Lekin juziy mulohazalar chin bo‘lganda, umumiy mulohazalar noaniq (chin yoki xato) bo‘ladi. Agar umumiy mulohazalar xato bo‘lsa, ularga bo‘ysunuvchi juziy mulohazalar noaniq (chin yoki xato) bo‘ladi.

YUqoridagi 1- misolda A_1 – xato, I_1 – chin; E_1 – xato, O_1 – chin bo‘ladi. Malum bo‘ladiki, umumiy mulohazalar xato bo‘lsa, juziy mulohazalar chin bo‘lishi mumkin.

2- misolimizda A_2 – mulohaza chin bo‘lgani uchun unga bo‘ysinuvchi I_2 mulohaza – chin; E_2 – mulohaza xato bo‘lgani uchun unga bo‘ysinuvchi O_2 mulohaza ham xato bo‘ladi.

4. Qisman moslik (subkontrar) munosabati mazmuni har xil bo‘lgan juziy mulohazalar o‘rtasida mavjud bo‘ladi. Bu mulohazalar bir vaqtda chin bo‘lishi mumkin, lekin har ikkisi bir vaqtda xato bo‘lmaydi. Agar ulardan birining xatoligi

aniq bo'lsa, unda boshqasi, albatta, chin bo'ladi. Yuqoridagi 1- misolimizda I_1 - va O_1 - mulohazalar bir vaqtda chin bo'lsa, 2-misolimizda O_2 – mulohazaning xatoligi aniq bo'lgani uchun I_2 – mulohaza chindir.


Ekvivalentlik munosabatidagi mulohazalar hamma vaqt chin bo'ladi, chunki ularda aynan bir fikr turli shaklda ifodalanadi. Masalan, “A. Oripov O‘zbekiston Respublikasi Madhiyasining muallifi” va “A. Oripov – O‘zbekiston Qahramoni” mulohazalari o‘zaro ekvivalentdir, yani ular bir xil subektga, lekin har xil predikatga ega bo‘lgan mulohazalardir.

Kontrar

(qarama-qarshilik)

Контрадиктор

(зидлик)



куйи қарама – қаршилиқ

Mulohazalarning chinligiga ko'ra munosabatini ifodalovchi yuqorida ko'rsatilgan qonuniyatlar bilishda va xulosa chiqarishda katta ahamiyatga ega

2. Murakkab mulohazalar, ularning turlari va chin bo'lish shartlari. Mulohazalarni inkor qilish.

Mulohaza tarkibidagi mantiqiy ega va/yoki mantiqiy kesimni ifodalovchi terminlar soni birdan ortiq bo'lsa, murakkab mulohaza deb ataladi. Murakkab mulohazalar «va», «yoki», «agar... unda» kabi mantiqiy bog'lamalar, inkor qilish va modal terminlarni qo'llash orqali ikki va undan ortiq oddiy mulohazalarning o'zaro birikishidan hosil bo'ladi. Mantiqiy bog'lovchisining mazmuniga ko'ra murakkab mulohazalar quyidagi asosiy turlarga bo'linadi: birlashtiruvchi (konyunktiv), ayiruvchi (dizyunktiv), shartli (implikativ), ekvivalent.

Birlashtiruvchi) mulohazalar ikki va undan ortiq oddiy mulohazalarning «va», «ham», «hamda» kabi mantiqiy bog'lovchilar vositasida birikishidan hosil bo'ladi. Masalan, 1. *Ustozining bergan topshiriqlarini bajardi va alo baho oldi.* 2. *Yaxshi niyat va yaxshi so'z insonni saodatga etaklaydi.* 3. *Mantiq ham amaliy, ham nazariy fandir.*

O'zbek tilida birlashtiruvchi mulohazalar «ammo», «lekin», «biroq» kabi bog'lovchilar va bog'lovchilarsiz ohang vositasida ham tuziladi. Mantiqiy bog'lamalar konyunksiya belgisi “ \wedge ” (&) orqali ifodalanadi. Formulasi: Konyunktiv (birlashtiruvchi) mulohaza tarkibidagi oddiy mulohazalarni “ r ” va “ q ” shartli belgilari bilan belgilasak, ular orasiga konyunksiya belgisini “ \wedge ” (&) qo'ysak, unda bu mulohaza $r \wedge q$ ($p \& q$) formulasi orqali ifodalanadi. Konyunktiv mulohaza tarkibidagi oddiy mulohazalar chin yoki yolg'on bo'lishi mumkin.

Tarkibidagi hamma oddiy mulohazalar chin bo'lsa, birlashtiruvchi mulohaza ham chin bo'ladi. Boshqa hamma holatlarda esa yolg'on bo'ladi¹. Masalan, "YOlg'on gapirish va o'g'irlik qilish jinoyatdir" mulohazasidagi birinchi oddiy gap "YOlg'on gapirish jinoyatdir" chin bo'lmaganligi uchun bu mulohaza chin bo'lmaydi.

Konyunktiv mulohazaning chinlik tablitsasi

r	q	$r \wedge q$
chin	chin	chin
chin	yolg'on	yolg'on
yolg'on	chin	yolg'on
yolg'on	yolg'on	yolg'on

Ayiruvchi mulohaza deb «yo», «yoki», «yoxud» mantiqiy bog'lovchilar vositasida bog'langan oddiy mulohazalarga aytiladi. Bu bog'lovchilar ikki oddiy mulohaza, bir qancha predikatlar yoki bir qancha subektlarni bir-biridan ayirib turadi. Masalan: "Nodira ingliz tilini yoki nemis tilini yoki ispan tilini o'rganadi". "Konsertda birinchi yoki ikkinchi qatorda o'tiramiz". Ayiruvchi (dizyunktiv) mulohazalar oddiy va qat'iy turlarga bo'linadi. Oddiy ayiruvchi mulohaza tarkibidagi mulohazalardan biri yoki hammasi chin bo'lishi mumkin, qat'iy ayiruvchi mulohazada esa tarkibidagi mulohazalardan faqat bittasi chin bo'ladi. Masalan: "A.Avloniy shoir yoki dramaturgdir." Bu - oddiy ayiruvchi mulohaza. "Abdullaev musobaqada yo yutadi, yo yutmaydi." Bu - qat'iy ayiruvchi mulohaza. Oddiy dizyunksiya " \vee ", qat'iy dizyunksiya " $\underline{\vee}$ " belgisi bilan ifodalanadi. Oddiy dizyunktiv mulohaza $p \vee q$ formulasi bilan, qat'iy dizyunktiv mulohaza $p \underline{\vee} q$ formulasi bilan belgilanadi.

Dizyunktiv mulohazaning chinlik tablitsasi

p	q	$p \vee q$	$p \underline{\vee} q$
chin	chin	chin	yolg'on
chin	yolg'on	chin	chin
yolg'on	chin	chin	chin
yolg'on	yolg'on	yolg'on	yolg'on

SHartli mulohaza ikki oddiy mulohazaning «agar... unda» mantiqiy bog'lovchi orqali birikishidan tashkil topadi. SHartli mulohazaning mohiyatini aniqlash uchun "zaruriy va etarli shart" tushunchalarini farqlash zarur. Hodisaning

¹ Look: Restall G. Logic. An introduction. Published in the Taylor & Francis e-Library, 2006. p.14.

zaruriy sharti deb, uning mavjudligini taminlaydigan holatga aytiladi. Agar hodisaning sharti zaruriy bo‘lmasa, hodisa ham bo‘lmaydi. Masalan, “Agar o‘simlik suvsiz qolsa, u quriydi.”

Hodisa uchun etarli bo‘lgan shart deb, har safar shu shart bo‘lganda, o‘sha hodisa kuzatiladigan holatga aytiladi. Masalan, “Agar yomg‘ir yog‘sa, unda uylarning tomi ho‘l bo‘ladi.” SHartlar «etarli, lekin zaruriy bo‘lmagan», «zaruriy, lekin etarli bo‘lmagan», «zaruriy va etarli» bo‘lishi mumkin.

SHartli mulohaza tarkibida asos va natija qismlari farqlanadi. SHartli mulohazaning «agar» va «unda» so‘zlari oralig‘idagi qismi – **asos (antetsedent)**, «unda» so‘zidan keyingi qismi – **natija (konsekvent)** deb ataladi. Mulohaza qismlarining bunday nomlanishiga sabab ularning turli vazifalarni bajarishlari bilan bog‘liq. Agar bu qismlarning o‘rni almasha, mulohaza ham o‘zgaradi.¹ “Agar yomg‘ir yog‘sa, unda uylarning tomi ho‘l bo‘ladi” mulohazacida «yomg‘ir yog‘sa» – asos, «uylarning tomi ho‘l bo‘ladi» – natija hisoblanadi.

Demak, asosda ko‘rsatilgan hodisa, natijada qayd etilgan hodisaning kelib chiqishi uchun etarli shartni ifodalagan mulohaza shartli mulohaza deyiladi.

Implikativ mulohazalardagi «agar ... unda» mantiqiy bog‘lamasi “ \rightarrow ” belgi bilan ifodalanadi. Hozirgi zamon mantiq ilmida esa bazan (\supset) simvoli bilan belgilanadi. Bu simvollar moddiy implikasiya belgisi deb ataladi. Implikativ mulohazaning formulasi: $p \rightarrow q$. Implikativ mulohaza asosi – chin, natijasi – yolg‘on bo‘lgan holatdan boshqa hamma ko‘rinishlarda chin bo‘ladi.

Implikativ mulohazaning chinlik tablitsasi

	p	q	$p \rightarrow q$
n	chi	chin	chin
n	chi	yolg‘on	yolg‘on
g‘on	yol	chin	chin
g‘on	yol	yolg‘on	chin

Ekvivalentlik mulohazalari «agar va faqat agar ... unda» mantiqiy bog‘lovchisi yordamida ikki oddiy mulohazaning o‘zaro bog‘lanishidan hosil bo‘ladi. Tabiiy tilda ekvivalentlik mulohazasi shartli mulohaza ko‘rinishida ifodalanadi. Bunday holatlarda shartli mulohazaning ekvivalent mulohaza ekanligini aniqlash zarur bo‘ladi. Agar shartli mulohazaning asosi natijada qayd etilgan fikr uchun zaruriy va etarli shart hisoblansa, unda bu mulohaza ekvivalent mulohaza bo‘ladi.

Ekvivalent mulohazaning mantiqiy bog‘lovchisi (\equiv) yoki (\leftrightarrow) simvoli, yani (moddiy) ekvivalentlik belgisi bilan ifodalanadi. Ekvivalent mulohazaning

¹ Look: Restall G. Logic. An introduction. Published in the Taylor & Francis e-Library, 2006. p.17.

formulasi quyidagicha yoziladi: $p \leftrightarrow q$. Bu mulohazani ikki qismga ajratish mumkin: $p \rightarrow q$ & $q \rightarrow p$. Masalan, Agar berilgan butun son juft son bo'lsa, unda u ikkiga qoldiqsiz bo'linadi.

Ekvivalent mulohazaning asosi va natijasi chin bo'lganda yoki asosi ham, natijasi ham yolg'on bo'lganda, u chin hisoblanadi. SHartli va ekvivalent mulohazani bir-biridan farqlash uchun asos va natijaning o'rnini almashtirib ko'riladi. Agar natija bo'lgan mulohaza asos mulohaza uchun sabab bo'lmasa, u xolatda ekvivalent mulohaza bo'lolmaydi.¹

Quyidagi shartli mulohazaning asos va natija qismlarini o'zgartiramiz: "Agar insonning fikr doirasi keng bo'lsa, unda u ko'p mutoala qilgan bo'ladi." "Agar inson ko'p mutoala qilgan bo'lsa, unda uning fikr doirasi keng bo'ladi." Inson fikr doirasining keng bo'lishi faqat ko'p mutoala qilishiga emas, balki hayot tajribasiga, tafakkurlash qobiliyatiga ham bog'liq. Demak, berilgan mulohaza ekvivalent mulohaza emas.

Ekvivalent mulohazaning chinlik tablitsasi

	p	q	$p \leftrightarrow q$
n	chi	chin	chin
n	chi	yolg'on	yolg'on
g'on	yol	chin	yol
g'on	yol	yolg'on	chin

Murakkab mulohazalarning chin bo'lish shartlari:

1. Birlashtiruvchi mulohaza tarkibidagi sodda mulohazalarning hammasi chin bo'lsa, faqat shundagina u chin bo'ladi.
2. Oddiy ayiruvchi mulohaza tarkibidagi sodda mulohazalardan hech bo'lmaganda biri chin bo'lsa (hammasi chin bo'lsa ham), u chin bo'ladi.
3. Qat'iy ayiruvchi mulohaza tarkibidagi sodda mulohazalardan faqat bittasi chin bo'lsa, u chin bo'ladi.
4. SHartli mulohazaning asosi chin, natijasi xato bo'lgan xolatdan boshqa hammasida u chin bo'ladi.
5. Ekvivalent mulohazaning asosi va natijasi chin yoki xato bo'lsa, shunda u chin bo'ladi.

Murakkab mulohazalarning chin bo'lish shartlarini bilish, fikrlarning chin yoki xatoligini aniqlash bilan birga, bu mulohazalar asosida to'g'ri xulosa chiqarishga hamda xulosa chiqarishda yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlashga imkon beradi.

¹ Look: Restall G. Logic. An introduction. Published in the Taylor & Francis e-Library, 2006. p.18.

Mulohazalarning inkor qilinishi. Mulohazalarni inkor qilish muhim mantiqiy amallardan bo‘lib, u orqali yangi mulohazalar (inkor mulohazadan tasdiq mulohaza va tasdiq mulohazadan inkor mulohaza) xosil qilinadi.

Ikki mulohaza bir-biriga zid bo‘lib, ulardan biri albatta chin, boshqasi yolg‘on bo‘lsa, bu mulohazalar bir-birini inkor qiluvchi mulohazalar bo‘ladi. Inkor qilinayotgan mulohaza chin bo‘lsa, inkor qilayotgan mulohaza yolg‘on bo‘ladi. Inkor qilinayotgan mulohaza (p) yolg‘on bo‘lsa, inkor qilayotgan mulohaza ($\neg p$) chin bo‘ladi¹. (\neg - inkor belgisi)

p	$\neg p$
chin	yolg‘on
yolg‘on	chin

Quyidagi mulohazalar bir-birini inkor qiladi:

Hamma talabalar alochi. (yolg‘on).

Bazi talabalar alochi. (chin).

Hech bir inson qush emas (chin).

Bazi insonlar qushdir (yolg‘on).

Mulohazalarni predikatning subektga taalluqli emasligini ko‘rsatish va mulohazani yolg‘on deb ko‘rsatish orqali inkor qilish mumkin. Birinchisi ichki inkor, ikkinchisi tashqi inkor deyiladi. Masalan:

Bazi yo‘llar tamirlangan emas (ichki inkor).

Ikkining tub son ekanligi – noto‘g‘ri fikrdir (tashqi inkor).

Murakkab mulohazalarni inkor qilish. Birlashtiruvchi va ayiruvchi mulohazalar inkor qilinganda ularning mantiqiy bog‘lamalari almashadi va tarkibidagi oddiy mulohazalar inkor qilinadi.

Birlashtiruvchi mulohazani inkor qilish.

Halol va vijdonli odamlar axloqli bo‘ladilar.

Halol bo‘lmagan yoki vijdonli bo‘lmagan odamlar axloqsiz bo‘ladilar.

Birlashtiruvchi inkor mulohazani inkor qilish.

Alochi va jamoatchi bo‘lmagan talabalar tanlovda ishtirok etmaydilar.

Alochi yoki jamoatchi bo‘lgan talabalar tanlovda ishtirok etadilar.

Ayiruvchi mulohazani inkor qilish.

Men darsdan so‘ng yo kutubxonaga, yo do‘stimnikiga boraman.

Men darsdan so‘ng kutubxonaga ham, do‘stimnikiga ham bormadim.

Ayiruvchi inkor mulohazani inkor qilish.

Hunar o‘rganmagan yoki ilm olmagan insonlar hayotda o‘z o‘rnini topmaydi.

Hunar o‘rgangan, ilm olgan insonlar hayotda o‘z o‘rnini topadi.

SHartli mulohazani inkor qilish

Agar bo‘sh vaqtim bo‘lsa, unda televizor ko‘raman.

Bo‘sh vaqtim bo‘ldi, lekin televizor ko‘rmadim.

¹ Look: Restall G. Logic. An introduction. Published in the Taylor & Francis e-Library, 2006. p.18.

Murakkab mulohazalarni inkor qilish usullarini bilib olish yangi mulohazalarni tuzish, nuqtai nazarni o'zgartirish uchun imkoniyat yaratadi.

3. Xulosa chiqarishning umumiy mantiqiy tavsifi: tuzilishi, turlari va umumiy qoidalari.

Xulosa chiqarishning umumiy mantiqiy tavsifi. Mantiqiy ergashish tushunchasi. Voqelikni bilish jarayonida inson yangi bilimlarga ega bo'ladi. Bu bilimlar abstrakt tafakkur yordamida, mavjud bilimlarga asoslangan holda vujudga keladi. Bunday bilimlarni hosil qilish mantiq ilmida xulosa chiqarish, deb ataladi.

Xulosa chiqarish – bir va undan ortiq chin mulohazalardan malum qoidalar yordamida yangi bilimlarni keltirib chiqaruvchi tafakkur shaklidir.

Xulosa chiqarish asoslar, xulosa va asoslardan xulosaga o'tish jarayonidan tashkil topadi. To'g'ri xulosa chiqarish uchun, avvalambor, asoslar chin mulohazalardan iborat bo'lishi, o'zaro mantiqan bog'lanishi kerak.

Masalan, "*Ibn Sino "Donishnoma" asarini yozgan*" va "*Pifagor matematik bo'lgan*" degan ikki chin mulohazadan xulosa chiqarib bo'lmaydi. Chunki bu mulohazalar o'rtasida mantiqiy aloqadorlik yo'q.

Xulosa asoslari va xulosa ham o'zaro mantiqan bog'langan bo'lishi shart. Bunday aloqadorlikning zarurligi xulosa chiqarish qoidalarida qayd qilingan bo'ladi. Bu qoidalar buzilsa, to'g'ri xulosa kelib chiqmaydi. Masalan, "*Do'stlarim sport bilan shug'ullanadilar*" degan mulohazadan "*Do'stlarim sport masteri*" deb, xulosa chiqarib bo'lmaydi.

Demak, xulosa chiqarishning tuzilishi uch elementdan iborat: xulosa asoslari, xulosa va mantiqiy ergashish (xulosa asoslarining o'zaro mantiqiy aloqadorligi va xulosa asoslari bilan xulosaning mantiqiy aloqadorligi).

Xulosa chiqarish xulosaning chinlik darajasiga ko'ra zaruriy va ehtimoliy; xulosa asoslarining soniga ko'ra bir asosli (bevosita) va ko'p asosli (bavosita); fikrning harakat yo'nalishiga ko'ra deduktiv, induktiv, analogiya kabi turlarga bo'linadi.

Mazkur tasnifda xulosa chiqarishni fikrning harakat yo'nalishi bo'yicha turlarga ajratish nisbatan mukammalroq bo'lib, u xulosa chiqarishning boshqa turlari haqida ham malumot berish imkonini yaratadi. Xususan, deduktiv xulosa chiqarish zaruriy xulosa chiqarish, induktiv xulosa chiqarish (to'liq induksiyaning hisobga olmaganida) va analogiya ehtimoliy xulosa chiqarish deb olib qaralishi, bevosita xulosa chiqarish esa deduktiv xulosa chiqarishning bir turi sifatida o'rganilishi mumkin.

DEDUKTIV XULOSA CHIQRISH. Deduktiv xulosa chiqarishning muhim xususiyati - unda umumiy bilimdan juziy bilimga o'tishning mantiqan zaruriy xususiyatga egaligidir. Uning turlaridan biri bevosita xulosa chiqarishdir.

✓ *Faqat birgina mulohazaga asoslangan holda yangi bilimlarning hosil qilinishi bevosita xulosa chiqarish, deb ataladi.*

Bevosita xulosa chiqarish jarayonida mulohazalarning shaklini o'zgartirish orqali yangi bilim hosil qilinadi. Bunda asos mulohazaning tarkibi, yani subekt va predikat munosabatlarining miqdor va sifat

tavsiflari muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Bevosita xulosa chiqarishning quyidagi mantiqiy usullari mavjud:

I. Aylantirish (lot.–obversio) shunday mantiqiy usulki, unda berilgan mulohazaning miqdorini saqlagan holda, sifatini o‘zgartirish bilan yangi mulohaza hosil qilinadi.¹ Bu usul bilan xulosa chiqarilganda qo‘sh inkor sodir bo‘ladi, yani avval asosning predikati, keyin bog‘lovchisi inkor etiladi. Bu usul bilan quyidagi ikki formula asosida xulosa chiqarish mumkin:

	$\frac{S}{S - \neg \neg}$	$\frac{S - P}{\neg S - \neg P}$
$\frac{P}{P}$		

Inkor qilish jarayonida (-ma; -siz; -mas) kabi qo‘shimchalar yoki inkor qilinayotgan tushunchaga zid bo‘lgan tushunchalardan foydalaniladi. Oddiy qat’iy mulohazalarning hammasidan aylantirish usuli bilan xulosa chiqariladi.

Xulosa asosi bo‘lgan mulohaza	Xulosa bo‘lgan mulohaza
A. Hamma S-P	E. Hech bir S-Psiz emas
E. Hech bir S-P emas	A. Xamma S emas P dir
I. Bazi S-P	O. Bazi S-P siz emas
O. Bazi S-P emas	I. Bazi S - P sizdir

Aylantirishga misol:

A. Hamma shifokorlar oliy tibbiy malumotga ega.

E. SHifokor bo‘lganlarning hech biri oliy tibbiy malumotsiz emas.

E. Hech bir yolg‘onchi rostgo‘y emas.

A. Hamma yolg‘onchi bo‘lmaganlar rostgo‘ydir.

I. Bazi suralar uzundir.

O. Bazi suralar qisqa emas.

O. Bazi jummlalar tushunarli emas.

I. Bazi jummlalar tushunarsizdir.

Almashtirish (lot.–conversio) shunday mantiqiy xulosa chiqarish usuliki, unda xulosa berilgan mulohazadagi subekt va predikatning o‘rnini almashtirish orqali keltirib chiqariladi:²

Turli mulohazalardan bunday usul vositasida xulosa chiqarish quyidagi tablitsada ko‘rsatilgan:

Xulosa asosi	Xulosa	Almashtirish turi
A. Hamma S-	A. Hamma P-	Sof almashtirish

¹Look:Morris R. Cohen Ernest Nagel introduction to logic and scientific method New Dehli. 2007. P59.

² Look:Morris R. Cohen Ernest Nagel introduction to logic and scientific method New Dehli. 2007. P 58.

	P	S	
	E. Hech bir S-P emas	E. Hech bir P-S emas	Sof almashtirish
	I. Bazi S-P	I. Bazi P – S	Sof almashtirish
	A. Hamma S-P	I. Bazi P – S	Toraytirilgan almashtirish
	I. Bazi S-P	A. Hamma P – S	Kengaytirilgan almashtirish

Juziy inkor mulohazadan (0) almashtirish usuli bilan xulosa chiqarib bo‘lmaydi.

Almashtirishga misol:

1 – misol. A. Hamma shifokorlar oliy malumotlidir.

I. Bazi oliy malumotlilar shifokorlardir.

2- misol. E. Hech bir inson tosh emas.

E. Hech bir tosh inson emas.

3-misol. I. Bazi yoshlar tadbirkordir.

I. Bazi tadbirkorlar yoshlardir.

4- misol. A. Hamma odamlar jonli mavjudotdir.

I. Bazi jonli mavjudotlar odamlardir

5-misol. I. Bazi sanatkorlar qo‘shiqchidir.

A. Hamma qo‘shiqchilar sanatkordir.

Demak, almashtirish usuli qo‘llanganda mulohazadagi subekt va predikat hajmi aniqlanadi va shu asosda mulohazadagi terminlar o‘rni almashtirilib, xulosa chiqariladi. Bu usul, ayniqsa, tushunchaga berilgan tariflarning to‘g‘riligini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

III. Predikatga qarama-qarshi qo‘yish (lot.– contrapositio) bevosita xulosa chiqarishning mantiqiy usullaridan biri bo‘lib, bu usul qo‘llanganda berilgan mulohaza avval aylantiriladi, so‘ngra almashtiriladi. Natijada hosil bo‘lgan mulohazaning (xulosaning) subekti asos mulohaza predikatiga zid, predikati esa uning subektiga mos bo‘ladi. Bu usul bilan quyidagi ikki formula asosida xulosa chiqarish mumkin:

	$\frac{S - P}{\neg P - \underline{P}}$	$\frac{S -}{\underline{P}}$
$\neg S$		P
		$- \neg S$

Masalan:

A. Hamma musulmonlar Islom diniga e‘tiqod qiladilar.

E. Islom diniga e‘tiqod qilmaydiganlarning hech biri musulmon emas.

Juziy tasdiq mulohazadan predikatga qarama-qarshi qo'yish usuli bilan xulosa chiqarib bo'lmaydi. Chunki, juziy tasdiq mulohazani aylantirsak juziy inkor hukm kelib chiqadi. Undan almashtirish orqali xulosa chiqarib bo'lmaydi.

IV. Mantiqiy kvadrat orqali xulosa chiqarish.

Bunda oddiy qat'iy mulohazalarning o'zaro munosabatlarini (qarang: mantiqiy kvadrat) etiborga olgan holda, mulohazalardan birining chin yoki xatoligi haqida xulosa chiqariladi. Bu xulosalar mulohazalar o'rtasidagi zidlik, qarama-qarshilik, qisman moslik va bo'ysunish munosabatlariga asoslanadi. Bu munosabatlarning tahliliga ko'ra xulosa chin bo'lgan quyidagi holatlarni ko'rsatish mumkin.

1. Asos mulohaza va xulosa chin bo'lgan : $A \rightarrow I, E \rightarrow O$.

2. Asos mulohaza xato va xulosa chin bo'lgan: $A \rightarrow O, E \rightarrow I$

Masalan: A. Hamma daraxtlarning ildizi bor.

I. Bazi daraxtlarning ildizi bor.

E. Hech bir faylasuf matematik emas.

I. Bazi faylasuflar matematikdir.

Bevosita xulosa chiqarish usullari bilish jarayonida mavjud fikrni aniqlab olish, uning mohiyatini to'g'ri tushunish, shuningdek, bir fikrni turli xil ko'rinishda bayon qilish, yangi bilimlar hosil qilishga imkon beradi.

Sillogizm.

Deduktiv xulosa chiqarish aslida sillogizm shaklida bo'ladi. "Sillogizm" so'zi qo'shib hisoblash, degan manoni beradi. Bu termin mantiq fanida, deduktiv xulosa chiqarishning ko'proq ishlatiladigan turi hisoblangan oddiy qat'iy sillogizmni ifodalashda qo'llaniladi.

Sillogizm o'zaro mantiqiy bog'langan ikki qat'iy mulohazadan uchinchi – yangi qat'iy mulohazani zaruriy tarzda keltirib chiqaruvchi xulosa chiqarish usulidir. Bunda dastlabki mulohazalardan biri, albatta, yo umumiy tasdiq yoki umumiy inkor mulohaza bo'ladi. Hosil qilingan yangi mulohaza dastlabki mulohazalardan umumiyroq bo'lmaydi. Shunga ko'ra sillogizmni umumiylikka asoslangan xulosa chiqarish, deb atasa bo'ladi. Masalan, quyidagi mulohazalar berilgan bo'lsin:


Hamma baliqlar suvda yashaydi.

Sazan – baliq.

Bu mulohazalardan zaruriy ravishda – *Sazanlar suvda yashaydi*, degan uchinchi mulohaza kelib chiqadi. Sillogizmning tarkibi oddiy qat'iy mulohazalardan tashkil topgani uchun u oddiy qat'iy sillogizm deyiladi.

Sillogizmning tarkibi xulosa asoslari (*praemissae*) va xulosa (*conclusio*)dan tashkil topgan. Xulosa asoslari va xulosadagi tushunchalar **terminlar** deb ataladi. Xulosaning mantiqiy egasi – **S – kichik termin** (terminus minor), mantiqiy kesimi – **R – katta termin** (terminus major), deb ataladi. Xulosa asoslari uchun umumiy bo'lgan, lekin xulosada uchramaydigan tushuncha – **M – (terminus medius) o'rta termin** deb ataladi. Asoslarda katta termini o'z ichiga olgan mulohaza katta asos, kichik termini o'z ichiga olgan mulohaza kichik asos deb ataladi. Demak, asoslarning katta yoki kichik asos deb ajratilishi ularning qanday ketma-ketlikda kelishiga bog'liq emas.

S – kichik termin;
M – o‘rta termin;
R – katta termin.




O‘rta termin katta va kichik termini bog‘lovchi mantiqiy element hisoblanadi.

Sillogizm aksiomasi

Aksiomalar isbot talab qilmaydigan, isbotsiz chin deb qabul qilingan nazariy mulohazalar bo‘lib, ular vositasida boshqa fikr va mulohazalar asoslab beriladi. Sillogizmning aksiomasi xulosalashning mantiqiy asoslanganligini ifodalaydi.

Sillogizm xulosasining asoslardan zaruriy keltirib chiqarilishi quyidagi qoidaga asoslanadi: «**Agar bir buyum ikkinchi buyumda joylashgan bo‘lsa, ikkinchi buyum esa uchinchi bir buyumning ichida bo‘lsa, unda birinchi buyum ham uchinchi buyumning ichida joylashgan bo‘ladi**» yoki «**Bir buyum ikkinchi buyumda joylashgan bo‘lsa, ikkinchi buyum esa uchinchi bir buyumdan tashqarida bo‘lsa, unda birinchi buyum ham uchinchi buyumdan tashqarida joylashgan bo‘ladi**». Bu qoidani quyidagi shakllar yordamida ifodalash mumkin.



Bu qoida sillogizm aksiomasi mohiyatini terminlarning hajmi munosabatlari asosida tushuntirib beradi. Demak, sillogizm aksiomasining mohiyati quyidagicha: **buyum va hodisalarning sinfi to‘g‘risida bildirilgan tasdiq yoki inkor fikr shu sinf tarkibidagi barcha buyum va hodisalarning har biri yoki ayrimlar ham taalluqli fikr hisoblanadi.**

Masalan:

Hamma odamlar tirik mavjudotdir.

Hamma talabalar odamlardir.

Hamma talabalar tirik mavjudotdir.

Sillogizm aksiomasini atributiv ifodalaganda predmet bilan uning belgisi o‘rtasidagi munosabatga asoslaniladi: **biror buyum, hodisa belgisining belgisi, shu buyum, hodisaning belgisidir; buyum, hodisa belgisiga zid bo‘lgan narsalar buyum, hodisaning o‘ziga ham ziddir.**

Sillogizmning qoidalari.

Xulosa asoslarining chin bo‘lishi xulosaning chin bo‘lishi uchun etarli emas.

Xulosa chin bo‘lishi uchun muayyan qoidalarga amal qilish ham zarur.¹ Bular:

- Har bir oddiy qat'iy sillogizmda faqat uchta termin (katta, kichik va o‘rta termin) bo‘ladi.
- O‘rta termin hech bo‘lmaganda sillogizm asoslaridan birida to‘la hajmda olinishi kerak.
- Katta va kichik terminlar asoslarda qanday hajmda olingan bo‘lsa, xulosada ham shunday hajmda bo‘lishi kerak.
- Sillogizm asoslaridan biri inkor mazmunda bo‘lsa, xulosasi ham inkor mazmunda bo‘ladi.
- Sillogizm asoslarining har ikkisi inkor mulohaza bo‘lsa, ulardan xulosa chiqarib bo‘lmaydi.
- Sillogizm asoslaridan biri juziy hukm bo‘lsa, xulosa ham juziy bo‘ladi.
- Sillogizm asoslarining har ikkisi juziy mulohaza bo‘lsa, ulardan xulosa chiqarib bo‘lmaydi.
- Sillogizmning har ikki asosi tasdiq mulohaza bo‘lsa, xulosa ham tasdiq mulohaza bo‘ladi.

Sillogizm figuralari va moduslari

Sillogizmlar bir-biridan 1) o‘rta terminning joylashishiga qarab va 2) asoslar va xulosadagi mulohazaning miqdori va sifatiga ko‘ra farq qiladi. O‘rta terminning o‘rni sillogizmning figurasini belgilab beradi.

I figurada o‘rta termin katta asosning subekti, kichik asosning predikati bo‘lib keladi. II figurada o‘rta termin katta va kichik asoslarning predikati bo‘lib keladi. III figurada o‘rta termin har ikki asosning subekti bo‘lib keladi. IV figurada o‘rta termin katta asosning predikati, kichik asosning subekti bo‘lib keladi.²

I figura	II figura	III figura	IV figura
M _____ P	P _____ M	M _____ P	P _____ M
S _____ M	S _____ M	M _____ S	M _____ S
-----	-----	-----	-----
S – P	S – P	S – P	S – P

Sillogizm asoslari oddiy qat'iy mulohazalardan iborat. Bu mulohazalarning ikki asos va xulosada o‘ziga xos tartibda (to‘plamda) kelishi modus deb ataladi. «Modus» – shakl degan manoni anglatadi. Sillogizm figuralarining o‘ziga xos shakllari mavjud. Har bir figuraning to‘g‘ri shakllarini aniqlab, to‘g‘ri xulosa chiqarishda sillogizmning umumiy qoidalari bilan birga har bir figuraning maxsus qoidalari ham amal qilinadi. Figuralarning maxsus qoidalari sillogizm terminlarining o‘ziga xos bog‘lanishi asosida aniqlanadi.

Oddiy qat'iy sillogizmning birinchi figurasini quyidagi maxsus qoidalarga ega:

¹ Логика. Учебник для бакалавров. Под ред. А.И.Мигунова, И.Б.Микиртумова, Б.И.Федорова. - Москва: Проспект, 2015. С.161.

² Look:Morris R. Cohen Ernest Nagel an introduction to logic and scientific method New Dehli. 2007. p.82

- Katta asos umumiy mulohaza bo‘lishi kerak.
- Kichik asos tasdiq mulohaza bo‘lishi kerak.

I figuraning to‘rtta to‘g‘ri modusi mavjud:

*AAA-Barbara, eAE-Celarent, AII-Darii, eIO-Ferio.*¹

Moduslarning birinchi harfi katta asosning, ikkinchi harfi-kichik asosning, uchinchi harfi xulosaning sifat va miqdorini ko‘rsatadi. Figuralarning moduslarini bir-biridan farqlash maqsadida ularning har biri alohida nom bilan ataladi.

Har ikki asosi va xulosasi umumiy tasdiq mulohaza bo‘lgan AAA-Barbara shakli.

A. Hamma juft sonlar ikkiga qoldiqsiz bo‘linadi.

A. Hamma nol bilan tugagan sonlar – juft sonlardir

A. Hamma nol bilan tugagan sonlar ikkiga qoldiqsiz bo‘linadi.

Katta asosi umumiy inkor, kichik asosi umumiy tasdiq, xulosasi umumiy inkor mulohaza bo‘lgan eAE-Celarent shakli.

E. Hech bir maruza ko‘chirilgan emas.

A. Majlisdagi hamma nutqlar maruzadir.

E. Majlisdagi hech bir nutq ko‘chirilgan emas.

Katta asosi umumiy tasdiq, kichik asosi va xulosasi juziy tasdiq mulohaza bo‘lgan AII-Darii shakli.

A. Hamma avtobuslar tasdiqlangan grafik bo‘yicha yuradi.

I. SHahar transportining katta qismi – avtobuslardir.

I. SHahar transportining katta qismi tasdiqlangan grafik bo‘yicha yuradi.

Katta asosi umumiy inkor, kichik asosi juziy tasdiq, xulosasi juziy inkor mulohaza bo‘lgan eIO-Ferio shakli.

E. Hech bir transport vositasi yoqilg‘isiz yurmaydi.

I. Bazi boshqariladigan texnik qurilmalar –transport vositasidir.

I. Bazi boshqariladigan texnik qurilmalar yoqilg‘isiz yurmaydi.

Sillogizmning I figurasida oddiy qatiy hukmlarning barcha turlari bo‘yicha hulosalar beriladi.

Oddiy qatiy sillogizmning II figurasi quyidagi maxsus qoidalarga ega:

- Katta asos umumiy mulohaza bo‘lishi kerak.
- Asoslar bir-biridan sifatiga ko‘ra farqlanishi kerak.

II figuraning to‘rtta to‘g‘ri modusi mavjud:

*AEE-Camestres, eAE-Cesare, AOO-Baroko, eIO-Festino.*²

Katta asosi umumiy tasdiq, kichik asosi va xulosasi umumiy inkor mulohaza bo‘lgan AEE-Camestres shakli. Misol:

A. Hamma savollar so‘roq gap orqali ifodalanadi.

¹ Look:Morris R. Cohen Ernest Nagel an introduction to logic and scientific method New Dehli. 2007. p.84

² Look:Morris R. Cohen Ernest Nagel an introduction to logic and scientific method New Dehli. 2007. p.85.

E. Hech bir farmon so'roq gap orqali ifodalanmaydi.

E. Hech bir farmon savol emas.

Katta asosi umumiy inkor, kichik asosi umumiy tasdiq, xulosasi umumiy inkor mulohaza bo'lgan eAE-Cesare shakli. Misol:

E. Hech bir daftar kitob emas.

A. Hamma o'quv qo'llanmalar kitobdir.

E. Hech bir o'quv qo'llanma daftar emas

Katta asosi umumiy tasdiq, kichik asosi va xulosasi juziy inkor mulohaza bo'lgan AOO-Baroko shakli. Misol:

A. Hamma tarixiy yodgorliklar davlat muhofazasidadir.

O. Bazi turar joylar davlat muhofazasida emas.

O. Bazi turar joylar tarixiy yodgorlik emas.

Katta asosi umumiy inkor, kichik asosi juziy tasdiq, xulosasi juziy inkor mulohaza bo'lgan eIO-Festino shakli. Misol:

E. Hech bir olim shuxratparast emas.

I. Bazi amaldorlar shuxratparastdir.

O. Bazi amaldorlar olim emas.

Sillogizm II figurasidan faqat inkor mulohaza ko'rinishida xulosa chiqariladi.

Oddiy qat'iy sillogizm III figurasining maxsus qoidalari:

- Kichik asos tasdiq mulohaza bo'lishi kerak.
- Xulosa juziy mulohaza bo'lishi kerak.

III figuraning to'g'ri moduslari oltita:

*AAI-Darapti, AII-Datasi, IAI-Disamis, eAO-Felapton, eIO-Ferision, OAO-Bokardo.*¹

Katta va kichik asoslari umumiy tasdiq , xulosasi juziy tasdiq mulohaza bo'lgan AAI-Darapti shakli. Misol:

Hamma mantiqshunoslar faylasufdir.

Hamma mantiqshunoslar – ilmi kishilardir.

Bazi ilmi kishilar faylasufdir.

Katta asosi umumiy tasdiq , kichik asosi va xulosasi juziy tasdiq mulohaza bo'lgan AII-Datasi shakli. Misol:

Hamma o'quv qo'llanmalar fan dasturiga mos yozilgan.

Bazi o'quv qo'llanmalar bilim olishga ko'maklashadi.

Bazi bilim olishga ko'maklashadiganlar fan dasturiga mos yozilgan.

Katta asosi juziy tasdiq , kichik asosi umumiy tasdiq va xulosasi juziy tasdiq mulohaza bo'lgan IAI-Disamis shakli. Misol:

Bazi metallardan qimmatbaho buyumlar yasaladi.

Hamma metallar qattiq jismlardir.

Bazi qattiq jismlardan qimmatbaho buyumlar yasaladi.

¹ Look:Morris R . Cohen Ernest Nagel an introduction to logic and scientific method New Dehli. 2007. p.85-86.

Katta asosi umumiy inkor, kichik asosi umumiy tasdiq, xulosasi juziy inkor mulohaza bo'lgan eAO-Felapton shakli. Misol:

Hech bir sahiy xasis emas.

Hamma sahiy insonlar mehribon bo'ladilar.

Bazi mehribon bo'lganlar xasis emas.

Katta asosi umumiy inkor, kichik asosi juziy tasdiq, xulosasi juziy inkor mulohaza bo'lgan eIO-Ferision shakli. Misol:

E. Hech bir baliq kit emas.

I. Bazi baliqlar suniy ko'paytiriladi.

O. Bazi suniy ko'paytiriladiganlar kit emas.

Katta asosi juziy inkor, kichik asosi umumiy tasdiq, xulosasi juziy inkor mulohaza bo'lgan OAO-Bokardo shakli. Misol:

O. Bazi o'simliklar ko'p yillik emas.

A. Hamma o'simliklar tirik mavjudotdir.

O. Bazi tirik mavjudotlar ko'p yillik emas.

III figuraning xulosalari faqat juziy hukmdan iborat bo'ladi

Oddiy qat'iy sillogizmning IV figurasi quyidagi maxsus qoidalarga ega:

➤ *Asoslarning biri inkor mulohaza bo'lsa, katta asos umumiy mulohaza bo'ladi.*

➤ *Katta asos tasdiq mulohaza bo'lsa, kichik asos umumiy mulohaza bo'ladi.*

IV figuraning beshta to'g'ri modusi mavjud:

AAI-Bramalip, AEE-Camenes, IAI-Dimaris, eAO-Fesapo, eIO-Fresison.

Katta va kichik asoslari umumiy tasdiq, xulosasi juziy tasdiq mulohaza bo'lgan AAI-Bramalip shakli. Misol:

A. Halol odamlarning hammasi vijdonlidir.

A. Hamma vijdonlilar adolatli kishilardir.

I. Bazi adolatli kishilar halol odamlardir.

Katta asosi umumiy tasdiq, kichik asosi va xulosasi umumiy inkor mulohaza bo'lgan AEE-Camenes shakli. Misol:

A. Hamma zamonaviy ko'priklar metaldan yasalgan.

E. Metaldan yasalgan buyumlarning hech biri mo'rt emas.

E. Zamonaviy ko'priklarning hech biri mo'rt emas.

Katta asosi juziy tasdiq, kichik asosi umumiy tasdiq va xulosasi juziy tasdiq mulohaza bo'lgan IAI-Dimaris shakli. Misol:

I. Milliy teatrning bazi akterlari kinoda ham rol o'ynaydi.

A. Kinoda rol o'ynaydiganlarning hammasi el nazariga tushadi.

I. El nazariga tushganlarning bazilari Milliy teatrdandir.

Katta asosi umumiy inkor, kichik asosi umumiy tasdiq va xulosasi juziy inkor mulohaza bo'lgan eAO-Fesapo shakli. Misol:

E. Hech bir fan doktori assistent emas.

A. Assistent bo'lganlarning hammasi dissertatsiya yoqlaydi.

O. Bazi dissertatsiya yoqlaydiganlar fan doktori emas.

Katta asosi umumiy inkor, kichik asosi juziy tasdiq va xulosasi juziy inkor mulohaza bo‘lgan eIO-Fresison shakli. Misol:

E.Hech bir fan doktori assistent emas.

I. Bazi assistentlar talabalarga dars beradilar.

O. Bazi talabalarga dars beradiganlar fan doktori emas.

Sillogizmning IV figurasi umumiy tasdiq hukm ko‘rinishidagi xulosani bermaydi.

Arastudan boshlab barcha mantiqshunoslar sillogizmning I figurasi va uning moduslariga katta etibor berganlar. Ular I figurani mukammal, deb bilganlar, uning xulosalarini aniq va yaqqol, deb hisoblaganlar.

Entimema (qisqartirilgan qat’iy sillogizm)

Insonning fikr yuritish jarayoni ko‘proq entimema ko‘rinishida amalga oshadi. Masalan, “*U talaba bo‘lgani uchun, stipendiya oladi*”, “*Birodarim e‘tiqodda sobit, Shuning uchun unga ishonsa bo‘ladi.*” Entimema deb, asoslaridan biri yoki xulosasi tushirib qoldirilgan sillogizmga aytiladi. Entimema so‘zi – aqlda, fikrda degan manoni anglatadi. Entimemada sillogizmning tushirib qoldirilgan qismi yodda saqlanadi. Zarur bo‘lganda uni topib, o‘rniga qo‘ygan holda entimemadan to‘la sillogizmi tiklash mumkin.

Entimemalar uch turli bo‘ladi:

1- tartibli, yani katta asosi tushirib qoldirilgan.

2- tartibli, yani kichik asosi tushirib qoldirilgan.

3- tartibli yani, xulosasi tushirib qoldirilgan.¹

Bizga quyidagi sillogizm berilgan bo‘lsin:

Matematikani bilganlar bu masalaning javobini to‘g‘ri topadi.

Bu o‘quvchi matematikani biladi.

Bu o‘quvchi masalaning javobini to‘g‘ri topadi.

Endi bu sillogizmi entimema ko‘rinishiga keltiramiz:

1. Bu o‘quvchi matematikani bilgani uchun, masalaning javobini to‘g‘ri topadi (katta asos tushirib qoldirildi).

2. Matematikani bilganlar bu masalaning javobini to‘g‘ri topadi, Shuning uchun bu o‘quvchi masalaning javobini to‘g‘ri topadi (kichik asos tushirib qoldirildi).

3. Matematikani bilganlar bu masalaning javobini to‘g‘ri topadi, jumladan bu o‘quvchi ham (xulosa tushirib qoldirildi).

Entimemalar bahs-munozara yuritish jarayoni va notiqlik sanatida keng qo‘llaniladi.

4. Murakkab mulohazalardan xulosa chiqarish.

Murakkab mulohazalarga asoslangan deduktiv xulosa chiqarishda xulosa asoslariga mantiqiy bog‘lovchilar orqali bog‘langan oddiy mulohazalar deb qaraladi. Xulosa asoslari yo shartli, yoki ayiruvchi, yoki ham shartli, ham ayiruvchi mulohaza

¹ Look:Morris R. Cohen Ernest Nagel an introduction to logic ... New Dehli. 2007. p.78.

ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Asoslardagi mulohazalarning turiga ko‘ra bunday xulosa chiqarishning quyidagi shakllari mavjud:

- I. SHartli xulosa chiqarish.
- II. Ayiruvchi xulosa chiqarish.
- III. SHartli-ayiruvchi xulosa chiqarish.

I.SHartli xulosa chiqarish deb har ikki asosi yoki asoslaridan biri shartli mulohaza bo‘lgan sillogizmga aytiladi. Ular sof shartli va shartli-qatiy turlarga bo‘linadi.

Sof shartli xulosa chiqarish deb, har ikki asosi va xulosasi shartli mulohaza bo‘lgan sillogizmga aytiladi. Uning formulasi quyidagicha:

$1) \quad p \rightarrow q$ $\underline{q \rightarrow r}$ $p \rightarrow r$	$2) \quad p \rightarrow q$ $\underline{\neg r \rightarrow q}$ q
yoki $[(p \rightarrow q) \wedge (q \rightarrow r)] \rightarrow (p \rightarrow r)$	yoki $[(p \rightarrow q) \wedge (\neg r \rightarrow q)] \rightarrow q$

1- misol:

Agar fikr isbotlangan bo‘lsa, unda u chin bo‘ladi.

Agar fikr chin bo‘lsa, unda uni rad etib bo‘lmaydi.

Agar fikr isbotlangan bo‘lsa, unda uni rad etib bo‘lmaydi.

2- misol:

Agar havo yaxshi bo‘lsa, teatrga boramiz.

Agar havo yaxshi bo‘lmasa ham teatrga boramiz.

Teatrga boramiz.

SHartli-qatiy xulosa chiqarish deb, katta asosi shartli mulohaza, kichik asosi oddiy qatiy mulohaza bo‘lgan sillogizmga aytiladi. Bunday xulosa chiqarishning ikkita to‘g‘ri (aniq xulosa beradigan) shakli mavjud. Uning formulasi quyidagicha:

Tasdiqlovchi modus – <i>modus ponens</i>	Inkor etuvchi modus – <i>modus tollens</i>
$r \rightarrow q$ \underline{r} q	$r \rightarrow q$ $\underline{\neg q}$ $\neg p$

1. SHartli mulohazaning natijasini tasdiqlovchi xulosa chiqarish:

Agar aqlli bo‘lsa, o‘ylab gapiradi.

U o‘ylab gapiradi.

Demak, u aqlli.

2. SHartli mulohazaning natijasini inkor etib, xulosa chiqarish:

Agar meyor buzilsa, unda miqdor o‘zgarishlari sifat o‘zgarishlariga olib keladi.

Miqdor o'zgarishlari sifat o'zgarishlariga olib kelmadi.

Demak, meyor buzilmagan.

SHartli – qatiy sillogizmning xulosasi aniq, chin bo'lishi uchun quyidagi holatlarga etibor berish zarur:

1. SHartli mulohazadagi asosning chinligidan natijaning chinligi, natijaning xatoligidan asosning xatoligi mantiqan kelib chiqadi.

2. SHartli mulohazadagi natijaning chinligi asosning chinligini, asosning xatoligi esa natijaning ham xatoligini isbotlamaydi.

Bu qoidalar buzilganda shartli-qatiy sillogizmning xulosasi noaniq bo'ladi. Xulosa chiqarishning bu shakli formulalarda quyidagicha ifodalanadi:

$r \rightarrow q$ q <i>ehtimol, r</i>	$r \rightarrow q$ \overline{p} <i>ehtimol \overline{q}</i>
$[(p \rightarrow q) \wedge q] \rightarrow r$	$[(p \rightarrow q) \wedge \overline{p}] \rightarrow \overline{q}$

1. SHartli mulohazadagi natijaning tasdiqlanishidan asosning chinligini mantiqan keltirib chiqarish mumkin emas. Chunki boshqa asos ham shunday natijani keltirib chiqarishi mumkin.

Masalan:

Agar bemorning qon bosimi ko'tarilsa, uning boshi og'riydi.

Bemorning boshi og'riyapti.

Ehtimol, uning qon bosimi ko'tarilgandir.

YUqoridagi misolda shartli mulohazaning asosi xato, noaniq, natijasi chin bo'lganligi uchun sillogizmning xulosasi noaniq bo'lgan.

2. SHartli mulohazada asos qismining inkor qilinishi, natijaning noaniq bo'lishiga olib keladi.

Agar bemorning qon bosimi ko'tarilsa, unda uning boshi og'riydi.

Bemorning qon bosimi ko'tarilmagan.

Ehtimol, uning boshi og'rimayotgandir.

Bilamizki, bosh og'rig'iga faqat qon bosimining ko'tarilishi sabab bo'lmaydi, undan boshqa sabablar ham bo'lishi mumkin. Bu esa, xulosaning noaniq bo'lishiga olib keladi.

II. Ayiruvchi xulosa chiqarish deb, har ikki asosi yoki asoslaridan biri ayiruvchi mulohaza bo'lgan sillogizmga aytiladi. **Sof ayiruvchi xulosa chiqarish** deb, har ikki asosi va xulosasi ayiruvchi mulohaza bo'lgan sillogizmga aytiladi. **Ayiruvchi-qatiy xulosa chiqarishda** xulosa asoslaridan biri ayiruvchi mulohaza bo'lsa, boshqasi oddiy qatiy mulohaza bo'ladi. Bunday xulosa chiqarishning ikki modusi bor: tasdiqlab inkor etuvchi va inkor etib tasdiqlovchi modus. Ularning formulasi quyidagi tablitsada keltirilgan.

Xulosa chiqarish shakli	Formulasi
Sof ayiruvchi sillogizm	$S - a \vee b \vee c$ $a - d \vee f$ $S - d \vee f \vee b \vee c$

Ayiruvchi-qat'iy xulosa chiqarish tasdiqlab inkor etuvchi modus <i>modus ponendo tollens</i>	$r \vee q$ $\frac{r}{\neg q}$
Ayiruvchi-qat'iy xulosa chiqarish inkor etib tasdiqlovchi modus <i>modus tollendo ponens</i>	$r \vee q$ $\frac{\neg r}{q}$

Sof ayiruvchi xulosa chiqarishga misol:

Xulosa chiqarish asoslarining soniga ko'ra bevosita yoki bivosita bo'ladi.

Bivosita xulosa chiqarish ikki asosli yoki ikkidan ortiq asosli bo'ladi.

Demak, xulosa chiqarish asoslarining soniga ko'ra bevosita yoki ikki asosli yoki ikkidan ortiq asosli bo'ladi.

Ayiruvchi-qat'iy xulosa chiqarishning tasdiqlab inkor etuvchi shakliga misol:
O'simliklar bir yillik yoki ko'p yillik bo'ladi.

Daraxtlar ko'p yillik o'simlikdir.

Demak, daraxtlar bir yillik o'simlik emas.

Ayiruvchi-qat'iy xulosa chiqarishning inkor etib, tasdiqlovchi shakliga misol:
Odamlar hayoli yoki hayosiz bo'ladi.

Mening do'stlarim hayosiz emas.

Mening do'stlarim hayoli.

Ayiruvchi sillogizmida to'g'ri xulosa chiqarish uchun quyidagi qoidalarga amal qilish zarur:

1. Ayiruvchi mulohaza tarkibidagi oddiy mulohazalar hajmiga ko'ra kesishmasligi shart, aks holda xulosa xato bo'ladi. Masalan:

SHirinliklar mazali yoki chiroyli bo'ladi.

Bu shirinlik mazali.

Bu shirinlik chiroyli emas.

SHirinliklar ham mazali, ham chiroyli bo'lishi mumkin. Bunda ayiruvchi mulohaza tarkibidagi oddiy mulohazalar bir – birini inkor etmaydi va hajmiga ko'ra, kesishadi. Shuning uchun xulosa xato.

2. Ayiruvchi mulohazada muqobillar bir-birini inkor etishi va to'liq ko'rsatilgan bo'lishi shart.

Burchaklar o'tkir yoki o'tmas burchakli bo'ladi.

Bu burchak o'tkir burchakli emas.

Bu burchak o'tmas burchaklidir.

Xulosaning xato bo'lishiga sabab, ayiruvchi mulohazadagi muqobillar to'liq ko'rsatilmagan, yani to'g'ri burchakning mavjudligi etibordan chetda qolgan.

Ayiruvchi sillogizmlardan ko'proq bir necha echimga ega bo'lgan masalalarni echishda, yani muqobil holatlardan birini to'g'ri tanlab olishda foydalaniladi.

III. SHartli – ayiruvchi – lemmatik (taxminlab) xulosa chiqarish deb, asoslardan biri ikki yoki undan ortiq shartli mulohazalardan, ikkinchisi esa ayiruvchi mulohazadan iborat bo'lgan sillogizmga aytiladi. Ayiruvchi asosdagi azolarning

soniga ko‘ra, bunday xulosalar dilemma (ayiruvchi asos ikki azodan iborat bo‘lgan), trilemma (ayiruvchi asos uch azodan iborat bo‘lgan) va polilemma (ayiruvchi asos to‘rt va undan ortiq azodan iborat bo‘lgan) deb ataladi.

Dilemmada asoslardan biri (kattasi) ikki shartli mulohazaning iborat bo‘ladi, ikkinchi asosi (kichigi) ayiruvchi mulohaza bo‘ladi. Kichik asosda shartli mulohazalarning asoslari (antetsedentlar) tasdiqlanadi yoki ularning natijalari (konsekventlari) inkor qilinadi. Dilemmalar tuzilishiga ko‘ra oddiy va murakkab turlarga bo‘linadi. Oddiy dilemmaning xulosasi tasdiq mulohaza bo‘lsa – konstruktiv, inkor mulohaza bo‘lsa – destruktiv deyiladi. Murakkab dilemmalarda ham xuddi shunday. Demak, dilemmalar oddiy konstruktiv, oddiy destruktiv, murakkab konstruktiv va murakkab destruktiv ko‘rinishda bo‘ladi.

Oddiy dilemma	
Dilemmaning turi	formulasi
Oddiy konstruktiv dilemma	$a \rightarrow c,$ $b \rightarrow c$ $\underline{a \vee b}$ s
Oddiy destruktiv dilemma	$a \rightarrow b,$ $a \rightarrow c$ $\underline{\neg b \vee \neg c}$ $\neg a$
Murakkab dilemma	
Murakkab konstruktiv dilemma	$a \rightarrow b,$ $c \rightarrow d$ $\underline{a \vee c}$ $b \vee d$
Murakkab destruktiv dilemma	$a \rightarrow b \quad c \rightarrow d$ $\underline{\neg b \vee \neg d}$ $\neg a \vee \neg c$

Misollar:

1. Oddiy konstruktiv dilemma.

Agar bemor shifokorga ishonsa, unda u sog‘ayadi.

Agar bemor vaqtida davolansa, unda u sog‘ayadi.

Bemor shifokorga ishondi yoki vaqtida davolandi.

Bemor tuzaldi.

2. Oddiy destruktiv dilemma.

Agar ko‘p kitob o‘qisa, unda bilimli bo‘ladi.

Agar ko‘p kitob o‘qisa, unda nutqi ravon bo‘ladi.

Bilimli emas yoki nutqi ravon emas

Demak, ko‘p kitob o‘qimagan.

3. Murakkab konstruktiv dilemma.

Agar suratda tabiat manzarasi tasvirlansa, unda peyzaj deyiladi.

Agar suratda inson tasvirlansa, unda portret deyiladi.

Suratda tabiat manzarasi yoki inson tasvirlanadi.

Surat peyzaj yoki portret bo'ladi.

4. Murakkab destruktiv dilemma

Agar majlisda nutq so'zlanadigan bo'lsa, unda rasmiy uslubdan foydalaniladi.

Agar badiiy kechada so'zlanadigan bo'lsa, unda badiiy uslubdan foydalaniladi.

Rasmiy uslubdan yoki badiiy uslubdan foydalanilmadi.

Majlis yoki badiiy kecha bo'lmadi.

Dilemmalarni to'g'ri tuzish va hal qilish uchun ko'rilayotgan masalaning barcha echimlarini aniqlash zarur. Dilemmani bazan unga qarama-qarshi mazmundagi boshqa bir dilemma orqali rad etish mumkin. Bunga mantiq ilmi tarixidan quyidagi misolni keltiramiz: «Afinalik ayol o'g'liga shunday maslahat beradi: jamoat ishlariga aralashmagin, chunki agar haqiqatni gapirsang, seni odamlar yomon ko'radi, agar yolg'on gapirsang, unda seni xudolar yomon ko'radi. Bunga Aristotel quyidagicha rad javobni o'ylab topadi: Men jamoat ishlarida ishtirok etaman, chunki agar haqiqatni gapirsam, meni xudolar yaxshi ko'radi, agar yolg'on gapirsam, meni odamlar yaxshi ko'radi»¹.

Bazan, "masalaning boshqa echimlari (alternaturalari) ham mavjud bo'lishi mumkinmi?"-degan savolni qo'yish dilemmaning "shoxlari" orasidan chiqib ketish imkonini beradi. Bunday savolning qo'yilishi sizga taklif etilgan, lekin siz uchun maqbul bo'lmagan echimlarni rad qilishga yordam beradi.

Trilemma, polilemma shaklida ham lemmatik xulosa chiqarish mumkin. Bunda muqobillar soni uchta va undan ortiq bo'ladi. **Trilemmada** berilgan masalaning uch xil echimi haqida taxminiy fikr yuritiladi. **Trilemma ham to'rt turga bo'linadi:** oddiy konstruktiv trilemma, oddiy destruktiv trilemma, murakkab konstruktiv trilemma va murakkab destruktiv trilemma.

Oddiy trilemma	
Trilemmaning turi	formulasi
Oddiy konstruktiv trilemma	$a \rightarrow c, b \rightarrow c,$ $d \rightarrow c$ <u>$a \vee b \vee d$</u> s
Oddiy destruktiv trilemma	$a \rightarrow b, a \rightarrow c,$ $a \rightarrow d$

¹ Look:Morris R. Cohen Ernest Nagel an introduction to logic and scientific method New Dehli. 2007. p.108

		$\frac{\neg b \vee \neg c \vee d}{\neg a}$
Murakkab trilemma		
Murakkab trilemma	konstruktiv	$a \rightarrow b, c \rightarrow d,$ $m \rightarrow n$ $\frac{a \vee c \vee m}{b \vee d \vee n}$
Murakkab trilemma	destruktiv	$a \rightarrow b, c \rightarrow d,$ $m \rightarrow n$ $\frac{\neg b \vee \neg d \vee \neg n}{\neg a}$ $\frac{\neg a \vee \neg c \vee \neg m}{m}$

Oddiy konstruktiv trilemmaga misol:

Agar elektron pochtdan foydalanmoqchi bo'lsam, unda kompyuterimni Internetga ulatishim kerak. Agar do'stlarim bilan muloqatda bo'lishni istasam, unda kompyuterimni Internetga ulatishim kerak. Agar malumotlarni tez bilmoqchi bo'lsam, unda kompyuterimni Internetga ulatishim kerak.

YO elektron pochtdan foydalanishim yoki do'stlarim bilan muloqatda bo'lishim yoki malumotlarni tez bilishim kerak.

Demak, kompyuterimni Internetga ulatishim kerak.

Oddiy destruktiv trilemmaga misol:

Agar MS excel dasturini o'rgansam, jadval tuza olaman. Agar MS excel dasturini bilsam formulalarni hisoblay olaman. Agar MS excel dasturini bilsam, diagrammalar chiza olaman.

Jadval tuzish yoki formulalarni hisoblash yoki diagrammalar chizish mehnat faoliyatim uchun zarur emas ekan.

Demak, Ms Excel dasturini o'rganishim shart emas.

Murakkab konstruktiv trilemmaga misol

Agar majlisda nutq so'zlanadigan bo'lsa, unda rasmiy uslubdan foydalaniladi. Agar badiiy kechada so'zlanadigan bo'lsa, unda badiiy uslubdan foydalaniladi. Agar ilmiy kengashda so'zlanadigan bo'lsa, unda ilmiy uslubdan foydalaniladi.

Rasmiy yoki badiiy yoki ilmiy uslubdan foydalanadi.

Majlis yoki badiiy kecha yoki ilmiy kengash bo'ladi.

Murakkab destruktiv trilemmaga misol:

Agar sport maktabida o'qisa, unda sport musobaqalarida qatnashadi.

Agar xarbiy maktabda o'qisa, unda xarbiy mashqlarda qatnashadi.

Agar sanat maktabida o'qisa, unda ko'rgazmalarda qatnashadi.

Sport musobaqalarida yoki xarbiy mashqlarda yoki ko'rgazmalarda qatnashmadi.

Sport maktabida yoki xarbiy maktabda yoki sanat maktabida o'qimadi.

SHartli-ayiruvchi xulosa chiqarish masalani hal qilishning bir necha uslullari mavjudligi va ularning har biri turli oqibatlarni keltirib chiqarishini aniqlab beradi. Sohibqiron Amir Temur tabiri bilan aytganda, bu oqibatlardan qaysi biri davlat va ulus manfaatlariga mos bo'lsa, yani «savobliroq yoki kam xatarli bo'lsa», shunisi tanlab olinadi.

INDUKTIV XULOSA CHIQARISH.

YAKka mulohazalarni umumlashtirib xulosa chiqarish kundalik hayotda, ilmiy bilishda ko'p qo'llaniladi. Inson hayotiy tajriba natijalarini, kuzatishlarini umumlashtirib, aynan shu usul asosida xulosa chiqaradi. Fikrning yakkalikdan umumiylikka qarab harakatlanishini ifodalovchi bunday xulosa chiqarish turi induksiya (lot. "inductio" – yagona asosga keltirish) deb ataladi. Induktiv xulosa chiqarishda kuzatish va tajriba natijalari muhim ahamiyatga ega. Induktiv xulosa chiqarish balvosita xulosa xisoblanadi. Induktiv xulosa chiqarish asoslari ikkita va undan ortiq mulohazalardan tashkil topgan bo'ladi. Ular, odatda, yakka predmet yoki predmetlar sinfining bir qismini ifoda qiladi. Xulosada esa, bir mantiqiy sinfga mansub predmetlarning barchasiga nisbatan umumiy mulohaza tarzidagi fikr hosil qilinadi.

Induktiv xulosa chiqarishda birorta belgining malum bir sinfga mansub predmetlarda takrorlanishini kuzatish asosida, shu belgining mazkur sinfga tegishli barcha predmetlarga xosligi haqida xulosa chiqariladi.

Induktiv xulosa chiqarishning tarkibi xulosa asoslari, tekshirilayotgan belgi va xulosadan iborat.

Masalan, o'qituvchi har darsda yo'qlama qilib, talabalarning davomadini tekshiradi. Yo'qlamani yakunlab, talabalarning barchasi darsda to'liq katnashayotganligini qayd qilishi induktiv xulosa bo'ladi. Bunda ro'yxatdagi har bir talabaning ismi –sharifi xulosa asoslari, ularning darsda qatnashayotganligi tekshirilayotgan belgi, yo'qlamaning natijasi esa xulosadir.

Demak, induksiya - juziy bilimdan umumiy bilimga mantiqan o'tish shaklida sodir bo'ladi. Induktiv xulosa chiqarishning ikkita turi mavjud: to'liq va to'liqsiz induksiya.

To'liq induksiyada birorta belgining malum bir sinfga mansub har bir predmetga xosligi aniqlanib, shu belgining berilgan sinf predmetlari uchun umumiy ekanligi haqida xulosa chiqariladi. YUqorida keltirilgan misol to'liq induksiyani ifodalaydi.

To'liq induksiya miqdori cheklangan va aniq bo'lgan (sanaladigan) predmetlar sinfi haqida empirik materiallarni umumlashtirish yo'li bilan xulosaviy bilim olishning samarali vositasi bo'lib, uning xulosasi doimo aniq bo'ladi.

To'liqsiz induksiyada birorta belgining bir mantiqiy sinfga tegishli predmetlarning bir qismiga (bir nechtasiga) xosligini (yoki xos emasligi) aniqlash asosida shu belgining berilgan sinfga mansub barcha predmetlarga xosligi (xos emasligi) haqida xulosa chiqariladi.

To'liqsiz induksiyada fikrimiz, xuddi to'liq induksiyadagidek, harakat qiladi. Lekin unda, to'liq induksiyadan farqli ravishda, xulosa kuzatish, tajriba davomida qayd etilmagan, o'rganilmagan predmetlarga ham tegishli bo'ladi. To'liqsiz induksiya bo'yicha xulosa chiqarishda asoslardan xulosaning mantiqan kelib chiqishi ko'pincha kuchsiz bo'ladi. Dastlabki kuzatish va tajriba natijalarini tanlab olish usuliga ko'ra to'liqsiz induksiyaning ikki turi: sanash orqali (enumerativ induksiya) va istisno qilish orqali to'liqsiz induksiya (eliminativ induksiya) ajratilishi mumkin.

Sanash orqali to'liqsiz induksiya yoki ommabop induksiyada (enumerativ induksiya) bir sinfga mansub predmetlar biror belgining takrorlanishini kuzatish asosida, uning shu sinfga kiruvchi barcha predmetlarga xosligi haqida ehtimoliy xulosa chiqariladi. Insonlarning ob-havoni uzoq yillar davomida kuzatishining natijasi bo'lgan fikrlar ham shunday xulasalarni ifodalaydi.

Kishilarning kundalik hayotiy tajribasiga asoslanishi, sog'lom fikr yuritishga xos xususiyatlarni o'zida mujassamlantirgani uchun ham xulosa chiqarishning bu usuli ommabop induksiya deb ataladi. Masalan, qushlarning pastlab uchishi yomg'ir yog'ishini, quyosh botayotganda osmonning qizarishi ertasiga havoning ochiq bo'lishini bildiradi, daraxt tanasining yashil mox bilan qoplangan tomoni shimolni ko'rsatadi.

Istisno qilish orqali to'liqsiz induksiyada tekshirilayotgan sinfnig bir qismiga o'rganilayotgan belgining xos yoki xos emasligi aniqlanib, xos bo'lmaganlarini chiqarib tashlab, xulosa qilinadi. Masalan, o'rmondagi daraxtlarning bir qismi tekshirilib, kasal bo'lganlari aniqlanadi. SHu malumotgaga asoslanib, o'rmondagi daraxtlarning qancha qismi kasallanganligi haqida tahminiy xulosa chiqariladi. To'liqsiz induksiyaning yana bir turi statistik umumlashtirishdir.

Statistik umumlashtirish ommaviy tusga ega, keng ko'lamda sodir bo'ladigan hodisalarni o'rganishda qo'llaniladi. Iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarini o'rganish, aholining tug'ilishi va o'lish haqidagi malumotlarni to'plash, tahlil qilish va shu kabi hollarda statistik umumlashtirishdan foydalaniladi. Masalan, "Andijon viloyatining aholi zich joylashgan Oltinko'l tumanida 7 ta kasb-hunar kolleji bor, ularni bu yil turli mutaxassisliklar bo'yicha 2 ming 300 nafar bitiruvchi tamomlaydi. Tuman hududida 714 ta xo'jalik yurituvchi subekt, jumladan, sanoatda – 371 ta subekt, qurilishda – 167 ta subekt, savdo va xizmat ko'rsatish sohasida – 156 ta subekt va boshqa tashkilotlar faoliyat ko'rsatadi. Tumandagi har bir xo'jalik subektiga o'rtacha 3 nafar bitiruvchi to'g'ri keladi,"¹ –deb chiqarilgan xulosa statistik umumlashtirishning natijasidir.

Ilmiy induksiya

Hammamiz Arximed qonuni, Nyutonning butun olam tortishish qonuni qanday kashf etilganligini yaxshi bilamiz. Nyutonga qadar ham odamlar yuqoriga otilgan har qanday narsa erga qaytib tushishini ko'p marotaba kuzatganlar

¹ Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак.

(omnabop induksiya). Lekin faqat Nyutongina bu hodisaning sababini (Erning tortish kuchiga ega ekanligini) aniqlab berdi, ilmiy induktiv xulosa chiqardi. SHu bois bu qonun uning nomi bilan ataldi.

Ilmiy induksiyada bir sinfga mansub predmetlarda takrorlanuvchi belgining mavjudlik sababi o'rganiladi. To'liqsiz induksiyaning bu turi hodisalarning sababini aniqlash va ularni ifoda etuvchi qonunlarni ochishga qaratilgani uchun ham ilmiy induksiya deb ataladi.

Sababiy aloqadorlikni aniqlash ilmiy induktiv xulosa chiqarishda muhim ahamiyatga ega. Sababiy aloqadorlikni aniqlash va o'rganishda quyidagilarga etibor beri zarur:

- ikki hodisa o'rtasidagi zaruriy aloqadorlik muayyan sharoitda ularning biridan (sabab) ikkinchisini (oqibatni) keltirib chiqaradi. Sabab-hodisaning yo'qligi oqibat-hodisaning ham yuzaga chiqmasligini bildiradi.

- Sabab-oqibat munosabatlari umumiy xarakterga ega, olamdagi hech bir hodisa sababsiz mavjud bo'lmaydi.

- Sabab va oqibat vaqtda ketma-ket keladi. Lekin, oldinma-ketin kelgan hodisalarning hammasi ham sababiy aloqadorlikda bo'lavermaydi. Masalan, chaqmoq chaqish hodisasi momaqaldiraqdan avval sodir bo'ladi. Kishilar chaqmoq chaqishini momaqaldiraqning sababi deb tushunganlar, aslida esa, momaqaldiraqning chaqmoqdan keyin kelishiga sabab tovush tezligining Yorug'lik tezligidan kamligidir. Sabab-hodisa bilan oqibat-hodisaning ro'y berishi orasida turli muddat o'tishi mumkin.

- Sabab-oqibat munosabatlari bir manoli bo'lib, muayyan sabab o'ziga muvofiq keladigan muayyan oqibatni keltirib chiqaradi.

Sababiy aloqadorlik murakkab strukturaga ega. Xususan, sabab-hodisa turli xil sharoitlarda turli oqibatlarni keltirib chiqarishi yoki aksincha, bir oqibat turli sharoitlarda har xil sabablar tasirida paydo bo'lishi mumkin.

Sababiy aloqadorlikni aniqlashning bir qancha metodlari mavjud bo'lib, ular ilmiy induksiya metodlari deb yuritiladi. Bularga o'xshashlik, tafovut, yo'ldosh o'zgarishlar va qoldiqlar metodlari kiradi. Ularning har birini alohida ko'rib chiqamiz.

YAgona o'xshashlik metodi. Unda o'rganilayotgan hodisaning sababi haqidagi xulosa shu hodisaning kuzatilayotgan tomonlarini solishtirish, ularning o'xshash tomonini aniqlash asosida hosil qilinadi. Bu metoddan foydalanib xulosa chiqarilganda, hodisaning kuzatilayotgan hollari uchun faqat bitta holatgina umumiy bo'lsa, ana shu holat mazkur hodisaning sababi deb olinadi. Masalan, kasalxonaga turli yosh va jinsdagi bemorlar bir xil tashxis bilan keltirildi. Ularning xarorati baland, oshqozon-ichak faoliyati buzilgan edi. Bemorlarning barchasi kasal bo'lmasdan oldin qo'ziqorin eganlarini aytdilar. Demak, kasallik qo'ziqorinni noto'g'ri istemol qilish oqibatida vujudga kelgan.

YAgona o'xshashlik metodining formulasi:

1. ABS _____ a

2. ADE _____ a

3. AGF _____ a

Demak, A xolat malum darajada a xodisaning sababidir.

YAgona tafovut metodi. Bu metod faqat ikki holatda, yani hodisaning vujudga kelgan va kelmagan hollarini taqqoslash asosida hodisaning sababini aniqlash usuli bo'lib, unda mavjud hollar bir-biridan faqat bitta holati bilan farq qiladi. Shuning uchun ham mazkur holat kuzatilayotgan hodisaning sababi bo'lsa kerak, deb taxminiy xulosa hosil qilinadi.

AVS _____ a
BC _____ a emas.

Demak, A xolat a xodisaning sababi bo'lishi mumkin.

Masalan, aeroportga kirishda yo'lovchilarda metall buyumlarning borligi maxsus asbob yordamida tekshiriladi. Agar yo'lovchida metal buyum bo'lsa, moslama tovush chiqaradi, metal buyum bo'lmasa tovush chiqarmaydi. Elektr tarmog'ida tokning bor yoki yo'qligi lampaning yonish yoki yonmasligiga sabab bo'lishi ham ushbu metodga misol bo'ladi.

Yo'ldosh o'zgarishlar metodi.

Yo'ldosh o'zgarishlar metodiga muvofiq, bir holatning o'zgarishi hodisaning o'zgarishiga ham olib kelsa, shu holat kuzatilayotgan hodisa o'zgarishining sababidir.

1. AVS----- a
2. A_1 VS----- a
3. A_2 VS----- a
.....
 N . A_n BC----- a_n

Ehtimol, A xolatning o'zgarishi unga mos xolda a ning o'zgarishiga sababchidir.

Masalan, Quyoshdagi dog'ning kattalashishi magnit bo'ronining kuchayishiga olib keladi.

Qoldiqlar metodi. Bu metod tatbiq etiladigan obekt murakkab hodisadan iborat bo'lib, bittasidan boshqa qismlarining sabablari aniq bo'lganda, ana shu qolgan qismni vujudga keltiruvchi sababni topish maqsadida qo'llaniladi.

ABC _____ abc
B _____ b
C _____ c

Demak, a ning sababi A bo'lishi mumkin.

Qoldiqlar metodiga ko'ra, agar o'rganilayotgan murakkab hodisani tashkil etuvchi hodisaning (yoki hodisa qismining) bitta holatdan boshqa holatlar bilan aloqasi zaruriy tavsifga ega bo'lmasa, ana shu qoldiq holat mazkur hodisaning (hodisa qismining) sababi bo'lishi mumkin.

Ilmiy induksiyaning boshqa metodlari singari qoldiqlar metodi ham ehtimoliy bilim olish vositasi hisoblanadi.

ANALOGIYA- (grek. – moslik, o‘xshashlik) *bavosita xulosa chiqarishning bir turidir. Deduktiv xulosa chiqarishda fikr umumiylikdan juziylikka qarab, induksiyada juziylikdan umumiylikka qarab harakatlansa, analogiyada bir juziy holatdan boshqa juziy holatga qarab harakatlanadi.*

Analogiyada predmetlarning o‘xshash xossalari asoslanib xulosa chiqariladi. Tabiat va jamiyatda obektiv turli-tumanlik bilan bir qatorda, obektiv o‘xshashlik ham mavjud. Ular inson ongida o‘z ifodasini topadi. Obektiv reallikning turli sohalariga oid qonun va qoidalar tuzilishi jihatidan o‘xshash bo‘lsa, ular aks ettirgan voqelikdagi turli narsa va hodisalar ham malum manoda o‘xshash bo‘ladi.

Analogiya bo‘yicha xulosa chiqarish obektiv reallikning Cheksiz ko‘rinishlari hamda unda mavjud bo‘lgan turli sistemalarning xossalari, munosabatlari, tarkibidagi o‘xshashliklarga asoslanadi. Masalan, sayyoralar, davlatlar, ijtimoiy tuzumlar mohiyatida o‘xshashlik bor. Bilishda muhim va nomuhim xossalar o‘xshashligi asosida analogiya bo‘yicha xulosa chiqariladi.

Analogiya vositasida bir predmetdan (modeldan) boshqa predmetga (prototipga) axborot o‘tkaziladi. Xulosa asoslari modelga, xulosa prototipga taalluqli bo‘ladi. Masalan Imom G‘azzoliy “Kimiyo saodat” asarida dil(ko‘ngil)ni badan mamlakatining podshohi, aqlni esa uning vaziriga qiyoslab, “podshoh - Dil vazir -Aqlning maslahati birla ish qilsa, shahvat va g‘azabni vazir Aqlga bo‘ysundirsa, badan mamlakati (inson) saodatga erishadi. Agar Dil vazir Aqlni shahvat va g‘azab ilgida asir qilsa, badan mamlakati vayron bo‘lib, podshoh Dil ham asir bo‘lib, badbaxt va halok bo‘lg‘usidir”¹- deb yozadi. Analogiya bo‘yicha xulosa chiqarish boshqa xulosa chiqarishlar kabi asos, xulosa va asos bilan hamda xulosa o‘rtasidagi mantiqiy aloqadan iboratdir. Uning xulosasi ehtimoliy shaklda bo‘lib, keyingi tekshirishlarni talab qiladi. Aniq asoslardan bazan aniq, bazan ehtimoliy xulosa chiqadi.

Analogiya o‘zining obektiv asosiga ega. Bular predmetlar, ularning xossalari o‘rtasidagi aloqa va munosabatlardir. Modeldan prototipga o‘tkazilayotgan axborotning tabiatiga ko‘ra analogiyaning ikki turi farqlanadi: xususiyatlar analogiyasi va munosabatlar analogiyasi.

Xususiyatlar analogiyasida ikki yakka predmet yoki bir turdagi ikki predmetlar sinfi o‘xshash belgilariga ko‘ra o‘zaro taqqoslanadi. O‘xshash belgilarga asoslanib, birida mavjud bo‘lgan belgining boshqasida ham bo‘lishi mumkinligi haqida xulosa chiqariladi.

O‘xshatilayotgan predmetlarni A va V harflari bilan, belgilarni a, v, s harflari bilan ifoda qilsak, xususiyatlar analogiyasini quyidagi formula orqali ifodalash mumkin:

$S_1 - P_1, R_2, R_3, R_4$, belgilarga ega.

$S_2 - P_1, R_2, R_3$, belgilarga ega.

¹ Абу Хомид Ғаззолий Кимиёи саодат. Т.:Адолат. 2005. -37-б.

Demak, S₂ - R₄ belgisiga ega.

Misol:

Oiladagi kelishmovchiliklar mehrni yo'qotadi, oila azolarini bebro' qiladi, ro'zg'orni bebaraka qiladi, bolalar tarbiyasiga etibor kamayadi.

Bu oila azolari bir-biri bilan doimo janjallashadi. Ular bir-biriga mehrsiz, maxallada obro'yi yo'q, ro'zg'ori bebaraka.

Demak, ular bolalar tarbiyasiga etiborsiz.

Munosabatlar analogiyasida ikki predmet o'xshashligi asosida emas, ikki predmet o'rtasidagi munosabatni o'rganish asosida boshqa ikki predmet o'rtasidagi munosabat haqida xulosa chiqariladi. Munosabatlar analogiyasini

quyidagi formula bilan ifodalash mumkin:

A – V ga, S – D ga bo'lgandek munosabatda.

Bunda A – V model, S – D prototip bo'ladi. Model va prototip o'rtasidagi munosabat asimmetrikdir, ular turli predmet sohalariga taalluqlidir. Masalan, imom G'azzoliy inson jismi va ruhi o'rtasidagi munosabatni ot va chavandoz o'rtasidagi munosabatga taqqoslab, ruh tanani boshqarishi va har ikkisining emishi bir-biridan farq qilishi haqida xulosa chiqaradi.

Analogiyaning chin bo'lish shartlari. Analogiyani turlarga ajratganda xulosaning aniqlik darajasiga ham etibor beriladi. SHu jihatdan analogiyani **qatiy (aniq), qatiy bo'lmagan, noaniq** va **xato analogiyaga** ajratamiz.

Qatiy analogiyaning o'ziga xos xususiyati shundaki, ko'chirilayotgan va o'xshatilayotgan belgilar o'rtasidagi aloqa zaruriy bo'ladi. Aniq fanlardagi modellashtirishda fikr qatiy analogiya shaklida yuritiladi.

Qatiy bo'lmagan analogiyada o'xshash bo'lgan va ko'chirilayotgan belgi o'rtasidagi zaruriy aloqa ehtimollik darajasiga ega bo'ladi. Ijtimoiy, tarixiy voqealarni o'rganishda va aniq, tabiiy fanlarda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilganda fikr yuritish qatiy bo'lmagan analogiya tarzida bo'ladi. Jaloliddin Rumiyning quyidagi fikrlarini qatiy bo'lmagan analogiyaga misol bo'ladi: "Umid va kutmoq insonning qanotidir. Qanotlar qanchalik baquvvat va sog'lom bo'lsa, u shunchalik yuksakka ucha oladi. Umidsiz qolsa-chi, tamballashadi, o'zi xayr qilolmagani etmaganidek, bandalik vazifalarini ham ado etolmaydi."¹

Noaniq analogiyada xulosaning chinligini ham, yolg'onligini ham aniqlab bo'lmaydi. Masalan:

Xorijga ishlagani ketgan tanishlarim yaxshi yashayapti, ko'p pul topayapti, uyidagilariga pul yuborayapti.

Men ham xorijga ishlagani borsam, yaxshi yashayman va ko'p pul topaman.

Demak, men ham uydagilarga ko'p pul yuboraman.

¹ Жалолиддин Румий. Ичиндаги ичингдадир Т.: Янги аср авлоди. 2003.- 76-б.

Xulosaning noaniq bo'lishiga sabab, ko'chirilayotgan belgi (yaxshi yashash, ko'p pul topish) xorijga ishlagani boradiganlar uchun zaruriy emas.

Xato analogiyada tasodifiy belgilar zaruriy, doimiy xolat sifatida asos qilib olinadi. Masalan:

Avvalgi kuni behosdan tuz to'kilib ketgani uchun uyda janjal bo'ldi.

Hozir ham tuz to'kilib ketdi.

Demak, yana janjal bo'ladi.

Analogiya bo'yicha chiqariladigan xulosaning aniqlik darajasini oshirish uchun, yani xulosaning chin bo'lish ehtimolini oshirish uchun malum shartlarga rioya qilish zarur. Bular quyidagilardan iborat:

1. Taqqoslanayotgan predmetlarning o'xshash belgilari imkoni boricha ko'proq aniqlanishi lozim. SHunda xulosaning chinlik darajasi, chin xulosa chiqarish imkoni ortadi.

2. Taqqoslanayotgan predmetlarning o'xshash belgilari predmetlar uchun muhim belgilar bo'lishi kerak. SHunda xulosa chin fikrga yaqinlashadi.

3. Taqqoslanayotgan predmetlarning ko'chirilayotgan belgisi bilan boshqa belgilari zaruriy aloqada bo'lishi kerak. SHunda xulosaning ishonarli, aniq bo'lish shartlari bajarilgan bo'ladi.

4. Taqqoslanayotgan predmetlarning ko'chirilayotgan belgisi bilan o'xshash belgilari bir turda bo'lishi kerak.

5. Taqqoslanayotgan predmetlarning farq qiluvchi belgilari miqdori kam bo'lishi va bu belgilar zaruriy, muhim bo'lmasligi shart. Agar predmetlar muhim, zaruriy belgilari bilan bir-biridan farq qilsa, analogiyaning xulosasi xato bo'ladi.

YUqoridagi qoidalarning buzilishi analogiya usuli orqali chiqarilgan xulosaning xato bo'lishiga sabab bo'ladi.

5.Fikr yuritishda mulohazalarni qurish va xulosa chiqarish bilan bog'liq xatolar.

Mulohazalar bilan bog'liq xatolar.

Mulohazalarni tushunchalarning mantiqiy bog'lanishi deb qarash mumkin. Mulohazalar tarkibidagi tushunchalarning aniq bo'lishi ularning to'g'ri va chin bo'lishi uchun muhim ahamiyatga ega. Malumki, mantiqiy ega va mantiqiy kesim mulohazalarning tarkibiy qismlari bo'lib, ularning o'zaro mantiqan to'g'ri bog'liqligi ham fikrning to'g'ri va chin bo'lishini taminlaydi. Quyidagi xolatlarda mulohaza yolg'on hisoblanadi:

1. Mantiqiy kesimda mantiqiy egaga xos bo'lmagan hususiyat tasdiqlansa (masalan, uchburchak burchaklarining yig'indisi 360^0 ga teng);

2. Mantiqiy kesimda mantiqiy egaga xos bo'lgan hususiyat inkor qilinsa (masalan, mavali daraxtlar bahorda gullamaydi);

3. Juziy chin bo'lgan mulohaza bazi xolatlarda umumiy deb qabul qilinsa (masalan, "Bazi o'quvchilar masuliyatsiz" mulohazasini "Hamma o'quvchilar masuliyatsiz" mulohazasi bilan almashtirilsa).

Xulosa chiqarish bilan bog'liq xatolar.

Fikr yuritish jarayonida eng ko‘p uchraydigan mantiqiy xatolar xulosa chiqarish bilan bog‘liq. Bunga sabab xulosa chiqarishning har bir turiga xos bo‘lgan qoidalarni bilmaslikdir. SHunday xatolardan bazilarini ko‘rib chiqamiz.

Umumiy mulohazalarga asoslanib (sillogistik) xulosa chiqarishda keng tarqalgan xatolardan biri sillogizm I figurasining qoidasi buzilishining natijasida vujudga keladi. Bunga ko‘ra I figura bo‘yicha kichik asos inkor mulohaza bo‘lganda hosil qilingan xulosa noaniq (ko‘pincha xato) bo‘ladi. Masalan:

Hamma advokatlar yuristdir.

Bu kishi advokat emas.

Bu kishi yurist emas.

Xulosaning noaniq bo‘lishiga sabab, yuristlar faqat advokat emas, balki o‘qituvchi yoki olim bo‘lishlari ham mumkin.

YAna bir xato sillogizm II figurasini qoidasi buzilishining natijasida vujudga keladi. Masalan:

Hamma okulistlar shifokordir.

Bu ayol shifokor.

Bu ayol okulistdir.

SHifokorlar faqat okulist (ko‘z shifokori) emas, balki stomatolog, kardiolog, xirurg bo‘lishlari ham mumkin.

YAkka mulohazalarni umumlashtirib (induktiv) xulosa chiqarishda eng ko‘p uchraydigan mantiqiy xato “undan keyin, demak, shu sababga ko‘ra”, deb ataladi. Bu xato oldinma-ketin kelgan hodisalarning hammasida avvalgisi sabab, keyingisi oqibat bo‘ladi degan fikrga asoslanish natijasida yuzaga keladi.

O‘xshatish (analogiya)ga asoslanib xulosa chiqarilganda, taqqoslanayotgan hodisalarning nomuhim belgilari asos qilib olinsa, mantiqiy xatoga yo‘l qo‘yiladi. Masalan:

Aziza va Robiya bir sinfda o‘qiydi, yoshlari va bo‘ylari teng.

Aziza ingliz tilini yaxshi biladi.

Demak, Robiya ham ingliz tilini yaxshi biladi.

YUqorida ko‘rsatilgan mantiqiy xatolarga yo‘l qo‘ymaslik uchun quyidagi qoidalarga amal qilish zarur:

1. Mantiqiy kesimda mantiqiy egaga xos bo‘lgan hususiyat doimo tasdiqlanishi shart;
2. Mantiqiy kesimda mantiqiy egaga xos bo‘lmagan hususiyat doimo inkor qilinishi shart.

12-mavzu. Argumentlash va bilimlar taraqqiyotining mantiqiy shakllari

1. Asosli muhokama yuritish (argumentlash)ning mantiqiy asoslari: isbotlash va rad etish.

Inson kundalik muloqotida dalillash, isbotlash tushunchalarini ko‘pincha bir xil manoda, sinonim tushunchalar sifatida qo‘llaydi. Aslida ular mazmuniga ko‘ra o‘zaro yaqin bo‘lgan va xajmiga ko‘ra bo‘ysunish munosabatidagi tushunchalardir. Dalillash xajmiga ko‘ra keng tushuncha bo‘lib, isbotlash tushunchasi unga bo‘ysunadi. Dalillash argumentlash tushunchasi bilan ekvivalentdir.

Argumentlash – (lot. *argumentatio* – dalil, argument keltirish) ilgari surilgan fikrga nisbatan boshqa tomon (auditoriya, yakka shaxs va b.)ning ijobiy munosabatini (maqullashi, qabul qilishi) shakllantirish maqsadida dalillar, argumentlarni keltirish. Argumentlashning maqsadi – ilgari surilgan xolatlarning auditoriya tomonidan qabul qilinishiga, konstruktiv munosabatlarning shakllanishiga erishishdir; auditoriyani uning etiboriga xavola qilinayotgan xolatning, fikrning adolatli ekanligiga ishontirishdir, uni shu fikrni qabul qilishiga va shunga muvofiq harakat qilishiga erishishdir. Argumentlashda “haqiqat-yolg‘on”, “ezgulik-yovuzlik” dilemmalari muhim emas. Muhimi, ilgari surilgan fikrga nisbatan ishonchni shakllantirish, ishontirishdir. Tinglovchilar yoki kuzatuvchilarni ishontirish, e‘tiqodini shakllantirish uchun nafaqat verbal (nutq orqali), balki noverbal (harakat, yuz ifodasi, ko‘rgazmali vositalar va b.) usullardan ham foydalaniladi. Argumentlashning tarkibida tezis – mulohaza yoki mulohazalar tizimi va dalil yoki argument – tezisni asoslash uchun keltirilgan fikr, mulohazalar ajratiladi. Argumentlash til vositasida tasir qilish bo‘lib, biron-bir fikrni maqullash yoki rad etish uchun dalillar, argumentlarni o‘z ichiga qamrab oladi. U avvalo inson ongiga qaratilgan bo‘lib, inson o‘ylab, bu fikrni qabul qilishi yoki rad etishi mumkin. Argumentlashga quyidagilar xos:

- argumentlash hamma vaqt til vositasida amalga oshiriladi;
- argumentlashning vazifasi kimningdir e‘tiqodini, ishonchini kuchaytirish yoki susaytirishga yo‘naltirilgan faoliyatdir;
- argumentlash ijtimoiy faoliyatdir, chunki u faqat insonga va insonlarga qaratilgan bo‘lib, boshqa tomonning keltirgan dalillariga o‘zining faol munosabatini bildirishni - dialogni nazarda tutadi;
- argumentlash retsipientlarning aqliy faolligini, yani argumentlarni o‘ylab qabul qilishi yoki qarshi chiqishini nazarda tutadi.

Argumentlashning tuzilishi va usullari bilan tanishishdan avval isbotlash va rad etishning mohiyati, tuzilishi, usullari va qoidalarini bilib olish zarur, chunki ular argumentlashning hususiy ko‘rinishidir.

Isbotlash – bir mulohazaning chinligini u bilan bog‘liq boshqa chin mulohazalar yordamida asoslashdan iborat bo‘lgan mantiqiy amal. Uning tarkibi uch elementdan tashkil topgan: tezis, argumentlar (asoslar), isbotlash usuli – demonstratsiya.

Tezis – chinligi asoslanishi lozim bo‘lgan mulohaza, u isbotlashning markaziy figurasi hisoblanadi; butun diqqat-etibor uning chinligini ko‘rsatishga

qaratiladi. Tezis bir mulohazaning o'zidan, yoki mulohazalar tizimi, yoki teoremlar, yoki aniq faktlarni umumlashtirish natijalari, yoki hodisalarning sababini ko'rsatuvchi mulohazalardan iborat bo'ladi.

Argumentlar – (lot. *argumentum* – isbot asosi) – dalillanishi (isbotlanishi) talab qilingan tezis (mulohaza, nazariya)ni asoslash uchun keltiriladigan bir yoki undan ortiq mulohazalardir.

Isbotlash usuli – demonstratsiya tezis bilan argumentlar o'rtasidagi mantiqiy aloqadan iborat. U xulosa chiqarish shaklida bo'ladi, yani tezis argumentlardan xulosa sifatida mantiqan keltirib chiqariladi.

Argumentlash (isbotlash)ning ikki turi mavjud: bevosita isbotlash, bivosita isbotlash.

Bevosita argumentlash (isbotlash)da tezisning chinligi to'g'ridan-to'g'ri argumentlar bilan asoslanadi, unda tezisga zid bo'lgan mulohazalardan foydalanilmaydi. Tezis ko'p hollarda yakka hodisani ifoda qilib keladi va malum bir umumiy bilimdan, masalan, qonundan argument sifatida foydalanilib, uning chinligi asoslanadi. Masalan, «O'zbekiston – mustaqil davlatdir», degan mulohaza (tezis)ning chinligi «O'zbekistonning mustaqil davlat deb elon qilinishi, uning xalqaro miqyosda etirof etilishi» kabi asoslar yordamida isbotlanadi.

Bivosita argumentlash (isbotlash)da esa tezisning chinligi unga zid bo'lgan mulohazaning (antitezisning) xatoligini ko'rsatish orqali asoslanadi. Antitezis qanday shaklda ifodalangan bo'lishiga qarab apagogik isbotlash va ayiruvchi isbotlash farq qilinadi. **Apagogik argumentlash (isbotlash)** tezis (a) va antitezis (\bar{a}) o'rtasidagi munosabatga asoslanadi. Masalan, «muloqot insonlarni birlashtiradi», degan mulohazaning chinligini asoslash uchun unga zid bo'lgan «muloqot insonlarni birlashtirmaydi», degan mulohaza olinadi.

Apagogik argumentlash (isbotlash)da antitezis topilib (1-bosqich), vaqtincha chin deb qabul qilinadi va undan malum bir natija keltirib chiqariladi (2-bosqich), so'ngra bu natijalarning xatoligi ko'rsatiladi (3-bosqich) va demak, tezisning chinligi isbotlanadi.

Ayiruvchi argumentlash (isbotlash)da tezis sof ayiruvchi mulohazaning (kuchli dizyunksiyaning) bir azosi bo'lib, uning chinligi boshqa azolarining (antitezisning) xatoligini ko'rsatish orqali asoslanadi. Masalan, «Bu xatni do'stlarimdan A, yo B, yo S yozgan», degan fikr tekshirilib, «xatni B ham, S ham yozmaganligi»ligi aniqlanadi va shu tariqa «Xatni A yozgan», degan mulohazaning chinligi asoslanadi. Bu misolda isbotlash ayiruvchi – qat'iy sillogizmning inkor etib, tasdiqlovchi modusi bo'yicha qurilgan. Ayiruvchi isbotlashda barcha muqobil variantlar to'liq olingandagina xulosa chin bo'ladi, yani tezis isbotlanadi.

Raddiya. Rad etish usullari.

Raddiya – argumentlash (isbotlash)ni buzishga qaratilgan mantiqiy amal.

Birorta fikrning chinligini rad etish ayni paytda unga zid bo'lgan fikrning xatoligini ko'rsatishdan iborat bo'lganligi uchun raddiyani argumentlash (isbotlash)ning xususiy ko'rinishi, deb hisoblash mumkin. Raddiya ham argumentlash (isbotlash) kabi tezis (rad qilinishi lozim bo'lgan mulohaza), argumentlar (tezisni rad qiluvchi mulohazalar) va demonstratsiya (rad etish usuli)

dan tashkil topgan bo‘ladi. Raddiya birorta masalani muhokama qilish, yani bahs, munozara jarayonida uchraydi. Bahs qatnashchilaridan biri malum bir tezisni ilgari surib, uni himoya qilsa (proponent), boshqasi unga qarshi chiqadi (opponent). Hal qilinmagan, munozarali masalalar bo‘yicha olib boriladigan bahslar **polemika** hisoblanib, unda qarama-qarshi tezislar asoslanibgina qolmay, balki tanqidiy analiz ham qilinadi.

Raddiya uch xil usul bilan amalga oshiriladi:

I Tezisni rad etish

II Argumentlarni rad etish

III Demonstratsiyani rad etish.

I. Tezisni rad etish.

Tezisni rad etishning quyidagi usullari mavjud:

1. Faktlar orqali rad etish. Bu eng ishonchli va samarali usuldir. Bunda bo‘lib o‘tgan voqealar, statistik malumotlarga asoslanib tezis rad etiladi. Masalan, «Bu qo‘lyozma XVII asrda yozilgan», degan tezisni rad etish, yani uning noto‘g‘ri ekanligini isbotlash uchun yozuv usuli, qog‘ozning turi, qaysi alifboda yozilganligi kabi faktlarga asoslanamiz va tezisni rad etamiz.

2. Tezisdan kelib chiqadigan natijalarning xatoligini (yoki ziddiyatli ekanligini) ko‘rsatish orqali rad etish. Bunda tezisdan kelib chiqadigan natijalarning chin emasligi asoslab beriladi. Bu usul «bemanilikka olib kelish», deb ataladi. Rad etilayotgan tezis vaqtincha chin deb tan olinadi, undan kelib chiqadigan natijalar aniqlanib, bu natijalarning haqiqatga zid, noto‘g‘ri ekanligi isbotlanadi. CHin asosdan xato natija kelib chiqmaydi, aks holda bu bemanilik bo‘ladi. «Bemanilikka olib kelish» usulining formulasi quyidagicha: $(a \rightarrow b) \rightarrow ((a \rightarrow b) \rightarrow a)$

3. Tezisni antitezisni isbotlash orqali rad etish. Rad etilayotgan tezisga zid bo‘lgan yangi tezis (antitezis) olinadi va isbotlanadi. Uchinchi istisno qonuniga muvofiq, antitezisning chinligidan tezisning xatoligi keltirib chiqariladi.

II. Argumentlarni rad etish.

Tezisni isbotlash uchun opponent tomonidan keltirilgan argumentlar tanqid qilinib, ularning xatoligi yoki tezisni isbotlash uchun etarli emasligi aniqlanadi. Argumentlarning xatoligi tezisning ham xato ekanligini isbotlamaydi, bunda tezis chin bo‘lishi ham mumkin. Argumentlarni rad etish orqali tezisning isbotlanmaganligi asoslab beriladi.

III. Isbotlash usulini tanqid qilish orqali rad etish.

Rad etishning bu usulida isbotlashda yo‘l qo‘yilgan xatolar aniqlanadi. Bunda rad etilayotgan tezisning chinligi uni asoslash uchun keltirilgan argumentlardan bevosita kelib chiqmasligi asoslab beriladi. Isbotlash usulida yo‘l qo‘yilgan xato aniqlanganda tezis rad etilmaydi, uni qayta isbotlash talab qilinadi.

Rad etishning yuqorida ko‘rsatilgan usullari ko‘pincha birgalikda, bir-birini to‘ldirgan holda qo‘llanadi.

Isbotlash va rad etish qoidalari, ular buzilganda kelib chiquvchi xatolar

Tezisga aloqador qoidalar:

1. Tezis mantiqan aniq va ravshan bo‘lishi kerak. Bu qoida buzilsa, isbotlash yoki rad etish o‘zining aniq predmetiga ega bo‘lmay qoladi, uni amalga oshirishga urinish behuda ish hisoblanadi.

2. Tezis isbotlash yoki rad etish davomida boshidan oxirigacha o‘zgarmasligi kerak. Bu qoida buzilsa, «tezisni almashtirish» degan xato kelib chiqadi.

Argumentlarga nisbatan qoidalar:

1. Tezisni asoslash uchun keltirilgan argumentlar chin hukmlar bo‘lishi va bir-biriga zid bo‘lmasligi lozim.

2. Argumentlar tezisni asoslash uchun etarli bo‘lishi kerak.

3. Argumentlar tezisdan mustaqil holda chinligi isbotlangan hukmlar bo‘lishi lozim.

Isbotlash usulining qoidasi:

1. Tezis argumentlardan mantiqiy tarzda kelib chiqadigan xulosa bo‘lishi lozim. Buning uchun isbotlash yoki rad etishda xulosa chiqarish qoidalariga rioya qilish zarur.

Isbotlash va rad etish qoidalarining buzilishi mantiqiy xatolarga olib keladi va ular uch turga bo‘linadi:

I. Isbotlanayotgan tezisga aloqador xatoliklar:

1. Tezisni almashtirish. Tezis isbotlash yoki rad etish davomida o‘zgarmasligi shart, degan qoidaning buzilishi tezisning almashtirilishiga sabab bo‘ladi. Tezis ataylab yoki bilmasdan boshqa tezis bilan almashtiriladi va bunda yangi tezis isbotlanadi yoki rad etiladi. Tezis mazmunining torayishi yoki kengayishi ham bahs jarayonida tezisning o‘zgarishiga olib keladi. Masalan, respublikamiz taraqqiyoti uchun milliy mafkura, milliy g‘oyaning ahamiyati to‘g‘risidagi tezisni isbotlash davomida umuman jamiyatga mafkura kerakmi yoki yo‘qmi, degan masalani isbot etishga harakat qilinsa, unda tezisning mazmuni kengayib ketadi va tezis almashinadi.

2. Insonning shaxsiy sifatini bahona qilib tezisni almashtirish. Bahs jarayonida mavzudan chetga chiqib, opponentning shaxsiy, ijtimoiy hayoti, yaxshi fazilatlari yoki kamchiliklari xususida fikr yuritib, shu asosda tezisni isbotlangan yoki rad etilgan, deb takidlash tezisning almashinishiga sabab bo‘ladi. Bunday xatoga ataylab yo‘l qo‘yiladi. Tinglovchilarning his-tuyg‘ulariga tasir qilish orqali isbotlanmagan tezisning chin deb qabul qilinishiga urinish ham tezisni almashtirish hisoblanadi.

3. Ortiqcha yoki kam isbotlashga urinish natijasida tezisning almashinishi. Fikr ortiqcha isbotlansa, berilgan tezis o‘rniga undan kuchliroq tezisni isbotlashga harakat qilinadi. Agar A hodisadan V kelib chiqsa, lekin V hodisadan A kelib chiqmasa, unda A hodisani ifodalovchi tezis V hodisani ifodalovchi tezisdan kuchliroq bo‘ladi. Masalan, «A shaxs birinchi bo‘lib janjalni boshlamagan» degan tezis (V) o‘rniga, «A shaxs umuman janjal bo‘lgan erda yo‘q edi» degan tezisni (A) isbotlashga harakat qilinadi. Ikkinchi tezisni isbotlab bo‘lmaydi, chunki A shaxsning janjalda qatnashganligini ko‘rgan guvohlar bor.

II. Argument (asos)larga taalluqli xatolar:

1. Asoslarning xatoligi. Tezis isbotlanganda yoki rad etilganda xato argumentlarga chin deb asoslanish natijasida ataylab yoki bilmasdan mantiqiy

xatoga yo‘l qo‘yiladi. Masalan, qadimgi grek faylasufi Fales o‘z talimotini hamma narsa suvdan paydo bo‘lgan, degan fikrga asoslanib yaratgan.

2.Asoslarni avvaldan taxminlash shaklidagi xato. Tezis isbotlanmagan argumentlarga asoslansa, bunday argumentlar tezisning chinligini isbotlamaydi, balki tezisning chinligi taxminlanadi, xolos.

3.«Aylanma isbot etish» deb nomlanuvchi xato. Tezisning chinligi argumentlar orqali, argumentlarning chinligi tezis orqali isbotlansa mantiqiy xatoga yo‘l qo‘yiladi. Masalan, «So‘zning qudrati fikr bilan o‘lchanadi», degan tezisni «Fikrning qudrati so‘z bilan o‘lchanadi», deb isbotlasak, yuqorida aytilgan xatoga yo‘l qo‘yiladi.

III. Isbotlash usuli (demonstratsiya) bilan bog‘liq xatolar.

1.«YOlg‘on (soxta) isbotlash». Agar tezis uni isbotlash uchun keltirilgan argumentlardan bevosita kelib chiqmasa, mantiqiy xatoga yo‘l qo‘yiladi. Bunda tezisga aloqador bo‘lmagan argumentlarga asoslaniladi. Masalan, «A shaxs yomon odam», degan tezis «Tunda yomon odamlargina ko‘chada yuradi», «A shaxs ko‘chada tunda yuribdi» degan argumentlar bilan asoslansa, fikr yuzaki (soxta) isbotlangan bo‘ladi.

2.SHartlangan fikrdan shartlanmagan fikrga o‘tish. Muayyan vaqt, munosabat doirasida chin bo‘lgan (shartlangan) fikrni, doimiy, o‘zgarmas chin fikr deb qabul qilish natijasida mantiqiy xatoga yo‘l qo‘yiladi.

3.Xulosa chiqarish qoidalarining buzilishi bilan bog‘liq bo‘lgan xatolar.

2. Argumentlashning strategiyasi va taktikasi. Fikrni asoslashda uchraydigan xatolar.

Argumentlashning strategiyasi – argumentlashning maqsadi bo‘lib, ishontirish, g‘alaba qozonish, kelishish, echimni topish, o‘ziga nisbatan ishonchni mustahkamlash va shu kabilarda namoyon bo‘ldi. Mantiq qonunlari, isbotlovchi muhokama yuritish argumentlashning strategik prinsiplari hisoblanadi. Konkret vaziyatga mos bo‘lgan kommunikativ modelni tanlash ham argumentlashning strategiyasiga kiradi. Argumentlashning strategiyasi ishtirokchilarning maqsadi orqali aniqlanadi. SHunga ko‘ra haqiqatga, ishonchni shakillantirishga, g‘alabaga va kelishuvga qaratilgan strategiyalarni farqlash mumkin. Bazan bu strategiyalar birlashib ketishi kuzatiladi.

Argumentlash strategiyasi maruza, suhbat, dialog, bahs-munozara, yozma argumentlash, o‘zi uchun argumentlashda turli xil bo‘ladi. Argumentlash strategiyasini belgilab olganda argumentlovchi dalillar asosiy va qo‘shimcha turlarga ajratiladi, asosiy dalillar etarli bo‘lmasa qo‘shimchalaridan foydalanish yoki asosiy dalillar etarli bo‘lsa, qo‘shimchalarini qo‘llamaslik rejalashtiriladi.

Argumentlashning taktikasi deb, argumentlarni eng unumli qo‘llash usuli; raqibning qarshi argumentlariga munosabat shakli; argumentlashning strategik maqsadlariga erishish uchun qo‘llaniladigan usul va vositalar majmuiga aytiladi.

Argumentlashning taktikasi turli usullarni o‘z ichiga oladi:

- argumentlarni tanqid qilish. (opponentning yolg‘on tezisini ishonchli faktlar bilan rad etish);

- dushmanning qurolini o‘ziga qarshi qo‘llash prinsipi (opponentning fikrlarini o‘ziga qarshi ishlatish);
- isbotlash yukini raqibiga ag‘darish (haqiqat sukut saqlashdadir);
- pala-partish so‘zlash;
- hamma narsani rad etib, o‘zini aqlli ko‘rsatish;
- “bemanilikkka olib kelish” usuli (opponentning fikri bemani ekanligini istehzo va kinoya bilan isbotlash);
- “shaxsga murojat qilish” (tezisni almashtirish);
- bumerang usuli (qarshi tomonning argumentini o‘ziga qaytarib qo‘llash);
- isbotlash usulini rad etish;
- savollar xujumini uyushtirish va b.

Bahsda qo‘llaniladigan hiylalar:

- yolg‘on uyatga qo‘yish (opponentning atrofdagilar oldida obro‘si to‘kilishdan xavotirlanishni bilib, undan foydalanish);
- argumentlarni “yog‘lash” (opponentga oshkora xushomadgo‘ylik qilish);
- yosh, malumot va mavqeni pesh qilish (masalan, avval diplom oling, keyin gapiring);
- gapni boshqa tomonga burish;
- qatiy oxangda so‘zlash;
- ataylab bahsni to‘xtatish va b..

Fikrni asoslashda uchraydigan xatolar turli-tuman bo‘lib, ulardan bazilarini ko‘rib chiqamiz.

Cofizm so‘zi “ayyorlik”, “soxta donolik” degan manolarni bildiradi. Bunday ishlar bilan shug‘ullanuvchilar, yani rostni yolg‘on, yolg‘onni rost deb tasdiqlovchi, o‘zini dono, boshqalarni esa nodon qilib ko‘rsatuvchi kishilar sofistlar-safsatabozlar deb ataladi. Sofistlar chin fikrni xato, xato fikrni esa chin deb isbotlovchi kishilar bo‘lib, o‘z maqsadlarini amalga oshirishda o‘ziga xos isbotlash usullaridan foydalanadilar.

Farobiy “Falsafatu Aristutolis” nomli risolasida safsatabozlar qo‘llaydigan quyidagi olti usulni ko‘rsatadi: “1) tanbeh berish; 2) dovdiratish; 3) tuxmat qilish; 4) nutqda duduqlanishga majbur qilish; 5) bemani narsalardan foydalanish, safсата; 6) suhbatdoshga so‘z bermaslik”. Sofistik muhokamalarga chalkashtirish, yanglishtirish, aldash, noto‘g‘rini to‘g‘ri, to‘g‘rini noto‘g‘ri deb bilish xosdir.

Sofistik muhokamalar so‘zlovchi va tinglovchi orasidagi fikr almashinish jarayonida, suhbat va bahs yuritishda qo‘llaniladi. Bunday muhokamalardan maqsad suhbatdoshining yolg‘on gapirayotganligini ko‘rsatish, uning fikrini yuzaki rad etgan holda, hamma tomonidan qabul qilingan fikrlarga nisbatan zid fikrga olib kelish, fikrini chalkash bayon qilishga va (suhbatdoshini) xadeb bir fikrni qayta takrorlashga (ezmalik qilishga) majbur etishdir. Sofistlar o‘z maqsadlarini amalga oshirishda insonning ruhiy holatidan, tafakkurida o‘rnashib qolgan fikrlaridan, odatlaridan, shuningdek biror g‘oyaning tarafdori ekanligidan ustalik bilan foydalanadilar. Masalan, . “Kal” sofizmi:

-Agar odamning boshidan bir dona soch tolasi to‘kilsa, u kal bo‘ladimi?

-Yo‘q.

-O‘n dona to‘kilsa-chi?

- Kal bo‘lmaydi.

-Bittadan boshdagi hamma sochlar to‘kilgandachi?

-Unda kal bo‘ladi.

-Sen o‘z so‘zingga o‘zing qarshi chiqayapsan. Hozirgina bitta sochi to‘kilsa kal bo‘lmaydi degan eding. Bu sofizmda bir dona soch tolasining to‘kilishi bilan bittadan hamma soch tolasining to‘kilishi bir xodisa deb ko‘rsatiladi.

Bahs-munozara jarayonida mantiqiy qonun-qoidalarning buzilishi bilan bog‘liq bo‘lgan va bilmasdan yo‘l qo‘yilgan mantiqiy xato – paralogizmlar deb ataladi. Masalan: “Missioner” paralogizmi. Bir missioner (dinni targ‘ib qiluvchi odam) kannibal (odamxo‘r)lar orasiga tushib qolibdi. Kanniballar uni qanday qilib eyish masalasida bahslashib qolishibdi. Bazilari qovurish kerak desa, boshqalari qaynatish kerak debdi. O‘zaro kelisha olmay bir qarorga kelishibdi. Ular missionerga: “Sen biror gap aytgin. Agar gaping to‘g‘ri bo‘lsa, seni qaynatib, noto‘g‘ri bo‘lsa, qovurib eymiz” - deyishibdi. Missioner ularga “Meni qovurib eysizlar”- deb javob beribdi.” Missionerning javobi kanniballarning o‘zaro tortishuviga sabab bo‘libdi. CHunki qovirib esalar, u to‘g‘ri gapirgan bo‘ladi va uni qaynatish kerak bo‘ladi. Agar qaynatib esalar, unda noto‘g‘ri gapirgan bo‘ladi va shartga muvofiq uni qovurish kerak bo‘ladi. Kanniballarning tortishuvidan foydalangan missioner qochib qutilibdi.

CHinligini ham, xatoligini ham birdek isbotlash mumkin bo‘lgan fikrlarga esa paradoks deyiladi. Masalan, “Buning isboti yo‘qligi isbotlangan”, “Hech qachon “hech qachon” so‘zini aytma”, “O‘yinning faqat bitta qoidasi bor, u ham bo‘lsa, hech qanday qoida yo‘q.”

YUqorida qayd etilgan holatlarni bilib olish insonga bahs- munozara jarayonida dadil ishtirok etib, o‘z qarashlarini ximoya qilishga, mustaqil nuqtai nazarga ega bo‘lishga va boshqalarning zararli tasirlaridan saqlanishga yordam beradi.

3. Bilimlar taraqqiyotining mantiqiy shakllari: muammo, gipoteza, nazariya.

Bilish jarayonida inson voqea va hodisalarning mohiyatini tushunib boradi. Inson qancha ko‘p bilimga ega bo‘lmasin, bilmagan narsalari undan ham ko‘proq bo‘ladi. Bilmagan, nomalum narsalarni bilish uchun hamma vaqt ham mavjud tasavvurlar, prinsiplar etarli bo‘lmaydi. Bilish jarayonida mavjud bilimlarimizning erishgan darajasi bilan yangi bilish vazifalarini hal qilish zaruriyati o‘rtasida ziddiyat kelib chiqadi, muammoli vaziyat paydo bo‘ladi. Bunday ziddiyatlar, ayniqsa, kundalik hayotimizda murakkab vazifalarni hal qilish, fanda esa tub burilishlar davrida yaqqol namoyon bo‘ladi. Masalan, kompyuter viruslariga qarshi ximoya tizimini yaratish shunday muammolardan hisoblanadi. Meditsina sohasida rak kasalligini davolash, avtomobilsozlikda yoqilg‘ini tejevchi vositalarni ixtiro qilish, ekologiya bilan bog‘liq muammolar va boshqa sohalarga oid muammolar

mavjud. Hozirgi kunda bu muammolarni hal qilish uchun mavjud qonun va prinsiplarning etarli emasligi, fanda yangi izlanishlar olib borishni talab qilmoqda.

Ilmiy bilishda muammoli vaziyatni fan taraqqiyotining ichki ehtiyojlari ham keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, hozirgi vaqtda matematikada to'plam nazariyasi bilan bog'liq muammolarni hal qilish zaruriyati bunga misoldir.

Demak, muammoli vaziyat mavjud ilmiy tasavvurlar bilan qayd qilingan yangi faktlar o'rtasidagi ziddiyatning paydo bo'lishi yoki ana shu ilmiy tasavvurlar etarli darajada tizimga solinmaganligi, yaxlit bir talimot sifatida asoslanmaganligi natijasidir.

Mana shundan kelib chiqib, **muammoli vaziyat** bilish taraqqiyotining turli bosqich va bo'g'inlarida olam hamda uni bilish haqidagi mavjud tasavvurlarni, bilish metodi va vositalarini o'zgartirishning obektiv zaruriyatidan iborat, deyish mumkin.

Muammoni qo'yish va hal etish

Muammo – javobi bevosita mavjud bilimda bo'lmagan va echish usuli nomalum bo'lgan savoldir.

SHuning uchun ham muammoni qo'yish va hal qilish mavjud bilimlarni qayta ishlash, bazi hollarda esa, hatto, ular doirasidan chetga chiqishni, yangicha echish usuli, metodlarini qidirib topishni taqozo etadi. Qanday muammolarni ilgari surish va muhokama qilish xususiyatini amaliy faoliyatimiz va bilishimiz ehtiyojlari belgilab beradi.

Ko'lamiga ko'ra shaxsiy, xududiy, bir davlat yoki bir necha davlat miqyosidagi va umuminsoniyat muammolarini ajratish mumkin. Bu muammolarni muvaffaqiyatli hal qilishning zarur shartlaridan biri uni to'g'ri qo'yish va aniq bayon qilishdan iborat. To'g'ri qo'yilgan savol muammoning yarim echimi hisoblanadi. Muammoni to'g'ri qo'yish uchun muammoli vaziyatni aniq tasavvur qilishning o'zi etarli emas. Har qanday muammoning echimi ilmiy asoslangan bo'lishi kerak. Buning uchun muammoni hal qilishning turli xil usullari va vositalarini ham oldindan ko'ra bilish muhim ahamiyatga ega.

Muammolarni qo'yishda kishilarning hayotiy tajribasi, bilimlari va qobiliyati muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Odatda, ko'p hollarda yangi muammolar ilmiy bilishning u yoki bu sohasining yirik mutaxassisleri, boy tajribaga ega va chuqur bilimli olimlar tomonidan ilgari suriladi hamda ular bazan uzoq yillar davomida tadqiq qilinadi. Buni, masalan, milliy manaviyatimizga yot g'oyalarning yoshlar ongiga salbiy tasiri muammosining qo'yilishi va tadqiq etilishi misolida ko'rish mumkin. Malumki, OAV, Internetdagi ayrim malumotlar endigina manaviy olami shakllanayotgan, shaxsiy tajribasi haqiqatni yolg'on, uydirmadan farqlashga etarli bo'lmagan yoshlarda hayotiy tushunchalarning shakllanishiga salbiy tasir ko'rsatmoqda. YOsh avlod manaviy olamining daxlsizligini asrash jamiyatimiz oldida turgan muammolardan biridir. Bu muammo faylasuflar, gumanitar fan vakillari tomonidan tadqiq etilmoqda.

Muammoli vaziyatni tahlil qilishga turli xil tomondan yondashish mumkin bo'lganligi uchun ham hal qilinishi lozim bo'lgan vazifa turli xil muammolar tarzida bayon qilinishi mumkin. Bunda bazi muammolar asosiy vazifani ifoda qilsa, bazilari

bu vazifaning ayrim tomonlarini aks ettiradi va Shuning uchun ham juziy xususiyatga ega bo'ladi. Ko'p hollarda bir-biri bilan bog'lanib ketgan mana shunday juziy muammolar hal qilingandan keyingina asosiy muammoni aniqroq bayon qilish va echish imkoniyati vujudga keladi.

Muammolarni to'g'ri qo'yish va bayon qilish ularni echishdan kam ahamiyatga ega emas. Muammoni to'g'ri qo'yish uchun uning ilmiy bilish taraqqiyotida, jamiyat hayotida tutgan o'rni va ahamiyatini to'g'ri baholash, uni hal qilishning metodlarini topish zarur. Bu amalda qo'yilishi mumkin bo'lgan turli xil muammolar ichidan eng muhimi va to'g'risini tanlab olishni bildiradi. Muammoni tanlash malum bir darajada tadqiqotning umumiy yo'nalishi va xususiyatlarini belgilab beradi.

Oxir-oqibatda qaysi muammoni qo'yish amaliy faoliyatimiz ehtiyojlariga bog'liq. Chunki faqat amaliy faoliyatdagina kishilarning ehtiyojlari va maqsadlari bilan ularni hal qilish vositalari o'rtasidagi ziddiyat yaqqol namoyon bo'ladi, ilmiy izlanish predmeti aniqlanadi va shu asosda bilish oldiga konkret vazifalar qo'yiladi.

Ilmiy muammo, odatda, malum bir nazariya doirasida vujudga keladi va uning yordamida hal qilinadi. Bazi hollarda esa muammo mavjud nazariyani o'zgartirish va muammoni echishga moslashtirishni talab qiladi.

Muammoni echish uchun quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

a) mavjud nazariyalar doirasida tushuntirib bo'lmaydigan fakt va hodisalar aniqlanadi;

b) muammoni hal qilish g'oyalari va metodlarini tahlil qilib, ularga baho beriladi;

v) muammoni hal qilish turi, maqsadi, olingan natijani tekshirish yo'llari belgilab olinadi;

g) muammoning negizi bilan uni echish uchun ilgari surilgan g'oyalar o'rtasidagi aloqaning xususiyatlari ko'rsatiladi.

Bu ishlar amalga oshirilgandan keyin bevosita muammoni echishga kirishiladi.

Barcha muammoning echilishi nisbiy xususiyatga ega. Boshqacha aytganda, muammoning mutlaq to'la echimini topish qiyin. Chunki o'rganilayotgan hodisaning barcha tomonlarini qamrab olib bo'lmaydi. Shuning uchun ham ilmiy izlanish davomida yangi muammolar vujudga kelishi mumkin bo'lib, u mavjud muammoni boshqacha talqin qilishni taqozo etadi.

Bazi hollarda muammolarning echimini uzoq vaqtgacha topib bo'lmaydi. Masalan, rak kasalining sababini o'rganish bilan bog'liq muammo hozirgacha to'la hal bo'lmagan.

Bu, albatta, ayrim muammolar butunlay echimiga ega emas, degan fikrni bildirmaydi, balki ularni mavjud metodlar, vositalar yordamida echib bo'lmalikni ko'rsatadi xolos, va shu tariqa echishning yangi vositalarini qidirib topishga undaydi. Demak, muammo hal qilinmaguncha ilmiy izlanish davom etadi.

Gipoteza (faraz) - bilimlarning mavjud bo'lish va taraqqiy etish shakli. Muammoni hal etish jarayonida malum bir gipotezalar ilgari suriladi va asoslanadi.

Gipoteza (faraz) – o‘rganilayotgan hodisaning sabablari va xususiyatlarini tushuntiruvchi asosli taxmin tarzidagi bilim shaklidir.

Hodisaning sababi haqidagi fikr dastlab, odatda, gipoteza shaklida vujudga keladi va shu manoda u bilimlarning mavjud bo‘lishining umumiy mantiqiy shakllaridan biri hisoblanadi. CHin, ishonchli bilimlar hosil bo‘lgunga qadar qo‘yilgan muammolar, masalalar haqidagi fikr-mulohazalar kuzatish, eksperiment natijalarini tahlil qilish va umumlashtirishga asoslangan bo‘lib, ular turli xil taxminlar, farazlar shaklida mavjud bo‘ladi.

Gipotezani qurish o‘rganilayotgan hodisani tushuntiruvchi taxminiy fikrlarni ilgari surishdan iborat bo‘ladi. U qayd etilgan faktlar, ular uchun xarakterli bo‘lgan qonuniyatlar haqidagi mulohazalar yoki mulohazalar tizimi tarzida bo‘ladi. Uni ifoda qiluvchi asosiy gap mulohazalar sistemasini hosil qiluvchi element, deb hisoblanadi. Ana shu gap (mulohaza)da, odatda, gipotezaning bosh g‘oyasida aks etadi. Muhokama jarayoni uning negizida, atrofida quriladi va malum bir ishchi gipotezalar – vaqtinchalik, mo‘ljalni to‘g‘ri olishga yordam beradigan taxminlarning ilgari surilishiga, ular yordamida hodisaning yanada chuqurroq tadqiq qilinishiga olib keladi.

Gipotezalarni ilgari surishning asosiy mantiqiy vositasi ehtimoliy xulosa chiqarish hisoblanadi. SHuningdek, gipoteza bazi hollarda qat’iy xulosa chiqarish shakllarida ham ilgari surilishi mumkin.

Gipotezada ilgari suriladigan mulohaza empirik materiallarni tahlil qilish, qayta ishlash, tartibga keltirish, umumlashtirish, talqin etish natijasida paydo bo‘ladi. Ana Shuning uchun ham gipoteza – bu har qanday taxmin emas, balki o‘zining muayyan mantiqiy kuchiga ega mulohaza, malum bir darajada asoslangan farazdir.

Ilgari surilgan gipoteza, albatta, asoslanishi zarur. Bu bosqichda gipotezadan malum bir natijalar keltirib chiqariladi va ularning mavjud faktlarga (yoki boshqa ishonchli bilimlarga) muvofiqligi aniqlanadi.

Gipoteza rad qilinishi ham mumkin. Bu gipotezadan kelib chiqadigan natijalarning mavjud faktlarga nomuvofiqligini ko‘rsatish orqali amalga oshiriladi.

Gipotezaning natijalarini topa olmaslik, bu gipotezaning mavqeini ancha pasaytirsa-da, lekin uni rad eta olmaydi. Gipotezaning chinligi undan kelib chiqadigan natijalarga zid bo‘lgan holatlar aniqlangandagina uzil-kesil rad etiladi. Masalan, Ptolomeyning Erning harakatlanmaydigan markaz ekanligi haqidagi gipotezasi Kopernikning geliotsentrik nazariyasi asoslanadigan faktlarga zid kelganidan keyin rad etildi.

SHuni alohida takidlash zarurki, o‘rganilayotgan hodisa haqida bir vaqtning o‘zida bir qancha gipotezalar ilgari surilishi mumkin. Gipoteza tasdiqlanmaguncha o‘zining bilishdagi ahamiyatini yo‘qotmaydi. Rad etilsa, o‘rniga boshqa gipoteza quriladi va bu hol to gipotezalardan birortasi tasdiqlanmaguncha, yani muammoning echimi topilmaguncha davom etadi.

Ilgari surilayotgan gipotezalar turli xil darajada umumlashgan bo‘lishi mumkin. Ana shunga muvofiq holda umumiy va juziy gipotezalarni ajratish mumkin.

Umumiy gipoteza deb tabiat, jamiyat, bilish hodisalarining qonuniyatlari haqida bildirilgan asosli taxminga aytiladi.

Juziy (xususiy) gipoteza ayrim faktlar, konkret predmet va hodisalarining kelib chiqishi, xususiyatlari haqidagi bildirilgan asosli taxminiy fikrdan iborat. Arxeologik qazishlarda topilgan predmetlarning tabiati, qaysi davrlarga oid ekanligi haqidagi taxminlar juziy gipotezaga misol bo'ladi.

Mantiqda ishchi gipotezalar ham farq qilinadi.

Ishchi gipoteza tadqiqotning dastlabki bosqichida ilgari suriladigan taxmin bo'lib, o'z oldiga o'rganilayotgan hodisaning sababini aniqlashni maqsad qilib qo'ymaydi; u faqat kuzatish va eksperiment natijalarini tasvirlashga, tartibga solishga yordam beradi.

SHunday qilib, gipoteza muammoning echimini topish uchun xizmat qiladigan fikrlarning, bilimlarning mavjud bo'lish va rivojlanish shaklidir.

Nazariya bilimlarning mantiqiy tizimi sifatida. Har bir fan sohasida turli nazariyalar mavjud bo'ladi. "Nazariya" atamasi keng manoda amaliyotdan farq qiluvchi aqliy faoliyat turini ifodalaydi. Tor manoda esa, nazariya malum bir sohaga oid tasavvurlar, tushunchalar, g'oyalalar, gipotezalarni tizimga soladigan, shu sohani yaxlit tarzda anglashga imkon beradigan bilim shaklidir. Nazariya ilmiy bilishning shakli sifatida empirik va nazariy bosqichlarning birligini ifodalaydi.

Empirik bosqichda ilmiy faktlar to'planadi, o'rganiladi, tizimga solinib, turli xil jadvallar, shakllar, grafiklar tuziladi; muayyan bir umumlashmalar, xususan, empirik tushunchalar, farazlar, empirik qonunlar shakllanadi.

Ilmiy bilishning keyingi taraqqiyoti empirik bilish bosqichida hosil qilingan, lekin o'zaro aloqasi hali aniqlanmagan bilimlar o'rtasida munosabatlarni o'rnatish, ularni umumlashtirish, shu asosda yangi fundamental tushunchalar, umumiy qonunlarni yaratish, ilmiy bashoratlar qilish bilan uzviy bog'liq.

Bilishning bu ikki bosqichi o'rtasida zaruriy aloqadorlik mavjud. Nazariyani yaratish empirik bilish jarayonida hosil qilingan predmetning ayrim tomonlari, xususiyatlarini aks ettiruvchi tushunchalar, qonunlar, farazlar o'rtasida mantiqiy aloqalar o'rnatishga, predmet haqida yaxlit tasavvur hosil qilish, uning mohiyatini tushuntirishga bo'lgan ehtiyoj bilan belgilanadi.

YUqoridagi fikrlarga asoslanib, nazariyaga quyidagicha tarif berish mumkin: **Nazariya malum bir predmet sohasiga oid tushunchalar, qonunlar, gipotezalar, g'oyalarni sistemaga solib, u haqida yaxlit tasavvur hosil qiladigan, yangi fundamental umumlashmalar yaratishga olib keladigan, shu sohadagi hodisalarni tushuntirish, oldindan ko'rish imkonini beradigan ishonchli bilimdan iborat.**

Har bir nazariya o'z tushunchalari va tariflash qoidalariga ega. Bunga misol qilib ximiya fanidagi atom, molekula, ishqor kislota kabi tushunchalarni olishimiz mumkin. Xuddi shuningdek, har qanday nazariya xulosalar tarzidagi o'z natijalariga ega. Demak, ilmiy nazariyaning tarkibida uning har bir elementi o'z o'rniga ega.

Muammoni aniqlash va echimini asoslashda savol-javobning o'rni. Inson dunyoqarashini kengaytiruvchi va chuqurlashtiruvchi eng asosiy vositalardan biri - savol-javob (dialog)dir. Savol-javobni tashkil eta bilish insonda voqelikka mos

(adekvat) tushunchalarning shakllanishiga, mulohazalarini to‘g‘ri qurishga va xulosa chiqarishga o‘rgatadi.

Savol-javob, dialog erotematik (grek. *erotematikos* – savol shaklida) mantiqda o‘rganiladi. Savol mantiqiy reallikning o‘ziga xos alohida ko‘rinishidir. Savol berish yani fikrni to‘g‘ri javobga yo‘naltirish sanati - tafakkurlash madaniyatining zaruriy elementidir. Mantiqan to‘g‘ri savollarni qo‘ya bilish aqllilik, farosatlilikning muhim belgisidir. Savol nima? Savol – keng manoda tafakkur shakli bo‘lib, uning yordamida qo‘yilgan maqsadlarga erishish uchun malum turdagi bilimlarning etishmaslik (tanqislik) xolati tilda ifodalanadi.¹Inson bilimi predmet va hodisalar haqida avvalgi hosil qilingan mulohazalardan yangi, ularni to‘ldiradigan, kengaytiradigan mulohazalarni yaratishga qarab taraqqiy etib boradi. Bu jarayon malum bir savollarni qo‘yish va ularga javob qidirish tarzida sodir bo‘ladi. Savol so‘roq gap yordamida ifoda qilingani uchun, undagi malumot yakunlanmagan bo‘ladi. Mulohaza va so‘roq gap bilishda turlicha vazifalarni bajaradi. Mulohazaning vazifasi predmet haqidagi mavjud bilimlarni qayd qilishdan iborat bo‘lsa, savol uning yangi xususiyatlari, aloqalarini qidirib topishga, aniqlashga, o‘rganishga qaratilgan bo‘ladi. Savollar iltimos yoki talab qilib beriladi. **Demak, savol avvaldan malum bo‘lgan axborot –asosida qo‘shimcha axborot olish uchun iltimos yoki talabni ifodalovchi nutq shaklidir.** Savolda malum bir boshlang‘ich bilim mujassamlangan bo‘ladi, yani savol berish uchun malum bilimga ega bo‘lish talab qilinadi.

Savol va javob insonlarning dialog ko‘rinishidagi muloqat shaklidir.Uning muhim funksiyalaridan biri kommunikativlikdir. Axborotni qidirish vositasi sifatida ham savolning ahamiyati beqiyosdir. Savol bo‘lmasa bilish ham bo‘lmaydi. Lingvistikadan yaxshi malumki, gapning har bir bo‘lagiga nisbatan va umuman gapning o‘ziga nisbatan savol berish mumkin. Masalan, “Professor Azlarov 314-auditoriyada fizikadan 3-kurs talabalariga maruza o‘qiydi.” Ushbu gap bo‘yicha 9ta savol tuzish mumkin. Mantiqda savollarning tasnifi lingvistik tasnifdan farq qiladi. Savollarni chin yoki yolg‘on deb tasniflash mumkin emas. Buning uchun ko‘proq o‘rinli-o‘rinsiz, manoli-manosiz, to‘g‘ri-noto‘g‘ri, to‘liq-to‘liqsiz kabi tasniflardan foydalaniladi.

Mantiqda savollar har xil asoslarga ko‘ra bir qancha turlarga bo‘linadi:

1. Oddiy va murakkab savollar. Tarkibida boshqa savol bo‘lmasa, oddiy savol, bo‘lsa – murakkab savol deb yuritiladi. Murakkab savollar o‘z navbatida qo‘shuvchi, ayiruvchi, shartli turlarga bo‘linadi. Masalan, Konsertda G‘.YOqubov bilan O.Nazarbekov ham ishtirok etdimi? Xatiga javob yozdingmi yoki yozmadingmi? Agar aytganingni qilsam, shartimga rozi bo‘lasanmi?

2. Aniqlovchi va to‘ldiruvchi savollar. Masalan, “Sen o‘qishni bilasanmi?”-degan savol aniqlovchi, “Sen qaysi qo‘shiqni kuylamoqchisan?”-degan savol to‘ldiruvchi savoldir.

¹ Федоров Б.И. Эротетическая логика. //Логика. Учебник для бакалавров. Под ред. А.И.Мигунова, И.Б.Микиртумова, Б.И.Федорова. - Москва: Проспект, 2015.С. 428-429.

3. Mantiqan o‘rinli va mantiqan o‘rinsiz qo‘yilgan savollar. Bitta bo‘lsa ham to‘g‘ri javob bersa bo‘ladigan savol mantiqan o‘rinli savoldir. Bemaniligi tufayli javobsiz qolgan savol o‘rinsiz savoldir.

4. Ilmiy va ilmiy bo‘lmagan savollar. Ilmiy savollarning remasida, malum bir kontekstda empirik yoki abstrakt obektlarning sinfini ifodalovchi, hech bo‘lmaganda bitta ilmiy termin bo‘ladi. Ilmiy bo‘lmagan savollarda bunday termin bo‘lmaydi.

Xar qanday savolda axborotni aniqlashga qaratilgan element mavjud bo‘lib uni tekshirish, baholash va faollashtirish kerak bo‘ladi. Savollarni bilib tanlash, tuzish va muayyan tartibda berish orqali muammoni xal qilish uchun yordam beruvchi sharoitni tug‘dirish va echimini tezroq aniqlashga imkoniyat yaratiladi

Javob – qo‘yilgan savolga muvofiq holda avvalgi bilimni aniqlashtiradigan, to‘ldiradigan yangi mulohazadan iborat. U savolning asosini tashkil etuvchi bilimga tayanilgan holda yangi bilim olishga imkon beradi. Javob savolda mavjud bo‘lgan noaniqlikni kamaytirish uchun xizmat qiladi. Inson o‘zining shaxsiy tajribisiga, olgan bilimlariga, dunyoqarashiga mos xolda savolga javob qidiradi. Ular etarli bo‘lmasa, bilimning konkret sohalariga, turli manbalarga murojaat qiladi. Ular javobni qidirish sohasi, deb ataladi. Mantiqda javobning bir qancha turlari ajratiladi:

1. Bevosita (aynan so‘ralgan savolga javob berish) **va bilvosita javoblar** (so‘ralgan savolga taalluqli boshqa malumotlarni qo‘shib javob berish).

2. To‘liq (savolning barcha elementlari haqida malumotlar berilgan) **va to‘liqsiz** (savolning bazi elementlari haqida malumotlar berilmagan) **javoblar.**

3. CHin (voqelikni adekvat aks ettirgan) **va xato** (voqelikni adekvat aks ettirmagan) **javoblar.**

4. Qisqa (ha, yo‘q, bilmadim) **va batafsil** (savolning har bir elementi takrorlanadigan) **javoblar.**

5. Aniq (tushunchalar, so‘zlarning mazmuni va manosi konkret va ravshan bo‘lgan) **va noaniq** (ikki xil manoli tushunchalar, so‘zlar ishlatilgan) **javoblar.**

Savol va javobga qo‘yiladigan umumiy talablar:

- Savol ham javob ham grammatik jihatdan to‘g‘ri qurilgan bo‘lishi;

- Savol ham javob ham aniq, ravshan va iloji boricha ixcham bo‘lishi;

- Savol ham javob ham etarli darajada asoslangan bo‘lishi zarur.

YUqoridagi ko‘rsatmalar bilim olish, shaxsiy va ijtimoiy munosabatlarni to‘g‘ri tashkil qilish uchun muloqot olib borishda nihoyatda ahamiyatlidir.

Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar

1. Muammoli vaziyat qanday vujudga keladi?
2. Muammo nima?
3. Muammolar ko‘lamiga ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi?
4. Muammoni xal etish uchun nima qilish kerak?
5. Gipoteza nima?

6. Nima uchun gipotezalarni mantiqiy qurish vositasi ehtimoliy xulosa chiqarish hisoblanadi?
7. Gipotezalarning qanday turlari bor?
8. Nazariya nima?
9. Nazariyaning ilmiy bilishdagi ahamiyati nimalarda ko‘rinadi?
10. Savol nima?
11. Savolning qanday turlari bor?
12. Qanday savollar ilmiy savol bo‘ladi?
13. Javobning qanday turlari bor?

Muhokama qilish uchun savollar

1. Qanday muammolarni shaxsiy muammo deb bilasiz?
2. SHaxsiy muammoingizni bir o‘zingiz xal qila olasizmi?
3. SHaxsiy, xududiy, davlatimiz va umuminsoniyat miqyosidagi muammolar o‘zaro tutashib ketishi mumkinmi?
4. Biror muammoni xal qilganingizda farazingiz to‘g‘ri chiqqanmi?
5. Ilmiy farazsiz muammoni xal qilish mumkinmi?
6. Har qanday talimot nazariya hisoblanadimi?
7. Sharq allomalarining hikmatli so‘zlari, xalq maqollari, kundalik hayot tajribasini umumlashtirib, insoniylik nazariyasini yaratish mumkinmi? Agar mumkin bo‘lsa, shu nazariyaning asosiy tushunchalari, qonunlari qanday bo‘ladi?

Topshiriqlar

1. Sizni bezovta qilayotgan muammolarni daftaringizga yozing. Muammolaringizning sababini aniqlang, ularni xal qilish uchun nimalar qilish kerakligini o‘ylab ko‘ring.

13-mavzu. “Etika” fanining predmeti va jamiyat hayotidagi ahamiyati

Axloq inson va jamiyat o‘rtasidagi obektiv aloqadorlik tufayli kelib chiqadigan, SHaxsiy va umumiy manfaatlarni muvofiqlashtirib turish asosida har bir SHaxsning hayoti va faoliyatini boshqaradigan, tartibga soladigan muayyan xulq atvor, odob, xatti-harakat prinsip va normalarning majmuidir. Inson hech qachon jamiyatdan tashqarida, yakka holda yashamaydi. U odamlar orasida o‘sadi, ulg‘ayadi, hayot kechiradi, o‘zining butun hayoti va faoliyati davomida boshqa ko‘plab insonlar bilan muloqotda bo‘ladi. Bu insonning o‘z kundalik hayotiy ehtiyojlarini qondirishi zaruriyati bilan bog‘liq. Sharq xalqlarida, asosan o‘zbeklarda insoniy munosabatlar zaminida birinchi navbatda axloq yotadi. Siyosiy, huquqiy, iqtisodiy munosabatlar zaminida ham axloqiy mezonlar ustunlik qiladi.

Axloq - manaviyatning amalda namoyon bo‘lishi. Ilm, bilim, dunyoqarash, idrok va iymon insonning xulq-atvorida o‘ziga xos tarzda aks etadi. Inson manaviyati esa axloqiy fazilatlar orqali namoyon bo‘ladi. Manaviyat - his etiladigan, anglanadigan, oqilonalikka asoslangan botiniy qudrat bo‘lsa, axloq bevosita har bir SHaxsning o‘zgalarga nisbatan manaviy munosabatini anglatadi. shu sababli axloqiy tushunchalar ayni paytda manaviy tushunchalar sifatida etirof etiladi. Zotan, axloq insof va adolat, iymoniylik va halollik, mehr va muruvvat, saxovatpeshalik va

bagʻrikenglik, rahmdillik va muruvvatlilik, mehribonlik va gʻamxoʻrlik singari manaviy tushunchalarni insonning hayotiy faoliyatida yuzaga chiqaradigan manaviy hodisadir. Zero, «Axloq ijtimoiy munosabatlar zaminida alohida SHaxs sifatida mavjud boʻlgan insonlarning oʻz-oʻzini idora qilish shakllari va meyor, oʻzaro muloqot va munosabatlarda ularga xos boʻlgan manaviy kamolot darajasining namoyon boʻlishidir»¹

Barcha davrlarda inson va jamiyat oʻrtasidagi axloqiy munosabatlar siyosiy, huquqiy, iqtisodiy mezonlar asosida boshqarilgan. Ayniqsa, Sharq xalqlarida, xususan, xalqimizning insoniy munosabatlar asosini axloq va axloqiylik tashkil etgan: siyosiy, huquqiy, iqtisodiy munosabatlar zaminida ham axloqiy mezonlar ustunlik qiladi.

Inson shaxs boʻlib tugʻilmaydi, balki jamiyat, oila va turli munosabatlar natijasida shaxs sifatida shakllanadi. Uning barkamol darajaga koʻtarilishi ham jamiyatda amalga oshadi. Inson barkamolligining eng muhim koʻrsatkichlaridan biri oʻzini oʻzi anglashi hisoblanadi, chunki oʻzini oʻzi anglamagan inson barkamol shaxs darajasiga etib kelmaydi. U oʻzini anglagandagina oʻzgalarni anglashda va turli munosabatlarda «men»ligini namoyon etadi.

«**Axloq**» - arabcha soʻz boʻlib, kishining tabiati, muomala, xulq- atvor, yurish-turish, tarbiya, adab, xatti-harakat odobi degan manolarni anglatadi². Ushbu tushuncha jamiyatning axloqiy hayotida yuz beradigan barcha jarayonlarni oʻzida mujassam etadi.

Axloq boʻlmagan joyda inson ijtimoiy shaxs sifatida shakllanmaydi. Faqat axloq zaminidagina insonlarda xayotning mazmuni va maqsadi; jamiyat oldidagi burchi va masuliyati; boshqa axloqiy tushunchalar va meyorlarga muayyan munosabat shakllanadi.

Axloqshunos olim, A.SHer axloqqa oʻzgacha tarif beradi: «Axloqni umumiy tushuncha sifatida olib, uni doira shaklida aks ettiradigan boʻlsak, doiraning eng kichik qismini odob, undan kattaroq qismini - xulq, eng qamrovli qismini axloq egallaydi.

Odob - inson haqida yoqimli taassurot uygʻotadigan, lekin jamoa, jamiyat va insoniyat hayotida burilish yasaydigan darajada muhim ahamiyatga ega boʻlmaydigan, milliy urf-odatlariga asoslangan chiroyli xatti-harakatlarni oʻz ichiga oladi.

Xulq - oila, jamoa, mahalla-koʻy miqyosida ahamiyatli boʻlgan, ammo jamiyat va insoniyat hayotiga sezilarli tasir koʻrsatmaydigan yoqimli insoniy xatti-harakatlarning majmui.

Axloq - jamiyat, zamon, bazan umumbashariy ahamiyatga ega, insoniyat tarixi uchun namuna boʻla oladigan ijobiy xatti-harakatlar yigʻindisi, insoniy kamolot darajasini belgilovchi manaviy hodisa.»³

Etika fan sifatida axloqning kelib chiqishi, mohiyati, xususiyatlari, jamiyat rivojidadagi oʻrni, taraqqiyot qonuniyatlarini oʻrganuvchi va haqiqatligi amalda

¹ Yusupov E. Inson kamolotining maʼnaviy asoslari. T.: «Universitet», 1998. B38.

² Oʻzbek tilining izohli lugʻati. J.1. - T.: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. - B.120.

³ Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. -T.: «Oʻzbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2010.B.6

isbotlangan bilimlar majmuidir. Etika fani umumiy etika nazariyasi, tarixiy etika, qadriyatlar etikasi, kasb etikasi va axloqiy tarbiya nazariyasi kabi tarkibiy qismlardan tashkil topgan.

Jumladan, etika nazariyasi axloqning tabiati, mohiyati, xususiyati, tarkibiy qismlari, jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rnini o'rganadi.

Tarixiy etika axloqning kelib chiqishini, uning tarixiy taraqqiyot qonunlarini, har xil nazariyalarning tarixdagi o'rni, rivojlanish bosqichlari va tamoyillarini tadqiq etadi.

Qadriyatlar etikasi axloqiy meyorlarni axloqiy meros sifatida shakllanishi hamda avloddan-avlodga o'tib kelayotgan axloqiy qadriyatlar tizimini o'rganadi.

Kasb etikasi har bir kasb-hunarga xos axloqiy (norma) meyor, (prinsip) tamoyillar va sifatlarni o'rganadi va hayotga tatbiq etadi.

Axloqiy tarbiya nazariyasi axloqning jamiyat talabi, ehtiyoji va manfaatlaridan kelib chiqqan holda uni hayotga tatbiq etishning vosita va usullarini o'rganadi.

Etika fanining tarkibiy qismlari o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lib, doimo uzviylikni taqozo etadi va to'ldirib turadi.

Arastu "Katta axloq kitobi"da shunday deydi: "Etika - axloq muammolari haqida gapirishdan avval biz axloq nimaga taalluqli ekanligini aniqlab olishimiz kerak. Gapning lundasini aytsak, axloq siyosatning tarkibiy qismidir. CHindan ham muayyan axloqiy fazilatlarga ega bo'lmagan, yani munosib bo'lmagan odam faoliyat ko'rsatishi mumkin emas. Munosib odam bo'lmoq - fazilatlar egasi - fozil bo'lmoq, demakdir. Zero, ijtimoiy va siyosiy hayotda faoliyat yuritmoqchi bo'lgan odam axloqan fazilatli odam bo'lmog'i kerak. Xullas, etika, axloq siyosatning tarkibiy qismi, uning asosidir. shuning uchun axloqni bemalol siyosat deb atash mumkin."¹

Axloq normalari, axloqiy yetuklik mezonlari malum bir tarixiy davrning, sharoitlarning imkoniyati va ehtiyoji bilan belgilanadi. Axloqlilik va axloqsizlikning mezonlari bu har bir muayyan davrdagi kishilarning xatti - harakatlarini konkret sharoitlardan, ehtiyojlardan kelib chiqqan holda taqiqlash yoki maqullashdir. Axloqiy taqiqlar esa jamoatchilik fikri, qonunlar turli e'tiqodlar asosida belgilanadi. Axloqiy yetuklik darajasini ham bir shaxs emas, balki jamoatchilik belgilaydi. Insonlar o'rtasidagi munosabatlarni axloqiy yoki g'ayriaxloqiy deb baholash jamiyat azolarining iymoni, e'tiqodi, dunyoqarashi, manfaati darajasiga ham bog'liq bo'ladi.

Odoblilik - Kundalik hayotda axloq qoidalariga rioya qilish - odobdir. Odob axloqiy fazilatlarni insonning kundalik faoliyatiga singib borayotganini ko'rsatuvchi mezondir. (Odob) Hamda jamiyat qabul qilgan axloq normalarini inson faoliyatida, xatti - harakatida, muomala va muloqotida namoyon bo'lishidir. Insoniyat paydo bo'libdiki, muayyan odob doirasida bo'lishga, yaxshi nom qoldirishga intiladi. Insonning eng yaxshi fazilatlari nasl-nasabi, bilimi bilan emas, balki odobi bilan belgilanadi. Bejizga mutafakkir Abu Mansur as Saolibiy : "Har

¹ Arastu. Poetika. Axloqi Kabir. T., "Yangi avlod asri" B 96

bir kishi o‘ziga qarab tarif qilinsa, ishiga qarab tavsiflanadi, maqtaladi. Fazilat nasl-nasab bilan emas, aql-adab bilandir”¹ - deb bejiz aytmagan.

Kundalik turmushda uchrab turadigan, o‘zimiz sezib-sezmaydigan, ammo bilishimiz va har qadamda qo‘llashimiz zarur bo‘lgan odob qoidalari mavjud. Oddiy xatti - harakat, chiroyli xulq - atvor natijasida katta muvaffaqiyatlarga erishish mumkin. shuning uchun, odob qoidalarga (mayda-chuydalar sifatida) befarq qarab bo‘lmaydi. (Inson yirik ishlarda xatoga yo‘l qo‘ymaydi, balki mayda - chuydalarga etibor bermasligi tufayli jiddiy kamchiliklarga yo‘l qo‘yadi.) shu bilan birgalikda insonning aql-idroki bo‘lmasa, uning odobi yuzaki, suniy chiqadi. Qilingan xatti-harakatdan uning insonligini bilib turamiz-u, lekin odamiyligi yo‘qligidan nafratlanamiz.

“Luqmon hakimdan: “Odobni kimdan o‘rganding?” deb so‘radilar. Luqmon javob berdi: “Odobni beodoblardan o‘rgandim, ularning harakatlaridagi menga maqbul bo‘lmagan narsalardan o‘zimni saqladim!”

Biror esli kishiga hatto xazil so‘z aytsang

U shundan ham o‘ziga chiqaradi xulosa.

Ammo axmoq kishiga yuzlab hikmat o‘rgatsang

Barchasi uning uchun tuyular xazil narsa.²

Tarbiyalangan kishining har bir xatti-harakati boshqalarda unga nisbatan hurmat uyg‘otadi. shunga ko‘ra, yaxshi tarbiya ko‘rgan, odobli kishi bo‘lishga intilish har bir insonga xos bo‘lmog‘i lozim.

Axloq - manaviyatga nisbatan surat, tashqi jihat bo‘lsa, odob - o‘z navbatida axloqiy fazilatlarining yuzaga chiqishidir. Inson odobi uning barcha axloqiy fazilatlarini namoyon eta olmaganidek, SHaxsning barcha axloqiy sifatlarini bir erga jam qilganda ham, uning manaviy dunyosini to‘liq qamrab olib bo‘lmaydi. Insonning hayot tajribasi, faoliyati, bilimi, ilmi, odob-axloqi, xatti-harakati bilan o‘zining manaviy olamini boyitib boradi. Inson aqlan va axloqan boyigan sari o‘z oldiga ulug‘vor vazifalarni qo‘yadi va unga erishish uchun harakat qiladi. Harakat esa manaviy poydevorni talab qiladi. Axloqiy qadriyatlarga rioya qilishni har bir SHaxs o‘zidan boshlashi kerak. Eng asosiy narsa axloqiy qadriyatlarni bilish emas, balki ularga amal qilishdir. SHaxsning faoliyatiga nisbatan axloqiy bahoni jamoatchilik beradi. Zero, axloqlilik - SHaxs faoliyatining jamoatchilik belgilagan manaviy mezonlariga mos kelishidir. Barcha axloqiy xatti - harakatlarning manaviy asosi bo‘lgan iymon va vijdon tushunchalari inson hayotining ichki ruhiy qonunidir. Axloq muammolari tahlilida inson ko‘proq shu ichki qonunga tayanib ish ko‘radi.

Axloq va ahloqiy normalar kishilar faoliyatining muayyan sohasigagina taalluqli bo‘lmay, balki xalq hayotining hamma jabhalariga kirib boradi. Axlokiy xislatlar sohasi ko‘plab masalalarni, YAni fuqarolik jamiyatining axloqiy mezonlariga, bozor iqtisodiyoti sharoitining axloqiy karashlariga bo‘lgan munosabati va boshqalardan tortib to zamonaviy turmush qoidalari, SHaxsiy xulq-atvorgacha bo‘lgan masalalarni o‘z ichiga oladi. Bu esa ongni qayta qurishda axloqiy tarbiyaning imkoniyatlarini kengaytiradi.

¹ Sharq donishmandlari hikmatlari. T. “Sharq” 2006. B 134.

² Nishonova S. Ma’naviyat darslari. T.”O‘qituvchi” 1994. B 11

Malumki, insonning botiniy go‘zalligi bevosita axloqiy fazilatlar va axloqiy munosabatlar bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Chunki, axloq, avvalo, ijtimoiy-manaviy hodisa sifatida inson kamolotida muhim ahamiyatga ega. Bu xususda akademik E.Yusupov : «Axloq insonning konkret sharoitlarda bo‘layotgan voqea va hodisalarga mustaqil baho berishi, ularga nisbatan o‘z munosabatini bildirishi hamdir, - deydi. - Umuman, axloq ijtimoiy munosabatlar zaminida alohida shaxs sifatida mavjud bo‘lgan insonlarning o‘z-o‘zini idora qilish shakllari va meyorlari, o‘zaro muloqot va munosabatda ularga xos bo‘lgan manaviy kamolot darajasining namoyon bo‘lishidir. Axloq yo‘q joyda inson ijtimoiy shaxs sifatida shakllanmaydi.

Faqat yetuk axloq zaminidagina kishilarda hayotning mazmuni va maqsadi, jamiyat oldidagi burchi va masuliyati, baxt, diyonat, yaxshilik va Yomonlik, yovuzlik, haqlilik va nohaqlikka nisbatan muayyan munosabat shakllanadi».¹

Ana shu jihatdan xulq tushunchasi axloqning tarkibiy qismi sifatida inson kamolotida muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq, xulq ikki ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Birinchisi - yaxshi , chiroyli xulqlar. Bunga shirinsuxanlik, muloyimlik, halollik, iffat, diyonat, or-nomus, nafsni tiyish, vijdon, shijoat, sabr, ilmlilik, g‘ayrat, riyozat, qanoat, sabr, intizom, munislik, haqiqatparvarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, adolatparvarlik va shu singari ijobiy tuyg‘ular kiradi. Bular o‘z navbatida insonda hulqiy go‘zallikni namoyon qiladi va insonni axloqiy jihatdan kamolotga etkazadi.

Ikkinchisi - yomon, hunuk xulqlar. Unga xudbinlik, hasadgo‘ylik, tama-girlik, ikkiyuzlamachilik, firibgarlik, ig‘vogarlik, tuhmatchilik, badnafslilik, badniyatlik, badjaxllik, bachkanalik, dilozorlik, andishasizlik, bevafoqlik, berahmlik, tovlamachilik, behayolik singari illatlar kiradi. Bular insonni tubanlik sari etaklaydi va manaviyatini qashshoqlashtiradi. Mazkur illatlarni odat qilgan kishilar umum tasavvurida jirkanch taassurot qoldiradi.

Axloq murakkab tuzilishga ega bo‘lib, asosan uch tarkibiy qismdan iborat ular: axloqiy ong, axloqiy amaliyot va axloqiy munosabatlardan tashkil topadi.

Axloqiy ong. Har bir insonning xatti-harakatlari uning ongi orqali boshqariladi. Chunki, ong insonlarning olamni, YAni jamiyatni, tabiatni aks ettiruvchi his-tuyg‘ulari va odatlarining yig‘indisi bo‘lib, siyosiy, huquqiy, axloqiy, falsafiy, diniy, estetik qarashlar va kechinmalar shaklida namoyon bo‘ladi. Axloqiy ong ijtimoiy ongning shakllaridir biridir.

Axloqiy amaliyot. Inson o‘zining har bir faoliyatida aniq bir maqsadni ko‘zlab, tegishli vosita va usullar orqali harakat qiladi hamda malum natijalarga erishadi. Demak, maqsad, vosita va natijalar inson faoliyatining, jumladan axloqiy amaliyotining tarkibiy qismlari hisoblanadi. Oxirgi natijalarning axloqiy mazmunida kishilar orzu-umidlarning ro‘yobga chiqishiga yordam beruvchi yaxshi yoki Yomon amallar, qulay yoki noqulay harakatlar aks etadi. Mana shu tomonning o‘zaro birligi axloqiy amaliyotning mazmunini tashkil qiladi.

Axloqiy munosabatlar ijtimoiy munosabatlarning tarkibiy qismlaridan biri sifatida jamiyat hayotida o‘ziga xos o‘rinlardan birini egallaydi. Axloqiy munosabatlar insonlar tomonidan aholi guruhlari orasida, mehnat jamoalarida amal

¹ Yusupov E. Inson kamolotining ma‘naviy asoslari. T. Yangi asr avlodi. 1998. B.116.

qiladigan axloq normalari bilan chegaralangan aloqalari, bog‘lanishlari, tasir va aks tasirlariga aytiladi.

Bular esa axloqning asosiy xususiyatlarini bilishni talab qiladi. Faylasuf olim Abdulla SHER axloqning asosiy xususiyatlarini quyidagicha tariflaydi: “Axloqning o‘ziga xos xususiyatlari deganda biz uning qat’iy amrlik, meyoriylik va baholash jihatlari tushunamiz. Qat’iy amr o‘zini tutishdagi muayyan talabni, axloqiy qonun-qoidalarini bajarishini taqozo etadi. U SHaxs manfaatlarini jamiyat manfaatlari bilan muvofiqlashtiradi va jamiyat manfaatlari ustuvorligini taminlaydi, ayni paytda SHaxs erkinligini cheklamaydi, faqat o‘zboshimchalikka yo‘l qo‘ymaydi. Unga ko‘ra, biror inson ikkinchi insonga vosita deb qaramasligi lozim. Qat’iy amr tug‘ma axloqiy hodisa, uning talabi so‘zsiz va ixtiyoriy tarzda bajarilishi kerak; u ixtiyor erkinligi bilan zaruriyatning mutanosibliligini ifoda etadi.

Ikkinchi xususiyat - axloqning meyoriylik jihati bilan bog‘liq. Meyorlar, qonun-qoidalar, pand-o‘gitlar v.b. shakllar vositasida axloq boshqarish vazifasini bajaradi. Ular orqali kishilar faoliyati yo‘lga solinadi, fazilatlar asosida ijtimoiy munosabatlar amalga oshiriladi, individning axloqiy sifatlari jamiyat talabalariga moslashtiriladi, tashqi davat ichki yo‘nalmaga, SHaxs manaviy dunyosining bir qismiga aylanadi, odamzot avlodlarining axloqiy aloqalari davom ettiriladi. Axloqiy meyorlarning ikki turi mavjud: xatta-harakatning yo‘l qo‘yib bo‘lmaydigan shakllarini anglatuvchi taqiqlar (odam o‘ldirma, yolg‘on gapirma, o‘g‘irlik qilma v.h.) va o‘zini tutishning eng yaxshi ko‘rinishlariga davat (halol bo‘l, rostgo‘y bo‘l, ezgu ishlar qil v.h.).

Axloqning o‘ziga xos uchinchi xususiyati esa insonning o‘z xatti-harakatlariga munosabatini ichiga oladigan ichki baholashdan va inson xatti-harakatlarining boshqa kishilar hamda jamiyat tomonidan umum qabul qilingan axloqiy meyorlar asosida baholaydigan tashqi baholashdan tashkil topadi. shunga ko‘ra, baholash ko‘rinishlari ham ikki xil bo‘ladi. Birinchisi - ijobiy: maqulash, rozilik, ikkinchisi - salbiy: tanbeh va norozilik. Bu xususiyatlar faqat axloqqa xos.”¹ Axloq umuminsoniy hisoblanib, uning milliy, mintaqaviy xususiyatlari ham mavjud. Ular axloqning - xulqiy xatti-harakatlar, odob va etiketda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Evropada huquq ustuvor bo‘lsa, bizda axloq birinchi o‘rinda turadi. Qonun ustuvorligi, qonun oldida barchaning tengligi - demokratik jamiyatning asosiy tamoyillaridan biri sanaladi. shu sababli, Prezidentimiz SH.M.Mirziyoev tomonidan rahbar SHaxs manaviyatiga uning axloqiy hatti-harakatlariga doir o‘z konseptual qarashlarini tadrijiy ravishda, izchil bayon qilib: “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va SHaxsiy javobgarlik har bir rahbarni - bu Bosh vazir yoki uning o‘rinbosarlari bo‘ladimi, hukumat azosi yoki hududlar hokimi bo‘ladimi, ular faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lib qolishi kerak,”² - deb bejiz takidlanmagan.

Jamiyatda qonun ustuvorligiga erishish uchun qonunlarga rioya etish majburiyatga emas, fazilatga aylanmog‘i lozim. Buning uchun odamlarni demokratiyaga o‘rgatish zarur, toki kishi SHaxsiy javobgarlik hissini tuysin, axloq

¹ Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. -T.: «O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2010.B.173

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlari”ga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma‘ruzasi. www.gov.uz

mevorlariga rioya etish uning uchun ichki zaruratga aylansin. Bu haqda nemis faylasufi Nisshe shunday degan edi: “Axloqiylik avval qati talab shaklida qo‘yiladi. Unga rioya qilish shartligi uchun bo‘ysuna boshlaydilar. Biroz o‘tgach bu ixtiyoriy odatga aylanadi va oxiri u instinkt darajasida oddiy va tabiiy, odamga huzur beruvchi fazilatga aylanadi”¹. Jamiyatda mutlaq, abadiy va o‘zgarmas axloq yo‘q. Axloq tarixan o‘zgaruvchan va nisbiy mustaqillikka ega bo‘lgan ijtimoiy hodisadir.

Etika fani rivojlanish tarixiga nazar tashlasak, gedonizm va evdemonizm kabi talimotlar inson uchun zarur bo‘lgan ehtiyojlari, moddiy qadriyatlar uning qadr-qimmatini bilan bog‘liq g‘oyalarni ilgari suradi.

Gedonizm (grech. *hendoné* – lazzatlanish) – qadimgi davr falsafiy tushunchalaridan biri sifatida ko‘ngilocharlik, huzurlanish manolarini beradi. Qadimgi davr axloqshunos ligida gedonizm (huzurbaxshlik talimoti) hayotning manosini nafaqat jismoniy, balki ruhiy huzurbaxshlikdan ham iborat degan talimotni ilgari surar edi. Hozirgi davrga kelib esa bu tushuncha akasariyat holda o‘zida xudbinlik, «nafs quliga aylanish», «boylik, shuxrat ketidan quvish» kabi manolarini ham anglatmoqda.

Gedonizm (huzurbaxshlik talimoti) – bu o‘ziga xos hayotga bo‘lgan yondoshuv bo‘lib, hayotda asosiy maqsadning birinchi pog‘onasiga lazzatlanish va huzurbaxshlik qo‘yiladi. Bunday qarashlarning ibtidosi qadimgi yunon faylasufi Aristipp Kirenskiyning talimotlariga borib taqaladi. Faylasuf axloqshunoslikning yaxshilik tushunchasiga nisbat berar ekan, uni huzurbaxshlik bilan bog‘laydi. YAni, nima insonga huzur baxsh etsa shu yaxshi likdir, degan xulosaga keladi. Bunday xulosa o‘sha davrning aksariyat olimlarining bu yondoshuv ketidan ergashishiga va gedonchilar yo‘nalishini paydo qilishiga asos bo‘lib xizmat qildi. Shu tariqa ijtimoiy tartiblar erkinlik va o‘zini to‘liq namoyon qilishni cheklaydigan shartlar sifatida qarala boshlandi. Falsafa qomusiy lug‘atida Gedonizmga shunday tarif berilgan: “Gedonizm - yunoncha lazzatlanib umr kechirish inson hayotining asl mazmunini tashkil etish lozim, degan qarashga asos bo‘lgan g‘oya va turmush tarziga intilish. Qadimgi Yunonistonda Aristin va elinur gedonizmning asoschilari hisoblanadi. YAngi davr falsafasida bu g‘oyani Mill va Bentam tomonidan qaytadan tiklashga harakat qilingan. Falsafada gedonizmga ko‘proq moddiy boyliklarga etibor berish asosida hayot kechirish, deb qaraladi. Bu hol gedonizm g‘oyalarini mutloqlashtirish sharoitida hosil bo‘ladi. Aslida esa, ko‘pincha gedonistlar inson uchun eng yaxshi jamiyat - farovon va moddiy boyliklar mo‘l-ko‘l bo‘lgan davr, deb hisoblaydilar. Ammo bu qarash ayrim hollarda, manaviy qadriyatlarga etiborni susaytiradi, ular ahamiyatini to‘g‘ri anglashga xalaqit beradi.”²

Yillar osha bu qadimgi tushuncha global ahamiyatga molik axloqiy masala sirasiga kira boshladi. Dunyo miqyosida hozirgi kunda huzurbaxshlik talimotining tasiri kun sayin kuchayib bormoqda. YAshashga bo‘lgan intilish ashyoviylik, moddiylik bilan yo‘g‘rilib, insonlarni elkasiga yanada og‘irroq bo‘lgan yuk lamani ortmoqda. Natijada zamonaviylik «hayotdan to‘liq zavq olish» shiori ostida uni

¹ Nisshe F. Sochineniya v 2 t. t. 1. - M., Misl, 1990. - S.735.

² Falsafa qomusiy lug‘ati. O‘zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati nashriyoti. “Sharq” Matbaa nashriyot aksiyadorlik kompaniyasi. T., 2004. B.83

yanada yorqinroq, chiroyli va dabdabali kunga aylantirishga intilish kuchaydi. «Sabr», «shukr», «minnatdorchilik», «kelajakka umid» degan tushunchalar nozamonaviylik, noreallik tarzida qabul qilinyapti. Bunda eng yaxshi hayot tarziga ega bo'lish eng yaxshi narsalarga ega bo'lish bilan belgilanadi. Qimmatbaho buyumlar, mazali taomlar, eng yaxshi moddiy taminot baxtning belgisi sifatida namoyon bo'lar ekan, axloqiy anglash muammosi bu borada qay darajada muhim ekanligini belgilaydi.

shu jihatdan ham, hozir ushbu talimot sog'lom va nosog'lom turlariga ajrala boshladi. Nosog'lom turi nafaqat o'zini, balki boshqalarning ham hayoti, YAni yashash tarziga «halaqit» beradi. Aynan moddiy etishmovchilik tufayligina boshqa insonlarni qadrini, oriyatini, izzatini oyoq-osti qiladi. Ularni tahqirlaydi. Insonning mohiyati emas, uning tashqi ko'rinishi, u bog'langan va foydalanayotgan narsalariga bo'lgan qiziqishning kuchliligi, Kamyu tili bilan aytganda obektni sizdan «begonalashuviga» olib keladi. Biz o'zimiz bilmagan holda uni nafratiga sabab bo'lamiz. Unda o'zini yoki boshqalarni o'limiga intilish hissini uyg'otamiz.

Gedonizm talimotining sog'lom turi boshqalarning hayotini ham yaxshi o'tishiga to'sqinlik paydo qilmaslikdir. Misol uchun, siz jamoat transportida ketyapsiz. Qulog'ingizga uyali aloqa vositasining quloqqa taqadigan jihozini (quloqchin) taqib musiqa eshitib ketyapsiz. Ammo bu jihozdan aksariyat holda YAni, siz eshitayotgan musiqani shovqinli, asabga qattiq tegadigan ovoz chiqaradi. Siz ertalabki tiqilichni sezmaslik, o'zingizda yaxshi kayfiyatni uyg'otish uchun qo'shiqdan huzur qilsangiz, atrofdagilarning asabi buziladi. shundoq ham qiyinchilik tug'dirayotgan bu sharoit yanada og'irlashadi. Sizni bekatdan tushib qolishingizni istaydilar. Huzurbaxshlik talimotini sog'lom turi insonning o'z burchini his qilishi, boshqalarni erkiga, izzat-nafsiga tegmaslikni talab qiladi. Bu zamonaviylikni faqat yaxshilik bilan bog'liq xususiyatlarini o'zida mujassam qilishni, turmush go'zalligini, inson go'zalligini, atrof-muhitni go'zallashtirish, hayotni manosini to'laqonli bo'lishiga intilishda ko'rinadi.

Gedonizm axloqshunos likning huzurbaxshlik yo'nalishi bo'lib, unda hayotning maqsadi hayotning yuksak nematlariga intilish va undan lazzatlanib, zavqlanib yashash bilan belgilanadi. shu jihatdan ham qadimgi davr faylasuflaridan bejizdan Antisfen: «Mehnat orqasidan keladigan farog'atni talab qilish kerak, undan oldin keladiganini emas», - degan fikrni aytgan emas.

Aslida huzurbaxshlik talimotiga ergashish salbiy xususiyat kasb etmaydi. Insonni hayot qiyinchiliklaridan o'tishda uning mehnati samarasi katta ahamiyat kasb etadi. Turli ruhiy, jismoniy zo'riqishlarga uchragan insonga ruh bag'ishlaydi. Mehnat estetikasi inson mehnat jarayonida zavqlangani uchun ham mehnatga intiladi, unda o'zini erkin va komil his qiladi, degan fikrni ilgari suradi. Zotan mehnatda inson o'zining asosiy mohiyatini topadi: u yaratish imkoniga ega bo'ladi. Bu esa estetik zavq baxsh etadi.

Qadimgi davrda gedonizmga qarshi g'oyalarni ilgari surgan kiniklar edi. Kiniklarning asoschisi Antisfen (e.a. 435-375 yy.) lazzatlanishning har qanday turini, inson ehtiyoji uchun kerakli bo'lgan oddiy qulayliklarga nisbatan ham qarshi chiqadilar. Misol uchun, Diogen Sinopskiy (e.a. 330 y. — 320 y), bochkada yashab,

faqatgina yopinchiq bilan cheklangan. Bundan maqsad - moddiy imkoniyatlardan voz kechib haqiqiy erkinlikka erishish edi. Ammo bunday cheklashlar o'zida jamiyat talablarini ham inkor etardi. Natijada oddiy axloqiy meyorlardan ham voz kechishga to'g'ri kelardi. Zotan axloqiy anglashning eng muhim xususiyatlaridan botiniy ozodlik va manaviy qadriyatlarining ustuvorligi ular tomonidan mutlaqlashtiriladi.

Boshqa tomondan, huzurbaxshlik talimoti ham etikaning muhim g'oyalari - inson uchun zarur bo'lgan ehtiyojlari, moddiy qadriyatlar uning qadr-qimmati bilan bog'liq g'oyalarni ilgari suradi. Bu ikki talimot asosida boshqa mashhur talimotlarni vujudga keltirdi.

Bu falsafiy yo'nalish asoschisi Suqrotning zamondoshi Aristipp (435—355 yy.) inson ruhini ikki holati haqida gapiradi: huzurlanish mayinlik va nafislik sifatida, iztirob esa qo'pol va ruhiy qo'zg'alish xususiyatlariga ajratadi. Aristipp fikricha baxtga erishuv huzurbaxshlikning yuksak cho'qqisiga iztirobga tushmasdan amalga oshishi kerak. Hayotning manosi uningcha aynan shunday natijaga erishish bilan bog'liq. Epikur esa lazzatni hayotni yo'lga qo'yishning tamoyili sifatida ko'radi. Huzurbaxshlikni epikur nafrat va yoqimsiz narsalardan ozod bo'lish deb tushunadi. Unda asosiy maqsad huzurbaxshlikning o'zi emas, balki baxtsizlik va iztiroblarlardan qutulishdir. Epikurning baxt falsafasida unga erishuv bezovtalik (ataraksiya) hamda iztirobdan erkinlik vositasida amalga oshishi bilan belgilanadi. Bunday erkinlik epikur fikricha dunyoviy ehtiyojlar yordamida emas, balki haqiqiy ehtiyojlarga bo'lgan, misol uchun, do'stlikka bo'lgan ehtiyojga sinchkov etibor orqali erishiladi. Utilitarchilardan Djeremi Bentam bunday yondoshuvni «hisobli huzurbaxshlik» deb nomlaydi. Henri Sidgvik (Henry Sidgwick) XIX asr utilitarizmini tariflar ekan, huzurbaxshlik talimotini axloqiy va ruhiy huzurbaxshlik talimotiga ajratadi. Bunda ruhiy huzurbaxshlik talimoti insonning o'z quvonchlarini ko'paytirishga intilish bilan belgilanadi. shu tariqa tushkunlikka tushishdan saqlanishga yoki zavqlanishni kuchaytirishga intilish inson harakatlarining asosiy sababchisiga aylanadi. Axloqqa taalluqli huzurbaxshlik esa bir necha nazariy turlarga ajralib ketadi. Inson o'zining qoniqishi uchun intilishi (xudbinlik gedonizmi), yoinki jamiyatni farog'ati uchun harakat qilishi lozim (universal gedonizm yoki utilitarizm). Sidgvikdan farqli o'laroq Bentam: «Tabiat insonni ikki hukmdor - iztirob va quvonchning qo'liga topshirib qo'ygan. Ular bizga bugun va ertaga nima qilishimiz kerakligini aytib turadilar»¹, deb yozadi.

«Katta farog'at egasi bo'lish uchun inson o'zini cheklay bilishi lozim», degan fikrni, garchi huzurbaxshlik talimoti namoyondasi bo'lmasa-da, epikur hayotning tenglamasi qilib qo'ydi.

Keyinchalik bu axloqiy yondoshuvlar estetika sohasi bilan uyg'un tarzda shakllana boshlandi. Misol uchun, turmush estetikasi, texnika estetikasi, dizayn va intererlarning go'zalligi. Teatr, musiqa, umuman, sanat turlari va ko'ngilochar sayllardan olinadigan huzurbaxshlik va h.k. shu tariqa huzurbaxshlik talimoti bir necha yo'nalishga ajraladi.

¹ Vvedeniye v osnovaniya npravstvennosti i zakonodatelstva = An introduction to the principles of morals and legislation / I. Bentam. — M.: ROSSPEN, 1998. — 415 s. — (Istoriya polit. misli). ISBN 5-86004-166-7

Keyinchalik insonni doimo huzurbaxshlikka intilishi «libido (nafs)» tushunchalari bilan bogʻliq boʻlib, ruhiy tahlil etikasi asoschisi Zigmund Froyd uning insonni oʻlim bilan bogʻlaydigan, unga tayyorlaydigan, insonni doimo qoʻrquv, oʻzidan qoniqmaslik, vijdon azobi, va boshqa ruhiy iztiroblarning ibtidosi sifatida qarasa, YAngi ruhiy tahlil yoʻnalishi namoyondasi Karl Gustav YUng huzurbaxshlikka intilish insonni ruhiy xastalikka uchrashini «osonlashtiradi». Bunga qarshi insonni tabiatga YAqinlashishi qoʻl keladi. Karl YUng fikriga koʻra, inson tabiat bilan uygʻunlashgandagina oʻz tabiiy insoniy mohiyatini topadi va uning huzurbaxshlikka intilishi moddiylikdan manaviylikka «oʻtish» bilan amalga oshadi.

Gedonizmning qaysidir manoda davomchisi sanalgan yana bir yoʻnalishlardan biri evdemonizmdir. **Evdemonizm** (grech. εὐδαιμονία – barqarorlik, huzurbaxshlik, baxt) – inson asosiy faoliyatining baxtga erishuvga intilishi bilan bogʻliq boʻlgan axloqshunoslik yoʻnalishlardan biri sanaladi.

Evdemonizm yoʻnalishi namoyondalari qarashlarida inson uchun eng buyuk nemat baxt sanaladi. Uning asosida yunon faylasufi Arastuning baxt hakidagi talimoti yotadi. Uning fikricha baxt bu «biz doimo uning oʻzi uchun oʻzini tanlaydigan, boshqa narsa uchun uni tanlamaydigan» axloqiy tushunchadir. Oʻrta asrlar tafakkurida evdemonizm (baxtga etishuv talimoti) Foma Akvinskiy talimotiga yoʻnaltirilgan boʻlib, yuksak baxt Xudoni anglash va hayoti davomida Uni tan olmoqdir, degan gʻoyani tasdiqlar edi. Falsafa qomusiy lugʻatida bu yoʻnalishga shunday tarif berilgan: “Evdemonizm yunoncha baxt - saodat, rohat - farogʻatni kishilar hayotining oliy maqsadi, deb hisoblaydigan axloqiy yoʻnalish. Evdemonizm yunon etikasining asosiy prinsiplaridan biri boʻlib, u Suqrotning SHaxsning ichki erkinligi, tashqi dunyoga qaram emasligi toʻgʻrisidagi gʻoyasi bilan uzviy bogʻliq. Evdemonizm baxt-saodatni manaviy huzur, lazzat bilan tenglashtirmaydi, balki uni keng manoda, jismoniy va manaviy qadriyatlarning majmui tarzida tushuniladi.”¹

evdemonizm yoʻnalishidagi huzurbaxshlik talimotini yoqlovchilar epikur, Gassendi, Lametri, Volter, Golbaxlar baxt va huzurbaxshlikni uygʻunlashtiradilar. Ammo gedonizmdan farqli oʻlaroq huzurbaxshlik bu erda insonning axloqiy faoliyati bilan bevosita bogʻlanadi. Misol uchun, epikur nazdida yuksak darajadagi huzur tuban jismoniy lazzatda emas, balki nafis manaviylikdadir. Faqatgina mutlaq sokinlik va ataraksiya holatidagina inson haqiqiy baxt egasiga aylanadi.

Ammo asosiy evdemonizm yoʻnalishi tanqidchilaridan Immanuel Kant haqiqiy axloqiy faoliyatning asosida baxt emas, burch turishini takidlaydi.

Zamonaviy ruhshunoslikda bu yoʻnalish ijobiy, amaliy ruhshunoslik sifatida evdemonizm haqidagi qadimgi yunon faylasuflarining talimotini oʻrganmoqda.

Sharq falsafasiga esa, baxtga erishuv hakidagi bu talimotni buddhachilikning nirvanaga erishish uchun barcha iztiroblardan qutulishga intilish va shu bilan toʻlaqonli baxtga erishuvga nisbat beriladi. Dalay-Lama (XIV) qarashlari «Inson hayotining asosiy maqsadi - baxtdir. Bu shubhasiz. Biz qanday eʼtiqoddaligimizdan qatʼiy nazar – dahriy yo Xudoga ishonamizmi yoʻqmi, buddhachi yo nasroniy, – barchamiz hayotda eng yaxshi narsani izlaymiz. shu tariqa, mening fikrimcha,

¹ Falsafa qomusiy lugʻati. Oʻzbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati nashriyoti. “Sharq” Matbaa nashriyot aksiyadorlik kompaniyasi. T., 2004. B.455

hayotimizdagi asosiy faoliyatimiz – bu baxtga intilishdir»¹. L.A.Seneka yaxshilikning o‘zi baxtli bo‘lish uchun etarlidir, deb hisoblasa, Spinoza baxt – yaxshilik uchun qilingan mukofot emas, balki ezgulikning o‘zidir, degan xulosaga keladi.

YUqori dagi mutafakkirlarning qarashlaridan xulosa yasaydigan bo‘lsak, inson haqiqiy baxtli bo‘lgandagina huzurbaxshlikka erishadi. Baxt esa, avvalambor axloqiy faoliyat bilan chambarchas bog‘liqdir.

Biz yuqori da keltirgan fikrlarda axloq tushunchasining tarifi, axloqni fanning tadqiqot obekti sifatida to‘xtalib o‘tgan edik. Endigi vazifamiz axloqning kelib chiqishi xaqidagi qarashlarni tahlil qilishdan iborat. Axloqning paydo bo‘lishi xaqida ham ikki xil fikrlar mavjud: biri dunyoviy, ikkinchisi diniy. Dunyoviy qarashlarga ko‘ra axloq insonlarning tabiiy tanlanish jarayonida o‘zining oldingi hayvoniy o‘tmishidan meros bo‘lib qolgan instinkt tarzidagi xatti-harakatining mahsuli sifatida paydo bo‘lgan, degan g‘oyani ilgari surishadi. Bu qarashlarning asoschisi CHarlz Darvin va uning izdoshi Konrad Lorens hisoblanadi².

Diniy yondashuv ga ko‘ra, hamma narsani, yani Yer va osmon, butun mavjudot Alloh tomonidan yaratilgan, u odamzodga axloqiylik va ezgulik fazilatlarini xudoning borligini tanish, uning izzat-ikromi va olqishlariga sazovor bo‘lishi uchun bergan. Masalan, islom dinining muqaddas kitobi «Quroni Karim»da: «Mashriq mag‘rib Allohniki. U pokdir. Albatta, osmonlaru erdagi barcha narsalar Unikidir. Hamma unga bo‘ysunuvchidir. U osmonlaru erni paydo qiluvchidir. Kimki yaxshilik qilgan holda o‘zini Allohga topshirsa, unga Robbi huzurida ajr bordir. Ularga xavf yo‘q va ular xafa ham bo‘lmaslar»³, - deyilgan. Demak, ularning fikricha, axloq Allohning izmidadir. Uning vazifasi Alloh tomonidan buyurilgan narsa - axloqiy meyor va boshqa qonun-qoidalarni so‘zsiz bajarishdan iboratdir.

Axloqiy tafakkur taraqqiyotiga nazar tashlasak, kishilik jamiyatining ilk davrlarida dastlabki axloqiy talimotlar qadimgi Sharq mamlakatlari - Misr, Bobil, Falastin, Xitoy, Hindistonda va Markaziy Osiyoda yuzaga kelgan. Qadimgi Misrda, Bobilonda axloqni yorituvchi pandnomalar yaratilib, ularda odob qoidalarini bilishlik insonga afzalliklar keltirishini ko‘rsatib o‘tganlar.

Avesto. Jumladan, axloqiy qarashlarni zardushtiylik dinining muqaddas kitobi “Avesto”da ham ko‘rish mumkin. Avestoda yaxshi lik, Yorug‘lik va go‘zallik xudosi Axura Mazda va yomonlik, yovuzlik, pastkashlik xudosi Axriman o‘rtasidagi kurash tashkil qiladi. “Avesto”da davlat xizmatchilarining axloqiy fazilatlarini haqida shunday fikr bildiriladi: “Davlatni adolatli podshohlar pokiza qalb va ezgu niyatlar bilan boshqarishlari kerak. Zolim podshohlarni davlatni boshqarishlariga yo‘l qo‘ymanglar”, “Haqiqat - baxt saodat manbaidir. Baxt faqat haqiqatni sevguchi

¹ Radhakrishnan S. Indiyaskaya filosofiya. T.1. SPb., «Stiks», 1994. S. 287-290

² Charlz Darvin «Tabiiy tanlanish yo‘li bilan turlarning paydo bo‘lishi» (1859 y.) nomli kitobida tadrijiy-genetik va uning izdoshi Konrad Lorens esa etologiya (xulq, fe‘l-atvor haqidagi fan, asosan hayvonlardagi) nazariyasiga asos solganlar.

³ Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Qur‘oni Karim ma‘nolari tarjimasi. - T., 2008. - B.17,18.

insongagina mansubdir”, “Adolat tantana qilishi, yovuzlik yo‘q qilinishi kerak” kabi ko‘plab fikrlarni uchratish mumkin.

Xuddi shunday fikrlarni, qadimgi Hindistondagi barcha talimotlarda hamda Xitoyda shakllangan konfusiylilik, daosizm talimotlarida ham ko‘plab uchratish mumkin. Axloqiy fikrlar birmuncha aniq ifodalangan qarashlarni qadimgi Gresiya va Rimda yashab ijod etgan Suqrot, Aflotun, Arastularning asarlarida ko‘rish mumkin. Masalan, Suqrotning fikriga ko‘ra, jasurlik ayni vaqtda donolikdir, YAni xavf - hatarni va xavfsizlikni o‘z vaqtida bilib, anglab olishdir. Mardlik qo‘rquvni bartaraf qilish hamda mo‘tadillik o‘z hissiyotlariga erk bermaslikni, adolat yaxshilik qilishni anglatadi.

Aflotun. U o‘zining “Davlat” va “Qonunlar” nomli asarlarida axloqiy qarashlarini bayon etgan. U “ideal davlat” haqidagi g‘oyani ilgari surar ekan, undagi yaxshi fazilatli insonlarning kasb - hunar axloqi to‘g‘risida fikr bildiradi. Uning fikricha, har bir odam o‘z ishini qilishi kerak, boshqalarning kasbi sohasidagi ishlariga aralashmasligi zarur. Ideal davlatni boshqaruvchi SHaxs quyidagi to‘rt yaxshi xislatga ega bo‘lishi kerak: donolik, jasurlik, muvozanatni saqlab turish, odillik.

Arastu. Arastuning axloqiy qarashlari uning asarlari “Nikomax etikasi”, “Katta etika”, “Poetika” va “Siyosat” asarlarida o‘z aksini topgan. Arastu “Poetika” asarining “Katta axloq kitobi” bo‘limida shunday deyiladi: “Etika - axloq muammolari haqida gapirishdan avval biz axloq nimaga taaalluqli ekanligini aniqlab olishimiz kerak. Gapning lundasini aytsak, axloq siyosatning tarkibiy qismidir. CHindan ham muayyan axloqiy fazilatlarga ega bo‘lmagan, yani munosib bo‘lmagan odam faoliyat ko‘rsatishi mumkin emas. Munosib odam bo‘lmoq - fazilatlar egasi - fozil bo‘lmoq, demakdir. Zero, ijtimoiy va siyosiy hayotda faoliyat yuritmoqchi bo‘lgan odam axloqan fazilatli odam bo‘lmog‘i kerak. Xullas, etika, axloq siyosatning tarkibiy qismi, uning asosidir. shuning uchun, axloqni bemalol siyosat, deb atash mumkin”¹.

Forobiy. Sharq allomalaridan biri atoqli faylasuf va axloqshunos olim Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn O‘zlug‘ ibn Tarxon Forobiydir Sharqda «Ikkinchi muallim» deb tan olingan bu alloma o‘zining «Fozil odamlar shahri», «Davlat arbobining hikmatlari», «Baxt-saodatga erishuv haqida» kabi bir qator asarlari bilan axloq ilmini rivojlantirishga ulkan hissa qo‘shgan. Forobiyning “Fozil odamlar shahri” nomli asarida adolatli jamiyat qurishga qodir bo‘lgan insonlarning axloqiy fazilatlarida quyidagi muhim sifatlar bo‘lishi lozimligini takidlaydi:

1. Jismoniy salomatlik va aqliy kamolotning birligini taminlash zarur. Bunday odamlarning barcha azolari shu darajada mukammal taraqqiy etgan bo‘lishi zarurki, u bu azolari bilan bajarmoqchi bo‘lgan barcha ishlarni osonlik bilan bajara olsin.

2. Barcha masalani, muhokama va munozarani tezda va to‘g‘ri tushuna oladigan, uning manosini anglay oladigan, so‘zlovchining maqsadi, aytilgan fikrlarning chinligini tezda payqay oladigan bo‘lsin.

¹ Arastu. Poetika. Axloqi Kabir. -Toshkent: Yangi avlodasri, 2004. B. 96

3. Xotirasi juda baquvvat bo'lsin, ko'rgan – eshitgan, sezgan narsalarining birortasini ham esidan chiqarmay yodida saqlab turadigan bo'lsin.

4. Zehni shu darajada o'tkir bo'lsinki, biror narsaning alomatini sezish bilan bu alomat nimani bildirishini tezdan bilib olsin.

5. So'zlari aniq bo'lsin, fikrini va aytmoqchi bo'lgan muloxazalarini ravon va ravshan bayon eta olsin.

6. Bilish va o'qishga muhabbati bo'lsin, o'rganmoqchi bo'lgan bilimni charchashni bilmay osonlikcha o'zlashtira olsin.

7. Ovqatlanishda, ichimlik ichishda ochko'z bo'lmasin, tabiati qimor o'yinlari o'ynashdan uzoq bo'lsin va ular keltiradigan xursandchilikdan jirkanadigan bo'lsin.

8. Haqiqatni va haqiqat tarafdorlarini sevadigan, yolg'on va yolg'onchilarga nafrat bilan qaraydigan bo'lsin.

9. Ruhning g'ururi va vijdonini qadrlaydigan bo'lsin, uning ruhi o'z tabiati bilan past ishlardan YUqori va oliyjanob ishlarga ishlatiladigan bo'lsin.

10. Dirxam, dinor va shu kabi turkumga qarashli buyumlarga jirkanch bilan qaraydigan bo'lsin.

11. O'z tabiati bilan adolatni sevadigan va adolat uchun kura shuvchilarga xayrixoh, adolatsizlik qilib jabr – zulm o'tkazuvchilarga nafrat bilan qaraydigan bo'lsin, o'z odamlari va boshqalarga adolatli bo'lsin, go'zal va yaxshi hisoblangan barcha narsalarni barchaga taqdim etgan holda odamlarni adolatga targ'ib etadigan, adolatsizlik oqibatlarini yo'qotadigan, ularga yo'l qo'ymaydigan bo'lsin.

12. Adolatli bo'lsin, ammo qaysar bo'lmasin, adolat oldida qaysarlik qilib, o'zbilarmonlikka berilmasin, lekin har qanday adolatsizlik, pastkashlik oldida lafzli bo'lsin, o'zi zarur deb topgan narsasini amalga oshirishda qatilylik ko'rsatsin, qo'rqmas, jasur bo'lsin, qo'rqish va ojjizlikni bilmasin.¹

Soxibqiron Amir Temurning «Tuzuklari»da vazirning mansab darajasi amirlik mansabi bilan barobar va hatto bazan undan yuqori roq olinib tarflanadi. «Tuzuklar»ning ikki bobi maxsus vazirlik vazifalarini belgilashga bag'ishlangan. Bu boblarning biri «*Vazir tutish tuzugi*», ikkinchisi «*Vazirning xizmat qilish tuzugi*» deb nomlanadi.² Asarning boshqa boblarida ham beklar, amirlar, qozi, mufti, muhtasib, sadr, qozikalon mansablari bilan birga vazir haqida ularning axloqiy xatti harakatlari haqida fikrlar bayon etilgan.

Amir Temur, malumki, barcha davlat xizmatchilarini, jumladan, vazirlarni ham «xavfu rajo» (qo'rquv va umidvorlik) orasida saqlab yurgan. Sohibqironning bu usuli uning «Tuzuklar»da yaxshi yoritilgan. «Yaxshi larning boshini siladim, munofiqlarni jazoladim», - deydi Temur. Bu usul keyingi temuriy podsholar tomonidan ham davom ettirilgan. Husayn Voiz Koshifiy «Axloqi Muhsiniy» asarida

¹Farobiy. Fozil odamlar shahri. T.1993. B.186 - 187.

² Amir Temur. «Temur tuzuklari». Forschadan Alixon Sog'unuy va Habibullo Karomatov tarjimasi. -T.: G'afur G'ulom nomidagi «Adabiyot va san'at» nashriyoti, 1991, -B 74-85

bu usulni «lutf va qahr» deb ataydi: «Bahiman podsho bir hakimdan: «Mulozimlar tarbiyasining asosini nimaga qurish kerak? - deb soʻradi. Hakim javob berib dedikim, ikki narsa (asosiga) qurish kerak: biri lutf va biri qahr. Sulton qahrining asari va lutfi hamisha xodimlariga qaratilgan boʻlsin. Qahr ostida tutsin, tokim, hovliqib kuchayib ketmasinlar va lutf koʻrsatib tursinkim, noumid boʻlmasinlar».¹

Xulosa qilib aytganda, axloqning kelib chiqishi haqidagi hamda har bir davrda axloqiy tafakkur taraqqiyoti rivojiga hissa qoʻshgan mutaffakirlar fikrlari hanuzgacha oʻz ahamiyatini yoʻqotgani yoʻq.

XXI asr globallashuv asri boʻlib, insoniyat tarixiy taraqqiyoti, madaniy merosi, ijtimoiy tuzumi va axloqiy qarashlarida jiddiy oʻzgarishlar sodir boʻlmoqda. Bu jarayon shaxs axloqiy madaniyatining shakllanishida ham namoyon boʻlmoqda. Ayniqsa, oilada voyaga etadigan yosh avlodni yuksak axloqiy ideallar asosida tarbiyalash, uni har tomonlama etuk shaxs boʻlib etishishini taminlash masalalari dolzarb muammoga aylanib bormoqda. Ijtimoiy taraqqiyot jarayonining jadal suratlar bilan borishida alohida ahamiyat kasb etayotgan globallashuv har bir davlat, xalq, millat yoki shaxs axloqiga ham yangicha talablarni qoʻymoqda. Oʻzbek millatining urf-odatlarini, axloqiy madaniyati va manaviyatiga kirib kelayotgan «goʻzal mahsulotlardan» ehtiyot boʻlmoq kerak. Chunki, chiroyli koʻringan biror buyum, multfilm yoki «ommaviy mahsulot» odamlar qalbi va ongiga tasir etishi, milliy-estetik va axloqiy madaniyatiga putur etkazishi mumkin.

Inson tabiatning bir qismi, demak odamlarning oʻzlari, ularning oʻzaro munosabatlari ham atrof-muhitning bir qismi hisoblanganligi uchun inson salomatligining ijtimoiy ekologik muammosi yuzaga keldi. XX va XXI asrda erishilgan fan-texnika yutuqlari hozirgi paytda inson va u yashayotgan sayyoraning kelajagiga tahdid solmoqda. Atom, vodorod, neytron bombalari, ballistik raketalar, eng yangi texnikaviy koʻrsatkichlarga ega qiruvchi, bombardimon harbiy uchoqlar, suv osti va suv usti kemalari, eng YAngi rusmdagi tanklar hamda turli-tuman qurollar hammasi insonni yoʻq qilishga qaratilgan. Ularni ishlab chiqarish korxonalarini va sinov maydonlarini ekologik buhronlarning manbaidir. Bular bir yoki bir necha mamlakat uchun emas, balki global, umumsayyoraviy falokat hisoblanadi. Ularning oldini olishni faqat bir yoʻl bilan biz yashayotgan texnikaviy muhitda (noosferada) axloqiy muhitni (etosferani) barqaror etish orqali hal qilish mumkin. shuningdek, biologik axloq, ekologik axloq, oʻlim jazosini bekor qilish muammolari ham global tabiatga ega. Akademik A.Pokrovskiyning fikriga koʻra: «Hozirgi zamon kishisi hamma vaqt tabiatga nisbatan urush holatida boʻlib kelgan. Uning halokatli oqibatlarini yildan-yilga kuchliroq sezilmoqda. Agar insonning tabiatga munosabat madaniyatini tarbiyalamasak, fojiali oqibatlarga olib kelishi mumkin».² «Malum manoda, ekologik inqiroz, nafaqat energoresurslar kamyonligi, atrof-muhit ifloslanishi emas, balki, eng avvalo, insonning uygʻonish davridan boshlab, ongli ravishda shakllangan, dunyoga va tabiatga munosabatlari tizimi inqirozidir».³

¹ Amir Temur. «Temur tuzuklari». Forschadan Alixon Sogʻuniy va Habibullo Karomatov tarjimasini. -T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi «Adabiyot va sanʼat» nashriyoti, 1991,-B 86

² Pokrovskiy A. Ekologicheskoye problema Zemli. - M.: Nauka, 1975.S-117.

³ Palenko A.N. «Ekologicheskoye krizis» kak psevdoproblema.- M.: // Voprosi filosofii. 2002. №7. S-71.

Bizningcha, noosferada, yuqori da aytganimizdek, inson fikri narsalashadi, o'z intellektimiz narsalarga aylanib, bizni o'rab oladi. Insonning ichki tabiati muhit mavqeini egallab, tashqi tabiatga tasir ko'rsata boshlaydi va ko'p hollarda bundan eng avvalo insonning o'zi ozor chekadi. Tafakkur biologik xususiyatga ega bo'lmagani uchun biologik muhitning o'rnini egallashga, uni asta-sekin siqib chiqarishga harakat qiladi. Bu harakat malum nuqtadan o'tganidan so'ng esa o'z ijobiy xususiyatini yo'qota boradi va insoniyat uchun salbiy hodisaga aylana boshlaydi. Atom, vodorod, neytron bombalarining kashf etilishi, yadro kallakli ballistik raketalarining yaratilishi ana shunday salbiy hodisalardandir. Bundan tashqari, noosferaning paydo bo'lishi atmosferani, olamiy okeanni, Yer osti va Yer usti suvlarini, nabototni, hayvonotni, hatto insonni ich-ichidan kimyoviy zaharlanishga olib kelmoqda. Hozirgi kunda tirik organizmlarning, o'simliklarning, hayvonlarning ko'pgina turlari jisman yo'q bo'lib ketish arafasida turibdi. Ayniqsa, joy topolmay, okean bo'ylab kemalarda suzib yurgan radioaktiv chiqindilar yoki ularning kimsasiz go'zal orollarga ko'mib tashlanishi, kislota yomg'irlarining ko'payib borishi singari hodisalar bag'oyat xatarli. Afsuski, inson ko'ra-bila turib, o'zi o'tirgan shohga bolta urishni to'xtatmayotir.

Nemis olimi V. Deringols kishilarda umuman tabiatga, xususan, suvga nisbatan ekologik va gigienik munosabat madaniyatni shakllantirishni hayotiy zaruriyat tarzida qarab: «Erda suvning tozaligini saqlash - inson qonining sofligini taminlashning zaruriy shartidir... Inson suvni ifloslantirishi bilan o'z umrini qisqartiradi»,¹- degan edi.

Bu muammolarning hal etilishi faqat atrof-muhitni kimyoviy zahardan ekologik tozalashnigina emas, balki, eng avvalo, global manoda, XXI asr kishisi ongini texnokratiya zaharidan forig'lantirishni taqozo etadi. YAni, ular insoniyat oldida endilikda ekologik hodisa emas, balki tom manodagi axloqiy muammolar sifatida ko'ndalang bo'lib turibdi. Mashhur avstriyalik etolog olim, Nobel mukofoti laureati Konrad Lorensning: «YOppasiga va tez yoyilib borayotgan jonli tabiatga begonalashish hodisasi uchun asosan sivilizatsiyamiz kishisidagi estetik va axloqiy to'poslik aybdordir»¹ - degan so'zlari shu nuqtai nazardan diqqatga sazovordir.

YUqori da aytilganlardan chiqadigan xulosa bitta: kelajakda inson o'zini va o'z sayyorasini muqarrar halokatdan qutqaraman desa – XXI asrdan boshlab etosfera davriga o'tishi kerak; axloqiylik har birimiz uchun har qadamda bugungi texnikaviy muhit kabi zaruratga aylangandagina bunga erishish mumkin.

Etikaning mezonlari, asosiy tushunchalari va meyorlari jamiyat taraqqiyotining umumiy imkoniyatlari va ehtiyojlari, alohida etnik guruhlar yashayotgan, mehnat qilayotgan joylardagi sharoitlar, ularning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. Ularni biron-bir shaxs yaratmagan, u muayyan ijtimoiy munosabatlarga muvofiq, moddiy va manaviy hayot jarayonida kishilar ijtimoiy turmushining, axloqiy munosabatlarining talablarini birmuncha umumlashgan holda aks ettiradigan axloqiy ong shakllari sifatida vujudga kelgan qonun–qoidalar hisoblanadi. Bular orasida axloqiy tamoyillarning muhim o'zni bor.

¹ Deringols v. Berlin. 1975. WWW. Nature. P. 213.

¹ Конрад Лоренц “Оборотная сторона зеркала”, Электронная библиотека goyallib.com.

Tamoyil “prinsip” lotincha soʻz boʻlib, “nazariya”, “talimot”, fan uchun asosiy qonun- qoida, inson uchun oʻzi ogʻishmay amal qiladigan qoida, nuqtai nazar, maslak degan manoni anglatadi. Axloqiy kategoriyalar singari axloqiy tamoyillar ham axloqiy anglash shakllaridan hisoblanadi. Ularda axloqiy talab nisbatan umumiy tarzda koʻzga tashlanadi. Ular jamiyat tomonidan shaxsga qoʻyiladigan talab tarzida namoyon boʻlib, insonning axloqiy mohiyatini, uning hayoti mazmunini, odamlar bilan oʻzaro aloqalaridagi asosiy jihatlarni belgilab beradi. Natijada, tamoyillar inson xatti-harakatining umumiy yoʻnalishini koʻrsatgan holda, koʻpgina axloqiy meyorlar uchun asos boʻlib xizmat qiladi. Quyida biz ana shulardan ayrimlarini koʻrib oʻtamiz.

Vatanparvarlik bu tamoyil bir ijtimoiy guruhga mansub boʻlgan insonlarning oʻz tarixini, tili, madaniyati, urf-odatlarini, milliy obroʻsi, qadr-qimmatini bilish, hurmat qilishi, ularga tayanishi, boshqa xalqlarning ham obroʻ-etiborini, manfaatlarini hurmat qila bilishini ifodalovchi manaviy fazilatdir. Vatanparvarlik insonning oʻz Vatanga muhabbatini, uni asrab-avaylashga boʻlgan ishtiyoqini anglatuvchi axloqiy tushuncha boʻlib, u ayni paytda Vatan va millat oldidagi masuliyat va burchni anglash tuygʻusi hamdir.

Vatanparvarlik ayni paytda etuk manaviyatdir. Manaviyati zaif boʻlgan xalqda vatanparvarlik tuygʻusi ham yuk salmaydi. Bu xususda faylasuf olim E. YU. Yusupov shunday deydi: “Vatanparvarlik muayyan milliy madaniyat, mafkura, eʼtiqodlar asosida shakllanadi va rivojlanadi. shu manoda hozirgi milliy istiqloq mafkurasini mustaqil Oʻzbekiston vatanparvarligining nazariy asosini tashkil etadi. shu mafkura asosida shakllangan vatanparvarlik umummilliy fazilat sifatida shakllanadi va saqlanadi.”¹ Xalqimizning vatanparvarlik eʼtiqodi mamlakatimiz istiqloqli va istiqboli bilan bogʻliq boʻlgan siyosiy iqtisodiy, ijtimoiy mafkuraviy muammolarni chuqur anglab etish asosida shakllanadi.

SHaxs manaviyati uning axloqiy sifatleri, odobi, Vatan va xalqqa sadoqati, mehnatga, insonlarga boʻlgan munosabati, aql-zakovati va qadr-qimmatini bilan oʻlchanadi. Manaviyat – axloqiy qadriyatlar, xususan umuminsoniy va milliy qadriyatlar tasirida oʻzgarib, rivojlanib, kamol topib boradi. Oʻz navbatida yuksak manaviyat SHaxsning axloqiy jihatdan kamol topishida muhim rol oʻynaydi. Ijtimoiy hayotning bu ikki negizi doimo bir-biriga tasir etib, bir-birini toʻldirib, taqozo etib boradi. Bu uzluksiz davom etadigan jarayondir. Vatanparvarlik tuygʻusi milliy ong, milliy iftixor, oʻzlikni anglash singari fazilatlar bilan birga shakllanadi.

Vatanparvarlik gʻoyatda serqirra boʻlib, tarixiy, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy taraqqiyot jarayonida doimo takomillashib rivojlanib boradi. Vatan manfaati, qadr-qimmatini, taqdirini, istiqbolini qancha koʻp anglashilsa, kishilarda vatanparvarlik tuygʻusi shuncha baland boʻladi. Bu jarayon Cheksiz dir. Tarixiy, ijtimoiy-siyosiy, manaviy taraqqiyotning turli bosqichlari vatanparvarlikning yangi-yangi qirralarini kashf etib boradi. Bu tamoyil ayniqsa, milliy jiplashish harakatida yanada yaqqolroq namoyon boʻladi. CHinakam vatanparvarlik millat, Vatan manfaati bilan yashash, uning istiqboli, manfaati yoʻlida mehnat qilish hamda kurashishdir.

¹ Yusupov E. Inson kamolotining maʼnaviy asoslari. T., Universitet, 1998, - B156.

Vatanparvarlik tuygʻusi milliy ong, milliy iftixor, oʻzlikni anglash singari fazilatlar bilan birga shakllanadi. Vatanparvarlik – oʻz taqdirini vatan, millat taqdiri bilan bogʻlagan barcha kishilarga xos axloqiy fazilat. Millat taraqqiyotining imkoniyatlari, shon-shuhrati, obroʻ-etibori ham shu millat kishilari vatanparvarlik tuygʻusining darajasi bilan bogʻliqdir. Vatanparvarlik ham milliy, ham umuminsoniy manaviy qadriyatlarning tarkibiy qismi sifatida namoyon boʻladi. CHunki, ajdodlardan meros qolgan erni ezozlash, qadriyatlarni saqlash, davlat, jamiyat ravnaqi uchun vijdonan ishlab, mamlakatni dushmanlardan himoyalash, zarur boʻlsa uning tinchligi uchun hayotini fido qilish ulugʻ sharaftir.

Vatanparvarlikning yana bir belgisi davlat va jamiyat manfaatlarini oʻz shaxsiy manfaatidan ustun qoʻyishdir. Haqiqiy fidoiylik vatanparvarlikning asosiy belgisidir. Vatanimizning mustaqil mamlakat sifatida mustahkamlanish, YUrtning iqtisodiy, manaviy-axloqiy rivoji, xalqning yaqin kelajakda obod hayotga etishi uchun fidokorlik bilan ishlash va izlanishni fidoiylik tuygʻusi hisoblanadi. Fidoiylik el-yurtga boʻlgan sadoqatdan va muhabbatdan boshlanadi.

Millatparvarlik va masuliyat tuygʻusi kuchli boʻlgan insongina millatning ravnaqi va istiqboli yoʻlida olib borayotgan maqsadlariga erishadi. Xalq hayoti turli inqirozlarga, tanazzullarga uchramasligi uchun yoshlarda millatparvarlik va masuliyat tuygʻusini yanada kamol toptirishga etiborni qaratish maqsadga muvofiqdir.

Siyosiy va iqtisodiy mustaqillikka erishgandan soʻng, mamlakat mustaqilligini himoya qilishda ham milliy birlikning barqarorligi muhim ahamiyatga egadir. Milliy davlat, til, madaniyat, axloq, qadriyatlar, ananalar rivojlanishi, yuk salishi uchun milliy birlik va birdamlikning barqarorligi zarur. Milliy birlik tuygʻusi oldin inson qalbida eʼtiqod, axloq, mafkura sifatida shakllanadi va shundan keyingina katta tarixiy, ijtimoiy-siyosiy kuch sifatida ahamiyatga ega boʻladi. shuning uchun ham milliy ong zaminida shakllangan milliy birlik-milliy mafkura, milliy vijdon, milliy axloq hamdir. Millatga xos manaviyatning barcha jabhalarini milliy ong oʻz ichiga qamrab oladi. U oʻz mohiyati jihatidan milliy birlik va birdamlik tuygʻusiga nisbatan kengroq va chuqurroqdir. Millatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida milliy ong ham oʻzgarib, rivojlanib boradi. Ayniqsa, tarixning burilish davrlarida milliy ongda ham qonuniy tarzda tub oʻzgarishlar yuz beradi. Masalan, milliy mustaqillikning mohiyati va ahamiyatini anglab etgan SHaxsda milliy ongning oʻsish suratlari yanada tezlashadi. Milliy qadriyatlarni tiklash, oʻrganish, hayotga keng joriy qilish milliy ong shakllanishi va rivojlanishiga oʻz tasirini

Insonparvarlik. Bu tamoyil – insonning yuksak ijtimoiy vazifasini belgilaydigan va barqaror etadigan gʻoyalar, qarashlar va eʼtiqodlar majmui, shaxs erki, qadr-qimmatini, uning baxtli boʻlish huquqini talab etish imkonining mavjudligiga engilmas ishonchdir. Insonparvarlik – odamiylikdir. Insonparvarlik axloqiy prinsip sifatida kishilarning xulqini bir-biriga hurmat va gʻamxoʻrlik, insonning kuch-qudratiga ishonch ruhida tartibga solib boradigan xatti – harakatlarni bildiradi. Uning tub mohiyati inson zotini hurmat qilish, qadr-qimmatini bilish hamda baxt-iqbolini yoʻlida doimo fidokorlik bilan kurashish va

g'amxo'rlik ko'rsatishdan iboratdir. Insonparvarlik – insonning yuksak ijtimoiy vazifasini belgilaydigan va barqaror etadigan g'oyalar, qarashlar va e'tiqodlar majmui, shaxs erki, qadr-qimmat, uning baxtli bo'lish huquqini talab etish imkonining mavjudligiga engilmas ishonch.

Umuminsoniy axloq prinsiplariga kiruvchi insonparvarlik davlat xizmatchilarining amalda qo'llash faoliyatida o'ziga hos tarzda namoyon bo'ladi. Biz qurayotgan erkin fuqarolik jamiyati nafaqat insonga mehr-muhabbat va izzat-hurmat ko'rsatishni asosiy tamoyil qilib olgan, balki SHaxsning har tomonlama kamol topishi uchun zarur bo'lgan haqiqiy insoniy shart-sharoitlarini yaratishni ham o'z oldiga oliy maqsad qilib qo'ygan.

Barcha fanlarning o'z kategoriyalar tizimi bo'lganligi kabi, etika fanining ham o'z kategoriyalari mavjud. "Kategoriya" so'zi yunoncha bo'lib, lug'aviy manosi "hukm", "guvoh", "ifodalash", "tarif berish", "fikr aytish" degan manolarni anglatadi. Har bir kategoriyaning o'ziga xos jihatlari va bajaradigan maxsus vazifalari mavjud.

Etikaning eng asosiy kategoriyasi **Muhabbat** hisoblanadi. Barcha kategoriyalar, tamoyillar va meyorlar zamira ham muhabbat tushunchasi yotadi. Faylasuf olim Abdulla SHer muhabbat kategoriyasini shunday izohlaydi: "Muhabbatning obekti doimo go'zallik, manfaatsiz go'zallik. U - Allohmi, Vatanni, yormi - muhabbat egasiga undan-da go'zalroq narsa yo'q. Ayni paytda bir obektni sevgan kishi boshqa obektlarni ham sevishi tabiiy. Deylik, yorga bo'lgan haqiqiy muhabbat Vatanga, insoniyatga muhabbatni inkor etmaydi, aksincha, barqaror qiladi. Zero, «o'z-o'zicha», «yakka», «xudbin» muhabbatning bo'lishi mumkin emas. Inson o'zi o'zgaga aylanganida, o'zgani o'ziga aylantira olganida haqiqiy muhabbat egasi hisoblanadi. Mana shu obekt bilan subekt orasidagi farqning «yo'qolishi» eng buyuk, eng mukammal lazzatdir."¹

Yaxshilik va yomonlik etikaning inson faoliyatini axloqiy jihatdan baholovchi markaziy kategoriyalardan hisoblanadi. Yaxshilik kategoriyasi odatda, kishining biror talabiga to'la javob beradigan, unga yoqadigan, malum bo'lgan hatti-harakatlar narsalarning ijobiy sifatlari, biror kishining manfaatini ko'zlab ish tutish, unga manfaat etkazish, xayrli, ezgu ishlarni amalga oshirish tushuniladi.

yaxshilik deb, tevarak atrofda sodir bo'layotgan voqea va hodisa vujudga kelayotgan narsalarning insonni ezozlaydigan, uning manfaat va ehtiyojlarini qondiradigan, axloqiy ideallariga mos keladigan, odamgarchilikning o'sishini har tomonlama taminlaydigan, pirovardida baxtli hayot kechirishga xizmat qiladigan barcha ijobiy tomonlarning yig'indisiga aytiladi.

yaxshilik kategoriyasi o'zining ko'p qirraligi, keng qamrovligi, axloqiy munosabatlarning universalligi, yani kishilar hayotining barcha jabhalarini qamrab olganligi bilan karakterlanadi. shuning uchun ham, u mehnat sohasida – jamiyat manfaati yo'lida qilingan halol ijodiy mehnat, siyosiy va huquqiy soxada – insonparvarlik, adolatparvarlik va boshqa shakllarda namoyon bo'ladi. yaxshilik yaxshi xulqlardan tashkil topadi: poklik, aql qadrini bilmoq, ota-onaga itoat qilmoq,

¹ Абдулла Шер. Ахлоқшунослик. Дарслик. –Т.: «Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти» нашриёти, 2010.Б.191

qarindoshlarni izzat-hurmat qilmoq, to‘g‘ri so‘zlar qilmoq, muhtojlarga yordam bermoq, sahoat, yumshoqlik, ochiqyuzlik, tavozi, shavqat, muruvvat va boshqalar.

Sahih hadislarida yozilishicha: “YAxshilik – nafsingiz taskin topib, dilingiz orom oladigan ishdur. YOmonlik yoki gunoh esa uning aksidir, garchi muftiylar fatvo bersalar ham o‘z qalbiningizga qarab ish tuting.” yoki “Barcha yaxshilik – hushxulqlikdadir. Barcha gunoh va yomonlik - dildagi g‘ashlik va uyatli ishdadir.”¹

YOmonlik deb, jamiyatning rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi, kishilarning axloqiy ideallariga, uning ezozlaydigan qadriyatlariga zid keladigan, baxtga erishishga, odamlar orasidagi munosabatlarda axloqiy taraqqiyotning qaror topishiga va insoniylikning o‘shishiga zid keladigan xatti-harakatlarni o‘zida mujassamlashtirgan tushunchalar yig‘indisiga aytiladi. YOmonlikning asosiy shakllari quyidagilardan iborat: kosmopolitizm, millatchilik, oshna-og‘aynichilik, odam o‘ldirish, o‘g‘rilik, zo‘ravonlik, mansabparastlik, poraxo‘rlik, tamagirlik, bezorilik, bosqinchilik, giyohvandlik, fohishabozlik va boshqalar. YOmonlikni borliqni aks ettirishiga qarab, ijtimoiy, tabiiy va axloqiy YOmonliklarga bo‘lish mumkin.

Alisher Navoiy “Maxbub-ul-qulb” asarida “YAxshi bo‘l, yomon bo‘l, ikkalasi bo‘laman deganning o‘zi yomon. Kimlar bilan bo‘lsang shulardeksan. Ular YOmon bo‘lsa, sen ham YOmon, ular yaxshi bo‘lsa sen ham yaxshi. YOmondan yaxshilik kutmoq behuda xayoldir. Itdan kiyikka, mushukdan kabutarga rahm-shavqat bo‘lishi maholdir.”² Demak, odamda yaxshi likka nisbatan beqiyos muhabbat, yomonlikka nisbatan nafrat bo‘lmog‘i lozim.

Vijdon etikaning nihoyatda tasir doirasi keng kategoriyalaridan biridir. U insonning o‘z faoliyati, qilgan ishlari va belgilagan maqsadlarini ruhiy tahlil eta olish imkoniyatidir. Inson manaviyatining kuchi, qudrati ham, o‘z qilmishiga o‘zi xolisona baho bera olish darajasi bilan belgilanadi. Vijdonga Abdulla SHer shunday baho beradilar: “Vijdon, Zigmund Froyd tabiri bilan aytganda, alo men, men ustidan nazorat o‘rnatib, uni boshqarib turuvchi ikkinchi bir, yuqori darajadagi men. Agar uyat hissi insonning tashqi, jamiyatga bog‘liqligidan kelib chiqsa, vijdon uning ichki o‘z-o‘ziga bog‘liqligini namoyon etadi. Bu ichki bog‘liqlik tashqi bog‘liqlikka nisbatan teran va doimiydir: uyat malum bir vaqt ichida odamning o‘z nojo‘ya harakati tufayli yuzaga kelgan o‘ng‘aysizligi bo‘lsa, vijdon azobi bu - oddiy o‘ng‘aysizlik emas, balki qalbdagi, odamdagi odamiylikka e‘tiqodning faryodi, talabi. Uni qondirmas ekansiz, hech qachon azob to‘xtamaydi. Uyat bilan vijdonni, shu bois, dengizdagi muz tog‘i – aysbergga o‘xshatish mumkin: yuzaga uyat tarzida chiqib turgan qismi teranlikdagi qismidan yuz, balki ming barobar kichik.”³ Vijdon – shaxsning faqat o‘zigagina xos bo‘lgan ruhiy tahlil imkoniyatidir. Lekin, SHaxsning vijdoni umuminsoniy, milliy, manaviy qadriyatlar zaminida shakllanadi, uning o‘ziga xos ehtiyoji va manfaatlari, dunyoqarashi va madaniyati hamda manaviy kamoloti darajasi bilan aralashib, faoliyatiga baho berishga imkon yaratadigan ruhiy mezoniga aylanadi. shu sababli, vijdonlilik darajasi hammada bir

¹ Axloq - odobga oid hadis namunalari. FAN” T. B.66

² Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi. Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti. Elektron kitob Tom 14. 3qism. 36 tanbeh.

³ Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. -T.: «O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2010.B.197

xil bo'lishi mumkin emas. Vijdon asosida o'z qilmishimizgagina emas, balki boshqalarning faoliyatiga, jamiyatdagi voqea va hodisalar va ijtimoiy vaziyatga ham baho beramiz.

Kamtarlik bu – avvalo o'z-o'ziga talabchanlik, o'z harakatlariga, ishiga, bilimiga tanqidiy qarash, o'ziga, kuch–quvvatiga ortiqcha baho bermaslikdir. Kamtarlik kishilarga bo'lgan munosabatda namoyon bo'ladi. Inson odobli bo'lsa, kishilar bilan shunchalik sodda va kamtarlik bilan muomala qiladi, o'z ishlariga va harakatlariga kamtarlik bilan baho beradi. O'zgalarga shirinso'z bo'ladi, boshqalardan o'zini ustun qo'ymaydi, sohta shuhrat ketidan quvmaydi, yutuqlaridan esankiramaydi.

Kamtarinlik Arastuning fikricha: “– uyatsizlik va tortinchoqlik o'rtasidagi xislatdir. Bu xislat odamlarning qilmishlarida va gap so'zlarida ko'rinadi. Uyatsiz, shaloq odam hammaga, har qanday vaziyatda har narsani gapiraveradi. Tortinchoq odam esa zarur gapni zarur vaqtda aytmaydi, zarur ishni bajarishga ham jurati etishmaydi. Kamtarin odam esa, uyatsiz odam kabi, har vaqt, har erda, har qanday gapni aytavermaydi; va o'ta tortinchoq odam kabi, zarur vaqtda zarur gapni aytishga juratsizlik ham qilmaydi.”¹

Kamtarinlik tortinchoqlik va andishalilikdan farq qiladiki, ular insonning qadr-qimmatini tushirib qo'yish ehtimoli bor. Kamtarlik hokisorlik va samimiylikdan kelib chiqadi. U kishilarga bo'lgan munosabatda ham yaqqol ko'rinadi. Kamtarlik inson ichki manaviy dunyosining tashqi ifodasi hisoblanadi. Tarbiya ko'rgan, odobli kishini uning kamtarligidan ham bilib olish mumkin. Barcha insoniy fazilatlar ichida eng ezozlisi kamtarlikdir. Kamtarlikning qarama-qarshi tomoni takabburlikdir. Ularning biri, insonni insonga YAqinlashtiradi, ikkinchisi esa, uni odamlardan uzoqlashtiradi. Xitoy maqoliga ko'ra “dono bo'lmay turib, kamtar bo'lish mumkin, ammo kamtar bo'lmay turib dono bo'lish qiyin”.

Adolat. Bu axloqiy, siyosiy-huquqiy kategoriya. Adolat jamiyat barqarorligini taminlovchi eng muhim axloqiy tushuncha. Adolat insonlarning bir-biriga, davlatni fuqarolarga bo'lgan munosabatida o'zaro muvofiqlikni ifodalaydi, qonunlarga rioya qilishni bildiradi. Manbalarda adolat deyilganda, ijtimoiy munosabatlarning faqat meyor-o'lchovi, tosh-tarozusi tushunilmaydi, balki adolat va adolat mezoni tushunchalari orqali axloqiy mehr-muruvvat, kishilar o'rtasidagi munosabatlardan kelib chiqadigan qadriyat, deb qaralib, bu tushunchaning ijtimoiy mohiyati belgilanadi. Adolatning ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlikdan asosiy farqi shundaki, adolatning o'zi biror-bir qadriyatni anglatmaydi, lekin qadriyatlar orasidagi nisbatni belgilaydi, ularni baholash maqomiga ega. Adolat jamiyatni tartibga soluvchilik xususiyatiga ega bo'lib, unda ham axloqiy, ham huquqiy talablar mujassamlashgan. Adolatni malum manoda axloq sohasidagi miqdor o'lchovchi, ham deyish mumkin: u talab bilan taqdirlashni o'lchab turadigan tarozidir. Adolat bor joyda zulm va zo'ravonlikka, o'zboshimchalik va beboshlikka yo'l qo'yilmaydi. shu bois, manaviy etuklikning eng yuksak belgisi adolatlilik, desak yanglishmagan bo'lamiz. Bejizga Davlatimiz rahbari parlamentga qilgan murojaatlarida adolatga quyidagi bahoni bermaganlar: “Men bir fikrni takrorlashdan

¹Arastu. Poetika. Axloqiy Kabir. -Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004. - B128

charchamayman: xalqimiz hamma narsadan ustun qo‘yadigan adolatni hayotimizda tom manoda qaror toptirish eng asosiy vazifamizga aylanishi shart.”¹

Adolat axloq va huquq tushunchasi sifatida axloqiy va huquqiy munosabatlarni nazorat qilib turuvchi, insonlarning faoliyatiga baho beruvchi zaruriy o‘lchov hisoblanadi.

Adolatning aniq meyorlaridan biri – bu birinchi navbatda demokratiyaning mavjudligidir. Demokratiya nafaqat hokimiyatni tashkil etish tamoyili bo‘lib qolmasdan, balki jamiyat hayotini xalq manfaatlarini asosida tashkil etish qoidalari hamdir. Shu manoda demokratiya jamiyatda iloji boricha ko‘pchilik uchun o‘z imkoniyatlarini ro‘yoga chiqarish sharoitlarini yaratadi. Bu esa ijtimoiy adolat tamoyillari uchun katta imkoniyatlarni taminlaydi.

Arastu adolat xususida shunday deydi: “Endi adolat nima va u qanday hollarda namoyon bo‘ladi, nimaga ekanligini ko‘rib chiqishimiz qoldi. Avvalo, adolatlik nimaligini bilib olaylik. Ikki xil adolatlik bor. Biri qonunga muvofiqlikdir. Qonun buyurganini qilish adolatli hisoblanadi. Qonun odamlardan mard, oqil va fozil bo‘lishni talab qiladi. Shuning uchun ham odillik – eng mukammal fazilat, deyiladi. Modomiki, adolatlik qonunlarga muvofiq yashash ekan, qonun esa barchadan fazilatlar bilan yashashni talab qilgan ekan, qonunlarga muvofiq, adolatli ish tutuvchi odam eng fozil odamdir. Adolatlik eng yaxshi fazilatdir”.²

Adolatning axloqiy tushuncha sifatidagi o‘ziga xosligi ayniqsa, huquqda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Huquq vazirligining hatto adliya vazirligi deb atalishi, jinoyatga yarasha jazoni belgilovchi, hukm chiqaruvchi idoralarning “Odil sud” degan nomlar bilan yuritilishi buning dalilidir. Lekin, adolatni faqat huquqiy tushuncha sifatida talqin etish to‘g‘ri emas. U, YUqori da aytganimizdek, keng qamrovli axloqiy tushuncha. U nafaqat fuqarolar orasidagi munosabatlarni, balki davlat bilan xalq, jamiyat bilan SHaxs o‘rtasidagi aloqalar mezonini ham o‘z ichiga oladi. Shu bois xalq orasida ming yillar mobaynida odil podsho idealining yashab kelgani bejiz emas.

Hozirda ijtimoiy adolat muammolari inson huquqlari va demokratiya g‘oyalari bilan uzviy bog‘liq holda talqin etiladi. Xalqaro huquq sohasidagi hujjatlarda ham bu tushunchaga jiddiy etibor berilmoqda. Jumladan, BMT hujjatlarida ijtimoiy adolatga shunday tarif beriladi: «Ijtimoiy adolat insonning hayotiy ehtiyojlarini qondirishni va moddiy resurslarni adolatli taqsimlashni anglatadi. Bu sohadagi faoliyat sog‘liqni saqlash va talim kabi muhim xizmatlarga umumiy dahldorlikni taminlash, dastlabki bosqichida teng imkoniyatlarni yaratish, noqulay (nochor) vaziyatdagi shaxslarni himoya qilish, istemol hamda daromadlar olish kabi sohalarda muvozanatni (mutanosiblikni) taminlashga qaratilganidir».³

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTININGRASMIY VEB-SAYTI

² Arastu. Poetika. Axloqi Kabir. -Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004. - B133.

³ Prava cheloveka i rabota v sosialnoy sfere. Tsentr po pravam cheloveka OON. - Jeneva, 1995.S- 15

Adolatga ijtimoiy munosabat sifatida qaralar ekan, shu o'ringa uning siyosiy-huquqiy kategoriya sifatidagi o'ziga xosligi ham masalani mohiyatini yoritishda muhimdir.

Burch – ado etilishi, bajarilishi majburiy bo'lgan vazifa, majburiyatdir. Demak, burch – qilinishi shart bo'lgan ish, vazifa. Burch - biror xatti-harakat uchun javobgarlik hissidir. Avvalo, bu tushunchalar axloqiy va shu bilan birga huquqiy tushuncha hamdir.

Axloqiy nuqtai nazardan qaraganda burch ijtimoiy-insoniy vazifalarni bajarishda keng namoyon bo'ladi. Burch eng avvalo oilaviy munosabatlarda mujassamlashadi; ota-onalik burchi; siyosiy va huquqiy burch; vatan oldidagi burch shular jumlasidandir. Davlat, jamiyat va xalq oldidagi burch aytish joiz bo'lsa, har bir inson – fuqaro hayot mazmun-maqsadi bo'lishi kerak. Bugungi kunda Vatan oldidagi burch millat oldidagi burch bilan chambarchas bog'lanib ketadi.

Burch manbaini, asosini ijtimoiy manfaatlar tashkil etadi. Burchda manfaat buyruq shaklida namoyon bo'ladi. Burch va masuliyat muhim axloqiy fazilatlaridir. Ayniqsa, vatan va xalq oldidagi burch va masuliyatni chuqur tushunib, unga amal qilish kishidan katta iroda talab qiladi.

Baxt - hayotning manosi bo'lmasa, xaqiqiy baxtning bo'lishi mumkin emas. Baxt inson hayotining umumiy bahosidir. Baxt inson o'z hayoti manosini qay darajada tushungani va shu manodan umri mobaynida qoniqish hosil qilib borishidan iboratdir. Har bir insonda qoniqish hissi undagi maqsadlarning takomilga etganidagina ro'y beradi. Faqat bu takomilga etish jarayoni bir umr davom etadi. shu manoda, buyuk ajdodimiz Abu Nasr Forobiy: «Baxt - har bir inson intiladigan maqsad, zotan u muayyan komillikdir», – deganida ko'p jihatdan haq edi.

Baxt – insonning yurish – turishi, turmush sharoitlari, jamiyatdagi o'rniga berilgan axloqiy bahodir. Baxtning mazmuni insonning shaxsiy hayoti doirasi bilangina belgilanmaydi. O'z shaxsiy manfaatini o'ylagan, boshqalar bilan iymon, insof, adolat, asosida munosabatda bo'la olmaydigan odamni baxtli, deb bo'lmaydi. Baxt insonlar o'rtasidagi munosabatlar asosida belgilanadi. Kimki jamiyatda, insonlar orasida o'zining halol mehnati, axloq – odobi, boshqalar bilan odilona, halol munosabati asosida obro', etibor ortirsa – o'sha baxtli odamdir. Baxt har bir insonning SHaxsiy hayotiga bevosita daxldor bo'lsa ham, uning mezonlarini jamiyat, jamoatchilik belgilaydi. Inson o'zining qay darajada baxtli ekanini anglamoqchi bo'lsa, o'zining mol – dunyosi, oilaviy hayotigagina emas, balki boshqalarning unga bo'lgan munosabatiga ham tayanmog'i lozim. Oilasi totuv, farzandlari axloqli, odobli, e'tiqodi mustahkam insonlar ham o'zlarini baxtli, deb hisoblaydilar. Lekin, inson o'zining oilaviy baxtiga, farzandlarining yurish – turishiga, e'tiqodi qay darajada mustahkamligiga boshqalarning nuqtai nazaridan ham qaray bilishlari shart. Bu ham insonning axloqiy kamoloti darajasiga bog'liqdir.

Biz jamiyatimizda bazida behissob boylikka ega yoki mansabning YUqori chuqqisida o'tirgan insonlarni ham baxtsiz ekanliklariga guvohmiz.

Baxt manaviy ehtiyoj bilan bog'liq, unda maqsadlarga birin-ketin erisha borish, qoniqish jarayoni, boya aytganimizdek, bir umr to'xtamaydi va doimo lazzat va zavqni o'z ichiga oladi.

Baxt garchand, orzu kabi idealning hissiy-ehtirosli shakli sifatida ko'zga tashlansada, aslida undan farqli o'laroq, shaxsning intilishini emas, shu intilishning ro'yobini anglatadi. Har bir intilishning ro'yobga chiqishi esa muayyan tayyorgarlikni va kurashni taqozo etadi.

Qadr-qimmat – tushunchasi inson o'z qadrini, bu dunyoda uning hayoti oliy qadriyat ekanligi, o'z shaxsi oldida o'zi masul ekanligini anglash uchun xizmat qiladigan hissiyot. U nomus, g'urur tushunchalari bilan bog'liq, bir tomondan insonning o'z qadrini har qanday holatda ham erga urmasligini taqozo etadi. Qadr-qimmat insonning jamiyatda, insonlar orasida tutgan o'rni, topgan obro'si, hurmati va nufuziga aytiladi. Qadr-qimmat o'z-o'zini anglash va nazorat qilishni ifodalaydi. Qadr-qimmat o'z qadrini anglash shakli bo'lib, insonni kamsitadigan, xo'rlaydigan va shu bilan uning boshqa kishilar ko'z o'ngida qimmatini yo'qotishiga sabab bo'ladigan qiliqlarga yo'l qo'ymaydigan to'siq hisoblanadi. Inson qadr-qimmatining mezonida mavjud bo'lgan eng adolatli va insonparavar axloq nuqtai nazaridan insoniylik darajasidir.

Nomus – mohiyatan shaxsning o'z qadr-qimmatini anglab etishi, shu qadr-qimmatning jamiyat tomonidan tan olinishi yoki olinmasligiga nisbatan bo'ladigan munosabatidir. Biroq, bu – nomus qadr-qimmat tushunchasi bilan bir xil manoga ega, degani emas. Chunki, qadr-qimmat shaxsdan o'zining boshqa odamlarga nisbatan kamsitilmasligini, atrofdagilardan barcha insonning teng huquqliligi tamoyilini o'ziga nisbatan qo'llashlarini talab qiladi. Nomus esa, o'z qadr-qimmatini bilishdan tashqari, har bir shaxsning jamiyatda alohida, o'ziga xos tarzda egallagan mavqei va shu mavqeni dog' tushirmay saqlash-saqlamasligi bilan bog'liq. Bu mavqe esa, shubhasiz, o'sha shaxsning ijtimoiy hayotdagi o'rni, kasbi, yoshi va unga nisbatan beriladigan axloqiy daraja bilan muayyanlashadi.

Meyor, yani "Norma" - lotincha so'z bo'lib, o'zbek tilida rasmiylashtirilgan qonun – qoida. Hamma uchun majburiy, deb hisoblangan, qonun hukmiga kirgan tartib – qoida; axloqiy qonun- qoidalarga asoslangan tartib – qoida hisoblanadi. Ularni kundalik hayotimizda malum axloq tushunchalarini va axloqiy tamoyillarning amalga oshish muruvatlari ham deyish mumkin, ular axloqiy talablarning eng oddiy, lekin keng tarqalgan shakli sifatida ro'yobga chiqadi. Axloq normalari deb, bir xildagi ish – amallarga joriy qilinadigan umumiy buyruqlar va taqiqlar orqali kishilar xatti-harakatini tartibga soluvchi axloq – odob talablarining shakliga aytiladi. Biz hozir ana shularga to'xtalib o'tamiz.

Halollik. Halollik vijdon, adolat va burch kabi etikaning mezoniy tushunchalari bilan bog'liq, insonning o'zgacha munosabati o'zicha munosabatidek sof, pokiza bo'lishini talab qilidigan axloqiy meyardir.

Insonni manaviy, axloqiy jihatdan bezaydigan ajoyib fazilatlardan biri - halol, pokiza yashash, birovlarning xaqqiga zarracha bo'lsada hiyonat qilmaslikdan iboratdir. Halol bilan haromni farqlash, faqat o'z mehnati evaziga tirikchilik qilish,

harom-harishdan jirkanish, haromxoʻrlikni eng katta gunohi azim va axloqsizlik deb bilish - bular Sharq faylasuflarining eng muhim gʻoyalaridan boʻlib hisoblanadi.

Halollik – insonning ichki va tashqi dunyosining birligi, soʻzi bilan xatti-harakati toʻgʻri kelishini, atrofdagi insonlarga ochiq koʻngil va samimiy munosabatini ifodalovchi manaviy-axloqiy fazilat.

Olimlar fikricha, halol va harom tushunchalari ijtimoiy mazmunga ega. Halollik jamiyatning axloqiy meyorlariga ongli ravishda va ixtiyoriy amal qilishga undaydigan hodisadir. Halollik inson harakterining mohiyatidan kelib chiqib, insonning oʻz vazifasini vijdonan va ongli ravishda bajarishida namoyon boʻladi. CHin manodagi halollik vadaga vafo qilish, soʻz bilan ish birligi demakdir. Soʻzining ustidan chiqmagan odam beburd, belafz odam hisoblanadi. Molu davlat peshona teri bilan, mehnat bilan topilsa haloldir. Halollik rostgoʻylik, toʻgʻrilik, axloqiy poklik, samimiylik kabi insoniy fazilatlar majmuasidan iborat. Halollik – haromning dushmani. Halol amallarga quyidagi fazilatlar kiradi: kasb-mehnat bilan tirikchilik qilish, halol rizq topish, yaxshi niyat qilish, yaxshi soʻzlash, yaxshi amallar qilish, omonat va qarzlarni oʻz vaqtida qaytarish, etimlarni kafillikka olish, vafodorlik, gunohni savob ishlar bilan yuvish, ehson va sadaqa qilish, muhtojlarga qarz berish, yordam koʻrsatish, mehr-muruvvatli va oqibatli boʻlish va hokazolar.

Xizmat vazifasini halollik bilan bajarish barcha insonlar uchun zaruriy boʻlgan axloqiy talab hisoblanadi. Davlat xizmatchilari xatti – harakatlaridagi halollik ular xulqining toʻgʻriligi, soʻzida qatilyligi, sobitqadam boʻlishi va umrining oxirigacha oʻz prinsiplariga sodiq qolishida koʻrinadi. shuning uchun ham, halollik kishiga ulkan axloqiy qoniqish bagʻishlaydi.

Rostgoʻylik yoki toʻgʻrisoʻzlilik insonning haqiqatga intilishi bilan bogʻliq xatti-harakatidir. Haqiqat esa doimo sinfiylik, partiyaviylik, mafkuraviylik va tarixiylik, davriylikdan yuqori turadi. Haqiqatning ifodaviy shakllaridan biri rostgoʻylikdir. Demak, rostgoʻylik – insonning keyinchalik kasb etgan tabaqaviylik, soʻziga, ongiga, ruhiga singdirgan, ijtimoiy, hayotiy, davriy, tajribaviy xususiyat emas, balki uning mohiyatida berilgan fazilat. M., yaqinda tili chiqqan yosh goʻdakni olaylik. U nima desangiz ishonadi, oʻzi nimaiki desa – rost gapiradi. Goʻdakning soddaligidan, ishonuvchanligidan, toʻgʻrisini aytishidan biz – kattalar kulamiz; lekin, haqiqat ustidan, rostgoʻylik ustidan kulayotganimizni oʻylab ham koʻrmaymiz. Goʻdak kattarib, «aqli kirib» borgani sari atrof-muhitda yolgʻon mavjud ekanligini, rost gapirsa yo kulgi boʻlishi, yo jazo olishi mumkinligini anglab etadi va asta-sekin yolgʻonga oʻrgana boshlaydi, dastlabki maishiy yolgʻon ijtimoiy bosqichga koʻtarildi. Insonning bu yoʻldan faqat yuksak manaviylik, birinchi galda axloqiy tarbiya qutqaradi. Ezgulik, nomus, qadr-qimmat, insonparvarlik, halollik, insof nima ekanini tushunib etgan kishigina rostgoʻy boʻla oladi. Rostgoʻylik oson emas. U insondan sabr-toqat, matonat va jasoratni talab qiladi, rostgoʻy inson qoʻrquvdan forigʻ boʻladi, har qanday holatda ham vijdoniga qarshi bormaydi: kimlarningdir koʻziga qarab, ish tutmaydi, yaqinlarini yoki hamkasabalarini xafa qilishdan, oʻz moddiy manfaatdorligiga zarar etkazishdan choʻchimaydi. Rostgoʻylikdan inson aziyat chekishi, tana-dashnomlarga qolishi mumkin. Lekin, bularning hammasi bir odamga yoki muayyan guruhga voqelikni asl hoida

etgazanligidan, ularni noto‘g‘ri yo‘lga solib yubormaganligidan qalbda paydo bo‘lgan manaviy qoniqish hissi, xotirjamlik va orom tufayli yuvilib ketadi, ichki bir quvonch unga baland ruh bag‘ishlaydi.

Xushxulqlilik. Bu axloqiy mezon davlat xizmatchisining faoliyatida nihoyatda zarur bo‘lgan hodisadir. Davlat xizmatchisi inson go‘zalligining asosi uning chiroyli xulqida ekanligini, aynan xushxulqlilik insonni ulug‘likka olib borishini, yoqimli xulq egasidan barcha katta-kichik xursand bo‘lishini, bunday xulq egasi boshqalarni xursand qilishdan tashqari, o‘zi ham doimo xursand yurishini, boshqalardan esa o‘ziga muhabbat va muloyimlik qaytishini yaxshi tushunadi.

Insoflilik halollik kabi vijdon tushunchasi bilan bog‘liq, malum manoda halollikka o‘xshab ketadigan axloqiy fazilatdir. Lekin, halollik o‘z haqi va haqqini, YAni moddiy va manaviy huquqini o‘zgalarning haqi va haqqiga xiyonat qilmagan holda ajratib yashashni anglatadi. Insoflilik esa ijobiylikda halollikdan ham bir qadam olg‘a tashlangan holatdir: unda kishi o‘z halol haqi va haqqidan o‘zganing hisobiga kechadi; «o‘zga»ning sharoiti o‘zinikidan nihoyatda og‘ir va YOmon ekanini hisobga olib, o‘z qonuniy haqi va haqqini yoki ularning bir qismini ixtiyoriy ravishda o‘zga beradi, muruvvat ko‘rsatadi.

Ixtiyor erkinligi va axloqiy tanlov. Olamdagi barcha jonzotlardan faqat insongagina ixtiyor erkinligi berilgan, “nima uchun?” degan savol tug‘iladi, chunki, inson barcha jonzotlar ichidagi eng aqlli maxluqot hisoblanadi. Ixtiyor erkinligi oliy axloqiy qadriyat hisoblanadi. Erkinliksiz axloqiy harakatlar amalga oshirilmaydi, chunki, ular tanlash orqali u yoki bu harakatni amalga oshiradilar. Biroq, insonga berilgan erkinlik orqali u tanlash huquqiga ega bo‘lib, hohlasa ezgulik yoki yovuzlikni tanlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Axloqiy fikrlashda ixtiyor erkinligi muammosiga nisbatan ikki xil fikr mavjud ular: 1. Fatalizm (lotincha fatalis so‘zidan olingan bo‘lib) unga ko‘ra dunyodagi hamma narsa aniq sabablar va oqibatlarga ega, shuning uchun, barcha harakatlarimiz oldindan xudo tomonidan belgilangan, YAni inson taqdiri oldindan belgilangan, degan fikrni ilgari surishadi. 2. Volyuntarizm (lotincha voluntas so‘zidan olingan bo‘lib) inson axloqiy qarorlar qabul qilishda mutlaqo erkin tarzda namoyon qilishi mumkinligi xaqida fikr bildiriladi. Falsafa qomusiy lug‘atida ham Fatalizm (lotincha fatalis so‘zidan olingan bo‘lib taqdirga oid, mashum) har bir hodisa va insonning barcha hatti harakatlarini taqdirga bog‘liq, deb qarovchi dunyoqarash. “Volyuntarizm esa (lotincha voluntas - iroda) olingan bo‘lib, falsafiy va psixologik oqim. Volyuntarizm irodani birlamchi, deb etirof qiladi. Uni mavjudotning bosh asosi, deb uqtiradi. Volyuntarizm atamasi – tarixiy jarayonlarning o‘ktiv qonuni bilan xisoblashmaydigan va amalga oshiruvchi shaxslarning subektiv hohishlari va erkin qarorlariga moslashuvchi ijtimoiy-siyosiy amaliyotni tavsiflash uchun ham ishlatiladi.”¹ – deb tarif berilgan.

Ustoz Abdulla SHER ixtiyor erkinligiga shunday tarif beradilar: “Ixtiyor erkinligi eng avvalo ixtiyorning uch bosqichda voqe bo‘lishi bilan bog‘liq. Birinchi bosqich, ichidan faqat bittasini tanlab olish va harakatga aylantirish mumkin bo‘lgan

¹ Falsafa qomusiy lug‘ati. O‘zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati nashriyoti. “Sharq” Matbaa nashriyot aksiyadorlik kompaniyasi. T., 2004. B.425

alohida xohish-istaklarning tug'ilishidan iborat. Ikkinchi bosqichda, mazkur hohishlarning o'zaro bir-birini tutib turishi, teng holatga keltirishi yuz beradi va bu tanlov orqali bir qarorda to'xtash imkonini yaratadi. Uchinchi bosqich, tanlangan hohishning o'ziga mos jismoniy harakatga o'tishi bilan belgilanadi.

Erkinlikka kelsak, shuni aytish kerakki, muayyan ixtiyorga berilgan erkinlik faqat tanlovning boshlanishida va tanlov jarayonidagina mavjud bo'ladi. Tanlov jarayoni tugashi bilan, YAni ikki narsadan birini tanlaganingiz zahoti ixtiyoringiz uchun berilgan erkinlikning vakolati tugaydi: siz ixtiyor qilib bo'ldingiz, bundan buyog'iga erkin emassiz, endi tanlagan narsangizga mos harakatni boshlashingiz kerak. Demak, ixtiyor erkinligi tanlanayotgan ikki narsa oralig'idagi fikrlash mobaynidagina voqe bo'ladigan hodisadir."¹ Demak, inson hayoti davomida doimiy ravishda axloqiy tanlov muammosiga duch keladi va undagi axloqiy tarbiyagina to'g'ri tanlash imkoniyatini beradi.

Insonni halollikka, poklikka, vatanparvarlik va insonparvarlikka, to'g'rilikka, ezgulikka, qisqa qilib aytganda, yuksak axloqlilikka yo'llash hozirgi kunda birinchi darajali ahamiyat kasb etadigan masalalardan biri bo'lib qoldi. Chunki, mamlakatimizning mustaqil va barqaror rivojlanishi iymonli, e'tiqodli, manaviyati kuchli, yuksak axloqiy fazilatlarga ega, qalbida milliy masuliyat tuyg'usi chuqur ildiz otgan zamonaviy manaviy barkamol insonlar qo'lidadir. Sharqona odob-axloq va umumbashariy g'oyalarni ongiga singdirib olgan kishi yuksak manaviyatli, YAni manaviy barkamol, komil inson hisoblanadi. Manaviy barkamollik insonning dunyoqarashi, e'tiqodi, ruhiyati, xulq-atvori normalari, axloq odobi bilan bevosita aloqadorligi bilan ajralib turadi. Manaviy barkamol kishilar xalq taqdiri va farovonligi, vatan taqdiri va uning ravnaqini o'ylaydilar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, shaxsning axloqiy sifatleri, Vatan va xalqqa sadoqati, mehnatga, insonlarga bo'lgan munosabati, aql-zakovati va qadr-qimmatini bilan o'lchanadi. Manaviyat-axloqiy qadriyatlar, xususan umuminsoniy va milliy qadriyatlar tasirida o'zgarib, rivojlanib, kamol topib boradi. O'z navbatida yuksak manaviyat shaxsning axloqiy jihatdan kamol topishida muhim rol o'ynaydi. Ijtimoiy hayotning bu ikki negizi doimo bir-biriga tasir etib, bir-birini to'ldirib, taqozo etib boradi. Bu uzluksiz davom etadigan jarayondir.

Mavzuni o'zlashtirish uchun savollar

1. SHaxs axloqini shakllantiruvchi omillarni sanab bering.
2. "Etika" fanining predmeti, mohiyati va tuzilmasi xaqida nimalarni bilasiz?
3. Gedonizm va evdemonizm talimotining axloqiy ahamiyati xaqidagi fikringiz?
4. Axloqning paydo bo'lishiga oid diniy, ilmiy qarashlar tasnifi xaqida nimalarni bilasiz?
5. Nima uchun XXI asrda global etosfera (axloqiy muhit)ni yaratishning zaruriyati paydo bo'ldi, deb o'ylaysiz?

¹ Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. -T.: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2010.B.165

6. Etikaning kategoriyalari, tamoyillari, meyorlarining SHaxs va jamiyat munosabatlarida namoyon bo'lishi haqidagi fikringizni izohlab bering.
7. Ixtiyor erkinligi va axloqiy tanlov nima u nimalarga asoslanadi?

14-mavzu. Nikoh va oilaning axloqiy asoslari, uning yoshlar tarbiyasidagi o'rni

Oilakishilik jamiyatining ijtimoiy poydevoridir. shunga ko'ra, jismonan sog'lom, manan barkamol, axloqan pok va yuksak madaniyatli yosh avlodni voyaga etkazishda oilaning o'rni beqiyos. O'zbekistonning taraqqiyot istiqboli oilaviy tarbiya muammolarini oqilona echilishga ham bog'liq. Buning uchun shu borada zarur chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish, oilaviy tarbiyaga tahdid soluvchi muayyan kuchlarga qarshi kurashib, bo'lajak ota-onalarning manaviy, axloqiy, madaniy va tarbiyaviy bilimlarini oshirish bilan bog'liq masalalarni hal etish bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biridir. Davlatimizda sog'lom oilani shakllantirish va oilada yuksak manaviy-axloqiy muhitni qaror toptirish uchun zarur shart-sharoit yaratish, yoshlarni oila qurishga tayyorlash, oilalar mustahkamligini va manfaatlarini taminlash, sog'lom farzand o'stirish, tarbiyalash va voyaga etkazish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Bunda, avvalambor, oilaning muqaddasligi hamda nikoh masuliyati bo'yicha kelajakda oila quradigan yigit va qizlarimiz tafakkurini, ongini o'zgartirishga alohida etibor qaratilmoqda.

Bosh qomusimizda oilani mustahkamlash, undagi munosabatlarni o'zaro muhabbat, ishonch va hurmat, hamjihatlik, bir-biriga yordam berish hamda barcha azolarining masulligi hissi asosida oila qurish, biror-bir SHaxsning oila masalalariga o'zboshimchalik bilan aralashishiga yo'l qo'yilmasligi hamda bu huquqlarning himoya qilinishini taminlash kabi asosiy tamoyillar o'z ifodasini topgan. Oila va nikoh munosabatlari, sog'lom ona-sog'lom bola masalasiga etibor, oila institutini har tomonlama qo'llab-quvvatlash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Konstitutsiyamizning 63-moddasida «Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega» deb belgilab qo'yilganligi oilaning qanchalik yuksak asos ekanini ko'rsatadi. Qolaversa, mamlakatimizda olib borilayotgan kuchli ijtimoiy himoya siyosati mohiyatida ham davlat va jamiyatning oilaga bo'lgan doimiy g'amxo'rliqi o'z ifodasini topgan.

Nikoh – erkak va ayolning teng huquqli, erkin va ixtiyoriy ittifoqi bo'lib, u fuqarolik xolati dalolatnomalarini yozish organlarida tuziladi va oila tuzish maqsadiga xizmat qiladi. Nikoh oilaning vujudga kelishida birdan bir asos bo'lgani bois u faqat axloq normalari bilan emas, balki maxsus qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Oila nikohdan boshlanadi. Nikoh rasmiy, qonunlar asosida o'tkazilgandagina haqiqiy hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining birinchi moddasida nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida tuzilishi lozimligi ko'rsatilgan. Nikohdan o'tuvchilar FHDYOga ariza berganlaridan keyin bir oy

o'tgach, SHaxsan ularning ishtirokida amalga oshiriladi. Uzrli sabablarga ko'ra FHDYO bir oy sinov muddati o'tgunga qadar nikoh tuzishga ruxsat berishi mumkin.

Balog'atga etmaganlarning nikohga kirishining oldini olish, ularning sog'ligini himoya qilish maqsadida hamda oilani qurish uchun malum hayotiy tajriba, jismoniy va manaviy etuklik talab qilinishini etiborga olgan holda, qonun nikoh yoshini erkaklar uchun o'n sakkiz yosh, ayollar uchun o'n etti yosh etib belgilangan.

Uzrli sabablar bo'lgan, alohida hollarda nikoh yoshi erkak va ayollarga bir yoshga kamaytirilishi mumkin. Bu sabablarga, masalan: nikohga kiruvchi ayol homilador bo'lib qolishi, bir taraf og'ir kasal bo'lgan yoki harakatdagi armiyaga ketayotgani va boshqa shunga o'xshash hollar kiradi. Bunda nikoh davlat ro'yxatidan o'tkaziladigan joydagi tuman, shahar hokimi nikoh yoshini ko'pi bilan bir yilga kamaytirishi mumkin.

Nikoh, nikohga kiruvchilarning ixtiyoriyligi, erkin roziligi asosida tuziladi. Nikohni tuzish uchun bo'lajak er-xotin o'z roziligini erkin ifoda etish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Agar shaxs o'z xatti-harakatlari oqibatni tushunmaydigan holda (qattiq mastlik, ruhiy holatining vaqtincha buzilishi) yoki aldov oqibatda nikohdan o'tgan bo'lsa, bunday nikoh qonunda belgilangan tartibda haqiqiy emas deb topiladi.

Nikoh tuzishga majbur qilish qonun bilan taqiqlanadi. Ayolni o'z erkiga xilof ravishda erga tegishga majbur qilish O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 136-moddasiga ko'ra jazolanadi.

Nikoh tuzish haqidagi arizani berishda SHaxsni aniqlovchi hujjatlar: pasport, harbiy bilet, ofitser, praporshikning SHaxsiy guvohnomasi, nikohlanuvchilarning biri ilgari nikohda bo'lgan bo'lsa, nikohdan ajralganlikni tasdiqlovchi hujjat (guvohnoma yoki sud qarori), nikohni haqiqiy emas, deb topilganligi to'g'risidagi sud qarori, er-xotindan birining o'limi to'g'risidagi guvohnoma ko'rsatilishi kerak. Bu oila tuzilishi va yaratilishining huquqiy jihatlari.

Axloq nuqtai nazaridan oilaning asosi bo'lmish nikoh – ezgu maqsadga yo'naltirilgan, zimmasiga zurriyot qoldirishdek YUk sak masuliyat yuklangan sevgi, sevishtning ijtimoiylashgan ko'rinishi. Sevgi-muhabbat faqat erkinlikda namoyon bo'lishini hisobga olinadigan bo'lsa, nikohni malum manoda, ananalar, urf-odatlar va e'tiqodlarga moslashtirilgan sevgining yashash sharti deyish mumkin.¹ O'zbek oilasining dunyodagi boshqa oilalarga o'xshash tomoni ko'p, shu bilan birga O'ziga xos jihatlari bor. Xalqimizning: "Nikoh eng avvalo Arshi aloda o'qiladi, keyin esa erda" degan naqli behuda aytilmagan. Ota-bobolarimizning azaliy tushunchalari bo'yicha nikoh ilohiy ahd, oila muqaddasdir. Oila qurishdan asosiy maqsad farzand ko'rishdir.

Malumki, oila munosabatlari taraqqiyotida Yer va xotinning o'zaro munosabatlari, bu munosabatlarning ijobiyligi, er-xotinning bir-birini tushunishi, bir-birlariga nisbatan hissiy intilishlari, o'zaro hurmati, farzandlar tarbiyasidagi teng huquqliligi va qator shu kabilar oila mustahkamligini taminlovchi muhim psixologik omillar hisoblanadi. shuning uchun ham, jahonning barcha rivojlangan

¹ Абдулла Шер. Ахлоқшунослик. Ўзбекистон миллий файласуфлари жамияти. – Тошкент, 2010. 294-б.

mamlakatlarida oila muammolarini hal etish, tadqiq etish masalalariga oid ishlarda bevosita oiladagi SHaxslararo munosabatlar tizimining asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan er-xotin va farzandlar munosabatlari xususiyatlarini, holatini o‘rganishga alohida etibor beriladi.

Oila – tarixan tarkib topgan o‘ziga xos va mos ijtimoiy guruh bo‘lib, uning azolari bir-birlari bilan nikoh, qon-qarindoshlik, umumiy turmush va o‘zaro huquqiy, axloqiy va boshqa munosabatlar bilan bog‘langandir. Oila nikoh zaminida vujudga keladi. Nikoh esa erkak va ayol orasidagi munosabatlarning jamiyat tomonidan tan olingan, maqullangan ifodasi hisoblanadi.

“Oila uch jihatni: o‘zining bevosita ko‘rinishi bo‘lmish nikohni; oilaviy mulk va anjomlar hamda ular haqidagi g‘amxo‘rlikni; bolalar tarbiyasini o‘z ichiga oladi”.¹

Nikoh tuzishga oid munosabatlar O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 12 apreldagi 171-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalari” to‘g‘risidagi yo‘riqnoma, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 25 avgustdagi 365-son qarori bilan tasdiqlangan “Nikohlanuvchi SHaxslarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida”gi nizom va boshqa qonun hujjatlarga muvofiq amalga oshiriladi. Nikohni rasmiylashtiruvchi yagona idora bu Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlaridir, o‘tmishda diniy rasm-rusumlarga binoan nikoh tuzilib kelingan, hozirgi kunda diniy rasm-rusumlarga binoan nikoh tuzilishi huquqiy ahamiyatga ega hisoblanmaydi. Nikoh tuzish ixtiyoriy amalga oshirilishi va nikohni tuzish uchun bo‘lajak er-xotin o‘z roziligini erkin ifoda etish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim. Oila kodeksining 16-moddasiga asosan nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar alohida belgilanib qo‘yilgan. Unga muvofiq birinchi holatda tomonlardan loaqal bittasi ro‘yxatga olingan boshqa nikohda turgan SHaxs bo‘lsa, ikkinchi holatda nasl-nasab shajarasi bo‘yicha to‘g‘ri tutashgan qarindoshlar o‘rtasida bo‘lsa,uchinchi holatda tug‘ishgan va o‘gay aka-ukalar bilan opa-singillar o‘rtasida, shuningdek farzandlikka oluvchilar bilan farzandlikka olinganlar o‘rtasida, to‘rtinchi holatda tomonlarning loaqal bittasi ruhiyat buzilishi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan SHaxslar o‘rtasida, beshinchi holatda tomonlarning loaqal bittasi nikoh qurish yoshidan kichik bo‘lsagina nikoh tuzishga monelik qiluvchi holatlar mavjud hisoblanib, nikoh tuzish qonunan man etiladi.

Nikoh – erkak va ayolning teng huquqli, erkin va ixtiyoriy ittifoqi bo‘lib, u fuqarolik xolati dalolatnomalarini yozish organlarida tuziladi va oila tuzish maqsadiga hizmat qiladi.

Nikoh o‘z mohiyatiga ko‘ra ahloqiy hodisa. Unda ehtiroslar axloqqa bo‘ysundiriladi. Oila quyidagi xolatlarda quriladi:

1. sevgi – muhabbat bilan;
2. hissob – kitob bilan;
3. urf – odat ananaga ko‘ra;
4. majbur bo‘lib qolgan holatlarda;

¹ Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. -T.: «O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2010.B.293

SHariat bo'yicha nikoh:

– Er-xotinning huquq va majburiyatlari SHariat bo'yicha belgilangan bo'lib, ular o'rtasidagi huquqiy munosabatlar nikoh ahdi tuzilib, kelishilgan qalin va ajratilgan mahr berilgandan keyin boshlanadi.

– Oilaning tinchligi, uning farog'atli turmushi shu oilaning boshida turgan Yer bilan xotin orasidagi do'stona munosabatlarga bog'liq.

– SHariat bo'yicha nikoh shartnomaga o'xshab ketsada, undan farq qilgan. U umurbod tuzilgan. SHariat muddatli shartlarga yo'l qo'ymagan. Agar nikoh ahdidagi muddatli shartlarga malum hafta, oy yoki yilga yo'l qo'yilgan bo'lsa, bunday nikoh haqiqiy emas, deb sanalgan.

SHariat bo'yicha nikohdan o'tish uchun nikohdan o'tuvchilardan bir qator shartlarga rioya qilish talab etilgan.

Ular:

– Birinchidan – nikohdan o'tuvchilarning o'zaro roziligi;

– Ikkinchidan – nikoh yoshiga to'lish;

– Uchinchidan – nikohni guvohlar ishtirokida tuzish;

– To'rtinchidan – kelin uchun qalin va mahr to'lash;

– Beshinchidan – diniy e'tiqod birligi;

– Oltinchidan – nikohdan o'tadiganlar YAqin qon-qarindosh bo'lmasligi;

– Ettinchidan – tabaqa bo'yicha tenglik;

– Sakkizinchidan – nikohdan o'tuvchilarning ruhiy jihatdan sog'lom bo'lishi lozim.

– SHariat bo'yicha nikoh ahдини tuzish vaqtida albatta ikki kishi guvohlikka o'tishi lozim. Guvohlikka o'tishga qo'yilgan SHaxslar nikoh ahдини tuzuvchilarning o'zaro roziligini o'zlari bir vaqtning o'zida eshitgan bo'lishlari lozim edi.

– SHariat bo'yicha nikoh ahдини tuzishning navbatdagi sharti qalinni to'lash va ajratilgan mahrni berishdan iborat bo'lgan. Bu siz nikoh haqiqiy emas, deb sanalgan. Mahr kuyov tomonidan kelinga berilib, uy-joy va sepdan iborat bo'lgan. Har bir hududda mahr, qalin hajmlari har-xil bo'lgan.

– SHariat bo'yicha, faqat islom diniga mansub bo'lgan SHaxslargina o'zaro nikoh tuza olgan. Agar ayol boshqa dindan islom diniga o'tsa, u bilan nikoh qurish mumkin edi.

Nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar:

– Quyidagi holatlarda nikoh tuzishga yo'l qo'yilmaydi:

– Nikohga kiruvchilarning loaqal bittasi ro'yxatga olingan boshqa nikohda bo'lsa;

– Nasl-nasab shajarasi bo'yicha to'g'ri tutashgan qarindoshlar (bobo, buvi, ota-ona, farzandlar, nevara va chevaralar) o'rtasida, tug'ishgan va o'gay aka-ukalar bilan opa-singillar o'rtasida, shuningdek farzandlikka oluvchilar bilan farzandlikka olinganlar o'rtasida;

– Nikohga kiruvchilarning loaqal bittasi ruhiyati buzilishi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan bo'lsa,

– O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi qo'shxotinlikni taqiqlaydi.

– Respublikamizning Jinoyat Kodeksi 126-moddasida ko'p xotinlilik, yani ikki yoki undan ortiq xotin bilan er-xotin bo'lib yashash jinoyat hisoblanadi.

– Malumki, qarindoshlar o'rtasidagi nikoh oqibatida ko'pchilik bolalar nogiron bo'lib tug'ilishadi. SHifokar fikricha, yaqin qarindoshlar: amaki, xola, tog'a va ammavachalarning farzandlari o'rtasidagi nikohiy munosabatlar ham salbiy oqibatlarga olib keladi.

– Ruhiy kasalligi bo'lgan shaxsning kasalligini bekitib, balki nikohiy munosabat natijasida tuzalib ketadi deb ayirim ota-onalar qonun buzilishga ham yo'l qo'yadilar. Natijada nikohning bekor qilinishi, oilada nogiron farzand tug'ilishi kabi fojialar ham sud amaliyotida uchrab turadi.

Otalikni belgilash:

– Bolaning onasi bilan nikohda bo'lmagan shaxsning otaligi o'zini bolaning otasi deb tan olgan SHaxs va onaning fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish organiga birgalikda topshirgan arizasiga binoan belgilanadi.

– Otalikni belgilash faktini mustahkamlash uchun bolaning (bolalarning) aynan shu otadan tug'ilganligini tasdiqlaydigan dalillar bo'lishi shart.

– Bundan tashqari ota va bola o'rtasida nasl-nasab bilan bog'liq bo'lgan o'zaro huquq va majburiyatlarni ifodalovchi huquqiy munosabatlar ham o'rnatiladi.

– Otalik, shuningdek, otaning qarindoshlari qatoriga kirganligi ham anglatadi va bolaning ota qarindoshlari, yani buva, buvi, aka-ukalar va opa-singillar bilan qarindoshligini aks ettiradi.

– O'zaro nikohdan bo'lmagan ota-onadan tug'ilgan bolaning otasini aniqlash masalasi, agar ota yoki ona fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish organiga birgalikda ariza berishdan bosh tortsa yoxud otaning o'zi vasiylik va homiylik organining roziligi bilan (sud qarori) bilan ariza bersa, sud tartibida yoritadi.

Sudga arizani ota yoki ona, vasiy (homiylar), bolani o'z qaramog'iga olgan SHaxs, bolaning o'zi balog'at yoshiga etganidan so'ng beradi. Oila muqaddas urf – odatlarimizni saqlaydigan tarbiya o'chog'idir. YOshlarning manaviy qiyofasi, ularning xatti-harakatlari, xulq-atvorlari dastlab oilaviy munosabat madaniyatida ifodalanadi. Oilaviy munosabat madaniyati nima? Bu – oilada insonga xos va mos sharoitlarni yaratish, oilaning vazifalarini to'la bajarish, oilaviy turmush tarzini to'g'ri shakllantirish, oila azolarining xulq – odobi, dunyoqarashi, mafkurasini, oilaviy hayotning davomiyligini taminlashdir. Mustahkam oila mustahkam

jamiyatning asosidir. shunday ekan, jamiyat oilalarni mustaxkamlash, oilaviy munosabatlar madaniyatini takomillashtirishga alohida etibor berib kelmoqda.

Oila, jamiyat va davlat bilan o‘zaro bog‘liq bo‘ladi va ular bilan bir vaqtda rivojlanib boradi. Oila nafaqat axloqiy balki, demografik, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa muhim funksiyalarni bajaradi. shuning uchun, jamiyat va davlat oilaning farovon bo‘lishidan manfaatdor bo‘ladi.

Oila azolari bir-birlari bilan umumiy turmush, o‘zaro iqtisodiy-mulkiy, huquqiy, axloqiy, ruhiy aloqalar bilan bog‘lanadi. Oilaning birinchi vazifasi o‘z nasl-nasabini davom ettirishdan, tarbiyali farzandlarni o‘stirishdan, oila azolarining tirikchiligini, bo‘sh vaqtini ko‘ngilli o‘tkazishni taminlashdan iboratdir.

Insonning ijobiy va salbiy sifatlarni shakllanishi aksariyat hollarda oilada beriladigan tarbiyaga bog‘liq bo‘ladi. shuni alohida takidlash mumkinki, sog‘lom avlodlarni tarbiyalash hozirgi kunning muhim masalalaridan hisoblanadi. Buning uchun, avvalo oilalardagi psixologik muhitni sog‘lomlashtirish dolzarbdir.

Oilaning psixologik muhiti – bu oila azolarining oilaviy munosabatlarda, ijtimoiy muhit va kasbiy munosabatlaridagi ijtimoiy-psixologik faolligini umumiy ko‘rsatkichlari majmui hisoblanadi. Psixologik muhit – bu oilaning asosiy ko‘rsatkichi bo‘lib, ijtimoiy jarayonlarda, ayniqsa, oilaning ijtimoiy muhitdagi salbiy tasirlarga qarshi tura olish qobiliyatida aks etadi. Oilaning psixologik muhiti uning azolarini hayot faoliyati davomidagi o‘ta keskin holatlarda ham, muammoli vaziyatlarni hal qilishda yuzaga keluvchi bosiqlikni tavsiflaydi.

Bejizga xalqimizda “Teng – tengi bilan” degan maqol bejizga aytilmagan. CHunki, yoshlarni oilaviy munosabatga kirishganda ular qiynalib qolmasliklari uchun: oilaviy qadriyatlarining bir-biriga mos kelishi, oilalardagi rollarni er-xotinning funksional-rolli o‘zaro muvofiqlik bo‘lishi, ijtimoiy munosabatlarga moslashuvchan bo‘lishi, oilaviy munosabatlarni umrini oxirigacha davom etishiga intilish kabilar asosiy mezon hisoblanadi.

Oilaning psixologik muxitini taminlashda ota-ona va farzandlarning bir-birlariga bo‘lgan samimiy iliq munosabatlari hamda shaxslararo munosabatlarga ham bog‘liq bo‘ladi. shu bilan bir qatorda, ota-onalarda oila haqidagi tasavvurlarning kengligi, ayniqsa bola tarbiyasiga doir bilim, ko‘nikma, malakalariga ega bo‘lishi bilan belgilanadi.

Jamiyatimizda sog‘lom oilalar bilan bir qatorda nosog‘lom oilalar ham mavjud. Nosog‘lom oila muhitini sog‘lomlashtirish uchun avvalo quyidagilarga etibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Birinchidan, oilada ota-ona bolalarning istak va qiziqishlarini o‘zlarining istak va qiziqishlariga mos ravishda boshqara bilishi lozim bo‘lsa, ikkinchidan, oilada har bir bolaga ularning individual-psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib, muomala munosabatda bo‘lishlari talab etiladi. Kattalarning xatosi tufayli yoshlar noto‘g‘ri yo‘ldan yurishi – yolg‘onchi, g‘iybatchi, noshukur hamda hiylakor bo‘lib qolishi mumkin. O‘zi tarbiyaga muhtoj ota-onalarni bolalar tarbiyasiga salbiy tasir ko‘rsatishlari hammaga ayon. shundan kelib chiqib, bunday oilalarni jamoatchilik qattiq nazoratga olishi, u oiladagi farzandlar tarbiyasiga etiborli bo‘lishi maqsadga muvofiq.

“Bolalarni kattalarning aytadigan soʻzlari emas, ularning qilgan amallari tarbiyalaydi”¹. Bola kichikligida kattalarga taqlidchan va itoatkor boʻladi. Kattalar nimani buyursa shuni bajaradi, aytganlaridan chiqmaydi. Katta boʻlgan sari aqli koʻp narsaga etadigan boʻlib boradi. Endi u bazi masalalarda kattalar bilan kelisha olmaydi, oʻz fikrida turib oladi. Buni kattalar odobsizlik, oʻjarlik, oʻzboshimchalik deb tushinib, uni jazolashga harakat qiladilar, lekin bunday nohaklik bilan bola qalbi jarohatlanadi. Natijada, ota-ona obroʻyiga putur etadi. Oqibatda ota-ona va bola oʻrtasidagi mehr-muhabbat ishonchining yoʻqolishi kabi oqibatlarga olib keladi.

Ota-ona va bolalar oʻrtasidagi ijobiy muomala munosabatlarini yuzaga keltirish koʻp jihatdan ota-onalarning oʻz bolalarini, ularning fel-atvori, xarakter xislatlari, qiziqishlari kabilarni bilishlariga bogʻliqdir. shu jihatdan ham, har bir ota-ona eng avvalo, oʻz farzandlarini yaxshi bilishlari, hohish-istaklari, psixologik holatlarini bilishlari va shu asosda muomala munosabatda boʻlishlari lozimdir.

Oila va oilaviy munosabatlarning, shu jumladan ota-onaning tasir doirasi kuchliligini hisobga olib, eng avvalo mahalla oqsoqollari va keng jamoatchilik nosogʻlom oila muhitini sogʻlomlashtirishga ota-ona xulqidagi salbiy illatlarni tuzatishga harakat qilishlari lozim boʻladi.

Oilaning mustahkamligi oila azolarining axloqiy tarbiyasiga bogʻliq. Xalqimizda bejiz “Sogʻlom turmush tarzi mustahkam oilaning garovidir” deb aytilmagan. Sogʻlom turmush tarzi deganda, biz nafaqat oiladagi Yer va xotinning bir-biriga boʻlgan munosabati balki, ulardagi axloqiy fazilatlar, imonlilik, poklik, halollik, rostgoʻylik, shirinsoʻzlik, kabi axloqiy meyorlarga amal qilgan xolda urf – odatlarga asoslangan, zamonaviy oilani tushunamiz.

Oilada eng asosiy narsa – bir-birini tushunish, qadrlash va ezozlashdir. er-xotindan birining kamchiligini ikkinchisining fazilati bilan yopilib yurmogʻi lozim. Oilada ikki yosh bir butun boʻladi, muhabbat – nikoh iplarini mustahkamlaydigan, axloqiy masuliyatni yanada oshiradigan hissiyotdir. Ikki yosh hissiy holatlarini oʻzaro tushunib borishi natijasida oilada moʻtadil kayfiyat qaror topadi, qarashlar uygʻunligi tugʻiladi. Zero, muhabbat faqat oʻzaro hissiy qoniqishgina boʻlib qolmasdan, munosabatlar goʻzalligiga aylanadi.

Oila – bu kichik jamoadir. Unda oʻzaro muomalaning barcha qoidalariga amal qilinishi kerak. Kattalarga hurmat, kichiklarga izzat; bir-biriga mehribon boʻlish, ayniqsa ayollarni izzat qilish kabi qoidalar kundalik odatga aylanib borishi kerak. Ota - ona bolalariga namuna. SHuning uchun, ular oilada axloq madaniyatiga toʻla rioya qilishlari shart.

Oilaviy munosabatlar nisbatan mustaqil hodisa boʻlib, oilaning ichki ishlariga hech kim aralashishga haqqi yoʻq. SHu sababli ham, oila muqaddas va dahlsiz hisoblanadi. Oilaviy munosabatlar jamiyatdagi mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy va manaviy munosabatlar bilan belgilanadi va ular tasirida oʻzgarib boraveradi.

¹ K. Yung. K.Kereni. Dusha i mif. Kiyev-Moskva, Port-Royal-Sovershenstvo.1997.B-114.

Oilalarda nafaqat oilaviy munosabat, balki qon-qarindoshlik munosabatlari madaniyati ham yuksak darajada rivojlangan bo‘ladi. Bunday oilada bobo, buvi, ota-ona, amaki, aka-uka, opa-singil, jiyan, kuyov, kelin quda-anda, qaynota-qaynona kabi o‘nlab qarindoshchilik darajalarini bildiruvchi mezonlarga amal qilinadi. Bu munosabatlarda milliylikning asl o‘zagi namoyon bo‘ladi. Bu munosabatlarning afzalliligi shundaki, bunda qarindosh-urug‘lar bilan oqibatli bo‘lib yashash, farzandlarni milliy udum, qadriyatlar ruhida tarbiyalash uchun imkoniyat tug‘iladi hamda ular qarindoshlar orasida ham moddiy va manaviy tayanch-suyanch bo‘lib yashashga odatlanadilar.

Bunday oilalarda tarbiyalangan farzandlar ham barcha bilan munosabatda tezda kirishib keta oladigan, munosabat madaniyatiga rioya etadigan inson bo‘lib shakllanadilar, chunki bu bolalarni bitta oila emas, bir necha oila tarbiyalaydi. Oilaviy sharoit u yoki bu oila azolarining kelajakda hayotiga bevosita tasir qiladi.

Oilaviy ajrimlar har bir oila azolariga qattiq tasir qiladi. Etikada oilaviy ajrimlarning uch turi ko‘rsatiladi. Birinchisi, nikohni bekor qilinishi bilan ajralish – bunda oilaviy mulk, va farzandlar tarbiyasi qonun asosida taqsimlanadi. Bunday sabab o‘zaro kelishmovchilik hamda tushunmovchilik, o‘zaro muhabbatning yo‘qligi natijasida paydo bo‘ladi. Ikkinchisi, tabiiy ajralish bo‘lib – oila azolarining biri falokat yoki kassallik tufayli vafot etgan oila mulkining meros sifatida taqsimlanishiga sabab bo‘luvchi ajralishdir. Uchinchisi – axloqiy ajralish bo‘lib, bunda bolalar balog‘atga etib, oila qurilishlari – ota-onalar ular uchun oilaviy mulkdan uy-joy, turli maishiy jihozlar ajratib berishlari belgilanadi. SHunga ko‘ra, oilada har bir azoning o‘ziga yarasha majburiyatlari mavjud. Ayniqsa, o‘z odatiy turmush tarzini o‘zgartirib, o‘zga oilaga kelin bo‘lib kelgan qizlarimizning yangi oila azolari bilan bo‘lgan o‘zaro munosabatlari juda muhim hisoblanadi.

Oilaviy ajrimlarning kelib chiqishiga oiladagi nizolar sabab bo‘ladi. Oilaviy nizolar – bu ijtimoiy keskinlashgan vaziyat xisoblanadi. Nizolar er-xotinlar, ota-onalar va bolalar, er-xotinlar va ularning ota-onalari o‘rtasida va boshqa YAqinlar o‘rtasida yuzaga keladi. Oiladagi turli yoshdagi kishilarni yashashi nizo chiqish ehtimolini paydo qiladi. Keskinlashayotgan ziddiyatga er-xotinlar o‘rtasidagi munosabatlar, bir-birini tushunmaslik yoki hatto tushunishga harakat qilmaslik ham sabab bo‘layotganligiga guvoh bo‘lmoqdamiz.

Oilaviy ajrimlarning kelib chiqish sabablari:

- Oila va oilaviy munosabatlar haqida bilimning etishmasligi.
- Aroqxo‘rlik va giyohvandlik.
- yosh oilaga ota-onalarning aralashuvi.
- Befarzandlik
- hiyonat

Oiladagi sog‘lom muhit – sog‘lom mafkurani shakllantirishga hizmat qiladi. Insoniy fazilatlar – ezgulik, yaxshi lik, fidoyilik, sadoqat, mardlik, insof, rahm-shafqat kabi hislatlar dastlab oilada shakllanadi.

Oila yoshlarni axloqli, odobli, rostgo‘y, halol va samimiy bo‘lib voyaga etishlari uchun zamin tayyorlaydi.

O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov bu haqda shunday degan: “Har qaysi millatning o‘ziga xos manaviyatini shakllantirish va yuk saltirishda, hech shubhasiz, oilaning o‘rni va tasiri beqiyosdir. Chunki, insonning eng sof va pokiza tuyg‘ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag‘rida shakllanadi. Bolani harakterini, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan manaviy mezon va qarashlar – yaxshilik va ezgulik, olijanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir.”¹

Oila tarbiyasi bolaning kelajakda kim bo‘lib etishishida muhim rol o‘ynaydi. Demak, bola oilada jamiyatning timsolini ko‘radi, bo‘lajak fuqaroning tabiati, dunyoqarashi va axloqiy qiyofasi oilada shakllanadi hamda shunga ko‘ra kamol topib boradi. Oila tarbiyasining mohiyati kishini hayotga tayyorlashdan iborat. Oila – bu kichik jamoadir. Unda o‘zaro muomalaning barcha qoidalariga amal qilinishi kerak. Kattalarga hurmat, kichiklarga izzat; bir-biriga mehribon bo‘lish, ayniqsa ayollarni ezozlash kabi qoidalar kundalik odatga aylanib borishi kerak. Ota-ona bolalariga namuna. Shuning uchun, ular oilada axloq madaniyatiga to‘la rioya qilishlari shart.

Oilaviy axloq o‘z juftini ishonch xalqalari bilan bog‘lanishini taqozo etadi. SHu bois o‘z yaqiningizni yolg‘onchilikda ayblash yoki biron narsada «ushlashga» harakat qilish vaziyatni og‘irlashtiradi, xolos. Bu ishonchsizligingiz sizga nisbatan ichki dushman sifatida qarashga olib kelish mumkin. Albatta, meyorida siz uchun aziz bo‘lgan odam sifatida chiroyli rashq qilish mumkin. Bu hatto aloqani mustahkamlaydi. Ammo, yarim haqorat shaklidagi rashqlar, juftingizni qilmagan ishini qilishga undashi mumkin. YAqiningiz bilan bo‘lgan munosabatda «tilga suyak qo‘yib qo‘ygan» yaxshi . «Jinni bo‘libsiz!» degan so‘z albatta ajrashishga sabab bo‘lmasligi mumkin, ammo sizni chiroyli ko‘rsatmaydi. Undan ko‘ra: «Adashyapsiz azizim!» deb aytgan durustroq.

Hattoki, hazilomuz murojaatlarda ham o‘tkir iboralardan hayiqmoq lozim. Bizning so‘zlarimiz biz istagan darajada doimo natija bermasligi mumkin, o‘zimiz bilmagan holda boshqalarni qalbini yaralashdan uzoqroq bo‘lganimiz maquldir. Yomon manoda so‘z aytgan bo‘lsangiz, unda uni ifodalashdan ne mani bor?! Gap bilan «chaqilgan» kishi sizni kechirishi mumkin, ammo qalbiga otilgan bu «nayzaning» izi o‘chishi qiyin. Bundan siz ham foyda ko‘rmaysiz. Va eng asosiysi, erkaklar uchun: rafiqasi bilan bo‘lgan har mojaroda ayolni o‘ziga qaratadigan «Azizam» degan murojaati masalani ijobiy tus oldirishi mumkin. Ammo erkaklarning bunday so‘zlarni ishlatishlari nihoyatda kam uchraydi.

Oilada farzandlar ko‘proq onadan tarbiya oladilar. Onadagi aksariyat axloqiy fazilatlar farzandlarga ham o‘tadi. Bu esa Sharq xotin-qizlariga xos yuksak axloq fazilatlarida ko‘rinadi. Jumladan, Sadiy SHeroziy ham:

Xotin bo‘lsa qobilu aqli raso,
Erni shoh etar, gar bo‘lsa gado,-
deya ayollarni madh etgan edilar.

¹ Karimov I. A. Yuksak ma‘naviyat- yengilmaskuch. T., Ma‘naviyat, 2008.-B. 52.

Manaviyatsiz moddiy farovonlikka ham, umumtaraqqiyotga ham erishib bo'lmaydi. Manaviy qashshoqlik milliy tanazzulga olib boradi. Xalqimiz o'zining ko'p ming yillik tarixi jarayonida oila hususida milliy–mafkuraviy tarbiyani shakllantirgan. Oilada otaning shaxsiy ibrati, onaning mehri orqali turmush zaxmatlarini engishda, farzandlarini tarbiyali bo'lishida mustahkam tayanch bo'la olishgan. Oilada erkak kishining muhim vazifasi xotin va oila azolarining huquqlarini himoya qilish, ularning nomuslarini saqlashdir.

Oilaning jamiyatda tutgan o'rni, oila tarbiyasi, ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlar, shuningdek, oilaning pokligi va mustahkam bo'lishiga oid qimmatli fikrlar hadislarda muhim o'rin egallaydi:

«Kimgaki Alloh taolo solih xotin nasib etgan bo'lsa, dinining yarmiga yordam qilibdi, qolgan yarmiga o'zi taqvo qilsin». «Xotinning barakatlirog'i uylanish xarajatlari engilidir»; «Xotin kishi qovurg'adan yaratilgan. Agar sen qovurg'ani to'g'rilayman desang sindirasan, murosa qilu u bilan yasha»; «Xotin kishiga eng haqqi ko'p kishi eridir, erkak kishiga eng haqqi ko'p kishi onasidir»; «Agar bir shaharda lo'qal bir ayol bir marta buzuqlik ko'chasiga kirib haromi orttirsan, bu shahardan qirq yil fayzu barakat ko'tarilib ketadi»; «Ayollarni faqat ulug' odamlar hurmat qiladi. Ularni faqat pastkash odam xo'rlaydi».¹

Ushbu hadislarda islom diniga xos insonparvarlik va adolat mezonlari namoyon bo'ladi, nikohning ilohiyligi, oilaning muqaddasligi takidlanadi, Yer va xotin o'rtasidagi burch, poklik, iffat, o'zaro bir-birini hurmat qilish tuyg'ulari ulug'lanadi.

SHuni alohida qayd etish o'rinliki, mustahkam oila sog'lom turmush tarzi asosida shakllanadi. Oila baxti, farzandlarning tarbiyasi, etuk inson bo'lib etishida ota–onaning say-harakati, tarbiya mahoratiga bog'liq. Oiladagi axloqiy tarbiya asosan ota-onalar va oilaning yoshi katta azolari tomonidan amalga oshiriladi. Oila tarbiyasida muvaffaqiyatga erishish ko'p jihatdan oiladagi ota va onaning birga bo'lishi, ularning baxtli yashashiga bog'liqdir. Bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizda yuz berayotgan jadal o'zgarishlar, yutuqlar bilan bir qatorda oilaviy munosabatlar tizimida ajralishlar, yoshlar orasida axloqsizlikning ko'payganligi, ota-onalar va farzandlar o'rtasida ziddiyatlarning paydo bo'lishi, tirik etimlar sonining oshishi kuzatilmoqda. Oilaning jamiyatdagi mavqeini saqlab qolish, uning mustahkamligini saqlash va kuchaytirish, uning muqaddasligini kelajak avlodlar ongiga singdirish hozirda dolzarb muammolardan hisoblanadi. Oilada jipslik, axillikning yo'qligi uni tashqi salbiy omillarga tasirchan qilib qo'yadi. SHuning uchun, o'tish davrida oila-nikoh munosabatlarida barqarorlikni saqlash muhim ahamiyat kasb etadi. SHu nuqtai-nazardan O'zbekiston Respublikasining Birinchi rezidenti I.A.Karimov "Oilaviy tarbiya masalasida xatoga yo'l qo'ymaslik uchun avvalo har qaysi xonadondagi manaviy iqlimni o'zaro hurmat, axloq-odob, insoniy munosabatlar asosiga qurish ayni muddao bo'lur edi. Bu haqda gapirganda, men mumtoz yozuvchimiz Abdulla Qodiriyning «O'tgan kunlar» asaridagi

¹ Al-Buxoriy, Abu Abdulloh Muhammad Ibn Ismoil. Sahihi Buxoriy: Al-jomi' as-sahih: (Ishonarli to'plam): 2 kitob / Abu Abdulloh Muhammad Ibn Ismoil al-Buxoriy. - Toshkent.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. 231-287.

qahramonlarning o‘zaro muomala va muloqotlari, ularning hatto kichik farzandlarini ham «siz»lab gapirishi misolida ota-bobolarimizning oila manaviyatiga qanchalik katta etibor berganiga ishonch hosil qilaman”¹, – deb yozgan edi.

Oilani mustahkamlashda reproduktiv salomatlikni o‘rni ham beqiyos. Mustaqillikning ilk yillaridan boshlab mamlakatimizda ona va bola sog‘ligini muhofaza qilish, millat sog‘ligi to‘g‘risida qayg‘urish eng dolzarb vazifalar sirasiga kiritildi va bu borada davlat dasturlari amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan qabul qilingan 2014 yil 1 avgustdagi “O‘zbekistonda aholi reproduktiv salomatligini yanada mustahkamlash, onalar, bolalar va o‘smirlar salomatligini muhofaza qilish bo‘yicha 2014-2018 yillarga mo‘ljallangan Davlat dasturi to‘g‘risida”gi PQ-2221 sonli qaroridan kelib chiqqan talab va vazifalarni amalga tatbiq etish uchun, sog‘lom avlodni voyaga etkazish masalalari bo‘yicha keng qamrovli targ‘ibot ishlari olib borilmoqda. Ushbu ishlar zamirida inson manfaatlari ko‘zda tutilgan desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Oilalarni rivojlanishida oilaviy juftliklar hamda yigit qizlar sog‘lig‘ini yaxshi lashda reproduktiv salomatlikka doir bilimlar amaliy ahamiyati bilan o‘ziga xosdir. Ayniqsa, xotin-qizlarning sog‘lom turmush tarzi, reproduktiv madaniyatini shakllantirish, ularni sog‘lom onalikka tayyorlash, ijtimoiy-siyosiy statusini mustahkamlash kabi masalalarni amalga oshirishda oila, mahalla va nodavlat tashkilotlar o‘zaro kelishilgan hamkorligda faoliyat olib borish bugungi kunning dolzarb vazifalaridandir. Har bir millat va jamiyatning eng qimmatli xazinasini sog‘lom, axloqiy barkamol oiladir. Oilaning asosiy negizida esa ona tarbiyasi alohida o‘rin tutadi. Hozirgi sharoitda oilalarda umuminsoniy va milliy qadriyatlar ildiziga tayangan, Sharqona axloqiy tarbiyadan bahramand bo‘lgan manaviy – axloqiy munosabatlar qaror topmoqda. Oilada axloqiy asoslar sog‘lom bo‘lmasa, o‘sib-unayotgan “umr daraxti” sinadi va hosil bermaydi.

Oilaning mustahkamligi esa har tomonlama sog‘lom turmush tarziga, shuningdek, tom manoda aytadigan bo‘lsak, oilaning tibbiy madaniyatiga bog‘liqdir. Oilada tibbiy madaniyatni, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish – jismoniy barkamollik va salomatlikka erishishning muhim omilidir.

YUrtimizda barkamol avlodni tarbiyalash, sog‘lom turmush tarziga amal qilib yashash uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Jumladan, 2017 yilni “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” deb atalishida ham respublikamizdagi har bir oilaning bekamu – ko‘st, baxtli, har tomonlama sog‘lom va farovon hayoti asosiy maqsad qilib olingan. Ushbu maqsad yo‘lida “O‘zbekiston fuqarosiman” degan har bir yoshu – keksa hayotining yanada farovonlashuvi yo‘lida tibbiy madaniyatga intilishi maqsadga muvofiqdir. Zero, sog‘liq tufayligina har qanday orzu maqsadlarga erishishlik muqarrardir.

Nikoh shartnomasi - oila mustahkamligi omilidir. Oila kodeksining 29-moddasiga binoan, nikoh shartnomasi-nikohlanuvchi shaxslarning yoki Yer va xotinning nikohda bo‘lgan davrda yoxud Yer va xotin nikohdan ajralgan taqdirda, ularning mulkiy huquq hamda majburiyatlarini belgilovchi kelishuvdir. Oila

¹ Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent, Ma’naviyat, 2008. -B55.

huquqiy asoslarining uzviy bir qismi nikoh shartnomasi, nikohning rasmiy qayd etilishi, unda ishtirok etayotgan yigit va qizning shaxsiy hamda mulkiy huquqlarini yuzaga keltiradi. Oila qurayotgan yoshlar ichida bu jarayongacha, tadbirkorlik qobiliyati yoki intellektual salohiyati bilan moddiy-moliyaviy jihatdan ancha narsaga erishganlari ko'pchilikni tashkil etadi. Yer va xotinning nikohgacha o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulki, shuningdek, ulardan har birining nikoh davomida hadya, meros tariqasida yoki boshqa bitimlar asosida olgan mol-mulki faqat o'zining mulki hisoblanadi. SHu manoda er-xotinning birgalikdagi umumiy mulki esa ularning nikoh davomida orttirgan, shuningdek, nikoh qayd etilgunga qadar umumiy mablag'lari hisobiga olingan buyum yoki boshqa narsalari bo'lishi mumkin. Nikoh shartnomasi nikoh davlat ro'yxatiga olingunga qadar yoki nikoh davrida tuzilishi mumkin. Nikoh davlat ro'yxatiga olinguniga qadar tuzilgan shartnoma u davlat ro'yxatiga olingan kundan boshlab kuchga kiradi. SHartnoma yozma shaklda tuziladi va albatta notarial idora orqali tasdiqlanishi shart. Nikoh shartnomasi er-xotin o'rtasida vujudga kelishi mumkin bo'lgan nizolarni sud jarayonida to'g'ri va adolatli hal qilinishida yotdam beradi, YAni, er-xotin nikohdan ajralgan taqdirda ularning har biriga tegishli mulkni hajmi va miqdorini aniqlab olish imkoni ortadi.

Muhimi, Fuqarolik kodeksining 354-moddasiga muvofiq nikoh shartnomasini tuzish ixtiyoriydir. YAni, bunday shakldagi shartnomani tuzish yoki tuzmaslik Yer va xotinning o'ziga bog'liq. Nikoh shartnomasining yana bir afzalligi shundaki, u o'zida nafaqat er-xotinning mol-mulkini vujudga keltirish yoki uning huquqiy tartibini o'zgartirish, shu bilan birga, er-xotinning bir-biriga moddiy taminot berishini tartibga solishini ham aks ettiradi. shu bois, nikoh shartnomasini faqat mulkiy nizolarni hal qilishga yordam beruvchigina emas, balki nikohni mustahkamlovchi omil, deb qarash ham mumkin.

Darhaqiqat, insonni hayoti davomida har tomonlama to'kis, osoyishta, hotirjam va baxtli yashashi uchun, huquqiy tartib- qoidalarga og'ishmay amal qilishsa, qurilgan oilaning poydevori mustahkam, kelajak kelajagi porloq bo'lishi, shubhasiz.

Davlatning oila tinchligi va barqarorligini taminlashdagi o'rni beqiyosdir shu bugungi kungacha oila institutini mustahkamlash maqsadida bir necha qarorlar va farmonlar qabul qilingan. Jumladan:

Oilaviy munosabatning qonun bilan himoyalaniishi Respublikamiz Konstitutsiyasida, Oila Kodeksida va boshqa qonun-hujjatlarda o'z ifodasini topdi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1998 yil 30 apreldagi qarori bilan Respublikamizning YAngi Oila kodeksi qabul qilindi va 1998 yil 1 sentyabrdan etiboran amalga kiritildi.

O'zbekistonda oila munosabatlariga doir qonunchilikning rivojlanishiga tarixiy nuqtai nazardan qaralsa, masalan, ittifoq davrida qabul qilingan 1978 yilgi Konstitutsiyada oila masalasiga faqat bitta, 51-modda ajratilgan edi. Bugungi Konstitutsiyamiz alohida «Oila» deb nomlangan XIV bobda to'rtta modda oilaviy munosabatga bag'ishlangan. O'zbekiston Konstitutsiyasining 63 – moddasida «Oila – jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish

huquqiga ega»¹,— deb belgilab qo'yilgan. Jamiyat taraqqiyotida manaviy omillarning ahamiyati nihoyatda ortib borayotgan hozirgi davrda oilani mustahkamlash har bir millatning bu boradagi qadriyatlari va ananalarini o'zlashtirish va uyg'unlashtirish birinchi darajali vazifasi bo'lib qolmoqda. «Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi» da oilaviy munosabatlar davlatlar zimmasiga yuk latilgan muhim vazifalardan biri bo'lib, u keng manoga ega. Bu xalqaro hujjatda oilani jamiyatning tabiiy va asosiy quyi xujayrasi sifatida, uning daxilsizligini yaxshi lash, bolalarga talim va tarbiya berish, onalar va ishga yaroqsiz oila azolari uchun zarur bo'lgan moddiy imtiyozlar tug'dirish va oilani mustahkamlash borasida

SHunga o'xshash yo'lga qo'yish lozim bo'lgan muhim masalalar nazarda tutiladi. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi va boshqa shu munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlarning asosiy maqsadi:

- nikohdagilarning huquqiy holatlarini belgilash;
- mulkiy va SHaxsiy huquqlarini ko'rsatish;
- nikoh shartnomasini tuzish yo'llarini belgilash;
- qon - qarindoshlik va bolalarning nasl-nasabini belgilash;
- alimentlar va boshqa moddiy-manaviy yordamlarni amalga oshirish masalasini hal qilish;
- bolalarning oiladagi huquqlari va ota-onalarni moddiy taminlash to'g'risidagi majburiyatlar;
- ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning huquq va majburiyatlarini himoya qilish va boshqa muhim qoidalardan iborat.

Oilaviy munosabatlarni huquqiy tartibga solishdan asosiy maqsad oilaning mustahkam bo'lishidan, oilaviy munosabatlarni o'zaro muhabbat, ishonch, hurmat va hamjihatlik zamirida, barcha azolarining masulligi hissi asosida qurishdan iborat. Ushbu maqsad Oila kodeksining va boshqa qonun hujjatlarining asosiy g'oyasi bo'lib hisoblanadi.

Oila qonunlarining muhim vazifalaridan va maqsadlaridan biri – fuqarolarning oila oldidagi o'z masuliyatlarini his qilishdan iborat.²

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, oila tarbiyasining manbalari muayyan xalqning asrlar davomida to'plagan milliy-madaniy qadriyatlariga asoslangan bo'lib, o'zbek oilalarida o'z shaxsiy farovonligidan ko'ra oila shanining baland tutilishi, qarindosh-urug'lari va yaqin odamlariga, qo'ni-qo'shnilariga g'amxo'rlik qilishni olingi o'ringa qo'yilishi – oliy darajadagi maqsad bo'lib, oilani tashqi muhit bilan bog'lashga va mustahkamligini taminlashiga xizmat qiladi.

Mavzuni o'zlashtirish uchun savollar

1. Nikohni eng qadimgi axloqiy munosabat shakli sifatida qanday tasavvur qilasiz?

¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. — Toshkent, O'zbekiston, 2012. 63 — modda.

² O'zbekiston Respublikasining Oila Kodeksiga sharhlar. - Toshkent: Adolat, 2000, -B. 11.

2. Nikohning qonuniy va diniy jihatlari haqidagi fikringiz?
3. Oilaning psixologik, ijtimoiy-manaviy muhitining farzand tarbiyasiga tasiri haqida nimalarni bilasiz?
4. Oila nomusi va shanini saqlashda ota-ona va farzandlar masuliyati va burchlari haqida nimalarni bilasiz?
5. Milliy manaviyatimizda nikoh va oilaga doir axloqiy qadriyatlar haqidagi fikringiz? Uning yoshlar tarbiyasi, manaviy-axloqiy kamolotiga tasiri haqida nimalarni bilasiz?
6. YOshlar psixologiyasida oilaga munosabatning manaviy, axloqiy tamoyillarini shakllantirish deganda nimalarni tushunasiz?
7. Bugungi kundagi oilaviy ajrimlar va uning yoshlar axloqiy kamolotga salbiy tasiri haqidagi fikringiz?
8. Oila shartnomasini tuzishning axloqiy jihatlari haqida nimalarni bilasiz?
9. Davlatning oila tinchligi va barqarorligini taminlashdagi o'рни haqidagi fikringiz?

15-mavzu. Axloqiy madaniyat va qadriyatlar

Axloqiy madaniyat mohiyatiga ko'ra inson ongining jamiyat bilan aloqadorligi, jamiyat oldida burchli ekanligi, o'z xulq-atvorini jamiyat taraqqiyoti darajasiga bog'liqligini tushinishi, jamiyat tomonidan tan olingan axloqiy meyor, ideal hamda talablarni bajarishda masuliyatni his etishi, manaviy-axloqiy bilimlarning e'tiqodga aylanishi va bu e'tiqodlarning tizimliliigi, mustahkam manaviy-axloqiy his-tuyg'u va xislatlarni shakllantirish, o'quvchi-tadabalar tomonidan manaviy-axloqiy xulq-atvor jamiyat azolariga bo'lgan hurmat-etiborni namoyon etuvchi mezonlardan ekanligining anglab etilishi, manaviy-axloqiy odatlarning shakllanishi va boshqalarda namoyon bo'ladi.

Axloq va axloqiylik muammolari insonning ijtimoiy munosabatlarida muhim o'rin tutgani bois, bu masala azaldan etuk faylasuflar, allomalarning diqqat-etiborida turgan. CHunonchi, o'z asarlarida inson axloq normalarini egallasagina, manaviy kamolotga erishishi mumkinligini, takidlagan Abu Nasr Forobiy. Axloqiy kamolot shartlari va asoslarining sharhiga alohida to'xtalib, axloqiy kamolotga erishish, avvalo, shaxs jamiyat azolari bilan faoliyatda mushtarak-mutanosib bo'lsa, uning ongida nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy manfaatlarga ham moyillik yuzaga kelishi orqali amalga oshishini ko'p bor tilga oladi.

Buyuk alloma Abu Rayhon Beruniy axloqiylik insonning kishilarga, jamiyatga va o'z-o'ziga real, amaliy munosabati asosida shakllanishini takidlaydi. Beruniy insonni oliy mavjudot sifatida tavsif etar ekan, Alloh unga inoyat etgan aql-zakovatga munosib bo'lmog'i kerakligini bayon etib, insondagi noxush axloqsizlik, badfellik, avvalo, uning o'zi uchun, qolaversa, jamiyat uchun katta musibat keltirishini uqtiradi.

SHu bois jamiyat taraqqiyoti uchun zarur hisoblangan axloqiy qadriyatlarning egallanishi, insonning amaliy faoliyatda ularga amal qilishi - axloqiy madaniyatning asosiy mohiyatini tashkil qiladi.

Axloqiy madaniyat, avvalo, ijtimoiy va iqtisodiy omillarga axloqiy tamoyillar amollar va qadriyatlar shakllanishi sharoitlariga bog‘liq bo‘ladi.

Axloqiy madaniyat olamni manaviy-amaliy anglashning zarur vositalaridan biri sifatida malum qadriyatlarga yo‘nalganlikni, faoliyat meyorlari va sabablarini, insonlararo munosabatlarning o‘ziga xos shakllarini qamrab olgan holda, ularni asoslab beradi. Axloqiy madaniyatning muhim omili bo‘lgan axloqiy ong o‘z navbatida u yoki bu holatda nafaqat qanday yo‘l tutish kerakligini, balki vaziyat taqozo ettan vazifani qanday amalga oshirish zaruratini ham tushunishga imkon yaratadi. Axloqiy madaniyatga, avvalo, tarbiya va o‘z-o‘zini tarbiya qilish mahsuli sifatida qarash, shu bilan birga, unga erishgan shaxs turli ijtimoiy muhitlar stixiyasi va favqulodda sodir bo‘lgan hodisalar zarbidan o‘zini yo‘qotib qo‘ymasligini ham takidlash joiz.

Insonning go‘zal hayot kechirishi, jamiyatda o‘z o‘rnini topa olishi, boshqalarning hurmat-ehtiromiga erishishda muomala madaniyatining o‘rni kattadir. Insonning shirinso‘zligi, uning tarbiyalanganidan guvohlik bersa, so‘zga boyligi, chechanligi, bilimdon va o‘qimishli, ekanligini ko‘rsatadi. Go‘zal muomala inson dilini qanchalik xushnud etsa, aksincha achchiq so‘z, qo‘pol muomala inson qalbini larzaga soladi.

Donishmandlarning “YUziga boqma, so‘ziga boq” – degan hikmatlari ayni haqiqatdir. Til – inson tafakkuri mahsuli. U inson madaniyati fikriy go‘zalligini yaxshi, ibratli, havas qilsa arziydigan fazilatlarini yuzaga chiqaruvchi vositadir. Muomala esa insonlarni bir-biriga bog‘lovchi, YAqinlashtiruvchi, katta-kichik xayrli ishlarga undovchi fazilatdir. Insonning go‘zal hayot kechirishida, jamiyat orasida o‘z o‘rnini topa olishida, boshqalarning hurmat extiromiga erishishda muomalaning o‘rni kattadir. Insonning shirinso‘zligi kishining tarbiyalanganligidan guvohlik bersa, so‘zga boyligi, chechanligi, manodorligi uning o‘qimishli, bilimdonligini ko‘rsatadi. Go‘zal muomala inson dilini qanchalik hushnud etsa, aksincha achchiq so‘z, qo‘pol muomala inson qalbini larzaga soladi. SHirin muomalada bo‘lish ham katta sanat. SHirin so‘z bilan kishining ishonchi va qalbini egallash mumkin. So‘z, yuz va ko‘z, tilning ko‘rki hisoblanadi.

Insonning boshqa inson bilan muloqotiga qarab, uning axloqiga ham baxo beriladi. So‘z orqali insonlarning tafakkuri, fikri anglashiladi, muomala madaniyati orqali u kishining odobi, kelib chiqishi, naslu-nasabi, ota-onasi va ustozining bergan talim tarbiyasi namoyon bo‘ladi. Insonning ichki dunyosi, SHaxsi, aqli va his-tuyg‘ulari uning tashqi qiyofasi – ko‘zlari, chehrasi, shuningdek qaddi-qomati va yurish-turishida to‘la aks etadi. Insonning ichki dunyosi qanchalik mukammal bo‘lsa, yurish – turishi ham shunchalik madaniyatli bo‘ladi.

Muomala madaniyatida so‘z aqldan kuch, tildan ixtiyor oladi. Til shunday kuchga egaki, suyaksiz bo‘lsa ham suyakni tebratadi. Muomala odobi boshqa kishilar qadr-qimmatini, izzatini joyiga qo‘yishni, ananaviy axloqiy meyoriy talablarini bajarishni taqazo etadi. Shuning barobarida, u insondagi yaxshi jihatlarni

namoyon etishi, koʻzga koʻrsatishi bilan ham ajralib turadi. Uning eng yorqin, eng sermazmun va eng ifodali namoyon boʻlishi soʻz, nutq vositasida roʻy beradi. Soʻzlash va tinglay bilish, suhbatlashish madaniyati muomalaning muhim jihatlarini tashkil etadi. SHu bois muomala odobi oʻzini, eng avvalo, shirinsuhanlik, kamsuqumlik, bosiqlik, hushfelliik singari axloqiy meyorlarda namoyon qiladi.

Ayniqsa bu axloqiy madaniyatda yaqqol koʻzga tashlanadi. Uni koʻproq namoyon qiladigan eng muhim unsurlaridan biri – muomala odobidir. Bu borada mutasavvif olimlarimizdan Imom Gʻazzoliy bir qancha oʻrinli fikrlarni bildiradilar: «Hazrati Rasul alayhissalom aytibdurlar: «Haq subhonahu va taolo ochiq yuzlilarni doʻst tutar». Va yana aytibdurlar: «Hech bir yaxshi amal yoʻqki, maxfiratga sabab boʻlmoqgʻa ochiq chehralik va shirinzaabonliqdan ziyoda»¹.

Uning fikricha shirinsuxanlik va bosiqlik odobli insonni odobsizdan ajratuvchi meyordir. Zero, odobsizlik badxulqlikka, badxulqlik axloqsizlikka olib keladi. Yomon insonlarning yomon ligi aynan muomaladan kelib chiqadi. YAni, yomonga yomonlik bilan qilingan muomala vaqtincha boʻlsa ham, oʻsha yomon ning yoʻlida yurishga chorlaydi.

Donishmandlarning “*YUziga boqma, soʻziga boq*” – degan hikmatlari ayni haqiqatdir. Til – inson tafakkuri mahsuli. U inson madaniyatining fikriy goʻzalligini yaxshi, ibratli, havas qilsa arziydigan fazilatlarini yuzaga chiqaruvchi vositadir. Muomala esa insonlarni bir-biriga bogʻlovchi, YAqinlashtiruvchi, katta-kichik xayrli ishlarga undovchi fazilatdir. Insonning goʻzal xayot kechirishida, jamiyat orasida oʻz oʻrnini topa olishida, boshqalar tomonidan hurmat ehtiromga erishuvida muomalaning oʻrni kattadir. Insonning shirinsoʻzligi kishining tarbiyalanganligidan guvohlik bersa, soʻzga boyligi, chechanligi, manodorligi uning ziyoliligi, bilimdonligini koʻrsatadi. Goʻzal muomala inson dilini qanchalik xushnud etsa, aksincha achchiq soʻz, qoʻpol muomala inson qalbini larzaga soladi.

“Muomala SHaxslararo munosabatning shunday koʻrinishiki, uning yordamida odamlar bir-birlari bilan axloqiy, estetik, madaniy, siyosiy va ruhiy jihatdan aloqaga kirishadilar, tasir oʻtkazadilar va tasirlanadilar”².

Muomala qilishni bilish – avvalambor, suhbatni olib bora olish qobiliyatidir. Muomala odobi boshqa, kishilar qadr-qimmatini, izzatini joyiga qoʻyishni, ananaviy axloqiy-meyoriy talablarni bajarishni taqozo etadi. shuning barobarida, u insondagi yaxshi jihatlarini namoyon etishi, bilan ham ajralib turadi. Uning eng yorqin, eng sermazmun va eng ifodali namoyon boʻlishi nutq vositasida amalga oshadi. Soʻzlash va tinglay bilish suhbatlashish madaniyatining muhim jihatlarini tashkil etadi. shu bois muomala odobi oʻzini, eng avvalo, shirinsuxanlik, kamsuqumlik, bosiqlik, xushfelliik singari axloqiy meyorlarda namoyon qiladi.

Muomala shaxslararo munosabatning shunday koʻrinishiki, uning yordamida odamlar bir-birlari bilan axloqiy, estetik, madaniy, siyosiy va ruhiy jihatdan aloqaga kirishadilar, tasir oʻtkazadilar va tasirlanadilar. SHu boisdan *muomala* ijtimoiy kategoriya sifatida turmushning barcha sohalarida qoʻllanish mohiyatiga koʻra bevosita yoki bilvosita ishtirok etadi.

¹ Husanov B., Gʻulomov V. Muomala madaniyati. T. Iqtisod - moliya.- 2009 B.8

² Husanov B., Gʻulomov V. Muomala madaniyati. T. Iqtisod - moliya.- 2009.-B.17.

Dastlab «muomala» va «aloqa-kommunikatsiya» tushunchalarining o'xshash tomonlarini aniqlab olish lozim. Aloqa-kommunikatsiya - yalpi aloqaning bir turi bo'lib, yo'naltirilgan aloqa deb yuritiladi. U mohiyatan malum bir hodisa haqidagi malumotni boshqalarga uzatadi. Masalan, ommaviy axborot vositalarida ko'rsatuv uchun yo'naltirilgan malumotlarda muomala aloqa-kommunikatsiya vositasi vazifasini bajaradi. Boshqacha qilib aytganda, bunday holatda muomala, eng avvalo, subekt-obekt munosabati sifatida namoyon bo'ladi.

Muomala jarayoni ikki taraflama xarakterga ega: u o'z mohiyatiga ko'ra axborot yoki malumotlarni shunchaki uzatish va qabul qilishga qaraganda keng qamrovli bo'lib, ikki yoki undan ortiq insonlar o'zaro tasirining murakkab tizimi hisoblanadi. SHunga ko'ra muomala akti bir insonning boshqa inson(lar) bilan muomalaga kirishib, unda o'zinikiga o'xshash xususiyatlarni topa olishi, ularga munosib javob qaytarishi. Ular bilan o'zaro muloqotda optimal darajaga erishsagina o'zining muomala jarayonidagi munosib o'rniga ega bo'ladi. Bunday holatda muomala, eng avvalo, subekt-subektga munosabati tarzida ko'zga tashlanadi.

Muomala madaniyatida xushfellik, xushmuomalalik, hayo-ibolilik, bezorlik, shirinso'zlik, ochiqko'ngillik singari axloqiy meyorlar muhim sanaladi. Biz shulardan ayrimlarini ko'rib chiqishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Xushfellik. Ushbu axloqiy xatti-harakat meyoriylik nuqtai nazaridan g'oyat muhim. CHunki, har bir jamiyat darajasi malum manoda undagi fuqarolar muomala madaniyatining YUK sak ligi bilan ham belgilanadi. Zero, xushfel, shirinsuxan inson o'zining har bir muvaffaqiyatsizligiga fojea sifatida qaramaydi, alam yoki g'azab bilan yomon kayfiyatini boshqalarga o'tkazishga intilmaydi. Atrofdagi axloqiy muhitni buzmaydi. Natijada, o'ziga ham, o'zgalarga ham ko'tarinki kayfiyat, turli-tuman omadsizliklarning o'tkinchiligini anglatuvchi hayotbaxsh bir umid bag'ishlaydi. Jamiyat doimo ana shunday odamlarni hurmat qiladi va ulardan o'rnak olishga intiladi.

Xushfellik, shirinsuxanlik qay darajadadir ko'proq kishining malum bir insoniy tabiatga intilishi bilan bog'liq bo'lsa, bosiqlik, kamtarlik, kamsuqumlik, aksincha, ko'proq iroda kuchi natijasida yuzaga keladi. Zotan, insonning o'z g'azabini bosa bilishi, noroziligini barvaqt bildirmasligi; so'zlagisi, biror-bir gap bilan o'zini ko'rsatgisi kelib qolganda o'sha istakni to'xtata olishi kuchli irodani talab qiladi. shu bois muomala bosiq, kamtarin etti o'lchab bir kesish tamoyili asosida ish ko'rgan shaxslar oqil odamlar sanaladi va ular jamiyatda ham namunaviylik maqomiga noil bo'ladilar.

Xushmuomalalik. Muomalaning asosiy manbaini so'z tashkil etishi barchamizga malum. SHuningdek, so'z insonning botinidan chiqishi, inson botinidan chiqadigan so'zga egalik qila olishini ham bilamiz. Biroq, tashqariga chiqqan so'z insonning o'zini qulga aylantirib qo'yishini doim ham bilavermaymiz. YANI og'izdan chiqqan yaxshi -yomon so'z bevosita insonning ruhiyatiga o'rnashadi: yaxshi so'z bilan muomala qilinsa – yaxshilik topiladi, yomon so'z bilan muomala qilinsa – yomonlik.

Xushmuomalalik ijtimoiy ahamiyatiga ko'ra xushfellikka nisbatan keng qamrovlidir. U insonning ham xatti-harakati, ham muloqoti natijasida vujudga

keladi. Xushmuomalalik o'z ichiga muloyimlik, murosai madora, ohistalik, tagdorlik kabi sifatlarni qamrab oladi.

SHuningdek, xushmuomalalik qat'iy tartibga asoslagan axloqiy meyor hisoblanadi: u o'zgani ranjitmaslik, birovga yomon so'z aytmalik, bahsmunozaraga kirishganda muholifni hurmat qilish, qo'rslik va chapanilikdan holi bo'lish hamda suhbatlashganda ehtiroslarga berilmaslikni talab etadi.

Hayo-ibolilik. Xondamir, Vosifiy va boshqa zamondoshlarning asarlaridan bilamizki, Navoiy g'oyat tabiati nozik, pok, xushxulq va o'ta nazokatli kishilarni yaxshi ko'rgan, o'zi ham juda noziktab inson sifatida nom qozongan. SHu sababli, u «Mahbub ul - qulub» asaridagi «tanbeh»larida hayo, beozorlik sifatlariga alohida urg'u berib tariflaydi. Vafo va hayoni uyg'unlikda ko'rgan shoir «vafosizda hayo yo'q, hayosizda vafo yo'q» deb takidlaydi. Demak, bu tushunchalar bir-biriga juda vobasta. CHunki, marifatli, komil insonlar hayoli va vafodor kishilardir. Vafosizning jabri qancha bo'lsa, hayosizning shallaqiligi, betga choparligi, beandishaligi ham shuncha ozor keltiradi; SHoir buni o'zi boshidan o'tkazgan: «Zamon ahli bevovalig'din ko'ksunga tunganlar va davron hayoli behayolig'idin bag'rimda tikanlar... har qaysig'a raqam uray desam Ayyub sabri anga vafo etmas va qalam suay desam Nuh umrida tamomg'a etmas». SHoir alam bilan yozgan:

Yo marhamat ul xayli sitamkoraga bergil,

Yo sabru tahammul meni bechora bergil.

Muloyimlik. Muloyimlik barcha mutafakkirlar nazarida kishining maqbul sifataridan biri, deb etirof etiladi. Muomala madaniyatida muloyimlik «xilmi», «yumshoq tabiatli» degan tushunchalar bilan bir manoni anglatadi. Bu tushuncha achchig'lanmaydigan, ehtiyotkor, so'zini o'ylab gapiradigan kishilarga nisbatan ishlatiladi. Biroq, muloyimlikning kamchiligi shuki, bunday sifat sohiblari aksar odamlarga yoqmaydi.

Beozorlik. Insonlarning tabiatidagi xusumat, adovat, g'azab kabi illatlar bu kabi odamlardan holi. Ular barcha masuliyatni o'z zimmasiga olsalar-da birovga YOmonlikni ravo ko'rmaydilar, og'irliklarini o'zgalar zimmasiga yuk lamaydilar. Beozor kishilar matonatli bo'la turib, o'zidan ojiz kishilarga qahr bilan muomala qilmaydilar.

Umuman olganda, axloqiy meyorlarning muomala madaniyatidagi ko'rinishlari talaygina. Biz shulardan ayrimlarigagina to'xtalib o'tdik. SHunday ekan, muomalada pirovard natijada quyidagicha xulosa chiqarish maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz: agar axloqshunos likning mezoniy tushunchalari bir-biriga bog'liq bo'lsa, axloqiy tamoyillarning bog'liqligi yanada mustahkamroq - ular biridan ikkinchisiga o'tib turish xususiyatiga ega; axloqiy meyorlar bir-biri bilan shu darajada chambarchaski, bazan birini ikkinchisidan aniq ajratish qiyin, zero ular xulq va odob doirasidagi axloqiy amaliyotlardir.

Muomala madaniyati har bir til birligini sharoitga qarab, yillar mobaynida qabul qilingan meyorlar asosida qo'llash sanati hisoblanadi. Masalan, so'rashish, salomlashish madaniyatini olaylik. So'rashish barcha xalqlarning muomala madaniyatidagi muhim vosita bo'lib, u har bir xalqning milliy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'ziga xos ko'rinishga ega. Takidlash zarurki, so'rashish bilan

salomlashish aynan bir tushunchalar emas. Salomlashish barcha xalqlarda salom berish odobi qoidalariga asoslanadi, u faqatgina qo‘l berib ko‘rishishdan iborat emas. So‘rashish esa so‘z, imo-ishora, mimika va xatti-harakat orqali ham amalga oshiriladigan jarayon bo‘lib, u inson faoliyatining barcha jihatlarini qamrab oladi.

Milliy manaviyatimiz va qadriyatlarimizning qayta tiklanishi, o‘zligimizni angelay boshlaganimiz tufayli bugun har birimizning ongimiz, tafakkur tarzimizda muhim ijobiy o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Hayotiy o‘zgarishlar odamlarimiz qalbi va ongiga singib, ularda kelajakka ishonch tuyg‘usini, Vatanga muhabbat, erkinlik hissini tarbiyalamoqda. Mazkur jarayonlar muomala madaniyatini takomillashtirishda, uni yanada go‘zallashtirishda har bir kishining masuliyatini talab etadi.

Axloqiy qadriyatlar majmuasi odamzodning manaviy boyligini, ruhiy teranligini, komilligini bilish, halollik va adolat, ezgulik va yaxshilik bilan hayot kechirish kabi oliyjanob umuminsoniy va milliy xislat–fazilat, ongu tafakkur, xulq–odob, faoliyat, inson va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning mantiqiy ifodasi, desak xato bo‘lmaydi. Axloqiy qadriyatlar atamasi axloqiy xislat, fazilat va xususiyatlarda ifoda qilinadi. Ammo, axloqning hamma qirralari, mazmun–mohiyati, jamiyat, millat va fuqarolarning ijtimoiy hayotda namoyon bo‘lish shakpi va tamoyillari, axloqiy qadriyatlar tizimida muayyan darajada ifodalanadi. Axloqiy qadriyatlar axloqiy qoida, meyor, ideal va maqsadlarni baholash mezoni va usullarni ham o‘zida aks ettiradi. Ular ezgulik, yaxshi lik, adolat, dahldorlik, bag‘rikenglik, mehr-oqibat, saxovat, ishonch, or-nomus, vijdon, baxt, burch, mehnatsevarlik, YUrtparvarlik, sadoqat, jasorat, kamtarlik, halollik kabi fazilatlar shaklida namoyon bo‘ladi.

Axloqiy qadriyatlar tabiat hamda inson, jamiyat va milliy– elatlarning ijtimoiy hayotidagi jarayon, voqealik xodisalarga xos axloqiy munosabatlarni ham o‘z ichiga qamrab olgan. Axloqiy qadriyat umuminsoniy xususiyatga ega bo‘lish bilan birga millat xususiyatlarga ham boydir. Ayniqsa, qadriyat umuminsoniy xususiyatga ega bo‘lish bilan birga milliy xususiyatlarga o‘zining mazmun–mohiyati, mavqei, jamiyat va inson kamolidagi ahamiyati va betakrorligi, serqirra va sermazmunligi bilan millatimiz mentalitetiga xos va manaviyatimizga mos hamda hayotimizning uzviy bir qismi, YAni manaviy hayotimizning negizi sifatida ajralib turadi.

Axloqiy qadriyatlarining tub manosi har bir jamiyatga adolat, birdamlik, ezgulik, mustaqillik, tenglik va erkinlik imkoniyat asosida komil, etuk va mukammal insonni kamol toptirishga qaratilgan. Mustaqil YUrtimizda yuz berayotgan salohiyatli iqtisodiyotni barpo etish, kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga o‘tish, xuquqiy va ijtimoiy munosabatlarni YAngi lash, ijtimoiy–mafkuraviy va manaviy–axloqiy muhitni sog‘lomlashtirish, fuqarolarda fikr erkinligi, tafakkur teranligi, Vatanga sadoqat, tashabbuskorlik va ishbilarmonlik, kasbkorlik, odob va madaniyatni yuk saltirish, mulkdorlik sinfini shakllantirishda axloqiy qadriyatlar muhim zamin va omil bo‘ladi va bo‘lmoqda.

Axloqiy qadriyatlar turli xalqlarning madaniyati, turmush tarzi, mehnat faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari, e‘tiqodi, psixologiyasi, diniy qarashlari,

milliy manfaatlari, mafkurasi bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Bu esa axloqiy qadriyatlar milliy, mintaqaviy qiyofa kasb etishiga sabab bo‘ladi. SHuning uchun, turli xalqlarda axloqiy qadriyatlarga, ularni belgilash mezonlariga yondoshish, ularga amal qilish darajasi ham aynan bir xil bo‘lmaydi. Axloqiy qadriyatlarning milliy jihatlari ana shu tariqa shakllanadi. Har bir millat o‘z qadriyatlarining nafaqat yaratuvchisi, balki asrab-avaylovchisi va kelajak avlodlarga etkazuvchisi hamdir. Milliy axloqiy qadriyatlarning saqlanishi uchun har bir millatning o‘zi masuldir. Ushbu masullik milliy rivojlanish jarayonida shakllangan axloqiy burchning alohida SHaxslarga emas, butun millatga xos namoyon bo‘lishini anglatadi. Hatto, mustamlakachilik sharoitida yashagan xalqlarda ham milliy axloqiy qadriyatlar butunlay yo‘qolib ketmaydi.

Axloq tufayli xalqlar, elatlar, millatlar bir-birlari bilan aloqada bo‘lib, fikr almashib, o‘zlariga xos, manfaatlariga mos keladigan umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni ishlab chiqadilar hamda ularga og‘ishmay amal qilishni yo‘lga qo‘yadilar. Kishilik jamiyati paydo bo‘lgandan boshlab odamlar o‘rtasida vujudga kelgan axloqiy munosabatlar hayot chig‘riqlaridan qayta-qayta o‘tib, axloqiy amaliyotda o‘z tasdig‘ini topib inson va jamiyat uchun nihoyatda ijtimoiy ahamiyat kasb etib eng qadrlanadigan narsa-axloqiy fazilatga aylanib borgan. Ana shu axloqiy fazilat, sifatlar asta-sekinlik bilan kishilar hayotida axloqiy qadriyat maqomini olgan.

Axloqning kelib chiqishi, jamiyat hayotida tutgan o‘rni, bajaradigan funksiyalari hamda qadriyatlarni o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlardan kelib chiqqan holda “axloqiy qadriyatlar” tushunchasiga quyidagicha tarif berish mumkin. Axloqiy qadriyatlar deb, har bir kishi, millat, elat, xalqning iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, manaviy-madaniy, kundalik maishiy turmush faoliyatida nisbatan turg‘un, barqarorlik kasb etib o‘zligini bildirib, namoyon etib nihoyatda qadrlanadigan, ardoqlanadigan yuksak darajada shakllangan axloqiy sifat va fazilatlarining muayyan tizimiga aytiladi.

Axloqiy qadriyatlar sirasiga insonparvarlik, adolat, qonuniylik, vatanparvarlik, xushmuomalalik va odoblilik, oddiylik va kamtarlik, halollik va rostgo‘ylik, ochiq ko‘ngillik va mardlik, saxiylik va muruvvatlilik, o‘zaro hurmat, do‘stona munosabat, samimiylilik, sabr-qanoat, hayolilik va pokizalik, homiylik va saxovat, fidoyilik, sadoqat, mehr-muhabbat, mehnatsevarlik, sihat-salomatlik, jasurlik va boshqalar kiradi. Axloqiy qadriyatlarga rioya qilishni har bir SHaxs o‘zidan boshlashi kerak. Eng asosiysi jamiyatda bor axloqiy qadriyatlarni bilish emas, balki ularga amal qilishdir. Har bir SHaxsning o‘zi uchungina alohida axloq bo‘lmaydi. Buni anglamagan odam boshqalar rioya qilayotgan axloq meyorlari bilan hisoblashishni o‘zi uchun majburiy, deb bilmaydi. Axloq mezonlarini faqat “men” bilan bog‘lashning o‘zi axloqsizlikdir. *Axloq* - odamlar o‘rtasidagi munosabatlarni belgilovchi manaviy mezon ekan, demak, *axloqlilik* - shaxs faoliyatining jamoatchilik belgilagan manaviy mezonlariga mos kelishidir.

Axloqiy qadriyatlarning tabiatini quyidagi tasnifga ko‘ra izohlash mumkin: Birinchidan, axloqiy qadriyat shaxsning qilgan har qanday xatti-harakati emas, balki, har tomonlama o‘ylab ongli ravishda sodir etadigan yoki sodir etgan ijobiy

axloqiy xatti-harakatidir. Aniqrog‘i, axloqiy qadriyat bu ideallik va reallikning dialektik birligidir, yuksak orzu va unga mos keluvchi aniq xatti-harakatlarni o‘zida aks ettirgan ijtimoiy-axloqiy munosabatlar tizimidir. Masalan, baxtli hayot kechirish har bir insonning hayot mazmunini tashkil etuvchi yuksak orzusi bo‘lsa, unga erishish uchun sodir etayotgan aniq axloqiy xatti-harakati, YAni mehnatsevarligi, insoniyligi, sabr-qanoati bu reallikdir. Baxt- insonning yurish turishi, turmush sharoitlari jamiyatdagi o‘rniga berilgan axloqiy bahodir. Insonning hayotda baxtga erisha olishining asosiy sharti bu axloqiy etuk likdir. Axloq-inson qalbidan chiqayotgan nurga qiyoslanar ekan, baxtni ham ana shu nurga o‘xshatish mumkin. Bu nur bazilarda juda ravshan, yorug‘ bo‘lsa, bazilarda xira bo‘ladi. Bazilarda esa, umuman sezilmaydi. Baxtning mazmuni insonning SHaxsiy hayoti doirasi bilangina belgilanmaydi. Baxt odamlar o‘rtasidagi munosabatlar asosida belgilanadi. Agar inson faqat o‘z SHaxsiy manfaatlarini o‘ylab, boshqalar bilan adolat, imon, insof bilan munosabatda bo‘la olmasa, u insonni baxtli deb ayta olmaymiz. Baxt har bir insonning SHaxsiy hayotiga daxldor bo‘lsa ham, uning mezonlarini jamiyat, jamoatchilik belgilaydi.

YOshlarimizning shaxs sifatida kamol topishida millatimizga xos, umuminsoniy qadriyatlarga mos xislat-fazilatlar ruhida tarbiyalash alohida ahamiyat kasb etadi. CHunki, yoshlarimizning fikrlash qobiliyati, teran tafakkur egasi bo‘lmish, etuk dunyoqarashni anglab olish – dolzarb vazifadir. Bu xislatlar mazmun-manosini egallash ularda jamiyatdagi o‘rni, burchi, Vatanga, millatiga muhabbat tuyg‘usini kamol toptiradi. Kamol topgan sari har bir yoshda boshqalarga ijobiy axloqiy munosabat shakllanib, o‘zligini anglab boradi. Xullas, hayot taraqqiyoti bilan birga ijtimoiy talablarga xos axloqiy xislatlar qurshovida yashayotganini, bu qadriyatlar sog‘lom turmush tarzi mezonni ekanligini, o‘z faoliyati – xulq-odobi va hatti-harakatida ularga amal qilish zaruratini anglab etadi va umri davomida ularga asoslanib yashashga odatlanadi. XXI asr yoshlarida insonparvarlik, oilaparvarlik, Vatanga mehr-sadoqat, adolat, bag‘rikenglik, mehnatsevarlik, matonat, sabr-qanoat, zehn-uquv, chidamlilik, muruvvatli hamda yonib yashash va savob ishlar qilish, bular uchun esa etuk aql-zakovat, bilim egasi, zamonaviy kasb-hunarni chuqur egallash kabi fazilatlarni axloqiy munosabat mezoniga aylantirish, har bir yoshning ongu – shuuriga singdirish hamda ezgu maqsadlarga erishishda yuksak omil va o‘lchov bo‘lishini hayot taqozo etmoqda.

Kasb ahloqi - jamiyat tomonidan qabul qilingan ahloq qoidalarini kishilarning ixtissoslariga nisbatan amalda tatbiq qiluvchi aniq kasbiy burch, shan, or-nomus, qadr-qimmat kabi xatti-harakatlarning majmui, umumiy axloqning kishilar kasb-koridagi o‘ziga xos ko‘rinishidir.

Kasb axloqi - har bir kasb-hunarga xos axloqiy norma, prinsip va sifatlarni o‘rganadi va hayotga tatbiq etadi.

Jamiyat rivojining tarixida ijtimoiy mehnat taqsimotining paydo bo‘lishi mehnatning bir turi bilan band bo‘lgan kishilar guruhlarining kasb- hunar jihatidan ajralib chiqishiga va shunga muvofiq ravishda turli xil mutaxassisliklarning vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. Bu esa har bir insonning qilayotgan mehnat tarziga, mehnatni tashkil qilish usullariga qarab, ulardan muayyan turdagi harakatlar va ruhiy

quvvatlarni sarflashni talab etadigan qaytarilmas, o'ziga xos ko'nikmalarni vujudga keltiradi. Inson voyaga etib, bir kasbning boshini tutgach o'z kasbi doirasida odamlar bilan muntazam munosabatda bo'ladi.

Yillar o'tishi bilan ishlab-chiqarish, fan va texnika rivojlanib, ijtimoiy mehnat taqsimoti yanada chuqurlashadi. Bu jarayonning uzluksiz davom etishi esa o'z navbatida, har biri muayyan ijtimoiy funksiyani bajaradigan yangidan-yangi faoliyat sohalari paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Ularning sohiblari esa shunga ko'ra muayyan ijtimoiy burchlarni bajara boshlaganlar. Mazkur burch va majburiyatlar muayyan axloqiy qoidalar va xulq-atvor normalarida o'z aksini topdi.

shunday qilib, kasb axloqining paydo bo'lish uzluksiz mehnat taqsimotining mahsuli, uning axloqiy dasturi, axloqiy bahosi sifatida faoliyat ko'rsata boshladi.

Kasb axloqi axloqiy madaniyat tizimida yaqqol ko'zga tashlanadi. Chunki, inson voyaga etib, bir kasbning boshini tutgach, o'z kasbi doirasida odamlar bilan muntazam munosabatda bo'ladi. Bu munosabat, bir tomondan, hamkasabalar davrasida ro'y bersa, ikkinchi jihatdan, u kasb talabiga binoan uchrashadigan turli toifadagi odamlar bilan yuzaga keladi. Ayni paytda, kasbiy odob axloqiy madaniyatning eng yuksak shakllaridan biri; uning jamiyat axloqiy hayotidagi o'rni Yuksak .

Har bir jamiyatda muayyan guruhlar borki, egallagan kasblari ularni boshqa jamiyatdoshlariga nisbatan imtiyozli darajaga olib chiqadi. Ko'pchilik jamiyat azolarining hayot-mamotlari, sog'ligi, manaviy sog'lomligi, huquqiy himoyasi, ilmiy salohiyatining namoyon bo'lishi kabi omillar o'shanday imtiyozli kasb egalari odobiga bag'ishlangan. Masalan, o'z kasbiy burch masuliyatini qay darajada his etishlariga, halollik va vijdon yuzasidan ish ko'rishlariga bog'liqligi hammaga malum.

SHuningdek, Sharqning buyuk notig'i Husayn Voiz Koshifiyning "Futuvvatnomai sultoniy yohud javonmardlik tariqati" nomli kitobida Kasb axloqi va kasbiy odobi muammolariga atroflicha to'xtalib o'tadi. Xususan, kitobning beshinchi bobining o'n to'rtinchi, o'n beshinchi va o'n oltinchi fasllari turli kasb egalari odobiga bag'ishlangan. Masalan, o'n to'rtinchi fasl «Kasb-kor va savdo-tijorat odobi haqida» deb nomlanadi va umuman kasb egasi, ayni paytda, savdo-tijorat ahli odobi qonun-qoidalarini o'zi ichiga oladi. Koshifiy yozadi:

«Bilgilkim, hamma kasblarga birday taalluqli qisqacha qoida-adablar mavjud, shuningdek, har bir kasb uchun alohida odob ham bor. Agar barcha kasblar uchun zaruriy odoblar xulosasi nechta, deb so'rasalar, sakkizta deb aytgil: birinchidan, o'z kasbini haromdan, shubhali mol-mablag'dan pok saqlasin. Ikkinchidan, rizq-ro'zi zarurati uchungina kerakli kasb bilan shug'ullansin, kasbni mol-dunyo to'plashga sarflamasin. Uchinchidan, kasbni obro'y olish, yaxshi nom chiqarishning sababi, deb bilsin. To'rtinchidan, moli harom odamlar (amaldorlar, poraxo'rlar, qaroqchilar, o'g'rilar, qimorbozlar, kazzob do'kondorlar) bilan muomala qilmasin...»¹.

Koshifiy sotuvchi odobi, xaridor odobi, xodimlar (xizmatkorlar) odobi, maddohlar odobi singari masalalarda ham xuddi shunday asosli fikrlar bildiradi. Garchand, «Futuvvatnomai Sultoniy» javonmardlik (jo'mardlik) tariqati

¹ Husayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai Sultoniy / N.Komilov tarjimasini. -Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994. - B. 69-70.

darveshlariga atab yozilgan bo'lsa-da, unda ilgari surilgan axloqiy tamoyillar va g'oyalar umummintaqaviy, umuminsoniy qamrovga ega. Zero, buyuk forsigo'y o'zbek SHoiri Pahlavon Mahmud malum manoda YAngi lagan bu tariqat darveshlik xirqasini kiygan, lekin zarur bo'lsa, barcha qurollar turini ishga solib, Vatan himoyasiga o'tlanishni birinchi galdagi vazifasi, deb bilgan erkparvar insonlar sulukidir. SHu bois mazkur kitobda diniylik dunyoviylikdan ajratilmaydi, ular bir-birini to'ldirishi bilan inson hayotini axloqiylashtiradigan, go'zallashtiradigan hodisalar sifatida talqin etiladi. Javonmardlikning harbiylashtirilgan nasroniylar ritsarlik ordenlaridan farqi ham shunda.

Koshifiy ilgari surgan axloqiy g'oyalar hozirgi kunda ko'p jihatdan o'z tasir kuchini yo'qotgan emas. Ayniqsa, uning tijoratchi, sotuvchi va xaridor odobiga doir qoidalarini zamonaviy bozorlarimiz, tijorat markazlarimiz va do'konlarimiz devorlariga yozib qo'yish ayni muddao bo'lur edi.

YUrtimizda oilalarni ijtimoiy muhofaza qilish va mustahkamligini taminlash yo'lida olib borilayotgan say-harakatlar, shubhasiz, yosh avlod istiqboliga, baxt-iqboliga qaratilgan. Oilagi tibbiy savodxonlik uning mustaxkam bo'lishining asosiy omilidir. Sog'lom oilani shakllantirish, bolalarni tug'ma va nasliy kasalliklar bilan tug'ilishini oldini olish maqsadida nikohlanuvchi SHaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 25 avgustda 365-son "Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish to'g'risida"gi Nizomni tasdiqlash haqidagi qarori qabul qilindi va uning ijrosini taminlash 2004 yil 1 yanvardan boshlab FHDYO organlari va tibbiyot muassasalari zimmasiga yuk latildi. Bu amaliyot bugungi kunda sog'lom oila muhitini yaratishda o'z samarasini bermoqda.

Nikohlanuvchi shaxslar ushbu nizomga muvofiq 2004 yildan boshlab psixik, narkologik, tanosil kasalliklari, sil kasalligi va OIV/OITS yuzasidan tibbiy ko'rikdan o'tib kelmoqdalar. shu o'rinda etirof etish joizki, tibbiy ko'rikning sog'lom oila barpo etishdagi roli va ahamiyatini yoshlarimiz teran anglab etmoqda. Nikohga kirish uchun ariza bergan nikohlanuvchilar (asosiy qismi 20 yoshdan 35 yoshgacha bo'lgan yigit-qizlar)ning deyarli barchasi o'z xohish-irodasi, ixtiyori bilan tibbiy ko'rikka yo'llanma olib, shifokorlar tekshiruvidan to'liq o'tib kelayotgani, o'zi va bo'lg'usi turmush o'rtog'ining salomatligi haqida malumotga ega bo'lgani holda nikohdan o'tayotgani yoshlarimizda sog'lom farzand ko'rish va sog'lom nasl qoldirish masuliyati ortayotganidan dalolat beradi.

Respublikamizning har bir FHDYO bo'limi va Nikoh uyi qoshida "yosh oila quruvchilar maktabi" tashkil etilgan bo'lib, ushbu o'quv mashg'ulotlarida tegishli mutassadi tashkilot vakillari, jumladan hokimiyat, xotin-qizlar qo'mitasi vakillari, psixolog, imom-xatib, tibbiyot hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari jalb etilib, tibbiy ko'rikning ahamiyati, erta va yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikohlarning salbiy oqibatlarini haqida hamda qonuniy nikohsiz birga yashab kelayotgan oilalarni oldini olish bo'yicha tushuntirishlar olib borilmoqda. SHu bilan birga, 2015 yildan Adliya vazirligi va Respublika "Oila" ilmiy-amaliy Markazining FHDYO organlari qoshida tashkil etilgan "yosh oila maktabi" o'quv mashg'ulotlarida seminar-treninglar joriy etish haqida qarori qabul qilindi va chora-

tadbirlar rejasi ishlab chiqildi. Ushbu qaror mustahkam oilalarni barpo etish, yosh nikohlanuvchilarning huquqiy bilim va malakalarini oshirish, oilada tibbiy va ekologik tarbiya hamda sog'lom turmush tarzini shakllantirish maqsadida qabul qilindi.

Inson tabiat hosili, unda yashaydi, taraqqiy etadi, zurriyot qoldiradi, shu tufayli undan tabiat qonunlariga ongli munosabatda bo'lishi taqazo etiladi. Aks xolda inson undan uzoqlashada va jazolanadi. Insonning tabiatga tasir etishi natijasida jamiyat bilan tabiat o'zaro munosabatlarining uyg'unlashuvi buzildi. Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida jamiyat bilan tabiatning o'zaro munosabati barchaning etiborini ko'proq o'ziga jalb qilmoqda.

Inson tabiatning bir qismi, demak odamlarning o'zlari, ularning o'zaro munosabatlari ham atrof-muhitning bir qismi hisoblanganligi uchun inson salomatligining ijtimoiy ekologik muammosi yuzaga keldi. XX va XXI asrda erishilgan fan-texnika yutuqlari hozirgi paytda inson va u yashayotgan sayyoraning kelajagiga tahdid solmoqda. Atom, vodorod, neytron bombalari, ballistik raketalar, eng YAngi texnikaviy ko'rsatkichlarga ega qiruvchi, bombardimon harbiy o'choqlar, suv osti va suv usti kemalari, eng YAngi rusmdagi tanklar hamda turli-tuman qurollar hammasi insonni yo'q qilishga qaratilgan. Ularni ishlab chiqarish korxonalari va sinov maydonlari ekologik buhronlarning manbaidir. Bular bir yoki bir necha mamlakat uchun emas, balki global, umumsayyoraviy falokat hisoblanadi. Ularning oldini olishni faqat bir yo'l bilan-biz yashayotgan texnikaviy muhitda (noosferada) axloqiy muhitni (etosferani) barqaror etish orqali hil qilish mumkin. SHuningdek, biologik axloq, ekologik axloq, o'lim jazosini bekor qilish muammolari ham global tabiatga ega.

Hozir jahonda ekologik vaziyat keskinlashishi, ko'plab erlar o'zlashtirilishi, botqoqliklar qurishi, o'rmon massivlarining kamayishi, suvlarning ifloslanishi natijasida hayvonlar, qushlar, baliqlar, o'simliklarning ko'plab turlari butunlay yo'qolib ketdi, bazilari yo'qolib ketish arafasida turibdi. Aholining o'sishi, shaharlar, yo'llar, sanoat korxonalarining ko'plab qurilishi natijasida hayvonlarning yashash maydonlari doirasi torayib bormokda. Bu esa ularning soni va turlari ham kamayishiga sabab bo'lmokda. O'zbekistonning Qizilkum sahrolarida bundan 50-60 yil muqaddam minglab jayronlar yurar edi. Hozir esa ular nihoyatda kamayib ketdi. Har bir hayvonning o'z naslini saqlash, o'zini himoya qilish imkoniyati bor. Lekin, hayvonot olami va o'simliklarning asosiy, bevosita himoyachisi insondir. Inson bu masalaga vaqtinchalik manfaatdan emas, balki axloqiy burch, masuliyatdan kelib chiqib yondashishi kerak. Bu boradagi axloqiy masuliyatni unutish xatarlidir. Hayvonlar va o'simliklarning yo'qolgan turlarini tiklash qiyin. Buning ustiga, biror turning yo'qolishi tabiatning ichki qonuniyatlari tizimida ham juda katta yo'qotishlarga olib keladi.

XIX asrning oxiridan boshlab, ayniqsa XX asrda u o'z tafakkur quvvati bilan, ilmiy-texnikaviy yuk salishlar tufayli ana shu biosfera ichida noosferani - texnikaviy muhitni yaratdi. Mana, hozirgi kunda, qarang, ertalabdan kechgacha biz o'z texnikaviy kashfiyotlarimiz ichida yashaymiz - eymiz, ichamiz, yuramiz, uxlaymiz, ularsiz hayotimizni tasavvur qila olmaymiz. Bular metro, avtobus, televizor, radio,

telefon, eskalator, pleer, lift, kompyuter, internet, poezd, teploxod, gaz plitalari, elektr asboblari, zavodlar, lokatorlar, kimyoviy dori-darmonlar va h.k. Bugun videotelefondagi gaplashar ekanmiz, yuzlab chaqirim naridagi suhbatdoshimizni ko'rish va u bilan gaplashish uchun ot-ulovda yoki piyoda boradigan bo'lsak, necha kunlab yo'l bosishimiz kerakligi haqida o'ylab o'tirmaymiz, to'g'rirog'i, bu esimizga ham kelmaydi. Chunki texnika bizning yashash muhitimizga aylanib qolgan. Faqat bugina emas. Inson endilikda o'zi yashayotgan butun boshli sayyoraga tasir ko'rsata boshladi. Yer tarixida inson birinchi marta ulkan geologik kuch bo'lib maydonga chiqdi. Insoniy tafakkur biosferadagi o'zgarishlarning asosiy sababiga aylandi. Noosfera talimoti asoschilaridan biri buyuk rus olimi V.I.Vernadskiy ilmiy tafakkur va inson mehnati tasiri ostida biosfera Yangi holat bo'lmish noosferaga o'tayotganligini, butun geologik davr mobaynida yaratilgan, o'z muvozanatlarida barqarorlashgan biosfera inson ilmiy tafakkuri bosimi ostida tobora kuchliroq va teranroq o'zgarishga kirishganini takidlaydi: «Sayyoramiz yuzi - biosfera inson tomonidan ongli va asosan ongsiz ravishda keskin kimyoviy o'zgarishlarga duchor etilmoqda, - deb yozadi u. -Inson quruqlikning fizikaviy va kimyoviy havo qobig'ini, uning barcha tabiiy suvlarini o'zgartirmoqda... Hozir biz biosferadagi Yangi geologik evolyusion o'zgarishlarni boshdan kechiryapmiz. Biz noosferaga kirib boryapmiz».¹

Ana shu nuqtadan tafakkur o'zi nima degan muammo paydo bo'ladi. Bu haqda V.I.Vernadskiy shunday mulohaza bildiradi: «Tafakkur energiyaning shakli emas. U qanday qilib moddiy jarayonlarni o'zgartira oladi?»² Bu masala hanuzgacha ilmiy jihatdan echilishi topgan emas». Vernadskiy hayratga solgan masala hozir ham o'sha-o'sha, hol etilmagan.

Xo'sh, tafakkur o'zi nima? Manaviyat lug'atida berilishicha tafakkur (arab. - fikrlash, aqliy bilish) — inson manaviy olamining tarkibiy qismi, olamdagi narsa va hodisalarning umumiy, muhim xususiyatlarini aniqlaydigan, ular o'rtasidagi ichki, zaruriy aloqalar, yani qonuniy bog'lanishlarni aks etadigan bilishning ratsional bosqichi. Tafakkur iborasi arabcha "fikr" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, o'ylash, muhokama, mushohada va fikr yuritish manolarini bildiradi.³ Tafakkur biologik hodisa bo'lmish insonda, uning ruhiy-fiziologik yaxlitlikdan iborat miyasida tug'iladi, lekin tug'ilishi bilan biologik qobiqdan chiqadi va tashqi muhitda energiyaga o'xshab nimanidir yaratadi. Endi inson bilan uning tafakkuri orasida muayyan masofa paydo bo'ladi, masofa uzoqlashgani sari tafakkurning mohiyati ayon bo'lib boradi: inson kutgan oqibat kutilgandan boshqacha mazmun kasb eta boshlaydi. Bu savolga javobni xorijiy adabiyotlarda aks etgan iqtiboslarda ko'rishimiz mumkin. A.N.Palenko «Ekologik inqiroz soxta muammo sifatida» degan maqolasida antik davrda insoniyat oldida ekologik muammo bo'lmaganligini takidlaydi. Uningcha: «antik (qadimgi madaniyat) davrda inson ekologik muammolarga to'qnash kelmagan, chunki antik madaniyat ekologik sof bo'lgan». ⁴ Akademik A.Pokrovskiyning fikriga ko'ra: «Hozirgi zamon kishisi hamma vaqt

¹ V.I.Vernadskiy. «Ximicheskoye stroyeniye biosferi Zemli i yeyo okrujeniya». <http://www.vernadsky.ru/vernadsky>

² V.I.Vernadskiy. «Ximicheskoye stroyeniye biosferi Zemli i yeyo okrujeniya». <http://www.vernadsky.ru/vernadsky>

³ Ma'naviyat izohli lug'ati. - T. G'ulom 2009y. -B 541

⁴ Palenko A.N.«Ekologicheskiy krizis» kak psevdoproblema. - M.: //Voprosi filosofii. 2002. № 7.-B72

tabiatga nisbatan urush holatida bo‘lib kelgan. Uning halokatli oqibatlarini yildan-yilga kuchliroq sezilmoqda. Agar insonning tabiatga munosabat madaniyatini tarbiyalamasak, fojiali oqibat-larga olib kelishi mumkin».¹ «Malum manoda, ekologik inqiroz, nafaqat energoresurslar kamyoqligi, atrof-muhit ifloslanishi emas, balki, eng avvalo, insonning uyg‘onish davridan boshlab, ongli ravishda shakllangan, dunyoga va tabiatga munosabatlari tizimi inqirozidir».²

Bizningcha, noosferada, yuqori da aytganimizdek, inson fikri narsalashadi, o‘z intellektimiz narsalarga aylanib, bizni o‘rab oladi. Insonning ichki tabiati muhit mavqeini egallab, tashqi tabiatga tasir ko‘rsata boshlaydi va ko‘p hollarda bundan eng avvalo insonning o‘zi ozor chekadi. Tafakkur biologik xususiyatga ega bo‘lmagani uchun biologik muhitning o‘rnini egallashga, uni asta-sekin siqib chiqarishga harakat qiladi. Bu harakat malum nuqtadan o‘tganidan so‘ng esa o‘z ijobiy xususiyatini yo‘qota boradi va insoniyat uchun salbiy hodisaga aylana boshlaydi. Atom, vodorod, neytron bombalarining kashf etilishi, yadro kallakli ballistik raketalarining yaratilishi ana shunday salbiy hodisalardandir. Bundan tashqari, noosferaning paydo bo‘lishi atmosferani, olamiy okeanni, Yer osti va Yer usti suvlarini, nabototni, hayvonotni, hatto insonni ich-ichidan kimyoviy zaharlanishga olib kelmoqda. Hozirgi kunda tirik organizmlarning, o‘simliklarning, hayvonlarning ko‘pgina turlari jisman yo‘q bo‘lib ketish arafasida turibdi. Ayniqsa, joy topolmay, okean bo‘ylab kemalarda suzib yurgan radioaktiv chiqindilar yoki ularning kimsasiz go‘zal orollarga ko‘mib tashlanishi, kislota yomg‘irlarining ko‘payib borishi singari hodisalar bag‘oyat xatarli. Afsuski, inson ko‘ra-bila turib, o‘zi o‘tirgan shoxga bolta urishni to‘xtatmayotir.

Nemis olimi V. Derngols kishilarda umuman tabiatga, xususan, suvga nisbatan ekologik va gigienik munosabat madaniyatni shakllantirishni hayotiy zaruriyat tarzida qarab: «Erda suvning tozaligini saqlash – inson qonining sofliqini taminlashning zaruriy shartidir... Inson suvni ifloslantirishi bilan o‘z umrini qisqartiradi»,¹- degan edi.

Bu muammolarning hal etilishi faqat atrof-muhitni kimyoviy zahardan ekologik tozalashnigina emas, balki, eng avvalo, global manoda, XXI asr kishisi ongini texnokratiya zaharidan forig‘lantirishni taqozo etadi. YAni, ular insoniyat oldida endilikda ekologik hodisa emas, balki tom manodagi axloqiy muammolar sifatida ko‘ndalang bo‘lib turibdi. Mashhur avstriyalik etolog olim, Nobel mukofoti laureati Konrad Lorensning: «yoppasiga va tez yoyilib borayotgan jonli tabiatga begonalashish hodisasi uchun asosan sivilizatsiyamiz kishisidagi estetik va axloqiy to‘poslik aybdordir»³ - degan so‘zlari shu nuqtai nazardan diqqatga sazovordir.

Yuqori da aytilganlardan chiqadigan xulosa bitta: kelajakda inson o‘zini va o‘z sayyorasini muqarrar halokatdan qutqaraman desa - XXI asrdan boshlab etosfera davriga o‘tishi kerak; axloqiylik har birimiz uchun har qadamda bugungi texnikaviy muhit kabi zaruratga aylangandagina bunga erishish mumkin.

¹ Pokrovskiy A. Ekologicheskoye problemi Zemli. - M.: Nauka, 1975.-B117.

² Palenko A.N.«Ekologicheskoye krizis» kak psevdoproblema. - M.: //Voprosi filosofii. 2002. № 7.-B71.

¹ Derngolts v. Berlin. 1975. WWW. Neture. P. 213.

³ Konrad Lorens "Oborotnaya storona zerkala", Elektronnaya biblioteka royallib.com.

Keyingi yillarda aholi orasida sogʻlom turmush tarzini shakllantirish borasidagi harakatlar izchillik bilan olib borilmoqda. Takidlash muhimki, bu yoʻnalish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biriga aylangan. Sogʻlom turmush tarzi iborasining zaminida inson salomatligi qolaversa yoshlar kelajagi yotar ekan, bu jamiyat taraqqiyotining yuk salishida asosiy oʻringa ega boʻlishi tabiiydir.

Barkamol avlodni tarbiyalash masalasi mustaqilligimizning ilk yillaridanoq davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biriga aylandi. Mustaqil Vatanimizning birinchi ordeni “Sogʻlom avlod uchun” deb atalgani, “Sogʻlom avlod uchun” xalqaro xayriya jamgʻarmasining tashkil topgani, 2000 yilni “Sogʻlom avlod yili”, 2010 yilni “Barkamol avlod yili” deb elon qilingani ham YUqori dagi fikrimizning yorqin ifodasidir.

Sogʻlom turmush tarzini saqlab qolish bugungi globallashayotgan, kishilar tafakkurida oʻzgacha qarashlar sodir boʻlayotgan murakkab bir davrda oʻta muhim masala hisoblanib, kelajak avlodni ham jismonan ham manan barkamol qilib tarbiyalashni taqozo etadi. Sogʻlom turmush tarzi inson hayot faoliyatini har tomonlama rivojlantirishda, SHaxsning ijtimoiy funksiyalarini toʻlaqonli bajarishda, uzoq umr koʻrishda, oilaviy, maishiy, mehnat, va boshqa ijtimoiy faoliyatlarini faol tarzda olib borishda muhim ahamiyat kasb etadi. Sogʻlom turmush tarzi haqidagi qarashlar jamiyatdagi ijtimoiy munosabat va sharoitlarning oʻzgarishi, inson organizmiga nisbatan ortib borayotgan ijtimoiy, ekologik, psixologik, siyosiy, xarbiy taxdidlarning ortib borishi bilan dolzarb tus oldi. Sogʻlom turmush tarzini shakllantirish toʻgʻrisida asosiy yonda shuvlar insonlarning toʻlaqonli faoliyat olib borishida iqtisodiy ijtimoiy shart sharoitlarni taminlash, insoning sogʻlomlashtirish qonun qoidalariga muvofiq oʻz hayotining sogʻlom turmush tarzini yaratishda faoligini oshirishni taqozo etadi. Bu manoda tatqiqotchilar bir qator yoʻnalishlarni ilgari suradilar, masalan:

- 1 Jamiyatda umumgigienik tizimni takomillashtirish;
- 2 Jismoniy tarbiya va sogʻlomlashtirish yoʻnalishi. Bunda reabilitatsiya va profilaktika qilishda kishilarga qulay shart sharoitlar yaratish koʻzda tutiladi.
- 3 Ekologik yoʻnalish. Bunda atrof muxitning ekologik xolatini muvozanatlashtirishda davlat nazoratini kuchaytirish nazarda tutiladi.
- 4 Madaniy marifiy yoʻnalish. Bunda jamoatchilik asosida kishilarda tibbiy va madaniy ongni yuk saltirish koʻzda tutiladi. CHunki, sogʻlom turmush tarzini shakllantirishda kishilardagi tibbiy ong, tafakkur tarzi ham muhim ahamiyatga ega sanaladi.¹

Sogʻlom turmush tarzini falsafiy-manaviy, psixologik mezonlarini quyidagicha tariflash mumkin: — oilada, talim maskanlari va jamoat joylarida yosh qizlar va ayollarning kiyinishlariga alohida etiborni qaratish; — oilada va jamoat joylarida yoshlarning muomala madaniyatini shakllantirishda sogʻlom turmush borasidagi xalqimizning oʻziga xos ananalari va qadriyatlarini, otalar va momolar oʻgitalarini alohida sogʻlom manaviyatli oilalar tajribasini ibrat omili

¹ Kaznachejev. -M.: Izd-vo «Institut prakticheskoy psixologii». 1997.- S.58.

sifatida keng targ'ib etish; — yoshlarni sportga, jumladan, oilaviy sportga ijobiy munosabatini shakllantirishda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tadbirlar, oilaviy sportchilar ananalaridan foydalanish; — oila azolarida, birinchi navbatda yoshlar orasida hayot mohiyatini anglash, umr qadriyatini ezoqlash, hayotiy faoliyatni oqilona tashkil etish madaniyatini shakllantirish; — islom falsafasidagi orastalik va ozodalik tamoyillarini omma orasida targ'ib etish orqali suv, havo, Yer va suv qadriyatlari borasida ijtimoiy fikrni shakllantirish. Umuman, salomatlik falsafasining shaklanishi sog'lom va xalqchil marosimlar, urf-odatlar va milliy doimiy qadriyatlar bilan bevosita bog'liq.

Sog'lom turmush tarzi hayot kechirishning maqsadga muvofiq ravishda tashkil etish, umr qadrini anglab etishni nazarda tutadi. Sog'lom turmush tarzi YOmon illatlar bilan kelisha olmas ekan, oilaviy sharoitni yaxshi lash, YAni undagi manaviy-psixologik muhitni barqarorlashtirish muhim vazifalardan bo'lib qolaveradi.

Axloqiy tarbiyani mustahkamlashning eng muhim vositalardan biri sanatdir. Sanat tarixiy taraqqiyot jarayonida hamisha ijtimoiy ehtiyojlarni qondirib kelgan. Sanat ijtimoiy hayotning murakkab, rango-rang munosabatlari bilan aloqador bo'lib, u bir vaqtning o'zida ham mehnatning alohida turi, ham ijtimoiy ishlab chiqarishning maxsus sohasi, ham ijtimoiy ongning bir shakli, ham o'ziga xos bilim sohasi, ham ijodiy faoliyatning bir ko'rinishi sifatida amal qiladi. Sanat ijtimoiy hayotning mustaqil bir sohasi bo'lib, o'ziga xos qonuniyatlari asossida yashaydi, rivojlanadi. Sanat jamiyatning barcha tomonlariga tasir o'tkazadi, ijtimoiy ongning barcha shakllari bilan aloqaga kirishadi, hayotning turli jabhalarida odamlar faoliyat olib borishlarini rag'batlantiradi. shu jumladan axloqiy tarbiyada ham uning hissi beqiyosdir.

Sanat mohiyatan insonning xis-tuyg'ulariga tasir ko'rsatishga qodir bo'lgan muhim manaviy hodisa bo'lib, u insonning mehnati, aql-idroki, ongu-tafakkurining mahsulidir. Sanat inson faoliyatining ijodkorlik turini anglatib, har bir sanat asarida SHaxsning o'ziga xos istedodi namoyon bo'ladi.

Sanat keng manoda, badiiy qadriyatlar, ularni yaratish badiiy ijod qilish va istemol badiiy idrok etish jarayonlarini ham qamrab oladi. Faylasuf-sanatshunos erkin Umarov sanat va axloqning o'zaro munosabatlari estetikada o'zak masalalardan biri ekanligini va bu masalaga uch uslubda yondoshilishini takidlaydi. Ularning birinchisi- «axloqiylik» uslubi bo'lib, «axloqiylik»ning mohiyati shundaki, uning targ'ibotchilari tarixan turli davrlarda yashaganiga qaramay, badiiy ijodni axloq-odobga bo'ysundirish, ezgulikni sanatning birdan-bir va eng oliy maqsadi sifatida targ'ib etishdir.»¹

Sanat va axloqning bosh mavzui inson hisoblanadi. Sanat insonning maqsad-manfaatlari, fikr-mulohazalari, his-tuyg'ulari, ichki kechinmalari nuqtai nazaridan aks ettirsa, axloq inson ijtimoiy aloqalari va munosabatlarning mag'ziga singib ketadi. Hayotda axloq-odobga aloqador bo'lmagan biror voqea-hodisa sodir bo'lmaydi. Insonlarning o'zaro munosabatlari va muomalalari axloqning bevosita obekti bo'lib xizmat qiladi.

¹ Umarov E. Estetika. T., O'zbekiston. 1995. B.159

Malumki, sanat nafosat falsafasining obektlaridan biri hisoblanadi. Badiiy adabiyot, soʻz sanati esa sanatning ham arxaik ham zamonaviy turlariga mansub. Hikoya, roman, qissa, ertak, doston va hokazo shu kabi yozma va xalq ogʻzaki ijodi esa badiiy adabiyotning janrlar turkumiga kiradi. Ahamiyatli jihati shundaki, ularning tasvir vositalari bevosita va bilvosita axloq zaminiga quriladi. Zero, hech bir sanat asari yoʻqki, unda axloqiy muammolar aks etmagan boʻlsin, biror sanat asari mavjud emaski, unda axloqiylik manaviylikka aylanmagan boʻlsin. shuning uchun, Birinchi Prezident Islom Karimov yuksak manaviyatli insonni shakllantirishda soʻz sanati va badiiy adabiyotga qudratli kuch sifatida baho berib, “Insonni, uning manaviy olamini kashf etadigan yana bir qudratli vosita borki, u ham boʻlsa, soʻz sanati, badiiy adabiyotdir. Adabiyotning insonshunoslik deb, SHoir va yozuvchilarni esa inson ruhining muhandislari”¹-deb ataydi.

Axloq va axloqiyliksiz yuksak badiiy asar mavjud boʻlmaydi. Barcha sanat asarlari uchun axloqiylik muhim asos hisoblanadi. Ayni paytda sanat axloqiylikning targʻibotchisi, axloqiy tarbiyaning eng qulay vositasi sifatida ham namoyon boʻladi. shuning uchun, ham axloqiy tarbiyani mustahkamlashda sanat eng muhim vositalardan biri boʻlib xizmat qiladi.

Sanat asarlarining tarbiyaviy kuchi shundaki, unda aks ettirilgan qahramonning qiyofasi oʻquvchida hayajon, zavq va quvonch uygʻotadi. Masalan, Abdulla Qodiriyning “Oʻtgan kunlar” romanini oʻqiganimizda Otabekdagi mardlik, jasurlik, sevgiga vafodorlik, ota-onaga hurmat, YUrtga sadoqat kabi fazilatlarini, Kumushbibidagi iffatlilik, shirinmuomalalik, quvnoqlik, andishalilik, zukkolik, singari insoniy sifatlarni inson kamoli uchun koʻrk berib turishini xis etamiz. SHu orqali badiiy adabiyot insonning qalbiga, uning ruhiyatiga, irodasiga tasir qilib, uni tarbiyalaydi, oʻzligini chuqur anglab olishiga imkon yaratadi.

YUqori da takidlaganimizdek, har bir sanat asarida axloqning dolzarb muammolari koʻtariladi. Ijodkor esa eng yuksak axloqiy darajani badiiy qiyofalar orqali inikos ettiradi. Bu inikos bevosita ijobiy qahramonlar qiyofasida amalga oshsa, bilvosita salbiy voqea-hodisalarga muallif nuqtai-nazari orqali roʻy beradi. YAni, biror-bir badiiy asarda ijobiy qahramonlar, umuman, boʻlmaydi, lekin undagi voqea-hodisalarga ijodkor oʻz zamonasi erishgan axloqiy YUk sak likdan turib baho beradi. shu bois mutloq axloqsizlikka yoʻgʻrilgan badiiy asarning boʻlishi mumkin emas.

Bugungi Globallashuv jarayonida milliy axloqiy madaniyatga salbiy tasir koʻrsatuvchi gʻoyaviy-mafkuraviy oʻzgarishlar kuzatilmoqda. Ana shunday sharoitlarda yoshlar ahloqiy madaniyatini yuk saltirishga oid konseptual qarashlarni shakllantirish dolzarb ahamiyatga ega.

Globallashuv jarayoni jadal tarzda kechayotgan, turli axborot xurujlari avj olgan bugungi murakkab davrda milliy oʻzlikni saqlashning ahamiyati ortib bormoqda. Bunday sharoitda jamiyatni axloqiy tanazzuldan asrab qolish, uni “ommaviy madaniyat” deb atalmish egotsentrizm, zoʻravonlik va axloqiy buzuqlikka asoslangan yovuz dushmandan himoya qilish uchun yoshlarni axloq bilan qurollantirish lozim. “Ommaviy madaniyat” ostida kirib kelayotgan hurujlar,

¹ Karimov I. A. Yuksak maʼnaviyat yengilmas kuch. T., Maʼnaviyat, 2008. B.136

YAni ayrim siyosiy kuchlarning g‘arazli niyatlarini amalga oshirishda mafkuraviy qurol sifatida “ommaviy madaniyat”dan foydalanishi; yoshlarning ongu tafakkurini, manaviy olamini izdan chiqarib, soxta g‘oya va mafkuralarni targ‘ib etishi; o‘zlarining g‘arazli maqsadlarini amalga oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanishi; mafkuraviy tarbiya, mustaqil tafakkurni izdan chiqarishga urinish kabilar kiradi.

Globalizatsiya deganda, umumbashariy, umumsayyoraviy sivilizatsiyaning shakllanish tendensiyasi tushuniladi. Ushbu tendensiyaning asosini hozirgi zamon kishilik jamiyatini birlashtirib turgan iqtisodiy, siyosiy, madaniy va kommunikatsion aloqalar tashkil etadi. Aynan ana shu aloqalar umumsayyoraviy sivilizatsiyaga tizimlilik ato etmoqda.

Globalizatsiya natijasida jahonda jamiyatlarning standartlashib, bir-biriga mutlaq yaqinlashib borishi jarayoni sodir bo‘layapti, degan xulosa chiqarmaslik kerak. Chunki, birinchidan, umumsayyoraviy aloqalar qanchalik mutlaqlashmasin, har bir jamiyat umuminsoniy tajribalarning o‘z iqtisodiy va madaniy imkoniyatlariga mos tushganini o‘zlashtiradi, xolos. Ikkinchidan, umumsayyoraviy sivilizatsiya shakllana borgan sari turli millat va elatlarning o‘z madaniyatini, o‘ziga xosligini saqlab qolishga bo‘lgan intilishi ham kuchayadi. Buning oqibatida XXI asr kishilik jamiyati yaxlit-sistemaviy xarakterga ega bo‘lishi bilan birga ichki plyuralistik xususiyatlarini ham yo‘qotmaydi.

Har qanday ijtimoiy hodisaning ijobiy va salbiy tomoni singari, Globallashuv jarayoni ham bundan mustasno emas. Birinchi Prezident Islom Karimovning “Yuksak manaviyat-engilmas kuch” asarida Globallashuv jarayoni, uning mazmun-mohiyati, ijobiy va salbiy jihatlari har tomonlama tahlil qilinadi. Asarda Globallashuv davrida davlatlar va xalqlar o‘rtasidagi integratsiya va hamkorlik aloqalarining kuchayishi, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalarining, ilm-fan yutuqlarining tezlik bilan tarqalishi, turli qadriyatlarining umuinsoniy negizda uyg‘unlashuvi, sivilizatsiyalararo muloqotlarning yangicha sifat kasb etishi, ekologik ofatlar paytida o‘zaro yordam ko‘rsatish imkoniyatlarining ortishi kabi ijobiy jihatlarga etibor qaratiladi. Shu bilan birgalikda bu jarayonda o‘tkir mafkuraviy tasir va tazyiq, manaviy tahdid, mafkuraviy va axborot xurujlari, axloqiy buzqlik, “Ommaviy madaniyat”, egotsentrizm, zo‘ravonlik kabi salbiy jihatlarga alohida etibor qaratiladi¹.

Hozirgi kunda barchamizni oldimizda turgan dolzarb vazifalardan biri bu turli qorishiq madaniyatlarning xurujlaridan millatlarning o‘zligini saqlab qolish va milliy madaniyatning rivojlanishi masalasidir. Turli millat qadriyatlarining uyg‘unlashishi va madaniyatlarning tarixiy rivojlanishiga nazar tashlasak, o‘tmish madaniyati va ajdodlar tajribasini o‘rganishga qiziqish ortadi.

“Xalqlarning milliy o‘zligi haqida so‘z yuritganda avvalo shuni takidlash lozimki, bunday o‘ziga xoslik eng avvalo milliy axloqqa asoslanadi. Millat mavjud ekan, milliy axloq unga xos bo‘lgan ijtimoiy, manaviy fazilatlarining asosi bo‘lib qoladi”².

¹ Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch. T., Ma’naviyat, 2008.- B.112

² Erkin Yusupov. “Inson kamolotining ma’naviy asoslari”, Toshkent, “Universitet” nashriyoti-1998y.-B. 102

Millatning o'z tarixiga bo'lgan munosabati qonunga asoslangan jarayon hisoblanadi. Chunki har bir milliy madaniyat o'zining boy va chuqur ildizlariga ega hisoblanadi. Ildizi qurigan daraxt yashnamasligi kabi, o'zining boy manaviy merosini hech bir xalq rad eta olmaydi, aksincha uni manaviy qadriyat darajasiga ko'taradi.

Tarixan tarkib topgan milliy anana, urf-odat, rasm-rusm, taomil, marosimlarning vujudga kelishi va rivojlanishiga bir qator omillar bevosita va bilvosita tasir ko'rsatadi. SHunday omillardan biri turmush tarzidir. U yoki bu xalqning azaliy ananasiga aylanib qolgan har bir marosim milliylik qobig'idan chiqib, umuminsoniy qadriyatga aylanadi, tili, dini, turmush tarzi bir-biriga yaqin bo'lgan qo'shni xalqlarni birlashtiradi.

Barcha xalqlarning urf-odatleri, anana va marosimlari muayyan tarixiy davrning mahsuli bo'lib, u turmush sharoitining tasiri natijasida paydo bo'lgan; vaqt o'tgan sari ular tobora mustahkamlanib ajdodlardan avlodlarga meros bo'lib kelgan.

Har bir taraqqiy etgan, madaniyatli xalqning o'z tili, urf-odati, adabiyoti, osori-atiqalari, ananaviy moddiy va manaviy boyliklari bo'ladi. Qadimiy madaniyatli, urf-odatni bilishimiz, saqlashimiz va keyingi avlodga ham etkazishimiz insoniy burchimizdir.

Globalashuv xaqiqatda insonning nafaqat moddiy hayot tarziga, shu bilan birga manaviyati, ruhiy olamiga ham sezilarli tasir o'tkazmoqda. Har kuni virtual makonda bir necha milliondan ziyod axborot resurslarining paydo bo'lishi, uning hosili har daqiqa sayin o'sib borayotganidan dalolat beradi. Global tarmoq afzalliklarini inkor etmagan holda, uning insoniyat madaniyatiga tug'dirayotgan havf-hatarlari to'g'risida so'z yuritishga to'g'ri keladi. Bu noxush g'ayriinsoniy holatlar muayyan kuchlarning global tarmoqdagi axborotlarni sifatli va tez uzatish hamda tarqatish bo'yicha imkoniyatlardan foydalanish orqali jamoatchilik fikrini to'g'ri yo'ldan burish, o'zlari targ'ib etayotgan nopok g'oya va manfaatlar tomon yo'naltirish uchun ularga axborot etkazish borasida olib borayotgan harakatlari bilan bog'liqdir. So'zsiz, bunday tasirga internet auditoriyasining eng faol, eng ko'p qismi tafakkuri etilib, dunyoqarashi puxta shaqllanib ulgurmagani yoshlardir.

Globalashuv jarayoni jadal tarzda kechayotgan, turli axborot xurujlari avj olgan bugungi murakkab davrda milliy o'zlikni saqlashning ahamiyati ortib bormoqda. Bunday sharoitda jamiyatni axloqiy tanazzuldan asrab qolish, uni "ommaviy madaniyat" deb atalmish egotsentrizm, zo'ravonlik va axloqiy buzuqlikka asoslangan yovuz dushmandan himoya qilish uchun insonlarni axloq bilan bilan qurollantirish lozim.

Internet tarmoqlari kirib bormagan yoki uning yangi liklaridan xabardor bo'lmagan vatanimizning biron-bir mintaqasi qolmadi deyilsa, aslo mubolag'a bo'lmaydi. Xar bir yangi lik va kashfiyotlarning ijobiy va salbiy oqibatlari bo'lganidek, internetning ham yoshlar tarbiyasiga salbiy tasir ko'rsatuvchi nomaqbul tomonlari ham yo'q emas. Bugungi yoshlarimizning barchasi internet tarmog'idan faqat ilm yo'lida va dunyo axborot yangi liklaridan foydalanishmoqda desak, biroz yanglishamiz. Ushbu soha bilan shug'ullanadigan ko'plab klublarga kirganda, yoshlar bilan gavjum ekanini ko'rib xursand bo'lasan kishi, ammo ular

yoniga borib nima bilan shug'ullanayotganligini zimdan kuzatsangiz, aksariyat qismi oila davrasida ko'rolmayotgan pornografik va vahshiyona videofilmlar ko'rish, har xil mintaqalardagi qizlar va bolalar bilan sevginomalarini almashish, o'zlarini suratlarini kiritib reklama qilish bilan bandligiga guvoh bo'lasiz. Bu kabi nohush holatlardan so'ng yoshlarning kelajakda qaxri qattiq, mehrsiz, hayosiz bo'lib etishmaydi, deb hech kim kafolat bera olmaydi.

YOshlar o'rtasidagi muammolardan yana biri mobil telefonlardan noto'g'ri foydalanish natijasida kelib chiqayotgan holatlardir. Turli rusumdagi zamonaviy qo'l telefonlarining yoshlar hayotida paydo bo'lishi natijasida yangi-yangi muammolar kelib chiqmoqda. chunonchi, yoshlar o'tmishda uyalib qaralmaydigan holatlarni yoki fojeali voqealarni tasvirga olish va ularni huddi mish-mish kabi tarqatish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bu esa ko'pincha begonalar bilishi kerak bo'lmagan voqea va hodisalarning butun respublika bo'ylab tarqalishiga sabab bo'lmoqda. Oxirgi vaqtlarda telefonlarda yoshlar behayo filmlarni va rasmlarni olib yurishdan uyalmay qo'ymoqdalar.

Bugungi kunga kelib, milliy o'zlikka etiborsizlik, ularga hurmatsizlik natijasida "Ommaviy madaniyat" deb atalmish inson manaviyatining dushmani to'fon kabi turli millatlar va jamiyatlar madaniyatini xarob qilmoqda. Etibor berib qaraydigan bo'lsak, "Ommaviy madaniyat"ning hech bir jihatida axloqiy qonun-qoidalarining asoslarini ko'rmaymiz. Zamonaviy axloqiy tarbiyada kosmopolitizmga moyillik kuchaymoqda. Bugun nafaqat o'sib kelayotgan yosh-avlod, balki butun insoniyat kelajagiga tahdid solmoqda. Mazkur illatlar natijasida masuliyat, qatiyat, burchga sodiqlik, sadoqat, ibo, hayo, iffat kabi qator axloqiy xususiyatlarning ahamiyati so'nib bormoqda.

Kembrij universiteti ilohiyotchisi Timoti Uinterning "XXI asrda islom: Postmodern dunyoda qiblani topish" kitobida Britaniya katoliklarining vakili kardinal Hyunning gomoseksualizm haqidagi murossali fikrlar bildirib o'tganligini, hattoki, o'zining boshqa bir erkak bilan aloqasi xususida ochiqchasiga qayd etib o'tganligini takidlaydi¹.

Dastlab XX asrning 50-60 yillarida AQSHning janubiy shtatlarida istiqomat qiluvchi bir guruh yoshlar o'z hayot tarzlarini butun dunyo madaniyatiga aylantirishni xohlab qoldilar. Bu hayot tarzi o'zining engil-elpiligi, jinsiy hayotda erkinligi, kosmopolitizm g'oyalari bilan butun dunyo yoshlarini o'ziga ohanrabodek jalb qila boshladi. Asr ohirida AQSH va G'arbiy evropadagi go'zal afishalar, tungi klub va diskotekalar jahon yoshlarning ideallariga aylandi va bu butun dunyoga «ommaviy madaniyat» nomi bilan tarqaldi.

«Ommaviy madaniyat» illat sifatida qanday namoyon bo'lishi mumkin?

1. "Ommaviy madaniyat" namoyandalarining amallari o'zlari uchun har taraflama manfaatdorlikka asoslangan : ular "noyob sanat" namunalari-g'oyalarini nafaqat targ'ib qiladi, pullaydi.

2. Faqat bugunni, yana ham aniqrog'i hozirni ko'radi va tan oladi.

3. Umuminsoniy madaniyatni bo'ysindirish va o'z tasir doirasiga tortish kabi tuban maqsadlarni amalga oshirishga harakat qiladi.

¹ Timoti J.Uinter. "XXI asrda islom: Postmodern dunyoda qiblani topish", Toshkent. "Sharq"-2005y. – B. 92-93.

4. U odamzodning fikrlashiga tish-tirnog'i bilan qarshi. Andozalashgan ahborot-u mahsulotlar qurshovida qolgan odamlarning o'zi ham bora-bora bir o'lchamga tushadi: hammaning yurish-turish, o'y-kechinmasi, fikrlash tarzi bir hil.

5. SHaxsning ijtimoiylashuviga imkon bermaydi. U voqea jarayonlarga loqayd, befarq avlodni shakllantiradi.

6. "Ommaviy madaniyat" o'z navbatida mafkuraviy, informatsion, iqtisodiy qadriyatlardan foydalangan holda "marifatparast"lik g'oyalari asosida o'ziga hos muomala va muloqot madaniyatini ham targ'ib qiladi».¹

Ommaviy madaniyat Globallashuv sharoitida asrimizning muhim xususiyatlaridan biri bo'lgan insonlarning ongi va qalbini egallash uchun bir qurol vosita vazifasini bajarapti deb aytishga barcha asoslar bor. Bugun biror davlat yoki hududni qonli urushlar, harbiy yurishlar, iqtisodiy iskanjaga olishlar bilan emas, balki ko'proq mafkuraviy vositalar va manaviy qurollar ishlatib ularni egallash va ularga tasir o'tkazish o'tmishdagi usullardan foydali va xavfsiz bo'lib qoldi. Odamlarning tafakkuri, ongi, dunyoqarashini egallashga urinishlar tobora kuchaymoqda. Boshqa hudud va halqlarni o'ziga qaram qilish uchun manaviy buzg'unchilik uslublari qo'llanilmoqda. Hozirgi axborotlashgan davrda har bir yosh har kuni (shaharlarda) u yoki bu axborot bilan tanishadi yoxud ular bilan ishlash imkoniga ega bo'ladi.

So'nggi yillar mobaynida kishilarning ijtimoiy ongida muayyan o'zgarishlar sodir bo'ldi. Endilikda qadriyatlarni YAngicha baholash, ularni takomillashtirish, ilg'or milliy analarni saqlagan xolda umuminsoniy qadriyatlarni hurmatlash tuyg'usi shakllanmoqda. Respublikamizning yangilanish va ijtimoiy taraqqiyot yo'li ijtimoiy turmushining iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, marifiy, manaviy-madaniy va boshqa sohalarini qamrab oladi. Bu yo'l mustaqil O'zbekiston ichki va tashqi siyosatining umumiy strategiyasini belgilab beradi. SHu bois yangilangan jamiyatning siyosiy va davlat tuzilishi insonga uning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy turmush tarzini erkin tanlab olishini kafolatlaydi. SHu bois, mamlakatimizning ijtimoiy-manaviy sohalarida amalga oshirilayotgan isloxotlarda manaviyat va axloqlikni qayta tiklash, manaviy-madaniy merosga ijobiy munosabatda bo'lish, xalqning milliy madaniyati va o'ziga xosligini ifoda etuvchi ananalarni rivojlantirish, uning go'zalligini ro'yobga chiqarish muhim ahamiyatga ega.

Ommaviy axborot vositalari xususan televidenie voqelikni bir butun qamrab oladi. Axloqning barcha soha va yo'nalishlari axloqiy madaniyat, tabiatga axloqiy munosabat, etiket, axloqiy tarbiya muammolariga keng to'xtalib o'tadi. O'zaro insoniy munosabat va insonda o'simliklarga, hayvonlarga, eru suvga muhabbat hissini tarbiyalash hozir ko'proq axloqiy munosabat bilan bog'liq bo'lib qolmoqda.

Kishilarning turmush tarzi va madaniyatini, maishiy hayotini takomillashtirish, SHaxsni har tomonlama kamol toptirish hamma vaqt jamiyatning muhim va asosiy maqsadi bo'lib kelgan. Axloqiy fazilatlar, ularni shakllantirishning milliy jihatlari har doim saqlanib qoladi va jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga moyil bo'ladi. Xalqimizning milliy manaviyati, o'ziga xos axloqiy fazilatlarini, turmush tarzi madaniyati bugungi kundagi jamiyat taraqqiyotining

¹ Husanov B. Nafosat falsafasining ahamiyati va uning global muammolari. - T.: - B. 2010.

muhim omillaridandir. shuningdek, turmush tarzi madaniyatining milliylik xususiyatlari xalqning ananalari va urf-odatlarida, kundalik hayoti va manaviy turmush sohalarida o'z aksini topadi.

Mutaxassislar (faylasuf va sotsiolog olimlar)ning fikricha, hali ilm-fanda «antikultura» («g'ayrimadaniyat») degan ilmiy tushuncha shakllanmaganligi uchun «Pop (ommaviy) madaniyat» tushunchasi, nochorlikdan qo'llanilmoqda. Chunki, «ommaviy madaniyat», aslida madaniyatsizlik, yani manaviyatsizlik va axloqsizlik sinonimidir. «Ommaviy madaniyat» shu boisdan, eng avvalo, yuksak istedod va o'lmas manaviy-axloqiy g'oyalar bayroqdori bo'lgan mumtoz madaniyatga, sanatga, uning boyliklariga qarshi tish-tirnog'i bilan kurashib, uni inkor etib kelyapti.

Afsuski, Yer yuzidagi axborot almashinuvi mislsiz tezlashgan hozirgi globalizm sharoitida, G'arbdagi «markazlar» bundan foydalanib, boshqa davlatlar va xalqlar o'rtasida G'arb hayoti «jozibalari»ni, jumladan, «ommaviy madaniyat» tasirini «erkinlik shabadalari» tarzida imkon qadar keng yoyishga eng shimarib harakat qilmoqdalar.

Taassufli jihati shundaki, gohida g'oyatda istedodli insonlar ham «ommaviy madaniyat» targ'ibotchilarining qutqusiga uchrab, uning tegirmoniga suv quymoqda. Masalan, rassom Salvador Dali Leonardo da Vinchining «Mona Liza» («Jakonda») asarini kulgi qilib, Mona Liza lablari ustiga mo'ylov chizgan va «Mo'ylovli Jakonda» asarini yaratgan. Tadqiqotchilarning fikricha, mana shunday «achchiq istehzoli, qora mazmunli kulgi» - «ommaviy madaniyat» faoliyatining eng etakchi belgilaridan biridir. «Ommaviy madaniyat» namoyandalari qora, zaharxanda, behayo kulguni «isyon ifodasi» deb bilishadi. «Nimaga qarshi isyon» degan savol tug'iladi. Agar «Ommaviy madaniyat» dunyoga «ehson» etayotgan «pop-art» («tasviriy sanat» desa ham bo'ladi), «pop - natijalariga qarab hukm yuritadigan bo'lsak, ular insoniyat yaratgan barcha qadriyatlarni isyonkorlik bilan inkor etadi: yuksak madaniyatni, manaviyatni, axloqni, yuksak orzu-maqсадlarni mensimaydi... Ular uchun ezgulikning o'zi yo'q. Jumladan, sanat - alohida istedodlar tomonidan yaratiladigan manaviy boylik, mo'jiza ekanligi kabi ijodning oliy mezonlari «pop-madaniyat» tarafdorlarining o'ta darajada g'ashini keltiradi. Ularcha, hamma sanatkor bo'lishi mumkin. Hamma narsa sanat atalishi mumkin. «Pop-art» - ommaviy sanat shu xulosa manbaida vujudga kelgan.

«Ommaviy madaniyat» ko'pdan-ko'p shakllarda o'zini namoyon etadi. Kitch (zarracha badiiy-estetik qimmatga ega bo'lmagan narsa va buyumlarga yuksak andoza tusini berish), komiks (tagiga qisqa matn yoki luqmalar bitilgan behayo matbaa - rasm mahsulotlari), starizm (subektiv ehtirolarga berilgan holda, estrada artistlari, aktyorlar, sportchilar, telediktorlarni ilohiylashtirish), xepining (avvaldan rejalashtirilmagan, nogahonda uyushtiriladigan «keskin» tomoshalar, masalan, royal, pianino yoki avtomobillarni urib abjag'ini chiqarish yoxud o't qo'yish orqali vahshiyona, ommaviy «ko'ngil ochish»lar uyushtirish) «ommaviy madaniyat»ning ayrim ko'rinishlaridir. «Pop-art» chilarning dasturiy qarashi shundayki, ular insonni emas, aksincha, narsalar va buyumlarni ezozlashadi; manaviy dunyoni emas, maishiy-istemolchilik his-tuyg'ularini qadrlaydilar va ularni keng

ommalashtirishga intiladilar. Ularning manaviy pozitsiyasi - manaviyatni o'ldirish va «narsalarga qullik»ni rag'batlantirishdir. Amerikaning taniqli adibi R. Bredberi aytganidek, «ommaviy madaniyat» maktabidan o'tgan avlod uchun hayotning manosi - avtomobil, televizor, muzlatkichga ega bo'lish. Agar televizor ikkita bo'lsa, ularga shuncha yaxshi .

Ommaviy madaniyat»da «Pop (ommaviy)-muzika» alohida o'rin tutadi. «Pop-muzika»ni «yangi rok» belgilaydi. «yangi rok», tabir joiz bo'lsa, kuchaytirilgan ritmik tuzilmali musiqadir. yani jazavali ritm, zarb, shovqin ushbu musiqaning qiyofasidir. Bu musiqa tinglashga, qalbdan huzurlanishga emas, balki vujud harakatiga, talvasali raqsga yo'naltirilgan. «Ommaviy madaniyat»dagi texnik-ijro vositalari musiqa imkoniyatlarini nihoyatda toraytirmoqda, polifonizm - musiqiy sadolar boyligi va rang-barangligini yo'qqa chiqarmoqda. Umuman aytganda, «pop-muzika» ijrochiligi ko'ngilochar musiqa niqobi ostida ommaviy vasvasali, shaytoniy talvasali, badaxloq raqslar, ko'pincha oxiri janjal, ur-yiqit, vahshiyliklarga borib etadigan agressiv diskoteka shoularini uyushtirish bilan ajralib turadi. «Pop-muzika» namoyandalari o'z «ommaviy» liklarini takidlash uchun sahnadagi xatti-harakatlari va kiyim-liboslari namoyishida ham - odob-axloq, jamiyatga ehtirom tuyg'ularini rad etib - asosan ko'cha, olomonchilik qonun-qoidalarga amal qiladilar va o'zlarining kulguli darajada ajralib turadigan shunday raftorlaridan faxrlanadilar. Afsuslanarli tomoni shundaki, bunday holatlarni «pop-muzika» chilar sanatdagi demokratizmning, xalqchilikning tantanasi, deb bilishadi. «Pop-muzika» namoyandalari ijro etadigan qo'shiq matnlari esa, avvalo, shariyatning oddiy talablariga javob bermaydi yoki ular ko'proq ko'chada mavjud behayo, jargon iboralarga - qadriyatlarini, insoniy ezguliklarni kinoya, mazax qiladigan so'zlarga asoslangan. Xullas, erkinlik, demokratiya «namunalari» deb tavsiya etilayotgan «pop-muzika» matnlari bilan haqiqiy shariyat hamda asl xalqchilik did, sog'lom ruhiyat, manaviyat o'rtasida Yer bilan osmoncha farq bor.

Mutaxassislar «ommaviy madaniyat»ning kishini ijtimoiy muammolardan, jamiyatda sodir bo'layotgan o'zgarishlardan uzoqlashtirish, chalg'itishga qaratilganini qayd etishadi. AQSHlik sotsiologlar R.Mitz va Leo Gurkolarning fikriga ko'ra, ommaviy madaniyat kishilarda fikrlashni emas, balki siyqa, bemani, hayot realligidan uzoq syujetlar, miflar bilan yashashni shakllantiradi. Unda o'ta sodda, siyqa qarashlar YAngi lik, badiiy-estetik kashfiyot sifatida taqdim etiladi.¹

Faylasuf R.I.Glushkoning yozishicha televideniya dasturidagi ommaviy madaniyatning 70-80,0% ermak, vaqt o'tkazishni nazarda tutadi. Unda bemani, siyqa syujetlarga qurilgan seriyalar, shou, o'yinlar, tomoshalar va konsertlar namoyish etiladi.² Konsertlar asosan kliplardan iborat bo'lib u yoki bu «sanatkor»ni talantini emas, balki tashqi ko'rinishi, kiyinishi, uy-hovlisi kabilar ko'z-ko'z qilinadi.

1964 yilda AQSHda T.Sazern va M.Xoffenberg degan ikki muallif hamkorlikda yozishgan «Kendi» («Asal qiz») nomli romanini nashrdan chiqarishdi.

¹ Mitr R. The Great W Sitcom Book.-N.Y.,1980. -P.268; Gurko L. Krizis amerikanskogo duxa.-M.:Progress, 1998. -S.37.

² Galushko R.I. Zapadnoye televideniye i «massovaya kultura».-M.: MGU, 2000.-S.10-11.

Keyinchalik bu kitob qayta va qayta, katta miqdorlarda amerikalik kitobxonlarga taqdim etildi. Ushbu roman asosida yaratilgan kinofilm kinotomosha bozorida keng tarqaldi. «Kendi» qahramoni, «Asal qiz» deb tariflangan juvon duch kelgan odam bilan to'shakda aysh-ishrat qilishdan charchamaydi. Uning ishqibozlari - turli diniy va siyosiy qarashli SHaxslardir. «Kendi» romani Amerika adabiyotida shakllangan va keng tarqalgan romantik tabiatli, shirin va go'zal o'y-xayollarga beriluvchan qizlar timsolini keskin hajv qiladi, ularning ustidan kuladi. Badiiy mahorat talablaridan ancha pastda turadigan, ammo «ko'ngilochar»lik mavzui muxlislarini

oshufta etgan bu kitobga AQSH adabiyotshunoslari: «Madaniy tanazzulda oldinga qarab qo'yilgan ulkan qadam», deya kinoya bilan baho berishdi. Xuddi shu kitob bilan ayni bir vaqtda AQSHda Jon Rechi ismli yozuvchining «Tungi shahar» nomli romani chop etildi. Kitob sahifalarida shahardagi tun - jinoyatlar bazmiga aylanadi, inson SHaxsi va uning qadri esa mis chaqaga arzimaydi. Bu roman «tubanlik va qabohat - inson tabiatini belgilovchi haqiqatdir», degan g'oyani tasdiqlash uchun bitilgan. Nega biz bu ikki romanni eslatdik? Aynan, ana shu kitoblar va ular asosida yaratilgan filmlar - g'arbdagi «ommaviy madaniyat»ning adabiyotdagi, televideniya va kinodagi yo'lini belgilab berdi. Intim munosabatlar, shahvatparastlik, zo'ravonlik, xudbinlik, «Kim kuchli bo'lsa - o'sha haq» degan changalzorlar qonunini poetiklashtirish AQSH va evropa «ommaviy madaniyat»ida mana shunday asarlar tasirida keng ommalashdi. Agar ayrim G'arb davlatlarida erkak bilan erkak, ayol bilan ayol o'rtasidagi nikoh - hayratlanarli hodisa bo'lmay qolayotganligi nazar tutilsa, «ommaviy madaniyat» targ'ib etayotgan manaviy tubanliklar, behayoliklar, qabohatlar naqadar chuqurlashib ketganligini tasavvur etish qiyin emas.

Albatta, xalqimiz, jumladan, yosh avlod g'arb fan-texnikasi, madaniyati, adabiyotu sanatining ilg'or jihatlarini inkor etmaydi. Biroq g'arbdagi taraqqiyparvar ziyolilarning o'zi «g'arbnings muammosi» sifatida baholayotgan «ommaviy madaniyat»ning manaviy-axloqiy tubanliklarini yoshlarimiz qancha tez anglasa, shuncha yaxshi. To'g'ri, biz demokratiya davrida yashayapmiz. Jamiyatimizda qiziqish va mayllarga hurmat bilan qaraladi. Ammo xatarli qiziqish va mayllardan davlat va jamiyat o'zini himoya qilishi lozim. Buning uchun esa, eng avvalo, reklama va ommaviy axborot vositalari to'g'risidagi davlatimiz qonunlarining talablari qat'iy bajarilishi kerak. YAni «reklama»chilar va jurnalistlar davlatimiz, jamiyatimiz xavfsizligiga (jumladan, xalqni, yoshlarni manaviy aynitishga olib keladigan holatlarga) yo'l qo'ymasliklari kerak. Afsuski, bunday holatlar yuz berayapti. Birgina reklama roliklari orqali targ'ib etiladigan madaniyat yoki turmush tarzi namunalarini oling. Ular orkali go'yoki ehtiyoj uchun zarur oddiy bir matox targ'ib kilinayotgandek bo'lib ko'rinsa-da uning zamirida bizning milliy axloqimizga to'g'ri kelmaydigan nimadir yashiringan bo'ladi. Ana shu nomsiz nimadir borib-borib ommaviy madaniyat ommaviy turmush tarzi tamoyillarini belgilaydigan kuchga aylanish uchun davogarlik qiladi. Bizning qalbimizdan milliy o'zlik tuyg'usi, Vatan xissini siqib chikarmoqchi bo'ladi. «Ommaviy madaniyat»ning televideniya keng o'rin olishga intilayotgani bejiz emas. Televideniya bugun nafaqat ommaviy axborot tarqatish vositasi, u ijtimoiy ongni,

estetik didni shakllantiradi, o'zicha kishilar duch kelayotgan ijtimoiy muamolarni «echishga» yordam beradi. U kishilarni hayot tashvishlaridan, aniqrog'i ijtimoiy muammolardan chalg'itadi, ularning o'yi, xayolini engil-elpi, siyqa, goho seksual syujetlarga qurilgan dasturlari, ko'rsatuvlari bilan band qilib qo'yadi. Bu xolatni faylasuf R.I.Galushko izohlar ekan, masalan, kishi qanchalik qashshoq, kambag'al bo'lsa, u televideniya shunchalik ko'p bog'lanadi, hayotiy muammolarini televideniya orqali hal etish (eskeypizm-«eccape») ga moyil bo'ladi, deydi.¹

Masalan, o'zining xurmatini bilgan, kalbida ozgina uyat, or-nomus tuyg'usi bo'lgan inson hech qachon hammaning oldida echinib, yuvinmaydi. Lekin, oynai jaxon orqali beriladigan sovun yoki soch yuvish vositasiga talluqli reklamada ana shunday xolatlar ochiqchasiga ko'rsatiladi. Badaniga sovun surkayotgan ayol kishining suv ostida qanday hissiy xolatni boshidan kechirayotgani ko'z-ko'z qilinadi. Maqsad - siz xam shunday rohatdan benasib kolmang, shu "bebaho" sovunni sotib oling, degan mazmunda berilmoqda. Xolbuki, xalkimiz yuvinish foydali ekanini shusiz xam yaxshi biladi va necha asrlardan buyon tozalik ozodalik qoidalariga amal kilib keladi. Modomiki shunday ekan, bunday reklamalar kim uchun? Qolaversa, dunyoqarash tarbiyasi imkoniyatlarini rivojlantirishimiz lozim. Masalan, «Ogohlik» iborasining manolarini bugungi zamon sharoitidan kelib chiqib, ancha keng miqyosda tushunishimizga to'g'ri keladi. YAni bugungi ogohlik xalqimiz, ayniqsa, yoshlar dilini, ruhiyatini, aql-idroki va umuman manaviyatini diniy-aqidaparastlik, jaholatparastliklar xataridan tashqari, ayni paytda, jahonda yuz berayotgan siyosiy, mafkuraviy, ijtimoiy, iqtisodiy, manaviy va estetik manfaatlar yo'nalishidagi oshkora va xufya kurashlarning keng miqyosdagi xatarli jihatlaridan, jumladan, «ommaviy madaniyat»ning emiruvchi tasiridan muhofaza qilishni ham o'z ichiga oladi.

Inson hamisha ezgulikka, manaviy YUk sak likka intilib kelgan, bamani, go'zal hayot kechirishga, kelajak avlodlarga o'zidan yaxshi nom, hayotbaxsh qadriyatlar qoldirishga intilgan. Manaviyat va marifat sohasidagi vazifalarimiz ana shu ezgu maqsadni amalga oshirishga davat etilgan. Manaviy barkamol inson tushunchasi biz uchun ham milliy, ham umumbashariy ahamiyat kasb etadi, bu masala umumdavlat miqyosidagi kechiktirib bo'lmaydigan vazifadir.

Manaviy barkamol inson tushunchasini mazmun mohiyati yoshlarni to'g'rilikka, halollikka, poklikka, vatanparvarlik va insonparvarlikka, ezgulikka, yuksak ahloqiylikka yo'llashni tashkil etadi. Insoniyat tarixi shundan dalolat beradiki, iymon e'tiqodi, ahloqiy fazilatlar, manaviyati kuchli, milliy masuliyat tuyg'usi qalbda jo'shib turgan, manaviy barkamol insonlarga ega davlatninggina mustaqilligi abadiy bo'ladi va barqaror rivojlana oladi, jahon sivilizatsiyasiga o'z munosib hissasini qo'sha oladi.

Bugungi zamon voqelikka ochiq ko'z bilan, globallashuv jarayonida manaviy tahdid va xatarlarni to'g'ri baholab, ulardan tegishli xulosa va saboqlar chiqarib yashashni talab etmoqda. yosh avlod ongida murakkab va tahlikali hayot haqida aniq tasavvurlar shakllantirilmog'i lozim.

¹Galushko R.I. Zapadnoye televideniye i «massovaya kultura».-M.: MGU, 2000.-S.11.

Buning uchun esa yoshlar erkin va mustaqil fikr yurita olishlari, ilmiy va maxnaviy merosni ongi va qalbiga jo etmog'i lozim. Zero, Vatanimizning rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy olishi, O'zbekistonda huquqiy demokratik jamiyat qurishda yuksak manaviyatli yoshlarga madadkor bo'la oladilar.

Bioetika hozirgi zamon amaliy etikasining muhim yo'nalishlaridan biri-inson hayotining eng oliy axloqiy qadriyat sifatida qaraydi. shu bilan birga, inson hayotini saqlab qolish muammosini yaxshilik va yomonlikni farqlashning muhim mezoni, deb hisoblaydi. Hozirgi zamon fanida bioetika tirik mavjudotlar, SHu bilan birga, insonga ham bo'lgan munosabatlarning axloqiy xarakatlantiruvchi kuchi deb qaraladi. Insonning tabiat bilan uzluksiz aloqasini manaviy tahlil asosida, tabiatni muhofaza etishda axloqiy javobgarlik bioetikaning madaniy negizini tashkil etadi. Bioetika, ijtimoiy masalalar bilan birgalikda, qadriyatlar muammosini ham qamrab oladi. Bioetika maqsadlaridan biri –shaxsni turli holatlarga solish imkoniyatlarini yaratuvchi, inson xatti-xarakati, ruhiyatini o'zgartirish mumkin bo'lgan, uning ustidan o'tkazilayotgan xilma-xil tadqiqotlarni cheklash mezonlarini ishlab chiqadi. Bioetika muammolarini ishlab chiqishda faylasuflar, huquqshunoslar, sotsiologlar, tibbiyot xodimlari va axloqshunoslar qatnashmoqda. Bioetika muammoning dolzarblashuvi, ilmiy texnik taraqqiyot, biotexnologiya, irsiyat texnologiyasini rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, tabiiy muhitni maqsadga muvofiq va tez o'zgartirishda, insonga katta quvvat berdi. Tabiiy evolyusion jarayonlar uchun ilgari millionlab yillar kerak bo'lsa, endi inson bu jarayonlarni qisqa vaqt ichida amalga oshirishi mumkin bo'ldi. Irsiyat texnologiyasi va biotexnologiya inson taqdiriga bevosita aralashib, irsiyatni dasturlashtirish, turli tirik organizmlar, irsiyat asosida yangi organizmlar, biologik robotlar yaratish masalalarini ko'tarib chiqdi. Natijada, insoniyatning rivojlanishi, fiziologik jihatdan qayta o'qish imkoniyatlarini, diniy tahlil etish muammolarini keltirib chiqardi. Irsiyatga qanday manaviy mezonlarga ko'ra, qaysi ideallarga, qaysi qadriyatlarga asoslanib, aralashish muammolari Bioetika etikaning tadqiqot obekti bo'lib hizmat qiladi.

Bioetika, klassik tibbiyot etikasidan farq qiluvchi yangi yo'nalish sifatida, XX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'ldi va jadal rivojlana boshladi. Bioetika – tibbiyot va biologiyaning rivojlanishiga qarab yuzaga keladigan axloqiy, huquqiy va ijtimoiy muammolarni o'rganuvchi bilim sohasi. Boshqacha qilib aytganda, bu borliqqa axloqiy munosabat mezonlari to'g'risidagi fan, jamiyat manfaatlarini ilm-fan tajovuzidan himoya qiluvchi institut, shuningdek tibbiyot sohasidagi axloqiy muammolarni hal qilish metodologiyasidir. Bioetikaning asosiy maqsadi – insonni uning hayoti va sog'lig'iga tibbiyot va biologiyaning salbiy tasiridan himoya qilish. «Bioetika» atamasini amerikalik mashhur onkolog vrach, olim va insonparvar Van Ranseler Potter (1911-2001) ilmiy muomalaga kiritdi.

Bioetika bugungi kunda vrach va patsient munosabatlarning axloqiy jihatlariga, evtanaziya va o'limni aniqlash, inson azolarini transplantatsiya qilish, homila tushirish (abort), klonlash, irsiy injeneriya masalalariga alohida etiborni qaratmoqda. Akademik doiralarda «bioetika» tushunchasi aynan shu manoda qo'llaniladi.

XX asrning ikkinchi yarmida transplantologiya, irsiy diagnostika, irsiy injeneriya va klonlash rivojlana boshladi. Tibbiyot texnikasi o'z rivojlanishida shunday daraja etdiki, vrach ilgari o'lishi muqarrar bo'lgan bemorlarning hayotini endilikda suniy ravishda saqlab tura oladi. Texnika sohasidagi yutuqlar bemorlar, o'lim to'shagida yotganlar va nogironlarning huquqlarini yuridik jihatdan asoslashning YAngi -YAngi shakllari va usullari paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Bioetika amaliy etikaning eng rivojlangan va ishlab chiqilgan qismiga aylandi.

Totli o'lim - evtonaziya ham axloqning global muammolaridan. Bedavo dardga chalingan bemorni azob-uqubatlardan qutqarish uchun uning o'limini tezlashtirishga munosabat yuzasidan tibbiyotchilar, yuristlar, sotsiologlar va psixologlar orasida ko'p sonli bahslar hanuz davom etmoqda. Ingliz faylasufi Frensis Bekon (1561-1626) engil og'riqsiz o'limni belgilash uchun «evtanaziya» (yunoncha «euthanasia», «eu» – yaxshi , «thanatos» - o'lim), yani azob-uqubatlarsiz, yaxshi , oson va engil o'lim atamasini muomalaga kiritdi.

Xudoning ixtiyoridan tashqari o'limni ixtiyor qilgan kishi diniy nuqtai nazardan kechirilmaydi. CHunki sabrli, bardoshli bo'lish, bu dunyo iztiroblarini toqat bilan boshdan kechirish insonning vazifasi. Lekin axloqiy jihatdan olib qaraganda masala qanday baholanadi? Deylik, muayyan inson, bemor o'z kunlarining sanoqli ekanini, lekin bu kunlar sanoqsiz azoblar ichida o'tishini biladi. SHu bois u o'zining ana shu holatini juda yaxshi biladigan boshqa bir odam - shifokordan azoblariga chek qo'yishni so'raydi. Uning iltimosi va shu iltimosni bajarish uchun shifokor tomonidan qilingan xatti-harakatlarni qanday, baholash mumkin? Bu xatti-harakatlarni insoniylik va insonparvarlikning ko'rinishi sifatida qabul qilish to'g'rimi? Umuman, evtanaziya axloqiylikmi, axloqsizlikmi? Bu muammo ham umumjahoniy miqyosda o'z echimini kutmoqda.

Evtanaziyaga tibbiy va manaviy-axloqiy nuqtai nazardan ziddiyatli qarashlar mazkur hodisaga yuridik jihatdan ham har xil baho berilishiga sabab bo'ldiki, bu bir qancha mamlakatlarning qonun hujjatlarida o'z aksini topdi.

Klonlashtirish atamasi ingliz tilidagi “sclone”, “cloning” so'zlaridan kelib chiqqan va hozirgi kunga kelib o'z yozilishi, o'qilishini biroz o'zgartirgan. Ingliz tilida bu so'z biologik termin sifatida yuz yillar oldin qo'llana boshlagan. Biroq shu qisqa vaqt ichida o'z manosini bir necha marta o'zgartirishga ulgurgan. Dastlab klon so'zi vegetativ yo'l bilan, YAni bir o'simlik urug'idan olingan o'simliklar guruhiga nisbatan qo'llangan. Oradan bir muncha vaqt o'tib, ushbu atama bakteriyalar turkumini etishtirishga nisbatan ishlatilgan. Biologik yutuqlar shuni ko'rsatadiki, o'simliklar va bakteriyalarning kelib chiqishi, avlodlarning arganizmi-ishlab chiqaruvchisi bilan klonning barcha genetik asoslari bir xil bo'ladi. Keyinchalik shu yo'l bilan olingan yoki shakllantirilgan organizmlar klonlashtirish deb ataladi. Klonlashtirishga oid ko'plab baxs-mulohazalar mavjud. 1977 yili butun insoniyat klonlashtirish yo'li bilan dunyoga keltirilgan shotland qo'zichog'i Dollini ko'rib, xayratga tushdi. Bu paytda odamni klonlashtirish ustida olib borilayotgan tajribalarga bo'lgan munosabat to'g'risida baxs ketayotgan va baxslar quyidagi savollar bilan bog'liq edi. Keyinchalik klonlashtirish odamlarga genetik kasalliklarni davolashda ham katta yordam beradi. Agar xavfli genlar, yani

qandaydir kasallik alomatlari oti xromasomasida aniqlansa, unda otaning tuxumdoniga uning o'z xujayrasi o'tkaziladi. shunda xavfli genlardan xoli farzand dunyoga keladi. Insonni klonlashtirish o'z-o'zidan insoniyat axloqi va ruhiyatini buzish bilan barobar emasmi, degan muammolardan iborat. Malumki, inson faqat jismoniy tanadan iborat emas, unda yurak, qalb, hissiyot tafakkur, orzu umid va uning ro'yobiga qaratilgan inson xatti xarakterlarining bir-biriga bog'liq va yaxlit tizimi mavjud.

Transplantatsiya—odam va hayvonlarda potologik jarayon natijasida shikastlangan yoki olib tashlangan to'qimalar va organlar o'rniga sog'lomini ko'chirib o'tkazish. Xirurgiya usuli sifatida qadimdan malum. Teri, muskul, nervlar, ko'zning muguz pardasi, yog', va suyak to'qimasi, yurak, buyrak va boshqa organlar ko'chirib o'tkaziladi. Qon quyish-transplantatsiyaning alohida turidir. Ko'chirib o'tkaziladigan to'qima yoki organ kimdan olinganiga qarab quyidagicha farqlanadi. Transplantologiya – deyarli chorak million og'ir kasalliklarga duchor bo'lgan insonlarga hayotlarini davom ettirish imkoniyatini berdi, lekin Shuning bilan bir qatorda bir qator axloqiy, huquqiy va ijtimoiy muammolarni ham keltirib chiqardi. Ushbu masalada muammo donorlik organlarining etishmasligidadir. Transplantologiya- yashashga umid qolmagan, dori darmonlar foyda bermagan insonlarning so'ngi chorasi va yashash uchun so'nggi umidi bo'lib qolmoqda. Lekin, ushbu muammo bugungi kunda ko'pgina jinoiy holatlarga YAni, inson organlarini sotish jarayonlariga olib kelmoqda. Ushbu muammolarni echimining bugungi kundagi YAngi yo'llardan biri hisoblangan, insonga xayvonning organi yoki to'qimasini ko'chirib o'tish– yani ksenotransplantatsiyadir. Lekin, yaqin-yaqingaga u faqat nazariy jihatdan mavjud edi, chunki organlarning insondan – insonga ko'chirib o'tilganda bir qancha muammolar mavjudki, hayvondan insonga ko'chirilganda ushbu muammolar bir necha marta ko'payadi. Afsuski, ushbu organlarning insonda qancha vaqt faoliyat ko'rsatishi mumkinligini hali hech kim bilmaydi. Takidlash kerakki, ushbu sohada bazi muvaffaqiyatli tajribalar o'tkazilgan. 1963 yil K.Rimstma insonga shimponzening buyragini o'tkazgan va u 9 oy mobaynida faoliyat ko'rsatgan.

G'arb tibbiy bioetikasida diniy va dunyoviy qarashlarida keskin farq mavjud, chunki dunyoviy qarashlarda diniy qarashlarning ayrim jihatlari keskin tanqid qilinadi. Islom falsafasida esa tibbiy amaliy etika alohida yo'nalish sifatida shakllanmagan, ammo axloqiy qarashlarning tibbiyotdagi ahamiyati, ilmiy izlanishlarda va amaliyotda uning ijobiy tomonlari tahlil etiladi. Musulmon Sharqi mutafakkirlari insonning ruhiyati, qalbi va axloqiy –manaviy tomonlarini tibbiyotdagi ahamiyatini alohida takidlaganlar va axloqiylikni tibbiyot ilmining bir bo'lagi sifatida qaraganlar. Al-G'azzoli tabiblarni insonning tanasini va ruhiyatini davolovchi ikki guruhga ajratadi. Ikkinchi toifadagi tabiblar insonning yuragini davolaydi, yurak bu erda nafaqat inson organi shuning bilan bir qatorda insonning o'zligini anglashi va vijdoni deb ham tushuniladi. Al-Roziy esa "tibbiyot" termini inson organizmini davolash va profilaktikasini anglanishini takidlaydi, "tibbi ruhoni" atamasi esa insonning manaviyati, axloqi va xulqini takomillashtiruvchi tushuncha sifatida tahlil qilinadi.

Hozirgi zamon amaliy etikasining muhim yoʻnalishlaridan biri-inson hayotining eng oliy axloqiy qadriyat sifatida qaraydi. shu bilan birga, inson hayotini saqlab qolish muammosini yaxshilik va yomonlikni farqlashning muhim mezon, deb hisoblaydi. Hozirgi zamon fanida bioetika – etika tirik mavjudotlar, shu bilan birga, insonga ham boʻlgan munosabatlarning axloqiy regulyativi, deb qaraladi. Insonning tabiat bilan uzluksiz aloqasini manaviy tahlil asosida, tabiatni muhofaza etishda axloqiy javobgarlik bioetika – etikaning madaniy negizini tashkil etadi. Bioetika, sotsial masalalar bilan birgalikda, qadriyatlar muammosini ham qamrab oladi. Bioetika maqsadlaridan biri – shaxsni turli holatlarga solish imkoniyatlarini yaratuvchi, inson xatti-xarakati, ruhiyatini oʻzgartirish mumkin boʻlgan, uning ustidan oʻtkazilayotgan xilma-xil tadqiqotlarni cheklash mezonlarini ishlab chiqadi. Bioetika muammolarini ishlab chiqishda faylasuflar, huquqshunoslar sotsiologlar, tibbiyot xodimlari va sotsial axloqshunoslar qatnashmoqda. Bioetik muammoning dolzarb shuvi, ilmiy texnik taraqqiyot, biotexnologiya, irsiyat texnologiyasini rivojlanishi bilan bogʻliq boʻlib, tabiiy muhitni maqsadga muvofiq va tez oʻzgartirishda, insonga katta quvvat berdi. Tabiiy evolyusion jarayonlari uchun ilgari millionlab yillar kerak boʻlsa, endi inson bu jarayonlarni qisqa vaqt ichida amalga oshirishi mumkin boʻldi. Irsiyat texnologiyasi va biotexnologiya inson taqdiriga bevosita aralashib, irsiyatni dasturlashtirish, turli tirik organizmlar, irsiyat asosida yangi organizmlar, biologik robotlar yaratish masalalarini koʻtarib chiqdi. Natijada, insoniyatning rivojlanishi, fiziologik jihatdan qayta oʻqish imkoniyatlarini, diniy tahlil etish muammolarini keltirib chiqardi. Irsiyatga qanday manaviy mezonlarga koʻra, qaysi ideallarga, qaysi qadriyatlarga asoslanib, aralashish muammolari Bioetika etikaning tadqiqot obekti boʻlib hizmat qiladi.

Mazkur hodisa soʻnggi bir necha oʻn yillik ichida sof tabobat muammosidan axloqiy muammoga aylandi: endilikda, birovning muayyan azosini boshqa bemorga jarrohlik operatsiyasi yoʻli bilan oʻtkazish orqali kishi hayotini saqlab qolish axloqiy nuqtai nazardan qanday baholanadi, degan savol kun tartibida dolzarb boʻlib turibdi.

Biologik axloq deganda, odatda, bizda ham, jahon axloqshunosligida ham asosan tibbiy axloq, tabobat muammolariga doir axloqiy yondashuvlar tushuniladi, xolos. Bu unchalik toʻgʻri emas. Bizningcha, biologik axloq muammolari ikki yoʻnalishdan iborat: biri - insonlarning kichik biologik olam sifatidagi katta biologik olamga boʻlgan munosabatlari bilan bogʻliq «tashqi», ikkinchisi - insonlarning «oʻz-oʻziga va oʻzaro munosabatlaridagi tibbiyot bilan bogʻliq ichki» axloqiy masalalar.

Biz odatda «ekologik etika» deganimizda aynan birinchi hodisani nazarda tutamiz. Ikki biologik olamning munosabatlarini, yani ekologik axloqiy muammolarni biologik axloq doirasida oʻrganish maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi paytda ekologik axloqning insoniyat uchun naqadar muhimligini hamma biladi, lekin oʻz bilganidan qolmaydi – muammoning murakkabligishunda biz yuqori da noosfera, tafakkur borasidagi mulohazalarimizda ekologik buhroilarning bazi koʻrinishlariga toʻxtalib oʻtdik. Biroq, yana undan tashqari soʻnggi paytlarda jahon boʻylab sintetik jismlar ishlab chiqarishning keng yoʻlga qoʻyilganligi, hayvonot va ayniqsa oʻsimliklarning gabrid usulida yangi turlarining

vujudga keltirilishi singari hadislar ham ekologik ahamiyatga ega. Xo‘sh, ular tabiat bilan silngishib, uyg‘unlashib keta oladimi, tabiat ularni o‘ziniki qila biladimi? Bunga hozir javob topish qiyin, ehtimol kashfiyotlarimizning oqibatlarini, yuqori da aytib o‘tganimiz - muayyan tafakkur bilan inson orasidagi «masofaning uzoqlashib» borishi natijasida ayon bo‘lar?...

Abort. Amaliy etikaning anchadan buyon ko‘pchilikka malum muammosi, bu – abort. Malumki, to‘rtinchi haftaning oxirida homilada dastlabki yurak urishi paydo bo‘ladi. Sakkizinchi haftaning oxirida esa miya tanasining elektrofiziologik faolligini kuzatish mumkin. Demak, har qanday abort, xalq tabiri bilan aytganda, jonlini jonsiz qilish, tirik organizmni tiriklikka bo‘lgan huquqdan mahrum etishdir. Xo‘sh, abortni axloqsizlik tarzida baholash kerakmi yo yo‘qmi? yoki AQSH olimlari tomonidan «inson zotini yaxshi lashga» qaratilgan tadqiqotlarni olib ko‘raylik. Ularda «yaxshi langan» - sog‘lom, kuchli intellekt egasi bo‘lgan odamlar hujayrasini ayol organizmidagi endi rivojlanishga kirishgan nisbatan «oddiy odam» hujayrasi o‘rniga ko‘chirib o‘tkazish tajribalarini olib borish mo‘ljallangan. Ular amalda tatbiq etilsa, asta-sekinlik bilan insoniyat irsiyat jamg‘armasining bir yoqlama o‘zgarishiga olib kelishi shubhasiz.

Homila tushirish (abort) – vrachlar, siyosatchilar, yuristlar, faylasuflar va olimlarning bunday muhim qarorlar qabul qilish masuliyati munosabati bilan ko‘riladigan masala. shuni qayd etib o‘tish kerakki, ayol barcha asrlarda ham o‘z farzandlarini o‘ldirgan. Buning asosiy sababi – ayol o‘zi tug‘ishi mumkin bo‘lgan barcha bolalarni boqib katta qilishga jismonan qodir bo‘lmagan. Qadimda YAngi tug‘ilgan chaqaloqlarga ancha shafqatsiz munosabatda bo‘lingan, natijada faqat kuchlilar yashab qolgan.

Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar

1. Muomala madaniyati xaqidagi fikringiz.
2. Muomala madaniyatining axloqiy madaniyatning tarkibiy qismi va uning ijtimoiy-tarixiy ahamiyati sifatida qanday tushunasiz?
3. Asosiy axloqiy qadriyatlar xaqida nimalarni bilasiz?
4. Kasbiy odobning axloqiy madaniyat bilan uyg‘unligi xaqidagi fikringiz.
5. Tibbiy va ekologik tarbiyaning axloqiy asoslari xaqida nimalarni bilasiz?
6. Sog‘lom turmush tarzining barkamol avlod axloqiy tarbiyasidagi ahamiyati deganda nimalarni tushunasiz?
7. Sanatning shaxs axloqiy tarbiyasiga tasiri xaqidagi fikringiz.
8. Zamonaviy axloqiy tarbiyaning yutuqlari va kamchiliklari xaqida nimalarni bilasiz?
9. “Ommaviy madaniyat”ning yoshlar dunyoqarashiga tasiri xaqidagi fikringiz.
10. Zamonaviy axloqiy tarbiyada kosmopolitizmga moyillik xaqida nimalarni bilasiz?

11. Bioetika xaqidagi fikringiz.

16-mavzu. Estetikaning predmeti, maqsadi va vazifalari

“Estetika” fanining obekti va falsafiy mohiyati

Falsafa va uning fan sifatidagi umumnazariy masalalari doimo tafakkur ahlining etiborini jalb etib kelgan. Inson olamni his-tuygʻulari, aql idroki va iroda-ixtiyori yordamida oʻzlashtirar ekan, falsafaga ehtiyoj sezib yashash tabiiydir. Zero, tabiat, jamiyat va insonning rivojlanish muammolari bilan bogʻliq jarayonlarda tafakkurga murojaat qilish - falsafaga murojaat qilish, haqiqatni anglash – falsafani anglash demakdir. Bir soʻz bilan aytganda, falsafada bosh maqsad – haqiqat va uni yuzaga keltirishdir. Falsafa esa haqiqatga tafakkur orqali boradi.

Oʻzining qadimiy tarixiga ega boʻlgan estetika shu manoda falsafiy fan hisoblanadiki, u ham tabiat, jamiyat va inson muammolariga falsafaning bosh maqsadi boʻlgan haqiqat tamoyillaridan kelib chiqqan xolda yondoshadi. Biroq, estetikada haqiqatga goʻzallik orqali erishiladi. Shuning uchun ham estetika haqida gapirilgan joyda, albatta goʻzallik tushunchasi ishtirok etadi. Zero, insonga oddiy qilib “estetikasi zoʻr inson” deb baho berish bilan oʻsha insonning goʻzallikka munosabatini ham baxolagan boʻlamiz.

“Estetika” (yunon. aisthetikos – his qilinadigan) iborasi dastlab Germaniyadagi Volf maktabining faylasufi Aleksandr Baumgartenning 1750-1758 yillarda yozgan “Estetika («Aesthetica»)” nomli ikki tomlik asarida muomalaga kiritgan.

Baumgarten estetikani bilishning yuksak darajasi hisoblangan mantiqdan farqli oʻlaroq, hissiy bilishning quyi darajasidagi fan sohasiga tegishli deydi. Uning fikricha, mantiqiy mushohada aniq tasavvurlarga, estetik mushohada esa noaniq va mavhum tasavvurlarga asoslanadi. Buning birinchisi – aql muhokamasiga, ikkinchisi – did muhokamasiga tegishlidir. Biroq, insonning universum bilan munosabati avval estetik mushohada orqali roʻy beradi, soʻngra mantiqiy mushohada orqali amalga oshadi. SHunga koʻra, estetikaning predmeti – goʻzallik, mantiqniki – haqiqatdir.

Baumgartenning estetikaga kiritgan ushbu nazariyasi keyinchalik sanat falsafasiga nisbatan keng qoʻllanildi. Bu nazariya Immanuel Kant, Fridrix Gegel va boshqa faylasuflar tomonidan rivojlantirildi, hatto fanning predmetini aniqlashda goʻzallik masalasi bilan boshlangan mulohazalar toʻgʻoyalar olamining falsafiy mohiyatiga tegishli mulohazalar bilan bogʻlanib ketdi. Shuning uchun ham koʻpchilik nazariyada Baumgarten “estetikaning asoschisi” sifatida tilga olinadi. Ammo, nemis faylasufi Teodor Lipps estetikani mohiyatan “nemislarga xos fan” ekanligini takidlagani holda Germaniyada estetikaning asoschilari sifatida 4 nafar faylasuf - Gotxold efrayim Lessing, Iogann Gotfrid Gerder, Immanuel Kant, Fridrix SHillerni koʻrsatib oʻtadi. U Immanuel Kant “estetikaning asoschisi” sifatida birinchi boʻlib estetik qadriyatlarni shakllanadigan va rivojlanadigan “hudud”ning chegarasini belgilab berdi. SHundan keyingina estetika masalalari Kantning idealistik falsafasi bilan birlashdi va rivojlandi, - degan xulosaga keladi.

Estetika fan emas, uning mazmuni fanning ilmiy talablariga javob bermaydi, degan fikrlar estetikaning mohiyatini tushunmaslik natijasida kelib chiqqan fikrlardir. Odatda, fan - dunyo haqidagi obektiv bilimlar tizimi; uni malum maqsadlar yoʻlida oʻzgartirishga xizmat qiladigan tabiat va jamiyat hayotini aks ettiruvchi ijtimoiy ong shakli hisoblanadi. Estetika ham fan sifatida oʻzining qonuniyatiga, kategoriyalariga va tushunchalar tizimiga ega. Biroq, “Estetika – goʻzallik haqidagi fan” deyish asl mohiyatni anglatmaydi. Aksincha, estetika keng qamrovli fan sifatida: a) u yoki bu voqelikka dahldor goʻzallik tuygʻularining mohiyatini bilishga intiladigan hodisalar majmui; b) borliqni hissiy idrok etishga asoslangan ong shakli; v) haqiqatni anglash va his qilish, qadriyatlarni bilish va tahlil etishga qaratilgan inson faoliyatining turidir.

Estetika ilmiy-nazariy masalalar va fan talablari doirasidan tashqarida qoʻllanilganda koʻplab manolarni anglatishiga sabab ham ana shunda. Qolaversa, boshqa fanlar kabi estetika ham odamlarga umumiy zaruriyat yuzasidan kundalik faoliyatda kerak boʻladigan narsa-hodisalarni (chiroyli boʻlish, orasta kiyinish, ozoda yurish, nafis harakat qilish kabi masalalar bilan estetikaning muayyan sohasi shugʻullanadi) emas, balki estetika fan sifatida estetik tarbiyani takomillashtirish, badiiy tafakkurni rivojlantirish, odam tuygʻusini tarbiyalash, uning did-fahm-farosatni yuksaltirishga qaratilgan fundamental masalalarning ilmiy-nazariy asoslarini oʻrganish va echimini topishga etibor beradi. Zero, estetikaning mavjudlik shartini nafosatshunos O.A.Krivsun ”Qaerdaki inson tafakkuri va tabiat hodisasi tufayli yaratilgan predmetlar olamini xis etish yoki undan zavqlanish tuygʻusi sodir boʻlar ekan oʻsha erda “estetik jarayon”, “estetik hodisa” roʻy beradi” – deb izohlaydi. SHu manoda, qaerdaki, yashashga ishonch, yashash umidi, yashashdan maqsad yoki voqelikni hissiy idrok etishga, tabiat hodisalarini anglashga ehtiyoj sezilsa, oʻsha erda estetika mavjuddir, desak notoʻgʻri boʻlmaydi.

Estetika predmeti, obekti va tadqiqot doirasiga ega fan. Malumki, barcha fanlar oʻz predmetiga ega boʻlib, olamning mohiyatini bilish, borliqning mazmunini tushunish, voqelikni tasavvur qilishga qarab har bir fan oʻz predmetini belgilaydi. Olaylik, salomatlik tibbiyotning maqsadi boʻlsa, uning predmeti - inson salomatligini asrash, mustahkamlash, himoya qiluvchi vositalar, hodisalar, omillar

hisoblanadi. Biroq, estetikaning predmetini tibbiyotnikidek bir soʻz bilan ifodalash qiyin. Mohiyatan insonni paydo boʻlishi va voqelikni idrok qilish bilan bogʻliq boʻlgan barcha qadriyatlar estetikaning predmeti boʻla oladi. Jumladan, tabiat va uning estetik xususiyatlari, sanat va uning badiiy obrazlardagi ifodasi, ijod jarayoni va uning qonuniyatlari, jamiyat va uning rivojlanish prinsiplari estetikaning predmeti boʻlib xizmat qiladi. CHunonchi, Immanuel Kantning nazarida estetikaning predmeti – bu sanaddagi goʻzallik boʻlib, u estetik muhokama qobiliyatini tanqid sifatida namoyon boʻladi. Fridrix Gegel esa estetikaning predmetini umuman sanat, xususan tasviriy sanat bilan cheklab qoʻyadi. SHu manoda estetikaning predmeti – olam va uning umuminsoniy ahamiyatiga koʻra oʻrganiladigan estetik hodisalar hisoblanadi. Biroq, estetikaning predmeti estetik tajribaning inson va jamiyat hayotidagi oʻrni va ahamiyatini har tomonlama tadqiq etishni, shuningdek, insonning bir oz boʻlsada oʻzining manaviy olamga tegishli ekanligini, global ijtimoiy-utilitar tobelikdan halos boʻlish yoʻllarini anglashni, shaxsiy erkinligi va mutloq va uygʻun toʻlaqonli hayotning bir qismi ekanligini his qilishga qaratilgan masalalar bilan belgilanadi.

Estetika fan sifatida ilmiy, marifiy, badiiy taraqqiyotning oʻziga xos muammolari doirasida baxs yuritadi, tahlil qiladi, oʻrganadi va oʻrgatadi. Quyidagi mazkur funksiyalarning ayrimlari haqida fikr yuritamiz. Dunyoqarashni shakllantirish funksiyasi. Ushbu funksiya badiiy ijod bilan shugʻullanuvchilar va ijodiy faoliyat uchun juda zarur. Ayniqsa, ranglar jilosini xis qilish, musiqa seyrini anglash, asardan xulosa chiqarish aynan ushbu funksiyaning tasirida roʻy beradi. Zero, dunyoqarash ijodkorni boshqaradi, ijod jarayoni rivojiga koʻmak beradi. Bilish funksiyasi. Bu funksiya sanat asarini bilish va baholash faoliyati natijalarini, semantik va pragmatik axborotni etkazib berish, haqiqiy badiiy asar bilan saviyasi past asarni farqlay bilishlari, «ommaviychilik sanati»ni rad qila olishda muhim ahamiyatga ega. YAratuvchanlik funksiyasi. Bu funksiya yangi koʻrinishdagi iqtisodiyotning estetik asoslariga, tadbirkorlik faoliyatiga estetik tus berishga, bunyodkorlikni namoyon etishga imkon beradi. Ayniqsa, goʻzal qadriyatlarni dunyoga tanitish, xalqning boy va betakror estetik dunyosini aks ettiradigan personajlarni yaratish orqali insonni manaviy jihatdan yuksaltirishga xizmat qiladi.

Metodologik funksiyasi. Mazkur funksiya badiiy asarda aks ettirilgan voqea-hodisaning mohiyatini oʻquvchiga toʻlaqonli etkazish imkonini beradi, asarni bilish va uni xuddi hayotdagidek idrok qilinishini osonlashtiradi. Bundan tashqari, bu funksiya estetik masofani taqozo etadi: masofa tufayli badiiy reallik idrok etiladi. Masalan, teatr asarini tomosha qilish jarayonida tomoshabin bir paytning oʻzida ham sahna bezaklariga, ham aktyorlarning kiyimlariga, ularning xatti-harakatlariga sinchkovlik bilan nazar tashlaydi, va bu holatlarning barchasini estetik tasavvuri orqali mutanosib holga olib kelishga intiladi. Asar rejissyori, operator, rassom, chiroq ustasigacha barcha ijodkorlar estetik masofaning ahamiyatini hisobga olishi shartdir. CHunki, badiiy idrok etish uchun estetik masofa zarur. SHu bois badiiy asar inson tomonidan qandaydir qalbga yaqin, tanish hodisa sifatida idrok etiladi va masofa tufayli idrok etuvchida mushohada qilish erki saqlanib qoladi. U

hayajonlanadi, qalbi ravshan tortadi. Ushbu masalalarni o'rganish, tahlil qilish estetikaning metodologik funksiyasiga kiradi.

Estetika fan sifatida o'zining qator prinsiplariga (tamoyillariga) ega. "Falsafa. Qomusiy lug'ati"da "prinsip" tushunchasining manosi "turli ahamiyatga ega bo'lgan faktlar va bilimlar majmuining asosi, poydevori; har qanday xatti-harakat, xulq-atvor va faoliyatning boshlang'ich qoidalari" deb izohlangan. Ushbu izoh estetika fanining prinsiplariga xos mazmunni ham anglatadi. Odatda, estetikaning quyidagi ananaviy prinsiplari mavjud. Bular: 1. Uyg'unlik (garmoniya) tamoyili; 2. YAxlitlik (butunlik) prinsipi; 3. Ifodalilik (obrazlilik) prinsipi; 4. Maqsadga muvofiqlik prinsipi. Ushbu prinsiplar orasida estetik munosabatlarda ko'proq ko'zga tashlanadigan uyg'unlik va maqsadga muvofiqlikning mohiyati haqida quyidagi fikrlarni aytish mumkin.

Uyg'unlikning falsafiy-estetik mazmuni ilmiy adabiyotlarda "garmoniya" tushunchasi bilan ham izohlanadi. Milliy estetikamizda mazkur tushunchaning estetik mohiyati ko'pchilik olimlar tomonidan ilmiy tahlil qilingan. Bular orasida faylasuf Tilab Mahmudovning mulohazalari bir qadar diqqatga sazovor. Faylasuf uyg'unlikda nomutanosiblik xususiyati, garmoniyada disgarmoniya alomatlari borligini uqtiradi. SHunday narsa-hodisalar borki, uning tarkibiy qismlari uyg'un bo'lmasa ham go'zal tasvirni bera oladi. Bundan tashqari, uyg'unlik buzilishi, nomutanosiblikka asoslangan garmoniyalar bo'lishi mumkin. Gap ana shu hayotiy predmetning mutanosibligi inson hayotining yo'nalishi bilan qanday munosabat va aloqadorligidadir. Agar faylasufning narsa va hodisalar tashqi ko'rinishidan bizga uyg'un ko'rinmasligi mumkin, lekin o'z ichki uzviy birligi va mutanosibligi bilan malum garmoniyaga ega bo'lishi aniq, degan xulosasini etiborga olsak, fikrda jon bor. Zero, tabiatda shunday hodisalar borki, u o'z go'zalligini disgarmoniyada ham aks ettiradi. Qolaversa, tabiat va jamiyatda bir-biri bilan o'zaro bog'lanmagan, malum aloqadorlikda bo'lmagan, muallaq predmet va hodisaning o'zi yo'q: har bir narsa o'zining aloqadorlik doirasiga ham ega.

Nemis faylasufi Georg Gegel maqsadga muvofiqlik prinsipini go'zallik va sanatning o'zaro aloqadorligida ko'radi. U go'zallikni maqsadga muvofiqlik bilan bog'liqligini tahlil qilib, bu bog'liqlikning asosida tashqi va ichki qarama-qarshiliklar markaziy o'rin egallashini uqtiradi. Garchand, predmetlarning shakliy go'zalligida mutanosiblikni muhim element deb hisoblasada, Gegel uning xususiyati faqat geometrik asosdangina iborat emasligini takidlaydi.

Odatda, fanga tegishli qonunlar hodisalarning hamma xususiyatlarini emas, balki hodisalardagi umumiylikni aks ettiradi va undagi mustahkam barqarorlikni ifodalaydi. Biroq, hodisalar ayni bir vaqtda bir-biriga o'xshaydi va bir-biridan farq qiladi. Xususan, voqelikni estetik o'zlashtirshning oliy shakli bo'lgan sanatga umumiy va xususiy qonunlar tegishli bo'lib, ularga badiiy ijod jarayoni ham, sanatning ijtimoiy olami ham taluqlidir. Ular sanatning antropologik, genetik va gnoseologik mazmunini ochib berishga xizmat qiladi. SHunga asosan "Estetik faoliyat qonuni", "Badiiy ijod qonuni", "Badiiy jarayon qonuni", "Badiiy idrok qonuni", "Estetik idrok qonuni" kabi qonuniyatlar tizimi shakllangan. Ushbu qonunlar olamni estetik o'zlashtirish jarayonining mohiyatini izohlaydi va quyidagi

natijalarga olib keladi:1) voqelikning estetik xususiyatlari inson tomonidan olam hodisalarini tasavvur qilish, anglash hamda tajribaga tayangan holda insoniyat oldiga qadriyatlarni o'rganishni vazifa qilib qo'yadi. 2) estetik faoliyat predmetlar olami va insoniy idealni botiniy tuyg'ular asosida o'zlashtirish natijasida yuzaga keladi, u umuminsoniy qadriyatlarga oqilona munosabatni shakllantiradi hamda erkin ijodkorlik muhitini yaratishga ko'mak beradi. Estetika fanida ko'p amal qiladigan qonunlardan yana biri "Badiiy ijod qonuni" hisoblanadi. Ushbu qonunning mazmuni haqida faylasuf Abdulla SHerning fikrlari ahamiyatlidir. Faylasuf badiiy ijod jarayoni boshqa barcha aqliy mehnat turlaridan katta farq qiladigan mehnat turi bo'lib, unda mehnat qandaydir sirli ruh bilan amalga oshadi, deydi. CHunonchi, badiiy ijod jarayonining ibtidosi sanatkorning muayyan g'oyani yoki g'oyalar tizimini badiiyat orqali boshqalarga etkazish istagi bilan bog'liq bo'lib, bu g'oyaviy niyatda aks etadi. G'oyaviy niyat ko'zga ilg'amaydigan darajada nozik va ko'z ilg'amaydigan darajada miqyoslikka ega. CHunki g'oyaviy niyat o'z nomi bilan g'oyaga taalluqli, u ijodkorning dunyoqarashining mevasi, butun asarning poydevori. U badiiy asarning mavzui, shakli, mazmuni, "tili", badiiy vositalari qanday bo'lishi kerakligini belgilab berish uchun ular bilan "kurash olib boradi". Bazan ularni o'ziga bo'ysundiradi, bazan esa ularga bir oz yon berib, malum nuqtalarda o'zgaradi, "sharoitga moslashadi". G'oyaviy niyatni shu bois hech qachon to'liq amalga oshgan estetik hodisa sifatida tasavvur qilish mumkin emas.

YUqoridagi fikrlarga asoslangan holda "Badiiy ijod qonuni"ning asosiy kamponenti hisoblangan "ijod"ni inson taraqqiyoti uchun ahamiyatini quyidagicha izohlash mumkin. YAni ijod: a) muayyan badiiy uslub yordamida shaxs va jamiyatning madaniyatini yuksaltiradi; b) obrazli tafakkur yordamida badiiy olamning asl va betakror mohiyatini anglash imkonini beradi; v) olam go'zalligidan zavqlanish, iztiroblardan forig' bo'lish va yaratuvchanlikka rag'batni paydo qiladi. Estetikaning qonuniyatlari narsa-hodisalar va voqelikdagi jarayonlarning estetik mazmunini turli rakursda o'rgansa-da, estetika uchun umumiy bo'lgan metaqonun - "Insonning voqelikka estetik munosabati qonuni"ga amal qiladi. Bu qonun yordamida estetika o'z tadqiqot obektining predmetini konkretlashtiradi, funksiyalarini belgilaydi.

"Estetika" iborasini ilmiy muomalaga kiritilganiga ham uch yarim asrdan ortiq vaqt o'tdi. Bu vaqt oralig'ida estetika dunyo faniga aylandi, jahonda bu fanni rivojlantirish, uning ilmiy-nazariy muammolarini o'rganishga qaratilgan yirik tadqiqotlar amalga oshirildi. Ayniqsa, mamlakatimizda estetika ilmi, talimi va tarbiyasini rivojlantirish, estetik dunyoqarashni boyitish masalalari doimiy etiborda bo'lib keldi.

Estetika kategoriyalarining ananaviy va zamonaviy tasnifi

Har bir fan o'z maqomiga ko'ra muayyan faoliyatning tadqiqot sohasi bo'lib, bu faoliyat tabiat, jamiyat va tafakkur haqida yangi bilimlar hosil qilishga qonun va kategoriyalar asosida olamni yangidan idrok etishga qaratilgan bo'ladi. Malumki, falsafaning biror-bir kategoriyasini voqelikdan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. CHunki, bu kategoriyalar (olam, harakat, makon, meyor, ziddiyat, yaxlitlik, qism, zaruriyat, tasodif, mohiyat, sifat va h.k) insonni o'rab turgan olamda sodir

boʻladigan voqea-hodisalar haqida aniq xulosalar chiqarishga, ularni toʻgʻri tahlil etishga koʻmak beradi. SHuningdek, kategoriyalar insonga oʻz tevarak-atrofidagi olamni, voqea-hodisalarning mohiyatini chuqur bilishga imkon beradi. Biroq, “Falsafada oʻrganiladigan kategoriyaning boshqa aniq fanlar kategoriyalaridan farqi shundaki, deyiladi “Falsafa qomusiy lugʻat”ida,- ular voqelikdagi narsa va hodisalarning ayrim, alohida munosabat va aloqalarinigina ifodalamasdan, balki butun olam, inson hayoti va tafakkur olamiga xos umumiy belgilar, aloqalar, xususiyatlar va munosabatlarni aks ettiradi. ... Falsafiy kategoriya voqelikni chuqur va mmukammal aks ettirishi, olamning barcha sohalarida amal qilishi bilan oddiy tushunchalardan farqlanadi. SHu tufayli har bir konkret fan oʻzi oʻrganayotgan sohaning xususiyati va belgilarini ochishda falsafiy kategoriya murojaat etadi.” Aytish mumkinki, kategoriyalar qandaydir oʻzgarmas tushuncha emas, aksincha ular doimo jamiyat va inson taraqqiyoti natijasida oʻzgaradi, takomillashadi. SHu bois zamon falsafasi katoriyalarni oʻrganish va ularga tizimli yondoshishni talab etadi. Estetika ham falsafiy fan sifatida oʻzining qonun va kategoriyalariga ega. Estetika kategoriyalari (goʻzallik, hunuklik, ulugʻvorlik, tubanlik, fojiviylik, kulgililik va h.k.) inson va tabiat, inson va jamiyat, inson va ijtimoiy borliq bilan doimo hamkorlikda vujudga keladi. Biroq, estetika kategoriyalari nafaqat bilimni oshishiga xizmat qiladi, balki ayni paytda bilimni baxolaydi ham. SHu jihati bilan estetika kategoriyalari boshqa falsafiy fanlarning kategoriyalaridan farq qiladi. Bu – birinchidan. Ikkinchidan, estetika kategoriyalari nafaqat gnoseologik va ontologik mohiyat kasb etadi, balki ular qadriyatlilik mazmuniga ham ega. Ayniqsa, bu jihat goʻzallik va ulugʻvorlik kategoriyalarida koʻproq aks etadi. Zero, narsalar goʻzal va chiroyli, ulugʻvor va mantunkor boʻlgani uchun ham insonga qadrlidir. Uchinchidan, estetik kategoriyalarning oʻziga xos xususiyati shundaki, ular mohiyat-mazmuniga koʻra umumiy va qamrovlidir. Bu xususiyatlar ayniqsa, estetik faoliyat va sanat sohasida yaqqol koʻzga tashlanadi.

Falsafiy fanlar tizimida estetika kategoriyalarining nazariy taxlili va ilmiy oʻrganilishi qorida koʻrsatib oʻtilgan uch tamoyilga asoslanadi. Shuning uchun estetika kategoriyalarining oʻrganilish doirasi kengqamrovli boʻlib, bu masalaga estetika fanining qator bilimdonlari murojaat qilishgan. Bu borada rus nafosatshunoslari N.A.Dmitriev, V.V.Vanslov, L.N.Stolovich, O.Butkevich, YU.B.Borev, D.D.Sredneg, A.F.Losev, V.P.Shestakovlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarni alohida qayd etish mumkin. SHuningdek, estetika kategoriyalarini tizimlashtirish masalasi gʻarb olimlari tomonidan ilgari surilgan nazariyalarda ham kuzatish mumkin. Jumladan, nemis psixologiya estetikasining vakili ernst Meyman oʻzaro munosabatlar jarayonida kategoriyalarning sababiy bogʻlanishini estetik tasavvurlarning ikki jihatiga koʻra ajratadi. Birinchisi – obektiv sharoitdan kelib chiqadigan dastlabki jarayonlar. Bular - goʻzallik, ulugʻvorlik, chiroylilik hamda ularning ziddi boʻlmish – hunuklik, tubanlik, pastkashlikdir. Ikkinchisi – turli xil obektiv sharoitlarda yuzaga keladigan hamda bevosita psixologik jarayonlarga tegishli boʻlgan sharoitlardir. Bular – fojeviylik va kulgililikdir. Italyan estetigi Morpurgo-Talyabue esa estetik kategoriyalarning ikkita turini ajratib koʻrsatadi: ontologik va tasirchanlik (ekspressivnyy)/

Estetik kategoriyalarning tasnifi, tizimlari, turlari va xususiyatlari rus nafosatshunos olimlarning qator tadqiqotlarida o‘rganilgan. Ayniqsa, E.G.YAkovlev tomonidan estetika kategoriyalarining tizimlashtirilishi bir qadar qiziqarli va kengqamrovligi bilan muhim ahamiyatga ega. U o‘zi ishlab chiqqan tizimda kategoriyalarni uchta guruxga ajratadi. Bular: 1) obektiv, 2) obektiv-subektiv, 3) subektiv. Bu tizim ushbu jadvalda quyidagicha aks etgan:

<i>Nafosat</i>	<i>Universal kategoriyalar</i>	
Go‘zallik	Estetik ideal	Sanat
Ulug‘vorlik	Estetik did	Badiiy obraz
Fojeaviylik	Estetik tuyg‘u	Ijod
Obektiv kategoriyalar	Obektiv-subektiv kategoriyalar	Subektiv kategoriyalar

E.G.YAkovlevning fikriga ko‘ra, mazkur tizim shu turda yaratilgan boshqa tizimlardan o‘zining universal-kengqamrovli mazmun va falsafiy-estetik mohiyat kasb etib, moslashuvchanlik (subordinatsiya) va muvofiqlashtiruvchilik (koordinatsiya) tamoyilini mujassam etgani xolda “ontologik-fenomenologik va ijtimoiy-gnoseologik jihatlar”ga ega. Ayniqsa, V.P.SHestakovning estetika kategoriyalari tarixi, ularni tizimlashtirish muammolari, kategoriyalarga o‘ziga xos yondoshuvning zamonaviy talqinlari hamda estetik kategoriyalar tasnifiga doir salmoqli tadqiqotlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Faylasuf bu borada yuqorida nomlari tilga olingan estetika nazariyotchilaridan farqli o‘laroq, kategoriyalarni uch turkumga ajratadi: dastlabki kategoriyalar, umumestetik kategoriyalar, estetik kategoriyalar ko‘rinishlari. Tadqiqot davomida mazkur turkumning har biri alohida taxlil qilinadi. Jumladan, dastlabki kategoriyalarni faylasuf nafosatga tegishli, deb biladi va uni beshta umumestetik kategoriyaga ajratadi: go‘zallik, fojeaviylik, kulgulilik, ulug‘vorlik va hunuklik.

Mazkur jadvalda V.P.SHestakov tomonidan tizimlashtirilgan kategoriyalarning umumiy ko‘rinishi aks etgan:

DASTLABKI KATEGORIYA	Nafosat
	Go‘zallik
	Fojeaaviylik
UMUMESTETIK KATEGORIYALAR	Kulgulilik
	Ulug‘vorlik
	Hunuklik
ESTETIK KO‘RINISHLARI	Disgarmoniya
	Dahshatlilik
	Mubolag‘a
	Garmoniya
	Hazil

	Forig‘lanish
	Qahramonlik
	Ideal
	Latofat

Biroq, takidlash lozimki, aksariyat adabiyotlarda estetika kategoriyalari asosan go‘zallik – fojeaviylik – kulgulilikdan iborat uchlik sifatida taqdim etilgan. Biroq, davrlar o‘tishi bilan bu ananaga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritildi. Xususan, bu tizimga YU.B.Borev - ulug‘vorlikni, L.N.Stolovich - hunuklikni, M.S.Kagan - garmoniya va dramatiklikni, N.I.Kiyashenko – qahramonlikni, o‘zbek olimlari T.Mahmudov uyg‘unlikni, Abdulla SHER qiziqarlilikni kiritdi. SHu o‘rinda Abdulla SHER taklif etgan estetika kategoriyalari (mezoniyl tushunchalari) tasnifi o‘ziga xos ahamiyatga ega. Tasnifga ko‘ra, barcha estetik tushunchalar uch guruhga bo‘linadi. Birinchisi, – mezoniyl tushunchalar. Ular subekt-obekt munosabatlarida estetik obektning xususiyatlarini subektga ochib beruvchi, tashqi nafasat bilan bog‘liq eng qamrovli, eng mushtarak tushunchalardir. Masalan, go‘zallik ulug‘vorlik, fojeaviylik v.h. Ikkinchisi – subekt – obekt munosabatlarida subektdagi estetik anglash muruvatlarini tushuntirib beradigan, ichki nafasat bilan bog‘liq estetikaning xususiy tushunchalari. Masalan, estetik hissiyot, estetik mushohada, estetik did, v.h. Uchinchisi – sanatning mohiyati, sanat turlari, umuman, badiiy ijod biln bog‘liq estetikaning muayyan tadqiqot obektlariga qaratilgan tushunchalar. Masalan, sanat, ijodkor, dizayn janr, uslub v.h. Bu o‘rinda tushunchalar guruhlarining nomlari shartli ekanini alohida o‘qtirib o‘tish joiz.

Biz yuqorida faylasuflarning estetika kategoriyalarining tarixi, uni tizimlashtirish muammolari, ko‘rinishlari va o‘ziga xos jihatlari bilan bog‘liq qarashlar va nazariyalarga bejiz murojaat etmadik. Agar etibor bergan bo‘lsangiz, kategoriyalar tizimi qanday ko‘rinishda bo‘lmasin, ularning har birida go‘zallik markaziy kategoriya sifatida ishtirok etmoqda. Biz manashu jihatga ko‘ra go‘zallik falsafasini tushuntirishdan avval go‘zallikning muhim mezoniyl tushuncha - kategoriya sifatidagi mohiyatini ko‘rib o‘tishni maqsadga muvofiq, deb bildik. Zero, estetika kategoriyalarining yaxlit tizimini ishlab chiqish muammosi ko‘p yillardan buyon olimlar etiborini jalb etib kelayotganligidan maqsad ham go‘zallikning falsafiy, axloqiy, xatto siyosiy mohiyatini atroflicha o‘rganishga qaratilganligidadir.

Go‘zallik va uning muqobillari

Go‘zallik estetikaning asosiy kategoriyasi sifatida barcha estetik tushunchalar uchun asos vazifasini bajaradi. Shuning uchun ham odatda “Estetika fani nimani o‘rganadi?”, “Estetika fanining maqsadi nima?”, “Estetika qanday fan?” degan qator savollarga “Estetika - go‘zallikni o‘rganuvchi fan!”, “Estetikaning maqsadi - go‘zallikni yaratish!”, “Estetika - go‘zallik haqidagi fandır!” - degan javob beriladi. Ko‘rinib turibdiki, estetika bilan bog‘liq har qanday savolning javobi go‘zallik masalasiga borib taqaladi.

Go‘zallik o‘z-o‘zidan vujudga keladigan hodisa emas, balki shakli, mazmuni va xususiyatiga ko‘ra ikki ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Birinchi ko‘rinishi go‘zallik ontologiyasi bilan bog‘liq. Go‘zallik tafakkur va tabiat mahsuli. Kulol loydan, naqqosh yog‘ochdan, misgar misdan, zargar tillodan shunday buyum yaratadiki, uning jozibasi insonni hayratga soladi. YOki tabiatdagi purviqor tog‘lar, yuksak cho‘qqilar, dengiz-u ummonlarning go‘zaligini inson takrorlashga o‘zlashtiradi.

Ikkinchi ko‘rinishi go‘zallik gnoseologiyasi bilan bog‘liq. YAni go‘zallik ayni paytda bilishning mahsuli. Voqelikdagi har qanday narsa-hodisaning go‘zalligi uning ishonchlilik, qiziqarlilik, haqqoniylik mezonlari bilan o‘lchanadi. Inson go‘zallikni chinakam xis etganda, uning mohiyatini bilgandagina zavqlanadi, huzur qiladi. Zero, go‘zallikni bilish, idrok etish insonning badiiy-estetik tafakkurini o‘stiradi.

Go‘zallik tushunchasining mazmun-mohiyatiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, uning tarixiy taraqqiyot hamda ijtimoiy munosabatlar jarayonida moddiy va manaviy zaruriyatga aylangan tushuncha ekanligini kuzatishimiz mumkin. Bular:

Birinchi - ijtimoiy hayotning barcha sohalariga go‘zallikni tatbiq etish, uning qonuniyatlarini manaviy jarayonlarga qo‘llash orqali ilg‘or qadriyatlar tizimini barpo etish mumkin. Jamiyatning iqtisodiy sohalariga go‘zallikni tatbiq qilish orqali moddiy ehtiyojlar manbai yaratiladi.

Ikkinchi - globallashtirish jarayonlariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, go‘zallikni amaliy-pragmatik jihatdan ahamiyati katta ekanligi yanada oydinlashadi. CHunki, hozirgi kunda tinchlikni barqarorlashtirish, ekologik xavfning oldini olish, davlatlararo va etnik nizolarga chek qo‘yish, ommaviy qirg‘in qurollarini ishlab chiqarishni yo‘q qilish, terrorizm, genotsid va giyohvandlikning tarqalishiga yo‘l qo‘ymaslik kabi umumbashariy muammolarga aylanib bormoqda. Endilikda texnologiyalarni ham go‘zallik qonunlari asosida tashkil etishga katta ehtiyoj sezilmoqda.

Uchinchi - go‘zallik normativ-baholash xususiyatiga ega. CHunki, go‘zallikni his etish, uni baholash orqali inson o‘zida uyg‘unlikni namoyon qiladi. Uyg‘unlik insonni faollikka undaydi, loqaydlik, dangasalik kabi illatlardan halos etadi. Agar faoliyatning boshqa turlari (siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ahloqiy) shaxsning alohida kuchlarini rivojlantirishga ko‘maklashsa, go‘zallik ularni yaxlit shakllantiradi.

Go‘zallik estetik tafakkur tarixida tushuncha sifatida, qonuniyat sifatida, nazariya sifatida, dunyoqarash sifatida o‘rganilgan. SHu bois faylasuflar, adabiyotshunoslar va sanatshunos olimlar o‘z sohalarining umumnazariy masalalarini yoritishda go‘zallikka murojaat qilganlar. Xususan, go‘zallikning nazariy va amaliy tahlili, manaviy va axloqiy mohiyati, ijtimoiy va siyosiy ahamiyatini ochib berishga qaratilgan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar mavjud. Mazkur tadqiqotlarni umumiy manoda asosan ikkiga ajratish mumkin. 1. Go‘zallikni ilmiy-nazariy asoslarni o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar. 2. Go‘zallikni ilmiy-texnik taraqqiyot bilan bog‘liq xolda amaliy-progmatik asoslarini yaratishga yo‘naltirilgan tadqiqotlar.

Go‘zallik tushunchasi azaliy muammo sifatida mutafakkirlarning diqqat etiborida bo‘lib keldi. Donishmandlar go‘zallikning mohiyatiga u yoki bu tarzda yondoshganlar. Shuning uchun yillar davomida estetik tafakkur tarixida go‘zallik haqidagi g‘oyalar, qarashlar, nazariyalar va talimotlarning butun bir tizimi shakllandi.

Falsafa, estetika, etika, politologiya singari ijtimoiy fanlarning ilmiy asoslari ko‘proq antik davr qarashlari bilan muqoyasa qilinadi. Buning boisi antik davrlarda ushbu fanlarga daxldor muammolar ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etildi va muayyan tizimga solindi. Masalan, XII-XY asr Mavarounnahr mutafakkirlari ning go‘zallikka doir qarashlarida go‘zallik nazariya darajasidan ko‘ra ko‘proq qarashlar tarzida taxlil etildi, go‘zallik sanat hamda badiiy adabiyotning muhim vositasiga aylandi. Bir so‘z bilan aytganda, go‘zallik nasrdan nazmga ko‘chdi. CHunonchi, so‘z sanatida go‘zallikni namoyon ettirish ko‘proq g‘azal, sherdagi shakl va mazmuning hamohangligiga bog‘liq. Bu borada Alisher Navoiyning estetik merosiga murojaat etish o‘rinlidir.

Navoiy o‘zining «Hamsa» asarida falsafa, ilohiyot, ahloq, siyosat hamda nafosatshunoslikning qator masalalariga murojaat qilib, borliq va inson munosabatlarini chuqur tahlil etadi. Xususan, uning go‘zallikka doir mulohazalari «Hayrat ul-abror» («YAxshi kishilarning hayratlanishi»)da mufassal bayon etiladi. SHoir Sharq shariatining ko‘zgusi bo‘lgan so‘zning go‘zalligiga alohida ahamiyat berib, uni quyidagicha bayon etadi; «So‘z gavha–rining qolipi shunchalar yuksakki, gavhardek qimmatbaho narsa ham unga sadaf bo‘la olmaydi, to‘rt sadaf (suv, havo, olov, tu–proq) ichida gavharga qutu ham shu so‘z, etti qavat osmon yulduzlarining burjlari ham shu so‘zdir». «Lison ut-tayr» («Qush tili») asarida esa Olohning hamma sohada tengsiz va yakkayu yagonaligi, borliqdagi barcha go‘zalliklar Olohdan ekanligini bosh falsafiy-estetik masala qilib oladi. Qolaversa, Navoiyning barcha asarlarida ilohiylik ruhi pirovard maqsad qilib belgi–langanki, bu xolat «Xamsa» da ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Jumladan, Navoiy Quronning «Al-Isro» surasiga murojaat etgan holda, payg‘ambarimiz Muhammad (SAV)ning Meroj tunida ko‘r–ganlarini «Saddi Iskandariy», «Farhod va SHirin», «Sabai Sayyor» dostonlari orqali tasvirlashga harakat qiladi.

Umuman, O‘rta asrlar musulmon Sharqi estetik tafakkuri taraqqiyotida go‘zallik haqidagi talimotlar, nazariyalar, qarashlarda umumiy dunyoqarashning kengligi, insonparvarlik va ratsionalizmning etakchiligi yaqqol seziladi. Musulmon Sharqi mutafakkirlari go‘zallikni aql va tafakkurdan ayri holda olib qaramaslikka, moddiy go‘zallikni manaviy go‘zallikdan ajratmaslikka, aksincha, ularni uyg‘un xolda rivojlantirishga harakat qildilar.

SHuni ham unutmazlik lozimki, bu davr falsafiy talimotlarida Arastuga mansub olamning abadiyligi, voqelikdagi qonuniyatlarga inson tafakkur salohiyati, mantiqiy yondashish orqali mushohada qilish imkoniga ega, degan qarashlar etakchilik qildi. Biroq, ular Arastu talimotiga ko‘r–ko‘rona emas, balki uning «Metafizika» asrida ilgari surilgan Tavhid – Xudoning yagonaligi haqidagi nazariyani yangi g‘oyalar bilan boyitdilar. Va o‘ziga xos yangi falsafani kashf

etdilar. Zotan, har qanday talimotlar davrlar o'tishi bilan takrorlanadi, eskilari yangicha qarashlar bilan boyitiladi, yangicha ruh bilan sug'oriladi.

«Go'zallik»ning tugal ilmiy tarifi haqida biror-bir qat'iy fikr mavjud emas. Biroq, go'zallikning idrok etilishi, tabiatda namoyon bo'lishi, sanatta aks etishi hamda uning jamiyat rivojiga tasiri haqida bildirilgan fikrlar, ilgari surilgan g'oyalar, yaratilgan talimotlar o'zining salmog'i bilan ahamiyatlidir. Inson va uning ruhiy-jismoniy, axloqiy-estetik faoliyati, tabiat va undagi hodisalar, jamiyat va unda ro'y berayotgan ijtimoiy-manaviy, siyosiy-iqtisodiy jarayonlar go'zallikka yondoshuvning tarixan tarkib topgan asosiy obektlaridir.

Takidlash zarurki, go'zallik haqidagi qarashlar va nazariyalar markaziga «Go'zallik nima?» degan savol qo'yiladi-yu, ammo ularning aksariyatida «Nima go'zal?» degan savolga javobni ko'ramiz. Bu borada «Huvarnosi Ahura Mazda ko'p go'zaldir, go'zaldir juda» (Zardusht), «Go'zallik bu g'oyalardan iborat g'oyaning g'oyasi» (Aflotun), «Go'zallik-bu turli musiqalar, yaxshi xulq-atvorga to'g'ri keladigan, odamlar erishishga havas qiladigan narsalardir» (Abu Nasr Forobiy), «Har qanday go'zallik, go'zallikni anglay olgan muhabbat obektidir» (Abu Homid G'azzoliy), «Go'zallikka muhabbat qo'yishning asosida ham aql, ham hissiyot yotadi» (Ibn Sino), «Go'zallik barcha tillarda vasf etiladi va har qanday aqlga xush keladi» (Umar Hayyom), «Go'zallik bu hayotdir» (N.G.CHernishevskiy), «Go'zallik hissi, yoqimlilik tuyg'usiga bog'liq holda, odamlarning birlashuviga, ularda ijtimoiy-ahloqiy fazilatlarining shakllanishiga olib keladi» (E.Byork), «Go'zallik manfaatsiz maftunlikning, muhabbatning obekti» (I.Kant), «Go'zallik-hodisaga aylangan erkinlik» (F. SHiller), «To bizga taalluqli emas ekan, hamma narsa go'zal» (A. SHopenhauer), «Go'zallik Xudo-sanatkor tomonidan yaratilgan illyuziya-xayolotdir» (F. Nitsshe), «Qaerdaki modda nurafshon bo'lsa, o'sha erda go'zallik hodisasini uchratish mumkin: modda va nurning uzviy omuxtaligi-hayotdir» (VI.Solovyov) va shu kabi fikrlar go'zallikka turlicha yondoshuv natijasida yuzaga kelgan.

Odatda, go'zallik ikki omil asosida yuzaga keladi. Bular: inson tafakkuri va mehnatining mahsuli natijasida yaratiladigan go'zallik; inson tafakkuridan tashqarida, insonga bog'liq bo'lmagan xolda yuzaga keladigan go'zallik. Birinchisida aql, ruh va xissiyot ustuvor bo'lsa, ikkinchisida makon va zamon salmoqli o'rinni egallaydi.

SHuningdek, nafasat falsafasida go'zallikni bilishning mahsuli sifatida munosabat bildiruvchi qarashlar ham mavjud. Bu muayyan asosga ega. CHunki, voqelikdagi har qanday narsa-hodisaning go'zalligi uning ishonchlilik, haqqoniylik va realligi bilan belgilanadi. Zero inson nazari tushgan go'zallikkina qadriyatga aylanadi. Bundan tashqari, inson go'zallik haqidagi dastlabki malumotni 5 ta sezgining eng rivojlangan turi bo'lmish ko'rish sezgisi orqali o'zlashtiradi, undan so'ng eshitish, tam bilish, hid bilish va tana sezgisi natijasida go'zallik anglanadi hamda xis etiladi. Masalan, harid qilmoqchi bo'lgan kiyimingizni, istemol qilmoqchi bo'lgan taomni, turmushingiz uchun zarur bo'ladigan jihozni avvalo ko'rasiz, o'rganasiz, tomosha qilasiz, so'ngra sifatiga, qulayligiga ishonch hosil qilganingizdan keyin ehtiyojningiz uchun ishlatasiz... YArashmagan kiyimni kiyish

naqadar kulgili va hunukligini tasavvur qilish qiyin emas. SHunday ekan, go‘zallik xususiyatlarining namoyon bo‘lishida sezgilarning alohida ahamiyatga ega ekanligini etibordan chetda qoldirmaslik zarur. SHuningdek, go‘zallik haqidagi qarashlar taxlili shundan dalolat beradiki, mazkur besh sezgi ham go‘zallikni to‘laqonli aks ettirish uchun etarli emas.

YUqorida bildirilgan fikrlarga asoslangan holda go‘zallikka quyidagicha tarifni berishni maqsadga muvofiq, deb bildik. Go‘zallik - manaviy va moddiy xususiyatga ega bo‘lgan, ijtimoiy hayotda favqulodda ahamiyat kasb etuvchi tushuncha bo‘lib, narsa-hodisalarning inson tafakkurida lazzatning uyg‘unlik, meyor, hamohanglik, mutanosiblik, maqsadga muvofiqlik asosida namoyon bo‘lishidir.

Malumki, voqelik o‘z ichiga talaygina ekvivalent tushunchalarni qamrab oladi; u yagona va ayni paytda rang-barangdir, abadiy va ayni paytda o‘tkinchidir, o‘zgarmas va ayni paytda o‘zgaruvchandir. Xususan, go‘zallik o‘z mohiyatini muayyan ziddiyatlar bilan bog‘liqlikda namoyon qilib boradi. Zero, go‘zallikning dialektik ziddiyati uni yanada takomillashib borishidagi zaruriy shartdir. Ana shu zaruriy shart nafasatshunoslikda umumiy nom bilan «xunuklik» deb ataladi: u go‘zallikning dilemmasi.

Gohida shakl va mazmun go‘zalligi bir-birini dialektik tarzda inkor etadi. SHunday esa-da, bu bir tomondan ijobiy holat. Negaki, mazmun o‘z vaqtida shaklning kamchiligini ko‘rsatib, uning go‘zallashuviga turtki berib turadi yoki aksincha. Yo‘qsa yo shakl yoki mazmun xunuklikka aylanib qolishi shubhasiz. Zotan, bu kabi holatlar hayotimizda ko‘plab uchraydi; ko‘rinishi chiroyli bo‘lgan insonlarning hammasini ham manaviyati boy bo‘lmaganidek, yuksak fazilat sohiblarining barchasi ham husn va chiroyda barkamol emaslar.

SHu manoda aytishimiz mumkinki, xunuklik bir paytning o‘zida ham go‘zallikning, ham nafasatdan lazzatlanishning ziddidir. CHunki, xunuklik lazzatlanish tuyg‘usi mavjud bo‘lgan jarayondan uzoqroq joyda vujudga keladi; u insonga hayrat baxsh etishdan, uning vujudini forig‘lashdan mahrum.

Olmon faylasufi K.Rozenkrans o‘zining «Hunuklik estetikasi» nomli asarida xunuklikni go‘zallik bilan munosabati masalasini ko‘rib chiqadi. Qizig‘i shundaki, muallif asarda hayotning og‘riqli qusurlarini emas, balki xunuklikka to‘g‘ridan-to‘g‘ri go‘zallikning murosasiz inkori sifatida yonda-shadi. Bu borada takidlaydiki, «Bizga xunuklik emas, aksincha, o‘zidagilarni bardosh bilan engib, ulardan ajralib chiqqan go‘zallikkina zavq bag‘ishlaydi. Sanat bizga xunuklikning barcha ikr-chikirlarini ochiq-oydin tasvirlamog‘i lozim».

SHuni alohida takidlash o‘rinliki, estetika kategoriyalari orasida xunuklik singari kishilarda salbiy his-tuyg‘u paydo qiladigan boshqa tushunchalar ham mavjud. Tubanlik ana shunday tushuncha, uni xunuklik bilan aynanlashtirib bo‘lmaydi. CHunki, xunuklik kishilarda engil no-xushlik tuyg‘usini paydo qilsa, tubanlik esa kuchli nafratlanish hissini uyg‘otadi. Tabiat, hayvonot va nabotot olamidagi xunuklik engil noxushliklar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi, biroq, tubanlikka aylanmaydi. Insondagi xunuklik esa tubanlik darajasiga borib etadi. Daryoning suvi loyqalangani, ko‘kalamzorlarga to‘kilgan axlat, qurbaqa, ilon xunuk

ko'ringani bilan undan odamlar nafratlanmaydilar. Inson tomonidan qilinadigan ayrim hatti-harakatlardan esa nafratlanish va hatto jirkanish mumkin. Mamlakat boshiga og'ir kulfat tushganda undan o'z moddiy manfaatlari yo'lida foydalanuvchi tuban odamga misol bo'ladi.

Ko'rinib turibdiki, go'zallikning o'zi murakkab masala bo'lishi barobarida uning ziddi hisoblangan xunuklik ham murakkablikda qolishmaydi. SHunga qaramay, go'zallik o'z mukamalligiga xunuklikni bartaraf etish orqali erishadi. Zotan, ongli mavjudot hech qachon xunuklikka e'tiqod qo'ygan emas, aksincha, go'zallikning qudratini tan olgan.

Ulug'vorlik va tubanlik kategoriyasining falsafiy mohiyati

Ingliz nafosatshunosi e.Byork go'zallikni ulug'vorlik bilan ulyoslaydi va ularni bir-biriga qarama-qarshi tushunchalar sifatida tadqiq etadi. Olmon faylasufi I.Kant esa go'zallik va ulug'vorlikni uyg'unlikda rivojlanuvchi tushunchalar deb hisoblaydi. Ulardan farqli o'laroq, faylasuf Xegel ulug'vorlikni go'zallikning bir ko'rinishi bo'lib, ulug'vorlik – zohiriy go'zallikning botiniy go'zallikka aylanishidir, deb tushuntiradi. Mazkur fikrlardan ulug'vorlik - insonning narsa hodislarga estetik va axloqiy mezonlar bilan yondashishi va ulardan yuksak hayratlanish tuyg'usini hosil qiluvchi estetik hissiyot majmui, degan fikr kelib chiqadi.

Takidlash zarurki, ulug'vorlik go'zallik singari qamrovli tushuncha. U o'zida hajm, miqdor, ko'lam va buyuklikni namoyon qiladi. Fridrix SHiller ulug'vorlik qayg'u va qo'rquvni enguvchi va insonni ulug'lab unga go'zallik baxsh etishini tushuncha ekanligini uqtiradi. Buni u «axloqiy xavfsizlik» tushunchasi orqali izohlaydi. CHunki, qo'rquv va dahshatga qarshi borish uchun ham xavfdan xoli bo'lish lozim. Zero, jismoniy xavfsizlik bevosita shaxsning o'ziga tegishli bo'lib, insondagi qat'iy ishonch bois xotirjam, xavfsiz. Biroq, dahshatli yo'qotishlar va mudhish qotilliklar qarshisida insonning xotirjamligi yo'qoladi. Agar xavf insonning o'zigagina yaqinlashsa-yu, u o'zini hotirjam xis qilsa, demakki, uning vijdoni xavfdan xoli; unga hech qanday havf tahdid solmaydi. SHu bois «axloqiy havfsizlik» din, e'tiqod va abadiylikka dahldorlikni taqazo etadi. Buni o'zbek xalqi manaviy merosida muhim o'rin tutgan Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Amir Temur kabi sarkardalarning, Abu Rayxon Beruniy, Mirzo Ulug'bek kabi olimlarning hayotidagi manaviy jasoratni asos sifatida aytish mumkin. Ayniqsa, Abu Muin Nasafiy islomiy xalqlarning zaiflashuvi va o'zaro e'tiqodiy ziddiyatlar kuchaygan bir davrda e'tiqodiy masalalarda hujjatlari eng aniq keltirilgan manbalar asosida ahli sunna val jamoa bilan unga xusumatlashgan boshqa firqalarning o'zaro murosaga kelishini taminlash yo'lida ko'rsatgan manaviy jasorati bunga misol bo'ladi. SHunga ko'ra, ulug'vorlik muhokamasi yuksak darajada madaniyatni talab qiladiki, bu muhokama go'zallik muhokamasidan ustuvorroqdir, deyish mumkin.

Tabiatdagi ulug'vorlik Cheksiz osmon, purviqor tog'lar, yuksak cho'qqilar, moviy dengizlar, ming yillik chinorlar, shuningdek, vulqon va chaqmoq singari tabiat hodisalarida namoyon bo'ladi. Ular uzoqdan kishilarda hech qanday hayajonli taassurot qoldirmaydi. Biroq, ularga yaqinlashganimiz sari ruhiyatimizni hayajon, jo'shqinlik egallay boshlaydi, ularni butunligicha ko'z bilan qamrab ololmaslik

darajisiga etganda esa bu hayajon yanada ortadi. Tabiatdagi ulug‘vorlik matematik va dinamik xususiyatga ega. Matematik xususiyatida xajm, dinamik xususiyatida kuch ustuvor ahamiyatga kasb etadi. Biroq, ikkala xususiyat ham insonda kuchli hayrat va hayratlanish tuyg‘ularini paydo qiladi. Tog‘lar insonni yuksak fikrlashga, buyuk g‘oyalarga undaydi: everestga O‘zbekiston bayrog‘ini tikib qaytishgan alpinistlarimizning taassurotlari nihoyatda hayajonlidir.

Odatda estetikaning asosiy kategoriyalariga “zid”, “qarama-qarshi” va “teskari” tushunchalar tabiat, jamiyat munosabatlarida namoyon bo‘lishi mumkin. Biroq, estetika kategoriyalari orasida ulug‘vorlikning ziddi bo‘lgan tubanlik bevosita inson va uning faoliyati bilan bog‘liq tarzda namoyon bo‘ladi.

Tubanlik - insonda kuchli nafratlanish tuyg‘ularini hosil qiluvchi estetik kategoriya. U kishilarda salbiy his-tuyg‘u paydo qiladigan xunuklikdan ko‘ra kuchliroq, tasirchanroqdir: SHu bois uni hunuklik bilan aynanlashtirib bo‘lmaydi. Tabiat, hayvonot va nabotot olamidagi xunuklik tubanlikka aylanmaydi. Insondagi xunuklik esa tubanlik darajasiga borib etadi. Daryoning suvi loyqalangani, ko‘kalamzorlarga to‘kilgan axlat, qurbaqa, ilon xunuk ko‘ringani bilan undan odamlar nafratlanmaydilar. Gohida muhtojlik inson tabiatidagi yovuz maylni qo‘zg‘atib yuborishi natijasida insonni tubanlashtiradi.

Tubanlik kategoriyasi etika bilan estetikaning bir-biriga yaqin, uzviy va ajralmas ekanligini isbotlovchi tushuncha hamdir. Tubanlik etikada – xoinlik, sotqinlik, qotillik, vahshiylik kabi illatlar bilan bab-baravar mazmun kasb etadi.

Fojeaviylik va kulgulilik kategoriyasi

Fojeaviylik muammosi har doim falsafiy va estetik tafakkurning muhim tadqiqot obekti bo‘lib kelgan. Har qanday fojea zamirida alohida fojiali to‘qnashuv yotadi, uning eng muhim jihati ko‘lamlilik va ijtimoiy ahamiyatga tegishligidadir. Fojeaviylik real hayot va inson amolidagi kuchlar to‘qnashuvining natijasi bo‘lib, bu to‘qnashuvlar kurashining qanday tugallanishi pirovardida insoniyat istiqboli, taqdiri bilan bog‘lanib ketadi. Bu hol fojeaviylikning falsafiy jihatdan murakkab estetik kategoriya ekanligini ko‘rsatadi. Odatda, fojeiy qahramoni ko‘pincha ijobiy tusda tasvirlanadi: u o‘z davrining ijobiy orzu-umidlari, u yoki bu qirralarini o‘zida mujassamlashtirgan kuchli, yorqin, ulug‘vor shaxsni namoyon etadi. Lekin fojea to‘qimasida boshqa turdagi qahramonlar kam aks ettirilgan bo‘lib, o‘z taqdirlari bilan tomoshabinda o‘ta kuchli his-tuyg‘ularni qo‘zg‘aydi. Malumki, ilg‘or madaniy tafakkur doim hayotni o‘zlashtirish, o‘lim xavfini qisqartirish haqida o‘ylab kelgan. O‘lim qayg‘usidan farqli o‘laroq fojeaviylik qayg‘u va iztirobdan iborat bo‘lib, ulug‘vorlikning vayron bo‘lishi bilan bog‘liq: u - hayotning tugashi yoki ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan tarixiy voqelikning barbod bo‘lishidir.

Fojiaviylik estetika kategoriyalari orasida ulug‘vorlik bilan ko‘p jihatdan yaqin bo‘lib, haqiqiy ulug‘vorlikni fojiaviylikning davomi, deyish mumkin. SHu bois estetika ilmida fojiaviylik ulug‘vorlik bilan uzviylikda o‘rganiladi. CHunki, ulug‘vorlikning barcha xususiyatlari fojiaviylikning ham u yoki bu ko‘rinishi orqali namoyon bo‘ladi. Fojiaviylik mezoniy tushunchasining estetikasidagi markaziy

muammosi-insonning imkoniyatlarini har tomonlama kengaytirish (sanat, badiiy adabiyot, jamiyat va tabiatga nisbatan munosabatda), qahramonlik, buyuklik tushunchalarining qat'iy va o'zgarmas chegaralarini buzib, uning mohiyatini yanada yaqinlashish, tashabbuskor va bunyodkorlikni rag'batlantirish, hayotda umidvorlik va unga muhabbat tuyg'ularini rivojlantirishdan iboratdir. Fojeiy qahramon kelajakka yo'l tashlaydi, u eskirgan chegaralarni daf etadi. U doimo insoniyat kurashining oldida boradi.

Fojeaviylikning yana bir xususiyati shundaki, u insonga borliqning mazmunini ochib berishda yaqindan ko'mak beradi. SHaxs rivoji jamiyat va insoniyat o'rtasidagi munosabatga bog'liq ekanligini, jamiyat taraqqiyoti inson hisobiga emas, balki inson va inson orqali rivojlanishi zarurligi bevosita fojeaviylik tushunchasi orqali yanada konkretlashtiriladi. Bu esa pirovardida inson va insoniyat muammolarini insonparvarlik yo'li bilan xal etishga olib keladi. Fojeaviylikda jamiyat va insoniyatning ezguligini himoya qiluvchi xususiyat mujassam. Mahmud Torobiy qo'zg'aloni natijasiz tugashi, uning o'zi esa fitna qurboni bo'lishi ajdodlarimiz qismatidagi fojia. Mahmud Torobiy g'anim qo'lida emas, o'z qavmidan chiqqan-nurga emas, zulmatga talpingan kaltabin johil Olovxon YUsuf qo'lida halok bo'ladi. Biroq, Torobiy timsolidagi fojia hiyonat, sotqinlik, diyonatsizlik, zulm va zo'ravonlik boshidan kechirgan va unga qarshi kurashgan millat, xalq va Vatan fojiasidir. YOki istiqlol muqaddas tutgan, o'lkaning milliy, diniy zaminidagi taraqqiyot uchun kurashgan va xalq orasidagi g'oyat katta mavqega ega bo'lgan jadid marifatchilarining fojiasi ham jamiyatni to'qimtabiat «muhabbat» dan xalos etishning natijasi edi.

Fojeaviylikning falsafiyli shundaki, u:

- inson mahrum bo'lgan fazilatlar o'rni qoplanmasligini ifodalaydi;
- shaxsning abadiyatga daxldor ekanligiga baxo beradi;
- manaviy jasorat egasining xarakterini ochishga ko'maklashadi;
- borliq va inson hayoti uyg'un ekanligini mushohada qilishga undaydi;
- tarixni xolis baxolaydi, tarixiy ziddiyatlarni fosh etadi;
- hayotdan umidvorlik, hayotga muhabbat tuyg'ularini mustahkamlaydi;
- odamlarni manaviyatsizlikdan forig' qiladi.

Kulgililik kategoriyasiga doir tadqiqotlar kulgining predmetini bir tomondan - obektiv xususiyat sifatida, ikkinchi tomondan - shaxsning subektiv imkoniyatlari natijasi sifatida, uchinchi tomondan - subekt va obekt o'zaro aloqadorligining natijasi sifatida o'rganadi. Bu o'z navbatida, kulgililik kategoriyasini turli rakursda o'rganishga olib keldi.

Estetik tafakkur tarixida kulgililik bir qadar keng o'rganilgan. Jumladan, Aflotun ojiz va layoqatsizlarni kulgili odamlar, nodonlik - insonni kulgili qiladi, deydi. Arastu fikriga ko'ra, kulgi ayrim xatoliklar hamda kishilarga ozor etkazmaydigan va zarar keltirmaydigan xunuklikni keltirib chiqaradi. Insondagi jahldorlik, suskashlik, qizg'onchiqlik, subutsizlik, izzattalablik, shuhratparrastlik kabi illatlar kulgililik obektidir. Bundan tashqari, Arastu kulgi - axloq hududlarini bezarar buzishdir, degan fikrni bildiradi.

Kulgililik boshqa nafosatli hodisalar singari faqat obektiv tomonga ega bo'lmay, subektiv tomonlarni ham o'zida birlashtiradi. Kulgililikning subektiv tomoni - keng manodagi hazil (yumor) tuyg'usidir. (Moler hazil tuyg'usini insonni hayvondan ajratib turadigan xususiyati deb atagan edi.) Hazil - insonlararo munosabatlarni tabiiy va erkin idrok etishi, turli beo'xshov ziddiyatlarni anglagan xolda ularga nisbatan oqilona kulgi bilan javob berish qobiliyatidir. Hazil tuyg'usi juda murakkab aqliy tuyg'u bo'lib, unda shaxs o'zining butun borlig'i bilan namoyon bo'ladi, u insonning his-tuyg'usi, aqliy madaniyati, orzu-umidlari va tabiati aks etadi. Shuning uchun ham insonning nima uchun kulayotganligiga qarab, uning qanday illat va qanday fazilatga ega ekanligini bilish mumkin bo'ladi.

Insonning turli sabalarga ko'ra kulgisi qistaydi. Masalan, to'yimli va mazali ovqatlanishdan rohatlanib kuladigan odamlar ham uchraydi, chunki bunday odamlar uchun kulgi hayotni sof fiziologik-jismoniy idrok etish ifodasi bo'lib xizmat qiladi. Kulgililik bevosita biror bir hodisa - insonning tashqi ko'rinishi bilan uning asl mohiyati o'rtasidagi nomuvofiq ziddiyat natijasida yoki amaldagi voqelik bilan yuksak estetik orzularga mos kelishi kerak bo'lgan voqelik o'rtasidagi muhim tafovutlar hamda kelishmovchiliklarni tabiiy anglash natijasida vujudga keladi. Bazi-bir odamlar o'zining pastkash, johil, loqayd, xudbin mohiyatini tashqi viqor, olifalik, takabburlik bilan «bezab» ko'rsatmoqchi bo'ladi. Bu kabi odamlarni uchratganda ham insonda beihtiyor kulgi tuyg'usi yuzaga keladi. Bunday kulgili xolatga o'sha odamning ichki olami bilan uning tashqi ko'rinishi o'rtasidagi beo'xshovlik sabab bo'ladi. Mazkur nisbatning yana bir o'ziga xos jihati shundaki, kulgili xolatdan olgan zavqimizga sog'lom manodagi «xudbinlik» hissi ham qo'shilib ketadi. Chunki biz bachkana, kalondimog', ovsarsifat odamning asl mohiyatini anglash qobiliyatimiz bilan manaviy-insoniy jihatdan u odamdan yuksakroq ekanligimiz o'zimiz uchun hamisha yoqimlidir. SHu jihatiga ko'ra kulgi insonni ruhan ko'taradi, unga insoniy g'urur tuyg'usi bag'ishlaydi.

Kulgi o'z mohiyatiga ko'ra demokratik xususiyatga ega: u barchani teng ko'radi. Kulgi eskilik bilan kurashning omilkor vositasigina bo'lib qolmay, balki insonning kuch-qudrati va ozodligi timsoli hamdir. Kulgi beqiyos rango-ranglik, xilma-xil qirralarga ega bo'lib, mayin, rag'batlantiruvchi, hushfel hazil tuyg'usidan tortib, to ayovsiz achchiq istehzogacha bo'lgan keng doirada amal qiladi.

SHuni alohida takidlash zarurki, kulgililik yoki kulgi - insoniy voqelik va faqat inson xos estetik tuyg'u. Inson o'zining aqli yordamida kuladi. U, albatta, o'zining ahmoqligidan ham kulishi mumkin, biroq bu kulgi telbaning mazmunsiz kulgisi hisoblanadi. Kulgidagi lazzatning manbaida masxara, istehzo kabi obektlarning ustidan afzallik tuyg'usi yotadi. SHu manoda, kulgi - biror-bir bemanilik bilan to'qnashuv natijasida yuzaga keluvchi yoqimsiz tuyg'ulardan halos bo'lishdir.

Inson boshqa insonda kulgini mutloqo bir-biriga o'xshamaydigan ikkita uslub orqali paydo qiladi: bexosdan, yani o'zining noqulay hatti-harakati tufayli; to'la onglangan xolatda, yani o'zining zukkoligi va gapga chechanligi bilan. CHunonchi, zukkolik yoki zakiylikning yumoriga asoslanishi shundaki, u holatning tanqidiga to'g'ri yondoshadi, uning kamchiliklarini ko'ra oladi, xolatni kulgi bilan amalga

tushunarli xolda ko'rsatib bera oladi. Zukkolik kulgilili xolatlarda qochirim, kinoya, luqma yordamida vaziyatni o'nglashi va undan chiqib keta olishi mumkin. Mazkur jihatlarning umumlashmasi quyidagi to'rtta asosni yuzaga keltiradi: Kosa tagidagi nim kosa gaplar. Bunda biron narsa haqida gapiriladi-yu, ammo mazmun boshqa manoga qaratilgan bo'ladi. Byurokratiyaning sarsongarchiliklaridan bezor bo'lgan shoirning qo'yidagi misrasi fikrimizga misol bo'ladi:

Bir tomon iljaysa, ikkinchi tomon
Qotib turaverar-unga bir tiyin,
Ikki ministrlik aro sargardon
Bo'lgan mo'rkon kabi burnimga qiyin.

Kishining kamchiliklarini uning ko'ngliga botmaydigan so'zlar orqali ifodalash bilan ham kulgililikni ko'rsatish mumkin. CHustiyning «Xurragim» g'azalida kulgining subekti - xurrag otuvchi chiroyli tashbeh bilan ifodalanadi:

Uyga sig'may, nayza sanchib tomni teshding nogahon:
SHul zamon sirlik faner topdi jarohat, xurragim.
Ko'kka chiqdingu malaklar uyg'onib ketti bari,
Qayda bo'lsang, bo'ldi ko'p uyquga g'orat, xurragim.

Umuman olganda, estetikaning mezoniy tushunchalari (kategoriyalari)ni bir-biri bilan doimiy hamkorlikda mustahkamlanib boradi. Ayniqsa, bu jarayonda go'zallik kategoriyasi bog'lovchi vazifasini bajaradi. Shuning uchun fojaviylikda, ulug'vorlikda, xunuklikda ham go'zallik unsurlarining uchrashi bejiz emas

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla SHer. Estetika. Darslik. -Toshkent: O'zbekiston, 2014.
2. Gadamer Gans. Aktualnost prekrasnogo. -M.: Iskusstvo. 1991.
3. Krivsun O.A. Estetika. – Moskva: GARDARIKI, 2013.
4. Kant Immanuel. Kritika sposobnosti sudeniya. -Moskva: Мысл, 2010.
5. Mahmudov Tilab. Go'zallik va hayot. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va sanat nashriyoti, 1977.
6. Мартынов V.F. Filosofiya krasoty. -Minsk: Tetra Systems. 1999.
7. Falsafa qomusiy lug'at. –Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2004.
8. SHestakov V.P. Esteticheskie kategorii /опыт систематического issledovaniya. –M.: Iskusstvo. 1983.
9. Morpurgo-Tagliabue. Lesthetique contemporaine. Milano. 1960.
10. Theodor Lipps. Asthetik. Die asthetische Betrachtung Und Die Bildende Kunst. Asthetik, Bd 1-2 Lpz., -2003.

Takrorlash uchun savollar:

1. Estetikaning fan sifatidagi mohiyatini tushuntiring?
2. Estetika nima uchun falsafiy fanlar turkumiga kiradi?
3. Estetikaning asosiy qonuniyatlari haqida malumot bering?
4. Qaysi funksiyalar estetikaning asosiy funksiyasi hisoblanadi?
5. “Go‘zallik falsafasi” degan iborani izohlang?
6. Inson go‘zalligining asosiy mezonlarini sharhlang?
7. Ulug‘vorlik nima uchun ham axloqiy ham estetik kategoriya hisoblanadi?
8. Nima uchun hunuklik go‘zallikning teskarisi yoki ziddi hisoblanadi?
9. Fojiaviylik ulug‘vorlikning davomi ekanligi izohlab bering?
10. Kulgililikning demokratik xususiyati nimada?

17-MAVZU. TABIAT VA TEXNOGEN SIVILIZATSIYA ESTETIKASI

Tabiatning estetik xususiyatlari

Tabiat go‘zalligi va tarbiyaviy ahamiyati azaldan faylasuflarni qiziqtirib kelgan. Insoniyat manaviy yuksalishidagi eng buyuk davrlar ham tabiat va odamzod hayotidagi o‘zaro uyg‘unlik va mutanosiblikning mavjudligini idrok etish, tabiat va dunyoning tartibli yaratilishi haqidagi oqilona munosabatlar bilan bog‘liq. Malumki, go‘zallik haqidagi ilk tasavvurlar ham tabiatga dahldor bo‘lib, tabiatdagi organizmlarning har biri o‘z holicha emas, balki boshqa organizmlar bilan bog‘liq holda yashaydi. Masalan, nabotot olami ham, hayvonot olami ham quyosh, suv, havo, tuproq tasirida yashaydi, rivojlanadi. Buni zardo‘shiylikning kitobi bo‘lgan “Avesto”da ham ko‘p bora takidlab o‘tiladi. Axura Mazda qiyofasidagi ezgulik hayot ramzi, erni hayvonot va nabotot bilan boyitadi, inson ularni sog‘lik, kuch-qudrat, baxt shodlik, umid, ishonch, go‘zallik, farovonlik yordamida munavvar qiladi. SHuni takidlash joizki “Avesto” da inson oliy jonzot sifatida talqin etiladi, ayni paytda eru-ko‘kdagi barcha nematlarni sevish, ardoqlash, insonning muqaddas burchi hisoblagan. Ozodalik, tozalik tushunchalari axloqiy hamda ilohiy tushuncha darajasiga ko‘tariladi. Suvni, atrof-muhitni toza tutish, jonivorlarga shafqatli munosabat, bularning bari “Avesto”da eko-estetik tarbiyaning uzviy bog‘liq ifoda etilishini ko‘rsatadi.

Tabiatga estetik munosabat xususida Qadimgi Xitoy daochilik talimotida ham o‘ziga xos yondoshuv mavjuddir. Daosizm talimotida Inson mavjud olam kabi dao qonunlari asosida vujudga kelgan., u tabiatning bir qismi, uning vazifasi fazilat (de) yo‘lidan borish. Har qanday suniy aralashuv, tabiatning muvofiqlik tartibini o‘zgartirishga intilish-odamlar uchun halokatli, barcha yovuzliklarning, son-sanoqsiz baxtsizliklarning manbai tabiat joriy etgan qonunlardan chekinishdir. SHu sababli Lao-szi nazdida faoliyat-daoga qarshi qaratilgan va xalqqa zarar keltiradi., uning asosiy axloqiy tamoyili “uvey”-faoliyatsizlik, donishmand kishining “dao”si-bu kurashsiz faoliyat. Lekin bu kurashsiz faoliyat aslida tabiatga qarshi bo‘lmagan faol hatti-harakat, faqat daoga xos, tabiat qonunlariga mos faoliyatdir. Tabiat go‘zalligini asl holda saqlash va uni ko‘rish, his qilish daochilikda muhim ahamiyat kasb etgan.

Muqaddas Islom dinining muborak manbalari - Quroni Karim va Hadisi sharifda atrof-muhitni toza saqlash, tabiat nematlaridan oqilona foydalanishga davat qilinadi. Tabiat nematlarini isrof qilmaslik, insonning yashash tarzi, shaxsiy gigiyeni, zuriyotni tozaligiga, o'simlik-hayvonot dunyosini asrashga, umuman ekologiya va tabiatni muhofaza qilishga katta ahamiyat berilgan. CHunonchi, Hadisda "Kimki daraxt ekib uni muhofaza qilishga sabr qilsa, meva bergunicha parvarish qilsa, u odamga mevasidan kelgan har bir foyda uchun Olloh huzurida ajr savob bo'lgay" "Dunyo yam-yashil va go'zaldir. Kimki undan haqli ravishda halollik bilan olsa, undan baraka topadi. Kimki nafs xoxishi bilan dunyoni mukasidan ketib egallasa, qiyomat kuni do'zaxdan boshqa narsaga erishmaydi" – degan hikmatlar bir necha marta takidlanadi.

Tabiatdagi eng oddiy narsa va hodisalar mazmuni va shakli uyg'unligi bilan go'zaldir. Go'zallik bu voqelik (tabiat, jamiyat, sanat) hodisasi bo'lib, aniq hissiy tasir o'tkazish orqali insonda jismoniy va manaviy kuchlar oqimining ko'payishiga, shodlik, zavqlanish, to'la manaviy qoniqish holati vujudga kelishiga imkon yaratadi. Go'zallik doimo foydalidir, lekin bu foydalilik jamiyat taraqqiyoti uchun xizmat qilishga mo'ljallangan bo'ladi.

Tabiatdagi go'zallik ijtimoiy hayot go'zalligidan, foydali amaliy faoliyatidagi go'zallik badiiy ijoddagi go'zallikdan farq qiladi. Lekin go'zallik qanchalik o'zining rango-rangligi bilan ajralib turmasin, ularning barchasi qandaydir umumiy tub belgilarga ega bo'lib, mana shu umumiy tub belgilar tufayli ularning barchasini maxsus ilmiy-falsafiy istiloh-go'zallik tushunchasi orqali talqin etish imkoniyati mavjud.

Inson hamma erda va har qanday darajada mavjud tabiiy hamohanglik bilan to'qnashar ekan, u albatta tabiatning go'zalligidan zavq-shavq oladi, ongli yoki anglamagan holda sevinadi, manaviy boylik orttiradi. Inson tabiatdagi u yoki bu davr, u yoki bu ijtimoiy guruh ijtimoiy orzusiga muvofiq keladigan hodisalarni go'zallik sifatida baholaydi. Hamma vaqt tabiatga estetik munosabat va tabiatni estetik o'zlashtirish uni «insoniylashtirish», tabiat hodisalariga inson talab-ehliyolarini, maqsad-orzularini tadbiiq etish bilan bog'lanib ketgan.

Insonda tabiatga qanday munosabatda bo'lish tuyg'usi birdaniga paydo bo'lmagan, albatta, u sekin-asta, inson zoti va tabiati rivojlanib borgani sari shakllanib borgan, ibtidoiy sanat manzarali tasvirlarni bilmagan, tabiat hodisalarining go'zal yoki hunuk ekanligini baholamagan, qadimgi ovchi-musavvir o'z diqqat etiborini asosan tirikchilik manbai bo'lgan narsalar, voqea hodisalarga qaratgan edi. (Omonqo'ton, Sarmishsoy, Zarautsoy, Xojikent, Panjikent va boshqa qoya rasmlarni eslang). O'sha paytlarda inson faoliyatining asosiy turi bo'lgan ovchilik o'rniga u yoki u bilan yonma-yon dehqonchilikning paydo bo'lishi bilan, yani inson atrofidagi tabiatni o'zlashtira boshlashi bilan tabiat boshqacha ijtimoiy orzu mezonlari bilan baholanadi, o'lchanadi, inson uchun tabiatning go'zallik va xunuk tomonlari ayon bo'la boshlaydi.

Go'zallikni yuksak darajadagi foydalilik tarzida idrok etiladi. Biroq, bu go'zallikka munosabatning faqat bir jihati, xolos. Bizning asrimizda insoniyat ulkan vayron qilish qudratiga ega bo'lgan vositalarni qo'lga kiritdi. SHu narsa aniq-

ravshan bo‘lib bormoqdaki, tabiatga faqat moddiy manfaatdorlik nuqtai nazaridan munosabatda bo‘lish salbiy oqibatlariga ham olib keladi.

Estetik xususiyatlar orasida tabiat go‘zalligi inson uchun hammadan ko‘ra yaqinroq va tushunarliroqdir. Tabiat bilan yaqin bo‘lishga botiniy intilish, undagi go‘zallik va nafosat olamini o‘zlashtirish, idrok etish inson zotiga xosdir.

Tabiat estetikasi insonni uyg‘unlikka asoslangan go‘zallikni ko‘rish, xis qilish, zavqlanish va qadrlashga o‘rgatadi. Chunki, tabiat go‘zalligi ko‘z bilan ko‘rish, qalb bilan his etish va harakat bilan barpo etish orqali idrok etiladi. Bu jarayon uchta jihatni to‘laqonli anglash va munosabatda bo‘lishni taqazo etadi. Bu: a) tabiiy organizmning o‘ziga xos tuzilishi va o‘zaro mutanosibligini; b) doimiy harakatda, rivojlanishda bo‘lgan jonli organizmning o‘ziga xos xususiyatlarni; v) tabiiy obektlarga xos bo‘lgan dekorativ nafosatni. Bunday hodisa odatda sanat orqali etkazib beriladi.

Tabiatning estetik xususiyatlari insonni tabiatni sevishga, uning go‘zalligiga beg‘araz munosabatda bo‘lishga o‘rgatadi, yani tabiatni faqat odamlar uchun yaratilgan deb emas, uni jamiyatdan tashqaridagi umumolamiy mustaqil qadriyat sifatida idrok etishni taqozo qiladi. Ayniqsa, tabiat estetikasining zamonaviy ko‘rinishi bo‘lgan landshaft dizayni masalalariga zamonaviy yondashuv, atrof-muhitni go‘zallashtirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. SHu bois mamlakatimizda landshaft dizaynini yanada rivojlantirish, aholi punktlari va qishloqlararo hududlarning arxitekturaviy-badiiy qiyofasini yaxshilash, landshaft dizayni mutaxassislarini tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 13 avgustda “O‘zbekiston Respublikasida landshaft dizaynini rivojlantirish dasturini tasdiqlash to‘g‘risida” gi Qarori qabul qilindi. Qaror asosida ishlab chiqilgan dasturda Toshkent shahar hokimligi obodonlashtirish bosh boshqarmasi, Nukus shahri va viloyat markazlari bo‘lgan shaharlar obodonlashtirish boshqarmalarining landshaft dizayni guruhlarini, loyihalash tashkilotlarini malakali kadrlar, mutaxassislar bilan taminlash, zarur texnika, asbob-uskunalar va materiallar sotib olish uchun mablag‘lar ajratish ko‘zda tutilgan. Ayniqsa landshaft, memoriy dizayn bevosita inson turmush tarzining farovonlashuvi va sog‘lom turmush tarzining vujudga kelishida muhim ahamiyat kasb etayotganini alohida takidlash lozim.

Olmon faylasufi Immanuel Kant tabiatni axloqiylik bilan bog‘laydi: “Kimniki bevosita tabiat go‘zalligi qiziqтира, bu uning fikrlash tarzida, yo‘q deganda, axloqiylikka, ezgulikka qobiliyat mavjudligidan dalolat beradi”, – deydi. Biroq, yana bir olmon faylasufi Hegelning “Tabiatda ideal yo‘q, shu sababli u ikkinchi darajali go‘zallikdir!” – degan fikri estetikada uzoq davrlar hukmronlik qildi. Bu ayniqsa, “tabiatdan inom-ehson kutmaymiz, balki uni bo‘ysindirish vazifamizdir” - degan g‘oya tarafdorlari uchun juda qo‘l keldi. Natijada uzoq yillar tabiat, atrof-muhim va ekologiya estetikasi muammolari nazarda chetda qolib keldi. Memoriy obidalarni asrash, tiklash haqida qayg‘urdi, ularni estetik qadriyatlar deb elon qildik, lekin landshaft estetikasini chetga chiqarib qo‘ydik.

O‘zbekistonda tabiatga estetik munosabatni takomillashtirish borasida muayyan tajriba orttirildi. Sohadagi vazifalarning ko‘lami mamlakatimiz hamda

mintaqada ekologik vaziyatni sog'lomlashtirish bilan bog'liq muammolarni kompleks hal etishni, bu borada davlat organlari, jamoat birlashmalari, fuqarolik jamiyati institutlari va fuqarolarning say-harakatlarini muvofiqlashtirishni taqazo etadi. Zero, sog'lom va go'zal atrof-muhit muhofazasi davlatning, jamiyatning va har bir fuqaroning eng muhim vazifasidir.

Inson hayotining farovonligi bevosita tabiat bilan bog'liq, shu bois ekologiya va inson salomatligi, tabiatga estetik munosabatni shakllantirish masalalari bugun ijtimoiy zaruriyatga va manaviy ehtiyojga aylanib bormoqda. Bu jamiyat, davlat va har bir fuqaro manfaatiga birdek daxldor masalalar sirasiga kiradi. Tabiatni muhofaza qilish, hududlarni obodonlashtirish, ko'chat-daraxtlar o'tkazish va ularni parvarishlash, foydali qushlar va hayvonlarga zarar etkazmaslik, ko'l va ariqlarni ifloslantirmaslik, ularni doim tozalab turish tabiatni go'zallashtirish muammolari bilan bevosita bog'liq.

Hozirgi kunda tobora oydinlashib borayotgan haqiqat shuki, tabiatni estetik qadriyat deb bilmaslik estetik savodsizlik, aniqrog'i, bugun tabiatsiz estetikani tasavvur qilish mumkin emas.

Ekostetikaning XXI asr ilmiy-texnik taraqqiyotdagi o'rni

Globalashuv suratlarining ortishi, xalqaro raqobatning kuchayishi, axborot texnologiyalari jadal rivojlanishi hamda fanlar integratsiyalashib borayotgan hozirgi sharoitda jamiyat yangicha falsafiy tafakkurga zaruriyat sezmoqda. Endilikda, falsafa inson, jamiyat va davlatga har doimgidan ham ko'ra ko'proq kerak ekanligi ayon bo'lib bormoqda. Chunki, inson manaviy kamol topib, jamiyat, fan va texnika rivojlanib borgani sari falsafiy tafakkurga bo'lgan ehtiyoj ham kengayadi, chuqurlashadi. Bu esa falsafiy fanlarga yangicha, ijodiy yondashish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Globalashuv jarayonida yangicha mazmunga va zamonaviy ko'rinishga ega bo'lgan estetik qadriyatlar shakllanmoqda. Bu insonning tabiatga, jamiyatga, turmush tarziga, atrof-muhitga bo'lgan munosabatida tobora aks etmoqda.

XXI asrda olamni bilish, voqelikni estetik o'zlashtirish bilan bir qatorda uni qadriyat sifatida ezozlashga alohida etibor berilmoqda. Endilikda odamlarning yaratuvchanlik faoliyati yuksalishi barobarida estetik qadriyatlarga nisbatan munosabati tubdan o'zgarmoqda. Bu o'z navbatida inson mohiyatan eng oliy qadriyat ekanligi, inson manfaatlarining ustuvorligini taminlash barcha islohot va evrilishlarning bosh maqsadiga aylanganligi bilan belgilanadi.

Ekologiyaning inson ekologiyasi bo'limi odamning atrof-muhitga moslashishi, kasalliklarning kelib chiqishi va ularni oldini olish, salomatlikning tabiiy va ijtimoiy omillari, irsiyat, atrof-muhit, turmush tarzi, oilani rejalashtirish, sog'liqni saqlash, sport bilan shug'ullanish va shaxsiy gigienalar haqida bilimlar beradi, shuningdek salomatlikni baholash ko'nikmalarini shakllantiradi. Shubhasiz, ekologik talim dolzarb global muammo hisoblangan tabiat va inson o'rtasidagi uyg'unlikni taminlashda katta o'rin egallaydi. Insoniyatni o'rab turgan borliq, tabiiy va ijtimoiy atrof-muhit, tirik va notirik tabiatning eng muhim tomonlarini ifodlaydigan qadriyatlar umumbashariy xususiyatga egadir. Bunday qadriyatlar

jamiyat uchun hech qachon o'z ahamiyatini yo'qotmaydigan, abadiy, mutlaq va muqaddas qadriyatlardir. Darhaqiqat tabiat go'zalligini his qilish, undan zavqlanish, nafasat qonuniyatlari asosida tabiatni yanada go'zallashtirish, inson estetik didini rivojlantirish va estetik ehtiyojini qondirish bilan estetik qadriyatlarning yangi ko'rinishlari shakllanib bormoqda. Tabiat va uning borlig'idagi estetik qadriyatlarga aylangan nabotot va hayvonot olami shular jumlasidandir.

Ekoestetika quyidagi prinsiplarga asoslanadi:

- Dunyoni ekologik manzarasiga estetik munosabat.
- Inson hayoti- Hayvonot dunyosi - Nabotot olami uyg'un rivojlanishi.
- Atrof-muhitni muhofaza qilishning estetik asoslari.
- Tabiatni estetik qadriyat sifatida baxolash.
- Tirik organizmlar bir butunligini estetik anglash.
- Tabiiy jarayonlar va hodisalarning antropotsentrikdan biotsentrik va politsentrikka o'zgarishi usulini qo'llash.
- ekologik tanglikning estetik madaniyat tangligi sifatida xis etish.
- Ishlab chiqarish munosabatlarni estetik mezonlar asosida tartibga solish.
- ekoestetika va etikosferaning axloqiy-estetik maqomini anglash.
- Insoniyat barqaror rivojlanish konsepsiyasiga tabiat va jamiyat koevolutsiyasi sifatida estetik baxo berish.

Insoniyat kech bo'lsada Yer sayyorasidagi tabiatning yuksak qadriyat ekanligini anglab bormoqda. Endilikda tabiat go'zalligini asrash, tabiatga oqilona munosabatda bo'lish va tabiatni go'zallashtirish global masalalardan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov "Ekologiya hozirgi zamonning keng miqyosdagi keskin ijtimoiy muammolaridan biridir. Uni hal etish barcha halqlarning manfaatlariga mos bo'lib, qivilizatsiyaning hozirgi kuni va kelajagi ko'p jihatdan ana shu muammoning hal qilinishiga bog'liqdir" - deb takidlagan edi. Darhaqiqat, insoniyat hozir o'z tarixining masuliyatli davrida yashamoqda, u "Tabiat – Jamiyat - Inson" munosabatlari uyg'unligining yangi rivojlanish bosqichiga qadam qo'ydi. Bu tarixiy davr o'z real imkoniyatlari, obektiv taraqqiyot qonuniyatlari bilan jamiyat oldiga turli muammolarni qo'yimoqda. Bu muammolar orasida eng muhimi - tabiatni asrash va oqilona munosabatdir.

Tabiat alohida bir xalq va millatniki emas. Tabiat muqaddas bir dargoh, inson ko'z ochib ko'rgan dunyo, ona zamin, insoniyatning umumiy uyi. SHunday ekan uni avaylab-asrash, atrof-muhitning ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik, umumdavlat, umuminsoniyat ishidir. Ekologik muammoni hal etish barcha xalqlarning manfaatlariga mos bo'lib, sivilizatsiyaning yashab qolishi ham ushbu muammoni qay tariqa hal qiliinishiga bog'liq. Bu o'z navbatida, insonning tabiatga estetik munosabatini o'zgartirishni taqozo etadi. Negaki, voqelikka estetik munosabat - tabiatga muhabbatdan boshlanadi. CHunki, tabiat inson kamoloti, salohiyati, iqtidori, imkoniyati uchun betakror manba bo'lib xizmat qiladi.

Inson bilimining ortishi, tabiatni o'rganish va o'zlashtirish imkoniyatlarini kengayishi texnik-texnologik taraqqiyotga va inson qudratini yuksalishiga olib keldi. Bu holat o'z navbatida, insonni tabiat ustidan hukmronlik qilishga undadi.

Buning oqibati turli ko‘rinishdagi ekologik halokat, tahdid, zarar va illatlarni yuzaga keltirdi.

Endilikda tabiat va inson o‘rtasida yangicha muloqot vujudga kelmoqda. Inson tabiatning hukmroni emas, balki uning bir bo‘lagi ekanligi tabiatga nisbatan qilingan har qanday yomonlik oqibat insonga qilingan yomonlik ekanligini anglab etdi. Har qancha ekologiyaga etibor qilmaylik, uni fan sifatida zo‘r berib o‘qitmaylik, baribir tabiatni tushunishimiz qiyin, zotan ekologiya tabiatni asrashni, qutqarishni, boyitishni targ‘ib qiladi. Biroq ularning hammasiga faqat estetika yordamida, uning ekologiya bilan hamkorligida erishish mumkin. Chunki estetika insonga tabiatni sevishtni, uning go‘zalligiga beg‘araz munosabatda bo‘lishni o‘rgatadi, yani tabiatni faqat odamlar uchun yaratilgan deb emas, uni jamiyatdan tashqaridagi umumolamiy mustaqil qadriyat sifatida idrok etishni taqozo qiladi. Ekologiya atrof-muhitning sifat holatini belgilovchi omil bo‘lganligi uchun u iqtisodiyot, ijtimoiy hayot, davlatlarning ichki va tashqi siyosatiga ham kirib bordi. Bu bejiz emas, chunki dunyoda ekologik muammolarning jiddiylashib borayotganligi hech kimga sir emas. Ekologik xavfsizlik muammosi allaqachonlar milliy va mintaqaviy doiradan chiqib butun insoniyatning umumiy muammosiga aylandi. Ayniqsa Markaziy Osiyo davlatlarida tabiatni muhofaza qilishga oid qonunchilik rivojlanmoqda va takomillashmoqda, genofondni barqaror rivojlantirishni saqlab qolishni tabiiy resurslarda oqilona foydalanishni taminlaydigan hamda fuqarolarning maqbul atrof muhitga bo‘lgan huquqni kafolatlaydigan xalqaro konvensiyalar, shartnoma va bitimlarga qo‘shilish jarayoni davom etmoqda.

Atrof-muhitga bepisandlik, tabiat nematlariga hurmatsizlik, o‘simlik va nabotot olamiga etiborsizlik bugungi kunga kelib pirovardida inson va uning genofondiga salbiy tasirini o‘tkaza boshladi. Bundan tashqari, tabiatga g‘ayriestetik munosabat biologik xilma-xillikning qisqarishiga, katta hajmdagi sanoat va boshqa xil chiqindilarning ko‘payishiga, cho‘llanish, Yer va suv resurslari degradatsiyasiga hamda mintaqaviy va global miqyosda echilishi zarur bo‘lgan muammolarni keltirib chiqardi. Bu muammolar inson hamda uning manfaatlari himoyasi, avvalo, sog‘lom va musaffo atrof-muhitga ega bo‘lish huquqini taminlash jarayoni amalga oshirilayotgan islohotlarning o‘zagini tashkil etgan O‘zbekiston uchun atrof tabiiy muhitni asrab-avaylashni va uni sog‘lomlashtirishni yanada dolzarb qilib qo‘ydi.

Texnogen sivilizatsiyaning ishlab chiqarish estetikasi va fan taraqqiyotiga tasiri

XX asrda ilmiy-texnikaviy taraqqiyot natijasida biosfera ichida noosfera yani texnikaviy muhitning paydo bo‘lishi inson hayoti va faoliyatining asosi bo‘lgan mehnatga katta tasir ko‘rsata boshladi. Bugun uyali aloqa, kompyuterlarsiz hayotni tasavvur etib bo‘lmaydi. Bu esa texnika hayotimizga tobora chuqur kirib borayotganini ko‘rsatadi. Albatta, biosferadagi barcha o‘zgarishlarning sababchisi inson-uning tafakkuri ekanligi ayon. XXI asr yuqori texnologiyalar, axborotlar asri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu esa kishilarning ongi, faoliyati mana shu tezkorlikka moslashishi lozimligini taqozo etadi.

Texnika rivojining ko‘p yillik tarixi bizning texnik bilimlarimiz, ixtirochilik, konstruktorlik qobiliyatimiz fan, inson ehtiyojlari, yashash muhiti rivojiga muvofiq doimiy mukammalashib borishini ko‘rsatmoqda. Hozirgi zamon sivilizatsiyasi sanoat va texnika taraqqiyoti bilan bog‘liqdir. U industrial sivilizatsiya yoki texnogen jamiyati deb atalmoqda. Texnogen olam, sivilizatsiya bevosita fan, texnika, «ratsionallik» singari tushunchalar bilan bog‘liqdir. Texnika yordamida insontabiatni, o‘z-o‘zini, jamiyatni tubdan o‘zgartiradi. Inson va jamiyat “texnosfera”da joylashgan bo‘lib, texnika bir joyda to‘xtab turmaydi. Texnika innovatsiyasi inson hayotini to‘xtovsiz o‘zgartirib turuvchi katalizator - harakatga keltiruvchi sifatida inson ongidan joy oldi. Mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish ijtimoiy hayotga, iqtisod, siyosat va mafkuraga kirib keldi. “Inson va mashina” munosabatlari tobora yangicha mazmun kasb etib bormoqda.

Texnika insoniyat tomonidan yaratilgan barcha yutuqlarni o‘ziga singdirib, inson qudrati va aqliga xizmat qilishi lozim. Har qanday rivojlangan texnika ham ijtimoiy masalalarni insonsiz hal eta olmaydi. Biroq, taraqqiyot taqdirini manaviy jihatdan etuk odamlar hal qiladi. Texnikaviy bilim, murakkab texnologiyani egallash qobiliyati manaviy barkamollik va mustaqil tafakkur bilan birga borishi kerak. Texnik taraqqiyotni, uning jamiyatdagi o‘rni va rolini to‘xtatish, inkor etish mumkin emas. SHunday ekan, texnogen sivilizatsiyada inson texnogen madaniyat-fan amaliyoti, texnikaning yangidan-yangi shakllari, ularni ishlata bilish uquvi va mahoratiga ega bo‘lishi taqozo etiladi.

Maishiy turmush estetikasi

Turmush azaldan madaniy qadriyatlarni vujudga keltiradigan va asraydigan muhim makon bo‘lib kelgan. Turmush madaniyati inson hayoti va ijtimoiy muhitda iqtisodiy, ijtimoiy, estetik mezonlarni ko‘ratish bilan birga estetik madaniyatni ham shakllantiruvchi hodisadir.

“Turmush” tushunchasi, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “inson, millat va xalqning yashash tarzi, urf-odatlar, rasm-rusum majmui, obektiv reallik, moddiy, oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy, sog‘liqni saqlash, shuningdek, manaviy qadriyatlarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishdan iborat ijtimoiy hayotning noishlab chiqarish sohasi” deb talqin etiladi. Moddiy nematlar ishlab chiqarish va ijtimoiy-siyosiy amaliyot bilan bir qatorda shaxs tarbiyasida turmushning tasiri ham muhim omil sanaladi. Turmush madaniyatining o‘ziga xosligi mehnat, oila, Vatan, kattalarga hurmat, o‘zini tutish meyorlari kabi tabiiy, sodda ammo, asosiy qadriyatlarni singdirishida namoyon bo‘ladi. Aynan turmush tarixiy xotira madaniyatini asrovchi hodisa sifatida ham namoyon bo‘ladi, chunonchi u sanat, dinga nisbatan barqarorligi bilan farqlanadi. Turmushga singgan qadriyatlar nisbatan mutlaq bo‘ladi, juda kam o‘zgaradi. Ushbu fazilatlar, qadriyatlarni har bir shaxs o‘zi bilan oilasiga olib o‘tadi va uning abadiyligini taminlaydi. Turmush estetikasi dizayn, ekoestetika, atrof-muhit estetikasi, estetik tarbiya bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, moddiy va badiiy madaniyatni integratsiyalashning eng tasirchan vositalaridan biridir.

Turmush estetikasi estetikaning insonning voqelikka munosabatini namoyon etadigan sohalaridan biri. Bunda tashqi ko‘rinish, kiyinish, muomala madaniyati, narsa-buyumlarga, turar joylarga munosabat aks etadi. Turmush estetikasi insonning barcha sohalarida go‘zallikka bo‘lgan intilishining ifodasidir. Insonni o‘rab turgan narsa va buyumlar olamining go‘zalligi bir tomondan inson hayotining uyg‘unligini taminlasa, ikkinchi tomondan estetik tarbiyalaydi. Turmush tarzi, tashqi ko‘rinishi, kiyim ko‘rkamligi orqali inson yashayotgan, mansub bo‘lgan jamiyat haqida estetik tasavvur shakllanadi. Aksincha turmushda tartibsizlik, palapartishlik estetik madaniyat pastligidan dalolat beradi.

Maishiy turmush estetikasi insonni o‘rab turgan narsa va buyumlar olami, atrof-muhit, yashash tarziga munosabati masalalarini o‘z ichiga oladi. Insonning dizaynerlik, ijodkorlik qobiliyatlari dastavval turmushda shakllanadi. Bunda malum bir xalqning tarixi, mentaliteti, avvaldan shakllanib kelgan turmush tarzi muhim o‘rin tutadi. Turli xalq, ijtimoiy guruh va boshqalar turmush madaniyatining moddiy ko‘rinishlari kishilarning narsa va buyumlar olami, estetik didi va ijtimoiy ideallari haqidagi tasavvurlari umumiyli va rang-barangligi bilan uzviy bog‘langan.

Inson yashash va ijtimoiy muhiti iqtisodiy, ijtimoiy, funksional, estetik meyor va shart- sharoitlarini gavdalan tiradigan turmush madaniyati olamni estetik idrok etish, uning estetik madaniyati asosini tashkil qiladi. Bu jihat esa insonning atrof-olamga keng qamrovli estetik munosabatini shakllantiradi. Kiyinishidan tortib, oilaviy ananalar, oilaviy makongacha bo‘lgan hodisalarda odamlarning narsalar dunyosiga, go‘zallik va ulug‘vorlik orqali qarashlari, estetik didga, ijtimoiy ideallarga o‘ziga xos munosabatlari namoyon bo‘ladi va bu pirovard natijada turmush madaniyatining yuksalishiga xizmat qiladi.

Maishiy turmush estetikasi turli madaniyatlar tasiri, turmush tarzi va usuli, ananaviylik va yangilik, milliylik va umuminsoniylik masalalari bilan bog‘langan bo‘lib, texnika, ekologiya, predmetli muhitni jihozlash, tarbiya sohasidagi estetik jihatlarni ifodalaydi, moddiy va badiiy madaniyat integratsiyalashuvining samarali vositalaridan hisoblanadi. Turmush estetikasining o‘ziga xosligi ham shu jarayonda takomillashib boradi.

Estetik did turmush estetikasining shakllanishida muhim o‘rin tutadi, ayni paytda, turmush estetikasi ham insonda badiiy-estetik didning shakllanishiga tasir ko‘rsatadi. Chunki, chiroyli narsa va buyumlar muhiti inson his-tuyg‘ulari, kayfiyatiga estetik tasir ko‘rsatadi.

Odamlarning turmush tarzini o‘zgartirish, estetik dunyoqarashini boyitish orqali bir xillikdan – rang-baranglikka, qo‘pollikdan – ihchamlikka, noqulaylikdan - qulaylikka qarab yo‘nalish maishiy turmush estetikasining asosiy maqsadi va prinsipi hisoblanadi. Ayniqsa, estetik madaniyat infratuzilmasi, madaniy hordiq maskanlari maishiy turmush estetikasi rivojiga ijobiy tasir ko‘rsatuvchi omillardir.

Turmushning ijtimoiy-estetik mohiyati uchta omil bilan belgilanadi: 1) inson hayot kechiradigan rang-barang predmetlar olami; 2) insonning boshqalar bilan muloqotda o‘zligini namoyon qilish holatlari; 3) insoniy munosabatlarning odob-axloqda aks etish imkoniyati va xususiyatlari. Bundan tashqari, yaratuvchanlik va bunyodkorlik turmush estetikasining muhim mezonlari hisoblanadi. Chunki, inson

turmush tarzini qay tarzda yo'lga qo'yishi uning badiiy tafakkuri va ruhiyatini ham aks ettiradi. Zero, Hegelning "Agar sanatni uning butun maftunkorligi bilan yaxlit idrok etish zaruriyati tug'lsa, uni hamma joyda - varvarlarning zebu ziynat, liboslaridan tortib, to bag'oyat go'zal qilib bezatilgan ibodatxona anjomlarigacha - jami narsalar olamida uchratish mumkin"- degan fikri bejiz emas.

Zamonaviy maishiy turmush estetikasi farovon hayot va uning uchun zarur bo'ladigan kamponentlarning o'zaro maqsadga muvofiqligi, mutanosibligi va mosligini taqazo etadi. Bu moddiy nematlar (orgtexnika, tele va mobil kommunikatsiya vositalari) va manaviy nematlar (kitob, sayohat, qadriyat)ning boy zahirasini taqazo etadi.

Hozirgi globalashuv va axborotlashgan jamiyatda inson haqidagi dastlabki malumot uning tashqi ko'rinishi orqali olinadi. Bunda insonning kiyinish madaniyati muhim omil hisoblanadi. Chunki, kiyim-libos insonni nafaqat go'zallashtiradi, balki uning madaniyatlilik darajasini ham belgilaydi. Shuning uchun kiyinish ham ijtimoiy-manaviy, ham axloqiy-estetik hodisadir.

SHuni alohida takidlash zarurki, kiyinish dastlab tabiiy zaruriyat - yani tashqi omillar tasiridan badanni himoya etish vositasi sifatida vujudga kelgan bo'lsa, zamonlar o'tishi bilan u inson madaniyati namunasiga aylandi. SHu bois yuksak madaniylikka asoslangan kiyinishni ham axloqiy qadriyat, ham estetik qadriyat deb aytish mumkin. Axloqiy qadriyat ekanligi shundaki, kiyim o'zida uyat, hayo, ibo kabi fazilatlarini mujassam etadi. Kiyimning estetik qadriyat ekanligi esa u insonga go'zallik va chiroy baxsh etadi.

Bugungi kunda yoshlarning kiyinish madaniyatida zamonaviylik bilan ananaviylikning uyg'unligini taminlash milliy-madaniy taraqqiyotda muhim o'rin tutadi. Buning uchun quyidagi omillarga etibor qaratish zarur: Birinchi omil - did bilan kiyinish. Bu kiyinish madaniyatining nozik jihatlariga etibor qaratish demakdir. Chunki, inson o'z chiroyini egnidagi libosni to'g'ri tanlay olganligi bilan ham boyitishi mumkin. Ikkinchi omil - zamonaviy kiyinish. Bu yoshlarning didini, qiyofasini qiyofasini aks ettirishi bilan bir Moda - maishiy turmush estetikasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Moda - bu tashqi madaniyat shakllarining vaqti-vaqti bilan qisman o'zgarish va takrorlanib turishidir. Bunday takrorlanishlar va o'zgarishlar iqtisodiy, manaviy, axloqiy, estetik omillar kabi ijtimoiy asosga ega bo'ladi.

Modani asosiy ko'pchilik etirof etadi, u o'zini faqat kiyinishda emas, ishlab chiqarishda ham, siyosatda ham, sanatta ham, fanda ham, hatto mafkurada ham namoyon qila oladi. U ijtimoiy-estetik mezon sifatida baholash xususiyatiga ega va shu bilan odamlarga nima kerakligini belgilab beradigan hukmron didga aylanadi. Moda odamlarning yashash tarzidan (uslubidan) kelib chiqib, doimiy ravishda o'zgarib boradigan hayot mazmuniga mos shaklni taklif etadi. Zotan u ommaviy estetik didning darajasi va o'ziga xosliklarini zamon ko'zgasida aks ettirish xususiyatiga ega. SHu jihatdan u, yuqorida aytib o'tganimizdek, o'zgaruvchanlik tabiatiga ega.

SHuni alohida takidlash zarurki, kiyinish insoniylikni taqazo etadi. Chunki, kishilar jinsi, yoshi, gavda tuzilishi, ruxiy xolatiga qarab kiyim tanlaydi va kiyadi.

SHu bois bugungi kunda yoshlarning kiyinish madaniyati quyidagi jihatlar asosida shakllanayotganligini kuzatish mumkin:

1. Badanni tabiiy omillar tasiridan himoyalash;
2. Qulaylikka erishish.
3. Zamonaviy axloq va etnik xususiyatga mos odobni namoyon etish.
4. Atrofdagilarning etiborini qozonish.

YOshlar tomonidan yuqoridagi jihatlarning amalga oshish mexanizmi modani taqazo etadi. CHunki, moda kiyinishning o‘ziga xos meyor. Biroq, bu meyor insonning go‘zalligini taminlashishi shart. Aks xolda meyorning buzilishi natijasida bachkanalik vujudga keladi. Qolaversa, ijtimoiy madaniy taraqqiyot muayyan moda umrining qisqarishiga olib keladi. Taraqqiyot natijasida yangi modalar eskisini muomala jarayonidan siqib chiqaradi.

Bugungi kunda yoshlarning kiyinish madaniyatiga etibor qaratishning ijtimoiy ehtiyojga aylanish sababi shundaki, har bir xalqning tarixiy-madaniy rivojlanish bosqichlari ularning ajdodlari tomonidan kiyilgan kiyimlarda o‘z aksini topgan. Bu esa milliy g‘urur, vatanparvarlik va o‘zlikni anglash kabi buyuk hodisalar bilan chambarchas bog‘liq. SHunday ekan, bugungi kunda kiyinish madaniyatiga jo‘n va oddiy maishiy xol sifatida munosabat bildirish mumkin emas. Inson faoliyatining barcha ko‘rinishlari estetik bilimni taqazo etadi. Estetik bilim esa insonda turmush tarzini tartibli, oqilona va maqsadli tashkil etish ko‘nikmasini shakllantirishga ko‘mak beradi. Bu boradi dizaynning turmush estetikasiga tasirini alohida takidlash joiz.

Narsalar inson ehtiyojlarini qondirishi uchun o‘zgarib takomillashib boradi, bu inson faoliyatini erkin va qulay tashkillashtirish ijobiy, mo‘tadil ruhiy muhit yaratishga imkon yaratadi. Estetik A.P.Marder rivojlangan hozirgi jamiyatda obektiv olam faqat fizikaviy, kimyoviy va boshqa xossalar bilan emas, shu bilan birga, estetik xususiyatlar va unga munosabatlar yig‘indisi sifatida ham inson manaviy va moddiy hayoti, axloq-odobiga emotsional tus beradigan estetik reallik bo‘lib namoyon bo‘ladi, - degan fikrni bildiradi. Darhaqiqat,insonni qurshagan predmet va narsalar muhiti uyg‘unlik, shinamlik va qulaylik xususiyatlari bilan insonda zavq, ko‘tarinki kayfiyat, xotirjamlik kabi hissiyotlarni uyg‘otishi; insonga o‘z hayotidan mamnunlik uyg‘otishi, ruhiy muammolar echimini hal etishda yordam berishi mumkin. Binobarin, memorlar, amaliy sanat namoyandalari, dizaynerlar, umuman ijodkorlar bu estetik qulayliklarni nafaqat moddiy balki insonning manaviy ehtiyojlarini qondirish maqsadida yaratadi.

So‘nggi besh yilda mamlakatimiz shaharlari va qishloqlari qiyofasi tubdan o‘zgardi. Buning natijasida odamlarning estetik dunyoqarashi va tafakkurida ham o‘zgarish paydo bo‘ldi. CHunki, barpo etilayotgan ijtimoiy obektlar – muassasa, maydon, markaz, hiyobon, maskan, ziyoratgoh odamlarda turmush estetikasi haqidagi tasavvurini boyitadi, yuksaltiradi. Atrof-muhitning go‘zalligi kayfiyatga tasir ko‘rsatish, faollikka undash, xatti-harakatlariga tetiklik baxsh etishi asosida baholanadi.

Estetik muhitda tarbiya topgan inson narsalar olamining estetik shakli va mazmunini qadrlaydi, anglaydi, oqilona munosabatda bo‘ladi. Ayniqsa, badiiy

konstruktorlik badiiy loyihalash unsurlarini ham o'z ichiga oladi. Konstruktorlikni rivojlantirish bolalar va o'smirlarda badiiy loyihalash qobiliyatini shakllantirish imkonini beradi, konstruktorlik ishlarini amalga oshirishi ijodiy tasavvur va badiiy qobiliyatning rivojlanishiga olib keladi. Bu esa estetik xarakter kasb etadi.

Turmush estetikasi inson faoliyati sohalari, narsalar olami, intererining tarkibiy qismlari, uning shakllanish qonuniyatlari, ish joylar muhitini shakllantirish kabi masalalarni hal etishda yangi texnik va texnologik ishlanmalar va dizaynga asoslanadi. Narsa-buyumlarni qulay, shinam joylashtirish va ulardan to'g'ri foydalanish hayotimizning kun tartibidan muhimi o'rin egallagan. Chunki kishilarning turmushi jamiyat taraqqiyotining iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va manaviy-madaniy jihatlarini o'zida aks ettiradi va bu oiladagi sog'lom muhitni belgilaydi. Insonni o'rab turgan predmet-narsalar insonning moddiy ehtiyojlarini qondirish bilan cheklanmaydi, tashqi muhit, shu bilan birga, insonning o'z qiyofasini shu muhitga moslashtirishga ham manaviy-ruhiy tasir ko'rsatadi, dizayn inson bilan narsalar olami o'rtasidagi uyg'unlikni qaror toptirish vazifasini bajaradi.

Zamonaviy shaharsozlik estetikasi

Har bir shahar yoki viloyat, tuman markazi o'ziga xos estetik ko'rinishga ega. Bugungi kunda shaharsozlik sohasiga estetikaning zamonaviy prinsiplari joriy etilmoqda. Ayniqsa, davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi tizimini tubdan qayta tashkil etish, shaharsozlikning eskirgan metodologiya va normativlari, kapital qurilishdagi nomutanosiblik va muammolarni bartaraf etish, shuningdek, loyiha institutlarining samarasiz faoliyatini tubdan takomillashtirish masalalariga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Ijtimoiy taraqqiyotning ikki muhim jihati - moddiylik va manaviylikni o'zida namoyon ettiradigan memorchilik o'z navbatida, mamlakatda shaharsozlik sohasining shakllanishiga, ravnaq topishiga sezilarli tasir ko'rsatadi.

Kundalik hayotda «shaharsozlik» va «obodonlashtirish» degan so'zlar tez-tez tilga olinmoqda. Sobiq Ittifoq davrida shaharsozlik madaniyati va estetikasi memoriy majmualarning umumiy ko'rinishi, ularning eksterer (tashqi) va interer (ichki) bezagidagi bir xillik shaharning badiiy-estetik qiyofasiga salbiy tasir etganligini kuzatish mumkin. Ayniqsa, aholi uchun qurilgan turar joy binolarining bir xil shaklda bo'lganligi shundan dalolat beradi. Mazkur binolar tartibsiz, noqulay hududda bunyod etilganligi, aksariyatining qurilishida tabiiy muhit, milliy xususiyatlar hisobga olinmaganligi natijasida shaharning jozibadorligini buzgan.

Shahar o'z ko'rki va go'zalligini qo'yidagi estetik xususiyatlar orqali namoyon etadi: a) shaharda memoriy obidalar, ko'hna yodgorliklar, ziyoratgohlarning mavjudligi va ularni odamlar e'tibori va tasarufida ekanligi; b) binolarning aholi turmush tarzi uchun qulayligi va mos kelishi; v) shaharda bunyod etilgan inshootlar, yo'llarning xalq manfaati bilan muvofiqligi; g) shaharning geografik jihatdan joylashuvi – suv va havosining musaffoligi, tabiiy manzaralarga boyligi.

Bugungi kunda mamlakatimizda bunyod etilayotgan muhtasham inshootlar, mamuriy binolar, talim muassasalari milliy memorchilik ananalarining Ovropa

memorchilik ananalari bilan uygʻunligiga asoslanadi. Misol uchun, Vatanimiz poytaxtida qad rostlagan - Marifat markazi, Simpoziumlar saroyi, Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Milliy kutubxonasi, YOshlar ijod saroyi, Poytaxt biznes markazi kabi betakror inshootlar bir-biriga hamohang tarzda yaxlit kompozitsiyani tashkil qilgan. YOki Vatanimizning bosh maydoni - Mustaqillik maydoni betakror landshaft dizayni bilan gʻoyat goʻzal qiyofa kasb etgan.

Oʻzbek shaharsozligi estetikasi sobiq Ittifoq davrida nazardan chetda qoldi: memoriy obidalar qarovsiz holatga keltirildi, xalq amaliy sanatining nodir turlari yoʻqola boshladi, erkin ijodiy muhit taqiqlandi. Sanatkorlar, memorlar, usta va naqqoshlar tomonidan koʻplab binolar, xalq amaliy sanatining nodir namunalari yaratilgan boʻlsada, ammo ularda milliy bezak va uslublar, naqshlar toʻlaligicha oʻzini namoyon etolmas edi. Bugungi memoriy binolar, tarixiy inshootlar xususan Oʻzbekiston anjumani, mahobati, shakl va kompozitsiyasi, naqsh va bezaklari oʻzining falsafiy-estetik mazmuni bilan jahon memorligining buyuk namunasi, oʻzbek xalqining estetik qadriyatiga aylandi desak mubolagʻa boʻlmaydi.

XXI asrni Oʻzbekistonda shaharsozlik estetikasida tub burilish davri deyish mumkin. Bugungi kunda, shaharlarda nafaqat tarixiy obidalar qayta tiklandi, balki ziyoratgohlar obodonlashtirildi, qator zamonaviy kasb-hunar kollejlari, maktablar, zavodlar, fabrikalar, sport maydonlari, shifoxonalar, mehmonxonalar, istirohat bogʻlari, xiyobonlar, bozorlar, yoʻllar, koʻpriklar, savdo majmualari, favvoralar, gulzorlar barpo etildi.

Dizayn va uning estetik xususiyatlari

Italyanchada loyiha, rasm manolarini anglatuvchi disegno soʻzi oʻrta asrlarda inson tabiatida mavjud boʻlgan ijodkorlik xususiyatlarini ham ifodalagan. Ammo, “ingliz tilidagi design soʻzi birinchi marta 1919 yil ingliz rassomi Djozef Sinelo tomonidan sanoatda ishlab chiqarilgan narsalar namunasiga nisbatan qoʻllanilgan. Bunda u aniqroq ifodalash uchun industrial soʻzini kiritib «industrial design» sanoatga, uning taraqqiy etgan mashina texnikasi va seriyali ishlab chiqarishga yoʻnaltirilgan yangi badiiy predmetli ijod sohasini anglatuvchi soʻz birikmasini qoʻllaydi. Vaqt oʻtishi bilan bu ibora xalqaro ahamiyatga ega boʻlib bordi.”

Dizayn avval narsa va buyumlar olamini estetik va funksional sifatlarini shakllantirish maqsadiga qaratilgan loyihalash faoliyati boʻlsa bugunga kelib inson faoliyatining barcha yoʻnalish va koʻrinishlarini qamrab olib, nufuzli, keng tarqalgan ijodiy faoliyatga aylandi. Narsa va predmetlar, atrof-muhitni loyihalar ekan dizayner ayni paytda inson va uning hayot tarzini ham loyihalaydi.

Dizayn estetikaning ijodiy faoliyat turiga mansub boʻlib, uning maqsadi sanoat mahsulotlari shakli va sifatini baxolash, belgilashdan iborat. Bu xususiyatlar mahsulotning tashqi belgilarini qamrab oladi, shu bilan birgalikda mahsulotni xaridor-istemolchi nuqtai nazarida ham, tayyorlab-etkazib beruvchi nuqtai nazardan bir butunlikka olib keluvchi funksional va strukturaviy aloqadorligini ham oʻz ichiga oladi. Dizayn amaliy sanat sohalarini sanoat olamiga ham tadbqiq etib, mahsulot shaklini faqat mantiqiy tuzilish, maqsadga muvofiq emas balki, hissiyotlarga tasir etishini taminlaydi.

Dizayn jamiyatning ilmiy-texnik va estetik darajasini ham ko'rsatadi. Bu kundalik amaliyotimizda qo'llaydigan mehnat qurollaridan tortib, uy jihozlari-yu, kommunikatsiya vositalari televizor, kompyuterlarda ham namoyon bo'ladi. Insoniyat uchun yaratilgan buyumlar bir-birini to'ldirishi hamda estetik qimmatga ega bo'lishi lozim. Negaki ular insonning jismoniy-biologik, ruhiy-estetik rivojlanishiga xizmat qilmog'i kerak. Bu vazifaning bajarilishi nafaqat dizaynerga, balki istemolchiga ham bog'liq. Istemolchi yoki haridor o'z didiga mos narsani tanlaydi, xarid jarayoni tovarga faol munosabat shakliga aylanadi. Ana shunday munosabatga loyiq bo'lishi uchun tovarning shakli muhim ahamiyatga ega. Avvalo go'zal va sifatli, qulay narsalargina xaridor etiborini qozonadi. SHunda tovarning umumezonga javob beradigan estetik qadriyat sifatida qabul qilinishi ro'y beradi va u ishlab chiqarishning xaridorga, xaridorning esa ishlab chiqarishga estetik tasirini taminlaydi.

Utilitar va estetik qonuniyatlarning birligi, chambarchas aloqasi dizaynning o'ziga xos xususiyatni tashkil etadi. Utilitar xususiyatlar deganda - foydalilik, funksionallik, qulaylik, texnologik tejamlilik va konstruktiv xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Estetik prinsiplar esa go'zallik, nafislik, badiiylik, obrazlilikni o'z ichiga oladi. Bugungi kunda texnika estetikasi mehnat vositalaridan tortib ishlab chiqarish jarayonining moddiy shart-sharoitlarini ham o'z ichiga oladi. U ishlab chiqaruvchining ish faoliyati, mehnat sharoitiga tasir ko'rsatadi, mashina-yu uskunalarni yangilash, yaxshilashdan tortib, ularning ish joylarida estetik muhitni yaratish, ularning ijodkorlik qobiliyatlarini yuzaga chiqarishini taminlashni ham o'z oldiga qo'yadi. Demak inson badiiy-texnik faoliyatning xususiyatlari va qonuniyatlarini ochib berish texnika estetikasining vazifasidir. Dizayn esa dunyoqarashga ham tegishli va umumiy estetik nazariyaning tarkibiga kiradi. Inson hayoti, faoliyati nafaqat tabiiy ehtiyojlarga, balki o'zi tomonidan yaratilgan narsalar olamiga ham bog'liq. Inson o'zini qurshab turgan olamning qanday bo'lishini ko'p hollarda o'zi belgilaydi. Ana shu jarayonning asosida esa zamonaviy amaliyotning muhim ko'rinishi hisoblangan narsalar olamini badiiy loyihalash masalasi yotadi.

Fan-texnikaning taraqqiy etib borishi natijasida badiiy loyihalash ham takomillashib boradi. Dastlabki yaratilgan texnika vositalarini kishilar go'zallik olamiga mutlaqo begona bo'lgan hodisa sifatida idrok etishgan edi. Keyinchalik loyihachilar tomonidan texnikaga nisbatan badiiy yondashuv natijasida u o'zining avvalgi dag'al, qo'pol, noqulay, insonni cho'chitadigan ko'rinishini yo'qotdi. Endilikda texnika o'zining bejirimligi, qulayligi, jozibasi bilan «insoniylama» boshladi. Mazkur holatning rivojlanib borishi bilan birga texnika loyihasiga nisbatan ikki xil munosabat ham shakllanib bordi. Birinchidan, loyihaning asosida texnikaning mexanik faoliyati, uning ishlash jarayoni ko'zda tutilgan bo'lsa, ikkinchidan, uning tashqi ko'rinishiga etibor qaratildi. Keyinchalik mazkur ikki munosabatning uyg'un faoliyati natijasida mashinalashgan ishlabchiqarishning «insoniylashgan» yangi uchinchi olami, zamonaviy ibora bilan aytganda-dizayn yuzaga keldi.

Dizayn go‘zallik bilan hamkorlikda taraqqiy etib boradi. Holbuki, buyumni badiiy loyihalashtirishda uning shakli bilan mazmuni hamohang, mos bo‘lishi kerak. Qisqasi, dizayndagi estetik talab shaxsning moddiy ehtiyoji bilan birga manaviy ehtiyojini ham qondira olgandagina o‘zida go‘zallikni namoyon ettiradi. Mustaqillikdan so‘ng aholi turmush darajasining yuksalayotganligi, estetik madaniyatning takomillashib boryotganini kuzatish mumkin. Bunda dizayn katta rol o‘ynamoqda. Dizayn moddiy ishlab chiqarish muhitini estetik qayta qurish, uning insonning manfaatlari va ehtiyojlariga mos keltirishga xizmat qiladi. Dizaynning zaruriyatga aylanishi esa faqat zamonaviy ilmiy-texnikaning taraqqiyotigagina emas, balki ommaviy ishlab chiqarish va ommaviy madaniyat darajasining yuksakligiga ham bog‘liqdir.

Dizayn estetikasi bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar muallifi N.Abdullaeva dizayn yoki badiiy loyihalash texnika estetikasining tarkibiy qismi ekanligini uqtiradi. Uning fikriga ko‘ra, dizayn texnika estetikasining ijtimoiy-falsafiy mohiyatini, hozirgi davrdagi ahamiyati, sanat bilan o‘zaro aloqadorligi, buyumlar olamining estetik muammolarini o‘rganadi. Dizayn ishlab chiqarishda go‘zallik va foydalilikning uyg‘unligini taqozo etadi. Iqtisodiy, utilitar, texnologik jihatlar bilan birgalikda buyumlarning estetik qimmati ham muhim ahamiyatga ega. Negaki, u insonda manaviy zavq uyg‘otibgina qolmay, moddiy ishlab chiqarish jarayoniga samarali tasir ko‘rsatish xususiyatiga ega.

Dizaynning estetik mohiyati uning sanat bilan aloqadorligida ham namoyon bo‘ladi. Bizga malumki dizaynning sanat bilan hamkorligi o‘ziga xos bo‘lib, bu xususida tadqiqotchilarning fikrlari turlichadir. “Dizayn-abstrakt sanat” (Genrbert Rid), “Dizayn sanat emas” (Gloag, eshford), “istemol predmeti badiiy asar funksiyasini bajarishi mumkin emas, u sanat taqdiri bilan mos kela olmaydi”(T.Maldonado), “dizaynning maqsadi go‘zal shakl va narsalar dunyosini yaratishdan iborat bo‘lib, ular sivilizatsiyamizning chinakam xarakterini ochib berishi lozim” (D.Ponti) deb takidlashgan.

Darhaqiqat, dizayn sohasini aniqlash juda murakkab, ayrim vaqtda ular sanat bilan o‘zaro qorishib ketadi. Har ikkalasi ham ijodiy faoliyat ekanligi, inson manaviy va moddiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilishi, estetik qonuniyatlar asosida vujudga kelishi ularning chambarchas aloqadorligini ko‘rsatadi. Sanatning kelib chiqishi haqida turlicha fikrlar mavjud bo‘lib ularning asosida ikki xil mazmun yotadi. Biri u o‘yin natijasida, ikkinchisi esa mehnat. Sanat o‘yindan kelib chiqqan, chunki unda majburiylik yo‘q, sanat avalo inson manaviy ehtiyoji natijasi degan fikr asos sifatida olinadi. Dizayn sanatni istisno qilmasada bizning nazarimizda mehnat natijasida vujudga keladi. CHunki hunarmand ko‘zga yasaydi, unga ishlov beradi, bezaydi bu uning mehnatining tarkibiy qismi hamdir. U majburiyat bilan bog‘liq, maqsadga yo‘naltirilgan ijtimoiy hodisa va mehnatdan manfaatdorlik mavjud. YUqorida takidlanganidek xalq amaliy sanati haqida gap ketganda bu yanada yaqqolroq namoyon bo‘ladi.

Xalq amaliy sanati

Amaliy sanat turlarining estetik xususiyati shundaki, ular bir vaqtning o'zida ham badiiy, ham amaliy vazifani bajaradi. SHu bois, xalq madaniyati tarixini uning amaliy sanatisiz tasavvur qilish qiyin. O'zbek xalqining ko'p asrlilik tarixida xalq amaliy sanati turlari boy va rang-barang madaniy merosining eng ajoyib va ommaviy qismini tashkil etadi. O'zbek xalq amaliy sanati yodgorliklari o'tmish ajdodlarimiz yaratgan barkamol, takrorlanmas va tarixan bebaho asarlarning namunalari bo'lib, jahon madaniyatining durdonalaridan bo'lgan badiiy va madaniy merosni tashkil etadi.

Xalq amaliy sanati kishilarning manaviy olamini boyitadi, badiiy-estetik didini shakllantiradi, ruhiyatini tarbiyalaydi. Shuning uchun ham ham o'zbek xalqi amaliy sanati kishilarning badiiy, axloqiy, umuminsoni jihatdan tarbiyalab, ularning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda ham madaniy darajasini yuksaltirishda eng zarur manbalardan hisoblanadi. Bu manbalardan bugungi kunda ham usta va hunarmandlar samarali foydalanib keladi.

Xalq amaliy sanatining milliy estetik mazmuni naqqoshlik sanatida yaqqol ko'zga tashlanadi. Naqqoshlik sanati g'oyat boy va mazmundor bo'lib maishiy turmushimizda ishlatiladigan oddiy qoshiq, lagan, sandiq, cholg'u asboblardan tortib turar joy va jamoat binolarining devor hamda shiftlariga solingan naqshlar insonni hayratga soladi, zavqlantiradi. Bino yoki xonadon devoridagi naqshlar turli xil bo'lib ulardan "girix" arabcha "tuguncha" degan manoni anglatgan xandasaviy naqshlar yani to'g'ri to'rtburchak, romb, kavadrat kabi yaxlit kompozitsiyani tashkil qilgan naqshlar va "islom" (arabcha) yuguruvchi manosini anglatib to'g'ri yo'l ichiga ilon izi shaklida chizilgan o'simliksimon naqshlardan iborat bo'lgan. Ular faqat foydali-amaliy ahamiyatga ega bo'lib qolmay, balki xonadon egalarining orzu-umidlari, badiiy-estetik didi va estetik idealining ko'rsatkichi sifatida ham namoyon bo'lgan. Bugun ham zamonaviy turar joylar va binolarni bu naqshlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Bugungi zamonaviy inshootlar kabi turar joylarda amaliy sanatning bir qancha turlarini ko'rish mumkin. Turar-joy binolarining turli-tuman badiiy-texnologik usullarda namoyon etilgan badiiy bezak turlari O'zbekiston memorchiligida muhim o'rin tutadi. CHunonchi, turar-joy dizayni bu milliy ananalarga tayangan noyob ijodiy faoliyat bo'lib, ularning mahorati va badiiy bezatilishning ko'pgina qirralarini ifodalaydi. Turar-joylar intererlaridagi umumiy devorlarning sathi ananaviy kompozitsion bo'linish usullari, intererlarni badiiy-bezakli pardoqlashning asoslariga tayanadi va ko'plab estetik xususiyat kasb etadi. Masalan, binoning tashqi ko'rinishi - tarz (fasad)ga qaraganda uyning intereri ko'p hollarda ko'rkam bezakli bo'ladi. Devorlarning tokchalarga bo'linishi turg'unlik va sokinlik taasurotini yaratsa, devorning barcha sathi naqshinkor bezatiladi, bezakni bajarishda simmetriya, ritm, mutanosiblik qonunlariga rioya qilinishi unga tartiblilik, uyg'unlikni namoyon qiladi. O'yma bezaklar bilan oro berilgan yog'och eshiklar, ustunlar, shift bolorlari, gohida shift ustidan ko'prangli naqshlar, shuningdek naqqoshlik bilan devor sathining barcha qismlari tokchalar, shiftlar karniz va bolorlar ham bezatilishi, deraza darchalari va eshik tabaqalari, ustunlari

devor va intererga berilgan naqshu bezaklar imoratga badiiy tantanvorlik va estetik qiyofa baxsh etadi.

Intererlarning badiiy bezatilishda asosiy ahamiyat devoriy naqqoshlikka qaratilgan bo'lib bu o'zbek xonadonini bezatishda muhim jihatlardan hisoblanadi. Devorda ketma-ket joylashgan naqshinkor va pardozlangan naqshlar yordamida juda ham rang-barang, jozibador kompozitsiyalar yaratiladi. Interer dizaynida devoriy naqqoshlikning bir necha kompozitsion echimlarini kuzatish mumkin. Bu tokchalarga bo'lingan, yalpi naqqoshlik bilan bezatilgan devor sathi va naqshinkor va o'ymali naqshlar ketma-ket joylashgan, rang-barang naqshinkor kompozitsiya. Shift naqqoshligi ham Toshkent intererlarida muhim o'rin tutadi. Ular o'zida konstruktiv va badiiy echimning sintezini namoyon etadi. Ular turar-joylari ayvon va dahlizlarda ham keng qo'llaniladi. Bu amaliy sanat turining gullashi va rivojlanishi, hozirgi davrda shaharda shakllangan qulay iqtisodiy sharoit, innovatsion tasir va amaliy-bezak sanatining ko'p asrlik ananalari bilan bog'liqdir.

YOg'och o'ymakorligi faqat intererning sirtida namoyon bo'lib qolmay turli shakl va kompozitsiyalarda ham aks etadi. Bu interer uchun ishlangan stol, stullar, xontaxaning nafaqat shaklining bejirimligi balki yog'och fakturasining go'zalligi va ularga berilgan ishlov hamda naqshlarning betakror va engilligi kishiga zavq bag'ishlaydi. Toshkent turar joy memorchiligida O'rta Osiyo memorchiligi amaliyotida qo'llanilgan badiiy bezaklarning deyarli barcha turlari mavjud: suvalgan devor ganch naqqoshligi avva o'ymakorligi shular jumlasidandir. Intererning badiiy bezalishida asosiy ahamiyat devoriy naqqoshlikka qaratilgan bo'lib, bu o'zbek xonadonini bezatishda muhim jihatlardan hisoblanadi. Ko'pincha naqqoshlik ganch o'ymakorligi bilan muvofiqlikda bajariladi. Ayniqsa Toshkentda keng tarqalgan o'simlik naqshlari- majnuntol, anor, xrizantema butalarining yoyilgan shoxlarini ko'plab uchratish mumkin. Bu lavhalar faqatgina bezak emas o'z falsafiy manosiga egadir. Masalan majnuntol - sevgi sog'inchi, anor - serhosillik, lola - bahor, gulsafsar - osoyishtalik va uzoq umrni anglatgan. O'zbek xalq amaliy sanatining eng rivojlangan ganchkorlik, naqqoshlik, kandakorlik, zardo'zlik, kigizchilik, kashtachilik kabi bir qancha turlarining o'ziga xos bajarish texnologiyasi, haqiqiy milliy nomlari, ularga xos atamalar, bu sanatlarga xos maktablar yo'qolib ketishi xavfi bor edi. Ammo mustaqillikka erishgach milliy sanatismizning bu sohalariga bo'lgan etibor kuchaydi. Ular tiklanib yangi ananalar paydo bo'la boshladi. Bu esa hozirgi kunda sanatkorlar, xalq ustalari, mualimlar amaliy bezak sirlarini shogirdlariga o'rgatib qolmay bu sanat asarlarini keng targ'ib etib jamoatchilikning estetik didini, madaniy darajasini yanada yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Takrorlash uchun savollar:

1. Tabiatga estetik munosabatning mohiyatini tushuntirib bering.
2. Tabiatni estetik idrok etishning qanday ananaviy usuli mavjud?
3. Ekologik estetikaning qadriyatli maqomi nimadan iborat?
4. Ekoestetikaning falsafiy mohiyatini izohlang.

5. Texnotsivilizatsiyaning ishlab chiqarish estetikasi rivojiga tasirini izohlang?
6. Maishiy turmush estetikasining asosiy kamponentlarini tushuntiring?
7. Zamonaviy turmush tarzining estetik talablarini izohlang?
8. Zamonaviy shaharsozlik qaysi estetik mezonlarga asoslanadi?
9. Dizaynning estetik xususiyatlarini tushuntirib bering.
10. O'zbek xalq amaliy sanatining estetik xususiyatlari sanatning qaysi turida ko'proq namoyon bo'ladi?

18-MAVZU. ESTETIKANING ZAMONAVIY MUAMMOLARI

Estetik tarbiya va uning vositalari, yo'nalishlari, vazifalari

Tarbiya masalasi barcha ijtimoiy-gumanitar fanlar tadqiqot obektining muayyan qismini tashkil etadi. Bu xususiyat estetikaga ham xos. Biroq, tarbiyaning boshqa shakllaridan farqli o'laroq, estetik tarbiya insonning doimiy hamrohi, yani uning tug'ilishidan toki umrining oxiriga qadar ehtiyoj sezib yashaydigan tarbiya shaklidir. Inson o'zining estetik tarbiyasini takomillashtirmay turib, hayotini to'laqonli yo'lga qo'yishi mumkin emas. CHunonchi, hayotning go'zalliklarini his etish va undan bahramand bo'lish ham insonning estetik jihatdan qanday tarbiya ko'rganligiga bog'liq.

Estetik tarbiya o'z-o'zidan paydo bo'lib, rivojlanadigan «mikroorganizm» emas va ayni paytda birdan to'xtab qoladigan «mexanizm» ham emas. U sekin-asta inson tomonidan orttirilgan hayotiy tajribalar, ko'nikmalar, bilimlar orqali shakllanib boradi. Tarbiyaning bu shakli ijtimoiy jarayonlarda ishtirok etar ekan, o'z navbatida, kishilarga jamiyatda olib borilayotgan ijobiy ishlardan zavqlanish, demokratik munosabatlarga nisbatan qiziqish tuyg'usini uyg'otishni asosiy maqsadlari sirasiga kiritadi. Bundan tashqari, estetik tarbiya insonni yangiliklar yaratishga undabgina qolmay, ayni paytda uni nafosat tamoyillari, go'zallik talablari asosida rivojlantirishga o'rgatadi ham. Negaki, inson olamga estetik jihatdan boy dunyoqarashga ega bo'lgan, estetik tuyg'usi va estetik didi tarbiyalangan xolda kelmaydi. Bu ko'nikmalar inson tomonidan voqelikni kuzatish, o'rganish va ulardan tegishli xulosalar chiqarishi natijasida shakllanadi. Inson ana shu tuyg'ular tasirida o'zi uchun mutlaqo yangi bo'lgan olamni kashf etadi.

Estetik tarbiya manaviyatning aniq maqsadlarga yo'naltirilgan faoliyati sifatida ish olib boradi. SHuningdek, ayrim kishilarning yohud biror-bir guruhning turli xil faoliyatlari natijasida yuzaga kelishi mumkin. Estetik tarbiya mohiyatan insoniy ideali bilan bog'liq bo'lib, bu ideal nafis didga, pokiza tuyg'ularga egaligi bilan ajralib turadi.

Malumki, shaxs ijtimoiy jarayonlarda bevosita yoki bilvosita ishtirok etadi. SHaxs bu bilan ijtimoiy taraqqiyotning estetik subektiga aylanadi. SHu bois jamiyatda yashayotgan biror-bir shaxs estetik jarayonlardan chetda turmaydi, aksincha, o'zining muayyan xatti-harakati bilan mazkur jarayonlarga u yoki bu darajada tasir ko'rsatadi. Estetik tarbiyaning maqsadi ana shunday tasirlarni go'zallik mezonlari asosida ongli yo'naltirishdan iborat.

Estetik tarbiya badiiy tarbiya bilan aloqador bo‘ladi. Biroq, bu “estetik tarbiya badiiy tarbiya bilan bir xil mano kasb etadi”, degani emas. Chunki, badiiy tarbiya badiiy ijod jarayonining inson tomonidan estetik tarzda anglash va o‘zlashtirishning bir qismi, xolos. Estetik tarbiya esa jamiyatda manaviy muhitni paydo qilishga ko‘mak beruvchi muhim faoliyat turi bo‘lib, u inson didini shakllantirish va rivojlantirish asosida insonni jamiyat munosabatlariga yaqinlashtiruvchi kuchdir.

Estetik tarbiya insonda bunyodkorlik va yaratuvchanlikdan zavqlanish, qiziqish tuyg‘usini uyg‘otishni nazarda tutadi. U insonni yangilik va zamonaviylikka undaydi, faoliyatni nafosat tamoyillari, go‘zallik talablari asosida rivojlantirishga o‘rgatadi. SHu bois bugungi kunda estetik tarbiyaning bosh maqsadi - shaxsni har tomonlama kamol toptirish, uning estetik didi va estetik dunyoqarashini boyitishdan iboratdir. Ushbu maqsadlardan kelib chiqqan xolda quyidagilar estetik tarbiyaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

Estetik tarbiyaning tadqiqot obekti kengayib borishi qator muhim vazifalarni amalga oshirishni talab etadi. YAni:

- inson sanatni faol o‘zlashtiruvchi subektgina emas, balki sanatning estetik mohiyatini anglovchi va baxolovchi subekt sifatida yondashish;

- ijodiy imkoniyatlarni namoyon qilishi va undan samarali foydalanishga ishonch tuyg‘usini uyg‘otish;

- ijodning barcha turlarini taraqqiy ettirishning samarali targ‘ibotini yo‘lga qo‘yish.

- shaxsni hayotni oqilona, teran xis etadigan, turmush tarzini bunyodkorlik asosida tashkil etishga intilgan yangi kishini shakllantirish;

- yosh avlodda sanat asarlari va badiiy ijod namunalarini faol o‘zlashtirish, ularning estetik mohiyatini anglash va baholash qobiliyatini takomillashtirish;

estetik tuyg‘u va estetik didning insonning barcha faoliyatlarida ustuvor bo‘lishini tamin etish.

Estetik tarbiyaning vazifalari estetik tuyg‘u va estetik didning insonning barcha faoliyatlarida ustuvor bo‘lishini taminlash bilan belgilanadi. Bu vazifalar ijtimoiy-manaviy munosabatlarga, inson salohiyati va imkoniyatlariga singdirilsagina maqsadga erishadi.

Ko‘rinib turibdiki, estetik tarbiyani qaror toptirish jamiyatning birdan bir maqsadi emas. Estetik tarbiyaning vazifasi nafaqat yuksak estetik did, estetik ideal va estetik tuyg‘ularga ega bo‘lgan insonlarni yaratish, balki ularni jamiyat hayotida, turmush nafosatida, mehnat faoliyatida, shuningdek ahloqiy munosabatlarda go‘zallik va ulug‘vorlikni xis qiladigan va yarata oladigan insonlarni shakllantirishdan iboratdir.

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin, fuqarolik jamiyatini qurish jarayonida insonning amaliy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan barcha sohalarida estetik tarbiyaga bo‘lgan ehtiyoj yanada ortadi. Ayniqsa, ishlab chiqarish munosabatlari o‘zgarayotgan, axborot kommunikatsiya texnologiyasi va Internetning insonlarga tobora yaqinlashuvi, xizmat ko‘rsatishning yangidan-yangi turlari shakllanayotgan hamda inson ongini egallash uchun olib borilayotgan ko‘rash jarayonida estetik tarbiya masalalari kun tartibining dolzarb masalalariga aylanmoqda. Malumki, shaxs

ijtimoiy taraqqiyotning turli jabhalarida bevosita va bilvosita ishtirok etadi va bu jarayonda ijtimoiy taraqqiyotning estetik subektiga aylanadi. Biror-bir shaxs jamiyat ijtimoiy jarayonlaridan chetda turmaydi, aksincha, o'zining xatti-harakati bilan bu jarayonlarga muayyan darajada tasir ko'rsatishga harakat qiladi. Estetik tarbiya ana shu tasirlarni go'zallik va ulug'vorlik asosida yo'naltirishga xizmat qiladi.

Estetik tarbiyani shakllantiruvchi, yo'naltiruvchi hamda tartibga soluvchi vositalar mavjud bo'lib, ular yillar davomida xalqimiz tajribasidan o'tgan, xalq turmush tarzining asosiy mezoniga aylangan. Sanat, mehnat, sport, matbuot, muhit kabi ananaviy vositalar shular jumlasidandir. Ular orasida sanat eng tasirchan estetik tarbiya vositasi hisoblanadi.

Sanat mohiyatan shaxsning xis-tuyg'ulariga tasir ko'rsatishga qodir bo'lgan muhim jarayon hisoblanadi. Shuning barobarida, u insonni doimo o'ziga jalb etib kelgan. Sanat insonning ehtiroslar va tuyg'ular olamiga singib borib ularni yig'latadi, kuldiradi, o'ylashga majbur qiladi. Shuning uchun bo'lsa kerak sanat barcha davrlarda insonga hamroh bo'lib kelgan. Sanatni "bir narsani yaxshi ishlab chiqarishdan iboratdir", - deb bilgan taniqli jadid mutafakkiri Abdurauf Fitrat sanat va uning insonga ko'rsatajakk tasiri to'g'risida mulohaza yuritib, shunday degan edi; "Buyuk bir shodlik ko'rgan kishi o'zining shod tuyg'ularini boshqalarga bildirib, shodligini orttiradir. Ulug' bir qayg'uga uchragan esa, o'z dardini boshqalarg'a o'tkarib, o'zini ovuntirg'an bo'ladir. Miyasi yuksalmagan bolalar, sanatsiz kishilar shodli-qayg'uli tuyg'ularini sakrab, o'ynab, kulib, yig'lab, talpinib jonlantiradilar, ochiqqa chiqarib boshqalarg'a anglatadilar, shu yo'l bilan ovuntirilgan bo'ladilar, sanat egalari esa turli tovar (material)lar yordami bilan o'zlarining tuyg'ularini jonlantirib maydonga chiqaradir. SHu yo'lda boshqalarni o'z tuyg'ulari bilan tuyg'ulantirishga tirishadir".

Sanatning estetik tarbiya vositasi sifatidagi ahamiyati shu bilan belgilanadiki, estetik tarbiya faqat va faqat insonga xos bo'lib, u inson orqali voqelikka aylanadi. Sanat tasvir vositalari orqali insonning idellari va orzu-umidlarini ranglarda, oxanglarda, badiiy obrazlarda aks ettiradi, insoniyatning fazilat va illatlarini chiroyli qiyofalar bilan uning o'ziga namoyish qiladi. Bu bilan sanat o'ziga insonni jalb etadi, uning qiziqishini orttiradi. Natijada inson sanatning muxlisiga, tomoshabiniga aylanadi. Agar inson o'zining estetik tuyg'ularini maqsadli, ijobiy tomonga yo'naltira olgan bo'lsa, chinakam sanat uning kelajakdagi buyuk ishlariga rahnamolik qiladi. Aksincha, estetik tuyg'usi va estetik didi tarbiyalanmagan kishi sanatning buyuk imkoniyatlaridan mosuvo bo'lib qolaveradi. Biroq, sanat u yoki bu ko'rinishda tobora insonga yaqinlashib boraveradi. Zero, haqiqiy sanat asarlari insonni doimo yuksaklikka, bunyodkorlikka undab kelgan estetik tarbiya vositasidir.

SHaxsning estetik tarbiyasini sanat vositasida amalga oshirishning afzal tomonini ikki xususiyat ko'ra ifodalash mumkin. Birinchidan, sanat ijtimoiy anglashning boshqa shakllariga qaraganda insonga birmuncha yaqinroq hamda tezroq tasir ko'rsata olish imkoniga ega. Ikkinchidan, sanat insonni estetik jihatdan kamolotga etkazish jarayoniga muayyan mafko'raviy mazmun bag'ishlashi bilan birga inson manaviy qadriyatlarini ro'yobga chiqarishda yaqindan yordam ko'rsatadi.

Sanat o‘zining estetik bisotini to‘laligicha namoyon qilishi uchun ham tarbiya jarayoni bilan chambarchas bog‘lanadi. Manaviy jarayonlarni inson tomonidan anglanishi shaxs estetik didining qay tariqa shakllanganligi bilan belgilanadi. CHunki, inson estetik didi uning go‘zallikdan xunuklikni, ulug‘vorlikdan tubanlikni, fojeaviylikdan kulgulilikni ajrata olish qobiliyatlariga qarab baholanadi. Did yordamida odamlar hayotiy faoliyatlarini shakllantirishga harakat qiladilar. SHunga ko‘ra, insonning didsizligini fojea deb bilish yaramaydi; didsizlik bu tariqa fojeaga aylanmaydi. Didsizlik fojeaga aylanishi mumkin qachonki, biror-bir shaxsning past darajadagi didi boshqa bir yuksak didli shaxsning didiga hukmronlik qilsa va uni o‘z izmiga bo‘ysundirishga harakat qilsagina did fojea tusini oladi. Bunday holat o‘z navbatida hayot go‘zalliklaridan bahramand bo‘lishga monelik ko‘rsatadi. Sanat ana shunday fojealarning oldini olishda insonga ko‘mak beradi.

Estetik tarbiyaning barcha vositalari shaxsning voqelikka estetik munosabatini ravnaq toptirishga xizmat qiladigan tarbiyaviy faoliyat bo‘lib, u o‘ziga xos tasirchanlik, tug‘yoniylik kuchiga ega. Busiz inson bilish ko‘lamining vujudga kelishi mumkin emas. SHuningdek, inson badiiy tafakkur qilish qobiliyatini o‘stirish ayni paytda estetik tarbiya vositalarining muhim vazifasi sanaladi. SHunga ko‘ra, estetik tarbiya vositalari ikki xil xususiyati bilan ajralib turadi. Birinchidan, ular voqelikda sodir bo‘layotgan hodisalar to‘g‘risidagi malumotlarni insonga tushunarli tarzda etkazib beradi. Ikkinchidan, zamonaviy fanlarning estetik hususiyatlarni hissiy idrok qilishning faol, tajribalar asosida etkazib berishi bilan diqqatga sazovordir.

Insonni estetik jihatdan tarbiyalash favqulodda murakkab va serqirra jarayon bo‘lib, amalga oshiriladigan islohotlar ham mazkur jarayonni takomillashtirishni nazarda tutadi. Estetik tarbiyani takomillashtirish va uni zamon talablariga moslashtirish estetik madaniyat shaxs – jamiyat – shaxs tizimida mavjud bo‘lib, bunda shaxs madaniyati ustuvor ahamiyatga ega. yani, estetiklashgan shaxs jamiyatni estetiklashtiradi, estetiklashgan jamiyat esa, o‘z navbatida yangi darajadagi estetiklashgan shaxsni yaratadi va shu tartibdagi o‘zaro tasir millatning qadam-baqadam komillik darajasiga ko‘tarilishi uchun xizmat qiladi.

Hozirgi paytda milliy manaviyatga tasir o‘tkazuvchi tashqi tahdidlar ayni paytda estetik tarbiya jarayoniga ham sezilarli tasir ko‘rsatmoqda. Bu esa ijtimoiy-manaviy munosabatlar tizimida estetik tarbiyani maqsadli yo‘naltirishni taqazo etadi.

Tarbiyada estetik talim va estetik bilimning zaruriyati

Inson qalbiga yo‘l avvalo talim va tarbiyadan boshlanadi. Ilmning hikmati va fazilatiga doir alloma vatandoshimiz Muhammad Imomzoda al-CHO‘g‘iy (vafoti 1177)ning qarashlari ham diqqatga sazovor. Uning “SHirat al-islom – Islom yo‘li” nomli kitobida ilm olish odoblari va fazilatlariga doir ko‘plab malumotlarni muayyan axloqiy tizimga solgan. Qizig‘i shundaki, u shariy bo‘lmagan ilmlarni ikki qismga - maqtalgan va yomonlangan turlarga bo‘ladi. Dunyoni obod qilish uchun zarur bo‘lgan bilimlar – tibbiyot, hisob-kitob, dehqonchilik, to‘quvchilik kabi hunarlar hatto qon olishni bilishni maqtalgan va o‘rganish kerak bo‘ladigan ilmlar

sirasiga kiritadi, bu bilimlar sababli insoniyat boqiy qoladi, deydi. Ayni paytda, riyoziyotga chuqur kirishish, uning eng nozik jihatlarini ham tadqiq va tahlil etishga urinishni fazilat hisoblaydi. Yomonlangan bilimlarga esa – sehr-jodu va har xil tilsimlar, folbinlik bilan shug‘ullanishni kiritadi. Muboh, yani ihtiyoriy bilimlarga sheriyat va tarix kiradi. Biroq, falsafani bazi joylarda va bazi hollatlarda kerak bo‘ladigan fan, uni shunday zarurat holati uchun o‘rganish kerak. Aks holda, u yomonlangan fan sohasidir, deydi.

Allomaning ilm haqidagi fikrlari ijtimoiy-manaviy jihatdan yuksak ahamiyat kasb etadi. U ilmga hiyonat qilishni o‘zgalarning moliga hiyonat qilishdan og‘irroq deb biladi. SHuni alohida takidlash zarurki, al-CHO‘g‘iy ilm oluvchining zimmasiga ham bir qator axloqiy masuliyatni yuklaydi. CHunonchi, chala eshitgan narsasini oshkor qilmasligi, aniq ishonch qilmagan bilimni odamlar orasida gapirmasligi va atrofga yoymasligi zarurligini uqtiradi.

Tarbiyada estetik talim va bilimning zarur ijtimoiy talab hisoblanadi. BMTning ming yillik sammitida keltirilgan quyidagi malumotlari mushohada va mulohaza uchun asos bo‘ladi. Malumotlarga ko‘ra, 2001-2002 o‘quv yilida dunyo bo‘yicha 115 million bola yoki boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalarning 18 foizi maktabga bormagan. Bularning 61,3 millioni qizlar (53 foizi), 45 millioni (39%) Afrika Saxarasidagilar va 42 millioni (36%) Janubiy Osiyodagi bolalardan iboratdir. Maktabni qoldirish ehtimoli katta bo‘lgan bolalar G‘arbiy va Markaziy Afrikadagi (45,3%), Sharqiy va Janubiy Afrikadagi (38,5%) Janubiy Osiyodagi (26%) hamda YAqin Sharq va SHimoliy Afrikadagi (18,7%) bolalar bo‘ldi. Mazkur mintaqalarning barchasida o‘g‘il bolalardan ko‘ra qiz bolalar ko‘proq maktabga bormasligi kuzatilgan. O‘g‘il va qiz bolalar o‘rtasidagi eng katta farq YAqin Sharq va SHimoliy Afrikada kuzatilgan. Mazkur mintaqada o‘g‘il bolalarning 15,4 foizi, maktabni qoldirgan bo‘lsa, bu xolat qizlarning 22,1 foizida kuzatilgan.

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish axloqiy, estetik va mantiqiy tafakkurni yangilash va boyitishni taqozo etadi. Xususan, davlat xizmatchilarining kasbiy tayyorgarligini axloqiy va estetik madaniyatdan, mantiqiy tafakkur va mushohadadan ayri holda tasavvur qilib bo‘lmaydi. Bu maqsadga erishish uchun bo‘lajak mutaxassis yoki davlat xizmatchisi avvalo axloqiy ko‘nikma, estetik bilim va mantiqiy mushohadaga ega bo‘lishi zarur. Qolaversa, estetika fani doirasida o‘zlashtiriladigan bilimlar umuman Sharqliklarga, xususan xalqimizga begona emas. Zero, bu ilmsiz o‘zbek xalqi tafakkuri, dunyoqarashi, qadriyati, madaniyati, bir so‘z bilan aytganda, uning buyukligini anglash mumkin emas.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning “3.3.1. Uzluksiz talimni tashkil etish hamda rivojlantirish prinsiplari”da talimning ijtimoiylashuvi – talim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish”ga bog‘liq ekanligi bundan buyon odamlar tafakkurini o‘zgartirish estetik tarbiyadan ayri holda amalga oshmaydigan jarayon ekanligidan dalolat beradi. Bugungi kunga kelib g‘oyaviy tahdidlarga qarshi kurash aynan estetik bilimni taqazo etmoqda. SHu bois avlodni estetik tarbiya asosida voyaga etkazish doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan. Hozirda estetik bilimlar

doirasi shu qadar kengayib bormoqdaki, u deyarli barcha sohalarda masalan, sogʻliqni saqlash tizimida – tibbiyot estetikasi, ekologiya sohasida – ekologik estetika, texnikaviy taraqqiyot sohasida – texnika estetikasi (dizayn)ning yuzaga kelgani shular jumlasidandir. SHu bilan bir qatorda, jamiyat manaviy hayotini yuksaltirish ham estetika fani oldiga qator vazifalarni qoʻymoqda. Estetika fani insonning kundalik hayotiga gʻoyatda yaqin. CHunki, erkin, demokratik jamiyatimizning har bir azosi goʻzallikni chuqur his etadigan, uni asraydigan nafis did egalari boʻlishlari, haqiqiy badiiy asar bilan saviyasi past asarni farqlashlari, «ommaviy madaniyat»ning gʻayriestetik xususiyatlarini rad qila olishlari lozim. Buning uchun esa talim tizimida estetika faniga boʻlgan hozirgi munosabatni tubdan oʻzgartirish zarur. CHunki, jahondagi nufuzli oliy talim muassasalarida estetika fanini oʻqitish masalasiga jiddiy etibor qaratiladi. Birgina Garvard Universitetida (AQSH) estetika boʻyicha 3 ta markaz, 18 ta yoʻnalishda (bu yoʻnalishda estetika sohasiga doir 46 ta fan oʻqitiladi) ilmiy tadqiqot hamda talimiy ishlar olib borilayotganligi, Oksford Universitetida (Angliya) esa “Estetika” fakulteti mavjudligi va unda shu sohaga doir 66 ta fan oʻqitilishi estetik bilimlarga boʻlgan etibor katta ekanligidan dalolat beradi. SHu manoda, faylasuf olim Abdurahim erkaevning “YOshlarni kitob oʻqishga oʻrgatmoq mumtoz va zamonaviy yuksak sanat asarlariga qiziqtirmoq, estetik va axlokiy tarbiya saviyasini koʻtarmok kerak. Manaviy tarbiyaning asosini tashkil qiluvchi etika va estetika fanlarini oʻqitishni oliy oʻquv yurtlarida qayta tiklash maqsadga muvofiq. Aks holda talim va kadrlar tayyorlash tizimida tarbiya jarayoni qashshoqlashib, biryozlamalik avj oladi. Boʻlajak mutaxassis texnokrat, oʻqituvchi va tarbiyachi nasihatguy safsataboz boʻlib etishadi”, degan fikri gʻoyatda ahamiyatlidir. Bugungi kunda odamlarga, ayniqsa yoshlarga “huzur-halovat va lazzat manbai” sifatida taqdim etilayotgan malumotlarning aksariyati horijiy ommaviy-axborot vositalari hamda Internet tarmoqlaridagi turli xil saytlar hisobiga toʻgʻri kelmoqda. Keyingi paytlarda fetishestetika (engil-elpi, yaltiroq estetika), “ommaviy madaniyat”ning inson maishiy turmushi bilan bogʻliq saytlari shunchalik koʻpayib ketdiki, ular yoshlarning estetik didini pasaytirishga va estetik dunyoqarashini toʻposlashtirishga olib kelayotganligi bugungi kunda ochiq-oydin namoyon boʻlib qolmoqda. YOshlar tarbiyasiga bunday gʻayriestetik gʻoyalarning tahdid va uning salbiy oqibatlarini tushuntirib beradigan ilmiy nazariy asos aynan estetik bilimni yuksaltirish orqali amalga oshadi.

Estetik bilimning hozirgi kunda umumjahoniy global muammolarni hal qilishdek muhim vazifasi ham borki, ular orasida eng dolzarbi sayyoramizda nafosatga asoslangan estetosfera muhitini yaratish bilan bogʻliq. CHunki texnogensivilizatsiya davrida texnika, texnologiya, umuman noosfera insonning yashash muhitiga aylanib qolgan. Binobarin, insoniyatning tabiiy ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlari kengayib borayotgan bir davrda ularning estetik muhitga ehtiyojlari ortib bormoqda. SHuni ham takidlash lozimki, hozirgi kunda Internetdan foydalanuvchilar soni kam boʻlsada, global tarmoqda ishlash yoshlar tomonidan juda qisqa fursatlarda oʻzlashtirilib olinmoqda. Biroq, yoshlarning qaysi veb saytlardan foydalanishi gʻoyaviy tarbiya masalasida katta ahamiyatga ega. Bu

borada belgiyalik professor Frenk Tevisson tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, Evropa mamlakatlarida 90 foiz talabalar Internetdan foydalanishar ekan. Ammo, ularning qaysi saytdan foydalanishlarini o'rganilganda, atigi 10 foiz talaba bevosita o'quv jarayoniga taalluqli saytlarga, 90 foizi esa, asosan pornografik mazmundagi saytlarga kirishni xush ko'rishi malum bo'lgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy talimni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarorida "oliy talimning manaviy-axloqiy mazmunini oshirish, talaba-yoshlarga mustaqillik g'oyalari, yuksak manaviyat va insoniylikning milliy ananalariga sodiqlik ruhini chuqur singdirish, ularda yot g'oya va mafkuralarga nisbatan immunitet va tanqidiy tafakkurni mustahkamlash bo'yicha keng ko'lamli marifiy va tarbiyaviy ishlarni olib borish" muhim vazifalar etib belgilab berildi. Mazkur vazifalarni talim muassasalarida to'laqonli va oqilona bajarilishi avvalo, estetika fanining ilmiy va talimiy asoslarini yanada mustahkamlashni nazarda tutadi. Bunda estetika fanini o'qitishni takomillashtirish, fanning mazmunini dolzarb mavzular bilan boyitish, talim bilan tarbiyaning uzviyligini taminlash hamda estetika talimi sifatini yuksaltirish dolzarb ahamiyatga ega. Bundan tashqari, estetika fanining tarbiya jarayonidagi o'rni ayniqsa, oliy talim muassasalarida estetik tarbiyaning to'g'ri yo'naltirilishi "talaba + mutaxassis = ziyoli" ko'rinishning tarbiyaviy maqsadi va asosini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu turli tahdidlarning doirasi kengayib borayotgan, "ommaviy madaniyat"ning g'ayriestetik ko'rinishi tez o'zgarib inson tafakkuriga salbiy tasiri kuchayib borayotgan hozirgi globallashuv davrida estetika faniga bo'lgan talimiy, tarbiyaviy ehtiyojni yanada kuchaytiradi.

YUrtimizda har bir yil qay nomda nomlanmasin, unda davlatimiz va jamiyatimiz taraqqiyoti bilan bevosita bog'liq bo'lgan, kengqamrovli maqsadlarni amalga oshirishda hal qiluvchi o'rin tutadigan reja va vazifalar hisobga olinadi. O'tgan 2017 yilda ham mamlakatimiz iqtisodiy siyosatida noreal raqamlar ortidan quvish, amalga oshmaydigan xomxayollarni haqiqat sifatida taqdim etishdek nomaqul ish uslubi tanqidiy qayta ko'rib chiqildi. Amaliy natijadorlik, inson manfaati va yana bir bor inson manfaati islohotlarning bosh maqsadi etib belgilandi. Joriy 2018 yil "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili"da ham barcha amalga oshiriladigan ishlarning markazida bilim, marifat ustuvor bo'lishi zarurligi ko'rsatib o'tildi. Bu haqda mamlakatimiz Prezidenti SH.M.Mirziyoev "Biz diniy jaholatga, zararli oqimlarga qarshi marifat bilan kurashish kerakligi haqida ko'p gapiramiz. Bu to'g'ri, albatta. Lekin marifat, marifiy bilimlar qaerda – avvalo ota-bobolarimiz bizga qoldirib ketgan mana shunday mo'tabar kitoblarda emasmi? Bizning ushbu yo'nalishdagi barcha amaliy harakatlarimiz aynan mana shunday ezgu maqsadga qaratilgan bo'lib, nafaqat mamlakatimiz va musulmon dunyosida, balki jahon miqyosida ham katta qiziqish va etibor uyg'otmoqda. Ana shunday bebaho boylikka, minglab bilimdon ulamolar, faol ziyolilarga ega bo'lgan, bu sohada katta tashabbuslar bilan chiqayotgan xalq va davlat sifatida yurtimizdan qandaydir aqidaparast, diniy oqimlarga berilgan kimsalarning chiqishi albatta bizga yarashmaydi" – degan to'g'ri talabni qo'ydi.

Mehnat-turmush estetikasining muhim omili

Mehnat moddiy va manaviy go'zalliklar yaratish bilan estetik tarbiyaning muhim vositasi hisoblanadi. Bu jarayon ijtimoiy-foydali mehnatning badiiylik bilan aloqasi tasirida vujudga keladi. Mazkur munosabat pirovardida mehnat vositalarining insonga keltiradigan zararini kamaytiradi. qolaversa, mehnatga ijodiy yondashuv jamiyat manaviy qiyofasini belgilovchi omil hisoblanadi.

O'zbekistonda barpo etilayotgan jamiyatning iqtisodiy asosi - ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotidir. Ushbu jarayonda eng muhim va dolzarb vazifa insonlarda mehnatga bo'lgan yangicha estetik munosabatni shakllantirishdan iborat. Tashabbuskorlik va tadbirkorlikni rag'batlantirish, odamlarda mulkka egalik xissiyotini tarbiyalash o'z navbatida mehnatga bo'lgan estetik munosabat orqali ro'yobga chiqadi.

Mehnat - insonning aqliy yoki jismoniy kuchi bilan amalga oshiriladigan estetik faoliyat. U manaviy va moddiy jihatdan odamzot hayotini farovonlashtirish, manaviy hamda moddiy qadriyatlarni yaratish vositasi. Mehnatda inson ayni paytda ham aqliy, ham jismoniy tomondan tarbiyalanib, manaviy yuksalib boradi. Biroq mehnat og'ir majburiyatga aylangan joyda uning bu xususiyatlari yo'qoladi. SHu sababli mehnat har jihatdan yuksak samara borishi uchun erkin bo'lishi, mehnat jarayoni ijodiy va qiziqarli kechishi lozim. Agar mehnat erkin va ijodiy bo'lsa ko'plab yuksak asarlar, mukammal mahsulotlar yaratiladi. Va aksincha, mehnat asarlari xunuk bo'lsa insonning mehnat qilish zavqi va baxtidan mosuvo ekanligi, bu esa ular yashayotgan jamiyatning manaviy qashshoqligini ko'rsatadi.

Mehnat - mehnat sharoiti, mehnat jarayoni va mehnat natijalaridan iborat. Mehnat sharoiti yoki muhiti ishchi mehnat qilayotgan korxonada binosi, arxitekturasi, dizayni, yorug'ligi, havo muhiti, shovqin, undagi mikroiklim omillari harorat, nisbiy namlik, atmosfera bosimi, o'zaro ishchan vaziyat, axloqiy-estetik muhitni ham qamrab oladi. Mehnat jarayoni esa insonning ishlab chiqarish vositalari, ularni boshqarishi, ishlab chiqarish vaziyatidan iborat. Mehnat natijalari yaratilajak, yaratilgan mahsulot-tovarlardir. Bu uchchalasi o'zaro bog'liq bo'lib mehnat muhiti ijobiyligi, mehnat jarayonini inson uchun mashaqqatli, sog'ligiga ziyon etkazadigan, toliqtiradigan emas, aksincha zavqli va qulay bo'lishiga, mehnat jarayonining ijobiyligi esa mahsulot-tovarlarning sifati, estetikasi, qulayligi, uyg'unligi bilan belgilanadi.

Mehnat estetikasi deganda mehnat sharoiti, mehnat vositalari, mehnat natijalarida estetik qonuniyatlarning namoyon bo'lishi tushuniladi. Mehnatning estetik jihatlari shaxsning ijodiy faoliyat potentsiali uning manaviy, aqliy, axloqiy-estetik tomonlari bilan umumiylik va mehnat natijalaridan beg'araz lazzatlanishiga bog'liqdir. Mehnatning estetik jihatdan to'laqonli bo'lishi uchun avvalo obektiv omillar, ishlab chiqarish jarayoniga ham bog'liq. Albatta bu o'rinda mehnatkashlarning madaniyati, estetik didi masalalari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mehnat ko'rinishidan qat'iy nazar texnika taraqqiyotiga bog'liq. Ibtidoiy davrdan boshlab bugungi eng yangi ilg'or texnologiya shakllanganigacha mehnat vositalari bir necha bor o'zgardi, davrdan davrga takomillashib bordi. Bu albatta

mehnat estetikasiga ham ijobiy tasir ko'rsatadi. Oddiygina kompyuter texnologiyasini oladigan bo'lsak, u hisob-kitob bilan shug'ullanuvchi kasb egalaridan tortib, yozuvchi-ijodkorlar mehnatini engillashtiribgina qolmay ular vaqtining tejalishi, vaqtdan unumli foydalanish imkonini yaratdi. Bugun fermer va dehqonlarimiz ham zamonaviy texnika orqali erga ishlov bermoqda.

Texnika taraqqiyoti ishchini og'ir jismoniy mehnatdan xalos etgani bilan birga uning ruhiy-axloqiy masuliyatini kuchaytiradi, yani zamonaviy texnologiyani boshqarish, uni asrash insondan hushyorlik, axloqiy masuliyat talab etadi. Jismoniy mehnat texnika zimmasiga o'tgani sari, uning ijodiy tabiati ortib boradi.

Ishlab chiqarish jarayonida qatnashayotgan har bir inson o'z mehnatidan moddiy va manaviy manfaatdor bo'lsagina, bu mehnat estetik tarbiya omiliga aylanadi. Mehnat inson iqtidori, xayolotini yuzaga chiqaradi, funksional jihatlari bilan estetik madaniyat, estetik faoliyatning shakli, mazmuni, hajmi, natijalarini belgilaydi. Inson hayotining turli soha va yo'nalishlaridagi estetik munosabatlar estetik madaniyatning o'zini namoyon etadigan maydoni sanaladi. Bu avvalo, inson hayotiy faoliyatining asosiy nuqtasi bo'lgan mehnatga taalluqlidir.

Mehnat qurollari va kundalik turmush buyumlarining funksional- texnologik qiymati hamda estetik belgilari va loyihalalanishiga qarab kundalik turmush bilan bog'liq buyum-jihozlar va ikkilamchi yaratishga mo'ljallangan mehnat qurollariga bo'linadi. Ammo bugungi kunda insonning ijtimoiy faoliyati hisoblangan mehnat turlarini jismoniy va aqliyga ajratish har doim ham to'g'ri emas. Chunki mehnat jarayonida bugun ikkalasi uzviy bog'lanib bormoqda. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ishlab chiqarishning mislsiz taraqqiyoti natijasida bu ikki faoliyat bir-birini taqozo etib bormoqda

Mehnat sharoitlari va vositalariga estetik mazmun baxsh etish insonni estetik kamol toptirish bilan birga, uning foydali amaliy vazifalarini ham kengroq doirada bajarishga safarbar qiladi. Natijada estetik mazmun mehnat unumdorligini, samaradorligini va sifatini oshirishning muhim omiliga aylanadi. Mehnat insonning hayotiy ehtiyoji, uning turmush estetikasini shakllantiruvchi vosita hamdir. Mehnat estetikasining shakllanishida ishlab chiqarish vositalarining zamonaviyligidan tashqari, mehnat kollektividagi o'zaro axloqiy-estetik muhitning ham o'rni bor. Negaki ahil jamoa, o'zaro axloqiy-estetik munosabat ish jarayonining sifati va natijasi estetikasiga ijobiy tasir ko'rsatadi. Har bir buyum o'z davrining, shu davrda yashagan inson mehnatining mahsulidir. Bu buyumlar o'z zamonasining texnikasi, materiali, odamlar didi bilan chambarchas bog'liqdir. SHu jihatdan ham biz ushbu narsa va buyumlarga qarab u davr manaviy-moddiy madaniyati, xalq ehtiyoji, didi haqida malumot olamiz.

Mehnat jarayonida estetik hissiyotning shakllanishi sifat jihatdan insoniyat olami bilan hayvonot dunyosi o'rtasidagi tafovutlarni farqlashda muhim omil bo'lib xizmat qilgan. Tabiiyki, insonning mehnat jarayoni o'ta rang-barangdir. SHu bois uning estetik mohiyatini bir xilda belgilab bo'lmaydi. Mehnat estetikasi inson manaviyatini yuksaltirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu mehnat jarayoni insonning intilish, xatti-harakat, muayyan amallarni ado etish oqibatida yuz beradi. O'z mehnati muvaffaqiyatidan manfaatdor inson amallarni mukammal bajarishga

intiladi. Mehnat jarayonida yuzaga keladigan estetik zavq uning teran, botiniy mohiyatini anglash, ijodkorlik, bunyodkorlik ruhi bilan bog'langan bo'ladi. Inson mehnat jarayonida o'zini ijodkor his etadi, mehnatining yaratuvchanlik manosini anglab etadi.

Bozor munosabatlari sharoitida raqobatning mavjudligi moddiy nemat ishlab chiqaruvchilardan har tomonlama keng ijodiy faoliyat ko'rsatish, sifatli mahsulotlar yaratish, istemolchilarning badiiy-estetik didi va ehtiyojlariga mos tovarlar etishtirishni zaruriy ehtiyojga aylantirdi. SHunday qilib, mehnat estetikasi insonga kuchli va ko'p-qirrali tasir ko'rsatib, uning faoliyatiga estetik mano-mazmun baxsh etadi, manaviy kamol topishiga ko'maklashadi. Bunda ijod ustuvor, mukammallik qancha yuqori bo'lsa, uning estetik mohiyati ham shuncha barqaror, manaviy tasirchanligi kuchli bo'ladi.

Mehnat estetikasi amaliyoti insonning yaratuvchanlik qobiliyatini yuzaga chiqaribgina qolmay, yaratilayotgan go'zallik uning qo'li bilan yaratilgani, uni ruhiy-estetik jihatdan rag'batlantiradi, o'ziga ishonch tuyg'usini orttiradi, yangi ijodiy faolikka undaydi. Mehnat jarayoni bilan bog'liq bo'lgan soha ergonomika mehnatni engillashtiribgina qolmay, uning unumi, samarasini oshishiga ham yordam bera boshladi. Shuning bilan birgalikda insonga ulkan masuliyat ham yukladi. Negaki, yangi texnologiya inson tomonidan o'zlashtirilishi va foydalanishi uchun qulay, uning jismoniy, manaviy-ruhiy xususiyatlarini ham etiborga olishni talab etadi. Bu esa o'z o'rnida insonning jismoniy va ruhiy-manaviy imkoniyatlarini o'rganish va shunga muvofiq mehnat qurollari, mehnat sharoitini yaratishni o'z oldiga maqsad qilgan yangi ilm-ergonomikaning shakllanishiga sabab bo'ldi.

Ergonomika 1949 yilda Angliyada paydo bo'lib mehnat qilayotgan odamning imkoniyatlari, ruhiyati, anatomiyasi, fiziologiyasiga asoslanib, mehnat sharoitiga qarab o'rganadi. Bugungi kunda ergonomika fan sifatida shakllanib maxsus oliy o'quv yurtlarida o'qitilmoqda. SHuningdek, turli konstruktorlik byurolari, ishlab chiqarish jarayoni kompleks tashkil etilgan sohalarda keng qo'llanilmoqda. Ergonomika narsalar olamini yaratish jarayonida eng muhim falsafiy-axloqiy jihat – buyumga nisbatan insoniy munosabatda bo'lish masalasiga etibor qaratadi. Predmetlar olami bilan istemolchi o'rtasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy holatni ergonomika - muhandislik psixologiyasi bartaraf qiladi. Ergonomika yordamida dizayn mahsulotlari inson tabiatiga moslashtirildi. Bunda dizayner, nafosatshunos, loyihachi-konstruktor, texnik-muhandis, ruhshunos birlashishi talab etiladi.

Jonli mehnat jarayoni murakkabroq tuzilma - ishlab chiqarishning tarkibiy qismini tashkil qiladi. Ishlab chiqarish jarayonida kishilar o'zaro bir-birlari hamda ishlab chiqarish vositalariga nisbatan muayyan ijtimoiy munosabatda bo'ladi. Tabiiyki, mahsulot tayyorlashda muayyan mehnat qurollari (mashina, dastgoh, aslaha va boshqalar), shuningdek, ularni maqsadga muvofiq joylashtirish va o'zaro tasirini taminlashdek murakkab vazifani ado etishga to'g'ri keladi. Bularning barchasi muayyan suratda kechadigan, o'z funksiyasi, strukturasi, tashkiliy ko'rinishiga ega bo'lgan ijtimoiy ishlab chiqarishni tashkil qiladi. Bu tuzilma yuksak darajada yaxshi yo'lga qo'yilganligi va mukammalligi bilan estetik

ifodaviylik kasb etadi. YUksak darajada tashkillangan jarayon, uning muayyan suratda gavdalanish va kechish manzarasi kishilarga estetik tasir etadi, faoliyatga ijodiy munosabat uyg'otuvchi emotsional ko'tarinkilikni vujudga keltiradi. Texnika estetikasining amaliyoti dizayn va muhim tarkibiy qismi ergonomika hamkorlikda mehnat estetikasining vujudga kelishini taminlaydi.

SHuningdek, mehnatning estetik mohiyati u kechadigan ijtimoiy shart-sharoitlarga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. YAqin o'tmishda kommunistik mafkura, ijtimoiy mulkchilik asoslariga bo'ysundirilgan mehnat shaxsda ijodiy erkinlik, qobiliyat, shaxsiy manfaatdorlikni so'ndirar, uni manaviy kambag'allashtirishga olib kelar, eng muhimi, o'z mehnati natijalaridan "begonalashtirar", boqimandalik kayfiyatlari shakllanishiga olib kelar edi. Mustaqillik mehnatning shaxsdan begonalashuviga chek qo'ydi va uning manaviy-ijodiy kuchlari to'la va har tomonlama namoyon bo'lishiga real shart-sharoitlar yaratdi. Bunday imkoniyatlar, ayniqsa, respublikamizda siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy erkinlik sharoitida shaxsning yaratuvchanlik qobiliyatlari rivojlanishiga, xususiy mulk daxlsizligining huquqiy kafolatlanishi, mulkchilik va tadbirkorlikning har tomonlama qo'llab-quvvatlanishi mehnat jarayonida insonning haqiqiy mohiyati namoyon bo'lishiga yo'l ochdi.

Bozor munosabatlari sharoitida raqobat amal qilishi moddiy nemat ishlab chiqaruvchilardan har tomonlama keng ijodiy faoliyat ko'rsatish, sifatli mahsulotlar yaratish, istemolchilarning badiiy-estetik didi va ehtiyojlariga mos tovarlar etishtirishni zaruriy ehtiyojga aylantirdi. Moddiy va manaviy ehtiyoj va manfaatlar uyg'unligini taminlash va rivojlantirish shaxs, millat va jamiyat taraqqiyoti garovlaridan biridir. Mehnat jarayonlari va mahsulotlar tayyorlashga estetik meyor hamda talablarni oshirdi, bu narsa zamonaviy texnologiyalar, innovatsion loyihalarni ishlab chiqarishda qo'llashga katta etibor qaratdi, xususan, dizaynerlik faoliyati, ishlab chiqarish va sanoat estetikasi eng jozibali hamda serdaromad sohaga aylandi. Albatta, har bir soha, yoki har bir mutaxassislikning o'ziga xos xususiyatlarini etiborga olish va shu asosda ishlab chiqarish vositalarini loyihalash talab etiladi. Odam biron harakat va usullarni bajarishdagina charchamasdan, balki kishi etiborini chalg'itadigan shovqin-suron, hid va nurdan ham charchaydi. SHovqin-suron ko'zni toliqtiradi, rang esa kishi asabiga tasir ko'rsatadi. Ana shu omillarni etiborga olmaslik, uskunalarning estetik ko'rinishiga ham ziyon etkazadi. Uskunani ishlatishning osonligi, boshqarish va sozlashning soddaligi, uskuna shaklining mutanosibliigi mehnat vaqtida kishi kuch-quvvatini tejaydi va oqibatda sanoat mahsuloti sifati yaxshilanadi.

Texnika taraqqiyoti barcha turdagi kasb egalarining mehnat faoliyatini engillashtirmoqda. Traktorchidan tortib, sanatkorgacha bugun zamonaviy texnologiyalardan o'z faoliyati jarayonida qo'llab bormoqda. Ammo ular bajaradigan ish mazmuni turlicha bo'lganidek texnologiyalar va ergonomika qonuniyatlari turlicha namoyon bo'ladi. Bu esa nafaqat zamonaviy texnologiyalarga bog'liq balki ish jarayonida axloqiy-estetik muhitni yaratishni ham taqozo etadi. Mamlakatimizning mustaqillikka erishuvi bilan korxonalar tamirlanib, modernizatsiya qilina boshlandi. Har bir zavod, fabrika yoki sexlarning ichki muhitidan tortib, ishchilarning ish kiyimi, ular uchun yaratilgan sharoit, mehnat

qurollari, dam olish, tibbiy xizmatlarga alohida e'tibor qaratila boshlandi. Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish texnika taraqqiyoti esa inson mehnatini engillashtiribgina qolmay, zamonaviy texnologiyani o'zlashtirish va qo'llash masuliyatini ham yuklaydi. Ammo yuqori unum bilan ishlaydigan zamonaviy ishlab chiqarish uskunasining o'zigina korxonaning texnik-estetik darajasini belgilab berolmaydi. Bino, uskunalarining joylashtirilishi, bino ichidagi yorug'lik, undagi mo'tadil temperatura, bezalishi ham muhim o'rin tutadi. Yana shuni alohida ta'kidlash lozimki, korxonalarda axloqiy-estetik muhit uyg'unligiga e'tibor kun sayin oshib bormoqda.

Mehnatning estetik jihatdan to'laqonli bo'lishi avvalo obektiv omil - ishlab chiqarish jarayoniga ham bog'liq. Albatta, bu o'rinda mehnatkashlarning madaniyati, axloqi, estetik didi masalalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Eng yuqori va ilg'or texnologiya ham did, mahorat, madaniyatga ega emas. Uni inson boshqaradi va inson didi, mahorati, madaniyati mehnat mahsulida o'z ifodasini topadi. Texnika taraqqiyoti ishchini og'ir jismoniy mehnatdan xalos etsada, lekin ruhiy-axloqiy masuliyatini kuchaytiradi. O'z o'rnida texnika taraqqiyotining ijobiy va salbiy jihatlari mavjud. A-1-85+(1-159) "Talimda menejment va marketingning ijtimoiy-psixologik jihatlarini ishlab chiqish va milliy madaniyatni umuminsoniy madaniyat bilan uyg'unlashtirishga oid uslubiy qo'llanma tayyorlash" mavzusidagi grant doirasida bir qator oliy talim muassasalari talabalari o'rtasida o'tkazilgan sotsiologik so'rovnoma ko'ra "Zamonaviy texnika va texnologiyaning ijobiy jihatlari nimada?" degan savolga respondentlarning 57,48 foizi "Mehnat jarayoni engillashtadi", 55,51 foizi "Vaqt tejalandi", 46,30 foizi "Ish unumi oshadi", 18,42 foizi "Insonning dam olish imkoniyatlari kengayadi" degan javobni tanlashgan.

So'rovnomada yoshlar zamonaviy texnikaning mehnat faoliyatidagi ahamiyatini baholash bilan birga, uning salbiy jihatlarini ham ta'kidlab o'tishgan. Buni "Zamonaviy texnika va texnologiyaning salbiy tomonlari nimada?" degan savolga tanlagan javoblari ham tasdiqlaydi. Respondentlarning 17,68 foizi "Mehnat jarayoni murakkablashadi", 35,69 foizi "Kishilar bir-birlariga befarq bo'lib qolishadi", 19,98 foizi "Milliy madaniyat tanazzulga yuz tutadi", 31,33 foizi "Inson texnika quliga aylanadi", 25,82 foizi "Ekologiyaga salbiy ta'sir ko'rsatadi", 3,87 foizi "Bir madaniyatlik shakllanadi" degan javobni tanlashgan. Demak, shundan ko'rinib turibdiki, ijobiy jihatlari: inson og'ir mehnatdan xalos bo'ladi, mehnat unumdorligi, ish haqi hayot farovonligi oshadi, bo'sh vaqt paydo bo'ladi, manaviy-jismoniy qobiliyatlarini taraqqiy etish imkoni paydo bo'ladi. SHu bilan birga salbiy jihatlari: diqqat talab qiladigan murakkab texnikani boshqarish jarayonida insonda ruhiy zo'riqishlar paydo qilishi, kasalliklar ko'payishi, ruhiy va jismoniy jihatdan me'yordan ortiq qolish, internet, mobil telefonda foydalanish oqibatida yangi kasalliklarning paydo bo'lishi bilan belgilanadi. SHuningdek, ilmiy-texnik taraqqiyot insonga yangi manaviy talablar qo'ya boshlaydi. Jamiyatdagi asosiy ishlab chiqaruvchi texnika emas, chunki u inson tomonidan boshqariladi.

SHunday ekan bu talablar texnika emas insonga tegishli bo'lib quyidagilardan iborat: 1) inson hayotiy suratlarning oshishi natijasida tartib, masuliyat kabi fazilatlar ortadi; 2) jamiyatning turli sohalarda intensivlashtirish oqibatida kishilar

o‘rtasidagi axloqiy mexanizmlarni boshqarish murakkablashadi, konflikt va qarama-qarshiliklar kuchayadi; 3) ilmiy-texnik taraqqiyot xizmatchilar kasbiy, mutaxassislik tayyorgarligiga yuqori talablar qo‘yadi, yangi texnikalarni boshqarish, xizmatchilarning o‘z-o‘zini idora qilishi, irodaviy qobiliyatlarini kuchaytirish; 4) inson faoliyat sohalari murakkablashuvi natijasida ularning faoliyatida axloqiy javobgarlik ortib boradi; 5) xizmatchilarning ijodiy faoliyatini oshishi talab etiladi, ushbu faoliyatni takomillashtirish esa aqliy va ruhiy zo‘riqlashlarni kuchaytiradi. Bu ijtimoiy munosabatlar jarayonida, mehnat jarayonida, manaviy hayotda, istemol sohasida ilmiy-texnik taraqqiyot tasiri kuchayadi.

SHunday qilib, mehnat insonga kuchli va ko‘p-qirrali tasir ko‘rsatib, uning faoliyatiga estetik mano-mazmun baxsh etadi, manaviy kamol topishiga ko‘maklashadi. Bunda ijod ustuvorligi qancha yuqori bo‘lsa, uning estetik mohiyati ham shuncha barqaror, manaviy tasirchanligi kuchli bo‘ladi. Hozirda mehnatning estetik mazmun-mohiyatiga munosabat o‘zgardi: davlatimizning siyosatida “Amaliy natijadorlik, inson manfaati va yana bir bor inson manfaati islohotlarning bosh maqsadi” etib belgilandi.

“Ommaviy madaniyat”ning yoshlar estetik didiga tasiri

Bugungi kunda manaviy olamni yuksaltirish, milliy-umuminsoniy estetik qadriyatlarni qaror toptirish va estetik tarbiyani mustahkamlash dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Bu ayniqsa, hozirgi murakkab va taxlikali zamonda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Xususan, milliy o‘zligimiz, azaliy qadriyatlarimizga yot va begona bo‘lgan turli xil hurujlar, yoshlarimizning ongi va qalbini egallashga qaratilgan g‘arazli intilishlar tarbiyaning oliy shakli bo‘lmish estetik tarbiya jarayoniga sezilarli tasir ko‘rsatmoqda. Ana shunday tasirning zamonaviy ko‘rinishlaridan biri - “ommaviy madaniyat”dir.

“Ommaviy madaniyat”ning inson estetik tafakkuriga, jamiyatdagi estetik qadriyatlarga hamda shaxs estetik kamolotiga salbiy tasiri ko‘plab vosita, omil va yo‘nalishlarga ega. Bular orasida eng tasirchani va kengqamrovlisi – Internet va ijtimoiy tarmoqlardir.

Internetdan foydalanish madaniyatini oshirish, past saviyali “ommaviy madaniyat”ning kirib kelishiga qarshi kurashish, yoshlarni internetdagi ijtimoiy tarmoqlar orqali kirib kelayotgan ilg‘or zararli malumotlardan himoya qilish avvalo, Internet-klublar faoliyatiga talablarni oshirishni talab etadi. Sababi Internet aloqaning bir muncha tez taraqqiy etgan vositasi, shu bilan birgalikda axborot tarqatishning ham eng tezkor mexanizmi hisoblanadi. Bugungi kunda axborot texnologiyasi va Internetning yaqinlashuvi dunyoni industrilashtirish inqilobi kabi o‘zgartirib yubordi. Tahlillarga ko‘ra, 50 millionli auditoriyani radio 38 yilda, televidenie 13 yilda, internet esa bor-yo‘g‘i 4 yilda egallab olishini inobatga olsak, internetning yoshlar estetik dunyoqarashiga tasiri va o‘zgartirish tezligini tasavvur qilish qiyin emas. Bugungi kunga kelib esa internetdan foydalanayotganlar 1,5 mlrddan oshib ketdi. Agar hozirda internetga uyali aloqa vositalari orqali bog‘lanish yo‘lga qo‘yilganligini inobatga olsak, mazkur raqam bir necha barobar oshishi mumkin. Demakki, axborot va kommunikatsiya texnologiyasi hozirgi paytda

manaviy va moddiy taraqqiyotning muhim vositasiga aylanishi natijasida odamlarning turmush tarzini, o‘zaro aloqasini xatto tashqi ko‘rinishini ham tubdan o‘zgarishiga olib kelayotganligini inkor etib bo‘lmaydi.

XXI asrda “ommaviy madaniyat” zamonaviy qiyofada go‘yo rivojlangan madaniy dunyoga integratsiyalashish, liberallashtirish, demokratlashish niqoblari ostida namoyon bo‘lmoqda. YOshlar bu niqoblar ostidagi salbiy xolatlar va ular shakllantirishi mumkin bo‘lgan illatlar bilan umuminsoniy qadriyatlar orasidagi keskin tafovutni anglashlari kerak. Birgina “ommaviy madaniyat” hodisasi eng avvalo, milliy nafosatga zarba berib, jamiyatning g‘oyaviy tizimini izdan chiqarishi bilan hatarli ekanligini to‘g‘ri tushunish uchun ham estetik bilim zarur. Bunday havf-xatarga qarshi qat’iy tura oladigan shaxsni shakllantirishda tarbiyaning estetik ko‘rinishini uyg‘un xolda olib borish maqsadga muvofiq.

SHuni alohida takidlash kerakki, estetika niqobi ostida turli xil ko‘rinishdagi “sog‘lom turmush tarzi targ‘ibotchilari”, “ko‘ngilochar” va “musaffo tuyg‘u” baxsh etuvchi saytlar talaygina. Eng dahshatlisi keyingi paytlarda internet tarmog‘ida vampirizm estetikasi va uning targ‘iboti bilan bog‘liq saytlarning ko‘payib borayotganligi tashvishlanarli xoldir. Chunki, go‘zallikdan zavqlanishning bu taqlid ko‘rinishlari ulg‘ayib kelayotgan yosh avlodning estetik didini, dunyoqarashini yot g‘oyalar bilan “boyitadi”. Bunday tahdidlarga qarshi go‘zal qadriyatlarni dunyoga tanitish, xalqimizning boy va betakror estetik dunyosini aks ettiradigan personajlarni yaratish bilan bog‘liq tarbiyaviy jarayonlarga yo‘naltirilgan tadbirlar yordamida kurashish maqsadga muvofiqdir. Zero “Tarbiyaning estetik shakli ijtimoiy jarayonlarda ishtirok etar ekan, u o‘z navbatida kishilarga jamiyatda olib borilayotgan ijobiy ishlardan zavqlanish, demokratik munosabatlarga nisbatan qiziqish tuyg‘usini uyg‘otishni o‘zining maqsadi deb biladi.

Sport – estetik tarbiyaning muhim omili

Sport estetika va nafosat falsafasining tarkibiy qismi hisoblanadi. Sport estetikasi sport sohasidagi estetik qonuniyatlarni o‘rganishi barobarida sportning estetik mazmunini, uning jamiyat madaniyatidagi o‘rnini, sport bilan sanatning o‘zaro aloqadorligini tadqiq etadi. U umummadaniyatning tarkibi qismi sifatida inson jismoniy kamolotining manaviy-estetik jihatlarini tahlildan o‘tkazadi. Ko‘rinib turibdiki sport nafaqat baxs, kurash, musobaqalardan iborat, balki ijtimoiy hayotda muhim o‘rin egallagan va inson sog‘lom turmush tarziga singib ketgan estetik sohadir. Misol uchun, Sharq yakka kurash usullaridan biri “Karate-do” bilan shug‘ullanuvchi insonlar nafaqat zarba berish mahoratini, o‘zini himoya qilish sanatini, buyumlarni parchalashni o‘rganish, jangovar uslub va strategiyasini o‘zlashtirib qolmay, olam va odamda bo‘lgan barcha mutanosibliklarning o‘zaro bog‘liqligi va tabiat bilan estetik uyg‘unligini idrok etgan holda ongli tarzda o‘z hayot tarzini o‘zgartirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Bugungi kunda sog‘lom turmush tarzini tashkil etish borasida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu esa mazkur jarayonning ilmiy-nazariy asoslarini mustahkamlash imkoniyatini yaratdi. SHu bois mamlakatimizda sportga bo‘lgan

etibor nihoyatda jiddiy va sport hamda jismoniy tarbiya bilan shug'ullanayotganlarning soni ham ortib bormoqda.

Sport inson salomatligini taminlaydigan xarakterlar yig'indisi hisoblanadi. Biroq sog'lom turmush tarzi faqat sport orqali shakllanib qolmaydi, u insonni estetik jihatdan tarbiyalashni ham taqazo etadi. Chunki, inson ham jismoniy ham manaviy-ruxiy tarbiyaga muhtoj. Zero, bu borada "Sog' tanda - sog'lom aql" tamoyili bejiz amal qilmaydi.

Malumki, sport va jismoniy tarbiya deyarli doimo yonma-yon tilga olinsa-da, ular bir-biridan jiddiy farq qiladi. Jismoniy tarbiya asosan inson salomatligini taminlashga qaratilgan jamiyatning turli yoshdagi barcha tabaqalari ixtiyoriy tarzda "o'zi uchun" shug'ullanadigan, ommaviylik tabiatiga ega mashqlar yoki mashq majmualaridan iborat. Sport esa, uning qaysi sohasida bo'lmasin, mutaxassis ustozlar nazorati ostida maxsus tayyorgarlik ko'rgan odamlarning, asosan yoshlarning yakkama-yakka yoki jamoaviy tarzda bellashuvini o'z ichiga oladi. Sport va jismoniy tarbiya o'rtasidagi estetik farqni faylasuf olim Abdulla SHER jismoniy tarbiya qay ko'rinishda bo'lmasin, (yakka yoki jamoaviy), bellashuvni rad etadi va insonga turli mashq shakllaridan hohlaganini tanlash imkonini beradi, deb aytadi. Sportda musobaqa birinchi o'rinda turadi va unda muayyan mashqlar majburiy tarzda bajariladi. Lekin bu majburiylik sport malum bir turi doirasida sportchiga erkin harakat qilish imkonini beradi, yani sportda ijodiy yondashuv taqiqlanmaydi, balki qo'llab-quvvatlaydi.

SHuni takidlash lozimki, sport estetikasidagi eng muhim muammo, bu uning sanat bilan o'xshashligida. SHundan kelib chiqib, klassik sport turlarini o'ziga xos sanat sifatida talqin qilish mumkin. Bu borada Rene Mehyu, Morin Kovich, Benjamin Lou singari g'arb olimlari va ko'plab mashhur sportchilar sportni sanat sifatida qabul qilish mumkin degan fikrni o'rta tashlaydilar.

Sport va jismoniy mashqlardagi qonun-qoidalar yoshlarni hayotda o'zining mustahkam egallashlarida muhim ahamiyatga ega. Bu qoidalar mohiyatan axloqiy va estetik mazmun kasb etadi. Zero sport raqibga hurmat bilan munosabatda bo'lish, ustoz va murabbiyga bo'lgan e'tiqod mustahkamligi, hakamlar va tomoshabinlarga chuqur hurmat ko'rsatish, chidamlilik, g'alabaga bo'lgan ishtiyoq, halollik kabi axloqiy qadriyatlarni ulug'lashga va egallashga xizmat qilsa, ayni paytda go'zal hatti-harakatlarni namoyon ettirish, insonga estetik zavq bag'ishlash, xatto sport anjomlariga estetik munosabat orqali didni tarbiyalash ishlarini amalga oshiradi. Sport musobaqalari va jismoniy harakatlardagi zavqni estetik taxlil etish sport estetikasining muhim vazifalaridan biridir. Hozirgi paytda sport jahon bo'ylab juda keng yoyilgan madaniy soha sifatida tan olinmoqda. Ayniqsa, buni O'zbekiston misolida yaqqol ko'rish mumkin. Bizda mustaqillik sharofati bilan sportga milliy madaniyatning uzviy qismi sifatida qarash shakllandi, uning hamma turi bo'yicha musobaqalar o'tkazish odat tusiga kirdi, o'zbek kurashi esa umumbashariy sport turi maqomini oldi.

Bugungi kunda sport estetikasi sog'lom turmush tarzimizning bir qismiga aylanib borayotganligini ijobiy xolatdir. Hoh sport, hoh jismoniy tarbiya bo'lsin

sogʻlom turmush tarzini bu ikki omillarsiz shakllantirib boʻlmaydi. SHunday ekan, sogʻlom turmush tarzini sport estetikasisiz tasavvur etish mumkin emas.

Sport estetik tarbiya vositasi sifatida zamonaviy insonni kamol toptirishda alohida etiborga ega. Hozirda sportni rivojlantirish mamlakatimizda davlat siyosati darajasiga koʻtarildi. Bundan koʻzlangan asosiy maqsad avlodni jismonan baquvvat, sogʻlom, vatanning jasur himoyachisi qilib tarbiyalashdir.

Mustaqillik yillarida xalqimizning boy madaniy merosini qayta tiklash, yuksak manaviyat, milliy oʻziga xoslik va xalq ananalarining mavjud koʻp asrlik sarchashmalarini butun choralar bilan rivojlantirish, jismonan sogʻlom, manan etuk va har tomonlama barkamol shaxslar jamiyatini barpo etish uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi. Aholining madaniy va estetik ehtiyojlarini yanada toʻla qondirish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish boʻyicha tizimli va aniq maqsadga yoʻnaltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi. Nufuzli xalqaro musobaqalarda Oʻzbekiston sharafini munosib himoya qilish va yuksak marralarni zabt etishga qodir mahoratli sportchilar tayyorlashning samarali tizimi yaratildi. Biroq, sport-sogʻlomashtirish muassasalari, obektlari va inshootlarining moddiy-texnik bazasini yanada rivojlantirish va mustahkamlash bilan bogʻli muammolarni bartaraf etish dolzarb boʻlib bormoqda.

SHu bois madaniyat va sport sohasidagi boshqaruv tizimini takomillashtirish, mazkur sohada Oʻzbekiston xalqining boy va oʻziga xos madaniyati, sanati va ijodiyotini yanada rivojlantirishni taminlashga yoʻnaltirilgan davlat siyosatini amalga oshirish samaradorligini tubdan yuksaltirish, aholi keng qatlamlari orasida manaviy-axloqiy kamolot va sogʻlom turmush tarziga intilishni kuchaytirish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 15 fevraldagi “Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” Farmoni elon qilindi.

Farmonda aholining keng qatlamlari oʻrtasida sport va jismoniy tarbiya bilan shugʻullanishni ommalashtirish boʻyicha keng koʻlamli ishlarni tashkillashtirish, jismoniy tarbiya va sogʻlomashtirish, sport tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, bolalar, ayniqsa, qizlarni sport bilan muntazam shugʻullanishga keng jalb etish, bolalar sportini har tomonlama rivojlantirish, bolalar sport talimi sifatini oshirish orqali barcha hududlarda bolalar sport obektlari tarmogʻini yanada kengaytirish, shu asosda bolalar sogʻligʻini mustahkamlash va ularning barqaror jismoniy rivojlanishini taminlash kabi masalalar asosiy vazifa va faoliyat yoʻnalishlari qilib belgilangan:

Inson kamolotida did – fahm – farosat uygʻunligi

Odatda, farosat tushunchasi estetik baxo bilan belgilanadi. u ranjish, nomunosib xolat, koʻngilga xush yoqmagani ishlar qilganda munosabat bildiramiz. Shuning uchun boʻlsa kerak, kamdan kam xollarda “farosatli kishi, farosati bor, farosatli” degan soʻzlarni ishlatamiz. Biroq, did, fahm, farosat kabi tushunchalar aynan estetika ilmiga tegishli boʻlib, fahm - haqiqatga, farosat – ezgulikka, did – goʻzallikka munosabat orqali namoyon boʻladi. Har uchchala hodisaning asosida ham qobiliyat yotadi. SHu manoda fahm – aqliy, farosat – axloqiy, did – estetik

qobiliyatni yuzaga chiqaradi. Ayniqsa, estetik did va farosat murakkab tarbiya jarayonini taqozo etadi. CHunki u ham aqliy, ham axloqiy, ham hissiy tarbiya uyg'unlashgan umumiylikdan iboratdir.

SHuni alohida takidlash zarurki, didsizlik va farosatsizlik insonning asl qiyofasini bilishga, uning niyatini anglashga monelik qiladi. Zero, har qanday chiroyli ko'ringan, istarali bo'lishga intilgan, muomalali inson har doim ham go'zal ishlarni qilavermasligini fahm, farosat, did yordamida ajratib olishimizga to'g'ri keladi. Inson manaviyatining yuksalishi uning fazilati bilan bog'liq ekan, bu jarayon albatta, estetik tarbiyaga ehtiyoj sezadi.

Farosat ilmi kishining ichki dunyosi bilan tashqi ko'rinishi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganuvchi ilmlar sirasiga kiradi. O'tmishda farosat ilmi nozik va nazokatli ilm sifatida o'rganilgan. CHunonchi, olmon mumtoz falsafasining vakili Immanuil Kant bu ilmga "botiniy olamni o'rganuvchi ilm" deb tarif bergan edi. Qomusiy olim Abu Rayxon Beruniy "Kishining ko'ngli kelishgan va tartibli har bir narsaga qiziqadi, tartibsiz narsadan nafratlanadi" - degan hikmati esa mohiyatan farosat bilan masalasiga dahldor. Bundan tashqari, o'rta asrlar Musulmon Sharqi allomalaridan al-Kindiy farosatning hikmati, fazilati va ahamiyatiga doir "Risolai fil farosa" (X asr) deb nomlangan maxsus asar yozgan bo'lsa, Husayn Voiz Koshifiy o'zining mashhur "Axloqi muxsiniy" asarining 34-bobini "Farosat bayoni"ga bag'ishladi. SHuningdek, turkiy tilda Uzun Firdavsiy (XVI asr)ning "Farosatonoma" asari ko'plab qiziqarli malumotlarga boyligi bilan ahamiyatlidir. Manbalarda hakimlardan biri tomonidan taqdim etilgan farosat to'g'risidagi kitobni shoh Anushirvon har doim o'zi bilan olib yurgani va hamisha u kitobni mutolaa qilib, uning mazmuni bo'yicha hukm chiqarganligi haqida malumotlar uchraydi.

Estetika ilmida farosat did tushunchasining tarkibiy qismi sanaladi. Farosat o'ziga xos estetik tushuncha sifatida mohiyati aqlga borib taqaladi. Odatda, yomg'ir yog'ayotganini ko'ra-bilib turib, yomg'irpushsiz va soyabonsiz yo'lga chiqqan odamni fahmsiz, chang, loy poyafzalini echmay, gilamni bosib, ichkariga kirgan odamni farosatsiz deb ataymiz. SHunga ko'ra, fahm - aqliy, farosat - axloqiy, did - estetik qobiliyatni yuzaga chiqaradi. Uchchala qobiliyatning ham ibtidosi, tabiiytug'malikka borib taqalsa-da, ular o'zlarini asosan tarbiya, ijtimoiy munosabatlar orqali ro'yobga chiqaradi. Shuning uchun Sharq allomalari tarbiya jarayonida farosatning zarurligi masalasiga jiddiy etibor qaratganlar.

CHunonchi, Sharqning buyuk voizi, notiqlik sanati nazariyotchisi Husayn Voiz Koshifiy "farosat" so'zining lug'aviy manosiga "biror narsaning yaxshi va yomon xususiyatini ko'rib aniqlashdir. Istilohiy manosi esa umumiy bo'lib, joning suratidagi zohir holini mushohada qilib, uning ichki mohiyatidan ogoh bo'lishdir", - deya tarif beradi. U hatto farosat hukumat ishlari orasidagi ulug' shartlardan biri ekanligini etirof qilib, biror bir voqea haspo'shlanganda, asl mohiyati pinhon tutilganda va adolat mezoni buzilganligi yashirilsa qonun himoyachisi bu hodisani farosat nuri bilan topib, davog'arlar so'zlariga etimod qilmasligini uqtiradi.

Alloma talqinida farosatning ahamiyati bir jihatdan ulug'larning "Hukumat ziynati farosat zevari bilan go'zaldir" degan qoidasiga asoslanadi. Ikkinchi jihatida esa "Har bir narsa farosat ahlidan yashirin emas, farosat Haq Taoloning mo'min

bandaga bergan nuri” degan tamoyil ustuvor. Bu tamoyilning mohiyatini esa payg‘ambarimiz (s.a.v)ning “Qo‘rqinglar mo‘min farosatidan, u Xudo nuri bilan qarab har narsaning zamiriga eta oladi”, - degan hadis asoslaydi.

Koshifiy farosatni ikki qismga ajratadi. Birinchisi - shariy farosat bo‘lib, unda pok va sof ko‘ngilli kishining ko‘zidan ko‘tarilib, farosat nuri bilan haqiqatni anglab etadi. Ikkinchisi - hukmiy farosat bo‘lib, donishmanlar uni tajriba bilan topadilar va dalillarini kishining shakli va shamoyilidan mushohada qilib, aniqlaydilar. Odatda, aksariyat hollarda bu usul kishi haqida to‘g‘ri malumotni bergan. Alloma har ikkala farosatga shoh Anushiravon va Aflotun hakim hayoti bilan bog‘liq talaygina misollarni keltiradi ... Alloma inson aksar ish binosini farosat dalillariga qo‘yish kerak va o‘zining pok zehni, tafakkuri, mulohazasiga ham murojaat qilishi lozim. CHunki, tashqi ko‘rinishlarida yomonlik nishonasi bor toifa ichidagi kishilar Haqdan fayzu ilhom topib, o‘z ahvolini o‘zgartirganlaridan voqif va ogoh bo‘lishga harakat qilish zarurligini uqtiradi:

Farosatdan ko‘ngilga ko‘z ochilg‘ay,
Hamma holatni ul malum qilg‘ay.

Malumki, so‘z sarmazmun bo‘lib, u ko‘p narsalarga dalolat qiladi. Bir so‘zning o‘zini turli holatlarda, turlicha manoda qo‘llash mumkin. Binobarin, so‘zni to‘g‘ri tushunish va to‘g‘ri ishlatish, uning manolarini iloji boricha mukammal bilish uchun ham kishidan farosat talab etiladi. Bu borada “Allomalar ibrati” (Toshkent, 1982) nomli kitobda shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning yuksak farosati bilan bog‘liq qiziq rivoyat keltirish mumkin. Uning mazmuni quyidagicha: bir kuni yasovulboshi bir yigit va bir qizni Umarshayx Mirzoning kabutarlarini o‘ziga o‘rgatib olmoqchi bo‘lganlikda ayblab, ularni jazolash maqsadida shohning huzuriga keltiradi. SHoh voqeani eshitib, yasovulga “Unday bo‘lsa alar boshini olib ...” deyishi bilan birdan yo‘tal tutib qoladi. YASovulboshi har ikkisini boshini kundagi qo‘yayotgan paytda shohning suyakli farzandi Bobur Mirzo yasovulboshiga qarab, “Otam ularning boshini oling demadilar. Oliy hazrat alarni bu yurtdan bosh olib chiqib ketsin, deb buyurmoqchi edilar” - deydi. YASovulboshi qatlni to‘htatib shohning huzuriga boradi va unga Bobur Mirzoning gaplarini aytadi. SHunda Umarshayx saroy ahli oldida o‘rnimga podshoh bo‘ladi, deb yurgan farzandining so‘zini ikkita qilib qo‘ymaslikni o‘ylab: “Mirzo haq gapni aytibdur. Men alarni boshini oling demoqni hayolimga ham keltirgan emasman” deydi. ... Bobur Mirzoning marhamati tufayli ikkita yosh jallod kundasidan omon qoladi. Bu rivoyatning mazmuni ayni paytda Umarshayx Mirzoni ham Bobur Mirzoni ham yuksak farosatli kishilar bo‘lganligini ifodalaydi.

Sharq allomalaridan Burhoniddin az-Zarnujiy (XII asr)ning “Talim al-mutaallim – Ilm oluvchiga talim-tarbiya” asarida “SHijoat – bir lahza sabr”, degan hikmatni uchratamiz. Sabr, qanoat esa farosatni yuksaltiruvchi axloq meyorlaridir. Ayniqsa, ilm istovchining farosati aynan shunga. CHunonchi, tolibi ilm uchun keragi shulki, deydi alloma, - bir ustozga sabot ila sabr aylasin. Biror kitobga ham, hatto uni (mutolaa qilishda, undan dars olishda) noqis (chala) tark qilmasin. Biror

fanga ham, hatto birinchisini mustahkam qilishdan avval boshqa fan ila mashgʻul boʻlib ketmasin. SHERIK ixtiyor qilish va uni tanlashda esa harakatchan, parhezkor, toʻgʻri tab sohibi va fahm-farosatlisini ixtiyor qilishi darkor. Dangasa, bekorchi, koʻp gapiruvchi, fisqu fasodga berilgan fitnachi (sharik)dan qochsin. Alloma ilm tolibining farosati oʻz ustoziga boʻlgan munosabatida ham namoyon boʻlishini uqtiradi. Tolibning farosati ustozga ulugʻlik keltiradi, deydi: “Muallimni ulugʻlashning jumlasidan biri uning oldiga tushib yurmagay, uning oʻrnida oʻtirmagay. Muallim oldida faqat uning izni ila gap boshlagay... Kimningki ustozidan ozor topsa, ilmning barakasidan mahrum qoladi, ilmida ozginagina foyda topadi.”

Beruniy nafosat va nafis didni, adabiyot va shariyatni insonlarning talabi vujudga keltiradi, deb tariflagan edi. Uning takidlashicha, madaniylashgan kishilar ichidan chiqqan nozik (tabiatli) odamlar koʻngil ochar, shodlik bagʻishlaydigan joylarga borib turishni odat qiladilar, bunday joylarga faqat nozik tabiatli kishilargagina emas, boshqa musiqaga tashna boʻlgan kishilar ham ohanglar tinglash uchun boradilar. Ohanglar esa tartibga tushirilgan... boʻlgandagina qalbga kuchli tasir etadi. Chunki, ruh tartibga tushirilgan narsani qabul qiladi va Shuning uchun ham u sherga koʻproq intiladi negaki sher nizomli (tartibli)dir. Muhimi shundaki, Beruniy sanatning paydo boʻlishini insoniyat jamiyatining madaniylashuvi bilan bogʻlaydi. Odamlarning madaniy darajasi oshib, badiiy nafosat tafakkuri oʻsa borishi bilan sanatga ehtiyoj kuchaygan. Sanat shodlik, quvonch manbai, u insonlarga orom beradigan, ruhini koʻtaradigan vosita sifatida paydo boʻlganini takidlaydi.

Umuman olganda, hozirda biz yashayotgan davr kishisining faoliyati farosatga ehtiyoj sezmoqda. Farosat endilikda ijtimoiy-manaviy hayotning zaruriyatiga aylanib ulgurdi.

Gʻoyaviy tahdidga qarshi kurash manaviy jihatdan mustahkam boʻlgan estetik tayyorgarlikni taqazo etadi. Birgina farosat va uning fazilatini anglash, amal qilish barcha tahdidlarning mazmun-mohiyatini tushunish imkonini beradi. SHu bois har davrda farosat tarbiyasiga nozik va nazokatli ilm sifatida munosabat bildirilgan.

Takrorlash uchun savollar:

1. Estetik tarbiyaning axloqiy tarbiyadan farqi nimada?
2. Nima uchun tarbiya estetik bilimni taqazo etadi?
3. Sanat – estetik tarbiyaning eng asosiy vositasi ekanligini isbotlang?
4. Estetik tarbiyaning asosiy vositalarini tushuntiring?
5. Mehnatning estetik xususiyati qaysi sohada koʻproq koʻzga tashlanadi?
6. Nima uchun did inson komolotida muhim oʻrin tutadi?
7. Fahm bilan farosat oʻrtasidagi bogʻliqlikni tushuntiring?
8. “Ommaviy madaniyat”ning gʻayriestetik tasirini hayotiy misollar bilan asoslab bering?
9. Sport va uning estetik jihatlarini izohlang?
10. Sportning goʻzalligiga misol keltiring?

GLOSSARIY

A

- 1. Absolyut** – (lotincha - har qanday munosabatlar, shartlardan ozod, mutlaq, mustaqil, mukammal) - falsafada absolyut borliq yoki absolyut voqelik (Shellingda), absolyut ruh, ya'ni oliy dunyoviy aql (Gegelda) absolyut shaxs, ya'ni Xudo (xristianlikda) absolyut qadriyat (Aflotun asos solgan metafizik idealizm), absolyut axloq, kategorik imperativ yoki burch qonuni (Kantda), mustaqil mavjudotning individuallikdan yuqori substantsional asos (Fixteda), iroda (Shopengauerda), intuitsiya (Bergsonda) bilib, anglab olinganligidan qat'iy nazar, hamma narsa absolyut ahamiyat kasb etadi. Abstraktsiya (lot. abstgastio — mavhumlik) - bilish shakllaridan biri bo'lib, u narsalarni bir qancha xossalarni va ular o'rtasidagi munosabatlarni fikran nazardan soqit qilishdan, hamda biron bir xossa yoki munosabatlarni ajratib ko'rsatishdan iborat.
- 2. Abort** – Amaliy etikaning anchadan buyon ko'pchilikka malum muammosi xissoblanadi. To'rtinchi haftaning oxirida homilada dastlabki yurak urishi paydo bo'ladi. Sakkizinchi haftaning oxirida esa miya tanasining elektrofiziologik faolligini kuzatish mumkin. Demak, har qanday abort, xalq tabiri bilan aytganda, jonlini jonsiz qilish, tirik organizmni tiriklikka bo'lgan huquqdan mahrum etishdir.
- 3. Adolat** – yuksak manaviy tushuncha bo'lib, uning e. va yo. hamda ya. va yo. dan asosiy asosiy farqi shundaki, A.ning o'zi birorqbir qadriyatni anglatmaydi, lekin qadriyatlar orasidagi nisbatni belgilaydi, ularni baholash maqomiga ega. Shu bois unda jamiyatni tartibga soluvchilik xususiyati bor; A. da ikki manaviy jihat – ham axloqiy, ham huquqiy talablar mujassamlashgan. Uni malum manoda axloq sohasidagi miqdor o'lchovchi ham deyish mumkin: u talab b-n taqdirlashni o'lchab turadigan tarozidir. A. bor joyda ijtimoiy jabrga, beboshlikka yo'l yo'q. Eng oddiy, ibtidoiy fazilatlar, m., mehribonlik, shafqat, muruvvat hayvonlarda ham mavjud, lekin hayvonlarda ular o'z guruhiga, eng avvalo, o'z zurriyotiga qaratilgan bo'ladi.
- 4. Agnostitsizm** – (yunon. agnostos — a-inkor, gnostos — bilish, bilishni inkor etish, noma'lum) — falsafiy ta'limot bo'lib, tabiat va

jamiyat qonuniyatlari mohiyatini bilish imkoniyatlarini rad etib, bilimning voqelikka muvofiqligini isbotlash mumkin emas, deb, hisoblaydigan ta'limot.

5. **Amaliyot** – inson faoliyatining yig'indisi, majmui.
6. **Andisha** – yuksak manaviyatga xos, axloqiy tarbiya natijasida shakllanadigan manaviy-axloqiy tushuncha, etika fanining meyoriy tushunchasi, “Manaviyatshunoslik”, “Manaviyat asoslari” fanlarining asosiy kategoriyalaridan biri. Kishilar b-n bo'lgan munosabatda oqibatini atroflicha o'ylab munosabatda bo'lish, mulohaza qilish A.ning o'ziga xos xususiyatlaridandir. A.li inson o'z xatti-harakati, manaviy-ruhiy qarashlarida yuksak axloqiy tamoyillardan kelib chiqqan holda faoliyat yuritadi. Bunday inson o'zgalarni olijanob axloqiy meyorlarga asoslangan holda qadrlaydi.
7. **Antropologiya** – inson haqidagi fan muammolari bilan shug'ullangan
8. **Avesto** – Zardushtiylik dinining qonun-qoidalari bayon etilgan kitob
9. **Axloq** – (arab. xulqning ko'pligi; lot. moralis — xulq-atvor) — ijtimoiy ong shakllaridan biri, manaviy hayot hodisasi, manaviyat sohasiga oid tushuncha.
10. **Axloqiy fazilatlar** – inson xulq-atvori, yurish-turishidagi eng YUk sak , ijobiy hatti-harakatlar, o'y-fikrlar va ezgu amallar majmuasi: ezgulikka intilish, yaxshilik qilish, izzat-hurmatli bo'lish, mehnatsevarlik, or-nomusli bo'lish, vatanparvarlik, insonparvarlik, saxovatlilik, halollik, pokizalik kabi xislatlarning namoyon bo'lishi
11. **Axloqiy ideal** – axloq - meyorlarining yuk sak , orzu qilingan darajadagi tasavvufi, barcha eng yaxshi xislatlarga ega, har tomonlama tarbiyalangan inson obrazi.
12. **Axloqiy madaniyat** – axloqiy tarbiyaga doir asarlar, qarashlar, g'oyalar, ko'nikmalar va ularga amal qilinish.
13. **Axloqiy meyorlar** – jamiyatda o'rnatilgan xulq-atvor qoidalari, ular urf-odat, ko'nikma, marosim qoidalari sifatida namoyon bo'ladi, axloqiy qadriyatlar sifatida qaraladi, ularga amal qilmaslik jamoatchilik tomonidan qoralanadi.
14. **Axloqiy qadriyatlar** – kishilarning xulq-atvorida asrlar davomida shakllangan o'zaro munosabatlar, yurish-turish qoidalari: xushxulqlik, xushmuomalalik, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, halollik, pokizalik, ezgulik, mehnatsevarlik, insonparvarlik, vatanparvarlik.
15. **Axloqiy tafakkur** – axloq masalalariga bag'ishlangan fikrlar, qarashlar g'oyalar, har bir insonning axloqiy meyorlar va qadriyatlarni anglash, ilmiy mushohada qilish jarayoni.

- 16. Axloqiy tarbiya** – inson tarbiyasining muhim qismi hisoblanib, odamga yoshligidan boshlab to‘g‘rilik, halollik, izzat hurmat, burch-masuliyat, sog‘lom turmush tarzi, or-nomus, sharm-hayo, Vatan azizligi, oila muqaddasligi, e‘tiqod mustahkamligi xislatlarining singdirib borilish jarayonidir.
- 17. Axloqsizlik** – jamiyatda qabul qilingan axloqiy meyorlardan chetga chiqish: boqimandalik, yolg‘onchilik, ichkilikbozlik, fohishabozlik, o‘g‘rilik, hasad, g‘iybat, tuhmat, vatanfurushlik, e‘tiqodsizlik va shular kabi barcha salbiy xislatlarning namoyon bo‘lishi.
- B**
- 18. Bag‘rikenglik** – mehr-muruvvat, g‘amxo‘rlik, himoya, panoh, makon, saxiy, eshigi hamma uchun ochiq, dargohi keng; kengfellik. Bag‘rikenglik – o‘zgalarning dunyoqarashi, diniy e‘tiqodi, milliy va etnik xususiyatlari, anana-marosimlariga hurmat-ehtiromda bo‘lish, muomala-munosabatda kamsitishlar, tahqirlashlarga yo‘l qo‘ymaslik, insoniylikni hamma narsadan ustun hisoblab, jamoada, ish joylarida, mahallakuyda bunga rioya etish. Xullas, turli dindagi, turli millat va elatlarga mansub kishilarning bir mamlakat doirasida, yagona davlat tarkibida bahamjihat, osoyishta yashashidir. Bag‘rikenglik ayrim shaxslarga yoki butun bir xalqqa xos xususiyat bo‘lishi mumkin. Bag‘rikenglik – o‘zbek xalqining eng olijanob fazilatidir.
- 19. Barkamollik** – kamolot, balog‘atga erishgan, bekamu ko‘st, etuk, mukammal, nuq-sonsiz, kamoli xirad – aql komilligi, kamoli marifat – ilmu marifatda mukammallik, kamol ahli – ilmu hikmat egalari, olimlar. Barkamollik insonning aqliy axloqiy va bilimdonlik jihatidan etuk ligi, o‘zi tanlagan kasbu hunarning ustasi bo‘lishi, shaxs sifatida shakllanib, vatan taraqqiyoti, el-yurt farovonligi uchun jon kuydirishi, ezgu g‘oya va niyatlar b-n bunyodkorlik va yaratuvchanlik qobiliyatiga ega bo‘lishi.
- 20. Barqarorlik** – tinchlik, osoyishtalik
- 21. Baxs** – Shaxslar o‘rtasidagi u yoki bu mavzudagi tortishuvi hisoblanadi. Baxs qoidasi: hatto juda qulay vaziyatlarda ham odamlarni fikrini o‘zgartirish juda qiyin masaladir. Agar o‘z qarashlaringizni boshqa birovga o‘tkazishni istasangiz, uning fikrini hurmat qiling. Hech qachon odamga uning nohaqligini aytmang. Xato qilish ehtimolini o‘zingizda bo‘lishiga ham etibor bering. Bu barcha turdagi bahslarga yakun yasaydi hamda sizdagi bu fikrlashdagi haqqoniyligini o‘zida ham yaratishga harakat qiladi. Shu

bilan hamsuhbatingizni o‘zi ham siz kabi nohaq bo‘lishini tan olishiga imkon beradi.

- 22. Baxt** – manaviy axloqiy tushuncha. Kishi o‘z faoliyati natijalaridan hayotda qo‘lga kiritilgan yutuqlaridan to‘la qoniqish, yashash tarzidan mamnunlik, muayyan maqsadga etganlik, orzu-umidning ushalishi, bearmonlik holati sifatida namoyon bo‘ladi. Baxt nisbiy tushuncha, mutloq baxt yo‘q. Baxtni qanday manoda tushunishning shaxsning ijtimoiy o‘rniga, bilimi, yoshi, dunyoqarashiga bog‘liq. Baxt haqidagi kishilarning tasavvurlari ijtimoiy tuzim va undagi ijtimoiy munosabatlar majmuasi b-n uzviy bog‘liq.
- 23. Bilish** – insonning tabiat, jamiyat va o‘zi to‘g‘risida bilimlar hosil qilishga qaratilgan aqliy, ma‘naviy faoliyat turidir. Inson o‘zini qurshab turgan atrof-muhit to‘g‘risida bilim va tasavvurga ega bo‘lmay turib, faoliyatning biron-bir turi bilan muvaffaqiyatli shug‘ullana olmaydi. Bilishning mahsuli, natijasi ilm bo‘lib, har qanday kasb-korni egallash faqat ilm orqali ro‘y beradi. Shuningdek, bilish insongagina xos bo‘lgan ma‘naviy ehtiyoj, hayotiy zaruriyatdir.
- 24. Bioetika** – hozirgi zamon etikasining muhim yo‘nalishlaridan biri. B. inson hayotini eng oliy axloqiy qadriyat sifatida qaraydi, shu bilan birga, inson hayotini saqlash muammosini – yaxshilik va yomonlikni farqlashning muhim mezoni, deb hisoblaydi. Hoz. zamon fanida B. tirik mavjudotlar, shu b-n birga, insonga ham bo‘lgan munosabatlarning manaviy-axloqiy regulyativi, deb qaraladi. Insonning tabiat b-n uzluksiz aloqasini manaviy tahlil etish asosida, tabiatni muhofaza etishda ahloqiy javobgarlik B.ning madaniy negizini tashkil etadi. B., sotsial masalalalar b-n birgalikda, qadriyatlar muammosini ham qamrab oladi. B. maqsadlaridan biri - Shaxsni turli holatlarga solish imkoniyatlarini yaratuvchi, inson xatti–harakati, ruhiyatini o‘zgartirish mumkin bo‘lgan, uning ustidan o‘tkazilayotgan xilma-xil tadqiqotlarni cheklash mezonlarini ishlab chiqadi.
- 25. Biologik axloq** – jahon axloqshunos ligida ham asosan tibbiy axloq, tabobat muammolariga doir axloqiy yondashuv lar tushuniladi. Biologik axloq muammolari ikki yo‘nalishdan iborat: biri - insonlarning kichik biologik olam sifatidagi katta biologik olamga bo‘lgan munosabatlari bilan bog‘liq «tashqi», ikkinchisi - insonlarning «o‘z-o‘ziga va o‘zaro munosabatlaridagi tibbiyot bilan bog‘liq ichki» axloqiy masalalar.
- 26. Borliq** – voqelikdagi mavjud narsa va hodisalarni ifodalovchi tushuncha. bo‘lgan aks ettirish xususiyatini ifodalovchi

- tushuncha .
27. **Botiniylik va zohiriylik** – manaviy hodisalar bo‘lib, insonning ichki, qalb, ko‘nglidagi hissiyotlar va ularni sirtqi tomondan, tashqi ko‘rinishda ifodalanishi. Inson tashqi tomonidan qanday ko‘rinishidan qat’iy nazar, uning B. hissiyoti, qalbi, ko‘ngli nihoyatda nozik va manaviy boy bo‘lishi mumkin. Sirtidan qaraganda kam-ko‘stsiz, salobatli ko‘ringan kishi hissiyotsiz, qalbi ko‘r bo‘lishi ham mumkin. B. insonga baxsh etilgan nemat, u buyuk kishilarning zohiriy faoliyatlarida yorqin ifodasini topgan.
28. **Burch** – jamiyat, davlat va SHaxslarga nisbatan muayyan individdagi munosabat, ular oldidagi majburiyat. U vijdon, e’tiqod, masuliyat kabi tushunchalar b-n mustahkam bog‘liq. Umuman, hayotda insonning har bir xattiqarakati zamirida B. ga sadoqat yoki xiyonat yotadi. B. ning insonlik B.i, musulmonlik B.i, nasroniylik B.i, fuqarolik B.i, otalik B.i, onalik B.i, farzandlik B.i singari barcha davrlar uchun umumiy bo‘lgan tushunchalari ham, jurnalistlik B.i, shifokorlik B.i, olimlik burchi kabi kasbiy odob doirasidagi tushunchalari ham mavjud. B. tushunchasining o‘ziga xos jihatlaridan yana biri – uning vaqt va jamiyatda muayyanlashish xususiyati.
- Ch**
29. **Charvaka** – hindcha so‘z bo‘lib olamning asosini to‘rt unsur (tuproq, suv, havo va olov) dan iborat deb qarovchi qadimgi falsafiy ta’limot.
30. **Chiroylilik** – insonda engil xushnudlik kayfiyatlarini hosil qiladigan holatlar yig‘indisidir.
- D**
31. **Dao** – xitoy falsafasida «yo‘l» taraqqiyot ma’nosida ishlatiladigan tushuncha.
32. **Davlat** – fuqarolik boshqaruv tizimining yemirilishi tufayli ipaydo bo‘lgan siyosiy institut
33. **Demokratiya** – (yunon. demos – xalq) – xalq irodasini ifoda etish tamoyilini, inson huquqlari va erkinliklarini ijtimoiy hayotning oliy qadriyati sifatida tan oluvchi xalq hokimiyatiga asoslangan siyosiy tuzum.
34. **Demokrit** – yunon faylasufi. U haqiqiy borliq — moddiy dunyo, abadiy va poyonsiz, cheksiz-chegarasiz reallikdir, olam mayda moddiy zarrachalardan, ya’ni atomlardan va bo‘shliqdan iborat deya ta’lim beradi. Atomlar va bo‘shliq o‘zaro yaxlit abadiy ibtidodir. Atomlar — bo‘linmas va o‘zgarmas, sifat jihatdan bir xil, uning miqdori shakli singari behisobdir. degan edi

- 35. Dialektika** – grek tilida bahs va suhbatlashish san’ati degan ma’noni anglatadi. Antik dunyo faylasuflari uni haqiqatga erishish yo’li va usuli sifatida talqin etganlar. Hozirgi davrga kelib dialektika olamdagi narsa va hodisalar doimo o’zgarishda, o’zaro aloqadorlik va bog’liqlikda, taraqqiyot va rivojlanishda deb tushunishdir. Unga ko’ra, olamda o’z o’rniga va joyiga, yashash vaqti va harakat yo’nalishiga ega bo’lgan barcha narsalar va voqealar bir-birlari bilan bog’liq va aloqador tarzda, bir-birlarini taqozo etadigan, doimiy va takrorlanib turadigan bog’lanishlar orqali namoyon bo’ladi.
- 36. Did** – idrok, fahm, farosat kabi ildizi aqlga borib taqaladigan, o’zining ehtiros, his-hayajon, subektiv baholash xususiyati bilan ulardan ajralib turadigan hamda insondagi go’zallik, ulug’vorlik, fojeaviylik singari estetik xususiyatlarni va nafosatni idrok etish qobiliyatidir. Did murakkab tarbiya jarayonini taqozo etadi. Chunki u ham aqliy, ham axloqiy, ham hissiy tarbiya uyg’unlashgan umumiylikdan iboratdir.
- 37. Diniy dunyoqarash** – Muayyan dunyoqarash tarkibida diniy-ilohiy qarashlar o’ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ular insonning ilohga bo’lgan e’tiqodi bilan bog’liq bo’lib, vujudga kelishiga ko’ra, boshqa dunyoqarash shakllari kabi, muayyan asoslarga ega.
- 38. Diyonat** – (arab. dindorlik, to’g’rilik, insof) Xudodan qo’rqish, gunoh qilmaslik, savob ishlarni amalga oshirish, imonli- e’tiqodli, sofdil va mard bo’lish, diniy qonun-qoidalarga qattiq rioya etish, dindorlik, taqvodorlik, vijdon, insoflilik. Diyonatli odam to’g’riso’z, haqgo’y bo’ladi, haromdan hazar qiladi, birovning zarariga ish qilmaydi, hamiyatli, nomusli, oriyatli bo’ladi
- 39. Do’stlik** – axloqiy tushuncha; o’zaro bog’liqlik, manaviy yaqinlik, manfaatlar umumiyliigi va h.k.ga asoslangan insonlar o’rtasidagi ijobiy munosabatni ifodalaydi.
- 40. Dogmatizm** – aqidaparastlik, o’zgarmas tushunchalar, qoidalar asosida fikrlash usuli.
- 41. Dualizm** – (lotin tilida dua, ya’ni ikki degan ma’noni ifodalaydi) — olamning asosida ikkita asos, ya’ni modda va materiya bilan birga ruh va g’oya, ya’ni ideya yotadi deyuvchi qarash.
- 42. Dunyoqarash** – olam haqidagi umumiy qarashlar, maslamlarning majmui.
- E**
- 43. Eklektika** – narsa va hodisalarning muhim va nomuhim aloqalarini, turli-tuman tomonlarini qo’shib qaraydigan usul.
- 44. Ekzistentsializm** – hozirgi zamon «yashash falsafasi».
- 45. Empirizm** – hissiy tajribaning rolini bo’rttirib ko’rsatadigan yo’nalish.
- 46. Estetik madaniyat** – insonning estetik faoliyati jarayoni, uning natijasida

yaratilgan moddiy va manaviy qadriyatlar bo‘lib, shaxsni shakllantirish va kamolotida muhim omil bo‘lgan ijtimoiy hodisadir. Estetik madaniyat shaxs, millat, jamiyatning o‘z-o‘zini anglashi ham demakdir. Chunki estetik madaniyatda ijtimoiy birliklarning ehtiyojlari va manfaatlari, o‘ziga xosliklari, jahon tarixida tutgan o‘rni, turli ijtimoiy tizimlarga bo‘lgan munosabati ham o‘z ifodasini topadi.

- 47. Estetik tarbiya** – ijtimoiy-manaviy jarayon va inson kamolotining muhim mezonlari. U bunyodkorlik va yaratuvchanlik ishlaridan zavqlanish, yangilik va innovatsiyaga qiziqish tuyg‘usini nafosat tamoyillari, go‘zallik talablari asosida rivojlantirishga o‘rgatuvchi manaviyatning aniq maqsadlarga yo‘naltirilgan faoliyatidir.
- 48. Estetika** – insonning voqelikka nafosatli munosabatini, xalq, millat, jamiyat badiiy tafakkurini hamda borliq, sanat va ijod jarayonlarining eng umumiy qonuniyatlari, tushunchalari, mezonlarini go‘zallik asosida anglash, o‘rganish va o‘zlashtirishga doir nazariy-amaliy faoliyat tizimidir.
- 49. Etiket** – takallufning mayda-chuyda jihatlarigacha ishlab chiqilgan odob qoidalari sifatida ijobiy, kishining ko‘zini quvontiradigan munosabat hodisasidir. Etiketning qamrovi keng, u malum manoda xalqaro miqyosda qabul qilingan muomala qonun-qoidalarini o‘z ichiga oladi. U ko‘proq insonning tashqi madaniyatini, o‘zaro munosabatlardagi o‘zni tutish qonun-qoidalarining bajarilishini boshqaradi. Muomala odobida inson o‘z munosabatlariga ijodiy yondoshsa, YAni bir holatda bir necha muomala qilish imkoniga ega bo‘lsa, etiket muayyan holat uchun faqat bir xil qoidalashtirib qo‘yilgan xatti-harakatni taqazo etadi.
- 50. Ezgulik va yovuzlik** – manaviy axloqiy tushunchalar orasidagi eng muhim juftliklaridir. E. insonni faoliyatning asl mohiyatini anglatadi – Tangri irodasining inson qalbidagi tajassumi sifatida namoyon bo‘ladi. «Ezgu o‘y, ezgu so‘z, ezgu amol» uchligi «Avesto» dan tortib barcha muqaddas kitoblarda etakchi o‘rinni egallashi ham shundan. E.insonga eng kuchli manaviy lazzat bag‘ishlaydigan, uni ijtimoiy Shaxsga aylantirib, haqiqiy baxtga olib boruvchi fazilat; Shaxsni komillikka, jamiyatni esa yuksak taraqqiyotga etkazuvchi yuksak qadriyat. U insonning axloqiy faoliyati tufayli muayyanlashadi, yuzaga chiqadi.

F

- 51. Fahm** – insonning aqliy qobiliyatini yuzaga chiqaruvchi estetik anglash tuzilmasidagi muhim tushuncha.
- 52. Falsafa** – (yunoncha «fileo» — sevaman va «sofia» —donolik)

donolikni sevaman. Tabiat, jamiyat, inson, uning tafakkurida amal qiluvchi eng umumiy qonunlarni o'rganuvchi fandır

- 53. Fan** – ilmiy bilimlar tizimidir. Fan o'zining ilmiy tushuncha uslublari va metodologiyasiga ega bo'lgan, olamni bilish va o'zlashtirishning maxsus usuli, ilmiy bilimlar tizimidir. Shuningdek, fan ijtimoiy ong shakllaridan biridir.
- 54. Faoliyat** – insonning o'zini o'rab turgan olamga faol munosabati shakli bo'lib, uning mazmunini maqsadga yo'naltirilgan o'zgartirish va qayta qurish bilan bog'liq xatti-harakatlar tashkil etadi.
- 55. Farosat** – insonning axloqiy qobiliyatni yuzaga chiqaruvchi estetik anglash tuzilmasining o'ziga xos talabi.
- 56. Fazo** – narsalarning bir-biridan uzoqligini, ularning ko'lamini, joylashish tartibini ifodalash uchun ishlatiladigan tushuncha. Shuningdek, fazo - narsalarning ko'lamini, hajmini, o'zaro joylashish tartibini, uzlukli yoki uzluksizligini ifodalovchi borliqning yashash usullaridan biridir. Fazo va vaqt tushunchalari, ko'p hollarda, forsiy til ta'sirida yozilgan adabiyotlarda makon va zamon deb ham ataladi. Bu tushunchalar fazo va vaqtning tashqi, nisbiy xususiyatlarinigina aks ettiradi, xolos. Fazo narsalar joylashadigan joy ma'nosida, vaqt esa hodisalar bo'lib o'tadigan muddat ma'nosida ishlatiladi.

- 57. Fenomenologiya** – «Sof ong» falsafaning predmetini tashkil etadi deb hisoblovchi falsafiy oqim.
- 58. Fojeaviylik** – shaxs orzu-istaklari, maqsadlari bilan jamiyat talablari hayot va o'lim orasidagi vujudga keladigan ziddiyat bo'lib, erkinlik va zaruriyat o'rtasidagi kurashga asoslangan ulug'vorlikning yuksak darajasidir.
- 59. Forig'lanish** – mohiyatan qo'rquv yoki achinish tufayli inson qalbini salbiy hissiyotlardan halos etuvchi estetik hodisa.

- 60. Futuvvat** – tasavvuf tariqatining bir bo'lagi

G

- 61. Gedonizm** – (grech. hendone — lazzatlanish) — qadimgi davr falsafiy tushunchalaridan biri sifatida ko'ngilocharlik, huzurlanish manolarini beradi. Qadimgi davr axloqshunos ligida gedonizm (huzurbaxshlik talimoti) hayotning manosini nafaqat jismoniy, balki ruhiy huzurbaxshlikdan ham iborat degan talimotni ilgari surar edi. Hozirgi davrga kelib esa bu tushuncha akasariyat holda o'zida xudbinlik, «nafs quliga aylanish», «boyluk, shuxrat ketidan quvish» kabi manolarini ham anglatmoqda.

- 62. Germenevtika** – qadimgi yunon afsonalaridagi xudolarning xohish va irodasini insoniyatga tushuntirib berish uchun yerga yuborilgan elchisi — Germes nomi bilan ataladi. Demak, germenevtika — tushunish, tushuntirish, tahlil etish g’oyalari asosiy diqqatini qaratadi.
- 63. Globalizatsiya** – deganda umumbashariy, umumsayyoraviy sivilizatsiyaning shakllanish tendensiyasi tushuniladi. Ushbu tendensiyaning asosini hozirgi zamon kishilik jamiyatini birlashtirib turgan iqtisodiy, siyosiy, madaniy va kommunikatsion aloqalar tashkil etadi. Aynan ana shu aloqalar umumsayyoraviy sivilizatsiyaga tizimlilik ato etmoqda.
- 64. Gnoseologiya** – bilish to’g’risidagi fan muammolari bilan shug’ullangan.
- 65. Go’zallik** – manaviy va moddiy xususiyatga ega bo’lgan, ijtimoiy-manaviy hayotda favqulodda ahamiyat kasb etuvchi tushuncha bo’lib, narsa-hodisalarning inson tafakkurida lazzatning uyg’unlik, meyor, hamohanglik, mutanosiblik, maqsadga muvofiqlik asosida namoyon bo’lishidir.
- 66. Gumanizm** – (lot.humanitas – insoniylik, insonparvarlik, inson haqida g’amxo’rlik) – insonni himoya qilishga, uning huquqlariga kafillik berishni maqsad qilib olgan talimot.
- H**
- 67. Halollik** – sof, pokiza bo’lishni talab qiladigan axloqiy meyordir. Dastavval u diniy tushuncha sifatida vujudga kelib, har bir musulmonning emak-ichmagi, jinsiy va iqtisodiy xatti-harakatlari sifatini belgilab beruvchi shariy meyor bo’lib amal qilgan. Insonni manaviy, axloqiy jihatdan bezaydigan ajoyib fazilatlardan biri - halol, pokiza yashash, birovlarning xaqiga zarracha bo’lsada hiyonat qilmaslikdan iboratdir.
- 68. Hasad** – o’zida yo’q bo’lgan narsaning boshqalarda bo’lishini istamaslik, o’zgalarning yutuqlari va muvaffaqiyatlarini ko’ra olmaslik. Hasad tuyg’usi mavjud bo’lgan odam boshqalarning yaxshi turmush kechirishidan, o’qishda, mehnat faoliyatida erishgan yutuqlaridan qiyin ahvolga tushadi. Hasad turli olamshumul dinlarda qoralanadi. Masalan xristian dinida hasad ettita gunohi kabiralardan biri hisoblanadi. Chunki bu dinda aytilishicha, hasad qilish xudo tomonidan o’rnatilgan tartibdan norozilikni bildiradi.
- 69. Hayo** – Shaxsning axloqiy o’zini-o’zi anglashi ko’rinishlaridan biri; hayo tuyg’usida insonning o’z xatti-harakatlarini, axloqiy sifatleri va motivlarini anglashi tushuniladi. Inson o’z xatti-harakatlarining axloqqa zid ekanligini mustaqil ravishda yoki bo’lsamasa atrofdagilarning qoralashi natijasida anglab etishi mumkin. Hayo vijdon b-n bevosita bog’liq bo’ladi. Vijdonsiz odamlarda hayo bo’lmaydi. SHu

b-n birga, hayoning vijdondan farq qiluvchi jihatlari ham mavjud. Hayo qo‘proq tashqi muhit b-n bog‘liq bo‘ladi. Hayo tuyg‘usi insonning o‘z xatti-harakatlarini boshqalar nuqati nazaridan baholashi b-n bog‘liq bo‘ladi. Hayo tuyg‘usi manaviyatli va manaviy yuksak insonlarga xos axloqiy fazilatdir.

- 70. Hukm** – predmetga ma’lum bir xossaning, munosabatning xosligi yoki xos emasligini ifodalovchi tafakkur shaklidir.
- 71. Hunuklik** – kishilarda noxushlik tuyg‘usini paydo qiluvchi, go‘zallik va nafosatdan zavqlanishning ziddi bo‘lgan narsa-hodisalarni inson ongida aks etishidir.
- I**
- 72. Idealizm** – olamning asosida ruh yoki g‘oyalar (ideyalar) yotadi, dunyo voqeligi va rivojida ideyalarni ustuvor deb ta’lim beradigan falsafiy yo‘nalish.
- 73. Ijobiy hislatlar** – Odob saqlash, rasm - odat bo‘lib qolgan odob qoidalaridan chetga chiqmaslik hamda etika va estetika talablarini bajo keltirishdir. Odoblilik samimiyatga asoslangan bo‘lib, insonning boshqalarni hijolat qiladigan, ranjitadigan yoki quvontiradigan narsalarning hammasini anglab olishini, boshqalarning ehtiyoj – talablarini va kechinmalarini tushuna bilishini shart qilib qo‘yadi. Farosatli kishi noqulay vaziyat sodir bo‘lishini oldini olishga intiladi. CHiroyli hatti – harakatlar qoidalarini yodlab olib, unga odatlanish mumkin, lekin odob qoidalarikishidan ko‘proq narsani talab qiladi. Odobga o‘rganish uchun inson o‘zini boshqa inson o‘rniga qo‘yib ko‘rishi kerak bo‘ladi. Farosatlilik jamiyatga, insonning o‘ziga yoki birovga xavf tug‘dirmaydigan hollarda boshqalarning ishiga aralashmaslikni talab qiladi.
- 74. Ijtimoiy faollik** – subektning jamiyat hayotida ongli holda mustaqil ishtirok etishi, uning malum ijtimoiy–manaviy sohada vujudga keladigan muammolarni hal etishga qaratilgan harakati.
- 75. Ijtimoiy fikr** – yuz berayotgan vaziyatlar, voqealar va xatti–harakatlarning jamiyat azolari tomonidan maqullanishi yoki maqullanmasligi: baholashdir.
- 76. Ijtimoiy muhit** – insonni o‘rab turgan va uning shakllanishi, yashashi va faoliyati yuz beradigan moddiy, manaviy va ijtimoiy shart-sharoit.
- 77. Ijtimoiy ong** – jamiyatning manaviy hayotini aks ettiruvchi, ijtimoiy guruh, sinf, xalq, millatning kundalik turmushi tasirida shakllanadigan g‘oyalar, nazariyalar, qarashlar, his-tuyg‘ular tizimini aks ettiruvchi falsafiy kategoriya.
- 78. Imkoniyat** – narsa va hodisalarning makon va zamondagi rivojlanish

tendentsiyasini ta'minlaydigan, muayyan qonuniyatlarga asoslanadi. Imkoniyat narsa va hodisalar rivojlanish jarayonining ichki birligini ifodalaydi va ularning rivojlanish shart-sharoitlarini, sabablarini, zaruriy qonuniyatlarini, mohiyatini o'zida mujassamlashtirgan.

- 79. Imperativ axloq** – (lot.imperativus -farmon) Kant etikasida axloqiy qonunni tavsiflovchi asosiy tushuncha. Kant falsafiy talimotida amaliy aqlni nazariy aqlga nisbatan ustun qo'yiladi. "Amaliy aql" deganda, keng manoda u etika, davlat va huquq nazariyasini, tarix falsafasi va dinni, antropologiyani; tor manoda esa, axloqiy xulq atvor tamoyillari va qoidalarini yaratuvchi aqlni tushunadi. Kant "Amaliy aql tanqidi" asarida inson yaxshilik va yomonlik haqida qalbining hissiy ishtiyoqi va intilishlariga asoslanib emas, aql zakovati yordamida xulosa chiqarish kerak, degan nazariyani o'rtaga tashlaydi.
- 80. In'ikos** – kamida ikkita ob'ektning o'zaro ta'siri natijasida yuz beruvchi jarayondir. Eng umumiy ma'noda, har qanday predmetlarning u bilan ta'sirlashuvda bo'lgan boshqa predmetlarning ta'sirini muayyan tarzda aks ettirishi bilan bog'liq xossasiga in'ikos deyiladi.
- 81. Inkor** – rad etish, qabul qilmaslik.
- 82. Integratsiya** – kirib borish, to'ldirish, o'zaro yaqinlashish
- J**
- 83. Jadidlar** – (arabcha «usuli jadid») yangi zamonaviy usulda ta'lim-tarbiya madaniy-ma'rifiy ishlarni isloh qilish tarafdorlari.
- 84. Jamiyat** – tabiatning bir qismi, ya'ni ijtimoiy borliq bo'lib, odamlar uyushmasining maxsus shakli, kishilar o'rtasida amal qiladigan juda ko'plab munosabatlar yig'indisi, degan turlicha ta'riflar ham bor. Jamiyat muttasil ravishda rivojlanuvchi, takomillashib boruvchi murakkab tizimdir. Har bir yangi davrda jamiyat mohiyatini bilish zarurati vujudga keladi. Milliy mustaqillik tufayli jamiyat mohiyatini yangicha idrok etish ehtiyoji paydo bo'ldi. Prezident Islom Karimovning qator asarlarida jamiyat mohiyatini yangicha tushunishning uslubiy asoslari yaratildi.
- K**
- 85. Kamtarlik** – avvalo o'z – o'ziga talabchanlik, o'z harakatlariga, ishiga, bilimiga tanqidiy qarash, o'ziga, kuch – quvvatiga ortiqcha baho bermaslikdir. Kamtarlik kishilarga bo'lgan munosabatda namoyon bo'ladi. Inson odobli bo'lsa, u kishilar bilan shunchalik sodda kamtarona muomala qiladi, o'z ishlariga va harakatlariga kamtarlik bilan baho beradi.

Boshqalarga nisbatan shirinsuhan bo‘ladi. Kamtar inson boshqalardan o‘zini ustun qo‘ymaydi, o‘ziga bino qo‘yib, soxta shuxrat ketidan quvmaydi, yutuqlardan esankiramaydi.

- 86. Kasb ahloqi** – jamiyat tomonidan qabul qilingan ahloq qoidalarini kishilarning ixtisoslariga nisbatan amalda tatbiq qiluvchi aniq kasbiy burch, shan, or-nomus, qadr-qimmat kabi xatti-harakatlarning majmui, umumiy axloqning kishilar kasb-koridagi o‘ziga xos ko‘rinishidir. Kasb axloqi - har bir kasb-hunarga xos axloqiy norma, prinsip va sifatlarni o‘rganadi va hayotga tatbiq etadi.
- 87. Kasbiy odob** – jamiyat tomonidan qabul qilingan ahloq qoidalarini kishilarning ixtisoslariga nisbatan amalda tatbiq qiluvchi aniq kasbiy burch, shan, or-nomus, qadr-qimmat kabi xatti-harakatlarning majmui, umumiy axloqning kishilar kasb-koridagi o‘ziga xos ko‘rinishidir. Odob (arab. adab so‘zining ko‘pligi) – jamiyatda etirof etilgan xulq normasi.
- 88. Kategoriya** – qadimgi yunon tilidan olingan bo‘lib: «izohlash», «tushuntirish», «ko‘rsatish», degan ma’nolarni anglatadi. Uning mazmunidagi bunday xilma-xillik qadimgi davrlardanoq ilmiy tadqiqot yo‘nalishiga aylangan.
- 89. Kategoriyalar sistemasi** – falsafiy tushunchalar tizimi
- 90. Kategoriyalarning ixchamligi** – falsafiy tushunchalarning harakatda, bir-biriga o‘tib turishi, narsalarning barcha tomonlari, ularning ziddiyatlarini aks etishining ifodasi.
- 91. Kategoriyalarning metodologik roli** – falsafiy tushunchalarning olamni anglashda, fan va inson amaliy faoliyatidagi ahamiyati.
- 92. Kibernetika** – texnika qurilmalarida boshqarish jarayonlari va sistemalarining umumiy belgilari haqidagi fan.
- 93. Kulgulilik** – faqat insonga xos xususiyat bo‘lib, insonning achinish, qayg‘urish, iztirob chekishini cheklovchi sof erkinlikni namoyon qiluvchi estetik hodisa.
- L**
- 94. Logos** – yunoncha — fikr, aql, so‘z.
- M**
- 95. Ma’naviyat** – jamiyat va alohida shaxsning ma’naviy olami, ruhiy holatining ma’no mazmunini ifodalovchi tushuncha.
- 96. Ma’rifatparvarlar** – ilm-fan, bilim, madaniyat, ta’lim-tarbiyani taraqqiy ettirishning tarafdorlari.
- 97. Madaniyat** – inson faoliyati tufayli yaratilgan moddiy va ma’naviy boyliklarning majmui
- 98. Mafkura** – (arabcha «mafkura») — nuqtai nazar, e’tiqodlar tizimi, majmui.

- 99. Mafkuraviy immunitet** – begona g'oya va qarashlarga yon bosmaslik
- 100. Mahalla** – (arab tilidan, manosi – jamoat, joy, makon, qyishnichilik) – O'рта Osiyo, xususan O'zbekiston quduvida X asrlardan boshlab mavjud b'lganligi to'g'risida tarixiy manbalar guvohlik beradi. Mahalla - bu jamiyatshunoslar tabiri b-n aytganda, tayyor andozaga ega b'lgan, «mahalliy boshqaruvda xalqchil demokratiya instituti» nomini olgan tashkilotdir. U o'zining asosiy vazifasi, «birdamlik», «jamoaviylik», «hamkorlik» asosida mahalliy aholini birlashtiruvchi, uyushtiruvchi tashkilot b'lganligi bois, hamma davrlarning boshqaruv organlari unga nisbatan alohida munosabatda bo'lib kelganlar.
- 101. Mahr** – (turk. teng huquqli nikoh tuzilgan paytda xotiniga ajratib beriladigan mulk) nikohning asosiy sharti, nikoh paytida kuyov tomonidan kelinga sovg'a qilinadigan, keyinchalik faqat xotinga tegishli bo'lgan mulk. Mahr faqat islomga xos, qalin tashqi tomondan mahrga o'xshasa ham, qadimdan qolgan urf-odatdir
- 102. Manaviy-axloqiy tarbiya** – yuksak manaviy-ahloqiy fazilatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan tarbiya jarayoni. Manaviyat – tarbiyaning eng tasirchan quroli va ayni paytda uning natijasi. Axloq – manaviyatning o'zagi. Axloq – bu avvalo, insof va adolat tuyg'usi, imon, halollik degani. Qadimgi ajdodlarimiz komil inson tarbiyasi haqida butun bir axloqiy talablar majmuasini, zamonaviy tilda aytsak, Sharqona axloq kodeksini ishlab chiqqanlar. M.a.t.da axloq b-n manaviyat mezonlariga asoslanib, insonda manaviyat hamda axloqni shakllantirish va rivojlantirish, takomillashtirish uchun tasirni kuchaytirishga etibor qilinadi.
- 103. Mantiq** – to'g'ri tafakkurlash qonun va shakllarini o'rganadigan fan.
- 104. Materializm** – moddiy narsa birlamchi deb hisoblovchi falsafiy yo'nalish.
- 105. Materiya** – tushunchasi moddiy unsurga nisbatan ham, atomga nisbatan ham, pramateriyaga nisbatan ham umumiyroq bo'lgan tushunchadir. Materiya olamdagi barcha moddiy ob'ektlarni, butun ob'ektiv reallikni ifoda etuvchi eng umumiy tushunchadir. Faylasuflar «Tom ma'nodagi materiya faqat fikrning maxsuli va abstraktsiyasidir» deb yozishadi. Faylasuflar barcha moddiy ob'ektlarga xos xususiyatlarni umumiy tarzda ifodalash uchun qo'llaydigan tushuncha materiya deb ataladi. Demak, materiya moddiy ob'ektlarga xos eng umumiy tushuncha, falsafiy kategoriyadir.
- 106. Mazmun** – narsa va hodisalarning rivojlanish jarayonidagi sistemani

- tashkil qilgan elementlarning strukturaviy bog'lanishi bo'lib, uni boshqa sistemalardan farqini belgilaydigan aloqadorliklar va munosabatlarini ifodalaydi.
- 107. Me'yor** – miqdor va sifat birligi
- 108. Mehnat estetikasi** – estetik faoliyat turi sifatida insonning ijtimoiy va individual ishlab chiqarish jarayonida go'zallikka nisbatan munosabatlarini ifodalaydi. Mehnat estetikasi jamiyat moddiy nematlarini ishlab chiqarish sharoitlari va uning natijalarini estetik o'zlashtirish jarayonini anglatadi. Zamonaviy sanat turlari – fan-texnika taraqqiyoti asosida vujudga kelgan sanat turlari. Ular o'zigacha mavjud bo'lgan sanat turlarining erishgan yutuqlari bilan bog'liqdir. Zamonaviy sanat turlariga misol tariqasida fotosanat va kinoni keltirish mumkin.
- 109. Mentallik** – muayyan ijtimoiy, tarixiy yoki etnik umumiyatga xos bo'lgan tafakkur va xulq stereotiplari.
- 110. Metafizika** – XVII asrda shakllanib narsa va hodisalarni bir-biridan ajratib harakatsiz, qotib qolgan holda tahlil etuvchi usul.
- 111. Metodologiya** – bilish va o'zgaruvchan faoliyat usullari to'g'risidagi ta'limot.
- 112. Millat** – yagona xudud, doimiy iqtisodiy aloqalar, til, madaniyat, xarakter (mentalitet) umumiyatigi ega bo'lgan kishilar birligining tarixiy shakli.
- 113. Millatparvarlik** – bu vatanparvarlik tamoyilining yanada muayyanlashgan shakli. Zero, millatni sevish keng manoda Vatanni sevish degani. Vatansiz millatning bo'lishi yoki rasmana erkin va baxtli yashashi mumkin emas. Asl millatparvar - milliy o'zligini anglab etgan inson. U o'z millati b-n faxrlanadi, o'z millati b-n butun jahonning faxrlanishini istaydi. Millatparvarlik tamoyili asosida milliy g'oya yotadi, u millatni sevish amaliyotining - millatparvarlikning ilmiy-nazariy asosi sifatida maydonga chiqadi.
- 114. Milliy g'oya** – millatning orzu umidlari, maqsadlarini ifodalovchi qarashlar, majmui
- 115. Milliy mafkura** – xalqning, millatning e'tiqodi
- 116. Miqdor** – narsalarning hajmi, o'lchovi, og'irligi, harakati va shu kabilarni ifodalovchi tushuncha.
- 117. Moddiy ishlab chiqarish** – insonning o'z hayoti uchun zarur sharoitlarni yaratish maqsadida tabiatga faol tasir ko'rasatish va uni o'zgartirish jarayoni.
- 118. Moddiy qadriyatlar** – tabiiy obektlar va predmetlarning, yani mehnat vositalari i bevosita foydalaniladigan ashyolarning qadriyaviy ahamiyati.
- 119. Modernizasiya** – jamiyatni zamonaviy talablarga muvofiq takomillashtirish

- maqsadida xilma-xil o'zgartirishlarni amalga oshirishdan iborat ijtimoiy-tarixiy jarayonni ifodolovchi tushuncha.
- 120. Monizm** – olamning asosi yakayu-yagona sababga, bitta asosga ega deb ta'lim beradigan falsafiy ta'limotdir.
- 121. Muhabbat va nafrat** – M. va N. ko'pgina manaviy axloqiy tushunchalar kabi juftlik xususiyatiga ega. M. insoniy mohiyatning erkin tarzda namoyon bo'lishi, zo'ravonlik yoki zo'rmaqzo'rakilik b-n chiqisha olmaydigan hodisa. U meyorlar, ananalar, qonunlarga bo'ysunmaydi, lekin yuksak axloqiylik ifodasi tarzida insonga ulkan masuliyat yuk laydi, uni jasoratga chorlaydi, u – insonni tashqi va transsendental olam b-n bog'laydigan, uni yolg'izlikdan olib chiqadigan buyuk manaviy kuch. M. ning obekti doimo go'zallik, manfaatsiz go'zallik. U – Allohmi, Vatanmi, yormi – M. Egasiga undanda go'zalroq narsa yo'q. Ayni paytda bir obektni sevgan kishi boshqa obektlarni ham sevishi tabiiy. Deylik, yorga bo'lgan haqiqiy M. Vatanga, insoniyatga M.ni inkor etmaydi, aksincha, barqaror qiladi. Zero, «o'zqo'zicha», «yakka», «xudbin» M.ning bo'lishi mumkin emas. Inson o'zi o'zgaga aylanganida, o'zgani o'ziga aylantira olganida haqiqiy M. Egasi hisoblanadi. Mana shu obekt b-n subekt orasidagi farqning «yo'qolishi» eng buyuk, eng mukammal manaviy lazzatdir.
- 122. Muomala qilishni bilish** – avvalambor suhbatni olib bora olish qobiliyatidir. Bu erda ham umumqabul qilingan qoidalar mavjud. Suhbatdoshingizni gapini bo'lmasdan uni eshitishni o'rganing. Zero suhbatdoshingizni hamdardlik, layoqatlilik, yaxshi niyatliligingizni ko'rsatib, diqqat va sabr-toqat bilan eshita olishning o'zi - bu istedod. Lekin bu istedod tug'ma emas – har bir inson uni o'zida hamda farzandlarida mujassam etib, tarbiya toptirishi mumkin. Suhbatdoshingizni tinglayotib iloji boricha uning ko'ziga qarashga harakat qiling. Suhbatdoshingizning gaplariga tasdiq sifatida yo boshingizni silkitib yohud so'zlar bilan suhbatga bo'lgan jonli qiziqishni ko'rsatishga harakat qiling.
- 123. Muomala madaniyati** – insonlar, xalqlar, millat va elatlar, qavmlar orasida o'zaro manaviy aloqa, salomlashuv, so'zlashuv, kelishuv va boshka insoniy munosabatlardir. Muxim aloqa vositasi- M.m. ikki yoki undan ortiq kishilarning o'zaro suhbatini, munosabatini ko'rsatuvchi omil. M.m. nafaqat kishilar orasidagi aloqa vositasi, balki shu b-n birga dunyoning, olamning manaviy instrumenti hamdir. Sizning qanday Shaxs ekaningizni, o'zaro muloqotda o'z ifodasini topadi.

- 124. Muruvvat** – insonparvarlik, biror kimsaga qilingan insoniy yordam, yaxshi lik, sahovat, lutf. Muruvvat sahovat b-n uyg'un sifat, insoniy axloqiy fazilat bo'lib, xalqimizga xos bo'lgan xususiyat, milliy qadriyatdir.
- N**
- 125. Nafosat** – real voqelik sifatida inson hayotining barcha sohalarini nurlantirib turuvchi qamrovli manaviy hodisa bo'lib, u obektiv voqelik sifatida narsa-hodisalarning estetik xususiyatlarni anglatuvchi hamda subektiv voqelik tarzida insonning estetik xususiyatlarni anglash va idrok etishdagi botiniy faoliyatidir.
- 126. Neo** – yangi; pozitiv - ijobiy degan ma'noni anglatadi. Nepozitivizm G'arbda XIX asrning 20 - yillarida paydo bo'lgan, asoschisi XIX asrda yashagan Ogyust Kontdir. Uning fikricha, falsafa aniq fanlar taraqqiyotisiz mavjud bo'la olmaydi. Falsafa — ob'ektiv reallikni emas, balki aniq fanlar qilayotgan ilmiy, ya'ni ijobiy (pozitiv) xulosalarni o'rganib, tahlil qilib ularni mantiqan bir tartibga, sistemaga solishi kerak.
- 127. Neokantchilik** – XIX asr o'rtalarida shakllangan va XX asr boshlarida rivojlangan edi. Uning vakillari I. Kant o'z davrida qo'ygan ilmiy bilishning umumiyliigi va zaruriyati haqidagi hamda tajribaviy aql haqidagi muammolarni tahlil etadilar. Bu ta'limotga ko'ra, inson dunyoga bir marta keladi, shuning uchun har bir insonning hayoti o'zi uchun eng oliy maqsaddir.
- 128. Neopozitivizm** – oqimining yirik namoyandalari Karnap, Ayer, Rassel, Vitgenshteyn va boshqalardir.
- 129. Neotomizm** – o'rta asr faylasufi Foma Akvinskiy ta'limotini targ'ib etuvchi yo'nalish.
- 130. Nikoh Shartnomasi** – oila mustahkamligi omilidir. Oila kodeksining 29-moddasiga binoan, nikoh shartnomasi-nikohlanuvchi SHaxslarning yoki Yer va xotinning nikohda bo'lgan davrda yoxud Yer va xotin nikohdan ajralgan taqdirda, ularning mulkiy huquq hamda majburiyatlarini belgilovchi kelishuvdir. Oila huquqiy asoslarining uzviy bir qismi nikoh shartnomasi, nikohning rasmiy qayd etilishi, unda ishtirok etayotgan yigit va qizning SHaxsiy hamda mulkiy huquqlarini yuzaga keltiradi.
- 131. Nominalizm** – umumiy tushunchalarni faqat ayrim narsalarning nomlari deb hisoblovchi o'rta asr falsafasining bir yo'nalishi.
- 132. Nomus** – mohiyatan shaxsning o'z qadr - qimmatini anglab etishi, shu qadr - qimmatning jamiyat tomonidan tan olinishi yoki olinmasligiga nisbatan bo'ladigan munosabatidir. Biroq, bu

- nomus qadr - qimmat tushunchasi bilan bir xil manoga ega, degani emas. Chunki qadr-qimmat shaxsdan o'zining boshqa odamlarga nisbatan kamsitilmasligini, atrofdagilardan barcha insonning teng huquqliligi tamoyilini o'ziga nisbatan qo'llashlarini talab qiladi. Nomus esa o'z qadr-qimmatini bilishdan tashqari, har bir Shaxsning jamiyatda alohida, o'ziga xos tarzda egallagan mavqei va shu mavqeni dog' tushirmay saqlash-saqlamasligi bilan bog'liq. Bu mavqe esa, shubhasiz, o'sha Shaxsning ijtimoiy hayotdagi o'rni, kasbi, yoshi va unga nisbatan beriladigan axloqiy daraja bilan muayyanlashadi.

O

- 133. Odoblilik** – Kundalik hayotdagi axloqiy qoidalariga rioya qilish – odob hisoblanadi. Odob axloqiy fazilatlar insonning kundalik faoliyatiga singib borayotganini ko'rsatuvchi mezondir. Odob – jamiyat qabul qilgan axloq normalarini inson faoliyatida, xatti – harakatida, muomala va muloqotida namoyon bo'lishidir. Muayyan odob doirasida bo'lish, yaxshi nom qoldirishga intilish insoniyat paydo bo'libdiki, mavjud. Insonning eng yaxshi fazilatlari nasl – nasabi, bilimi bilan emas, balki odobi bilan belgilanadi.
- 134. Ohang** – Suhbatning tavsifini belgilab berish uchun so'z boyligi va so'zning gramatik qurilishi hali etarli emas, bu erda gaplashish ohangi va intonatsiya muhim rol o'ynaydi. So'zlashish ohangi iroda va emotsional tasirni, hissiyotni aks ettiradi. So'zlashish ohangidan hatto kishining kayfiyatini bilish mumkin. Ohang malum darajada kishining xulqini ham aks ettiradi. Yani suhbatdoshimizning tarbiyasi yoki tarbiyasizligini ko'rsatadi. Yurish – turish vaziyatlari qanchalik ahamiyatga ega bo'lsa, so'zlashish ohangi ham shunchalik ahamiyatga ega. Bitta so'z yoki iboraning o'zi qanday qanday ohangda aytilganligiga qarab bizga har xil tasir etishi mumkin.
- 135. Oila** – jamiyatning negizi
- 136. Oila madaniyati** – jamiyatning muhim ijtimoiy instituti bo'lgan oilaning to'laqonli va mukammal faoliyat yuritishi uchun uning azolari (er va xotin, ota-ona va farzandlar) o'rtasida birgalikda hayot kechirish va zarur munosabatlar o'rnatish ko'nikmalarining majmuasi.
- 137. Oilada farzand tarbiyasi** – oila baxti, farzandlarning tarbiyasi etuk inson bo'lib etishidagi ota-onaning say harakati hisoblanadi.. Oiladagi farzand tarbiyasi uning kelajakda kim bo'lib etishishida muhim o'rin tutadi. Demak, bola oilada jamiyatning qiyofasini ko'radi, bo'lajak fuqaroning tabiati, dunyoqarashi

- va axloqiy qiyofasi oilada shakllanadi hamda shunga ko‘ra kamol topib boradi. Axloqiy tarbiyaning mohiyati kishini hayotga tayyorlashdan iborat.
- 138. Oilaning mustaxkamligi** – oiladagi tinchlik, xotirjamlik, bir- biriga bo‘lgan samimiy munosabat hisoblanadi. U oila azolarining axloqiy tarbiyasiga ham bog‘liq. Xalqimizda bejiz “Sog‘lom turmush tarzi mustaxkam oilaning garovidir” deb aytilmagan. Sog‘lom turmush tarzi deganda biz nafaqat oiladagi Yer va xotinning bir – biriga bo‘lgan munosabati balki, ulardagi axloqiy fazilatlar, imonlilik, poklik, halollik, rostgo‘ylik, shirinso‘zlik, kabi axloqiy meyorlarga amal qilgan xolda urf – odatlarga asoslangan, zamonaviy oiladagi iqlimni tushunamiz. Bunday iqlimda tarbiya topgan bola manaviy va axloqan etuk inson bo‘lib shakllanadi.
- 139. Oilaning psixologik muxiti** – bu oila azolarining oilaviy munosabatlarda, ijtimoiy muhit va kasbiy munosabatlaridagi ijtimoiy – psixologik faolligini umumiy ko‘rsatkichlari majmui hisoblanadi. Psixologik muxit – bu oilaning asosiy ko‘rsatkichi bo‘lib, ijtimoiy jarayonlarda, ayniqsa, oilaning ijtimoiy muhitdagi salbiy tasirlarga qarshi tura olish qobiliyatida aks etadi. Oilaning psixologik muxiti uning azolarini xayot faoliyati davomidagi o‘ta keskin xolatlarda ham, muammoli vaziyatlarni hal qilishda yuzaga keluvchi bosiqlikni tavsiflaydi.
- 140. Oilaviy ajrimlar** – har bir oila azolariga qattiq tasir qiladigan jarayon. Etikada oilaviy ajrimlarning uch turi ko‘rsatiladi. Birinchisi, nikohni bekor qilinishi bilan ajralish – bunda oilaviy mulk, va farzandlar tarbiyasi qonun asosida taqsimlanadi. Bunday sabab o‘zaro kelishmovchilik hamda tushunmovchilik, o‘zaro muhabbatning yo‘qligi natijasida paydo bo‘ladi. Ikkinchisi, tabiiy ajralish bo‘lib – oila azolarining biri falokat, yoki kassallik tufayli vafot etgan oila mulkining meros sifatida taqsimlanishiga sabab bo‘luvchi ajralishdir. Uchinchisi – axloqiy ajralish bo‘lib, bunda bolalar balog‘atga etib, oila qurilishlari – ota-onalar ular uchun oilaviy mulkdan uy-joy, turli maishiy jihozlar ajratib berishlari belgilanadi.
- 141. Olamning ilmiy manzarasi** – olam haqida nazariy bilimlar asosida hosil bo‘lgan qarashlar majmui.
- 142. Ommaviy madaniyat** – go‘zallik, ezgulik singari muqaddas tushunchalarni umumistemolchilik ehtiyoji bilan bog‘lovchi hamda istemol va tovar sifatida haridorgir bo‘lishiga qaratilgan har qanday g‘ayriestetik maqsadni amalga oshiruvchi madaniyat ko‘rinishi.

143. **Ong** – inson miyasining mahsuli, voqelik in'ikosining
144. **Ontologiya** – olam, inson va jamiyatning ob'ektiv-universal mohiyati to'g'risidagi falsafiy ta'limotdir. Boshqacha aytganda, u borliq to'g'risidagi, insonning olamga bo'lgan munosabati haqidagi falsafiy bilim sohasidir.
- P**
145. **Patristika** – so'zi «ota» («padre») so'zidan kelib chiqqan. Bu nom bilan odatda G'arbda yepiskoplarni ularga hurmat sifatida ataganlar. SHarqda mashhur bo'lgan cherkov otalaridan biri Ioan Zlatoust (347-407) edi. Uning 640ta da'vatlaridan ko'pchiligi avliyo Pavel nomalarining sharhi edi. Uning asarlarida injilni amaliy qo'llash sof axloqiy masalalar bilan qorishib ketgan.
146. **Pifagor** – (eramizdan avvalgi 580-500 yillar) YUnonistonning Samos orolida yashab o'tgan. u qadimgi Yunonistonda diniy-mafkuraviy falsafiy maktab, ya'ni pifagorchilikka asos solgan. Pifagor o'zining siyosiy qarashlari tufayli podsho Polikret bilan chiqisha olmagan va Samosni tark etib, janubiy Italiyaga ko'chib ketgan, o'sha yerda o'z uyushmasini tashkil etgan. Uningcha, dunyoni bilish jarayoni, avvalo, raqamlarni bilishdan boshlanishi kerak.
147. **Plyuralizm** – (lotin tilida plyural, ya'ni ko'plik degan ma'noni anglatadi) — olamning asosida ko'p narsa va ideyalar yotadi deb e'tirof etadigan ta'limotdir.
148. **Pozitivizm** – fan ijobiy bilimlar bilan shug'ullanish kerak degan g'oyani ilgari suradigan oqim.
149. **Pragmatizm** – haqiqatning qimmatini uning foydaligi bilan belgilanadi deb hisoblovchi ta'limot.
150. **Praksiologiya** – insonning predmetli-o'zgartiruvchan, amaliy faoliyati to'g'risidagi falsafiy ta'limot.
151. **Psixanaliz** – XX asr ruhiy tahlil falsafasi.
- Q**
152. **Qadriyat** – narsa va buyumlarning qimmatiga nisbatan qo'llanilmasdan, balki inson uchun biror ahamiyatga ega bo'lgan voqelikning shakllari, holatlari, narsalar, voqealar, hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblar va boshqalarning qadrini va ijtimoiy ahamiyatini ifodalash uchun ishlatiladigan falsafiy kategoriyadir.
153. **Qarama-qarshilik** – narsa, voqea-hodisalarning bir-birini taqozo etuvchi va shu bilan birga bir-birini inkor etuvchi tomonlari, kuchlarining o'zaro munosabatiga aytiladi. Qarama-qarshiliklar o'rtasidagi munosabatni ziddiyat degan tushuncha ifodalaydi. Ko'p hollarda ayniyat va tafovutning zidligi va ularning bir maxrajga kelishi, me'yoriy

o'zgarishlar tufayli rivojlanish, taraqqiyot, yangilanish jarayonlari amalga oshadi. Taraqqiyot shu ma'noda ayniyat, tafovut va ziddiyatlarning paydo bo'lishi, rivojlanishi va hal qilinishidan iborat bo'lgan abadiy va azaliy murakkab jarayondir.

- 154. Qonun** – dunyoning mavjudligi botiniy va zohiriy o'zgarishlarning abadiy takrorlanib turishini ifodaloydi. Takrorlanishlar esa o'z mohiyati va xususiyatlarini saqlab qolganliklaridan qonun va qonuniyat tusini olg'an. Qonun olamdagi narsa va hodisalarning muhim, zaruriy, umumiy va takrorlanib turuvchi bog'lanishlari, o'zaro aloqalari va munosabatlarining namoyon bo'lishidir.

R

- 155. Ratsionalizm** – aqliy bilish olamni bilishning yagona manbai deb hisoblovchi oqim.
- 156. Realizm** – umumiy tushunchalar aniq mavjudlikni tashkil etadi, narsalar ularning ifodalanish shaklidir, deb hisoblovchi yo'nalish.
- 157. Relyativizm** – inson bilimining nisbiyligi, shartliligi va sub'ektivligi haqidagi ta'limot.

S

- 158. Sabab va oqibat** – Narsa va hodisalarning ichki birligi, yaxlitligi va tarixiy-tadrijiy rivojlanish tamoyiliga ko'ra, ularning mazmuni va shakli o'zgarib turadi. O'z navbatida, har qanday sistemaning elementlari o'rtasidagi strukturaviy bog'lanish konkret mazmunga ega bo'lib, unga mos mazmunlarda o'z ifodasini topadi.
- 159. Sakrash** – miqdor o'zgarishlaridan sifat o'zgarishlariga o'tish jarayoni.
- 160. Samimiylik** – “boshqalar gapini tinglaydigan, hamfikr bo'la oladigan, xabardor” degan manoni anglatadi. Samimiylik – to'g'riligiga o'zi ishongan, bu haqda o'ziga va boshqalarga iqrar bo'la oladigan narsalarni qiladigan odamning manaviy ijobiy sifati. Samimiy – samimiyat b-n ish tutuvchi, muomala qiluvchi, sidqidillik b-n chin qalbdan qilingan, dildan chiqqan. Samimiyat – kishilarga qalban hayrixohlik, pokdillik, samimiylik, sidqidillik. S. insondagi eng yaxshi xislat, oliy insoniy fazilatlardan biri bo'lib, axloqning muhim meyorlaridan hisoblanadi.
- 161. Sanat** – voqelikni baddiy obrazlar orqali aks ettiruvchi manaviyatning yaxlitlikdan tashqarida mavjud bo'lmaydigan uzviy qismi.
- 162. Sevgi** – 1) emotsional jihatdan ijobiy bo'lgan munosabatning yuksak ko'rinishi bo'lib, bunda subekt o'z obektini

boshqalardan ajratib oladi va o'z hayotiy ehtiyojlarining diqqat markaziga qo'yadi; 2) subektning turg'un, intensiv va kuchaygan hissiyot bo'lib, bunda organizmning fiziologik jarayonlarida va xususan SHaxsning jinsiy maylida faollik kuzatiladi. S.da bir SHaxs boshqa insonning hayotida o'zligini butunlay namoyon qilish va bu orqali unda o'ziga nisbatan xuddi shunday hislarni uyg'otish niyatida bo'ladi. Bu hislar ham o'ziniki singari turg'un, intensiv va kuchaygan bo'lishini hohlaydi. S. hissi o'ta intim mazmunga ega bo'ladi.

- 163. Sifat** – narsalarning ichki muayyanligi bo'lib, boshqa narsalardan ajratib turadigan xossa, sifatining boshqa narsalar bilan aloqadorligida tashqi namoyon bo'lishi.
- 164. Sinergetika** – olamning o'z-o'zini tashkil etishi, makon va zamonda narsa va voqealarning azaliy ketma-ketligi, o'zaro aloqadorligi, ularning muayyan tizimlardan iborat sababiy bog'lanishlar asosida mavjudligini e'tirof etishga asoslangan ilmiy qarashlar majmuidir.
- 165. Sivilizasiya** – din, madaniyat, iqtisod, siyosat va bioijtimoiy tuzilma kabi o'zaro aloqador bo'lgan ko'plab elementlarni o'z ichga olgan murakkab, yaxlit ijtimoiy tizim.
- 166. Siyosiy tashkilot** – davlat, siyosiy partiyalar, jamoa tashkilotlarini ifodalovchi tushuncha
- 167. Skeptitsizm** – olamni bilish mumkinligiga shubha bilan qaraydigan ta'limot.
- 168. Sofistika** – soxta donolik usuli
- 169. Sofistlar** – maktabi yunon falsafasida katta o'ringa ega bo'lgan yo'nalishlardan biridir.. Sofistlar
- 170. Sog'lom turmush tarzi** – iborasining zaminida inson salomatligi qolaversa yoshlar kelajagi yotadi va bu jamiyat taraqqiyotining yuk salishida asosiy o'rin egallaydi. Sog'lom turmush tarzi inson hayot faoliyatini har tomonlama rivojlantirishda, SHaxsning ijtimoiy funksiyalarini to'laqonli bajarishda, uzoq umr ko'rishda, oilaviy, maishiy, mexnat, va boshqa ijtimoiy faoliyatlarini faol tarzda olib borishda muxum ahamiyat kasb etadi. Sog'lom turmush tarzi haqidagi qarashlar jamiyatdagi ijtimoiy munosabat va sharoitlarning o'zgarishi, inson organizmiga nisbatan ortib borayotgan ijtimoiy, ekologik, psixologik, siyosiy, xarbiy taxditlarning ortib borishi bilan dolzarb tus oldi.
- 171. Solipsizm** – faqat inson va uning ongi mavjuddir degan g'oyani ilgari suradigan oqim.
- 172. Sport** – jismoniy-estetik madadaniyatning tarkibiy qismi, vositasi va usuli, jismoniy mashqlarning turlari majmualari bo'yicha

musobaqalar tashkil etish, tayyorlash va oʻtkazish tizimi. Sportning maqsadi kishilarning sogʻligʻini mustahkamlash va umumiy jismoniy rivojlantirish bilan birga sport musobaqalarida yuqori natija va gʻalabalarga erishishdir.

- 173. Sport estetikasi** – (ingl. sport) sportning estetik xususiyatlari, tamoyillari va qonuniyatlarini oʻrganuvchi fan. Sport estetikasi sportning komponentlari, sportchilarning texnik va jismoniy tayyorgarligi, estetik madaniyati, mashgʻulotlar va harakatlardagi estetik mezonlarni aniqlab taxlil qilishning nazariy asoslarini xarakterlaydi. Sportchida estetik tuygʻuni shakllantirish, gʻalaba va magʻlubiyatni oqilona xis etish masalalari ham sport estetikasining tadqiqot obektiga kiradi.
- 174. Stsientizm** – yaʼni fan mavjud barcha ijtimoiy muammolarni hal etishi mumkinligini ilm-fan taraqqiyotining doimiy ijobiyligini asoslovchi falsafiy dunyoqarash. Stsientizm gʻoyalari, neopozitivizm, texnologik determinizm kabi taʼlimotlarning asosini tashkil etadi
- 175. Substantsiya** – moddiy asos, mohiyat. Harakat
- 176. Sunna** – hadislar majmui boʻlib, Qurʼondan keyin turadi va uni toʻldiradi. Unda Muhammad paygʻambarning soʻzlari, xatti-harakatlari naqllar va hadis sh aklida jamlangan.
- 177. Sxolastika** – soʻzi yunoncha «shkola»dan («shola») olingan boʻlib, «oʻqish joyi»,»maktab» maʼnolarini anglatadi. Buyuk Karl saroyida oʻqituvchilik qilganlarni, yoki umuman saroy maktabidagi oʻqituvchilarni sxolastlar deb ataganlar. Shuningdek, dinni oʻrganishda falsafani tatbiq qilgan oʻrta asr olimlarini ham sxolastlar deb ataganlar. Sxolastikani maʼlum darajada ilohiyotni aqlga moslashtirish, dinni tafakkur yordamida quvvatlashga boʻlgan intilish deb ham baholash mumkin.
- Sh**
- 178. Shaki** – sistemani tashkil qilgan elementlarning strukturaviy bogʻlanishlari, aloqadorliklari, munosabatlarining ifodalanishidir. Hozirgacha falsafiy adabiyotlarda mazmun va sh akl oʻrtasidagi bogʻlanishlarni bir-biridan ajratib tahlil qilish anʼanaviy xarakterga ega. Yaʼni, mazmunning oʻzgarishi sh aklning oʻzgarishiga olib keladi, degan xulosa ustuvor boʻlgan.
- 179. Shariat** – islom diniy huquq sistemasi. Shariat - Qurʼon va sunnadan keyingi muhim manba — shariatdir. Shariat (toʻgʻri yoʻl, ilohiy yoʻl demakdir) — islomda huquqiy, axloqiy meʼyor va amaliy talablar tizimidir. Islomdagi asosiy yoʻnalishlar — sunniylik, shialik va xorijiylik. Ular diniy taʼlimot, marosimchilik, axloqiy-huquqiy meʼyorlarga oid

- masalalarda o'zaro farqlanib turadi. Qur'on va hadislarda islomiy ta'limotning asosi bayon qilingan.
- 180. Sharqona axloq** – xulq-atvor, yurish-turish, tarbiya, xushaxloqlilik, boadablilik, ota-onaga, ustozlarga hurmat-ehtirom, xushmuomalalik, ochiq yuzlilik, vazminlik, kamtarlik, vadaga vafodorlik, to'g'riso'zlik va h.k.
- 181. Shaxsning axloqiy madaniyati** – individ tomonidan axloqiy ong orkali jamiyat madaniyatini idrok etish darajasi; axloq talablari inson xatti-harakatlari jamiyatning shakllantiruvchi tasiri ostida qay darajada chuqur va uyg'un ekanligi ko'rsatkichidir. Turli omillar tasiri ostida: hayotiy tajriba va tarbiya; bilim va sanat SHaxs jamiyatning axloqiy madaniyati yutuqlarini turli darajada o'z ongi va xatti-harakatlarida jamlaydi. SH.a.m. murakkab dastur bo'lib, o'z ichiga insoniyatning shunday tajribasini oladiki, unga ko'ra inson ananaviy vaziyatlarda axloqan ish yuritadi, hamda ongning ijodiy elementlarini –axloqiy aql, intuitsiyani ham o'z ichiga oladi va ular yordamida muammoli vaziyatlarda ahloqiy qarorlar qabul qila oladi.
- T**
- 182. Tafakkur shakllari** – fikrning mazmunini tashkil etuvchi elementlarning bog'lanish usuli, uning strukturasi (tuzilishi)dir. Tushuncha, hukm(mulohaza), xulosa chiqarish - tafakkur shakllaridir.
- 183. Takabbur(lik).** – o'zini katta oladigan, kibr-havoli. Takabburlik – 1. Takabbur bo'lish. 2. Takabbur odamlarga xos xatti-harakat. T.lik – salbiy axloqiy sifat bo'lib, boshqalarga kibr-havolik b-n munosabatda bo'lish, ularning tajribasi va manaviy boyliklarni mensimaslik, o'zining jamiyatda tutgan o'rnidan, millatidan mag'rurlanishni anglatadi. T.lik – manmanlikning bir ko'rinishi bo'lib, kishining o'zini yaxshi ko'rish va imkoniyatlariga ortiqcha ishonishi asosida boshqalarga behurmatlikda bo'lishini ifodalovchi salbiy axloqiy sifat. T.lik – illat. T.lik kamtarlik va odamlarga hurmat sifatlariga ziddir. T.lik kibr, manmanlik, mag'rurlik, maqtanchoqlik, kekkayish, kaltabinlik, jamoadan o'zini yuqori qo'yish, boshqalardan ustunligini namoyon etish kabi illatlar yig'indisidan iborat.
- 184. Tamoyil** – yo'nalish, tendentsiya, moyillik.
- 185. Taraqqiyotning o'zbek modeli** – jamiyatning tadrijiy rivojlanish kontseptsiyasi sifatida. Ijtimoiy rivojlanishning o'zbek modeli insoniyatning rivojlanish borasidagi ilg'or tajribasiga, milliy davlatchilik tajribalarimizga va xalqimiz mentalitetiga tayanadi.
- 186. Tarbiya** – avlodlararo ijtimoiy-tarixiy hayotiy tajribani uzatishga xizmat qiladigan ijtimoiy funktsiya; 2) ijtimoiy institutlar (oila, tarbiya va talim muassasalari, madaniyat muassasalari,

ijtimoiy, siyosiy va boshqa tashkilotlar, siyosiy partiyalar, diniy muassasalar, davlat tuzilmalari, ommaviy axborot vositalari va boshqalar) tasiri ostida inson subektiv — shaxsiy va manaviy dunyosini shakllantirish, qaror toptirish, boyitish va takomillashtirishning aniq maqsadli yo‘naltirilgan, tizimlashtirilgan va ongli jarayoni.

- 187. Tariqat** – sufiylik yo‘li, tarmog‘i, bosqichlari.
- 188. Tasavvuf** – islomdagi diniy falsafiy oqim. Tasavvuf -oqim va diniy ma‘naviy hodisa sifatida islom dini doirasida (ko‘pgina ichki sabablar va ba‘zi tashqi unsurlar — buddaviylik va hindiylikning ilk diniy tasavvurlari, sharqiy xristian tarkidunyochiligi, neoplotonizm kabilarning ta‘siri ostida) paydo bo‘ldi.
- 189. Tasavvuf uchun vahdoniyat** – Olohning birligi, Oloh va olamning porlab turishi, fano bo‘lish, orif shaxsining tangri taolo bilan ruhan birlashib ketishi kabi mushohadalar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu oqim namoyandalari va tarafdorlarini so‘fiylar, deb ataganlar va «so‘fizm» atamasi shundan paydo bo‘lgan. Ilk so‘fiylar aholining kambag‘al toifasi orasida shakllangan. Ularning qarashlari istilochilar zulmi, adolatsizlik, ijtimoiy tengsizlikka qarshi norozilik belgisi sifatida ham yuzaga kelgan.
- 190. Tasodif** – zaruriyatning namoyon bo‘lish shaklidir.
- 191. Texnika estetikasi** – XX-asrning ikkinchi yarmidan boshlab alohida fan sifatida ajralib chiqdi. Texnika taraqqiyoti va insoniy ehtiyoj texnika estetikasini fan sifatida taraqqiy etishiga olib keldi. Texnika estetikasi o‘z oldiga narsa va buyumlar muhitini uyg‘unlashtirish, ishlab chiqarish samarasini oshirish uchun mehnat jarayonini estetik tashkil etishni maqsad qilib qo‘yadi.
- 192. Tolerantlik** – o‘zgalarning dunyoqarashi, e‘tiqodi, milliy va etnik xususiyatlari, urf-odatlarini, anana-marosimlarini hurmat qilish; ularni kamsitish, tahqirlashga yo‘l qo‘ymaslik.
- 193. Transplantatsiya** – odam va xayvonlarda potologik jarayon natijasida shikastlangan yoki olib tashlangan to‘qimalar va organlar o‘rniga sog‘lomini ko‘chirib o‘tkazish. Xirurgiya usuli sifatida qadimdan malum. Teri, muskul, nervlar, ko‘zning muguz pardasi, yog‘, va suyak to‘qimasi, yurak, buyrak va boshqa organlar ko‘chirib o‘tkazilishiga aytiladi.
- 194. Tushuncha** – predmetning eng muhim xususiyatni aks ettiruvchi tafakkur shakli.
- U**
- 195. Ulug‘vorlik** – inson manaviy faoliyati, tabiat hodisalari, jamiyat ijtimoiy munosabatlarning estetik va axloqiy mezonlar asosida

- namoyon boʻladigan tushuncha.
- 196. Umumbashariy muammolar** – jahondagi barcha mamlakatlarga taalluqli muammolar
- 197. Urugʻ, qabila, elat, millat** – jamiyat etnik birliklarining shakllari
- 198. Usul** – oʻrganilayotgan obʻektning tadqiq etish yoʻllari
- 199. Utilitarizm** – foydalikni aql-odob mezonini deb hisoblaydigan yoʻnalish.
- V**
- 200. Vaqt** – borliqning mavjudlik shakllaridan biridir. Vaqt hodisalarning ketma-ketligi, jarayonlarning davomiyligini, rivojlanishini ifodalaydigan atama.
- 201. Vatanparvarlik** – bir ijtimoiy guruhga mansub boʻlgan insonlarning oʻz tarixini, tili, madaniyati, urf – odatlarini, milliy obroʻsi, qadr – qimmatini bilish, hurmat qilishi, ularga tayanishi, boshqa xalqlarning ham obroʻ – etiborini, manfaatlarini hurmat qila bilishini ifodalovchi manaviy fazilatdir. V. insonning oʻz Vataniga muhabbatini, uni asrab-avaylashga boʻlgan ishtiyoqini anglatuvchi axloqiy tushuncha.
- 202. Veda** – qadimgi hind yozma yodgorligi. Vedalar eramizdan bir yarim ming yil oldin yozilgan boʻlib, mutaassib dindor hindu uchun oliy muqaddas ilm va bashorat kitobidir. Hindular «Veda»ni oliy tangri Braxma tomonidan aytilgan soʻzlar deb biladi. «Veda»da hindularning qadimgi tarixi, iqtisodiyoti, dini, falsafasi, axloq va nafosatiga oid fikrlari aks etgan. «Veda»lar bizgacha toʻrtta toʻplam (samxitalar) shaklida yetib kelgan. Bular — «Rigveda», «Samaveda», «Yajurveda», «Adharvaveda»dir.
- 203. Verifikatsiya** – hissiy maʼlumotlar asosida sinab koʻrish, kuzatish
- 204. Vijdon** – manaviyatdagi tasir doirasi nihoyatda keng tushunchalardan biri. V. – Z. Froyd tabiri b-n aytganda, alo men, men ustidan nazorat oʻrnatib, uni boshqarib turuvchi ikkinchi bir, YUqori darajadagi men. Agar uyat hissi insonning tashqi, jamiyatga bogʻliqligidan kelib chiqsa, V. uning ichki oʻz-oʻziga bogʻliqligini namoyon etadi. Bu ichki bogʻliqlik tashqi bogʻliqlikka nisbatan teran va doimiydir: uyat malum bir vaqt ichida odamning oʻz nojoʻya harakati tufayli yuzaga kelgan oʻngʻaysizligi boʻlsa, V. azobi, bu oddiy oʻngʻaysizlik emas, balki qalbdagi, odamdagi odamiylikka eʼtiqodning faryodi, talabi; uni qondirmas ekansiz, hech qachon azob toʻxtamaydi.
- 205. Volyuntarizm** – iroda borliqning eng oliy koʻrinishi deb qarovchi falsafiy oqim. Iroda volyuntarizmda tarixiy jarayonlarning obektiv qonuniyatlariga rioya qilmasdan, jamoatchilik bilan hisoblashmasdan oʻzboshimchalik bilan oʻz hohish–

- irodasini hamma narsadan ustun qo‘yadi.
- 206. Voqelik** – qonuniyatlarga asoslangan rivojlanishning namoyon bo‘lishidir. Imkoniyat va voqelik kategoriyasini ham, bilishning umumiy mantiqiy tamoyillariga ko‘ra, boshqa kategoriyalar bilan bog‘liqlikda tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.
- 207. Vorislik** – o‘tmish bilan bugungi kun o‘rtasidagi bog‘liqlik, davomiylik, uzluksizlik.
- 208. Vrachlik odobi** – vrach manaviyati va xulq-atvor meyorlarining majmui. v.o. umumiy odobning tarkibiy qismi hisoblanadi, bunda vrachning faoliyati xususiyatlariga muvofiq holda xulq-atvori va ijtimoiy o‘ziga xosliklari o‘rganiladi. U vrachlikning manaviy-axloqiy masalalarini qamrab oladi, uning xulq-atvori, manaviyati, kasbiy burchini his etishi, nomusi, vijdoni va qadr-qimmati meyorlarini, bemorlar, ularning qarindosh-urug‘lari, o‘z hamkasblari, jamoasi va umu-man jamiyat bilan o‘zaro munosabati masalalarini o‘z ichiga oladi. V.o. tamoyillari ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, sog‘liqni saqlash va jamiyatning unga bo‘lgan munosabati holati, tibbiyot fanining rivojlanish darajasi bilan bog‘liq.

X

- 209. Xalq** – avvalo kelib chiqishi, tili, madaniyati va yashash xududi umumiyatiga ega bo‘lgan kishilar birligining tarixiy shakli.
- 210. Xaqiqat** – kishilarning tasavvur, tushunchalarining ob‘ektiv olamga mos kelishi.
- 211. Xarakter** – borliqning atributlari ichida uning asosiy mavjudlik usulini ifoda etuvchi xususiyatidir. Harakat — narsa va hodisalarning har qanday o‘zgarishlarini ifodalovchi tushunchadir. Chunki borliq harakatsiz o‘zining strukturaviy yaxlitligini saqlay olmaydi.
- 212. Xavfsizlik** – biror davlatga yoki kimsaga xavf tug‘dirmaslik, osoyishtalik holati

Y

- 213. Yaxshilik va yomonlik** – asosiy manaviy axloqiy juft tushunchalardan. U yaqin yaqingacha e. va yo. ning sinonimi tarzida qo‘llanib kelinar edi, aslida ular asos etibori b-n birqbiridan farq qiladi. e. va yo. o‘zini Cheksiz likda, ya. va yo. o‘zini chegaralanganlikda ifoda etadi. E. ijtimoiylik xususiyatiga ega, ya. Esa asosan Shaxsning odobiga, xulqiga bog‘liq bo‘lgan ijobiy hodisa; unda mardlik, ochiqko‘ngillilik, halollik singari axloqiy meyorlar tajassum topadi. Biroq unga asos bo‘lgan amaliy xattiqharakatlar qahramonlik, jasorat, vatanparvarlik kabi axloqiy tamoyillar darajasiga ko‘tarila olmaydi.

Z

- 214. Zaruriyat** – narsa va hodisalarning vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanishini ta'minlaydigan shart-sharoitlar, munosabatlar majmuasidir.
- 215. Ziddiyat** – qarama-qarshiliklar o'rtasidagi munosabatlar
- 216. Zino** – buzuqlik, fahsh. SHariy nikohda bo'lmagan erkak va ayolning jinsiy aloqada bo'lishi, islomda katta gunoh sanaladi. Zinokor odam jamiyat axloqini buzadigan odam qaralgan va tegishli jazo belgilangan. SHariatda zino haqida hukm chiqarish uchun shu ish b-n shug'ullangan har ikki tomonning iqoro bo'lishi talab qilingan. Tuhmat va yolg'on guvohlikka qarab hukm chiqarilmagan

ASOSIY VA QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT

MANBALARI

Nazariy-metodologik

- 1.Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.-T.: O'zbekiston, 2016.
- 2.Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz.-T.:O'zbekiston, 2017.
- 3.Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.-T.: O'zbekiston, 2017.
- 4.Mirziyoev Sh.M. BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2017 yil 20 sentyabr.
- 5.Karimov I.A. Asarlar to'plami. 1-24 jildlar.-Toshkent: O'zbekiston, 1996-2016.
- 6.Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.- Toshkent: Ma'naviyat, 2008.

Asosiy adabiyotlar

- 1.Abdulla Sher. Estetika.Darslik. -Toshkent: O'zbekiston, 2016.
- 2.Abdulla Sher.Axloqshunoslik.Darslik. - Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010
- 3.Osnovi filosofii. Uchebnik. Izdanie 2-e, pererabotannoe, dopoln. /Pod.red. M.A.Axmedovoy, B.C.Xana B.C.Хана. – T.: Mehnat. 2004.
- 4.Po'latova D, Izzetova E. Filosofiya. - T.: Sharqshunoslik, 2012. 340-b
- 5.Saifnazarov I i dr. Filosofiya.- T.: 2002.
- 6.Tulenov J., Tulenova G., Tulenov K. Falsafa. Darslik. – T.:Fan texnologiyalar, 2016.
- 7.Falsafa /M.Axmedovaning taxriri ostida. - Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006. - 496 b.
8. Falsafa. (O'quv qo'llanma) /E.Yusupovning taxriri ostida ostida. - T.:Sharq, 1999.-496 b.
- 9.Husanov B., G'ulomov B. Myomala madaniyati. Darslik. – T.: Iqtisod-moliya, 2010.

10. Sharipov M., Fayzixujaeva D. Mantiq.. - T.: Universitet, 2007.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. I-Jild. -T.: Xalq merosi, 1992.
2. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. - Toshkent: Xalq merosi, 1993. - 224 b.
3. Abu Nasr Forobiy. Istoriko-filosofskie traktati. Dialektika.- Alma-Ata: "Nauka", 1985.
4. Abu Rayxon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. T II. - T.:Fan,1968.
5. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar.- T., 1991.
6. Alisher Navoiy. Majolis un-nafois.- T., 1996.
7. Allayarova S. Badiiy ijod germeneytikasi – T.: Universitet, 2011
8. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: O'qituvchi, 1992.
9. Beruniy, Abu Rayhon. Tanlangan asarlari: T.1. Qadimgi halqlardan qolgan yodgorliklar. - T.: Fan, 1968.
10. Bobur Zaxiriddin Muhammad. Boburnoma.- T., 1996.
11. Buyuk siymolar, allomalar.I-II-Jild.- T., 1995.
12. Chanishev A. Filofofiya drevnego mira. - M.: Visshaya shkola, 2001. - 374 s.
13. Choriev A. Inson falsafasi. -Toshkent.: O'FMJ, 2006.
14. Falsafa. Mamashokirov S. Tahriri ostida.-T.:Sharq, 2005.
15. G'arb falsafasi. - Toshkent: Sharq, 2004. - 720 b.
16. Gunnar Skirbekk, Nils Gile Falsafa tarixi. - Toshkent: Sharq, 2002. - 720 b.
17. Istoriya kitayskoy filosofii. - M.: Progress,1989. - 552 s.
18. Karimov I. Falsafadan va'z matnlari. - Toshkent: Kamalak, 1995. - 351 b.
19. Madaeva Sh. Milliy mentalitet va demokratik tafakkur.-T.:Falsafa va huquq, 2007.
20. Mahmudov T. Avesto haqida. - T.: Sharq, 2000. - 178 b.
21. Mo'minov I. O'zbekistondagi tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy tafakkur tarixidan lavhalar. - Toshkent: Fan, 1999. - 256 b.
22. Mo'minov I.M. Amir Temirning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli. –

T.: Fan, 1993.

23. Mo'minov I.M. O'zbekiston ijtimoiy-falsafiy tafakkur tarixidan. – T.: Fan, 1994.
24. Muhammadjonova L. Amaliy etika. Uslubiy qvllanma – T.: Universitet.WzMU, 2014.
25. Muhammadjonova L.A. Abidjanova F.A. Etiket. o'quv qo'llanma –T., Universitet. 2017.
26. Nurmatova M. Shaxs kamolotida axloqiy va estetik qadriyatlar uyg'unligi. / Monografiya. – T.: Universitet, 2009.
27. O'zbekiston : dinlararo hamjixatlik – tinchlik garovi.-T.:2005.
28. Otamurodav S. Globallashuv va millat. - T.: Yangi asr avlodi. 2008.
29. Qahhorova Sh. Global ma'naviyat-globallashuvning g'oyaviy asosi.T.:Tafakkur, 2009. -670 b.
30. Qirg'izboev M. Fuqarolik jamiyati: siyosiy partiyalar, mafkuralar, madaniyatlar. - Toshkent: Sharq, 1998. - 160 b.
31. Shermuxamedova N.A. Falsafaga kirish. -T.: Noshir, 2013.-460 bet
32. Shermuxamedova N.A. Falsafa.-T.: Noshir, 2012. -1007 bet
33. Shermuxamedova N.A. Gnoseologiya-bilish nazariyasi.-T.: Noshir, 2009.
34. Temur Tuzuklari. - Toshkent: Xalq merosi, 1991. - 144 b.
35. Tulenov J. Qadriyatlar falsafasi.-T.:”O'zbekiston”, 1997
36. Tulenov J. Falsafiy madaniyat va ma'naviy kamolot.–T.: “Mehnat”, 2000.
37. Tulenov J., G'ofurov 3., Qodirov B. Ma'naviy yuksalish sari.-T.: “Mehnat”, 2000.
38. Tulenov J., Qodirov B., G'ofurov Z. Ma'naviy yuksalish sari. - Toshkent: Mehnat, 2000. - 192 b.
39. Ulug'bek Mirzo. To'rt ulus tarixi. -T., 1994.
40. Umarov E. Estetika. T., 1995.
41. Xayitov Sh., Xayitova K., Ziyautdinova X. Falsafa asoslari. Albom sxema. - T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2009.
42. Xayrullaev M. Mirovozzrenie Farabi i yego znachenie v istorii filosofii. -

Toshkent: Fan, 1967. - 356 b.

43. Xayrullaev M. Uyg'onish davri va Sharq mutafakkirlari.-T.: "O'zbekiston", 1991.
44. Xayrullaev M., Xaqberdiev M. Mantiq. -T.: O'qituvchi, 1993.
45. Yo'ldoshev S, Usmonov M, Karimov R. Qadimgi va O'rta asr G'arbiy yevropa falsafasi.-T.: 2003.

Lug'atlar

- 1.Fayzixo'jaeva Mantiq.Izohli lug'at –T.Tamaddun, 2015.
- 2.Falsafa: qisqacha izohli lug'at. – Toshkent: Sharq, 2004. - 384 b.
- 3.Falsafa: qomusiy lug'at. - Toshkent: Sharq, 2004. - 496 b.
- 4.Eстетika. Slovar. M., 1989.

Internet saytlari

1. www.gov.uz
2. www.lex.uz
3. www.Ziyo net.uz
4. www faylasuf.uz
5. www.intuit.ru
6. www // library tuit.